**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**NAVOIY VILOYAT HOKIMLIGI**
**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# “IQTIDORLI YOSHLAR – INTELLEKTUAL, IJODIY ELITANI YARATISHNING KAFOLATI: AKADEMIK MOBILLIK VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

**mavzusidagi**
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**
**MATERIALLARI**





**26-aprel, 2024-yil**
**Navoiy shahri**

“Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati: akademik mobillik va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi talabalarning Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Navoiy, 2024. – 548 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘iga asosan Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarningilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi 2024-yil 26-aprel kuni o‘tkazilgan “Iqtidorli yoshlar - intellektual, ijodiy elitani yaratishning kafolati: akademik mobillik va  xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi talabalarning Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan mutaxassislar, yosh olimlar, pedagoglar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalar foydalanishlari mumkin.

**Mas’ul muharrirlar:**

| | |
|---|---|
| B.Sobirov – | Texnika fanlari doktori, professor. |
| D.Narzuqulova– | Pedagogika fanlari doktori DSc, professor |

**Taqrizchilar:**

| | |
|---|---|
| T. Nurmurodov | Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori. |
| Sh.Toshturov – | Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti v/b., Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD |

**Maqolalarni to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

| | |
|---|---|
| A.Xoshimov – | Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkiletish bo‘limi boshlig‘i |
| F.Sayfullayeva – | Navoiy davlat pedagogika instituti iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi muhandisi |

**Texnik muharrir:**

| | |
|---|---|
| M.Norqobilov – | Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti v/b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |

Ma’ruzalarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar ma’suldirlar.

*© Navoiy davlat pedagogika instituti, 2024.*

# O‘ZBEK XALQ QOSHIQLARIDA RAMZIY TIMSOLLAR TALQINIGA DOIR

**Navoiy Davlat Pedagogika instituti**
**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti I kurs**
**magistranti: Abduraxmonova Dilshoda**
**Ilmiy rahbar: dotsent N.Tursunova**

**Annotatsiya:** Maqolada ramzlarning qo‘llanilishi, xalq og‘zaki ijodi namunalarida ro‘mol ramzining tasnifi o‘rganib chiqildi. Tadqiqot davomida milliy qadriyatlarimizning bir bo‘lagi bo‘lgan ro‘mol ramzi aks etuvchi qo‘shiqlar, urf-odatlarni tahlil qilishga, alohida to‘xtalib o‘tishga qaror qildik.
**Kalit so‘zlar**: ramz, ro‘mol, xalq qo‘shiqlari, milliy an‘analar, urf-odatlar, ayol, “lachak”, marosim.
**Annotation:** The use of symbols and the classification of the headscarf symbol in the examples of folk art were studied in the article. During the research, we decided to analyze the songs and traditions that reflect the symbol of the headscarf, which is a part of our national values.
**Key words:** symbol, headscarf, folk songs, national traditions, customs, woman, “lachak”, ceremony.
**Аннотация**: В статье исследовано использование символов и классификация символа платка в примерах народного творчества. В ходе исследования мы решили проанализировать песни и традиции, отражающие символ платка, который является частью наших национальных ценностей.
**Ключевые слова**: символ, платок, народные костюмы, национальные традиции, обычаи, женщина, “лачак”, обряд.

O‘zbek xalq ijodiyoti bitmas-tuganmas ummondirki, qo‘shiqlar undagi sarchashma buloqlardan biridir. Qo‘shiqlar xalqimizga har qanday davrda: og‘ir yuklarni ko‘tarib o‘tishda ham, dorilomon kunlarga yetishda ham, doimo hamroh bo‘lib keladi. Xalq qo‘shiqlari – qudratli tarbiya manbai. Ularda xalq turmushining barcha sohalariga oid pand-nasihat, sevgi-sadoqat o‘gitlarini topasiz. O‘zbek xalqi juda qadimdan behisob qo‘shiq xazinasiga ega.Bu qo‘shiqlarni ko‘hna zamonlardan to hozirgi kunlargacha ardoqlab , saqlab, sayqal berib aytib kelmoqdalar.

Tarixiy asoslari qadimiy bo‘lgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari ruhiy ma’naviy quvvat baxsh etuvchi o‘ziga xos qadriyatlar tizimi bo‘lib, har bir kishi uchun iftixor tuyg‘usining shakllanishida asosiy rol o‘ynagan. Xalq qo‘shiqlarining janriy tarkibi o‘ziga xos kompozitsion xususiyatlari, semantik uslubiyat xarakteri, so‘z magiyasi bilan bog‘liq qadimiy etiqodlar talqinining ifodasi, milliy ruh va milliy koloritning, yaqqol ko‘zga tashlanib turishi, xalqona ohanglarning yetakchilik qilishi bilan alohida ajralib turadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida bo‘lgani kabi xalq sherlarida ham fikrni she’riy talqin qilish, ya’ni estetik idrok etilgan voqelik haqidagi taassurotlarni poetik so‘z vositasida bayon qilishdagi ijodiy o‘ziga xoslik, badihagoylik saqlangan. O‘ta milliy, tarixiy badiiy-estetik hodisa sanaluvchi qo‘shiqlar millatning poetik xotirasi, bilimlari nomusi, tuganmas ma’naviy boyligi sifatida juda qadim zamonlardan hozirgacha yaratilib, kuylanib kelmoqda. Xalq she’riyatining qadimiy, ommaviy, an’anaviy turi sanaluvchi qo‘shiqlar insonga, insoniyatga doimiy hamroh bo‘lib, unga ma’naviy turmushda ko‘makchi, xilma-xil marosimlarning betakrorligini taminlovchi badiiy qismi vazifasini o‘tab kelmoqda. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘zgacha bir sehr, kishi dilini zavq-shavqqa to‘ldiruvchi yoxud nozik dil torlarini nolalashtiruvchi bir mayin joziba bor. Zero, bu yorug‘ olamning o‘zi ham qo‘shiq-kuy bilan tebranadi, go‘yo hozirgina dunyoga kelgan chaqaloq onaning yoqimli allasi og‘ushida orom oladi. Keksalarimiz go‘dakning qulog‘iga bo‘lib aytishadigan azon ham qiroat bilan ohang bo‘lib qo‘yiladi. Yangigina kelinchak ham o‘zga xonadon ostonasiga yor-yor qo‘shiqlari ostida qadam qo‘yadi. Inson qazosi yetib bu yorug‘ dunyoni tark etar ekan, marosim qo‘shiqlari aytiladi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarida turli mavzudagi qo‘shiqlarni uchratishimiz mumkin: vatan, muhabbat, mehnat, gul, taqinchoqlar: uzuk, marjon, zirak kabilar. Shuningdek, mevalar timsolida ham ishqiy muhabbat ramziy iodalar bilan kuylanadi. Masalan, olma, anor, gilos kabi mevalar yorning

yonoqlari, dudoqlari, lablari va tishlari ramziy ma’noda qo‘llanilishi bilan qizning tashqi qiyofasini ko‘z oldida namoyon etishi bilan ahamiyat kasb etadi. Har bir qo‘shiq o‘z ichida ko‘plab timsollarni, ramzlarni mujassam etgan. Ularning ichida ro‘mol ham mavjud. Bilamizki, qadimdan o‘zbek ayollari hayoti uchun ro‘mol alohida o‘rin tutib kelgan. Ro‘mol bu – ayollik libosi, ramzi. Ayol kishining boshida ro‘moli bo‘lishi, uning iffatidan, hayosidan dalolat bergan. Ro‘mol timsoli ishtirokidagi ko‘plab xalq og‘zaki ijodi na’munalari mavjud.

***Ro‘molim ( xalq so‘zi )***

Ro‘molim bor ro‘molim bor,
Ro‘molimda tumorim bor.
Bir yigitga xumorim bor, vox-vox,
Dod alimdan getdi ro‘mol.
Ro‘mol dushib getdi yera,
Yor eshitsa bo‘lur xafa.
Yorga borib aytmang yora, vox-vox,
Dod alimdan getdi ro‘mol.
Ro‘molimning uchi shoyi,
O‘rtasida bordir oyi.
Olib bering jonim doyi, vox-vox,
Dod alimdan getdi ro‘mol.
Xo‘p chiroyli edi ro‘mol,
Alimdan uchirdi shamol.
Otam-onam ham kambag‘al, vox-vox,
Dod alimdan getdi ro‘mol.
Ro‘molda ediyo xayolim,
Zabun bo‘ldi hamma ahvolim.
Ham dushar yodima yorim, vox-vox,
Dod alimdan getdi ro‘mol.

***Qilpillama (xalq so‘zi)***

Qoshing o‘smadakkina, qilpillama,
Beling tasmadakkina, qilpillama,
Men seni kampir desam, qilpillama, doda,
Qilig‘ing qizdakkina, qilpillama,
Qilpillama jonginam, qilpillama.
*Qiz:*
Sholi soldim keliga, qilpillama,
Tegirmonni do‘liga, qilpillama,
Shoyi qiyiq yarashar qilpillama, doda,
Cholginamni beliga, qilpillama,
Qilpillama, jonginam, qilpillama.
Ro‘molim uchi sochiq, qilpillama,
Kelsang darvozam ochiq, qilpillama.
*Yigit:*
Jon tasadduq bo‘yingga, qilpillama, doda,
Bo‘lganman chindan oshiq, qilpillama,
Qilpillama, jonginam, qilpillama.
*Qiz:*
Ro‘molimning qirg‘og‘i, qilpillama,
Shirin, yorning firog‘i, qilpillama.

Xalq og‘zaki ijodida nafaqat qo‘shiqlar, balki qadimdan qolgan an’analarga nazar tashlasak, ayol kishining katta yoshli ekanligini yoki turmushga chiqqanligini aynan ro‘mol orqali ajratishgan, tushda ro‘mol ko‘rsa xotin yoki erdan dalolat degan gap ham bor. Xalqimizning urf-odatlaridan ma’lumki, qiz bolaning uyiga sovchilikka borganda agarda qiz tomonning oilasiga quda tomon

yoqsa, rozilik belgisi sifatida ro‘molcha beriladi, ya’ni o‘sha qizning egallanganligini bildiradi, qizlar turmushga chiqqanda, ota uyini tark etayotganda boshida albatta uzun ro‘mol bilan chiqadi, yangi uyning ostonasidan kirganda ham boshida uzun ro‘mol bo‘ladi, bu go‘yoki kelinni yomon ko‘zlardan asrash, himoyalash degani. Yoki turmushga chiqqan ayollarga “lachak“ kiydirish marosimida ham boshi toshday mustahkam bo‘lsin, balolardan asrasin degan maqsadda ikki qavat ro‘mol bog‘lashadi. Mana shunday qadimiy urf-odatlardan kelib chiqadiki, ro‘mol bu balo-qazolardan asrovchi bir predmet.Xalq og‘zaki ijodi na‘munalari, xususan qo‘shiqlarida insonning ruhiy olami, ichki kechinmalari, turmushida sodir bo‘luvchi ko‘ngilli va ko‘ngilsiz voqealar, g‘am-anduh yoki shodlig-u-xurramliklari, mehnat mashaqqatlari, sevgi iztiroblari his-tuygular orqali aniq badiiy obrazlar gavdalantiriladi. Xalq qo‘shiqlaridagi sodda va ravon tasviriy, badiiy ifodalar xalqona turmush tarzini yorqin ifodalashi bilan, kuy va matndagi ramziy timsollar uyg‘unligining ifodasi qo‘shiq mazmunini yanada boytib, teranroq anglashga xizmat qilishi bilan ahmaiyatli.

**Foydalanilgan adabiyotlat ro‘yxati**


G‘. Qo‘chqorov “Folklor qo‘shiqchiligi “. Toshkent – 2005 , “Bilim” nashriyoti;
M.Jo‘rayev “Oy oldida bir yulduz”. Toshkent – 2000.
3 T.Mirzayev va boshqalar. “O‘zbek folklori” Toshkent – 2021.
O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
5.www.ziyouz.com kutubxonasi


## O‘ZBEK MAROSIM AYTIMLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR


**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti**
**3- kurs talabasi Temurmalik Saidov**
**Ilmiy rahbar: dotsent Navro‘z Raxmonov**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada marosim aytimlari, unda kuylanadigan qo‘shiqlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, marosim aytimlarining o‘tkazilish tartibi hamda ijro usullarining amaliy ahamiyati tahlil qilindi .



**Kalit so‘zlar**:marosim, marosimning ahamiyati, aytimlar.


Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san’ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o‘ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi. Marosimlar xalqning eng yaxshi an’analari, odatlari, axloqiy qoidalarini o‘zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi jihatidan yoshlarni tarbiyalashda, ularning odob-axloqli bo‘lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o‘tadigan, o‘z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo‘shiqlariga ega hayotiy tadbirdir. Marosimlar kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ma’naviy hayot qadriyatlari sirasiga kiradi .

O‘zbeklar marosimlarga boy xalqdir. Marosimlar biror sababsiz yoki asossiz yuzaga kelmaydi .Ular maxsus uyushtiriladi. “Ajdodlarimiz tomonidan amal qilinib kelingan bola tug‘ilishi bilan bog‘liq urf-odatlar ham O‘rta Osiyo xalqlari oilaviy-maishiy marosimlari folklorining qadimiy qatlamini tashkil etadi”[1] To‘y ko‘pchilik ishtirok etadigan yirik marosim.O‘zbek to‘ylarini o‘tkazish tarzi, ishtirokchilari tarkibi,vazifalari hamda uning verbal qismini tashkil etuvchi poetik folklorini janriy tarkibiga ko‘ra bir necha turga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Marosim haqida gapirar ekanmiz, biz bu marosimning Xorazm diyorida nishonlanishi to‘g‘risida aytib o‘tamiz. Ayol ilk farzand tug‘ganidan keyin, Beshik to‘yini ikki tomon qudalar birgalikda tashkil qilib o‘tkazadilar. Uning ota-onasi xursandchilikidan va ota-onasining zimmasida bo‘lgani uchun beshik, belanchak va boshqa narsalarni olib borishadi. Chaqaloq tug‘ilganidan 5 kun o‘tgach, besh oqshomni sog‘-salomatlikda ko‘rdi deb, beshta qo‘shniga oq un oshi ovqati tarqatiladi.Bu marosimni o‘tkazishdan maqsad chaqaloqning umri uzoq bo‘lsin, doim sihat-salomat bo‘lib yursin

[1] Latifa Xudayqulova , Nasiba Tursunova Oilaviy-maishiy marosim folklori – Navoiy, 2022.15-bet.

deya o‘tkaziladi. Bola tug‘ilgandan keyin 40 kunlik chilla davri bo‘ladi. Ana shu 40 kun ichida 7 kun o‘tgach onasi bolani yuvintirib, chilladan chiqarib, uyga mulla chaqirib, onasi chaqaloqni qibla tomonga qarab turib, mulla chaqaloqning qulog‘iga azon aytib, keyin uning ismini aytadi. Chaqaloq tug‘ilib, oradan 7-10 kun o‘tgach, uning kindigi tushgandan so‘ng beshikka belanadi. Beshikka belanish jarayonida qarindosh-urug‘lari ishtirok etib, qari momolar aytim aytib beshikka belaydilar .
Bavak-bavak bak bavak,
Onasining joni bavak.
Otasining moli bavak,
Bog‘da uzumning g‘orasi
Tog‘da echki bolasi
Bu kimning nevarasi
… nevarasi
… nevarasi.
Bu aytimning aytilishidan maqsad chaqaloqning ilk to‘yi bo‘lganligi va uning kelajagi buyuk, umri uzoq, ota-onasining izdoshi, solih, soliha farzand bo‘lib yetishishi uchun, shunaqa aytimlar aytib, beshikka belanadi .Momo tomonidan aytilgan aytimlarda bola va onaning ins-jinsidan muhofaza qilinishi bilan bog‘liq odatlar o‘tkaziladi.
Marosim jarayonida ijro etiladigan qo‘shiq va aytimlar, o‘qiladigan afsun, olqish va duolar marosim folklorini tashkil etib, ular marosimning verbal qismi sanaladi. Shunday ekan, biz shunday aytimlarga boy bo‘lgan kelin tushganda aytiladigan aytimlarga e’tiborimizni qaratamiz. Avvalo, qiz kelin bo‘lishidan oldin, qizning uyida fotiha to‘yi bo‘lib o‘tadi va bunda bo‘lajak kuyovning onasi bilan qarindoshlari keladi. Shu paytda qudalarning kelganiga bag‘ishlab aytimlar aytiladi. Xorazm diyorida bu marosim ham juda qiziq tarzda o‘tadi.
Bu kulbayi zona, bu kulbayi zona
Oydin qudalar keld, guldin qudalar keldi.
Go‘yoki o‘lik erdim, jismim aro jon keldi,
Oydin qudalar keldi, guldin qudalar keldi
Oltin qudalar keldi, yo‘l bering qudalar keldi.
Boshshim yo‘lingda qurbon, o‘ldirsalar dur armon.
Hur lali labi handon, chin nuri ayon keldi.
Oydin qudalar keldi, guldin qudalar keldi,
Oltin qudalar keldi, yo‘l bering qudalar keldi.
Aytim aytilgandan so‘ng ularning peshonasiga un surtib kirgiziladi va kelin va kuyovni fotihalashadi. Patir, novvot bir-biriga urib sindiriladi va shu yerda o‘tirgan ayollarga patir va qatlama beriladi. Bularni berishdan maqsad, shu yerdagi ayollarning farzandlari ham kelajakda baxtli-saodatli bo‘lsin deya beriladi. Shu tariqa qizlar bazmi, to‘y o‘tkaziladi, qizlar bazmining ertasi kuni tushda kuyov uyiga yangi kelin tushdi deya, Kelin salom o‘tkaziladi. Bu aytimlar kelinni kuyovnikiga kuzatib borish qo‘shiqlari bo‘lgan, Alisher Navoiy ularning “turk ulusi zufof va qiz ko‘chirur to‘ylarida” kuylanganligi maxsus qayd etgan. Bunda kelin ko‘shana tagida turib, bukilib-bukilib ta’zim qiladi, bu marosimda ham o‘ziga xos aytimlar aytiladi. Marosimda aytiladigan yor-yorlar yakkaxon tomonidan yoki ko‘pchilik tomonidan xor sifatida kuylanadi. Yor-yorlar poetikasi juda boy. Ular nozik istiora va ramzlarga boyligi bilan nikoh to‘yi janrlari orasida alohida ajralib turadi .
Avval boshlab Xudoni yod etaylik, yor-yor,
Payg‘ambarlar ruhini shod etaylik yor-yor.
Avval boshlab Xudoni odob safi yo‘llaylik,
Ul barcha avliyolarni yod etaylik yor-yor.
Payg‘ambarni qizini kim ko‘ribdi yor-yor,
Ota-ona diydoriga kim to‘yibdi yor-yor.
Payg‘ambarni qizini Ali oldi yor-yor
Qiz olib to‘y atmaydigan shundan qoldi yor-yor.
Yusuf bilan Zulayho yor edilar yor-yor

Bir-birini ko‘rmaka zor edilar yor-yor.
Tokchadagi qaychini zang bosibdi yor-yor,
Kelyotirgan shu qizni g‘am bosibdi yor-yor.

Xalqning milliy qadriyatlari mujassamlashgan o‘zbek to‘ylari rang-barang bo‘lib, ularning o‘tkazilish tartibi, vazifalari, ishtirokchilar tarkibi, ijro etiladigan aytim va qo‘shiqlari jihatidan bir-biridan farqlanib, har bir inson hayotining muayyan bir davrlarida, ya’ni bir yosh-tabaqa mansubiyatidan boshqasiga o‘tish davrini qayd qilish orqali shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilash maqsadida o‘tkaziladigan marosimdir.

Xulosa qilib aytganda, marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosimlarda aytiladigan aytim, qo‘shiqlarning ahamiyati juda katta ahamiyatga ega. Chunki ular marosimning badiiyati bilan bir qatorda, marosimning jozibador o‘tkazilishini ta’minlaydi. “Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so‘z san’ati hamisha tayanch nuqta bo‘lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir”.[2]

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O. Safarov .O‘zbek bolalar poetik folklori. –Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
2. B.Sarimsoqov. O‘zbek marosim folklori. –Toshkent: Fan,1986.
3. M.Alaviya.O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. –Toshkent: Fan, 1974.
4. L.Xudayqulova, N.Tursunova. Oilaviy-maishiy marosim folklori. Navoiy, 2022.
5. M.Jo‘rayev. Kelin tushdi marosimi. –Toshkent: Respublika xalq ijodiyoti markazi, 2002.

## SAID AHMAD ROMANLARIDA O‘XSHATISHLAR LINGVOPOETIKASI.

**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi**
**Nurmanova Ismigul Abdivali qizi**
**Ilmiy rahbar: O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi**
**f.f.f.d.(PhD) Yuldashev Jo‘rabek Uralovich**

Betakror ijod sohibi Said Ahmad o‘zbek so‘z san’atida o‘chmas iz qoldirgan, turkiy so‘zning bor kuch-qudratini, jilosini tarannum etgan buyuk yozuvchidir. U qoldirgan badiiy asarlarni so‘zga oshno har qanday qalb sohibi hadsiz hayajon hamda zo‘r entikish bilan mutolaa qiladi, adibning so‘z tanlash va qo‘llash mahoratiga qoyil qoladi. Uning o‘tkir hikoyalarini, yirik nasriy asarlarini huzur bilan o‘qir ekanmiz, mahoratli adibning o‘zbek xalq tili xazinasini nechog‘lik tugal egallaganligiga, betakror so‘z ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni o‘z badiiy niyatiga nechog‘lik muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi lisoniy vositalarga naqadar sayqal-u jilo bera olganiga, bu birliklardagi ma’no injaliklaridan juda katta ustalik bilan foydalana olganiga amin bo‘lamiz.

Adib asarlarida badiiy uslubda eng faol qo‘llaniladigan tasviriy vositalar qatori xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida yuzaga kelgan, so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli bo‘lgan tasvir vositasi – o‘xshatishlardan ham unumli foydalangan.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi vazifasi va lingvopoetik salmog‘i boshqa tasviriy vositalarga nisbatan birmuncha mukammal va atroflicha o‘rganilgan. Ilmiy manbalarda o‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni:1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi. [1. 27.] Har qanday ijodkor bu muhim va keng qo‘llanuvchi vositaning har ikkalasidan unumli foydalanadi, chunki o‘xshatishlarda xalqning ming yillik madaniyati, madaniy-tarixiy tajribalari, badiiy tasavvurlari, tashqi olamni baholash mezonlari go‘yoki konservatsiyalangan holatda saqlangan bo‘ladi. Ma’lumki, nutqimizda *ayiqday baquvvat, arvohday ozg‘in,, musichaday beozor, bilakday yo‘g‘on, toshday qattiq* kabi bir qancha o‘xshatishlar bor. Bu o‘xshatishlar og‘izdan-og‘izga, asardan-asarga o‘tib kelayotganligi uchun ham ularning o‘xshatish etalonlari o‘z originalliklarini

[2] T.Mirzayev,Sh.Turdimov,M.Jo`rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O‘zbek folklori.Toshkent, 2020. 13-bet

allaqachon yo‘qotib, qoliplashgan nutq parchalari bo‘lib qolgan, an’anaviy tus olgan. Shuni hisobga olib ular an’anaviy o‘xshatishlar deb qaraladi.

An’anaviy o‘xshatishlarning mohiyati shundan iborat bo‘ladiki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. [2. 6]. Mahoratli yozuvchi Said Ahmad o‘xshatishlarning har ikkalasidan ham foydalanadi. Masalan, yozuvchining “Ufq” trilogiyasi va “Jimjitlik” romanida an’anaviy o‘xshatishlardan *zulukdek qora, kafandek sovuq, bulbul qafasidek tor, do‘ppidek kichkina* kabi ko‘plab o‘xshatish konstruktsiyalarini uchratamiz. Asarda ular quyidagicha ishlatilgan: *Hali ustara tegmagan iyaklarida yigitlik nishonalari belgi berib qolgan, tush surtilgandek quyuq kipriklari yumuq ko‘zlarini qoplab turardi.* ***Zulukdek qora qoshlari****, qirra burni, bejirim iyaklari bolaga alohida bir husn bag‘ishlardi.* [3.11] *Lutfinisa onasi olamdan o‘tgandan buyon endi ohorli kiyim kiyishi edi. To‘g‘ri, to‘yda unga yangi liboslar kiydirishgandi. Ammo u kiyimlar* ***kafandek sovuq*** *tuyulgan edi.* [3.146] *Nurmat tog‘a tinchgina bankda bulbulning* ***qafasidek tor kassada*** *pul olib, pul berib kunini o‘tkazib yurardi.* [4.45]. *Yetimqishloq* ***do‘ppidek kichkinagina*** *edi.* [4. 105]

Xususiy-muallif o‘xshatishlar yozuvchining teran nigohi, kuzatuvchanligi, olamning kamalak ranglarini zakiylik bilan ko‘ra olishi, mukammal his qilishi hamda badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. [5. 136] Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Xususiy-muallif o‘xshatishlarini badiiy matnni shunchaki bezovchi, go‘zallashtiruvchi vosita sifatidagina qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Mahoratli yozuvchi bunday o‘xshatishlarga badiiy-estetik ehtiyoj zaruriyati bilan murojaat qiladi. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirish, tasvirni quruq emas, balki quyuq bo‘yoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o‘xshatishlar favqulodda muhim vositadir**.** “Jimjitlik” romani hamda “Ufq” trilogiyasida Said Ahmad tomonidan yaratilgan betakror, chinakam badiiy o‘xshatishlar tahlil etilganda bunga to‘la amin bo‘lish mumkin.

Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko‘ra emas, balki butunicha, to‘lasincha, aynan o‘xshatilmoqchi bo‘lsa, o‘xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. [5.137] Bunday holatlarda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida ham ko‘pincha *o‘xshamoq* fe’lidan foydalaniladi. Masalan yozuvchining “Jimjitlik” romanidan olingan quyidagi parchada buning guvohi bo‘lamiz: *Bugun Luqmonov bilan Mirvali o‘rtasida o‘lik savdosi bo‘ldi. U shu gapni aytdi-yu, xuddi soniga olovda toblangan tamg‘a bosilayotgan otga* ***o‘xshab*** *pishqirib yubordi. [4.25]* Misolda *soniga olovda toblangan tamg‘a bosilayotgan otga o‘xshab* birikmasi o‘xshatish etalonini ifodalagan. Ma’lumki, o‘zbek xalqi azal-azaldan ot bilan o‘z taqdirini bog‘lab kelgan. Uni o‘z izmiga bo‘ysundirish, parvarish qilish, boqish, uloq chopish kabi ish va yumushlarni san’at darajasiga chiqargan va ot haqida to‘qimagan rivoyati, yozilmagan kitobi, eshitmagan afsonasi qolmagan. Shunday ekan otni o‘zbekning kattasidir, kichigidir yaxshi biladi, anglaydi. Mana shu hodisani yaxshi anglagan yozuvchi aynan asar qahramonining holatini *otning pishqirishiga* o‘xshatadi. Bu o‘xshatishda aynan otning quvvati ham hisobga olinadi, ya’ni “Jimjitlik” romani qahramoni Mirvali ham otday quvvati bor erkak. Uning baquvvatligi, shiddatkorligi, dushmaniga omonlik bermasligi romanda to‘lasicha yoritilgan, ammo uning “pishqirishi” *otning pishqirishiga* mengzalishi ushbu asar qahramonini kitobxon ko‘z o‘ngida yanada yorqin gavdalantiradi. Bu o‘xshatishsiz ayni holat tasvirlanmoqchi bo‘lsa, bir-ikki sahifa qoralanishi mumkin edi, ammo bunday yorqin va aniq ifodaga erishish mahol bo‘lardi. Yozuvchi tomonidan favqulodda topqirlik bilan saylangan o‘xshatish etalonining bu o‘rindagi estetik qimmatini alohida ta’kidlash lozim. Yozuvchi o‘xshatishning bu turidan juda ko‘p o‘rinlarda foydalanadi. Masalan, *Tolibjon kabinadan chiqdi. Qoyadan to‘kilgan toshlardan* ***echkiga o‘xshab sakrab-sakrab yurgan*** *mashinada silkinaverib, beli og‘rib ketgan edi.* [4.150] Keltirilgan namunada o‘xshatish etaloni *echkiga o‘xshab sakrab-sakrab yurgan mashina.* Barchamizga ma’lumki, mashinalar tekis yo‘lda yurishga mo‘ljallangan texnikadir, ammo u tog‘ yo‘lida yurishga qiynaladi. Bu holatni

tasvirlash esa yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. Oʻquvchiga esa uni aniq-tiniq yetkazishning eng toʻgʻri yoʻli uni *echkiga* oʻxshatish. Echkining sakrashi esa hammaga maʼlum holat.
Yorqin va komil badiiy isteʼdod sohibi Said Ahmad oʻxshatishlar orqali tabiat tasvirini shunday mahorat bilan chizadiki, natijada turfa olamdagi kamalak ranglarning tirikligiga, tabiiyligiga putur yetmaydi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolga eʼtibor bering: *Soʻqmoqlar huvillab qolgan. Choʻqqilarda* ***haykaldek*** *qotgan burgutlar* ***xuddi*** *sovuqdan qunishib qolganga* ***oʻxshaydi.*** Yoki *Kitob tomonlarda allaqachon kun yoyilgan, dala-toshda oftob dehqonning yagʻrinini qizdirgan mahal, bu joylarda — Omonqoʻton oʻngirlarida hali* ***koʻr oydinga oʻxshash nimqorongʻulik*** *hukm surardi. Faqat osmon oppoq. Tundan uzilib qolgan qorongʻulik asta-sekin eriyotganga* ***oʻxshaydi.*** Koʻrib oʻtilgan misollarda oʻxshatish asosi bitta yoki ikki-uchta emas, balki yaxlit, umumiydir. Shuning uchun ham oʻxshatish asosi alohida bir soʻz bilan ifodalanmagan, ayni paytda oʻxshatishning shakliy koʻrsatkichi qoʻshimchalar emas, balki *oʻxshamoq* feʼlidan iborat leksik-semantik birlikdir. Bu birlik oʻxshatishning yaxlitligi, umumiyligini taʼkidlab turadi.
Said Ahmad ayrim oʻxshatish etalonlarini shunday tanlaydiki, birinchidan, u kutilmagan boʻladi, ikkinchidan, qahramon xarakteri va ruhiyati bilan juda ham uygʻun boʻladi. Masalan adibning "Jimjitlik" romanida nopok va birovning haqini yeyishdan qoʻrqmaydigan Hojimurodning tushgan ahvolini kishi qaraganda eti joʻnjikadigan hasharotga, *beshiktebratarga* qiyoslaydi. Zero hasharotlar ichidagi eng sovuq va koʻrimsizlaridan biri beshiktebratar. Hojimurodday nomard odamlarga jamiyatning bahosi ham shu: *Hoji* ***xuddi*** *tashlagan poʻstiga tikilgan* ***beshiktebratardek*** *yonayotgan kiyimlariga maʼyus qarab turardi.* Bu oʻrinda oʻxshatish vositalarining ikki oʻrinda kelishi holat tasvirini yanada tiniqlashtirgan Salbiy obrazlarni beshiktebratarga oʻxshatish Said Ahmadga xos. Chunki "Ufq" trilogiyasida ham Aʼzamjonni bir oʻrinda beshiktebratarga oʻxshatadi: *Endi u gʻirt mast boʻlib yoʻl chetida* ***beshiktervatarga oʻxshab*** *oʻtirgan joyida tebranib oʻtiribdi.* [3.620]
Ijodkor asarlarida erka qahramonlari – Dildor, Lutfinisa, Zebi kabi tabiat ishvalarini tasvirlar ekan, albatta, ularning oʻziga uygʻun goʻzal, nozik oʻxshatish etalonlarini tanlaydi. Masalan, goʻzal qiz Dildorning sepkilli tomoqlarini oq oʻrik poʻstiga oʻxshatishi kishining hech xayoliga kelmaydigan Said Ahmadgagina xos oʻxshatish. Masalan: *Shamol yoqasini har silkiganda ochilib yopilayotgan yelkalar, hamon titrab turgan koʻkraklar, hozirgina yigʻidan boʻshagandek nam tortib turgan kipriklar-u chimchilab qoʻygandek bejirim burun, ayniqsa,* ***oq oʻrik poʻstidek bilinar-bilinmas sepkili bor tomoqlari*** *Aʼzamjonning yigitlik qonini koʻpirtirib yubordi.*[3.506] Yoki Nizomjonning qalbini oʻgʻirlagan Dildor choʻmiliyatganda suvga tushgan sochini soyabonga oʻxshatishi uning husniga husn qoʻshib, oʻquvchi koʻz oʻngida yorqin gavdalantiradiki, bundan zavq olmaslikning, adib mahoratiga tan bermaslikning iloji yoʻq. *Dildor suvdan boshini chiqarib gʻazab bilan unga qaradi.* ***Qizning sochlari suv betida xuddi qora soyabondek*** *doira hosil qilgan edi.[3.250].*
Yozuvchi "Ufq" trilogiyasida Katta Fargʻona kanali qazilishida ishtirok etgan yigitlarning baquvvat va chayir tanalarini baʼzan *saksovulga* oʻxshatsa, baʼzan mehnatdan terlab ketgan tanalarining yaltirashini *samavorga* qiyoslaydi. Buning natijasida kutilmagan, ohorli oʻxshatish oʻquvchini rom etadi, yigitlarning jismoniy holati oʻquvchi koʻz oʻngida yaqqol gavdalanadi. Asardan olingan parchaga eʼtibor bering: *Butun Fargʻona vodiysiga yogʻoch polvon deb nom chiqargan,* ***saksovuldek tanlari*** *bujmayib ketgan novcha polvon bir qoʻli bilan yerga tiralib, yo pirim, deb oʻrnidan turdi.* Yoki: *Notanish bola hamon ketmon uryapti. Yalangʻoch badani terlab ketganidan* ***yangi yuvilgan samovardek yaltiraydi.***[3.372]
Said Ahmad tanlagan oʻxshatishlar baʼzan oʻquvchida yengil kulgi qoʻzgʻaydi. Masalan, *Ora-sira shu koʻm-koʻk choʻlning har yer-har yerida* ***kal boshdek sap-sariq tepachalar*** *uchraydi.* [3.40] Yoki "Ufq" trilogiyasining qahramoni Asrora xarakteri yigitlarga xos qiz. Shunga mos ravishda yozuvchi uni bir oʻrinda xoʻrozga oʻxshatadi: *Asrora nima qilishini bilmay uning tepasida ikki qoʻlini beliga tirab urishishga chogʻlangan* ***xoʻrozdek*** *turardi.*[3. 250] kabi.
Umuman, Said Ahmadning oʻxshatishlarini kuzatganda, uning etalon tanlashdagi betakrorligi, tasvirlash benihoya mushkul boʻlgan holat-harakatlarning eng nozik jihatlarini ham aniq gavdalantirish uchun kutilmagan oʻxshatish etalonlarini tabiatdan, turmushning oʻzidan topa bilishini har qadamda koʻrish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. М.Мукаррамов. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1976.
2. Н. Маҳмудов., Д.Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Маънавият” нашриёти, 2013.
3. Саид Аҳмад. Уфқ трилогияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
4. Саид Аҳмад. Жимжитлик. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2006.
5. М. Йўлдошев. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент, 2001.

## TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA TALABALARNING BADIIY TEXNIK MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi**
**2-kurs talabasi Jurayeva O‘g‘iloy Kengash qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada darslarga innovatsion yondashishning afzalliklari va tasviriy san’at darslarida talabalarning badiiy texnik mahoratlarini rivojlantirish usullarini va tasviriy san’at darslariga yangicha yondoshish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar: i**nterfaol metodlar, badiiy texnik mahorat, noan’anaviy o‘qitish usullari, an’anaviy o‘qitish usullari, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnik, subyekt, mutaxassis.

O‘qitishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo‘lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ta’lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim muhit sanaladi. Shu sababli ta’lim mazmuni insonparvarlikka yo‘naltirilgan innovatsion yondashish, gumanistik g‘oya va me’yorlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Ta’lim jarayonida o‘qitish usullari turli xil ko‘rinishlarda olib boriladi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O‘qish ehtiyojini qondirish bilan o‘quv jarayoni yuqori motivatsiyaga erishiladi.

O‘quv materiali o‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali yaxshi esda qoladi. O‘quvchining o‘quv jarayonida ozi oziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir talabaning o‘zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

Dars mashg‘ulotlari interfaol usulda o‘tilganda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Demak, bunday sharoitda o‘qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo‘yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o‘z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo‘lishini taqoza etadi.

Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish o‘zi – o‘ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya’ni o‘quvchining:

- O‘zi mustaqil o‘qishi asosida bilim olishi;
- O‘zini-o‘zi anglab etishga va tarbiya topishga;
- O‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- O‘quv mehnatiga mas’uliyat bilan yondoshishiga;
- O‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g‘animat bilishga;
- O‘quv mehnatiga o‘zida hoxish, istak uyg‘ota olishga;
- Har qanday vaziyatda faollik ko‘rsata olishga;
- Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o‘rganmog‘i zarur.

Ta’lim berish ya’ni o‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarini o‘quvchiga etkazishdan iborat. Qachonki o‘qitish, o‘quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib etilsa yoki o‘quvchi malaka oshirish uchun mo‘ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina u jarayon muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Badiiy texnik mahoratlarini rivojlantirishda pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, o‘quvchi-talabalar shaxsini hurmat qilish, e’zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. O‘qituvchi (pedagog) an’anaviy ta’limda ta’lim mazmunining subyekti, pedagogik jarayonning obyekti deb o‘quvchi-talabalar qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o‘quvchi-talaba o‘z o‘quv faoliyatining sub’ekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona ta’lim jarayonining ikkita sub’ekti hamkorlikda o‘quv tarbiya vazifalarini hal etadi.
Tasviriy san’at dars mashg`ulotlarida ushbu pedagogik texnologiyani ta’lim tizimi markazida barkamol inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Bu g‘oya qay darajada amalga oshirilganligi ta’lim jarayonining asosiy natijasi pedagogik jamoa mehnatining sifatiga berilgan baho asosida aniqlanadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda o‘quv-tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxsga bo‘lgan munosabat hisoblanadi.
Tasviriy san’at darslarida usullarni ma’lum bir uslubda qo‘llash jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko‘rsatkichlariga bo‘ysundiriladi. Undan tashqari, inson maqsadga yetish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.
Ta’lim uslubi – o‘qituvchi (pedagog) bilan o‘quvchi-talabalar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan o‘zaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. O‘qitish uslublari o‘quv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo‘lmaydi.
Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab so‘z orqali ifodalash, ko‘rgazmali va amaliy, elektronga bo‘linadi. Ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda o‘quvchi-talabalarning ta’lim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi uslublar: tushuntirish-illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot uslublari qo‘llaniladi.
Muammoli-qidiruv uslublari muammoli ta’lim jarayonida qo‘llanadi. Bu uslublardan foydalanishda o‘qituvchi (pedagog) avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo‘yadi, masalalarni, topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining to‘g‘riligini tasdiqlaydi. O‘quvchi-talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yo‘llari to‘g‘risidagi takliflarini aytadi va oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub o‘quvchi-talabalarning bilimga qiziqishlarini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.
Har qanday o‘quv predmetining rivojlanishi o‘z-o‘zidan boshlanmaydi. XVII asrning akademik tasviriy asar yaratishning nazariy qoidalari Uyg‘onish davri rassomlarining talqinlaridayoq ifoda etila boshlangan. XVIII asrda yuzaga kelgan akademik o‘qitish nazariyasi ma’lum o‘zgartirishlar kiritilib, endi badiiy amaliyot yangi sharoitlarida amalga oshirildi. XIX asrda akademik nazariyoti va amaliyotida o‘quv masalalarini kompleks hal etish bo‘yicha faol izlanishlar boshlandi.
Badiiy maktab akademik yo‘nalishida o‘quvchi-talabalarga faqatgina bilim va ko‘nikmalar bilangina qurollantirish emas, balki ijodiy innovatsiya faoliyatga ham ishtirok ettirish ko‘zda tutiladi. Oliy ta’limda yaxshi bilim olsa, izlanuvchan-intiluvchan, yangilik yaratuvchan bo‘lsa shundagina maktablarga yetuk kadr bo‘lib boradi.
Qadimgi akademik maktab namoyondalari shunday vasiyat qilganlar: “naturadan surat chizar ekansan, ko‘zingga ko‘ringan hamma narsani to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib tushiraverma, balki nima uchun shundayligini o‘yla, boshqacha emasligi haqida mulohaza qil”.

Zamonaviy jamiyatda innovatsion texnologiyalar inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, jumladan, ta’lim sohasida kengayib bormoqda. Ta’limda innovatsiyalar-ilmiy pedagogik bilimlarning yangi sohasi; ta’lim sohasidagi uchta asosiy pedagogik jarayon: yangiliklar yaratish, ularni o‘zlashtirish va qo‘llashning ajralmas birligi va o‘zaro bog‘liqligi hisoblanadi.

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo‘ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid

zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san’at ta’lim jarayonlarini modernizatsiyalash (ingl. Modern-yangilangan, zamonaviy) tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida olib borilayotgan o‘quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.

Ta’lim muassasalarida tasviriy san’at darslarini yangicha zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda tashkil etish. Bu borada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy va malakaviy tayyorgarliklariga qo‘yiladigan talablar va ularni amalga oshirish yo‘llari o‘rganilgan.

Tasviriy san’at darslarida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganib chiqish natijasida quyidagilarga e’tibor berish lozimligi aniqlandi:

– Mutaxassislar tayyorlashda tasviriy san’at darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, innovatsion uslublardan etarlicha foydalanish zarur;
– Ta’limning yangi mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
– Tasviriy san’at darslarida innovatsion uslublarni qo‘llash va takomillashtirish;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Xasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. Talabalar uchun metodik qo‘llanma. – T.;ToshDPU, 2006.-94 b.
2. Azimova B. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash metodikasi. – T.; O‘qituvchi, 1984.-56 b.
3. Boshlang‘ich sinflar. Tasviriy san’at. – T.; Sharq, 1999.
4. Абдуллаев Акбар Хикматович Нравственное и эстетическое воспитание учеников через изобразительное искусство // Academy. 2021. №4 (67). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo (дата обращения: 02.11.2023).
5. Abdullaev, A., & Bobomurodova, S. (2023). The main factors affecting of uzbekistan and central asian countries to the development of art. *Science and innovation*,*2*(C3), 64-66.
6. Abdullayev, A. H., Bobomurodova, S. A. (2022). Bo‘lajak tasviriy va amaliy san’at o ‘qituvchilarining kasbiy va malakaviy tayyorgarliklarini takomillashtirish. *Scientific progress*,*3*(3), 908-910.
7. Bobonazarov Sh. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 114-118.
8. Bobonazarov S. Kompozitsiya mashg‘ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ekanligi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B6. – С. 11-14.
9. Bobonazarov S. U., Jalolov S. C. Etnomadiy Fenomenon Sifatida Nuza San'atlari //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) https://www. tarj. in.
10. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
11. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. Theoretical principles of the formation of study competencies regarding art literacy in students //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
12. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.


## ARTERIAL GIPERTONIYA ASORATLARI


**Andijon Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti**
**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**
**Mavlonova Nigora Jumaboy qizi**
**Tibbiy bilim asoslari fani o‘qituvchisi:Toxirova Mohichehra**



**Annotatsiya.** Gipertoniya – qon tomirlarining nerv funksional faoliyati buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallikdir. Kasallik asosan 40 yoshdan kattalarda uchraydi, lekin so‘nggi yilllarda yoshlarda ham tez-tez kuzatilmoqda. Bu darddan ayollar ham erkaklar ham bir xil aziyat

chekishadi. Gipertoniya yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan xastalangan kishilarning o‘limiga sabab bo‘luvchi asosiy sabablardan biri hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar**: gipertoniya, qon bosimi, qon tomirlar,bosim,miokard infarki, ishemik insult.

Tadqiqotlarga ko‘ra, gipertoniya sayyoramizdagi nogironlikning asosiy sabablaridan biridir. Statistik ma’luotlarga ko‘ra, qon bosimi oshganda birinchi yordam kech ko‘rsatilsa, bemorlarning ahvoli juda og‘girlanishi, hatto o‘lim holati kuzatilishi mumkin.

Gipertoniyaning asosiy alomati – miya tomirlarining spazmi va torayishi tufayli bosh og‘rig‘idir. Shuningdek, ko‘pincha quloqlarda shovqin, ko‘rish holatining susayishi, holsizlik, uyqu buzilishi, bosh aylanishi, boshda og‘irlik hissi, yurak urishi tezlashishi namoyon bo‘ladi. Bu alomaytlar kasallikning erta bosqichida seziladi. Keyinchalik, yurakning uzoq vaqt davomida zo‘riqib ishlashi tufayli yurak yetishmovchiligi yuzaga keladi.

Shuningdek, ko‘plab bemorlarda quyidagi belgilar uchraydi:

burunning tez qonashi;

qayt qilish;

uyqusizlik;

xotira buzilishi;

har qanday jismoniy faollikdan so‘ng teri yuzasining qizarishi;

ko‘zdagi kuchli bosim (bemor atrofga qaraganda ko‘zlarda og‘riq paydo bo‘ladi, shuning uchun ular dam olishni va ko‘zlarini yopiq tutishni afzal ko‘rishadi);

yurakning tez urishi;

to‘qimalarda shishlar paydo bo‘lishi;

charchoq;

Gipertoniyaning kelib chiqish sabablari:

Kasallikning rivojlanish sababi uzoq vaqt davomida stress va tushkunlik holatida yursh, tez-tez psixologik zo‘riqishlardir. Ko‘pincha, bularni doimiy emotsional taranglikni talab etadigan ish faoliyati keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, miya chayqalishiga uchragan bemorlarda ham kasallik rivojlanishi xavfi yuqori bo‘ladi. Irsiy moyillik ham sabablar qatorida: agar kishining avlodida bu kasallik uchragan bo‘lsa, unda ham ushbu kasallik rivojlanishi xavfi bir necha barobarga ortadi.

Kasallik rivojlanishiga ta’sir o‘tkazuvchi omillardan asosiysi – kamharakat turmush tarzi. Yosh o‘tib borgani sari insonlarda asteroskleroz rivojlanishi mumkin, bu o‘zgarish fonida qon bosimining oshishi esa vaziyatni yanada jiddiylashtirib yuboradi. Bu hayot uchun o‘ta xavfli hisoblanadi, chunki toraygan qon tomirlari orqali miya, yurak, buyraklarning bir qismiga qonning bormay qolishi yoki yetarli bormasligi kuzatiladi. Agar qon tomir devorlarida tromb va xolesterin to‘planmalari bo‘lsa, ular kuchli bosim vaqtida ajralib, kappillyar qon tomirlarida tiqilib, qon o‘tishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu holda miokard infarkti yoki insult yuzaga keladi.

Ayollarda qon bosimi oshishiga sabab menopauza davridagi gormonal o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Tuz yoki aniqrog‘i, unda mavjud natriy, shuningdek, semizlik ham yurak qon tomir tizimiga bosim o‘tkazadi.

Gipertoniya rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat: ortiqcha vazn, metabolik kasalliklar, endokrin kasalliklar, kam harakat turmush tarzi; muntazam emotsional stresslar, ruhiy tushkuunlik, fojiali voqealarni boshdan o‘tkazish, yaqin insonlarni yo‘qotish; biznesdagi, ishdagi muammolar tufayli kuchli asabiy taranglik; bosh miya jarohatlari (avtohalokat, yiqilish, gipotermiya); yurak tomir tizimiga salbiy ta’siri bor surunkali kasalliklar (qandli diabet, podagra, revmatoid artrit);

irsiy moyillik;

virusli va yuqumli kasalliklar (meningit, sinusit, gaymorit);

Qon tomirlarida yosh bilan bog‘liq o‘zgarishlar

Qonda xolesterin miqdorining yuqori bo‘lishi, natijada qon tomir devorlarida to‘planmalar hosil bo‘ladi;

zararli odatlar (chekish, alkogolli ichimliklarni ichish, me’yordan ortiq qahva iste’mol qilish);

kun davomida ko‘p miqdorda tuz iste’mol qilish;

qonda adrenalinni oshirish;

kompyuter qarshisida uzoq vaqt o‘tirish;
ochiq havoda kam yurish va hokazo.
Gipertoniyani tashxislash.
Bemorga aniq tashxis qo‘yish uchun shifokor bir nechta laboratoriya tahlillari va apparat tekshiruvlari o‘tkazaishi kerak bo‘ladi. Tashxisning maqsadi kasallikning bosqichi va gipertoniya darajasini aniqlash hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlar bilan shifkor samarali davolash usulini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kasallikning dastlabki bosqichlari yashirin kechgani bois ko‘pchilik bemorlar shifokor huzuriga kech kelishadi. Kasallikni butunlay davolash juda mushkul hisoblanadi, shuning uchun bemorlar sabr-toqatga ega bo‘lishlari kerak, zero kasallik ularga qolgan umrlari davomida hamrohlik qilishi mumkin. Shuning uchun kasallikni o‘z vaqtida oldini olish, shubhali belgilar paydo bo‘lsa, shifokor ko‘rigidan o‘tish zarur.
Uy sharoitida har bir inson o‘z qon bosimini muntazam o‘lchab turishi kerak, eng optimal ko‘rsatkich 120/80, yoshi kattalar uchun 130/90. Atrof muhit ta’siri yoki jismoniy faolllik natijasida bosim 5-10 birlikka ortishi mumkin. Quyi va yuqori bosim o‘rtasidagi juda katta farq ham havotir uchun belgi bo‘ladi-odatda bu ko‘rsatkich 50 birlikdan oshmasligi kerak. Agar qon bosiminging tez-tez o‘zgarishi kuzatilsa, shifokor bilan uchrashish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. https://kun.uz
2. https://uz.m.wilkipedia.org
3. https://gmed.uz

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MAYDA QO‘L MOTORIKASINING AHAMIYATI

**Normatova Maftuna Kengash qizi**
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**
**Pedagogika va psixalogiya fakulteti**
**Maxsus pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirishda mayda qo‘l motorikasining tutgan o‘rni va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishda nimalarga ko‘proq ahamiyat berish va bunda qanday usullardan foydalanish haqida.

**Kalit so‘zlar:**maktabgacha yoshdagi bolalar, nutqni rivojlantirish, mayda qo‘l motorikasi,taqlid.

Nutq bu – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og‘zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo‘lishidagi jarayonlar, ya’ni so‘zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Maktabgacha yosh davri, bolalarda nutq rivojlanishining eng muhim davri hisoblanadi. Bu davr mobaynida bolalarda ichki (impressiv) nutq bilan birgalikda tashqi (ekspressiv) nutq ham faol rivojlanadi. Nutq bevosita taqlid qilish yo‘li orqali hosil bo‘luvchi jarayon bo‘lib, bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to‘g‘ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to‘g‘ri nutq muhiti va ta’lim -tarbiyaga bog‘liq.Nutqtug‘ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradigan jarayon bo‘lib, nutqning me’yorda rivojlanishi uchun bola fiziologik, psixik, aqliy jihatdan ham sog‘lom bo‘lishi kerak.

Shuningdek, bola nutqining shakllanishida mayda qo‘l motorikalarining o‘rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aksariyat Logopedik guruhlarga keladigan bolalarning qo‘l barmoqlarini mujassam harakatlanishi kam uchraydi. Odatda ularning motorikasining noaniqligi ya’ni qiynalib harakatlanishi (beso‘naqay) va tanasining boshqa qismlari bilan birgalikda qo‘shilib harakatlanishi uchraydi. Bolaning nutqiy rivojlanishi darajasi barmoqlarning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi O‘rta asrlardayoq aniqlangan. Agarda bolani harakatlanishi yoshiga mos rivojlansa uning nutqi ham me’yorda shakllanadi. Barmoqlarining harakatlanishi kechiksa nutq ham kechikib rivojlanadi, lekin umumiy motorika me’yoridan ko‘ra yuqori bo‘lishi mumkin. Logopedik ish tizimida mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan markaziy asab tizimi

faoliyatini doimiy rag‘batlantirish, harakatlantirish bolaning nutqini rivojlanishini tezlashtiradi. Shu sababli bolaning mayda qo‘l motorikasining me’yorda shakllanib borayotganligigabola kichikligi chog‘idanoq e’tibor qaratish,mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishga doir metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish uchun ko‘plab mashg‘ulotlar,o‘yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin: barmoq o‘yinlari, mayda buyumlar bilan bog‘liq o‘yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish.

Mayda motorikani rivojlantirishning eng oddiy va samarali usuli bu kaftlarni massaj qilishdir. Bu usul har qanday yosh uchun eng oddiy va universal usul hisoblanadi. Bunda bolaning kaftlarini silanadi va ularni massaj qilinadi.

“Qog‘oz yirtish” usuli-bu mashq ko‘proq 7 oylik bolalarga to‘g‘ri keladi.Bolaga birnecha varaq yumshoq rangli qog‘oz beriladi, bola uni bajonidil ushlab ko‘radi, qo‘llarida aylantiradi va yirtadi. Bu mashg‘ulot bolga juda katta zavq bag‘ishlaydi.

“Sahifalarni varaqlash” – bu usul 1 yoshdan so‘ng qog‘oz yirtishni rasmlari ko‘p bo‘lgan kitobcha yoki jurnal sahifalarini varaqlashga almashtirish mumkin bo‘ladi. Albatta, bunda bolani ehtiyotkorlik bilan bajarishga o‘rgatish lozim.

“Munchoqlar bilan ishlash”-bolalarga bu mashg‘ulot ya’ni mayda buyumlarni ushlash yoqadi va bu juda foydali.

Mayda motorikani rivojlantirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar, mashg‘ulotlar faqat kattalarning nazorati ostida olib borilishi, bolaning yoshi, qiziqishi, imkoniyat darajasini inobatga olgan holda tashkil etilishi kerak. Bunday mashqlarni muntazam ravishda olib borish orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ayupova M .Y.Logopediya:darslik, M .Y . Ayupova; O‘zbekistonRespublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliv jamiyat nashriyoti, 2007. - 560b.

3. ЛОГОПЕДИЯ Комплекс машқларметодикаси Тузувчи - муаллифлар: Р. Шомаҳмудова, Л. Ш. Нурмуҳамедова, Д. Р.Тўлаганова “Chashma Print” нашриёти Тошкент – 2014.

4.Altibaeva G Termiz davlat universiteti “Maktabgacha Ta’lim metodikasi” kafedrasi Katta o‘qituvchisi Siddiqov Sirojiddin Shuhrat o‘g‘li TDPU Pedagogika ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi “maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorikani rivojlantirishga doir o‘yinlar” 1/3.

5. Normatova, M. (2022)Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda logoritmik o‘yinlardan foydalanish. eurasian journal of social sciences, philosophy and culture . https://doi.org/10.5281/zenodo.7427387UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 www.in-academy.uz

6. Normatova, M. (2021). The importance of modern pedagogical technologies to correct the speech of preschoolers.Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). Извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/714

7. Normatova, M. (2022). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o‘stirishda va korreksiyalashda logopedik yondoshuvlar. Журнал Педагогики и психологии всовременном образовании, извлечено от https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5111

8. M.Normatova. (2021) Maktabgacha ta’lim muassasasi o‘qituvchi logopedining o‘quv jarayonida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi. SCIENTIFIC PROGRESS ISSUE 2

## FIZIKADAN IJODIY MASALALAR, KONSTRUKTORLIK TIPIDAGI MASALA FIZIK MASALALARNI YECHISH METODLARI .

**NDPI Fizika va astronomiya kafedrasi mudiri ,**
**p.f.d. (DSc).prof. A.A.Axmedov**
**Fizika va astronomiya,**
**qo‘chimcha matematika ta’lim yo‘nalishi**
**talabasi Qayimova Marjona**

**Annotatsiya.** Ushbu maqoladi fizikadan masalalar yechish metodikasini takomillashtirish va masalalar yechishda qo‘llaniladigan kompetensiyalarga e’tibor qaratilgan. Fizikaviy xodisalarning yechimiga mantqan yondashish nazariya va amaliyot izchilligi yoritib berilgan.

**Аннотация.** Данная статья направлена на совершенствование методики решения
**ANNOTATION.** This article is aimed at improving the methodology for solving problems in physics and the competencies used in solving problems.
**Калит сўзлар:**metodika, pedagogika,fizik kattalik, o`quvchilar, Masala yechish, politexnik ta'limni, formula asosida.
**Ключевые слова:** методика, педагогика, физические размеры, студенты, решение задач, политехническое образование, по формуле.
**Key words:** methodology, pedagogy, physical dimensions, students, problem solving, polytechnic education, according to the formula.
Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Oliy Majlisga murojatnomasida "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko`ramiz. Fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qiladigan sohalarda natijalarga erishib bo`lmaydi", deb murojaat qildi. Shu o'rinda o'rta maktab fizika kursining ilmiy-nazariy darjasi ortishi munosabati bilan fizikadan masalalar yechishga tobora katta e'tibor berilmoqda. Fizikadan masalalar yechmay turib, fizika kursini o'zlashtirish mumkin emas. Fizikadan masalalar yechish orqali quyidagi didaktik maqsadlar ko'zda tutiladi ;

1) Masala yechish o`quvchilarni fizik qonuniyatlarni chuqurroq, har tomonlama o'zlashtirishga yordam beradi.
2) Nazariy bilimlarni amalda qo'llash uchun o'quvchilarda ko'nikma va malakani shakllantiradi.
3) Politexnik ta'limni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.
4) Fizikadan masalalar yechish orqali o'quvchilar formulalarning mazmuni ularni tanlay olish malakasini egallab borishadi.
5) Masala yechish o'quvchilarda jadvallardan foydalanish, o'lchov birliklar va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.
6) Masala yechish orqali fizika bilan biologiya, matematika fanlar o'rtasida aloqalar amalga oshirilib boriladi.
7) O'quvchilar hodisalar o'rtasida funksional bog'lanishlarni o'zlashtirish orqali ularda olam to'g'risida ilmiy dunyoqarashlar tobora shakllanib boradi.
8) Tarbiyaviy ahamiyati.

Masala yechish orqali o'quvchilarda sabr-toqat, ijodkorlik, estetik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, kasb tanlash kabi pedagogik vazifalar amalga oshirilib boriladi.

Meni fikrimcha, hozirda fizikadan masalalarni yechishni quyidagi tartibda olib borish tavsiya etiladi;

1) Masala shartiga keltirilgan fizik kattaliklarni chap tomonga ustun shaklida yozib olish;
2) Barcha fizik kattaliklarni bir sistemaga keltirib olish
3) Masala shartiga asoslanib fizik hodisani ifodalovchi qonuniyatlar va hodisalalar o'rtasidagi barcha bog'lanishlarni ifodalovchi barcha formulalarni keltirib chiqarish;
4) Berilgan barcha qiymatlarni formulaga qo'yib zarur bo`lgan hisoblashlarni bajarish lozim;
5) Formula asosida izlanayotgan fizik kattalikning o'lchov birligini keltirib chiqarish;
6) Masalaning yechimini to'g'ri yoki to'g'ri emasligini tekshirib ko`rish.

Yuqorida keltirilgan fizika masalalarini yechish tartibida eng muhimi izlanayotgan fizik kattalikni ifodalovchi munosabatni keltirib chiqarish hisoblanadi .Ushbu jarayon to'g'risida batafsil to'xtalib o'tsak, hozirga qadar fizika masalalarini yechishning bir necha usullari ishlab chiqilgan. Masalan, yechishning sistemali yondashuv usulida har bir fizik jarayon sistema deb qaraladi. Sistemaning elementlari va ular orasidagi o'zaro aloqadan izlanayotgan fizik kattalik topiladi. Barcha fizika masalalari uchun umumiy hol shundan iboratki: biror fizik obyekt bilan o'zaro ta'siri natijasida u yangi holatga o`tadi.[1,2,3,4,5,6,7].

Ana shu o'zaro ta'sirni ifodalovchi funksional bog'lanishni izlab topish fizika masalalarini yechishning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun fizika darsida o'quvchilarga ayrim fizik masalalarni yechish yo'lini emas, balki barcha turdagi masalalar yechimini izlash metodikasini o'rgatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun har bir masalaga sistemali yondashuv usuli

asosida hodisa va sabab bog‘lanishlari orqali izlanayotgan fizik kattalikni ifodalovchi tenglama keltirib chiqariladi.

**Fizikadan ijodiy masalalar va ularni yechish metodikasi.**

Fizikadan masalalar to‘plamlarida berilgan hamma masalalar turli asoslarga ko‘ra klassifikatsiyalanadi. Masalan masalalrning murakkablik darajasiga ko‘ra, sodda masalalar, qiyinroq masalalar, masala shartida, darslikda va darsda ko‘rib chiqilgan masalalarda tavsiflanganiga nisbatan kamroq tanish bo‘lgan holat tavsiflangan masalalar, talabalar yangi bilimlar olish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan masalalar. Masalalar mazmuniga qarab, mexanikaga, molekulyar fizikaga, elektrga doir va hokazo bo‘lishi mumkin. Yechish usullariga ko`ra masalalarni sifat, eksperimental, grafik va ijodiy masalalarga bo‘linadi. Biroq bu masalalarning har biri mazmuni va murakkabligi jihatidan ham sezilarli darajada xilma-xil hisoblanadi. Yechilish algoritmi noma’lum bo‘lgan masalalarni “ijodiy masala”lar deb atalishi kelishib olingan. Bunday masalalarning shartlari niqoblangan bo`ladi: berilganlari yetishmaydi, berilganlari ortiqcha bo`ladi, yoki masalaning yechilishi uchun kerak sohadan fizik ma’lumotlar mutlaqo berilmaydi. Fizikadan ijodiy masalalarni yechishda birinchi bosqichda hodisani tushuntirish talab qilinadi ya’ni nega degan savolga javob berish kerak bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda qo‘yilgan talablarga javob beradigan haqiqiy hodisalarni amalga oshirish , ya’ni qanday qilish kerak degan savolga javob berish kerak bo‘ladi.Demak topshiriq usuliga ko‘ra ijodiy masalalar izlanuvchi (nega?) va konstruktiv (qanday qilish kerak?) kabilarga bo‘linar ekan. .[4,5,6,7].Ular quyidagilar:

A) Qandaydir texnikaviy hodisalarni tushuntirish yoki qandaydir texnikaviy effekt olish asosida tuzilgan masalalar.

B) Tushuntirish yoki qandaydir tabiat hodisalaridan foydalanishni talab qiladigan masalalar bo‘ladi.

C) Ma’lum bir asbobning ishlash prinsipini tushuntirishni yoki yang asbob konstruksiyasini tuzishni talab qiladigan masalalar.

D) Biror laboratoriya hodisasini qanoatlantiruvchi hodisa modelini ko‘rish yoki yangi hodisani topishni talab qiluvchi kabi masalalar.

Ijodiy masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Mustaqil davlatimizning kuch qudratini belgilaydigan faktorlardan biri ma`lumotli, yuksak qobiliyatli, ijodiy aktiv kadrlarni o‘stirish va yetishtirib chiqarish hisoblanadi. Demak, respublikamizdagi turli ta’lim muassasalaridagi fizikadan masala yechish darslarida, ijodiy tipdagi masalalarni yechish maqsadga muvofiqdir. Masalalarni yechish metodlari masalalarning sodda yoki murakkabligiga, hamda o‘qituvchilarning qo`ygan maqsadiga, o‘quvchilarning bilim darajasiga va boshqa talaygina sabablarga bog‘liq.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, fizikadan masalalar yechmay turib fizika kursini o‘zlashtirish mumkin emas. Chunki fizikadan masalalar yechish o‘quvchilarni olgan nazariy bilimlarini, mustahkamlash, uni amalda qo‘llay olishda ko‘nikma va malakani shakllantirish vositasi bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli masala yechish fizikadan dars jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari masalalar yechish o‘quvchilarni fizik qonuniyatlarini chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Djo‘rayev ,B.Sattorova “Fizika va astronomiya o‘qitish nazariyasi va metodikasi”-Toshkent 2015.

2. N.Sadriddinov, A. Rahimov , A.Mamadaliyev, Z.Jamolova “Fizika o‘qitish uslubi asoslari”-Toshkent 2006

3. S.Q.Qahhorov, A.A.Axmedov, B.N.Xushvaqtov “Fizikadan masalalar yechish metodikasi” o‘quv qo‘llanma.

4. Rizayev.T , Nurullayev.B, “Fizikadan masalalar metodikasi “TPDU saytida 2005

5. Fizika va astronomiyadan masalalar yechish texnologiyas fanidan o‘quv uslubiy majmua.

6.Mirziyoyev.Sh.M O‘zbekiston xalqiga va Oliy majlisga murojaati. Prezident saytidan fb.com/Mirziyoyev.

7. A.G.G‘aniyev, M.T.Normurodov “Fizikadan masalalar yechish” –O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti -Toshkent 2012

**Internet saytlari:**
8.www.pedagog.uz
9.www.ziyonet.uz

## YURAK ISHEMIK KASALLIKLARIDA NOODATIY SHIKOYATLAR

**Bo‘ronov Botir Boyir o‘g‘li**
**Navoiy Davlat pedagogika instituti Tibbiyot Fakulteti**
**Davolash ishi yo‘nalishi 1-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar t.f.n Aslanov G‘.A. Kardiolog Rustamov J.I**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurakning ishemik kasalliklari haqida ma’lumot keltirilgan. Kasallik belgilari, sabablari kelib chiqishi, chora tadbirlari haqida ma’lumotlar yoritib berilgan.
**Kalit so‘zlar:**yurak kasalliklari, miokard ishemiyasi, ateroskleroz, stenokardiya , insult, infarkt
**Аннотация.** представлены сведения об ишемических заболеваниях, выделены сведения о причинах, причинах и мерах симптомов заболевания
**Ключевые слова:** Болезни сердца, ишемия миокарда, атеросклероз, стенокардия, инсульт, инфаркт
**Annotation.** This article provides information on ischemic heart disease, causes, symptoms, and measures
**Keywords:** Heart diseases, myocardial ischemia, atherosclerosis, angina pectoris, stroke, heart attack

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yurakning ishemik kasalligi dunyo bo‘ylab yuz berayotgan o‘limning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. 2016-yil yurak-qon tomir kasalliklari sababli 15.2 million kishining o‘limini tashkil etgan. Bugungi kunda ham erkak va ayollarning bevaqt o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Aslida uning oldini olish juda oson bo‘lib, aksariyat hollarda xavfni minimal darajaga tushirish mumkin. Buning uchun to‘g‘ri ovqatlanish, faol hayot tarzini olib borish, stressni boshqarishga harakat qilish, zararli odatlardan voz kechish va yurak-qon tomirlarining holatini shifokor ko‘rigida muntazam ravishda tekshirtirib turish tavsiya etiladi.

Yurakning ishemik kasalligi-yurak qon tomir sistemasining keng tarqalgan kasalligi; miokard ishemiyasi va koronar qon aylanishining buzilishi bilan kechadi. Yurakning ishemik kasalligi-o‘tkir yoki surunkali kasallik bolib, u miokardning kislorodga bo‘lgan ehtiyoji va qon bilan taminlanishi o‘rtasidagi muvozanat buzilishi tufayli rivojlanadi.

Yurakning ishemik kasalligiga asosan, koronar (toj) tomir arteriyalari aterosklerozi natijasida yurak muskullarida qon aylanishining yetishmay qolishi va shu tufayli yurakning qonga yolchimasligi sabab bo‘ladi. Yurakning ishemik kasalligiga stenogkardiya (dastlabki, muqim, nomuqim), miokard infarkti, infarktdan keyingi kardioskleroz, aritmik turi va yurak yetishmovchiligi kiradi. Miokard infarkti, odatda, miokardga kelib turgan qonning toj arteriyalari orqali butunlay oqmasligi natijasida rivojlanadi. Ko‘pincha bunga tromb yoki tromboemboliya sababchi bo‘ladi.Kardiospazm ham ahamiyatlidir. Bu dard, asosan, ilmiy xodimlar, rahbar lavozimlarda ishlaydigan kishilar orasida keng tarqalgan. Salbiy stress, toj arteriyalarining uzoq vaqt mobaynida ta’sirlanish hollari ham bu dardga chalintiradi. Stenokardiya yurak mushaklarining kislorodga bo‘lgan ehtiyoji va uning qon bilan yetib kelishi orasidagi muvozanatning buzilishidir. U surunkali yurak ishemik kasalligining eng ko‘p uchraydigan turlaridan biri bo‘lib, asosan (90%), toj arteriyalarining aterosklerozi tufayli rivojlanadi. Shuningdek, u tomirlarni o‘smalar ezib qo‘yganda va kishi qattiq ruhan iztirob chekkan (10%) hollarda uchraydi. Kasallikning asosiy klinik belgisi hisoblangan stenokardiya xurujining kelib chiqishida bir qator patogenetik zanjirlar borligi aniqlangan. Aterosklerozda, odatda, katexolaminlar gipoksiya ta’sirini toj arteriyalariga nisbatan ko‘rsatadi, chunki aterosklerotik o‘zgargan tomirlarning kengayish xususiyati ancha susaygan bo‘ladi. Ortiqcha hayajonlanish simpato-adrenal tizimini faollashtirib, qon tomirlarning qisilishiga olib keladi. Qon quyilishi kuzatiladi, tromboksan ajraladi. Bu, o‘z navbatida, miokard kapilyarlarining o‘tkazuvchanligini oshiradi. To‘qimalar shishib chiqib, toj arteriyalari siqilishi sababli miokard ishemiyasi rivojlanadi. Yurakning ishemik kasalligik. muntazam rivojlanib boruvchi og‘ir yurak xastaligi hisoblanadi. Yosh ulg‘aygan sari kasallik uchrashi ko‘payadi.

YUIK klinik jihatdan bir xilda kechmay, dam zo‘rayib, dam bosilib turadi. Ko‘pincha Yurakning ishemik kasalligik zimdan kechib, bemor o‘zining shunday xavfli kasallikka chalinganini bilmay, shifokorga murojaat qilmay yuradi. Odatda, Yurakning ishemik kasalligining dastlabki klinik belgilaridan biri  zo‘riqish stenokardiyasi xuruji bo‘lib, jismoniy ish bajarilganda ro‘y beradi. Keyinchalik kasallik uzoq davom etishi, hatto yillab cho‘zilishi mumkin. Ko‘pincha zo‘riqish stenokardiyasiga birmuncha vaqtdan keyin tinch holatda ham kuzatiladigan tinch holat stenokardiyasiga o‘tishiga olib kelishi mumkin.
YUIK.ning kelib chiqishi va rivojlanishiga kishilarning yoshi, kasallikka irsiy moyillik, gipertoniya kasalligi, qandli diabet, semirib ketish, ichkilikka ruju qilish, kashandalik, kam harakat (gipodinamiya), jismoniy hamda ruhiy zo‘riqish va boshqalar sabab bo‘ladi. Kashandalar o‘rtasida Yurakning ishemik kasalligining nisbatan ko‘p uchrashi kuzatilgan.
YUIK.ning rivojlanishida, ayniqsa, xolesterinning ro‘li katta. Qonda xolesterin Zichligi o‘ta past lepoprotenlar hisobiga oshib ketishi aterosklerozga sabab bo‘ladi va bu yurakning ishemik kasalligi rivojlanish xavfini oshiradi.
YUIK.ning xavfli omilini bartaraf etsa bo‘ladigan va bartaraf etib bo‘lmaydigan xillari bor. YUIK.ning dastlabki bosqichi stenokardiya bo‘lsa, miokard infarkti uning eng og‘ir shaklidir. Stenokardiya bilan bemor uzoq vaqt yashashi mumkin, ammo dastlabki davrida (birinchi uch kun) ba’zi bemorda miokard infarkti kuzatiladi. Miokard infarktining klinik belgilari, odatda stenokardiya belgilariga o‘xshash bo‘lib, faqat og‘riq uzoqroq va kuchliroq davom etadi. Bunda dastlabki soatlardayoq o‘lim ro‘y berishi yoki keyinchalik  jiddiy asoratlar kuzatilishi mumkin. Infarktdan keyingi kardioskleroz, yurak aritmiyasi, yurak yetishmovchiligi aslida yurakning ishemik kasalligining asoratlari bo‘lib, yurak qon tomir sistemasi kasalliklari hisobidan yuzaga keluvchi bo‘ladigan nogironlik va o‘limning asosiy sabablaridir. Yurakning ishemik kasalligiga gumon qilinganda darhol bemorni kasalxonaga yotqizish zarur. Kasallikning klinik belgilari (kasallik tarixi, bemor shikoyatlari, perkussiya, auskultatsiya, umumiy ko‘ruv), elektrokardiografiya, yurak muskullariga xos fermentlar va struktura elementlari (kreatinin fosfokinaza izofermentlari, mioglobin va boshqalar) hamda qon tahlili, exokardiografiya va boshqalar tekshiruv natijalariga qarab diagnoz qo‘yiladi.
YUIK.ni davolash terapevtik va jarrohlik usulida olib boriladi. Yurakning ishemik kasalligida parhezga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Ovqatning umumiy miqdori va kaloriyasini cheklab, vaznni me’yorida saqlashga harakat qilish, badan tarbiya bilan shug‘ullanish, mehnat va dam olishni uyg‘unlashtirish, vrach ko‘rsatmalariga bekamu ko‘st amal qilish lozim. Chekishni tashlash shart. Yurakning ishemik kasalligining oldini olish uchun gipertoniya kasalligi, qandli diabet va boshqalarni davolash zarur.
YUIK. bilan og‘rigan bemorlar kardiolog shifokor nazoratida bo‘lishlari kerak.
Yurakning ishemik kasalliklariga olib keluvchi xavfli omilla:
•CHekish, spirtli ichimliklar istemol qilish.
•Dislipidemiya.
•Arterial qon bosimi ko‘tarilishi.
•Qandli diabet.
•Semizlik.
•Yog‘li maxsulotlarni ko‘p istemol qilish.
•Trombogen omil.
•Fizik faollik yetishmovchiligi (gipodinamiya).
Yurakning ishemik kasalligi noodatiy alomatlari:
Soch to‘kilishi: Bunga ishonish qiyin, lekin erkak va ayollarda erta soch to‘kilishi haqiqatan ham arteriyalarning tiqilib qolishi va qon ivishining yuqori xavfi bilan bog‘liq. Masalan, 37 000 erkak ishtirok etgan tadqiqot natijalari soch to‘kilishi va yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqladi. 4000 dan ortiq ayollar ishtirok etgan yana bir tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bu alomat ayollarda ham mavjud. Shuning uchun soch to‘kilishi avvalgidan ko‘ra ko‘proq kuzatilsa, kardiolog tomonidan muntazam tekshiruvdan o‘tish tavsiya etiladi.

Quloq burmasi: Yurak ishemik kasalligining yana bir belgisi-quloq bo‘shlig‘idagi burma yoki ajinlardir. Kasallikning bu belgisi so‘nggi o‘n yilliklarda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Shifokorlarning ta’kidlashicha, asosiy narsa qon ta’minotining yomonlashuvida: arteriyalarning tiqilib qolishi tufayli qon yaxshi haydalmaydi va organizm birinchi navbatda muhim organlarni kislorod bilan ta’minlashga intiladi, qolgan organlarga esa kislorod borishi qiyinlashadi.
Oyoqlarda og‘riq: Ayniqsa, chekuvchilar uchun ushbu belgiga e’tibor berish juda muhimdir: qon ta’minoti yomonlashishi tufayli qon tarkibidagi ekskremintalar arteriyalarga tiqilib qoladi va oyoqdagi o‘tkir og‘riq oqsoqlanish yoki yiqilib ketishga olib kelishi mumkin. Agar shunday vaziyat yuz bersa, shifokor ko‘rigidan o‘tish lozim. Shuningdek, ko‘proq sabzavot yeyishga va piyoda yurishga harakat qilish lozim.
Bo‘yin va jag‘da og‘riq
Bu atipik kasallikka xos bo‘lmagan boshqacha alomat: haqiqat shundaki, ayollarda yurak xurujining dastlabki belgilaridan biri ko‘krak qafasidagi og‘riq emas, balki bo‘yin yoki jag‘dagi og‘riqdir. Afsuski, shuning uchun ham ko‘pincha shifokorga juda kech murojaat qiladi, chunki ular yurak xurujidan gumon ham qilmaydi. Unutmaslik lozim, bo‘yin yoki jag‘dagi og‘riqlar kardiolog bilan bog‘lanish uchun muhim sababdir. Yuqoridagi shikoyatlar aksaryat xollarda ayollarda kuzatiladi .
Bel og‘rig‘i: Ishemik yurak kasalligining yana bir noodatiy, ammo juda keng tarqalgan alomati bel og‘rig‘idir. Sababi qon aylanishining yetishmasligi disklarni zaiflashtirishi va umurtqa pog‘onasidagi bosimni oshirishi mumkin, natijada bel sohasida og‘riq paydo bo‘ladi. Agar tez-tez bel og‘rig‘i kuzatilsa, kardiolog bilan maslahatlashib, undan kardiogramma yoki yurakning ultratovush tekshiruvini, qondagi xolesterin spektorini tekshirtirish buyiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yurak_ishemik_kasalligi
2. https://daryo.uz/2022/09/30/bilib-qoyish-muhim-bolgan-yurak-ishemik-kasalligining-5-ta-kutilmagan-belgisi
3. Ichki kasalliklar (yangi to‘ldirilgan nashr) Abdig‘affor Gadaev

## ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA TARIXIY YASAMA SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI

**Abdullayeva Yulduz Izzatullayevna**
**Ilmiy rahbar: dots. F.Nurmanov**

So‘z yasalish sohasining bir qancha umumiy hodisalari, tushunchalari mavjud. O‘zbek tilshunosligida bunday umumiy tushunchalar aniq belgilanmagan. Ma’lum bo‘lgan ayrim umumiy hodisalarning talqinida ham har xilliklar bor. Rus tiliga oid ishlarda so‘z yasalishining umumiy tushunchalari, asosan, aniq belgilangan va bular yuzasidan deyarli bir fikrga kelingan. O‘zbek tili so‘z yasalishining umumiy tushunchalarini belgilash va bayon etishda ana shu ishlardagi fikrlarga asoslanadi.[3]
So‘z yasalishining ana shunday tushunchalaridan biri so‘z yasash usullari tushunchasidir. So‘z yasalishi, qanday usul bilan bo‘lsa ham, yangi so‘z-leksema hosil bo‘lishi ekanligi yuqorida aytildi. Bunda ikki hodisani farqlash kerak bo‘ladi:
1) tilda umuman yangi so‘zning hosil bo‘lishi.
2) tilga xos ma’lum (qat’iylashgan) usul asosida shu til materiallari bilan yangi so‘z yasash (yangi so‘z hosil qilish).
Tilda, jumladan, o‘zbek tilida yangi so‘z yasalishining xilma-xil usullari borligi ma’lum. Lekin bu usullarning miqdori va turlarini belgilashda, shuningdek, ularni nomlash masalasida hanuz yagona bir fikrga kelingan emas.
O‘zbek tiliga oid, shuningdek, boshqa turkiy tillarga oid adabiyotlarda so‘z yasalishining bir nechta turi ko‘rsatiladi.

[3] А.Хожиев Сўз ясаш усуллари. // Ўзбек тили ва адабиёт. –Т .: 1975. № 4 –Б. 43 -48.

So‘z yasalishining asosiy usullari deb ko‘pchilik tomonidan tan olinayotgan va lingvistik adabiyotlarda qayd etilayotgan usullar quyidagilardir:
1) fonetik usul; 2) affiksatsiya usuli; 3) kompozitsiya usuli; 4) semantik (yoki leksik-semantik) usul; 5) sintaktik-leksik usul.
So‘z yasash usullari tilning lug‘at tarkibini boyitadigan muhim vositalardan biri sanaladi.
O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etilgan ishlar juda ko‘p. Masalan, bir qator ishlarda Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o‘rganilgan, ulug‘ mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.
So‘z yasash u yoki bu usulda yangi ma’noli leksemani hosil qilishdir. O‘zbek tilida so‘z yasalishining, asosan, ikki usuliga ko‘p murojaat qilinadi. So‘z yasalishining tarixiy (diaxron) va hozirgi(sinxron) ko‘rinishlarida ham shu ikki usul: affiksatsiya va kompozitsiya usullari ko‘proq uchraydi.
O‘zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani matnida yasama so‘zlar so‘z yasalishining har ikki usuli uchraydi.
Asar leksemalari affiksatsiya, kompozitsiya usullari yordamida vujudga kelgan.
a) affiksatsiya usuli:
-chi affiksi kasb-hunar, ma’lum bir mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi shaxsni ifodalovchi ot yasaydi: ***yamoqchi, temirchi, ovchi, soliqchi, ijrochi.[303-b]*** [4]
-la affiksi shaxs va narsa asosidan anglashilgan holatni ifodalaydi***: bog‘lamoq, sharxlamoq,[354-b] tayinlamoq.[404-b]***
-lik/-liq/-lig‘ affiksi o‘zi qo‘shilgan asosdan anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi mavhum hamda faoliyat-jaraènni bildiruvchi otlar***: mirzoliq, faqirlik, otaliq[348-b], otliq.[354-b]***
-siz affiksi asosdan anglashilgan narsaga ega emaslikni anglatib, belgi-xususiyatni ifodalovchi sifatlar: ***adabsiz, tengsiz, umidsiz, diyonatsiz [425-****b]*
[2] Isajon sulton Alisher Navoiy romani, Toshkent – 2021, .
-lan affiksi asosdan anglashilgan ish, narsa, holatni bajarish, yuzaga chiqarish ma’nosini bildiruvchi so‘zlar: ***rizqlanmoq, aylanmoq, xavotirlanmoq.[431-b]***
b) kompozitsiya usuli:
a) ot+ot: karvon+boshi, *…goh-goh tin olish uchun to‘xtalganida* ***karvonboshi*** *ularni bir-biriga boshlab, o‘tloqqa qo‘yardi. [165-b]*
*But+xona, Ka’bam eding-u men* ***butxonani*** *tiladim. [172-b]*
b) sifat+ot: oliy+janob, *…hidoyat nishonli* ***oliyjanob*** *Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hozirgi kunlarda…[160-b]*
d) ot+fe’l: dil+pisand *…o‘zimni bahramand va so‘zimni* ***dilpisand*** *arjumand etdim. [427-b]*
e) ot, sifat, son, ravish, taqlid+fe’l (qilmoq, bo‘lmoq, etmoq): itoat qilmoq, quloq osmoq, *U olamda yetti iqlim hukmdori bir darveshga* ***itoat qilib, quloq osadi!*** *[432-b]*
Ma’lumki, turkiy bilan mo‘g‘ul xalqlarining aloqalari uzoq davrni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ham roman matnida ijtimoiy-sièsiy leksika bilan bog‘liq mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan so‘zlar ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, *shig‘ovul/shag‘ovul* – mo‘g‘ulcha *ṡigaul* so‘zining o‘zlashtirilgan shakli hisoblanadi.
Shuningdek, asar matnida yasama yasama so‘zlarning arabcha, fors-tojikcha asosli hamda qorishiq, ya’ni arabcha+fors-tojikcha unsurlardan shakllangan turlari ham uchraydi. Alisher Navoiy uqtirishicha, *-vul* affiksi harbiy va saroy xizmatchilari lavozimiga ega bo‘lgan shaxslarni ifodalovchi leksemalarni hosil qiladi: *qorovul, so‘zovul, patovul, kitnovul, yasovul, bakovul, shig‘ovul, daqavul* kabi. Aravalardagi o‘n-yigirma quloqli ulkan qozonlar tushirilib, yer qazib o‘rnatilar, *bakovullar* betlari qizarib-qizarib osh damlashardi.[5]

[4] Isajon sulton Alisher Navoiy romani, Toshkent – 2021.
[5] Isajon sulton Alisher Navoiy romani, Toshkent – 2021, 92-b.

Tilshunos olim H.Dadaboevning fikricha, *-(v)ul* turkiy va mo‘g‘ul tillari uchun umumiy affiks hamda qadimgi va eski turkiy tilda uchramaydi, mazkur affiks eski o‘zbek tilida, asosan, harbiy terminlarni shakllantiruvchi qo‘shimcha sifatida keltiradi[6].

Demak, asar matnidagi yasama so‘zlar va ularning tarkibiy tahlili turkiy so‘zlarning gneologik jihatdan qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek tili bilan umumiy xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Asar tilida turkiy hamda o‘zlashma birliklardan yangi so‘zlar shakllanishida ot yasovchi *-lik/-liq/-lig‘, -chi,* sifat yasovchi *-li/-lik, -siz* va fe’l yasovchi *-la* affikslari faol qo‘llangan. Shuningdek, turkiy so‘zlardan yasalmalar hosil qilishda ot, sifat, fe’l so‘z turkumlariga oid leksemalardan samarali foydalanilgan. O‘zlashma so‘zlarni shakllantirishda affiksatsiya usuli barcha so‘z turkumlari uchun sermahsul hisoblansa, kompozitsiya usuli fe’llarni hosil qilishda ko‘zga tashlanadi.

## TASVIRIY SAN’AT VA TEXNOLOGIYA, TASVIRIY SAN’AT ASARLARINI YARATISHNING ZAMONAVIY USULLARI.

**Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi**
**ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi**
**Jurayeva O‘g‘iloy Kengash qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyaning tasviriy san’atdagi o‘rni, bugungi kun san’atining zamonaviy turi installyatsiya haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:**texnologiya, photoshop, 3D modellash, video san’at, installyatsiya, interaktiv.

San’at va texnologiya doimo yonma-yon bo‘lgan. Eng qadimgi g‘or rasmlaridan tortib, eng so‘nggi raqamli qurilmalargacha, texnologiya san’atni yaratish va tajriba qilish uslubimizni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

San’atda texnologiyaning o‘rni doimo ijod chegaralarini kengaytirish va rassomlarga o‘z qarashlarini amalga oshirishga yordam berishdan iborat edi. Bo‘yoq cho‘tkasi va kanvas ixtirosi kabi dastlabki texnologik yutuqlar rassomlarga ilgari imkonsiz bo‘lgan san’at asarlarini yaratishga imkon berdi. Matbaa san’atni ommaviy miqyosda ko‘paytirish va tarqatish imkonini berdi va fotografiya atrofimizdagi dunyoni suratga olish va hujjatlashtirishda inqilob qildi.

XX asrda texnologiya san’atda, raqamli san’at, video san’at va installyatsiya san’atining yuksalishi bilan yanada muhimroq rol o‘ynadi. Ushbu san’at shakllari san’at va texnologiya o‘rtasidagi chegaralarni xiralashtiradigan va interaktiv asarlarni yaratish va taqdim etish uchun asosan texnologiyaga tayangan. San’at va texnologiya o‘rtasidagi munosabatlar vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlandi. Ilgari texnologiya san’atkorlar uchun o‘z ijodiy jarayonlarida foydalanish quroli sifatida qaralgan. Biroq, texnologiya rivojlangani sayin, u san’atni yaratish va taqdim etishda ko‘proq rol o‘ynay boshladi.

Raqamli san’atning yuksalishi bilan rassomlar texnologiya imkoniyatlarini yangi va qiziqarli usullarda o‘rganishni boshladilar. Photoshop va 3D modellash dasturlari kabi raqamli vositalar rassomlarga an’anaviy media yordamida yaratish imkonsiz bo‘lgan asarlar yaratishga imkon berdi. Xuddi shunday, video san’at va installyatsiya san’ati an’anaviy san’at shakllari bilan mumkin bo‘lmagan immersiv tajribalarni yaratish uchun texnologiyadan foydalangan. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, san’at va texnologiya o‘rtasidagi munosabatlar ham rivojlanishda davom etadi. Masalan, kengaytirilgan va virtual haqiqat texnologiyalari tomoshabinlar uchun ajoyib tajriba yaratish uchun allaqachon san’atda qo‘llanilmoqda. Kelajakda biz ko‘proq rassomlarning ushbu texnologiyalardan foydalangan holda yanada chuqurroq va interaktiv asarlar yaratishini kutishimiz mumkin.

XXI asrda kimdir san’at endi bo‘yoqlarda chizish eskirgan deb aytishi mumkin. Chunki barcha sohalar kabi san’at rivojlanib, o‘zgarib, yangi g‘oyalar bilan rivojlanmoqda. Garchi ko‘pchilik “go‘zallik”ning didi va konsepsiyasini klassika bilan bog‘lasa ham, bu “Leonardo da Vinchi yoki Ayvazovskiydan keyin” ixtiro qilingan barcha narsalar bo‘lish huquqiga ega emasligini

[6] Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке // Проблемы лексики староузбекского языка. – Ташкент, 1990. – С. 75.

anglatmaydi. Ushbu davrda installyasiyalar paydo bo‘ladi. Ba’zan ularni amalga oshirishda ishlatiladigan kompozitsiya va obyektlar juda g‘ayrioddiy va xilma-xil bo‘lib, etkazish shakli tomoshabinni hayratda qoldirishi mumkin.

Instalatsiya san’ati – zamonaviy san’atning bir turi, “Installyasiya” so‘zi ingliz tilidan olingan va tarjimada “o‘rnatish” degan ma’noni anglatadi. Installyasiya – bu bitta g‘oya bilan birlashtirilgan obyektlar to‘plami. Ushbu san’at turi birinchi marta Marsel Dyushanning “Velosiped g‘ildiragi” (1913) va “Favvora” (1917) asarlari tufayli paydo bo‘ldi. Shundan so‘ng, “redi-meyd” atamasi paydo bo‘ldi, bu muzeyga keltirilgan tayyor narsa degan ma’noni anglatadi.





Installyasiyalar quyidagi shakllarda taqdim etilishi mumkin:

1.Makon va narsalar elementlarining tarkibi sifatida. Misol uchun, agar muzeyga g‘ayrioddiy mebel bilan jihozlangan xonaga kirsangiz, demak bu yangi installyasiyadir.

2. Turli san’atlar aralashmasi sifatida. Odatda installyasiya kompozitsiyasiga musiqa yoki video yoki o‘tmishdagi ba’zi rasmlar qo‘shiladi. Installyasiyaga g‘arq bo‘lishingiz uchun: siz buni his qilishingiz, ehtimol tatib ko‘rishingiz yoki shunchaki tegib ko‘rishingiz uchun bu aniq amalga oshiriladi.

3. Installyasiya tomoshabin bilan majburiy o‘zaro aloqa sifatida. Bu ushbu turdagi ijodning ajralmas elementidir. Tomoshabinning munosabati-sezgir bo‘lishi kerak.

4. Bu haykalaroshlik emas. Ba’zilar, installyasiya haykaltaroshlikning bir turi deyishadi-bu noto‘g‘ri tushuncha. Odatda haykaltaroshlik aniq materialdan qilingan hajmdor figura. Installyasiyada turli shakllar va materiallarning har qanday obyektidan foydalanish mumkin.

5. Installyasiyaning ma’lum bir muddati bor. Qoidaga ko‘ra kompozitsiyalar muzeylarda uzoq ushlab turilmaydi. Bu ishda ishlatiladigan mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatiga bog‘liq.





Portunun markazida instalyasiya





Shamaxida “Nasimiy ruhi” haykaltaroshligi “G‘alaba” o‘rnatilishi yangilandi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Xasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2006.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. –Toshkent: ToshDPU, 2004.
3. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi nasaf nashriyoti 2000 y. o‘quv qo‘llanma.
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2004. –104 b.
6. Abdullaev, A.,va Bobomurodova, S. (2023). THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART.*Science and innovation*,*2*(C3), 64-66.
7. Abdullayev, A. H.,va Bobomurodova, S. A. (2022). BO‘LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH.*Scientific progress*,*3*(3), 908-910.
8. Abdullaev, A., Bobomurodova, S.,va Juraeva, O. (2024). THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES.*Science and innovation*,*3*(B1), 335-339.
9. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 191-197.
10. Mardonovna M. G. et al. ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING ORNI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023.-T. 2.-№. 11.-C. 18-22.
11. Tolibovich S. S., Mardonovna M. G. EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART //Science and Innovation. – 2023. – T. 2.-№. 2.-C. 16-19.


## BANK SOHASI TALABALARINING OG‘ZAKI MULOQOT JARAYONIDA DUCH KELADIGAN QIYINCHILIKLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI


**NavDPI Ingliz tili va adabiyoti fakulteti**
**1-kurs magistri: Davronova Munisa Alijon qizi**
**Ilmiy rahbar: Istamova Dilnoza Sa’dulloyevna, p.f.f.d .(Phd)**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim qatlami bo‘lgan termin va terminologiya tushunchalariga ta’rif hamda bank sohasi talabalarining og‘zaki nutq jarayonida duch keladigan qiyinchiliklari va ularni bartaraf etishning muqobil yo‘llari keltirib o‘tilgan.

**Annotation.** This article cites a definition of the concepts of term and terminology, an important layer of linguistics, and the difficulties faced by students in the banking industry in the process of oral speech and alternative ways to overcome them.

**Аннотация.** В данном статье дается определение терминов и терминологических понятий, которые являются важным ярусом лингвистики, а также трудности, с которыми сталкиваются студенты, изучающие банковское дело, в процессе устной речи и альтернативные способы их преодоления.

**Kalit so‘zlar:** termin,terminologiya, definitsiya, nominativ, bank,moliya,jargon va qisqartmalar

**Keywords:** term, terminology, definition, nominative, bank, finance, jargon and abbreviations

**Ключевые слова:** термин, терминология, определение, именительный падеж, банковское дело, финансы, жаргон и аббревиатуры

Termin grekcha “terminus” so‘zidan olingan bo‘lib, chek-chegara degan ma’noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo‘jaligi, san’at va madaniyat sohasiga xos so‘z hisoblanadi. Terminologiya – terminlar haqidagi ta’limot va terminlar majmui degan ma’nolarni anglatadi.[7]

Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan terminlar jami sifatida ta’riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to‘g‘ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste’moldagi so‘zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo‘llanishi ma’lum darajada nazorat ostida bo‘ladi. Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo‘lgan va, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi.[8]

Xususan, bank terminologiyasi bilan tanishish moliyaviy imkoniyatlarni oshirish va shaxsiy moliyani samarali rivojlantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. U bank va moliyaning murakkab dunyosida ishonch va aniqlik bilan harakat qilish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shunday bo‘lsada, bank sektori xodimlari va talabalari kasbiy terminologiya orqali muloqot o‘rnatishda terminlarning murakkabligi, bank tilida jargon va qisqartmalarning ko‘p qo‘llanishi, mdanaiy va lingvistik tafovutlar mavjudligi, noto‘g‘ri kommunikatsiya va noto‘g‘ri tarjimalar kabi muammolarga ko‘p bora duch keladilar.

Bank sohasiga oid kasbiy terminologiyani o‘rganishda jahon hamjamiyati hamda dunyo olimlari bir qancha e’tiborga molik ishalarni amalga oshirmoqdalar. Jumladan, Bank va moliya tadqiqotlar markazi (Buyuk Britaniya), Surrey universiteti (Buyuk Britaniya), Terminologiya bo‘yicha xalqaro tarmoq kabilarda kasbiy terminologiya sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari AQSHlik olim Arjun Appadurai o‘zining “Banking on Words.The Failure of Language in the Age of Derivative Finance” [9] (“Bank so‘zlarda. Derivativ moliya asrida tilda uchraydigan muvaffaqiyatsizliklar”) kitobida xalqaro talabalar uchun bank olami jargonlarini, idiomatik til va qo‘llaniladigan akademik terminlar orqali ingliz tilini o‘rganuvchilarning o‘qish va yozish ko‘nikmalarini oshirish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlarni yoritib bergan.

Bank sohasi talabalari bugungi kunda quyidagi muammolarga duch kelmoqdalar:

- **Murakkab terminologiya:** bank terminologiyasi murakkab va ixtisoslashgan bo‘lishi, atamalar talabalar uchun notanish bo‘lishi mumkin. Bu esa muloqot paytida chalkashliklar va tushunmovchiliklarga olib keladi.
- **Jargon va qisqartmalar:** bank dunyosi ko‘pincha talabalar uchun darhol anglash qiyin bo‘lgan jargon va qisqartmalardan foydalanadi. Bu, ayniqsa, ushbu sohadagi mutaxassislar bilan muloqot qilishda samarali muloqotga to‘sqinlik qilishi mumkin.

---

[7] https://fayllar.org/til-va-terminologiya.html

[8] Asror Abdullayevich Sabirov. “TERMIN VA TERMINOLOGIYA BERILGAN TA’RIFLAR”. Scientific Journal Impact Factor. 2022, B.-446-451

[9] Arjun Appadurai “Banking on Words.The Failure of Language in the Age of Derivative Finance”,University of Chicago Press,2015,B.-176;

- **Madaniy va lingvistik farqlar:** turli madaniy va lingvistik kelib chiqishi bo‘lgan bank talabalari tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan samarali muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.
- **Noto‘g‘ri kommunikatsiya va noto‘g‘ri talqin:** noto‘g‘ri muloqot talabalar bank terminologiyasini noto‘g‘ri tushunganda yoki xato talqin qilganda sodir bo‘lishi mumkin, bu ularning ishidagi xatolar yoki chalkashliklarga olib keladi.

Albatta, talabalar o‘zaro xodimlar va mijozlar bilan bo‘ladigan bu kabi muammolarga duch keladilar va bunga yechim topish uchun dars beruvchi ustoz yoki ushbu muammolar ustida ish olib boruvchi tadqiqotchi ushbu samarali usullarni qo ‘llashi mumkin:

- Talabalarni o‘qish, muhokama qilish va amaliy mashg‘ulotlar orqali bank terminologiyasi bilan faol shug‘ullanishga undash. Talabalarga asosiy atamalar va tushunchalar bilan tanishishlariga yordam berish uchun lug‘atlar, darsliklar va onlayn darsliklar kabi manbalarni taqdim etish.
- Talabalarga umumiy bank jargoni va qisqartmalarini o‘rgatish va ularni iloji boricha oddiy tildan foydalanishga undash. Notanish atamalar uchun tushuntirishlar berish va unga xos bo‘lgan kontekstni taqdim etish va talabalar o‘zlari uchun tushunarsiz bo‘lgan terminologiyaga duch kelganda savollar berishga undash.
- Madaniy va lingvistik xilma-xillikni hurmat qiladigan va real hayotga tatbiq etadigan inklyuziv o‘quv muhitini yaratish. Talabalarni o‘z mulohazalari va tajribalari bilan o‘rtoqlashishga undash, madaniy muhitni anglash bo‘yicha treninglar o‘tkazish.
- Muloqotda aniqlik muhimligini ta’kidlash va talabalarni asosiy atamalar va tushunchalarni anglaganliklarini bir necha marotaba tekshirishga undash. Talabalarga tushunmovchiliklarni aniqlash va tuzatishga yordam berish uchun taqriz va mulohazalar taqdim etish.

Ushbu muammolarni hal qilish va o‘ziga xos yondashuvlarni qo‘llash orqali bank talabalari o‘zlarining muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari va bank terminologiyasining murakkab dunyosida ancha rivojlanishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**:

1. https://fayllar.org/til-va-terminologiya.html
2.Asror Abdullayevich Sabirov. “Termin va terminologiya berilgan ta’riflar”. Scientific Journal Impact Factor. 2022, B.-446-451
3. Arjun Appadurai “Banking on Words.The Failure of Language in the Age of Derivative Finance”, University of Chicago Press, 2015, B.-176;

## FRANSIYADA BAROKKO DRAMATURGIYASI

**Ilmiy rahbar f.f.f.d.(PhD) X.A.Arziqulova**
**O‘zbek tili va adabiyoti**
**2-kurs talabasi yosh tadqiqotchi M.X.Burxonova**

**Annotation.** French art of the 17th century is usually called the Baroque, but from the middle to the end of the 17 th century, the style of French art shows a classical adherence to centain rules of proportion and sobriety, uncharacteristic of the Baroque. That is practiced in southern and eastern Eutope during the same period.

**Annotatsiya.** adabiyotshunoslikda barokko dramaturgiyasi ham aynan XVII asrga kelib rivolana boshladi. dastlab poeziyada yaralgan barokko romanchilikda ham namoyon bo‘ladi.Fransiyada barokko dramaturgiyasi ham rivojlanib boradi, biroq fransuz barokko dramaturgiyasi  klassisizm dramaturgiyasidan ko‘ra kamroq ahamiyatga ega. XVII asrda ushbu janrning shakllanishida, dunyo sivilizatsiyasini rivojlantirishda O. d`Yurfening ahamiyati e’tiborga loyiq.

**Аннотация**. Французское искусство XVII века обычно называют барокко, но с середины до конца XVII века стиль французского искусства демонстрирует классическое соблюдение некоторых правил пропорции и сдержанности, нехарактерных для барокко. В тот же период это практикуется в южной и восточной Европе.

**Key words:** poetry, dramaturgy, baroque, novel,  psychology, genre
**Kalit so‘zlar:** she’riyat, dramaturgiya, barokko, roman, psixologiya, poeziya, janr
**Ключевые слова:** поэзия, драматургия, барокко, роман, психология, жанр.

Barokko she'riyatidan tashqari, Fransiyada barokko dramaturgiyasi ham rivojlanib bormoqda edi. Barokko teatrida A. Ardi ijodidagi tragikomediya janrining dinamik harakatlar bilan to'laligi, mizanssen sahnasining samaradorligi, syujetlarning murakkabligi va boshqa o'ziga xos xususiyatlari aniq ko'rinadi. Biroq, fransuz barokko dramaturgiyasi klassisizm dramaturgiyasiga qaraganda kamroq badiiy ahamiyatga ega. Ayniqsa badiiy adabiyot sohasidagi aynan romanda vaziyat boshqacha. Bu yerda, birinchi davr fransuz adabiyoti rivojlanishi, albatta, yana, shu davrda barokko va uning "yuqori" va "pastki" demokratik varianti hukumroligi, hamda bir xilda, bir vaqtning o'zida antinomik barokko romanining tizimi shakillanadi. XVII asrda ushbu janrning shakllanishida, dunyo sivilizatsiyasini rivojlantirishda O.d'Yurfening "Astreya" nomli pastoral sevgi-psixologik romani juda muhim rol o'ynadi.Antologiyada bu keng asarning kichik, ammo muhim parchasini o'qib, bu haqda fikr olish mumkin, ammo qo'shimcha adabiyot bu roman haqida aniqroq ma'lumot beradi. Ta'kidlash lozimki, darsliklarda bu romaning juda "nozik" jihatlari to'liq ochilmagan."Astreya" ning presioz madaniyati va adabiyotga ta'siri juda muhim ekanligiga qaramasdan, d'Yurfe romanining poetikasi manneristik va barokko tamoyillarining murakkab boshlanmalarini bir-biriga aralashishidan iborat bo'lib, ikkinchisining aniq ustunligini amoyon qiladi.D'Yurfe romani o'ziga xos "tarixiylik" va ensiklopedizmni birlashtiradi. Postaral Galliyning ulug'vor dunyosi, cho'ponlarning hamjihatligi, cho'ponlarcha poetik va qulay hayot yo'lini tanladi, "qoliplangan roman" murakkab labirint kompozisiyada tasvirlanadi, (ya'ni, ko'plab hikoyalar), bu dunyoviy sivilizatsiya darsligiga aylandi.[10]

Gombervillning jo'shqin qahramonlik romani "yuqori" romanchilikning o'zgacha janr modifikatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Fransuz barokko "quyi" romani ushbu davrda rivojlanadi, shu bilan birga to'g'ridan-to'g'ri munozaralarga sabab bo'lgan d'Yurfening ibodat bilan bog'liq "yuqori" sevgi-psixologik romanchiligi ham yuzaga keladi. Ammo uning burlesk-kulgili dunyo, axloqiy va kundalik hayot, qahramon va yozuvchi-libertin nuqtai nazarida aslida, bu roman turini realistik deb hisoblaydigan adabiy tanqidchilar haqiqatining oddiy ta'rifi emas.

Sh.Sorelning "Fransionaning kulguli tarixi" romani bilan tanishish va ro'yxatda keltirilgan yangi tanqidiy adabiyotlardan foydalangan holda, asarda barokkoning shubhasiz turg'un xususiyatlarini ko'rish mumkin. Asarda shuningdek, Sh.Sorelning biografik (T.De Vio taqdiri) va umumiy didaktika xususiyatlari barokko konsepsiyasidagi inson va voqelik syujeti rivoji qanday mujassamlashganliginiko'rish mumkin.

Fransiyadagi adabiy jarayonning keyingi bosqichi xususiyatlari tahlil qilinsa, 1634 yilda tashkil etilgan Fransuz Akademiyasining ushbu davr madaniy hayotida-absolyutizmni yanada mustahkamlash, kardinal Rishele birinchi navbatda, adabiy til me'yorlarini tartibga solish, normativ klassik estetikaning nazariy rivojlanishi, zamonaviy adabiyotni tanqidiy muhokama qilish. kabilar edi. Bu faoliyat, ayniqsa, dramaturgiya sohasida klassisizmni mustahkamlashning umumiy jarayonining ajralmas qismidir.[11]

Bu davrda Fransiyada faqat barokko o'z taraqqiyotini davom ettiradi (Tristana l'Ermita, Sent-Amana, Skaronne she'riyatida, Paskalning falsafiy prozasida, romanda). Yana bir jihati ushbu davrda alohida ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy hodisa yuzaga keladi.Bu hodisaning barokko-klassik tabiati roman nazariyasida "aqlga sig'maydigan" va qoidalarga bo'ysunadigan "nasrdagi epopeya" sifatida, bu roman poetikasining o'ziga xosligi, uning tarkibida ma'lumbir murakkablik, ziddiyat rivojlanishi aniq namoyon bo'ladi.

"Quyi barokko" romani bu davrda maxsus "amalgam" tendensiyalarini namoyon qiladi: bu janr modifikatsiyasida munozara pafosini saqlagan holda, Tristan l'Ermit va Skarron romanlari fabulasini hamda "yuqori" motivlvrini o'z ichiga oladi, sahnalar va antinomik roman tuzilishining boshqa elementlarini har doim ham parodiya qilavermaydi, lekin ba'zan bevosita ulardan foydalanadi.

Bularning hammasi Fransiyada klassisizm kuchayib, adabiy hayotning Markaziy hodisasiga aylanganini ko'rsatadi. Faylasuflar aynan shu XVII asr o'rtalaridagi vaqtni tez-tez "Paskal davri"

---

[10] Сорель Ш. Правдивое комическое жизнеописание Франсиона. - М., 1990.

[11] Бордонов Ж. Мольер. - М., 1983. 3.4-7) 3.8-9)21[1111][21].

deb atashardi. Barokko insonning qarama-qarshi, chigal, sarosimaga tushgan holatini ko‘rsatgan (e’tibor qaratilsa “fikrlar” faqat ularning muallifi vafotidan keyin chop etilgan, aslida ular 1640-1650-yillarda yaratilgan): klassisizmning tartibli va barokkoning aralash komponentlari adabiy bosqichida yagona yangi jarayonning shakillanishiga olib keldi.

Bu jarayonda P.Kornel dramaturgiyasining qanday rol o‘ynashini tushunish lozim. Dramaturg ijodini tahlil qilish jarayonida, uning poetikasi tadrijiga, “birinchi” va “ikkinchi” holati harakat tarzining o‘ziga xosliklariga hamda Kornelning klassik nazariyasining akademik talablariga xos bo‘lgan munosabatiga e’tibor berish foydalidir.

She’riy qisqa hikoyalar, ertaklar va afsonalar muallifi Lafonten ishi bilan tanishish ham muhimdir. Lafonten masalda satirik-axloqiy va she’riy birlashtirilganligini tahlil qilishga harakat qiling, qadimgi va klassik adabiyotda afsonalarning janriga oid qiziqarli kuzatuvlarni o‘z ichiga olgan klassik shoir (L.Vigotskiyning qadimgi va mumtoz adabiyotdagi ertak janri haqida qiziqarli kuzatuvlarni o‘z ichiga olgan "San’at psixologiyasi" kitobi bunga o‘z o‘rnida katta ko‘mak beradi.)[12] [21]. Bundan tashqari bu davrda klassik prozaning turli janr spektrlari haqida bilish kerak edi: bu maksimum (Laroshfuka), xat (madam de Sevinye), xotiralar (Laroshfuko, de Rets), garchi umumiylik uchun klassizmning aniq ustunligi, aforistik aniqlik va ifoda lakonizmi axloqiy aforistik prozani birinchi o‘ringa qo‘yadi.. 21. Bordonov J. Molyer. M., 1983.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**


1.Сорель Ш. Правдивое комическое жизнеописание Франсиона. - М., 1990.
2.Бордонов Ж. Мольер. - М., 1983. 3.4-7) 3.8-9)21 [21].
3.http://17v-euro-lit.niv.ru/17v-euro-lit/pahsaryan-17-18v/francuzskaya-literatura-xvii.htm


## MAYDANAK BALAND TOG‘ OBSERVATORIYASI


**Abdisalomova Sanobar**
**Fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi talabasi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.I.Kamalova**


Teleskop (grekcha — “tele” “uzoq” va — “skopeo” “qarayman”) – osmon yoritqichlarini vizual, fotografik, fotoelektrik va spektral usullarda kuzatish uchun mo‘ljallangan astronomik optik asbob.



Teleskop Oy, sayyoralar va yulduzlarning tasvirini kattalashtirib ko‘rsatadi. Ishi osmon yoritqichlari tarqatadigan elektromagnit nurlanishlarni tutishga asoslanadi. Teleskoplar gamma teleskop, rentgen, ultrabinafsha, optik, infraqizil va radioteleskop kabi turlarga bo‘linadi. Optik tizimiga ko‘ra, refraktor, reflektor, ko‘zgulinzali tizim va boshqa deb ataladi (linzalardan yig‘ilgan obyektivli teleskop refraktor, botiq ko‘zgulardan yig‘ilgan obyektivli teleskop reflektor deyiladi). Teleskop obyektivi tushiradigan tasvirning masshtabi obyektivning fokus masofasiga, ya’ni



yorug‘lik yig‘uvchi obyektiv bilan yoritqich tasviri hosil bo‘ladigan nukta orasidagi masofaga mutanosib bo‘ladi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida O‘rta Osiyoda yagona, ko‘zgusining diametri 1,5 m bo‘lgan teleskop va ko‘p uyali yorug‘lik

[12] http://17v-euro-lit.niv.ru/17v-euro-lit/pahsaryan-17-18v/francuzskaya-literatura-xvii.htm

matritsasiga ega bo‘lgan Quyosh teleskopi bor.

**Yulduzlar va kvazarlarni qidirib. Maydanak baland tog‘ observatoriyasi**

Shahrisabz shahridan 45 km uzoqlikda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida Markaziy Osiyodagi eng katta bo‘lgan bir yarim metrlik teleskop o‘rnatilgan Maydanak astronomik observatoriyasi joylashgan. Observatoriya 1970-yilda ochilgan. Hozirgi kunda bu eng zamonaviy uskunalar bilan to‘liq jihozlangan stansiya hisoblanadi. Observatoriya Mirzo Ulug‘bek nomidagi Astronomiya institutiga tegishli bo‘lib, xorijiy olimlar bilan birgalikda astronomiyani o‘rganish borasida hamkorlik qilib kelmoqda.

Observatoriya 2650 metr balandlikda Hisor tog‘ massivining ustida joylashgan. Noyob geografik joylashuvi, ideal iqlim sharoiti va kuchli teleskop astronomik observatoriyaga o‘zgaruvchan yulduzlar va galaktikalarning harakatini aniq kuzatish, samoviy jismlarning to‘dalarini o‘rganish hamda kvazar va o‘ta yangi yulduzlarning o‘zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Shimoliy yarimsharning eng yaxshi observatoriyasi sifatida bu yerda 80 dan ortiq asteroid, to‘rtta kometa va yangi kichik sayyora kashf etilgan. Kichik sayyora “Samarqand” deb nomlangan va Kichik sayyoralarning xalqaro katalogiga kiritilgan. U o‘zbek astronomlari tomonidan 2010-yilning iyul oyida kashf etilgan. Ma’lum bo‘lishicha, kichik sayyora Quyosh atrofida Mars va Yupiter orbitalari o‘rtasida taxminan to‘rt yil davriylik bilan aylanib yuradi.

Observatoriya uchun ulkan hudud-taxminan 40 gektar maydon ajratilgan. Tog‘larning bepoyon kengliklarida osmon ayniqsa past, yulduzlar esa juda yaqin tuyuladi. Bu yerda dengiz hayvonlarining qoldiqlari, qadimgi uxlab yotgan vulqonni ko‘rish mumkin, havoning tozaligi va ajoyib manzara esa odamni maftun etadi.





Rasadxonaga o‘rnatilgan teleskoplar ko‘zgularining diametri 1,5 m va 1,0 m. Bulardan tashqari, ko‘zgusining diametri 60 sm dan bo‘lgan 4 ta, 50 sm dan bo‘lgan 3 ta teleskoplar ham o‘rnatilgan. Rasadxonada Galaktikamiz Shimoliy qutbi sohalarida va Quyosh sistemasi atrofidagi tumanliklarda joylashgan o‘zgaruvchan yulduzlar fotometriyasi ma’lumotlari to‘planadi, yulduzlar yorqinligining kuchsiz o‘zgarishlari fotometrik effektlari topildi. Ushbu fotometriya natijasidan foydalanib dunyoda muhim bo‘lgan rangli fotometriya banki barpo etildi. Rasadxonada koinotning eng uzoq, chekkalarida joylashgan noyob obyektlar-gravitatsion linzalar, kvazarlar va faol yadroli galaktikalarni tadqiq etish bo‘yicha izlanishlar olib boriladi.



U kitob baland tog‘li astronomik rasadxonalar majmuasining tarkibiy bo‘linmalaridan biridir.

Yulduzlarning atmosfera tasvirlarining yuqori sifati va rasadxonada tungi vaqtda ko‘plab kuzatuv dasturlarini samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Maydanak astronomik observatoriyasi haqida faktlar:

1. Maydanak baland tog‘li rasadxonasi Shimoliy yarim shardagi eng yaxshi astronomik obyektlardan biri va eng yaxshisi.
2. Observatoriya 4 ta kometani topdi.
3. Maydanak rasadxonasi olimlari tomonidan topilgan 80 dan ortiq asteroidlar.
4. 2007-yilda rasadxona yangi kichik sayyora “Samarqand” ni kashf etdi.

5. Rasadxona Quyosh tuzilishini geliseysmologik tadqiq qiladi.
6. MDHda birinchi astrovideo Maydanakda suratga olingan.
7. Rasadxona joylashgan hudud juda sokin, shu qadar sokinki, koʻpchilikda eshitish gallyutsinatsiyalari paydo boʻla boshlaydi.
8. Rasadxonaning joylashgan joyi – 2650 m balandlikda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kamalova D.I., Abdisalomova S.N. “Astronomiyada fanlararo integratsiya” elektron darsligi. Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi. №DGU 22132. 16.02.2023
2. Kamolov I.R., Kamalova D.I. va b. Astrofizika va yulduzlar astronomiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrugʻi. Darslik. Roʻyxatga olish raqami №68-504.

## TARIX FANLARINI OʻQITISHDA NAZARIYA VA METODLARNING OʻRNI

**Xayrullayev Gʻiyosiddin Jamshiddin oʻgʻli**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Tarix, qoʻshimcha davlat huquqi 3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda boshqa ta’lim sohalari kabi tarix ta’limida tub oʻzgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada samarali tarix ta’limini amalga oshirishda boʻlgʻusi tarix oʻqituvchisini pedagogika va tarix fanlarini oʻqitish nazariyasini atroflicha oʻrganishlari masalasi tahlil qilinadi. Tarix fanlarini oʻrta maktabda sinflar kesimida oʻqitish metodlarini har bir mavzuni oʻqitishda toʻgʻri tanlash toʻgʻrisida fikr yuritiladi.

**Аннотация.** Сегодня историческое образование, как и другие области образования, претерпевает фундаментальные изменения. В данной статье анализируется вопрос тщательного изучения будущим учителем истории педагогики и теории преподавания истории в реализации эффективного исторического образования. Методика преподавания предметов истории в средней школе в разрезе классов будет обсуждаться на тему правильного выбора преподавания каждого предмета.

**Abstract.** Today, history education, like other fields of education, is undergoing fundamental changes. This article analyzes the issue of the future history teacher’s thorough study of pedagogy and the theory of teaching history in the implementation of effective history education. The methods of teaching history subjects in high school in the cross-section of classes will be discussed on the correct choice of teaching each subject.

**Kalit soʻzlar:** oʻqitish metodikasi, “Ta’lim toʻgʻrisida”gi Qonun, innovatsiya, texnologiya, tarix, ta’lim, pedagogika, ogʻzaki metod, koʻrgazmali metod, X.Ibragimov, samarali ta’lim.

**Ключевые слова:** методика преподавания, Закон “Об образовании”, инновации, технологии, история, образование, педагогика, устный метод, демонстрационный метод, Х.Ибрагимов, эффективное образование

**Keywords:** teaching methodology, Law “On Education”, innovation, technology, history, education, pedagogy, oral method, demonstration method, Kh.Ibragimov, effective education

## KIRISH

Hozirgi davrda mamlakatimiz yangi bir tarixiy davrda turibdi. Bu davr jamiyatning barcha sohalarida tub islohotlar jarayoni kechayotgani bilan tavsiflanadi. Ushbu islohotlarning maqsadi vatanimiz, xalqimizning kelajakda farovon jamiyat va erkin, ozod va obod demokratik davlat va jamiyat qurishga qaratilgan. Ushbu islohotlar jamiyatning asosiy sohalaridan biri boʻlgan ta’lim sohasini ham qamrab oladi. Qaysiki ta’limning asosiy vazifasi yangi texnika va texnologiyalarni xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlarida tatbiq etadigan zamonaviy kadrlarni tayyorlashdir. Shu sababli mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab ta’lim sohasini isloh qilishga kirishildi.

Barcha fanlar kabi tarix fanlarini oʻqitish va tarixni oʻrganishda ham islohotlar amalga oshirila boshlandi. Birinchi navbatda sobiq sovet davridagi hukmron mafkuraga asoslangan tarixni oʻqitish metodikasidan voz kechildi.

Ta’lim – ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon.[13]

Tarix fanlari ta’limning barcha bosqichlarida o‘qitiladi. Bizning Navoiy davlat pedagogika institutida tarix fanidan kiruvchi pedagoglar tayyorlanadi. Men ham shu instituting “Tarix, qo‘shimcha davlat huquqi” ta’lim yo‘nalishining 3-kursida ta’lim olaman. Maqsadim tarix fanidan o‘qituvchi bo‘lish va kelajakda tarix fani yo‘nalishida magistraturada o‘qishni davom ettirishdir.

Fanlarni o‘qitish metodikasida hozirgi kunlarda Prezidentimiz, hukumatimiz topshirig‘lari bilan ta’lim samaradorligini ta’minlash uchun tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga kirishildi. Ana shunday vazifalardan biri 4+2 tizimini amalga oshirish bo‘ldi. Bu yangilik biz bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchilarni bo‘lg‘usida yuqori malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishimiz uchun kerakli bo‘lgan omil bo‘ldi.

Biz birinchi va ikkinchi kurslarda tarix fanlaridan nazariy bilim oldik. Lekin bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchisi uchun nazariy bilimni o‘zi kifoya qilmas ekan. Yangi ta’lim dasturi 4+2 bo‘yicha auditoriyada olingan bilimlarni amaliyotda, ya’ni o‘rta maktabda bo‘lgusi ish joyimizda tarix fanlarini o‘tishni amalda ko‘rishimiz kerak ekan. Biz o‘rta maktabda ta’lim jarayoni bilan tanishib o‘zimizda yangi olamni kashf qildik deb aytsam xato bo‘lmaydi. O‘rta maktabda o‘qitish jarayoni bilan tanishdik. Biz o‘qitish metodikasini amaliyotda o‘rganishni boshladik.

## ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tarix o‘qitish nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha ma’lum bir adabiyotlarni o‘qish va tahlil qilish kerakligini his qildim va tarix o‘qitish metodikasi va nazariyasiga oid ilmiy maqola va boshqa adabiyotlarni o‘rgandim. Shu jumladan taniqli pedagog olimlar X.Ibragimov, Sh.Abdullayevaning “Pedagogika nazariyasi” o‘quv darsligi bilan tanishdim. Ushbu darslik ta’lim va tarbiya nazariyasiga bag‘ishlangan. Men darslikda ta’lim jarayoni, uning unsurlari ta’limning mazmuni to‘g‘risida ilmiy tushunchalarga ega bo‘ldim. Ushbu darslikda ta’lim to‘g‘risida shunday tushuncha beriladi: “Ta’lim insoniyat tajribasining ma’lum tomonlarini, ya’ni o‘quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq bilim va tarbiyaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir”.[14]

R.A.Mavlonova boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan “Umumiy pedagogika” o‘quv darsligi 2018-yilda Fan va texnologiyalar markazida chop etilgan. Ushbu darslik pedagogika nazariyasi va uning metodologiyasiga bag‘ishlangan. Darslikda pedagogika fanining mazmun mohiyati, pedagogikaning maqsad va vazifalari, pedagogika tarixi hamda zamonaviy ta’limda pedagogikaning salmoqli o‘rni yuqori saviyada bayon qilingan. Bu darslikning qimmati shundaki, barcha uchun tushunarli, tushunchalar qisqa va aniq berilgan bo‘lib mazmunan keng. Ayniqsa biz talabalar uchun muhim bo‘lgan umumpedagogik asosiy tushunchalarni topish mumkin. Misol uchun darslikning 152-158 betlarida o‘qitishning metodlari tahlil qilingan. Har bir metodning o‘qitishdagi o‘rni va ahamiyati atroflicha tushuntirilgan.[15]

O‘rta maktab tarix ta’limidagi dolzarb masalalardan biri innovatsiyalarni tatbiq etish masalasi B.Daniyarovning ilmiy maqolasida ko‘tarilgan. Maqolada innovatsiyaga shunday ta’rif beriladi: “Innovatsiya yuqori samaradorlikka ega yangiliklarni tadbiq etish, insonni yangi yoki ilgarigilardan sifatliroq bo‘lgan ko‘rinishdagi intellektual fantaziyasi, ijodiy jarayoni, kashfiyotining yakuniy natijasi hisoblanib, ta’lim fan va ishlab chiqarishning integratsiyasiga qaratilgan bo‘ladi”.[16]

Bugungi kunda har bir fanni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda. Shu o‘rinda innovatsiya, texnologiya so‘zlarining ma’nosini bilib olishimiz kerak.

G‘ijduvon tumanidagi 44-sonli maktab tarix o‘qituvchisi I.Obloqulovning 5-va 6-sinflarda tarix darslarini o‘tkazishda og‘zaki va ko‘rgazmali metodda dars o‘tishining sababini so‘raganimizda o‘qituvchi quyidagicha javob berdi: Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fan bo‘lgani uchun bu fan 5-

[13] “Ta’lim to‘g‘risi”da O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son

[14] X.Ibragimov,Sn.Abdullayeva pedagogika nazariyasi.Oquv darsligi.Toshkent 2008. 198 bet

[15] R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.H.Hafizov “Umumiy pedagogika”-T.: “Fan va texnalogiya” nashriyoti 2018

[16] B.Daniyarov Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida innovation faoliyat va uning ta'lim sifatiga ta'siri.Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnal. 3/2012 5-8 betlar

sinfdan 11-sinfgacha sinflar kesimida o‘qitiladi. Tarix faniga kirish 5-sinfda o‘qitiladi. Tarix fanidan 5-sinf o‘tiladigan dars mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilarga tarix fani to‘g‘risida tasavvur shakllantiriladi. Fanga tegishli iboralar va oddiy tushunchalar o‘quvchining ongiga singdiriladi.

Biz maktabda tarix o‘qituvchilarining darslarini kuzatganda o‘qituvchilar og‘zaki metoddan ko‘p foydalanganlarini guvohi bo‘ldik. Haqiqatdan, og‘zaki metod tarix fanlaridan maktabda dars mashg‘ulotlarini samarali ekanligi tajribali pedagoglar tasdiqlaydi. Tajribali pedagog, akademik X.Ibragimov og‘zaki metod to‘g‘risida shunday ta’kidlaydi: “So‘z orqali dars mavzusini bayon qilish orqali o‘qituvchi o‘quvchi bilan muloqotga kirishadi. O‘qitishda so‘z bilan ko‘rgazmali metod birga bo‘ladi”. O‘rta maktab tarix ta’limida turli metodlardan foydalanish metodik adabiyotda yoritilgan. Pedagogika (A.Mavlonova Umumiy Pedagogika, Pedagogika nazariyasi X.Ibragimov, Tarix o‘qitish metodikasi B.S’adiyevlarning o‘quv darsliklari)da o‘qitish metodlari atroflicha yoritilgan. X.Ibragimov, R.Rajabov, F.Fayzievalarning O‘rta maktab tarix ta’limi nomli o‘quv metodik qo‘llanmasida maktab tarix ta’limida keng qo‘llaniladigan metodlar to‘g‘risida batafsil tushuntirish berilgan. Barcha metodik adabiyotlarda og‘zaki metod, ko‘rgazmali metod va innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu o‘quv- metodik manbada og‘zaki metod, ko‘rgazmali metod va innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. [17] Tarix o‘qituvchilari 5-6 sinflarda tarix darslarida og‘zaki metoddan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligini e’tirof etadilar. Bizning fikrimizcha og‘zaki metod bilan dars o‘tganda o‘qituvchi tegishli ko‘rgazmali qurollar (rasm-tasvirlar, chizmalar, maketlar, mavzuga tegishli xarita va h.k.) dan foydalanishi o‘quvchilar tomonidan dars mashg‘ulotini samarali o‘zlashtirilishini ta’kidlalanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bizning fikrimizcha hozirgi kunda o‘rta maktabda tarix fanlarini o‘qitishdagi jiddiy o‘zgarishlarni uzluksizligi va kreativligini ta’minlash zaruriyati mavjud. Biz bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchilari 4+2 formatida ikki yildan buyon o‘rta maktabda dars jarayonini kuzatish va bu jarayonda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Bu albatta ijobiy hol.

O‘rta maktabda tarix o‘qituvchilarining dars mashg‘ulotlarini kuzatib, ularning erishgan yutuqlarini ko‘rdik. O‘zimizni tarix o‘qituvchisi sifatida tasavvur qilishga harakat qildik. Ilk bor o‘qituvchilik kasbi qanday qiyin va murakkabligini o‘zimizda his qildik. Shu ikki yil davomidagi haftada ikki kunlik maktab o‘quv jarayonida ishtirok etishimiz tarix o‘qituvchisi qanday sifatlarga ega bo‘lishi to‘g‘risida ilk tasavvurlarga bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida tasavvurlarga ega bo‘lyapmiz. Birinchi navbatda o‘qituvchi tarix fanidan chuqur nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak ekan. “Pedagogika nazariyasi” o‘quv darsligida shunday tushuncha berilgan: Nazariyada “Ta’lim qonuniyatlarini o‘rganish tahlil qilish jarayonida ta’lim tushunchasining mohiyati, mazmun va vazifalari, o‘qitish prinsiplari shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi”.[18] Biz bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchisi sifatida ta’lim qonuniyatlari, uning mazmun mohiyati, maqsad va vazifalari, o‘qitish shakllari, tamoyillari to‘g‘risida nazariy va amaliy jihatdan atroflicha bilimga ega bo‘lishi lozimligini anglab yetdik. Oliy o‘quv yurtida nima uchun nazariy bilimlar berilishi sababini tushuna boshladik. O‘quv darsligidagi nazariya to‘g‘risida quyidagi qisqa barcha uchun tushunarli berilgan tushuncha bizga juda ma’qul keldi. Shuningdek, X.Ibragimovning Pedagogika nazariyasi o‘quv darsligidagi quyidagi jumla diqqatga sazovor “didaktika ya’ni pedagogikaning “nimaga o‘qitish”, “nimani o‘qitish” va “qanday o‘qitish” kabi savollarga javob beradi”[19]. Bizning fikrimizcha, bu jumlani mazmun mohiyatini o‘qituvchi kasbini tanlagan barcha talabalar bilishi lozim. Men o‘rta maktabda tarix o‘qituvchisining faoliyatini kuzatgan holda biz bo‘g‘usi tarix o‘qituvchilarining ushbu kasbni egallash uchun hozircha nazariy bilimlarimiz naqadar zaif va yetarli emasligini his qildik. Demak biz, Pedagogika va tarix o‘qitish nazariyalari bo‘yicha tegishli nazariy va o‘quv-metodik adabiyotlarini o‘qib tahlil qilish zaruriyatini his qildik. Bizning maktabda tarix fanlarini o‘qitish jarayonini o‘rganish uchun kuzatuvlarimiz tarix o‘qituvchisining nazariy jihatdan atroflicha bilimga ega bo‘lishi nihoyatda muhim ekanligini tushundik. Tarix o‘qituvchisining nazariy bilimini

[17] X.Ibragimov,R.Rajabov ,F.Fayziyeva O'rta maktab tarix ta'limi.Toshkent .2016.Fan va rexnologiyalar nashriyoti 53 bet
[18] X.Ibragimov,Sh.Abdullayeva.Pedagogika nazariyasi.O'quv darsligi.Toshkent 2008.198 bet
[19] Shu kitob.198 bet

yetukligi: o‘qituvchining dars mashg‘ulotlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslangani; dars mashg‘ulotlarini samarali bo‘lishini; o‘qituvchining o‘ziga ishonchi ortishi; dars mashg‘ulotini qaysi metod asosida tashkil etishda mustahkam poydevor bo‘lishini ta’minlashini tushundik.
Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagicha izohlashimiz mumkin:
Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida.
Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.
Uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo‘lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.
To‘rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligi sababli, ularning qo‘llanilishi talablarini amalga oshirishni ta’minlaydi.[20]
Biz maktabda tarix o‘qituvchilarining darslarini kuzatganimizda o‘qituvchilar og‘zaki metoddan ko‘p foydalanganlarini guvohi bo‘ldik. Haqiqatdan og’zaki metod maktabda 5-6-sinflarda tarix fanlaridan dars mashg‘ulotlarini samarasini ta’minlashda ustivor metodlarda biri ekanligini tajribali pedagoglar tasdiqlaydi. Tajribali pedagog, akademik X.Ibragimov og‘zaki metod to‘g‘risida shunday ta’kidlaydi: “So‘z orqali dars mavzusini bayon qilish orqali o‘qituvchi o‘quvchi bilan muloqotga kirishadi. O‘qitishda so‘z bilan ko‘rgazmali metod birga bo‘ladi”.[21]
Tarix fanlari ta’limning barcha bosqichlarida o‘qitiladi. Bizning Navoiy davlat pedagogika institutida tarix fanidan kiruvchi pedagoglar tayyorlanadi. Biz ham shu shu institutning” “Tarix” ta’lim yo‘nalishining 3-kursida ta’lim olamiz. Maqsadim tarix fanidan o‘qituvchi bo‘lish va kelajakda tarix fani yo‘nalishida magistraturada o‘qishni davom ettirishdir.
Fanlarni o‘qitish metodikasida hozirgi kunlarda prezidentimiz, hukumatimiz topshiriqlari bilan ta’limni samaradorligini ta’minlash uchun tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga kirishildi. Ana shunday vazifalardan biri 4+2 tizimini amalga oshirish bo‘ldi. Bu yangilik biz bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchilarni bo‘lg‘usida yuqori malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishimiz uchun kerakli bo‘lgan omil bo‘ldi.
O‘zbekistonda 2020-yilda eskirib qolgan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilinishi ta’lim sohasini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. Qonunning yangi tahririda 15-moddada ta’lim olishning yangi shakli dual ta’lim kiritilishi muhim qadam bo‘ldi. Dual ta’limda ta’lim oluvchi bazaviy bilim olish bilan birga ish joyiga borib amaliy ta’lim oladi.[22]
Ayniqsa, biz bo‘lg‘usi o‘qituvchilar uchun bo‘lg‘usi ish joyimiz o‘rta maktabda ta’lim berishni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va maktabda o‘quv jarayoniga bevosita ishtirok etish hayotiy ehtiyoj edi. Biz maktabda o‘qitishning ilk ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lamiz. Prezident Sh.M.Mirziyoyev shunday degan edi: “Agar mendan sizni nima qiynaydi” deb so‘rasangiz farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman.[23]

## TAKLIFLAR VA MULOHAZALAR.

Bizning fikrimizcha, o‘rta maktab tarix ta’limini amalga oshirishda tarix o‘qituvchisining pedagogika va tarix fanlari nazariyasini atroflicha o‘rganilishi hozirgi kunda ta’limning eng dolzarb talablardan biri bo‘ladi. Shu sababli pedagogika va tarix fan nazariyalarini atroflicha bilishi zarur bo‘lgan nazariy, o‘quv metodik manba va adabiyotlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Shu bilan birga, pedagogika oliygohida ixtisoslik, kasbiy fanlarni o‘qitishda ularning nazariy jihatiga ko‘proq e’tibor berish talab qilinadi.
O‘rta maktab ta’limida 5-6-sinflarda o‘tiladigan tarix darslarida o‘qitishning asosiy metodi sifatida og‘zaki metodga alohida e’tibor berish kerak deb o‘ylaymiz Chunki og‘zaki metod 5-6-sinf o‘quvchilari uchun ularning yoshi, ruhiyati, qobiliyatiga mos keladigan metodlardan biri

---

[20] F. Maxmudova Tarix fanini ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish. 196-202-betlar

[21] X.Ibragimov,R.Rajabov ,F.Fayziyeva O'rta maktab tarix ta'limi.Toshkent .2016.Fan va rexnologiyalar nashriyoti 53 bet)

[22] “Ta’lim to‘g‘risi”da Qonun O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-6 37-son

hisoblanadi. Og‘zaki bayon qilish metodi ko‘zgazmali vositalaridan foydalanib o‘tiladi (rasm, tasvirlar, mavzuga oid xarita, slayd, animatsiya, multfilmlar va h.k,) .

4+2 formatini yanada takomilashtirish lozim: bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchisi bo‘lgan talabalar bilan maktab tarix o‘qituvchilari o‘rtasida “ustoz-shogird” tamoyilini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maktabning tajribali tarix o‘qituvchisi o‘z amaliyotida foydalangan eng samarali an’anaviy va inovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha o‘zi to‘plagan tajribasini bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga uzatish mexanizmini ishlab chiqish zaruriyati mavjud. 4+2 formatining samarali bo‘lishi uchun bizning fikrimizcha bo‘lg‘usi tarix o‘qituvchisi hozirgi talaba oliygohda oladigan nazariy bilimini o‘qitish amaliyotida foydalanish mezonlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish qoidalarini ishlab chiqish amaliyotga tadbiq etish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR.

Demak, yuqoridagilarga asoslangan holda o‘rta maktab tarix o‘qituvchisi pedagogika fanidan va tarix fanlari nazariyasi bo‘yicha atroflicha bilimga ega bo‘lishi lozim. Qaysiki nazariy bilimni atroflicha o‘zlashtirgan tarix o‘qituvchisi tarix fanlaridan o‘tadigan dars mashqulotlari samarali bo‘ladi. O‘qituvchining dars mashg‘ulotlarida fan nazariyasi ham o‘z o‘rnida foydalaniladi. Tarix o‘qituvchisi tarix ta’limiga hozirgi kunda qo‘yiladigan barcha talablarni bajarishi to‘g‘risida ishonch hosil qiladi. Eng asosiysi o‘qituvchi beradigan bilim o‘quvchilarning ilmiy nazariy dunyo qarashini shakllanishida jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘rta maktab tarix o‘qituvchisi tarix fanlarni o‘qitishda sinflar kesmida o‘tiladigan jahon tarixi, vatan tarixi fanlarini o‘qitishda har bir mavzuni qaysi metod asosida o‘qitishni bilishi shart. O‘qituvchi metodlarni shaklan va mazmunan ajrata bilishi lozim. An’anaviy va inovatsion metodlarni qo‘llash ko‘nikma malakasiga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli tarix o‘qituvchisi har bir mavzuni o‘qitishda qaysi metoddan foydalanish kerakligini bilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir metodni o‘z o‘rnida qo‘llash o‘quvchinin o‘zlashtirish ko‘rsatkishini yuqori darajadasini ta’minlaydigan omillardan biri bo‘ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1.“Ta’lim to‘g‘risi”da Qonun O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son

2. X.Ibragimov,Sh.Abdullayeva Pedagogika nazariyasi.O‘quv darsligi.Toshkent 2008. 198 bet

3. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.H.Hafizov “Umumiy pedagogika” – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018

4. B.Daniyarov Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat va uning ta’lim sifatiga ta’siri. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnal. 3/2012 5-8 betlar

5. A. Ismailov “Tarix fanidan umumlashtirish va takrorlash darslari o‘yin metodidan foydalanish yo‘llari” Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnal. 5 /2012 35-36 betlar

6. N.Botirova “Tarix darslarida me’morchilik obidalariga oid materiallardan foydalanish” Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnal 5/2012. 54-57 betlar

7. X.Tojiboyeva “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchi yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiruvchi omillar” Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnal 6/2012 66-68 betlar

8. S.Haydarov “O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitishda tasviriy san’at asarlaridan foydalanish” Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnal 6/2012 69-71

9. F.Maxmudova Tarix fanini ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish. 196-202-betlar

10. X.Ibragimov, R.Rajabov, F.Fayziyeva O‘rta maktab tarix ta’limi.Toshkent, 2016. Fan va rexnologiyalar nashriyoti 53 bet.


# O‘ZBEKISTONNI 2030-YILGACHA RIVOJLANISH STRATEGIYASINI ISTIQBOLLARI


**Elov Olimdjon Komilovich**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari**
**kafedrasi o‘qituvchisi**
**Abdukarimova E’zoza Fazliddinqizi**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Maktab menejmenti ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonning 2030-yilgacha rivojlanish strategiyasi haqida hamda uni amalga oshirish istiqbollari borasida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** rivojlanish, strategiya, Harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, ta’lim sifatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish.

**Annotation.** This article presents thoughts and opinions about Uzbekistan's development strategy until 2030 and its implementation prospects.

**Keywords.** Development, strategy, Action strategy, development strategy, improving the quality of education, development of science and innovation.

**Аннотация.** В данной статье собраны мысли и комментарии о стратегии развития Узбекистана до 2030 года и перспективах ее реализации.

**Ключевые слова**. Развитие, стратегия, Стратегия действий, стратегия развития, повышение качества образования, развитие науки и инноваций.

Bugun yurtimiz hayotining barcha jabhalarida o‘zgarish, islohotlar epkini kuzatilmoqda. Yangi zamon ruhi kirib bormagan, inson manfaatiga ustuvor ahamiyat qaratilmayotgan biror-bir soha yo‘q. Ayniqsa, so‘nggi yetti yildagi tadrijiy rivojlanish bosqichlariga nazar solsak, ularning mazmun-mohiyatida xalqimiz xohish-irodasi, yillar davomida fuqarolarning tinchlik-xotirjamligiga to‘siq bo‘layotgan og‘riqli muammolar yechimi turgani yanada ahamiyatlidir. Bir so‘z bilan aytganda, bunday tarixiy evrilishlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Mazkur islohotlar zamirida aniq va rejali maqsad, qat'iyat, kuchli siyosiy iroda mujassam.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida 2023-yilning o‘zida qabul qilinishi rejalashtirilgan 25 ta qonun loyihasi, 39 ta Prezident farmoni va qarorlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar (jami - 118 ta) Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos “Yo‘l xaritasi” vazifasini o‘tashini hamda Strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarining eng ustuvor vazifasi ekanidan ham dalolat beradi.

Milliy maqsad va vazifalar o‘zida 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasida jami 17 ta maqsad va ular doirasida amalga oshiriladigan vazifalarni qamrab olgan.

Jumladan, amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida 2030-yilgacha O‘zbekistonda o‘ta qashshoqlikni tugatish, kam ta’minlangan aholi sonini hozirgiga nisbatan ikki baravarga kamaytirish rejalashtirilgan.

Sog‘lom turmush tarzini ta’minlash maqsadida esa aholi o‘rtasida yurak-tomir, onkologik, qandli diabet va surunkali respirator kasalliklar tufayli bevaqt o‘limlar sonini 30 foizga qisqartirish, shuningdek 2025-yilgacha yo‘l-transport hodisalari sonini ikki baravarga qisqartirish rejalashtirilgan. Shuningdek, umumqamrovli va sifatli ta’limni ta’minlash hamda barchaga butun umri davomida ta’lim olish imkoniyatini rag‘batlantirish maqsadi bo‘yicha 2030-yilgacha o‘qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida xalqaro hamkorlik qilish orqali o‘qituvchilar sonini jiddiy ravishda ko‘paytirish mo‘ljallangan.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar falsafasi ham o‘z navbatida “inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi” hamda 2030-yilgacha mamlakatning barcha belgilangan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini ta’minlash g‘oyalariga asoslangan.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatda bu borada keng ko‘lamli va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu boradagi tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e’tirof etildi. Avvalambor, Barqaror rivojlanish maqsadlari va bu boradagi tegishli vazifalar yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 360 dan ziyod qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida o‘z aksini topdi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining qabul qilinishi mamlakat taraqqiyotidagi muhim bosqich bo‘lib, farovon va adolatli jamiyat qurish istagini ifodalaydi. Bu 2023-yil aprel oyida bo‘lib o‘tgan referendumda umumxalq ovoz berish natijasida yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston

Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan strategik yo‘nalishlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni ifodalaydi.

- “O‘zbekiston 2030” strategiyasi bir qator asosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan, jumladan, eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:
- O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishi tufayli daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishi.
- Xalq talablari va xalqaro standartlarga javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini yaratish.
- Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni ta’minlash.
- Asosiy e’tibor xalqqa xizmat qilishga qaratilgan odil va zamonaviy davlat qurish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining I maqsadida mamlakatimizda har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Maqsad maktabgacha ta’limdan tortib, umumiy o‘rta ta’limgacha bo‘lgan ta’lim tizimidagi salmoqli islohotlarni o‘z ichiga oladi. Reja barcha bolalarning maktabgacha ta’limdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, gigiyena me’yorlari va kompyuter savodxonligini ta’minlash, maktablarda “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini joriy etish kabi turli chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Yangi darsliklar, multimedia dasturlarini joriy etish, xorijda malaka oshirish orqali ham talabalar, ham o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, strategiya xususiy ta’lim muassasalarini tashkil etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish orqali ta’limni rivojlantirishga xususiy sektorni faol jalb etishni nazarda tutadi.

Ushbu chora-tadbirlar O‘zbekistonning barcha fuqarolari uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish va har bir shaxs salohiyatini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan sifatli ta’limni kafolatlashga qaratilgan.

O‘zbekiston-2030 strategiyasi kontekstida kasb-hunar ta’limi tizimini rivojlantirish muhimligini ko‘rsatadi. Bu jihat kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilashdan iborat bo‘lib, bu zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashning asosiy omili hisoblanadi. Hududiy kasb-hunar ta’limi markazlarini tashkil etish ham mamlakatimizning turli hududlarida kasb-hunar ta’limining qulayligi va sifatini oshirishga qaratilgan.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirishga katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Bu innovatsiyalarni rag‘batlantirish va mamlakat raqobatbardoshligini oshirish maqsadida “korxona-universitet-ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda.

Barcha sohalarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, O‘zbekistonning jahon innovatsion faollik reytinglariga kiritilishini ta’minlash ham ustuvor vazifalardandir. Bu aholining millioniga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar sonini ko‘paytirish, ichki va tashqi bozorlarda innovatsion ishlanmalar sonini ko‘paytirishni o‘z ichiga oladi.

Mazkur chora-tadbirlar innovatsiyalarni rag‘batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va jahon miqyosida O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakat va uning fuqarolari uchun kelajak yo‘lini belgilab beruvchi muhim hujjatdir. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yaqin o‘n yilliklarda O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi va gullab-yashnashini ta’minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1.-Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

3.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

4. https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-maqsad-vavazifalar_532507

5.https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-yangi-ozbekiston-uchun-yangi-davr_537810

## TALABALARNING ILMIY – DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA KLASSIK VA KVANT TUSHUNCHALARNING AHAMIYATI

**Norchaev Xudoyberdi Shomamat o‘g‘li**
**Fizika va astranomiya ta’lim yo‘nalishi talabasi.**
**Ilmiy rahbar: k.o‘q. Abdullaev Jalil Malikevich,**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Har qanday jamiyatning yuksak darajada rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda ta’lim tizimini takomillashtirishni va mutaxassislarning inteluktual salohiyatini oshirishni taqozo qiladi. Bu masalani hal qilishda fizika fanining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, fizika fanini rivojlantirish tarixida ehtimoliy-statistik g‘oya va tushinchalar muhim o‘rin tutib, u talabalarning ilmiy dunyoqarashini hamda olamning zamonaviy fizik manzarasini shakllantirishda salmoqli o‘rin tutadi.

XIX asrning o‘rtalarida modda molekulyar-kinetik nazariyani yaratuvchilari Klauzius, Maksvell, Bol’sman va boshqalar o‘z ishlarida moddalarning makroskopik xossalarini, ularga taalluqli fizik qonuniyatlarini va ularni tashkil qilgan zarralarini ehtimollar nazariyasi va matematik statistika qonunlariga bo‘ysinadi, deb qarashganlar. Bu moddalarning termodinamik holatlarini, ularni tashkil qilgan zarralarning mikroskopik xossalaridan foydalanib, statistik tavsifga ega, deb qaralgan va ma’lum darajada hal qilingan hamda tushintirilgan. Bunday masalalarni chuqur hal qilinishi, dastlab, gazlarning molekulyar-kinetik nazariyasining paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga, keyinchalik esa alohida fan-statistik fizikaning yaratilishiga olib keldi.

Ayniqsa, fizikaning rivojlanish tarixida statistik metodni issiqlik nurlanishini tadqiq qilishga qo‘llash alohida o‘rin tutadi. Chunki bu masalaning qaralishi statistik fizikani qonunlarini taraqiyotga ega bo‘lgan natijalarga olib keldi. Darhaqiqat, 1900-yilda Plank yorug‘likning kvant nazariyasini ilgari surdi, ya’ni moddalarning atomlari yorug‘likni uzliksiz ravishda tarqatmay yoki yutmay, balki *kvantlar* yoki *fotonlar* deb ataluvchi ma’lum qat’iy porsiyalarda tarqatadi yoki yutadi.

1913-yilda N.Bor Plank taklif etgan kvant nazariyasidan foydalanib, Rezerford aniqlagan atom strukturasiga yangi kvant tushunchalarini qo‘llab, yorug‘lik tarqalishi va yutilishi hodisasini qoniqarli tarzda tushuntira oldi, ya’ni yorug‘likning korpuskulyar tabiatini yaqqol ko‘rsata oldi-yu, ammo bu nazariya yorug‘likning to‘lqin xossalari bilan bog‘liq bo‘lgan interferensiya, qutblanish va difraksiya hodisalarini tushutira olmadi.

1923-yilda de Broyl korpuskulyar-to‘lqin dualizmining universalligi haqiqagi gepotezani ilgari surdi. Uning fikricha, nafaqat foton, balki elektron, proton va boshqa zarralar ham korpuskulyar xossalar bilan bir qatorda to‘lqin xossalariga ham egadirlar. Boshqacha aytganda, har bir zarra, bir tomondan, energiya ($E$) va impuls ($P$) kabi korpuskulyar kattaliklar bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, chastota ($\nu$) va to‘lqin uzunligi ($\lambda$) kabi to‘lqin kattaliklari bilan ham xarakterlanadi. de Broylning zarralarning to‘lqin xususiyatiga egaligi haqidagi nazariyasi esa ularning bu xususiyatlarini hisobga olib yangi nazariyani yaratishga turtki bo‘ldi. Bunday nazariyaning asosiy qismi 1926-yilda V.Geyzenberg va E.Shredinger tomonidan yaratilgan kvant mexanikasidir. Kvant mexanikasi harakatdagi har qanday material zarracha ham korpuskulyar, ham to‘lqin xossalariga ega, deb ta’kidlaydi. Kvant mexanikasi yorug‘likni ayni vaqtda ham to‘lqin, ham korpuskulyar jarayon, deb hisoblaydi. Yorug‘lik zarrachalarining bir vaqtdagi korpuskulyar va to‘lqin xossalari bir-biriga halaqit bermaydi, balki faqat bir-birini to‘ldiradi. Bunda zarralarning harakati mohiyatiga ko‘ra, mexanik harakatdan farq qiladi. Bunday zarralarning harakat qonuniyatlari va xossalarini o‘rganish uchun ehtimoliy qonuniyatlarni qo‘llash zaruriyati paydo bo‘ladi. Demak, kvant mexanikasining ehtimoliy-statistik g‘oy va tushinchalari dinamik va statistik qonuniyatlarning mutanosibligi muammosini hal etishga yo‘l berdi. Mazkur muammo fizikada statistik qonunlar paydo bo‘lishi bilan bir paytda yuzaga kelgan edi.

Ma’lumki, dinamik qonuniyatlar barcha tabiiy kattaliklarning o‘zaro aloqasi bir xil mazmunga egaligini ifodalasa, statistik qonunlar esa fizikaviy miqdorlarni u yoki bu qiymatlari bo‘yicha aniqlangan ehtimolliklar, boshqacha aytganda zarraning ma’lum joyda aniq bo‘lishi emas, balki shu

joyda bo‘lishi ehtimoli bilan o‘zaro bog‘laydi. Ammo fizikaviy miqdorlar bir-biri bilan qiymatli bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin.

Zarralarning holatini bilish– uning koordinatasi (fazodagi o‘rni) *x*, impulsi *P*, energiyasi *E* va boshqa xarakteristikalarini bilishdir. Harakatlanayotgan zarra korpuskulyar-to‘lqin dualizmiga ega bo‘lganligi uchun bir vaqtning o‘zida uning koordinatasi *x* va impulsi $P_x$ larni aniqlashning imkoni yo‘q.

Kvant mexanikasida zarraning o‘rnini aniq topish o‘z ma’nosini yo‘qotganini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, zarraning ma’lum joyda aniq bo‘lishi emas, balki shu joyda bolish ehtimoli bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Demak, zarraning ma’lum joyda bo‘lishi o‘z ma’nosini yo‘qotsa, elektronning ma’lum orbita bo‘ylab harakatlanishi haqidagi fikr va atomning planetar modeli ham o‘z ma’nosini yo‘qotadi. U holda elektronning atomda bo‘lish ehtimolligining zichligi-*elektron buluti* bilan ish ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Elektron bulutining zichligi uning ma’lum joyda bo‘lishining o‘lchovidir. Elektron zichlik noldan farqli bo‘lgan istalgan joyda bo‘lishi mumkin.Zichlik eng katta bo‘lgan joyda uning bo‘lish ehtimoli ham eng kattadir. Elektron bulutining shakli, kattaligi va fazodagi o‘rni kvant sonlari bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, kvant mexanikaning paydo bo‘lishi va mikrodunyo ob’ektlarining ehtimoliy-statistik xarakteri masalaning dastlabki qo‘yilishini o‘zgartirdi. Mikrojarayonlarni statistik ifodalash yagonami yoki mikrozarralarning dinamik harakat qonunlari mavjudmi, degan masala yuzaga chiqdi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, ehtimoliy-statistik g’oya va tushunchalar zamonaviy fanda fundamental rol o‘ynashi hamda ilmiy dunyoqarashning muhim tashkil etuvchisi ekan, deb xulosa chiqarish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djo‘rayev M. Fizika o‘qitish metodikasi.T. 2015, 192-222 betlar.
2. XXI asrda fizika ta’limi va fani muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari to‘plami. Samarqand. 2003. 198 b.
3. А.А.Ахмедов, И.Р Камолов, Ж.М.Абдуллаев. Развитие научно-технического прогресса и его влияние на формирование учащихся.

## FIZIKANI TABIIY VA TEXNIKA FANLARIDAGI O‘RNI

**Ibrohimov Vohidjon Umidjon o‘g‘li**
**Fizika va astranomiya ta’lim yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar: k. o‘q. Abdullaev Jalil Malikevich,**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**

Har qanday jamiyatning yuksak darajada rivojlanishi ilmiy-texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda ta’lim tizimini takomillashtirishni va mutaxassislarning inteluktual salohiyatini oshirishni taqozo qiladi. Bu masalani hal qilishda fizika fanining o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, fizika fanini rivojlantirish tarixida, masalan, atom fizikasi muhim o‘rin tutib, u talabalarning ilmiy dunyoqarashini hamda olamning zamonaviy fizik manzarasini shakllantirishda salmoqli o‘rin tutadi. Chunki tabiatdagi jamiki tirik va notirik mavjudodlarning asosini atomlar tashkil qiladi.

Ma’lumki, qadimgi yunon faylasuflarining ta’limotiga asosan atom moddaning bo‘linmas zarrasi bo‘lib, kichik o‘lchamga ega degan tasavvurlari uzoq vaqtgasha hukm surdi.

XIX asrning oxirlarida o‘tkazilgan bir qator tajribalar atomning murakkab tuzilishiga ega ekanligi, o‘lchami $10^{-10}$ m tartibidagi murakkab, musbat va manfiy zaryadlardan iborat zarracha ekanligi aniqlandi. Masalan:

–atomlarning chiziqli spektrini o‘rganishda spektral chiziqlarning ketma-ketlik bilan joylashishida ma’lum qonuniyatlar mavjudligi aniqlandi. Bu qonuniyatlarni aniqlashda birinchi bo‘lib Balmer 1885-yilda vodorod spektrining ko`zga ko`rinuvchi qismida yotuvchi 4 ta spektral chiziqlarning to`lqin uzunligini aniqladi;

–tabiiy radioaktivlik kashf qilingandan bir yil o‘tgach, 1897-yilda Tomson katod nurlarini o‘rganayotgan paytda elektronlarni topdi. Shuningdek, jism qizdirilganda u manfiy zaryadlangan elekrtonlar (termoelektronlar) chiqarib, musbat zaryadlanib qolishini aniqladi;

–1900-yilda Plank tomonidan absalyut qora jism muvozanatli nurlanishi spektrida energiyaning taqsimlanishi haqidagi qonunini ifodalaydigan formularni chiqarishda nurlanishning modda bilan o‘zaro ta’siri haqidagi klassik fizika tasavvurlariga zid bo‘lgan gipotezani yaratdi;

–1905-yilda Eynshteyn tomonidan kvantlanish g‘oyasining keyingi rivojlanishi davom ettirildi;

–1911-yilda Rezerford atom tuzilishini tushintirish uchun alfa zarrachalarining yupqa metall folgalarda sochilishi ustida bir qator tajribalar o‘kazdi. Bu o‘tkazilgan tajribalar asosida atom tuzilishining planetar modelini taklif qildi.

–1913-yilda Bor energiyaning kvantlanishini atomning yadroviy modeliga tatbiq qilib, elektronlarning atomdagi harakatini xarakterlaydigan kvant postulatlarini taklif qildi.

Xullas, XIX asr oxiri va XX asr boshidagi tabiiy radioaktivlikning ochilishi, elektronning topilishi, moddadan alfa zarralarining tarqalishi qonunlarini o`rganish va neytronlarning topilishi to‘g‘risidagi taraqqiyotlar atom tuzilishini o`rganish va strukturasini belgilashda hal qiluvchi rol o`ynadi.

Shunday qilib, XX asrda jahon hamjamiyatidagi tub o‘zgarishlar fan, texnika va ishlab chiqarishning integratsiyasi tufayli misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Industriyalashgan jamiyatdan axbotlashgan jamiyatga o‘tildi. Fizika texnika va tabiiy fanlar doirasiga kirib ketdi. Masalan, lazer nurining ishlab chiqarilishi tibbiyot vrachining ish quroliga aylandi. Plazma, ionlar, yadro nurlari yangi, o‘ta mustahkam materiallar oluvchi manbaga aylandi. Insoniyat tarixida kosmos zabt etilib, odamlar boshqa planetalarga uchirildi. Fizikaning tabiiy va texnikaga kirib borishi tufayli texnik fanlar, geo-, bio-, elektro-, astrofizika fanlari paydo bo‘ldi. Fizikaning akustika, radioelektronika, magnetism, lazer fizikasi, optika va h.k bo‘limlari bilan informatsion texnologiya qo‘shilishi tufayli INTERNET (butunjahon axborot to‘ri) vujudga keldi.

XXI asrda esa fizika fani o‘ta oquvchanlik, yuqori temperaturali o‘ta o‘tkazuvchanlik, tunel spektroskopiyasi, solitonlar, xaos, attraktorlar, kvarklar va glyuonlar, kvant xromodinamikasi, kuchsiz va elektromagnit o‘zaro ta’sirlashishlarning birlashish nazariyasi, vektorli bozonlar, neytrino astronomiyasi, pul`sarlar fizikasi, kvazarlar, gravitatsiya to‘lqinlarini detektorlash, fullerenlar, nanotexnologiya va h.k. sohalarini rivojlantirmoqda.

Hozirgi vaqtda nanotexnologiyalarga asoslangan spin ventillar, spin tranzistorlar, hamda nanonaychalar, kvant similar, kvant chuqurliklar va kvant nuqtalarga asoslangan asboblar ishlab chiqarilmoqda va h.k.

Demak, XX asrda atom-yadro energetikasi, lazer texnologiyasi va transistor kashf qilingan bo‘lsa, XXI asrda biotexnologiya, rabototexnika, molekulyar elektronika yoki nanotexnologiya va torsion texnologiyalar asosiy o‘rinni egallamoqda. Buning uchun XXI asr mutaxassisi ma’lum bir tor yo‘nalishni ko‘zlamasdan, balki fan va ta’limni o‘zida mujassamlashgan, etik va estetik tarbiyalangan bo‘lishi kerak.

Shunday ekan, qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko‘zda tutilgan strategik maqsad-mamlakatimiz istiqboli uchun muhim bo‘lgan shaxs, uzliksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishning uzviyligini ta’minlashni amalga oshirishdan iborat bo‘lgan masalalar o‘z echimini topmoqda, ammo bu sohada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar juda ko‘p.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. XXI asrda fizika ta’limi va fani muammolari. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari to‘plami. Samarqand. 2003. 198 b.
2. Djo‘rayev M. Fizika o‘qitish metodikasi.T. 2015, 192-222 betlar.
3. А. А. Ахмедов, И. Р. Камолов, Ж. М.Абдуллаев. Развитие научно-технического прогресса и его влияние на формирование учащихся.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSIQIY DIDNI SHAKLLANTIRISH MASALASI

**O‘tamurodova Shohida Muhammadqulovna**

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi**
**Abduqayumova Malika Mirzohid qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Musiqiy ta’lim yo‘nalishi talabasi**
**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa tinlgash, kuylash, ritmik harakatlar, cholg‘u asboblarida chalishga o‘rgatish va o‘zbek milliy musiqa madaniyati namunlaridan foydalanish orqali musiqiy didni shakllanishi haqida fikr yuritilgan.
**Kalit so‘zlar:**musiqa, maktabgacha yoshdagi bola, musiqiy did, musiqa tinglash, kuylash, tinglash, ritmik harakatlar, musiqa cholg‘u asboblarida chalishga o‘rgatish, milliy musiqa.
**Аннотация.** В данной статье рассматривается формирование музыкального вкуса у детей дошкольного возраста посредством прослушивания музыки, пения, ритмических движений, обучения игре на музыкальных инструментах, а также на примерах узбекской национальной музыкальной культуры.
**Ключевые слова:**музыка, дошкольник, музыкальный вкус, слушание музыки, пение, слушание, ритмические движения, обучение игре на музыкальных инструментах, национальная музыка.
**Abstract.** This article discusses the formation of musical taste in preschool children through listening to music, singing, rhythmic movements, teaching them to play musical instruments, and using examples of Uzbek national music culture.
**Key words:** music, preschool child, musical taste, listening to music, singing, listening, rhythmic movements, teaching to play musical instruments, national music.
Xalqaro tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) millatlar o‘rtasida tinchlikni mustahkamlash va saqlash madsadidan tashqari, bu tashkilot deyarli barcha sohalarni rivojlantirish masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Ushbu tashkilotning tarkibiga kiruvchi YUNESKO – ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkilotining vazifasi shu sohalarni keng ko‘lamda rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda O‘zbekiston ham shu tashkilotning a’zosi hisoblanib, buning natijasini so‘nggi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlarda, ayniqsa, madaniyat va san’atga qaratilayotgan e’tiborda ko‘rishimiz mumkin. Bunga Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ilgari surgan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha” beshta muhim tashabbusni yaqqol misol qilish mumkin. Chunki bu loyihadagi birinchi tashabbus aynan madaniyat va san’atga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi[1].

Bundan tashqari, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4307-sonli Prezident qarorining 6-bandida maktabgacha ta’lim haqida, bolalarga ma’naviyat va madaniyatni singdirish haqida bir qancha fikrlar bildirilgan[2]. Prezidentimizning 2022-yildagi 112-sonli “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida yoshlarning musiqiy savodiga urg‘u berilib, cholg‘u asboblarini chalishni o‘rganishi zarurligi aytib o‘tilgan va respulikamizdagi barcha viloyatlar bo‘yicha har bir maktabda lektoriy konsertlar o‘tkazilishi vazifa etib belgilab berilgan[3]. Bu qarorning ijrosida musiqiy didni shakllantirish uchun lektoriy konsertlarda o‘quvchilarga har bir musiqiy cholg‘u asboblarining kelib chiqishi va u haqida qo‘shimcha ma’lumotlar berilmoqda va asarlar ijro etilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy didni shakllantirish masalasini muhokama qilish uchun avvalo, bir nechta savollarga javob topishimiz zarur: “Did o‘zi nima va u nima uchun kerak?”, “Musiqa nima?” “Inson qachondan boshlab musiqa eshitishni boshlaydi?” Did-hayot va san’atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyati. Inson “Did”i yuksak yoki past, keng yoki tor, cheklangan yoki cheklanmagan, nozik yoki sayoz bo‘lishi mumkin. Insonning musiqiy didi ma’lum darajada irsiy hamda hayot davomida orttirilgan bo‘ladi. Musiqiy didni tarbiyalash orqali shakllantirilib, takomillashtirilib va taraqqiy ettirib boriladi. Inson musiqa san’at asarlariga munosabati badiiy didida namoyon bo‘ladi. Badiiy did insonning adabiyot

va san'at asarlarini tushunib yetish, baholay olish va ulardan zavqlana bilish salohiyatini ko'rsatadi"[4]. "Musiqa so'zi yunonchadan olingan bo'lib, "muzalar san'ati", ya'ni "ilhom parilari san'ati" degan ma'noni anglatadi. Musiqa-navo insonga ilhom bag'ishlaydi. Shuninngdek, musiqa- inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmuyi vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir"[5].

Diniy manbalarda keltirilishi va ota-bobolarimizning ta'kidlab kelishicha, bola tug'ilmasidan ancha oldin, ya'ni o'n besh haftalik davridan eshitish qobiliyati rivojlana boshlar ekan. 6-7 oylikdan boshlab esa xuddi biz kabi eshitish, tovushlarga javob qaytarish va eshitganlarini tahlil qilish qobiliyati shakllanishi aytiladi. Bundan kelib chiqadiki, bolaga ona qornidan boshlab go'zal tarbiyani va yaxshi odobni singdirishimiz lozim. Darhaqiqat, inson tug'ilganidan boshlab, musiqa bola hayotining muhim bir qismini tashkil etadi va deyarli har doim atrofdagi olamda uni o'rab turadi. Bola tug'ilganidan ona allasini eshita boshlaydi, bola qulog'iga aytiladigan azon ohanglari va keyingi hayotidagi muhim voqealar to'y, bayram, marosimlardagi musiqalar uning musiqiy didni shakllanishiga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayoti davomida shakllangan musiqiy didining ma'lum qismi keyingi avlodga gen orqali o'tadi.

Musiqiy didni shakllantirish uchun ta'lim tizimining poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim boshlang'ich davr hisoblanadi. Avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim beruvchi pedagoglar o'z sohasini puxta egallagan, kerakli bilim va malakalar bilan qurollangan bo'lishi shart, shundagina ular bolalarda musiqiy didni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Maktabgacha ta'limda musiqiy bilimlar o'quvchilarga tinglash, kuylash, ritmik harakatlar va cholg'u asboblarida jo'r bo'lish kabi faoliyat turlari orqali o'rgatiladi:

*Tinglash.* Bolalar musiqani tinglash orqali uni his etadilar, ohanglarning quvnoq yoki g'amginligini, jarangdor yoki mayinligini, jo'shqin yoki o'ychanligini eshitib tahlil qiladilar. Shuningdek, ular bu jarayonda tinglangan qo'shiqni qanday ijro etish, qanday kuylashni qisman tushunib oladilar.

*Kuylash.* Kuylash faoliyatida esa avval qo'shiqning mazmuni va matni musiqa rahbari tomonidan tushuntiriladi va bolalar uni yod olganlaridan so'ng, bandlarga bo'lib ijro etiladi.

*Ritmik harakatlar.* Ritmik harakatlar muhim faoliyat turi bo'lib, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy qobiliyatini, musiqiy savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ritmik harakatlar bolalarga turli xildagi marshlar, raqslar, mashqlar va o'yinlar orqali o'rgatiladi. Bu faoliyat turi bolalarning musiqiy xotirasini va musiqiy qulog'ini rivojlantiradi va bundan tashqari bolalarning jismoniy holatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

*Musiqa asboblarida chalishga o'rgatish.* Maktabgacha yoshdagi bolalarning cholg'u asboblarini chalish faoliyatida asosan urma-zarbli cholg'ulardan foydalaniladi. Chunki, bunday cholg'u asboblari bolalar uchun ancha qulay va chalinishi tushunarli bo'ladi (boshqa cholg'u asboblariga nisbatan). Maktabgacha yoshdagi bolalarga mos keladigan urma-zarbli cholg'ularga kichik doirachalar, turli hajmdagi mis tarelkalar, nog'ora, uchburchak, shiqildoq kabilarni misol qilish mumkin. Bu kabi cholg'ulardan mashg'ulotlarda foydalanish bolalarning ritm, usul va templarni yaxshi his qilishini, eshitish qobiliyatini rivojlantiradi va bu ularga keyinchalik maktabda musiqa darslarida qiynalmasliklarini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy didni shakllantirish uchun o'zbek milliy kuy-qo'shiqlaridan foydalanishni tavsiya etish mumkin. Masalan: "Andijon polkasi", "Dilxiroj", "Lazgi", turli yalla va laparlar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonda musiqiy didning shakllanishi ona qornidan boshlanib, tug'ilgandan so'ng mehrga to'la alla bilan davom etadi. Maktabgacha yosh davri musiqiy didni shakllantirish uchun asosiy davrlardan biri bo'lib, musiqiy tushunchalar, madaniyat va musiqiy didning shakllanishi kuy tinglash, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar va cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatlari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Boyovut tumani sektor rahbarlarining axborotlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-favraldagi 19/118-6-sonli qo‘shma qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 03.05.2019-y. PQ-4307-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli, 02.02.2022-y.
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Did
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Musiqa

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASI USTIDA ISHLASH YO‘LLARI

**Abdurasulova Muxlisa Bekmirza qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi**
**2-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: f.f.d. (DSc), prof.**
**Ernazarova M.S.**

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi va nutqiy kompetensiyasini oshirish chora tadbirlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixalogiyasini o‘rganish, yuqori sifatli darslarni tashkil qilish va qanday usullar orqali o‘qish hamda nutqiy kamchiliklar bilan ishlash o‘zlashtirish samaradorligini oshirib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli darslar o‘tish hamda dars jarayonida ko‘rgazmali qurollarning ahamiyati to‘grisida ko‘rib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchilar, boshlang‘ich sinf, nutqiy kompetensiya, til, o‘qish savodxonligi, mavzu, ma’naviyat, o‘zbekona, ta’lim standartlari, psixalogiya, rivojlanish, kadrlar, zehn.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются меры по повышению читательской грамотности и речевой компетентности младших школьников, изучение психологии младших школьников, организация качественных уроков и способы, с помощью которых обучение и работа с речевыми недостатками повышают эффективность освоения, проведение интересных уроков для младших школьников и значение наглядных пособий в процессе урока.

**Ключевые слова**: ученики, начальный класс, речевая компетентность, язык, грамотность чтения, предмет, духовность, узбекский язык, образовательные стандарты, психология, развитие, персонал, разум

**Abstract**. This article examines the measures to increase reading literacy and speech competence of Primary School students, the study of the psychology of Primary School students, the organization of high-quality classes and by what methods to study and work with speech impairments, increasing the efficiency of mastering, conducting interesting lessons for primary students, as well as the importance of visual weapons in the course of

**Keywords:**pupils, primary class, speech competence, language, Reading Literacy, subject, spirituality, Uzbekistan, educational standards, psychalogy, development, personnel, mind.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyasi bilan birgalikga o‘qish savodxonligini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzularidan desak adashmaymiz. O‘quvchilar maktabga ilk bor qadam bosar ekan, o‘z oldilariga maqsad qo‘yadilar. Yosh bo‘lishlariga qaramay kelajakda o‘zlari istagan kasb egasi bo‘lish uchun harakat qila boshlaydi. Biz pedagoglar mana shunday o‘sib kelayotgan avlodga bilim berib to‘g‘ri yo‘nalish berishimiz lozim.

Bugungi kunda yurtimiz rivojlanayotgan davlatlar qatorida, mamlakatimiz yuksalar ekan iqtisodiyot bilan birga ma’naviyat ham rivojlanib boradi. Shu sababli, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida” ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida kadrlar tayyorlash, asosiy e’tiborni maktab o‘quvchilarini bilimli va malakali, ularni mustaqil tarzda fikrlaydigan, yuksak tafakkur egalari qilib tarbiyalashni o‘z oldiga qo‘ymoqda. O‘sib kelayotgan

avlodni madaniyatli, milliy qadriyatlarimizga mehr qo‘ygan o‘zbekona yoshlarni tarbiyalashda turli xil strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganlaridek: “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektulal va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qanday sohada bosh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimiz bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Bu nutq barcha yoshlarga, o‘qituvchilarga yangi rejalar tuzish va bajarishga turtki bo‘ldi. Nutq orqali kishilarning ma’naviy, axloqiy, estetik ko‘rinishida na’moyon bo‘ladi. Bolalar nutqini rivojlantirish maqsadida bugungi kunda yangi darsliklar joriy qilingani ham bejizga emas. Nutq inson uchun hayot davomida eng kerakli qobilyatlarda biridir. Inson maktabda, oila davrasida, ishda jamoada qay yo‘nalishda bo‘lmasin o‘z fikrini bayon qila olishi lozim, shu sababli bolalarni yoshligidanoq o‘z fikrini bayon qila oladigan darajada sifatli bilim berishimiz lozim.O‘qish savodxonligi-shaxs o‘zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobilyati ham hisoblanadi.[24] O‘quvchilar nutqiy savodxonligini oshirishda, birinchi navbatda to‘g‘ri o‘qish, so‘z boyligini kengaytirish, yangi atamalar bilan tanishtirish, ijodiy keng fikrlashga o‘rgatish, nutqini va tafakkurini rivojlantirish uchun ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini to‘g‘ri tashkil etish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darsliklari bilan tanishib chiqar ekanmiz, yangicha topshiriqlar beixtiyor e’tiborimizni tortadi. Bugungi kunda barcha shu sohaga tegishli fanlarning yangidan-yangi inovatsion g‘oyalarga yondashgan holda darsliklar yaratildi. Yangi darsliklar asosan o‘quvchilarning ongini rivojlantirish va tasavvur doirasini kengaytirib, yangi g‘oyalar va o‘quvchilarning izlanuvchanligini shu jumladan, xotirasini maksimal darajada oshirishga qaratilgan. Rasm asosida matn tuzish yoki o‘quvchilarga matnga asosan rasm chizish, rasm qaysi ertakka tegishli elanligini topish kabi mashqlar shubhasiz rivojlanib kelayotgan o‘quvchilar ongida yaratuvchanlik qobilyatini shakillantirsa, matnga oid notanish atamalar bolaning so‘z boyligining oshib borishiga xizmat qiladi. Nutqni, fikrni va o‘quvchilarning yaratuvchanligini oshirish, kelajak avodlarini sog‘lom fikirli qilib tarbiyalash aynan yangi tizimli o‘qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi bo‘lib qoladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va o‘qish savodxonligi deganda bir ma’noni emas, aksincha, bu atama o‘z ichiga juda katta mavzularni qamrab oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqiy savodxoniligi oshirishning turli xil usullari va o‘zingiz o‘qitish sistemalari bor. Masalan, tez aytishlar, diktantlar yozish, topishmoqlar yod olish va topish, hikoyalar o‘qish, uni tushunish va bayon qilish.Zamonaviy texnologiyalar orqali ko‘plab mashg‘ulotlardan foydalanib dars jarayonini qiziqarli olib borilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolalarga dars jarayonida tez aytish mashg‘ulotlardan foylanilsa, bu jarayon o‘quvchilarni nutqini ravon qilish bilan birgalikda zehni charxlash, o‘quvchilarga ijodiy zavq, inergiya berish kabi funksiyalarni bajaradi.Barchamizga ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin davri, ya’ni kichik maktab yoshi davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar yetti yoshdan o‘n bir yosh oralig‘ida aynan boshlang‘ich sinflarni o‘z ichiga oladi. Har bir pedagog o‘quvchilarning psixologiyasini o‘rganishi lozim, shu sababli ham psixologiya fani pedagogika bilan doim hamkorlikda ish olib boriladi. Kichik maktab yoshi davridagi bolalar o‘z diqqatini mustaqil bayon qila oladi. Yetti yosh bolaning so‘z boyligi ham yetarli darajada xilma-xil va o‘ziga tusharsiz bo‘lganlari ham anchagina topiladi. Bola eshitganlarini yetarli darajada eslab va anglab qoladi. Mutaxassislarning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, yaxshi tashkil qilingan ta’lim dasturi olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalar tafakkurini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ular sodda topshiriqlar va masalalarni tuzib yecha oladigan holda ko‘nikma hosil qilib ulgurgan bo‘ladi. Ularda burch, mehir, oqibat, javobgarlik hissi endigina namoyon bo‘la boshlaydi. Yetti yoshli bola o‘z hissiyotlarini boshqarish tajribasini egallagani, maktab ta’limiga tayyorgarligining muhim shartlaridan biri desak to‘g‘ri bo‘ladi. Yuqorida aytgan fikrlarining hammasi bolaning maktab psixologiyasi tomonidan tayyor ekanligi obektiv tamoyillarga mosdir. Boshlang‘ich sinflarda pedagog ishlarni tashkil

[24] Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. Toshkent, Sharq, 2019, 12-bet.

qilishda kichik maktab yoshidagi bolalarning anatomik, fiziologik hususiyatlarini, ijtimoiy rivojlanish darajasini ham hisobga olish lozim.
Hozirgi zamon pedogogikasi insonparvarlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ta’limning asosiy maqsadi insonnining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, harakatlantirish, o‘z-o‘zini shaxsiy rivojlantirishga qaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida mustaqillik va tashabbuskorlikka erishishi, o‘z faoliyatini nazorat qilish, tug‘ilishi mumkun bo‘lgan muammolarni aniqlash va hal etishda erkinlikni taminlash rivojlanishning muhim ahamiyat kasb etuvchi bosqichi deb qarashimiz lozim. O‘quvchi mustaqil, ijodiy harakat qilar ekan o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham yuksalib boradi, keyinchalik esa imkoniyati darajasidan ham yuqoriroq muvaffaqiyatga erishishiga ko‘prik bo‘lib xizmat qilsa ajab emas.
Boshlang‘ich sinf darslarini samaradorligini oshirish uchun turli xil ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muddao bo‘ladi. Darsdan zerikib qolgan bolalarni diqqatini jamlash va yana darsga qiziqishini paydo qilish uchun kichik tanaffuschalar, musiqiy daqiqalarni tashkil etishimiz mumkun. Bu bolalar ongida pazitiv energiyaning ko‘tarilishi, dars davomida o‘zini ko‘rsatishga harakat qilishiga sabab bo‘ladi. Barchamizga ma’lumki bolalar mehrga tashna doim, diqqat markazida bo‘lishni istashadi. O‘qituvchi esa bundan foydalangan holda ham o‘zining, ham bolaning xohishini turli xil o‘yinlar bilan bajarishi mumkun. Bolalarga qisqa she’r yod oldirish orqali she’r aytishuvlar, she’r oxiridagi harfga qarab davom ettirish, yutgan o‘quvchini rag‘batlab borish kabi turli tuman usullardan foydalanish o‘qituvchiling darsni qiziqarli o‘tkazishi uchun kerakli metodlardan hisoblanadi.
Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek to‘g‘ri tashkil qilingan boshlang‘ich sinf darslari bolalar kelajagini belgilab bersa ajab emas. Shunday mas’uliyatli vazifa biz pedagaglarga yuklatilgan ekan albatta o‘z bilimimizni boyitib borish orqali yutimiz uchun malakali shaxs bo‘lib xizmat qilish shuningdek bizga ishonib, umid bog‘lab farzandi tarbiyasi va bilimi uchun javobgar ekanligimizni his etgan holda harakatdan to‘xtamaymiz .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mavlonova K. Azimova I. Tursun Sh. O‘qish savodxonligi.3-sinf. Toshkent. 2023, 62 b.
2.Nishanova Z.T , Kamilova N. G, Abdullayeva D .U, Xolnazarova M. X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya.O‘zbekishton faylasuflar milliy jamiyati. Toshkent.2018, 602 b.
3.Xo‘jamberdiyeva F. Boshlangg‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy rivojlanish bosqichlari. 2022 b.
4.Shabbozova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini savodxonligini oshirishda shaxsiy qadiryatli yondashuv.Toshkent. Metodis, 2023, 85 b.
5. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. Toshkent, Sharq, 2019, 94 b.

# TALABALARNI OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK QILISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

**Abduraxmonova Sayyoraxon Shaxobidinovna**
**“University of economics and pedagogy” NOTM,**
**Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Maqolada pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari takomillashtirilgan va amaliyot rahbari+talabalar+MTT tarbiyachisi+ota-onalar pedagogik amaliyot jarayonlarida hamkorlik ishlarining adekvat modeli ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:**model, modellashtirish, amaliyot rahbari, talabalar, MTT tarbiyachisi, ota-onalar, pedagogik mexanizm, kvaziprofessional.

**Abstract.** In the article, the pedagogical mechanisms of preparing students for cooperation with parents have been improved by means of pedagogical practice, and an adequate model of cooperation in pedagogical practice processes of the head of practice + students + MTT educator + parents has been developed.

**Key words:**model, modeling, practice leader, students, MTT teacher, parents, pedagogical mechanism, quasi-professional.
**Абстрактный.** В статье средствами педагогической практики усовершенствованы педагогические механизмы подготовки студентов к сотрудничеству с родителями, а также разработана адекватная модель взаимодействия в процессах педагогической практики руководителя практики + студентов + педагога МТТ + родителей.
**Ключевые слова:**модель, моделирование, руководитель практики, студенты, преподаватель МТТ, родители, педагогический механизм, квазипрофессионал.
Bugungi kunda, talabalardan kasbiy mahorat va tarbiyachilik sifatlarnigina oʻrganib qolmay balki, ilgʻor pedagogik tajribalarni ham oʻrganish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish koʻnikmasi va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentliligini toʻxtovsiz rivojlantirib borishni ham taqozo etadi.

Ta’lim tizimiga zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining soʻnggi yutuqlarini chuqur oʻrgangan holda bevosita pedagogik amaliyot jarayoniga tatbiq etish modelini yaratish va uni doimiy takomillashtirib borish lozim boʻladi.

Model soʻzi fransuzcha–***modele***, lotincha ***modulus***–oʻlchov, me’yor ma’nolarini anglatadi, ta’lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllari oʻzaro bogʻliqligini ta’minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalar yoʻnalishini ifodalovchi va koʻzlangan natijalarga erishishni ta’minlovchi oʻzaro bogʻliq boʻlgan va bir-birini oʻzaro toʻldiruvchi komponentlardan iborat tizimlangan shaklga aytiladi.[1]

Modellashtirish adabiyotda bilim obyektlarini ularning modellaridan foydalangan holda oʻrganish usuli, real hayot obyektlari va hodisalari va qurilgan ob’ektlarning xususiyatlarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni qurish usullarini ratsionalizatsiya qilish, ularni boshqarish va boshqalar uchun modellarni qurish va oʻrganish jarayoni sifatida koʻrib chiqiladi.

Koʻpgina tadqiqotchilar ta’kidlaganidek[2], pedagogikada modellashtirish kadrlar tayyorlash muammosini oʻrganishda keng qoʻllaniladi, bu bir tomondan, talabalar tayyorlanayotgan kasbiy faoliyatni, tizimli amaliy, boshqa tomondan amaliyot mazmuni (hamkorlik modeli) koʻrib chiqishni talab qiladi.

Bizning tadqiqotimizda olib borilayotgan dolzarb masala – bu amaliyot rahbari+talabalar+MTTtarbiyachisi+ota-onalar pedagogik amaliyot jarayonlarida hamkorlik ishlarining adekvat modelini yaratishga qaratilgan.

Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashni modellashtirish vositasi sifatida koʻrib chiqamiz. Shu sababli, amaliyotda modellashtirish bilan bogʻliq tadqiqotlar orasida hamkorlikni modellashtirishga qaratilgan tadqiqotlar biz uchun alohida qiziqish uygʻotadi. Ularning mohiyati shundan iboratki, talabalar amaliyot jarayonida yaratilgan shart-sharoitlarda kasbiy faoliyatni takrorlaydilar. Faoliyat shartli ravishda kasbiy xarakterga ega boʻlib, harakatlar va operatsiyalarni bajarishda faqat uning eng muhim belgilari aks etadi. A.A.Verbitskiy bu faoliyatni “kvaziprofessional” deb ataydi, u ta’limdan professionalga oʻtish; talabalar haqiqiy kasbiy faoliyatni amalga oshirmaydi, balki ularga taqlid qiladi.[3]

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashni pedagogik mexanizmlarini modellashtirishda biz quyidagilarga alohida e'tibor qaratdik.

Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorgarligini shakllantirish boʻyicha oʻz modelimizni ishlab chiqishda biz rioya qilgan amaliyot jarayonida qoʻyiladigan talablar:

• **Nazariy oʻquv materiali bilan bogʻliqlik.** Vazifalar va topshiriqlar majmuasini ishlab chiqish va uni tashkil qilishda har bir vazifani bajarish joyi muammoni hal qilish uchun ma’lumot beruvchi nazariy materialni oʻrganishni hisobga olgan holda belgilanadi; nazariy materialni oʻrganishga sarflangan vaqtni hisobga olgan holda, aniq topshiriq va topshiriqlar joyi belgilanadi; Bundan tashqari, fanlararo (murakkab) topshiriqlar va topshiriqlar barcha asosiy oʻquv fanlari boʻyicha nazariy materiallarni oʻrgangandan soʻng bajariladi.Bu harakatlarni ketma-ketlikda amalga oshirishda amaliyot rahbari bilan tarbiyachi faoliyati muhim oʻrin tutadi.

• **Tarbiyachi faoliyatini ota-onalar bilan olib borgan hamkorlik ishlarini kuzatish.** Tarbiyachilarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishning eng muhim jihatlarini aks ettirishi va umumlashtirilgan xarakterga ega boʻlishi kerak, ya’ni amaliyot davri belgilangan boʻlganligi va

bosha kasbiy malakalar ham o‘zlashtirilishini hisobga olib, hamkorlik faoliyati jarayonlari tizimlashtiriladi.Ertalabki qabul davomida tarbiyachi va ota-onalar suhbati mazmuni (bolaning ummiy holati:kayfiyati, sog‘ligi haqidagi ma’lumotlar), Bu qisqa hamkorlik qilish shakli hisoblanib, ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini ijobiy kechishi va samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi.

• **Vazifalarni belgilash va hamkorlik ko‘nikmalarni bir faoliyatdan boshqasiga o‘tkazish imkoniyatini hisobga olish.** Vazifalar va topshiriqlarni ishlab chiqishda ularni intellektual faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra (analitik, loyihalash va boshqa ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor berish) ko‘nikmalarni bir faoliyatdan ikkinchisiga o‘tkazish imkoniyatini yaratadigan tarzda tiplashtirish tavsiya etiladi.

• **Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning odatiy amaliyotda moslashish qiyinchiliklari va xatolarini hisobga olish.** Talabalarni ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni amalga oshirishdagi xatolar va qiyinchiliklar ushbu faoliyat turini amalga oshirish zarurati va ushbu amalga oshirishning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan bilim va ko‘nikmalarning yetishmasligi o‘rtasidagi qarama-qarshilikning natijasidir. Obyektiv ravishda mavjud bo‘lgan qarama-qarshilik hamkorlik faoliyat sub’ekti tomonidan amalga oshirilishi (qiyinchiliklar) yoki ongsiz bo‘lishi mumkin (xatolar). Qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan masalalar bilan bog‘liq topshiriq va topshiriqlarni ishlab chiqish talabalarni qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi va bo‘lishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini oladi.

**“Pedagogik to‘rtlik”ni hosil qilish.** Ya’ni:

- amaliyot rahbari+talaba+tarbiyachi+ota-ona” o‘rtasidagi munosabatlar tabiatini kuzatish, tahlil qilish va baholash (tashxis qo‘yish) ota-onalar bilan faol pedagogik hamkorlikni tashkil etishda aniq pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, ularni baholash va hisobga olish;
- oilaning tipologik xususiyatlari va bolaning individual psixik xususiyatlaridan kelib chiqib, tarbiyalanuvchining oilasi bilan pedagogik o‘zaro munosabatlarning real hayotiy muammolarini tahlil qilish va baholash;
- tarbiyalanvchilarning oilalari, do‘stlari bilan pedagogik munosabatlarni tahlil qilish (kuzatishlar asosida), ijobiy tajribalarni ta’kidlash, ularning ishidagi kamchiliklarni aniqlash;

**Analitik ko‘nikmalarga ega bo‘lish**-bu tahlilning mohiyatini va umumiy tahliliy ko‘nikmalar mavjudligini tushunish, bu hodisani uning tarkibiy qismlariga bo‘lish, ularni me’yoriy yoki faraziy talablar bilan taqqoslash, ular o‘rtasidagi muvofiqlikni yoki nomuvofiqlikni aniqlash va olingan natijani baholashni o‘z ichiga oladi. Har bir aniq oilada oilaviy ta’lim holatini rivojlantirishni loyihalash va oiladagi tarbiya kamchiliklarini bartaraf etish va uning ijobiy tomonlarini mustahkamlash maqsadida ta’lim kamchiliklarining ayrim xarakterli ko‘rinishlarining tipiklik muammolarini baholash va ota-onalar bilan pedagogik munosabatlarni bashorat qilish. Shuningdek, aniq pedagogik vazifalarni aniqlash va aniq shakllantirish, ularni hal qilish shartlarini aniqlashdan iborat.

Talabalar o‘zining aniq harakatlarini oldindan ko‘ra bilishi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda, sport musobaalarida ota-onalarni ishtirokini, ularning birgalikdagi faoliyatlarga qanday jalb qilish yo‘llarini bilishi va faol ishtirok etishga undash pedagogik mahorat elementlarini tarkib topishda, mustaqil va tez qaror qabul qilish qobiliyati shakllanishiga xizmat qiladi.[4]

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.Talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llarini izlash bizga yondashuvlardan biri sifatida o‘quv jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirishni ta’kidlash imkonini berdi.Kasbiy faoliyatga hamkorlik qilishga tayyorgarlik konsepsiyasining tamoyillari va ota-onalarning belgilangan malaka xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlash modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda maqsadi va natijasi kasbiy tayyorgarlik orqali ochiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Pedagogika ensiklopediya. I jild.-T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.-B. 342.
2. Semushina L.G. Ta’lim jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirish //Mutaxassis.-2004.-No 5.-B.23-28.
3. Verbitskiy A. A. Universitetda belgi-kontekstual o‘rganish kontseptsiyasi. Psixologiya savollari,-

1987,-N 1.-B. 24-28.
4. Abduraxmonova S.Sh. Pedagogik amaliyot vositasida talabalarni ota-onalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlashning tamoyillari Innovations in science and education system Dehli. 44-45 bet. https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc

## O'ZBEKISTONLIK GIMNASTLARNING SALMOQLI QADAMLARI.

**Nizomiy nomidagi TDPU**
**"Jismoniy tarbiya va sport"kafedrasi**
**o'qtuvchisi Xakimdjanova Kamola Bahadirovna**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Jismoniy madaniyat xotin qizlar sporti yo'nalishi Achilova Dilfuza**

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonlik gimnastlardan Galina Shamray,Sergiy Diomedov, Elvira Saadi, Ekaterina Xilko, Oksana Chusovitina, Anton Viktorovich Fokin**,** Rozaliya Galiyevalarning yoshliklaridan sportga bo'lgan etiborlari mashg'ulot vaqtlarida chekgan zahmatlari, jahon arenalarida erishgan yutuqlari, sportga qo'shgan o'zining eng katta xissalari, yurtboshimiz tomonidan olingan Davlat mukofotlari haqida qisqacha bahon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Olimpiya, terma jamoa, qo'shpoya, Tokio, Myunxen, "Xalqlar do'stligi",Tayvand,SSR.

**Аннотация**. В данной научной статье узбекские гимнасты Галина Шамрай, Сергей Диомедов, Эльвира Саади, Екатерина Хилько, Оксана Чусовитина, Антон Викторович Фокин, Розалия Галиева уделяют внимание спорту с юности, их усилиям во время тренировок, их достижениям на мировых аренах, их вклад в спорт, кратко упомянуты его крупнейшие заслуги, государственные награды, полученные президентом нашей страны.

**Ключевые слова:** Олимпиада, сборная, парный разряд, Токио, Мюнхен, «Дружба народов», Тайвань, ССР.

**Annotation.** In this scientific article, Uzbek gymnasts Galina Shamray, Sergiy Diomedov, Elvira Saadi, Ekaterina Khilko, Oksana Chusovitina, Anton Viktorovich Fokin, Rozaliya Galiyeva pay attention to sports from their youth, their efforts during training, their achievements in world arenas, and their contribution to sports. His biggest contributions, state awards received by our country's president are briefly mentioned

**Key words:** Olympics, national team, doubles, Tokyo, Munich, "Friendship of peoples", Taiwan, SSR.

**Galina Yakovlevna Shamray (Rudenko**) – sobiq Ittifoqda xizmat ko'rsatgan sport ustasi, gimnastika sporti bo'yicha birinchi mutlaq jahon chempioni (1954), gim nastika xodasida mashq bajarishda mamlakat chempioni (1955), 1952-yilgi Olimpiada o'yinlarida terma jamoa a'zosi. Jamoa tarkibida Olimpiada chempioni, "Hurmat belgisi" ordeni sovrindori. Galina Yakovlevna Shamray 1931-yil 5-oktabrda Toshkentda tug'ilgan. Gimnastika bilan Ikkinchi Jahon urushidan so'ng shug'ullana boshlagan. Ushbu sport turiga yoshligidan qiziqqan. Sport zaliga opasi olib kelgan. Birinchi murabbiysi V.V. Vnuchkov. 1949-yilda Galina milliy terma jamoa tarkibiga tushgan. Galina hayotida eng baxtli hodisa, bu albatta, 1952-yilda Xelsinki shahrida bo'lib o'tgan XV Olimpiada o'yinlaridir. G. Shamray SSSR terma jamoasi tarkibida oltin medal sohibasi bo'lgan. 1954-yil Galina uchun omad keltirdi. U Rim shahrida o'tkazilgan Jahon chempionatidan mutlaq chempion va ikki oltin medal sohibasi bo'lib qaytdi. 1957-yildan Galina Shamray Moskva shahrida gimnastikadan murabbiy va hakamlik lavozimini bajargan. Hozirgi kunda u Moskva shahrida istiqomat qiladi.

**Sergey Viktorovich Diomedov** – xizmat ko'rsatgan sport ustasi, sport gimnastikasi bo'yicha mamlakat chempioni (1964—1966, 3-453 33 1968—1969, 1970). Qo'shpoyada mashq bajarish bo'yicha Jahon chempioni (1966), XVIII va XIX Olimpiada o'yinlari kumush medal sovrindori (1964, 1968), mutlaq Jahon chempioni (1966, 1970). Sergey Viktorovich Diomedov 1943-yilda To'rtko'lda tug'ilgan. 1956-yilning sentabrida birinchi marta gimnastika zaliga murabbiy R.G. Sarkisov guruhiga kelgan, katta akasi bilan bir guruhda shug'ullangan. Bir yil o'tmasdan Sergey sport mahoratida akasiga yetib olib, II razryad mezonini bajargan. Uch yildan so'ng "Dinamo" sport

jamoasi birinchiligida sport ustasi mezonini bajargan. 1961-yildan 1967-yilgacha Sergey Diomedov O‘zbekiston harbiylar sport klubi a’zosi, 1968-yildan 1972-yilgacha MHSK a’zosi. Sergey Diomedov 1964-yilda mamlakat chempionatida kuchli gimnastlar o‘rtasida to‘rtinchi o‘rinni egallab, Tokioda o‘tkaziladigan XVIII Olimpiada o‘yinlariga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Sobiq Ittifoq terma jamoasi jamoalar bellashuvida ikkinchi o‘rinni egalladi. Sergey Diomedov 1965-yilda mamlakat Qurolli Kuchlari, mamlakat, Yevropa va Jahon kubogi g‘olibi. 1965-yili Ittifoq mutlaq chempioni, Yevropa birinchiligida bronza medal sovrindori, 1966- yilda esa qo‘shpoyada Jahon chempioni. Sergey Diomedov 1965-yildan boshlab, Moskva shahrida oldin xizmat ko‘rsatgan murabbiy Yevgeniy Viktorovich Korolev, keyinchalik Vladimir Mixaylovich Smolevskiylar rahbarligida shug‘ullangan. Sergey Diomedov XIX Olimpiada o‘yinlari (Mexiko, 1968) kumush medali sovrindori bo‘lgan. Sergey Diomedov-1965,1968-yillarda gimnastika ko‘pkurashda mamlakat mutlaq chempioni, 1968-yilda halqada mashq bajarishda eng kuchli deb tan olingan. 1964-1966, 1968, 1970-yillarda qo‘shpoyada mashq bajarish bo‘yicha mamlakat chempioni. Qo‘shpoya S. Diomedov tomonidan 1968-yilda bajarilgan mashqi hanuzgacha “вертушка Диомедова” deb yuritiladi.

**Elvira Fuadovna Saadi** – sport gimnastikasi bo‘yicha mamlakatda xizmat ko‘rsatgan sport ustasi (1974), Jahon chempioni, bir necha bor xalqaro musobaqalar g‘olibi va sovrindori (1972, 1976), ikki marta Olimpiada chempioni, “Xalqlar do‘stligi” ordeni sohibasi. Elvira Fuadovna Saadi 1952-yil 2-yanvarda Toshkent shahrida tug‘ilgan. 12 yoshida gimnastika bilan shug‘ullanadi. “Dinamo” jamiyati murabbiyi Vladimir Filippovich Aksenov Elvirada gimnastlarga xos egiluvchanlik, mehnatsevar va mashq bajarishda o‘ziga xos elementlarni ko‘ra bildi. 1970-yili Elvira Saadi nomzodi mamlakat terma jamoasi ustozlari nazariga tushadi, yana bir yildan so‘ng u mamlakat chempionatini kumush medal sovrindori bo‘ldi. Mamlakat kubogida esa Elvira 5-o‘rinni va xodada hamda erkin mashq bajarishda ikkita oltin medalni qo‘lga kiritadi. Va nihoyat, Elvira Saadi 1972-yili Myunxenda o‘tkazilgan Olimpiada o‘yinlarida ishtirok etish uchun milliy olimpiada terma jamoa a’zosi. Olimpiada chempioni bo‘ldi.

1974-yili Elvira jahon chempioni unvoniga sazovor bo‘ldi. J 976- yil Kanadaning Monreal shahrida ikkinchi marta Olimpiada chempioni bo‘ldi. 1976-yil sport sohasida katta xizmatlari uchun Elvira Fuadovna Saadi “Xalqlar do‘stligi” ordeni bilan mukofotlandi. Elvira Saadi katta sportni tark etmadi. U mamlakat va Rossiya terma jamoasining murabbiyi lavozimida ishlab keldi. Hozirgi kunda E. Saadi Kanada Olimpiada terma jamoasini xalqaro musobaqalarga tayyorlamoqda.

**Oksana Aleksandrovna Chusovitina** – xizmat ko‘rsatgan sport ustasi, sport gimnastikasi bo‘yicha turli xalqaro musobaqalar g‘olibi va sovrindori. “Yaxshi niyat o‘yinlari” musobaqasi g‘olibi. XXV, XXVI, XXVII Olimpiada o‘yinlari chempioni, XXVIII Olimpiada o‘yinlari ishtirokchisi.

1993-yilgi Jahon chempionatining bronza medali sovrindori. “Do‘stIik” ordeni sohibasi,1994-yilda Xirosimo shahrida bo‘lib o‘tgan XII Osiyo o‘yinIari bronza medali sovrindori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustasi. Oksana Aleksandrovna Chusovitina 1975-yil 19-iyunda tug‘ilgan. Oksana besh yoshidan boshlab, sport gimnastikasi sho‘basiga akasi bilan qatnagan. Ko‘p o‘tmasdan Oksanani murabbiy Svetlana Mixaylovna Kuznetsova o‘z tarbiyasiga oladi. G.S. Titov nomli Olimpiada zaxiralari tayyorlovchi maxsus sport maktab internatda o‘qiydi. Andrey Fedorovich Rodionenko Oksanani o‘z tarbiyasiga olib, uni Moskvaga, o‘quv mashg‘ulotlariga taklif etadi. 1990-yildan Oksana Chusovitina-sport gimnastikasi bo‘yicha sobiq SSSR terma jamoasining a’zosi. Oksana o‘sha yilning yozida terma jamoa tarkibida AQSHning Sietle shahrida “Yaxshi niyat o‘yinlari” musobaqasida ishtirok etib, jamoa tarkibida oltin medal sohibasi bo‘ldi. 1989-yil Oksana sport ustasi mezonini bajaradi. 1990-yilda esa Xalqaro toifali sport ustasi unvoniga sazovor bo‘lgan, 1991-yili SSSRda xizmat ko‘rsatgan sport ustasi. 1992-yili Parijda o‘tkazilgan Jahon chempionatida bronza medaliga erishadi. Ispaniyaning Barselona shahrida bo‘lib o‘tgan XXV Olimpiada o‘yinlarida Oksana jamoa tarkibidagi yana bir O‘zbekistonlik gimnast Rozaliya Galiyeva bilan birgalikda MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) oltin medal sohibasi bo‘lishdi. 1993-yil Angliyada bo‘lib o‘tgan Jahon chempionatida Oksana Chusovitina tayanib sakrash mashqida 9,7,10 ball to‘plab, uchinchi o‘rinni egalladi. Shu yili lspaniyada o‘tkazilgan xalqaro musobaqada xodada mashq bajarish bo‘yicha (9,55 ball) ikkinchi o‘rin, tayanib sakrashda (9,95 ball) ikkinchi o‘rin,

qo‘shpoyada (9,65 ball) ikkinchi o‘rin, erkin mashqlar bajarlshda (9,72 ball) ikkinchi o‘rin, natijada ko‘p kurashda (38,35ball) ikkinchi o‘rinni egalladi. Oksana Chusovitina besh Olimpiada o‘yinlarida qatnashib, yuqori o‘rinlarni egallagan uchun Ginnes rekordi kitobiga tushgan jahon gimnast ayollari orasida yagona sportchidir.

**Rozaliya llfatovna Galiyeva** – xizmat ko‘rsatgan sport ustasi, sport gimnastikasi bo‘yicha bir necha xalqaro musobaqalar sovrindori, 1991-yildagi X sobiq Ittifoq xalqlari spartakiadasida bronza medali sovrindori, 1992-1993-yillar jahon chempionatining chempioni (jamoa tarkibida), bronza medal sohibasi, XXV Olimpiada o‘yinlari (1992) chempioni. Rozaliya llfatovna Galiyeva 1977-yil 28-aprelda Olmaliq (Toshkent viloyati) shahrida tug‘ilgan. Sport gimnastikasi sho‘basiga olti yoshli Rozani otasi olib kelgan. Rozaning birinchi murabbiysi Roza Borisovna Ishkova. Roza 12 yoshida sport gimnastikasi bo‘yicha milliy terma jamoasi tarkibidan o‘rin olgan. G.S.Titov nomli Olimpia zaxiralari sport internatida o‘qigan. 1991-yili X spartakiadada ishtirok etib, bronza medali sohibasi bo‘ladi, shu yili xalqaro toifali sport ustasi unvoniga sazovor bo‘ladi. Roza 1992-yilgi XXV Olimpiada o‘yinlarida jamoa tarkibida ishtirok etib, oltin medalni qo‘lga kiritadi. 1992-yil dekabrda R. Galiyeva Tayvanda jahon gimnastlarining kuchlilari qatnashgan xalqaro turnirda g‘olib chiqadi, 1993-yilda Jahon chempioni unvonini qolga kiritadi. Roza Galiyeva bugun ham sport zalini tark etmagan. O‘zbekistonlik sport gimnastikasi ishqibozlarini o‘zining jozibali chiqishlari bilan quvontirmoqda. Roza eng mehnatsevar va texnikali gimnast.

**Anton Viktorovich Fokin** — gimnastika bo‘yicha xalqaro toifali sport ustasi. 1982-yil 6-noyabrda Toshkentda tug‘ilgan. O‘rta maktabning 5-sinfidan Anatoliy Sergeyevich Olushev Antonni O‘zbekiston temiryo‘llari boshqarmasining gimnastika sporti bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bolalar sporti maktabiga taklif qilgan. Anton sport mahoratini birinchi marta 1998-yili Moskva shahrida o‘smirlar orasida bo‘lib o‘tgan xalqaro musobaqadan boshlagan. Anton Fokin 7 marta gimnastika ko‘pkurashi bo‘yicha O‘zbekiston chempioni, 1999, 2000, 2001, 2002, 2003, 2004, 2005- yillarda Jahon chempionatlari ishtirokchisi. 2007-yili Shtutgartda bo‘lib o‘tgan chempionatda bronza medali sovrindori. 2008-yili XXIX Pekin Olimpiadasida qo‘shpoya bo‘yicha bronza medali sovrindori.

**Ekaterina Xilko** — 1982-yil 23-martda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Tramplin bo‘yicha xalqaro toifali sport ustasi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sportchi. Batutda sakrash bo‘yicha bir necha bor O‘zbekiston chempioni. Sidneyda bo‘lib o‘tgan XXVII Olimpiadada ishtirok etib, 4 -o ‘rinni egallagan. Afinadagi XXVIII Olimpiya o‘yinlari ishtirokchisi (4-o‘rin) va Pékin XXIX (2008-yil) Olimpiada o‘yinlarida tramplinda sakrashda bronza medali sovrindori. « O‘zbekiston iftixori» ordeni bilan mukofotlangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.“Gimnastika va uni o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanma. M .K . KARIMOV — O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining “Gimnastika” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi; N.N. MALININA — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Jismoniy tarbiya uslubiyati va bolalar sporti” kafedrasi dotsenti, biologiya fanlari nomzodi.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/ internet sayti.
3. https://www.wikiwand.com/ru imternet sayti.

## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TABIATNI SOG‘LOMLASHTIRUVCHI KUCHLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

**NavoiyDavlatPedagogika Instituti**
**Jismoniy madaniyat fakulteti kafedrasi dotsenti Musayev Otabek Qudratovich**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Jismoniy madaniyat xotin qizlar sporti yo‘nalishi**
**Achilova Dilfuza**

**Annotatsiya.** Havo, quyosh nuri, suv jismoniy tarbiya jarayonida tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlari tarzida jismoniy tarbiyaning vositasi sifatida foydalaniladi. Hayotiy sharoit, muhit insonni turli sharoitda moddiy ne’mat yaratish, yashashga majbur qiladi. Bunga ko‘nikish, unga tayyor bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun tabiatning inomi – havo, suv, quyosh nuri inson ish

qobiliyatini oshirish, salomatligini mustahkamlashning asosiy vositasidir. Tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlarining ahamiyatlari haqida batafsil bayon etilgan.
**Kalit so‘zlar:** havo,quyosh,suv, serotonin, endorfin.
**Аннотация.** Воздух, солнечный свет и вода используются как средства физического воспитания в виде целебных сил природы в процессе физического воспитания. Условия жизни и окружающая среда заставляют человека жить и создавать материальные блага в разных условиях. Важно к этому привыкнуть и быть к этому готовым. Вот почему дары природы - воздух, вода, солнечный свет - являются главными средствами повышения работоспособности человека и укрепления здоровья.Подробно описано значение целебных сил природы.
**Ключевые слова:** воздух, солнце, вода, серотонин, эндорфин.
**Annotation.** Air, sunlight, and water are used as means of physical education in the form of healing forces of nature in the process of physical education. Living conditions and environment force a person to live and create material wealth in different conditions. It is important to get used to it and be ready for it. That's why the gift of nature - air, water, sunlight - is the main means of increasing human working capacity and strengthening health. The importance of healing forces of nature is described in detail.
**Key words**. Air, sun, water, serotonin, endorphin.
Jismoniy tarbiya jarayoni ochiq xavoda, quyosh nuri ostida, suv va boshqalardan foydalanib jismoiy mashqlar bajarish samara beradi. Cho‘milish, oftobda toblanish, havoning issiq-sovug‘i jismoniy mashqlar bilan inson organizmiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Mashg‘ulotlar davomida bu vositalardan tizimli foydalanishning muhim ahamiyat kasb etadi. Ishni shunday tashkillash lozimki, jonajon Respublika-mizning geografik, iqlimiy va ekologik holatinig hisobga olib barcha viloyat va hududlarda tabiatning sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish muammosi hal qilinishi lozim. Masalan, quyosh nuridan foydalanishda soat 10.00 dan 12.00 gacha alohida, 16.00-17.30 gacha yoshi, jinsi va boshqa individual xususiyatlarini hisobga olinmasdan toblansa uning ta’siri turlicha bo‘ladi. Jismoniy mashqlarning me’yori, yuklamaning umumiy miqdori, mashqning intensivligini e’tibordan chetda qoldirish tabiatni sog‘lomlashtiruvchi kuchlaridan foydalanishda salbiy natijalarga olib kelishni unutmasligimiz lozim. Shug‘ullanuvchilarga quyosh vannasi, suvda chiniqishning nazariy bilimlari va ulardan tizimli foydalanish, havoning o‘zgarishi organizmning issiq-sovuqqa, keskin o‘zgarishlarga tez moslashshishi individning yoshligidan yo‘lga qo‘yishni samarasi katta. Har tomonlama chiniqtirish tabiat omillarini turli jismoniy mashqlarni bajarish bilan qo‘shib olib borilishi tashqi muhitning salbiy ta’sirlariga organizmning qarshilik ko‘rsata olish qobiliyatini yanada oshiradi. Jismoniy tarbiya jarayonida erishilgan chiniqishning samarasi “ko‘chuvchan” bo‘ladi, yaoni u insonning boshqa faoliyati (asosan, mehnat,harbiy xizmat)da namoyon bo‘ladi va jismoniy tarbiyaning hayotiy-amaliyligini oshiradi. Qolaversa, ruhiy-irodaviy hislatlarini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, chayqalish, tebranish, me’yorsiz nagruzkaga chidash, vaznsizlik holatiga tez moslashishdek vazifalar oson hal bo‘ladi. Havo va quyosh vannalari – davo va chiniqish maqsadida havo hamda quyosh nurining shifobaxsh xossasidan foydalanish. H. va q.v. sanatoriy va kurortlarda davolanishning muhim qismi hisoblanadi, undan kundalik sharoitda ham (vrachning tavsiyasi bo‘yicha) foydalanish mumkin.Havo vannalari turlaridan biri — peshayvonda davolanish, bunda davolanuvchilar ochiq peshayvonda ma’lum vaqt bo‘ladilar; bemorlar mavsumga muvofiq kiyinib olishlari lozim (sovuq paytlarda issiq adyol, yotoq qopidan foydalaniladi). Havo vannasi qabul qilayotganda erkin harakatlanayotgan havo teridagi nerv uchlarini qo‘zg‘atib, uning nafas olishini va qonning kislorodga to‘yinishini ta’minlaydi. Bunda oksidlanish jarayonlari va moddalar almashinuvi jadallashadi, muskul va nerv sistemasining quvvati oshadi, organizmdagi termoregulyatsiya sistemasi chiniqadi, ishtaha ochiladi, uyqu yaxshilanadi. Havosining tarkibida kis-lorod ko‘p bo‘lgan joylarda havo vannasi ayniqsa, foydali, bunday havo dengiz tupari, yengil aeroionlarga boy bo‘ladi.Havo vannasi va muddatini vrach belgilaydi. Havo vannasi organizmni, ayniqsa, bolalar organizmini chiniqtirishda, organizmning tashqi muhit ta’sirlariga qarshiligini kuchaytirishda (qarang Organizmni chiniktirish), shuningdek, bir qator kasalliklarda, jumladan,

o‘pka sili, kamqonlik, nerv sistemasining funksional kasalliklarida, yurak-tomir sistemasi kasalliklarida tavsiya etiladi. O‘tkir isitma, revmatizm, bo‘g‘imlarning surunkali yallig‘lanishida, nevrit va miozit kasalliklarida havo vannasi buyurilmaydi.

**Quyosh nurining insonga foydalari:**

- Insondagi immunitet tizimini mustahkamlaydi.
- Quyoshdan keladigan issiqlik va yorug‘lik insonning quvvatiga quvvat qo‘shadi.
- Insondagi zararli bakteriyalarni yo‘q qiladi.
- Quyosh nurlari ostida muayyan muddat toblanish tananing teri saratonidan, shuningdek, qovuq, oshqozon va yo‘g‘on ichak saratonidan himoyalanishiga sabab bo‘ladi.
- Quyosh nurlari inson tanasida D vitamini hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu vitamin insonning suyaklari mustahkamlanishiga xizmat qiladi.
- Quyosh nurlari yurak bilan bog‘liq kasalliklardan himoya qiladi.
- Tanadagi xolesterin miqdorini kamaytiradi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, yoz faslida vafot etadiganlardan ko‘ra qish faslida vafot etadiganlar ko‘proqni tashkil etar ekan. Bunga sabab qishda Quyoshli kunlarning ozligidir.
- Siqilish, tushkunlikning yo‘qolishiga xizmat qiladi.
- Quyosh nurlari muayyan miqdorda ko‘z pardasiga yetib kelsa, tananing bo‘shanishiga sabab bo‘ladi.
- Nurlar teridagi ayrim kasalliklarga qarshi kurashadi. Masalan, psoriaz, ekzema kasalliklariga.
- Quyosh nurlari insonni qandli diabet va qon bosimining oshishi kasalliklaridan himoya qiladi.
- Tanadagi qon aylanish ishining yaxshilanishiga sabab bo‘ladi.
- Bo‘g‘imdagi og‘riqlarning pasayishiga yordam beradi.
- Sochga ham ko‘p foydasi bor. Soch to‘kilishining oldini oladi. Buning uchun har kuni Quyosh nurlari ostida o‘n daqiqa yurish kifoya.
- Alsgeymer kasalligining oldini oladi.
- Garvard universiteti mutaxassislarining so‘nggi izlanishlari Quyosh kam chiqadigan o‘lkalar aholisi orasida astma kasalligi ko‘proq uchrashi va u og‘ir kechishini ko‘rsatdi. Aslida Quyoshning astma kasalligini davolash xususiyati o‘tgan asrdayoq aniqlangan. O‘shanda shifokorlar astma bilan og‘rigan bemorlarga Quyoshli o‘lkalarga borishni tavsiya qilgan.
- Quyosh inson tanasida serotonin va endorfin moddalari ishlab chiqarilishini ta’minlaydi. Endorfinni xursandchilik gormoni, deyishadi. Olimlarning izlanishlari shuni ko‘rsatdiki, yer yuzining shimolida istiqomat qiladigan aholida depressiyaga tushish holati janubda yashovchilarga qaraganda ko‘proq kuzatilar ekan va bu Quyosh nuri yetishmasligi bilan bog‘liq.
- Inson atrofidagi hamma narsani ko‘rishi uchun yorug‘likka, nurga ehtiyoji bor. Agar Quyosh nuri bo‘lmasa, inson hech narsani ko‘ra olmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” (1-jild) / Toshkent “NAVRO‘Z” nashriyoti, 2017.392 bet.
2. Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport tarixi. O‘quv qo‘llanma Toshkent 1993-y.
3. Yarashev K.D. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish. O‘quv qo‘llanma Toshkent
4.Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS)
5.ISSN (online): 2181-2454 Volume 2 | Issue 11 |November, 2022 | SJIF: 5,965 | UIF: 7,6 | 6.ISRA: JIF 1.947 | Google Scholar |
7.www.carjis.org DOI: 10.24412/2181-2454-2022-11-433-439
8.Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2002 yil
9.https://aniq.uz/uz/yangiliklar/quyosh-nurlarining-foyda-va-zararlari

## STAGES OF FORMATION OF POLITICAL PARTIES IN UZBEKISTAN

**Akhadov Alisher,**
**Researcher Lecturer at the Department of "History"**
**Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan**

**Annotation.** The article highlights the history of the formation of political parties, their main goals and objectives aimed at social support of the population, strengthening the principles of social justice, human rights and freedoms in society, and the development of social and economic infrastructures.

**Key words**: multi-party system, electorate, Oliy Majlis, deputy, opposition, parliament, faction, political bloc.

## INTRODUCTION

One of the most important institutions of civil society are political parties. Political parties ensure the continuity of interaction between civil society and the political system; the dependence of state power on society and control over it by society is carried out in most cases through political parties [1. P.104]. In Uzbekistan, which set a course for the creation of a democratic state, already in 1991, with the adoption of independence, a course was adopted for the development of a multi-party system.

First President I. Karimov, defining the role of political parties in society, emphasized: "A party is a fight not for a position, but for a specific idea, for its priority in society and its implementation. If we understand the meaning of a party from this point of view, no matter how many parties there are, appropriate conditions will be created for their activities. But we don't need such parties if they promote ideas that divide society, pit people against each other and cause all sorts of instability." [2. P.351].

The current President of the Republic of Uzbekistan, Sh. Mirziyoyev, described the decision-making process of a political party: "Another important issue is a comprehensive study of the situation in the entire sphere and the development of effective measures to solve existing problems." It is necessary to increase the role of the Oliy Majlis and the political party. And in this process it is necessary to abandon the practice of chasing numbers. People will agree with you if you solve a few problems in practice rather than solving hundreds of problems for work [3. P.95].

## LITERATURE REVIEW

The Republic of Uzbekistan, like other countries, has followed a unique path of democratizing the country, creating a multi-party system in political life, creating its own history.

The first political party created in the independent Republic of Uzbekistan was the People's Democratic Party of Uzbekistan, which was founded on November 1, 1991. As of January 1, 2017, the PDP of Uzbekistan has 430,291 members. The party has a multinational composition and includes representatives of 47 nationalities and ethnic groups. The party includes 14 regional organizations - the Republic of Karakalpakstan, 12 regions and the city of Tashkent, 25 city and 168 district organizations, including 11 district organizations in the city of Tashkent, uniting party members at their place of work or residence. In March 2017, at the VII Plenum of the Central Council of the People's Democratic Party of Uzbekistan, with the adoption of the state program "Strategy of Action" in five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, the main tasks of the party were identified, providing for strengthening tasks in social support of the population, especially the working population age, not employed in the economy, in need of social support and experiencing difficulties finding employment.

## RESEARCH METHODOLOGY

Considering that the main electorate in the party's election campaigns are teachers, doctors, workers and specialists in other social spheres, low-income large families, pensioners and people with disabilities, the party pursues a targeted policy aimed at supporting the population, publishing pressing problems in the newspapers "Golos" Uzbekistan", raising problems in the Oliy Majlis[4. P.59].

The Social Democratic Party of Uzbekistan "Adolat" was founded on February 18, 1995. SDP "Adolat" had its own faction of 10 members in the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan (2005-2009), and following the results of the 2009 elections it has 19 seats in parliament and formed its own faction. According to the results of the December 2019 parliamentary elections, announced on January 6, 2020, the Oliy Majlis received 24 seats in the legislative chamber. The party faction actively participates in the Legislative Assembly and the

activities of committees, in the preparation of bills, their discussion and adoption. The main goals of the Social Democratic Party of Uzbekistan "Adolat" are: the creation of a strong social and legal state; creating a fair civil society; influence on the development of a socially oriented market economy; strengthening the principles of social justice, human rights and freedoms in society.

The socio-political newspaper "Adolat" is the printed publication of the party. The goals of the party are to strengthen the country's independence, accelerate economic and political reforms, form a fair, democratic, rule-of-law state and civil society, and make a worthy contribution to increasing the authority of Uzbekistan in the international arena. His ideology is social democracy. Currently, the number of party members exceeds 70 thousand.

The Democratic Party of Uzbekistan "National Revival" was founded on June 3, 1995. On June 20, 2008, the National Democratic Party of Uzbekistan "National Revival" and the National Democratic Party of Uzbekistan "Fidokorlar" held a merger meeting, on the basis of the two of which the new Democratic Party of Uzbekistan "National Revival" was formed. In the Legislative Chamber of the Oliy Majlis, the party faction consists of 29 members (2004), 31 members (2009), and now 36 members (2020). The central publication of the party is the newspaper Milliy Tiklanish. The goal of the party is to create favorable conditions for the growth of national self-awareness, the formation and strengthening of national pride, love and devotion to the country among citizens of the Republic of Uzbekistan, uniting patriots of the country in its ranks, mobilizing their intellectual and creative potential in the interests of Uzbekistan and in enhancing its international reputation [5. P.52-53].

The Movement of Entrepreneurs and Businessmen - the Liberal Democratic Party of Uzbekistan, was created in October 2003 by a group of initiators consisting of representatives of small businesses, entrepreneurs and farmers, layers of owners, and highly qualified industrial specialists. On December 19, 2003, she was registered with the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. In the elections to the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in 2004, 41 candidates were nominated by the party and were elected as deputies, and in the 2009 elections - 53 candidates. On February 2, 2010, in the Legislative Chamber of the Republic of Uzbekistan, on the initiative of the Liberal Democratic faction of Uzbekistan, an agreement was signed with the faction of the Social Democratic Party on joining the "Bloc of Democratic Forces". However, the fact that political parties are united into one democratic bloc does not limit their activities and work independently. Having successfully taken part in the elections held on December 21, 2014, the party received the maximum number of 52 seats in the lower house of parliament.

On February 3, 2018, the Liberal Democratic Party of Uzbekistan held a meeting with the Institute of Legislation and Parliamentary Research under the Oliy Majlis on strengthening social partnership relations and five priority areas for the development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021. This party is currently the largest faction in the parliament of our country. The party's publication is the newspaper "XXI Asr".The goal of the party was to create new opportunities for broader work by entrepreneurs and businessmen; increasing the international reputation of Uzbekistan; maintaining peace and tranquility in the country; active participation in the work to strengthen interethnic and intercivil harmony.

Among the parties operating in Uzbekistan, the youngest party is the Ecological Party of Uzbekistan. The creation of this party was a requirement of the time. In the era of globalization, when environmental problems concern the whole world, the Republic of Uzbekistan has not remained aloof. Environmental problems that have arisen in our country have prompted the need to find solutions and required the creation of a new political party.

As President Sh. Mirziyoyev noted in his address to the Oliy Majlis in December 2017, "...The environmental movement of Uzbekistan, created in 2008, has become a real political force over the past period. But we must admit that representatives of the movement get into the lower house of parliament according to a quota, which to a certain extent weakens its active and proactive work. I believe that the time has come to create equal conditions for all political forces and abandon special seats for representatives of the Environmental Movement in the lower house of parliament. This

change will enhance healthy competition in the political arena and serve to strengthen the Environmental Movement as a distinct political force[6. P.34].

On November 14, 2018, the Ecological Party of Uzbekistan was officially created and deregistered by the Ministry of Justice. Today the party has more than 240 thousand members. The main goals of the party were to ensure the implementation of state policy aimed at achieving sustainable development of the country, environmental safety, and creating a comfortable living environment for current and future generations.

The conservation of natural resources has become the duty of the state, society and every citizen of the country. The innovation of the Environmental Party of Uzbekistan is the “Green Uzbekistan - 2030” program, aimed at developing a “transition index to a green economy” for industries and regions, eliminating the use of pesticides, and introducing the “Green Visa” program.

**CONCLUSION**

To summarize the above, we can say that the foundations of a multi-party system have been formed in Uzbekistan, the legal, economic and social foundations have been created for the free functioning of political parties in the future. On the territory of the republic, all the necessary conditions have been created for the free activity of parties, the possibility of free participation in elections, which are considered very important in the struggle for power, and for conducting election campaigning within the framework of the law. At the moment, in order to work at the level of world standards, it is necessary to increase the political consciousness of personnel working in political parties, and through this create a political elite, ultimately it is necessary to achieve a sharp increase in the number of voters of political parties.

**REFERENCES:**


1. Kyrgyzboev M. People’s society: theory and foreign experience.-Tashkent: New generation, 2006.-T. 104.
2. Karimov I. A. Strong directions of the economic policy of Uzbekistan. T. 2.-p. 351.
3. Mirziyoyev.Sh. The approval of our people is the highest assessment given to our activities.-Tashkent: Uzbekistan, 2018. Volume 2. Page 95.
4. Normatov N. Mirzakulov M. Political parties in the process of modernization of the country. Gafur Ghulam 2009. P-59.
5. Normatov N. Mirzakulov M. Political parties in the process of modernization of the country. Gafur Ghulam 2009. P-52-53.
6. Sh. Mirziyoyev. From his speech at a joint meeting of the Oliy Majlis following the results of 2017. T. 2018. p. 34.
7. Aminova, A. M. (2022). The Lower Reaches Of Zarafshan Region: Socio-Ecological Problems And Ways Of Their Solution.*Journal of Positive School Psychology*6(7), 2772-2780.
8. Aminova, A. M. (2023). Features Of Reform And Development Of Agriculture In The Republic Of Uzbekistan (Using The Example Of The Bukhara Region).*BioGecko*,*12*(4), 510-515.
9. Аминова, А. М. (2019). Проблемы и особенности реформирования в сельском хозяйстве Узбекистана.*Academy*, (5 (44)), 32-33.
10. Аминова, А. М. (2017). Из истории формирования промышленного потенциала Навоийской области.*Молодой ученый*, (10), 340-342.
11. Аминова, А. М. (2018). Историографическое наследие горной промышленности Навоийского региона второй половины XX-начала XXI века.*Academy*, (5 (32)), 29-30.
12. Аминова, А. М. (2020). СОЗДАНИЕ ТЕХНОПАРКОВ В НАВОИ-НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РЕГИОНА.*Academy*, (12 (63)), 36-37.
13. Аминова, А. М. (2021). ЗАРАФШОН БЎЙИДА САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИДАН.*ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*,*4*(7).
14. Norqobilov, M. (2020). PHILOSOPHICAL AND LOGICAL ANALYSIS OF SOPHISTIC THINKING IN THE WORK “SHARH AL-AQEED ANNASAFI” BY THE GREAT THINKER SADEDDIN TAFTAZANI. *The Light of Islam*, *2020*(3), 133-140.

15. Norqobilov, M. X. (2020). Philosophical interpretation of socio-political issues in Sa'deddin Taftazani's "Sharh al-aqeed". *EPRA International journal of Research & Development (IJRD) Monthly Peer Reviewed Indexed International Online Journal ISII. F. Value*, *1*, 176-179.
16. Norqobilov, M. X. (2022). SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "SHARH AL-AQOID" ASARIDA "ISHBOSHILARGA ITOAT" MASALASI JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(1), 865-873.
17. Norqobilov, M. (2021). THE NOTIONS OF FREEDOM OF THE WILL AND ETHICAL (MORAL) CHOICE IN THE WORK "SHARH AL-AQEED" OF SADEDDIN TAFTAZANI. *The Light of Islam*, *2021*(1), 71-81.
18. Norqobilov, M. X. (2022). SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "SHARH AL-AQOID" ASARIDA "ISHBOSHILARGA ITOAT" MASALASI JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(1), 865-873.
19. Norqobilov, M. K. (2022). Freedom of Will and Moral Issues in the Views of Sa'uddin Taftazani in a Historical Context. *International Journal of Early Childhood Special Education*, *14*(6).
20. Norqobilov, M. X. (2020). THE IMPORTANCE OF SOCIAL ENVIRONMENT OF TEMUR AND THE TEMURIANS PERIOD AND THE PERIOD HE LIVED IN THE SCIENTIFIC WORK OF SA'DUDDIN TAFTAZANI. *Theoretical Applied Science*, (3), 319-322

## AMALIY SAN'ATDA USTOZ – SHOGIRD AN'ANALARI.

**Ahmedova Mashhura Haydar qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**"Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"**
**ta'lim yo'nalishi 1 "E" guruh talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada amaliy san'at hunarlarini yoshlarimizga o'rgatishda ustoz-shogird ananalarini tarixiy taraqqiyoti, uning hozirgi kunimizdagi ahvoli, tutgan o'rni haqida muhokama qilingan. Shuningdek, sohaga oid tavsiyalar ham berilgan.

**Kalit so'zlar:** spiralsimon, parallel va to'lqinsimon chiziqlar, dekorativ-amaliy san'at, girih, misgarlik, pichoqchilik zargarlik mahallasi, bo'yrachilar mahallasi, sandiqchilik, aravasozlik, kulolchilik.

*Hunarni asrabon netgumdir oxup,*
*Olib tufroqqamu ketgumdir oxir. Alisher Navoiy*

Odamlarning bir erda muqim o'troq holga yashashga o'tishlari, tabiat qonun qoidalarini kuzatish, simmetriya, ritm, shakl tuyg'ularini yanada rivojlanishiga asos bo'ldi. Bir xil elementlarning bir tekis takrorlanishi natijasida o'ziga xos naqqoshlik san'atini paydo bolishiga sababchi bo'ldi. Naqqoshlik yangi tosh (neolit) asrida keng tarqaldi, dekorativ-amaliy san'atning taraqqiy etishga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Kulolchilik, uy anjomlarini va boshqa buyumlarni naqshlar bilan bezash keng ommalashdi. Spiralsimon, parallel va to'lqinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko'pgina naqshlarning asosini tashkil etadi. Geometrik naqshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o'simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengaytrib borildi. Koinot kuchlarining ramziy belgilari ham uning elementlarida o'z aksini topa boshladi. Masalan, rozetkada quyosh ramzi, to'lqinsimon chiziqlar, suv ramzi va hokazolar. Bugungi kunga kelib naqqoshlik san'ati nafaqat bezak vazifasini balki, shu bilan birga, naqqaosh ustalarning g'oyaviy va falsafiy dunyoqarashlarini ham ifodalay boshladi.

Temuriylar davri (XIV-XV asrlar)da amaliy bezak san'atining yuksak taraqqiyoti mahalliy an'analar bilan hamohang holda O'rta Sharq badiiy yutuqlariga ham asoslandi. Ustalar o'rtasidagi izlanishlar asosan bezakli naqshlar sohasida olib borildi. Ishlangan bezaklarda asosan o'simlik va gul mavzulari, "girih" handasaviy naqshlari, yozuvli namoyonlar yetakchilik qildi.

Yog‘och ustunlar va eshiklar o‘yma gullar – egiluvchi novdalar va gulli butalar shakli bilan bezatildi. “Girih” ko‘rinishidagi handasaviy naqshlar yog‘ochlardan yig‘ilgan sag‘analar, yog‘och va marmar panjaralarda o‘z aksini topdi.
Kulolchilikda rangli va bir rangda ishlangan bo‘yama naqshlar saqlanib qolgan, moviy zaminga qora naqsh, oq zaminga ko‘k naqshlar ishlangan Naqshlarda o‘simlik, hayvon va osmon jismlari mavzusi uyg‘unlashgan. Koshindan yasalgan idishlarga moviy bo‘yama naqshlar ranglarning ifodali o‘yinini hosil qiluvchi yorqin va nafis dog‘lar bilan ishlangan: qushlar qo‘ngan shox va butoqlar, gul va mevalar tasvirlari lagan va kosalarning oq zaminida erkin joylashtirilgan, bo‘yama naqshlar tabiatning lirik obrazini ifodalagan.
O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati umrboqiyligi bilan, madaniyatining boy hamda serqirraligi bilan butun dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqda. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa ko‘plab shaharlardagi har bir tarixiy obida, amaliy bezak san’ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, bebaho san’at durdonalari bo‘lib, jahon madaniyatining nufuzli o‘rinlarni egallab turibdi. Necha asrlar osha orttirilgan madaniy va ma’naviy boyligimiz, o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining eng ko‘p rivojlangan turlari: naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, pichokchilik, zargarlik, kashtachilik, va boshqalar shular jumlasidandir.
Respublikamizda asrlar bo‘yi yaratgan ijodiy mehnati natijasida xalqimizning yaratgan amaliy bezak san’atini ko‘z qorachig’iday asrash, ularni qadrlash, yoshlarni estetik didini o‘stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalashga keng imkoniyatlar yaratildi. Al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy; Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod. Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar insonlarni go‘zallikka intilishga chaqirganlar.
IX-X asrlarda Turonda naqqoshlikka bo‘lgan qiziqish ortishi natijasida bu san’at jadal rivojlandi. Barpo etilgan binolarning ichki tomonlariga ganch, yog‘och o‘ymakorligini qo‘llash orqali bezak berish yaxshi rivoj topdi.
Qadimdan hunar o‘rganish muqaddas hisoblanib kelingan har bir xalk kelajak avlodlariga o‘zidan koldirgan takrorlanmas xunarlari bilan kadrlangan, jumladan hech ikkilanmay O‘zbekiston ham qadimda hunarmandlar markazi bo‘lgan desak xato qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Namangan viloyatida Chust, Samarqand viloyatida, Urgut, Farg’ona viloyat Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlari, hunarmandchilik markaziga aylangan va bugungi kunda ham olamga mashhurdir.
Hunarmandchilik avloddan avlodga o‘tib butun boshli hunarmandlar mahallalarini tashkil qilgan, chunonchi misgarlik, pichoqchilik zargarlik mahallasi, bo‘yrachilar mahallasi, sandiqchilik, aravasozlik, kulolchilik mahallalari (va hokoza) mavjud bo‘lgan.
O‘tmishda Naqqoshlar xalq ustalarining orasida hurmatga sazovor bo‘lganlar, sababi, ular madrasada tahsil olib, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi o‘zlashtirganlar. naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, shogirdlargina ustozlarining bilim-malakalarni o‘zlashtirib olib qolganlar.
Shular qatorida Naqqoshlik san’ati ham avloddan avlodga o‘tib kelgan san’at turi hisoblanadi. Qadimdan naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini yozib qoldirmaganlar, faqat shogirdlariga o‘rgatib ketganlar. Shogirdlari usta bo‘lganlaridan so‘ng ular ham o‘z shogirdlariga o‘rgatgan. Shu asnoda naqqoshlik kasbini an’ana tariqasida rivojlantirib kelgan.
Ko‘p hollarda usta o‘ziga o‘z bolasini yoki qarindoshlaridan shogirdlikka olganlar. Shogirdlikka olingan bolalar 8-9 yoshda bo‘lib, ular 7-12 yil (shogirdning zehniga qarab )ustozidan bilim va hunar o‘rganganlar. Shogirdlari kunduzi hunar o‘rganganlar, kechki paytda esa ustoz rahbarligida xat-savod chiqarilgan. Yillar o‘tib shogirdning qo‘lidan mustaqil ish kelgandan keyin shogird, ishlari muhokama qilishib, ustozidan oq fotiha olgan, so‘ngra “usta” maqomini berishgan.
Bunday marosimda shogird ustoziga bosh-oyoq sarpo, tugun in’om etgan, ustoz ham o‘z ornida shu kasbda ishlatiladigan asbob anjomlaridan birini shogirdiga bergan. Ayrim hollarda, oq fotixa olgan ba’zi bir shogird o‘z xoxishi bilan, ustozining roziligini olib shu erning o‘zida qolib ishlayverishi ham mumkin bo‘lgan. Bunday xolda shogird va ustozi o‘rtasida tuzilgan kelishuvga binoan haq olgan .

Ustaning o‘g‘llari ota kasbini yoshlikdan o‘rganib borgan. (Agar ayol kishi biror hunar egasi bo‘lsa qizlariga o‘rgatgan). Bu esa kelajakda yaxshi hunarmand bo‘lishiga zamin yaratgan, shu tariqa kasb avlodga meros qolish an’ana holda davom etib, rivojlanib kelgan. Shu tariqa, naqqoshlik kasbi an’ana tarikasida rivojlanib kelmoqda. Hunarmandlar ko‘p hollarda shogirdlikka o‘z farzandini yoki karindosh-urug‘larining bolalaridan olganlar. San’at sirlarini puxta egallagan, Mustaqil ish bajarishni eplay oladigan bo‘lgan

Ustoz shogirdga nisbatan qattiqqo‘l va talabchan bo‘lgan. Ustalar shogirdlar uchun maxsus odob-axloq talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan halollikni, kattalarga hurmatni, pokizalikni, ish vaqtida chalg‘imaslikni o‘rgatganlar.

O‘zbekistonda naqqoshlk san’atining gullab-yashnashiga o‘zlarining ulkan hissalarini qo’shgan naqqosh ustalardan Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Jalil Xakimov, Toir To‘xtaxo‘jayev, Zokir Bositxonov, Maxmud To‘rayev, Anvar Ilhomov, Komil Karimovlarning nomlarini hurmat bilan yodga olamiz.

Xulosa, kasbning avloddan avlodga meros qolishi an’ana tarzda bugungi kungacha rivojlanib ravnaq topib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.S. Bulatov,P.P.Shabaratov, M.A.Rasulov Naqqoshlik o‘quv qo‘llanma Toshkentn “iqtisod-moliya” 2010

2. I.U. Izbasarov Naqqoshlik o‘quv qo‘llanma Samarqand-2021

3. SHavdirov, S.A.(2017). Podgotovka budushix uchiteley k issledovatelskoy deyatelnosti. Pedagogicheskoye obrazovaniye i nauka, (2), 109-110.

4. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.

5. Bobonazarov, S. U., & Jalolov, S. C. Etnomadiy Fenomenon Sifatida Nuza San'atlari. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) https://www. tarj. in*.

6. Bobonazarov, S. U. M. (2022). Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o ‘ziga xosligi.*Innovative Development in Educational Activities*,*1*(6), 114-118.

7. Bobonazarov,S. (2022).KOMPOZITSIYA MASHG‘ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH-NING MUHIM EKANLIGI. *Science and innovation*,*1*(B6), 11-14.

8. Sa’diyev S. T., Ochilov Z. S. FAKTORЫ, VLIYAYUSHIYE NA KACHESTVO MUZЫKALNOGO OBRAZOVANIYA XLIII INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION”.-2018.-S. 110-111.

9. Soli Tolibovich Sadiyev O‘RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI SAI. 2022. №C2. URL: https:cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (data obrasheniya: 26.10.2023).

10. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS’ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES Science and innovation.–2023.–T. 2.–№. B9.–S. 106-108.

11. Choriyevich J. S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN.–2021. – T. 2. – №. 11. – S. 15-

## “EKOLOGIK OMILLAR HAQIDA TUSHUNCHA” MAVZUSINI DIDAKTIK O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O‘QITISHNI AHAMIYATI

**Meliqulova Guldasta Sobirjon qizi.**
**Jizzax politexnika instituti talabasi, Jizzax.**
**Aliyeva Shalola To‘ychi qizi.**
**Jizzax politexnika instituti talabasi. Jizzax.**
**Xalquziyeva Moxira Asatullayevna. b.f.f.d.(PhD),**
**Jizzax politexnika instituti talabasi dotsenti. Jizzax.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Yosh biologlar” to‘garak mashg‘ulotida “Ekologik omillar haqida tushuncha” mavzusida didaktik o‘yinli texnalogiyalardan foydalanib o‘qitishni samaradorligi haqida ma’lumot berilgan.
**Kalit so‘zlar:**bo‘yoqbop, sifat, metod, malaka, interfaol, o‘simlik, ta’lim, tabiatshunos.
**Аннотация:** В данной статье представлена информация об эффективности обучения с использованием дидактических игровых технологий по теме “Понимание экологических факторов” в клубе “Юные биологи”.
**Ключевые слова:**художник, качество, метод, мастерство, интерактив, растение, образование, натуралист.
**Annotation.** This article provides information on the effectiveness of teaching using didactic game technologies on the topic “Understanding of ecological factors” in the “Young biologists” club.
**Key words:** Painter, quality, method, skill, interactive, plant, education, naturalist.
Maktablarda o‘quvchilarningning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birgalikda, ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo‘llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantiriradi.

Biologiyani o‘qitishda, boshqa didaktik o‘yinlar bilan bir qatorda o‘yin mashqlardan o‘z o‘rinda va samarali foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi.

“Yosh biologlar” to‘garak mashg‘ulotida “Ekologik omillar haqida tushuncha” mavzusini didaktik o‘yinli texnalogiyadan foydalanib o‘qitishni ahamiyati” mavzusini didaktik o‘yin texnalogiyasidan foydalanildi. Ularga “qulf-kalit” didaktik o‘yini, o‘rgimchak to‘ri metodi, Mosini top metodi, “Marra” metodlaridan foydalanildi. 11-A sinf o‘quvchilarda “Ekologik omillar haqida tushuncha” mavzusini “qulf–kalit” didaktik o‘yini, o‘rgimchak to‘ri, mosini top metodi, “Marra” metodilaridan foydalanib dars o‘tildi.

“Qulf-kalit” didaktik o‘yini. “Ekologik omillar haqida tushuncha”mavzusi bo‘yicha qulflardagi savollarga tezkorlik bilan javob topadi va topganlarga kalitlar topshirildi.

O‘rgimchak to‘ri metodi. Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, bunda o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan kalava asosiy manba hisoblanadi. Dastlab o‘qituvchi savol aytib bir o‘quvchiga otadi, o‘quvchi savolga javob bersa ipni qo‘liga o‘rab o‘zi hohlagan do‘stiga otadi. Savolga javob berolmagan o‘quvchi ipni qo‘liga o‘ramaydi. Shu tariqa sinfda barcha o‘quvchilar ishtirok etguncha metod davom etadi. Metod so‘ngida savolga javob berolmagan o‘quvchilar “o‘rgimchakka yem” bo‘ladi.

Ushbu metodning ahamiyati shundan iboratki, birinchidan o‘quvchilarning barchasi darsda qatnashadi, o‘quvchilar o‘rtasida bir biriga bo‘lgan munosabatida ham ijobiy o‘zgarishlar bo‘ladi va eng asosiysi mavzuni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga imkon beradi. O‘quvchilar savollar takrorlanmasligi uchun diqqat bilan bir birini eshitadi va mavzuni yanayam chuqurroq o‘zashtiradi.

11-B sinf o‘quvchilarda “Ekologik omillar haqida tushuncha” mavzusini an’anaviy dars dars o‘tildi.

2- diagramma. 11- A sinfida olib borilgan noan’anaviy dars davomida baholangan va baholanmagan o‘quvchilarning foiz ko‘rsatkichi

2- diagramma. 11- B sinfida olib borilgan an’anaviy dars davomida baholangan va baholanmagan o‘quvchilarning foiz ko‘rsatkichi

Xulosa qilib aytganda, ,,Yosh biologlar” to‘garak mashg‘ulotining “Bo‘yoqbop o‘simliklarning biologiyasi” mavzusini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar batafsil yoritib o‘tilgan. Shuningdek, ularning samaradorligi va ularni qo‘llash jarayonida olingan sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Berdiyeva O. Ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar. “Xalq ta’limi” jurnali, 2003, 1-son. –16-b.
2. Khalkuzieva M A, Rahmonqulov U. Protection of plants for years in the plantations of Ferula tadshikorumPimenov Bulletin of Gulistan State University. 2020;4:19-25. https://uzjournals.edu.uz/gulduvestnik/vol2020/iss4/21

3. Halkuzieva M. The role of agrotechnological measures during the early development of Ferula tadshikorum Pimenov and Ferula foetida (Bunge) Regel. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 2021; 3191- 98. https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume02Issue07-05.
4. Halkuzieva M. Ferula tadshikorum Pimenov growth and development in different soils. Eurasian Scientific Herald. 2022; 4:29- 34.https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/418
5. Halkuzieva MA, Khamraeva DT, Bussmann RW. Bio-morphological properties of Ferula tadshikorum Pimenov and Ferula foetida (Bunge) Regel under plantation conditions. Plant Sci. Today. 2023 Apr. 9 [cited 2023 May 2];9(sp3):79-84. Available from: https://horizonepublishing.com/journals/index.php/PST/article/view/1863
6. Halkuzieva M A, & Rahmonkulov U. (2020). Smola Storage Ferula Tadshikorum M. Pimen Plantations Storage For Years. The American Journal of Agriculture and 7 E3S Web of Conferences 421, 04006 (2023) SERBEMA-2023 https:doi.org/10.1051/e3sconf/202342104006 Biomedical Engineering, 2(07), 30–34. https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume02Issue07-05
7. Safarova R, Shermatov L. Pedagogikaning taraqqiyot yo‘li. “Xalq ta’limi” jurnali,2002, 2-son. – 14-b.
8. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o‘yinlarning ahamiyati. “Ma’rifat”, 2002, 6-son. –16-b.
9. Yusupova A, Qurbonniyozov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muammolari.
10. “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2000, 3-son.–18-b.

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TABIATDAGI RANGLAR JILOSINI RANG TASVIRDA O‘RGATISH.

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Dastgohli rangtasvir ta’lim yo‘nalishi**
**3-kurs talabasi**
**Asadova Sadoqat Abdug‘ani qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Tasviriy san'at darslarida tabiat va rangtasvirdagi ranglarni o‘rgatish “Rangtasvir-tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo‘laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug‘lik kuchini va har bir bo‘laklarni o‘zaro taqqoslash natijasida, bo‘yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to‘laqonli ifodalash mumkin” – deb aytgan edi K.F.Yuon. Manzara etyudlarida, masalan, osmon va suvni tasvirlashda asosan ranglarning och to‘qligi va to‘yinganligi orqali munosabatlarni ko‘rsatishga erishiladi.
**Kalit so‘zlar:** rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko‘k, binafsha ranglar joylashadi. Turli tuman boshqa faoliyatlarda (portret, natyurmortda) tus va ranglar kuchining aniq munosabati haqqoniy tus munosabatlar qurilishini aniqlaydi. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo‘lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan.

### Kirish

Mashhur olimlar I.Nyuton, M.Lomonosov, Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M.V.omonosov fanda birinchi bo‘lib asosiy ranglarni kashf etgan. Isaak Nyuton qator tajribalar o‘tkazib, oq yorug‘likni ko‘p rangli ekanligini isbotlagan. Ekranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton Quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o‘tkazib uning yo‘liga uch qirrali prizma qo‘ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug‘lik yig‘indisi hosil bo‘lgan. Ekranda spektr ranglari paydo bo‘lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg‘aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.
Nyuton ranglarni fizika fani nuqtai nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, nemis shoiri va san’atshunosi I.V.Gyoteni ranglarning kishi organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri ko‘proq qiziqtirgan. U “Ranglar haqidagi ta’limot” nomli asarida ranglarni iliq va sovuq tuslarga ajratgan. Iliq (sarg‘ish, qizil) ranglar kishida kayfichog‘lik tuyg‘usini, sovuq (havorang, yashil) ranglar esa ma’yuslik tuyg‘usini uyg‘otishi haqida yozgan. XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgolts rangshunoslik nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko‘p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati,rang-tusi, rangning och to‘qligi va to‘yinganligi asosida turkumlash zarurligini

ko‘rsatdi. Ilmiy izlanishlar va amaliyot jarayonida qator qonun qoida ishlab chiqilgan bo‘lib, talaba o‘zining o‘quv jarayonida va ijodiy ishida ularga amal qilishi shart. Tabiatdagi ranglar o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki turga: axromatik (rangsiz) va xromatik (rangli) xillarga bo‘linadi. Axromatik ranglarga oq, kulrang va qora ranglar kiradi. Boshqa ranglar esa xromatik ranglarni tashkil qiladi. Ular o‘zaro aralashtiril-ganda esa yana bir qancha tusdagi ranglarni hosil qiladi. Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo‘shsak uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to‘yinganligidan, ya’ni uning tarkibida bo‘yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to‘yinganligi yoki to‘yinmaganligi deganda kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushunish kerak.

Rang doirasi ikki teng bo‘lakka bo‘linsa, birinchi yarmida qizil, zarg‘aldoq, sarg‘ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havo rang, zangori, ko‘k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagi esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishga sabab qizil, sariq, zarg‘aldoq ranglar olovni, qizigan temirni, cho‘g‘ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi. Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo‘shilib murakkab rang hosil bo‘ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo‘shilganda chiroyli tusdagi pushti, to‘q qizil, sapsar ranglarni hosil qiladi. Qo‘shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo‘shimcha yoki to‘ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki, ular oq rang hosil bo‘lgunga qadar bir-birini to‘ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi.

Bo‘yoqlarning qo‘shilishi bilan spektraviy ranglarning qo‘shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo‘shilganda oq rang hosil bo‘ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo‘yoqlari qo‘shilishidan esa qora rang hosil bo‘ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo‘shilishi natijasida oq rang hosil bo‘ladi. Biroq sariq va havo rang bo‘yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo‘ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o‘zaro to‘ldiruvchi (qo‘shimcha) hisoblanadi. Masalan, to‘q qizil va yashil, zangori va zarg‘aldoq, qizil, sariq, havo rang, sarg‘ish yashil va binafsha ranglar o‘zaro to‘ldiruvchidir. Kundalik turmushimizda, hayotiy tajriba asosida ma’lum buyum va narsalarning o‘ziga xos ranglari ongimizda singib boradi (paxta-oq, o‘tlar – yashil, osmon – havorang, dengiz – o‘k va boshqalar). Bu ranglar buyum va narsalarning shaxsiy rangi hisoblanadi. Ammo, buyum va narsalardagi shaxsiy rang turli yorug‘lik ta’sirida o‘zaro o‘zgaruvchan bo‘ladi. Qarama-qarshi ranglarning ta’sirida buyumning rangi turlicha ko‘rinadi. Qizil muhitdagi kulrang buyum ko‘kimtir-yashil tusga kiradi, yashil muhitda – pushtisimon, sariqda esa ko‘kimtir bo‘ladi. Qizil qog‘ozdan doira shaklini qirqib olib, kulrang qog‘oz ustiga qo‘yilsa kulrang qog‘oz yengil yashilsimon rangda bo‘lib ko‘rinadi. Agar qizil doiraning o‘rniga yashilni qo‘ysa, kulrang qog‘ozda qizg‘ish tus hosil bo‘ladi. Har bir holatda ham qarama-qarshi ranglarning tuslari (qo‘shimcha) hosil bo‘ladi.

Shu sababli ham tabiatda “xira” neytral ranglar mavjud emas. Hatto, buyumdagi soyalar ham nozik yengil ranglar bilan to‘yingan. Yonma-yon bo‘lgan qo‘shimcha ranglar o‘zining yorqinligini kuchaytiradi (qo‘shimcha va qarama-qarshi ranglar – bu qizil va yashilsimon – havorang, zarg‘aldoq va havorang, sariq va ko‘k, sarg‘ish-yashil va binafsha rang, yashil va qirmizi). Buyumlar rangi kuzatuvchidan uzoqlashgan sari ham o‘zgaradi (havo perspektivasi). Yuqorida sanab o‘tilgan ta’sirlar natijasida buyumning rangi, rangning tusi bo‘yicha ham, yorug‘ligi va to‘yinganligi bo‘yicha, yoki uchala xususiyatlar bo‘yicha bir vaqtda o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘zgargan rang endi buyumning shaxsiy rangi emas, balki u shartlidir.

Manzarani tasvirlash qonuniyatlari to‘g‘risida Florentsiyalik buyuk rassom Leonardo da Vinchi o‘z risolalarida ko‘z oldida turgan manzarani to‘g‘ri tasvirlash mahorati qonuniyatlarini bayon qiladi, shuningdek, tasvirda yorug‘lik va soya mutanosibligi qoidalarini batafsil tushuntirib beradi. Tabiatning shunday bir ajoyib qonuniyatiga e'tibor qiladi: olis masofadagi narsa nafaqat kichrayib, balki rangi ham birmuncha xiralashgan tarzda ko‘rinadi. Shunga asosan, ulug‘ rassomning nazariyasiga ko‘ra, manzarani tasvirlashda uzoqroqdagi narsalarning shaklini kichraytirib chizish bilangina kifoyatlanmaslik kerak. Oldinda, birinchi ko‘rinishda turgan narsalarni o‘ziga mansub tabiiy bo‘yoqda tasvirlash, orqaroqdagi manzarani esa yengilgina xira ko‘rinishda, nim havorang

bo‘yoq bilan tasvirlash zarur. Leonardo da Vinchi mo‘yqalamiga mansub sehrli manzaralarda ana shu qonuniyat yaqqol aks etadi.
Buyumlarning shakl va ranglarini haqiqiy va tabiiy holatda ko‘rish va qabul qilish odatini ruhshunoslar odatiy ko‘rish deb atashgan. Insonlar buyumlarni ko‘rishda va qabul qilishda nafaqat turli kattalik va rang dog‘larini ko‘rishadi, balki narsalarni haqiqiy konstruktiv tuzilishi va rangini ham shu qatorda qabul qiladi. Malakali rangtasvirchi har qanday buyum va narsaning shartli rangini ko‘ra bilishi va mohirona tasvirlay olishi zarur. Shundagina tomoshabin asarning haqiqiy borliqdagi ko‘rinishini tomosha qilishga muyassar bo‘ladi. Aynan shartli rang haqqoniy rangtasvirning asosiy tasvir usuli bo‘lib hisoblanadi. Tajribali rassomlar yorug‘lik ranglari ta’siridagi tabiatda sodir bo‘layotgan nozik o‘zgarishlarni ham bo‘yoqlar vositasida mohirona tasvirlaydilar.
**Xulosa va takliflar:**
Agar biz tungi oy nurida tasvirlangan bir qator asarlarni ko‘zdan kechirsak, hammasida ko‘kimtir-yashil tuslar yig‘indisini ko‘ramiz; quyosh botishi yoki oqshom vaqtida, sun’iy elektrda yoritilgan asarlarda sarg‘ish-olovrang yoki qizg‘ish koloritni ko‘rish mumkin. V.Serov, I.Repin, M. Nabiev, O‘.Tansiqboev, R. Ahmedov, A. Mo‘mi-nov, I. Haydarov, P. Ben’kovlarning ko‘plab asarlarida sun'iy elektr yorug‘ligi, quyosh botishi, oydin kecha yoki bulutli havoda buyum va narsalardagi shartli ranglarni yuqori malakada tasvirlanganligini guvohi bo‘lamiz. Naturadan tasvirlanayotgan ranglavxa koloriti kunning qaysi vaqtida, qanday yorug‘lik manbai bilan yoritilganligiga bog‘liq. Ajoyib rus rassom-pedagogi P.P.Chistyakov bu borada: “Ranglarni aniq ko‘rish uchun, tabiat qonuniyatlarini bilish kerak. Bu bilim esa ko‘rishga yordam beradi”-deya qat'iy maslahat bergan.
Xulosa qilib aytganda, shu yerda ranglar orqali insonning xarakterini tasvirlash xususiyatlari haqida maslahatlar keltiramiz. SH. Dunasariy o‘z risolasida inson qiyofasiga berilgan ranglar orqali uning xarakterini bilish yuzasida fikrlar keltiradi. Agarda yuzi qoramagiz rangida bo‘lsa, ko‘rqoq va g’am-anduhga botgan bo‘ladi. Yuzi qizil rangida bo‘lsa, mard va bisyor g’azabnok bo‘ladi. Yuzlari oqish rangida bo‘lsa, ojiz va kamkuvvat bo‘lishi mumkin. Olovday qip-qizil rangida bo‘lsa, u jinni sifat bo‘ladi. Agarda yuzi qorayishga moyil sariq rangida bo‘lsa, bemor va behal ranjga botgan bo‘ladi va biroz qizaruvchan rangida bo‘lsa, sharm-xayoli bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Б.Бойметов “ҚАЛАМТАСВИР” Тошкент 2006
2. S.T.Sa’diyev. O‘quv qo‘llanma “Qalam tasvir” “Aziz kitobxon” nashriyoti. Navoiy 2022 y
3. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi Innovative Development in Educational Activities.–2022.–Т. 1 –№. 6.–С. 114-118.
4. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS Science and Innovation.–2023–Т. 2.–№. С. 192-198.
5. Soli Tolibovich Sadiyev O‘RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTAB-LARINING METODLARI SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).
6. Sadiev, S. (2023). DEVELOPING STUDENTS’ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES. *Science and innovation*, *2* (B9), 106-108.

## ELEKTROMAGNETIZM BO‘LIMINI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

**Navoiy davlat pedagogika instituti fizika-texnologiya fakulteti**
**3-bosqich talabasi:Abdiyeva Gunoza Asatulla qizi**
**Ilmiy rahbar: N.B.Azzamova**

**Annotatsiya.**Ushbu maqola fizika fani o‘qituvchilariga fanni o‘qitishda turli yangi zamonaviy texnologiya va ilg‘or pedagogik metodlardan foydalangan holda o‘quvchilarga fanning sir-asrorlarini ochib berish, mavzuni tushunarli tarzda yetkazib bera olish, o‘quvchilarning fanga nisbatan qiziqishini yanada oshirishda va fizika faniga qiziquvchi o‘quvchilarni fanni chuqurroq o‘zlashtirishlarida ko‘makdosh bo‘ladi.

**Kalit so'zlar:** maktab, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik faoliyat, fanlararo integratsiya, zamonaviy texnologiyalar, shaxsni rivojlantirish, elektromagnetizm.

**ANNOTATION**

This article teaches physics teachers to reveal the secrets of science to students by using various new modern technologies and advanced pedagogical methods in teaching science, to be able to deliver the topic in an understandable way, to further increase students' interest in science, and will help students who are interested in physics to master the science in depth.

**Key words:** school, teacher, student, pedagogical activity, interdisciplinary integration, modern technologies, personality development, electromagnetism.

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья учит учителей физики раскрывать перед учащимися тайны науки, используя различные новые современные технологии и передовые педагогические методы в преподавании естественных наук, уметь донести тему в понятной форме, еще больше повысить интерес учащихся к науке, а также повысит интерес учащихся к науке. помочь студентам, интересующимся физикой, углубленно освоить эту науку.

**Ключевые слова:** школа, учитель, ученик, педагогическая деятельность, межпредметная интеграция, современные технологии, развитие личности, электромагнетизм.

Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizikani o'qitish mazmunida amaliy ahamiyatidan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan fizika fanini har tomonlama mukammal o'qitishda, o'quvchi bilimini chuqurlashtirishda, ularning ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda xizmat qilish, fizika o'qitish mazmunini yangilanishi ta'limda pedagogik texnologik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga erishish dolzarb vazifadir. Fizika o'quv predmetlarini o'qitishda o'quvchilar tabiat hodisalarini va asosiy fizik jarayonlarni anglash bilan birga texnika va texnologiyalarning rivojlantirishda fizika va astronomiya qonunlarini qo'llashni o'rganadilar. Fanni o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanishi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish barobarida olamning yagona manzarasiga oid tafakkurlarini rivojlantirish hamda egallagan bilimlarini kundalik hayotlarida foydalanish ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutiladi.

Elektromagnitizm bo'limini o'rganish natijasida maktab o'quvchilari materiyani kengroq hamda chuqurroq mohiyatiga kirib boradilar ular shu paytgacha materiyaning faqat modda ko'rinishini bilgan va u bilan tanishgan bo'lsalar bu bo'lim davomida materiyaning maydon ko'rinishi bilan ham tanishib o'tadilar.

Elektromagnetizm bo'limi murakkab bo'lsada uni o'quvchilarning yosh xususiyati va psixologiyasiga mos holda amaliy jihatdan o'qitish politexnik ta'limni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki elektromagnetizm fizika fanining bir bo'limi bo'lib u elektrotexnika, radioelektronika, telemexanika, avtomatika kabi sohalar bilan uzviy bog'liqdir.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi ilmiy axborotlar ko'lamining ko'payishiga olib kelmoqda bu esa o'z navbatida ilmiy bilimlar asosida shakllantirilgan o'quv fanlarining mazmuni yildan yilga yangi bilim va tushunchalar bilan boyib borilishi tufayli fan asoslaridagi o'quv materiyaning hajmi ortishiga sabab bo'lmoqda, amaldagi o'quv mashg'ulotlari uchun ajratilgan vaqt me'yorlari esa katta hajmdagi o'quv materialining o'quvchilar tomonidan to'laqonli o'zlashtirilishiga imkon bermaydi. Demak mavjud vaqt me'yorlariga amal qilgan holda o'quv materialning mazmunini o'quvchilarga yetkazib berish uchun ta'limda yangicha yondashuv talab etiladi. Bunday yondashuv zamonaviy ta'limda fanlararo bog'lanish tarzida amalga oshirilib kelinmoqda.

Integratsiya – ta'lim-tarbiya ishini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilish maqsadida ko'pchilik ilmlarning yutuqlarini birlashtirish, bunda pedagogika bilan an'anaviy bog'langan psixologiya, sotsiologiya, fiziologiyalargina emas, balki informatika, statistika, iqtisodiyot, boshqaruv nazariyasi va boshqa fanlarning asosidan foydalanish. "Integratsiya" so'zi inglizcha "integration" so'zidan olingan bo'lib birlashish, uyg'unlashish degan ma'nolarni anglatadi. Bu usuldan foydalanib tashkil

etilgan darsdan ko‘zlangan maqsadga erishish samaradorligi yuqori bo‘ladi.




Elektromagnetizm bo‘limini fanlararo bog‘lanish asosida o‘qitish orqali bu bo‘lim texnika va ishlab chiqarishni asosi ekanligini hisobga shu orqali o‘quvchilarning ijodiy qobilyatlarini rivojlantiradi va ularda fanga oid kompitensiyalarni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.–T, 2006.
2.Maxamatrasul Djo‘rayev Fizika o‘qitish metodikasi ( umumiy masalalar) T., 2015
3.Uzoqova G.S, Tursunov. Q. Sh, Qurbonov M. Fizika o‘qitishning nazariy asoslari.–T O‘zbekiston, 2008.
4.Yusupov A, Saidov T. Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.–T, 2006

## ELEKTROLIZNI SANOATDA QO‘LLANILISHI

**Navoiy davlat pedagogika instituti fizika-texnologiya fakulteti**
**3-bosqich talabasi:Tursunova Asolat Olim qizi**
**Ilmiy rahbar: N.B.Azzamova**

Biz elektrolizni sanoatda qo‘llanishini bilishdan oldin elektroliz nima ekanligini bilish kerak. Elektroliz bu – elektroliddan toki o‘tganda elektrodlarda modda ajralib chiqish hodisadir.Elektroliz (elektro – elektr va lizis – eritaman) – qizdirib suyuqlantirilgan elektrolit yoki uning suvdagi eritmasi orqali o‘zgarmas elektr toki o‘tganida elektrodlarda sodir bo‘ladigan oksidlanish qaytarilish jarayonlari.Elektr toki berilganda ionlarning elektron qabul qilish yoki elektron berish hodisasi birlamchi jarayonni tashkil qiladi. Bu jarayon natijasida ko‘pincha elektrolizning dastlabki mahsulotlari hosil bo‘ladi. Elektroliz mahsulotlari sof holda ajralib chiqishi yoki erituvchi bilan o‘zaro kimyoviy reaksiyaga kirishishi mumkin. Ikkinchi holda elektrolizning ikkilamchi mahsulotlari hosil bo‘ladi. Qizdirib suyuklantirilgan elektrolitlar elektroliz qilinganida faqat birlamchi mahsulotlar chiqadi. Elektrolitlarning suvdagi eritmalarida elektroliz jarayoni ancha

murakkab boradi, chunki ko‘pincha ikkilamchi jarayonlar sodir bo‘ladi.Elektroliz sanoatning turli sohalarida keng qo‘llanadi. Kimyo sanoatida xlor va ishqorlar olishda, xlorat, perxlorat, persulfat kislota, kaliy permanganat, sof holdagi vodorod, ftor va boshqalar qimmatli mahsulotlar hosil qilishda, rangli metallurgiyada metallarni rafinatsiyalashda elektrolizdan foydalaniladi. Turli metallarning birikmalarini qizdirib suyuqlantirib, elektroliz yordamida o‘sha metallar ajratib olinadi. Mashinasozlik, radiotexnika, elektronika, poligrafiya sanoatlarida turli buyumlar sirtini metallar bilan qoplashda va boshqalarda elektroliz qo‘llanadi. Metall buyumlarni korroziyalashdan muhofaza qilish uchun ularning sirtiga boshqa metalning – xrom, kumush, oltin, mis, nikel va hakaza .juda yupqa qatlami qoplanadi. Ba’zan ko‘p qatlamli qoplama ham qilinadi. Masalan, avtomobillarning tashqi detallariga dastlab yupqa mis qatlami, misning ustidan yupqa nikel qatlami, nikel ustidan esa xrom qatlami qoplanadi.Metallar sirtiga elektroliz yo‘li bilan qoplangan qoplamlar qalinligi bir xil, puxta bo‘lib, uzoq vaqt xizmat qiladi; bundan tashqari, bu usul bilan istalgan shakldagi buyumni qoplash mumkin. Amaliy elektrokimyoning bu tarmog‘i galvanostegiya deyiladi. Galvanik qoplamlar korroziyalanishdan saqlashdan tashqari ba’zan buyumlarga chiroyli tashqi ko‘rinish baxsh etadi.

Elektrokimyoning mohiyati jihatidan galvanostegiyaga yaqin yana bir tarmog‘i galvanoplastika deyiladi. Bu turli xil buyumlardan aniq metall nusxalar olishdir. Nusxasini tayyorlash talab etilayotgan buyum mum bilan qoplanadi, mum qotiriladi va mumli matritsa olinadi; unda nusxa olinayotgan buyumning barcha chuqur joylari qavariq bolib chiqadi. Matritsaning ichki yuzasi elektr tokini o‘tkazadigan grafitning yupqa qatlami bilan qoplanadi. Bu grafitli katod mis sulfat eritmasi solingan vannaga botiriladi; anod sifatida mis xizmat qiladi. Elektroliz vaqtida mis anod eriydi, katodga esa mis o‘tiradi. Shunday qilib, buyumning aniq yupqa mis nusxasi olinadi. Galvanoplastika yordamida bosmaxona klishelari, grammplastinkalar tayyorlanadi, turli xil buyumlar metallashtiriladi. Galvanoplastikani rus olimi B.S.Yakobi kashf etgan (1838).

Elektrolizdan ko‘pchilik metallarni ishqoriy metallar, ishqoriy-yer metallari, aluminiy, lantanoidlar va boshqalarni olish uchun, shuningdek, ba’zi metallarni aralashmalardan tozalash uchun foydalaniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Детлаф А.А., Яворский Б.М. Курс физики. II том. Москва. «Высшая школа». 1994.
2.J.A.Toshxonova, J.Kamolov, X.M.Maxmudova, T.Rizayev, B.Nurillayev. Fizikadan praktikum. Elektr va magnetizm. Toshkent. 2006.
3.S.Orifjonov. Elektromagnetizm. Toshkent. Noshir. 2011.
4.M.O‘lmasova va Fizika (Elektr). Toshkent. O‘qituvchi. 2000.

## TABIIY BIOLOGIK MODDALARNING YURAK QON-TOMIR TIZIMIGA TA’SIRI HAQIDA HOZIRGI ZAMON TUSHUNCHALARI.

**University of economics and pedagogy**
**Assistent o‘qituvchisi M.Toxirova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tabiiy biologik moddalarning yurak qon-tomir tizimiga ta’siri haqida hozirgi zamon tushunchalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** arterial gipertoniya, insult,infarkt,aktin, miozin,sitozol, ion, kalsiy ion, L tip Ca2+ kanallari, harakat potentsiali, repolyarizatsiya, sarkoplazma, qon tomir, silliq muskul.

**Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q.**
**Sh.M. Mirziyoyev**

Yurak qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasida ham ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Buning negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi “Yurak qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-103 sonli qarorida ham o‘z ifodasini topgan.Unda yurak-qon tomir kasalliklari aniqlangan bemorlarning yagona elektron reestrini yuritish hamda ushbu turdagi kasalliklari mavjud “Ijtimoiy himoya yagona reestri”da bo‘lgan 200 mingdan ziyod aholiga enalapril (Enalapril) dori vositasi bepul tarqatish vazifalarini yo‘lga qo‘ygan.Ushbu

kasallikni kelib chiqishining asosiy omili arterial gipertoniya hisoblanadi.Kelgusida yurak-qon tomirlarini bo‘shashtiruvchi uning tonusini kamaytiruvchi o‘simliklardan olinadigan tabiiy birikmalar kversetin hosilalarini aniqlash, ularni ilmiy tadqiqot usullari yordamida sintez qilinib,dori vositasida keng ommaga namoyon qilish orqali erta o‘lim, insult, yurak ishemiyasi, yurak-qon tomir kaslliklarini oldini olish kabi yutuqlarga erishish mumkin.

Respublikamizda yurak qon tomir tizimi kasalliklarining oldini olish va davolash uchun mahalliy o‘simlik xomashyosi asosida dori vositalarini yaratishga muhim ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish” ga qaratilgan eng muhim vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda o‘simliklardan olingan biologik faol birikmalarining farmakologik ta’sir mexanizmlarini aniqlash va ular asosida arterial gipertenziyaning oldini olish va davolash uchun yangi avlod dori vositalarini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab ilmiy markazlarida gipotenziv dorilarning yangi avlodini yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga arterial gipertoniya patogenezi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qon-tomir kasalliklarini asosiy disfunktsiyasini oldini olish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilgan.

Tabiiy mahsulotlarning yurak-qon tomir tibbiyotiga qo‘shgan hissasi keng miqyosda hujjatlashtirilgan va ularning ko‘pchiligi asrlar davomida qo‘llanilgan. Yurak-qon tomir kasalliklari butun dunyo bo‘ylab kasallanish va o‘limning asosiy sababidir. So‘nggi 40 yil ichida yangi ishlab chiqilgan yurak-qon tomir dori vositalarining taxminan 50% tabiiy mahsulotlarga asoslangan bo‘lib,tabiiy mahsulotlar yangi dori-darmonlarni kashf qilish uchun muhim skelet tuzilmalarini ta’minlaydi. 1990-yillardan beri past mahsuldorlik davridan so‘ng, tabiiy mahsulotlar yaqinda ilmiy va tijorat e’tiborini qayta tiklab, multi-omika, kombinatsion biosintez, sintetik biologiya, integrativ farmakologiya, analitik va hisoblash texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan bilimlar boyligini qo‘llab-quvvatladi. Bundan tashqari, qo‘shimcha va muqobil tibbiyotning muhim qismi sifatida an’anaviy xitoy tabobati yurak-qon tomir dori vositalarini kashf qilish uchun tabiiy mahsulotning muhim manbai sifatida tobora ko‘proq e’tiborni tortmoqda. Tarkibiy xilma-xilligi va biologik faolligini hisobga olgan holda tabiiy mahsulotlar dori vositalari va dori vositalarining eng qimmatli manbalaridan biridir. Ushbu sharhda biz CVDlardagi tabiiy mahsulotlarning xususiyatlari va tasnifini qisqacha tasvirlab berdik. Keyinchalik, biz yurak-qon tomir kasalliklarida tabiiy mahsulotlarning terapevtik salohiyati va asosiy ta’sir mexanizmlari, shuningdek, tabiiy mahsulotlar asosida xavfsizroq va samaraliroq yurak-qon tomir dori vositalarini ishlab chiqishning hozirgi ko‘rinishi va kelajakdagi istiqbollari haqida so‘nggi xulosani taqdim etamiz.

Silliq muskul hujayralarining tuzilishi haqida hozirgi zamon tushunchalari

Silliq muskul to‘qimalarining hujayrasi uzunligi ~ 15÷500 mkm va diametri ~ 2÷10 mkm bo‘lgan ipsimon hujayradir. Hujayra o‘rtasida yadro joylashgan. Sitoplazmadagi yadro atrofida qalin (miozin) va ingichka (aktin) iplari joylashgan. Miozin iplaridan aktin iplariga juda ingichka ko‘ndalang ko‘prikchalar chiqadi. Aktin iplarining miozin iplariga nisbati 12:1, ya’ni ko‘ndalang-targ‘il muskul hujayralarinikiga nisbatan 2 marta ko‘pdir.

Ko‘ndalang-targ‘il muskullardan farqli ravishda silliq muskullar sarkomerlarning tartiblangan sistemasiga ega emas va ular sarkoplazmasining asosiy hajmini turli diametrdagi filamentlar egallaydi.

Aktin 2 ta spiralsimon buralgan F-aktin zanjiridan, ularning har biri bir nechta “marjonlar” – globulyar aktin (G-aktina) molekulalaridan iborat. Aktin iplari tarkibiga tropomiozin va troponin ham kiradi. Tropomizinning har bir molekulasi troponinning har bir molekulasi bilan kompleksda F-aktin zanjirida G-aktinning yettita monomerlari bilan bog‘langan, deb hisoblanadi. Barcha ushbu subbirliklar tropomioznin bilan kompleksda aktomiozin sistemasining Ca-sezgirligini ta’minlash uchun zarurdir. Aktin filamentlari diametri 15-17 nm bo‘lgan qalin filamentlarni o‘rab oladi, ularning har biri miozin molekulalaridan iboratdir.

Miozin molekulasi 2 ta og'ir (200 kDa atrofida) va 2 juft yengil (massasi 17 va 20 kDa) zanjirlardan tuzilgan. Bu subbirliklar 2 ta globulyar boshchali bo'yin orqali bog'langan o'q dumidan tuzilgan bitta molekulani shakllantiradi. Silliq muskullar miozinlar filamentlaridagi boshchalar filamentning yon yuzasi bo'ylab joylashadi va uning turli tomonlarida yon qutbli filamentlar hosil qilib qarama-qarshi oriyentatsiyaga ega bo'ladi. Miozin molekulasining boshchasi miozinning og'ir zanjirining N-uchi va u bilan bog'langan yengil zanjirlar bilan birikadi. Miozin molekulasi boshchasi tarkibiga $Mg^{2+}$-ATF va aktin bog'lanish markazi kiradi va ushbu ligandlarning bog'lanishi miozin boshchasining konformatsiyasini o'zgarishiga olib keladi. Silliq muskulning xarakterli xususiyati shundaki, ularning miofilamentlari silliq muskul hujayrasi uzun o'qi bo'ylab qiya o'rnashgandir.




**Silliq muskul hujayrasining tuzilishi.**

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Halidi N. Calcium dynamics and intercellular communication in arterial smooth muscle cells *in vitro* // Pour l'obtention du grade de docteur es sciences. – Suisse, 2011. – P.6–121.
2. Hamlyn, J.M., Ringel, R., Schaeffer, J., Levinson, P.D., Hamilton, B.P., Kowarski, A.A. & Blaustein, M.P. (1982). a circulating inhibitor of (Na-K)-ATPase associated with essential hypertension. Nature, 300,P 650-652.
3. Horiguchi S., Watanabe J., Kato H., Baba S., Shinozaki T., Miura M. Contribution of $Na^+/Ca^{2+}$–exchanger to the regulation of myogenic tone in isolated rat small arteries //Acta Physiol. Scand.– 2001. – V.173. – P.167–173.1-

## ZAMONAVIY TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIRNING O'RNI QANCHALIK MUHIM

**Bobomurodova Oyniso Navro'z qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi**
**ta'lim yo'nalishi 1 – "E" guruh talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qalamtasvir haqida, uning maqsadi va roli, qalamtasvirni o'rgatish va uning amaliy ahamiyati muhokama qilinadi. Yetarli bilimlarsiz rangtasvir, chizmachilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa mutaxassisliklar qalam bilan chizish malakalarini yuqori saviyada o'zlashtira olmaydi.

**Kalit so‘zlar:** qalam, chizmachilik, san’at, rassom, kompas, arxitektura muhandisi, istiqbol, shakllar, yorug‘lik, soya.

Yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish masalasi ta’lim muassasalarining asosiy ustuvor vazifalaridan biridir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator islohotlar yoshlarning har tomonlama yetuk, ma’nan rivojlangan va ijodiy fikrlovchi bo‘lib shakllanishini talab qiladi.

Qoralamalar rassom uchun san’at asarini yaratishda yordamchi manba bo‘lib xizmat qiladi Rassom chizishda qalam orqali u yoki bu rasmni yaratishga kirishadi. Keyin asarga rang beriladi va bu tomoshabinga estetik zavq beradi. Boshqacha aytganda, biron bir rassom, muhandis yoki me’mor qalam bilan rasm chizmasdan o‘z ishini yaxshilay olmaydi.

San’atning tarixiy rivoji jarayonida uning turlari (grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik) shakllana bordi. Ularning barchasi inson va uning ma’naviy hayotining muhim qismi bo‘lib, yuksak badiiy g‘oyalarni, go‘zallik haqidagi tushunchalarni ifoda etadi. Bir san’at turi boshqasidan o‘zining mazmuni, badiiy-ifodaviy vositalari va uslubi, his-tuyg‘ulariga ta’sir va hayotiy ahamiyati bilan farq qiladi.

Grafika – qalam tasvir va bosma badiiy asarlarni o‘z ichiga olgan tasviriy san’at turi hisoblanadi. Shuningdek, u o‘ziga xos tasviriy, ifodaviy vositalari va ta’sirchanlik imkoniyatiga ega.

“Grafika” san’at poligrafiyasi va kollegrafik aniq kontrast chiziqli qalamtasvir usulining keskin rivoji tufayli hamda jurnal va kitoblar chop etishda fototexnik ishlab chiqarilishi jihatidan eng qulayligi uchun katta ahamiyat ega.

Grafika san’atida obrazning hajviyligiga badiiy vositalarning bir nuqtaga yig‘ilganligi va qaratilganligi bilan erishiladi, shuning uchun ham grafikada tugallangan asarlardan tashqari naturadan qoralamalar rangtasvir, haykaltaroshlik va me’morchilik asarlarining eskizlari ham mustaqil ishlanadiki, ular ham mustaqil badiiy qiymatga ega. Texnik tomonidan grafika – rasm va bosma grafikaga bo‘linadi. Grafika bu san’atning eng qadimiy va an’anaviy turi – rasmning kelib chiqishi, tashqi chizilgan tasvirlar, antik idishlardagi chizgilar bo‘lib, tasvir asosini chiziqlar, rang dog‘lari tashkil etadi. O‘zining konstruktiv-tasviriy va badiiy ta’sirchanlik imkoniyatlari, uslublaridagi cheksizlik va keng ko‘lamlilik jihatdan rasm grafikasida rassomning ijodiy yo‘li natura bilan doimiy muloqot hisoblanadi.

Rasm bilan rangtasvirda ko‘pgina umumiyliklar mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi chegara shartli hisoblanadi. O‘zining vazifasiga ko‘ra dastgohli, kitob, gazeta va jurnal, xalq amaliy grafikasi va plakat bir-biridan farq qiladi. Dastlabki grafika asosan uyg‘onish davtida keng tarqalgan.

U an’anaviy tasviriy san’at janrlariga ham murojat qilib keladi. Bosma grafikaning dastlabki san’ati o‘zining ko‘p tirajda chiqarilishi, ommaga yetib borishi, shuningdek, bezakdorlik sifatiga ko‘ra interyerlarni bezash uchun qo‘llaniladigan asosiy sohasi kitobdir.

Rangtasvir san’at turi bo‘lib, unda tasvir yoki kartina ranglar orqali matoning qattiq yuzasida yaratiladi. Yorug‘ – soya, qo‘yilgan ranglar ta’sirchanligi faktura va kompozitsiya, kolorit kabi vositalar predmetlarning hajmi, shakli, o‘ziga xosligi, kengligi, teranligi va yorug‘ havo muhitini yaratish imkoniyatini beradi. Rangtasvir turg‘un va vaqtincha rivojlanish holatini sokinlik va his-hayajonli ruhiy to‘laqonlilik, harakat taassurotini beradi. Bu holat nafaqat borliqni ko‘z bilan ko‘rish darajasini yaqqol ko‘rinish, balki hayotning keng manzarasini ifoda etish imkonini beradi. Shuningdek, rang-tasvirda tarixiy jarayonlarning mohiyatini ochib beriladi, insonning ichki kechinmalari ifoda etiladi.

Rangtasvir asoslarini bajarish uchun suvbo‘yoq, guash, pastel, tushdan ham foydalaniladi. Rangtasvir uchun eng muhim va asosiy tasvirni ifodalovchi vosita bu moybo‘yoq hisoblanadi.

Uning ta’sirchanligi turli assatsiativ tugunlarini keltirib chiqaradi.

Rangtasvirning boshqa bir ifodaviy vositasi qalam-tasvir (chiziq va nur-soya) rang bilan birgalikda tasvirning ritmik kompozitsiyon yaxlitligini tashkil qiladi, chiziqlar hajmlarini bir-biridan ajralib turadi.

Rangtasvir asari ishlanadigan (mato, yog‘och, qog‘oz, karton, devor, toshoyna, metall va boshqalar) asos materiallar odatda grunt va rang qoplama, ba’zan esa lokni saqlaydigan yupqa parda bilan qoplanadi. Rangtasvirning tasviriy va ifodaviy imkoniyatlari, ishlash texnologiyasining o‘ziga

xosligi, rangning xususiyati bo‘yoqning maydalanganlik darajasi, rassom ishlayotgan asbob, u qo‘llagan suyuqlikning xarakteriga bog‘liq. Shuningdek, matoning silliq yoki g‘adir-budur yuzasi, birinchi qalam bo‘yog‘i rangning qo‘yilish uslubiga rangtasvir asarining fakturasiga ta’sir qiladi.
Qalamtasvir – chiziqlar asosida grafika vositalari (qalam, pero, tush va boshqalar) yordamida yaratiladigan tasvir, chizgi. Tarixdan ma’lumki, ne-ne buyuk allomalar ko‘p asrlar yaratib qoldirgan ilmiy asarlari shundan dalolat beradi. Misol uchun, qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini olasizmi, o‘rta asrlardagi Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri namoyandalari, o‘zbek mutafakkirlarini ilmiy merosida moddiy va ma’naviy olam o‘rtasidagi munosabatlariga keng o‘rin berilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, antik davr faylasuflari bo‘lmish Sokrat va Platon, Epikur va Demokrat, Xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqa allomalarning nazariy qarashlari fan tarixida ma’lum. Albatta o‘z davri falsafiy yondoshuvlarning har biri mavjud siyosiy-ijtimoiy vaziyat, hukmron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sotsial guruh va toifalarning qarashlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Tasviriy san’atda o‘rgatish metodlari Qadimgi Misr, Yunon Yevropa, Rim maktablari yuksak madaniyatini rivojlanganligi misolida ko‘rsatish mumkin.
Qalamtasvirda ishlash uchun maxsus ish qurollari zarur bo‘lib, ulardan eng muhimi qog‘oz asosiy material hisoblanadi. Qog‘oz, albatta, grafik ishlarni sifatli bajarish uchun yetarli darajada qalin va pishiq bo‘lishi kerak. Vatman qog‘ozlari turlicha bo‘lishini unutmaslik zarur. Vatman qog‘ozlar vazniga (gr) qarab turlarga bo‘linadi. Qalamtasvir uchun eng yaxshisi “Goznak” tamg‘asi tushirilgan qog‘oz hisoblanadi. Ularning pishiqligi 120 gr.dan 240 grammgacha bo‘lishi mumkin.
Qog‘oz XVIII asrda xitoyliklar tomonidan kashf etilgan. Bu qog‘oz matoning mayda bo‘laklaridan tayyorlangan. Hozirda esa qog‘oz ixtisoslashtirilgan fabrikalarida ishlab chiqariladi.
Grafik ishlar bajarish uchun eng universal material, shubhasiz, qalam hisoblanadi. Hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko‘p turlari mavjud. O‘rtacha yumshoqlikdagi qalamlardan tortib juda qattiq qalam turlari mavjud. Qalamtasvirni o‘qitishda o‘quv vazifasining mazmuni, tanlangan qog‘ozning turi va sifatiga ko‘ra turli qattiq (yumshoq)likdagi qalamlar tanlanadi.
**Xulosa.** Tasviriy san’at, qalam-tasvir, rangtasvir, kompozitsiya fanlaridan olib borilayotgan darslari didaktik prinsiplari bolalar yoshiga va kuchiga moslik, muntazamlik va ketma-ketlik printsipiolar asosini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston rassomlari asarlari, O‘rta Osiyo, Sharq, Yevropa mamlakatlari san’atini badiy an’ana – inson faolyatining adabiyot, san’at kabi sohalarda erishilgan va saqlanib qolgan ilg‘or yutiqlar va tajribalari majmuidir. Tarixiy va hozirgi mustaqillik yillari amalda qalam-tasvir, rang-tasvir, kompozitsiya fanlarini uzluksiz ta’lim jarayonida turli texnologiyani qo‘llab tasvirlash, nazariy yangi tarixini tahlil etishga o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Boymetov B, Abdurasulov S. “Chizmatasvir” o‘quv qo‘llanma. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashiryot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent: 2004
2. Ro‘zixon Djalilova. “Qalamtasvir”. San’at jurnali nashiryoti o‘quv qo‘llanma – Tashkent: 2009
3. Rahim Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashiryot-matbaa ijodiy uyi – Toshkent: 2004

## ME’ROSIMIZNING MADANIY MOHIYATI.

**Bobomurodova Sojida Ablakulovna**
**Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.**
**Salaydinova Xumora Shirinboy qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola asosan mamlakatimizda O‘zbekiston xalqining milliy boyligi bo‘lgan madaniy merosimizni muhofaza qilish, o‘rganish va undan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida.
**Аннотация.** В данной статье в основном говорится о работе, проводимой в нашей стране по охране, изучению и использованию нашего культурного наследия, которое является национальным достоянием народа Узбекистана.
**Abstract:** This article mainly talks about the work carried out in our country to protect, study and use our cultural heritage, which is the national treasure of the people of Uzbekistan.

**Kalit so‘zlar:** Boysun, “Shashmaqom musiqa”, Navro‘z, Shahrisabz, Buxoro, Samarqand, Xiva, Markaziy Osiyo, madaniy meros.
**Ключевые слова:** Бойсун, “Музыка Шашмакома”, Навруз, Шахрисабз, Бухара, Самарканд, Хива, Средняя Азия, культурное наследие.
**Keywords:** boysun, “Shashmaqom music”, Navroz, Shahrisabz, Bukhara, Samarkand, Khiva, Central Asia, cultural heritage.

O‘zbekiston qadimiy tamaddun markazlaridan hisoblanadi. Buyuk ipak yo‘li chorrahasida joylashgan yurtimizda asrlar davomida turli sivilizatsiyalar hukm surgani sababli noyob, bebaho va go‘zal me’moriy obidalar bunyod etilishiga zamin yaratdi. Dunyoning hech bir burchagida uchramaydigan bunday betakror obidalar bizning boyligimiz va faxrimiz hisoblanadi.

Yurtimizning Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKO ning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navro‘z”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va an’analari” nomzodlari insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga Usmon Qur’oni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar to‘plami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi ro‘yxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida e’tirof etilganiga yorqin misol bo‘la oladi. Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimi yanada takomillashtirildi. Imom at-Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi va O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun mas’ul organning tashkiliy-shtat tuzilmasi sohada davlat nazoratini samarali tashkil etish imkonini bermayapti.

Ta’kidlash joizki, Markaziy Osiyo nihoyatda boy tarixga va madaniy merosga ega bo‘lgan insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy beshiklaridan biridir. Mintaqaning “Buyuk ipak yo‘li” ning markazida joylashganligi, va unda yashovchi xalqlar sharq va g‘arb o‘rtasidagi xalqaro savdo, ilmiy-fan yutuqlari va madaniyatlarining almashinuvini ta’minlovchi o‘ziga xos muhim bog‘lovchi rolini amalga oshirgan.

Mintaqaning beshta mamlakati Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston o‘z tarixi, madaniyati va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida ko‘p uzviy o‘xshashliklarga ega bo‘lib, tarixan yagona ilm-fan va madaniy makon sifatida shakllangan. Shu o‘rinda, umummintaqaviy ustuvor manfaatlarga asoslangan “Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” mavzusida xalqaro anjumanni o‘tkazish mintaqa davlatlari aholisi o‘rtasida yakdillik ruhini kuchaytiradi va davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda yaxshi qo‘shnichilikning bardavomligini ta’minlashga g‘oyat muhim hissa qo‘shadi. Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari jahon sivilizatsiyasiga qo‘shayotgan ulkan hissalarini qayta e’tirof etishga imkon beradi. Qolaversa, xalqaro miqyosdagi ilm-fan vakillarining Markaziy Osiyo xalqlari boy ilmiy va madaniy meroslarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Shuningdek, Markaziy Osiyoning madaniy va tarixiy meroslarini qayta tiklash va ommalashtirishda xalqaro hamjamiyatning ishtirokini yanada faollashtirishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga mazkur xalqaro nufuzdagi tadbir mintaqamiz xalqlarining madaniy taraqqiyotiga qo‘shgan mislsiz hissasi haqida keng qamrovli fikr bildirish uchun o‘ziga xos maydon vazifasini o‘taydi. Shu o‘rinda qayd etish lozimki, keyingi yillarda yurtimizda tashkil etilayotgan nufuzli xalqaro konferensiyalar, forumlar, madaniy tadbirlar olib borilmoqda. O‘zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyoning, balki dunyoning zamonaviy madaniy ma’rifiy markazlaridan biriga aylanib borayotganini anglatadi. Mazkur xalqaro forumning yana bir muhim jihati O‘zbekistonning qadimiy Xiva shahri turizm brendini yanada rivojlantirishga va turistik oqimning ko‘payishiga xizmat qiladi. Shubhasiz, davlatimiz rahbarining ushbu tashabbusini Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdagi amaliy qadamlardan biri sifatida baholash mumkin buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniyning falsafiiy qarashlari hozirgi kungacha O‘zbekistonda fundamental tarzda o‘rganilmasdan qolmoqda. Uning asarlarini, xususan, davlat tilida xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida, ommalashtirish ham talabga javob bermaydi.

Jahonda XI asrni Beruniy asri deb e'tirof etilgan bir sharoitda bugun mamlakatimizda mavjud imkoniyatlardan foydalanilgan holda Beruniyning bizga qoldirgan ilmiy va falsafiy merosini keng tashviqot-targ'ibot qilish, yoshlarimizning ilmga bo'lgan qiziqishi oshishiga, ularda buyuk bobomiz kabi o'z Vatanini jondildan, unga talpinib yashash tuyg'ularini shakllantirishga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishi ta'kidlandi. Tarixchilar, faylasuflar, tilshunos va adabiyotshunoslar, xullas barcha ijtimoiy fan vakillari bir yoqadan bosh chiqarib, o'zaro hamjihatlikda tarixiy obidalar va madaniyatimizni tiklash yo'lida fidoyilik ko'rsatishi lozimdir.

Davlatimiz madaniyati va san'ati o'zining buyuk tarixiga ega. Ajdodlarimiz tomonidan adabiyot, musiqa, arxitektura kabi nafis san'at sohalarida yaratilgan olamshumul namunalar halqimiz tarixiy-madaniy merosining beqiyos ma'naviy tafakkurini aks ettiradi. Qadim alloma-ijodkorlarimizning mehnat faoliyati, ularning o'y-fikrlari, ijodiy izlanishlari tariximiz zarvaqarlariga bitilgan bo'lib, bugungi kungacha yetib kelgan madaniy meros obidalarining qiyofasida o'zining ulug'vor aksini topgan. Shunday ekan, tariximizdan haqqoniy dalolat beruvchi arxeologik yodgorlik, obidalar, masjid-u ziyoratgohlar, madrasa-yu xonaqohlarni asrab-avaylash, ularning azaliy qiyofasini tiklash, kelajak avlodga bezavol etkazish borasida ko'p mehnat talab qilinadi.

Bugungi kunda ulkan maqsadlar sari qadam bosib yangilanayotgan mamlakatimiz dunyo hamjamiyati oldida o'zininig munosib o'rnini egallashida, avvalo, bizga nasib etgan tabarruk madaniy merosning qadrini yuksakka ko'tarishdek sharafli ishni umumxalq ishi, va eng muhimi, fuqarolik burchi deb idrok etmog'imiz zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:


1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish to'g'risidagi Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. -2017 yil.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi "Madaniyat va san'at sohasida davlatxususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shartsharoitlar yaratish chora-tadbirlari To'g'risida"gi PQ-3892-sonli qarori2017 yil 16 oktyabr, PQ-3325- son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida, 2018 yil 1 avgust, PQ-3892-son.

5. Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Yo'ldoshev A., Abdullayev A. "Madaniyatshunoslik". O'quv qo'llanma. – T.: "Turon-iqbol". Nashriyoti, 2006

6. Abdullaev, A., & Bobomurodova, S. (2023). THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART. *Science and innovation*, *2*(C3), 64-66.

7. Abdullayev, A. H., & Bobomurodova, S. A. (2022). BO'LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific progress*, *3*(3), 908-910.

8. Bobomurodova, S. A. (2024). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INNOVATSION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI. *Inter education & global study*, (1), 73-82.

9. Abdullaev, A., Bobomurodova, S., & Juraeva, O. (2024). THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES. *Science and innovation*, *3*(B1), 335-339.

10.Choriyev S. et al. AKADEMIK RASM CHIZISHNING O 'ZIGA XOS QONUN VA QOIDALARINI O 'RGANISH //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:"Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – T. 1. – №. 01.

11.Choriyev S. N. BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI VA RAHBAR IMIDJINI YARATISH //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 222-225.

12. www.ziyouz.com.kutubxona

13. https//lex.uz

14. Madaniyat.uz/uz/

# INSONLARDA UCHRAYDIGAN TUG'MA VA ORTTIRILGAN YURAK NUQSONLARI

**Boboyorova Zebo Shavkat qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti Tibbiyot fakulteti**
**Davolash ishi yo'nalishi**
**1-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurakning keng tarqalgan tug'ma va orttirigan nuqsonlari haqida ma'lumot keltirilgan. Kasallik belgilari va kelib chiqish sabablari yoritib berilgan

**Kalit so'zlar:** tug'ma nuqsonlar, orttirilgan nuqsonlar, mitral stenoz, fallo tetradasi, aortal stenoz

**Аннотация:** В этой статье представлена информация об распространенных и приобретенных пороках сердца,включая симптомы и причины.

**Ключевые слова:** Пуговичные дефекты, приобретенные дефекты, митральный стеноз, аортальный стеноз

**Annotation:**This article provides information on common congenital and acquired heart defects.Symptoms and causes of the disease are explained

**Keywords:**Birth defects,acquired defects,mitral stenosis,aortic stenosis

Yurak va qon-tomir kasalliklari butun dunyoda ,shu jumladan O'zbekistonda ham keng tarqalgan.Respublikamiz aholisi orasida o'limga olib keluvchi barcha sabablar orasida GK , ateroskleroz va ular bilan bog'liq bo'lgan yurak kasalliklari avvalo , kardiologlar , terapevtlar va umumiy amaliyot vrachlari ushbu guruh kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash,davolash va profilaktika tamoyillari to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lishlari lozim.

Yurak nuqsonlari yurak qopqoqchalari, fibroz halqa,xordalar , so'rg'ichsimon mushaklar, uning kameralari orasidagi to'siq va teshiklarni,chiqib ketayotgan va kelayotgan qon tomirlarni tug'ma yoki orttirilgan anomaliyalari yoki deformatsiyasi hisoblanadi. Ular barcha holatlarda yurak ichi va tizimli qon aylanishining buzilisiga , o'tkir yoki surunkali yurak yetishmovchiligi rivojlanishiga olib keladi.

**Yurakning tug'ma nuqsonlari;**

Bola tug'ilgunga qadar yoki tug'ilish davrida shakllangan yurak va yirik qon tomirlardagi o'zgarishlar sababli kelib chiqadi.

**Uchrash ehtimoli** – yangi tug'ilgan chaqaloqlar ichida 0.5% ni tashkil etadi . Ikki yoshdan oshgan bolalarda esa 0.2% uchraydi . Yurak nuqsonlari odatda faqat jarrohlik usuli bilan davolanadigan patologiya hisoblanadi.

**Bo'lmachalar orasidagi oval teshigini bitmasligi** – bu o'ng bo'lmachaga ortiqcha qon to'planishi hisoblanadi. Bunda qonning o'ng qorinchadan o'pka tomirlariga o'tkazish uchun miokard doimiy ravishda kuchli ishlashi zarur bo'ladi va bu o'ng qorinchani gipertrofiyaga olib keladi. Agar teshik jarrohlik yo'li bilan bekitilmasa yurakning o'ng bo'limida miokard dekompensasiyasi rivojlanadi. .

**Botallov yo'lining bekilmasligi** – odamlarda botallov yo'li homilaning o'pka arteriyasini aorta bilan bog'laydi. Lekin homilada o'pka hali ishlamaganligi sababli o'pka arteriyasidagi qon yurakning embrion rivojlanishida paydo bo'lgan arteria yo'li orqali aortaga quyilib tanaga tarqaladi. Bola tug'ilishi bilan mustaqil qon aylanishi boshlanib, O2 almashinishi o'pka orqali bajariladi, natijada arteriya yo'li kichrayib biriktiruvchi to'qimali boylamga aylanadi. Botallov yo'li bekilmay qolganda esa qon aylanishi keskin buziladi. Bunday hollarda jarrohlik usulidan foydalaniladi.

**Qorinchalararo to'siq defekti** – bu nuqsonga qonning chap va o'ng qorincha orasidagi patologik yo'lak orqali yurak chap bo'lagidan o'ngiga otib berilishi xos. Anatomik tuzilishiga ko'ra qorinchalararo to'siq deffektini

perimembranoz,infundibulyar va mushakli turlari farqlanadi. Nuqsonning ilk belgilari deffekt o‘lchamiga, oqim hajmi va yo‘nalishiga bog‘liq. Odatda,katta deffektlarda kasallik belgilari bola tug‘ilishi bilan yoki 12 oy o‘tgach paydo bo‘ladi. Unda oziqlantirilayotganida hansirash, emizishda qiynalish va to‘xtab tanaffus qilish, chuqur nafas olish kuzatiladi, natijada bola och qoladi, ko‘p bezovtalanadi. Qorinchalararo to‘siq deffekti bilan tug‘ilgan chaqaloq vazni me’yorda bo‘lsa ham tez kunda jismoniy o‘sishdan orqada qola boshlaydi.

**Fallo tetradasi** – keng tarqalgan yurakning tug‘ma nuqsoni hisoblanadi. Fallo tetradasida qorinchalararo to‘siq deffekti doimo katta o‘lchamga ega bo‘lib, qorincha usti o‘siqdan yuqorida aortaning boshlanish qismida joylashadi. Tashxis birinchi 6 oy ichida hansirash va sianozga asoslangan holda qo‘yiladi. Fallo tetradasiga tana vaznining keskin kamayishi xos emas. Bola hayotining birinchi va ikkinchi yilida keskin sianoz va jismoniy rivojlanishdan orqada qolish kuzatiladi.

**Ebshteyn anomaliyasi** – uch tabaqali qopqoq displaziyasi va tabaqasining o‘ng qorincha bo‘shlig‘iga siljishi bilan kechadigan tug‘ma yurak nuqsoni. U barcha yurak nuqsonlari orasida 0.5-1.0 foiz hollarda uchiraydi. Bu kasallik bola hayotining birinchi kunlari va haftasida aniqlanadi. Kasallik yengil kechsa, uzoq vaqt unga xos belgilar kuzatilmasligi mumkin. Bemorning asosiy shikoyatlari – yurak sohasida og‘riq, hansirash, jismoniy harakatga chidamlilikning pasayishi, hushdan ketish kabilar hisoblanadi. Xurujni bartaraf etish uchun izoptin,aymalin,kordaron qo‘llaniladi.

**Orttirilgan yurak nuqsonlari**

**Mitral stenoz-**chap atrioventrikulyar teshik torayishi bo‘lib, bu holatda chap bo‘lmachadan qonning chiqishi qiyinlashadi va u bilan chap qorincha o‘rtasidagi diastolik bosim ko‘rsatkichining ortishiga olib keladi. Mitral stenozning eng ko‘p uchraydigan sababi – revmatik endokardit hisoblanadi. Aksariyat hollarda u yashirin kechadi va o‘z vaqida tashxislanmaydi. Kasallik odatda bolalik yoki o‘smirlik vaqtida shakllana boshlasa ham bemorning vrachga murojaat etishga majbur qiluvchi shikoyatlar;

-xansirash

-mehnatga yaroqlilikni susayishi kabilar navqiron yoshda paydo bo‘ladi. Erkaklarga nisbatan ayollarda 2-3 marotaba ko‘p uchraydi.

**Aorta ravog‘i stenozi (aortal stenoz)** – chap qorincha chiqish yo‘lagining aorta qopqog‘i soxasida torayish bo‘lib, qonni chap qorinchadan chiqib ketishi qiyinlashishiga, hamda u bilan aorta orasidagi bosim nisbatining keskin oshib ketishiga olib keladi. Aorta stenozi barcha yurak nuqsonlari bilan og‘rigan bemorlarning 20-25 foizini tashkil etadi. Ayollarga nisbatan erkaklarda 3-4 marta ko‘proq uchraydi. Aorta ravog‘i stenozi bilan og‘rigan bemorlar uzoq vaqt shikoyatlar bildirmaydilar va bu nuqsonning to‘liq kompensatsiya bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ilk shikoyatlar odatda, aorta ravog‘i kengligi tahminan 50 foiz torayganda paydo bo‘ladi. Aorta stenozi bilan og‘rigan bemorlar uchun jismoniy harakat vaqtida yoki tana holatini tez o‘zgartirilganda paydo bo‘luvchi bosh aylanishi,ko‘ngil aynishi,hushdan ketish xos.

**Yurakning murakkab nuqsonlari** – amaliyotda ayniqsa, revmatizm kasalligida bir vaqtning o‘zida yurakning bir nechta qopqoqlarining shikastlanishi kuzatiladi. Ushbu holatda klinik belgilar alohida yurak nuqsonlariga xos bo‘lgan simptomlar yig‘indisidan iborat bo‘lib birortasining ustunligi bilan kechadi. Murakkab yurak nuqsonlari oqibati yakka holda kuzatiladiganlarga nisbatan birmuncha og‘irroq bo‘ladi.

**Orttirilgan yurak nuqsonlarini davolash**

Yurakning orttirilgan nuqsonlari bilan og‘rigan bemorlarni davolashning yagona usuli – nuqsonni jarrohlik yo‘li bilan bartaraf etish hisoblanadi. Afsuski,bemor ahvolining og‘irligi yoki ushbu usul bilan davolanishdan bosh tortishi, kasallikning

kech aniqlanishi, mavjud qarshi ko‘rsatmalar jarrohlik usuli yordamida davolash imkoniyatini chegaralaydi. Shu sababli yurak nuqsoniga rivojlanishiga olib keladigan revmatizm,infeksion endokardit va boshqa kasalliklar rivojlanishini oldini olish va ularni bartaraf etishga, gemodinamikani muvozanatda saqlashga qaratilgan konservativ davo chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega.
Xulosa qilib aytganda, har bir inson eng avvalo, onalar homiladorlik vaqtidayoq o‘zini asrashi, har qanday kichik belgilarga ham e’tiborli bo‘lishi muhim hisoblanadi. Bolalarda paydo bo‘layotgan kichik o‘zgarishlar ham keyinchalik bir qancha patologiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ichki kasalliklar (Yangi to‘ldirilgan nashr) Abdig‘affor Gadaev
2. Patologik anatomiya va patologik fiziologiya. D.E.Eshimov
3. Patologik anatomiya va patologik fiziologiya.I.B.Yusupov, R.U.Muxitdinov
4. https://gmed.uz/uz/item-tugma-yurak-nuqsonlarini-davolashning-zamonaviy-usullari


## BORLIQ FALSAFASI


**Muxtarova T.S.**
**Teacher(dost) of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov**
**Xasanov Diyorjon**
**Student of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov**



**Annotatsiya.** Borliq haqidagi ta’limot falsafaning eng muhim markaziy fundamental masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki falsafa o‘rganadigan qaysi bir muammoni olmaylik, bu muammo borliq muammosi bilan bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda markaziy o‘rinni tashkil qiladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki borliq muammosi falsafadagi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi. Darhaqiqat, borliq haqidagi falsafiy munozaralar u diniy va ilmiy, idealistik va materialistik dunyoqarashlar bo‘ladimi ular o‘rtasidagi bahslar, qarama-qarshiliklar borliq muammosi atrofida, ya’ni borliq azaldan mavjudmi, u xudo yoki mutlaq ruh tomonidan yaratilganmi, degan masala yuzasidan olib borilgan tortishuvlar sifatida qadimdan davom etib kelgan va shundaebo‘lib qoladi.

**Аннотация.** Учение о существовании является одним из важнейших центральных фундаментальных вопросов философии. Потому что какую бы проблему ни изучала философия, мы видим, что эта проблема связана с проблемой существования. Фактически вопрос существования и отношения к нему занимает центральное место в философских воззрениях. Это не зря, конечно. Потому что проблема существования лежит в основе любого мировоззрения и методологических проблем философии. В действительности философские споры о существовании, будь то религиозные и научные, идеалистические или материалистические мировоззрения, споры и противоречия между ними вращались вокруг проблемы существования, т. е. существовало ли существование изначально, было ли оно создано Богом или абсолютным духом. .продолжал и будет продолжать это делать.

**Abstract.** The doctrine of existence is one of the most important central fundamental issues of philosophy. Because whatever problem philosophy studies, we see that this problem is connected with the problem of existence. In fact, the question of existence and attitude towards it occupies a central place in philosophical views. This is not in vain, of course. Because the problem of existence lies at the heart of any worldview and methodological problems of philosophy. In fact, philosophical debates about existence, whether religious or scientific, idealistic or materialistic worldviews, disputes and contradictions between them revolved around the problem of existence, that is, whether existence existed originally, whether it was created by God or the absolute spirit. .continued and will continue to do so.



**Kalit so‘zlar**: borliq, mavjudlik, yo‘qlik, ontologiya, I.Kant, Gegel, mutloq g‘oya, mutloq ruh, sharq allomalari, borliq kategoriyasi, substantsiya, aktsidentsiya, substrat, inson borlig‘i, ma’naviy

borliq, sotsial borliq, real borliq, harakat, mexanik harakat, fizik harakat, kimiyoviy harakat, biologik harakat, fazo va vaqt.

Xo‘sh, borliq o‘zi nima? Borliq tushunchasi nimani bildiradi? Nima uchun borliq tushunchasi falsafa paydo bo‘lgandan beri, ya’ni qadimgi dunyodan bugungi kungacha faylasuflar e’tiborini o‘ziga jalb qilib keladi? Bu savollarga javob berish uchun biz borliqning inson va insonlar hayoti bilan bog‘liq real ildizlarini yoritishimiz lozim.
Ma’lumki, kishilar qadimgi davrdan o‘zlarini qurshab turgan tabiat va ular yashab turgan jamiyat, inson va insoniyat haqidagi, xususan, o‘zlari haqida ham o‘ylay boshlaganlar. Ular tabiat va jamiyatda, o‘z hayotlarida sodir bo‘lgan turli-tuman o‘zgarishlarni kuzatganlar. Bu narsalar ularninng ko‘z o‘ngida reallik sifatida gavdalangan: ya’ni ular bor mavjud, lekin ba’zi narsalar vaqtlar o‘tishi bilan yo‘q bo‘lgan, ya’ni mavjud bo‘lmay qolgan; aksincha, ba’zi yo‘q narsalar paydo bo‘lib, bor bo‘lgan, ya’ni mavjud bo‘lgan. Shular asosida kishilarda “mavjudlik”, va “mavjudsizlik” haqida qarashlar paydo bo‘la boshlagan.
Kishilar o‘zlarining ham dunyoga kelishi paydo bo‘lishi, yashashi va nihoyat, dunyodan ketish o‘lishi kabi jarayonlarni kuzatganlar, ular haqida ham fikr qila boshlaganlar. Shular asosida keyinchalik dinda “bu dunyo” va “u dunyo” “narigi dunyo” ya’ni kishilarning real hayotlari kechadigan dunyo va vafot etishi bilan ularning ruhlari boradigan dunyo to‘g‘risida tasavvurlar paydo bo‘la boshlagan.Lekin bu o‘rinda dunyoning mavjudligi, ya’ni borlig‘i to‘g‘risida bahs yuritgan faylasuflar bu masalaga turlicha yondashganlar: ularning ba’zilari: dunyo avval ham bo‘lgan, hozir ham mavjud bundan keyin ham mavjud bo‘ladi deyishsa; boshqalari: dunyo avval mavjud bo‘lmagan u xudo yoki ruh tomonidan yaratilgan: dunyodagi hamma narsalarni, xususan, insonni ham xudo yoki ruh yaratgan, shundan buyon ular mavjud deganlar. Uchinchi xil mutafakkirlar esa dunyo o‘z-o‘zidan yaralgan, xudo, uning yaralishiga faqat sababchisi bo‘lgan, xolos, u shundan buyon mavjud, degan qarashni ilgari surishgan. To‘rtinchi xil mutafakkirlar bo‘lsa dunyo oldin ham bo‘lgan, hozir ham mavjud, bundan keyin ham mavjud bo‘ladi; dunyoni hech kim yaratmagan u cheksiz va chegarasiz deyishgan.
Bu borada kishilar o‘zlarining o‘tkinchi muvaqqat hayotlari bilan cheksiz va abadiy mavjud bo‘lgan dunyo, tabiat bilan boshqa kishilarning hayoti va ishlari bilan o‘zlarigacha bo‘lgan va o‘zlaridan keyin keladigan avlodlarning hayot va faoliyatlari haqidagi qarashlari bilan solishtirishlari orqali fikr qilishib, keyinchalik doimiylik va o‘tkinchilik kabi qarashlarni hosil qila borganlar. Ularning bu qarashlari tabiiyki, o‘zlarining shaxsiy hayotidagi tajribalaridan kelib chiqqan bo‘lib, ular butun koinotga ham o‘zlarining o‘tmishi va kelajagiga ham, o‘z tajribalariga taalluqli bo‘lgan. Binobarin, dunyoning doimiyligi va vaqtinchaligi, uning fazo va vaqtda chekliligi va cheksizligi to‘g‘risidagi qarashlar butun insoniyat tarixida dastlab afsonalar va diniy qarashlarda, keyinchalik falsafa va fanlarda ifodalanib, muhokama qilinib kelingan. Bu muhokamalarning hammasi bir so‘z bilan aytganda, borliq muammosi bilan bog‘liq bo‘lib kelgan. Ularning barchasi bilan mantiqiy xulosasi shu bo‘lganki, dunyo avval ham bo‘lgan, hozir ham mavjud va bundan ham keyin ham mavjud bo‘ladi. Demak, dunyo doimiy abadiydir. Ammo shu abadiy dunyodagi ayrim narsalar turli-tuman jonsiz va jonli organizmlar, hatto insonlar va ularning faoliyati bir butun jamiyat, shubhasiz, vaqtincha o‘tkinchidir. Bundagi borliq muammosining butun ildiz, ma’nosi va mazmuni shunday ediki; bir butunlik sifatidagi dunyoning doimiy mavjudligi va uni tashkil etgan narsalarning: notirik va tirik organizmlar, ya’ni tabiat, insonlar, jamiyat va ularning faoliyatlarining o‘tkinchiligi ziddiyatli birlikni tashkil qilishidir.
Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, borliq muammosi falsafada o‘rganish dunyo “hozir, shu yerda mavjud” degan qarashdan boshlanib bu qarashlar bir butun dunyoning cheksiz va doimiy mavjudligi, undagi predmet va hodisalarning, shu jumladan, insonlarning ham vaqtinchaligi va o‘tkinchiligi to‘g‘risidagi qarashlarga tomon rivojlanib borgan. Bu borliq to‘g‘risidagi falsafiy muammoning birinchi tomonidir. Borliq muammosining falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, dunyo bir butun, abadiy mavjud, lekin uni tashkil etgan narsalar o‘z mavjudligi jihatdan har xil, o‘tkinchidir. Bir butunlik sifatidagi dunyo undagi mavjud narsalardan ajralmasdir. Bir jihatdan bir butun dunyo bilan uni tashkil qilgan narsalar, hodisalar va mavjudotlar o‘rtasida farq bo‘lsa,

ikkinchi jihatdan, dunyo o‘zini tashkil qilgan narsalar, mavjudotlar bilan ajralmas borliqdagi butunlikni hosil qiladi. Bunda borliq to‘g‘risidagi falsafiy muammoning dunyoning birligi masalasi bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi tomoni kelib chiqadi.

Ontologiya so‘zi yunoncha ontos — borliq, mavjudlik va logos – talimot so‘zlarinind yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, mavjudlik haqidagi ta’lmot, ya’ni borliq haqidagi fan ma’nosini anglatadi. Borliqning umumiy asoslari, prinsiplari, uning shakllari va qonuniyatlarini tekshiradi. “Ontologiya” terminini nemis faylasufi R. Goklenius fan tarixiga 1613-yil kiritgan, Xristian Volf (1679—1754) o‘z qarashlarida qo‘llagan bo‘lsada, dastlab yunon faylasuflari uning turli talqinlarini bayon etganlar. Ular ontologiyani haqiqiy borliqni nohaqiqiy mavjudlikdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta’limot, deb hisoblashgan. Eleya maktabi namoyandalari hissiy dunyoning aldamchi ko‘rinishini haqiqiy borliqqa qarama-qarshi qo‘yib, ontologiyani mangu o‘zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta’limot sifatida qo‘llashgan. Milet maktabi vakillari va Ioniya faylasuflari dastlabki borliqning sifatiy talqini haqida bosh qotirishgan. Ulardan borliqning boshlanishida yotuvchi bunday asosni Empedokl “stixiya”, Demokrit “atomlar”, Anaksimandr “apeyron”, Anaksagor “urug” deb atagan. Platon g‘oyalar ontologiyasini, Aristotel empirizm ontologiyasini yaratdi. O‘rta yerlar falsafasida ontologiya ilohiyot bilan chambarchas bog‘lanadi. Sharq falsafasida ontologiya ko‘proq ilohiy borliqning, xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta’limot tarzida, sharq panteistik falsafasida “vahdati mavjud” va “vahdati vujud” ko‘rinishidagi ta’limotlar shaklida paydo bo‘lgan. Falsafada ontologiya monistik, dualistik va plyuralistik konsepsiyalar shaklida ham uchraydi. Yangi davr falsafasida dualistik ontologiya namoyandasi R. Dekart bo‘lgan. O‘z falsafasining asosiga “monada” — “ilohiy atomlar”ni qo‘ygan V. G. Leybnits falsafasi — plyuralistik ontologiyaga mansubdir. Bu konsepsiya bo‘yicha olamning asosida bir qancha mohiyat yotishi mumkin. Shunday konseptsiya empiriokrititsizmda ham uchraydi. R. Avenarius, E. Max borliqning asosida sezgilar majmui yotadi, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon falsafasida ontologiyaning mazmuni yanada boyigan. Bu borliq haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi bilan bog‘langandir. Ma’lumki, borliqni mexanistik, metafizik va materialistik talqin etishda u moddiylik bilan, aktual mavjudlik bilan, reallik bilan aynanlashtirib qo‘yilgan edi. Borliqaslida barcha narsa va hodisalarni, ilgari mavjud bo‘lgan, hozir mavjud bo‘lib turgan va kelajakda mavjud bo‘ladigan realliklarni, moddiylik va ma’naviylikni, modda va g‘oyani ham o‘ziga qamrab oladi.

Falsafa borliq tushunchasini eng umumiy tushuncha sifatida o‘ziga boshlang‘ich kategoriya qilib qabul qiladi. Lekin borliq kategoriyasini falsafaga bunday boshlang‘ich kategoriya qilib kiritishga falsafada ikki yo‘nalish vakillari o‘z e’tirozlarini bildiradilar. Birinchi yo‘nalish vakillari borliq kategoriyasi narsalarning konkret xossalarini ifodalamasligi sababli uni falsafadan chiqarib tashlash kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Bu e’tirozning noto‘g‘riligi shundaki, falsafiy kategoriyalar narsalarning konkret belgilarini emas, aksincha, dunyodagi eng umumiy aloqadorliklarni, eng umumiy tomonlarni ifodalaydilar.

Borliq kategoriyasi esa xuddi shunday eng umumiy tomonni; ya’ni hamma moddiy va ma’naviy predmet va hodisalarni realligini ifodalaydi. Ikkinchi yo‘nalish vakillari esa, borliq avvalo, mavjudlik orqali ifodalanar ekan borliq kategoriyasini ishlatishda ehtiyoj yo‘q, chunki borliq tushunchasi mavjudlik tushunchasiga nisbatan hech bir yangilik bermaydi deyishadi. Gap shundaki, borliq falsafiy kategoriya sifatida faqat mavjudliknigina ifodalab qolmasdan, balki mavjudlikka nisbatan umumiyrok va kengroq mazmunga ega bo‘lgan reallikni bildiradi. Demak falsafada borliq kategoriyasi dunyo, tabiat, inson, jamiyat, inson ongi, uning individuallashgan va moddiylashgan ko‘rinishlarining shunchaki mavjudligini emas, balki ulardagi umumiy xarakterga ega bo‘lgan reallikka xos eng umumiy aloqadorlikni ifodalaydi. Binobarin dunyo, undagi predmet va hodisalar o‘zlarining barcha xususiyatlari va hodisalari bilan birgalikda mavjud bo‘lib, ular o‘z realliklari bilan umumiy birlikka egadir, ular o‘rtasidagi umumiy aloqadorlik borliq kategoriyasida ifodalanadi.

Borliq tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida kishilar bilishining ikkinchi – yuqori bosqichi – abstrakt tafakkurgagina xos bo‘lib, fikr jarayonda kishilar bu tushuncha orqali dunyodagi alohida narsalar, ularning konkrekt belgilari haqida emas, balki dunyodagi barcha narsalar, voqea va hodisalar, jarayonlar o‘rtasidagi eng umumiy tomon- ularning realligi haqida fikr yuritadilar.

Borliq kategoriyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlaridan hamda uning falsafada tutgan o‘rnidan kelib chiqib, to‘g‘ri fikr yuritish bizni bir qator sohalarda xatolarga yo‘l qo‘yishimizning oldini oladi. Masalan, borliqni narsalarga yoki fikrning mavjudligiga o‘xshatish unchalik to‘g‘ri bo‘lmaganidek, uni faqat moddiy narsalarga nisbatan qo‘llash yoki aksincha, uni faqat ma’naviy narsalar: sof fikr, g‘oyalar, faqat ong va uning maxsulotlariga nisbatan ishlatish ham qo‘pol xatodir. Lekin shunga qaramay borliqqa shunday yondoshishlar falsafa tarixida ham, hatto hozirgi vaqtda ham uchrab turadi. Chunki borliq muammosi hamma vaqt faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Masalan, qadimgi yunon materialistlaridan Demokrit bo‘linmas eng mayda zarracha – atomni borliq deb tushungan bo‘lsa, o‘sha davr yunon idealist faylasuflaridan Platon sezgi a’zolari bilib bo‘lmaydigan doimiy va o‘zgarmas “g‘oyalar dunyosi” ni borliq, deb biladi. O‘rta asr faylasuflari ham borliq muammosi atrofida qizg‘in bahslar olib borishgan. Ma’lumki, bu davrda din yagona hukmron g‘yaga aylanganligi natijasida falsafa ham dinning xizmatkori bo‘lgan. Shunga ko‘ra o‘rta asr sxolastik falsafasida xudo olloh oliy borliq sifatida talqin qilingan.Borliqning o‘ziga xos nodir shakllaridan yana biri – bu inson borlig‘idir. Inson borlig‘i alohida kishi borlig‘i va butun insoniyat borlig‘i ko‘rinishlarida mavjud bo‘lishi jihatdan o‘ziga xos noyobdir. Biroq, bu inson borlig‘ida inson mavjudligi bilan birga, tabiat va jamiyatdagi hamma mavjud narsalar uchun umumiy bo‘lgan tomonlar, xususiyatlar ham mavjuddir. Shu jihatdan inson borlig‘i o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra eng murakkab borliq shaklidir, u hamma borliq shakllarining ma’lum tomonlarining dialektik birligidan iboratdir.

Inson borlig‘ida, avvalo, insonning tabiat taraqqiyotining mahsuli sifatida tabiiy borliqning har ikki shakliga oid tomonlar bilan, insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida unda ijtimoiy va ma’naviy borliqning ham hamma shakllariga xos tomonlarining jami birgalikda mujassamlangan.Individuallashgan ma’naviy borliqning xususiyatlarini asosan ruhshunoslik fani o‘rganadi. Ma’naviy borliqning bu ko‘rinishi hozirgacha ong haqida fanlarda, xususan falsafada nisbatan kam tadqiq qilingan, tadqiq qilingan bo‘lsa ham, unga ko‘proq, bevosita yondashib kishi ongidagi jarayonlarni uning xatti - harakatlaridan kelib chiqib izohlaganlar. Lekin individ ongini bilvosita o‘rganishga kirishgan bir qator fanlar, xususan, ruhshunoslik fani keyingi vaqtlarda ma’lum yutuqlarga erishish bilan bir qatorda bu sohada ko‘pgina qiyinchiliklarga ham duch kelmoqda. Shulardan biri ongning real mavjudligi masalasi bo‘lib unda bir tomondan, ong jarayonini individ miyasi va asab sistemasidagi tabiiy va biologik jarayonlardan ajralgan holda o‘rganish mumkin emasligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan ong ma’naviy hodisa bo‘lganidan, uning moddiy narsalar sifatida tadqiq qilib bo‘lmayotganligidir. Shu bilan birga, ong jarayonlari haqida fikr yuritishning murakkabligi yana shundaki, ularni tilda, nutqda to‘la berib bo‘lmaydi. Chunki miyada ongli jarayonlardan tashqari hali anglanmagan ong osti va ongsizlik jarayonlari ham kechadi. Individuallashgan ma’naviy borliq shu sababli faqat individ ongi, ong jarayonlarigina emas, balki mana shu hali anglanmagan ong osti va ongsizlikni ham o‘z ichiga oladi.Sof ma’naviy borliqning o‘zi mavjud emas. Sof ma’naviy borliqni e’tirof etish idealizmga olib boradi. Ma’lumki obyektiv idealizm vakillaridan biri Platon Aflotunning qarashicha, moddiy borliqdan alohida unga bog‘liq bo‘lmagan holda yaxshilik, haqiqat, go‘zallik va shu kabi “g‘oyalar dunyosi” obyektiv mavjud emish. Platon bunda obyektivlashgan ma’naviy borliqning o‘ziga xos ba’zi xususiyatlarini mutlaqlashtiradi, bo‘rttiradi va shu asosida ularni idealistik tushuntiradi. Platon o‘z fikrini isbotlash uchun misol keltiradi: masalan, to‘quv mokkisi buzilgan yoki yo‘qolgan taqdirda ham u to‘g‘risidagi fikr doimo yashayveradi va qayerda mokkiga ehtiyoj tug‘ilsa bu g‘oyadan kishilar foydalanaveradi. Platonning bu fikridan ma’naviy borliq tabiiy borliqqa, inson borlig‘iga bog‘liq bo‘lmagan holda ulardan mustaqil mavjud, degan xulosa kelib chiqmaydi. Aksincha, ma’naviy borliq moddiy borliq bilan birgalikda bir butun borliqni tashkil etishi ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun ham, falsafa borliqning hamma shakllarini va ko‘rinishlarini ularning ichki o‘zaro bir-birlari bilan aloqadorlikda, o‘tishda, bog‘lanishda, bir-birlariga ta’sir va aks ta’sirda olib o‘rganadi va tushuntiradi. Masalan, individuallashgan va obyektivlashgan ma’naviy borliqning birgalikdagi ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan axloqiy-ma’naviy prinsiplar, huquqiy-tartibot normalari, ideallar, go‘zallik, adolat, yoshlik, insoniylik kabi ma’naviy qadriyatlar insoniyat hayotida ayniqsa ijtimoiy olam tizimida muhim rol o‘ynaydi. Bunda individuallashgan ma’naviylik, yakka individ shaxsining

ma'naviy dunyosini belgilasa, obyektivlashgan ma'naviylik bir butun, jamiyat ma'naviy hayotini belgilaydi.
Borliqning yana bir shakli – bu ijtimoiy olamdir. Ijtimoiy olam individual yakka shaxs va jamiyat borlig'ining birligidan iborat borliqdir. Ijtimoiy olam deyilganda individual yakka shaxs va jamiyat hayotining hamma tomonlari emas, balki ularning bir butun moddiy hayoti tushuniladi. Jamiyatning moddiy hayoti esa kishilarning o'z hayotlari jarayonida ularning irodalariga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish munosabatlaridan, bu ishlab chiqarish munosabatlarining jamini o'z ichiga olgan jamiyatning iqtisodiy tizimi, real bazasidan iborat bo'ladi. Jamiyatni dialektik, materialistik tushunishga ko'ra, moddiy ishlab chiqarish usuli, umuman hayotning sotsial ijtimoiy, siyosiy va ruhiy jarayonlariga sabab bo'ladi. Kishilarning ongi ularning borlig'ini belgilamaydi. Aksincha, ularning ijtimoiy borlig'i ijtimoiy onglarini belgilaydi. Demak, ijtimoiy olam deganda materialistik falsafada bir butun jamiyatning moddiy hayotini moddiy ne'matlar ishlab chiqarishi hamda ishlab chiqarish jarayonida kishilar kirishadigan moddiy munosabatlarni tushunamiz. Ijtimoiy olam ijtimoiy ong bilan chambarchas bog'liqdir. Ular bir butun jamiyat hayotining ikki moddiy va ma'naviy tomonlarini tashkil qiladi. Bu masala jamiyat to'g'risidagi mavzuda to'laroq ijtimoiy ong bilan birlikda yoritiladi. Shuni aytish kerakki, borliq muammosini falsafiy tadqiq qilish uning substantsiya muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.Substantsiya deyilganda falsafada dastlabki vaqtlarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun dunyodagi barcha predmet va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsa tushunilgan. Masalan, qadimgi davr materialistik faylasuflar suvni, havoni, apeyronni, olovni, atomlarni, ya'ni moddalarning biron turini substantsiya, deb tushunganlar. O'rta asr Sharq falsafasi namoyondalari Al-Kindiy, Ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd o'z falsafiy qarashlarida substantsiyani hamma narsaning moddiy asosi va ularning mohiyati, deb qaraganlar.
Idealizm vakillari substantsiya, deb butun mavjudlikning asosi bo'lgan g'oyani, ruhni yoki subekt ongi va shu kabilarni tushunadi. Masalan, qadimgi yunon mutafakkirlaridan Pifagor substantsiya, deb sonlarni tushunadi. Platon esa g'oyani substantsiya deb qaraydi. XVII asrda yashagan golland faylasufi B.Spinoza esa substantsiya, deb o'z o'zining sababchisi bo'lgan narsani tushunadi. Uning qarashicha, ko'lam va tafakkur ana shu substantsiyaning atributlaridir. Nemis klassik falsafasining vakili I.Kant substantsiya "u shunday bir doimiy narsaki, faqat unga nisbatangina hamma vaqtli hodisalarni aniqlash mumkin" – deydi. I.Kant fikricha, substantsiya – tajriba ma'lumotlarini sintezlashtiruvchi tafakkurning aprior shaklidir.
Gegel esa "mutlaq g'oya", "mutlaq ruh"ni substantsiya, deb qarab, uni narsalarning muhim o'zgaruvchan, rivojlanuvchi tomonlarning yaxlitligidir, mazkur tomonlarda bu yaxlitlik ularning mutlaq inkor etilishi, ya'ni mutlaq quvvat va shu bilan birga, har qanday mazmunning boyligi sifatida ochiladi, – deydi. U substantsiya "mutlaq g'oyaning rivojlanish jarayonida muhim bosqich", "har qanday haqiqiy taraqqiyotning negizi", deb ta'riflaydi. Gegelda substantsiya ayni bir vaqtda ham rivojlanuvchi g'oya - ibtido, ham subyekt, ya'ni o'z-o'zini tuzdiruvchi asos, ham shu rivojlanishning momenti sifatida qaraladi.
Umuman, falsafani substantsiya muammosini o'rganishda insonni qurshab turgan dunyoning asosi nima yotadi? Uning asosida bir narsadanmi yoki ko'p narsadan tashkil topganmi? degan savollarga turlicha javob berishadi. Faylasuflarning bir qismi bizni qurshab turgan dunyoning birinchi asos bor deb bilishgan. Ularning bu yagona birinchi asosi to'g'risidagi qarashlari monizm ta'limotini keltirib chiqargan. Lekin monizm ta'limoti dunyoning birinchi asosi nima? Materiyami yoki mutlaq g'oya ("mutlaq ruh"), ongmi? degan savolga bergan javoblariga ko'ra ikki xil bo'lgan. Dunyoning birinchi asosi materiyadir deb qarovchi monistik ta'limot materialistik monizm deyiladi. Dunyoning birinchi asosi "mutlaq g'oya", "mutlaq ruh" yoki ong deyuvchi monistik ta'limot idealistikmonizm, deb atalgan.Faylasuflar orasida dunyoning asosini bir narsa emas balki ikki narsa ham g'oya ruh, ham materiya tashkil qiladi deyuvchilar ham mavjud bo'lgan. Masalan, yangi zamon falsafasida fransuz faylasufi Rene Dekart substantsiya muammosini qarab chiqar ekan u dunyoning asosida ham materiya ham g'oya yoki ruh yotadi deydi. Bunday qarash dualizm deb ataladi. Dualizm ta'limotining tarafdorlari dunyoning asosiga bir-biriga bog'liq bo'lmagan ham materiya ham ruh

g‘oyani qo‘yishib, ular o‘rtasida hech bir umumiylik yo‘q deyishadi. Dualizm ta’limoti odatda teologik va ilmiy tafakkurning o‘zaro sig‘ishmasligining o‘ziga xos ifodasi sifatida paydo bo‘ldi.
Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada borliq, uning mohiyati, tarkibiy tuzilishi, vujudga kelishini va rivojlanishi haqida imkoniyat doirasida bayon qilishga harakat qilindi. Olamning tuzilishi va rivojlanishi uzluksiz jarayon bo‘lib, u doimo o‘zgarib, takomillashib boradi. Eski tasavvurlar inkor etiladi, ularning o‘rnini yangi tasavvurlar egallab boradi. Borliq haqidagi bu bilimlar esa bizga olamni falsafiy jihatdan kengroq anglashimizga yordam beradi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Davronov Z., Shermuhamtdov N., Nurmatova M., Husanjv B. Sultonova A., - Falsafa. T.: TMI, 2019.
2. Turaev B.O.- Olam va odam. Dunyoni falsafiy tushunish Falsafa. – T.: 2000. 144-168-betlar.
3. Turaev B. - Borliq. Samarqand-Toshkent.: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. 2022
4. Shermuhamtdov N.- Falsafa. 2-nashr.T.: Noshir, 2020
5. Shermuhamtdov N.A. -Borliq va rivojlanish falsafasi.- T.: Noshir, 2016

## TOURISM AS ONE OF THE IMPORTANT FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

**Doston Ashurov-**
**The Republic of Uzbekistan**
**Navoiy state pedagogical institute, Usbekistan**

**Abstract.** The article analyzes the policy of Uzbekistan aimed at modernizing the tourism sector for the broad development of entrepreneurship structures, and also contributes to the widespread attraction of foreign and domestic tourists, the rapid development of modern infrastructure hotel, transport, household, food, services

**Keywods:** tourism, entrepreneurship, hotels, motels, cultural monuments, restaurants, retail stores, gastronomic, pilgrimage, ecotourism.

**INTRODUCTION**

The development of tourism activities as a necessary element of the country's economic development has been considered since the first years of independence. By Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 27, 1992 No. UP-447, the National Company "Uzbektourism" was established to implement the state policy in the field of tourism (1).
In May 1993, with the participation of ministers of trade and transport from 8 countries: Azerbaijan, Armenia, Georgia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan and Uzbekistan, the Brussels Declaration was adopted in Brussels, which laid the foundation for the creation of a transport corridor from Europe through the Black Sea, the Caucasus, the Caspian sea with access to the countries of Central Asia. The continuation of the launched large-scale project was the opening of a trade route between Central Asia and Iran (2).

**LITERATURE REVIEW**

The Government of Uzbekistan has repeatedly considered the issues of widely attracting foreign tourists, and for this purpose, in order to attract tourists to the rich heritage of the Uzbek people and restore international tourism along the Great Silk Road, by Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 2, 1995 No. UP-1162, a draft national program "Meros" was proposed on the restoration of archaeological, historical and cultural monuments in the ancient cities of the Great Silk Road. Special open economic zones for international tourism began to be created in the cities of Samarkand, Bukhara, Khiva and Tashkent.
In the Bukhara region, 829 objects of material and cultural heritage were included in the UNESCO World Heritage List - these are the ancient settlements of Paikent, Varakhsha and Vardonze, the complexes of Chor-Bakr and Akhauddin Nakshbandi, the minaret in Vobkent and the mausoleum of Chashmay Ayub and others (3). In the Navoi region, 437 objects of material cultural heritage were taken under state protection, of which 340 are archeological monuments, 70 are architectural monuments, and 22 are monumental art (4).

By order of the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, on the basis of the abolished national company "Uzbektourism", the State Committee for the Development of Tourism was established, which was entrusted with the tasks of mandatory certification of tour operator and hotel services, including the establishment of a classification of hotels and motels of various organizational and legal forms, licensing of tour operator activities and others. Since April 1, 2017, the procedure for obtaining visas has been simplified for tourists from 15 states. The introduction of electronic visas and the "green corridor" customs control system for foreign tourists simplified the procedure for arrival, departure, movement within the country.

**RESEARCH METHODOLOGY**

PQ-3217 of the President of the Republic of Uzbekistan decision amusement parks, culture objects (national museums, galleries), tourist areas helped to establish and expand clusters. (5). As a result, the number of entrepreneurs increased by 2.5-3.5 times (6).A number of works were carried out to create and use existing opportunities in the regions, measures were developed to create tourism clusters for the purpose of broad development of entrepreneurship. In particular, organizational issues related to the increase in the free tourist zone “Kadimiy Bukhara” in the city of Bukhara, the free tourist zone “City of Samarkand” in the city of Samarkand and the implementation of projects for the construction of small tourist zones are being resolved. Hotels, cultural, recreational, shopping, entertainment and other important tourist facilities are being created in new small tourist zones in the regions.

According to statistics, for every 20 people who visit the country as tourists, 1 person is employed in the tourism sector and 2 people are dependent on tourism, which contributes to the creation of new jobs in other sectors of the economy.

**ANALYSIS AND RESULTS**

However, for the wide attraction of foreign tourists, not only the services provided for foreigners, but also the state of the air and water basins have an important place. The ecological state of the Bukhara and Navoi regions, where strategically important mining, chemical, oil refining, gas production enterprises are located, have a negative impact on the environment. Emissions of phenols and oil products into the water resources of the region exceed the MPC by 2-3 times, especially high content of oil products in the soil is observed in the area of Mubarek settlement and on the territory of Karaulbazar station. In the production processes of the Navoi region, 898.528 thousand tons of harmful substances are produced (6).

But despite the fact that there are common problems for the regions, significant work has been done in recent years to attract tourists to the studied areas. In the city of Bukhara, in five historical areas, through an open competition among investors, attracting domestic and foreign architects, new hotels, restaurants, and retail shops are being built. In 2022, the number of tourists to the Bukhara region amounted to 3.5 million, including 2.9 million domestic tourists and 550 thousand foreign tourists (7). It was planned not only to equip the centers of the regions, but also to create conditions for the development of gastronomic, pilgrimage, ecotourism. For this, the territories around the lake "Agutma" of the Shafirkan district, the "Visit Center", the ecological center "Jeyran" were selected. Conditions for hunting, beach and sports tourism began to be created on Lake Korakir.

A summer recreation area was built on the territory of the Tudakul reservoir of the Kyzyltepa district on an area of eight hectares. Major construction work was carried out on the site of the historical complex Chashma of the Nurata region to the Langar-Khatyrchinsky complex, at the Sarmyshsay tract of the Navbakhor region. To create living conditions in the foothills, desert areas, cottage houses were built, which became popular among domestic and foreign tourists.

**CONCLUSION**

The government has set a goal to create at least 200 thousand new jobs in tourism and related industries. To do this, at least one large project with a cost of $20 million must be launched in each region by the end of the year. The types of tourism services have grown significantly: photo services, insurance, information, finance, banking. The number of tourist goods in the form of perfumes, household appliances, clothing and souvenirs, and various consumer goods is increasing.

Thus, the development of the tourism sector is promoted not only by strengthening economic, social, cultural ties between countries, but also promotes broad development of entrepreneurship, revival of national crafts.

## LITERATURE REVIEW


1. Gazette of the Supreme Council of the Republic of Uzbekistan, 1992, No. 9, Art. 375.
2. Timofeeva, V. B. (2016). Cultural and economic significance of the Great Silk Road in the modern world. Bulletin of the St. Petersburg State Institute of Culture, (2 (27)), 87-90.
3. New Uzbekistan February 11, 2023
4. New Uzbekistan February 11, 2023
5. Decision of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3217 of August 16, 2017.
6. Aminova, A. M. (2022). The Lower Reaches Of Zarafshan Region: Socio-Ecological Problems And Ways Of Their Solution.*Journal of Positive School Psychology*,*6*(7), 2772-2780.
7. Aminova, A. M. (2023). Features Of Reform And Development Of Agriculture In The Republic Of Uzbekistan (Using The Example Of The Bukhara Region).*BioGecko*,*12*(4), 510-515.
8. Аминова, А. М. (2019). Проблемы и особенности реформирования в сельском хозяйстве Узбекистана.*Academy*, (5 (44)), 32-33.
9. Аминова, А. М. (2017). Из истории формирования промышленного потенциала Навоийской области.*Молодой ученый*, (10), 340-342.
10. Аминова, А. М. (2018). Историографическое наследие горной промышленности Навоийского региона второй половины XX-начала XXI века.*Academy*, (5 (32)), 29-30.
11. Аминова, А. М. (2020). СОЗДАНИЕ ТЕХНОПАРКОВ В НАВОИ-НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РЕГИОНА.*Academy*, (12 (63)), 36-37.
12. Аминова, А. М. (2021). ЗАРАФШОН БЎЙИДА САНОАТ ШАҲАРЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *4*(7).
13. Norqobilov, M. (2020). PHILOSOPHICAL AND LOGICAL ANALYSIS OF SOPHISTIC THINKING IN THE WORK "SHARH AL-AQEED ANNASAFI" BY THE GREAT THINKER SADEDDIN TAFTAZANI. *The Light of Islam*, *2020*(3), 133-140.
14. Norqobilov, M. X. (2020). Philosophical interpretation of socio-political issues in Sa'deddin Taftazani's "Sharh al-aqeed". *EPRA International journal of Research & Development (IJRD) Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal ISII. F. Value*, *1*, 176-179.
15. Norqobilov, M. X. (2022). SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "SHARH AL-AQOID" ASARIDA "ISHBOSHILARGA ITOAT" MASALASI JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(1), 865-873.
16. Norqobilov, M. (2021). THE NOTIONS OF FREEDOM OF THE WILL AND ETHICAL (MORAL) CHOICE IN THE WORK "SHARH AL-AQEED" OF SADEDDIN TAFTAZANI. *The Light of Islam*, *2021*(1), 71-81.
17. Norqobilov, M. X. (2022). SA'DUDDIN TAFTAZONIYNING "SHARH AL-AQOID" ASARIDA "ISHBOSHILARGA ITOAT" MASALASI JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(1), 865-873.
18. Norqobilov, M. K. (2022). Freedom of Will and Moral Issues in the Views of Sa'uddin Taftazani in a Historical Context. *International Journal of Early Childhood Special Education*, *14*(6).
19. Norqobilov, M. X. (2020). THE IMPORTANCE OF SOCIAL ENVIRONMENT OF TEMUR AND THE TEMURIANS PERIOD AND THE PERIOD HE LIVED IN THE SCIENTIFIC WORK OF SA'DUDDIN TAFTAZANI. *Theoretical & Applied Science*, (3), 319-322


## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI O'TISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI


**Baxranova Xumora Sadirdinovna**
**Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti**

**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-"A" guruh talabasi (3)**
**Ilmiy rahbar: NavDPI "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi**
**katta o'qituvchisi: f.f.f.d. (PhD) M.X.Pardayeva**
**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'tishda qo'llaniladigan ba'zi bir usullar haqida fikr yuritiladi
**Kalit so'zlar**: maktab, boshlang'ich sinflar, ot soz turkumi, o'yin uslubi,suratlar, ko'rgazmalar, sifat so'z turkumi,son so'z turkumi
**Аннотатсия.**Статия об исползавании некоторых методов на уроках родного языка в началных классах
**Ключевые слова**: школа,началное класса,имя существителъное игровой метод, картина, наглядности, имя прилагателъное,имя числителъное
**Annotation.**There is an idea about.Some ways,which is used during the teaching mother tongue lessons for the primary schools in this article.
**Key words:** Shohool,primary schools,subject,images,adjective,game method,numeral exhibitions

Maktab davri har qanday insonning hayotida muhim o'rin tutadigan davrdir. Bola maktabga hali go'daklik paytida, ya'ni 6-7 yoshida keladi. Uni hali shakl berilmagan loyga o'xshatish mumkin.Undan qanday badiiy jihatdan go'zal bo'lgan san'at asari, yoki beo'xshov idish yaratish esa unga shakl beruvchi kulollar,ya'ni o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog'liq.

Maktab davri uch bosqichga bo'linadi:1-bosqich: kichik maktab yoshi davri bo'lib, 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich deganda biz 5-9 sinflarni nazarda tutamiz.Nihoyat,so'nggi bosqich o'z ichiga 9-11 sinflarni kiritadi.Har bir bosqichdagi o'quv jarayoni keyingisidan o'z o'quv dasturlari bilan farq qiladi. Bularning orasida boshlang'ich ta'lim davri alohida o'rin tutadi.Yuqorida aytib o'tilganidek,bolalar maktabga ilk kelgan paytlarida hali hech narsani bilmaydigan holda keladilar.Ular kelajakda qanday inson bo'lishi esa ko'p jihatdan ularning boshlang'ich sinflarda o'qish paytida olgan bilimlari sifatiga bog'liq.Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki,bu paytda berilgan bilim bolalarning kelajakda bilimdon inson bo'lishlariga qo'yilgan poydevordir.Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkazilgan dars mashg'ulotlari o'zgachaligi bilan farq qiladi.Bu sinflar o'quvchilari darsga ajratilgan 45 daqiqa vaqtni bir maromda o'tkazishga tayyor bo'lmaydilar.Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar iloji boricha o'quvchilar iloji boricha zerikib qolmasliklarini nazorat qilishlari lozim ko'riladi. Bu sohada tajribasi katta bo'lgan muallimlar bunday hollarni oldini olish uchun ko'p hollarda darsni qismlarga bo'lishadi va o'qishdagi bir xillikdan qochishga erisha oladilar.Shu narsa ma'lumki, bu davrda o'quvchilar hali bolalik dunyosini to'liq tark etmagan bo'ladilar.Shuning uchun ularning tabiatiga hali o'yinqaroqlik va bolalarga erkalikka moyillik sezilib turadi.Ular hali maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rnatilgan tartib-qoidalar ta'siridan halos bo'lmagan bo'lishadi.O'qituvchi bu bolalarga bilim berish jarayonida shu jihatni ko'zdan qochirmasligi lozim.Bundan tashqari,o'qituvchi bolalar tabiatini juda yaxshi biladigan psixolog bo'la olishi lozim.Chunki maktabga tabiati turlicha bo'lgan o'quvchilar keladilar.O'qituvchining vazifasi esa ularning tabiatiga bir xilda ta'sir qila olishga erishishdirUshbu maqsadga erishish uchun o'qituvchi turlicha usullarni qo'llaydi.Boshlang'ich sinflarda, asosan quyidagi fanlar o'tiladi:o'qish va yozish, matemateka,tabiatshunoslik,jismoniy tarbiya,rasm darsi. Ko'rib turganimizdek, darslarning turi ko'p emas.Bu esa o'quvchilarning e'tiborini ushlab turishda ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.Shunday paytlarda o'qitishning o'zgacha usullarini qo'llay bilish juda muhimdir.

Malakali o'qituvchi bunday usullardan bir qanchasini o'zlashtirgan bo'ladi.Boshlang'ich sinflarda keng tarqalgan usullardan biri bu o'yinlardir.O'yinlarni har qanday dars turida qo'llanishi mumkinligi ahamiyatga molikdir. O'yinlar ham jamoaviy,ham individual ham bo'lishi mumkin.O'yin uslubi darslardagi zerikarli bir xillikning oldini olishga yordam beradi,o'quv jarayonida musobaqalashishi ruhini olib kirishi, o'quvchilarni jarayonda qiziqish bilan ishtirok etishga bo'lgan intilishini kuchaytirishga olib keladi.Yuqorida sanab o'tilgan fanlar u yoki bu jihatdan bir-biri bilan bog'langan bo'ladi,ayniqsa o'qish va yozish darslari.[1]

Bu mashg‘ulotlar o‘quv dasturidagi eng muhim fanlar hisoblanadi. Ular o‘quvchilar kelajakda chin ma’noda savodli inson bo‘lib yetishishlari uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladilar.Shuning uchun ham aynan shu darslarda o‘quvchilarning bor e’tiborlarini bir yerga jam qilib,o‘qishlarini nazorat qilib borish juda muhimdir.O‘qish darslarida o‘quvchilar so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganishsa, yozuv darslarida harflarni to‘g‘ri va chiroyli yozishni o‘rgatishadi.Shuning uchun ham ularni zeriktirmaslik lozim.Buning uchun o‘qituvchi turli yordamchi usullardan unumli foydalanishi mumkin.Bular ko‘rgazmali qurollar,turli diafilm va videofilmlar,bolalarning e’tiborini torta oladigan boshqa narsalar bo‘lishi mumkin.Ona tili darslarida o‘qituvchi bolalarga ot so‘z turkumini tushuntirayotgan paytda turli o‘yinchoqlarni namoyish qilgan holda,ularning nomlanishini aytib,shu orqali o‘quv materiallarini o‘quvchilarga yetkaza olishi mumkin.Aynan shu maqsadda hayvonlar,ertak qahramonlarining suratlarini ko‘rsatish va o‘quvchilardan ularning nomini aytib o‘tishni so‘rashi mumkin.[2]

O‘quvchi bu topshiriqni mustaqil bajarish orqali dasturda ko‘zda tutilgan maqsadga erishish mumkin.Bunga o‘yin elementlari qo‘shilganda, o‘quvchini o‘quv materiallarini qabul qilishi yengillashadi. Keyinchalik ham bu masalada ikkilanish yuzaga kelganda o‘quvchi ko‘z oldiga o‘sha dars jarayonida ko‘rgan narsalarini keltiradi va natijada bu masalada xatolikka yo‘l qo‘ymaydi.Masalan, o‘qituvchi har xil mevalarning tasvirlarini ko‘rsatadi va o‘quvchilardan ularning nomlanishini aytishni so‘raydi. Xohishiga ko‘ra, u buni o‘quvchilarning har biridan alohida yoki ularni guruhga bo‘lgan holda amalga oshirishi mumkin. Namoyish qilinayotgan suratlar yorqin ranglarda, orqadagi o‘quvchilar ham ko‘ra oladigan kattalikda bo‘lishi kerak. Darsga qiziqishni orttirishga astoydil harakat qilgan o‘qituvchilar bu mevalarning o‘zini yoki ularning o‘yinchoq modellarini olib kelishlari mumkin. O‘quvchilar bu orqali ot nima ekanligini o‘zlashtiradilar. Bu misol orqali “nima?” so‘rog‘iga javob beruvchi, ya’ni jonsiz buyumlar nomlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. “Kim?” so‘rog‘iga javob bo‘luvchi otlarni tushuntirish uchun endi insonlarning suratlari namoyish qilinadi va ularda kimlar tasvirlangani haqida so‘raladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi “kim?” so‘rog‘i faqat insonlarga nisbatan ishlatilishini, hayvonlar va hasharotlarga nisbatan ishlatilmasligini aytib o‘tadi. Berilgan ma’lumotlarni mustahkamlash maqsadida “Kim hozirjavob” o‘yinini o‘tkazish mumkin: o‘qituvchi uchta qatordan bittadan o‘quvchini sinf doskasi yoniga chaqirib, ularning oldiga buyumlar nomini navbati bilan bittadan aytib qo‘yadi. Aytilgan nomlar takrorlanmasligi lozim. Tutilib qolgan yoki avval aytilgan so‘zni takror aytgan o‘quvchi o‘yindan chetlatiladi. Eng so‘ngida yakka qolgan o‘quvchi g‘olib sanaladi, shu jumladan, u chiqqan partalar qatori ham. Yutib chiqqan bola yoki qiz albatta rag‘batlantirilishi lozim, bu jihat sinf jamoasida g‘alabaga bo‘lgan intilishni so‘ndirmaslikka xizmat qiladi. Bolalar nafaqat yutishga harakat qiladilar, balki o‘sha dars materialini to‘liq o‘zlashtirishga erishadilar.[3]

Ot so‘z turkumidan tashqari, sifat so‘z turkumining o‘ziga xos jihatlarini tushuntirish uchun ham turli buyumlar, ertak qahramonlari va jonivorlar tasvirlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, ertak qahramonlarini olsak. Bolalar bu yoshda ertaklarga juda qiziqadigan bo‘ladilar. Ularning har birining o‘z sevimli ertagi va shu ertak ichida eng yoqtirgan qahramoni bo‘ladi. Sifat so‘z turkumining “qanday?” so‘roqlarini tushuntirishi uchun o‘qituvchi shu qahramonlar suratini o‘quvchilarga ko‘rsatadi. U o‘quvchilardan suratni tasvirlab berishni so‘raydi. O‘quvchilar to‘g‘ri javob berganlaridan so‘ng o‘qituvchi ular bilan birga shu nomdagi ertak mazmuniga to‘xtab o‘tish mumkin. Odatda sinflarda bunday ertaklarni yoddan biladigan o‘quvchilar albatta topiladi. O‘qituvchi shundan keyin suratda tasvirlangan qahramonning tashqi ko‘rinishi haqida to‘xtab o‘tadi va o‘quvchilardan uni tasvirlab berishni so‘raydi. O‘quvchilar jo‘r bo‘lgan holda yoki yakka-yakka, navbati bilan rasmdagi bir sifatni aytadilar. O‘qituvchi esa ularni aytaganlari orasidan sifat so‘z turkumining “qanday?” “qanaqa?” so‘roqlariga javob beruvchi so‘zlarni doskaga yozib boradi. Suratni ta’riflash yakunlangach, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan, yuqoridagi so‘roqlarni qo‘llagan holda qayta takrorlaydi, va albatta, bu jarayonda o‘z faolligi bilan boshqa sinfdoshlaridan ajralib turgan o‘quvchilarni rag‘batlantirishni ham unutmaydi. Ona tili darslarida bulardan tashqari yana boshqa so‘z turkumlarini ham ko‘rib chiqish mumkin. Son so‘z turkumini tushuntirishda turli narsa buyumlarning miqdorini tushuntirishga harakat qilish lozim bo‘ladi. Albatta, buning uchun matematika darslaridagi ma’lumotlarni yodga olishga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi shundan so‘ng son

so‘z turkumiga oid so‘roqni doskaga yozadi “qancha?” “nechta?” so‘roqlari bilan tanishtirgach, o‘qituvchi ularga ikkita ko‘rgazmani ko‘rsatadi, ularda aytaylik birida bitta meva surati, ikkinchisida esa aynan shu mevaning ko‘plikdagi rasmi tasvirlangan bo‘ladi. Misol keltirishda mevalardan boshqa buyumlarni ham misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Ularga nisbatan so‘roq beriladi: “nechta meva bor?” Suratdagi miqdorga qarab, o‘quvchilar javobni aytadilar. Buning natijasida o‘quvchilar ushbu turkum haqidagi ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtirshga erishadilar. Ona tili darslarida bu keltirilgandan boshqa usullardan ham unumli foydalansa bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Qosimova K, Matjonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T: Noshir, 2009. – 163 b.
2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh, Mamatova G, Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. – T: TDPU, 2009. – 70 b.
3.A.G‘ulomov.M.Qodirov,M.Ernazarova. Ona tili o‘qitish metodikasi-T: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012,108 b.


## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QITISHNI TASHKIL ETISHNING YORDAMCHI SHAKLLARI VA ULARNING DIDAKTIKADA RIVOJLANISHI


**Begmetova Ruxsora Xamro qizi**
**Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim fakulteti**
**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-“G” guruh talabasi (3)**
**Ilmiy rahbar: NavDPI Boshlang‘ichta`lim kafedrasi**
**katta o‘qituvchisi: f.f.f.d. (PhD) M.X.Pardayeva**



**Резюме** Ushbu maqolada dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilar o‘quv faoliyatini tashkil etishning zamonaviy turlari, mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakllari, o‘qitishning yordamchi tamoyillari, aqliy mashqlar, maktabdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etishning o‘ziga xos muhim metodlari yoritib berilgan

**Резюме.**В данной статье освещены вопросы соврмеменных видов организации учебной деятельности учащихся на уроках, древних форм и вспомогательных принципов обучения, приведены умственные упражнения, методы организации внеклассных форм обучения.


Hozirgi vaqtda dunyo o‘zining tarixida muhim burilish davrini kechirmoqda. Kommunikatsiya vositalari inqilobi, axborotning toshqindek ortib borishi va dunyodagi o‘zgarishlar bizning yashash, tafakkur qilish va muloqat tarzimizni o‘zgartiradi. Demak, zamonaviy maktab oldida yoshlarni umuman yangi shart-sharoitlarda yashashga o‘rgatish vazifasi turibdi. Asosiy vazifa bilimlar yig‘indisini to‘g‘ridan-to‘g‘ri berishdan iborat bo‘lgan an’anaviy o‘qitishning esa insonni yuksak texnologiyalar, yuqori darajada axborotlashgan va tez o‘zgaruvchan hayotga tayyorlashga imkoniyati edi.

Ko‘pchilik olim va pedagog novatorlar an’anaviy o‘qitish shakl va usullari hayotning zamonaviy talablariga mos kelmasligini anglab yetgan holda XX asrning ikkinchi yarmida muqobil usullarni izlashni boshlashdi va natijada interfaol o‘qitish yondoshuvi yuzaga keldi.

Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta’limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta’limni tashkil etishga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Ayni vaqtda ta’limning quyidagi shakllari ajratib ko‘rsatiladi: individual, individual-guruhli, sinf-dars, leksion-seminarli va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktab va maktabdan tashqari. Ular o‘quvchilarni qamrab olishi, o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o‘qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko‘ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi:

1) individual;
2) Sinf-darsli;
3) Leksion-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo‘lgan o‘qitishning eng qadimgi shakli ta’limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan.

Yozuv paydo bo‘lishi bilan qavm boshlig‘i turli belgilar yordamida o‘zining tajribalarini yoshlarga o‘rgatgan. O‘qituvchi va o‘quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko‘rsatish mumkin. O‘qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o‘rta asrlarda yagona usul bo‘lgan, undan ba’zi mamlakatlarda XVIII asrgacha keng foydalanilib kelingan.

Individual ta’lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning usutunligi o‘quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to‘la individualashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat. Individual ta’lim o‘qituvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo‘lishini talab etadi.

Ta’limning individual guruhli shaklidagi Yevropada XVI asrda keng foydalana boshladilar. Markaziy Osiyo davlatlarida bu usuldan qadim davrlarda ham foydalanganlar. Bunga Avesto davri misol bo‘la oladi, bu davrda o‘quvchilar uchun asosiy o‘quv qo‘llanma zardushtiylikning muqaddas manbayi “Avesto” (eramizdan avvalgi VII-XVI asrlar) bo‘lib kelgan. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o‘qitish jamoali o‘qitish bilan birga olib borilar edi. O‘qituvchi “Avesto” kitoblaridan birini ochadi va o‘quvchilar navbatma-navbat kelib ovoz chiqarib o‘qiydilar, keyin esa hamma birgalikda o‘qilganni takrorlaganlar, mashqlarni maxsus taxtachalarda yozganlar. Aqliy mashqlar o‘qituvchining o‘quvchi bilan erkin suhbati davomida olib borilgan. Jismoniy tarbiyalash individual va jamoali mashg‘ulotlar shaklida amalga oshirilgan. Jismoniy tarbiyaning maqsadi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashdan iborat bo‘lgan. Otda yurish, ov qilish, qilichdan foydalanishni bilish, suvda suzish, yugurish, nayza otish va shu kabilar harbiy tayyorgarlikning majburiy turlari hisoblangan. Ta’lim olish jarayoni kun chiqqandan kun botgungacha davom etgan, uy vazifalari mavjud bo‘lmagan.

XI asrdayoq Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tadbiri manzil” nomli ilmiy asarining maxsus “Amuzish va parvarishi modrasas farzand” (“Bolalarni maktabda o‘qitish va tarbiyalash”) bo‘limida o‘quvchilarga jamoali o‘qitish haqida quyidagi tavsiyalarni beradi:

agarda o‘quvchilar birgalikda o‘qisalar, ular zerikmaydilar, fanni o‘rganishga qiziqish kuchayadi; ularda bir-birlaridan ortda qolmaslik uchun o‘zaro musobaqalashish istagi rivojlanadi, ular bolaning o‘qishi yaxshilanishiga yordam beradi.

o‘zaro suhbatlarda o‘quvchilar kitobdan o‘qish yoki kattalardan eshitgan qiziqarli ma’lumotlarni bir-birlariga aytib beradilar;

bolalar birgalikda yig‘ilganlarida bir-birilari bilan do‘stlashadilar va bir-birlarini hurmat qiladilar; ular faqatgina musobaqalashmaydilar, balki bir-birlariga o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda yordam beradilar; bu bilan bolalar mag‘rurlanadilar, bir-birlaridan yaxshi odatlarni o‘rganadilar[2]

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) “Bilim olish yo‘lida o‘quvchiga maslahatlar” nomli o‘zining ilmiy asarida dars olib borish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Uning ko‘p yillik dars o‘tish tajribalari asosida mazkur ilmiy asar yaratilgan va XX asrgacha o‘ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida foydalanilib kelingan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. O‘qituvchi maktabda darsga tushinish va o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan o‘quv materiallarini tanlab olishi, darsda o‘rganilagandigan materiallarni tushuntirib berishi kerak. O‘quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o‘zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo‘lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi[3]

XV asrda jamoali o‘qitishni tashkil etish g‘oyasini Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek davom ettiradi. Mutafakkir o‘zining madrasalarida individual mashg‘ulotlar tizimini bekor qiladi va “jamoa” sinf-dars tizimiga yaqin bo‘lgan shaklini joriy qiladi. Umumiy ma’ruzani 50-70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda o‘z sohasida mashhur bo‘lgan olim mudarris (o‘qituvchi-professor) o‘qiydi, amaliy mashg‘ulotlarni esa 10-15 kishidan iborat kichik guruhda kichik mudarris (o‘qituvchi) olib boradi. O‘qitishning muhim metodlari munozara va tortishuvlar hisoblangan. Samarqand madrasasida ma’ruzalarni allomaning o‘zi va qozizoda Rumiy, Mavlono Muhammad, Ali Qushchi, Avaz Kirmani kabi va boshqa mashhur olimlari o‘qiganlar. Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek va uning izdoshlari tomonidan matematika, metafizika, astronomiya, georafiya, tarix fanlaridan yangi darsliklar yaratildi, bu darsliklar oddiy va tushunarli shaklda yozilgan. Lekin “jamoa” usulida ham o‘zining salbiy tomonlari bo‘lgan. Jamoa usulida XX asr maktabida mashhur bo‘lgan guruhli

laboratoriya metodida bo‘lgani kabi o‘zlashtirishni individual xususiyati hisobga olinmagan. Yaxshi o‘zlashtirmagan ba’zi shogirdlar ham ilg‘orlar qatorida bir qo‘llanmani o‘rganishdan boshqasini o‘rganishga o‘z-o‘zidan o‘tavergan, kerakli bilimni egallay olmagan holda madrasani bitirib chiqadilar[2]

Individual guruhli shaklining mazmuni mashg‘ulotlarni o‘qituvchi bir o‘quvchi bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishidan iborat edi. O‘qituvchi navbat bilan har bir o‘quvchidan o‘tilgan materialni so‘raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o‘z ishlari bilan shug‘ullanadilar. O‘qishni bunday tashkil etishda bolalar mashg‘ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo‘lgan.

XV va XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi. Ushbu o‘zgarishlar bolalarga ta’lim berishning ommaviy shakli yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Ulardan biri bolalarni guruhli (jamoali) ta’lim sanaladi. U g‘arbiy Rossiya (hozirgi Belorussiya va Ukrainaning g‘arbiy qismlari) birodarlik[2] maktablarida ilk bor qo‘llanilgan va o‘qish sinf-darsli shaklining asosi bo‘lib qolgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan “Buyuk didaktika” asarida nazariy jhatdan asoslab berildi va ommaviylashtirildi. Olim pedagogikaga o‘quv yili, o‘quv kuni, dars, mashg‘ulotlar orasidagi tanaffus, o‘quv ta’tillari kabi tushunchalarni kiritdi. quyosh it yulduzlari turkumida bo‘lganida bolalarni dam olishga yuboradilar (“ta’til” lotinchada – kunlarning eng qizigan davri deganini bildiradi).

Sinf-dars tizimining mazmuni o‘quv ishlarini tashkil etish o‘ziga xos shakli sifatida quyidagilarda iborat:

- bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar sinfni tashkil etadi. Bu sinf maktabda o‘qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;
- sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida, doimiy dars jadvali bo‘yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo‘ladi.;
- mashg‘ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;
- dars odatda bir fan yoki mavzuga bag‘ishlangan bo‘ladi, shu bois o‘quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;
- darsda o‘quvchilarning ishiga o‘qituvchi rahbarlik qiladi, u o‘z fani bo‘yicha o‘qish natijalari, har bir o‘quvchini alohida bilimini baholaydi va yil oxirida o‘quvchini keyingi sinfga o‘tishi haqida qaror qabul qiladi.

Sinf-dars tizimi K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantiriladi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi. K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog‘langan quyidagi uchta qismini ajratib ko‘ratadi:

ilgari o‘rganilgan bilimlar asosida yangi bililarni anglashni amalga oshirish va o‘quvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko‘rsatmani yaratishga qaratiladi. Darsning bu qismi K.D.Ushinskiyning fikricha darsga go‘yoki “eshik” hisoblanadi.

asosiy masalani hal etishga yo‘naltiriladi va darsning muhim, markaziy qismi hisobalanadi.

amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratiladi.

Darsni tashkil etish ilmiy asoslarini ishlab chiqishga A.Disterveg ham katta hissa qo‘shdi. U o‘qituvchi va o‘quvchining faoliyatiga taalluqli o‘qitish tamoyillari va qoidalari tizimini ishlab chiqdi, o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab berdi.

Ta’limning sinf-dars tizimi alohida o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarida uning afzallik va kamchiliklarini ko‘rsatib berdi.

Afzalliklari: yaxlit o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta’minlovchi aniq tashkiliy tizim, jarayonlarning oddiy boshqarilishi, muammoning jamoa bo‘lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati, o‘qituvchining o‘quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta’sir ko‘rsatishi,

ta'limning emotsionalligi (zero, o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma-ketligi. Kamchiliklari: tizimning asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi, o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdga qiyinchilikning yuzaga kelishi, katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.

**Foydalangan adabiyotlar:**


1.Анатомия педагогической мысли Узбекистана. – Москва, 1986.

2.М.Тохиров. Мирзо Улуғбекнинг педагогик қарашлари. – Тошкент, Фан, 1984.

3.Рахимов С.Р. Абу Али ибн Синонинг психологик-педагогик қарашлари. – Тошкент, Ўқитувчи, 1978, - 103-бет.


## YER RESURSLARINI OPTIMALLASHTIRISH: O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TARAQQIYOT KALITI


**Burxonova Ruxshona Zoir qizi,**

**Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi talabasi.**

**Xolmatov Bobir Toshpo'latovich. Katta o'qituvchi. Jizzax politexnika instituti**



**Аннотация:** Статья рассматривает вклад сельского хозяйства и сырьевых отраслей в экономику Узбекистана, выделяя основные проблемы, такие как недостаточная эффективность землепользования и деградация почвы. Предлагаются пять решений для улучшения ситуации, включая внедрение современных методов ведения хозяйства и развитие инфраструктуры для оптимального использования земельных ресурсов.



**Ключевые слова:** Узбекистан, сельское хозяйство, землепользование, экономика, проблемы, решения, развитие.



**Abstract:** The article explores the contribution of agriculture and raw material industries to Uzbekistan's economy, highlighting major issues such as inefficient land use and soil degradation. Five solutions are proposed to improve the situation, including the adoption of modern farming methods and the development of infrastructure for optimal land resource utilization.



**Keywords:** Uzbekistan, agriculture, land use, economy, problems, solutions, development.



**Annotatsiya.** Maqolada qishloq xo'jaligi va xomashyo tarmoqlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi, yerdan foydalanish samaradorligi yetarli emasligi va tuproqning degradatsiyasi kabi asosiy muammolar ta'kidlanadi. Vaziyatni yaxshilash uchun beshta yechim taklif etiladi, jumladan, zamonaviy dehqonchilik usullarini joriy etish va yer resurslaridan optimal foydalanish uchun infratuzilmani rivojlantirish.



**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, yerdan foydalanish, iqtisodiyot, muammolar, yechimlar, rivojlanish.


**Kirish:** O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida yer resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Agrar sektor yerlari eng muhim resurslardan biri bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 26,8 foizini tashkil etadi. Taxminan 4,3 million gektar maydonni egallagan sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi[1].

**Dolzarbligi:** O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda yer resurslaridan samarali foydalanish muammosining dolzarbligi shubhasizdir. Bular quydagilar:

– Qishloq xo'jaligiga qaramlik: O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi, aholining katta qismini oziq-ovqat xavfsizligi va bandligini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida yerdan samarali foydalanish qishloq aholisining turmush darajasiga va mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir qiladi.

– Barqaror rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj: O'zbekiston barqaror rivojlanish muammolariga duch kelmoqda, jumladan ekologik halokat, tuproq unumdorligining degradatsiyasi va mavjud yer

maydonlarining kamayishi tahdidlari, yerdan samarali foydalanish ekologik muvozanatni saqlash va atrof-muhitning yanada degradatsiyasini oldini olishda muhim rol oʻynaydi.

– Mahsuldorlik va raqobatbardoshlikni oshirish: yerdan samarali foydalanish qishloq xoʻjaligining ilgʻor usullarini joriy etish, zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash, suv resurslaridan optimal foydalanish va qishloq xoʻjaligi ishchilarining taʼlim va malakasini oshirishni oʻz ichiga oladi. Bu qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni koʻpaytirishga va jahon bozorida Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar: yer resurslaridan samarasiz foydalanish qishloq aholisining turmush sharoitining yomonlashishi, ishsizlik va tengsizlikning koʻpayishi, qishloq xoʻjaligiga ichki va tashqi investitsiyalarning kamayishi kabi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Umuman olganda, Oʻzbekiston Respublikasida iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda yer resurslaridan samarali foydalanish rivojlanishning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda, bu tizimli yondashuv, kompleks chora-tadbirlar va barcha manfaatdor tomonlarning faol ishtirokini talab etadi.

**Muaommoni oʻrganilganligi va materiallar tahlili:** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2019-yildagi PF-5863-son “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” hujjatiga muvofiq, suv olish limitidan foydalanish tahlili shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston oʻrtacha 85 foiz suv oladi, kam suvli yillarda esa umumiy yillik limitning 70-75 foizi suv oladi [1].

Koʻpchilik mualiflar Oʻzbekiston Respublikasining yer resurslarining holati yer resurslaridan samarali foydalanishning asosiy muammolari mavzuni sanoat, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida oʻrganib chiqilgan [3,6,8].

BMTning umumiy mamlakat tahlili nomli maʼruzasida Oʻzbekistondagi yer resurslarining hozirgi holati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar va rivojlanish maqsadlarini taʼminlashda hukumatning qoʻllab-quvvatlash boʻyicha xulosalar keltirilgan [4].

21-noyabr. 2023 yili .Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida Oʻzbekistonda yer resurslaridan samarali foydalanish boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan [2].

Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish: zamonaviy agrotexnologiyalar, seleksiyani takomillashtirish va paxta va don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy etish yuqori hosil olishga yordam beradi1.

Yer resurslaridan samarali foydalanish zamonaviy dunyoning eng dolzarb va murakkab muammolaridan biridir. Barqaror rivojlanish va aholi ehtiyojlarini qondirish sharoitida bu muammo yanada keskinlashmoqda. Aholining koʻpayishi, iqlim oʻzgarishi, urbanizatsiya va intensiv qishloq xoʻjaligi bir qator qiyinchiliklar va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Yer resurslaridan samarali foydalanishning asosiy muammolaridan biri bu xabardorlik va boshqaruvning yetarli emasligi. Koʻpincha aniq rejalashtirish va rivojlanish strategiyalarining yetishmasligi tufayli yerlar optimal ravishda foydalanilmaydi. Bu unumdor yerlardan oqilona foydalanishga, ekotizimlarning yoʻq qilinishiga va tuproqning degradatsiyasiga olib kelishi mumkin [7,6] .

Yana bir muammo – qishloq xoʻjaligi, rivojlanish, sanoat va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi turli sohalar oʻrtasidagi manfaatlar toʻqnashuvi. Cheklangan yer resurslari sharoitida barcha tomonlarning ehtiyojlarini muvozanatlash kerak, bu koʻpincha nizolar va nizolarga olib keladi.

Bundan tashqari, iqlim oʻzgarishi va biologik xilma-xillikka tahdidlar kabi zamonaviy muammolar yerdan samarali foydalanishga qoʻshimcha bosim oʻtkazmoqda. Qishloq hududlari orqali shaharlarning kengayishi, shuningdek, tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish yer ekotizimlarining zaifligini oshiradi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun yerdan barqaror foydalanish strategiyasini ishlab chiqish, qishloq xoʻjaligi va atrof-muhitni muhofaza qilishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, yerdan samarali foydalanishning ahamiyati toʻgʻrisida jamiyat xabardorligini oshirishni oʻz ichiga olgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Yerdan foydalanish siyosatini ishlab chiqishda mahalliy xususiyatlar va jamoalarning ehtiyojlarini hisobga olish ham muhimdir. Davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlik yer resurslaridan samarali foydalanish muammosini muvaffaqiyatli hal etishda muhim omil hisoblanadi.
Vazifaning murakkabligiga qaramay, yer resurslaridan samarali foydalanish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ajralmas shartdir. Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar va global yondashuv orqali biz kelajak avlodlar uchun yer resurslarini saqlab qolishimiz mumkin.
O‘zbekiston Respublikasida yer resurslaridan samarali foydalanish muammolari va muammolari mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim jihatlari hisoblanadi. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uchun asos bo‘lgan muhim yer resurslariga ega. Biroq, ularning ahamiyatiga qaramay, ulardan samarali foydalanishni qiyinlashtiradigan jiddiy muammolar mavjud.
**Asosiy muammolar**dan biri qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish samaradorligining yetarli emasligi. Yerlarning katta qismi zamonaviy texnika va texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmaganligi va yerni boshqarish samarasizligi sababli samarasiz foydalanilmoqda.
Tuproqning degradatsiyasi va sho‘rlanishi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi oldida turgan yana bir muhim muammodir. Tuproq yeroziyasi va sho‘rlanishiga qarshi kurashish bo‘yicha katta sa’y-harakatlarga qaramay, bu muammolar dolzarb bo‘lib qolmoqda va ularni hal qilish uchun qo‘shimcha choralar talab etiladi [6,8].
Bundan tashqari, yerni boshqarishning yetarli emasligi va yerdan noto‘g‘ri foydalanish yer foydalanuvchilarining turli guruhlari o‘rtasida ziddiyatlarga olib keladi va ekologik muvozanat muammolariga e’tibor qaratadi.
Yana bir qiyinchilik – yer resurslaridan foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda qishloq xo‘jaligi, sanoat, uy-joy qurilishi va ekologiya kabi iqtisodiyotning turli tarmoqlari manfaatlarini muvozanatlash zarurati.
**Muammoni yechish yo‘llari:**
1-yechim: zamonaviy qishloq xo‘jaligi usullarini joriy etish
Tomchilatib sug‘orish, o‘g‘itlar va pestitsidlardan aqlli foydalanish va tuproqqa ishlov berishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash kabi zamonaviy qishloq xo‘jaligi amaliyotlarini joriy etish yer resurslarining hosildorligi va samaradorligini oshiradi.
2-yechim: melioratsiya va sug‘orish tizimini rivojlantirish
Melioratsiya va sug‘orish tizimini rivojlantirish qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer maydonlarini kengaytirishga, shuningdek, suv resurslaridan maqbul foydalanish hisobiga mavjud dalalarda hosildorlikni oshirishga imkon beradi.
3-yechim: shaharlarda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish
Shaharsozlik va shaharlardagi yerlardan foydalanishni optimallashtirish mavjud hududlardan turar-joy va tijorat binolari uchun, shuningdek iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradigan infratuzilma uchun yanada samarali foydalanishga imkon beradi.
4-yechim: tuproq unumdorligini tiklash va himoya qilish dasturini ilgari surish
Tuproq unumdorligini tiklash va muhofaza qilish dasturini ilgari surish yer unumdorligini saqlab qolish va oshirishga imkon beradi, bu esa qishloq xo‘jaligining hosildorligi va uzoq muddatli barqarorligini oshirishga yordam beradi.
5-yechim: qishloq xo‘jaligi va yer loyihalariga investitsiyalarni rag‘batlantirish
Qishloq xo‘jaligi va yer loyihalarini rivojlantirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni jalb etishga imkon beradi.
Xulosa qilib aytganda,yer resurslaridan samarali foydalanish O‘zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Taklif etilayotgan yechimlarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirishga, importga qaramlikni kamaytirishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi va mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish aholining hayot sifatini yaxshilashga va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasining yer resurslarini optimallashtirish mamlakatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash uchun ulkan salohiyatga ega. Yerdan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qishloq xo‘jaligi sektorini qo‘llab-quvvatlash orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga yerishish, aholining turmush darajasini oshirish va mamlakatning uzoq muddatli farovonligini ta’minlash mumkin.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2019 yildagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

2. Мирзиёев. Ш.М. видеоселекторное совещание Республики Узбекистан “Определены задачи по эффективному спользованию земельных ресурсов” //сайт Комитета по конкуренции и защите прав потребитилей// https://raqobat.gov.uz/ru/opredeleny-zadachi-po-effektivnomu-ispolzovaniyu-zemelnyh-resursov/

3. Абдурахмонав М.А, Рахимов.Я.Т. “Состаяни земельных ресурсов в Республике Узбекистан” Территорий науки 2017.№4 74-77 бет. https://cyberleninka.ru/article/n/sostoyanie-zemelnyh-resursov-v-respublike-uzbekistan

4. Общий страновой анализ оон: Узбекистан. страновая команда ООН Узбекистан. Данные по состоянию на декабрь 2019г. Анализ завершен в январе 2020г. https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2020-10/United%20Nations%20Common%20Country%20Analysis%20Uzbekistan_RU.pdf

5. Тўйназарова И//Сув экотизимлари моллюскалари биохилма хиллиги ва популяциялари Мирзачўл ҳудуди мисолида// “Ўзбекистон табиий ресурслардан фойдаланиш ва қайта ишаш жараёнида атроф муҳитни ифлосланиш муаммолари ва ечимлари” мавзусида Республика илмий-амалий анжуман материаллари.ҚарМИИ-2022 йил 187-189 бетлар.

6. Холматов Б.Т. “Оптимизация почвенных условий: промывка солей, мульчирование и их влияние на урожайность и почвенные свойства” Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№ 11/1 (108), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 215-219 б. – Босма нашрнинг электрон варианти -http://mamun.uz/uz/page/56

7. Холматов Б.Т. «Қишлоқ хужалигида қўлланиладиган пестицидлар ва уларни атроф муҳитга таъсири” Технические науки: проблемы и решения, сб. Ст. По материалам XXXVII междунар. Науч.-практ. Конф. - № 6 (34). - М., Изд. “Интернаука”, Москва 2020 128-

8.Тўйназарова И, Холматов Б.Т. “Загрязнения воздуха рабочих помещений на предприятиях автомобильного транспорта и оздоровление воздушной среды”. Экология: Вчера, сегодня, завтра.Материалы всероссийской научно-практической конференции 30 октября Махачкала 2019 г.478-483 ст.

## NATYURMORT SAN’ATINING MA’NOSI VA MAVZULARI.

**Choriyev Sherzod Nurullayevich**
**Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.**
**Oripova Malika Abdutolib qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasviriy san’atda naturaga qarab tasvirlash, amaliy mashg‘ulotlarda naturani tahlil qilishning enterfaol usullari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об интерактивных методах изображения природы в изобразительном искусстве, анализа природы на практических занятиях.

**Abstract:** This article provides information about interactive methods of depicting nature in the fine arts, analyzing nature in practical classes.

**Kalit so‘zlar:** natura, natyurmort, enterfaol metod, ekzistensial, mifologik.

**Ключевые слова:** Натура, натюрморт, интерактивный метод, экзистенциал, мифологический.

**Key words:** Natura, still life, interactive method, existential, mythological.

Natyurmort ma’lum bir tarzda birlashtirilgan jonsiz narsalarning to‘plami deb ta’riflanadi. Natyurmort rasmlarining sehri shundaki, ular bizga atrofimizdagi oddiy narsalarga yangicha qarashni ko‘rsatishi mumkin. Ular ma’lum bir tartibga solingandan so‘ng, bo‘yoq, siyoh, pastel yoki boshqa har qanday vosita bilan suratga olingandan so‘ng, ob’ektlar butunlay yangi ma’noga ega bo‘ladi. Ular odatdagidan tashqari hayot bilan sug‘orilgan. Ularning mavjudligi vaqt bilan belgilanadi.Natyurmort uchun tanlangan obyektlar ko‘pincha shaxsiy, madaniy, ijtimoiy, diniy yoki falsafiy darajada alohida ma’noga ega. Badiiy asar atrofidagi mavzular ko‘pincha tomoshabinda introspektsiya va mulohazalarni uyg‘otadi. Ob’ektlarni tasvirlash usuli ularning joylashishiga, shuningdek, yorug‘lik, rang tanlash va bo‘yoq bilan ishlashga qarab turli xil hissiyotlarni uyg‘otishi mumkin. Bularning barchasi natyurmort asarini ko‘rishda e’tiborga olinishi kerak. Ularni yaratishda e’tiborga olish ayniqsa muhimdir. Natyurmort rasmlarining mavzusi rasmlarda tasvirlangan obyektlar bilan belgilanadi. Natyurmort rasmini ko‘rib chiqayotganda yoki uni yaratishda o‘zingizdan so‘rashingiz kerak bo‘lgan eng muhim narsa: “Bu nimani anglatadi?” Bu tasodifiy to‘plammi yoki qanday ma’noga anglatadi? Rasmga qarab, “Hmm, chiroyli narsalar” deb o‘ylash va tezda keyingi rasmga o‘tish oson. Ammo san’at asari odatda chiroyli narsalarni tasvirlashdan ko‘ra chuqurroqdir. Garchi biron bir asar ma’nosiz bo‘lsa ham, asarning orqasida doimo fikrlash jarayoni mavjud. Agar siz san’atga aql bilan qaramoqchi bo‘lsangiz, san’at asarini tadqiqotchi ko‘z va qiziquvchan ong bilan o‘rganish muhimdir! Natyurmort rasmlari uchun mavzular shaxsiy, madaniy, ijtimoiy, mifologik, diniy yoki falsafiy va ekzistensial bo‘lishi mumkin. Yoki ular rang yoki tekstura kabi moddiy sifatlarga asoslanishi mumkin. Ular hatto alifboning bir xil harfi bilan boshlanadigan narsalarga yoki birovning oshxonasidagi odatiy keraksiz tortmasidan topish mumkin bo‘lgan narsalarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Va albatta, bu mavzularning barchasi bir-biriga mos kelishi mumkin va bitta san’at asarida mavzu va ma’noning boy qatlamli mujassamlashgan bo‘lishi mumkin!Naturaga qarab tasvirlash darslarini samarali qiziqarli o‘tkazish bugungi kun rassom pedagoglaridan yetarlicha pedagogik mahorat talab qiladi. Naturani ya’ni buyumni tasvirlash, uni asliga o‘xshatish borasidagi bilimlarga ega bo‘lish amaliy mehnat, vaqt talab etadi. Har bir amaliy mashg‘ulotlar bosqich asosida ma’lum ketma-ketlikda bayon etilib amaliy jihatdan bajarib borilib, natijaga erishiladi. Bu jarayon ham qiziqarli ham mashaqqatli mehnatni talab etadi. Har bir qo‘yilgan buyumni sinchkovlik bilan o‘rganish, uni tahlil qilish, to‘g‘ri tasvirlay olish ilmi hamisha ham oson bo‘lavermaydi. Shu sababli o‘rganuvchida qiziqishning susayishi, ishning natijasidan qoniqmaslik, ishonchsizlik yuzaga kelishi mumkin. Bunday ishonchsizlik holatlarini bartaraf qilish uchun darsda turli enterfaol usullardan foydalnib borish yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etilishiga ko‘mak beradi. Amaliy mashg‘ulotlarda enterfaol metodlardan foydalanish bir qarashda muammolikdek ko‘rinadi. Ammo interfaol metodlardan o‘z o‘rnida foydalanilsa, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi masg‘ulot uchun interfaol metodlardan oqilona foydalanish, uni o‘z o‘rnida ishlata bilish, kerakli samarani berishi mumkin. Zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning samarali tomonlari ta’lim samaradorligiga erishishga etarlicha hissa qo‘shish bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda qo‘llanilib kelinayotgan zamonaviy interfaol metodlarning ko‘plab turlari aytib o‘tishimiz mumkin.
Masalan:
1. “Aqliy hujum”.
2. “O‘yinli o‘qitish texnologiyasi” metodi.
3. “Jamoaviy o‘qitish” metodi.
4. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi.
5. “Tarmoqlar” metodi.
6. “3x4” metodi.
7. “Blits” o‘yini.
8. “Intervyu” metodi.
9. “Meni eshiting” metodi.
10.“Bumerang” metodi.

11. “O‘quvchi” metodi.
12. “Muloqot” metodi.
13. “Boshqaruv” metodi.
14. “Tik_Tok” metodi.
15. “Savol-javob” metodi.
16. "Avtofokus" metodi va boshqalar.Naturani tahlil etish jarayonini ko‘rib o‘tamiz. Dastlab biz rasm chizish uchun qulay o‘rnashamiz hamda qo‘yilmani kuzatamiz. Kuzatish jarayonida esa naturani tahlil qilamiz. Natura – bu fransuzcha so‘z bo‘lib, jonsiz tabiat ma’nosini beradi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tabiatdagi barcga narsalarni asliga qarab chizish mumkin ekan. Endi natura rang jihatdan yaxshilab kuzatiladi hamda o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Shu o‘rinda “Savol-javob” metodini qo‘llab, bunda quyidagi savol javobdan foydalanish mumkin;

– Naturaning rang koloriti qanday?
– Naturaning joylashishi qanday?
– Natyurmortdagi asosiy buyumning o‘rni?
– Natyurmortdagi yorug‘liklar orni?
– Natyurmortdagi soyalar qanday?
– Natyurtmotdagi reflekslarni ko‘rsating?
– Natyurmortdagi perspektiv qisqarishlar.
– Natyurmortdagi tekisliklar o‘rni.
– Qaysi tekislik yorug‘, nimaga?
– Natyurmort orqa plani qanday tasvirlanadi?

Savollarga javob berilgach foal ishtirok etganlar, shu o‘rinda har bir amalga oshirilgan muvaffaqiyatli javob yoki jarayon albatta e’tirof etilib, rag‘batlantirib boriladi. Rag‘batlantirishda chalg‘imaslik hamda aniqlik va qiziqarli bo‘lishi uchun oldindan rag‘bat predmetlarini tayyorlab olmoq kerak bo‘ladi.

“Avtofokus”metodi: Avtofokus metodi o‘quvchilarda ixtiyoriy darsga e’tibor qaratishlarini ta’minlaydi. Ushbu metodni qo‘llashda sizga qizil va oq kartochkalar kerak bo‘ladi. Sinfdagi o‘quvchilarning har biriga ushbu kartochkalarni tarqatib chiqasiz. Albatta, buni dars boshida amalga oshirasiz. So‘ngra dars mobaynida to‘satdan savol berib qolasiz, demak savollar quyidagicha:“Qizil kartochkasi borlar o‘rnidan tursin” va mavzu yuzasidan biror savolni turgan o‘quvchilardan istalgan biriga berasiz. Javob topa olishsa, qizil kartochka guruhiga bir bal qo‘shib qo‘yasiz. Keyin yana dars davomida to‘satdan oq kartochkasi borlar o‘rnidan tursin deysiz va yuqoridagi kabi, oq kartochkasi bor o‘quvchilardan istalganiga mavzu yuzasidan savol berasiz. Shu tartibda darsning so‘ngigacha bir necha marotaba ushbu usulni qo‘llaysiz. Natijada dars mobaynida barcha o‘quvchilar xushyorlikda bo‘lishadi. Bu usul o‘quvchilarni harakatga keltirish ya’ni o‘rinlaridan turish jarayonida darsga bo‘lgan qiziqish signallarini orttiradi. Qolaversa, istalgan o‘quvchiga beriluvchi savollar barchani mavzuni diqqat bilan eshitishga majbur qiladi. Bu jarayonda bellashuv ham ketmoqda! O‘quvchilar o‘zaro bellashish orqali ixtiyoriy darsga diqqatlarini qaratishadi. Ya’ni siz o‘quvchilarda avtofokus muhitini yaratgan bo‘lasiz. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azimova B. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash metodikasi. – T.; O‘qituvchi, 1984.-56 b.
2. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo (дата обращения: 02.11.2023).
3. Abdullaev, A., & Bobomurodova, S. (2023). THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART. *Science and innovation*, *2*(C3), 64-66.

4. Abdullayev, A. H., & Bobomurodova, S. A. (2022). BO‘LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT O ‘QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific progress*, *3*(3), 908-910.
5. Abdullaev A., Bobomurodova S., Juraeva O. THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. B1. – C. 335-339.
6. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C3. – C. 64-66.
7. Bobomurodova S. A. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH MODELI //Inter education & global study. – 2024. – №. 1. – C. 73-82.
8. Boymetov B., Tolipov N. Maktabda tasviriy san’at to‘garagi.-Toshkent: O‘z TSMU, 1995.
9. Ishmuhamedov R.J.Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. -Toshkent: ToshDPU, 2004.
10. Milliy o‘zbek maktablarida badiiy ta’lim kontseptsiyasi. - Ma’rifat. -1992y.
11. Sayidaxmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash. - Toshkent: Istiqbol, 2002.
12. Xudoyorova O.K. O‘zbekiston maktablarida tasviriy san’atdan dars samaradorligini oshirishning ba’zi masalalari.–T.; O‘zTSMU, 1995. - 20 b.
13. Xasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. Talabalar uchun metodik qo‘llanma.-T.;ToshDPU, 2006.-94 b.
14. Xasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. O‘quv qo‘llanma.-Toshkent: TDPU, 2006.
15. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari.-Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
16. Choriyev S. N. BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI VA RAHBAR IMIDJINI YARATISH //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 222-225.
17. Choriyev, S. (2023, December). AKADEMIK RASM CHIZISHNING O ‘ZIGA XOS QONUN VA QOIDALARINI O ‘RGANISH. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic:“Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions”* (Vol. 1, No. 01).
18. Choriyev, S. N. (2022). BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI VA RAHBAR IMIDJINI YARATISH. *Innovative Development in Educational Activities*, *1*(6), 222-225.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**Nargizaxon Davlatova**
**Andijon shahar 1-DMTT tarbiyachisi**

**Kalit so‘zlar**: intensiv tayyorlash, ma’naviy, axloqiy, jismoniy, psixologik kommunikatsiya, mantiq, tafakkur, nutqiy daraja, nutq madaniyati, ikki tillilik

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirish orqali ularni maktab ta’limiga intensiv tayyorlash masalasi dolzarb sanalmoqda. Mazkur yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish maktab ta’limiga tez va samarali ijtimoiylashish omili hisoblanadi. Kommunikativ kompetentsiya ijtimoiy tavsifga ega bo‘lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiy tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta’minoti bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetentsiya va bolalar nutqini o‘stirish metodikasini o‘qitishga ham bevosita bog‘liqdir. Sanab o‘tilgan vazifalar maktabgacha ta’lim mazmuni, unga qo‘yiluvchi davlat ta’lim standarti talablari ko‘lami doirasida amalga oshadi.

Bola nutqining rivoji koʻp jihatdan uning ruhiyatiga, sogʻlom, tetik oʻsishiga bogʻliq. Bu borada nutq madaniyatining rivoj topishiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk alloma va mutafakkirlar oʻzalrining pedagogik gʻoyalarini ilgari surgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarda nutq va uning inson hayoti, faoliyatdagi ahamiyati erkin misollarda oʻz ifodasini topgan. Shuningdek, Behbudiy, Fitrat, Qori Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizov ham oʻzlarining ijod namunalarida bola nutqini oʻstirishda asosan nimalarga e'tibor berish kerakligi haqida qimmatli fikrlarni bildirganlar.

Uzluksiz ta'lim jarayonida yoshlarni tarbiyalash masalasi keng oʻrganilgan sohalardan biri boʻlib, oʻziga xos pedagogik tizimning ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.O.Musurmonova, M.Inomova, R.F.Qodirova, M.Quronov, Sh.T.Halilova, D.R.Babaeva, N.M.Egamberdieva, Sh.S.Shodmonova, G.Maxmutova, N.N.Djamilova tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy, jismoniy va psixologik jihatdan tarbiyalash, ularda muomala madaniyati va nutq koʻnikmalarini hosil qilish, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammolari tahlil etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning asosiy vazifasi bola tomonidan ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini oʻzlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Qayd etish lozimki, bir xil yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi bir-biridan mutlaqo farq qilishi mumkin. Maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish (ona tilini egallash) oʻz tabiatiga koʻra koʻp qirrali jarayon hisoblanadi. U aqliy, rivojlanish bilan uzviy bogʻlangan, chunki insonning rivojlangan tafakkuri – bu nutqiy, til, soʻz – mantiqiy tafakkurdir. Nutqiy rivojlanish, tilni egallash va aqlni, bilishni rivojlantirish oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik tafakkurni rivojlantirish uchun tilning qanchalik muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.Xususan, F.M. Qodirova va R.M.Qodirovalar tomonidan bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi, hamda R.M Qodirovaning maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari, N.Nurmuhammedova tomonidan ikki tillilik sharoitida bolalarda ravon nutqni rivojlantirish, Sh.Sharipova tomonidan maktabgacha yoshdagi katta bolalarda vaziyatli oʻyinlar asosida nutqiy muloqot madaniyati koʻnikmalarini tarbiyalash masalalari boʻyicha tadqiqotlar oʻtkazilgan. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi turli pedagogik-psixologik funkiyalarning ayni bir vaqtda va ayni bir maromda tarkib topmasligi xarakterlidir. Ayniqsa, ravon nutqni, ya'ni mazmunli, mantiqiy, izchil nutqni shakllantirishda nutqiy va intellektual rivojlanish oʻrtasidagi uzviy aloqa yanada aniqroq koʻrinadi. Biron bir narsa haqida tushunarli qilib soʻzlab berish uchun hikoya obyektini (predmet, voqeani) aniq tasavvur qilish, tahlil qila olish, asosiy xususiyat va sifatlarni tanlab olish, predmet bilan hodisalar oʻrtasida turli nisbatlarni (sabab-oqibat, vaqt) oʻrnata olish lozim. Bundan tashqari, ushbu fikrni ifodalash uchun eng maqbul soʻzlarni tanlay olishni, oddiy va qoʻshma gaplarni tuzishni bilish, alohida gaplar va fikrlarning boʻlaklarini bogʻlash uchun turli vositalardan foydalanish zarur. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini mantiqiy fikrlash va tafakkurini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar tengdoshlar bilan muloqot asosiy oʻrin egallaydigan muloqot sohasidagi chuqur oʻzgarishlar bilan bogʻliq. Bola katta yoshdagi odamdan koʻra oʻz tengdoshini afzal koʻra boshlaydi. Birga oʻynayotgan oʻrtogʻiga qaratilgan nutq kattalar bilan oʻlgan nutqdagiga nisbatan mazmunliroq boʻlib boradi. Sherik bilan dialog muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy harakatlar tusiga ega boʻladi. Bola endi qoʻshnisining e'tiborini oʻziga jalb qilishni biladi, uning oʻzi oʻrtoqlarining ishlari va fikrlari bilan qiziqadi.

**Foydalanilgan dabiyotlar:**

1.Mirziyoev SH.M. 2017- 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qaror. 29.12.2016 y., PQ-2707, Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda.

2.Mirziyoev SH.M. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi qaror. 9.09.2017 y., PQ-3261, "Xalq soʻzi" gazetasi. 2017 y, 11-sentyabr. 181 (6875)-son.

3.Арушова А.Г. Развитея речи дошкольников. Методическая пособия для воспитателей.

M.:1997- 107 s.
4.Jalolova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish. T.:2004- 69 b.
5.Qodirova F.R.,.Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi .Darslik. T.:Istiqlol, 2006-247 b.
6.Mo‘minova L. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish dasturi. T.:1996-47b.

## ОБОРУДОВАНИЕ ОПЕРАТИВНОЙ ПЕЧАТИ В РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.

**Джизакский политехнический институт**
**Старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент»**
**Джабборова Юлдуз Абдувалиевна**

**Annotatsiya** Ushbu maqolada men korxonalarda mehnat unumdorligi oshishi bilan ishchilarning ish haqi xarajatlari kamayishi, shuningdek, kitoblar va boshqa bosma mahsulotlar ishlab chiqarish sifatini oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining maqsadlariga muvofiq bo‘lgan shartlarni ko‘rib chiqdim

**Kalit so‘zlar:** tashqi iqtisodiy faoliyat, protektsionizmga nisbatan davlat siyosati, davlatning tashqi iqtisodiy strategiyalari, tarif va tarif ichidagi cheklovlar va to‘siqlar

**Аннотация** В данной статье я рассмотрела условия, при которых с повышением производительности труда на предприятиях снижаются затраты на заработную плату работников, а также, повышение качества производства книг и другой печатной продукции, а также в соответствии с целями Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан

**Ключевые слова:** внешнеэкономическая деятельность, государственная политика в отношении протекционизма, внешнеэкономические стратегии государства, тарифные и внутритарифные ограничения и барьеры

**Abstract** In this article, I have considered the conditions under which, with an increase in labor productivity at enterprises, the cost of salaries of employees decreases, as well as improving the quality of production of books and other printed products, as well as in accordance with the objectives of the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan

**Key words:** the foreign economic activity, the state politics toward protectionism, the foreign economic strategies of the state, tariff and in tariff of the restriction and barriers

В стране проводится последовательная работа по обеспечению свободы слова и информации, формированию институционально-правовых основ развития информационной сферы и массовых коммуникаций.

Вместе с тем не сформирована эффективная система оказания государственной поддержки развитию средств массовой информации, печати, издательско-полиграфической и информационно-библиотечной деятельности.

В связи с этими новшествами в сфере особое внимание уделяется оперативной полиграфии

**Оперативная полиграфия в Республике Узбекистан считается** одно из важных направлений в любой рекламной кампании. Некоторые тиражи полиграфической продукции мы можем изготовить прямо при вашем присутствии. Как правило, это оперативная полиграфия методом цифровой печати. Большие тиражи производятся методом офсетной печати. На печать стандартной офсетную полиграфическую продукцию у нас максимально сжатые сроки — от одного дня до трех суток.

**Оперативная полиграфия методом цифровой печати в Республике Узбекистан**

**Цифровая печать** — современное решение в такой области как оперативная полиграфия, позволяющее с высокой оперативностью реализовать любые идеи в области рекламной и деловой полиграфии. Если Вам нужно срочно изготовить рекламную продукцию небольшим тиражом, например, изготовить листовки, буклеты, календари или напечатать визитки, то

оперативная полиграфия методом цифровой печати в таком случае является оптимальным решением. Цифровая печать наиболее эффективна при изготовлении малых тиражей, которые экономически и технически трудно выполнимы на офсетном оборудовании, так как при уменьшении тиража, в отличие от офсетного способа печати, стоимость единицы продукции практически не возрастает.

Цифровая печать осуществляется непосредственно из файла, не требуя вывода цветоделенных пленок, что позволяет печатать не только из традиционных программ верстки, но и из любых других, относящихся к офисным (Word, PowerPoint, Exel и пр.). Из-за отсутствия предпечатных операций, приладки, необходимости изготавливать печатные формы, стоимость оттиска на цифровой печатной машине незначительно зависит от количества копий в тираже. Поэтому при выполнении заказа методом цифровой печати минимальный тираж — 1 экземпляр.

Оперативная полиграфия, выполненная методом цифровой печати выгодна также при печати полиграфической продукции с нумерацией. Перед тем, как печатать заказ, существует возможность распечатать пробный вариант, чего нельзя сделать при офсетном методе печати. Распечатав пробный вариант цифровым методом печати, Вы можете внести сразу изменения до начала выполнения заказа.

***Основные преимущества цифровой печати:***

- Высокая оперативность
- Низкая стоимость при малых тиражах
- Возможность внесения изменений и корректировки цвета после пробного листа печати
- Печать переменных данных, персонализированная печать, печать по требованию
- Высокое качество
- Возможна печать на матовых или глянцевых мелованных бумагах, текстурных и дизайнерских художественных бумагах, самоклеящейся бумаге, прозрачных пленках.
- Печать производится с одной или с двух сторон.

Оперативная полиграфия — удобная услуга, когда вы можете заказать срочную печать визиток, бланков, буклетов, брошюр, календарей, приглашений, конвертов и множества других наименований печатной продукции тиражом от 1 экземпляра в течение нескольких часов, а иногда прямо при Вас.

Комплекс послепечатного оборудования для резки, ламинации, фальцовки, переплета, листоподбора, вырубки, скругление углов, брошюровки, навивки, тиснения, позволяет производить разнообразные виды продукции:

- Рекламная оперативная полиграфия – каталоги, листовки, буклеты, плакаты, постеры, проспекты, бирки, ценники, дисконтные карты, этикетки
- Деловая оперативная полиграфия – визитки, бланки, конверты, папки, обложки, кубарики, блокноты, брошюры, отчеты, дипломы, дипломные проекты
- Имиджевая оперативная полиграфия – открытки, календари настенные, календари-домики, квартальные календари, приглашения на свадьбу, на день рождения, на юбилей, презентации

**Оперативная полиграфия на ризографе**

**Тиражирование на ризографе** – способ печати, который является наиболее быстрым и дешевым для получения большего кол-ва отпечатков.

***Преимущества тиражирования на ризографе***:

- Низкая стоимость отпечатка.
- Действительно низкая стоимость копии позволяет серьёзно экономить на печати.
- Оперативность исполнения заказа.
- Высокая скорость печати (до 130 копий в минуту) позволяет выполнить даже большой заказ в день обращения.
- Доступное по цене качество печати.
- Разрешение печати 400 точек на дюйм позволяет качественно воспроизводить мелкий шрифт и несложную графику.

**Оперативная полиграфия и офсетная печать — совмещаем несовместимое**

Офсетная печать используется при изготовлении больших тиражей, в случае печати специальными красками, а также для печати на специальных сортах бумаги. С помощью офсетной печати возможно изготовление практически любой офисной полиграфической продукции. Офсетная печать — классический и наиболее экономный способ печати как полноцветной, так и одно- двух- красочной продукции. При офсетном способе печатания краска с печатной формы передаётся под давлением на промежуточную эластичную поверхность резинового полотна, а с неё на бумагу или другой печатный материал. В офсетной полиграфии чем больше тираж, тем меньше стоимость оттиска. Это связано с особенностями технологии производства, поскольку оборудование рассчитано на определенный минимальный объем печати. Продукция, изготовленная офсетным способом, отличается высочайшим качеством при относительно невысокой стоимости. Современный офсетный печатный процесс переведен в область цифровых решений. Многие операции, на которые ещё недавно у печатника уходила уйма времени, сегодня автоматизированы.

***Преимущества офсетной печати***:

- Высочайшее качество воспроизведения оригинала
- Большие тиражи за короткие сроки
- Чем выше тираж, тем выгоднее становится печать

При офсетной печати требуется допечатная обработка (цветоделение, цветопроба, создание форм, печать форм, подготовка пресса, цветобалансировка).

Профессиональная послепечатная обработка тиража дополняет качество печати и делает печатное издание законченным продуктом. Каждый заказчик заинтересован в том, чтобы его полиграфическая продукция выглядела как можно привлекательней. Для некоторых эксклюзивность и изысканность важна настолько, что это условие является решающим при выборе типографии. Наше послепечатное оборудование позволяет производить практически любые финишные операции: резка, ламинирование, фольгирование, сверление, скругление уголков, установка люверсов, ригеля, сборка на металлическую и пластиковую пружину, биговка, брошюровка на скрепку, нумерация

**Список использованной литературы:**


1. Ансофф И. Новая корпоративная стратегия. - Спб.: ПитерКом, 2002. – 416 с.
2. Багиев Г.Л., Тарасевич В.М., Анн Х. Маркетинг: Учебник для вузов/ Под общ. ред. Г.Л. Багиева − 2-е изд., перераб. и доп. − М.: ЗАО «Изд-во «Экономика», 2001. – 356 с.
3. Вайсман А. Стратегия маркетинга: 10 шагов к успеху; Стратегия менеджмента: 5 факторов успеха. - М.: Интерэксперт, Экономика, 2000. - 344 с.
4. Джаббарова Ю.А. «Основные тенденции на рынке книжной продукции в Республике Узбекистан.» журнал том 3 номер 5 ст 36-40. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=jrpYfYkAAAAJ&citation_for_view=jrpYfYkAAAAJ:qjMakFHDy7sC
6. Djabbarova Y.A. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=jrpYfYkAAAAJ&citation_for_view=jrpYfYkAAAAJ:qjMakFHDy7sC


## AMALIY BEZAK SAN’ATINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI HAQIDA


**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Elmurodova Farzona Umid qizi**
**Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi**
**ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.**



**Anotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida amaliy bezak san’atini kelib chiqishi, paydo bo‘lishi uning ilmiy-madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, amaliy bezak san’ati insonlarning ma’naviyatga, ma’rifatga bo‘lgan intilishlarini va ularning san’atga bo‘lgan qiziqishlarini ochib beradi. Markaziy Osiyda joylashgan xalqlar va ularning amaliy san’atning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritiladi. Ilm, inson ahli tafakkurini ulug‘lash, unga ishonch bildirish, targ‘ib-tashviq etish,

ma'rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltish insonning muhim vazifasi haqida to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** amaliy bezak, naqqoshlik, kulolchilik, zardo‘zlik, madaniy tarixiy-madaniy meros, ibtidoiy jamoa

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati madaniy merosimizning asosiy qismini tashkil etadi. O‘zbek diyorida vujudga kelib, gullab yashnagan amaliy san’at turlari bemisil va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bu taraqqiyot bosqichi haqida fikr yuritar ekanmiz, O‘zbek amaliy bezak san’atining kelib chiqishi insoniyatning ilk davri, ya’ni ibtidoiy jamoa davriga borib taqalishining guvohi bo‘lamiz. O‘lkamiz zaminidagi arxeologik qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usuli bilan buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlanib, asrlar osha hozirgacha davom etib kelmoqda.

Bizgacha ibtidoiy jamoa tuzumida ashyoviy dalillar mexnat va ov qurollari, uy-anjom va bezak buyumlari, odamlar yashagan manzil qoldiqlari yetib kelgan. Tuproq ostida qolib kelgan tarixiy yodgorliklar odam va hayvonlar jasadining qoldiqlari, qor va yerto‘la devorlariga chizilgan surat va bo‘rtma tasvirlar ibtidoiy jamoa davri tarixini o‘rganishning muhim manbayi hisoblanadi.




1-rasm

Paleolit davrida amaliy-dekorativ san’at namunalari ham keng tarqala boshlagan. Buyumlarni naqsh bilan bezashga, turli taqinchoqlarga, tumorlarga ehtiyoj paydo bo‘lganligi arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy buyumlarda namoyon bo‘lgan. Odamlarning o‘troq holga o‘tishlari, tabiat qonun-qoidalarini kuzatish simmetriya, ritm, shakl tuyg‘ularini o‘sishiga sabab bo‘ladi.

Bir xil elementlarning tekis qaytarilishi yoki oralab kelishi asosida vujudga keladigan o‘ziga xos naqqoshlik san’atini maydonga keltirdi. Naqqoshlik san’ati yangi tosh (neolit) asrida keng yoyildi hamda dekorativ-amaliy san’atning taraqqiy etishga ta’sir ko‘rsatdi va yordam berdi.

Kulolchilik va boshqa buyumlarni naqsh bilan bezash keng tus ola boshladi. Parallel, spiralsimon va to‘lkinsimon chiziqlar, aylanalar shu davrdagi ko‘pgina naqshlarning asosini tashkil etgan.

Geometrik nakshlar asta-sekin sxematik odam, hayvonlar va o‘simliklar dunyosidan olingan shakllar bilan boyitilib, mazmunan kengayib borgan. Uning elementlari koinot kuchlarining ramziy belgilarini aks ettira borgan. Naqqoshlik san’ati endilikda dekorativ funktsiyani bajaribgina qolmay, balki shu bilan birga, kishilarning g‘oyaviy va falsafiy tushunchalarni xam ifodalay boshladi. Bronza asrida O‘rta Osiyoda kulolchilik yanada rivojlangan.

Kulolchilik dastgohlarining yuzaga kelishi esa, yaratilgan buyumlarning yanada nafis va go‘zal bo‘lishini ta’minladi. Chustdan topilgan qizil fonga qora bo‘yoqlar bilan rasm va naqshlar ishlagan sopol buyumlar insonlarda juda katta taassurot qoldiradi. (2-rasm) Temir asrida ham dekoartiv-amaliy san’at yetakchi o‘rinni egallagan. Bezash ishlarida geometrik naqshlardan tashqari, syujetli kompozitsiyalardan foydalanish alohida rivojlanganligini kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.



2 -rasm.

O‘rta Osiyoning qadimgi davri san’ati va madaniyatini o‘rganishda yer ostidan, qabrlardan topilgan turli dekorativ amaliy san’at namunalari, jang, ov va mehnat qurollari ham muhim rol o‘ynaydi. Sopol buyumlar, bronza, oltin, kumushdan ishlangan, kishilar extiyoji uchun ishlatiladigan buyumlar yuzasi naqshlar bilan bezatilgan bo‘rtma tasvir va haykallar bilan pardozlangan. Ayrim buyumlar yuzasiga esa hayotiy voqealar aksi tushirilgan. Ana shu daliliy materiallar o‘tmish san’ati va madaniyati, kishilarning estetik, badiiy qarashlarini bilishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston hududida arxeologik qazilmalar natijasida Xorazm, So‘g‘d, Baktriya va boshqa viloyatlarda naqqoshlik san’atining rivojlanganligi ma’lum. Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I-asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari buning yaqqol dalilidir.

Eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda O‘rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan “Amudaryo boyligi” (Oks boyligi) muhim o‘rinni egallaydi. Hozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida oltindan yasalgan haykallar, turli ko‘za, bilaguzuk, uzuk, muhr, tangalar, oltinlan yasalgan arava va qurollar diqqatga sazovordir



3-rasm.

Buyuk sarkarda Iskandar Zulqarnay (Aleksandr Makedonskiy) eramizdan avvalgi IV asrlarda usmoniylar davlatini tor-mor etib, O‘rta Osiyo yerlarining ko‘pgina qismini o‘ziga qaratib oladi. Faqat Xorazm, Farg‘ona Sirdaryo bo‘yidagi ko‘chmanchi qabilalargina o‘z mustaqilligini saqlab qoladi.

**Xulosa**

Amaliy san’atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya-ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o‘zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lgan va hozirda jahonga mashhur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san’atlarning ajoyib darajada uyg‘unligidan va mujassamligidan dalolat beradi. Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning ma’naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni badiiy-axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan. https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand_miniatyura_maktabi
Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘atni yanada rivojlantirishning davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31- mart farmoni ―Xalq so‘zi gazetasi. -T.1997-yil 1-aprel.
2. Abduqodirov A. Obidalar jilvasi. -Toshkent: O‘zbekiston,
3. Avedova N.A. Toshkent o‘ymakorligi. - Toshkent: O‘z dav. Badiiy adabiyot nashr, 1961.
4. Azimov I. Farg‘ona vodiysining arxitektura yodgorilklari.-Toshkent: O‘zbekiston, 1986.
5. Azimov I. O‘zbekiston naqshu-nigorlari. -Toshkent: Adabiyot va san‘at nashri,1987.
6. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS’ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.
7. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.
8. Choriyevich J. S. The role of composition in increasing the spatial imagination of students and students //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 15-17.
9. Choriyevich J. S. TASVIRIY SANATDA RANG VA YORUGLIKLARNING ORNI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. C2. – С. 113-116.
10. Jalolov S. METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF ARTS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 37-39.
11. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – С. 365-369.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ILK YOZISH FAOLIYATIGA QIZIQISHI VA YOZISH TAJRIBASI HAQIDAGI TA’SIRLAR

**G.Z.Eshbekova**
**Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Sirtqi bo‘lim, Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarida masofaviy ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarining ilk yozish faoliyatiga qiziqishi va yozish tajribasi haqidagi ta’sirlar xususida fikrlar yuritilgan.Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limi bilan shug‘illanuvchi pedagoglar va ota-onalarga tavfsiyalar, hamda yozishga o‘rgatishda yozish tajribasi ga ega bo‘lish vazifalari haqida izlanishlar xulosalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar**:bilim,ko‘nikma, malaka,maktabgacha yosh,ta’lim,yozish faoliyati, yozish mashqlari, bola, usullar, tajriba.

**Аннотация:**В статье рассматриваются последствия интереса дошкольников к первой письменной деятельности и опыт письма.Рекомендации для педагогов и родителей, занимающихся воспитанием дошкольников, а также тех, кто имеет письменный опыт обучения письму. Выводы исследования по поставленным задачам.

**Ключевые слова**: знания,умения, компетентность,дошкольный возраст, обучение,письменная деятельность,письменные упражнения,ребенок, методы, опыт.

**Annotation:** This article discusses the effects of preschool children's interest in the first writing activity and writing experience. Recommendations for pedagogues and parents involved in the education of preschool children, as well as those who have writing experience in teaching writing. research conclusions about the tasks of

**Key words**:knowledge, skills, competence, preschool age, education, writing activity, writing exercises, child, methods, experience.

Erta savodxonlik tadqiqotlari bolalarning yozishga bo‘lgan qiziqishini erta savodxonlikning rivojlanishi bilan bog‘laydi.Yozish bilan bog‘liq qanday o‘quv faoliyati yosh bolalar uchun qiziqarli

ekanligi noma'lum.Mavjud tadqiqotlar, birinchi navbatda, bolalarning qiziqishini jalb qilish uchun kattalar hisobotiga asoslangan.

Bolalarning yozish tajribalari haqidagi nuqtayi nazarini qo'lga kiritish uchun maktabgacha yoshdagi bolalar(29ta qiz,26ta o'g'il,)bilan suhbatlashildi.Tahlillari shuni ko'rsatdiki,bolalar mazmunli mavzular va badiiy o'quv materiallarini o'z ichiga olgan yozma bo'lmagan faoliyatga transkripsiyaga yo'naltirilgan yozish faoliyatiga qaraganda ancha kuchliroq qiziqish bildirishadi.Bolalar raqamli yozishga (kompyuterda yozish) katta qiziqish bildirishdi.

Garchi ko'pchilik bolalar raqamli yozishni yozish faoliyati deb hisoblamasalar hamda o'ylamasalarda,bolalarning javoblari ularning yozish jarayonlari, materiallar va o'zaro ta'sirlar bilan bog'liq idroki va ijobiy tajribalarini rivojlantirayotganini ko'rsatdi.Maktabgacha yoshdagi bolalarning erta yozish ko'nikmalari (masalan, ism yozish, harf yozish va imlo) ularning bir vaqtda va keyinchalik savodxonligini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti gurularida tashkil etilgan rivojlantiruvchi markazlardan eng faoli – qurish, yasash va konstuksiyalash va matematika markazida konstruktivistik nuqtayi nazardan, bolalarning yozma faoliyatga bo'lgan qiziqishi ularning o'z-o'zidan yozish urinishlariga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin.[1] [25] Bolalarning yozishga bo'lgan qiziqishi ularning o'yin tanlovlarini, shuningdek, yozishni o'rganish jarayonida odamlar, materiallar va harakatlar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantiradi.G'arb olimlari Braken Fischel va Frijters tomonidan bolalarning yozishga bo'lgan qiziqishlari tabiati bo'yicha kam tadqiqot olib borildi.Garchi ilg'or tajribalar maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisidagi davlat standartlari asosida mavjud guruhda yozish mashg'ulotlari haqiqatan ham bolalarni qiziqtiradimi yoki yo'qmi va bundan tashqari, yozma faoliyatning qaysi turlari qiziq bo'lishi mumkinligi aniq emas[26].[2] Til va savodxonlik natijalaridagi tafovutning 14% ga yaqini bolalarning savodxonlikka bo'lgan qiziqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligi sababli va bolalarning savodxonlikka qiziqishi maktabgacha ta'lim yoshida rivojlanadi.Bolalarning yozishga bo'lgan qiziqishlarini ham yaxshiroq tushunish juda muhimdir.Shunday qilib, ushbu tadqiqot bolalarning yozishga bo'lgan qiziqishlarini yaxshiroq tushunish uchun erta yozish tajribasiga nisbatan qarashlarini o'rganadi. Savodxonlik va yozishga qiziqish 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'yinining o'ziga xos shakllariga kuchli qiziqish bildira boshlaydilar.Bolalar ushbu mashg'ulotlarga qiziqqanlarida tez-tez o'quv faoliyatida qatnashadilar.[3]Shunday qilib,bolalarning muayyan savodxonlik faoliyatiga jalb etilishi ko'pincha bolalarning yozishga bo'lgan qiziqishining ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.Bolalarni individual ravishda jalb qilish uchun guruhda o'quv mashg'ulotlarini taqdim etishga undaydi.Erta savodxonlikni rivojlantirish bolalar uchun o'quv faoliyatini qiziqarli qilishni rag'batlantiradir.

**Adabiyotlar tahlili** Bolalarning savodxonlik ko'nikmalarini o'rganish jarayonini diqqat bilan ko'rib chiqishda, savodxonlik ko'nikmalarini o'rganish va ulardan foydalanish jarayoni bilan bog'liq ijobiy tajriba tufayli bolalar savodxonlikka qiziqishi mumkinligini kuzatish mumkin.6 yoshli bolalar o'zlarining qiziqishlarini aks ettiruvchi turli xil yozish urinishlarini (masalan, fikrlarni ifodalash uchun yozish, harf yozish, yozishning yangi usullarini o'rganish, tengdoshlari bilan yozish) boshlashi mumkinligini aniqladilar.Masalan, bolalar yozma materiallar va ularning xususiyatlarini (ya'ni, kontseptual qiziqish), yozish harakatlarini amalga oshirish jarayonini boshdan kechirish uchun (ya'ni, protsessual qiziqish), yangi yozuv mahsulotlarini yaratish yoki o'zgartirish jarayonini boshdan kechirish uchun yozishlari mumkin. [4]

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qituvchilarning yozish ko'rsatmalari, masalan, yozish harakatlarini modellashtirish va yosh bolalar o'rtasidagi izchil bog'lanishlar asosida kattalar

[25] Maktabgacha yoshdagi bolallarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va 'ILK QADAM davlat o'quv dasturi
[26] Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi davlat standarti.2020.22.12
3 Maktabgacha yoshdagi bolalarga yozishni o'rgatish bosqichlari.'Innovation of science Technologies 2024 ilmiy elektron jurnal
4. T. G'afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. Alifbe (Savod). - T.: „O'qituvchi", 1999
5 M.M.Bezrukix: "Yozuv murakkab psixofiziologik tuzilishi.
6.Martini va Sénéchal, 2012. Preschool children's interest in the first writing activity Journal

bolalarga yozish ko‘nikmalarini o‘rgatish uchun nima qilishlarini muhokama qiladi.Bolalarning ism yozish, harf yozish, imlo va yozish kabi erta yozish qobiliyatlari shakllanishida ko‘rsatmalar beradi.Hozirgi kunda bolalarning ushbu jarayondagi haqiqiy tajribasi haqida juda kam narsa ma’lum.[5] Erta yozish ko‘nikmalarini o‘rganish yoki foydalanish uchun yetarlicha tadqiqotlar olib borish zarurati tug‘ilmoqda.Bolalarning yozishga bo‘lgan qiziqishini jalb qilishdagi qiyinchiliklar xususida so‘z borganda,ularning yozishga bo‘lgan qiziqishi bo‘yicha cheklangan tadqiqotlarning asosiy sabablaridan biri bolaning yozishga bo‘lgan qiziqishini qanday eng yaxshi kontseptsiyalash va o‘lchashni batafsil tavsiflovchi tizimli tadqiqotlarning yo‘qligidir.Kattalar tomonidan bolalarning savodxonlik darajasiga bo‘lgan qiziqishlari ularning savodxonlikka bo‘lgan qiziqishlariga emas,balki bolalarning savodxonlik ko‘nikmalariga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Ota-onalar tomonidan bildirilgan bolaning qiziqishi (ya’ni, savodxonlik bilan bog‘liq xatti-harakatlarning chastotasi va bolaning o‘qishdan zavqlanish darajasi) va bolalarning bilimlari o‘rtasida muhim bog‘liqlik borligini aniqladi.[6] Biroq, ota-onalarning e’tiqodlari va o‘qitish xatti-harakatlari ma’lumotlar tahliliga kiritilganda, bunday uyushma yo‘qoldi. Bolalarning yozish ta’rifi turli xil yozish shakllarini (masalan, rasm chizish va chizish) o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning guruhdagi o‘yin xatti-harakatlarini tabiiy kuzatish - bu bolalarning yozuv materiallari va jarayonlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini o‘rganishning yana bir usuli bolalarni kuzatish va vidiotasvirga olishdir.[7]

Tadqiqotchilar yozishga bo‘lgan qiziqishni bolalarning yozishga urinishlari orqali o‘rganishni muhim deb hisoblaydilar. Mavjud bo‘lgan bir qator tadqiqotlar bolalarning savodxonlikka bo‘lgan qiziqishini ko‘rgazmali qurollar yordamida aniqlash uchun bolaning o‘zini o‘zi hisobot berish usulidan foydalangan.[8]Garchi bu yondashuv tadqiqotchilarga bolalar bilan his-tuyg‘ular haqida to‘g‘ridan to‘g‘ri gapirishga imkon beradi va shu bilan hisobotda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri fikrlardan qochishga imkon beradi,mavjud chora-tadbirlar ma’lum bir savodxonlik sohasiga (masalan, yozish) emas, balki savodxonlik qiziqishiga qaratilgan.Lekin bolalarda yozish ko‘nikmlarini shakllantirish va savodxonlikni shakllantirish birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.Chunki bu ikki bog‘liq jarayon bir biriga bog‘liq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolallarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari va ilk qadam davlat o‘quv dasturi

2.Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi davlat standarti.2020.22.12

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga yozishni o‘rgatish bosqichlari.Innovation of science Technologies 2024 ilmiy elektron jurnal

4. T. G‘afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. Alifbe (Savod). – O‘qituvchi. 1999

5. M.M.Bezrukix: “Yozuv murakkab psixofiziologik tuzilishi”

6.Martini va Sénéchal, 2012. Preschool children's interest in the first writing activity Journal

7. Eshbekova G. Bolalarni maktabga tayyorlashning yozishga o‘rgatish bosqichida psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olish masalasi Международный научный журнал № 6 (100), часть

8. Husnixatga o‘rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo‘llanma) GlobeEdit, 2020,130 b

## MASOFAVIY TA’LIM TALABALAR O‘QUV-BILISH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZARUR OMILI SIFATIDA

**Samiyeva Dilbar Shukrullayevna**
**NavDPI Pedagogika va psixologiya, kafedrasi o‘qituvchisi**
**Fayziyeva Shaxina, NavDPI 3-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zarurati, afzalliklari va masofaviy ta’lim sohasidan foydalanish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va masofaviy ta’limning yangi avlod tizimlarini joriy etish lozimligi, masofaviy ta’lim tizimi orqali yangi ko‘nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o‘rganish tezroq, osonroq va arzonroq ekanligi atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, raqamli o‘qitish ta’lim tizimi, internet tarmog‘i, masofaviy ta’lim, masofaviy platformalar, mobil qurilmalar.

**Аннотатсия.** В статье рассмотрены необходимость и преимущества использования цифровых технологий в образовательном процессе и использования дистанционного образования, использование цифровых технологий и необходимость внедрения систем дистанционного образования нового поколения, новых навыков или предметных материалов посредством дистанционного обучения. широко освещается в системе образования: обучение происходит быстрее, проще и дешевле.
**Ключевые слова**: цифровые технологии, цифровая система преподавания и обучения, сеть Интернет, дистанционное образование, дистанционные платформы, мобильные устройства.
**Abstract**. In the article, the necessity and advantages of using digital technologies in the educational process and the use of distance education, the use of digital technologies and the need to introduce new generation systems of distance education, new skills or subject-related materials through the distance education system learning is faster, easier, and cheaper, is widely covered.
**Key words:** digital technologies, digital teaching and learning system, Internet network, distance education, distance platforms, mobile devices.
Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalari vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi o'qitish shakli – masofaviy o'qitish yaratilishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga yangiliklarni tezkor kirib kelishi zamonaviy sharoitda global axborotlashuvning qaror topishi har bir ta'lim oluvchilarni katta hajmdagi axborotlarga ega bo'lishga chorlamoqda. Bugungi kun yoshlariga ularning shaxs sifatida kamol topishi, intellektual jihatdan rivojlanishi, mavjud qobiliyatlarini oshirishlari, o'z ustida izchil ishlashlari, kasbiy kamolotga yetishlariga hamda nazariy jihatdan bunyodkorlik, yaratuvchanlik, insonparvarlik g'oyalariga intilishlarida xuddi shu kabi axborotlar mavjud sharoitda talabalarda ta'lim olish, mutaxassis sifatida kamol topishga nisbatan qiziqishning oshishiga zamin yaratadi. So'nggi bir asr davomida bosqichma-bosqich, biroq, izchil rivojlanib kelayotgan ta'lim texnologiyalari bevosita ishlab chiqarish jarayonini qo'llab-quvvatlash, uni ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, yuqori intellektga ega, ruhiy jihatdan barqaror, raqobatga bardoshli mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadlariga xizmat qilmoqda.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonida [1] ilgari surilgan O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish masalalari xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, ma'rifati, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etishda dolzarb ahamiyatga ega sanaladi.
Ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv va masofaviy ta'lim texnologiyalarni tatbiq etish uchun talabalar va pedagoglar nafaqat axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasiga, balki, axborot yig'ish, umumlashtirish, qayta ishlash va uzatish mahoratiga egaligini namoyon eta olishi, o'zida innovatsion yondashuv asosida o'qitish malakasini rivojlantira olishi zarur. Bu jarayonda ta'lim va axborot kommunikatsiya texnologiyalarining alohida o'rni bo'lib, u ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda yetakchi vosita hisoblanadi, hamda davlat va jamiyat, mehnat bozori extiyojlariga eng adekvat (mos) tarzda javob beradi. Ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish jarayoni, shuningdek, talabalarni kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga qo'yilayotgan talablar bu borada quyidagi ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatadi:
– talabalar o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish, faol ta'lim olish shakl va imkoniyatlariga ega bo'lish ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatning to'la qondirilmayotganligi, shuningdek ta'lim jarayonini oliy ta'limning kredit modul tizimi talablari asosida tashkil qilish uchun pedagog kadrlarning ham o'quv- tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish bo'yicha yetarli darajada kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega emasliklari;
– o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirishda talabalar tomonidan masofaviy ta'lim

texnologiyalari va interfaol ta’lim metodlarining samarali imkoniyatlaridan to‘laligicha foydalanish va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilmayotganligi.

Oliy ta’lim tizimida talabalar o‘quv- bilish kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, mexanizmi, metodlari va texnologiyalarining ishlanmaganligi, talaba kasbiy shakllanish jarayonning subyekti sifatida ishtirok etishining ta’minlanmaganligi orasida nomutanosiblik mavjud. Bu kabi nomutanosiblikning asosiy manbayi va sababi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni, oliy ta’limning kredit-modul tizimi sharoitida talabalar o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishni ta’minlovchi mavjud tizimning mukammal emasligidir. Ana shu nomutanosibliklarning yechimini topish bugungi kun ta’lim jarayoni muammosini tashkil etadi va mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Respublikamizning milliy ta’lim tizimi mohiyatiga ko‘ra ta’lim mazmunining minimal talablari bilim, ko‘nikma va malakaga asoslanadi. Agarda “kompetentlik” tushunchasining tahliliga nazar tashlasak, mazkur tushunchaning tasodifan yuzaga kelmaganligini anglash mumkin.

Taniqli olim N.A.Muslimovning ta’kidlashicha “kompetentlik” talaba tomonidan alohida bilim va malakalarni egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq, qo‘llash qobiliyatini anglatadi.[2]

Ana shundan kelib chiqib, “o‘quv-bilish kompetentligi – ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalar faoliyatini faollashtirish bilim olish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish faoliyati va mustaqilligini bo‘lajak mutaxassis uchun zarur bo‘lgan sifatlarini egallash motivatsiyasini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatidir” deb ta’rif beradi pedagog olim A.V.Xutorskoy.[3]

O‘quv-bilish kompetensiyalari yuqori malakali mutaxassislarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular zarurat tug‘ilsa, mutaxassisligi va kasbiy faoliyati doirasini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan ta’lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy harakatini ta’minlaydi. Shunday qilib, o‘quv-bilish kompetensiyalari – ijtimoiy raqobatbardoshlik omilidir. O‘quv-bilish faoliyat turlarini shakllantirish va rivojlantirish tashqi boshqaruvdan o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z-o‘zini tashkil qilishga o‘tish bosqichida sodir bo‘ladi. O‘quv jarayonida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish qobiliyati ortadi va o‘qituvchining bilimlarni uzatish ehtiyoji keskin kamayadi.

Ushbu muammoni hal etishning istiqbolli usullaridan biri ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga, ijodiy qobiliyatga va ijodiy-bilish faolligiga yo‘naltirilgan masofaviy o‘qitish hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. - Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

*2.* Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘quvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. -T; “Fan va texnologiya”, 2013, 9-bet.

3.Xutorskoy, A.V. Texnologiya proyektirovaniya klyuchevых i predmetnых kompetensiy [Elektronnыy resurs) /A.V, Xutorskoy // Internet-jurnal “Eydos” URL: eidos journal(Data obrasheniya 13.05.2013).

4.Abdukadirov, Abdukaxxor Abduvakilevich. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya / A. A. Abdukadirov, A. X. Pardayev; red. M. Sodikova. - T. O‘zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi. FAN , 2009. - 145 s.

5. Андреев А.А. Дистанционное обучение в системе непрерывного профессионального образования. Автореферат. диссер. на соис. уч. ст. доктора педагогических наук. http://www.iet.mesi.ru/dis/oglo.htm

6. Сластенин В.А, Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н.. Педагогика: Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений -М.: Педагогика, 1997, С60.

7. Тихомиров В. П. От электронного обучения к Smart-Университету. — Сборник трудов VII

Международной научно-практической конференции “Современные информационные технологии и ИТ-образование”, ноябрь, 2012 г.
8. Моисеева М.В, Полат Е.С, Бухаркина М.Ю., Нежурина М. Интернет-обучение: технологии педагогического дизайна М.: Издательский дом “Камерон”, 2004.-216 с

## SPORTDA MAJMUAVIY NAZORATNING ZAMONAVIY VOSITALARI

**Fayzullayev Sardor Saydullo o‘g‘li**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Jismoniy madaniyat fakulteti 3-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: p.f.b.f.d.(PhD) Raxmatov Otabek Urinbosarovich**

**Annotatsiya.** Maqolada sportchilarni majmuaviy nazorat qilishning tarkibiy qismlari, taklif etilgan majmuaviy nazorat qilish vositalarining qo‘llanilish usullari, imkoniyatlari va afzalliklari xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** sport, jismoniy tarbiya, mutaxassis, amaliyot, murabbiy, pedagog, induktiv, nazorat, ko‘rsatkich.

**Аннотация.** В этой статье рассматривается о комплексном контроле составной части спортсменов. Применение методов предлагаемых средств эффективность комплексного контроля.

**Ключевые слова.** спорт, физическое воспитание, специалист, практика, тренер, педагог, индуктивный, контроль, индикатор.

**Abstract.** This article is about structural units of complex controlling sportsmen, the metods of using invited complex control and their possibilities and advantages.

**Keywords.** sports, physical education, specialist, practice, coach, teacher, inductive, control, indicator.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, respublikamiz aholisining moddiy va ma’naviy hayot darajasida tub o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Istiqlol tufayli ko‘pgina sohalarda bo‘lgani kabi, jismoniy tarbiya va sport sohasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlarni amalga oshirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas masalalari qatoriga qo‘yilmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda bolalar va ayollar sportini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari asosida katta ishlar amalga oshirilayotganligi hech kimga sir emas. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha aholining jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishlari uchun yoshi, jinsi, kasbi, tayyorgarlik darajasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar barcha imkoniyatlar va shart sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlarning o‘quv jarayoniga joriy qilinishi o‘qituvchilarning zaruriy kasbiy darajasini qo‘llab-quvvatlash, bo‘lajak mutaxassislarning malakasini oshirish va kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun muhim bo‘lgan sharoitlardan biri sanaladi.

Sport amaliyoti va uning rivojlanish jarayoni butun rang-barangligi bilan adekvat tarzda aks ettirgan sportning yaxlit ilmiy tasvirini falsafa hamda umumilmiy metodologiyasiz aslo tasavvur etib bo‘lmaydi[1; 6-b].

Darhaqiqat, har qanday, jumladan jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi fanning dastlabki rivojlanish bosqichlarida, fan shakllanishining empirik davrini boshdan kechirayotgan davrda, hodisalarning empirik ma’lumotlar orasidagi o‘zaro aloqadorligini belgilashga xizmat qiluvchi bilishning induktiv usullari ustunligini ilmiy adabiyotlarda talqin qilinganligini kuzatishimiz mumkin.

Sport sohasida faoliyat olib borayotgan murabbiylar, pedagoglar va sohaning boshqa mutaxassislari joylarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishlarida, sportchi va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar to‘g‘risida doimiy axborot bo‘lgan taqdirdagina o‘z faoliyatlarining samaradorligini oshirishlari mumkin. Bunday ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash, sport

mashg‘ulotlarining asosiy yo‘nalishlarini tanlash, sport tayyorgarlik ishlarini sifatli va aniq maqsadli rejalashtirish va dasturlash imkoniyatini beradi.
Hozirgi vaqtda sport mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyatining turli xil vositalari, usullari qo‘llanilayotganligi sababli oxir oqibatda “majmuaviy nazorat” tushunchasi paydo bo‘lishiga olib keldi. Sportda majmuaviy nazoratning zamonaviy vositalari xususida so‘z yuritar ekanmiz, majmuaviy nazoratning zamonaviy tushunchalariga to‘xtalib o‘tamiz. Dastlab majmuaviy nazoratning yetakchi tushunchasi bo‘lmish “metrologiya” tushunchasiga murojat qilamiz: “metrologiya” so‘zi yunon tilidan tarjima qilinganda “o‘lchash haqidagi fan” degan ma’noni anglatadi, ya’ni “metron” – o‘lchov, “logos” – fan. Umumiy metrologiyaning asosiy vazifasi – o‘lchovlarning birligi va aniqligini ta’minlash. Sport metrologiyasi ilmiy fan sifatida umumiy metrologiyaning bir qismi hisoblanadi va uning vazifalari – sportdagi ko‘rsatkichlarni nazorat qilish va o‘lchashdan iborat[2; 6-b]
Sportchilarni majmuaviy nazorat qilish orqali ular to‘g‘risida aniq va to‘liq ma’lumot olish imkoniyati yaratiladi. Nazorat qilishning asosiy vazifalaridan biri sportchining jismoniy holatini tahlil qilish va baholashdir. Majmuaviy nazorat musobaqa faoliyatida va mashqlar jarayonida sportchilarning har tomonlama tayyorgarligini ta’minlaydi. Majmuaviy nazoratda ijtimoiy-psixologik va tibbiyot-biologik ko‘rsatkichlar asosiy manba hisoblanadi.
Sportchilarni majmuaviy nazorat qilishning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish mumkin:
- mashg‘ulotgacha va mashg‘ulot davomida sportchilarning jismoniy holatini nazorat qilish;
- musobaqaolda mashg‘ulotlarda jismoniy yuklamalarini nazorat qilish;
- mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida mashq elementlari va harakatlarni bajarish texnikasini va taktikasini nazorat qilish;
- musobaqalarda sportchilarning individual holati va sport natijalarini nazorat qilish;
- nazorat qilish jarayonining har bir yo‘nalishida olingan ma’lumotlarni taqqoslash, ularni tahlil qilish va baholash. Sport natijalari, odatda, absolyut sonlarda ifodalanadi.
Turli sportchilarning ko‘rsatkichlarini o‘zaro taqqoslash yoki bir sportchining har xil sport turlari bo‘yicha jamlanma natijasini baholash imkoniyatiga ega bo‘lish uchun, bunday ko‘rsatkichlar nisbiy sonlarga o‘tkaziladi (ochkolar, ballar va boshqalar). Sportchi organizmiga ta’sir etuvchi barcha omillar o‘lchash obyektlari hisoblanadi. Sportchi organizmiga ta’sir etuvchi omillar baholanishi yoki o‘lchanishi lozim. Majmuaviy nazorat ko‘rsatkichlarini tanlash o‘tkaziladigan test maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Sport amaliyotida mezon sifatida musobaqa natijalari hamda aniq bir sport turidagi musobaqalashuv faoliyatining o‘ziga xosligini tasvirlaydigan ko‘rsatkichlar hisobga olinadi. Shuning uchun ham majmuaviy nazorat dasturlari har xil sport turlarida har xil bo‘ladi.
Fan va texnikaning jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davr bosqichida barcha sohalarda bo‘lgani kabi sportchilarni majmuaviy nazorat qilishning qulay texnika vositalari yaratildi. Amaliyotga joriy qilingan ushbu texnika vositalari orqali, misol uchun: boks sport turi bilan shug‘ullanuvchi sportchilarni nazorat qilmoqchi bo‘lsak, bir vaqtning o‘zida sportchining yurak urish pulsini (mashg‘ulotgacha va mashg‘ulotdan keyin), necha kg og‘irlikda zarba kuchi berayotganligini, berilgan zarbalarning ordinata va abssissa o‘qi bo‘yicha to‘lqinsimon grafigini kuzatish mumkin.
Spidografiya – sportchining yugurish tezligini qayd qilish uchun qo‘llaniladigan moslama spidograf quyidagi qismlardan tashkil topgan: asosli tirgak, ikkita g‘altak(spinning), magnit datchik, ATSP va kompyuter. G‘altaklarning biriga leska o‘ralgan ikkinchisiga esa – magnit datchik o‘rnatilgan bo‘ladi. Sirtmoqning leskasi ikkinchi g‘altak ustiga tashlangan va karabin yordamida sinovdan o‘tayotgan sportchining beliga mahkamlanadi. Yugurayotgan sportchi leskani tortadi, g‘altak aylanish tezligi datchik yordamida qayd etiladi, signal trenajyor orqali kompyuterga uzatiladi. Natijada kompyuterda yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi.
Sportchilarni majmuaviy nazorat qilish uchun taklif etilgan ushbu yuqorida ko‘rib chiqilgan ba’zi bir tajriba usullari va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, sportchining murabbiy tomonidan mashg‘ulot yuklamasi darajasini muntazam tahlil qilib borish, musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari bilan uni taqqoslab borish, sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini aniqlash, ularning tahlili asosida strategik va taktik tayyorgarliklarga tuzatishlar kiritish, sportchi mahoratining alohida

jihatlarini rivojlanishini baholash imkoniyatiga ega bo‘lib, sportchilarni musobaqalarga tayyorlash jarayonida muvafaqiyat bilan qo‘llash imoniyatini yaratadi.
Hozirgi davrda, turli sport yo‘nalishlaridagi natijalarga morfologik, fiziologik, psixofiziologik va boshqa belgilarning ta’siri hamda sport muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi ko‘p ko‘rsatkichlarning genetik asosi to‘g‘risida yetarlicha ma’lumotlar mavjud. Muammoni tadqiq etishni davom ettirish, sport iqtidorini, ko‘plab o‘zaro bog‘langan komponentlardan tashkil topgan, aniq strukturaga ega bo‘lgan rivojlanuvchi tizim sifatida o‘rganishni talab qiladi. Bu jarayonda olingan ma’lumotlar sport iqtidori mezonlarini ishlab chiqishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunda strukturani ham umumiy, ham maxsus sport iqtidori ko‘rinishida o‘rganishni nazarda tutish shart.
Sport amaliyotida sportchilarni majmuaviy nazorat qilish uchun taklif etilgan zamonaviy texnika vositalari amaliyotda qo‘llanilar ekan, jismoniy tarbiya va sportda majmuaviy nazoratning yangi metodlari va vositalari zamon talablariga mos ravishda o‘zgarib boraveradi.
Shunday qilib, sportchilarni majmuaviy nazorat qilish sport saralovining eng asosiy vazifalaridan biri – tayyorlovning boshlang‘ich bosqichida sport iqtidorini, chuqurlashtirilgan sport ixtisosligi bosqichida esa sportchining maxsus iqtidori darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1.Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар.Тошкент;-“ZAR QALAM”. 2004.
2.Толаметов А.А.Спорт метрологияси. Тошкент; “Янги аср авлоди”.2010.

## BADIIY MATN XUSUSIYATLARI

**Fayzulloyeva Mashhura Asatullayevna**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi magistranti**

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda badiiy matn va uning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy matn tabiati hamda uning boshqa matn turlaridan farqlari haqida so‘z yuritiladi.
**Abstract:** This thesis focuses on the literary text and its characteristics, the nature of the literary text and its differences from other types of texts.
**Аннотация:** В данном тезисе говорится о художественном тексте и его характеристиках, природе художественного текста и его отличиях от других видов текста.
**Kalit so‘zlar:** badiiy matn, epitet, metafora, personifikatsiya, obrazlilik, umumlashtirish, allegoriya.
**Key words:** literary text, epithet, metaphor, personification, imagery, generalization, allegory.
**Ключевые слова:** художественный текст, эпитет, метафора, персонификация, образность, обобщение, аллегория.
Badiiy matn - badiiy asar matni bo‘lib, unda muallif umumlashgan obrazlar yaratib, tasvirlangan voqea va personajlarga o‘z munosabatini bildiradi. Matnlarning eng yorqin namunalari yordamida butun xalqlar va butun insoniyatning erkin muloqoti amalga oshiriladi. Bu madaniy kontekstdagi matnlarning eng muhim vazifasidir. Badiiy matn bilan ishlashni tashkil etish amaliyoti uchun matnning estetik xususiyatlarini tushunish nihoyatda muhimdir, bu badiiy matnni madaniy voqelik sifatida belgilaydigan muhim xususiyat sanaladi. Umuman olganda, matn M.M.Baxtinning fikricha, badiiy yoki estetik deb atalmish ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan "estetik obyekt" sifatida ishlaydi [31. B.22]. Shu bilan birga, san'at asari "badiiy vazifaning birligi bilan belgilanadigan estetik tizim" sifatida qaraladi va bu tizimning tarkibiy qismlari "ma’lum bir badiiy ta’sir ko‘rsatadigan estetik yo‘naltirilgan faktlar hisoblanadi" [33.125-bet]. U boshqa barcha uslublardan badiiy ifoda vositalarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Bular epitet, metafora, taqqoslash, personifikatsiya va hokazo bo‘lib, ular, shubhasiz, ilmiy yoki rasmiy uslubdan ko‘ra ko‘proq hissiylik va ifodalilikni aks ettiradi. Ikkinchi xususiyat bu turdagi matnlarda obrazlilik, umumlashtirish va allegoriya kabi vositalarning ko‘p uchrashi hisoblanadi. Uchinchi xususiyat badiiy matnda muallif bahosining mavjudligidir. Har bir badiiy matn va o‘z navbatida badiiy asar yozuvchi tomonidan voqelikni obrazli bilish va aks ettirish natijasidir. Adabiy asar yozuvchining dunyoni individual tasavvuri bilan tasvirlashi tufayli o‘quvchiga oqilona va hissiy ta’sir ko‘rsatadigan kuchga ega. Yozuvchi voqelikni tasvirlab, muqarrar ravishda olamga qarashini, unga munosabatini aks ettiradi, haqiqat va fantastika uyg‘unlashadi. Bularning barchasi badiiy asar matnida amalga oshiriladi. "Muayyan

adabiy matn", deb yozadi G.V.Stepanov, bizning fikrimizcha, sinonim so‘zlar bilan ifodalab bo‘lmaydigan ma’noni anglatadi. Badiiy ma’noni "semantik tarzda ifodalash" mumkin emas. Lingvistik dizayndagi o‘zgarish muayyan badiiy ma’noni yo‘q qilishga yoki yangisini yaratishga olib keladi. Shunday qilib, badiiy matnning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat semantik, balki badiiy yoki estetik deb ataladigan ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Badiiy matnda til darajasida ham, nutq darajasida ham har qanday element tarkibiy jihatdan ahamiyatli elementlar hisoblanadi. Badiiy asar matni o‘ziga xos tarzda mazmunan boy. Bir tomondan, matn badiiy asarning bir qismi sifatida uning predmet shaklidagi qatlami va mazmuni, g‘oyasi, tushunchasi, ma’nosi bilan ajralib turadi va shu bilan birga ular bilan uzviy bog‘lanadi, o‘zida mujassamlanadi, ularga xizmat qiladi. [70. 30-bet]. Bu holat quyidagi sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, asar matni turli nutq birliklarining murakkab tizimidir: u leksik-frazeologik darajani, allegoriyalar qatlamini, intonatsiya-sintaktik, ritmik, fonetik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, badiiy nutq vositalari mustaqil ekspressiv ahamiyatga ega, shuning uchun ham ma’no yuklanadi. Uchinchidan, asarning og‘zaki to‘qimasi matnning obyekt-majoziy tuzilishi yukini o‘z zimmasiga oladi, bu esa, o‘z navbatida, mazmunli va muallifning pozitsiyasini eng katta konkretlik bilan ifodalaydi. Demak, matn mafkuraviy-mazmun sohasi bilan bilvosita bog`langan. Bundan xulosa qilish mumkinki, adabiy matn muallif fikrini ochiq aks ettirmaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy tadqiqotchilar uchun "nafaqat adabiy matnga muallifning ta’siri, balki muallif asari matniga badiiy matnning ham ta’siri" juda katta. Boshqa tomondan, Yu.M.Lotman va boshqa adabiyotshunos olimlar ko‘pincha matn sohasiga asarning lingvistik to‘qimasidan tashqari uning obyekt shaklidagi qatlamini: uning detallarida, syujetida, personajlarida, kompozitsiyasida tasvirlangan narsalarni ham o‘z ichiga oladi. Bir qator tadqiqotchilar nazdida matn tushunchasi madaniyat chegaralarigacha kengaydi, matn madaniy hodisadir - dunyoning umumlashtirilgan modeli, matnlar madaniyatning ajralmas tomonini tashkil qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, matn va madaniyat kategoriyalari o‘zaro bog‘liqdir: matn madaniyatning bir qismidir, lekin ayni paytda madaniyatning o‘zi ham matndir. Demak, adabiy matn muayyan ijtimoiy guruhlar va eng muhimi, alohida shaxslarning ma’naviy va amaliy tajribasining tashuvchisi hisoblanadi. Tarkibiy jihatdan adabiy matn estetik funksiyali (kontseptual, baholovchi, emotsional, ekspressiv sintetik, ritmik-intonatsiya), leksik, sintaktik, tovush, metrik darajalari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan elementlar ierarxiyasidir. Bundan tashqari, psixolingvistika (V.A.Maslova, V.A.Pishchalnikova) nuqtai nazaridan, badiiy matnning estetik qiymati o‘quvchi tomonidan uyushgan belgilar tizimining ma’lum bir usuli – kod, asar tilini idrok etish jarayonida - san'atning badiiy va estetik funksiyasida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar badiiy adabiyot tilining belgilovchi xususiyati uning estetik vazifasi ekanligini bir ovozdan tan oladilar. Shu bilan birga, tilni madaniyat quroli sifatida qarash va barcha madaniy hodisalar uchun umumiy xususiyatlar orqali tavsiflash mumkin [69.B.312]. A.I.Gorshkov tilning estetik vazifasini uch turga qisqartiradi. Tilning estetik vazifasi qabul qiluvchining og‘zaki ifoda shakliga e'tibor qaratib, unga baho berganda namoyon bo‘ladi; lisoniy shakl mukammalligida, mazmun va shakl uyg‘unligida, aniqlik, aniqlik, lakonizm, nafislik, soddalik, uyg‘unlikda; badiiy matnning obrazliligida, badiiy adabiyot asarlarida tilning obraz yaratilgan material vazifasini bajarishida [24. 315-316-betlar]. Tilning estetik vazifasi va uning “amaliy” vazifalari o‘rtasidagi asosiy farq og‘zaki ifoda shaklining nafaqat u yoki bu mazmunning uzatilishiga, balki “o‘ziga, o‘z mukammalligiga ham e’tibor qaratish, go‘zallikni tilning o‘zida his etishdir” [24. B.316]. Biroq tilning eng muhim sanalgan estetik vazifasi badiiy adabiyotda uning boshqa vazifalarini, ya’ni aloqa, xabar va ta’sir funksiyalarini ham istisno etmaydi. Shuni qayd etish lozimki, badiiy matn nafaqat tilni, balki, birinchi navbatda, muallifning tilda ifodalangan fikr va his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Bu borada Baxtin, “til – so‘z ijodkorining ongi yashaydigan jonli konkret muhitdir”, - deya bejiz ta’riflamagan [6.104-b.]. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, yozuvchi muallif so‘zi yordamida qahramon va muallif-rivoyatchining nutqini allaqachon lingvistik shaklga, janrga moslashtirilgan, dunyoga munosabatini, unga bahoni ifodalaydi. Shu bilan birga, adabiy asardagi mualliflik badiiy, estetik hodisadir: "u asarning butun tuzilishiga tarqalib, uning majoziy tarkibiy qismiga aylanadi" [6: 211]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, adabiy matnning xususiyatlaridan biri - bu matnni qabul qiluvchining ongsizligiga ta’sir qilish qobiliyatini bildiradi. Bundan tashqari, qabul qiluvchining

pozitsiyasidan, matnni idrok etishda nisbiy obyektivlik va nisbiy subyektivlik muhim ahamiyatga ega. Birinchi komponentsiz matnni, lingvistik tadqiqni, ikkinchi komponentsiz amalga oshirish mumkin emas, uni badiiy matn sifatida tushunish mumkin emas [48:144]. Shunday qilib, badiiy matn ma'lum estetik parametrlarga ega bo'lib, uni madaniy voqelik sifatida tavsiflash imkonini beradi. Bundan tashqari, badiiy matn matn makonini tashkil etishning barcha darajalarida estetik ma'lumotlar mavjud. Badiiy matnning estetik parametrlari uning lingvistik dizaynida eng to'liq ifodalanadi.

Badiiy matnning yana bir o'ziga xos xususiyati antropotsentrizmdir, ya'ni dunyoni bilish va asarda aks ettirish. Badiiy adabiyot, avvalo, insonni anglashga qaratilgan bo'lib, tasvirlangan barcha badiiy hodisalar uni har tomonlama namoyon etish vositasidir. Yana bir o'ziga xos xususiyat - badiiy matnning polisemantik, ya'ni ko'p ma'noligidir. U lirik she'rlar talqinida, ozroq darajada prozaik syujet matnlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zi hollarda ko'p ma'nolilik muallifning niyatining natijasi bo'lishi mumkin, muallif o'quvchilarga baholash va xulosalar qilish imkoniyatini beradi. Badiiy matnning boshqa matndan asosiy farqi shundaki, u voqelikni obraz shaklida taqdim etadi. Matnlarning badiiy va badiiy adabiyotga bo'linishi insonning ikki xil fikrlash tizimiga ega ekanligiga asoslanadi: mantiqiy va obrazli. Agar ilmiy, hujjatli va boshqa nobadiiy matnlar mantiqiy fikrlash tizimiga, dunyoning mantiqiy aks etishiga asoslansa, badiiy matnlar obrazli tafakkurga, insonning dunyoni obrazli anglash qobiliyatiga murojaat qiladi. Badiiy matn - bu dunyoning obrazli aks etishiga asoslangan va har xil turdagi - intellektual, hissiy, estetik ma'lumotlarni kompleks uzatish uchun mavjud bo'lgan va o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatish funktsiyasiga ega bo'lgan matndir.

Badiiy matnning oxirgi xususiyati matnni yaratish maqsadini, ya'ni ta'sirni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Oddiy faktlarni yetkazish shunchaki o'quvchiga ta'sir qilish vositasidir. Badiiy matndagi ta'sir funksiyasi o'z-o'zidan yetarli emas, u ba'zi hodisalar, faktlar, hodisalarga hissiy va oqilona munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Aksariyat hollarda muallif o'z oldiga o'quvchini shunchaki yig'lash yoki kuldirish emas, balki ma'lum bir sababga ko'ra yig'lash yoki kulish vazifasini qo'yadi.

Badiiy matnda berilgan ma'lumotlarning tabiati ham o'ziga xosdir. Bu quruq statistik ma'lumotlar yoki hujjatli faktlar emas, bu intellektual, hissiy va estetik ma'lumotlar. Ushbu turdagi barcha ma'lumotlar uzatishning maxsus usullarini, ya'ni qabul qiluvchiga oqilona, hissiy va estetik ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Ushbu ta'sirga turli darajadagi lingvistik vositalar yordamida erishiladi. Buning uchun matnning ritmik tashkil etilishi, fonosemantika, grammatik semantika va boshqa ko'plab vositalar qo'llaniladi. Badiiy matndagi ma'lumotlar ochiq-oydin yetkazilishi mumkin, shuningdek, barcha turdagi allegoriyalar - allegoriyalar, ramzlar, ishoralar va boshqalar yordamida nazarda tutilishi mumkin. Badiiy matnning o'quvchining muallif tomonidan qabul qilingan faollik darajasi, uning asar yaratishdagi ishtiroki kabi xususiyatini ta'kidlash kerak. Muallif, ba'zi hollarda, matn murojaat qilingan shaxsning hayoti va o'qish tajribasiga murojaat qiladi, o'quvchida ma'lum birlashmalarning paydo bo'lishiga umid qiladi va o'quvchining taxminlariga tayanadi.

Badiiy matnning xususiyatlari lirik qahramonning mavjudligini ham o'z ichiga olishi kerak. V.V.Vinogradov ifodasidan foydalanib aytishimiz mumkinki, asarda muallif obrazi doimo mavjud bo'lib, matnning ichki birligini yaratadi (Vinogradov, 1978:126). Badiiy matn muallifning pozitsiyasidan, muallifning qahramonlar va voqealarga munosabatidan xoli bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga, muallif obrazini, uning nomidan hikoya qilinayotgan hikoyachi obrazi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Ammo hikoya qahramonlardan birining nomidan aytilgan taqdirda ham, muallif har doim uning orqasida turib, o'quvchi bilan bilvosita suhbat olib boradi. Ana shu yashirin suhbat tasvirlangan voqealardan ko'ra muhimroq bo'lib chiqadi.

Badiiy matnlar tuzilmaviy xilma-xilligi yoki boshqacha aytganda, kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. Badiiy asarda turli hikoyalar bilan bog'liq epizodlar almashinishi, xronologik yoki mantiqiy rejalar aralashib ketishi yoki siljishi mumkin. Ilgari o'qilgan narsalarni yangi ma'lumot olgandan keyin qayta ko'rib chiqish mumkin. Muallif ma'lum bir lahzagacha ba'zi ma'lumotlarni ataylab yashirishi, ataylab noaniqlik yaratishi mumkin. Bularning barchasi o'quvchida kerakli kayfiyat va

taassurot yaratishga xizmat qiladi va muallifga o‘quvchini keyingi voqealarni idrok etishga tayyorlashga yordam beradi.

Badiiy matnning navbatdagi xususiyati shundaki, u odatda yuqori darajadagi milliy-madaniy va zamon shartliligi bilan ajralib turadi. Muallif bunga intiladimi yoki yo‘qmi, har doim badiiy matnda muallif kimning vakili bo‘lgan va kimning tilida yozayotgan xalqning xususiyatlari, u yashayotgan zamon o‘z aksini topadi. Bundan tashqari, yozuvchi o‘z matniga xalq hayotining ma’lum bir davri bilan bog‘liq bo‘lgan milliy-madaniy voqelikni ongli ravishda kirita oladi. Umuman, matnning milliy o‘ziga xosligi tilda milliy tarix va milliy madaniyatning mavjudligi bilan bog‘liq holda muqarrar ravishda yuzaga keladi. Til atrofdagi dunyoni idrok etish va aks ettirishda xalqning tarixan shakllangan xususiyatlarini, shu jumladan uning majoziy aksini birlashtiradi. Bu barqaror taqqoslashlar, lingvistik metaforalar, epitetlar va metonimik nominatsiyalar mavjudligida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagilar badiiy matnning ayrim o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Bular: obrazlilik, o‘quvchiga hissiy ta’sir, intellektual, hissiy, estetik ma’lumotlar, kompozitsiyaning rang-barangligi, milliy-madaniy va zamon sharti, lirik qahramonning mavjudligi, muallif obrazining mavjudligidir.

## TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**G‘ulomova Lobar Ilhomovna**
**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Magistratura bo‘limi**
**Ta`lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi 1-bosqich talabasi**

**Annontatsiya.** Ushbu maqolada lider aslida kim, u qanday bo‘lishi kerak. Talabalarda liderlik qobiliyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bugungi bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda bayon etilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarda liderlik qobiliyatining tutgan o‘rni haqida so‘z yuritilgan.Shuningdek maqolada rahbar va liderlikni o‘zaro farqli jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so‘z:** Lider, liderlik, rahbar, xarizma, ta’lim-tarbiya,qobiliyat.

Ma’lumki, har qanday guruh, tashkilot, jamoada, bo‘linmada tan olingan obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan shaxs mavjud bo‘lib, u mazkur tashkilotning faoliyatiga bevosita ta’sir o‘tkazadi, bu o‘zini boshqaruv harakatlari sifatida namoyon qiladi. Boshqaruv harakatlari usuliga an’anaviy yondashuvdan tashqari zamonaviy g‘oyalar ham kirib keladiki, ularni bilish liderlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi.

“Lider” so‘zi inglizcha *lider*- yetakchi, boshliq, rahbar biror siyosiy partiya yoki tashkilotning rahbari, yo‘lboshchisi ma’nolarini anglatadi. Liderlik (inglizcha;*leader-yetakchi, boshlovchi* so‘zidan) umumiy bir ishni bajarishda boshqalarning yordami va harakatlarini birlashtiruvchi ijtimoiy ta’sir jarayondir. O‘ylashimcha, adabiyotlarda (*yetakchi)* atamasi bilan almashtirish hollari ko‘p uchraydi. Yetakchi atamasi (*Lider)*ga xos bo‘lgan psixologik tavsifni to‘la ifodalay olmaydi. Chunki yetakchi so‘zi guruhga munosabat sifatida, uning a’zolariga ta’sir o‘tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil qilish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo‘ladigan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularning munosabatlari doirasidagina tahlil etolmaymiz. Lider qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak? Yetakchilikning ya’ni liderlikning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

Mas’uliyatli va qiyin qarorlarni qabul qilish qobiliyati, ular uchun tegishli javobgarlikni o‘z zimmasiga olish istagi;

Shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki odamlarning umumiy manfaatlari va manfaatlari haqida qayg‘urish;

Odamlarni butunlay ixtiyoriy asosida boshqarish qobiliyati;

Xarizma va tabiiy ta’sir kuchiga ega bo‘lish;

Guruh tamonidan yetakchiga bo‘lgan ishonch va kuchli hokimiyat mavjudligi;

Xatolarni tan olish qobiliyati va mag‘lubiyat uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish, bundan shaxsiy xatolarni qidirish;

Bir qarashda liderlik rahbarlik kabi koʻrinishi mumkin. Qisman toʻgʻri, ammo ularning oʻzaro farqli jihatlari mavjud. Birinchidan, lider har doim parda ortida va oʻz- oʻzidan aniqlanadi, rahbar esa rasmiy ravishda tayinlanadi. Ikkinchidan, rahbar u bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan maʼlum bir guruh vakili boʻlib, yetakchi esa aksariyat hollarda guruhdan ajraladi. Uchinchidan, liderning asosiy sohasi – bu shaxslararo munosabatlar, rahbarning asosiy sohasi esa rasmiy munosabatlardir. Ammo rahbarning ixtiyorida juda koʻp tashqi maʼlumotlar mavjud, qonuniy sanksiyalarni qoʻllash mumkin, yaʼni u rasmiy shaxs. Ilmiy tilda guruhga kuchli va taʼsirchan taʼsir koʻrsatadigan rasmiy rahbar, yaʼni uning taʼsiri pozitsiyaga bogʻliq boʻlsa, boʻysunuvchilarga taʼsir qiladi. Norasmiy rahbar –bu kompaniyada egallagan oʻrnidan qatʼiy nazar, yetakchilikni taʼminlaydigan shaxs. Uning harakatlarining mohiyati ijtimoiy boʻlib, u izdoshlariga qaratilgan boʻladi. Yoʻqorida sanab oʻtilgan xususiyatlar shaxsda yillar mobaynidagi tajriba va tugʻma isteʼdod asosida shakllanib boradi. Taʼlim jarayonida talabalarda liderlik qobiliyat va xususiyatlarni rivojlantirishda nimalarga eʼtibor qaratish zarur. Bu borada quyidagi jihatlarga eʼtibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi: *Xotiralarni (risklarni) oʻz zimmasiga olish va muvaffaqiyatsizliklardan oʻrganish* Muvaffaqiyatsizliklardan qochib qutilish va har doim hayotda muvaffaqiyatli boʻlish mumkin emas. Shu sababli yosh avlod uchun har bir muvaffaqiyatsizlikdan saboq olish va hayotda davom etish juda muhimdir. Ular tavakkal qilishdan qoʻrqmasliklari kerak va muammolarga duch kelgan holatda tegishli saboqlarni olishni oʻrganishlari lozim. Xato qilmaydiganlar hayotda oʻsmaydilar. Rasmiy taʼlim tizimi shunday yoʻlga qoʻyilishi kerakki, bu oʻquvchilarni tavakkal qilishga undaydigan va ularni xato va kamchiliklari uchun jazolamaydigan boʻlishi lozim. Insonning aql-idroki ,oʻsishi va hayotdagi yuksalishi orttirilgan tajribalari orqali boʻladi. Haqiqiy biznesmenlar bilan aloqa oʻrnatish: Bizga maʼlumki maktab va universitet oʻquvchilarinig aksariyati korporativ va biznes tajribaga ega emas. Shuning uchun ular oʻqitishi mumkin boʻlgan narsalar bu rasmiy taʼlim va kitoblardan olgan nazariy bilimlardir. Biroq korporativ ish maktablarda oʻrgatiladigan bilimlardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun maktablar va universitetlar haqiqiy iznes dunyosi boʻlish tavsiya etiladi. Bu yerda haqiqiy ish tajribasiga ega boʻlgan oʻqituvchilar talabalarga real hayotiy misollar bilan talabalar uchun murabbiylik, mendorlik dasturlarini oʻrgatsa, bu talabalarda liderlik, innovatorlik va tadbirkorlik qobilyatini rivojlantirishga tubdan yordam beradi. *Ongni toʻgʻri dasturlash.* Muvaffaqiyat uchun talabalarning ongini rivojlantirish va dasturlash juda muhimdir. Hayotiy misollar shuni koʻrsatadiki, xavfdan qochish uchun “ Men buni qila olmayman” yoki “Men bunga qodir emasman” deyishadi. Ammo “MEN BUNI QANDAY QILA OLAMAN?” yoki “NIMA QILSAM BUNING UDDASIDAN CHIQAMAN?” degan savollar bilan talabalarning ongini toʻgʻri yoʻlga solishlari mumkin. Chunki bayonot ongni yopadi, savol esa ongni oʻylashga va harakat qilishga ochib beradi. **Xulosa** qilib aytganda, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish uchun bugungi kunda mamlakatimizda barcha sharoitlar hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tamonidan yaratilgan. Buni Oʻzbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisda”gi Qonuni, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunlarda oʻz aksini topganligini koʻrishimiz mumkin. Ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish talabalarda liderlik qobiliyatini namoyon boʻlishda muhim rol oʻynaydi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Oʻzbek tilining izohli lugʻati –T 1997-yil
2. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashryoti 2013yil bet
3. K.Turaev."Yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish".
4. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi; Muammo va yechimlar.
5. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, maqolalar toʻplami –T.2020.14-b
6. Avlaev O.U. Talabalar kasbiy kamolotida ustanovkalarning oʻrni –T.2021.
7.www ziyonet.uz

## ZAHIRIDDIN BOBUR IJODINING UMUMBASHARIY AHAMIYATI

**Hamidova Munavvar**
**NavDPI Oʻzbek tili vadabiyoti taʼlim**
**yoʻnalishi 1-kurs magistranti**

**Ilmiy rahbar: dots.Boltayeva G.**

Tarix zarvaraqlarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, bir asrda insoniyat solnomasida alohida iz qoldirgan, keyingi avlodlarga o‘zining jamiyatdagi mavqei, yaratgan ilmiy, badiiy merosi hamda sarkardalik qobiliyati bilan ibrat namunasi bo‘la oladigan ajdodlarimiz yashab o‘tganligi bilan faxrlanamiz. XV asrning ikkinchi yarimi va XVI asrning o‘rtalarida bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o‘rin tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburni bemalol ana shunday shaxslar sirasiga kiritish mumkin.

Bobur Gang daryosidan Amudaryogacha bo‘lgan hududni birlashtirgan ulkan saltanatga asos solgan davlat arbobi va sarkarda. Buyuk saltanat sohibi qisqavaqt ichida katta ijobiy ishlarni amalga oshirishga ulgurgan. U Agra va Dehli shaharlari atrofini obodonlashtirish, Jamna daryosi bo‘ylarida saroylar, qasrlar, hammomlar qurish, bog‘lar barpo etish ishlariga bosh-qosh bo‘ladi. Qobul va G‘azna shaharlarini suv bilan ta’minlash inshootlarini qayta tiklaydi va savdo yo‘lining bexatarligini yo‘lga solish maqsadida karvonsaroylar, rabotlar qurdiradi[23]. Shuningdek, u o‘z atrofiga olim va shoirlarni to‘plab, ularning ijodiy ishlariga homiylik qiladi. Saroyiga O‘rta Osiyo va Xurosondan mashhur tarixchi Xondamir, faylasuflardan Abulbaqo, shoirlardan Mavlono Shihob Muammoiy, Mulla Baqoiy, Vidoiy, Abdulvohid Forig‘iy, Shayx Zayn va boshqalar kelib, o‘zbek va fors-tojik tillarida ijod qilganlar. Bobur asos solgan saltanat, mamlakatni ma’lum darajada siyosiy jihatdan birlashtirish, obodonlashtirish va madaniy yuksaltirish nuqtai nazaridan Hindiston uchun foydali bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining yirik davlat arbobi va sarkardasi bo‘lish bilan birga, shoir, adib, tarjimon va yetuk olim ham bo‘lgan. U o‘zidan bashariyatga boy adabiy va ilmiy meros qoldirgan. Bizgacha yetib kelgan asarlarining o‘zi ham Bobur ijodining ko‘p qirrali, janr jihatidan xilma-xil va rang-barangligini ko‘rsatadi. Uning asarlarida inson va tabiat go‘zalligi, axloqiy fazilatlar ulug‘lanadi. Bobur tarixiy voqealarni aniq aks ettiruvchi, zulm va riyokorlikni qoralovchi, tarixiy shaxslar faoliyatini xolis mushohada qilib, olimlar, shoirlar va san'atkorlar ijodiga zamonning ilg‘or an’analari nuqtai nazaridan baho bera oladigan alloma va donishmand sifatida kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Bobur o‘zining ana shunday ilg‘or qarashlari, ilm-fan rivoji yo‘lidagi xizmatlari bilan bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk zot hisoblanadi. Buyuk sarkarda va shoir umrining o‘zi avlodlarga vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari namunasidir. Inson dunyoga bir marta keladi va umr yo‘li davomida o‘zidan yaxshi nom qoldirishga intiladi. Ayrim kishilar dunyodan o‘tganlaridan so‘ng ham asrlar o‘sha insonlarning qalbida, xotirasida mangu yashaydilar. Buyuk bobomiz, ulug‘ sarkarda, mutafakkir, shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning tabarruk nomi va ulkan adabiy merosi ham ana shunday umrboqiylikka daxldordir. Mana besh asrdan ziyod vaqt o‘tibdiki, davlat arbobi va shoirning nomi mangu quyosh singari so‘nmasdir. Bobur asarlarini o‘qigan, uning boy adabiy merosidan bahramand bo‘lgan inson borki, uning yangidan-yangi sirlarini ochaveradi. Shu bois shoir va sarkarda ijodini ulkan ummonga qiyoslasak, uning bag‘rida behisob duru javohirlar xazinasi mujassam topgan.

Bobur o‘z ijodi bilan o‘zbek adabiyotining rivojini belgilabgina qolmay, O‘rta Osiyo, Xuroson, Afg‘oniston va Hindistonning butun ma’naviy-madaniy taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Neru o‘zining “Jahon tarixiga bir nazar” asarida Bobur haqida shunday ta’kidlaydi: “Bobur shu paytgacha o‘tgan madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng yetuklaridan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan, mutassiblikdan yiroq edi. Bobur san'at va adabiyotni ayniqsa sevar edi” degan fikrlari albatta, bizga g‘urur bag‘ishlaydi. Uning asarlari, she'riyati va g‘azallari qayta-qayta ko‘chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o‘tamoqda, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida keng o‘rganilmoqda.

Bobur ijodini o‘rganish, uning ilmiy tahlili bo‘yicha so‘nggi yillarda qator taniqli tadqiqotchilar ish olib bordilar va bugungi kunda ham Boburning merosi ko‘pgina olimlarimizni ilhomlantirib keladi. Jumladan, K.Ashrafyan, X.Nazarova,N.Atadjanov, X.Qudratullayev, A.Ibragimov, Z.Xolmanova, S.Aliev, S.Azimdjanova, G..Blagova, S.Djamalov, S.Xasanov, N.Kariyeva, S.Shukurullayeva, T.Saidaliyev, A.Ibragimov, D.Xoshimova, F.Salimova, O.Xusanboev, M.Abdullaeva, D.Rajabova va boshqalarni aytib o‘tish mumkin.

Shuningdek, zahmatkash olimlar Porso Shamsiyev va Sodiq Mirzayevlar tomonidan 1949-yilda

“Boburnoma”ning ikki jildlik asarlari kirill yozuviga tabdil qilinib, chop etilgan. 1959-yilda Aziz Qayumov va Sabohat Azimjonovalar tomonidan “Bobur lirikasi” deb nomlangan risola nashr etilgan. Taniqli tarixchi va adabiyotshunoslarimiz M.Nuridinov “Boburiylar sulolasi” (1994), T.Fayziyev “Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari: (Boburiylar sulolasining qisqacha tarixi)” (1996), Bo‘riboy Ahmedov hamda O‘zbekistonnning atoqli tarixshunos olimlari tomonidan (bibliografik ma’lumotnoma) (2003), Qudratillaev Hasan “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi” (2011) asarlarini nashr ettirdilar. Shuningdek Pirimqul Qodirovning Bobur haqidagi “Yulduzli tunlar” romani shular jumlasidandir. Albatta, bu adabiy-tarixiy asarlar, ilmiy-ommabop maqola va risolalarda Bobur ijodi, uning badiiy va san'atkorlik mahorati, dunyoqarashining barcha qirralari ro‘y-rost va haqqoniy talqin etib berilmagan. Bizga ma’lumki, XX asrning 70-yillari, xususan, 80-yillarga kelib Bobur shaxsiyatiga nisbatan bir tomonlama munosabat, uni “bosqinchi”, “zolim”, “feodal sinf vakili” deb nohaq qoralashlar kuchaygan. Hatto shoir tavalludining 500 yilligi sobiq markazdan berilgan ko‘rsatmalar tufayli nishonlanmagan. O‘tmishimizga salbiy munosabat hayotimizning barcha sohalarini qamrab olgan, jumladan, darsliklarimiz ham bu ta’sirdan xoli bo‘lmagan. Uzoq o‘tmishda yashab ijod etgan, ilm-fan, adabiyot, san’at rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizga nisbatan bunday noto‘g‘ri va nohaq qarashlar 80-yillarning oxirlariga kelib asta-sekin ijobiy tomonga o‘zgara boshlagan.

Darhaqiqat, shoirning ushbu o‘gitlari yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, milliy g‘ururini yuksalishi uchun samarali ta’sir ko‘rsatib, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Bobur xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilishda katta hissa qo‘shgan. Shuningdek, inson qalbining quvonchu qayg‘usini, vatan tuyg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Boburdek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona yurtiga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga avvalo Bobur asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy iftixor va milliy g‘ururimizni yuksaltirishda,jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

Ma’lumki, biron-bir xalq ma’naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e’tirof xalqning miliy g‘ururini va iftixorini, milliy o‘zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig‘ini dunyoning turli mamlakatlarida va yurtimiz viloyatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e'lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug‘ ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko‘rish mumkin. Shular qatorida Hindiston, Toshkent, Andijon, Samarqand shaharlarida Bobur bobomizning xotirasiga muhtasham haykallar o‘rnatilgan.

Xalqimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar olam uzra nom qozongan, ularning mehr-u muhabbatiga sazovor bo‘lgan. Taassuf shundaki, ayrimlar ana shunday yetuk bobokalonlarimiz merosiga qayta-qayta murojaat qilinayotgan kunlarda yengil-yelpi hoyu havasga ko‘r-ko‘rona ergashmoqda.

Keyingi paytlarda “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida xalqimiz tabiatiga zid, bo‘lmag‘ur g‘oyalarni o‘ziga singdirgan ayrim “tantana”larni tiqishtirishga urinishlar ko‘zga tashlanadi. Bu esa ayrim yoshlarimizni chalg‘itib qo‘yishi mumkin. Aslida, sharqona tarbiyada mehr-muhabbatni ulug‘lash, aka-ukaga, oilaga vafo va Vatanga sadoqat ila munosabatda bo‘lishga yuksak urg‘u beriladi. Bobur asarlarida ham ana shunday axloqiy sifatlar muhim o‘rin tutadi. Vatanparvar, xalqparvar, tengsiz shoir, olamshumul faylasuf bobokalonimiz kelajak avlodlariga ulkan umid bog‘lagan zot edi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan har qancha faxrlansak arziydi. O‘zbek xalqining dovrug‘ini dunyoga taratgan ulug‘ ajdodlarimizdan biri o‘laroq, ul zot bizni tariximizni qadrlashga, kelajakka buyuk ishonch bilan qarashga o‘rgatadi” . Albatta, buyuk vatandoshimiz Boburning hayoti va ibratli ishlari o‘z davrida va keyinchalik shogirdlari, izdoshlari tomonidan atroflicha o‘rganildi va bugungi kunda

ham uning ma'naviy merosiga bo'lgan qiziqish, izlanishlar davom etmoqda. Buyuk allomaning yorqin hayoti va ko'p qirrali faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bo'lgan ma'naviy barkamol, vatanparvar insonlarni tarbiyalashdek muhim va olijanob vazifalarga xizmat qilishi shubhasizdir. Bugungi kunda boburshunoslik sharqshunoslikning jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan sohasiga aylangan, "Boburnoma" hozirgacha yigirmaga yaqin tilga tarjima qilingan, uni yana boshqa tillarga o'girish davom etmoqda, deyarli har yili Bobur asarlari nashr etilmoqda, yangi manbalar izlab topilmoqda va ilmiy istifodaga kiritilmoqda, o'nlab risola, son-sanoqsiz ilmiy, ilmiy-ommabop va publisistik maqolalar chop etilmoqda. Shoir tarixiy merosini o'rganish va targ'ib qilishda Bobur xalqaro jamoat fondi va Xalqaro Bobur ilmiy ekspeditsiyasi faollik ko'rsatib kelayotganini alohida ta'kidlash lozim. Muxtasar qilib aytganda, ma'naviyatimizning bebaho qirralarini kengroq targ'ib etish, shu orqali tarbiyamizga, ongu shuurimizga yot jihatlarga o'rin bermaslik har birimizning kundalik yumushlarimiz qatoridan joy egallasa, ayni muddao bo'lar edi. Bu borada, ko'plab mutafakkirlar qatori Bobur adabiy merosiga murojaat qilmoq o'rinlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Тошкент: Шарқ, 2007.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Сочининг савдоси тушди. – Тошкент: Шарқ, 2007.
4. Ҳасанов Х. Бобур – сайёҳ ва табиатшунос. – Тошкент: Ўбекистон, 1983.


## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH


**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti**
**Maktabgacha ta'lim fakulteti**
**1-"V"guruh talabasi Hamroyeva Komila**



**Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

**Аннотация.** Дошкольное образование организуется с целью формирования личности ребенка на уровне подготовки к обучению в здоровой и зрелой школе. Данное образование осуществляется в дошкольных образовательных организациях и образовательных организациях независимо от форм собственности с 3 до 7 лет.

**Annotation.** Pre-school education is organized in order to form a child's personality at the level of preparation for studying in a healthy and mature school. This education is carried out in preschool educational organizations and educational organizations regardless of the form of ownership, from the age of 3 to the age of 7.



**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim, yetuk shaxs, ota-ona, oila, mahalla, ilk qadam, tashkiliy, uslub, psixologiya, pedagogika


Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasiga doir qator tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligini muhtaram Prezidentimiz qabul qilayotgan Qaror va farmoyishlarida bayon etilgan.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar rivojlanadilar va ta'lim-tarbiya oladilar. Ularning sog'ligi mustahkamlanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi. Kattalarni hurmat qilish hamda vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'radilar.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi. Bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, individual ruhiy holati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bolalarga ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolalarda ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashiga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yurtimizning jahon hamjamiyatida qay darajada o'rin egallashi, o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, yosh avlodning qanchalar bilimli, yetuk, komil, erkin fikrlaydigan va o'z menini yarata oladigan, qisqa qilib aytganda yurt uchun o'z hissasini qo'sha oladigan bo'lib yetishishi ta'lim tizimiga qo'ygan ilk qadami bilan boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim tashkiloti ostonasiga qo'ygan qadami, uning ilk qadami hisoblanadi. Bu dargoh murg'ak qalblarga ilm eshiklarini ochuvchi, uni yuqori marralar tomon yetaklovchi nurli maskan hisoblanadi. Nima sababdan hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda, degan savol tug'iladi, albatta. Chunki, bola tug'ilgandan so'ng yetti yoshgacha bo'lgan davr uning uchun eng muhim davrdan biri hisoblanadi. Bola bu davrda o'z hayoti uchun kerakli bo'lgan barcha ta'lim- tarbiyani olishi va u olgan ta'lim-tarbiyasi umr yo'llarida hamroh bo'lishi hammamizga ma'lum albatta. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borar ekan bola erkin fikrlashni, o'zgalar bilan tez muloqotga kirishishni, o'zida ta'lim - tarbiyaga oid bilimlarni, atrof muhitni, uni o'rab turgan zaminning turfa xil ne'matlarini artofdagi predmetlar haqidagi to'liq ma'lumotlarni, mashg'ulotlar orqali kerakli bilimlarni oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan bolaning ko'zi yonib turadi. U hamma narsani yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganishga, u narsa haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadi. Bolaning bu yosh davri shijoatga to'la, doimo harakatda bo'ladigan davri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash davri sifatida tarixga muhrlanmoqda. Negaki, mamlakatimizda mazkur tizimni davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi, hali hech bir davrda o'z aksini topmagan. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanmish maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor tahsinga loyiq. Biz shunday sharoitda zamonaviy, teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarda o'zining mukammal bilimi va tajribasi nuqtayi nazaridan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashni bosh maqsadimiz deb bilar ekanmiz, buning mas'uliyatini astoydil his qilish bizning oldimizda turgan murakkab, o'z o'rnida sharafli

vazifa ekanligini unutmasligimiz talab etiladi. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovini ta’minlash maktabgacha ta’lim tashkilotlarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi bolalarni katta hayotga o‘rgatish, ularda jamiyatga moslashuvchanlik, guruhlarda o‘z o‘rniga ega bo‘lish va o‘zining mustaqil o‘rni haqidagi ilk qarashlar barq urib boradigan maskan vazifasini o‘tamog‘i lozim hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish va uni jamiyat uchun munosib voris qilib tayyorlab berishdir. Bunda ta’lim jarayonida yangi pedagogik talablar, yani pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi, ulardan foydalanishga oid pedagogik talablar, ya’ni pedagogik tamoyillarni ishlab chiqishni hamda amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi. Amaliyotga tadqiq etilayotgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari va maktabgacha ta’limtashkilotlarining davlat o‘quv dasturi bu – ta’lim jarayoniga qo‘shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlaridir.

Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarni besh yo‘nalishda rivojlantirish kerakligi ko‘rsatilgan. Bu besh yo‘nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo‘ladi, yani u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi, - deydi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vaziri Agrippina Shin. Bularning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya’ni diqqat markazda – bola va uning manfaatlari yotadi. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o‘zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayoni o‘yinlar orqali rivojlantirish yotadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. O‘., “Sharq”, 1997.
2. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., “Fan va texnologiyalar”, 2005. 3. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To‘raqulov, O. Hasanboyeva, N. Usmonov). T., “Fan va texnologiyalar”, 2015.
4. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/24-ilmiy-tarixiy-adabiy-maqolalar-risolalar
5. https://uza.uz/oz/pages/maqolaga-qoyilgan-talablar

## METHODOLOGY FOR TEACHING THE SUBJECT “RADIOACTIVITY” USING THE GRAPHIC ORGANIZER METHOD

**Bozorova Laylo Shamsiddin qizi - Research Institute of Physics and Astronomy, 3rd year student of additional mathematics.**
**Muradova Dildora Shukhratovna – student of the 1st stage of technological education of the Mineral Petroleum Institute.**
**Scientific supervisor: Khamroeva Sevara Nasriddinovna**

The current rapidly developing era determines the goals, objectives and content of the professional training of our youth, puts forward qualification requirements, and requires the choice of modern technologies and forms of training. Production ultimately determines the quality and competitiveness of personnel. One of the most important ways to accomplish this task is through in-depth teaching of subjects. In-depth training must be used in higher classes, vocational schools and academic lyceums. Because by this time the student will have formed a general idea of the goals and objectives of the subject being studied.

During the learning process, students are treated as individuals; the use of various pedagogical technologies and modern methods allows them to think independently, freely, improve communication skills, establish an emotional connection between students, search, approach each

issue. creatively, a sense of responsibility, conducting scientific research, analysis, effective use of scientific literature, and most importantly, increasing interest in reading, science and the chosen profession. As you know, the 20th century can be called the century of great discoveries in atomic and nuclear physics, the century of success in solving problems associated with the use of nuclear energy for various purposes. Currently, even in the 21st century, these issues have not left the agenda. It represents the main goal of the lower stages of scientific and industrial education, which are the main stages of the lifelong education system. That is, the ultimate goal of primary, secondary or higher education in any field of education determines the scientific development of this field of education and the introduction of scientific achievements into production. Currently, as a result of the rapid development of science and technology, the rapid increase in the volume of information, and the limited time for its use in the educational process, the need for a technological approach to the educational process arises. It is widely known that one of the global problems facing humanity today is the problem of ecology. In turn, environmental problems can be classified in many ways depending on their origin and consequences. The most important area of environmental problems is radioecology, that is, environmental problems associated with radioactive radiation. As we know, in physics the phenomenon of radioactivity is divided into natural and artificial radioactivity. Natural radioactive cosmic rays emanate from the Earth and form a natural radioactive background due to the radiation of various naturally occurring radioactive elements onto the Earth's surface. This radioactive background cannot be controlled or limited. One of the unique aspects of radioactive damage is that most radioactive elements have very long half-lives. As a result, radioactive radiation activity due to nuclear destruction persists for a long time.

In many cases, different units of measurement are used when assessing the biological effects of radioactive radiation, and certain difficulties arise in the process of comparing these effects. Therefore, it is important to know the relationship between different units of radiation dose and radiation rate.

**Graphic organizers (organizer) are a means of visually representing thought processes.**




***For example, when using graphic organizers when teaching radioactivity, you can get a qualitative analysis of monitoring and assessing student knowledge based on the "Why" diagram. "For what?" drawing***



The use of the above specific information on the dosimetry of radioactive radiation, the biological effects and consequences of radiation in the teaching of physical sciences at various stages of the continuing education system serves to improve the quality and effectiveness of education, as well as to carry out environmental education. Students' knowledge requirements allow for a qualitative analysis of knowledge, skills and qualifications, assessment and control of them using interactive teaching methods. The use of the above information on the topic of radioactivity in the teaching of physics at various stages of the continuing education system serves to improve the quality and effectiveness of education, as well as the implementation of environmental education. Such knowledge was also considered very interesting for schoolchildren studying physics.

**References:**


1. Azimov S.A., Abzhalilov Sh. “Physics of elementary particles.” Tashkent. “Management”. 1985.
2. R.B. Bekzhonov “Physics of the atomic nucleus and elementary particles.” Tashkent. “Management”. 1995.
3. Khatamov Sh., Tillaev T., Koziev Sh. I am a doctor. “Biogeochemical assessment of the state of PSM and plants of cotton farms in Uzbekistan” Tashkent. Preprint of the Institute of Nuclear Physics of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. R – 3 – 520. 1991. - page 20
4. Teshaboev S.Sh. Physics of the nucleus and elementary particles T.-Techer 1992.
5. Mominov T.M., Khushmurudov Sh.H., Khalikulov A.B., Course of lectures on nuclear physics and elementary particle physics., S. - 2001.
6. Azimov S.A., Abdudzhamilov A. “Physics of elementary particles.” Tashkent. “Management”. 1996.
7. www.pedagog.uz
8. www.ziyonet.uz
9. www.edu.uz


## O‘QUVCHILARNI BADIIY NAQQOSHLIK SAN’ATI NAMUNALARIGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI


**Hikmatova Maftuna Mashrabjon qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”**
**ta’lim yo‘nalishi 1 “E” guruh talabasi**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, o‘quvchi-yoshlarni sohaga oid tafakkurlarini rivojlantirish va boyitishda, badiiy naqqoshlik san’ati asarlari namunalarining o‘rni va ahamiyati hamda uni badiiy ta’limda o‘qitishga doir fikrlar, taklif va xulosalar havola qilingan.



**Kalit so‘zlar:** Birlik, yaxlitlik qonuni, funksionallik va strukturalilik printsiplari asosida tobe’lik qonuni hajm va kontrastlilik, shakl va rang, stillashtirish, ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik.


Bashariyat san’atshunosligi tarixida milliy madaniy meroslar, qolavirsa har bir xalq va millatlarga xos xalq amaliy san’atining naqqoshlik turi bo‘yicha erishilgan yutuqlari ulkandir. Turfa xil buyumlarga badiiy ishlov berish va ulardagi naqsh kompozitsiyalarning tarixiy shakllanish jarayonlari, qadimiy an’anaviy usul va qadriyatlari, o‘ziga xos badiiy xususiyatlari va ularni asrab avaylash, boyitib borish hamda nodir durdonalarni keng jamoatchilikka targ‘ib qilish, san’at ixlosmandlari ongiga chuqur singdirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xalq amaliy san’ati har bir davr va xalqlarning kundalik hayoti, turmush tarzida qaysidir ma’noda o‘ziga xos mezon vazifasini o‘taydi. Chunonchi, xalq amaliy san’ati ko‘p asrlik muhtasham tarixga ega bo‘lib, har bir millatning iftixori hisoblanadi. Madaniy meros va betakror an’analarning ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san’ati, uning tadrijiy rivojlanishi hamda o‘ziga xos xususiyatlarining ilmiy tadqiqi soha rivojida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo‘lgan badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida muhim o‘rin tutganligi ilmiy manbalarda asoslangan, dunyo madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan xalq amaliy san’ati har bir xalqning turmush tarziga oid badiiy qadriyatlari rivojida alohida ahamiyat kasb etib, san’at tarixida amaliy

san’atning paydo bo‘lishi – sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadami hisoblanadi. Shu boisdan, xalq amaliy san’atini bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etilishi dunyo mamlakatlari doirasida milliy o‘zlikni saqlab qolish, jamiyatning ma’naviy madaniyatini yuksaltirish bilan bir qatorda uni o‘quvchi yoshlar ongiga chuqur singdirishni taqozo etadi.
Bugungi Yangi O‘zbekistonni barpo etishda, xalqning an’anaviy va badiiy meroslari hamda badiiy qadriyatlarga bo‘lgan yangicha qarashlari, amaliy san’atning barcha turlari kabi naqqoshlik san’atini, xilma-xil buyumlarga betakror naqsh kompozitsiyalari asosida badiiy ishlov berishni va buni o‘quvchilarga o‘rgatish usullari va texnologiyasini tadqiq qilish, shuningdek, milliy madaniy meroslarni o‘rganishga, san’atshunoslik, xalq amaliy san’ati turlarini rivojlantirishga ustivor vazifa sifatida qaralmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga betakror xalq amaliy san’ati namunalari, milliy madaniy meros, naqqqoshlik san’ati va uning tarixi, xilma-xil buyumlarni bezashda qo‘llanilgan naqshlar va naqqoshlik san’atining yaratilish sirlariga doir keng tushunchalarni berish orqali o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, xalq amaliy bezak san’atining yo‘qolib borayotgan turlari naqqoshlik, har xil buyumlarga bezak berish va ularga naqsh solish san’ati, xududiy maktablar uslublarini hamda mahalliy xususiyatlarni qo‘llash, amaliy san’atning unutilib borilayotgan jihatlarini saqlab qolish va rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.Qadimda naqqoshlik san’ati juda yaxshi rivoj topganligi haqidagi ma’lumotlar ko‘plab tarixiy manbalarda keltirilgan. Mohir usto naqqoshlar chizgan yoki bo‘yagan ramziy naqshlari orqali o‘zaro bir-birlari bilan unsiz ovozda gaplashgandek taasurotlar olgan ekanlar. Naqqoshlik san’atiga oid maxsus tilni bilish, uni mukammal savodli tushunish uchun naqshning o‘ziga xos unsuri hamda ranglarning ramziy alifbosini bilish juda zarur bo‘lgan.Fazoviy san’atlarni badiiy his etishda usta-rassomlarning o‘z san’at asarlarini qanday qurganligi muhim ahamiyatga ega. Zero, ijod psixologiyasi qonunlari bilan badiiy his etish psixologiyasi qonunlari orasida o‘zaro uzviy bog`liqlik mavjud. Birlik, yaxlitlik qonuni, funksionallik va strukturalilik printsiplari asosida tobe’lik qonuni hajm va kontrastlilikning mohirlik bilan qo‘llanilishi natijasida namoyon bo‘ladi.Naqsh – arabcha “tasvir”, “gul” degan ma’nolarni anglatadi. Qush, hayvon, o‘simlik, gul, novda, geometrik hamda boshqa shakllarni ma’lum qoida va tartibda takrorlanishi natijasida hosil qilingan bezakdir. Islom dini talablariga rioya etish pirovardida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlashga bo‘lgan cheklovlarni bo‘lganligi tom ma’noda naqqoshlik san’atini rivoj topishiga zamin yaratgan. Arab yozuvi mohirlik bilan o‘zlashtirilganligi bois naqshlar hamda unvonli yozuv uslubi (epigrafika) paydo bo‘lgan. Arab yozuvi bejirim naqshlar bilan birga uyg`unlashtirilib chizilganligini ham ko‘plab tarixiy manbalarda ko‘rish mumkin.
Ko‘p asrlar mobaynida usta naqqoshlarning samarali mehnatlari natijasida naqqoshlik san’atining badiiy an’analari vujudga kelgan. Xalq amaliy san’atining bir turi sifatida naqqoshlik san’ati qadimdan o‘zbek miliiy madaniyatining muhim bo‘lagi hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak amaliy san’atning barcha turlarida bezak sifatida avvalo, naqsh yoki naqsh elementlari ishlatiladi, bundan shunarsani anglash mumkin-ki naqqoshlik san’ati boshqa barcha xalq amaliy san’at turlarida asosiy poydevor vazifasini o‘taydi.Naqshlarni ko‘zatar ekanmiz, unda, san’atning boshqa hamma turlaridan farq qiladigan jihati, avlodlarning o‘zaro biri-biri bilan chambarchas bog`liqligini ya’ni, ustoz-shogird an’analarining davomiyligini ko‘rish mumkin. Naqqoshlik san’ati an’analarini o‘rganish usullari to bizgacha bobodan otaga, otadan bolaga o‘tib meros bo‘lib kelgan. Ana shu doimiylik tufayli naqqoshlik san’ati hozirgacha saqlanib, sayqallanib rivoj topib kelmoqda. Naqshlarning yaxshi namunalari, nihoyatda boy ijodiy kompozitsiya orqali birlashtirilgan turfa xil shakllarning maqsadga muvofiqligi, uning go‘zalligi hamda nafisligi bilan bir-biridan farqlanadi. Naqqosh ustolarining naqsh ishlashdagi boy falsafiy bilimlari, atrof-muhit go‘zalligini anglash darajasidagi qarashlarining tafovutida aks etadi. Naqqoshlik san’ati – ranglarning nozik uyg`unligida va o‘zgacha fantaziyalarda go‘zallik yaratish san’atidir. Naqqosh ustolar o‘zlarining ijodiy ishlarida ranglarning tabiiy jilosidan, bejirim shakllardan, bizlarni o‘rab turgan tabiatda mavjud go‘zallikdan, ya’ni gul va o‘simliklardan mohirlik bilan foydalanib yorqin ifodalikka erishganlar.O‘zbekistonning an’nanaviy me’morchiligiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, aytaylik, naqqoshlik san’atidan asosan intererlarni bezashda: bino devorlarini, shiftlarini,

jimjimador ravoqlarni, saroy ustunlarini, masjidlarni, ayvonlarni, shaxsiy xonadonlar va mehmonxonalarni, yog‘ochdan yasalgan turli xil shakldagi sovg‘abob buyumlarni bezashda keng qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Shuningdek, naqshlardan me’morchilikda, uy jihozlarini, sovg‘abop buyumlarni, mayda yog‘och o‘yinchoqlarni, musiqa asboblari va turmushda kerakli buyumlarni badiiy bezashda ham keng foydalaniladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, badiiy naqqoshlik san’atiga nisbatan qiziqishlarni ortishi va uni o‘rganishga bo‘lgan katta ishtiyoqlar sabab hozirgi kunda maktablarda va maktabdan tashqari muassasalarda xalq amaliy san’atiga doir to‘garaklar tarmog`ini imkon qadar kengaytirish lozim. Shuningdek, ustoz-shogird maktablarida ortirilgan tajribalarga tayangan holda iqtidorli va qobiliyatli yoshlarimizni hunarmandchilikning ko‘plab turlariga yo‘naltirish zarur, bizgacha meros bo‘lib avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan xalq amaliy san’atinig barcha turlarini, kelgusi avlodlarga qadimiy an’analarini saqlagan holda to‘laligicha yetkazish vazifasi bizning zimmamizda ekanligini o‘nitmasligimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2004. – 182 б.
2. Сулаймонов А., Абдуллаев Н. Тасвирий санъат. 7-синф ўқувчилари учун дарслик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2014. – 80 б.
3. Ҳасанов Р. Мактабда тасвирий санъатни ўқитиш методикаси. – Т.: “Фан”, 2004. – 106 б.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси № 1. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклапедияси” давлат илмий нашриёти, 2000. – 496 б.
5. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
6. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. theoretical principles of the formation of study competencies regarding art literacy in students //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
7. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts international journal on integrated education.
8. Sunnat Aslanovich shovdirov tasviriy san’at ta’limida o‘quvchilarning o‘quv kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning pedagogik talablari // sai. 2023. №Special Issue 13. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/tasviriy-san-at-ta-limida-o-quvchilarning-o-quv-kompetensiyalarini-shakllantirish-tizimini-takomillashtirishning-pedagogik (дата обращения: 03.12.2023).
9. Шавдиров С. А. Ўқувчиларда тасвирий саводхонликка оид ўқув компетенцияларини шакллантиришнинг педагогик- психологик жиҳатлари // Современное образование (Узбекистан). 2017. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/uvchilarda-tasviriy-savodhonlikka-oid-uv-kompetentsiyalarini-shakllantirishning-pedagogik-psihologik-zhi-atlari (дата обращения: 03.12.2023).
10. Шавдиров С. А. ТАСВИРИЙ САНЪАТ ТАЪЛИМИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎҚУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ТАЛАБЛАРИ: Шавдиров Суннат Аслонович. Навоий давлат педагогика институти Санъатшунослик факультети, Тасвирий санъат ва муҳандислик графукаси кафедраси катта ўқитувчи //Научно-практическая конференция. – 2022.
11. Shavdirov S. A. Selection Criteria of Training Methods in Design Fine Arts Lessons //Eastern European Scientific Journal. – 2017. – №. 1.
12. Шавдиров С. А. ОСОБЕННОСТИ ПОДБОРА ЦВЕТА В ОБУЧЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ И ПРИКЛАДНОМУ ИСКУССТВУ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2018. – С. 84-85.


## SAMARQAND VILOYATI SHAHARLARINING DEMOGRAFIK HOLATI


**Husanov Suxrob Samariddin o‘g‘li**
**Geografiya (o‘rganish obyekti bo‘yicha),**

**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti**
**Annotatsiya.** Ushbu tezisda Samarqand viloyati shaharlarining demografik va iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlil etilgan. Jarayonda viloyat markazi Samarqand shahrining demografik va iqtisodiy koʻrsatkichlari boshqa maʼmuriy-hududiy birliklar: qishloq tumanlar va shaharlarning demografik va iqtisodiy koʻrsatkichlari bilan taqqoslangan. Shuningdek, ushbu sababdan vujudga kelishi mumkin boʻlgan muammolar dunyo tajribasida tahlil etilgan va yechimlar taklif etilgan.
**Kalit soʻzlar:** xalqaro munosabatlar, demografik va iqtisodiy koʻrsatkichlar, informatsion avtokratik tizim, “monopol shahar”, markaz shahar.
**Abstract**. This thesis analyzes the demographic and economic indicators of the cities of Samarkand region. In the process, the demographic and economic indicators of the city of Samarkand, the regional center, were compared with the demographic and economic indicators of other administrative-territorial units: rural districts and cities. Also, the problems that may arise due to this reason are analyzed in the world experience and solutions are proposed.
**Key words:** international relations, demographic and economic indicators, informational autocratic system, "monopoly city", center city.
**Аннотация**: В данной дипломной работе анализируются демографические и экономические показатели городов Самаркандской области. При этом демографические и экономические показатели города Самарканда, областного центра, сравнивались с демографическими и экономическими показателями других административно-территориальных единиц: сельских округов и городов. Также в мировом опыте анализируются проблемы, которые могут возникнуть по этой причине, и предлагаются пути их решения.
**Ключевые слова**: международные отношения, демографические и экономические показатели, информационная автократическая система, «город-монополист», город-центр.

**Kirish.** Globallashayotgan dunyoda borgan sari xalqaro munosabatlarda shaharlar va ularning demografik holatining ahamiyati ortib bormoqda. Chunki, shaharlar bugungi kunda siyosiy boshqaruv yoki iqtisodiy, transport va aloqa markazlari sifatida faoliyat olib bormoqda. Ushbu markazlashuv hodisalari albatta, koʻplab muammolarni ham keltirib chiqarmoqda va ushbu jarayon bugungi kunning global muammolariga tayanch boʻlib xizmat koʻrsatmoqda. Ushbu muammolar qatoriga: shaharlarda toza ichimlik suvi muammosi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholining yuqori darajada zichligi va buning natijasida yuqumli kasalliklarning tarqalish darajasi yuqoriligi kabi va bir qancha muammolarni keltirib chiqarishiga olib keladi. Ammo koʻpchilik demokratik koʻrsatkichlari past hamda informatsion avtokratik tizim hukmron mamlakatlarda “shaharlar monopoliyasi” vujudga keladi. Yaʼni iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlarini yuqoriligini koʻrsatish va investorlarni oʻziga jalb qilish maqsadida faqatgina, markazdagi shaharga eʼtibor qaratiladi va ushbu jarayonda markaziy shaharning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy roli oshib boraveradi. Natijada, immigrantlarni faqatgina ushbu aholi manzilgohi oʻziga jalb qilish xususiyatiga ega boʻlib boraveradi. Natijada, ushbu shaharda koʻpincha turli ekologik, transport va uning harakatiga oid boʻlgan muammolar vujudga keladi. Mamlakatimizdagi bugungi kunda poytaxt – Toshkent shahri “monopol shahar” maqomini oʻzida saqlab turibdi va ushbu muammo mintaqaviy va mahalliy miqyosda koʻzga tashlanmoqda. Samarqand viloyatida ham Samarqand shahri ham viloyatda “monopoliya” oʻrnatgan juda yirik shahar hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Mazkur muammo oid masalalar Oʻzbekiston Geografiya jamiyati sobiq raisi, Oʻzbekiston Milliy universiteti geografiya fanlari doktori, Oʻzbekiston Milliy universiteti professor A.S. Soliyev, Geografiya fanlari nomzodi S.K. Tashtayeva, Milliy universitet Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti M.M. Egamberdiyevalar tomonidan oʻrganilib, tarixiy, madaniy, turistik, demografik va urbanistik jihatlari ochib berilgan. Ammo, fikrimizcha Samarqand viloyatida joylashgan shahar va shaharchalarni mamlakat va viloyat hayotidagi iqtisodiy taʼsiri va rolini oʻrganish, chuqur tadqiq qilish bosh vazifa sifatida qaralmogʻi lozim.

Samarqand viloyati demografik jihatdan mamlakat maʼmuriy hududiy birliklari orasida yetakchi hisoblanadi. Globallashuv natijasida viloyat aholisining qulay sharoit sabab juda yirik shahar hisoblangan Samarqand shahriga emigratsiya qilishi holatining yildan yilga oshib borayotgani hech kimga sir emas. Shu sabab shaharning viloyatdagi mavqei yanada oshib borishi, aglomeratsiyani

hosil qilishi va aholining iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan talabning oshishi shaharda kelajakda turli xil muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra jami 4208 ming kishi istiqomat qilmoqda. Viloyat aholisining 36,6 %i (1542 ming kishi) shaharlarda, 63,4 %i qishloqlarda istiqomat qilmoqda. Avvalo, viloyatda urbanizatsiya darajasining pastligining o‘zi viloyat iqtisodiyotining o‘sishi uchun ulkan to‘siq sifatida qaralsa, boshqa bir tomondan viloyat markazi – Samarqand shahrining viloyatda “yakkahokimligi” kelajakda viloyatda ekologik va transport muammolarni boshlab berishi mumkin. Buni bir qancha ko‘rsatkichlarda tahlil etganimizda, viloyat shahar aholisining deyarli 38 %, butun viloyat aholisining esa taxminan 14 % aholisi birgina Samarqand shahrida istiqomat qiladi. Bu borada Samarqand shahrining viloyatdagi rolini Toshkent shahrining Respublikadagi o‘rni (mos ravishda 45%; 8,3%) bilan qiyoslasak bo‘ladi.

Nafaqat, demografik, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil etganimizda shu ma’lum bo‘ladiki, viloyatda markaz shaharlarning roli iqtisodiy jihatdan ham yuqoriligini ko‘ramiz. Xususan, 2023-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko‘ra sanoat mahsulotlari hajmi – 32676 mlrd so‘mga teng bo‘lgan holda Samarqand shahriga 14843 mlrd so‘m sanoat hajmi to‘g‘ri kelgan. Ulushlar hisobiga olganda jami sanoat ishlab chiqarish hajmida esa Samarqand shahri ulushi – 45,4 % ga teng bo‘ldi. Qolgan barcha tumanlar jami - 54,6 % ko‘rsatkichga ega bo‘lgan holda, o‘rtacha har bir ma’muriy hududiy birlikka (14 ta tuman va Kattaqo‘rg‘on shahri) 3,6 % sanoat ishlab chiqarish ulushi to‘g‘ri kelmoqda. Birgina sanoatda emas, balki ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bo‘yicha 2023-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko‘ra jami 28992 mlrd so‘mga teng bo‘lgan. Ushbu qiymat ichida Samarqand shahri ulushi 12665 mlrd so‘mga teng bo‘ldi. Bu viloyat yalpi xizmatlar hajmining 43 %ini tashkil etgan. Boshqa ma’muriy birliklarning har biriga 3,8 % xizmatlar hajmi to‘g‘ri keladi. Shuningdek, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘sish sur’atlari bo‘yicha ham Samarqand shahrining o‘sish ko‘rsatkichlari viloyat ko‘rsatkichlaridan yuqoriligi ko‘rilgan. Ushbu mezon jihatdan Samarqand tumani (24 %) yetakchi hisoblansa, Toyloq tumani (19,2 %) ikkinchi, Samarqand shahri (14,1 %) esa 3-o‘rinni qayd etgan. Viloyatda qurilish yalpi hajmi 2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra jami 10069,1 mlrd so‘mga yetgan. Shundan Samarqand shahri qurilish hajmi 2577,2 mlrd so‘mga yoki viloyat qurilish hajmining 25,6 %iga teng bo‘lgan. Hududlar kesimida viloyatda jami faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soniga (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda) ko‘ra, 37398 tani tashkil etgan bo‘lsa, shundan 10617 tasi birgina Samarqand shaharliga to‘g‘ri keladi. Bu butun bir viloyat kichik tadbirkorlik subyektlarining 28,3 %i demakdir. Viloyat markazining bunday ulkan yakkahokimligining asosiy sabablari sifatida o‘tgan davr mobaynida viloyatda olib borilgan noto‘g‘ri iqtisodiy boshqaruv, teng imkoniyatli infratuzilma sharoitlarini yaratilmagani va boshqa bir qancha sabablar ta’sir ko‘rsatgan.

**Xulosa.** Dunyo tajribasida ba’zi shaharlarni iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan markaz shaharlardan ham o‘zib ketganini ko‘ramiz. Ammo mamlakatimiz doirasida va hech bir viloyatda hudud doirasida markaz shahardan mavqei balandlashib ketgan shaharni uchratmaymiz. Bunday muammolarni hal etish uchun mamlakatda shaharlarga teng iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma jihatdan teng imkoniyatlar yaratish zarur deb hisoblaymiz.

Shuningdek, shaharlarda ushbu muammoga duch kelib bo‘linganda, avvalo shaharning aholi zichligi ko‘rsatkichlarini o‘ta yuqori bo‘lishi tabiiy. Mana shu holat ham bir qancha gigiyenik va ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu muammolarni oldini olish shaharni oqilona rejalashtirish, xususan, uchun shaharda yangi quriladigan turarjoy binolarini shahardan chetroqda yoki butunlay shahar hududidan tashqarida qurish maqsadga muvofiqdir. Qo‘shimcha tarzda, shaharlarda yaxshi infratuzilmali jamoat transportini yo‘lga qo‘yilishi ham bir qancha demografik muammolarga yechim sifatida xizmat qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Egamberdiyeva Matluba Mamanazarovna, Abdalova Zulxumor Tairovna, Amanbayeva Ziyoda Abduboisovna. Urbanizasyon jarayonlaring qisloq xo‘jaligi rivojlanishiga ta’siri. Life Sciences and Agriculture 2.1 – 2020

2. Ismailov Ilxom Tursunbayevich, Dusanov Xurshid Toshpulatovich. Urbanizatsiyani bashoratlashdagi muammolar. Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 5 | 2023
3. M.A.Kadirov, N.T.Sabirova. Samarqand aglomeratsiyasi Kattaqo‘rg‘on lokal tizimining rivojlanishi. Ilmiy axborotnoma. 2017-yil.
4. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., “Shaharlar geografiyasi”. T.:2019
5. https://www.samstat.uz/
6. https://www.slibrary.uz/uz/article/view?id=5208
7. https://www.stat.uz/

## YANGIARIQ TUMANINING O‘SISH TENDENSIYALARI

**Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti**
**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalish.**
**3-kurs talabasi Shonazarova Mashhura**
**Ilmiy rahbar: Ibragimov Xurshid Xayrullayevich**

**Annotatsiya.** Bu maqolada Yangiariq tumani iqtisodiy ko‘rsatkichlari,qishloq xo‘jaligi,aholisi haqida ma’lumotlar berilgan.Tuman boshqa tumanlarga qaraganda iqtisodiy salohiyati tomonlama ajralib turadi.Quyida tumanning Xorazm viloyati kesimida 2023-yil holatiga ko‘ra o‘sish tendensiyalari berilgan.

**Kalit so‘zlar**: Yangiariq tumani,qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot tarmoqlari, aholi

**Abstract:** It provides information about the economic indicators, agriculture, and population of Yangariq district. The district will restore economic and economic stability to other districts.

**Key words:** Yangariq district, agriculture, economic sectors, population

**Аннотация:** Он предоставляет информацию об экономических показателях, сельском хозяйстве и населении Янгарикского района. Район восстановит экономическую и экономическую стабильность в других районах.

**Ключевые слова:** Янгарикский район, сельское хозяйство, отрасли экономики, население.

Yangiariq tumani Xorazm viloyatidagi tuman hisoblanadi.1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Shimolda Xonqa, sharqdan Bog‘ot, g‘arbdan Xiva tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0,40 ming $km^2$ .Aholisi 2023-yil 1- aprel holatiga ko‘ra 121,4 ming kishi. Tumanda 10 ta qishloq fuqarolar yig‘ini bor: Gullanbog‘, Gulobod ,Kattabog‘, Ostona, Oxunboboyev, Tagan, Chig‘irchi, Yangiariq, Quruqtom ,Qorako‘z.Markazi Yangiariq shaharchasi.

Tumanda paxta tozalash, g‘isht, meva konservalash zavodlari, avtomobil ta’mirlash shahobchalari “Yandex” tikuvchilik korxonasi, “Yangiariq plast“ korxonalari bor. Yangiariq tumanida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar 2023-yil holatiga ko‘ra 245 tani tashkil qiladi, shulardan yangi tashkil etilganlar soni -2 ta.Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 582,2 ming so‘mni tashkil qilgan .2022-yilga nisbatan 99,2 ming so‘m o‘sgan. Yangiariq tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 101,9 ya’ni 69,8 foizni tashkil etadi.(2023) Yangiariq tumanida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish 9,5 mlrd so‘mni tashkil etdi.(2023) Bu ko‘rsatkich aholi jon boshiga 81,0 ming so‘mni tashkil qildi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 13,0 mlrd so‘m foizda 9% ni tashkil etadi. Tumanda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 5,2 mlrd so‘mni tashkil etadi.

Tumanda iqtisodiyotni rivojlantirishga aholini ish bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Tumanning iqtisodiy salohiyati yildan-yilga o‘sib boryapti. Aholiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish ,biznes reja tuzish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatilmoqda. Jumladan kichik biznes tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi yildan-yilga o‘sib bormoqda. Sanoat mahsulotlaridagi kichik tadbirkorlikning ulushi 50,2 % ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar tumanda bu borada olib borilayotgan ishlar naqadar samara berayotganini ko‘rsatadi.Tumanda doimiy aholi soni 2023-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 121,4 ming kishi .Aholi zichligi 1 $km^2$ ga 301 kishini tashkil etadi. Tug‘ilishlar soni 602 mingni tashkil etadi , bu ko‘rsatkich promilleda 20,2 promilleni ko‘rsatdi. Tumanda vafot etganlar soni 110 promilleda 3,7. Tumanda nikohlar soni 337 promilleda 11,3.

Nikohdan ajralishlar soni 50 ta bu ko‘rsatkich promilleda 1,7
Ko‘chib ketganlar 105 ta bu ko‘rsatkich promilleda 3,5
Ko‘chib kelganlar soni 106 ta bu ko‘rsatkich promilleda 3,5
Migratsiya savdosi-1
Statistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tuman aholisi soni yildan-yilga ko‘paymoqda. Tumanda o‘lganlar sonidan tug‘ilganlar soni 5 marta ko‘p. Bu tumanning aholisi o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, tumanda ajralishlar soni kamligi bu sohadagi targ‘ibot ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgani dalolatidir. Tumanda oila qadri u muqaddas dargoh ekanligi uning parokanda bo‘lib qolmasligi, farzandlar yetim qolmasligi uchun qilinayotgan sa’y-harakatlar o‘zining ijobiy natijasini beryapti. Ko‘chib ketganlar va ko‘chib kelganlar o‘rtasidagi farq deyarli yo‘q.Qishloq xo‘jaligi tuman aholisining asosiy daromad sohasidir. Tumanning qishloq, o‘rmon xo‘jaligi va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining ulushi Xorazm viloyati kesimida-9%Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining Xorazm viloyati bo‘yicha Yangiariq tumaning ulushi chorvachilik84,1 % dehqonchilik – 15,9%
Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish foiz hisobida:
Fermer xo‘jaliklari – 22,8%
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – 3,6%
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – 73,6%
Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari foiz hisobida:
Fermer xo‘jaliklari – 2,6%
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari – 96,6%
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar – 0,8%
Yirik shoxli qoramollar – 73125 bosh
Shu jumladan sigirlar – 30313 bosh
Qo‘ylar va echkilar – 42694 bosh
Parrandalar – 506,7 ming bosh
Go‘sht – 30,0 tonna yetishtiriladi.
Sut – 17,7 ming tonna
Tuxum – 6,6 mln dona
Jun – 3,4 tonna
Baliq – 642 tonna
Sabzavot – 1814 tonna
Tuman agrosanoatda katta salohiyatga ega.Bu tumanning statistik ko‘rsatkichlarida ko‘rinib turibdi.

Xulosa, Yangiariq tumani kundan-kunga rivojlanib boryapti. Tumanning sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida Xorazm viloyati kesimidagi ulushi yildan-yilga oshyapti. Tuman nafaqat iqtisodiy sohada balki ijtimoiy sohada ham yuksalyapti. Buning yaqqol dalili sifatida ajralishlar soni kamligini olish mumkin. Tumanda “Har bir oila tadbirkor” shiori ostida aholiga issiqxona qurishlari uchun tijorat banklaridan kredit ajratilmoqda. Issiqxona qurish va bu orqali daromadga chiqish, qaysi meva va sabzavotlarga bozorga talab yuqoriligi nuqtai nazaridan bozor talabi o‘rganilib bu bo‘yicha maslahatlar va tajribali dehqonlar tomonidan masterklasslar tashkillashtirimoqda. Bir so‘z bilan aytganda tuman kundan -kunga yuksalyapti.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Xorazm viloyati statistika boshqarmasining www.xorazm.stat.uz rasmiy sayti
2.Sodiqov A.M. Xorazm viloyatini ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish strategiysi-T:.”IFRM”. 2015 34-b

# O‘ZBEKISTONDA OILAVIY AJRALISHLARNING ASOSIY OMILLARI VA SABABLARI

**Ibragimova Zulayho Sobirovna**
**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi o‘qituvchisi**
**Narzullayeva Lola**
**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola aholining nikoh va ajralish jarayonlari haqida bo‘lib, O‘zbekistondagi oilaviy ajralishlarning asosiy omillari va sabablarini Respublikada olib borilgan ijtimoiy tadqiqotlarga ko‘ra ochib berilgan. ajrimlar oqibatida jamiyatga yetadigan zararlar o‘rganilib, ajrashganlarning ijtimoiy h yotidagi holatida ko‘plab muammolar yuzaga kelgan. Shuningdek, ularda turar joy muammosi, farzandlar to‘liq oila muhitida bo‘lmasligi, ajrashganlarning ruhiyati va yangi hayotga ikkilanishi holatlari muammo tarzida tadqiq etilgan.
**Kalit so‘zlar**: demografiya, oila, nikoh, ajralish, ajrimga ta’sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar
**Аннотация.** В данной статье речь идет о процессах бракосочетания и разделения населения, а также раскрываются основные факторы и причины семейных разводов в Узбекистане по данным социальных исследований, проводимых в республике. Изучен ущерб, наносимый обществу разводами, и возникло множество проблем в социальной жизни разведенных людей. Кроме того, в виде проблем изучаются проблема жилья, детей, не находящихся в полноценном семейном окружении, менталитет разведенных людей и ситуации, когда они не решаются начать новую жизнь.
**Ключевые слова:** демография, семья, брак, развод, социально-экономические факторы, влияющие на решение,
**Annotation.** This article is about the processes of marriage and separation of the population, and the main factors and reasons for family divorces in Uzbekistan are revealed according to the social research conducted in the Republic. The damage caused to the society due to divorces was studied, and many problems arose in the social life of divorced people. In addition, the problem of housing, children not being in a full family environment, the mentality of divorced people and the situations where they hesitate to start a new life are studied in the form of problems.
**Key words:** demography, family, marriage, divorce, socio-economic factors influencing the decision

Demografik jarayonlar aholining asosiy ko‘rsatkichlarini belgilab beruvchi kategoriya hisoblanib, nikoh va ajralish uning asosini tashkil etadi. Ajralish – avloddagi nikoh juftliklarining nikohini bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohining bekor qilinishi hisoblanadi. Ajralish ham nikoh singari demografiyadan tashqari yana bir qator fanlar ya’ni huquq, sotsiologiya, psixologiya bilan bevosita aloqador sanaladi. Nikohning huquqiy jihatdan bekor qilinishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbai bo‘lib, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarining ma’lumotlari xizmat qiladi.

Ajralish qadimda islom manbalariga ko‘ra amalga oshgan va bu jarayon “taloq” deb atalgan. “Taloq” – arabcha so‘z bo‘lib, ozod bo‘lmoq, ajralmoq, degan ma’nolarni anglatadi. Shu bilan birga, taloq erkak tomonidan aytilmaguncha er-xotinning ajralishi qonuniy hisoblanmagan. Agar ayol tomonidan nikohning bekor etilishi talab qilinsa-yu, erkak bunga norozi bo‘lsa, taloq kuchga kirmagan. Shariat qonunida erkak “taloq” so‘zini hushyor va sog‘lom paytida aytib, o‘zi iqror bo‘lgandagina taloq qonuniy bo‘lgan.[27]

Ajralish jarayonini demografiya, sotsiologiya, huquq, tarix va psixologiya kabi fanlar o‘zining nuqtai nazaridan o‘rgansa, geografiya esa uning hududiy xususiyatlariga alohida e‘tibor beradi. Bu esa ajralish jarayonining hududiy tafovutini baholashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda demografik jarayonlarni geografik xususiyatlarini o‘rganish Qoraxonov M. ilmiy maktabida shakllanib, O.B.Ata-Mirzayev, R.Ubaydullayeva, M.R.Bo‘riyeva, Z.N.Tojiyevalar tadqiqotlarida kuzatilgan. Bular nikoh va ajralish jarayonlarini qisman oila tarkibida o‘rgangan.

[27] Bo’riyeva M.R. O’zbekistonda oila demografiyasi.-T.: Universitet, 1997.

Respublikada olib borilgan ijtimoiy tadqiqotlarga koʻra, ajrimlar oqibatida jamiyatga yetadigan zararlar oʻrganilib, ajrashganlarning ijtimoiy hayotidagi holatida koʻplab muammolar yuzaga kelgan. Shuningdek, ularda turar joy muammosi, farzandlar toʻliq oila muhitida boʻlmasligi, ajrashganlarning ruhiyati va yangi hayotga ikkilanishi holatlari muammo tarzida tadqiq etilgan. Ammo bu holatda erkak va ayollardagi oʻziga xos jihatlari turlichaligi, bir tomonlama ya'ni ayollarning koʻproq aziyat chekishi kuzatilgan.

Oʻzbekistonda oilaviy ajralishlar omillari va sabablarini aniqlash uchun doimiy ravishda ijtimoiy soʻrovlar oʻtkazib turiladi. Masalan, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi tomonidan oʻtkazilgan soʻrovlar natijalari boʻyicha, oilalarning barbod boʻlishiga asosiy sabablar yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlanmaganligi (soʻrov oʻtkazilgan oilalarning 34,5%), moddiy qiyinchiliklar (26,2%), er-xotin qiziqishlarining va dunyoqarashining turlichaligi (10,6%), yosh er-xotinning bir-biriga befarqligi (19,5%), ichkilikbozlik va giyohvandlik (3,3%)[28] belgilandi.

Mintaqalarda oʻtkazilgan nuqtali soʻrovlar mintaqaning xususiyatini hisobga olgan holda tafsilotlarni, aholi mentalitetini va tarixiy-madaniy an'analarni ochib turishi, shuningdek oilaviy ajralishlarning salbiy ijtimoiy oqibatlarini aniqlash mumkin boʻlgan vaqtda, mazkur soʻrovlar respublika darajasidagi ajralishlar muammolariga oʻrtacha tavsif beradi.

"Oila" markazining ijtimoiy soʻrovlari[29] natijasiga koʻra quyidagilar aniqlangan: 43% - yoshlar xarakterining bir-biriga munosib emasligi, 23% – yoshlarning munosabatiga uchinchi shaxslar aralashuvi, 6% - alkogolizm, 5% - befarzandlik, 5% - moddiy qiyinchiliklar yoki ishsizlik, 3% - turmush oʻrtoqlarning biri mehnat migratsiyasi, 2% - xiyonat, 2% - maishiy muammolar va boshqalar.

Koʻrsatkichlar yomonlashib borayotgan hududlarda ajralishlar sababini aniqlashga qaratilgan soʻrovlar orqali quyidagicha xulosalar olingan:

– ajralish sabablari mintaqalar boʻyicha farq qiladi, ammo barcha oʻrganilgan hududlarda doimiy janjallar asosiy sabab sifatida eng koʻp tilga olindi;

– qarindoshlarning doimiy aralashuvi, hurmatsizlik, xiyonat eng keng tarqalgan sabablarga kiradi;

– er-xotin yoki bolalarning kasalliklari, ayollar huquqlarining buzilishi turmushning barqarorligiga Toshkent shahrida boshqa viloyatlarga qaraganda ancha kuchli ta'sir qiladi.

"Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ajrimlarga olib keluvchi holatlar **5 ta asosiy guruhga** taqsimlangan holda tahlil qilindi. Unga koʻra**, birinchi guruhga kiritilgan *er va xotinning psixofiziologik jihatdan bir-biriga mos kelmasligi*** **(55,5 foiz)** oqibatida doimiy urush va janjallar (**46,1%**) hamda oʻzaro tushunmovchiliklar (9,2%) tufayli ajralish holatlari sodir boʻlgan.

***Er va xotin munosabatlariga uchinchi tomonning aralashuvi*** **qariyb 40 foiz respondent tomonidan** ajrimlarga sabab boʻluvchi asosiy omil sifatida baholangan boʻlib, bunda oilaviy hayotga qaynona, qaynota, qaynisingil va boshqa qarindoshlarning doimiy aralashuvi (**16,6%**), er yoki xotinning xiyonati (**16,2%**) hamda oʻzgalar bilan ijtimoiy tarmoqlardagi ishqiy yozishuvlar (**3,7%**) sabab boʻlgan.

***Deviant xulq-atvor va oiladagi zoʻravonlik holatlari*** (**26,6 foiz**), jumladan, er yoki ayolning ichkilikka ruju qoʻyishi (8,1%), ayolning turmush oʻrtogʻi tomonidan tazyiq va zoʻravonlikka uchrashi (6,6%), oilada bolalarga nisbatan mutassil zoʻravonlik qoʻllanilishi (0,4%), ayolning ishlashi va oʻqishining taqiqlanishi (2,6%) sababli oilalar barbod boʻlgan.

Har beshinchi ajrashgan respondent ***iqtisodiy omilni*** (**17,4 foiz**) ajrimning asosiy sababi sifatida koʻrsatgan. Unga koʻra, doimiy moddiy etishmovchilik (7,4%), uy-joy sharoitlarining qoniqarli emasligi (3%), iqtisodiy nochorlik (0,4%) va turmush oʻrtogʻining mehnat migratsiyasida boʻlishi (6,6%) oilaviy ajrimga olib kelgan.

Shu bilan birgalikda ***juftlikning salomatligi omili*** oilaviy munosabatlarning mustahkamligiga ta'sir koʻrsatishi tadqiqot davomida namoyon boʻldi. Har oʻninchi respondent juftining salomatligidagi muammolari (**11,1 %foiz**) tufayli ajrashishga qaror qilgani aniqlandi. Jumladan, er yoki xotinning

---

[28] Jamoat fikri so'rovi natijalari bo'yicha axborot-tahliliy ma'ruza. «Oila va jamiyat: ma'naviy va axloqiy dunyo». «Ijtimoiy fikr» markazi, 2018.

[29] Barcha mintaqalar bo'yicha ajralishga ariza bergan 24782 juftlik so'rovda qatnashdi.

og‘ir xastaligi (2,2%) hamda farzandsizlik (8,9%) sababli mazkur oilalar ajrashishga qaror qilishgan.
Respublikada ajralishlarning ob’ektiv va sub’ektiv sabablari mahalla xodimlari, FHDYO xodimlari va fuqarolik sudlari, d**iniy idoralar markazlari vakillaridan tuzilgan fokus-guruhlarning ekspert so‘rovi vositasida** tahlil qilinganda, asosiy sabablardan biri yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi bo‘lib chiqdi. Ota-onasidan iqtisodiy mustaqillikka erishmagan, ishsiz va daromadsiz, qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lmagan yigitlarning nikohga kirishi ajralishga katta ta’sir ko‘rsatadi.
Ahamiyatlisi, «Oilangizni saqlab qolish mumkin edi, deb hisoblaysizmi?» degan savolga Toshkent shahrida so‘ralganlarning 58%i, Namangan viloyatidagilarning 36%i, Buxoro va Xorazm viloyatidagilarning 27%i, moliyaviy imkoniyatlar kengaysa, oila a’zolari ishga joylashsa, oilada psixologik muhit yaxshilansa “oila saqlab qolinar edi”, deb ijobiy javob bergan.
O‘zbekistonda nikohni mustahkamlash, oila muqaddas qadriyat sifatida e’zozlanishiga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Shu nuqtai nazardan, ajralishlar darajasiga iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’sirini baholash va kelgusi o‘n yillik uchun prognozlashtirish asosiy vazifa qilib belgilanishi kerak. Ma’lumki, ajralishlar darajasiga turli tashqi va ichki omillar ta’sir qiladi. Jahon tajribasi va qator ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish asosida ajralishlar dinamikasiga hududning rivojlanganlik darajasi, yashash shart-sharoiti, urbanizatsiya darajasi, ish bilan bandlik, aholi daromadlari, mehnat migratsiyasi kabi iqtisodiy va farzandlar, salomatlik kabi ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar jiddiy ta’sir qilishi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent. 2019
2. Q.Abdurahmonov, X.Abduramanov Demografiya. Toshkent. 2011y.
3. Bo‘riyeva M.R.,Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. T.:2011
4. Demograficheskaya ensiklopediya. Moskva. 2013
5. I.I. Eliseevoy Demografiya i statistika naseleniya. Moskva 2006
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi ma`lumotlari
7. demoscopy.ru

## FARG‘ONA VODIYSI DARYOLARI

**Ibragimova Zulayho Sobirovna**
**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasio‘qituvchisi**
**Talabboyeva Mohinabonu**
**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Farg‘ona tabiiy geografik okrugi atrofidagi tog‘lardan boshlanuvchi hamda Farg‘ona vodiysidan oqib o‘tuvchi soy va daryolar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu daryolar va soylarning suv hajmi va yillik suv sarfi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Bu esa Farg‘ona vodiysidan oqib o‘tuvchi daryolar va soylarning xo‘jalikdagi ahamiyatini yanada orttirishga ko‘maklashadi.
**Kalit so‘zlar**: Farg‘ona tabiiy geografik okrugi, Sirdaryo, Norin, Qoradaryo, So‘x, Isfayramsoy, daryolarning yillik suv sarfi.
**Annotation.** This article is aimed at analyzing information about the streams and rivers that originate from the mountains around the Fergana Natural Geographical District and flow through the Fergana Valley. Information about the water volume and annual water consumption of these rivers and streams is provided. This helps to increase the economic importance of the rivers and streams flowing through the Fergana valley.
**Key words:** Fergana natural geographical district, annual water consumption of Syrdarya, Norin, Karadarya, Sokh, Isfayramsoy rivers.

**Аннотация.** Целью данной статьи является анализ информации о ручьях и реках, берущих начало в горах Ферганского природно-географического округа и протекающих по территории Ферганской долины. Приведены сведения об объеме воды и годовом водопотреблении этих рек и ручьев. Это способствует повышению хозяйственного значения рек и ручьев, протекающих по Ферганской долине.
**Ключевые слова:** Ферганский природно-географический район, годовое водопотребление рек Сырдарья, Норин, Карадарья, Сох, Исфайрамсой.




Farg'ona tabiiy geografik okrugi Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Vodiy tabiati go'zal va maftunkor, noz-ne'matlarga boy, jannatmakon o'lka bo'lib, uni «O'rta Osiyo durdonasi» deb atashadi. Vodiyning xaritadan ko'rinishi bodom shaklida bo'lib, shimoli g'arbdan Mo'g'ultog', Qurama tog' tizmalari, shimoldan Chotqol tizmasi, sharqdan Farg'ona tizmalari, janubdan esa Oloy va Turkiston tizmalari o'rab turadi. Uning uzunligi g'arbdan sharqqa 370 km ga cho'zilgan, kengligi o'rtacha 190 km, eng tor yeri — g'arbida eni 9 km bo'lib, «Xo'jand darvozasi» deyiladi. Farg'ona tabiiy geografik okrugida eng katta va sersuv daryolar Norin, Sirdaryo , Qoradaryo va boshqa kichik daryolar ham mavjud.

**Farg'ona vodiysi hududidan oqib o'tuvchi daryolar**

| T/R | Daryo nomlari | Uzunligi | Suv yig'ish maydoni | O'rtacha yillik suv sarfi $m^3/s$ |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Sirdaryo | 3019 km | 219 ming km² | 703 $m^3/s$ |
| 2 | Norin | 807 km | 59,9 ming km² | 429 $m^3/s$ |
| 3 | Qoradaryo | 318 km | 28,6 ming km² | 136 $m^3/s$ |
| 4 | Qorasuv | 470 km | 22ming km² | - |
| 5 | Kosonsoy | 154 km | 1650 km² | 9,81 $m^3/s$ |
| 6 | Oqbura | 136 km | 2540 km² | 6,23 $m^3/s$ |
| 7 | Podshotasoy | 130 km | 443 km² | 5,18 $m^3/s$ |
| 8 | Xo'jabaqirg'on | 130 km | 2150 km² | 10,3 $m^3/s$ |
| 9 | Isfara | 130 km | 3240 km² | 14,5 $m^3/s$ |
| 10 | So'x | 124 km | 3510 km² | 49,2 $m^3/s$ |
| 11 | Isfayramsoy | 122 km | 2220 km² | 17,7 $m^3/s$ |
| 12 | Yassi | 122 km | 2620 km² | 42,2 $m^3/s$ |
| 13 | Shohimardonsoy | 112 km | 1300 km² | 9,34 $m^3/s$ |
| 14 | Moylisuv | 107 km | 748 km² | 9,15 $m^3/s$ |
| 15 | Aravansoy | 102 km | 1960 km² | 5,88 $m^3/s$ |
| 16 | G'ovasoy | 96 km | 724 km² | 4,94 $m^3/s$ |
| 17 | Sumsarasoy | 86 km | 329 km² | 0,88 $m^3/s$ |
| 18 | Chodaksoy | 76 km | 566 km² | 3,72 $m^3/s$ |

**SIRDARYO** –Farg'ona vodiysining sharqiy chekkasida, Baliqchi qishlog'i yonida Norin daryosi bilan Qoradaryo qo'shilgan joydan Sirdaryo nomini oladi. O'zbekistonning Andijon, Namangan,

Farg‘ona, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Tojikistonning Sug‘d viloyati va Qozog‘istonning Jan. Qozog‘iston va Qizilo‘rda viloyatlari bo‘ylab avval g‘arb, janubi-g‘arb tomon, so‘ngra esa shimol, shim.g‘arbga oqib borib, Orol dengiziga quyiladi.
Uzunligi 2272 km, Norin (daryo)ning boshlanish joyidan —3018 km. Daryo havzasining maydoni taxminan 462000 km², uning asosiy suv hosil bo‘ladigan qismi esa 219000 km². Sirdaryo eng sersuv daryo hisoblanadi. Sirdaryo havzasining tog‘li qismida Oqshiyraq, Bo‘rqo‘ldo‘y, Otboshi, Oloy, Turkiston va Nurota tizmalari bo‘ylab, shimolda esa Terskay Olatovi bo‘ylab oqadi. Tizmalarning cho‘qqilari ko‘pincha qor va muzliklar bilan qoplanib yotadi. Bu tizmalarda 1600 dan ortiq muzlik bo‘lib, ularning umumiy maydoni 2200 km²dan ziyodroq. Yoz oylarida erib ulgurmagan qorlik ham ko‘p.
Farg‘ona vodiysida Sirdaryoning o‘zani nisbatan chuqur, qayiri ham ancha pastda joylashgan. Farg‘ona vodiysidan chiqaverish yerida (Bekobod shahridan 4km yuqoriroqda) Sirdaryo Farhod GES uchun qurilgan to‘g‘on bilan to‘silgan. Yilning ko‘p qismida daryo suvi ana shu GESga suv beradigan Farhod kanali orqali oqadi. Bekobod shahridan quyiroqda kanaldagi suvning bir qismi yana qaytadan daryoga quyiladi. Boshqa bir qismi esa „Do‘stlik“ kanali orqali Mirzacho‘l yerlarini sug‘orishga sarf bo‘ladi. Farhod GES to‘g‘onidan yuqorida daryo o‘zanida kattagina Farhod suv ombori barpo etilgan.
1956-yil Xo‘jand shahridan 12 km yuqorida, Sirdaryo o‘zanida Qayroqqum suv ombori va „Xalqlar do‘stligi“ GESi qurildi. Farg‘ona vodiysi qismida Sirdaryoga juda ko‘p irmoq kelib quyiladi. Ulardan eng yiriklari o‘ng tomondan — Chatqol va Qurama tog‘ tizmalaridan oqib keladigan Pochchaotasoy, Kosonsoy, G‘ovasoy, Chodaksoy, chap tomondan — Oloy va Turkiston tog‘ tizmalaridan suv oladigan Isfayramsoy, Shohimardonsoy, So‘x, Isfara, Xo‘jabaqirg‘on va Oqsuv. Bu irmoqlar baland tog‘lardan oqib tushadigan kichik, lekin. juda nishab oqadigan tog‘ daryolaridir. Ularning uzunligi 80-160 km, suv to‘plash maydoni 400-2500 km², o‘rtacha yillik suv sarfi esa 10-15 m³/sek.
***So‘x*** daryosining o‘rtacha yillik suv sarfi 40 m³/sek.dan bir oz ortiq. Suvi kam bo‘lishiga qaramay bu daryolar Farg‘ona vodiysidagi yerlarni sug‘orishda muhim ahamiyatga ega. Farg‘ona vodiysidan chiqqandan so‘ng Sirdaryoga chap tomondan hech qanday irmoq qo‘shilmaydi, o‘ng tomondan esa unga Ohangaron, Chirchiq, Keles va Aris daryolari kelib quyiladi. Sirdaryoning bu irmoqlari ham, ayniqsa, Chirchiq bilan Aris daryolari tog‘dan oqib keladi. Tog‘lardan chiqaverish yerida Chirchiq daryosining o‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi 227 m³/sek., Aris daryosiniki 65 m³/sek. Ohangaron daryosiniki 23 m³/sek. Tog‘lardan tekisliklarga chiqishi bilan daryolarning suvlari kanal va ariqlar orqali sug‘orishga olinadi. Ularning faqat sug‘orishdan ortgan suvlarigina Sirdaryoga kelib quyiladi. O‘rta hisobda Sirdaryo suvining 78% Norin suvidan, qolgan 22% Qoradaryo suvidan tashkil topadi.
**NORIN-** (qirg‘izcha: Нарын) — Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryo. Markaziy Tyanshandan boshlanadi. Qirg‘izistonning Issiqko‘l, Norin, Jalolobod viloyatlari hamda O‘zbekistonning Namangan viloyati hududidan oqib o‘tadi. Daryo Norin shahridan 44 km sharqda Katta Norin va Kichik Norin daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Norin shahridan 21 km oqib o‘tgach, unga o‘ng tomondan O‘narcha daryosi, so‘ngra So‘nko‘ldan chiqib keladigan Ko‘kjerti daryosi quyiladi. Shundan so‘ng, eng yirik chap irmoqlaridan Otboshi daryosi, undan nariroqda Olabug‘a daryosi kelib quyiladi. To‘g‘uzto‘ro‘ soyligiga oqib chiqqach, Norin daryosiga chap tomondan ancha yirik Ko‘kiy-rim daryosi, 32 km oqib borgach, Ko‘ko‘me-ren daryosi qo‘shiladi. Uzunaxmat va Qorasuv daryolari qo‘shilgach, daryo Farg‘ona vodiysiga chiqadi.
Norin daryosi Farg‘ona vodiysiga chiqqach, uning suvi qisman sug‘orishga yo‘naltiriladi. Namangan shahri yaqinidagi Baliqchi qishlog‘i yonida Norin Qoradaryo bilan qo‘shilib Sirdaryoni hosil qiladi. Norin yuqori oqimida keng vodiyda, Axala daryosining quyilish joyiga qadar chuqur va tor vodiyda juda tez oqadi. Norin shahridan boshlab daryo vodiysida ikki yoqlama qayir hosil bo‘lgan. Uzunaxmat daryosi quyilish joyiga yaqin daryo vodiysi tobora torayib, qoyali daraga aylanadi va Uchqo‘rg‘on shahridan o‘tgach, kengayib, konussimon yoyilmadan oqa boshlaydi. Norin qor-muzlik hamda buloq suvlaridan, o‘rta va quyi oqimida qor va buloq suvlaridan to‘yinadi. Norin havzasida umumiy maydoni 1357,8 km kv bo‘lgan 2074 ta muzlik mavjud. Muzliklarning katta qismi (70% atrofida) Oqshiyroq, Teskey Ala-Too, Jetim, Borko‘ldoy va boshqa tog‘larda

joylashgan. Daryo havzasidagi eng yirik muzliklarga Petrov (maydoni 73,9 km2), Shimoliy Qorasoy (49,0 km2) va boshqalar kiradi. Daryoning yuqori oqimida kichik qismi qishda muzlaydi. Qishda Norinning aksariyat qirg‘oqlari qor va muzlar bilan qoplangan. Daryoning uzunligi 807 km, havzasining maydoni 59,9 ming km². Norinning o‘rtacha ko‘p yillik suv sarfi (Norin shahri yaqinida) 87,5 m³/sek, o‘rtacha oqim moduli 8,24 m³/sek. Daryosining eng katta maksimal suv sarfi 1936-yil 20-mayda 772 m³/sek, minimal o‘rtacha oylik suv sarfi 10,2 m³/sek. (1938-yil yanvar) kuzatilgan.

**QORADARYO** — Andijon viloyatidagi daryo (boshlanish qismi Qirg‘izistonda). Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan biri. Uzunligi (Tor daryosi bilan birga) 318 km, havzasining maydoni 28,6 ming km². Farg‘ona tizmasining jan.-sharqiy va Oloy tizmasining shim. yon bag‘irlaridan boshlanadigan Tor va Qorag‘ulja daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Kampirravot darasigacha kengligi 0,5 km dan 4–5 km gacha bo‘lgan terassali vodiyda oqadi. Daryoga ikkita yirik irmoq — Yassi va Qurshab daryolari kelib qo‘shiladi. Kampirravot qishlog‘i yaqinida vodiy keskin torayib dara hosil qiladi. So‘ng Qoradaryo Farg‘ona vodiysida oqadi. Baliqchi qishlog‘i yaqinida Norin daryosi bilan qo‘shilib, Sirdaryoni hosil qiladi. Daryoning o‘rtacha yillik suv sarfi Uchtepa yaqinida 136 m³/sek. Shu joyda yillik eng ko‘p suv sarfi 265 m³/sek ga yetgan (1969-yil), eng kam suv sarfi 68,4 m³/sek (1975-yil). Daryo qor va muzlik suvlaridan to‘yinadi. Yillik oqimining 55%i mart-iyul oylariga to‘g‘ri keladi. Daryo suvining o‘rtacha loyqaligi 1 kg/m³. Ba’zan qishda qisqa muddat qirg`oqqa yaqin qismi muzlab muz va shovush oqishi kuzatiladi. Farg‘ona vodiysiga chiqqanidan so‘ng daryo suvi ko‘plab sug‘orishga sarflanadi. Katta Farg‘ona kanali, Shahrixonsoy, Andijonsoy va Paxtaobod kanallari Qoradaryodan suv oladi. Daryo suvidan Andijon viloyati va Qirg‘izistonning O‘sh viloyati ekin maydonlari sug‘oriladi.

Tabiiy geografik okrugning sharqida Farg‘ona tizmasidan Yassi, Ko‘gart, Qorao‘ngur, Moylisuv kabi daryo va soylar boshlanadi. Daryolar qorlarning erishidan to‘yinib, eng ko‘p suv sarfi yoz faslida sodir bo‘ladi.

Chotqol va Qurama tog‘lari okrugni shimol va g‘arb tomonidan o‘rab turadi. Chodaksoy (76km), Kosonsoy, (154km) Namangansoy (48km), Chortoqsoy (67km), Pochchaota (130km), Qorasuv (470km) kabi daryolar mana shu tog`lardan boshlanadi. Ularning suvi may-iyun oylarida ko‘payadi. Okrugning janubidagi Oloy va Turkiston tog‘laridan Xo‘jabaqirg‘on(130 km), Isfara (130km), So‘x (124km), Shohimardon (170km), Isfayramsoy (122km), Aravansoy (90km), Oqbura (70km) va Qurshab kabi daryolar boshlanadi. Bu daryo va soylarda muz va qorlardan suv oladi, yillik oqimining 60%ga yaqini iyul-sentabr oylariga to‘g‘ri keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Shuls V. L., Mashrapov R., O‘rta Osiyo gidrografiyasi, T., 1969;
2. Zaxidov A. 3., Vodoxozyaystvennie sistemi Sredney Azii, T., 1971.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil


## MASHG‘ULOTDA TARBIYACHINING YETAKCHILIK ROLI, INNOVATSION YONDASHUVI VA EKSKURSIYALAR O‘TKAZISH MAZMUNI


**NavDPI Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim fakulteti talabasi Ikromova Sh. U.**



**Annotatsiya.** Ma’lumki, bola ta’lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin. Bu jarayonda tarbiyalanuvchini maktab ta’limiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababdam maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda tarbiyachining yetakchilik roli innovatsion yondoshuvi va ekskursiyalar tashkil etish ahamiyati o‘rganilgan.



**Tayanch so‘zlar:** bola, ta’lim, tarbiya, shaxs, rivojlanish, maktabgacha ta’lim, tarbiyachi ekskursiya


Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy shaxsi hisoblanadi. Butun g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni 140 tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo‘lgan ijodiy munosabatiga bog‘liq hisoblanadi. Bolaning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan

munosabati ko‘proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi. Tarbiyachining o‘ziga xos xususiyati uning yuksak kasb mahoratidadir. Eng muhimi bolaning ruhiyatini, yosh va o‘ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishidadir. Bolalar bog‘chasi dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bolishini oldindan ko‘ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi. Tarbiyachi o‘z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi, Tarbiyachi har bir boladagi o‘ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o‘ziga xos xususiyatlarni (zararli bolsa] yo‘qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo‘yadi. Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo‘lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha ta’lim yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta’siri juda katta bo‘ladi. Chunki, bu davrdagi har bir taassurot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi. Bolani tushuna bilish va uning ma’naviy dunyosiga kira olish tarbiyachidan zo‘r kasb tayyorgarligini talab etadi. Bola bilan jonli munosabatda bo‘lish fikrlar manbai, pedagogik yangiliklar, quvonch va tashvishlardirki, busiz tarbiyachining ijodiy mehnatini tasavvur etib bo‘lmaydi. Mashg‘ulotda tarbiyachi o‘z ovozidan qurol sifatida foydalanishi mumkin. Sekin, tinch ovoz bolaga yaxshiroq ta’sir etishini pedagog bilishi zarur, bolaga qattiqroq va qat’iy gapirish mumkin, ammo bunda so‘z ohangi bolaga tinchlantiruvchi ta’sir etishi lozim. Tarbiyachi asosan bolaning normal ruhiy taraqqiyoti asosi bo‘lgan jismoniy rivojlanishiga alohida e'tibor berishi lozim. Bolaning ko‘p vaqt harakatsiz o‘tirishi uning sog‘lig‘i uchun juda zararli, u bolaning har tomonlama rivojlanishini sekinlashtiradi. Bolaning ko‘p harakatlarni o‘tirib bajarishi ham gavda tuzilishining noto‘g‘ri o‘sishiga olib keladi. Shuning uchun faoliyat turlarini almashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Yana bolaning normal rivojlanishi uchun har doim tinch, quvnoq muhitni tashkil etish lozim. Bolani: “Tezroq yuvininglar – nonushtaga kech qolyapmiz”, “O‘yinchoqni tezroq yig‘ishtiringlar, sayrga yoki mashg‘ulotga kech qolyapmiz” va hokazo deb shoshiltirish kerak emas. Ta’lim berganda uni shunday tashkil etish kerakki, har bir bola faol ishlasin va har biri ijobiy natijaga erishsin. Bolalarning mashg‘ulotda olgan bilim va malakalari boshqa faoliyat turlarida qo‘llanilishi mumkin. Bolalar olgan bilimlarini qo‘llay olishlari ularning yaxshi o‘zlashtirib olganligidan dalolat beradi, ya’ni ular hech qanday qiyinchiliksiz bu bilimlardan foydalanishlari mumkin. Ta’limning amaliy ahamiyati ham ana shundan iboratdir. Agar bolalar yetarlicha bilim va malakalarga ega bo‘lsa, ular bilan xilma-xil mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin, bu mashg‘ulotlarda bolalar mavjud bilimlardan ijodiy foydalanishlari: bemalol rasm chizishlari, biror narsani qurish yoki yasashlari, hikoya qilib berishlari mumkin. Bu mashg‘ulotlar odatdagi mashg‘ulotlardan boshqacharoq qilib tashkil etiladi: bolalar ixtiyoriga har xil materiallar beriladi va ularga rasm mavzusini o‘zi belgilash, qurilishni o‘zi o‘ylab topish, hikoya tuzish imkoniyati yaratiladi. Bunday mashg‘ulotlar dasturning ayrim bo‘limlari bo‘yicha ta’limning yakunlovchi bosqichlarida o‘tkaziladi. Bolalar olgan bilimlaridan o‘z o‘yinlarida keng foydalanadilar: rasm chizish, qirqib olish, qurish-yasash sohasidagi malakalarni qo‘llab zarur jihozlarni tayyorlaydilar, inshootlar barpo etadilar va hokazo. Olingan bilimlar turli xil o‘yinlarning mazmunida aks ettiriladi. Ta’limdagi innovatsion faoliyat o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Birinchi xususiyat, innovatsion jarayon sub'yektlari bolalar, ota-onalar va o‘qituvchilar. Agar bu e'tiborga olinmasa, unda pedagogik innovatsiya haqiqatan ham ta’limiy bo‘lgan hamma narsani, innovatsion faoliyatning butun gumanistik tarkibiy qismini tashlab yuboradi. Pedagogik innovatsiyalarning ikkinchi ajralib turadigan xususiyati iloji boricha ko‘proq pedagogik muammolarni muntazam ravishda yoritib berish zarurati hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar samaradorligini belgilovchi shart bu xususiy metodologiyaning muammolarini hal qilishda umumiy savollar beriladigan va mavjud didaktik tamoyillarni yangicha qayta ko‘rib chiqishni boshlaydigan o‘qituvchilarning tadqiqot faoliyatidir. Tarbiyachi ekskursiyani rejalashtirar ekan, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, ekskursiya o‘rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg‘itmaydigan) yo‘lni belgilaydi. Ekskursiya o‘rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina

uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo‘lning xususiyatlarini, ob havo holatini hisobga olish zarur. Ekskursiya uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo‘lmasin, u bir ikki kun oldin o‘sha joyni ko‘rib chiqishi lozim. Bo‘lajak ekskursiya joyida bo‘lgan tarbiyachi yo‘lni aniqlaydi, kerakli obyektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo‘lgan joyni belgilaydi. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin tarbiyachi uni o‘tkazish usullarini atroflicha o‘ylab ko‘radi va ekskursiya qiziqarli o‘tishi uchun oldindan she'r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi. Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash. Ekskursiyadan bir necha kun oldin bolalarda faoliyatga qiziqish uyg‘otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o‘tkazadi, ya’ni ekskursiya vazifalarini qo‘yadi, topshiriq va vazifalami taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulq atvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek anjomlarni va jihozlarni tayyorlaydi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbati, kollektiv bo‘lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to‘plash, bolalarning dam olish vaqtida to‘plagan materiallar bilan o‘ynashi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarni ekskursiya o‘tkaziladigan joyga olib kelgandan so‘ng tarbiyachi qisqa suhbatda ekskursiyaning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so‘ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o‘tadilar. Ekskursiyaning asosiy qismi jamoaviy kuzatishdir. Bunda faoliyatlarning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she'rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o‘yin usullari) ni qo‘llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishlarni o‘z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan to‘ldiradi. Kuzatishda asosiy e'tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko‘rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi. Kuzatish jarayonida hikoya, she'r va topishmoqlarni qo‘llash foydalidir. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og‘zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish) ko‘rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi. Ekskursiyaning asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to‘plash uchun imkoniyat berish zarur. Biroq material to‘plash uchun topshiriq berishda, to‘plangan material miqdorini qat’iy cheklash lozim, bu bolalar e’tiborini faqat ma’lum o‘simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashqari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir. Bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtda, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba’zan o‘simlikni qanday kavlab olishni, quruq novdani qanday qirqishni va shu kabilarni ko‘rsatib turishi kerak. Dam olish vaqtida to‘plangan materiallar saralanadi, jildlarga, savatchalarga joylanadi, ba’zilaridan o‘yin va mashqlarda foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyasi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyalari xilma-xildir: dala (yer haydash, ekish, hosil to‘plash), o‘tloq (mol boqish, hashak o‘rish) bog‘, ekinzor, mevazor, ferma, botanika bog‘i, issiqxona, parrandachilik fermasi va shu kabilarga ekskursiyalardir. Ekskursiya insonning tabiatga ta’sirini, ya’ni o‘simliklarni o‘stirishni va hayvonlarni boqishni ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar. Ekskursiyalarning o‘ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta’sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin. Qishloq xo‘jalik obyektiga uyushtiriladigan ekskursiya suhbat bilan boshlanadi. Qishloq xo‘jalik 144 ekskursiyalariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish obyekti bilan oldin o‘zi tanishadi, ekskursiya o‘tkazish uchun ruxsat oladi, ekskursiya vaqti, bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi va bolalarning ma’lum ishda band bo‘lgan kattalar bilan bo‘ladigan suhbatining mazmunini belgilaydi. Ekskursiya yakunida mazkur obyekt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi. Ekskursiyadan keyingi ish. Ekskursiyada olingan bilimlar mashg‘ulotlarda, o‘yinlarda, tabiat burchagida o‘tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ekskursiya vakunida to‘plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o‘simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrariumga joylashtirish), o‘simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur. Ekskursiyadan 2-3 kun o‘tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o‘yinlar, mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o‘qiladi, boialarning ekskursiyadan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg‘ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o‘tkaziladi. Ekskursiyalari ma’lum tizimga muvofiq o‘tkaziladi. Ularni

tabiatda bo‘ladigan mavsumiy o‘zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o‘ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa va munozara.** Ta’lim sohasiga kelsak, innovatsiyalarni yangi mazmun, usul, o‘quv jarayonini tashkil etish shakli yoki ta’lim sohasidagi ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishga yangi yondashuv shaklida, ota-onalarning haqiqiy iltimoslari asosida, ya’ni yangi innovatsiyalarning yakuniy natijasi deb hisoblash mumkin. Maktabgacha ta’limning yangi shakllari bu: Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish tarbiyachilar tarkibiga, ularning innovatsion g‘oyadan xabardorligiga bog‘liq, chunki innovatsion rejim sharoitida tarbiyachining shaxsini o‘zi belgilashning faol jarayoni mavjud bo‘lib, maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari o‘rtasidagi munosabatlar tabiatida o‘zgarishlar mavjud. Bu jarayon uzoq davom etadi. Bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni asta-sekin murakkablashtirgan holda istirohat bog‘iga 3 marta ekskursiya uyushtirish lozim. Bu ekskursiyadan maqsad-bolalarni bahorgi o‘zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko‘rish hamda tabiatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sababini tushunish ko‘nikmalarini o‘stirishdir.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi yetakchilik roli orqali bolani ham aqliy ham jismoniy rivojlantira olishi mumkin.Bunda innovatsion yondashuv va ekskursiyalar o‘tkazish bolaning rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1.Умаров Б. М., Назаров А. С. Низоли вазиятларда бошқарув қарорларини қабул қилишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик механизмлари //Молодой ученый. – 2020. – №. 7. – С. 352-353.

2.Nazarov, A. S. (2020). Қарор қабул қилиш бошқарув фаолиятининг психологик мезони сифатида. Молодой ученый, (11), 280-282.

3.Boboyorova G. Bolalarni maktabga tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish. Maktabgacha ta’lim j., 2007. 6-son. -14 b.

4.M.Rasulova, D.Abdullayeva, S.Oxunjonova, «Bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligi” T.., 2004 yil.

5.Bolalarni maktabga tayyorlash daftari. Rasulova.M.Sh., Jalolova.G.Q.tarjimasi. T.., O‘z PFITI, 1995.Uljaevna, U. F. (2020). Didactic games in preschool educational system. Проблемы современной науки и образования, (4-2 (149)), 27-29


## INSON QADRI – ULUG‘, HUQUQ VA ERKINLIKLARI MUQADDASDIR


**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Tarix fakulteti, “Milliy g‘oya,ma’naviyat asoslari**
**va huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**
**Mahkamova Gulhayo Kamoliddin qizi**



**Annotatsiya**: Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash masalasi xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishga qaratilgan demokratik islohotlarning bosh mezoniga aylanib borayotganligi



**Kalit so‘zlar:**huquq va erkinliklar, imtiyoz


Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari - insonga bekam-u ko‘st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o‘z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta’minlovchi huquqiy maqom. Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar: qonunlarning mazmuni va qo‘llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;

O‘zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo‘li bilan himoya qilinishini kafolatlaydi. Konstitutsiya barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslangan holda, o‘zgalarning huquqlariga hurmat bilan qarash tamoyillarini, o‘zgalarning qonuniy manfaatlarini, huquq va erkinliklarini buzish hisobiga o‘z huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishga yo‘l qo‘yilmaslikka, ijtimoiy adolat va hamjihatlikni

ta'minlashga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshirilishiga davlat kafolat beradi. O'z navbatida respublika hududida yashovchi shaxslar Konstitutsiyada ta'kidlangan huquq va erkinliklarga, xalqaro huquq me'yorlariga rioya etishi zarur. Umume'tirof qilgan mazkur xalqaro me'yoriy manbalar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risida konvensiya va O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan yana bir qator xalqaro hujjatlardir[30]. Yaqin tariximizda inson qadri uchun amalga oshirilgan e'tiborga molik islohotlardan biri bu farzand otasi uchun yoki uka-akasi uchun javob berishiga chek qo'yilganligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 28-moddasida ham bu jihat yoritib o'tilib yana bir mustahkamlab qo'yilgani juda quvonarli holat :

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas.[31]

Boisi shu davrgacha otasi, aka yoki yaqin qarindoshlarining noma'qul harakatlari evaziga haqiqatan qobiliyatli,shijoatli yoshlar yuqori davlat mansablariga tayinlanmasligi, hatto, ba'zi sohalarga umuman yaqinlashmaslik holatlari ham ko'plab uchragan.Bu ishni qoralash niyatida emasman.Nima bo'lganda ham barchasi ishonchli hokimiyat barpo etish hamda xalq farovonligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan.Ammo har qanday siyosat ham ,avvalo, xalq manfaatlariga xizmat qilmog'i kerak. Ya'niki biror bir shaxs harbiy soha yoki hokimiyat va boshqa sohalarda faoliyat olib bormoqchi bo'lsa undan mahorat ,bilim shu bilan birga yaqin qarindoshlari haqida umumiy ma'lumot ham talab qilinardi. Mabodo qarindoshlar orasida muqaddam sudlangan yokida shunga o'xshash holatlar bilan bog'liq shaxslar bo'ladigan bo'lsa hujjatlar avtomatik tarzda qaytarilgan.(Qarabsizki,yaxshi umid ,orzu-havas bilan harbiy bo'laman deb yelib yugurgan bir yosh umidsizlikka uchrardi)

Hayotda har birimizning orzu-maqsadlarimizga erishish yo'lida huquq va erkinliklarimiz ajralmas ahamiyat kasb etadi,albatta.Ammo,shu o'rinda yana bir jihatga ham e'tibor berishimiz lozim. Bu o'z-o'zidan qoniqish hamda ishonch hissidir . Agar biz otasi yoki aka-ukasining aybini begunoh kishining yuziga solib ,unga imkon bermas ekanmiz uning hayotdagi maqsadi ham, unga bo'lgan ishonchi ham o'z-o'zidan so'nib boradi. (Ehtimol, u shundog'am yaqinlarining harakatlaridan afsusdadir, qalbdagi iymanish hissi doim uyg'oqdir.)

Shuning uchun ham har bir kishi faqat o'z xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishi lozim. Shunda kadrlar masalasida ham ijobiy natijalarga erishamiz. Sababi har kim o'zi uchun o'zi kurashadi. Faoliyati davomida xatolarga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladi va o'zidan yetuk kadrlar tizini gam shakllanib boradi. Shu bois men Prezidentimizning:"Otasining qilmishi uchun nega farzandlari yoki aka uchun uka javob berishi kerak"[32],- deya yuritgan siyosatlarini yuqori baholayman.

"Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak "[33].Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan ilgari surilayotgan ushbu tamoyil ham jamiyat taraqqiyoti hamda aholi manfaatlarini yanada yuksaltirish uchun xizmat qilmoqda .

Kishida faqatgina moddiy ehtiyojlar mavjud emas. Har bir shaxs jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishni, ma'lum bir mashg'ulot bilan shug'ullanishni xohlaydi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslarning biror bir sohada faoliyat olib borishlari – bu haqiqiy insoniylik va insonparvarlik demakdir. Bugungi kunda yurtimizda ham har bir inson qatori ijtimoiy himoyaga muhtoj[34](ya'ni kam ta'minlangan oila farzandlari ,ayollar daftari[35],temir daftarda turuvchi shaxslar hamda "Ijtimoiy himoya reysteri"da turadigan fuqarolar) hamda imkoniyati cheklangan ,nogironligi bor[36] fuqarolar uchun ham keng imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. [37]

---

30 O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
31 https://lex.uz/docs/-6445145
32 https://daryo.uz/2017/12/07/shavkat-mirziyoyev-otasining-qilmishi-uchun-nega-farzandlari-yoki-aka-uchun-uka-javob-berishi-kerak
33 https://kun.uz/uz/news/2017/08/31/halk-davlat-idoralariga-emas-balki-davlat-organlari-halkimizga-hizmat-kilisi-kerak-prezident-nutki
34 https://lex.uz/docs/5569689
35 https://lex.uz/ru/docs/4866624
36 https://lex.uz/docs/-5044711
37 https://www.gazeta.uz/oz/2020/06/09/education-law/

O‘zim OTM ga endigina qadam qo‘ygan yosh talaba bo‘lganligim uchun birgina ta’lim tizimidagi imkoniyatlar bilan fikrimni yoritib bermoqchiman. O‘qishga kirish, talabadek sharafli nomga sazovor bo‘lish har bir yoshning orzusi. Xuddi shunday mening ham orzum hamda maqsadim o‘zim yoqtirgan soha bo‘yicha o‘qishga topshirish hamda talaba bo‘lish edi. Vanihoyat erishdim ham. Va bu yerda, ya’ni oliygohda o‘zim kabi talabalikka erishgan ko‘pgina tengdosh-u aka-opalarimni uchratdim. Ilk kundan e’tiborimni tortgan narsa shu bo‘ldiki, biz bilan bir dargohda ko‘zi ojiz talabalar ham tahsil olishyapti. Hayolimga kelgan birinchi savol: bular DTM testini qanday bajarishgan degan savol bo‘ldi. Keyinchalik qiziqib bildimki,ulardan alohida og‘zaki savol-javob tarzida imtihon olinar ekan. Va bu meni quvontirdi.Sababi,ularda ham oliygohda tahsil olishga ishtiyoq, xohish hamda havas bor. Ammo biz kabi yozma tarzda test topshirish imkoniyati yo‘q, shuning uchun ham og‘zaki tarzda sinov belgilanganligi quvonarli hol hamda katta imkoniyat. Nafaqat ko‘zi ojiz bolalar,balki nogironligi bor yoki boquvchisini yo‘qotgan kechagi abituriyent bugun davlatimiz tomonidan belgilangan imtiyoz asosida talabalikka erishdi. Bu ham yurtimizda inson huquqlari bo‘yicha olib borilayotgan islohot hamda qo‘llab –quvvatlashning oliy namunasi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, endi biz mustaqil yurtimiz istiqbolini tilagan holda o‘zimizga bildirilgan ishonchni oqlashimiz hamda Vatanimiz kelajagiga foydasi tegadigan yetuk kadr bo‘lib yetishishimiz shart va zarur.

## HALIMA XUDOYBERDIYEVANING SHE’RLARIDA BADIIY SAN’ATLARNI QO‘LLASH MAHORATI

**Gulhayo Eshniyozova Hamroqul qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi,**
**O‘zbek tili mutaxassisligi doktoranti**

**Annotatsiya.** Nozik hislarni go‘zal so‘zlar orqali misralarga jo qilgan shoira Halima Xudoyberdiyevaning ijodida qo‘llangan badiiy san'atlar quyida tahlil qilinadi. Lekin shoira ijodida, she'rlarida she’riy san’atlar chuqur o‘rganilmagan. Maqolaning asosiy maqsadi shoira ijodida, asosan, she’rlarida she’riy san’atlarni tahlil qilish va ularning mohiyatini ochib berish, ushbu she’riy san’atlarning shoira ijodida o‘ziga xos o‘rnini belgilash hamda ularning mazmuniy turlarini tahlil qilish va qilingan tahlil yuzasidan xulosalardir.

**Kalit so‘zlar:** she’riy san’at, lafziy san’at, ma’naviy san’at,harfiy san’at, husni taxallus, raddi matla’ sifatlash, tajnis, tashbeh, tazod, tanosub, nido, tajohil ul-orif

**Annotation:** Below is an analysis of the artistic arts used in the work of the poet Halima Khudoyberdiyeva, who expressed elegant feelings through beautiful words in verses. But poetic art has not been deeply studied in the work of the poetess and her poems. The main goal of the article is to analyze and reveal the documents of poetic art in the poet's poems, to show the unique place of these poetic arts in the poet's work, and to analyze their content. the analysis is checked.

**Key words**: poetic art, lafziy art, ma’naviy art, harfiy art, antonym, sifatlash, omonym, tashbeh, tazod, tanosub, tajohil ul orif

**Аннотатция:** Ниже будет проанализировано художественное искусство, использованное в творчестве поэтессы Халимы Худойбердиевой, выражавшей в стихах тонкие чувства посредством красивых слов. Но поэтическое искусство не получило глубокого изучения в творчестве поэтессы и ее стихах. Основная цель статьи - проанализировать поэтические искусства в творчестве поэтессы, преимущественно в ее стихах, и раскрыть их сущность, определить специфическое место этих поэтических искусств в творчестве поэтессы, проанализировать их типы контента и сделать выводы на основе анализа.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** поэтическое искусство, словесное искусство, духовное искусство, буквальное искусство, прозвище хусни, квалификация радди матла, таджнис, ташбе, тазад, таносуб, нидо, таджахил уль ариф.

Ming yillik tarixga ega bo‘lgan mumtoz adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she’r ahlining diqqat markazida bo‘lib kelgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e’tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy

asarlarda she’riy san’atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.
Ma’lumki, she’riy san’at badiiy asarda ifodalangan g‘oyalarni yanada jonli va ta’sirli ifodalashga, lirik va epik timsollarni yanada yorqinroq gavdalantirishga, she’r, misra, bandlarning so‘z nafisligi, musiqiyligi, jozibadorligini ta’minlashga xizmat qilgan.
U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g‘oya o‘z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma’rifiy-tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko‘lami, badiiy timsollar jilosi bilan bir vaqtda qo‘llangan she’riy san’atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o‘rni va ahamiyati kabi masalalarga ham alohida diqqat qilingan. Turkiy tillarda ilmi badi masalalari aks etgan asar sifatida Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarini keltirish mumkin. Risolaning uchinchi qismi badiiy san’atlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda 97 san’at turi haqida so‘z boradi.
Ilmi badi’ga doir nisbatan mukammalroq asar Atoulloh Husayniyning “Badoyi us-sanoyi” risolasi bo‘lib, unda ilk marta she’riy san’atlar uchta katta guruhga ajratiladi. Lafziy, ma’naviy, mushtarak san’atlarga ajratilgan. She’riy san’atlar bir qancha manbalarda turlicha guruhlarga ajratilgan. [38]
Lafziy san’atlar-so‘zning shakli bilan bog‘liq holatda vujudga keladigan san‘atlar.
Ma’naviy san‘atlar-so‘zning mazmuni va o‘ziga xos ichki ma’nolari asosida vujudga keladi.
Lafziy-ma’naviy san’atlar-She’riy san’atning ushbu turida so‘zning shakliga ham, uning mazmuniga ham e’tibor beriladi.[39]Adabiyotshunos V. Rahmonov “She'riy san’atlar” risolasida, M. Sharipovaning “Harfiy san’atlar xususida” maqolasida ham arab harflari asosidagi san’atlar haqida ma’lumot berilib, ularni harfiy san’atlar nomi bilan alohida guruhlaganlar. [40] Halima Xudoyberdiyeva she’riyati o‘ziga xosligi bilan boshqa ijodkorlar she’rlaridan farq qiladi. Shoira ijodini varaqlar ekansiz undagi ma’nolar olami sizni befarq qoldirmaydi. Shoira she’rlaridagi lafziy, ma’naviy, harfiy san’atlar ham shu darajada mohirona qo‘llanganki, ularni tahlil qilish barobarida ko‘plab yangi ma’nolarni kashf qilamiz. Lafziy san’atlar o‘z ichiga iltifot, mukarrar, muvozina, nido, qaytariq, saj, tasdir, takrir, tasbe, ta’did, tarse’ kabi bir qancha san’atlarni tashkil qiladi. Ma’naviy san’atlar o‘zi ichiga mubolag‘a, tafrid, tashbeh, istiora, tajohil ul-orif, talmeh, tashxis, husni ta’lil, irsoli masal, ruju, intoq kabi turlarga bo‘linadi. Harfiy san’atlar esa tanosub, tazod, husni maqta, husni taxallus, tajnis va shu kabi bir qancha san’atlardan tashkil topadi.
**Lafziy san'atlar:**
**1.Nido:**
Garchand saxiy yerdek bo‘liqdir taning,
Doim ham boshingni silamas hayot.
**Yo Rab**, xoin chiqdi sening tuqqaning,
Bir qadam tashladi uni o‘zing ot.(“Bir qadam oldinga” 304-bet) [41]
Yuqoridagi parchada nido san’ati orqali (Yo Rab) hayotdan ko‘p jabr ko‘rgan, hayotning adolatsizliklariga chiday olmay Yaratganga iltijo, nido qilgan shoira go‘yoki. Bu holatni ta’sirli qilish maqsadida esa nido san’atidan foydalangan Halima Xudoyberdiyeva.
**2.Tadrij:**
Bir qadam bo‘lsa ham oldinga tashlang,
**Taklifmi, qarormi,** chama oldinga chorlab,
Qo‘yning terisini uqalab, oshlab,
Kungayda o‘tirgan, momo, oldinga!(“Bir qadam oldinga” 304-bet) [42]
She’rning ikkinchi misrasida tadrij san’ati qo‘llanilgan. Bu yerda taklif va qaror so‘zlari ketma-ketlikda kelib ushbu san’atni yuzaga chiqargan. So‘zlar darajalanib, ketma-ket keladi bu san’atda. Shoira she’rda har qanday vaziyatda oldinga intilib yashasha kerakligini, u taklif yoki qaror bo‘ladimi farqi yo‘q oldinga siljish imkoniyati bormi, demak, intilish kerakligini nazarda tutgan.

---

[38] " Navoiy ijodida badiiy san'atlar" Tadjixon Sabitova
[39] https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/lafziy-san-atlar
[40] Vahob Rahmonov "She'riy san'atlar" SHarq nashriyoti, 2020
41 БУЮК КУШЛАР , ТОШ КЕНТ «O'ZBEKISTON» 2012 ХАЛИМА ХУДОЙБЕРДИЕВА
42 БУЮК КУШЛАР , ТОШ КЕНТ «O'ZBEKISTON» 2012 ХАЛИМА ХУДОЙБЕРДИЕВА

**3.Tasdir:**
Erkakning diliga yo‘l olgan ayol,
Ko‘ngil eshigida turib qolma tik.
**Bol emassan, ammo bo‘la olgin bol-**
Bir qadam oldinga tashla behadlik.("Bir qadam oldinga'' 304-bet) [43]

Tasdir — she’r baytidagi birinchi so‘zni bayt oxirida takrorlash san’ati.Bu yerda bol so‘zi qatorning oxirida ham takror holatda ishlatilgan. Ya’ni shoira bu baytda ham bir qadam oldinga tashlash kerakligini, o‘zi bolday bo‘lmasa ham bol bo‘la olishi mumkin ekanligini ifodalab bergan tasdir san’ati orqali.

**4.Saj:**
Yigit, men bilmayman, senda qancha **zarb,**
Ammo sodiq ersang xalqday **dahoga**
Iltijo qilaman boshlanarkan **harb,**
Hech yo‘qsa aylangin **Bobur Mirzoga**.(303-bet)[44]

Saj-ichki qofiya hisoblanadi. Bunda she’r baytlarida zarb, harb, dahoga, Bobur Mirzoga kabi so‘zlar saj’ san'atini hosil qilishda yordam bergan. Bunda so‘zlar o‘zaro qofiyalanib, ohangdoshlikni hosil qilgan.

**Ma’naviy san’atlar:**

**5.Talmeh:**
Qoplab kelaversin yerlarni bulut,
Yetmas, tutasholmas sening bag‘ringga.
**Indira Gandiday** bir qadamga o‘t,
Sakkizta gul qadab ko‘kraklaringga.("Bir qadam oldinga'' 305-bet)[45]

Ushbu san’atda biror tarixiy joy yoki shaxs tasvirlanadi. Bu she’rda “Indira Gandi” tarixiy shaxs bo‘lib shoira talmeh san’atidan juda mohirona foydalangan.

**6.Tajohil ul-orif**
Ko‘ngil degan gul, g‘unchadir,
Unda she’r degani nadir?
She’r degani-jondan shirin,
She’r degani o‘lgunchadir.( “Sizning ko‘nglingizni izlab”)[46]

She’rning bu baytida ma’naviy san’atlar guruhiga mansub tajohil ul orif san’ati qo‘llangan. Bilib - bilmaslikka olish san’ati. Unda lirik qahramon barchasini bilsada o‘zini go‘llikka soladi. Bu she’rda ham she’rning nima ekanligini biladi, ammo yana savol beradi. Bu ham she’rga qo‘shimcha obrazlilik beradi, albatta.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva juda mohirona usulda yozgan she’rlari bilan xalqimiz qalbiga yo‘l topdi. Nozik hislarini o‘zida mujassam etgan shoira ulkan tuyg‘ularni ham she’rlariga jo qilgan. She’riy san’atlar esa ushbu otashqalb shoiraning ijodida jilolangan ma’nolar maxzanini ochish uchun bir yo‘l vazifasini bajaradi. Yuqoridagi tahlillar ham Halima Xudoyberdiyevaning yuksak mahoratini, o‘tkir qalam sohibasi ekanligini yana bir bor yorqin dalili desak, yanglishmaymiz.

## Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Anvar Hojiahmedov “Mumtoz qofiya va she’riy san’atlar” “Sharq” nashriyoti, Toshkent-1998,3-4-bet
2. “Navoiy ijodida badiiy san’atlar” Tadjixon Sabitova
3. Vahob Rahmonov “She’riy san’atlar” Sharq nashriyoti, 2020
4. “Abdulla Oripov asarlari badiiy san’ati” f.f.d prof Nodira Afaqova
5. Asallayev A, Rahmonov V, Musurmonqulov F. Badiiy san’atlar. –Toshkent:, Tafakkur nashriyoti. 2015. B – 4.


43 Буюк кушлар , Тошкент «O'zbekiston» 2012 Халима Худойбердиева

44 Буюк кушлар , Тошкент «O'zbekiston» 2012 Халима Худойбердиева

[45] Буюк кушлар , Тошкент «O'zbekiston» 2012 Халима Худойбердиева

[46] Ҳалима Худойбердиева сайланма «шарқ» нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти тошкент - 2000

6. Anvar Hojiahmedov “Mumtoz qofiya va she’riy san’atlar” Sharq nashriyoti, Toshkent, 1998 y. 80-bet
7. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/adabiyot/lafziy-san-atlar
8. Ҳалима Худойбердиева Сайланма “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти тошкент - 2000,
9. Буюк кушлар , Тошкент “O‘zbekiston” 2012 Ҳалима Худойбердиева 701-702-betlar
10. Ҳалима Худойбердиева сайланма “Шарқ” нашриёт-матбаа концерни бош таҳририяти тошкент - 2000, 15-16-17-betlar
11. Ҳалима Ҳудойбердиева “Буюк кушлар”, Тошкент “O‘zbekiston” 2022.-Б 283.
12. U.Amonov “Adabiyot nazariya” 2-qism, Buxoro-2008.

## “BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH” FANININI O‘QITISH ORQALI TALABALARNING IQTISODIY MUNOSABATLARGA KIRISHISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

**Isabekov Ixtiyor Adilbekovich,**
**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali erkin tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishning zaruriyati, talabalarning iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda fanni o‘qitishda talabalarning iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish bosqichlari kabi masalalar muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** mehnat bozori, diversifikatsiyalash, iqtisodiy kompetentlik, tadbirkorlik, xalqaro iqtisodiyot, oila byudjeti, turizm, logistika, davlat byudjeti va tejamkorlik, iqtisodiy madaniyat, biznes loyihalar, liderlik, kreativlik.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются такие вопросы, как необходимость преподавания дисциплины «Управление бизнес-процессами» в высших учебных заведениях, особенности формирования навыки у студентов в экономических отношениях, а также этапы формирования у студентов умений в экономических отношениях при преподавании дисциплины.

**Ключевые слова:** рынок труда, диверсификация, экономическая конкурентоспособность, предпринимательство, международная экономика, семейный бюджет, туризм, логистика, государственный бюджет и экономика, экономическая культура, бизнес-проекты, лидерство, творчество.

**Abstract.** In this article are discussed issues such as importance of teaching of the discipline “Business Process Management” in higher educational institutions, the features of developing students’ skills in economic relations, as well as the stages of developing students’ skills in economic relations of teaching the discipline.

**Key words:** labor market, diversification, economic competitiveness, entrepreneurship, international economy, family budget, tourism, logistics, state budget and economy, economic culture, business projects, leadership, creativity.

Dunyoda ta’lim shakllarini zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablari asosida diversifikatsiyalash, o‘qitish usullarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim sifati nazariyasi va metodologiyasining yetakchi g‘oyalarini tatbiq etish uzviylik, uzluksizlik va izchillik tamoyillariga asoslangan klasterli yondashuv orqali amalga oshirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, rivojlangan xorijiy davlatlarning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida ta’lim oluvchilarning iqtisodiy kompetentligini shakllantirish marketing-tadbirkorlik, iqtisodiy-huquqiy va axborot-tahliliy, boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning konseptual tizimli modeliga asoslangan metodik modelini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishning didaktik ta’minotini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai-nazardan, iqtisodiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida interfaol ta’lim metodlaridan va iqtisodiy indikatorlardan samarali foydalanish zaruratini taqozo etadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda kechayotgan tub islohotlar, hukumatimizning tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratayotgani, har bir oilaga tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga yetarli sharoit yaratilayotgani, ayniqsa, yoshlarga keng imkoniyatlar eshigi ochilgani, aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish, ta’lim muassasalarida biznesga oid iqtisodiy fanlarni o‘rganishga ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiyot sohasidagi o‘zgarishlar bu fanni o‘qitishda xalqaro iqtisodiyot, oila byudjeti, turizm, logistika, davlat byudjeti va tejamkorlik, iqtisodiy madaniyat kabi yo‘nalishlarni o‘quv rejalariga kiritish zaruriyatini ko‘rsatmoqda.
Mamlakatimizda ta’lim oluvchilarga iqtisodiy bilimlar berish, iqtisodiy xarakterdagi milliy qadriyatlarga hurmatni oshirish, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik malakasiga ega bo‘lishni ta’minlash masalalari bo‘yicha R.X.Djuraev, R.Ismatov, N.A.Kamolova, N.G.Mo‘minov, M.Artiqovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.
Iqtisodiy ta’limni tashkil etishga texnologik yondashuv masalalari A.X.Abdullaev, S.Boboqulov, Sh.A.Saipnazarov, B.Sobirov, X.A.Umarova, X.J.Xudoyqulov, O.Hayitovlar tomonidan o‘rganilgan. E.Sariqov, B.Haydarov kabi tadqiqotchilar ta’lim oluvchilarning iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish masalasini tadqiq qilishga e’tibor qaratgan.
Oliy ta’lim muassasalarida “Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishda talabalarning yosh hususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularni tadbirkorlik faoliyati va biznes jarayonlarini boshqarishga, iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyat ijtimoiy-iqtisodiy yoki ishlab chiqarish munosabatlari jarayonini qamrab olishi kerak deb hisoblaymiz.
Iqtisodiy munosabatlarga kirishish – ta’lim oluvchilarni ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish orqali ularni axloqiy, iqtisodiy, jismoniy, ruhan, irodaviy hamda estetik jihatdan kamolotga yetishishini ta’minlovchi pedagogik jarayon hisoblanadi.
Iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarining rivojlanganligi deganda talabalarning iqtisodiy bilimdonlik, oilaviy tadbirkorlik faoliyati yoki biznes loyihalarda faol ishtirok etishi, mehnat va ishlab chiqarish ko‘nikmalariga, shuningdek, iqtisodiy kompetentlik sifatlari, ya’ni aniq maqsad va harakat rejasiga egaligi, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, liderlik, kreativlik, iqtisodiy masalalarda vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, turli iqtisodiy vaziyatlarda va biznes jarayonlarida oqilona qaror qabul qilish, raqobatga bardoshlilik, muvaffaqiyatsizliklar oldida tushkunlikka tushmaslik, tavakkal qilishga tayyorlik kabilarga egaligi tushuniladi.
“Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishda oliy ta’lim muassasalari talabalarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘z mohiyatiga ko‘ra tashxis, moslashish, amaliy-faoliyatli, nazorat-baholash hamda refleksiv bosqichlarda kechadi.
Bosqichlarda muayyan pedagogik vazifalar hal qilinadi.
1) tashxis bosqichida – anketa so‘rovi, suhbat, kuzatish yordamida talabalar tomonidan biznes va iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy, individual ahamiyatining baholanishi, tadbirkorlik va biznesga oid iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlar mavjudligini aniqlash ishlari amalga oshiriladi;
2) moslashtirish bosqichida – amaliy topshiriqlar va interaktiv ta’lim metodlaridan foydalangan holda, talabalar ongiga nazariy iqtisodiy bilimlarni singdirish orqali ularni amaliy biznes faoliyat jarayoniga tayyorlanadi;
3) amaliy-faoliyatli bosqich – rolli va ishbilarmonlik xarakterga ega bo‘lgan o‘yinlarni yaratish, talabalarni oilaviy tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini o‘rganish, interfaol metodlarga asoslangan ijodiy topshiriqlar yordamida biznes jarayonlariga oid faoliyatni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini shakllantirish;
4) nazorat va baholash bosqichida esa – ijodiy va amaliy natijalarga ko‘ra talabalar tomonidan iqtisodiy bilimlarni amalda qo‘llashga doir bilim, ko‘nikma va malakalarning rivojlanganlik darajasini baholash amalga oshiriladi;
5) refleksiv bosqich – talabalarda iqtisodiy munosabatlarga tayyorlik darajasini mustaqil baholash malakalarini rivojlantirish, ular tomonidan refleksiv baholashning izchil yo‘lga qo‘yilishiga erishishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, oliy ta’lim muassasalarida “Biznes jarayonlarini boshqarish” fanini o‘qitishda hamda u asosida talabalarning iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishda iqtisodiy ijtimoiylashuv, integratsiya, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojiga moslik, mehnat munosabati bilan bog‘liqlik, shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlari birligi, individual xususiyatlarni inobatga olish, tabaqaviy yondashish, jamoa imkoniyatining ustuvorligi kabi tamoyillar ustuvorlik kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi PQ-5847-sonli Qarori. httrs://lex.uz/doss/4545884
3. Avazboev A.I. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llari // Zamonaviy ta’lim. 2018. №8. –B. 21.
4. Баранников К.А. Формирование экономической и бизнес-компетенций учащихся учреждений среднего профессионального образования и их влияние на экономическую безопасность личности: дис. ...канд. пед. наук. - М., 2009. - 156 с.
5. Ilxomov I.B. Professional ta’lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish (malaka oshirish tizimi misolida) // p.f.f.d. ( RhD) dis.avtoref. …T.-2021.-50 b.
6. Rasulov A.N. Zamonaviy ta’lim klasteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish. //Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘ Ilmiy-metodikaliq jurnal №2/1 2022 jil nashr etildi. 65-68 betlar. (13.00.00 №20)

Raxmatullaeva D.R. Kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirib o‘qitishni takomillashtirish (“Avtomobillarni ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish” misolida) // p.f.f.d. (RhD) dis. avto. –T. -2018.-48 b.


## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI


**Ismoilova Dilbar Amrullo qizi**
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna**
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti**



**Annotatsiya.** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish, ularda tevarak-atrof, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish haqida ma’lumotlar yortilgan.



**Kalit so‘zlar:** bolalar, taraqqiyot, intellekt, intellektual rivojlanish, ma’rifiy faoliyat, muvaffaqiyatli egallash, ko‘nikmalar, bilim jarayonlari, nutq.



**Аннотация:** данная статья содержит информацию о развитии интеллектуальных способностей детей дошкольного возраста, формировании их представлений об окружающей среде и социальной жизни.



**Ключевые слова:** дети, развитие, интеллект, интеллектуальное развитие, учебная деятельность, успешное овладение, навыки, процессы познания, речь.



**Abstract:** this article contains information about the development of the intellectual abilities of preschool children, the formation of their ideas about the environment and social life.



**Key words:** children, development, intelligence, intellectual development, educational activities, successful mastery, skills, cognitive processes, speech.


Respublikamizda ta’lim tizimlariga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘ratildi. Xususan maktabgacha ta’lim tizimiga qabul qilinayotgan qonun va qarorlar shular jumlasidandir. Barcha islohotlar kelajar avlodni barkamol shaxs etib voyaga yetkazishdir. Masalan: “2017–2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 2707-son

qarori qabul qilindi va shu asosida dastur ishlab chiqildi. Mazkur qaror maktabgacha ta’lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq etish, farzandlarimizni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb masalalarni hal etishda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda[1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning taraqqiyotida intellektual rivojlanishi juda muhim hisoblanadi. chunki u ma’rifiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun ko‘nikmalar hosil qiladi. Maktabgacha yoshdagi ma’lumotlarning to‘planishi tez sur’atlarda kechadi, bilim jarayonlari takomillashtirilmoqda, nutq shakllanmoqda. Rivojlangan razvedkaga ega bo‘lgan maktab o‘quvchilari yangi materiallarni tezda o‘rganadilar va yod olishadi, o‘zlarining qobiliyatlariga ko‘proq ishonch hosil qilishadi va amaliyotda ko‘rsatilishicha o‘rganish istagi ko‘proq bo‘ladi.

Maktabgacha tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda alohida o‘ringa o‘qitish vositasi bo‘lgan bolalarning didaktik o‘yinlari kiradi va bolalarga bilim olish va ularni mustahkamlashda yordam beradi, shuningdek, bilim faoliyati metodlarini o‘rganish uchun yordam beradi. Maktab o‘quvchilari bolalarning ta’lim faoliyatiga qiziqishi ortib borayotgan didaktik o‘yin tufayli, tasniflashni, taqqoslashni va umumlashtirishni o‘rganadi. Kichik bolalarni aqliy rivojlanishi nafaqat bilimlarni egallash va mustahkamlash, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga ham yordam berishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nutq va nutqni rivojlantirish;
- makon fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirish (taqvim, vaqt);
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish (tasniflash, korrelyatsiya);
- mayda motorikani rivojlantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish (rasm solish, kashtanchilik);
- taxminlarni kuzatish, ta’riflash va yaratish qobiliyatini shakllantirish;
- tabiat dunyosi va inson tomonidan yaratilgan narsalar bilan bog‘liq xatti-qoidalar bilan tanishish;
- o‘z-o‘zini va boshqalarni hurmat qilishga va axloqiy jihatdan qimmatli muloqot yo‘llarini rivojlantirishga qaratilgan.

Bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashq

Rasmlar orqali hikoyani yoki hikoyani chizish. Bolaga 4 ta surat ko‘rsatiladi, ularda ertak yoki unga ma’lum bo‘lgan voqealar tasvirlangan. Bolaning vazifasi suratlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda tartibga solish va illyustratsiya yordamida kichik bir hikoya yaratishdir.

5-7 yoshdagi bolalarning hissiy aql-idrokini o‘rganish uchun nazariy va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ilmiy muammolarning dolzarbligini ijtimoiy buyurtma va zamonaviy maktabgacha ta’limning me'yoriy asoslari (maktabgacha ta’limning federal davlat ta’lim standarti) bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu psixologik hodisani o‘rganish uchun xorijiy va mahalliy yondashuvlarning tahlili keltirilgan bo‘lib, hissiy aql inson ruhining yaxlit holatini tartibga soluvchi va uning faoliyatining fiziologik, psixologik va shaxsiy darajalarida namoyon bo‘ladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy aqlni o‘rganishning zamonaviy amaliy jihatlari tasvirlangan. 5-7 yoshdagi bolalarda, shu jumladan, hissiy aqlni baholash uchun uslubiy vositalarning tanqidiy tekshiruvi bugungi kunda mavjud bo‘lgan hissiy aqlni tashxislashning muammoli zonalari bilan belgilanadi va ushbu hodisani o‘rganishning tegishli usullarini baholash va tanlash mezonlarini ajratish masalalari dolzarbdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy aqlni o‘rganishning nazariy va uslubiy muammolarini bildiradi. Nazariy tahlil natijalariga ko‘ra, mualliflar hissiy aqlni insonning aqliy hayotining barcha darajalarida ishlaydigan dinamik tizim sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilishadi va uni umumiy, yosh va pedagogik psixologiya, psixofizyologiya, maktabgacha pedagogika nuqtai nazaridan o‘rganishga kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarurligini oqlashadi.

Hayotda muvaffaqiyatga ko‘pincha o‘qituvchilar yoki ota-onalar kutmagan odamlar erishadilar. “Bezorilik, Loafer, troechnik” to‘satdan barcha bolalik darsliklari uchun o‘tirgan sinfdoshlariga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo‘ladi. Maslahat “Tasodifiy omad” yoki “baxtli taqdir” da emas,

balki ijtimoiy intellektda. Bizning ijtimoiy moslashuvimiz, odamlarni tushunish qobiliyati va oxir-oqibatda muvaffaqiyatga bog‘liq. Ijtimoiy aqliy taraqqiyotni ilk yoshdan boshlab rivojlantirish yaxshiroq samara beradi.

**Bolada ijtimoiy aqlni qanday rivojlantirish kerak: psixologning 7 maslahati**

1. Bolaning kim bilan va qanday muloqot qilishiga e'tibor bering. Birinchidan, biz eng ob'ektiv pozitsiyani egallashimiz va bolaning muloqot doirasiga qarashimiz kerak. Bo‘sh vaqtini qaerda va kim bilan o‘tkazadi? U muntazam ravishda uchrashadigan haqiqiy (virtual emas) do‘stlari bormi, ularga tashrif buyuradimi? O‘z do‘stlarini tanlash imkoniyati bormi? Yoki biz uning tanishlarini diqqat bilan ko‘rib chiqamiz va yomon ta’sirlardan himoya qilish uchun "notekis", "yomon" o‘g‘il va qizlar bilan muloqot qilishni taqiqlaymizmi? U qiyin vaziyatlardan chiqib ketishi, nizolarni hal qilishi yoki ota-onasidan yordam so‘rashi mumkinmi?

2. Bolaning muloqot doirasini kengaytirish. Bolaning aloqalarini cheklash orqali biz uning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilamiz. O‘sib borayotgan, u qanday qilib yashashni va bu dunyoda yashayotgan odamlar bilan qanday muloqot qilishni tushunmasdan dunyoga kiradi. Aikido bo‘yicha treningda qoida mavjud: har bir sportchi maksimal miqdordagi sparring hamkorlari bilan bir xil usulni qo‘llashi kerak, chunki ularning har biri biroz boshqacha bo‘ladi-sportchi kuchli va dushmanning zaif tomonlarini ko‘rishni o‘rganadi, uning balandligi, vazni, tezligi va ayni paytda uning afzalliklarini topadi. Shuning uchun bola turli yoshdagi, turli moddiy boylik va madaniy darajadagi odamlar bilan muloqot qilishi kerak. U ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish kerak.

3. Turli ijtimoiy vaziyatlarning tajribasini berish. Odamlar bilan munosabatlar har doim xavf tug‘diradi. Biz hammamiz boshqacha, kimdir sizni yaxshi ko‘radi, lekin kimdir sizni bezovta qiladi va g‘azablantiradi. Kimdir sizga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lishi mumkin va kimdir hiylalarni qurishi mumkin. To‘liq rivojlanish uchun bolalar rejasiz, kutilmagan, ba’zan hatto ziddiyatli vaziyatlarga muhtoj. Bunday vaziyatlarni bartaraf etish va chiqish tajribasi ijtimoiy immunitetni rivojlantirishga yordam beradi. Bola jang qildi — kim haq ekanini tushunishga shoshilmaylik, kim aybdor? Nima bo‘lganini so‘rash va birgalikda mojaroni tinch yo‘l bilan qanday hal qilish va kelajakda qanday harakat qilish mumkinligini muhokama qilish yaxshiroqdir.

4. Ijtimoiy simulyatorlar foydalaning. Agar bola shaxsiy haydovchi bilan mashina bilan olib ketilsa ham, vaqti-vaqti bilan metro yoki tramvayga chiqish foydali bo‘ladi. Jamoat transportida sayohat-ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun ideal variant. Zohiriy soddaligiga qaramay, salonda to‘g‘ri joy topish qobiliyati ham asta-sekin ishlab chiqariladi. Qaysi biri yaxshi deb hisoblanadi? Biz boshqalarga aralashmaymiz va hech kim bizni nima sodir bo‘layotganini aniq ko‘rsata olmaydi. Agar siz qo‘shnilarga “siz endi chiqmaysiz” degan so‘zlar bilan murojaat qilsangiz, "odamlar orasiga siqib qo‘yish” vazifasi juda oson. Iltimos, menga ruxsat bering!”Bola o‘z tajribasi bilan so‘zlarni qo‘pol bosimga qaraganda ancha samarali ekanligini bilib oladi.

5. Muloqotda chegaralarni kuzatishni o‘rgatish. Muvaffaqiyatli ijtimoiy shovqin uchun bolaning boshqa odamlarning shaxsiy makonining chegaralarini tushunish va ularni buzmaslikka harakat qilish juda muhimdir. Bu, ayniqsa, begonalarning chegaralari — jamoat joylarida, ko‘chada, restoranda, samolyotda, poezdda. Misol uchun, yig‘layotgan bola restoranga stoldan stolga kiyiladi — uni to‘xtatish va hamma narsaga aralashishini aytish kerak. Agar u tushunmasa, jazoga amal qilish kerak. Tashqi chegaralarga rioya qilishni talab qiladigan bo‘lsak, biz ichki o‘z-o‘zini nazorat qilishning shakllanishiga, ya’ni o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatiga, ularning impulslarini, hissiy impulslarini engishga turtki beramiz.

6. Boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini tushunishga o‘rgating. Hayot bolaga turli qarashlar, qadriyatlar va xarakterga ega bo‘lgan odamlardan biror narsaga erishish kerak bo‘lgan vazifalarni qo‘yadi. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun siz boshqalarning xatti-harakatlarini tushunishingiz va oldindan bilishingiz, ularning motivatsiyasini, niyatlarini baholashingiz va kimga ishonishingiz mumkinligini aniqlashingiz kerak. Lekin tez — tez biz nimani his qilayotganimizni bilmaymiz-g‘azab yoki g‘azab, o‘zimizni bezovta qilish yoki boshqasiga hasad qilish, quvonch yoki qoniqish. Sizning his-tuyg‘ularingizni tanib olish qobiliyati juda foydali mahoratdir. Faqat his-tuyg‘ularimizni tushunishni o‘rganib, biz hamdard bo‘lishni o‘rganishimiz mumkin, ya’ni boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini tushunishimiz mumkin.

7. Bolani turli xil aloqa sharoitlarida etarlicha javob berishga o‘rgatish. Katta dunyoda bola o‘z muammolarini hal qilish, quyosh ostidagi joyni egallash, do‘st kimligini aniqlash va kim bo‘lmasligini aniqlash kerak bo‘ladi. Biror joyda siz chetga chiqishingiz kerak, bir joyda muzokara qilishingiz va kelishuvga erishishingiz kerak, bir joyda faol ravishda turib, fikringizni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etishingiz kerak. Buning uchun bolaning arsenalida turli vaziyatlarga javob berish va engish uchun ko‘plab usullar bo‘lishi kerak. Bolaning tajribasi qanchalik ko‘p bo‘lsa, u qanchalik ko‘p mashq qilsa, u “hayot”deb nomlangan o‘yinni o‘ynaydi.

Bolalar intellektual rivojlanishini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyati – yangi bilim, yutuqlar va muvaffaqiyatlardan ijobiy his-tuyg‘ular va ijobiy his-tuyg‘ularni yaratishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. -Mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi, 2016-yil, 8 - dekabr.

2. 2017– 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha [Matn] / O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. – T.:

3. “2017–2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. // “Xalq so‘zi”, 2016- yil 31- dekabr.

## NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

**Jumanazarova Dildora Choriyevna**
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna**
**NavDPI,Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlaridan biri, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tashkil etish, maqsad, vazifalari, boshqarish.

**Аннотация:** в данной статье представлена информация об одном из видов организаций дошкольного образования – негосударственных организациях дошкольного образования.

**Ключевые слова:** негосударственные организации дошкольного образования, организация, цель, задачи, управление.

**Abstract:** this article provides information about one of the types of preschool education organizations - non-governmental preschool education organizations.

**Key words:** non-governmental organizations of preschool education, organization, goal, objectives, management.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotini muassis tomonidan tayinlanadigan rahbar boshqaradi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari davlat maktabgacha ta’lim muassasasi mudiri lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. NMTT faoliyatini nazorat qilish muasis tomonidan, shuningdek, Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan maktabgacha ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari va ta’lim-tarbiya dasturlarining bajarilishini nazorat qilish ushbu sohadagi vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti qonun hujjatlarida, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabga ta’limga qo‘yiladigan davlat talablari va ta’lim-tarbiya dasturlarining bajarilishini nazorat qilish ushbu sohadagi vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`lim tashkiloti qonun hujjatlarida, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta`lim tashkiloti ustavida nazarda tutilgan tartibda boshqariladi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligi bilan kelishuv bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining hududiy bo‘linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta’lim muassasasi Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan mudir rahbarlik qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga

tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari hisoblanadi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatiga mudir joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta`lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassisi oldida hisob beradi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta`lim tashkilotlarini tashkil etish Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 30 iyuldagi 595-sonli qarori bilan Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga oylik subsidiyalar ajratish bo‘yicha:

- joylarda tashkil etilgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini aniqlash va tahlil qilish (Bunda, pedagog va yordamchi pedagoglariga tegishli toifa bo‘yicha qisqa muddatli yoki 9 soatlik davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun belgilangan mehnatga to‘lanadigan haqga teng shartlarda va hajmlarda ish haqini hisoblab chiqishda Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 15 oktabrdagi 215-sonli buyrug‘i asosida amalga oshirilishini nazoratga olish);
- oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun davlat MTTlariga belgilangan normativlar bo‘yicha ovqatlanish, yumshoq inventar, anjomlar va dori-darmonlarga ajratilgan miqdorlardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim bo‘limi tomonidan taqdim etilgan hisob-kitoblar asosida zarur mablag‘lar ajratish yuzasidan taklif kiritish masalalari ko‘rilib, bugungi kunda respublikamizda oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyat yuritmoqda.

Hujjatga ko‘ra, davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta’minlash shakli asosida tashkil etilgan ONMTlari faoliyati uchun litsenziya olish talab etilmaydi;

12 nafargacha bolani tarbiyalashni nazarda tutuvchi oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarini moddiy-texnik va uslubiy jihatdan ta’minlash shaklidagi davlat-xususiy sherikchilik loyihasi qishloq joydagi xususiy sherikning tashabbusi bilan, tanlov o‘tkazilmay va taqdim etilgan hujjatlarni o‘rganish asosida, ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi;

davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risida bitim tuman (shahar) hokimligi tomonidan taklif etiladigan ruxsat xususiy sherik tomonidan qabul qilingan kundan boshlab Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kuchga kiradi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faqat davlat-xususiy sherikchilikning oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moddiy- texnik va uslubiy jihatdan ta’minlash shakli asosida qishloq joylarda tashkil etiladi.

**Quyidagilar oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maqsadi hisoblanadi:**

maktabgacha yoshdagi bolalarni (keyingi o‘rinlarda bolalar deb ataladi) har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;

ta’lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash;

bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish.

**Quyidagilar oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining vazifalari hisoblanadi:**

ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog‘ligini mustahkamlash;

bola shaxsini sog‘lom va yetuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;

bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta’minlash;

bolalarda xalqimizning yuksak ma’naviyati va insonparvarlik an’analariga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish.

**Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari:**

ota-onalar bilan kelishuv bo‘yicha qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish (shu jumladan o‘qituvchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlarini taklif qilish);

xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan mablag‘lar hisobiga pedagog va uning yordamchisi ishini qo‘shimcha ravishda rag‘batlantirish,foyda olish huquqiga ega.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tuman (shahar) hokimliklari tomonidan beriladigan belgilangan shakldagi ruxsatnomani qabul qilib olgan vaqtdan boshlab ta’lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotari faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya talab etilmaydi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining muassislari yakka tartibdagi tadbirkor bo‘ladi.
Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 7-12 nafar bolalarga tarbiya berilishiga yo‘l qo‘yiladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining ish tartibi va bolalarning muassasada bo‘lish vaqti ota-onalarning istak va talablaridan kelib chiqib muassis tomonidan belgilanadi.
Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, quyidagi kunlik ish tartibi joriy etiladi: 9 soatli; 4 soatli.
Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar, tegishli tibbiy xulosa asosida amalga oshiriladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va muassasadan chiqarish tartibi oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining qarori bilan amalga oshiriladi. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalar soni 7 nafardan kam bo‘lmasligi va 12 nafardan oshmasligi lozim.
Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘quv yili joriy yilning 2-sentabridan boshlanadi va keyingi yilning 1- iyuniga qadar davom etadi. 1 iyundan 1- sentabrgacha bo‘lgan davr muassasada sog‘lomlashtirish davri hisoblanadi. Mamlakatimizda bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida davlat - xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash orqali maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini yanada kengaytirish hamda bolalarning maktabgacha ta’limga kengroq qamrab olinishini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.
Yuqorida bayon etilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, mulkchilik shalklidan qat’iy-nazar maktabgacha ta’lim muassasalarining asosiy faoliyati bolalarga zamon talablari asosida ta’lim-tarbiya berishning muqobil turlarini amaliyotga joriy etishga qaratilgandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” QONUN. T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 802-sonli, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi T.: 2022.
5. Ermatova G.P., Shamiyeva O.R. Maktabgacha ta’lim menejmenti. Navoiy 2022.
6. Vazirlar Mahkamasining Oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga oylik subsidiyalar ajratish bo‘yicha 2018 yil 30 iyuldagi 595 - sonli qarori.


## MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA QO‘G‘IRCHOQ TEATRI PERSONAJLARINI O‘RGATISH ORQALI BOLALARDA INNOVATORLIK VA NOVATORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH


**Jumanova Nilufar O‘ktamovna,**
**Jizzax davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarda masofaviy ta’lim kafedrasi stajyor o‘qituvchisi.**



**ANNOTATSIYA**. Ushbu maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotida qo‘g‘irchoq teatrini sahnalashtirish orqali bolalarni yangicha fikrlash va ijodkorligini rivojlantirish orqali bolalarning muhim kompitensiyalarini rivojlantirish hamda Mustaqil fikrlashga o‘rgatish haqida so‘z yuritilgan.


**Kalit so‘zlar:** Mtt, qo‘g‘irchoqlar, aktyor, qo‘g‘irchoqboz, jismoniy harakat, psixik harakat, so‘zli harakat, tana plastikasi, integratsiya, intellekt, kompetensiya, innovatsiya, novatsiya, motivatsiya.

**ABSTRACT.** This article talks about developing important competencies of children and teaching them to independent thinking by developing new ways of thinking and creativity of children by staging a puppet theater in a preschool educational organization.
**Key words**: Mtt, puppets, actor, puppeteer, physical movement, mental movement, verbal movement, body plastic, integration, intelligence, competence, innovation, novation, motivation.
**KIRISH.** Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda barcha sohada keskin burulishlar, katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ta’lim sohasida, xususan maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ham bolalarni yangicha fikrlaydigan o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan kreativ bolalarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.Bolalarning ijodkorligini oshirish maqsadida MTTda Sahnalashtirish faoliyati olib borilmoqda bu borada har bir pedagog tarbiyachidan innovator, novator va motivator bo‘lish zamon talabi darajasida talab etilmoqda. Yurtimizning rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shuvchi yetuk shaxsni tarbiyalashda zamon talabiga javob beradigan metodlardan foydalangan holda, rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Asosiy qism.** Maktabgacha davr – bu bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba’zi bir estetik vositalarni to‘g‘ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo‘lib qoladilar. Bolalarda go‘zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta’sirli, faol tusda bo‘ladi. Bu ayniqsa ular qo‘g‘irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo‘ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga bemalol qo‘shilib harakat qiladilar, ularda muayyan vaziyatda o‘zini qanday tutishni aytib turadilar, o‘zlarini ular bilan birga o‘ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo‘lgan san’at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba’zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she’rni nasrdan badiiy asarning ba’zi bir janrlarini, tasviriy faoliyat va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o‘yindan va hokazo) bir-biridan ajrata boshlaydilar.

Bolalarning ijodiy jamoasi bu bolalarning imkoniyatlarini teng namoyish eta olganidadir. O‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda – u amaliymi, individualmi, guruhlimi, konsert yoki tadbirmi, barchasi bola ko‘nglining emotsional hissiyotini uyg‘otadi, bu esa pedagog va jamoa ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlarining kerakli kommunikativ sifatlarni shakllantiradi.

Mashg‘ulotda kreativ maydon metodi, jamoada ijodiy atmosferani paydo bo‘lishiga imkon tug‘diradi, ishtirokchining obraz ustida ishlashi-ijodiy yo‘nalishga sharoit yaratadi, ifodalilikning individual vositasini izlaydi, ijodiy vazifalar rangbarangligi pedagogik amaliyotda foydalanishga mo‘ljallanadi. Sahnalashtirish faoliyatida o‘yin komponentini kirgazish va mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan muvaffaqiyatli vaziyatni tashkil etishi, tarbiyalanuvchining sahna harakatlariga faol jalb qilishga, bolaning badiiy imkoniyatini ochib berishiga va erkin bo‘lishiga yordam beradi.

Personaj (lot. persona — shaxs) — san’at va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. Personajlar asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga ko‘ra asosiy Personajlar, yordamchi Personajlar, epizodik personajlarga bo‘linadi. Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy g‘oyaviy estetik niyatini tashuvchi shaxslar asosiy personajlar hisoblanadi. Ular asarning bosh qahramoni deb ataladi.Barcha voqealarda to‘la qatnashmasa-da, yozuvchining g‘oyaviy niyatini to‘laroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi personajlardir. Asarning makrostrukturasida yanada kamroq qatnashadigan shaxslar epizodik personaj bo‘lib qolaveradi. epizodik personajlar asosiy qahramon tabiatidagi muhim xususiyatlarni ishonarli yoritishga xizmat qiladilar. Yozuvchi munosabatiga qarab personajlar ijobiy yoki salbiy shaxslar tarzida tasvirlanadi.

Badiiy asarda bunday qarama qarshi qahramonlarning ifodalanishi adabiyotning azaliy muammosi bo‘lmish hayotning yaxshilik va yomonlikdan iborat ekanligiga ishoradir. Personajlar orqali hayot hodisalari turli darajada ifodalanadi. Chuqur va mukammal tasvirlangan, umumlashtiruvchi kuchga

ega bo‘lgan Personaj tip darajasiga ko‘tariladi. Tip badiiy asarda ishtirok etuvchi Personajlarning eng oliy cho‘qqisini egallaydi. Tipga ko‘ra, kamroq umumlashma quvvatiga ega personajlar obraz yoki xarakter deb yuritiladi.

Pedagog yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Pedagogning sahnalashtirish faoliyatidagi yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashiga, ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondoshishi, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi hamkasblarining o‘sishiga ko‘maklashishiga yordam beradi.Sahnalashtirish faoliyatida pedagog avvalo bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo‘lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasi, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Bolaning rivojlanishida, jamiyatda o‘z o‘rnini topishida Sahnalashtirish-qo‘g‘irchoq teatri personajlari orqali bola ta`lim-tarbiya jarayonida hamda ijtimoiy muhitda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadigan jarayonlardan biri hisoblanadi.

**XULOSA.** Sahnalashtirish jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me’yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o‘zlashtirib boradi. Bolalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati shuki, ular jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me’yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. Faqat ular bu darajani hayot davomida egallaydilar. Shuning uchun bolalar rivojlanishiga Mtt, ota-onalar, qarindoshlar, bolalar bilan ishlayotgan mutaxassislar (psixolog, shifokor, pedagoglar – agentlar) bu masalaga alohida e’tibor bermoqlari zarur. Chunki, bolalar hayotda zarur bo‘lgan bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o‘zlashtirishlari va ularni hayotda qo‘llashga intilishlari aynan ularga bog‘liqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**.

1. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta`lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo.2006.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
3. D.Q.Asqarova “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” Namangan 2018 y
4. Yo‘ldoshev J.O‘. Ta’lim yangilanish yo‘lida. T. O‘qituvchi. 2000.
5. O.To‘rayeva “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” T., “O‘qituvchi” 1998 y.
6. www. pedagog. uz

## TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA TALABALARNING BADIIY TEXNIK MAHORATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**“Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi”**
**kafedrasi 2-kurs talabasi**
**Jurayeva O‘g‘iloy Kengash qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada darslarga innovatsion yondashishning afzalliklari va tasviriy san’at darslarida talabalarning badiiy texnik mahoratlarini rivojlantirish usullarini va tasviriy san’at darslariga yangicha yondoshish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** interfaol metodlar, badiiy texnik mahorat, noan’anaviy o‘qitish usullari, an’anaviy o‘qitish usullari, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-texnik, sub’ekt, mutaxassis.

O‘qitishda zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo‘lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarni shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ta’lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim muhit sanaladi. Shu sababli ta’lim mazmuni insonparvarlikka yo‘naltirilgan innovatsion yondashish, gumanistik g‘oya va me’yorlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim.

Ta’lim jarayonida o‘qitish usullari turli xil ko‘rinishlarda olib boriladi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O‘qish ehtiyojini qondirish bilan o‘quv jarayoni yuqori motivatsiyaga erishiladi. O‘quv materiali o‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali yaxshi esda qoladi. O‘quvchining o‘quv jarayonida o‘z-o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr

namoyon boʻladi. Har bir talabaning oʻzi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

Dars mashgʻulotlari interfaol usulda oʻtilganda oʻquvchi faqat taʼlim mazmunini oʻzlashtiribgina qolmay, balki oʻzining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Demak, bunday sharoitda oʻqituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar boʻyicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni oʻz vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega boʻlishini taqozo etadi.

Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda oʻquvchi shaxsini rivojlantirish oʻz-oʻziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Yaʼni oʻquvchining:

- Oʻzi mustaqil oʻqishi asosida bilim olishi;
- Oʻzini-oʻzi anglab etishga va tarbiya topishga;
- Oʻz kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
- Oʻquv mehnatiga masʼuliyat bilan yondoshishiga;
- Oʻz faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani gʻanimat bilishga;
- Oʻquv mehnatiga oʻzida xohish, istak uygʻota olishga;
- Har qanday vaziyatda faollik koʻrsata olishga;
- Ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga oʻrganmogʻi zarur.

Taʼlim berish yaʼni oʻqitishdan koʻzlanadigan maqsad bu davlat taʼlim standartlarida belgilangan bilim va koʻnikmalarini oʻquvchiga etkazishdan iborat. Qachonki oʻqitish, oʻquvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki oʻquvchi malaka oshirish uchun moʻljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina u jarayon muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa boʻladi.Badiiy texnik mahoratlarini rivojlantirishda pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi boʻlib, pedagogik jarayonda hamkorlik, gʻamxoʻrlik, oʻquvchi-talabalar shaxsini hurmat qilish, eʼzozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. Oʻqituvchi (pedagog) anʼanaviy taʼlimda taʼlim mazmunining subʼekti, pedagogik jarayonning obʼekti deb oʻquvchi-talabalar qaralsa, hamkorlik pedagogikasida oʻquvchi-talaba oʻz oʻquv faoliyatining subʼekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona taʼlim jarayonining ikkita subʼekti hamkorlikda oʻquv tarbiya vazifalarini hal etadi. Tasviriy sanʼat dars mashgʻulotlarida ushbu pedagogik texnologiyani taʼlim tizimi markazida barkamol inson shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan insonparvarlik gʻoyasi muhim oʻrin tutadi. Bu gʻoya qay darajada amalga oshirilganligi taʼlim jarayonining asosiy natijasi pedagogik jamoa mehnatining sifatiga berilgan baho asosida aniqlanadi. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishda oʻquv-tarbiyaviy jarayonning asosiy natijasini aniqlovchi muhim omil shaxsga boʻlgan munosabat hisoblanadi. Tasviriy sanʼat darslarida usullarni maʼlum bir uslubda qoʻllash jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad koʻrsatkichlariga boʻysundiriladi. Undan tashqari, inson maqsadga yetish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Taʼlim uslubi – oʻqituvchi (pedagog) bilan oʻquvchi-talabalar orasida bilim berish va uni olish maqsadida amalga oshiriladigan oʻzaro aloqalarni tizimga soluvchi pedagogik tadbirdir. Oʻqitish uslublari oʻquv jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib boʻlmaydi. Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab soʻz orqali ifodalash, koʻrgazmali va amaliy, elektronga boʻlinadi. Taʼlim mazmunini oʻzlashtirishda oʻquvchi-talabalarning taʼlim faoliyatiga munosib ravishda quyidagi uslublar: tushuntirish – illyustrativ, reproduktiv, muammoli bayon, xususiy qidirish yoki evristik hamda yarim tadqiqot uslublari qoʻllaniladi. Muammoli-qidiruv uslublari muammoli taʼlim jarayonida qoʻllanadi. Bu uslublardan foydalanishda oʻqituvchi (pedagog) avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qoʻyadi, masalalarni, topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarining toʻgʻriligini tasdiqlaydi. Oʻquvchi-talabalar oldingi bilim va tajribalariga asoslanib muammoli vaziyatni hal qilish yoʻllari toʻgʻrisidagi takliflarini aytadi va oldin olgan bilimlarini umumlashtiradi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini tanlaydi. Bu uslub oʻquvchi-talabalarning bilimga qiziqishlarini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Har qanday o‘quv predmetining rivojlanishi o‘z-o‘zidan boshlanmaydi. XVII asrning akademik tasviriy asar yaratishning nazariy qoidalari Uyg‘onish davri rassomlarining talqinlaridayoq ifoda etila boshlangan. XVIII asrda yuzaga kelgan akademik o‘qitish nazariyasi ma’lum o‘zgartirishlar kiritilib, endi badiiy amaliyot yangi sharoitlarida amalga oshirildi. XIX asrda akademik nazariyoti va amaliyotida o‘quv masalalarini kompleks hal etish bo‘yicha faol izlanishlar boshlandi. Badiiy maktab akademik yo‘nalishida o‘quvchi-talabalarga faqatgina bilim va ko‘nikmalar bilangina qurollantirish emas, balki ijodiy innovatsiya faoliyatga ham ishtirok ettirish ko‘zda tutiladi. Oliy ta’limda yaxshi bilim olsa, izlanuvchan-intiluvchan, yangilik yaratuvchan bo‘lsa shundagina maktablarga yetuk kadr bo‘lib boradi. Qadimgi akademik maktab namoyondalari shunday vasiyat qilganlar: “naturadan surat chizar ekansan, ko‘zingga ko‘ringan hamma narsani to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib tushiraverma, balki nima uchun shundayligini o‘yla, boshqacha emasligi haqida mulohaza qil”. Zamonaviy jamiyatda innovatsion texnologiyalar inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida, jumladan, ta’lim sohasida kengayib bormoqda. Ta’limda innovatsiyalar - ilmiy pedagogik bilimlarning yangi sohasi; ta’lim sohasidagi uchta asosiy pedagogik jarayon: yangiliklar yaratish, ularni o‘zlashtirish va qo‘llashning ajralmas birligi va o‘zaro bog‘liqligi hisoblanadi.
Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san’at o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo‘ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, tasviriy san’at ta’lim jarayonlarini modernizatsiyalash (ingl. Modern-yangilangan, zamonaviy) tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishlarida olib borilayotgan o‘quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi.Ta’lim muassasalarida tasviriy san’at darslarini yangicha zamonaviy innovatsion usullardan foydalangan holda tashkil etish. Bu borada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy va malakaviy tayyorgarliklariga qo‘yiladigan talablar va ularni amalga oshirish yo‘llari o‘rganilgan.Tasviriy san’at darslarida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganib chiqish natijasida quyidagilarga e’tibor berish lozimligi aniqlandi:
-Mutaxassislar tayyorlashda tasviriy san’at darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, innovatsion uslublardan etarlicha foydalanish zarur;
-Ta’limning yangi mazmunini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
-Tasviriy san’at darslarida innovatsion uslublarni qo‘llash va takomillashtirish;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**


1. Xasanov R. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar. Talabalar uchun metodik qo‘llanma.-T.;ToshDPU, 2006.-94 b.
2. Azimova B. Natyurmort tuzish va uni tasvirlash metodikasi. – T.; O‘qituvchi, 1984.-56 b.
3. Boshlang‘ich sinflar. Tasviriy san’at.-T.; Sharq, 1999.
4. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo (дата обращения: 02.11.2023).
5. Abdullaev, A., & Bobomurodova, S. (2023). THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART. *Science and innovation*, *2*(C3), 64-66.
6. Abdullayev, A. H., & Bobomurodova, S. A. (2022). BO‘LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT O ‘QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific progress*, *3*(3), 908-910.
7. Bobonazarov Sh. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 114-118.

8. Bobonazarov S. KOMPOZITSIYA MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MUHIM EKANLIGI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B6. – С. 11-14.
9. Bobonazarov S. U., Jalolov S. C. Etnomadiy Fenomenon Sifatida Nuza San'atlari //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) https://www. tarj. in.
10. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическое образование и наука, (2), 109-110.
11. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
12. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.

## THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS.

**Dilfuza Salijanovna Kambarova, teacher of the "Pedagogy" department,**
**University of Economics and Pedagogy Andijan Region, Uzbekistan.**

В статье представлена информация о сфере применения искусственного интеллекта, возможностях повышения качества образования, требованиях к организации современного образования с помощью искусственного интеллекта, а также возможности достижения больших результатов за счет использования цифровых технологий.

**Ключевые слова и фразы**: искусственный интеллект, цифровые технологии, программа "Умная школа", стратегия, инновационное развитие.

Мақалада жасанды интеллекттің қолданылу аясы, білім сапасын арттыру мүмкіндіктері, жасанды интеллект арқылы заманауи білім беруді ұйымдастыру талаптары, сонымен қатар цифрлық технологияларды қолдану арқылы үлкен нэтижелерге қол жеткізу мүмкіндіктері туралы ақпарат берілген.

**Негізгі сөздер мен сөз тіркестері**: жасанды интеллект, цифрлық технологиялар, Smart School бағдарламасы, стратегия, инновациялық даму.

The article provides information about the scope of artificial intelligence, opportunities to improve the quality of education, requirements for organizing modern education using artificial intelligence, as well as the possibility of achieving great results through the use of digital technologies.

**Key words and phrases**: artificial intelligence, digital technologies, Smart School program, strategy, innovative development.

Artificial intelligence has become one of the most important technologies in the world today. In the current conditions, paying special attention to the acceleration and development of work in this direction is the most correct strategic direction. Today, developed countries in world practice have announced strategies for the development of artificial intelligence. In developed countries, a lot of scientific research is being carried out on artificial intelligence, as a result of which the field of application of artificial intelligence is expanding rapidly. Currently, artificial intelligence is effectively used in communication and software development, and artificial intelligence is leading the way in scientific research and education.

Perfect artificial intelligence is a level of systems intelligence where machines can outperform human intelligence and perform any task better than a human with cognitive capabilities. This is the result of general artificial intelligence. Some of the main characteristics of strong artificial intelligence include: the ability to think, reason, solve puzzles, make inferences, plan for itself, learn and communicate.

In the context of the global pandemic, we have experienced an important period related to the transformation of networks, the digitization and mobilization of this process, and the introduction of artificial intelligence into all areas. One such area is the education system, many understand the application of artificial intelligence in education as "robot teachers", which is slightly different from the truth. Artificial intelligence can be found in personalized education systems, information retrieval, chat-bots, special education systems for children, inclusive education systems, educational

process control systems, student knowledge assessment systems. Using such systems, it is possible not only to increase the knowledge of students, but also to reduce the burden on teachers.

The rapid and widespread use of artificial intelligence technologies in the world practice made it possible to make work in this regard a daily requirement in the life of our country. Experiences of developed countries in the use of artificial intelligence systems in education, issues of their implementation in the education of our country are being studied. Today, for most authors of artificial intelligence, the brain is a structure that performs its functions based on the laws of the external world. Weak AI is the most common type of AI capable of performing a specific task. A narrow AI cannot work outside of its domain and limitations because it is designed for only one specific task. And general artificial intelligence is a type of mind that can perform any intellectual task with human-like efficiency. General AI is a system that is intelligent and thinks like a human. Currently, there is no such system that represents general artificial intelligence and can perform any task as perfectly as a human. Researchers around the world are now focusing on developing machines with general artificial intelligence. Systems with general artificial intelligence are still being researched, and it takes a lot of effort and time to create such systems.

One of the important requirements for the organization of modern education with the help of artificial intelligence is to achieve high results in a short time without spending excessive mental and physical effort. It means to deliver specific theoretical knowledge to students within a certain period of time, to create skills and competencies in them for certain activities. Evaluating the level of knowledge, skills and abilities acquired by them requires high pedagogical skills from the teacher. Implementation of this important task requires combining traditional methods of teaching with advanced pedagogical and information technologies in general education institutions. If we pay attention to the world education in connection with the work carried out in this field, it will be necessary to test the educational modules of "Artificial Intelligence" and introduce artificial intelligence classes in schools.

In our country, huge steps have been taken for the development of science, and life itself shows that it is possible to achieve great results in the social and economic spheres through the use of digital technologies in every field. As stated by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, the development of the digital economy should become one of the most urgent and priority directions for Uzbekistan in the coming years. In accordance with the strategy "Digital Uzbekistan - 2030" and for the purpose of rapid introduction of artificial intelligence technologies and their widespread use in our country, ensuring the possibility of using digital data and their high quality, creating favorable conditions for training qualified personnel in this field, the President's decree of February 17, 2021 “Artificial Decision No. PQ-499 “On measures to create conditions for the rapid introduction of intelligence technologies” was adopted. The purpose of this decision was to develop a regulatory legal framework defining uniform requirements, responsibility, security and transparency in the development and use of artificial intelligence technologies in the economic sectors and social spheres of our country, in the state administration system.

It is a gratifying situation for all of us that the educational system of the Republic of Uzbekistan has been introduced through the “Smart School” program, which is based on the capabilities of early artificial intelligence systems. It should be noted that the introduction of the “Smart School” program, developed on the basis of artificial intelligence systems, into the educational system provides several advantages. Automatic assessment of knowledge quality ensures transparency. Artificial intelligence can offer several methods in this regard. Although it cannot completely replace human evaluation, it can be qualitatively closer to it.

The “Smart School” software, based on artificial intelligence systems, saves teachers' time in schools, quickly identifies gaps in education in terms of students, subjects, subjects, classes, analyzes the mental and physical development of students, and creates several other opportunities for school management. Human memory is not perfect, and the program reminds teachers, parents of information about student learning, and even provides special alerts for students who are not actively participating in classes, or if their learning is falling.

Monitoring of students' behavior is also a software, and various analyzes are conducted on the basis of artificial intelligence systems. As a result, the program contributes to the development of students not only mentally and physically, but also spiritually. In this case, the "Intelligent School" program identifies gaps created in the process of students' learning, gaps in their learning in the section of topics, students with a low level of learning and talented students from subjects in graphic and other forms, and identifies exactly which students should be dealt with individually and on which topics. .

In addition, the implementation of artificial intelligence in the educational process - teachers will also be forced to change. In particular, as a result of cooperation of teachers with the "Smart School" program, they help to teach students quickly, efficiently and better in schools. This leads teachers to work on themselves and improve the quality of education. The implementation of artificial intelligence systems in schools optimizes and automates many tasks of teachers. This allows teachers to spend more time working with their students and improving the quality of education.

Scientists have many arguments about the future of artificial intelligence. The fact is that while some machines express concern that they can invade people's privacy and even become weapons, other scientists are positive about this. They argue that self-driving cars in an artificial intelligence system can calculate the most profitable, least damaging option with the lowest risk and lowest losses. Another contentious situation with artificial intelligence is related to human employment. Many industries are seeking to automate certain jobs with the help of intelligent technologies, increasing their efforts to reduce the human workforce. This also creates a bad impression of artificial intelligence in people.

Artificial intelligence is covering all aspects of our lives. Artificial intelligence is a program that imitates humans. Artificial intelligence can perform complex operations such as converting a text entry into an image or a voice message into text. Today, there is artificial intelligence that can also recognize speech. A super-intelligent artificial intelligence that can think like a human brain is about teaching a computer to think like a human. Artificial intelligence engineers create special programs to perform tasks performed by the human mind. Artificial intelligence, which has a significant impact on the human factor, can shed light even on issues beyond the reach of human intelligence.

Summary. Artificial intelligence continues to transform education today in the form of:

• in the process of globalization and scientific and technical progress, the importance of artificial intelligence in the educational system is increasing;

• new measurements and criteria can be created with the help of artificial intelligence for students and pupils with testing and evaluation systems;

• opportunities for more effective and wide use of differentiated and individual education were created;

• feedback, which is so important in education, can be automated to suit the needs of students with artificial intelligence.

Artificial intelligence technologies have the potential to transform any industry, but the possibilities are not limitless.

The main disadvantage of artificial intelligence is that

- any inaccuracies in the data affect the result;
- the entered data is accurate, artificial intelligence systems ensure error-free operation;
- an artificial intelligence system created for a certain field may not work for another field.

In other words, these systems are characterized by very narrow specialization. Systems are designed to perform one specific task and are far from multitasking like humans. In addition, self-learning systems are not independent. The descriptions of artificial intelligence technology that we see on TV and in movies are still elements of fantasy. However, computers that can analyze complex data to learn and improve specific skills are rare.

It should not be forgotten that every created technology should always serve humanity, improve its standard of living, and human development. It aims to ensure that AI does not widen the technological gap within and between countries. The promise of AI for all is that everyone should

be able to take advantage of the ongoing technological revolution and enjoy its fruits, especially in terms of innovation.

**References:**

1. Kadyrov U, Karshiev J. Specific aspects of the use of artificial intelligence in the educational process. Journal of modern education. 2021, 4(101)
2. 2. Economics and Innovative Technologies. Scientific electronic magazine. 3/2022, May-June (#00059)

# KIRXGOF QOIDALARI ASOSIDA MURAKKAB ELEKTR ZANJIRINI O‘RGANISH USULLARI

**Navoiy Davlat pedagogika instituti**
**fizika -texnologiya fakulteti 3-bosqich talabasi: Jalilov Azizjon Avazovich**
**Ilmiy rahbar: O.A.Karimova**

**ANNOTATSIYA:**Ushbu maqolada elektrotexnika va radiotexnikadagi barcha masallarning yechimi Kirxgofning qoidalariga asoslanishini hisobga olgan holda murakkab elektr zanjirini o‘rganish bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kirxgofning 1 – 2-qoidasi, tok kuchi, qarshiliklari, elektr yurituvchi kuchi, murakkab elektr zanjiri, elektromagnetizm.

**ANNOTATION:**This article describes the study of a complex electric circuit, taking into account that the solution of all problems in electrical engineering and radio engineering is based on Kirchhoff's rules.

**Key words:** Kirchhoff's 1st - 2nd rule, current, resistances, electromotive force, complex electric circuit, electromagnetism.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье описано исследование сложной электрической цепи с учетом того, что решение всех задач электротехники и радиотехники основано на правилах Кирхгофа.

**Ключевые слова:** 1-2 закон Кирхгофа, ток, сопротивление, электродвижущая сила, сложная электрическая цепь, электромагнетизм.

Hozirgi kunda texnika taraqqiyoti jadallashgan kunda ishlab chiqarishning asosi bo‘lgan fizika fanini o‘qitish zamonaviy ta’limning dolzarb masalalaridan biridir. Elektrotexnika va radiotexnikadagi barcha masalalarning yechimi Kirxgofning qoidalariga asoslanishini hisobga olgan holda ushbu maqolada murakkab elektr zanjirini o‘rganish usullari qo‘lanildi. Jumladan Kirxgofning 1 – 2-qoidasini va ularning qo‘llanilish shartlarini ko‘rib o‘tamiz.

**Kirxgofning birinchi qoidasi:**

Tarmoqlanish tugunida uchrashuvchi toklarning algebraik yig‘indisi nolga teng




$$\Sigma I_k = 0 \qquad (1)$$

$$I_1 + I_2 - I_3 = 0 \qquad (1,1)$$

Kiruvchi toklar (+) ishorada ($I_1$; $I_2$), chiqurvchi toklar (–) ishorada ($I_3$) olinadi.

**Kirxgofning ikkinchi qoidasi:** Tarmoqlangan zanjirning berk konturida uning qismlaridan oqayotgan tok kuchlarining tegishli qismlar qarshiliklariga ko‘paytmasining algebraik yig‘indisi konturdagi tok manbalari elektr yurituvchi kuchlarining algebraik yig‘indisiga teng bo‘ladi.

$$\Sigma I_k R_k = \Sigma \varepsilon_k \ .$$

**Kirxgofning ikkinchi qoidasini tatbiq qilish shartlari :**

1. Elektr zanjiri qismlaridagi yo‘nalish aylanish yo‘nalishi bilan mos tushgan toklar musbat, teskari yo‘nalgan toklar manfiy;

2. Elektr zanjiridagi tok manbalarining manfiy qutbidan musbat qutbiga tomon yo‘nalishi konturning aylanishi bilan mos tushsa, manbaning EYK musbat, aks holda manfiy ishora bilan olinadi.



$I_2 + I_3 - I_1 = 0$

$\varepsilon = \varepsilon_2 - \varepsilon_1$

Kirxgofning ikkinchi qoidasi: murakkab elektr zanjirdagi istalgan yopiq konturni aylanib chiqqanda barcha qarshiliklardagi (manbaning ichki qarshiligi ham kiradi) kuchlanish tushishlarining algebraik yig‘indisi shu kontur E.Yu.K larning algebraik yig‘indisiga teng, ya’ni

$$I_1R_1 + I_2R_2 + \ldots + I_nR_n = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 + \ldots + \varepsilon_n \ . \qquad (3)$$

Har bir konturni aylanib chiqish yo‘nalishi (soat strelkasining harakat yo‘nalishi bo‘yicha yoki unga teskari) ixtiyoriy tanlanadi. Agar ikki tugun orasidagi uchastkada oldindan tanlangan tok yo‘nalishi konturni aylanib chiqish yo‘nalishi bilan mos tushsa, u holda kuchlanish tushishi musbat hisoblanadi, agar tok yo‘nalishi aylanib chiqish yo‘nalishiga teskari bo‘lsa, kuchlanish manfiy bo‘ladi. Agar kontur bo‘yicha aylanib chiqishda tok manbaini manfiy qutbidan musbat qutbiga tomon o‘tilsa, u holda E.Yu.K musbat hisoblanadi, aks holda E.Yu.K manfiy hisoblanadi.

**Masalan:**

Tok manbalarining EYuK lari $\varepsilon_1$=12V va $\varepsilon_1$=12, ichki qarshiliklari $r_1$= $r_2$= 0,5Ω dan bo‘lgan manbalarga 2 ta *R* qarshilik rasmda ko‘rsatilgandek ulandan. *R* qarshilikning qanday qiymatida ABCD konturdan tok oqmaydi. Tok manbalarining EYuK lari $\varepsilon_1$=12 V va $\varepsilon_1$=12, ichki qarshiliklari $r_1 = r_2$= 0,5Ω dan bo‘lgan manbalarga 2 ta *R* qarshilik rasmda ko‘rsatilgandek ulandan. *R* qarshilikning qanday qiymatida ABCD konturdan tok oqmaydi.




Tashqi qarshiliklar o‘zaro parallel ulangan bo‘lib ularning umumiysi *R/2* ga tengligidan sxemani quyidagicha o‘zgartiramiz.




Kirxgofning birinch va ikkinchi qoidasidan foydalanib tenglamalar tuzishimiz uchun manbadan chiqadigan toklarning yo‘nalishini va umumiy aylanish yo‘nalishini tanlab olishimiz kerak,




D tugun uchun Kirxgofning birinchi qoidasini qo‘llab quyidagi tenglamani yozamiz

$$I - I_1 - I_2 = 0 \quad (1)$$

Kirxgofning ikkinchi qoidasidan foydalanib EFDAE va BCDAB konturlar uchun tegishli tenglama tuzamiz

$$-I_1r_1 - I\frac{R}{2} = -\varepsilon_1 \quad , (2)$$

$$I_2r_2 + I\frac{R}{2} = \varepsilon_2 \quad . \quad (3)$$

(2) tenglamalarning har birining oldiga minus qo‘yilishiga sabab tanlab olingan aylanish yo‘nalishiga teskari. 1-tenglamadan $I$ ni topib 2 va 3-tenglamalarga keltirib qo‘yib quyidagicha soddalashtiramiz

$$\begin{cases} I_1 r_1 + (I_1 + I_2)\dfrac{R}{2} = \varepsilon_1 \\ I_2 r_2 + (I_1 + I_2)\dfrac{R}{2} = \varepsilon_2 \end{cases}$$

$$-\begin{cases} I_1 r_1 + I_1 \dfrac{R}{2} = \varepsilon_1 \\ I_1 \dfrac{R}{2} = \varepsilon_2 \end{cases}$$

$$I_1 r_1 = \varepsilon_1 - \varepsilon_2 \quad \rightarrow I_1 = \frac{\varepsilon_1 - \varepsilon_2}{r_1}$$

$$+\begin{cases} I_1 r_1 + I_1 \dfrac{R}{2} = \varepsilon_1 \\ I_1 \dfrac{R}{2} = \varepsilon_2 \end{cases}$$

$$I_1 r_1 + I_1 R = \varepsilon_1 + \varepsilon_2 \quad \rightarrow R = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_2 - I_1 r_1}{I_1}$$

$$R = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_2 - I_1 r_1}{I_1} = \frac{\varepsilon_1 + \varepsilon_2 - (\frac{\varepsilon_1 - \varepsilon_2}{r_1}) r_1}{\frac{\varepsilon_1 - \varepsilon_2}{r_1}} = \frac{2\varepsilon_2 r_1}{\varepsilon_1 - \varepsilon_2}$$

$$R = \frac{2\varepsilon_2 r_1}{\varepsilon_1 - \varepsilon_2} = \frac{2 \cdot 6 \cdot 0{,}5}{12 - 6} = \frac{6}{6} = 1\Omega$$

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki Kirxgof qoidalari asosida murakkab elektr zanjiriga oid masalalarni yechish o‘quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda fizika o‘qitishda politexnik ta’limning dolzarbligini asoslaydi.

**Adabiyotlar:**


1. G.R.Raximov. “Elektrotexnika” Toshkent “O‘qituvchi” 1966 y.
2. V.Sh. Fayziyev, G.V.Zinatulina “Kirxgof qoidalariga doir masalalar yechish” Uslubiy ishlanma Buxoro – 2017 y. “Iste’dod”.
3. B.A.Abdulhamidovich, D.A.Mavlonovich “Elektrotexnika va elektronika asoslari” O‘quv qo‘llanma Toshkent “O‘qituvchi” 2018 y.


## O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI


**Ochilov Shokir Baxtiyorovich**
**Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**
**Po‘latova Yulduz Begmurodovna**
**Navoiy shahar 6-maktab Geografiya fani o‘qituvchisi**
**Xoliqulova Ruxshona Normurodovna**
**Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**


Bugungi kunda umumta’lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri – o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatida faol ishtirok etish mahnat faoliyatiga tayyorlashdir. Kasb-hunarga yo‘naltirish – bu o‘quvchilarning kasb-hunar bilan bog‘liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini ma’lum davrlarda kasbga yo‘naltiruvchi mutaxassis sifatida o‘quvchgiga kasb-hunar

tanlash, tanlangan mutaxassislikni egallash maqsadida keyingi bosqichda o‘qishni qaysi ta’lim muassasasda davom ettirish borasida malakali maslahat berishni uddalash lozim. Shundan kelib chiqqan holda maktablarda o‘quvchilarni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish tizimini oliy ta’limda pedagogika sohasida joriy etilgan klaster tizimiga integrativ asosda bog‘lash orqali uni rivojlantirish maqsadga muvofiq qilib belgilandi. Kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mavjud yondashuvlar tub o‘zgarishlarni talab qilmoqda. Kasbga yo‘naltirish zamonaviy insonni bozorga to‘liq yo‘naltirishi va uning raqamli makonda muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zarur shart bo‘lishi lozim. Mamlakatimizda joriy etilgan “Kasbga yo‘naltirish tizimi” Bu tizim doirasida bir qator vazifalar belgilab o‘tilgan, jumladan: kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishini aniqlash va ularning ma’lumotlar bazasini yaratish; 7-sinf o‘quvchilari uchun har oyda bir marta “Kasblar olamiga sayohat” mavzusida maxsus kurslar olib borish; 8-sinf o‘quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba “Mening kelajakdagi kasbim” mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda o‘quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish; 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tashxislar natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar yoki mutaxassislikka qaratilgan keyingi ta’limga tayyorlash bo‘yicha kasb-hunar maktablarida, hamkor muassasalarda ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish va hokazo.Tashxislashda nafaqat ta’lim-tarbiya natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o‘zgarish dinamikasi ham kuzatiladi, mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o‘quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, o‘quvchi materialni qanday o‘zlashtirayotganini doimo kuzatib borishga, tarbiyaviy jarayondagi muammolaming yechimini topishga xizmat qiladi. Pedagogik diagnostika yordamida o‘quv - tarbiyaviy jarayonda tug‘iladigan qiyinchiliklar o‘rganiladi, ularni bartaraf etish yo‘llari tashkil etiladi.

O‘quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirishning har xil yo‘llari orasida “Texnologiya” va Tabbiy fanlar muhim o‘rin tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish, moddiy jihozini mustahkamlash, maktabni o‘z atrofidagi sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish, ta’lim bilan qo‘shib olib borish, o‘quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash bilan shug‘ullanadi. Bugungi kunda ta’limda olib borilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar o‘quvchilarda nafaqat ta’limiy, balki kasb tanlashga yo‘llash, hayotiy bilimlarni rivojlantirishga qaratilgandir. Kasb tanlashga yo‘llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umumta’lim maktab vazifasi hisoblanadi. Yoshlarni biron kasb egasi, hunarli qilib tarbiyalashni yoshlikdan o‘rgatib borishimiz zarur. Shu bilan birga texnologiya fani davomida o‘quvchilar kasblar olami, kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar, kasbiy salomatlik to‘g‘risida tanishib boradilar, nafaqat tanishib boradilar, balki, nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lib boradilar. Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o‘z asarlarida, she’r va g‘azallarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashning zarurligini va muqaddasligini, ta’kidlab, ulug‘lab o‘tganlar.

O‘rta Osiyoda qadimdan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, kasb-hunarli bo‘lishning ahamiyatiga katta e’tibor qaratilgan. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga qadim zamonlardan, yozma manbalardan biri bo‘lgan “Avesto” kitobida ham mehnat qilgan va kasb-hunarli kishilar haqida yozilgan. “Avesto” da mehnat qilib, boylik yaratib, quruq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirgan, sut, go‘sht, don yetishtirib jamiyat taraqqiyotiga yo‘l ochib bergan, farovonligini ta’minlagan dehqon, chorvador va ovchilar ulug‘langan. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga naqadar e’tibor berishini ko‘rsatuvchi tarli tuman naqllar, maqollar asrlar osha to‘planib kelgan. Jumladan “hunarli kishi xor bo‘lmas” yoki “bir yigitga yetmish hunar oz” kabi ko‘plab hikmatli so‘zlar borki, ular qadim-qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodning ruhan va jismonan barkamol bo‘lib ulg‘ayishi, munosib kasb-kor egasi bo‘lib yetishishlariga da’vat etib kelganliklarining yaqqol isbotidir.

Abu Nasr Farobiy o‘zining bir qator asarlarida bilim masalasiga inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaraydi. U bilishda ikki bosqichni hissiy va aqliy bilishni farqlaydi va bilishda ikki aqlining roliga katta baho beradi. Farobiy insonlarni ilmli bo‘lishga, kasb-hunar sirlarini egallashga va hamkorlikda ishlashga, mehnatni sevishga chaqiradi. “Baxt soadatga erishuv haqida” risolasida har bir inson o‘zining tabiatiga xos bo‘lgan ish va harakat jarayonida

kamolatga erishadi, deydi. Odam jinsidan bo'lgan har qanday inson faqat mehnat tufayli yetuklikka erishadi, deb ta'kidlaydi.XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos-Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" nomli asarida xalq va davlat, davlat boshlig'i va fuqoro, olimlar va hokimlar, hunarmandlar, dehqonlar va boshqa tabaqalarning xalq, Vatan oldidagi burchlari haqida guruh, toifa va tabaqalarni ilgari suradi. Olimlar mamlakatdagi barcha guruh, toifa va tabaqalarni, kasb-hunar ustalarining jamiyat taraqqiyotidagi tutgan o'rni va ahamiyati, dunyoqarashlari, axloqlari haqida ijtimoiy-psixologik mulohazalar yuritadi.

Texnologiya va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchi ekologik kompetensiyasini rivojlantirish sifati va mazmunini yanada yuqori darajaga ko'tarishga imkon beradi. Tabiiy fanlarning har bir mavzusi va qonuniyatlari ishlab chiqarishdagi ma'lum texnologik jarayon asosini tashkil etadi. Ikkinchidan har qanday ishlab chiqarish sohasida ekologik muammoning kelib chiqishi tabiiy holdir. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarga tabiiy fanlarni o'qitishda har bir mavzuni ekologik jihatdan tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Tayloqov N.I., Akbarov B.A., Jamolov A.Q., O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyalari // Metodik qo'llanma. -T:, 2017. -160 b.
2. Kuchukbayev F.M., Akbarov B.A., Turg'unov A.A. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar // Metodik qo'llanma. –T:, 2016.-144 b.
3. Turdiqulov E.O., Musayeva M.E., Norboyev A.G'., Ochilov Sh.B. O'quvchilarga ijtimoiy ekologiyadan ta'lim berish texnologiyalari // Metodik qo'llanma. –T:, O'zPFITI, –2014. –160 b.
4. Ochilov Sh.B. Forning Students Ekologikal Competence Physics Lessons // J. Eastern European Scientific. –Germany, Ausgabe, №6. 2018.–г 134-138.
5. Ochilov Sh.B. Fizika ta'limida ekologik kompetensiyani takomillashtirish // O'quv qo'llanma. –N:, "Aziz kitobxon", -2021. -176 b.
6. O.E.Eshniyozov, P.X.Bobomirzayev, Z.R.Bobokulov, Sh.B.Ochilov "Qishloq xo'jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi" fanidan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari. –O'quv qo'llanma. –Samarqand:, SamDU, 2021. –252 b.


## ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ОҚОВА СУВЛАРИНИ ТОЗАЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ (УЛЬТРАМАРИН ПИГМЕНТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАСИ МИСОЛИДА)


**Қирйигитов Х.Б., Тайлақов А.А., Каломов С ., Қудратов Ш.Д**
***Жиззах политехника институти кафедраси мудири***
***Жиззах политехника институти доцент в.б., эркин тадқиқотчи***
***Жиззах политехника институти талабалари***



**Аннотация.** "Sofitel" қўшма корхонаси ултрамарин пигмент ишлаб чиқариш қўшма корхонасида ишлаб чиқариш жараёнида ишлатилиб турли моддалар билан ифлосланган оқова сувлардан намуналар олинди ва таркиби ўрганилди. Саноат корхонаси ишлаб чиқариш жараёнларидан ҳосил бўлган оқова сувларни тозалаш технологиясини ўрганиш ва олиб борилган илмий тадқиқот ишлари натижасида ҳосил бўлган оқова сув таркибидаги ингридиентлар рухсат этилган меъёридан охирги 6-чи ҳовуздаги $Na^+$ 1,97 баробар, $Mg^{2+}$ 1,025 баробар, $HCO_3$ 3,36 баробар, $Cl^-$ 9,22 баробар, $NO_2^-$ 2,5 баробар ортиқ бўлган.



**Калит сўзлар:** оқова сув, технология, ингридиент, саноат корхонаси, реагент, усул, самарадорлик, ультрамарин пигмент.



**Аннотация.** На совместном предприятие Sofitel по производству ультрамаринового пигмента были взяты пробы из сточных вод, загрязненных различными веществами, используемыми в процессе производства, и изучен их состав. В результате научно-исследовательских работ по технологии очистки сточных вод, образующихся в производственных процессов промышленного предприятия, содержание ингредиентов в сточных водах, привешено в соответствии с предельно допустимой концентрации в последнем 6-м бассейне $Na^+$ 1,97 раза, $Mg^{2+}$ 1,025 раза, НСО3 в 3,36 раза, $Cl^-$ 9,22 раза, $NO_{2-}$ в 2,5 раза.

**Ключевые слова:** сточные воды, технология, ингредиент, промышленное предприятие, реагент, способ, эффективность, ультрамариновый пигмент.

**Annotation.** Sofitel Joint Venture at the joint venture for the production of Ultramarine pigment, samples were taken from wastewater contaminated with various substances used in the production process and the composition was studied.As a result of the research and research on the technology of wastewater treatment generated by industrial enterprise production processes, the ingridients in the wastewater content generated by the permitted norm were Na+ 1.97 times in the last 6th Pool, Mg2+ 1.025 times, HCO3 3.36 times, Cl-9.22 times, NO2 - 2.5 times.

**Key words:** effluent, technology, ingridient, industrial enterprise, reagent, method, efficiency, ultramarine pigment.

**КИРИШ.** Саноат ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлган оқова сувларни тозалаш ишларини ўрганиш, илмий тадқиқотлар олиб бориш ҳозирги куннинг энг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Бўяш ва пардозлаш корхоналаридаги оқова сувларни тозалаш жараёнини такомиллаштириш бўйича тадқиқот ишлари (М.Амонова) томонидан олиб борилган. Олиб борилган тадқиқот ишларида бошланғич реагентларнинг физик-кимёйий хусусиятлари, экспериментларни бажариш усуллари, оқова сувларни тозалашгача ва ундан кейинги таркиби кимёвий ва физик-кимёвий усуллар билан тадқиқоти баён этилган. ИК-спектроскопия, термик таҳлил ва бошқа аналитик усуллар билан бентонит, алюминий сульфат, натрий гидросульфит ва ПАА асосидаги аралаш ингредиентларнинг сорбцион, коагуляцион ва флокуляцион хоссалари ҳамда уларнинг кимѐвий ва термик барқарорлиги аниқланди, шунингдек, саноатда оқова сувларни тозалашда қўлланиладиган реагентларга нисбатан юқори самарадорликка эга эканлиги кўрсатиб берилган [2].

Флокулянтлар қўллаш орқали оқова сувларни тозалаш технологияларини такомиллаштириш мавзусидаги тадқиқот ишларини (Л.И.Гандурина) олиб борган.

Мавжуд оқова сувларни тозалаш технологияларини интенсивлаштириш усулларидан бири бу органик флокулянтлардан фойдаланишдир. Органик флокулянтлар узоқ вақт давомида лойқа сувни тозалаш жараёнларида ишлатилганига қарамай, уларни қўллаш кўлами ноорганик коагулянтларга нисбатан муҳим технологик афзалликларга эга. Органик флокулянтлардан кенг фойдаланиш ноорганик коагулянтлар истеъмолини кескин камайтириш, тозалаш иншоотларининг самарадорлигини ошириш, паст ҳароратларда ва энг юқори юкларда уларнинг ишлашининг ишончлилиги ва барқарорлигини ошириш, камайтириш имконини беради [3]. Юза оқова сувларни тозалаш технологияларини ишлаб чиқиш тадқиқоти (Уласовец Е.А.) томонидан олиб борилган. Оқова сувларни тозалашда “Экозоль-401” реагенти ва ВПК-402 флокулянтидан фойдаланган. ВПК-402 нинг таъсири коагуляция ва суспензия тезлигининг ошишига таъсир қилади, “Экозоль-401” реагентининг таъсирида каттиқ фазадаги оқовалар тозаланиши тезлашади [4]. Целлюлоза толали чиқиндиларни қайта ишлаш технологияларини такомиллаштириш тадқиқотини (А.А.Абдумажидов) олиб борган. Целлюлоза толали чиқиндиларга қайта ишлов беришда сидирға бўялган мато лахтакларини бўёвчи модда хромофор системасига мос равишда кимёвий, ҳамда матбаа ва пигмент бўёқларини толали материалдан ферментатив-флотацион усулларда рангсизлантириш-оқартиришнинг рационал таркиби жараённи математик моделлаштириш орқали аниқланган. Пигмент бўёғи билан гул босилган 100% пахта толали мато чиқиндилари юзасидан ферментатив-флотацион ишлов бериш усуллари орқали бўёқни чиқариш технологияси яратилган. Қайта ишлов берилган целлюлоза толали чиқиндилари асосида гул босиш жараёнида бўёқ таркиби, ёзув, чизма ва дафтар қоғозлари композициялари ишлаб чиқилган ва рангсизлантирилган-оқартирилган толали материалларни қайта бўяшнинг самарали ресурстежамкор технологияси ишлаб чиқилган [5].Адабиётлар таҳлилидан маълум бўлдики, олиб борилган тадқиқотларда ультрамарин пигмент ишлаб чиқариш цехларидан ҳосил бўладиган оқова сувларни тозалаш усуллари кенг ёритилмаган. Тадқиқот ишининг мақсади саноат соҳасида кенг ишлатиладиган ультрамарин пигмент ишлаб чиқаришда ҳосил бўладиган оқова сувларни технологияларини такомиллаштиришни тадбиқ этишдан иборат.

**МАТЕРИАЛЛАР ВА КЎЛЛАНИЛГАН УСУЛЛАР.** Оқова сувларнинг миқдори ва таркиб ишлаб чиқариш турига боғлиқ. У турли моддалар: биологик нобарқарор органик бирикмалар, кам заҳарли ноорганик тузлар, нефт маҳсулотлари, биоген бирикмалар, ўзига хос заҳарли моддалар, жумладан, оғир металлар, парчаланмайдиган органик ситетик бирикмалар билан ифлосланиши мумкин. Оқова сувлар таркибида эриган анорганик ва органик бирикмалар, муаллақ дағал дисперс ва коллоид аралашмалар, баъзан эриган газлар масалан, водород сулфид, карбонат ангидрид ва бошқалар киради. Тайёр маҳсулот олиш учун технологик сиклни тўлиқ ўтишда фойдаланилган сув бошланғич , оралиқ ва охирги маҳсулотлар билан ифлосланади. Масалан, минерал ўғитлар ва ноорганик моддалар ишлаб чиқариш корхоналаридаги оқова сувлар, кислоталар, ишқорлар, ҳар хил тузлар билан, асосий органик синтез ишлаб чиқарувчи корхоналар оқова сувлари - ёғ кислоталари, ароматик бирикмалар, спиртлар, алдегидлар билан ва бошқа чиқиндилар билан ифлосланган бўлади.

Оқова сувларни тозалашда механик, флотация, коагуляция, адсорбция усулларидан фойдаланилган.

**ТАДҚИҚОТ ОБЪЕКТИ.** Ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлган оқова сувларни тозалаш технологияси ўрганиш ва тадқиқот ишлари ультрамарин пигмент ишлаб чиқарувчи “Sofitel” қўшма корхона маъсулияти чекланган жамият олиб борилди.“Sofitel” қўшма корхона маъсулияти чекланган жамияти ультрамарин пигмент ишлаб чиқариш заводи Жиззах шаҳар Эркин иқтисодий зонада жойлашган.

“Sofitel” қўшма корхонаси маъсулияти чекланган жамияти ультрамарин пигмент ишлаб чиқариш заводига қуйидаги цех ва бўлимлар киради:

1) Қайта ишлаш цехи; 2) маҳсулот омбори; 3) майдалаш бўлими; 4) пишириш бўлими; 5) қозонхона; 6) кўза цехи; 7) маъмурят.

“Sofitel” қўшма корхонаси МЧЖ ультрамарин пигмент ишлаб чиқариш заводининг лойиҳа қуввати 11 т/сут., 330 т/ой, 4000 т/йил. Ишлаб чиқариладиган маҳсулот ички ва ташқи бозорда экспорт ва конкурентбоп ҳисобланади. Маҳсулот Хитой орқали Миср, Туркия давлатларига экспорт қилинади.

**НАТИЖАЛАР ВА УЛАР МУҲОКАМАСИ.** “Sofitel” қўшма корхона маъсулияти чекланган жамияти ультрамарин пигмент ишлаб чиқариш заводида ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлган оқова сувларни тозалаш тадқиқот ишлари натижасида қуйидагилар маълум бўлди:

Ишлаб чиқаришда хом-ашё олиш учун ишлатиладиган сув таркибидаги моддалар $Na^{+}$ 36 мг/л (0,3 РЭМ), $Ca^{2+}$ 12 мг/л (0,067 РЭМ), $Mg^{2+}$ 7 мг/л (0,175 РЭМ), $Fe^{3+}$<0,05 (0,1 РЭМ), $HCO_3^-$73 мг/л (0,61 РЭМ), $SO_4^{2-}$ 54 мг/л (0,54 РЭМ), $Cl^-$ 13,0 мг/л (0,043 РЭМ), $NO_3^-$ 34 мг/л (0,075 РЭМ), $NO_2^-$ 0,20 мг/л (2,5 РЭМ), $Al^{3+}$ 0,05 мг/л (1,25 РЭМ) ни ташкил этган.

Хом-ашё олингандан сўнг ҳовузга келиб тушадиган оқова сув таркибидаги моддалар –хом ашё олингандан сўнг ҳовузга келиш тушадиган оқова сув таркибидаги моддалар $Na^{+}$ 664,7 мг/л (5,54 РЭМ), $Ca^{2+}$ 92 мг/л (0,51 РЭМ), $Mg^{2+}$ 39 мг/л (0,975 РЭМ), $Fe^{3+}$<0,05 (0,1 РЭМ), $HCO_3^-$ 390 мг/л (3,25 РЭМ), $SO_4^{2-}$ 5432 мг/л (1,55 РЭМ), $Cl^-$ 623,9 мг/л (2,08 РЭМ), $NO_3^-$ 78 мг/л (1,73 РЭМ), $NO_2^-$ 0,20 мг/л (2,5 РЭМ) ни ташкил этган.

Охирги 6-ҳовуздан олинган оқова сув таркибидаги моддалар $Na^{+}$ 236 мг/л (1,97 РЭМ), $Ca^{2+}$ 88 мг/л (0,49 РЭМ), $Mg^{2+}$ 41 мг/л (1,025 РЭМ), $Fe^{3+}$<0,05 (0,1 РЭМ), $HCO_3^-$ 403 мг/л (3,36 РЭМ), $SO_4^{2-}$ 1203 мг/л (0,34 РЭМ), $Cl^-$ 2765 мг/л (9,22 РЭМ), $NO_3^-$ 47 мг/л (1,04 РЭМ), $NO_2^-$ 0,20 мг/л (2,5 РЭМ) ни ташкил этган.

**ХУЛОСАЛАР.** “Sofitel” қўшма корхонаси МЧЖ ултрамарин пигмент ишлаб чиқариш қўшма корхонасида ишлаб чиқариш жараёнида ишлатилиб турли моддалар билан ифлосланган оқова сувлардан намуналар олинди ва таркиби ўрганилди. Оқова сувларни тозалашда темир, алюминий ва марганец ионлари бўлган сувли эритмали “Экозоль-1” реагенти лабораторияда тайёрланиб, ишлаб чиқаришда ҳосил бўлган оқова сувларни тозалашда амалиётда фойдаланилди. Саноат корхонаси ишлаб чиқариш жараёнларидан ҳосил бўлган оқова сувларни тозалаш технологиясини ўрганиш ва олиб борилган илмий тадқиқот ишлари натижасида ҳосил бўлган оқова сув таркибидаги ингридиентлар рухсат

этилган меъёридан охирги 6-чи ҳовуздаги $Na^{+}$ 1,97 баробар, $Mg^{2+}$ 1,025 баробар, $HCO_3$ 3,36 баробар, $Cl^{-}$ 9,22 баробар, $NO_2^{-}$ 2,5 баробар ортиқ бўлган
Ишлаб чиқариш жараёнидан ҳосил бўлган оқова сув олтита ҳовузда тиндириш давомида маълум миқдорда ҳовуздаги фильтрда тутиб қолиниб, ҳовуз тубида ултрамарин пигменти тўпланиб қолади. Ҳовуздаги ултрамарин дисперс заррачалари йириклашиб, уларни ўзаро қўшилиши ва ассоциатлар ҳосил бўлиш натижасида оқова сув тубига чўкади. Бизга маълумки, ультрамарин пигменти нафақат лак-бўёқлар учун балки, тўқимачилик, қоғоз, пластмасса ишлаб чиқаришда бўёқ сифатида ишлатиш мумкин. Ҳовуздаги чиқинди сифатида тўпланган ултрамарин пигментини қайта ишлаб саноатнинг тўқимачилик, қоғоз ва пластмасса ишлаб чиқаришда бўёқ сифатида ишлатишга жорий қилиш технологияси кўриб чиқилмоқда. Корхона иш фаолияти давомида тупроқнинг ва ер ости сувларининг оқова сувлар таъсиридан ифлосланиши кутилмайди.

**Адабиётлар**


1. А.А.Абдумажидов. Целлюлоза толали чиқиндиларни қайта ишлаш технологияларини такомиллаштириш. Автореферат. Тошкент 2022. Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти. (www.titli.uz) ва “ZiyoNet” Ахборот таълим порталида (www.ziyonet.uz).
2. Муравьёва С.И., Казнина Н.И., Прохорова Е.К. Справочник по контролю вредных веществ в воздухе. – М.: Химия, 1988.
3. М.М.Амонова. Бўяш ва пардозлаш корхоналаридаги оқова сувларни тозалаш жараёнини такомиллаштириш. Авторефарат. Бухоро 2019. Бухоро давлат университети. “ZiyoNet” Ахборот таълим портали (www.ziyonet.uz).
4. Л.И.Гандурина. Совершенствование технологии очистки сточных вод с применением флокулянтов. Автореферат. Москва 2005. Федеральном государственном унитарном предприятии, комплексном научно-исследовательском и конструкторско-технологическом институте водоснабжения, канализации, гидротехнических сооружений и инженерной гидрогеологии (ФГУП “НИИ ВОДГЕО”)
5. Уласовец Е.А. Разработка технологии очистки поверхностных сточных вод. Автореферат. Екатеринбург 2000. Уральской Государственной лесотехнической академии (УГЛТА). г.Екатеринбург, ул. Сибирский тракт 37.
6. Луканин В.Н., Трофименко Ю.В. Промышленно – транспортная экология. – М.: Высшая школа, 2001. – 273 с.


## ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA OQAVA SUVLARNI BIOLOGIK TOZALASH USULLARI


**Qiryigitov X.B., Qurbonov J.J. Jumaboyeva M.A**
**Jizzax politexnika instituti kafedrasi mudiri**
**Jizzax politexnika instituti talabalari**



**Annotatsiya.** Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Oqava suvlarni biologik tozalash hudud biologik ko‘kalamzorligini ta’minlashda va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ekanligini ko‘rsatadi.


**Kalit so‘zlar:** oqava suvlar, mikroorganizmlar, suv havzalari, miqdor, sifat, oqilona foydalanish.


**Аннотация.** Защита окружающей среды от загрязнения и рациональное использование природных ресурсов-одна из главных проблем современности. Биологическая очистка сточных вод показывает, что она важна для обеспечения биологического озеленения территории и защиты окружающей среды.


**Ключевые слова:** сточные воды, микроорганизмы, водоемы, количество, качество, рациональное использование.


**Annotation.** The protection of the environment from pollution and the rational use of natural resources is one of the main problems of our time. Biological wastewater treatment shows that it is important to ensure the biological greening of the territory and environmental protection.

**Keywords:** wastewater, microorganisms, reservoirs, quantity, quality, rational use.

Oqava suvlar tarkibidagi organik moddalar tez chirishi hisobiga suv havzalarida har xil kasalliklar keltiruvchi mikroorganizmlar paydo bo‘ladi. Havza esa, shu mikroorganizmlar yashashi uchun yaxshi muhit bo‘Iib, suvdagi kislorod miqdorini kamaytiradi va har xil jonivorlarga hamda aholiga yomon ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, har qanday oqova suvlarni suv havzalariga tashlashdan oldin, sanitariya talablariga rioya qilish zarur. Sanitariya talablariga rioya qilish uchun, har qanday oqava suvlarni yig‘ish va ularni shahardan tashqarida tozalash, iloji boricha qayta ishlatish zarur. [1]. Hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasida suv resurslaridan mukammal foydalanish va yanada oqilonaliroq foydalanishga bog‘liq masalalar katta ahamiyat kasb etadi. Suvning zararli ta’sirlarini bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqilmoqda, baliqchilik xo‘jaligi tizimlari yaratilmoqda. Daryo oqimlarini alohida suv havzalari ichida hamda ular oralig‘ida qayta taqsimlash masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Mahalliy suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan muhofaza qilish muammolari diqqat markazida turibdi. Bu muammolarning o‘z yechimini topishi suv va qishlok xo‘jaligi rivojlanishida yangi yirik bosqichni tashkil etadi.

Shahar tarkibida turlicha zavod va fabrikalar faoliyat ko‘rsatishi natijasida ya’ni korxonalarda har xil turdagi mahsulotlari ishlab chiqarish natijasida maishiy va ishlab chiqarish oqova suvlari hosil bo‘ladi. [2]Ko‘pincha sanoat yoki tegishli oqava suvlarni, qoida tariqasida, kichik tashkilotlardan aholidan markazlashtirilgan oqava suvlarni oqizish tizimiga ruxsatsiz oqizish holatlari mavjud. Noqonuniy va og‘ir jarimalar bilan to‘la bo‘lishidan tashqari, bunday chiqindilar oqava suvlarning zaharlanishiga va sezilarli asoratga olib keladi va shuning uchun ularni tozalash xarajatlari oshadi. Biroq, har qanday tozalash usulini qo‘llashdan avval har bir oqava suvni tozalash mexanik tozalashdan boshlanadi. Agar oqava suvlarda (yog‘lar, neft mahsulotlari va boshqalar) pH va o‘ziga xos ifloslantiruvchi moddalar mavjudligini normallashtirish zarur bo‘lsa, kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar qo‘shimcha ravishda kiritiladi. Shunga asoslanib, dastlabki bosqichlarda saqlanib qolgan va ifloslanishning asosiy turi  organik moddalar, azot guruhi, fosfatlar bo‘lgan zararli moddalar biologik tozalash natijasida mikroorganizmlar yordamida tozalanadi.Biologik tozalashdan foydalanish bir qator afzalliklarga ega bo‘lib, jumladan: zararli aralashmalar keng guruhining parchalanishi tozalashning arzonligi iste’mol qilinadigan kimyoviy reagentlarning minimal miqdori yuqori darajadagi tozalash (99,6% gacha). Biologik tozalashning 2 turi mavjud bo‘lib, ular anaerob va aerob tozalash xillariga bo‘linadi.

**Anaerob (fermentatsiya**). Suv anaerob bakteriyalar tomonidan tozalanadi. Bu bosqichda oksidlanishi qiyin bo‘lgan moddalar oson hazm bo‘ladigan moddalarga aylanadi. Organik aralashmalarning bir qismi yo‘q qilinadi, asosiysi esa biomassa o‘sishi uchun ishlatiladi. Jarayon fermentatsiya jarayoni natijasida hosil bo‘lgan biogazni olib tashlash uchun quvur bilan jihozlangan fermentyorlar - yopiq idishlarda sodir bo‘ladi. Tozalash samaradorligi - 85% ni tashkil etadi.

Anaerob usullar ikki bosqichga asoslanadi:

1.Organik moddalarning bakteriyalar ta’sirida oddiy organik kislotalargacha fermentatsiyasi.

2.Kislotalarni metan va korbonat angidridga aylantirish jarayoni

Suv havzalarining kommunal va sanoat oqava suvlari bilan ifloslanishini suv manbalarida evtrofikatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keladi. Natijada suv o‘simliklari va suv o‘tlari tez rivojlanib, suvning ifloslanishi, suvda kislorod kontsentratsiyasining pasayishi, suv havzalari holatining yomonlashishi; saprogen jarayonlarni kuchaytirish, gidrobiont turlarni kamayishiga sabab bo‘ladi. [3] Biologik suv havzalarini ishlash prinsipi texnogen kelib chiqadigan ochiq suv havzalarida suyuqlikdagi ifloslantiruvchi moddalarni o‘z-o‘zidan tozalash tamoyiliga asoslanadi. Bunday tuzilmalarning chuqurligi 1 metrdan oshmasligi kerak - bu bakteriyalarning yashashi va drenajni tozalashi uchun zarur bo‘lgan kislorodning aylanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Suv omborining yaxshi isishi bilan mikroorganizmlarning faolligi oshadi va ular oqava suvdagi organik moddalarni tezroq qayta ishlaydi. Shuning uchun biologik tozalash yozda ancha samarali davom etadi va harorat pasayganda oksidlanish sekinlashadi. Sovuq havoning boshlanishi bilan biotsenoz odatda uxlab qoladi va tozalash ishlari to‘xtaydi. Shunga ko‘ra, sovuq kuz va qishda bunday biologik hovuzlardan foydalanish mutlaqo joiz emas .Aerob va anaerob usullarni solishtirish




**1-rasm. Aerob va anaerob usullarni solishtirish**

Shuningdek, sanoat korxonalari (kanopni qayta ishlash, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish, biokimyo, yog‘-moy korxonalari, pillachilik korxonalari, to‘qimachilik sanoati) va kommunal-xo‘jalik oqova suvlarini organomineral moddalardan, og‘ir metallardan, sianidlardan, neft mahsulotlaridan hamda patogen mikroorganizmlardan yuksak suv o‘simliklari — pistiya, eyxorniya va azolla yordamida biologik tozalashning yangi samarali biotexnologiyasi yaratilgan. Oqava suvlarda o‘stirilgan azolla 1 gektar suv yuzasidan bir kecha-kunduzda 1500-2000 kg gacha ho‘l biomassa; pistiya va eyxorniya esa 1800-2700 kg gacha ho‘l yoki 90-135 kg gacha mutlaq quruq biomassa berishi mumkin. Yuksak suv o‘simliklarining biomassalarini ko‘chat sifatida oqava suvlarni tozalash inshootlarining biologik hovuzlariga ekib vitaminli un tayyorlab, oqsil – vitaminli va mineral ozuqa sifatida qishloq xo‘jalik hayvonlari va parrandalarini boqishda ularning ratsioniga qo‘shimcha ozuqa sifatida foydalanish mumkin. [4]

Oqava suvlarni biologik tozalash iqtisodiy jihatdan, hudud biologik ko‘kalamzorligini ta’minlashda va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djalilova A., Xomidov A., Abdukadirova M. “Kanalizatsiya va oqava suvlarni tozalash”. Toshkent 2012. 3-bet
2. Укрупненные нормы водопотребления и водоотведения для различных отраслей промышленности / Совет. Эконом. Взаимопомощи, ВНИИ ВОДГЕО Госстроя СССР. – М.: Стройиздат, 1982. -590 б
3. Akpor, O.B., Muchie, M.: Bioremediation of polluted wastewater influent: Phosphorus and nitrogen removal. Scientific Research and Essays, 5, 21. 3222–3230, 2010].
4. Umarov B., Axmadov Q, Abduhalimova O. “Oqava suvlarni tozalashning biologik metodlari”. Ijodkor o‘qituvchi jurnali 2023 y.

## TABIIY GEOGRAFIYA FANLARINI O‘QITISHDA GEOGRAFIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH

**Xayrullayeva Kumushoy**
**NDPI,Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi 3 bosqich talabasi**
**Kodirova Maxfuza Maxmudovna**
**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola insoniyat manfaati yo‘lida atrof-muhitda kechayotgan tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning makoniy tuzilmasini o‘rganish, geografiya fani mazmunida o‘z aksini topgan yondashuv, shaxs va jamiyatning geografik madaniyatini shakllantirish omillarini o‘rganishga hamda o‘quvchilarning geografik madaniyatini shakllantirishda ta’lim vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar**: geografik madaniyat, tabiiy geografiya ta’limi**,** ta’lim vositalari, tabiiy geografik bilimlar.

**Аннотация.** Целью данной статьи является изучение пространственной структуры природных и социально-экономических процессов, происходящих в окружающей среде на благо человечества, подхода, отраженного в содержании географии, факторов формирования географической культуры личности и общества, а также формирование географической культуры учащихся, посвященная совершенствованию методики использования учебных средств.
**Ключевые слова:** географическая культура, физико-географическое образование, образовательные средства, физико-географические знания.
**Annotation.** The purpose of this article is to study the spatial structure of natural and socio-economic processes occurring in the environment for the benefit of humanity, the approach reflected in the content of geography, the factors in the formation of the geographical culture of the individual and society, as well as the formation of the geographical culture of students, dedicated to improving the methods of using educational tools .
**Key words:** geographical culture, natural-geographical education, educational means, natural-geographical knowledge.
Umumta'lim maktabi tabiiy geografiya kurslarida ta'lim vositalari majmuasidan foydalanish metodikasini takomillashtirish o'quvchilarning geografik madaniyatini shakllantirish omili bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida tabiiy geografiya kurslarining amaldagi didaktik-uslubiy ta'minotini boyitish va takomillashtirishga imkon beradi. "Geografik madaniyat" tushunchasining mazmun-mohiyati rossiyalik olim V.P.Maksakovskiy[47] tomonidan keng o'rganilgan. U ta'lim sohasidagi jahon islohotlarining rivojlanish tendensiyasida madaniyatshunoslik yondashuvi va konsepsiyasi asos qilib olinganligi nuqtai nazaridan geografiya bo'yicha zamonaviy ta'lim dasturlari asosiga geografik madaniyat haqidagi tasavvur qo'yilganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, geografik madaniyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) olamning geografik manzarasi; 2) geografik tafakkur; 3) geografik metodlar; 4) geografik til. O'quvchi shaxsida geografik madaniyatning mazkur tarkibiy qismlari tabiiy geografiya ta'limining mazmuniga: 1) tabiiy geografik bilimlar; 2) tabiiy geografik ko'nikma, malaka va kompetensiyalar; 3) tabiiy geografik ijodiy faoliyat tajribasi; 4) atrof tabiiy muhitga hissiy qadriyatli munosabatlar tajribasi va ularning variativligi bo'yicha aralash tuzilmasiga muvofiq shakllanadi. Geografiya ta'limi va geografik madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarga asoslanib, "shaxs geografik madaniyati" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: shaxsning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq bo'lgan geografik bilimlari, ko'nikmalari, ijodiy faoliyati va hissiy-qadriyatli munosabatlari tajribasi majmuida namoyon bo'luvchi va uning geografik tafakkuri, geografik til va metodlarni egallashi, dunyoning geografik manzarasini tasavvur etishi orqali atrofdagi geografik muhitga qadriyatli munosabati xususiyatlarini belgilovchi yaxlit, o'zgaruvchan, tuzilmaviy-saviyali fazilati.
Tabiiy geografiya ta'limi vositalari – tabiiy geografiya ta'limi va geografik madaniyatli o'quvchi shaxsini shakllantirish maqsadiga erishish uchun ta'limiy muhitda (jarayonda) o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining vositasi hamda o'quv axborotini tashuvchi sifatida qo'llaniladigan inson tomonidan yaratilgan ob'yektlar hamda atrof-muhit predmetlari. Tabiiy geografiya ta'limi shakllari va metodlari bilan o'zaro bog'langan, bir-birini takrorlamaydigan, balki har birining pedagogik imkoniyatlarini oshiradigan ta'lim vositalarining maqbul to'plami tabiiy geografiya ta'limi vositalari majmuasini tashkil qiladi. Ular o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish xususiyatlari, murakkabligi va kelib chiqishiga ko'ra, tabiiy, hajmli, grafik, timsolli, ovozli va multimedia vositalariga, keng ma'noda, tabiiy geografiya ta'limi jarayonini tashkil etish va boshqarish vositalariga bo'linadi.Tabiiy geografiya ta'limining maqsadli, motivatsiyali, mazmunli va jarayonli tarkibiy qismlari o'rtasida biri ikkinchisiz bo'lmaydigan uzviy bog'liqlik va aloqadorliklar mavjudki, ularning mohiyatini ochib berish – tabiiy geografiya ta'limining metodik tuzilmasini takomillashtirishga, ya'ni metodik innovatsiyalar (yangidan kiritilgan metodik tartib-qoidalar) ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishga sharoit yaratdi.

[47] Максаковский В.П. Географическая культура: учебное пособие для студентов вузов. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, – 1998. – 416 с.

O‘quvchilarning geografik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari uch bosqichda olib boriladi:
1) tashkiliy-tayyorgarlik bosqichi **(**asoslovchi tajriba-sinov ishlari**);**
2) tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichi (shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari**);**
3) yakuniy bosqich **(**tasdiqlovchi tajriba-sinov ishlari**).**
Tajriba-sinov ishlari metodikasining asosiy g‘oyasi tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy holatlarning amaliyotda o‘z aksini topishiga imkon beruvchi jarayonlar mohiyatini ochib berishdan iborat bo‘ladi.
Shuningdek, maktab o‘quvchilarining geografik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari, muammolari, mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalarini aniqlash bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda va bu jarayonda o‘quvchi shaxsida geografik madaniyatning shakllanganlik darajalari va mezonlarini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Xususan, ilmiy, o‘quv-uslubiy adabiyotlarning tahlili va mazkur yo‘nalishdagi tadqiqot ishlari natijalarini o‘rganish asosida o‘quvchilarda geografik madaniyatning shakllanganlik darajasini aniqlash uchun tavsiyaviy mezonlar ishlab chiqilgan. Tavsiyaviy mezonlar shartli ravishda uch guruhga ajratilgan va ularning mazmunini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar quyidagicha:
1) olamning geografik manzarasi haqidagi tasavvuri to‘liqligi, geografik tafakkurga egaligi;
2) geografik bilish metodlarini egallaganligi;
3) geografik tilni bilishi, kartografik ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi

O‘quvchilarning geografik madaniyati shakllanganligi darajalarini aniqlash mezonlari

| **Olamning geografik manzarasi haqidagi tasavvuri to‘liqligi, geografik tafakkurga egaligi** | **Geografik bilish metodlarini egallaganligi** | **Geografik tilni bilishi, kartografik ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi** |
|---|---|---|
| **Mezonlar mazmunini ifodalovchi ko‘rsatkichlar:** | | |
| -olamning yaxlit geografik manzarasi haqidagi tasavvuri;<br>-geografik muhitni ilmiy va tasviriy idrok qilishi;<br>-olamning tabiiy geografik tavsifini bilishi;<br>-geografik muhitni bilishi va unga munosabati;<br>-atrof-muhitdagi sabab oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish layoqati;<br>-o‘z shaxsiy fikriga muvofiq atrof-muhitdagi tabiatni asrash mo‘ljallarining shakllanganligi. | -geografik ob’yekt va hodisalarning o‘xshashligini va tafovutini aniqlashi;<br>-tabiiy-geografik jarayon va hodisalarni tahlil qilishi;<br>-geografik ob’yekt va hodisalarga tavsif berishda raqamli ma’lumotlardan foydalanishi;<br>-geografik bilish jarayonida matematik formula, jadval va chizmalardan foydalanishi;<br>-geografik bilish jarayonida globus va asbob uskunalardan foydalanishi. | -geografik tushuncha va terminlarni bilishi;<br>-geografik joyning nomlarini bilishi va ulardan foydalanishi.<br>-geografik ilmiy dalillar, raqamlar va sanalarni bilishi;<br>-u yoki bu hududlarni yoki hodisalarni tavsiflashda miqdoriy ko‘rsatkichlardan foydalanishi;<br>-xaritani o‘qish ko‘nikmasi;<br>-geografik xaritalarni bilishi va ular bilan ishlash ko‘nikma va malakasi. |

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva D.N. “Geografiya fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” modulini o‘qitishning “Geografiya” elektron darsligi. Elektron ta’lim resursi. № DGU 09909. 05.01.2021.
2. Абдурахмонов Б. М. Формирования географической культуры посредством комплекса средств обучения // Economy and society. 2021. – №1(80). – С. 909-914. (11.00.00. №11).
3. Максаковский В.П. Географическая культура: учебное пособие для студентов вузов. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, – 1998. – 416 с.

## ROBOT TEXNOLOGIYALAR TIBBIYOTDA:KECHA, BUGUN VA ERTAGA.

**Komilova D.R. Raximberganov S.R.**
**Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Urganch filiali, Urganch, O'zbekiston**
**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada robot texnologiyalarining tibbiyotga jadal kirib kelishi, rivojlanishi, tibbiyotdagi katta roli haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek robot texnologiyalarining pandemiya davdidagi va operatsiya jarayonlaridagi afalliklari, jumladan miniinvaziv operatsiyalar hamda virusli infeksiyalardan saqlanishda ahamiyati kattaligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari tibbiyotda ishlatiluvchi robot texnologiyalarining klassifikatsiya, ularning har bir guruhi haqida ma'lumotlar keltirilgan.
**Kalit so'zlar:** Robot texnologiyalar, pandemiya, virusli infeksiya, dastur, miniinvaziv operatsiya.
**Аннотатция.** В этой научной статье представлена информация о быстром внедрении, развитии и важной роли робототехнических технологий в медицине. Также подчеркнута важность роботизированных технологий в профилактике пандемий и операций, в том числе миниинвазивных и вирусных инфекций. Кроме того, представлена классификация роботизированных технологий, используемых в медицине, и информация о каждой их группе.
**Ключевые слова:** Робототехнические технологии, пандемия, вирусная инфекция, программа, миниинвазивная операция.
**Abstract.** This scientific article provides information about the rapid introduction, development, and major role of robotic technologies in medicine. It is also emphasized the importance of robotic technologies in the prevention of pandemics and operations, including mini-invasive operations and viral infections. In addition, the classification of robotic technologies used in medicine and information about each of their groups is provided.
**Key words:** Robotic technologies, pandemic, viral infection, program, mini-invasive operation.

**Kirish qism.**1980-yillarda paydo bo'lgan tibbiyot sohasidagi birinchi robotlar robot qo'l texnologiyalari orqali jarrohlik yordamini ko'rsatgan. Yillar davomida sun'iy intellekt yordamida kompyuterni ko'rish va ma'lumotlar tahlili tibbiy robotlarni o'zgartirdi va ularning imkoniyatlarini sog'liqni saqlashning ko'plab boshqa sohalariga kengaytirdi.Robotlar endilikda nafaqat operatsiya xonasida, balki tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash va bemorlarga yordam ko'rsatishni yaxshilash uchun klinik sharoitlarda ham qo'llaniladi. Masalan, shifoxonalar va klinikalar robotlarni COVID-19 pandemiyasi davrida patogenlar ta'sirini kamaytirishga yordam berish uchun kengroq vazifalar uchun joylashtirmoqda. Tibbiyot sanoatida robototexnika tobora ommalashib bormoqda. Nogiron va qariyalarga yordam berish uchun ko'plab robot tizimlari taklif qilingan.[1.1] Yuqori darajadagi avtonomiyaga ega robotlar - inson nazorati ostida tibbiy qarorlar qabul qilishga qodir robotlar (hozirda mavjud emas).[2.1] Sog'likni saqlash tizimidagi robotlar endi yangilik emas, ular haqida vrachlar yaxshi bilishadi.[3.1] Robotlarning birinchi vazifasi operatsiya xonasida xirurglarga yordam berish edi. Hozirgi davrda esa takomillashib, tobora yangi funksiyalar shakllanmoqda.[4.1]

**Asosiy qism.** Robototexnika va avtomatlashtirishdan foydalanish tadqiqot laboratoriyalariga ham taalluqlidir, ularda qo'lda, takrorlanuvchi va katta hajmli vazifalarni avtomatlashtirish uchun shuning uchun texniklar va olimlar o'z e'tiborlarini kashfiyotlar tezroq amalga oshishiga olib keladigan ko'proq strategik vazifalarga qaratishlari mumkin.Tibbiy robototexnika tomonidan taqdim etilgan soddalashtirilgan ish oqimlari va xavflarni kamaytirish ko'plab sohalarda qimmatlidir. Misol uchun, robotlar bemorlar xonalarini mustaqil ravishda tozalashi va tayyorlashi mumkin, bu yuqumli kasalliklar bo'limlarida odam bilan aloqani cheklashga yordam beradi. Sun'iy intellektni qo'llab-quvvatlaydigan dori identifikatori dasturiy ta'minotiga ega robotlar kasalxonalardagi bemorlarga dori-darmonlarni aniqlash, moslashtirish va tarqatish vaqtini qisqartiradi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan robotlar ko'proq avtonom ishlaydi va oxir-oqibat muayyan vazifalarni mustaqil ravishda bajaradi. Natijada, shifokorlar, hamshiralar va boshqa tibbiyot xodimlari bemorlarga bevosita yordam ko'rsatish uchun ko'proq vaqt sarflashlari mumkin bo'ladi. Robototexnika yordamida amalga oshiriladigan operatsiyalar ikkita asosiy toifaga bo'linadi:**Torso uchun minimal invaziv operatsiyalar**. Bularga robotli gisterektomiya, robotli prostatektomiya, bariatrik jarrohlik va birinchi navbatda yumshoq to'qimalarga qaratilgan boshqa

protseduralar kiradi. Kichkina kesma orqali kiritilgandan so‘ng, bu robotlar o‘zlarini joyiga qo‘yib, masofadan boshqarish orqali operatsiyalarni bajarish uchun barqaror platforma yaratadilar. Katta kesmalardan foydalangan holda ochiq jarrohlik ko‘pchilik ichki muolajalar uchun odatiy hol edi. Tiklanish vaqtlari ancha uzoqroq edi va infeksiya va boshqa asoratlar ehtimoli katta edi. Tugma o‘lchamidagi kesma orqali qo‘lda ishlash, hatto tajribali jarroh uchun ham juda qiyin. Jarrohlik robotlari infeksiyalar va boshqa asoratlarni kamaytirish uchun ushbu muolajalarni oson va aniq qiladi. **Ortopedik operatsiyalar.** Qurilmalar tizza va sonlarni almashtirish kabi umumiy ortopedik operatsiyalarni bajarish uchun oldindan dasturlashtirilishi mumkin. Aqlli robot qo‘llar, 3D tasvirlash va ma’lumotlar tahlilini birlashtirgan ushbu robotlar jarrohga yordam berish uchun fazoviy ravishda belgilangan chegaralarni qo‘llash orqali ko‘proq taxmin qilinadigan natijalarni beradi. Sun’iy intellektni modellashtirish robotlarga maxsus ortopedik operatsiyalarni o‘rgatish imkonini beradi, bunda qayerga borish va muolajalarni qanday bajarish kerakligi aniq ko‘rsatiladi. Operatsiya xonasidan video tasmani boshqa joylarga - yaqin yoki uzoqqa ulashish imkoniyati jarrohlarga o‘z sohasi bo‘yicha boshqa mutaxassislar bilan maslahatlashishdan foyda olish imkonini beradi. Natijada, bemorlar o‘z protseduralarida eng yaxshi jarrohlarga ega bo‘ladilar. Jarrohlik robototexnika sohasi sun’iy intellektddan ko‘proq foydalanish uchun rivojlanmoqda. Kompyuterni ko‘rish jarrohlik robotlariga o‘zlarining ko‘rish sohasidagi to‘qimalar turlarini farqlash imkonini beradi. Misol uchun, jarrohlik robotlari endi jarrohlarga protseduralar paytida nerv va mushaklardan qochishga yordam berish qobiliyatiga ega. Yuqori aniqlikdagi 3D kompyuter ko‘rish jarrohlarga batafsil ma’lumot va protseduralar davomida yaxshilangan ish faoliyatini ta’minlaydi. Oxir-oqibat, robotlar jarrohning ehtiyotkor nigohi ostida tikuv yoki boshqa belgilangan vazifalar kabi kichik subprotseduralarni o‘z zimmasiga olishi mumkin. Robototexnika jarrohlar ta’limida ham muhim rol o‘ynaydi. Simulyatsiya platformalari jarrohlik robototexnika bo‘yicha o‘qitish uchun sun’iy intellekt va virtual haqiqatdan foydalanadi. Virtual muhitda jarrohlar robototexnika vositalaridan foydalangan holda protseduralarni bajarishlari va malakalarini oshirishlari mumkin.Modulli robotlar boshqa tizimlarni yaxshilaydi va bir nechta funksiyalarni bajarish uchun sozlanishi mumkin. Sog‘liqni saqlash sohasida bularga terapevtik ekzoskelet robotlari va protez robot qo‘llari va oyoqlari kiradi.Terapevtik robotlar insult, falaj yoki travmatik miya jarohatlari yoki ko‘p skleroz tufayli yuzaga kelgan buzilishlardan keyin reabilitatsiya qilishda yordam beradi. Hozirda Intel va Accenture kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilayotgan nogironlar aravachasiga o‘rnatilgan robot qo‘l umurtqa pog‘onasi shikastlangan bemorlarga kundalik vazifalarni bajarishda yordam berishga qaratilgan. Robotlar sun’iy intellekt va chuqurlik kameralari bilan jihozlangan bo‘lsa, ular bemorning ko‘rinishini kuzatishi mumkin, chunki ular belgilangan mashqlarni bajarib, turli pozitsiyalarda harakat darajasini o‘lchaydilar va inson ko‘ziga qaraganda aniqroq taraqqiyotni kuzatadilar. Ular, shuningdek, murabbiylik va dalda berish uchun bemorlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Sog‘liqni saqlash tashkilotlari ko‘pincha texnologiyalarga tayanadi, chunki ularning zararsizlantirish, dori-darmonlar va tibbiy buyumlarni yetkazib berish kabi muhim ehtiyojlarga yordam berish, xavfsiz muhit yaratish va xodimlarni bemorlar bilan ko‘proq vaqt o‘tkazish uchun bo‘shatish imkonini beradi. Yorug‘likni aniqlash va masofani aniqlash (LiDAR) tizimlari, vizual hisoblash yoki xaritalash imkoniyatlari bilan jihozlangan robotlar klinik diagnostika yoki shifoxona xonalarida bemorlarga o‘z-o‘zidan borishlari mumkin, bu esa vrachlarga uzoqdan o‘zaro aloqa qilish imkonini beradi. Agar robot texnologiyalar masofaviy mutaxassis yoki boshqa ishchi tomonidan boshqarilsa, u shifokorlarga kasalxonaga borishda hamroh bo‘lishi mumkin, bu esa mutaxassisga bemorni diagnostikasi va parvarishi bo‘yicha ekrandagi maslahat orqali hissa qo‘shish imkonini beradi.Ba’zi robotlar bemorni tekshirishdan oldin mutaxassislarga yordam berishi mumkin. Masalan, Meksikadagi Roomie startap tomonidan ishlab chiqilgan bitta avtonom robotdan COVID-19 bilan kasallangan tibbiyot xodimlariga yordam berish uchun foydalanilmoqda. RoomieBot deb nomlangan u bemorlarni kasalxonaga kelganida harorat, qondagi kislorod darajasi va kasallik tarixini o‘rganish orqali tekshiradi. RoomieBot Intelga asoslangan texnologiyadan, jumladan Intel® Movidius™ Vision Processing Unit (VPU), 8-avlod Intel® NUCs va Intel® RealSense™ kameralarida ishlaydigan sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanadi. Sog‘liqni saqlashda qo‘llaniladigan boshqa robot turlariga xizmat ko‘rsatish robotlari va ijtimoiy robotlar

kiradi. Xizmat robotlari kundalik logistika vazifalarini bajarish orqali tibbiyot xodimlarining kundalik yukini yengillashtiradi. Ushbu robotlarning aksariyati avtonom ishlaydi va topshiriqni bajarganida hisobot yuborishi mumkin. Ushbu robotlar bemorlar xonalarini belgilaydi, jihozlarni kuzatib boradi va sotib olish buyurtmalarini tuzadi, tibbiy jihozlar kabinetlarini to‘ldiradi va choyshablarni kir yuvish joylariga va undan olib ketadi. Xizmat robotlari tomonidan bajariladigan ba’zi muntazam vazifalarga ega bo‘lish tibbiyot xodimlariga bemorning bevosita ehtiyojlariga e’tibor qaratish uchun ko‘proq vaqt beradi va ishdan qoniqishni oshirishga yordam beradi. Aethon tomonidan ishlab chiqarilgan TUG Robot - bu xizmat robotidir. U rejalashtirilgan va talab asosida choyshablarni parvarishlash bo‘limlariga xavfsiz yetkazib berish uchun murakkab va o‘zgaruvchan muhitda harakatlana oladi.Xizmat robotlari tozalash va dezinfeksiya qilishda ham yordam berishi mumkin. Ushbu robotlar ultrabinafsha (UB) nur, vodorod peroksid bug‘lari yoki havo filtratsiyasidan infeksiyani kamaytirishga yordam berish va borish mumkin bo‘lgan joylarni bir xilda sanitarizatsiya qilish uchun foydalanishi mumkin. Akara startapi tomonidan ishlab chiqilgan avtonom mobil robot prototipi oddiy, ammo muhim vazifalardan biri uchun sinovdan o‘tkazilmoqda: ultrabinafsha nurlar yordamida ifloslangan yuzalarni dezinfeksiyalash. Uning maqsadi kasalxonalarga xona va jihozlarni sanitarizatsiya qilishda yordam berish va COVID-19 ga qarshi kurashda yordam berishdir. Ijtimoiy robotlar odamlar bilan bevosita muloqot qiladi. Ushbu “do‘stona” robotlar uzoq muddatli parvarishlash muhitida ijtimoiy shovqin va monitoringni ta’minlash uchun ishlatilishi mumkin. Ular bemorlarni davolash rejimlariga rioya qilishga undashi yoki kognitiv faollikni ta’minlashi mumkin, bu esa bemorlarni hushyor va ijobiy holatda saqlashga yordam beradi. Ular, shuningdek, shifoxona muhitida tashrif buyuruvchilar va bemorlarga yo‘nalishlarni taklif qilish uchun ishlatilishi mumkin. Umuman olganda, ijtimoiy robotlar parvarish qiluvchilarning ish yukini kamaytirishga va bemorlarning hissiy farovonligini yaxshilashga yordam beradi.Tibbiyot sohasida robototexnika kelajagi Mashinani o‘rganish, ma’lumotlar tahlili, kompyuterni ko‘rish va boshqa texnologiyalar rivojlanishi bilan tibbiy robototexnika vazifalarni avtonom, yanada samarali va aniq bajarish uchun rivojlanadi.Intel texnologiya provayderlari va tadqiqotchilar bilan hamkorlikda robototexnika yechimlarining keyingi avlodini o‘rganishda ishlamoqda. Texnologiya va tadqiqotni qo‘llab-quvvatlash orqali Intel tibbiy robototexnika sohasida sun’iy intellekt va IT texnologiyalari uchun yangi ilovalarni kashf etishga yordam beradi. Ushbu hissalar avtomatlashtirishni oshiradigan, samaradorlikni oshiradigan va sog‘liqni saqlash sohasidagi eng katta muammolarni hal qiladigan doimiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

**Xulosa.**Sog‘liqni saqlash robototexnikasi mashinalarni o‘rganish, ma’lumotlar tahlili, kompyuterni ko‘rish va boshqa texnologiyalardagi yutuqlar bilan bir qatorda rivojlanishda davom etadi. Barcha turdagi robotlar vazifalarni avtonom, samarali va aniq bajarish uchun rivojlanishda davom etadi.Intel texnologiya provayderlari va tadqiqotchilar bilan hamkorlikda robototexnika yechimlarining keyingi avlodini o‘rganishda ishlamoqda. Misol uchun, Intel Labs China kompaniyasi Suzhou Collaborative Innovation Medical Robot Research Institute bilan hamkorlikda startaplar uchun tibbiy robototexnika inkubatorini tashkil etadi. Texnologiyalar va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlab, Intel tibbiy robototexnika sohasida robot texnologiyalari uchun yangi ilovalarni kashf etishga yordam beradi. Ushbu hissalar avtomatlashtirishni oshiradigan, samaradorlikni oshiradigan va sog‘liqni saqlash sohasidagi eng katta muammolarni hal qiladigan doimiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Роботизированные технологии в медицине. http://www.urogynecology.ru/diseases/robotic/robotic-technology-in-medicine/
2. Современная робототехника в медицине. https://robot-davinci.ru/nauchnye-publikacii/sovremennaya-robototehnika-v-medicine/
3. Роботизированные системы в медицине. https://portalramn.ru/intellect/robotizirovannye-sistemy-v-medicine
4. Роботы в современной медицине.https://sbermed.ai/roboty-v-medicine/

## SHAXSLARARO MUNOSABATGA DINIY VA PSIXOLOGIK YONDASHUV

**Nodirabonu Kurbanova Fazlidin qizi,**
**NDPI, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi**
**Umida Eshnazarova Abdurashid qizi,**
**"Pedagogika" yo'nalishi 1-bosqich talabasi**
**Annotatsiya.** Inson ijtimoiylashuv jarayonida o'zini qurshab turgan olam bilan birgalikda harakat qiladi. Bu harakatlar ijtimoiy qonun-qoidalar, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan obyektiv munosabatlar tizimida yuz beradi. Ijtimoiy munosabatlar har qanday real guruhda birinchi galda, qonuniyatlar, shaxs qadriyatlar tizimi doirasida shakllanadiki, bu munosabatlar bo'ysunish, bog'langanlik, o'zaro hamkorlik, va boshqa umumiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.
**Kalit so'zlar***:* kommunikatsiya, interaktiv, perseptiv, e'tiqod, tarbiya, muloqot, munosabat.
**Аннотация.** В процессе социализации человек действует вместе с окружающим его миром. Эти действия происходят в системе социальных законов и объективных отношений, складывающихся в процессе производственной деятельности. Социальные отношения в любой реальной группе формируются прежде всего в рамках законов и системы личных ценностей, которые проявляются в подчинении, соединении, взаимном сотрудничестве и других общих формах.
**Ключевые слова***:* Коммуникация, интерактив, перцептивность, вера, воспитание, общение, отношение.
**Annotation.** In the process of socialization, a person acts together with the world around him. These actions take place in the system of social laws and objective relations formed in the course of production activities. Social relations in any real group are formed primarily within the framework of laws and personal value system, which are manifested in subordination, connection, mutual cooperation, and other general forms.
**Keywords***:* Communication, interactive, perceptive, belief, education, communication, attitude.
Shaxs faoliyat jarayonida boshqa kishilar bilan aloqaga kirishadi. Bu o'z navbatida ularning birgalikdagi faoliyat ehtiyojlari samarasidir. Kishilar boshqalar bilan munosabat o'rnatishda uning birinchi jihati – kommunikatsiya – aloqani yo'lga qo'yadilar. Bu aloqa shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalarni nazarda tutadi. Munosabatning ikkinchi jihati - munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayoni bo'lib, unda faqat so'zlar bilan emas, balki imo-ishoralar, xatti - harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Nihoyat, munosabatlarning uchinchi jihati – bu munosabatga kirishuvchilarning o'zaro bir-birlarini idrok eta olishlarini taqazo etishidir. Shunday qilib, munosabatlar jarayoning o'zida uch jihatdan – kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o'zaro bir-birini idrok etish) jihatlarini alohida ko'rsatish mumkin. Bu shaxsdagi munosabatlar sohasi umumiy qoidalari bo'lib, muomala jarayonining nimaga asoslanishi bu o'rinda ahamiyatsizdir. Jumladan, shaxsdagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning diniy e'tiqod asosida bo'lishi ham bu qoidalarni inkor etolmaydi. Shu o'rinda, munosabat hamda muloqotning aloqadorligi qanday degan savol tug'iladi. Muloqot aslida, psixologiyada munosabatlar tizimining amaliy ko'rinishi bo'lib, muloqotga kirishish munosabatlar tizimining amalga oshirilishi demakdir. Qisqacha qilib aytganda, tizim faoliyatining harakatdagi ko'rinishidir. Munosabatlar odamlar o'rtasida birgalikda faoliyat-ehtiyojlaridan kelib chiqib bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot jarayoni shaxslarning qiziqishlari, dunyoqarashlari, muomala layoqatlari hamda e'tiqodlari bilan bog'liq holda kechadi. Shaxsdagi e'tiqod va uning shaxslararo munosabatlar tizimi mavzuning predmeti bo'lib xizmat qiladi. Qadriyatlar tizimi sifatida rol o'ynovchi e'tiqod muomala ko'rinishlarining motivi bo'lib xizmat qiladi. "Islom ensiklopediya"sida, "Imon, iymon (arabcha - ishonch, e'tiqod) - islom dinida Allohga, uning farishtalari, kitoblari, payg'ambarlari, qiyomat kuni, taqdir va o'lgandan keyin tirilishga ishonish", deb izohlanadi. Bu "imoni mufassal", ya'ni imonning mufassal ta'biri, deb ham ataladi. Imon moturidiylik ta'limotiga ko'ra, ikki narsaning butunligi - e'tiqod (dinga ichdan chuqur ishonish), iqror (so'zda buni tan olish) dan iborat, deb hisoblanadi. [9, 67-68] Alohida yo'naltirilgan mehr-oqibat o'zining yorqin namunasini do'stlik fenomenida aks ettiradi. K. K. Platonov do'stlikka murakkab ruhiy-ma'naviy tuyg'u sifatida qarab, uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi: do'stlikning obyekti bilan yaxshilangan odat, munosabatdan qoniqish emotsiyasini chaqirish orqali bo'ladigan

munosabatdagi talablar; birgalikdagi faoliyatlari va ularning natijalar haqidagi xotiralar; bo‘lib o‘tgan, hozirda mavjud bo‘lgan, bo‘lishi mumkin bo‘lgan birgalikdagi o‘zaro g‘amxo‘rlik; hissiy xotiralar; yo‘qotishdan qo‘rqish; uni juda yuqori baholash (ideallashtirish). [5, 150] Qur’oni karimda “Albatta, mo‘minlar birodardirlar” (Hujurot-10) oyati keladi. Unda musulmonchilik asosidagi umumbirodarlik hukmi mavjud. Umummusulmon yaqinlik munosabatlari ichida kishilarning o‘zaro aloqalari kiradi, lekin ba’zilar alohida mustahkam do‘stlik aloqalarini bog‘lashlari, bir-birlari bilan juda yaqin munosabatda bo‘lishadi. Dastlabki, yani oyatda sifati keltirilgan yaqinlik umumiy yaqinlik bo‘lsa, keyingisi esa alohida yo‘nalgan yaqin munosabatdir. Bunday yaqin munosabatga Qur’oni karimdagi “Ey iymon keltirganlar, Allohga taqvo qiling va sodiqlar ila birga bo‘linglar” (Tavba-119) oyati hamda Sahobiy Jobir r.a. ning: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Mo‘min ulfat bo‘luvchi va ulfatga tanlanuvchidur. Ulfat bo‘lmagan va ulfatga tanlanmaganda yaxshilik yo‘q. Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaatlirog‘idir”, degan rivoyatlari dalil bo‘ladi. Do‘stlik tanishuv, hamkorlik yoki o‘rtoqlik aloqalari bilan boshlanadi. Qachonki, munosabatlar yaqin, chuqur va yanada barqarorlashsa, ular do‘stlikka aylanadi. Bundan tashqari, do‘stlik oqilona va an’anaga ko‘ra bir-biriga nisbatan muayyan axloq qoidalari bilan belgilanadi. Muloqot mavzular shunday tanlanadiki, do‘stlarning har biri uchun qiziqarli va dolzarb hisoblangan bo‘ladi. Do‘stlardagi shaxslararo munosabatlarda xushmuomalalilik muhim o‘rin tutib, bir-birlarini haqorat qilishmaydi. Do‘stlashish uchun ma’naviy va intellektual yetuklik zarur. Buning uchun do‘stlik erta o‘smirlik davrida paydo bo‘ladi va bu vaqtda yigitlarning shaxsiy xarakterida dastlabki muammo va savollar paydo bo‘la boshlaydi va ularni mustaqil ravishda tartibga sola olmaydi. Kattalardagi do‘stona munosabatlar hamkasblar bilan qiziqishlari va maqsadlaridan kelib chiqadigan professional ish faoliyatlari yuzasidan shakllanishi mumkin. [2, 78] Islom e’tiqodi bo‘yicha qon-qarindoshlarning bir-birlarida ijtimoiy va ruhiy, moddiy va ma’naviy burchlari mavjud. Qarindoshlar orasida eng yaqini ota-ona va farzandlar bo‘lgani uchun boshqa qon-qarindoshlarga nisbatan ularning haqlari va burchlariga oid fikrlar ko‘proqdir. Ota va onaning huquqini ado qilmoq ulug‘ ibodatdir. Bu haqda Rasul alayhissalom shunday deganlar: “Jannatning xushbo‘yligi besh yuz yillik yerga borur. Ammo ota va onasiga ozor beruvchilar, qat’iy rahm qiluvchilar (ota-onasidan yuz o‘giruvchilar) hattoki jannatning hididan ham bebahra qolurlar”. [1, 132] Ota-onani hurmatlash, e’zozlash masalasida hech bir tuzum yoki tarbiya vositasi Islomga teng ham, yaqin ham kela olmaydi. Farzandlar ota-onalariga yaxshi muomala qilishlari, shirinsuxan bo‘lishlari, ularga mehribonlik ko‘rsatishlari, doimiy ehtirom bilan ularni taqdirlab turishlari, Alloh taoloning shariatiga zid bo‘lmagan barcha buyruq, talab-istaklarini bajarmoqlari lozim. Allohning ibodatlaridan keyingi keladigan ish ota-onaga yaxshilik qilishdir. Bu ham Allohning amri. Alloh taolo o‘ziga ibodat qilishga amr qilgandan keyin shu jumlaning davomida ota-onaga yaxshilik qilishni ta’kidlamoqda. Shuningdek, ota-onaning farzandlarga qiladigan muomalalari ham o‘ziga xos talablardan iborat. Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlab o‘zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so‘ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma’lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotsional munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. [6, 237] Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o‘rin tutadi. Aslida, bola ota-onasini qumsab turishi lozim. Lekin agar bola ota-ona va murabbiy tomonidan qo‘pol, dag‘al so‘zlar eshitib, kaltak yeb katta bo‘lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta’sir qiladi. Tanbeh va dashnom bola ruhiyatini so‘ndirib, ota-onaga, xonadoniga mehrini yo‘q qiladi. U ota-onadan uzoq yurishni xohlab qoladi. Biror ishni yashirin qilishga intiladi. Uyidan uzoqlarda bo‘lishni istaydi. Chunki shu uy uni dashnom botqog‘iga botirgan. Xohish-istaklari bilan hisoblashmagan, xonadonidan huzur topmagan har bir insonning fikri, zikri yoxud qadami buziladi. Muqaddas dinimiz gardanida tarbiya mas’uliyati bor har bir ustoz, murabbiy va ota-onaga latif muomalada bo‘lishni tavsiya qiladi. [8, 231] Imom G‘azzoliy aytganidek, “O‘zingga nisbatan kichiklardan qanday muomalani kutsang, ularga nisbatan ham xuddi shunday muomalada bo‘lgin”. [3, 49] Oilada bo‘ladigan muloqotning sofligi, mazmundorligi, oiladagi bolalarning xulq-atvoriga, ma’naviy kamolotiga ta’sirini kuchaytirish ko‘p holda ota-ona o‘rtasidagi va ularning bolalar bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotiga

bog‘liq. Oiladagi o‘zaro muloqot bu hayotiy ehtiyoj, bolani ijtimoiy va madaniy hayotga tayyorlashning asosidir. Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o‘zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo‘ladigan munosabatlari sof, erning xotinga, xotinning erga o‘zaro samimiy hurmati asosiga qurilsagina, bunday oilada musaffo ma’naviy muhit vujudga keladi. Alloh taolo Oli imron surasida - “Allohning rahmati sababli (Siz, ey Muhammad) ularga (sahobalarga) muloyim bo‘ldingiz. Agar dag‘al, toshbag‘ir bo‘lganingizda, albatta, (ular) atrofingizdan tarqalib ketgan bo‘lur edilar. Bas, ularni afv eting, (gunohlari uchun) kechirim so‘rang va ular bilan kengashib ish qiling! (Biror ishga) azm-u qaror qilsangiz, Allohga tavakkul qiling! Alloh tavakkul qiluvchilarni sevar” - deydi. Hadisi sharifda shunday deyilgan: “Alloh har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko‘radi”. Demak, Rasuli akram sollallohu alayhi vasallamning mo‘min-musulmonlarga muloyim bo‘lishlari o‘zlari uchun ham, ummatlari uchun ham Allohning rahmati ekan. Muloyim, shirin so‘z bo‘lish katta baxt hisoblanadi. Chunki, odamlar bir og‘iz bo‘lsa ham, yaxshi so‘zning gadosi. Kishi yaxshi so‘z eshitgan joyiga, muloyim muomala ko‘rgan shaxsiga mehr qo‘yadi. O‘sha yerda, o‘sha shaxs atrofida to‘planadi. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning sifatlari bu jihatdan eng oliy edi. [8, 231] Bolaga mehribonlik ko‘rsatish ham ota-onaning vazifasidir. Oyisha roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Bir arobiy Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga keldi va: “Sizlar bolalarni o‘pasizlarmi? Biz ularni o‘pmaymiz”, dedi. Shunda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Alloh qalbingdan rahmatni sug‘urib olgan bo‘lsa, men nima ham qila olar edim”, dedilar”. (Ikki Shayx rivoyat qilishgan). [7, 59] Bundan bolalarni o‘pib turish qalbda rahmat borligining alomati ekani kelib chiqadi. Aksincha, bolalarni o‘pmaslik Alloh taolo o‘sha odamning qalbidan rahmatni sug‘urib olganining alomatidir.

Xulosa qilib aytganda, kishining xulq-atvori uning barcha faoliyatlarida, chunonchi, shaxslararo munosabatlarida shakllantiruvchi qadriyat bo‘lib xizmat qiladi. Xulq-atvor ko‘rsatkichi kishini o‘rab turgan muhitda o‘zlashtirilgan tajriba, tarbiya, bilimlar bilan belgilanadi. Shu jihatdan, qayerda axloq-odob, tarbiya bor bo‘lsa, shaxsning xulq-atvori e’tiqod asosida yo‘nalganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu yo‘nalganlik, shaxslararo munosabatlarda muomala, muloqot, nutq ko‘rinishlarida o‘z aksini ifodalaydi. Hozirgi kunda yurtimizda e’tiqod erkinligiga, ta’lim-tarbiyaga qulay sharoitlar yartib berilmoqdaki, islomiy e’toqod hamda tarbiya hamohangligi shaxs kamolotini bugungi kun talablariga mos tarzda shakllantirishiga xizmat qilib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**


1. Abu Adulloh Muhammad Al-Buxoriy. Al-Jome As-Sahih.T. :Sharq. 2001.132b.
2. Волкова А. И. Психология общения. — РостоввнааДону, 2007.
3. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din.T.: Movarounnahr.-2006.-49-b.
4. Oila psixologiyasi: o‘quv qo‘l. / G. B. Shoumarov, T.: “Sharq”, 2010, 150 b.
5. Ильин Е. П.Психология общения и межличностных отношений. Питер, 2009. – 237с.
6. U.Alimov “Oilada farzand tarbiyasi” T. :-2017.27;59-b.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya.” T.: Hilol.- 2018.-231-bet.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf . “Tafsiri Hilol.” - T.:Hilol.-67-68-betlar.
9. N. B. Shoniyozov “Din psixologiyasining shaxs shakllanishidagi ijtimoiy psixologik jihatlari” T.:2019y.


## O‘ZBEK LIBOSI TARIXI


**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti**
**“San’atshunoslik” fakulteti**
**“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”**
**kafedrasi o‘qituvchisi Vosiyeva Aziza To‘xtaqulovna**
**Dizayn ta’lim yo‘nalishi 1-kurs**
**talabasi Oljayeva Rayhona Dilmurodovna**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek libosi tarixi, O‘zbekistonning turli mintaqalaridagi liboslar farqi, ularning bezaklari va matolari haqida ma’lumotlar keltirilgan.



**Kalit so‘zlar.**Chopon, mursak, adras, beqasam, shoyi va nimshoyi matolar.

**Аннотация.** В данной статье собрана информация об истории убекской одежды раличиях одежды в разных региона Узбекистана ее украшениях и тканях.
**Ключевые слова.** Чапон, мурсак, адрас, бекасам, шелк и льняные ткани.
**Abstract.** This article contains information about the history of uzbek clothing, the differences in clothing in different regions of Uzbekistan, their decorations and fabrics.
**Key words.**Chapon, mursak, adras, bekasam, silk and linen fabrics.

Oʻzbek xalqining oʻtmishidagi kiyim-kechaklari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarni arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan qadimiy katta devoriy suratlar, turli buyumlarga tushurilgan tasvirlar, oʻrta asrlardagi kitob miniaturalari beradi. Oʻrta asrlarga oid miniaturalar oʻzbek kiyimlarining oʻzig xos usslubi ya'ni tipi shakllanganligi va ular keyingi davrgacha saqlanganligini koʻrsatuvchi noyob namunalardir. An'anaviy oʻzbek libosi asosan, ustki koʻylak, ishton va chopondan, boshga doʻppi, oyoqqa mahsi-kalish yoki etikdan iborat boʻlgan. Erkak-ayol va bolalar kiyimlari bichimining deyarli bir xilligi ularning qadimiyligidan darak beradi. Bunday liboslar oddiy usulda, ba'zan qaychisiz va ulgusiz, yaxlit matodan yirtib tikilgan.

Erkaklarning an'anaviy yaktak koʻylagi uzunligi tizzagacha, ayollar va qizlarniki toʻpigʻigacha boʻlgan. Ba'zi viloyatlarda yoqa kashta bilan bezaklangan. Gorizontal yirmochi yoqali koʻylak Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida, Toshkent, Buxoro va Xorazmda keng tarqalgan. Ayollar koʻylagining yoqasiga ham kashtalangan yoki bezatilgan tasma tikilgan. Qator viloyatlarda yoshi katta ayollar oddiy jun, chilvir yoki qoramtir yoʻl-yoʻl mato parchasini jiyak qilib ishlatganlar. Turkiston oʻlkasida dastlab shaharlarda, keyinroq qishloqlarda tik yoqali yirmochi koʻylaklar urf boʻla boshlagan. Bunday koʻylaklarga "Noʻgʻay yoqa" deb nom berilgan.

Qadimiy koʻylak namunalari hozirgacha, asosan, qariyalar va yosh bolalar kiyimida saqlangan. Masalan, Buxoro va Xoraz vohasida ular guppi, jubba, guppicha, Fargʻona vodiysida guppi koʻylak yoki guppicha degan nomlar bilan ma'lum. Juda keng tarqalgan (Fargʻona, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida) va qissman saqlangan (Xorazmda) mursak, munisak yoki kaltacha oʻtgan asrda kundalik ayol kiyimi sifatida diqqatga sazovor boʻlgan. Bunday kiyim chopon shaklida uzun yoqasiz yengil astar bilan tikilgan.

Lozim ham oddiy shakldа boʻlib, uni matoni ikkiga buklab, oldi va orqasiddan tikilgach, ogʻI yopishtirilgan. Lozim nafaqat ip-gazlamalardan, shuningdek, ipak, jun matolaridan ham tikilgan.

Chopon – qadimiy ustki kiyim hisoblanadi. Chopon ochiq yoqali yaktak shaklida astarli va paxtali qilib tikilgan. Chopon uzun yengli, yuqori qismi keng, pastki qismi torayib ketgan, ayrimlari oʻtirishga qulay boʻlishi uchun etagining oʻng va soʻl tomonidan qiyiq joyi boʻlgan.

Oʻzbek choponlari rangi, uzunligi, kengligi va kiyish uslubiga koʻra farqlanadi. Masalan, Buxoroda, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshon vodiylarida gavda silueti keng va uzun, uzun yengli, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon, Fargʻona yoki Toshkentda yashil yoki koʻk-yashil chopon urf boʻlgan.

Ayollarning oʻziga xos chopon shaklida bichib tikilgan ust kiyimi – mursak ilgari juda keng tarqalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengi tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkentdda uzun, yengsiz, bilakkacha boʻlgan yengi bilan farqlangan. Mursak astarli qavima qilib tikilgan, qishki mursakka esa paxta solingan.

**Matolar.** XIX asrda oʻzbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar qatoriga ip gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalar kiradi.

Buxoro, Samarqand, Qoʻqon, Margʻilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy oʻzbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalardan tikilgan turfa kiyimlar boy-badavlat kishilar orasida urf boʻlgan.

**Beqasam** – yoʻl-yoʻl gazmol boʻlib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan toʻnlar, koʻrpa-koʻrpachalar tikisshda foydalanilgan.

**Banoras** – beqasamdan rang turlari bilan farqlanib, undan ayollarning ustki kiyimi boʻlmish paranji tikilgan.

**Adras** – abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmol.

**Shoyi va nimshoyi matolar** – beqasam, adras, yakruyo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abrshoyi va h.k. turli-tuman gullar solingan.

Ayollarning milliy liboslari ichki, ustki va kishilik kiyimlaridan iborat bo‘lgan. Ustki kiyimlar – kamzul, yengil xalat (mursak, kaltacha) yengsiz nimchalardir.
Paranji ham ayollarning an’anviy ustki kiyimi sanalib, u to‘n va ichidan qora ot yolidan ishlangan chachvondan iborat. Paranji soxta yengli, to‘nsimon, uzun yopinchiqdan iborat bo‘lib, chachvon betga tutilib, ustiga paranji yopilgan. Chachvon yuzni berkitib, belgacha yetgan.
Shahrisabz va Samarqand viloyatida yarim ko‘chmanchi o‘zbek qabilalar yoping‘ich – ja’dani Xorazm ayollari kiygan.
O‘zbekistonning turli mintaqalaridagi liboslar bir-biridan farq qiladi. Shu ma’noda o‘zbek liboslarini quyidagi mintaqalarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq: Tosshkent -Farg‘ona, Buxoro – Samarqand, Qashqaddaryo – Surxondaryo, Xorazm.
**Toshkent – Farg‘ona libosi.** Toshkent va Farg‘ona vodiysida an’anaviy milliy kiyimlar aholining turli toifasi ijtimoiy holatini bildirib turgan.
Kiyimlar jins belgisi bo‘yicha - erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari,yosh belgisi bo‘yicha -yosh kelinchaklar, kuyovlar, o‘rta yoshdagi erkaklar va ayollar, keksalar kiyimlariga bo‘linadi. Ular boshqa mintaqa kiyimlaridan ranglarining sokinligi bilan ajralib turadi. Farg‘ona vodiysi va Toshkent kiyimlarida qora va yashil ranglar ko‘proq ishlatilgan.
**Buxoro – Samarqand libosi.** XIX asr o‘rtalarida ko‘p shaharlarda (Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Marg‘ilon va boshqalar) milliy o‘ziga xos va yuqori sifatli gazlamalarning turli xillari isshlab chiqarilgan. Bizning mamlakatimiz va undan tashqarida og‘ir yarim ipak gazlamalar – beqasam, banoras va adras; ayollar kiyimi uchun yengil va yupqa ipak mato – shoyi, ranglarining mutanosibligi bo‘yicha juda ajoyib abrli gazlamalar mashhurdir. Buxoroning abrli gazlamalarida asosan uchta rang – to‘q-qizil, sariq va pushti ranglardan foydalanilgan. Buxoro va Samarqandning milliy kiyimlari O‘zbekistonning boshqa mintaqalari kiyimlaridan serhashamligi va noyob zardo‘zi kashtalari bilan ajralib turadi.
XIX asrda Buxoroda zardo‘zlik san’ati gullab-yashnagan. Zardo‘zi kashtalar bilan, asosan, saroy a’yonlari, ayollar va erkaklar kiyimlari: chopon, belbog‘lar, bosh va oyoq kiyimlar bezatilaboshlandi.
Shunday qilib, Buxoro va Samarqand O‘zbekistonning zargarlik va zardo‘zlik san’ati rivojlangan markazlardan hisoblanadi.
**Qashqadaryo – Surxondaryo libosi.** Surxondaryoning ayollari qizil, olcha ranglarni juda yaxshi ko‘rganlar. Kiyim uchun yo‘l-yo‘l, sidirg‘a va yirik gulli abrli gazlamalarni tanlaganlar.Kiyimlarga kasshtalar nafaqat go‘zallik va estetik did berish uchun tikilgan, shuningdek, ular diniy asoslarga ham ega bo‘lgan.
Qashqadaryo va uning yirik tarixiy shahri Shahrisabz milliy kiyimlarning o‘ziga xos xususiyatlari ayollar, erkaklar va bolalar kiyimlarini turli kashtalar bilan bezatishddan iborat, zero bu kashtalar yuzlab yillar mobaynida haqiqiy san’at asarlariga aylanib ulgurdi.
Qashqaddaryo va Shahrisabzda kashta tikishning “yo‘rma” va “kandaxayol” usuli qabulqilingan bo‘lib, kashtaning “iroqi” usuli keng tarqalgan.
**Xorazm libosi.** Xorazm kiyimlarining o‘ziga xosligi uni kiyadigan kishilarning yoshi, ijtimoiy ahvoli, dunyoqarashi, hayotdagi qayg‘uli va quvonchli hodisalar, xo‘jalikyuritishi va tabiiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Bu me’yor va talablar kiyimlarni tikishda foyddalaniladigan matolar, ularning gullari, bezatilishi, ranglari, kiyimlarning bichilishi va katta-kichikligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.
Xorazm xalqining milliy kiyimlari quyidagi xususiyatlari: uyg‘unlashib ketgan ranglarning an’anaviyligi, erkaklar va ayollar bosh kiyimlari (mo‘ynalari uzun katta shapkalar) shaklining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bundday bosh kiyimlar chugirma telpak deb ataladi, u qo‘y terisidan tikilgan bo‘lib uni erkaklar yil davomida kiyib yuradilar.
Lachak deb ataladigan marosim bosh kiyimi va o‘ziga xos zargarlik buyumlari milliy libosning elementlarini tashkil qiladi.
Xorazm ayollari ipakdan tikilgan oirasimon shakldagi gulli tahya (do‘ppi)ga ipdan yoki qush patidan popuk o‘rnatib tangalar osganlar. Tahya ustidan, odatda, ro‘mol yopingan. Bu yerda ro‘mol turlari ko‘p bo‘lgan: mahalliy ustalar to‘qigan oq takana va ipak ro‘mol (chitkor gul bosgan),

jundan to‘qilgan naqshli serjun ro‘mol, chetdan keltirilgan boku ro‘mol, parang (fransuz yoki yevropa) ro‘moli va hokazolar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Libos tarixi. O‘quv qo‘llanma.– “Universitet”, 2020 y Muallif: Xadjayeva U
2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarnigrizayltexnikasidaishlashningo‘zigaxosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
3. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическоеобразованиеинаука, (2), 109-110.
4. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
5. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
6. Soli TolibovichSadiyevO‘RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).
7. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS’aRTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.
8. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C3. – С. 64-66.
9. Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO‘LAJAK TASVIRIY VA AMALIY San’at O O‘QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 908-910.
10. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-197.
11. Tolibovich S. S., Mardonovna M. G. EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 16-19.
12. Amonova, Z. U., & Vosiyeva, A. T. X. (2022). MODELYER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA--BOSQICH BERILISHI USULLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 269-274.
13. Usmonovna, A. Z. (2023). AMALIY BEZAK San’atI ORQALI OT–KUTYUR YARATISH VA ESTITIK DUNYOQARASHNI SHAKILLANTIRISH. *Journal of Integrated Education and Research*, *2*(10), 49-51.
14. Khamidovna, K. G., & Usmonovna, A. Z. (2022). The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts. *Eurasian Scientific Herald*, *7*, 275-278.
15. Aziza To‘xtaqulovna Vosiyeva, & Zarifa Usmonovna Amonova (2023). Tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarni kasb – hunarga yo‘naltirish. Oriental Art and Culture, 4 (1), 340-343.
16. Amonova Z.U., & Quziboyeva R.A. (2022). BADIIY HUNARMANDCHILIK SOHASIDA KASHTACHILIK TARIXI VA ZAMONAVIY TA’LIMDAGI ETNO O‘ZARO TA’SIRI. Экономика и социум, (5-2 (92)), 39-42.
17. To‘xtaqulovna A. Самарқанд давлат университети (Самарқанд, Ўзбекистан) //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 14-17.

A. Vosiyeva USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE // SAI. 2023. №A4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-transformation-in-the-direction-of-design-and-its-importance (дата обращения: 22.12.2023).

18. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San’at DARSLARIDA O ‘QUV TEXNIK VOSITALAR, ELEKTRON DARSLIK VA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 125-131.

19. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San’atdagi OQIM VA YO ‘NALISHLARDA KO‘RGAZMALILIK, ILLUSTRATSIYA VA REPRODUKSIYALARNI TASHKIL ETISH //TADQIQOTLAR. – 2024. – T. 31. – №. 1. – С. 132-138.
20. Эсанова Л. К. Использование нетрадиционных техник в изотворчестве дошкольников //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 632-638.

## TIBBIY PSIXOLOGIK TADQIQOT METODLARI

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy unversiteti**
**Jizzax filiali Psixologiya fakulteti o‘qituvchisi: Otamurodov Rustam**
**Talaba: Mahmudova Madina Malikxon qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada klinik psixolog tomonidan qo‘llaniladigan tadqiqot usullarini tanlash uning kasbiy vazifalarini bajarishda uning oldida paydo bo‘ladigan vazifalari, klinik psixologiyadagi barcha turdagi tadqiqot usullarini uch guruhga bo‘linishi: klinik suhbat, eksperimental psixologik tadqiqot usullari, psixo-korreksiya ta’sirining samaradorligini baholash usullari haqida ma’lumot berilgan.

**Abstract:** In this article, the selection of research methods used by a clinical psychologist, the tasks that appear before him in the performance of his professional duties, the division of all types of research methods in clinical psychology into three groups: clinical interview, experimental psychological research methods, the effectiveness of psycho-correction effects information on assessment methods is provided.

**Аннотация:** В данной статье сделан выбор методов исследования, используемых клиническим психологом, задачи, которые встают перед ним при выполнении своих профессиональных обязанностей, разделение всех видов методов исследования в клинической психологии на три группы: клиническое интервью, экспериментально-психологическое исследование. методов, приведена информация об эффективности психокоррекционного воздействия, методах оценки.

**Kalit so‘zi:** diagnostik, terapevtik, intervyu, klinik intervyu, energiya vampirizmi, energiya vampirizmi, psixo-korrektsiya, klinik suhbat.

**Key words:** Diagnostic, therapeutic, interview, clinical interview, energy vampirism, energy vampirism, psycho-correction, clinical interview.

**Ключевые слова:** Диагностическое, терапевтическое, интервью, клиническое интервью, энергетический вампиризм, энергетический вампиризм, психокоррекция, клиническое интервью.

Klinik psixolog tomonidan qo‘llaniladigan tadqiqot usullarini tanlash uning kasbiy vazifalarini bajarishda uning oldida paydo bo‘ladigan vazifalar bilan belgilanadi. Diagnostik funksiya psixologik usullardan (testlar batareyalari, anketalar va boshqalar) foydalanishni talab qiladi, ular individual psixik funksiyalarning faolligini, individual psixologik xususiyatlarni baholay oladi, shuningdek, psixologik hodisalar va psixopatologik alomatlar va sindromlarni farqlaydi. Psixo-korreksiya funksiyasi turli xil o‘lchovlardan foydalanishni nazarda tutadi, buning asosida psixo-korreksiya va psixoterapevtik usullarning samaradorligini tahlil qilish mumkin. Kerakli usullarni tanlash psixologik ekspertiza maqsadlariga qarab amalga oshiriladi; sub’ektning ruhiy holatining individual xususiyatlari, shuningdek, somatik holati; uning yoshi; kasbi va ta’lim darajasi; o‘qish vaqti va joyi. Klinik psixologiyadagi barcha turdagi tadqiqot usullarini uch guruhga bo‘lish mumkin:klinik suhbat,eksperimental psixologik tadqiqot usullari,psixo-korreksiya ta’sirining samaradorligini baholash. Keling, ular haqida batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.

**Klinik suhbat.**Biz ijodiy jarayonni birlashtirish va sxematiklashtirish qanchalik qiyinligini bilamiz, ammo suhbatni haqli ravishda ijodkorlik deb atash mumkin. Shu munosabat bilan biz o‘z imkoniyatlarimiz chegaralarini bilamiz va so‘nggi haqiqatni topishga da’vo qilmaymiz. Har bir psixolog mavjud bo‘lganlar orasidan mijoz (bemor) bilan suhbatlashish usulini tanlash huquqiga ega (uning xarakteri, qiziqishlari, imtiyozlari, xushmuomalalik darajasi, dunyoqarashi, madaniyati va boshqalar). Shuning uchun taklif etilayotgan matn va undagi fikrlarni zukko o‘quvchini qoniqtiradigan va ushbu qo‘llanma qoidalarini amalda qo‘llashga olib keladigan yana bir imkoniyat,

boshqa variant sifatida ko‘rib chiqish kerak.

Agar ma’lumot rad etishga olib kelishi mumkin bo‘lsa, u holda klinik psixologiyada klinik usul bo‘yicha eng mos qo‘llanmani izlashni davom ettirish o‘quvchiga bog‘liq.

Klinik intervyuning asosiy maqsadlaridan biri mijoz yoki bemorning individual psixologik xususiyatlarini baholash, aniqlangan xususiyatlarni sifat, kuch va jiddiylik bo‘yicha tartiblash, ularni psixologik hodisalar yoki psixopatologik belgilar sifatida tasniflashdir.

“Intervyu” atamasi yaqinda klinik psixologlarning leksikoniga kirdi. Ko‘pincha ular klinik so‘roq yoki suhbat haqida gapirishadi, ularning tavsifi ilmiy ishlarda juda ko‘p ta’riflovchi, sezgir. Tavsiyalar, qoida tariqasida, imperativ ohangda beriladi va diagnostikaning shubhasiz muhim axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Mashhur nashrlar va monografiyalarda insonning ruhiy holatini baholash va undagi ruhiy og‘ishlarga tashxis qo‘yishning klinik usuli so‘rovning haqiqiy metodologiyasini (tamoyillari va tartiblarini) tavsiflamasdan berilgan bo‘lib, u ilmiy va ilmiy nuqtai nazardan tashqarida berilgan tavsiyalarni oladi. samarali ko‘paytirish uchun mavjud. Bu paradoksal holatga aylandi: klinik tekshiruv va diagnostikani faqat eksperimental tarzda o‘rganish mumkin, diagnostika va intervyu sohasida taniqli va tan olingan vakolatli organlarning mijozlari bilan suhbatlarda kuzatuvchi talaba sifatida ishtirok etish.

Asosiy mavzudan chetga chiqsak, shuni ta’kidlashni istardimki, afsuski, diagnostika sohasida hatto professionallar orasida ham ruhiy kasalliklarni intervyusiz tashxislash bo‘yicha ko‘plab muxlislar mavjud va mavjud. Ya’ni, tashxis qo‘yilgan bemor bilan shifokorning bevosita uchrashuvisiz, sirtdan qo‘yiladi. Bu amaliyot bizning davrimizda modaga aylanib bormoqda. Ruhiy kasalliklar diagnostikasi shifokorga eshitish yoki mutaxassis bo‘lmaganlarning og‘zidan ma’lum bo‘lgan inson xatti-harakatlarini tahlil qilish, “gumonlanuvchilar” matnlarining psixopatologik talqini (maktublar, she’rlar, nasrlar, bir vaqtlar tashlab qo‘yilgan iboralar) faqat obro‘sini yo‘qotadi. klinik usul.

Zamonaviy amaliy psixologiyaning yana bir o‘ziga xos xususiyati diagnostika rejasida eksperimental psixologik usullarning qudratliligiga ishonch bo‘ldi. Psixologlarning katta armiyasi turli xil testlar yordamida ruhiy anormalliklarni aniqlashga va normani patologiyadan ajratishga qodir ekaniga amin. Bunday keng tarqalgan noto‘g‘ri tushuncha psixologning ko‘pincha o‘zini folbinga, sehrgarga aylantirishiga olib keladi, boshqalar undan mo‘jiza ko‘rsatishni va mo‘jizalarni hal qilishni kutishadi.

Insonning ruhiy og‘ishlari va individual psixologik xususiyatlarining haqiqiy tashxisi, albatta, atamaning tor ma’nosida diagnostika va mijozning (bemorning) psixologining bevosita tekshiruvini birlashtirishi kerak, ya’ni. intervyu.

Hozirgi vaqtda diagnostika jarayoni butunlay psixiatrlarning ixtiyorida. Buni adolatli deb hisoblash mumkin emas, chunki shifokor, birinchi navbatda, simptom va hodisani haqiqiy farqlashga emas, balki simptomni topishga qaratilgan. Bundan tashqari, an’anaga ko‘ra, psixiatr sog‘lom aqliy faoliyatning namoyon bo‘lishidan kam xabardor. Aynan shu xususiyatlar tufayli sub’ektlarning ruhiy holatini baholash uchun intervyu shaklida diagnostika jarayoniga klinik psixologni jalb qilishni oqilona deb hisoblash mumkin.

Klinik intervyu - bu shaxsning individual psixologik xususiyatlari, psixologik hodisalar va psixopatologik alomatlar va sindromlar, bemorning kasalligining ichki manzarasi va mijoz muammosining tuzilishi, shuningdek, unga psixologik ta’sir qilish usuli haqida ma’lumot olish usuli. shaxs, bevosita psixolog va mijoz o‘rtasidagi shaxsiy aloqa asosida ishlab chiqarilgan.

Klinik psixologiyada *suhbatning funktsiyalari quyidagilardan iborat: diagnostik va terapevtik.* Ular parallel ravishda amalga oshirilishi kerak, chunki faqat ularning kombinatsiyasi psixolog uchun kerakli natijaga olib kelishi mumkin - bemorni tiklash va reabilitatsiya qilish. Shu nuqtai nazardan, psixoterapevtik funktsiyani e’tiborsiz qoldirib, klinik so‘rov amaliyoti shifokor yoki psixologni rolini kompyuter muvaffaqiyatli bajarishi mumkin bo‘lgan qo‘shimchaga aylantiradi.

Mijozlar va bemorlar ko‘pincha ularning holatini aniq tasvirlay olmaydilar va shikoyat va muammolarni shakllantira olmaydilar. SHuning uchun insonning muammolari taqdimotini tinglash qobiliyati suhbatning faqat bir qismidir, ikkinchisi, unga o‘z muammosini shakllantirishga xushmuomalalik bilan yordam berish, psixologik noqulaylikning kelib chiqishini tushunish - muammoni kristallashtirish qobiliyatidir. “Nutq insonga o‘zini yaxshiroq tushunish uchun

beriladi”, deb yozgan L. Vygotskiy va klinik suhbat jarayonida ogʻzakilashtirish orqali bu tushunishni muhim va asosiy deb hisoblash mumkin.

*Klinik intervyuning tamoyillari* quyidagilardan iborat: savollarning bir ma’noliligi, aniqligi va foydalanish mumkinligi; adekvatlik, izchillik (algoritmiklik); soʻrovning moslashuvchanligi, xolisligi; olingan ma’lumotlarning tekshirilishi.

Aniqlik printsipi savollarni toʻgʻri, toʻgʻri va aniq shakllantirish sifatida tushuniladi. Noaniqlikning misoli bemorga berilgan savol: “Siz oʻzingizga ruhiy ta’sir koʻrsatasizmi?” Bu savolga ijobiy javob diagnostikaga deyarli hech narsa bermaydi, chunki u turli yoʻllar bilan talqin qilinishi mumkin. Bemor “ta’sir” deganda oddiy insoniy tajribalarni, voqealarni, uning atrofidagi odamlarni va, masalan, “energiya vampirizmi”, oʻzga sayyoraliklar ta’sirini va boshqalarni anglatishi mumkin. Bu savol notoʻgʻri va noaniq, shuning uchun ma’lumotsiz va ortiqcha.

Mavjudlik printsipi bir nechta parametrlarga asoslanadi: lugʻat (lingvistik), ta’lim, madaniy, madaniy, lingvistik, milliy, etnik va boshqa omillar. Bemorga qaratilgan nutq unga tushunarli boʻlishi, koʻplab an’analarga asoslangan nutq amaliyotiga mos kelishi kerak. Diagnostik soʻradi: “Sizda gallyutsinatsiyalar bormi?” - bunday ilmiy atama bilan birinchi marta duch kelgan odam tomonidan notoʻgʻri tushunilishi mumkin. Boshqa tomondan, agar bemordan ovozlarni eshitadimi yoki yoʻqmi deb soʻralsa, uning “ovozlar” soʻzini tushunishi shifokorning xuddi shu atama haqidagi tushunchasidan tubdan farq qilishi mumkin. Mavjudligi diagnostika tomonidan bemorning holatini, uning bilim darajasini aniq baholashga asoslanadi; lugʻat, submadaniy xususiyatlar, jargon amaliyoti. Klinik psixologiyada *suhbatning funktsiyalari quyidagilardan iborat: diagnostik va terapevtik.* Ular parallel ravishda amalga oshirilishi kerak, chunki faqat ularning kombinatsiyasi psixolog uchun kerakli natijaga olib kelishi mumkin - bemorni tiklash va reabilitatsiya qilish. Shu nuqtai nazardan, psixoterapevtik funktsiyani e'tiborsiz qoldirib, klinik soʻrov amaliyoti shifokor yoki psixologni rolini kompyuter muvaffaqiyatli bajarishi mumkin boʻlgan qoʻshimchaga aylantiradi.

Mijozlar va bemorlar koʻpincha ularning holatini aniq tasvirlay olmaydilar va shikoyat va muammolarni shakllantira olmaydilar. SHuning uchun insonning muammolari taqdimotini tinglash qobiliyati suhbatning faqat bir qismidir, ikkinchisi, unga oʻz muammosini shakllantirishga xushmuomalalik bilan yordam berish, psixologik noqulaylikning kelib chiqishini tushunish - muammoni kristallashtirish qobiliyatidir. “Nutq insonga oʻzini yaxshiroq tushunish uchun beriladi”, deb yozgan L. Vygotskiy va klinik suhbat jarayonida ogʻzakilashtirish orqali bu tushunishni muhim va asosiy deb hisoblash mumkin.

*Klinik intervyuning tamoyillari* quyidagilardan iborat: savollarning bir ma’noliligi, aniqligi va foydalanish mumkinligi; adekvatlik, izchillik (algoritmiklik); soʻrovning moslashuvchanligi, xolisligi; olingan ma’lumotlarning tekshirilishi.

Aniqlik prinsipi savollarni toʻgʻri, toʻgʻri va aniq shakllantirish sifatida tushuniladi. Noaniqlikning misoli bemorga berilgan savol: “Siz oʻzingizga ruhiy ta’sir koʻrsatasizmi?” Bu savolga ijobiy javob diagnostikaga deyarli hech narsa bermaydi, chunki u turli yoʻllar bilan talqin qilinishi mumkin. Bemor “ta’sir” deganda oddiy insoniy tajribalarni, voqealarni, uning atrofidagi odamlarni va, masalan, “energiya vampirizmi”, oʻzga sayyoraliklar ta’sirini va boshqalarni anglatishi mumkin. Bu savol notoʻgʻri va noaniq, shuning uchun ma’lumotsiz va ortiqcha.

Mavjudlik prinsipi bir nechta parametrlarga asoslanadi: lugʻat (lingvistik), talim, madaniy, madaniy, lingvistik, milliy, etnik va boshqa omillar. Bemorga qaratilgan nutq unga tushunarli boʻlishi, koʻplab an’analarga asoslangan nutq amaliyotiga mos kelishi kerak. Diagnostik soʻradi: “Sizda gallyutsinatsiyalar bormi?” - bunday ilmiy atama bilan birinchi marta duch kelgan odam tomonidan notoʻgʻri tushunilishi mumkin. Boshqa tomondan, agar bemordan ovozlarni eshitadimi yoki yoʻqmi deb soʻralsa, uning “ovozlar” soʻzini tushunishi shifokorning xuddi shu atama haqidagi tushunchasidan tubdan farq qilishi mumkin. Mavjudligi diagnostika tomonidan bemorning holatini, uning bilim darajasini aniq baholashga asoslanadi; lugʻat, submadaniy xususiyatlar, jargon amaliyoti.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.**

1. Физиологические основы психосоматических взаимоотношений. Ю. М. Губачев, Е. М. Стамбровский. Москва. “Медицина”, 1981.
2. Психосоматические расстройства. В.Д. Тополянский, М.В. Струковская. Москва. “Медицина”, 1986.
3.Отамуратов R. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розикулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.
4.Отамуратов, Р., & Тургунбаева, Г. (2023). Insonning emotsional psixologik xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 520–527. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25638
5.Отамуратова, С., & Отамуратов, Р. (2023). Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 323–328. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25284

## MAROSIMLARI VA XORAZM VOHASINING URF-ODATLARI, IRIMLARI XUSUSIDA

**NDPI, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti**
**II kurs talabasi Sevinch Rajabboyeva**
**Ilmiy rahbar: dotsent N.X.Tursunova**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek xalqining oilaviy-maiyshiy marosimlaridan Xorazm vohasida o‘tkaziladigan “nikoh to‘yi” marosimida qilinadigan urf-odat va irim-sirimlarning mazmun mohiyati va boshqa hududlardan farqli jihatlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar**: Marosimlar, urf-odat, irimlar, rasm-rusum, nikoh to ‘yi.

Har qanday xalqning ma’naviy dunyoqarashi uning ijtimoiy hayoti, maishiy turmush tarzi, an’analari va rasm-rusumlari, folklori bilan belgilanadi. Folklor xalqning etnik o‘ziga xosliklari va milliy belgilarini so‘z orqali ifoda etuvchi muhim manba sifatida xarakterlidir. Jahon folklorshunosligida marosimlar va ularning xususiyatini o‘rganishga ishtiyoq XX asrdan oldinroq maydonga kelgan edi. Dunyoda bironta xalq yo‘qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Shunday ekan, hozirgi kunda o‘zbek xalqining ba`zi unutilib borilayotgan marosimlari qadimdan momolarimiz tomonidan urfga aylanib turkiy xalqlarning odatlari, etnografiyasi, rasm-rusum va irimlari o‘zaro mushtarak bo‘lib, ma’no-mazmuni bir xillikni ko‘rsatsadi. Ammo O‘zbekistonning turli hududlarida turlicha talqinda tashkil etilishi bilan ahamiyatli. Marosim haqida gapirar ekanmiz, uning turli davrlardagi sayqal topib borishi bizni o‘ziga jalb qiladi. “Ma’lum bo‘ladiki, “marosim“ tushunchasi “bayram“ so‘zi ifodalagan ma’nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog‘lanishi mumkin. Bu tadbir, oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo‘lishi lozim.”[48] “Marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosim xalq san’ati va madaniyati shakllari orasida eng ulkan auditoriyani o‘ziga jalb qiladigan ommaviy tadbir hisoblanadi.[49] Biz mana shunday marosimlardan “nikoh to‘yi” haqidagi urf-odat va irimlari borasida fikr yuritamiz.

O‘zbeklarda nikoh to‘yini o‘tkazish bilan bog‘liq an’naviy urf-odatlar bir necha bosqichlardan iborat o‘ziga xos etnofolkloriy tizim tarzida shakllangan bo‘lib, ularga amal qilish qat’iy qoida holiga kelib qolgan.[50]Xorazmda vohasida yashovchi aholining nikoh to‘yi marosimining birinchi bosqichiga mansub ayrim udumlar folklorining o‘ziga xos lokal xususiyatlari hamda boshqa joylardagi shu kabi an’analardan farqli belgilarini ko‘rsatib berish uchun to‘ygacha o‘tkazib kelingan asosiy udum va rasm-rusumlar hamda ularni bajarish bilan bog‘liq jarayonlarni tahlilga tortishni joiz topdik. Nikoh to‘yi bilan aloqador udumlar tizimida sovchilik odati muhim o‘rin

[48] M.Jo`rayev , J .Eshonqulov , SH . Turdimov , T . Mirzayev ,A . Tilavov. O`zbek folklori.Tosh.2020y 43-bet.
[49] Latifa Xudayqulova , Nasiba Tursunova . Oilaviy – maishiy marosim folklori . Navoiy 2022. 6-bet.
[50] Latifa Xudayqulova , Nasiba Tursunova . Oilaviy – maishiy marosim folklori . Navoiy 2022. 82-bet

tutadi. *Sovchi* so‘zining etimologiyasiga asos bo‘lgan leksema Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida "sov "// "sav" shaklida berilgan bo‘lib, uning ma’nosi: 1) sav – otalar so‘zi; 2) sav – qissa, qadimgi voqeadan xabar berish; 3) sav – hikoya; 4) sav – risola, xat; 5) sav – xabar, yangiliklarni etkazuvchi tarzida izohlangan. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy "savchi" (sovchi) so‘zi "kelin va kuyov orasida xat-xabarlar eltuvchi kishi" ma’nosida qo‘llanilishini ham alohida qayd etadi.[51] Xorazmning ayrim tumanlarida agar sovchilikka borilgandan qiz tomon rozi yoki noroziligi bildirganlaridan keyin qiz tomon rozi bo‘lib qudalashishga moyil bo‘lsa, sovchilarga to‘n kiygizib, bellariga belbog‘ bog‘lagan. Kuyov tomon esa sovchilikdan qaytib kelgan kishilarga "*Bo‘rimi, tulkimi?*" –deb savol berganlar. Agar sovchilarning ishi bitgan bo‘lsa – "bo‘ri", qiz tomon norozi bo‘lgan bo‘lsa – "tulki" deb javob qaytarilgan.

Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida nikoh to‘yi marosimini o‘tkazilishi boshqa tumanlarnikidan farq qiladi. Bu yerda kuyov kelinni uyiga olib kelgandan keyin, kelin mashinadan tushishidan oldin kuyov mashina atrofida sigirni 3 marotaba aylantiradi. Bu udum qilinishidan maqsad, "kelin uyga o‘zi bilan birga boylik, baxt-saodat olib kelsin" degan ma’noda qilinadi. Undan so‘ng sigirini aylantirib bo‘lgandan so‘ng, juft non olib chiqib, uni ham kelinni boshi ustida 3 marotaba aylantirib, kelinga yediriladi. Bundan maqsad "kelin uyga rizq-nasiba olib kelgan bo‘lsin" degan ma`noni bildiradi. Shundan so‘ng kuyovni do‘stlari kuyov kelin yoniga uyga kirishidan oldin kuyovni tutib urishadi. Bu urf-odatni qilishdan maqsad, kuyov endi oldingi hayotida qanday muammo, hayot sinovlari ham kelsa, ikkalasi bir-birini tushunib, hayot bardoshlariga chidasin degani. Xorazmning Urganch, Xiva, Xonqa va boshqa tumanlarida "taqa tashashma" degan marosimi Hazorasp hududida "Ko‘tarib urishma" deb aytiladi. Bu marosim Xorazmning hamma joyida bir xil o‘tkaziladi. Bunda kuyov kelinni atrofini uch marota aylanib, oyog‘ini bosib, kelinni ko‘tarib, o‘ng yelkasini yotoqqa qo‘yib kelinni yotoqqa qo‘yadi. O‘ng yelkasini qo‘yib qo‘yishidan maqsad hamma ishlari o‘ngidan kelsin, orqaga ketmasin degan irim qilinadi. Xorazm xalqining yana bir urf-odati kelin – kuyovga asal yedirishi sutligurunch, novvot choy ichiriladi. Bu degani hayoti asalday shirin, sutdek oppoq, guruchdek serfarzand, novvotday chidamli, bardoshli bo‘lsin, sabrli bo‘lishga ishora qilinadi. Keyin kuyovning do‘stlari kuyovning beliga "chalqat" bog`lashadi. Va buni kelinning yangasi yechishi kerak bo‘ladi. Bu urf-odatni o‘tkazishdan maqsad hayotda baxtli-taxtli, saodatli bo‘lsin, farzandlari ko‘p bo‘lsin, qiyinchiliklarga chidasin degani. Agar yanga chalqatni yecholmasa, yecholmagani uchun do‘stlari aytganicha ta’zim qilishi sharti qo‘yiladi. Xorazm marosimlarining yana bir irimi bor, bu odatiy irimdan maqsad kuyovga bo‘lgan hurmat-ehtiromni bildiradi. Ya’ni yanga kuyovni oyoq kiyimini, do‘ppisini, kostyumini yechganda har birisi uchun ta’zim qiladi. Bu kiyimlarini yechish jarayonida kuyovni do‘stlari kiyimlariga pul yashirib qo‘yishgan bo‘ladi. Buni yanga kiyimlarini yechganda oladi.

O‘zbek folklorshunosi M. Jo‘rayevning qator tadqiqotlari va e’lon qilgan kitoblarida irimlar bilan bog`liq ilmiy talqinlarga e’tibor berilganligini ko‘ramiz. Xorazm vohasining nikoh to‘ylaridagi irim-sirimlar borasida aytadigan bo‘lsak, kelin kuyovni to‘yi bo‘lgunga qadar va qirq chilla davrida xonalariga notanish odamlar kirgizilmaydi. Kelinga yanga qilib eridan ajrashgan yoki beva qolgan kishini yanga qilishmaydi. Chunki yangi kelin bo‘layotgan qizning ham hayoti buzilmasin, o‘xshamay qolishi mumkin degan maqsadda shunday irim qilishadi. Shuning uchun ham kelinning yangasini tanlayotganda qarindoshlarida bolalari ko‘p, baxt-saodatli, tili shirin, yumshoq tabiatli ayolni yanga qilishadi. Ya’ni kelin ham borgan xonadonida shunday xulq egasi bo‘lib borsin degan maqsadda. Kelin-kuyovning xonasiga bolasi yo‘q, beva yoki eridan ajrashgan ayol kirgizilmaydi. Chunki ular ham shunday baxtsiz bo‘lib qolmasin, hayoti o‘xshasin deb shunday qilinadi. Kelin tushgan xonadondan kelin kech tushgandan so‘ng qorong‘uga chiqishi mumkin emas, chunki kelin-kuyovga chilla tushishi mumkin. Yana bir irim-sirimlardan biri, agar kelin tushgan xonadon egalarining qarindoshlaridan kimdir chaqaloqli bo‘lgan bo‘lsa, shu kishi bu xonadonga, kelin esa qirq kunlik chaqaloqni oldiga bormasligi kerak. Chunki kelinga chilla tegib, kelin tug‘masligi yoki bolasi bo‘lganda bolasiga chilla tushishi mumkin. Xorazm nikoh to‘ylari ana shunday urf-odat va irim-sirimlari bilan boshqa vohalarda farq qiladi. Bu kabi qadriyatlar zamirida oila va inson

---

[51] M. Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk.. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1963. –169-bet.

tushunchasi, uning muqaddasligini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, marosim insoniyat madaniyatining eng muhim shakllaridan biri bo‘lishi bilan bir qatorda uni rivojlantirishdagi samarali vosita ham hisoblanadi. Marosimlarda qilinadigan urf-odat va irimlarning ahamiyati juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ular marosimning badiiyati bilan bir qatorda, marosimning jozibador o‘tkazilishini ta’minlaydi. “Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so‘z san’ati hamisha tayanch nuqta bo‘lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir.”[52]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M. Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 3-tom. – Toshkent: Fan, 1963
2. B.Sarimsoqov.O‘zbek marosim folklori.Toshkent.fan.1986.
3. L.Xudayqulova,N.Tursunova .Oilaviy-maishiy marosim folklori.Navoiy.2022
4. M. Jo‘raev, L. Xudoyqulova Marosimnoma. O‘zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma’lumotnoma. – Toshkent: O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
5. N. Tursunova. Hozirgi o‘zbek dramaturgiyasida folklor stilizatsiyasi.
6.T.Mirzayev, SH.Turdimov, M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. O‘zbek folklori. Tosh-2020y

## DIDAKTIK O‘YINLARNING BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

**Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna,**
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar: Ermatova Gulnoz Pirimovna**
**NavDPI, Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’limda tarbiyalanuvchilar ta’lim olishlari uchun ta’lim jarayoni ularning tabiiy rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lishi va mashg‘ulot jarayonini o‘yin orqali tushuntirish, ertaklar orqali bolaning nutqini, ongini, xotirasini rivojlantirish, bola xoxishiga qarab markazlar asosida o‘tish va bola qiziqishiga qarab yo‘naltirishni, hamda didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishlariga keng imkoniyatlar ochib berishini yoritib bergan.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yinlar, maktabgacha ta’lim tashkiloti, tarbiya, bola, nutq.

**Annotatsion:** In this teaching-methodical recommendation, for preschoolers to be educated, the educational process should be in harmony with their natural development, and the training process should be explained through games, stories, and the child's speech, mind, and memory. development, switching to centers based on the child's wishes and orientation based on the child's interest, and didactic games open wide opportunities for preschool children to learn in preschool educational organizations. Pedagogical staff, educators, and primary school teachers can use the methodological recommendation.

**Key words:** didactic games, preschool education organization, education, child, speech.

**Аннотация:** В данной учебно-методической рекомендации для обучения дошкольников учебный процесс должен быть в гармонии с их естественным развитием, а процесс обучения должен объясняться посредством игр, рассказов, речи, ума и памяти ребенка. в центры с учетом пожеланий ребенка и направленности на основе интересов ребенка, а дидактические игры открывают широкие возможности для обучения детей дошкольного возраста в дошкольных образовательных организациях. Методической рекомендацией могут воспользоваться педагогические работники, воспитатели, учителя начальных классов.

**Ключевые слова:** дидактические игры, организация дошкольного образования, воспитание, ребенок, речь.

**KIRISH:**Maktabgacha yoshdagi bolalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishning muhim sharti ular bilan ishlash chog‘ida qo‘llanayotgan metod va tarbiya shakllarining bolalar xususiyatlariga mos bo‘lishidir. Ta’lim tarbiya jarayonida asosan didaktik o‘yinlar, turli xil amaliy va tasviriy faoliyat shakllarining o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi

[52] T.Mirzayev, ShTurdimov,M.Jo`rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov.O`zbek folklori.Tosh-2020y,13-bet

bolalarga ta'lim berishda o'yinlardan foydalanish masalalari bo'yicha ko'pgina pedagog va psixolog olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va hozirgi kunda ham ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. O'yin o'ynash jarayonida bolalarning tasavvurlari va bilimlari yanada kengayadi, bola ongida shakllangan tushunchalar va tasavvurlar aniqlashtiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)**. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ta'lim olishlari uchun ta'lim jarayoni ularning tabiiy rivojlanishi bilan uyg'un bo'lishi kerak. Bu metodikani o'tkazishdan maqsad bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Rivojlantiruvchi o'yin va mashg'ulotlarining mazmuni bolaning psixik rivojlanishini oldinga surish, uning idroki, diqqati, xotirasi, tafakkuri, nutqi, harakat sohasi, ixtiyoriy xulq-atvori, ya'ni bola tomonidan asl o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish asosini tashkil etadigan psixik funksiyalar va shaxsiy sifatlarni takomillashtirishdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilari maktabdagi ta'limga shu tashkilotdan boshlab tayyorlanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yetakchi faoliyat o'yin faoliyati hisoblansada, tavsiyadan o'rin olgan faoliyatlar turi bolalarning bilishga doir psixologik jarayonlari, diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotirasi, predmetlarni guruhlashtirish va umumlashtirish qobiliyatlarni rivojlantirib borishni ta'minlaydi.

Faoliyatlarni o'tkazib borish jarayonida bolalar bilan samimiy, erkin muloqatda bo'lish, ularga faoliyatlarni to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini xolisona baholash muhim omillardan biri sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilari uchun tayyorlangan ushbu tavsiya rivojlantiruvchi o'yinlarni qo'llashda tashkilot psixologi, tarbiyachilar, ota-onalar hamkorlikda ishlashlari zarur.

Amaliy mashg'ulotlarda ko'rgazma qurollaridan foydalanish, mashg'ulot jarayonini o'yin orqali tushuntirish, ertakalar orqali bolaning nutqini, ongini, xotirasini rivojalntirish, bola xoxishiga qarab markazlar asosida o'tish va bola qiziqishiga qarab yo'naltirish. Faoliyatlarda texnik vositalardan, didaktik o'yinlar, qiziqarli savollari, topshiriqlar, topishmoq va tez aytish, barcha guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Tarbiyachilarga maktabgacha ta'limda mashg'ulotlarni o'tkazish Didaktik o'yinlar metodikasini o'rgatish hamda amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik o'yinlarning maqsadi:** maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kattalar tomonidan qo'llaniladigan faoliyatlardan biridir. O'yin orqali bola shaxs sifatida rivojlanadi, keyingi o'qishi, mehnat qilishi, kommunikativ faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ruhiy hissiyotlari shakllanadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatini o'yin tashkil qiladi, o'yin bola ta'lim-tarbiyasining asosiy vositasidir.

**Didaktik o'yinlarning vazifasi.** Maktabgacha yosh – bu bolalarning hayotidagi o'yin davri. Bu yoshda bola har bir narsani o'yin orqali bilishga harakat qiladi. O'yin – bu real olamni, -tabiatni, borliqni, kattalarni bolalarcha tasavvur qilishdir. O'yinda u yoki bu rolni bajarish uchun bolada birinchi navbatda o'yin harakatlarini amalga oshirish to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi.

O'yin nafaqat bolada shakllangan bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi, balki bolaning faol bilish jarayonining o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'ladi. O'yin jarayonida bola tarbiyachi rahbarligida yangi bilimlarga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida bolaning maktabga tayyorlash jarayoniga zamin vazifasini bajaradi. Didaktik o'yinlar mazmuni, tashkil etilish shakli, ta'limiy vazifalariga ko'ra turli tumandir. O'yin – maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kattalar tomonidan qo'llaniladigan faoliyatlardan biridir. O'yin orqali bola shaxs sifatida rivojlanadi, keyingi o'qishi, mehnat qilishi, kommunikativ faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ruhiy hissiyotlari shakllanadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyatini o'yin tashkil qiladi, o'yin bola ta'lim-tarbiyasining asosiy vositasidir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda didaktik o'yinlardan foydalanish ko'pgina pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keng yoritib berilgan. Bu ilmiy tadqiqotlarning har birida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda didaktik o'yinlardan foydalanishga alohida urg'u berib o'tilgan. Jumladan, M. Montessori ham bola tarbiyasida o'yinning ahamiyatiga katta e'tibor qaratgan.M. Montessori o'yin ta'limiy bo'lishi lozimligini, aks holda bu o'yin bolaning rivojlanishiga hech qanday ta'siri bo'lmagan "bo'sh o'yin" bo'lib qolishini e'tirof etgan.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bilan uzoq

yillar ilmiy izlanishlar olib borgan olima N.P. Anikeeva didaktik o‘yinlarga yangicha yondashadi. Uning fikricha didaktik o‘yinlar bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiyaning asosiy komponentlaridan biridir. Didaktik o‘yinlarning samaradorligi birinchi navbatda ularning bolaning qiziqishlariga mos kelishi, bolaga quvonch bag‘ishlashi, bu o‘yinlarda bola o‘zini erkin tutishi, o‘zining faolligini ko‘rsatish imkoniyatini berishi lozimligini e’tirof etadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)**. Didaktik o‘yin – bolani aqliy jihatdan tarbiyalashning muhim vositasi hisoblanadi. Ta’limiy o‘yinlar bolalarda ruhiy bilish jarayonlarini, fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim jihati bolalarning fikrlash faolligini, mustaqilligini va nutqini rivojlantirishidir. Masalan, bolalarda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik o‘yinlar bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘yinlar yordamida bola predmetlarni bir-biri bilan qiyoslash, ularni belgilari bo‘yicha guruhlashga va uncha qiyin bo‘lmagan misollarni yechishga o‘rganadi.Bolalarning nutqini o‘stirishda ham didaktik o‘yinlar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘yin davomida bola o‘zining harakatlarini sharhlaydi, bu topshiriqni qanday bajarganini yoki bu muammoli vaziyatdan qanday chiqib ketganligini gapirib beradi, o‘zidan kattaning savoliga javob beradi, o‘z tengdoshlari bilan muloqat qiladi.

**Didaktik o‘yinlarda tarbiyaning roli.Mehnat tarbiyasi.** Ko‘pchilik didaktik o‘yinlar orqali bolalarda jismoniy mehnat kishisiga hurmat shakallanadi, kattalarning mehnatiga qiziqish uyg‘onadi, o‘zlarida mehnat qilish istagi uyg‘onadi. Masalan, “Kim bu uyni qurgan” o‘yinida bolalar uyni qurishdan avval me’morlar binoning chizmalari ustida ishlashlarini bilib oladilar. Bolalar ba’zi mehnat ko‘nikmalariga didaktik o‘yinlarning materiallarini tayyorlash jarayonida ega bo‘ladilar.

**Estetik tarbiya.** Didaktik material gigiyenik va estetik talablarga mos kelishi kerak: o‘yinchoqlar yorqin bo‘yoqlar bilan tasvirlangan, badiiy bezatilgan bo‘lishi kerak. Bunday o‘yinchoqlar diqqatni tortadi, ularda o‘ynash istagini uyg‘otadi. Jismoniy tarbiya. O‘yin yaxshi ruhiy ko‘tarinkilikni yaratadi, kayfiyatni yaxshi qilish bilan birga ma’lum bir ma’noda, asab tizimini taranglashtiradi. Ayniqsa, qo‘llarning mayda mushaklarini rivojlantiradigan, mustahkamlaydigan didaktik o‘yinchoqlar bilan amalga oshiriladigan o‘yinlar muhim, bu esa aqliy rivojlanishga, qo‘lni yozish jarayoniga, tasviriy san’at faoliyatiga, umuman, maktabga tayyorlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, didaktik o‘yin bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi. bilish qobiliyatini tarbiyalaydi. Didaktik o‘yinlarning ma’nosi bolalarda jamiyatdagi hodisalarga, tabiatga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi. Vatan, armiya, kasb, mehnat faoliyati to‘g‘risidagi bilimlarini chuqurlashtiradi va ularni bir tizimga soladi. Bolalarga atrof-muhit, haqidagi bilimlar aniq tizim asosida beriladi. Ularni mehnat bilan tanishtirish qo‘yidagi ketma-ketlikda bajariladi: Bolalar avval aniq bir mehnat muhiti bilan tanishadilar, keyin inson mehnatini yengillashtiradigan va ularga yordam beradigan mashinalar bilan, ishlab chiqarish jarayoni bilan, kerak bo‘ladigan narsalar mahsulotlari bilan tanishadilar. Shundan keyin bolalarga har bir mehnatining ahamiyati ochib beriladi. Didaktik o‘yinlar yordamida tarbiyachi bolalarni mustaqil fikrlashga, to‘g‘ri sharoitda oldiga qo‘yilgan maqsadga muvofiq olingan bilimlarni tatbiq etishga o‘rgatadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, bolalar faoliyati qanchalik rang-barang, o‘zaro farqli bo‘lsa, ularning tafakkuri shunchalik faollashadi, esga tushirish, xulosa qilish va o‘z fikrini izchil, dadil bayon etishga sharoit yaratiladi. Bolalarning tabiatga oid bilim, malaka, ko‘nikmalarini ularning har qanday faoliyati davomida hosil qilish, faollashtirish, mustahkamlash mumkin: jismoniy tarbiya va badantarbiya mashqlari, harakatli o‘yinlar, tasviriy faoliyat, badiiy adabiyot, didaktik o‘yinlar, matematik tasavvurlarni o‘stirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish, til o‘rgatish, nutq o‘stirish, tajribalar o‘tkazish mashg‘ulotlaridan tashqari, sayr, kuzatuvlar, suhbatlar jarayonida ham bu vazifa hal etilishi mumkin va zarur.

Bolalarning o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun savol-javoblar, topshiriqlar bajarish, testlar o‘tkazilishi su’ratlar asosida didaktik o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.” – T.: “O‘zbekiston”, 2017 y.
2. I.V.Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi to‘plami” Toshkent 2018 y.
3. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y.
4. Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013y.
5. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015y.
6. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ”Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, T- 2022 y.

## FUNKSIYA GRAFIGINI YASASHDA ASIMPTOTALARNING O’RNI

**Narzulloyeva Gulasal Bobirjon qizi**
**NDPI, Matematika-informatika ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: Matematika kafedrasi katta o’qituvchisi Majidov Sherzod Amirdinovich**

**Annotatsiya:** Bu ishda assimptota mavzusiga doir misollar ishlab to‘liq tushuntirib berilgan. Har bir assimptota bo‘yicha alohida ta’riflar berilgan. Agar o‘quvchi funksiya grafigini assimptota tushunchasining mohiyatini anglab yetsa funksiya grafigini chizishda qiyinchilik uchramaydi.
**Kalit so‘zlari:** funksiya grafigi, vertikal, gorizantal, og‘ma asimptotalar.

Funksiya grafigini yasashda asimptotalarni topish muhim ahamiyatga ega. Funksiya cheksizlikka intilganda yoki uning ikkinchi tur uzilish nuqtasi atrofida o’rganish ko’p hollarda funksiyaning grafigi ya’ni egri chiziq bilan biror to’g‘ri chiziqning nuqtalari orasidagi masofa yetarlicha kichik bo’lishini ko’rsatadi.

Aytaylik, biror $l: \{ (x,y),\ y = f(x),\ x,y \in R \}$ egri chiziq va $L: \{ (x,y),\ ax + by + c = 0,\ a,b,c \in R \}$ to’g‘ri chiziqlar berilgan bo’lsin.

*Ta’rif.* Agar $l$ egri chiziqning biror $M$ nuqtasi cheksiz uzoqlashganda bu nuqtadan biror $L$ to’g‘ri chiziqqacha bo’lgan masofa nolga intilsa, u holda $L$ to’g‘ri chiziq $l$ egri chiziqning asimptotasi deyiladi. Odatda asimptotalar uchta holatda, ya’ni vertikal, gorizantal va og‘ma ko’rinishida bo‘ladi.

Asimptotalar vertikal ordinatalar o’qiga parallel, gorizontal absissalar o‘qiga parallel bo‘ladi. Og‘ma asimptota esa ordinata va absissa o‘qlariga parallel bo‘lmagan to‘g‘ri chiziq bo‘ladi.

*Ta’rif.* Agar $f(x)$ funksiya uchun $\lim\limits_{x \to a} f(x) = \infty$ bo’lsa, u holda $x = a$ to’ri chiziq $y = f(x)$ funksiya grafigining vertikal asimptotasi deyiladi.

Gorizontal va og‘ma asimptota tushunchalarini ham shunga o’xshash kiritamiz.

*Ta’rif.* Agar $\lim\limits_{x \to \infty} f(x) = b$ bo’lsa, $y = b$ to’g‘ri chiziq $y = f(x)$ funksiya grafigining gorizontal asimptotasi deyiladi.

*Ta’rif.* Agar $\lim\limits_{x \to \infty} [f(x) - (kx + m)] = 0$ bo’lsa, $y = kx + m$ to’g‘ri chiziq $y = f(x)$ funksiya grafigining og‘ma asimptotasi deyiladi.

Og‘ma asimptota $y = kx + m$ ko’rinishda bo’lishligidan $k$ va $m$ larning qiymatlarini topish kifoya.

Amalda og‘ma asimptotani topish uchun quyidagi teoremadan foydalaniladi.

*Teorema.* $f(x)$ funksiya grafigi $y = kx + m$ og‘ma asimptotaga ega bo‘lishi uchun

$$\lim_{x \to +\infty} \frac{f(x)}{x} = k, \quad \lim_{x \to +\infty} (f(x) - kx) = m$$

bo‘lishi zarur va etarli.

*1-misol.* $f(x) = \dfrac{x^3}{(x+2)^2}$ funksiyaning og‘ma asimptotasi topilsin.

Buning uchun yuqorida keltirilgan teoremaga asosan

$$k = \lim_{x\to+\infty}\frac{f(x)}{x} = \lim_{x\to+\infty}\frac{x^2}{(x+2)^2} = 1;$$

$$m = \lim_{x\to+\infty}(f(x) - kx) = \lim_{x\to+\infty}\left(\frac{x^3}{(x+2)^2} - x\right) = -4$$

bo‘ladi. Demak, $y = x - 4$ to‘g‘ri chiziq berilgan funksiya grafigining og‘ma asimptotasi bo‘ladi.

*2-misol.* $y = \dfrac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1}$ funksiyaning asimptotalarini toping va grafigini yasang.

Bu funksiyaning asimptotalarini topishda quyidagi shaklga keltiramiz:

$$y = \frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} = \frac{x\cdot(4x^2 - 3)}{(2x+1)(2x-1)} = \frac{x\left(x + \frac{\sqrt{3}}{2}\right)\left(x - \frac{\sqrt{3}}{2}\right)}{\left(x + \frac{1}{2}\right)\left(x - \frac{1}{2}\right)}$$

Bundan esa vertikal asimptota ta’rifiga ko’ra $x = -\frac{1}{2}$ va $x = \frac{1}{2}$ to’g‘ri chiziqlar vertikal asimptota bo’ladi, chunki $\lim_{x\to-\frac{1}{2}} f(x) = \infty$ va $\lim_{x\to\frac{1}{2}} f(x) = \infty$ .

Funksiyaning shu nuqtadagi o’ng va chap limitlarini ham hisoblaymiz:

$$\lim_{x\to-\frac{1}{2}+0}\frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} = -\infty, \qquad \lim_{x\to-\frac{1}{2}-0}\frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} = +\infty$$

$$\lim_{x\to\frac{1}{2}+0}\frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} = -\infty \qquad \lim_{x\to\frac{1}{2}-0}\frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} = +\infty$$

Yuqoridagi funksiyaning gorizontal asimptotasini aniqlaylik, bunda limitni hisoblaymiz $\lim_{x\to\infty} f(x) = \lim_{x\to\infty}\frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} = \infty$ bu tenglikdan ko’rinadiki ta’rifga ko’ra funksiyaning gorizontal asimptotasi mavjud emas ekan.

Keyingi qiladigan ishimiz funksiyaning og‘ma asimptotasini topishdan iboratdir. Funksiyaning og‘ma asimptotasini topishda $k$ va $m$ larning qiymatlarini topish kifoya. Bunda,

$$k = \lim_{x\to\infty}\frac{f(x)}{x} = \lim_{x\to\infty}\frac{4x^3 - 3x}{x(4x^2 - 1)} = 1,$$

$$m = \lim_{x\to\infty}[f(x) - kx] = \lim_{x\to\infty}\left[\frac{4x^3 - 3x}{4x^2 - 1} - x\right] = \lim_{x\to\infty}\frac{4x^3 - 3x - 4x^3 + x}{4x^2 - 1} =$$

$$\lim_{x\to\infty}\frac{-2x}{4x^2 - 1} = 0 \Rightarrow y = x$$

og‘ma asimptota.

Bu asimptotalardan foydalanib funksiya grafigini chizamiz .




*3-misol.* $y = 2x - e^{-x}$ funksiyaning asimptotalarini toping.

Funksiya asimptotalarini topamiz:
Vertikal asimptota ta'rifiga ko'ra berilgan funksiyaning vertikal asimptotasi mavjud emas.
Gorizontal asimptotasini aniqlaylik, bunda ta'rifga ko'ra $\lim_{x\to\infty} f(x) = \lim_{x\to\infty}(2x - e^{-x}) = \infty$ tenglikka ega bo'lamiz. Bu tenglikdan ko'rinadiki, funksiyaning gorizontal asimptotasi ham mavjud emas.
Endi esa funksiyaning og'ma asimptotasini topaylik. Buning uchun $k$ va $m$ larni topamiz, bunda yuqorida keltirilgan teoremaga ko'ra

$$k = \lim_{x\to\infty}\frac{f(x)}{x} = \lim_{x\to\infty}\frac{2x - e^{-x}}{x} = 2\,,\quad m = \lim_{x\to\infty}[f(x) - kx] = \lim_{x\to\infty}\left(2x - e^{-x} - x\right) = 1$$ ekan.

Demak, $y = 2x + 1$ og'ma asimptota bo'ladi.
Yuqorida bayon qilinganidek funksiyaning asimptotalari topish, funksiyalarning grafiklarni yasashga katta yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.U. Abduhamidov, H.A. Nasimov, U.M. Nosirov, J.H. Husanov "Algebra va matematik analiz asoslari" II qism. Toshkent "O'qituvchi" Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi. 2011-yil.
2. A.G'.Hikmatov, T.T.Turdiyev."Matematik analiz".Toshkent "O'qituvchi".
1987- yil.
3. T. Jo'rayev, A.Sa'dullayev, G.Xudoyberganov, H. Mansurov, A. Vorisov. "Oliy matematika asoslari". Toshkent "O'zbekiston". 1998-yil.

## GANDBOL SPORT TURIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH (5-8 SINFLAR MISOLIDA)

**NDPI, Jismoniy madaniyat kafedrasi**
**katta o'qituvchi O.J.O'rinov –**
**NDPI, Jismoniy madaniyat fakulteti**
**3-kurs talabasi O.N.Rajabova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gandbolchilarni irodaviy tayyorgarligi, idrok qilish qobiliyati, diqqat va vestibulyar analizatorlarni rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Zamonaviy gandbolda psixologik tayyorgarlikning dolzarb masalalari va jihatlari yoritilgan. Psixologik tayyorgarlikni tashkil etish yuzasidan tegishli xulosalar ishlab chiqilgan.
**Kalit so'zlar:** gandbolda yosh avlodni irodaviy tayyorgarlik, vestibulyar analizator, psixologik tayyorgarlik.
**Аннотация:**В данной статье анализируются вопросы волевой подготовки гандболистов, развития перцептивных способностей, внимания и вестибулярного анализатора. Освещаются актуальные вопросы и аспекты психологической подготовки в современном гандболе. Разработаны соответствующие выводы по организации психологической подготовки.
**Ключевые слова**: волевая подготовка подрастающего поколения в гандболе, вестибулярный анализатор, психологическая подготовка.
This article analyzes the issues of volitional training of handball players, the development of perceptual abilities, attention and vestibular analyzer. Topical issues and aspects of psychological training in modern handball are highlighted. The relevant conclusions on the organization of psychological training have been developed.
**Keywords**: volitional training of the younger generation in handball, vestibular analyzer, psychological training.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va bu borada.Yosh avlodni har tamonlama: aqliy va axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi qonunida Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, talabalarga katta e'tibor qaratish qayd etilgan. Eng avvalo bolalik davridan boshlab sport yuklamalarini yaxshi taqsimlash zarur. Bunda umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Inson jismonan barkamollikka erishish uchun organizmdagi turli tizimlarning yaxshi rivojlanishiga erishish kerak .

Umumiy jismoniy mashqlarni bajarish, harakat ishini boshqaradigan, mexanizm takomillashishiga yordam beradi. Harakat markazi uzoq muddat davomida bir xildagi impulslarni yuborish va qabul qilishga moslashadi. Uzoq muddatli mashg‘ulotlar bilan muntazam shug‘ullanish natijasida mushaklarda yuzaga keladigan o‘zgarishlar morfologik va biokimyoviy hususiyatlar bilan belgilanadi. Ulardagi moddalar almashinuvi jarayoni, bajarilayotgan ish darajasiga moslashadi. Bunday mashg‘ulotlarni bajarishda vegetativ organlarda yuzaga keladigan o‘zgarishlar ayniqsa yurak-qon tomirlari va nafas organlari termoreguliyatsiyasi takomillashishi kuzatiladi. Bu holat asosan nerv gumoralregulyatsiyasi orqali boshqariladi.Umumiy jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalashda sport mashg‘ulotlarining uslublari: standart o‘zgaruvchan, konbinastiyalashgan, aylanma mashg‘ulot, musobaqa va maxsus umumiy jismoniy tayyorgarlik, sport turlaring talabiga qarab bajariladi va o‘yin uslublaridan foydalaniladi.5-8 sinflar yoshdagi o‘quvchilar mashg‘ulotida turli shiddatlarda umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish: Mashg‘ulot jarayonini 60% ni umumiy jismoniy tayyorgarlik tashkil etadi. Gandbol o‘yinida umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish o‘yin texnikasi va taktikasini tarbiyalashga olib keladi. Texnikani mukammal bajarishga fundament yaratib beradi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish:
Birinchidan: yurak-qon tomir tizimini kuchaytirishni;
Ikkinchidan: funkstional tizimlarning faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan quvvatni tejab tergab sarflashni.
Uchinchidan: funksional imkoniyatlardan iloji boricha to‘la foydalanishni ko‘zda tutadi.
Umumiy jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan, gandbol sport o‘yinidagi natijalarni yaxshilaydi jismoniy sifatlarni rivojlantiradi.
Shu sababli yuqoridagi ma’lumotlarni inobatga olgan holda bolalarda umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.
5-8 sinflar yoshli bolalar va o‘smirlarni umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.
Yuqoridagi maqsadni hayotga tatbiq qilish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi.
Mavzuga taalluqli adabiyot manbaalaridan foydalanish.
2. 5-8 sinflar yoshli gandbolchilarni jismoniy tayyorgarligini aniqlash.
3.Tajribadan keyin gandbolchilar natijasini qiyoslab tahlil qilish.
Faraz qilinadiki bir yilda gandbol sport o‘yini bilan shug‘ullanuvchi bolalarning sport tayyorgarligini oshirishda jismoniy tayyorgarlik vositalaridan foydalanish, ular jismoniy rivojlanish samaradorligini oshiradi.
5-8 sinflar yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan darslari va gandbol mashg‘ulotlari.
5-8 sinflar yoshdagi o‘quvchilarga umumiy jismoniy tayyorgarlik ilmiy metodik shakllari va vositalari qo‘llanildi.
5-8 sinflar yoshli bolalar bilan o‘tkaziladigan umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun vosita, uslublar tayyorlandi va nisbati aniqlandi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari gandbolchining texnik-taktik ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.
-Yosh gandbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi.
-5-8 sinflar yoshli gandbolchilarni umumiy jismoniy tayyorgarlik dinamikasi va tadqiqotlardan keyingi natijalarning farqi.
Gandbol sport o‘yinida muvaffaqiyatga erishish, ularning jismoniy tayyorgarligiga bevosita bog‘liqdir.
Malakali gandbol o‘yinchilarini tayyorlashda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasining beqiyos ahamiyatini ta’kidlab ushbu jarayon texnik mahoratni shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilishni ko‘rsatib o‘tganlar.
Sportchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha vositalaridan, ya’ni jismoniy mashqlarning chiniqish va sog‘lomlashtirishning tabiiy omillari (quyoshda chiniqish, havo va suv muhitining xususiyatlari), rejim va boshqa gigiyenik sharoitlardan foydalaniladi.
Hozirgi vaqtda sportning hamma turlarida jismoniy tayyorgarlik ikki;
Umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik vazifalarini hal etishga yordam beradi.Organizmning hamma tizimlarini maxsus jismoniy va qo‘shimcha (yordamchi) jismoniy

tarbiya vositalari bilan uzviy ravishda qo‘shib olib borilgan taqdirdagina sportchining umumiy va maxsus irodaviy harakat sifatlari muvaffaqiyatli rivojlanadi. Bu hol sportchining har tomonlama rivojlanishini va yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi.Gandbol bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligi bevosita yo‘nalishiga ega bo‘lgani uchun, ayni vaqtda organizmning umumiy jismoniy rivojlanishi, mustahkamlanishi va chiniqishi bilan tamomila bog‘liqdir.Gandbol sport turidagi muvaffaqiyat faqat shu turning o‘ziga xos tomonlarini ifoda etuvchi ayrim qobiliyatlar bilangina emas organizmning funksional imkoniyatlarining umumiy darajasi bilan ham belgilanadi.Shu sababdan maxsus jismoniy tayyorgarlik, umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan birga qo‘shib olib boriladigan sportchining jismoniy tayyorgarligi har tomonlama bo‘lishi mumkin.Umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik uchun zamin yaratadi, ya’ni tanlangan sport turida yuqori natijalarga erishish uchun zarur shart-sharoit sifatida; kuchlilik, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik har tomonlama rivojlanishini ta’min etadi.Sportchining jismoniy tayyorgarligini qaysi sport bo‘yicha ixtisoslashganligiga bog‘liq. Biroq ixtisosligigaga qarab g‘oyat katta farqlar bo‘lishiga qaramay, hamma sohadagi umumiy jismoniy tayyorgarlikda qator o‘xshash tomonlari saqlanib qoladi .

**Bunga sabab birinchidan;**

Sportning har xil turlari faqat bir biridan farq qilib qolmay ma’lum darajada umumiylikka ham ega ekanligida bo‘lsa;**ikkinchidan;**Umumiy jismoniy tayyorgarlikning mazmuni faqat sport faoliyatidagi vazifalarni hisobga olib belgilanmay, balki jismoniy tarbiyaning umumiy vazifalariga ham muvofiqlab belgilashdadir.Shuning uchun bizning sharoitimizda sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa sport mahoratining dastlabki paytlarida **“Alpomish” va “Barchinoy” m**ajmuasining mezon va talablarini bajarish bilan bog‘liq. Platonov V.N fikricha umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu sportchining harakat sifatlarini har tomonlama garmonik ravishda rivojlanganlik darajasini anglatadi.

So‘z umumiy jismoniy tayyorgarlik va xususan sportchilarni tayyorlashda harakat sifatlarini (tezkorlik, kuch, chidamkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik) bir-biriga bog‘lab shakllantirish muhimligi haqida borar ekan, bu borada tezkor kuch sifatiga alohida urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.Gandbolda ijro etiladigan harakat malakasi negizida tezkor kuch sifati hal qiluvchi muhim manbaa bo‘lib hisoblanadi.Yuqorida qayd etilgan ilmiy adabiyotlarning tahlili sharhi tanlangan mavzuning qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Darhaqiqat umumiy jismoniy tayyorgarlik yosh gandbolchilarni tayyorlashda eng muhim poydevor sifatida sport mahoratini samarali shakllanishida beqiyos omil bo‘lib hisoblanadi.Shu bilan birga ilmiy ma’lumotlarning tahliliga ko‘ra har qanday jismoniy tayyorgarlik jarayoni ham jismoniy sifatlarni samarali rivojlanishiga olib kelavermaydi va texnik taktik mahoratni shakllanishiga ijobiy ta’sir eta olmasligi mumkin. Aksincha, aksariyat hollarda sport mahoratiga salbiy ta’sir etish ham ehtimoldan holi emas.Binobarin o‘quv trenirovka jarayonida jismoniy tayyorgarlik mashqlarini qo‘llash har bir gandbolchining yoshi, gandbol sport o‘yinining xususiyati va sportchining malakasi hamda nasliy imkoniyatlarini e’tiborga olishni taqozo etadi.Shuning uchun yosh gandbolchilarni tayyorlash masalasi sport trenirovkasi jarayonida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar majmuasidan iborat bo‘lishga undaydi.Malakali gandbolchilarni tayyorlashda va texnik mahoratini shakllantirishda egiluvchanlik sifati ham zarur omillardan biridir.Gandbolda qo‘llaniladigan usullar, (texnik) malakalarni sportchi o‘z egiluvchanligida shakllantirib boradi. Lekin, buni o‘zi ushbu sifatni to‘laqonli rivojlantirish imkoniyatini bermaydi. Bu sifatni samarali takomillashtirish uchun mushak, pay, bo‘g‘imlarni cho‘zish, egish, yoyish, siqish, burash kabi maxsus mashqlarni sekin asta muntazam qo‘llash kerak bo‘ladi.Umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalari gandbolchining har tamonlama rivojlanishiga yordam beradigan va uning uchun zarur bo‘lgan maxsus sifatlarni takomillashtirishga ta’sir etuvchi sportchining boshqa faoliyat turiga o‘tishda, hamda hayoti muhim ko‘nikma va malakalarni egallashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladigan sifatlar kompleksini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Gandbolchilar uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalarini tanlashda quyidagi muhim qoidalarni hisobga olish lozim.

-Mashqlar gandbolchi asab muskullarining zo‘r bera olish xarakteriga va organizmdagi barcha sistemalarning ish rejmiga yaqin bo‘lishi kerak. Mashqlar maxsus sifatlarni rivojlantirishga yordam berishi lozim.
Masalan gandbol o‘yinida ba’zi bir akrobatik mashqlar sherigi bilan qarshilik ko‘rsatilgan holda juft-juft bo‘lib bajariladigan mashqlar va hokazolar.
-Mashqlar harakat koordinastiyasini rivojlantirishi hamda sportchi faoliyatini o‘zgaruvchi vaziyatlardagi xilma-xil harakat amallari bilan boyitish kerak.
-Mashqlar sportchining boshqa harakat va markaziy nerv sistemasining faoliyatini tezroq tiklanishiga xizmat qilishi kerak. Bularga sayrlar, krosslar, paxodlar, harakatli o‘yinlar bamaylixotir suzib yurish va ochiq havoda o‘zgacha sharoitda o‘tkaziladigan boshqa o‘yinlar kiradi.

**Foydalangan adabiyotlar**

1.Pavlov Sh, Abduraxmanov F, Akramov J. Gandbol -Toshkent: 2005-yil.
2.Pavlov Sh, Abduraxmanov F, Azizova R. Gandbol -Toshkent: 2007-yil.
3.Pavlov Sh, Abdurahmonov F, Akromov J. Gandbol Jismoniy tarbiya instituti va jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: 2005-yil.
4.Pavlov Sh.K, Abdalimov O.X, Yusupova Z.E. Gandbol O‘zDJTI nashriyot-matbuot bo‘limi, 2014-yil.
5.Qosimova R.A., Do‘sanov U.T. Qo‘l to‘pi (gandbol)va uni o‘qitish uslubiyati-Samarqand: 2011-yil.

## MAKTAB DIREKTORLARINING FAOLIYAT USLUBINI BOSHQARISH VA KORREKSIYALASHNING MOHIYATI

**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**
**Maktabgacha ta’lim fakulteti o‘quv**
**ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari**
**p.f.f.d (PhD) Kazimov Jamshid Shamshidinovich**
**Qo‘qon davlat pedagogika instituti**
**Ta’lim muasassalarini boshqaruvi yo‘nalishi**
**2-bosqich magistranti**
**Roziqova Muyassarxon Muhammadjon qizi**

**Annotatsiya:** Quyidagi maqolada amalda mavjud boshqaruv uslublari va ularning sifat-samaradorlik ko‘rsatkichlari ustida izlanish olib borilgan. Shuningdek ushbu boshqaruv uslublarining takomillashtirish texnologiyalari bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv, uslub, texnologiya, yetakchilik, rahbar, tizim, avtoritar, demokratik, liberal.

**Аннотация:** В данной статье проведено исследование существующих методов управления и показателей их качества и эффективности. Также описаны технологии совершенствования этих методов управления.

**Ключевые слова:** менеджмент, стиль, технология, лидерство, лидер, система, авторитарная, демократическая, либеральная.

**Abstract:** In the following article, research was conducted on the existing management methods and their quality and efficiency indicators. Technologies for improvement of these management methods are also described.

**Key words:** management, style, technology, leadership, leader, system, authoritarian, democratic, liberal.

Boshqaruv tushunchasi tor ma’noda biror-bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo‘lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarining foyda keltirishi, samara berishi, faoliyat yo‘nalishini to‘g‘ri taminlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayonning borishiga bog‘liq bo‘ladi. Boshqaruv nafaqat korxona doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni o‘z tanlagan yo‘li maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli, barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim ta’sir etuvchi kuch

hisoblanadi[53]. Boshqaruvni jamiyatning iqtisodiy negizi bilan bog‘lab, shu bilan birga boshqaruvning ikki tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy tomonlarini hisobga olgan holda o‘rganish lozim. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv aniq iste’mol qiymatini olish uchun mahsulot tayyorlashda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv mavjud ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, boshqaruv maqsadlarini belgilaydi. Tashkiliy-texnikaviy boshqaruv mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi uchun sharoit yaratishga imkon beruvchi faoliyat turidan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning maqsadi ishlovchilar samarali mehnat qilishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy himoya qilishning ishonchli umumdavlat tizimini shakllantirish, bandlikni ta’minlash va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qo‘llab -quvvatlashdan iboratdir. Menejment – inglizcha so‘z bo‘lib, ingliz tilining Oksford lug‘atida berilgan tavsifga binoan u:Boshqaruv hokimiyati va san’ati;Resurslami boshqarish bo‘yicha alohida mohirlik va ma’muriy ko‘nikmalar, degan ma’nolarni anglatadi. Boshqacha aytganda, menejment – bu boshqaruv, ya’ni resurslarni, odamlarni boshqarish, samarali faoliyat olib borish va foyda olishni bilish, foyda miqdorini ko‘paytirish jarayonidir.

Shu nuqtai nazardan boshqaruv – bu o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir.

Menejment – bu bozor iqtisodiyoti rivojlanishi talablariga to‘liq javob beradigan boshqarishning bir turidir. Boshqarish ishlab chiqarish va jamiyat rivojlanishidagi murakkab tadbiri sifatida ko‘p omillar bilan xarakterlanadi. Farq texnologik, ijtimoiy-psixologik va boshqa rivojlanish darajalari bilan ham aniqlanadi. Boshqarish kichik va yirik biznesda ham farqlanadi. Menejment ko‘p qirralidir: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy, falsafiy, psixologik, texnik, tashkiliy. Insonlar faoliyatini boshqarish professional-menejerdan yuksak san’atni, mahoratni, u tomonidan qo‘llaniladigan usul va uslublaming keng to‘plamini, boshqarish va tadbirkorlik malakalarini talab etadi. Har qanday tashkilot, korxona, muassasa, firma, korporatsiya va kompaniya tirik organizmdir.[54] Bugun ta’lim-tarbiya masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Kadrlar tayyorlash bo‘yicha qabul qilingan Milliy dasturning mazmun-mohiyati ham aynan ana shu maqsadga yo‘naltirilgan. Unda shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarishning bir-biri bilan uzviy hamkorligi, o‘zaro aloqadorligi aks etgan. Hozirgi kunga kelib davlat idoralari, biznes tarmoqlari va ijtimoiy sohalami boshqarish bo‘g‘inlarida zamon talabiga javob beradigan boshqaruv kadrlarini tayyorlash va tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kun, boshqaruv kadrlaridan zamonaviy rahbar (menejer)ga xos bo‘lmagan salbiy sifatlardan qutulishni, ijobiy fazilatlarni o‘zida shakllantirishni talab etmoqda. Ammo shunisi achinarliki, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashda hali-hanuz ayrim boshqaruv kadrlari zamonaviy menejment va marketing asoslari, biznesni baholash, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilm-fan yutuqlarini muntazam kuzatib borish ko‘nikmalarini yetarli darajada egallay olmayaptilar. Jahon tajribasidan ma’lumki, rahbar (menejer)ning bilim saviyasi qanchalik past bo‘lsa, kasbiy mahorati ham shunchalik past bo‘ladi. Aksincha, rahbar (menejer)ning intellektual salohiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, uning ma’naviy-axloqiy jihatlari, tashkilotchilik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatlari ham yuqori bo‘ladi. Mazkur sohada yana bir muhim va dolzarb masala bu boshqarish faoliyatida qobiliyatli, iste’dodli va iqtidorli yoshlar bilan ishlash masalasidir. Xalqimiz bugun yoshlarga ishonmoqda, ularga umid ko‘zi bilan qarayapti. Yoshlar bugun o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ishonchli va umidli ko‘prik vazifasini bajarishi kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatiga layoqati bor yoshlami izlab topish, ular bilan muntazam ishlash va kelajak uchun tayyorlash bugunning eng dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda.[55]**Menejment fanining tahlil usullari:**

**Tizimli yondashuv**

Boshqariluvchi obyekt yaxlit tizim tarzida olib qaraladi. Bu yondashuv turlicha bo‘lishi mumkin:
tizimli-kompleks yondashuv;
tizimli-funksional yondashuv;

[53] Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqaruv nazariyasi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2012
[54] Ziyavitdinova N.M., O‘rinov Y.M., Xayitov Sh.N. Menejment. O‘quv qo‘llanma. - T.: “Tafakkur-Bo’stoni”, 2012-yil, 312 bet.
[55] To‘xtaboyev A. Menejer fazilatlari. O'quv qo'l. / A. To'xtaboyev. - Toshkent: «ABU MATBIJOT-KONSALT», 2008. - 128 b.

tizimli-tarkibiy yondashuv;
tizimli-kommunikatsion yondashuv;
**Kompleks yondashuv**
Boshqariluvchi obyekt boshqa obyektlar bilan o‘zaro bog‘lanishda va aloqadorlikda qaraladi
**Tarkibiy yondashuv**
Boshqariluvchi obyekt tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganiladi
**Vaziyatli yondashuv**
Boshqariluvchi obyektning konkret sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma’qul uslubi qo‘llaniladi
**Integratsion yondashuv**
Boshqariluvchi obyekt yuqoridagi uslublar (vaziyatli, kompleks, tarkibiy yondashuv) bilan birgalikda boshqariladi
**Modellashtirish usuli**
Boshqariluvchi obyekt bo‘yicha turli sxema, grafik va chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi
**Iqtisodiy-matematik yondashuv**
Optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va hisoblash mashinalarini keng miqyosda qo‘llash
**Kuzatish usuli**
Boshqariluvchi obyekt to‘g‘risidagi ma’lurnntlarni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to‘plash usuli
**Eksperiment usuli**
Boshqaruv jarayonida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy usullarni qo‘llash
**Sotsiologik kuzatuv usuli**
Boshqarish maqsadida turli so‘rovnomalar, suhbatlar, testlar, infratuzilmaviy tahlillar o‘tkazish[56]

## UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARDA SINF TASHQARI GANDBOL TO‘GARAKNI TASHKIL ETISH.

**NDPI, Jismoniy madaniyat fakulteti dots X.B.Suyarov**
**Jismoniy madaniya yo‘nalishi. Sport faoliyat**
**(Kurash) Sh.F.Bozorova - NDPI**

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada Yosh gandbolchilarni o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, sportga qiziqishlarini orttirish, ularni chaqqonlikka, o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga erishishga, bir-birlari bilan hamjihat va do‘stona munosabatda bo‘lishga, shuningdek, gandbol bo‘yicha bo‘lajak sportchini tayyorlash maqsadida to‘garaklar tashkil qilinadixulosalar ishlab chiqilgan.
**Kalit so‘zlar:** gandbol jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining o‘quvchilarga gandbol o‘yinining texnika va taktikasini, to‘pni olib yurishni, uzatishni o‘rgatishda hamda o‘yin qoidalarini tushuntirishda amaliy yordam bera oladi.
**Annotation:** In this proverb, clubs are organized in order to properly organize young handball players ' leisure time, to gain their interest in sports, to make them agile, to achieve the goals they set for themselves, to be in harmony and friendly with each other, as well as to prepare the future athlete in handball, clubs have been developed.
**Keywords**: handball is able to provide practical assistance to physical education teachers in teaching students the techniques and tactics of the game of handball, the carrying of the ball, the transmission, and explaining the rules of the game.
**Аннотация:** В данной статье будут организованы кружки юных гандболистов с целью правильной организации досуга воспитанников, формирования у них интереса к спорту, воспитания их в ловкости, достижении поставленных целей, в гармонии и дружбе друг с другом, а также для подготовки будущего спортсмена по гандболу, выработаны выводы.

[56] Ziyavitdinova N.M., O‘rinov Y.M., Xayitov Sh.N. Menejment. “Tafakkur-Bo'stoni” MChJ. Toshkent 2016. 9-13 betlar.

**Ключевые слова**: гандбол может помочь учителям физической культуры на практике научить студентов технике и тактике игры в гандбол, владению мячом, передаче, а также объяснить правила игры..

O'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, sportga qiziqishlarini orttirish, ularni chaqqonlikka, o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga erishishga, bir-birlari bilan hamjihat va do'stona munosabatda bo'lishga, shuningdek, gandbol bo'yicha bo'lajak sportchini tayyorlash maqsadida to'garaklar tashkil qilinadi. Qo'lingizdagi ushbu tavsiyada "gandbol" sport turi bo'yicha darsdan tashqari to'garaklarni tashkil etish yo'llari, rejalashtirish va amalga oshirish usullari, mavzuiy-taqvim reja va dasturi, shuningdek, gandbol to'garagiga tanlab olish yo'llari, to'garak a'zolari erishayotgan yutuqlarni baholash mezonlari, ayrim mavzular bo'yicha mashg'ulotlar ishlanmalari namuna sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu tavsiya jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'quvchilarga gandbol o'yinining texnika vataktikasini, to'pni olib yurishni, uzatishni o'rgatishda hamda o'yin qoidalarini tushuntirishda amaliy yordam bera oladi. Metodik tavsiya maktab jismoniy tarbiya o'qituvchilari, gandbol mutaxassislari, murabbiylar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan.

Albatta, metodik tavsiya kamchiliklardan holi bo'lmasligi mumkin. Shu sababli, mualliflar sizlarning fikr-mulohazalaringizni minatdorchilik bilan qabul qiladi.

**Gandbol** – qiziqarli, maroqli va jo'shqinlik o'yini. Gandbol bilan shug'ullanish organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, ichki organlarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi, modda almashinuvini yaxshilaydi va harakat kordinatsiyasini rivojlantiradi.

**Gandbol to'garagi** - o'quvchilarni muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishiga jalb qiladi, ularni "Alpomish" va "Barchinoy" nazorat meyorlarini topshirishga, sport razryadlarini bajarishga tayyorlaydi, organizmni chiniqtirishga, jismoniy to'g'ri rivojlanishga ko'maklashadi. Yosh avlodni Vatanimiz sha'nini himoya qilish, intizomli, botir, irodali bo'lish ruhida tarbiyalaydi.

**To'garak rahbarining majburiyati** - maktabda o'quvchilarning intizomi, mashg'ulotlarni qay darajada o'zlashtirishini kuzatishi, zaruriyat tug'ilganda sinf rahbari va ota-onalar bilan uchrashib suhbatlashishi lozim.

**Dasturning barcha o'quv materiali** - guruhlarni to'ldirishda yoshiga mos ravishda taqsimlanadi, nazariy bilimlarini, amaliy malaka va harakatlarning sekin-asta hamda ketma-ketligi nazarda tutiladi.

Har bir yosh guruhida dastur materialini o'rgatish ikki yilga mo'ljallangan.

**Gandbol mashg'ulotida shug'ullanish uchun**-o'quv guruhi shug'ullanuvchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi va sport darajasi, jinsi hamda yoshi hisobga olinishi zarur.

**Boshlang'ich tayyorlov guruhi (11-12 yosh), o'smirlar (13-14 yosh), kichik o'spirin yoshlar (15-16 yosh).**

Bunda barcha bolalar tibbiy ko'rikdan o'tishi va tibbiyot xodimining xulosasini olishi lozim. Ayrim holatlarda kichik guruhga 11 yoshga yetmagan, ya'ni jismoniy tomondan yaxshi rivojlangan va mashg'ulotga tibbiy xodim tomonidan ruxsat etilgan o'quvchilar ham qabul qilinadi. O'g'il va qiz bolalar uchun alohida o'quv guruhlari tashkil qilinadi. Boshlang'ich tayyorlov guruhi va o'smirlar guruhlarida shug'ullanuvchilarning soni 20 nafar, o'smirlar guruhida 16 nafar o'quvchi bo'ladi. Har bir guruhga sardor saylanadi. Boshlang'ich tayyorlov guruhi va o'smirlar guruhi uchun dastur 136 soat, kichik o'spirinlar guruhi uchun 216 soatga mo'ljallanadi. Mashg'ulot haftasiga 2 marta o'tkaziladi. Uning davom etishi kichik va o'smirlar guruhida 2 soat, kichik yoshlar guruhida 2,5-3 soat bo'ladi. Har bir yosh guruhi o'z to'garagining umumiy vazifalari bilan bir qatorda, o'ziga xos xususiyatiga egadir.

***Boshlang'ich tayyorlov guruhi*** – salomatlikni mustahkamlaydi, tezlikni, chaqqonlikni, egiluvchanlikni rivojlantiradi, gandbol o'yinining texnika va taktika asoslarini ega bo'ladi.

***O'smirlar guruhi*** **-s**alomatlikni mustahkamlaydi, tezlikni, chaqqonlikni, kuchni rivojlantiradi, gandbol o'yinida ko'proq murakkab texnik usullarni va taktik harakatlarni o'rganish hamda jamoada o'yin joyini tanlash, uni o'yinda qo'llay bilish usullarini egallaydi.

***Kichik o'spirinlar guruhi*** - mashg'ulot yuklamasining hajmini oshirish yo'li bilan har tomonlama jismoniy rivojlantirish, o'yin texnikasi va taktikasini takomillashtirish, musobaqalarda qatnashish,

jamoatchi hakam va instruktorlarni tayyorlash, o‘quv mashg‘ulotining asosiy uslubiyoti bilan tanishtirish kabi malakalarni egallaydi.

Amaliy mashg‘ulot uch qismga bo‘linadi: **Tayyorlov, asosiy va yakuniy**.

***Tayyorlov qismi*** - gruhni safga turg‘izish, axborot berish, vazifani tushuntirish, saf mashqlari, mushak va bo‘g‘inning alohida qismlari uchun mashqlardan tashkil topadi.

***Asosiy qismda*** **-** harakat malakalari shakllantiriladi, taktik harakat va o‘yin usullarining texnikasi takomillashtiriladi, ikki tomonlama o‘quv o‘yinlar o‘tkaziladi.

***Yakuniy qismda*** – nafas rostlovchi mashqlar beriladi, mashg‘ulotga yakun yasaladi va o‘tkazilgan o‘quv mashg‘uloti tahlil qilinadi.

Gandbol bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotida - turli xildagi harakatli o‘yinlar, estafetalar, musobaqa elementlari kiritilishini va ularni kengroq qo‘llash tavsiya qilinadi.

Har bir o‘yin oldidan murabbiy uni olib borish uchun ko‘rsatma berishi kerak, o‘yindan so‘ng, o‘yin muhokama qilinadi.

O‘yinga ko‘rsatma oldindan berilishi kerak, chunki o‘yinchilar o‘yin rejasi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. O‘ynalgan o‘yinning muhokama yoki tahlilini mashg‘ulotdan oldin o‘tkazish tavsiya qilinadi.

**Gandbol to‘garagida** - o‘quv yili tugagandan keyin jismoniy va texnik tayyorgarlik bo‘yicha nazorat tekshiruvi o‘tkaziladi.

**1. Boshlang‘ich tayyorlov guruhi mashg‘ulotlarining namunaviy mavzuviy rejasi**

| № | MAVZU | Ajratilgan vaqt (soat) | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **Jami** | **Nazariy mashg‘ulot** | **Amaliy mashg‘ulot** |
| 1. | O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport haqida ma’lumot | 1 | 1 | - |
| 2. | O‘zbekistonda gandbolning rivojlanishi tarixi. | 1 | 1 | - |
| 3. | Gigiyenik bilim va malaka. Chiniqish. | 1 | 1 | - |
| 4. | Gandbol o‘yin qoidalari | 2 | 2 | - |
| 5. | O‘quv mashg‘ulotini o‘tish joyi, asbob-anjom va jihozlar. | 1 | 1 | - |
| | **Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik.** | **59** | **1** | **58** |
| 1. | Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati. “Alpomish” va “Barchinoy” nazorat me’yorlarini topshirishga tayyorlash. | 3 | 1 | 2 |
| 2. | Amaliy mashg‘ulot. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar. Ikki kishi bo‘lib qarshilik ko‘rsatish, kuch, tortish, cho‘zish bilan bajariladigan mashqlar. | 4 | - | 4 |
| 3. | Saf mashqlari. Turgan joyda va harakatda bajariladigan saf mashqlari. Ikki, uch, to‘rt qatorga qayta saflanishlar va h.o. | 2 | - | 2 |
| 4. | Gimnastika mashqlarini o‘rgatish. Qo‘l, yelka kamari, bo‘yin, oyoq mushaklarini rivojlantirish uchun bajariladigan mashqlar. | 4 | - | 4 |
| 5. | Akrobatika mashqlarini o‘rgatish. | 6 | - | 6 |
| 6. | Yengil atletika mashqlarini o‘rgatish. | 6 | - | 6 |
| 7. | Harakatli o‘yinlar va estafetalar. To‘p bilan o‘ynaladigan o‘yinlar. | 6 | - | 6 |
| 8. | Maxsus mashqlarni bajarish. Gandbol o‘yin elementlaridan iborat bo‘lgan mashqlar. | 4 | - | 4 |
| 9. | Tezlikni rivojlantirish uchun bajariladigan mashqlar. | 6 | - | 6 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10. | Epchillikni rivojlantirish uchun bajariladigan mashqlar. | 6 | - | 6 |
| 11. | To‘p bilan va to‘psiz bajariladigan aralash estafetalar. | 6 | - | 6 |
| 12. | Sport o‘yinlari; basketbol, voleybol, futbol, gandbol o‘yinlari soddalashtirilgan qoida bo‘yicha o‘ynaladi. | 6 | - | 6 |
| **Gandbol o‘yini texnikasi.** | | **49** | **1** | **48** |
| 1. | Gandbol o‘yini texnik usullarining tasnifi va terminlari. Darvozabon va o‘yinchilar tomonidan bajariladigan texnik usullarni tahlil qilish. | 4 | 1 | 3 |
| 2. | Amaliy mashg‘ulotlar. Gandbol o‘yinchisining turish holati. Har-xil usulda siljish. Siltanish bilan chiqish. | 6 | - | 6 |
| 3. | Yerga urilib, sapchib qaytgandan keyin turgan joyida va harakatda har-xil balandlikda uchib kelayotgan to‘pni bir va ikki qo‘llab ilib olish. | 6 | - | 6 |
| 4. | To‘p bilan o‘tkaziladigan harakatli o‘yinlar. | 7 | - | 7 |
| 5. | To‘pni yerga urib olib yurishni o‘rgatish. | 7 | - | 7 |
| 6. | To‘pni ilish va uzatishni o‘rgatish. | 6 | - | 6 |
| 7. | Aldamchi harakatlar (fintlar). | 7 | - | 7 |
| 8. | Darvozabon o‘yin texnikasi. Reaksiyani ishlab chiqish uchun har-xil mashqlar bajarish. Darvozabonning turish holati. Darvozadan sakrab, yonlama qadam tashlab harakatlanish. | 6 | - | 6 |
| **Gandbol o‘yini taktikasi.** | | **18** | **1** | **17** |
| 1. | Taktik usullar va kombinatsiyalar haqida tushuncha. O‘yinning alohida bo‘limlari ta’rifi. Guruh o‘yini haqida tushuncha. | 4 | 1 | 3 |
| 2. | Amaliy mashg‘ulotlar. Hujum taktikasi. Yakka (individual) harakatlanish, joyni tanlash, himoyachilardan ozod qilish, darvozaga to‘p otish, o‘zaro harakatlanish uchun to‘pni uzatish. Aldashlar, ikkita, uchta hujumchilar orasida guruh bo‘lib harakatlanish. | 6 | - | 6 |
| 3. | Himoya taktikasi. “Zonali” himoya: 6:0, 5:1, 4:2, 3:3. Aralash himoya: 5+1, 4+2 tizimlarini o‘rgatish va ikki tomonlama o‘quv o‘yinida ularni qo‘llash. Himoya taktikasini o‘rganish. “Alpomish” va “Barchinoy” nazorat me’yorlarini bajarish. | 6 | - | 6 |
| **4.** | **Gandbol bo‘yicha nazorat o‘yinlari va musobaqalar.** | **Musobaqa rejasi asosida** | | |
| 5. | O‘yin texnikasi va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha nazorat mashqlarini bajarish. | 2 | - | 2 |
| | **Jami** | **136** | **9** | **127** |

**Foydalangan adabiyotlar**


**1.** Pavlov Sh, Abduraxmanov F, Akramov J. Gandbol -Toshkent: 2005-yil.

**2.** Pavlov Sh, Abduraxmanov F, Azizova R. Gandbol -Toshkent: 2007-yil.

**3.** Pavlov Sh, Abdurahmonov F, Akromov J. Gandbol Jismoniy tarbiya instituti va jismoniy tarbiya fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: 2005-yil.

**4.** Pavlov Sh.K, Abdalimov O.X, Yusupova *Z.E.* Gandbol O‘zDJTI nashriyot-matbuot bo‘limi, 2014-yil.

**5.** Qosimova R.A., Do‘sanov U.T. Qo‘l to‘pi (gandbol)va uni o‘qitish uslubiyati-Samarqand: 2011-yil.

# ELASTIK TEKIS POLOSALARNING ERKIN TEBRANISHLARI.

**Nematov Bahron**
**Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti**
**Ismoyilov Diyorbek**
**Navoiy davlat pedagogika instituti o'qituvchisi**
**Nematova Moxinur**
**Navoiy shaxar kasb-hunar maktabi o'qituvchisi**
**Maxammatova Ibogul Rashidovna**
**Ergasheva Dilyora Elmurod qizi**
**Saidova Mehrangiz Sirojidin qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**

Yer osti, yer usti inshootlarining qurilishi yer(tuproq, muhit) mexanikasini o'rganishni taqozo etadi. Muhit va undagi inshoot mexanik sistema deb qaraladi. Ular bir xil mexanik (elastik) xossalarga ega bo'lganda bir jinsli sistema hosil bo'ladi, har xil mexanik xossalarga ega bo'lganda bir jinsli bo'lmagan sistema hosil bo'ladi. Maqolada elastik muhit va tekis polosalardan iborat mexanik sistemaning erkin tebranishlari o'rganiladi.

$u_n, v_n -$ muhit va qatlamning *x,y* o'qlar bo'ylab ko'chishlari(n=1;2.). Tekis kuchlanganlik holatida $u_n$ ,$v_n$ *lar z ga* bog'liq bo'lmaydi.

Tekis kuclanganlik holatida deformatsiya bilan kuchlanish orasida bog'lanish, Guk qonuni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\sigma_{ij} \cong \tilde{\lambda}_n \theta \delta_{ij} + 2\tilde{\mu}_n \varepsilon_{ij};\quad \text{n,i,j =1,2 ,(1)}$$

$\theta = \varepsilon_{11} + \varepsilon_{22} -$ hajmiy deformatsiya, $\delta_{ij}$ – Kronekker simvoli,

Elastik sistemalarda $\lambda n, \mu n$–Lyame operatorlari Lyame koeffitsientlariga aylanadi:

$$\lambda_n = \frac{E_n \nu_n}{(1+\nu_n)(1-2\nu_n)};\qquad \mu_n = \frac{E_n}{2(1+\nu_n)};$$

- Lyame koeffitsientlari, $\nu_n -$ Puasson koeffitsiyenti;

$\sigma_{ij}, \varepsilon_{ij}$ – yarim fazo va qatlamning kuchlanish va deformatsiya tenzori komponentlari.

(1) dan kuchlanish ifodasini kuchlanishlarga nisbatan harakat tenglamalariga qo'yib quyidagidifferensial tenglamalar sistemasi olinadi[ 1]:

$$\left.\begin{aligned}
\mu_j\left[\frac{\partial^2 u_j}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 u_j}{\partial y^2}\right] + (\lambda_j + \mu_j)\frac{\partial}{\partial x}\left[\frac{\partial u_j}{\partial x} + \frac{\partial v_j}{\partial y}\right] = \rho_j \frac{\partial^2 u_j}{\partial t^2} \\
\mu_j\left[\frac{\partial^2 v_j}{\partial x^2} + \frac{\partial^2 v_j}{\partial y^2}\right] + (\lambda_j + \mu_j)\frac{\partial}{\partial y}\left[\frac{\partial u_j}{\partial x} + \frac{\partial v_j}{\partial y}\right] = \rho_j \frac{\partial^2 v_j}{\partial t^2}
\end{aligned}\right\} (3)$$

$\rho_j$ – qatllam va muhit zichligi.

(3) differensial tenglamalar sistemasi quyidagi chegaraviy shartlarda yechiladi.

*y=0;va y=h*; da $\sigma_{yy} = 0;\quad \sigma_{yx} = 0;\quad (4)$

Muhit va qatlam chegarasida quyidagi chegaraviy shartlar qo'yiladi.

Bikr(жесткий) kontakt:

$$\sigma_{yy}^{\ j} = \sigma_{yy}^{\ j+1};\ \sigma_{xy}^{\ j} = \sigma_{xy}^{\ j+1};\ u_n^{\ j} = u_n^{\ j+1};\ \vartheta_n^{\ j} = \vartheta_n^{\ j+1}\quad (5)$$

Shundayqilib, bikr kontaktda masalani noma'lumlar uchun yuqoridagi (4,5) cegaraviy shartlarda yechish mumkin.

Maqolada masala (4,5) shartlarda yechish qaraladi.

Masalaning yechimini elastiklik nazariyasining yarim teskari usulini qo‘llab, quyidagi ko‘rinishda qidiramiz.

$$u_n = U_n \cdot \ell^{ik(x-ct)}; \quad (6)$$

$$\vartheta_n = V_n \cdot \ell^{ik(x-ct)};$$

$$U_n = A_n \cdot \ell^{\eta_n y}; \quad (7)$$

$$V_n = B_n \cdot \ell^{\eta_n y};$$

$U_n, V_n$ –amplitudani ifodalovchi vektor –funktsiya,

$k$- $k_R+ik_I$ - to‘lqin soni,

$c=c_R+ic_I$ – kompleks fazaviy tezlik,

$\omega = kc$ – kompleks chastota,

$\eta_n$ – o‘zgarmas son.

$k_I$,$c_I$ – mavhum qismlar dissipativ jarayonlarning intensivligini xarakterlaydi.

(6) tanlangan yechimlarni (3) bir jinsli xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasiga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz.

$$\left.\begin{aligned} &\mu_n\left(U_n'' - k^2 U_n\right) + (\lambda_n + \mu_n) ik\left(ikU_n + V_n'\right) + \rho_n k^2 c^2 U_n = 0; \\ &\mu_n\left(V_n'' - k^2 V\right) + (\lambda_n + \mu_n)\cdot\left(ikU_n' + V_n''\right) + \rho_j k^2 c^2 V_n = 0; \end{aligned}\right\} (8)$$

Natijada xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi oddiy differensial tenglamalar sistemasiga keladi. (8) ga (7) yechimlarni qo‘yamiz, $A_n$ ,$B_n$ ga nisbatan hosil bo‘lgan bir jinsli algebraik tenglamalar sistemasi noldan farqli yechimga ega bo‘lish shartidan quyidagi tenglamani hosil qilamiz.

$$\begin{vmatrix} C_{Tn}^2(\eta_n^2 - k^2) - (C_{Ln}^2 - C_{Tn}^2)k^2 + c^2k^2; \cdots\cdots i(C_{Ln}^2 - C_{Tn}^2)k\eta_n; \\ i(C_{Ln}^2 - C_{Tn}^2)k\eta_n; \ldots\cdots C_{Tj}^2(\eta_n^2 - k^2) + (C_{Ln}^2 - C_{Tn}^2)\eta_n^2 + c^2k^2; \end{vmatrix} = 0 (9)$$

(9)da: $C_{Ln}^2$ va $C_{Tn}^2$ to‘lqin tezliklari;

$$C_{Ln}^2 = \frac{\lambda_n + 2\mu_n}{\rho_n}; \; C_{Tn}^2 = \frac{\mu_n}{\rho_n}; (10)$$

Agar $R_1 = R_2 = 0$; bo‘lsa, muhit va qatlam elastik bo‘lib, $C_{Ln}^2$ va $C_{Tn}^2$ lar siqilish va siljish to‘lqin tezliklarini ifodalaydi.

(9) ikkinchi tartibli determinant ko‘rinishidagi tenglama 4-tartibli tenglama bo‘lib, to‘rtta ildizga ega.

$$(\eta_n)_{1,2} = \pm k\sqrt{1 - \frac{c^2}{C_{Ln}^2}}; \quad (\eta_n)_{3,4} = \pm k\sqrt{1 - \frac{c^2}{C_{Tn}^2}}; (11)$$

Shu sbabli (9) tenglamaning (7) yechimarini(12)

$$U_n = \sum_{i=1}^{4} A_{ni} \cdot \ell^{\eta_{ni} y};$$

$$V_n = \sum_{i=1}^{4} B_{ni} \cdot \ell^{\eta_{ni} y};$$

ko‘rinishida qidiramiz. Oxirgi yechimlarni (8) ga qo‘yib shakl almashtirishlar bajargandan keyin hosil bo‘lgan dispersiya tenglamasi quyidagicha determinant ko‘rinishida bo‘ladi:

$[C] = 0$; (13)

(13) ning elementlari [2] da keltirilgan.

(13) ning yechimlari Myuller usulida yechiladi.Myuller usulining qulayligi shundaki, chap tomondagi determinant yoyib o‘tirilmaydi. Hosil bo‘lgan transsendent tenglamaning uch nuqtadagi interpolyassion funksilari tuziladi. Funksiyalarning shu nuqtalar atrofidagi nollari aniqlanadi.

Elastik bir jinsli sistema uchun kompleks chatota qiymatlari aniqlandi.Kompleks chatota qiymatlari jips(jestkiy) kontaktda 1-grafik a)da keltirilgan.

Kompleks chastotaning mavhum qismi dempferlash koefisientini baholab, haqiqiy va mavhum qismi (dempferlash koefisienti) to‘lqin soniga nisbatan monoton o‘zgaradi.

Grafiklarni taqqoslab xulosa qilih mumkinki, strukturaviy bir jinsli sistemalarda chastotalar bir xil o‘zgarib, 5% gacha farq qiladi. Dempferlash koefisienti nomonoton o‘zgaradi. Mavhum qism (dempferlash koefisienti) $\xi_j$ ning ma’lum qiymatida minimal qiymatga erishadi.

$$\delta = \min(-\omega_{Ik}); \quad k=1,2,3,...N ,(16)$$

$\delta$ sistemaning dempferlash xossasini to‘liq ifodalaydi. Strukturaviy bir jinsli sistemalarda $\delta$ (uni global dempferlash koeffisienti deyiladi) moduli bo‘yicha birinchi kompleks chastota mavhum qismi bilan to‘liq aniqlanadi. Bunda kompleks chastotaning haqiqiy qismlari bir-biriga yaqin bo‘ladi.




1-grafik. Kompleks chastotaning to‘lqin soniga nisbatan o‘zgarish grafigi(jips kontakt).

a) Dissipativ bir jinsli Sistema

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Вреховских Л.И. Волны в слоистых средах. Выс. Шк.1980.
2. Safarov I.I., Ismatov X.B., Nematov B. Vzamodeystviya ploskix voln v ploskix i silindricheskix sistemax./ Dep. VINITI № 504-92. 14.04.92. 35st.
3. Chistyakov Ya.V., Makhnin A.A., Gurileva N.L., Volodin N.I. Study of the process of dust collection in centrifugal inertial apparatuses. Ecology and Industry of Russia. 2013. No.11.


## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA FIZIKA FANINI O‘QITISH


**Xushvaqtov Bekmurod Normurodovich**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Fizika va astronomiya kafedrasi dotsenti,**
**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Fizika va astronomiya kafedrasi 4-kurs talabalari**
**M.N. Kubayev, H.Sh.Toshmatov, R.N. Soyipov**



**Annotation**: Provides information about teaching physics based on pedagogical technologies



**Key words:** Wave, corpuscular, energy, power, clarity, brightness, illumination.


Ta’lim jarayonida ta’lim-tarbiya beruvchi va ta’lim – tarbiya oluvchi tomonlar faoliyatlarining maqsadga yo’naltirilgan va uyg‘unlashgan holda tashkil etilishi, predmet bo’yicha bilimlarni o’zlashtirilishi hamda ularda zaruriy malaka va ko’nikmalarni shakllantirilishga qaratilganligi bilan muhim sanaladi. Ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchiga berilayotgan bilimlarning mohiyatini

hayotiy muhimligini ochib berilishida,jumladan,ulardafizika fanifaga ehtiyojni qiziqishtirishni shakllantirish yuzasidan motivatsiyani vujudga keltirishi, o’quv materialni yaxshi anglanishini ta’minlaydi. Har bir fizika o‘qituvchisi har bir o’quvchining bilimlarni qabul qilish xususiyatini va bilimlarni xotirasida saqlay olish qobiliyatini va shunga ko’ra to’plagan bilim, ko’nikma va malakalarining turi (nazariy bilim, ularni amaliyotga qo’llay olish, laboratoriya mashg‘ulotlarini mustaqil bajara olish darajasi va izlanuvchanligi) va hajmidan xabardor bo’lishi asosida o’qituvchi o’quvchiga topshiriq va ko’rsatmalarni berishni rejalashtiradi. Bu hol, o’z navbatida, o’quvchi va ta’lim beruvchi orasidagi muhim munosabatlarda o’zaro ishonch hamda ularda fanga bo’lgan qiziqish shakllanadi. Shuning uchun ham o’quvchi va o’qituvchi orasidagi hamkorlik didaktik tamoyillarni o’qitishni samarali kechishini ta’minlashda muhim omil sanaladi. Didaktikada bilimlarni o’zlashtirishni uchta darajaga ajratadi:
*birinchi daraja* – qabul qilish, tushunish va esda saqlab qolish;
*ikkinchi daraja* – olingan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo’llay olish;
*uchinchi daraja* – olingan bilimlarni notanish bo‘lgan yangi vaziyatlarda qo‘llay olish.
O‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirishni yuqori darajasiga chiqarish uchun bugungi kunda o‘qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanilmoqda.
Ma’lumki,bugungi kunda ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ko’pchiligi kelajakda ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat ko’rsatadilar.Shu bois, o’quv muassasalarida tayyorlanayotgan bo’lajak mutaxassislarning texnikaning asosi sanalmish fizikadan eksperimental mashg‘ulotlarida o‘quv jihozlaridan foydalanish bo’yicha (bilim, ko’nikma va malakalarini) kompetensiyalarni o‘zlashtirishi ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Pedagogik tadqiqotlarda ko’rsatishicha, berilgan bilim, ta’lim oluvchining o‘zlashtirishi uchun uni kamida 2-3 marotaba, fikriy faoliyatlari zaif bolalarda esa, undan ham ko’proq topshiriq va mashqlar berish orqali takrorlanishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Takrorlash natijasida ma’lum jarayon yuzasidan o‘quvchida shakllanayotgan ilmiy tushuncha va bilimlar miqdoriy o‘zgarishlardan o‘tib so‘ngra aniq sifatiy tus oladi va ma’lum ma’noda, o’quvchi ongida uyg‘onish jarayoni yuzaga keladi. Insonning bilish faoliyati jarayonida, uning sezgi organlari tomonidan axborotlar qayd qilinib, so’ngra u olingan axborot va ma’lumotlarni mushohada va tahlil qilish orqali solishtiradi. Oqibatda ular yaxshi anglanilish natijasida mustahkam bilimga aylanadi. Sinfdagi barcha o’quvchi bir xil fikrlay olmasligi bois, ularning o’zlashtira olish qobiliyatlari ham bir xil bo’lmasligi tabiiy. Binobarin, pedagog ta’lim oluvchining imkoniyatini hamda o’quvchining yoshiga mos fizilogik xususiyatlarni inobatga olgan holda o’quv jarayonini rejalashtiradi. Olib borilgan pedagogik tajribalarda sinfdagi o’quvchilarga eksperimental topshiriq berilganda, o‘quvchilarning ko’pchiligi, masalan, yorug‘lik oqimi tushunchasini tushuntirishda insonning ko‘z sezgisi orqali tushunish ko’nikmasi yaxshi shakllanmaganligini guvohi bo’lamiz. Buning sababi, o’qitishda o’quvchidagi erishilgan fundamental bilimlarni amaliyotga qo’llashda, asbob va o’quv jihozlardan amaliyotda foydalanish “kompetensiya” darajasiga olib chiqilmaganligidadir. Bolaga optika bo‘limiga taalluqli tushunchalarni tushuntirishdan oldin ko‘z sezgisini shakllantirish psixologik tushunchalarni anglatish zarurdir.
1. O’qitish jarayonida o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining o’zaro bog‘liqligi ta’minlangan tartibli va mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilgan o’qitish metodi joriy etiliishi, o’qitish jarayonining bosh vazifalaridan bo’lgan – ta’limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalariga qat’iy amal qilishni ta’minlaydi.
2. Ta’lim jarayonida bilishning nazariy va emperik metodlarining birligi prinsipi etib, o’qitishda fizikadan nazariy va amaliy bilimlarni optimal uyg‘unligi asosida tashkil etilgan barcha amaliy mashg‘ulotlar orqali o’quvchilar tomonidan erishilgan bilimlar, amaliy ko’nikmalar va malakalarning shakllanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.
3. O’quvchilarning o’z faoliyatlarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilish qobiliyatini faollashtirish, dars samaradorligini oshirish, mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlashga o’rgatish masalalari, yangi pedagogik qarashlar, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida amalga oshirishni taqazo etadi.

Optika bo‘limi elektromagnit to‘lqinlarning inson ko‘zi sezadigan qismini o‘rganuvchi bo‘lim ekanligi o‘quvchining psixologik xususiyatlari o‘ta ahamiyatli ekanligini ifoda etadi. Har bir fizika fani o‘qituvchisi o‘z fanini o‘qitishda shunday innovatsion metod va usullardan foydalanishi kerakki, o‘quvchi o‘rganayotgan fanini bilibgina qolmasdan, uni anglashi, tushunishi, amaliyotda qo‘llashi ahamiyatlidir. Pedagog ham psixologik jihatdan bilimga ega bo‘lishi o‘quvchining kamchiligi, iqtidori, uning ustun va past jihatlarini seza olishi ahamiyatlidir. Geometrik optika fanini o‘qitishda bolaning aqliy faoliyati geometrik bilimlarini hisobga olishi, agar yetarli bo‘lmasa, yetarlicha bilim olishini ta’minlash va yordam berish o‘qituvchining asosiy vazifasi va ko‘zlangan natijaga erishish imkoniyatini oshirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda dars berish jarayonida uchraydigan pedagogik psixologik muammolarga yechim topish o‘quvchi shaxsi, uning iqtidori va o‘zlashtirish darajasi, jamoadagi muhit o‘rganilib buni asosida qulay yechimlar tanlash maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Integrative model of improving the content of classes in optics
BN Xushvaqtov European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7 (12)
2. B Khushvaktov Using fresnel bipprisms to explain the theme of light interference science and innovation 2023 46-48b
3. B.N Khushvaqtov Didactic factors affecting improvement academicia: an international multidisciplinary research journal 2021й 1823-1826б
4. B.N Khushvaqtov Innovative fundamentals of non-traditional teaching (on the example of the optics department) journal of ethics and diversity in international communication e-issn: 2792-4017 | www.openaccessjournals.eu | volume: 1 issue: 3 2021й
5. Khushvaktov Bekmurod Normurodovich TEACHING PHYSICS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES Uzbek Scholar Journal
Volume- 24, January, 2024 www.uzbekscholar.com

## XVI-XVIII ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TA’LIM TIZIMINING XUSUSIY VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM MAZMUNIDAGI MEHNAT MADANIYATI.

**NDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi**
**katta o‘qituvchisi A.S.Sayitov**

**Annotatsiya.**Maqolada XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo ijtimoiy- ma’naviy muhiti va Buxorodagi ta’lim - tarbiya mazmuni hamda kasb-hunar haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** movarounnahr, ta’lim-tarbiya, madaniyat, hayot,kasb-kor, hunarmand, naqqosh-xattotlari, ta’rif.

**Annotation:** The article presents thoughts about the socio-spiritual environment of Central Asia in the XVI-XVIII centuries, as well as the content of education and training in Bukhara.

**Keyword:** Movarounnahr, education - upbringing, culture, life, profession, craftsman, painter, calligrapher, description

**Аннотация**: В статье представлены мсли о социально-духовной среде Средней Азии в XVI-XVIII веках, а также о содержании образования и обучения в Бухаре.

**Ключевые слова:** Моварауннахр, образование, культура, жизнь, профессия, ремесленик, художник, каллиграф, определение.

XVI-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro xonligidagi ijtimoiy-ma’naviy hayot, rivojlanish va taraqqiyot mohiyatini shaxc tarbiyasi, uning har tomonlama barkamolligi g‘oyasisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Jamiyat hamda hayot taraqqiyotidagi jarayonning faol ishtirokchisi hisoblangan ma’lum bir ijtimoiy tabaqaga mansub shaxslarning kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan g‘oyalar, qarashlar ta’lim tizimidagi asosiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lgan, aynan bir shaxsga yo‘naltirilgan, xususiy ta’limda rivojlantirilib, amalga oshirilgan.

Aynan ushbu davrda yaratilgan bebaho ma’naviy meros mazmuni, ilmiy tafakkur ne’matlari jamlangan asarlar qismlari sinchiklab o‘rganilib, qiyosiy tahlil etilganda ular matnlarida o‘z davrining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlari o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xususiy ta'limning asosiy mazmuni va maqsadini har bir yoshning pok, haqi halol, qo'li to'g'ri, nekbin, mehnatsevar va hunarli bo'lib voyaga etishi masalasi tashkil etadi. Buxoro xonligidagi ta'lim tizimining asosiy bo'g'inini tashkil etadigan xususiy ta'lim jarayonida asosan hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik yo'nalishidagi ta'lim turlari o'rgatilgan.

CHorvachilik bilan shug'ullanadigan qavmlarda shu sohaga doir hunar va malakalar o'rgatilgan. O'g'il bolalar mollarni boqish, urchitish, tuya,otlarni parvarishlab, ularni boshqara olish, uzoq yaylovlarga suruv haydash,chorvani darranda hayvonlar, qaroqchilardan muhofaza qilish, shuningdek, Vatan himoyasi maqsadi harbiy hunarni ham bilishlari, qiz bolalarga esa yungdan ip yigirish, urchuq va charxda ishlay bilish, har xil liboslar to'qish, tikishni bilishlari majburiy bo'lgan.

SHayboniylar davrida bunyod etilgan shaharlar qurilishi, turli imoratlar, koshonalar, qal'alar, xar xil inshootlarning bunyod etilishi jarayonining bayoni ham hunarni egallash va o'rgatish faoliyati yuksak darajada yo'lga qo'yilganligining dalilidir. Ushbu binolar haqida gap ketganda ularning hashami, naqshlari, bezaklari, hamda qandil, yoritgichlari tavsifi beriladi. Bu esa bizning sarzaminimizda me'morchilik san'ati ancha yuksak bo'lganligini tasdiqlaydi. Ayni paytda bu dalillar ajdodlarimiz hunarmandchilikning barcha turlarini rivojlantirishga e'tibor berganliklarini ko'rsatadi.

Hunarmandchilik yo'nalishidagi xususiy ta'lim natijasida qurolsozlik, degrezlik, zargarlik, po'stindo'zlik, ranli metall va toshlarga ishlov berishdek ancha murakkab hunar turlari o'rgatilganligi diqqatga sazovordir.

XVI-asr Buxoro xonligida asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida shaharlar katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da,ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalari rivojlangan edi.

Ilgarigi davrlarda bo'lganidek, xonlikning hunarmandchiligi sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmog'i hisoblangan. Ushbu tarmoqning rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak etarli darajada bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan, ichki va tashqi bozorda, kundalik hayotda to'qimachilik mahsulotlariga talab katta edi.

Xonlikda ayniqsa bo'z, chit,olacha ko'p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hissor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, SHahrisabz va ularning atroflarida ipak matolar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan. Boshqa shahar va qishloqlarda ham ip yigirish, mato to'qish, tayyor kiyim tikish, gilam to'qish va boshqa to'qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroning zarbof to'nlari, SHahrisabzning iroqi do'ppilari,Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolari xonlikdan tashqarida ham juda mashhur bo'lgan

Xonlik hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu –"kulolchilik"edi. Xo'jlik tarqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kulolchilik xonlikning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlar Buxoro, Samarqand, Qarshi, SHahrisab, Urgut, Dehnov, G'ijduvon kabilar bo'lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Xonlik kulolchiligida O'rta Osiyoning ko'pgina kulolchilik maktablariga xos bo'lgan manzaralar(turli gullar va o'simliklar tasviri), turli hayvonlar,qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo'llanilgan.

Xonlik iqtisodiyotining "metallga ishlov berish"sohasi ham yaxshi rivojlangan. SHahrisabz, Urgut, Nurota, Bosun, SHerobod kabi tog'li tumanlardan ma'danlar qazib olingan bo'lib, ulardagi konlardan foydalanish ba'zi tanaffuslar bilan XX asr boshlariga qadar davom etgan edi.

Bu davrda xonlikdagi metallga ishlov berish taraqqiy etgan quyidagi to'rtta asosiy tarmog'i- temirchilik, misgarlik, cho'yan quyish va rixtagarlikni alohida ko'rsatish mumkin."Temirchilik" sohasida ustalar qishloq xo'jaligida va kundalik turmushda ishlatadigan mehnat qurollari, harbiylar uchun jangovar qurollar yasaganlar. Xonlikning ko'pgina shaharlarida "Temirchi", "Guzari","Chilangaron" kami chilnagar-temirchilarning maxsus mahalla guzarlarining mavjudligi ushbu hunarmandchilik turining ancha tarqqiy etganligini ko'rsatadi.

Xonlikning asosan yirik shaharlarida misgarlik ham rivojlangan. Mis xos ashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo'lib undan chilim idishlari, barkash, lagan, ko'zacha, tog'oracha kabi ko'plab idishlar yasalgan hamda ular turli naqshlar bilan mohirona bezatilgan.

Buxoro amirligining metallga ishlov berish sanoatida degrezlik-cho‘yan quyishning alohida o‘rni bor edi. Bu soha ustalari asosan shaharlardagi maxsus guzarlarda yashaganlar. Ular cho‘yandan qozon, chiroq, manqaldon kabi buyumlar yasaganlar. Bronzadan buyumlar yasash –rixtagarlik ham xonlikning ko‘pgina shaharlarida taraqqiy etgan edi. Ushbu kasb sohiblari turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar.

Undan tashqari xonlikda hunarmandchilikning boshqa ko‘pgina turlari ham rivojlangan. Xusuan Buxoro, Qarshi va SHahrisabz shaharlaridagi zargar ustalar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, qimmatbaho toshlar, metal va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar xonlik va undan tashqari hududlarda ham mashhur bo‘lgan.

Ko‘nchilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. CHarmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po‘stin va nim po‘stin, turli xil meshlar (sut,suv, qimiz va b. uchun) tayyorlangan.

Xonlikning deyarli barcha hududlarida yog‘och o‘ymakorligi yaxshi rivojlangan. SHaharlarda mohir duradgorlar ko‘p bo‘lgan. Xonlikning shahar va qishloqlarida tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari ichki bozor extiyojlarini ta’minlabgina qolmasdan ko‘p hollarda tashqi bozorga ham chiqarilgan.

Xullas, xususiy ta’lim - ta’lim tizimining uzviy va ajralmas bo‘g‘ini sifatida har bir yoshning mehnat tarbiyasi asosida jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylanishi, yuksak axloq sohibi bo‘lib voyaga etishi yo‘lida muhim o‘rinni egallab, ta’lim tizimining keyingi bosqichlari hisoblangan boshlang‘ich va yuqori ta’lim uchun poydevor vazifasini bajaradi. XVI-XVIII asrlarda boshlang‘ich ta’lim asosan madrasi tipidagi ta’lim muassasalarida olib borilgan.

Boshlang‘ich ta’limda, bilim sohalari sifatida yozuv va o‘qishni o‘rganish, hisob va yulduzlar ilmini o‘rganish (arifmetika, falakiyot), kamondan o‘q otish, chavandozlik (harbiy bilim), diniy ahkomlarni bajara olish, qiroatni o‘rganish majburiy hisoblangan.

*Ta’lim metodlari:*

1.Og‘zaki, bayon qilish

“Qur’oni karim” hamda diniy kitoblar, shuningdek, mehnat tarbiyasi mazmunini o‘zida singdirgan pandnomalar matni ustoz-murabbiylar tomonidan og‘zaki tarzda yoddan bayon qilingan. Matnlarni bayon qilish shakli sifatida hikoyat, rivoyat, nasihat, o‘git, qo‘shiqlardan foydalanilgan. O‘rganilgan yangi bilimlarni mustahkamlashga oid topshiriqlar berilgan.

*2.Ko‘rgazmali* Boshlang‘ich ta’limda ko‘rgazmali usullardan keng foydalanilgan. Jumladan hisob (arifmetika)ni o‘rganishda hisob tayoqchalari, falakiyot ilmida osmon jismlarini ko‘rsatish va kuzatish, san’at sohasida musiqa asboblari, san’at asarlari, imoratlar, qoyaga o‘yilgan tasvirlar, naqqoshlik, xattotlik, kandakorlik, misgarlik, oltin va kumush, yog‘och o‘ymakorligi buyumlari va mahsulotlari, turli taomlar va pishiriqlar va h.k.z lar ko‘rgazma hamda ashyoviy dalillar vazifasini bajargan.

*3.Amaliy* Boshlang‘ich ta’limdagi og‘zaki va ko‘rgazmali metodlar orqali olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida ta’lim jarayonida amaliy (mashq, topshiriq, muloqot, mustaqil ta’lim) usullaridan ham foydalanilgan. Bu usullar tarkibiga chavandozlik, kurash tushish, voizlik, dasturxonni bezash, mehmon kutish, shatranj va nard o‘ynash, ibodat qilish kabi ko‘plab amaliy mashg‘ulotlar kirgan.

**Adabiyotlar:**

1. Muqimov Z. SHayboniylar va tasavvuf shayxlari / XVXVI asr tasavvuf namoyandalari ilmiy merosining ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati. Samarqand, 2011, 16-18-betlar.

2. Ahmedov B.A. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi va o‘rta asrlar) T.: O‘qituvchi. 1991., -212-6.

3. Homidiy, Hamidjon. Ko‘hna SHarq darg‘alari: Badiiy-ilmiy lavhalar.— T.:«SH arq», 2 004.-352 b.

## EUPHEMIZATION AND DISPHEMIZATION OF DISEASE NAMES IN UZBEK

**Ibrohimova Feruza Ne’matulla qizi,**
**NDPI, Xorijiy til va adabiyoti magistranti**

**Ilmiy rahbar: B.Maxammadov – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Abstract.** This article analyzes the euphemism and dysphemism of disease names in the Uzbek language. Particular attention is paid to the factors of euphemism and dysphemism, and methods of replacing synonyms, avoiding the mention of an unpleasant concept, and dispelling fear associated with the disease are expressed. The article also discusses why the level of use of expressions that were previously considered obscene, shameful, and taboo among people has increased.
**Key words**: euphemism, dysphemism, taboo, disease names
**Аннотация.** В данной статье анализируются эвфемизмы и дисфемизмы названий болезней в узбекском языке. Особое внимание уделено факторам эвфемизма и дисфемизма, а также выражены способы замены синонимов, избегания упоминания неприятного понятия, рассеивания страха, связанного с заболеванием. В статье также рассматривается, почему среди людей возрос уровень использования выражений, которые раньше считались непристойными, постыдными и табуированными.
**Ключевые слова**: эвфемизмы, дисфемизмы, табу, названия болезней.
**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek tilida kasallik nomlarining evfemizatsiyasi va disfemizatsiyasi tahlil qilinadi. Evfemizatsiya va disfemizatsiya omillariga alohida e‘tibor beriladi va sinonimlarni almashtirish usullari, yoqimsiz tushunchani eslatishdan qochish, kasallik bilan bog‘liq qo‘rquvni yo‘qotish ifodalanadi. Shuningdek, maqolada nima uchun odamlar orasida avvallari odobsizlik, uyat, tabu hisoblangan ifodalardan foydalanish darajasi kengayganligi to‘g‘risida ham fikrlar yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** evfimizim, disfemizim, tabu, kasallik nomlari

Bugungi kunda tilshunoslikda lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishga, til birliklarining nutqda qo‘llanilishi va ma’no-vazifa xususiyatlarini ochib berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Evfemizm va disfemizim hodisasi lingvistik aloqaning ko‘plab sohalarida qo‘llaniladi. Jumladan, tibbiy nutq sohasida ulardan foydalanish, shubhasiz, tibbiy amaliyotning o‘ziga xos xususiyatlariga ega. O‘zbek tilida kasallik nomlarini evfemizatsiya va disfemizatsiya qilish keng tarqalgan bo‘lib, u mavjud psixologik tushuntirish, o‘zingizga va atrofingizdagi odamlarga kasallik haqida eslatmaslikka harakat qilinadi, salbiy ma’nolardan qochib ifoda etadi yoki aksincha, kasallikka nisbatan nafratning ochiq ifodasiga murojaat qiladi. Shunday bo‘lsada, o‘zbek tilshunosligida kasallik nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan evfemizmlar va disfemizmlar tilning alohida ifoda birligi sifatida o‘rganilmagan.  Avvalo, bu atamalar xususida so‘z yuritar ekanmiz, evfemizatsiya — so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me’yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to‘g‘ridan to‘g‘ri aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta’sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, o‘ldi deyish o‘rniga olamdan o‘tdi, ko‘z yumdi, vafot etdi; tug‘di deyish o‘rniga ko‘zi yoridi, yengillashdi kabi iboralardan foydalanish. Disfemizatsiya - salbiy semantik tus berish yoki nutqning ifodaliligini oshirish uchun dastlab neytral bo‘lgan tushunchaning qo‘pol yoki odobsiz shaklidan foydalaniladi. Masalan, ket o‘rniga daf bo‘l, yuz o‘rniga bashara, bosh o‘rniga kalla kabi.

O‘zbekiston Respublikasi umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2020 yilda chop etilgan 11 sinf darsligida disfemizmga quyidagicha ta’rif berilgan: disfemizm (grek tilida bu so‘z «qo‘pol gapirmoq» ma’nosida qo‘llangan) deyiladi. Masalan, yomon bo‘libdi tushunchasi uchun qo‘llangan rasvo bo‘libdi, kasal tushunchasi uchun qo‘llangan dard uribdi ifodalari disfemizmga misol. Nutqda disfemizmni ko‘p qo‘llash kishining madaniyatsiz ekanini ko‘rsatadi.

Ona tili qomusida disfemizmga quyidagicha ta’rif berilgan: Disfemizm narsa va hodisalarni o‘z nomi bilan emas, balki boshqa bir qo‘polroq so‘z yoki so‘z birikmasi, ibora bilan atash hollarining uchrashidir. Masalan, insonga nisbatan ishlatiladigan o‘lmoq so‘zi o‘rnida joyi jahannamdan bo‘ldi, asfalosofilinga ravona bo‘ldi iboralari; homilador so‘zi o‘rnida bo‘goz so‘zlarini ishlatish hollari ham uchrab turadi. So‘z yoki so‘z birikmasi, ibora bunday qo‘pol ma’noda qo‘llanganda disfemizm

deyiladi. Disfemizm grekcha “disfemismo” so‘zidan olingan bo‘lib, “qo‘pol ifoda” degan ma’noni bildiradi va evfemizmga zid turadi. Disfemizmlar so‘zlashuvda madaniy saviyasi past kishilar nutqida uchraydi. Badiiy asarlarda, odatda, salbiy fe’l-atvorli kishilar nutqida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek tilida kasallik nomlarini ifodalashda juda ehtiyotkorlik bilan muomala qilinadi. Bunday munosabatga sabab qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin: Bemor va uning yaqinlariga xavfli bo‘lgan kasallik nomlarini aytib ko‘nglini og‘ritib qo‘yishdan va o‘sha kasallikni o‘ziga chaqirib olishdan qo‘rqish borligi sababli shunday munosabatda bo‘linadi. Ba’zan bemorlarga kasallik haqida maslahat berayotganday yoki bo‘lgan hodisalarga munosabatini yengil tanqid qilganday tarzda yetkazishadi qandli diabet kasalligini “saxar” yoki “biroz shirinlikdan tiyilib turishingiz kerak ekan” deb, semizlikni “biroz vazn tashlashingiz kerak” deb, arterial qon tomir bosimining ko‘tarilishi, ya’ni gipertoniyani “xafaqon” deb yoki “har narsadan xafa bo‘lavermang” deb, yurak kasalliklariga chalingan bemorlarga “biroz yuragingizni qiynab qo‘yibsizda” kabi yumshatish bilan yetkazishadi. Bunday yetkazish bemorga og‘ir botmaydi, garchi, kasallik yengillab qolmasada xuddi oddiy shamollashga o‘xshab tez o‘tib ketadigan kasallikday qabul qilishlariga yordam beradi.

Denis Jemetning tadqiqoti kasallik nomlari uchun evfemizmlarning neologik funktsiyasiga bag‘ishlangan, bu, xususan, evfemizatsiyaning psixologik fonini o‘rganadi: “kasalliklar odatda kuchni yo‘qotish, nazoratni yo‘qotish va o‘lim qo‘rquvi bilan bog‘liq - uchta tushuncha odatda tilda tabu deb yuritiladi. Rossiya Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituti ilmiy xodimi Mariya Kovshova tildagi evfemizmlar biror narsani xushmuomalalik bilan aytish istagidan kelib chiqadigan nutqiy harakatlardir. Bu so‘zlar emas, balki ona tilida so‘zlashuvchining xushmuomala, odobli og‘zaki xatti-harakatidir. Evfemizm shirin qobiqdagi dori bo‘lishi kerak, shifokorlar buni me’yorlashtirishi kerak deb ta’kidlaydi

M. U. Abduraxmanovaning tadqiqoti kasallik nomlarining semantik va pragmatik tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, tibbiy evfemizmlardan nafaqat professional shifokorlar, balki, jamiyatning ziyoli qatlamidan tortib, ishchilar qatlamigacha bo‘lgan hamma insonlar foydalanishi, shifokorlar bemorni tushkunlikka tushib qolishini oldini olish va bemorning qalbiga ozor berib qo‘ymaslik uchun uchun kasallik nomlarini iloji boricha “qog‘ozga o‘rab” qo‘llashadi deb fikr yuritadi.Har bir inson ertami-kechmi, tibbiyotning yaxshilanishiga va yangi dori vositalarining tobora ortib borayotgan rivojlanishiga qaramay, qisqa muddatli yoki uzoq muddatli, yaxshi yoki hayot uchun xavfli kasallikni boshdan kechirishi mumkin. Bunday vaziyatda insonlar dahshatli haqiqatga duch kelganda, o‘zining kasalligi yoki yaqinlarining kasalligi tufayli evfemizmlardan foydalaniladi.Shunday qilib, shifokor o‘rtasidagi suhbatda, konferensiyada yoki tibbiy mutaxassis nutqida, maqola kontekstida na evfemizmlar, na disfemizmlardan foydalanish mumkin emas, shifokor va bemor o‘rtasidagi hollar bundan mustasno ishonchli va norasmiy munosabatlar o‘rnatiladi. Masalan,

• kasallik sifatida "saraton" so‘zining evfemizmlari:

“eng yomoni”

- *Doktor, menda eng yomonimi?*

- *Yo‘q, eng yomoni emas.*

• boshqa kasalliklar nomlari orqali evfemizatsiya: “o‘simta”, “yara”, "teshilish"

*Boshingizda shish bor, tezroq davolanishni boshlashingiz kerak.*

*Siz yara bilan ehtiyot bo‘lishingiz kerak.*

*Anvar o‘simtadan vafot etdi.*

"Sariqlik" so‘zi gepatit (har qanday turdagi) uchun kamsituvchi nom sifatida ishlatiladi (shuningdek neonatologlarning professional nutqida yangi tug‘ilgan chaqaloq terisining sariq rangini ko‘rsatish uchun ishlatiladi).

*Farzandingizdagi sariqlik 12-14 kungacha davom eitsh mumkin.*

Bizning tadqiqot ishimiz kasallik nomlari ustida amalga oshirilayotganligini inobatga olsak, kasallik nomlari tinglovchi va so‘zlovchi uchun biroz yoqimsiz va noqulay hissiyotlarni vujudga keltirishini inobatga olishimiz darkor. Odatda bunday til birliklari evfemizatsiya qilishni taqazo etadi, ammo, badiiy asarlarda va og‘zaki nutqda, hattoki kasallik nomlarini ham yanada salbiy tusga bo‘yab, disfemik qo‘llash holatlari uchrab turadi. Masalan, juda ozg‘in insonga nisbatan qiltomoq atamasini

qo‘llash, biror narsani topa olmayotgan insonga nisbatan ko‘r atamasini qo‘llash, rangi “siniq” odamga nisbatan sil atamasini qo‘llash, jahli tez insonga nisbatan tutqanog‘i bor degan iborani qo‘llash, yo‘talayotgan insonga nisbatan ko‘kyo‘tal atamasini qo‘llash, jinni, ahmoq, dovdir degan kasallik nomlarini oddiy, kundalik so‘zlardek qo‘llash va h.k. misol qilishimiz mumkin.

Shuningdek, baddiy asarlarda ham kasallik nomlarining disfemizmga uchrashini ko‘rishimiz mumkin:

*U jahli chiqib obdastani joyiga qo‘ydi-da, indamasdan qaytib ketdi va osh suzar ekan, do‘ng‘illar edi: Xudo ko‘tarsin, shabko‘r o‘limtik!*

A.Qahhorning “Sarob” romanidan keltirilngan ushbu parchada “Xudo ko‘tarsin, shabko‘r o‘limtik!” jumlasida ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan qahramonga nisbatan, aniqrog‘i uning zaif tomoniga tanqidiy, haqoratomuz munosabat ifodalanmoqda, disfemik ifodalar, shabko‘r... o‘limtik qo‘llanilmoqda.

*Uning rangi, machitning jaydari shamidek, sap-sariq... go‘yo kasaldan yaqindagina bosh ko‘targan.*

A.Cho‘lponning “Kecha va kunduz”idan keltirilgan ushbu parchadagi “Uning rangi, machitning jaydari shamidek, sap-sariq... go‘yo kasaldan yaqindagina bosh ko‘targan.” iborasi orqali qahramonning ko‘rinishi disfemik tarzda ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

*Mening uy ishimga va oila masalalarimizga aralashadigan odamni men moxovga oshno qilib qo‘yaman.*

Anton Chexovning “Buqalamun” asarida keltirilgan ushbu parchada asar qaxramoning nutqidan yuqumli moxov kasalligi daxshatli tuzalmas kasal ekanlgi va bu og‘ir musibat ekanligini anglashimiz mumkin. Kasallik nomlarining disfemizmlari so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan masxara, istehzoli, iltifotsiz qarashini, munosabatini ifodalash maqsadida,hamda kasallik xolatini yanada salbiyroq ta’riflashda qo‘llanadi. Evfemizmlar va disfemizmlarning tibbiy diskursdagi o‘rni juda katta, o‘zbek xalqi “yaxshi so‘z jon ozig‘i”, “bug‘doy noning bo‘lmasa, bug‘doy so‘zing bo‘lsin”, yaxshi so‘z bilan ilon inidan, yomon so‘z bilan qilich qinidan chiqadi” deydi. Mashhur “Qobusnoma” asarida Kaykovus tibga doir masalalar sirasida bemorni aslo qo‘rqitmaslikni tavsiya qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, kasallik nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan evfemizmlardan va disfemizmlardan xalq orasida, asarlarda, tibbiyotda, bemorlar bilan suhbatda ko‘p qo‘llanilsada, tilshunoslikda kam o‘rganilgan bo‘lib, evfemizmlar bemorlar ahvolini yaxshilashi, qo‘rquvini bartaraf etishi mumkin, disfemizmlar esa aksincha insonni masxara qilishi, qo‘pol munosabatni ifodalashi, kasallik holatini yanada yamonroq bo‘rttirib ko‘rsatadi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B. Mengliyev va b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 96 b. – B. 34.
2. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. Ona tili. Qomus. – T., 2009. – 270 b . – B. 35.
3. Abduraxmanova M.U. “Qiltomoq” atamasining o‘zbek tilida ko‘chma ma’noda qo‘llanishi // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – № 10. – B. 355-359. (10.00.00. № 26)
4. Abduraxmanova M.U. “Ko‘rlik” kasalligining o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi lingvistik-semantik tadqiqi // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 1/2023. – Buxoro, 2023. – B. 174-179. (10.00.00. № 1.)
5. “Tibbiy atamalar izohli lug‘ati“ — 2022-yil A. Q. Shadmanov tahriri ostida “Kamalak-PRESS”
6. Kaykovus. Qobusnoma. – T..: Meros,1992

## KOMPONENTLI YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY SHAKLLANTIRISH TEXNALOGIYASI

**Daminov Ilhom Shavkatovich**
**Ta’lim muassasasi boshqaruvi yo‘nalishi 1-kurs magistranti**

**Annotsatsiya.**Ushbu maqolada “kompetensiya’’, “kompetentlik’’, “kasbiy kompetentlik”, “kasbiy o‘z-o‘zini anglash’’ mohiyatini, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy holati, professional ta’limda kompetensyaviy yondashuv asosida o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga

tayyorlash mazmuni, texnalogiyasini ishlab chiqish haqida fikr yuritilgan, bo‘lajak pedagoglar uchun egallanishi lozim bo‘lgan pedagogik sifat va tayyorgarlik mazmuni yoritilgan.
**Kalit so‘zlar**: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, texnologiya, kasbiy o‘z -o‘zini anglash, kasbiy faoliyat, modernizatsiya, kasbiy kamolot.
**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность “компетентность“, компетентность", "профессиональная компетентность", "профессиональное самосознание", современное состояние подготовки будущих специалистов , разработка содержания, технологии подготовки педагогов к профессиональной деятельности на основе компетентностного подхода в профессиональном образовании, освещается педагогическое качество и содержание подготовки, которые необходимо освоить будущим педагогам.
**Ключевые слова:** компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, технология, профессиональное самосознание, профессиональная деятельность, модернизация, профессиональная зрелость.
**Annotation**. This article covers the essence of “competence”, “competence”, “professional competence”, “professional self-awareness”, the modern state of training future specialists, the content of training teachers for professional activities on the basis of a competency approach in professional education, the content of pedagogical quality and training that should be mastered for future educators.
**Keywords**: competence, competence, professional competence, technology, professional self-awareness, professional activity, modernization, professional maturation.
Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi professional ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, o‘quvchilar ichki imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro tajribaga ko‘ra pedagoglarning kasbiy kompetentligi, jumladan, ta’lim jarayonini, amalga oshirishning eng maqbul metodlarini (multi-level interactive education), samarali modellarini ishlab chiqish, innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish va amalga oshirishning metodik ta’minotini takomillashtirishga alohida ehtiyoj tug‘ilmoqda. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, o‘z maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.Kasbiy kompetentlik, kasbiy o‘z-o‘zini anglash, kasbiy qadriyatlarni hurmat qilish va kasb-hunarga yo‘naltirish- bu o‘sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug‘ma layoqatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo‘ladigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan umumlashtiruvchi tushunchadir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish bu- kasbiy masalalarni hal etishda amaliy tajriba va bilim asosida muvaffaqiyatli harakat qilishini ta’minlashdir. Kasbiy kompetensiya va kasbiy o‘zlikni anglash butun umr davom etadigan jarayon hisoblanib, inson orzu qilish, sinash, tanlash ularni amalga oshirish bosqichlaridanoq kasb-hunar tanlaydi, so‘ngra kasb-hunarga kirishadi, keyinroq dunyodagi kasb-hunarlarni o‘zgarishiga, o‘zidagi o‘zgarishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini o‘zgarishiga bog‘liq ravishda kasbini yoki mutaxassisligini o‘zgartiradi. Zamonaviy o‘qituvchi obrazida komillik mujassamlashishi lozim. Bugungi kun o‘qituvchisining kasbiy kompitentligini shakllantirish- bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish va hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish zaruriyati ta’lim muassasasiga va o‘qituvchilarga qo‘yilgan ijtimoiy talablarning o‘sishi bilan asoslanadi. Oliy ta’lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo‘shliqlarni aniqlash asosida ta’lim berishga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi. Zamonaviy tadqiqotchilar oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisining kompetensiyasini tasniflashga katta e’tibor

qaratmoqdalar. Masalan, T.E. Isaeva o'zining "XXI asr menedjerining tayanch kompetensiyalari" kursida quyidagi tayanch kompetensiyalarni ajratib ko'rsatadi: strategik; ijtimoiy; funksional; boshqarish; kasbiy zamonaviy pedagogik amaliyotda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari vujudga kelishining asosiy jihatlarini ta'riflashning imkoni bo'lmagani kabi, mazkur maqola doirasida ham ularni tasniflashning batafsil tahlilini berib bo'lmaydi. Biroq, bunda asosiy yo'nalishni aniqlab olish muhimdir:

a) oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari uchun eng muhim deb e'tirof etilgan kompetentsiyaning mazmunini aniqlashtirish;

b) zamonaviy oliy ta'limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo'llari va vositalari, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

*talabalarning kasbiy yo'naltirilganlik darajasini, kasbiy yo'naltirilganligini va tayyorgarligini, individual xususiyatlarini, shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tanlab olish uchun taklif etiladigan muammoli-vaziyatli topshiriqlarning variativligi (murakkablik va mustaqillik darajasiga ko'ra variativlik);

*ishni bajarishning jamoaviy (talabalar guruhi) va individual shakllarini uyg'unlashtirish asosida talabalarning mustaqilligini rivojlantirish;

* talabalarning bajargan ishlarini va kasbiy tayyorgarlik darajalarini o'zaro tekshirishlarini, o'z-o'zini nazorat etishlarini va tahlil etishlarini rag'batlantirish;

* talabalarni ijodiy faoliyatning turli shakllariga va o'z-o'zini boshqarishga keng jalb etish;

* talabalarning respublika va oliy ta'lim muassasasi miqyosida tashkil

etilayotgan ma'naviy va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishlari.[1]Oliy ta'lim muassasasi axborot manbai sifatida emas, balki ma'naviy-madaniy qadriyatlarning milliy va umuminsoniy tamoyillari bilan talaba orasidagi vositachi vazifasini bajargan taqdirdagina, birinchidan, talabaning shaxsiy qiziqish, ijodkorlik, muloqot, o'qish va bilimlar orttirish faoliyatlarini o'z ichiga hayot faoliyati sifatidagi, ikkinchidan, madaniyatning bugungi kundagi holati va tarixiy rivojlanishini egallashning usuli sifatidagi o'quv jarayoni mutaxassisning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning real shart-sharoitlariga aylanishi mumkin. "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining o'zi pedagogik fanlarda nafaqat mustahkam joy egalladi, balki pedagog-amaliyotchilarning keng doiralari tomonidan ham tobora chuqurroq o'rganilmoqda. Kasbiy kompetensiyalarni ko'rib chiqib, ko'pchilik tadqiqotchilar quyidagilarni alohida ta'kidlaydilar: 1) oddiy (bazaviy) kompetensiyalar (faoliyatning muayyan turlarida namoyon bo'ladigan va oson mustahkamlanadigan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga asoslangan holda shakllantiriladigan); 2) tayanch kompetensiyalar hisobga olish va o'lchash uchun o'ta qiyin bo'lib, faoliyatning barcha turlarida, shaxsning atrof olam bilan barcha munosabatlarida namoyon bo'ladi, shaxsning ma'naviy dunyosini va uning faoliyati mazmunini aks ettiradi. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga kompetentlik yondoshuvlarni ishlab chiqishga I.L. Zimnyaya katta hissa qo'shgan. U pedagog shaxsining barcha sifatlarini ob'ektiv va sub'ektiv sifatlarga ajratgan: ob'ektiv sifatlari – bu o'qituvchining o'z fanini bilish darajasi, fan metodologiyasini egallaganlik darajasi va ilmiy bilimlarining chuqurligi, umumiy didaktik va xususiy metodik tamoyillarni egallaganligi, bolalar psixologiyasini yaxshi bilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qabul qilishi; sub'ektivlari: pedagoglik san'ati, pedagogik iste'dod, ijodkorlik va h.k.[3] N.I. Almazova pedagogning kasbiy kompetensiyasini o'rganishda o'qitishning samaradorligini oshirish imkonini beradigan ko'nikmalarni va pedagogning shaxsiy sifatlarini guruhlarga bo'lib chiqdi va shunday xulosa chiqardi:[4]"Pedagogning kasbiy kompetensiyasi-bu pedagogning mehnati bo'lib, unda pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot yetarlicha yuqori darajada amalga oshiriladi, o'qituvchining shaxsi namoyon bo'ladi, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash bo'yicha yaxshi natijalarga erishiladi"[5]. Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat sub'ektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, sub'ektning aniq faoliyatning o'ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo'llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog'ida kompetentlikning turli ko'rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko'rsatdi.[6] Xususan, kasbiy

kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini-o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Xususan, ta’lim standartlari talablari va maktab ta’limining real amaliyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan;universitet o‘qituvchilarining yo‘nalishi asosan mavzu mazmunini tarjima qilishga qaratilgan;o‘qitishning an’anaviy reproduktiv usullari ustunlik qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ta’limida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish bir qator qiyinchiliklarga duch keladi.Kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta’limning bir qator jihatlarini ko‘rib o‘tganlar va kasbiy,amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilganlar.Ular tadqiqot ishlarida zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogikva axborot texnologiyalarini uning amaliy yo‘nalishini oshirish uchun oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini sifatli yangilash zarurligini taqozo etadi. Dotsent S.B.Qorayev,N.I Tirkashev o‘zlarining tadqiqot ishlarida, „Kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta’limning bir qator jihatlarini ko‘rib o‘tganlar va kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilganlar. Ular o‘z tadqiqot ishlarida zamonaviy yondashuvlar o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muammolarini yanada rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi xulosalar chiqaradi:

•kompetensiyaga asoslangan yondashuv - metodologik uchinchi ( konkret-ilmiy) darajadagi yagona, o‘ziga xos yondashuv.

•kompetentsiyaga asoslangan yondashuv

•tizimli yondashuv sifatida;

•ta’limda ko‘p yondoshuv zamonaviy ta’limning eng muhim xususiyati hisoblanadi.“[6] O‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ko‘p faktorli tuzilma bo‘lib, u asosiy kompetensiyalarni (qiymat-semantik, kommunikativ, aks ettiruvchi va boshqalar) va o‘qitilayotgan fanning xususiyatlariga mos keladigan maxsus kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining samaradorligiga, agar u pedagogi fan va innovatsion ta’lim amaliyotining yutuqlariga asoslanib, tizimli shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlarni birlashtirish asosida maqsadli loyihalash sharti bilan erishish mumkun. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi ta’limni modernizatsiyalash sharoitida oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish va pedagog kadrlarda kasbiy faoliyat va sohaga tegishli yangi kompetentsiyalar va ko‘nikmalarni faol o‘zlashtirish orqali pedagogik jarayonga ijodiy yondashuv va novatorlikni rivojlantirish ijodiy seminarlar, kastinglar, master klasslar tashkillashtirish orqali pedagoglar va talabalarni hamkorlikdagi tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish va pedagoglarda tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish sohasidagi zaruriy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish, pedagoglarning innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish bu jarayonda alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz .

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sh.Mirziyoyev.’’Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi’’
2. Isayeva I.E.Kasbiy va shaxsiy tasniflash o‘qituvchisining vakolatlari; Pedagogika-2005
3. Зимняя И.Л.Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. -2004.
4. Алмазова Н.И. Когнитивные аспекты формирования межкультурнойкомпетентности при обучении иностранному языку в неязыковом вузе. Авт.дисс. на соискание ученой степени док.пед.наук. Санкт-Петербург, 2003. – 47стр.;основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М.:

## O‘ZBEKISTON SHAHARLARIDAGI JAMOAT TRANSPORTI TIZIMLARI VA ULAR UCHUN ALOHIDA YO‘L AJRATILGAN SHAHARLAR VA UNING HARAKAT TEZLIGIGA TA’SIRI TAHLILI

**Pulatov Suxrobjon G‘olibjon o‘g‘li,**

**Transport logistikasi kafedrasi assisteni, Jizzax politexnika instituti,**
**Baratov Ilhomjon Iskandar o‘g‘li,**
**Transport logistikasi kafedrasi assistanti, Jizzax politexnika instituti**
**Ma Yaowen, Nankin transport texnologiyalari kasb-hunar instituti, Professor**
**Annotatsiya.** Ushbu maqola markaziy shahar chorrahalarida jamoat transportining harakati va ularga beriladigan ustunlikda foydalaniladigan texnologiyalar to‘g‘risida so‘z yurutiladi. Shuningdek O‘zbekiston shaharlaridagi jamoat transporti tizimlari va ular uchun alohida yo‘l ajratilgan shaharlar va uning harakat tezligiga ta’siri tahlil qilingan.
**Kalit so‘zlar:** shahar infratuzilmasi, jamoat transporti, avtobus ustuvorlik tizimlari, avtobus uchun ajratilgan yo‘l.
**Abstract:** This article is about the traffic of public transport in central city intersections and the technologies used in the priority given to them. Also, the public transport systems in the cities of Uzbekistan and the cities with separate roads for them and its impact on the speed of movement were analyzed.
**Key words:** urban infrastructure, public transport, bus priority systems, dedicated bus lane.
**Аннотация:** Данная статья посвящена движению общественного транспорта на центральных перекрестках города и технологиям, используемым в приоритете, отдаваемом им. Также были проанализированы системы общественного транспорта в городах Узбекистана и городах с отдельными для них дорогами и ее влияние на скорость передвижения.
**Ключевые слова:** городская инфраструктура, общественный транспорт, системы приоритета автобусов, выделенная полоса для автобусов.

Jahonda aholi hayot tarzi va shahar infratuzilmasi darajasi bo‘yicha yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasida, shahar infratuzilmasini isloh etish va aholiga transport xizmatini ko‘rsatish sifatini yaxshilashda jamoat transporti muhim o‘rin egallaydi. Urbanizasiya jarayonining jadallashuvi, megapolis shaharlarning ko‘payishi, aholi sonining o‘sishi natijasida jamoat transportiga bo‘lgan talab va ehtiyoj yil sayin oshib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, jamoat transporti xizmati sifatini oshirish, madaniyatini yuksaltirish, uni bugungi davr va sharoitga moslashtirishni taqozo etmoqda. Oldimizda turgan masalalar jamoat transportini tubdan isloh etish, mamlakatimizning tuman va shaharlarida jamoat transportini rivojlantirish, hududlarning unga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, transport infratuzilmasini tashkil etish, transport-logistika masalalariga ilmiy jihatdan yondashish, xususan, xorijiy tajribani o‘rganish, sohaga zamonaviy kadrlarni tayyorlash va jalb etish vazifalaridir. Tahlillar bugungi kunda jamoat transportidan samarali foydalanish bilan bog‘liq bir qator muammolar o‘z ilmiy yechimini kutayotganini ko‘rsatmoqda. Jumladan, aholiga xizmat ko‘rsatuvchi transport vositalari parkini yangilash va ulardan foydalanish darajasini oshirish, yo‘lovchi tashish xarajatlari va avtomobillarni ishlatish ko‘rsatkichlari o‘rtasida oqilona mutanosiblik o‘rnatish, jamoat transportidan foydalanish tariflarining asossiz o‘sib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi muhim masalalar shular jumlasidandir. Respublikamiz hududi keng, aholi soni ortishi asnosida ular istiqomat qiluvchi kattakichik punktlar soni ham tobora ko‘payib boryapti. Shuningdek, yo‘lovchilarga qulaylik yaratish, tashish va texnik xizmat ko‘rsatish jarayonlarini qamrab oluvchi tezkor axborot tizimini shakllantirish, aholini belgilangan yo‘nalishlarda yo‘l infratuzilma ob’ektlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish hamda yo‘lovchi transporti xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar xodimlari malakasini oshirishni yanada takomillashtirish zarur.Bugungi kunda shahar aholisini jamoat transportiga jalb etilish har ikki tomonlarga katta foyda keltiradi. Aholi kelajakka sog‘lom muhitda ortiqcha shovqinlarsiz hayot kechirishi, hukumatimiz esa mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallagan transport tizimini yaxshi islox etishi mumkin bo‘ladi. Agarda hozirgi holatni olib qaraydigan bo‘lsak, vaziyat biroz jiddiy oqibatda odamlar boshqa transport vositalaridan foydalanishni afzal bilmoqda.Bugungi kunda shahar jamoat transportida bor-yo‘g‘i 33 foiz yo‘lovchi yurmoqda. Taqqoslab ko‘rganda rivojlangan mamlakatlar poytaxtida bu ko‘rsatkich 60-70 foizni tashkil etadi. Shu bois mavjud infratuzilmani yaxshilab, jamoat transporti harakatining tezligi va aholi uchun qulayligini ta’minlanishi lozim.




**1-rasm. Shaharlarda transport turlarining foydalanishdagi ulushi.**

Ayni paytda «Toshshahartransxizmat» jamoat transporti uchun alohida yo‘lakni sinovdan o‘tkazmoqchi. Rejaga ko‘ra, Toshkent xalqaro aeroportidan Bobur va Furqat ko‘chalari bo‘ylab Beshyog‘och maydoniga qadar avtobuslar uchun yo‘lak ajratiladi. Toshkent shahridagi eng tirband va to‘rt bo‘lakdan ko‘p bo‘lgan yo‘llarning bir qismida faqat jamoat transporti harakatlanishi yo‘lga qo‘yiladi. Poytaxtdagi tirbandliklar yuqori va bir tarafi to‘rt yo‘l bo‘lagi (polosa)dan ko‘p bo‘lgan avtomobil yo‘llarining bir qismini jamoat transporti uchun ajratish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar ro‘yxati shakllantiriladi va jamoatchilik muhokamasi asosida Toshkent shahar xalq deputatlari kengashiga tasdiqlash uchun kiritiladi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirish ishlari va so‘rovnomalar o‘tkazildi. «2021 yilning 25 yanvaridan 3 fevraligacha o‘tkazilgan so‘rovnomada 3842 kishi ishtirok etdi. Ulardan 68 foizi jamoat transporti uchun alohida yo‘l bo‘lagi tashkil etishni ma’qullagan bo‘lsa, 13 foizi salbiy munosabat bildirgan, 17 foizi esa betaraf bo‘lgan». Mazkur loyihani amalga oshirish orqali:

- yo‘nalishdagi avtobuslarning harakatlanish tezligini 25 foizga oshirish;
- transport vositalarining chorrahalardan o‘tishdagi to‘xtashlar sonini 3,5tadan 1taga kamaytirish;
- transportning ekologiyaga zararini 33 foizgacha kamaytirish ko‘zdatutilgan.

Jamoat transporti uchun ajratilgan yo‘llar bu ko‘pincha ma’lum kunlarda yoki vaqtlarda, odatda tirbandlik kuzatilishi mumkin bo‘lgan yo‘llarda, jamoat transportida tezlikni oshirish uchun ishlatiladi. Avtobus yo‘li - bu yuqori sifatli avtobuslarning tezkor tranzit tarmog‘ining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, boshqa transport qatnovi tufayli kechikishni kamaytirish orqali avtobusning harakatlanish tezligini va ishonchliligini yaxshilaydi.

Dunyodagi birinchi avtobus yo‘lagi 1940-yilda Chikagoda yaratilgan [6].

Yevropada birinchi avtobus yo‘laklari 1963-yilda Germaniyaning Gamburg shahrida tashkil etilgan bo‘lib, o‘sha paytda tramvay tizimi yopilib, avvalgi ajratilgan tramvay yo‘llari avtobus qatnovi uchun o‘zgartirildi. Tez orada Germaniyaning boshqa yirik shaharlari paydo bo‘ldi va 1970-yilda avtobus yo‘laklarining o‘rnatilishi Germaniya avtomobil yo‘llarining kodeksida rasmiy ravishda tasdiqlandi. Boshqa mamlakatlardan kelgan ko‘plab mutaxassislar (1-bo‘lib Yaponiya) Germaniya misolini o‘rganishdi va shunga o‘xshash yechimlarni qo‘llashdi. 1964-yil 15-yanvarda Fransiyadagi birinchi avtobus bo‘lagi Parijdagi du Luvr bo‘ylab belgilandi. 1968-yil 26-fevralda Londonning birinchi avtobus bo‘lagi Voksxall ko‘prigida foydalanishga topshirildi.

Bunga sabab, o‘sha yilning 3-noyabrida yechilishi kerak bo‘lgan trolleybusni qayta yo‘naltirish xarajatlarini tejash edi. Ammo tajriba shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ldiki va u doimiy foydalanishga aylantirildi. 1972-yilga kelib, OECDga a’zo mamlakatlarning 100 shahrida 140 km dan ortiq avtobus yo‘llari mavjud edi va tarmoq keyingi o‘n yilliklarda sezilarli ravishda o‘sdi.

Yirik shaharlardagi avtobus yo‘llarining uzunliklari [1-jadval].

1-jadval.

| Shahar | Mamlakat | Aholisi (million) | Avtobuslar soni (dona) | Avtobus yo‘llarining uzunligi (km) |
|---|---|---|---|---|
| Sidney | Avstraliya | 4.3 | 1900 | 90 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Vena | Avstriya | 1.8 | | 56 |
| San Paulo | Braziliya | 10.9 | 14900 | 155 |
| Santiago | Chili | 6.5 | 4600 | 200 |
| Pekin | Xitoy | 19.6 | 26000 | 294 |
| Bagota | Kolumbiya | 6.7 | 1080 | 84 |
| Xelsinki | Finlandiya | 0.6 | 470 | 44 |
| Gang Kong | Gang Kong | 6.8 | 19768 | 22 |
| Jakarta | Indoneziya | 10.1 | 524 | 184.31 |
| Seul | Janubiy Koreya | 10.4 | 8910 | 282 |
| Oklend | Yangi Zelandiya | 1.6 | 14000 | 128 |
| Singapur | Singapur | 5.5 | 3775 | 200 |
| Madrid | Espaniya | 7 | 2022 | 50 |
| London | Buyuk Britaniya | 7.5 | 6800 | 240 |
| New york | AQSH | 8.5 | 5777 | 80 |

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. DEVELOPMENT THE PUBLIC TRANSPORT PRIORITY WITH BUS RAPID TRASIT (BRT) ON INTERSECTIONS ROADS IN UZBEKISTAN
Rakhmatov Utkirjon, Sotvoldiev Hasanboy, Ilhomov Sardor, Pulatov Sukhrobjon
2. ОБСЛУЖИВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В ПРОИЗВОДСТВЕ, И ЕГО ДОПОЛНИТЕЛЬНЫЕ ВОЗДЕЙСТВИЯ Сардор Илхомов, Сухробжон Пулатов
3. TRANSPORT VOSITALARI XAVFSIZLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
Dots. Abdunazarov Jamshid Nurmuhammatovich, mag. Valiyev Muhammadali Komiljon o‘g‘li, mag. Pulatov Suxrobjon G‘olibjon o‘g‘li, Baratov Ilhomjon “Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi” muhandisi
4. A Bus Rapid Transit Line Case Study: Istanbul’s Metrobüs System
Anil Yazici 1, Herbert S. Levinson 2, Mustafa Ilicali 3, Nilgün Camkesen 4, Camille Kamga 5
5. Agzamov, J., Hamraqulov, Y., & Baratov, I. (2021). Jizzax shahrining magistral ko‘chalarida harakat xavsizligini tahlil qilish. Academic research in educational sciences, 2(6), 363-368.

# ТЮБЕГАТАН КОНИ КАЛИЙЛИ МАЪДАНЛАРИНИНГ МИНЕРАЛОГИК ТАРКИБИНИ ЎРГАНИШ

**Вахруллаева М.О.,Адилова М.Ш., Мавлянов М.Б., Элмуродов Д., Shermatov X.Yu.**
**Тошкент кимё-технология институти**
**Тошкент кимё-технология институти Янгиер филиали**

**Аннотация.** Тадқиқотнинг мақсади: Тюбегатан кони калийли маъданлари кимёвий таркиби, уларнинг мустаҳкамлиги ўзгаришини зарраларнинг фракцион таркиби ўзгаришига боғлиқлигини аниқланди**.** Олинган натижалардан келиб чиқиб, калийли маъданларни таркибидаги KCl миқдори, эримайдиган қолдиқ ва зарралар ўлчамининг ўзаро боғлиқлигига кўра шламсизлантириш технологияси таклиф этилди.

**Аннотация.** Цель исследования: установлено, что химический состав тугетанских калийных руд, изменение их прочности зависит от изменения фракционного состава частиц. На

основании полученных результатов предложена технология обеззоливания калийных руд по соотношению содержания KCl, нерастворимого остатка и размера частиц.
**Abstract.** The purpose of the study: it was determined that the chemical composition of Tubegatan potash ore, the change in their strength depends on the change in the fractional composition of the particles. Based on the obtained results, the technology of deliming potash ores was proposed according to the relationship between the content of KCl, insoluble residue and particle size.
**Калит сўзлар:**паст навли силвинит,фракция, мустахкамлик, ангидрид, калий хлорид, натрий хлорид,эримайдиган қисм,шламсизлантириш.
**Ключевые слова:** низкосортный сильвинит, фракция, прочность, ангидрид, хлорид калия, хлорид натрия, нерастворимая часть, обеззоливание.
**Key words:** low-grade sylvinite, fraction, strength, anhydride, potassium chloride, sodium chloride, insoluble part, deliming.
**Кириш.** Дунёда аҳоли сонининг кўпайиши ва экин майдонларининг қисқариши минерал ўғитларга бўлган талабнинг ошишига олиб келади, бу эса ушбу маҳсулот нархи ўсишининг етакчи омилларидан биридир. Минерал ўғитлар жаҳон бозори азотли, фосфорли ва калийли ўғитларнинг 3 та асосий сегментини ўз ичига олади. Жаҳон бозорида азотли ўғитларнинг улуши — 56 фоиз, фосфор — 24 фоиз ва калий — 20 фоизни ташкил қилади.
Ўзбекистондаги энг йирик минерал ўғитлар ишлаб чиқарувчи заводлардан бири Деҳқонобод калий заводи бўлиб, ушбу заводда 600,2 млрд сўмлик минерал ўғитлар ишлаб чиқарилган ва 2020 йилга нисбатан ўсиш суръати 1,9 фоизни ташкил қилган. Шунингдек, соф ҳолда 197,4 минг тонна калийли минерал ўғитлар ишлаб чиқарилган бўлиб, режага нисбатан 91,4 фоизга тенг бўлган.Бугунги кунда жаҳон миқёсида паст навли калийли рудаларни қайта ишлаш саноатига жалб қилиш ва қайта ишлаш технологияларини яратишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада паст навли сильвинитлардан калий хлорид олиш технологиясини такомиллаштириш долзарб вазифалардан ҳисобланади.Бу борада, республикамизда Тюбегатан кони паст навли калийли маъданларининг минералогик таркибини ўрганиш; бойитишнинг галургия усулини назарий таҳлил қилиш ҳамда лаборатория шароитида тадқиқотлар олиб бориш; турли хил технологик параметрларнинг маҳсулот чиқишига таъсирини тадқиқ қилиш ва мақбул шароитни топиш; жараёнда ҳосил бўладиган эритма ва қуйқаларнинг реологик хоссаларини ўрганиш; паст навли сильвинит маъданларини галургия усулида бойитишнинг технологик схемасини ишлаб чиқиш; бойитиш жараёнида ҳосил бўладиган маҳсулот ва чиқиндилардан NPK- ўғитлар олиш технолгиясини ишлаб чиқиш ва техник-иқтисодий баҳолашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.
**Тадкикот объекти ва методикаси.** Тадқиқот объекти сифатида Тюбегатан кони шахтаси ангидридли сильвинитлари олинган булиб, тадкикот ишини олиб боришда кимёвий-минералогик таркибни аниклаш усулларидан фойдаланилди.
**Олинган натижалар ва уларнинг тахлили.** Тюбегатан кони калийли маъданлари кимёвий таркиби, уларнинг мустаҳкамлиги ўзгаришини зарраларнинг фракцион таркиби ўзгаришига боғлиқлигини аниқлаш учун таркибидаги калий хлориднинг ўртача оғирлик миқдори қуйидагича бўлган калийли хом ашё намуналари ўрганилди: 1-сильвинит (9,2 % KCl), 2-сильвинит (13,2% KCl), 3-сильвинит (18,3% KCl), 4-сильвинит (26,1% KCl), 5-сильвинит (31,1% KCl). Майдаланган намуналар 0,5мм; 1мм; 3мм; 5мм; 7мм ва 10 мм ли элаклар тўпламидан ўтказилди ва зарралари ўлчами -10+7 мм; -7+5мм; -5+3мм; -3+1мм; -1+0,5мм; -0,5+0мм бўлган фракцияларга ажратилди. Фракцияларнинг оғирлиги ўлчаниб, фоиз таркиби ва мустаҳкамлиги аниқланди. Тажриба натижалари 1 - жадвалда келтирилган.

**1 - жадвал**

**Тюбегатан кони калийли маъданларининг мустаҳкамлигини зарраларнинг фракцион таркиби ўзгаришига боғлиқлиги**

| № | | Намуналар рақами | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |

| | Зарралар ўлчами, мм | Фракция миқдори, % | Мустаҳкамлик, МПа | Фракция миқдори, % | Мустаҳкамлик, МПа | Фракция миқдори, % | Мустаҳкамлик, МПа | Фракция миқдори, % | Мустаҳкамлик, МПа | Фракция миқдори, % | Мустаҳкамлик, МПа |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | -10+7 | 23,80 | 4,30 | 15,1 | 3,90 | 11,20 | 3,20 | 12,20 | 2,85 | 10,40 | 2,62 |
| 2 | -7+5 | 31,35 | 3,92 | 16,18 | 3,54 | 13,90 | 2,95 | 17,30 | 2,63 | 12,60 | 2,46 |
| 3 | -5+3 | 10,90 | 3,62 | 12,04 | 3,26 | 12,42 | 2,74 | 9,25 | 2,51 | 14,60 | 2,34 |
| 4 | -3+1 | 15,30 | 3,14 | 21,50 | 2,97 | 26,20 | 2,36 | 24,30 | 2,18 | 26,40 | 2,08 |
| 5 | -1+0,5 | 10,10 | 3,43 | 20,85 | 3,14 | 24,22 | 2,57 | 23,10 | 2,34 | 23,20 | 2,25 |
| 6 | -0,5+0 | 8,55 | 3,67 | 14,33 | 3,32 | 12,06 | 2,87 | 13,85 | 2,62 | 12,80 | 2,40 |

1 - жадвалга кўра, зарралар ўлчами -10+7 ва -7+5 мм бўлган энг кўп фракция миқдори 1-намунада кузатилган: -10+7 мм ли фракция 23,80% ни, -7+5 мм ли фракция эса 31,35% ни ташкил этган. Қолган намуналарда ушбу фракциялар миқдори 10,4 дан 17,3% гача ўзгарган. -5+3 мм ли фракция миқдори барча намуналарда деярли бир хил бўлиб, 9,25 - 14,60% оралиғидадир. Зарралар ўлчами -3+1 ва -1+0,5мм ли фракциялар асосан 2-5 намуналарда нисбатан кўпроқ миқдор - 20,85-26,40% ни ташкил этиб, -0,5+0 мм ли фракция миқдори эса намуналарда 8,55 дан 14,33 % гача оралиқда ўзгаради. Калийли хом ашё намуналарининг мустаҳкамлигини зарралар ўлчамига боғлиқлигини ўрганиш натижалари зарралар ўлчами катталашиб, намуналардаги калий хлорид миқдори камайган сари намуналарнинг мустаҳкамлиги ўсиб боришини кўрсатди. Масалан, биринчи намунада (9,2 % KCl) зарралар ўлчами -0,5+0 мм бўлганда мустаҳкамлик 3,67 МПа бўлса, -10+7 мм ли фракциянинг мустаҳкамлиги эса 4,30 МПа ни ташкил этган.







Намуна -3 (-3+1 мм ли фракция)







Намуна -5 (-3+1 мм ли фракция)

**1-расм.3, 5 - намуналарнинг электрон тасвири ва энергодисперсион спектрлари (намуналар таркибидаги KCl миқдори: 3-18,3%; 5-31,1%)**

Физик-кимёвий таҳлил усулларидан фойдаланиб турли ўлчамдаги намуналарнинг кимёвий таркиби аниқланди. Намуналар ва уларнинг сувда эримайдиган қолдиғининг (э.қ.) элементар таркибини аниқлаш учун энерго-дисперсион элемент таҳлил усули қўлланилди ва қуйидаги элементларнинг миқдорий таркиби аниқланди: O, Na, Mg, Al, Si, S, Cl, K, Ca, Fe, C. Олинган натижалар 1 -расмда келтирилган. Тадқиқот натижаларидан кўринадики, Тюбегатан кони калийли маъданларини бойитиш жараёнида маъданларни турли ўлчамдаги фракцияларга ажратилиши маъдан таркибидан KCl ни ажратиб олиш жараёнини осонлаштиради.

## Фойдаланилган адабиётлар

1.Ибрагимов Г.И.,Эркаев А.У., Якубов Р.Я.,Туробжонов С.М. Калий хлорид технологияси. –Т.; 2010. – 200 б.

2.Эркаев А.У., Адилова М.Ш., Мавлянов М.Б. Тюбегатан кони шахтаси ангидридли сильвинитларини қайта ишлаш жараёни тадқиқоти// Композицион материаллар, №4. 2020. 112-115 б.

3. Мавлянов М.Б., Адилова М.Ш., Эркаев А.У. Изучение влияния технологических параметров на процесс кристаллизации хлорида калия // Узбекский химический журнал, 2022. №3. 20-28 б. http://www.uzchemj.uz

4. Мавлянов М.Б., Адилова М.Ш., Эркаев А.У. Изучение процесса получения хлорида калия галургическим способом из сильвинита Тюбегатанского месторождения //«Universum:технические науки» Выпуск:11(104) ноябрь, 2022. С.30-38.

5. Мавлянов М.Б., Адилова М.Ш., Эркаев А.У. Переработка низкосортных сильвинитов Тюбегатанского месторождения // Материалы докладов 86-й научно-технической конференции профессорско-преподавательского состава, научных сотрудников и аспирантов 31 января – 12 февраля, Белорусский государственный технологический университет, г.Минск 2022.102-104 с.

# XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI DEMOGRAFIK JARAYONLAR.

**Aslonov Jurabek Mansurovich**
**Navoiy davlat pedagogika insituti**
**2-kurs magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1960-1980-yillarda O‘zbekistondagi demografik jarayonlar, aholi etnik tarkibidagi, miqdoridagi o‘zgarishlar, “markaz” tomonidan “sovet xalqi”ni yaratishga intilishlar, boshqa xalqlarning yurtimiz hududiga ko‘chib kelishlari, shahar vaqishloq aholisining o‘zgarishi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** demografik jarayonlar, “sovet xalqi”, ko‘p bolalik, mehnatga layoqatli aholi, ishchilar sinfi, “ rivojlangan sotsialistik jamiyat”, katta yoshli aholi.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены демографические процессы в 1960-1980-е годы в Узбекистане, изменения этнического состава и численности населения, усилия «центра» по

созданию «советской нации», иммиграция других народов на территорию нашей страны, научно проанализированы изменения численности городского и сельского населения.
**Ключевые слова:** демографические процессы, «советский народ», многодетность, трудоспособное население, рабочий класс, «развитое социалистическое общество», пожилое население.
**Abstract.** In this article demographic processes in the 1960-1980s in Uzbekistan, changes in the ethnic composition and population, the efforts of the "center" to create a "Soviet nation", immigration of other peoples to the territory of our country, changes in the size of the urban and rural population are scientifically analyzed.
**Key words:** demographic processes, "Soviet nation", large families, working-age population, working class, "developed socialist society", elderly population.
Barchamizga ma'lumki, hozirda O'zbekiston Respublikasi hududida qadim-qadimdan turli millat va elatlar, qabila-yu katta-kichik xalqlarning vakillari istiqomat qilishgan. Yurtimiz doimiy ravishda ko'pmillatli hudud sifatida e'tirof etilgan.
O'rganilayotgan davrda ham Respublika aholisining etnik tarkibi xilma-xilligi saqab qolindi. O'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar, tojiklar va qoraqalpoqlar bilan bir qatorda ruslar, arablar, tatarlar, uyg'urlar, eroniylar, lo'lilar, armanlar, nemislar va mesxeti turklari kabi boshqa millat va elat vakillari ham istiqomat qilardi.
1989-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 127 millat, elat va etnik guruh vakillari istiqomat qilardi. SSSRda kommunistik mafkuraning eng muhim maqsadi,- degan edi I.A. Karimov,-aholini baynalmilallashtirish hamda "markaz"ning "sovet xalqi" degan o'ziga xos sotsial birlikni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish chog'ida barcha milliy xususiyatlar asosiy to'siq hisoblangani sir emas edi.[57]
XX asrning 60-yillariga kelib "rivojlangan sosialistik jamiyat" qurish g'oyasi ilgari surildi. 1959 yilda KPSS XXI syezdi tantanali ravishda "SSSRda sotsializmning tantana qilgan" ligini e'lon qildi va u "sosialistik millat" larning shakllanishi va ravnaq topishi bilan bog'liq bo'lib, go'yoki taraqqiy etttirishning muhim yadrosi hisoblandi. Bu jamiyatda har bir millat va elat, ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar va mehnatkash ziyolilar bir xil ijtimoiy tuzilishga ega bo'lib, "sovet xalqi"ning vujudga kelishi esa bu jarayonlarning muhim belgisi edi.[58]1926-1989-yillar oralig'ida o'zbeklarning umumiy soni ancha ortgani kuzatiladi: 1926-yilda O'zbekistonda 3.4 mln. o'zbek yashagan bo'lsa, 1959-yilda 5 mln. kishidan ortgan, 1970-yilda 7.7 mln., 1979-yilda 10.5 mln., 1989-yilda 14.1 mln. nafarga yetgan, ya'ni 1926-1989-yillar mobaynida o'zbeklar nufuzi 4 barobardan ziyod o'sgan. Faol uyushish an'analari natijasida o'zbeklarning salmog'i respublika aholisining 1926-yilda 65.9 foizini, 1979-yilda 68,7 foizini va 1989-yilda 71.1 foizini tashkil qilgan.[59] Biroq yuqoridagi raqamlar respublikada faqatgina o'zbeklarning soni ko'payganligini anglatmaydi. O'zbeklar bilan birgalikda boshqa xalqlarning ham soni doimiy ravishda oshib borgan. Mahalliy aholi vakillari sonining boshqa millat vakillaridan ko'pligiga qaramasdan, ko'pgina mas'ul lavozimlarga ulardan juda kamchiligi tayinlangan. Bundan tashqari, oliy o'quv yurtlarida ta'lim asosan rus tilida olib borilganligi sababli mahalliy aholi vakillaridan bilimli mutaxassislar soni juda kamchilikni tashkil etardi.
O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining Farg'ona vodiysi oblastlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish masalalariga ba'gishlangan kengashida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Nima uchun mahalliy millatga mansub kishilar orasida muhandis-texnik xodimlar yo'q? Men bu savol haqqoniy savol, deb hisoblayman. Bu muammo ustida hammamiz bosh qotirishimiz kerak. Men boshqa misollar keltirib o'tirmayman, lekin shuning o'zi ham barchamizni hushyor torttirishi zarur."Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston kabi boshqa ittifoq respublikalarida ham partiya markaziy qo'mitasi, viloyat, tuman, partiya qo'mitalarining ikkinchi kotibi lavozimini odatda rus millatiga mansub

---

[57] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. T.6. – B-79.
[58] Yunusova X. XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va ma'naviy hayot. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.2009. B-138.
[59] O'zbekiston tarixi. Ikkinchi kitob (1939-1991-yillar). – Toshkent – "O'zbekiston" – 2019. 288-bet.

kishilar egallar edilar. Respublikalardagi davlat mansablarining muayyan doirasi albatta, bevosita Moskvadan tayinlanadigan kishilar bilan toʻldirilardi. Maʼlumki, oʻzbeklarning 80 foizga yaqini asosan qishloq joylarda istiqomat qilardi, u yerlardagi shart-sharoitlar shaharlarga qaraganda birmuncha pastroq boʻlib, bu hol mahalliy aholining muayyan darajada noroziligiga sabab boʻlardi va kelib chiqishi boshqa boʻlgan millatlar bilan oʻzaro kelishmovchiliklarga sabab boʻlardi.
Biroq 1970-yilda ruslar, ukrainlar, beloruslar respublika poytaxti – Toshekent aholisining 44.1 foizini, oʻzbeklar esa 37 foizini tashkil etdi.[60] Ushbu raqamlarning oʻziyoq koʻchirib keltirilgan millat vakillarining asosan shahar joylarida joylashganliklarini va yaxshiroq sharoit bilan taʼminlanganliklarini koʻrsatib turibdi. Sanoat sohasida ham, asosan mahalliy aholi vakillari lavozimi va mavqeyi pastroq boʻlgan vazifalarga tayinlangan.Shunga qaramasdan, XX asrning ikkinchi yarmida Oʻzbekistonda shahar aholisi salmogʻi jadal tarzda oshib bordi. 1940-yilda respublikadagi jami aholining 24,5%ini shahar aholisi tashkil etgan boʻlsa, 1970-yilga kelib, 36,6 %ga yetgan. 1989-yilga kelib, respublikadagi jami aholining 40,7%i shahar aholisidan iborat edi. Umuman olganda, 1926-1989-yillar orasida Oʻzbekistonda shahar aholisi qariyb ikki baravarga oshgan.[61]
Koʻrib oʻtilayotgan yillarda shaharlarda tugʻilish qishloqdagiga nisbatan 1,5 baravarga kam boʻlsa-da, ammo shahar aholisi salmogʻi 1,4 baravar tezroq oshib borgan. Bunga asosan migratsiya yaʼni, qishloq aholisining ham boshqa respublikalardan katta miqdordagi koʻchib kelishi va maʼmuriy-hududiy oʻzgarishlar sabab boʻlgan edi. Yevropa xalqlariga mansub millatlar salmogʻi respublikamiz sanoat korxonalarida 70-80-yillar oʻrtalarigacha boʻlgan davr mobaynida ayniqsa tez oʻsdi. Ularning salmogʻi «Navoiyazot» ishlab chiqarish birlashmasida 63,1 foiz, mashinasozlik tarmoqlarida, jumladan, Toshkent traktor zavodila 50,8 foiz edi. Yengil sanoat tarmoqlarida, jumladan Toshkent toʻqimachilik kombinatida 1972-yili 12.897 kishidan iborat 46 millat vakili ishlagan boʻlsa, ularning 6 789 nafari ruslar, 2 448 nafari tatarlar, 392 nafari ukrainlar va 2276 nafari esa oʻzbeklar, qolgan qismi esa boshqa millat vakillaridan iborat edi.[62] Yuqoridagi maʼlumotning oʻziyoq, ushbu sanoat korxonasida ruslar va tatarlar mahalliy aholidan ham koʻpligini koʻrsatib turmoqda. Oʻzbekistonda aholi soni boshqa davlatlarga nisbatan tez oʻsib bordi. Buning bir qancha sabablari bor. Avvalo, bu Respublikamizdagi tugʻilish darajasining yuqoriligi bilan bogʻliqdir. Aynan shu sababli mehnatga layoqatli kishilar sonining umumiy aholi tarkibidagi hissasining kamligiga olib keldi. Bu esa, oʻz navbatida, mehnatga layoqatli va layoqatsiz aholi nisbatiga va yashash darajasining shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatmasdan qolmadi. Chunki mehnat faoliyati bilan band boʻlganlarning soni mehnatga layoqatsizlar va nafaqa yoshidagilarning umumiy sonidan ancha past edi. Aynan mana shu omillar Oʻzbekistonda keskin va ziddiyatli ijtimoiy-demografik vaziyatni vujudga keltirdi. Oʻzbekiston tugʻilish darajasi hamda aholining tabiiy oʻsishi yuqori boʻlgan hudud hisoblangan. Aholi sonining oʻsishi boʻyicha yurtimiz Sobiq Ittifoq davlatlari orasida Tojikistondan keyin ikkinchi oʻrinda turar edi. Aholining tabiiy oʻsishi va tugʻilish darajasi Sobiq Ittifoqning oʻrtacha darajasidan ham 2 baravar koʻp edi. XX asrning 70-80-yillar davomida ham Oʻzbekiston aholisi har yili oʻrtacha 3 foizga koʻpayib bordi. Har yili deyarli 300 ming kishi mehnat qilish yoshga yetardi. Bu yillarda mahalliy mehnat resurslari yaʼni ish oʻrinlari ortib borishiga qaramasdan, milliy ishchi kadrlar tayyorlanmas edi.Oʻzbekistonda 1970-yili har 1000 kishiga nisbatan tugʻilgan bolalar soni 33,6 foizni, 1980-yilda – 33,8, 1986-yilda esa 37,8 foizni tashkil etgan boʻlsa, Ittifoqda oʻrtacha hisobda bu 17,4, 18,3 va 20 foizni tashkil etgan. Tugʻilish, ayniqsa, respublikamiz qishloq joylarida yuqori boʻldi, bu aholining etnik tarkibi bilan bogʻliqdir. Qishloqlarda koʻpbolalik anʼanasini saqlab qolgan mahalliy aholi salmogʻi 92.6 foizni tashkil etar edi.[63] Musulmon xalqlari, jumladan, oʻzbeklar eʼtiqod qiladigan islom dini ham, asrlardan beri shakllanib kelgan milliy urf-odatlarning ham koʻp bolalikni qoʻllab-quvvatlashi boshqa xalqlardan farqli tomonimiz boʻlib xizmat qildi. Xalqimizning oila qurib, farzand koʻrishga intilishi hamda

[60] O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – 575-b.
[61] Tog'ayeva A. XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston shaharlari va shahar madaniyati (1950-1990-yillar). Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. Toshkent. 2020.50-b
[62] Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). T. Sharq. 1999. 116-bet
[63] Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). T. Sharq. 1999. 116-bet

nikohning muqaddas hisoblanishi tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib qolishiga olib keluvchi omillardandir. O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, bu davrda oilaviy munosabatlarda, turmush tarzida, er-xotin, ota-ona va bolalar munosabatlarida bir qancha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbek oilalarida asrlardan buyon shakllanib kelgan an’analarga ko‘ra, ota yoki oilaning yoshi katta erkak kishisi oila boshi hisoblangan. Erkaklarning oilada yetakchiligi butun XX asr davomida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi.1959-yilda 1 682 235 ta oiladan 1 403 625 tasi yoki 83 foizining oila boshlig‘ini erkaklar hamda 278 610 ta oilani yoki 17 fozini ayollar tashkil etgan. 1970-yilda esa bu miqdor 78 foiz oilada erkaklar 22 foiz oilada ayollar oila boshlig‘i ekanligidan dalolat beradi. Ayollarning oiladagi yetakchiligining o‘sib borish jarayoni keyinchalik ham kuchayib bordi.[64]
Respublikamizda 1970-yilning boshida 11 799 000 aholi yashagan bo‘lsa, 1986-yilda esa aholi soni 18 423 000 kishidan oshib ketdi. Bu yerda tabiiy o‘sishdan tashqari migratsiyaning ham ma’lum darajada roli bor, albatta. Ayrim yillarda migratsiya umumiy aholi sonining 10 foizigacha o‘sishini ta’minladi.[65]XX asrning 60-80-yillarida Respublika hududida ko‘plab yangi shaharlarning vujudga kelishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi hamda yirik sanoat korxonalarining qurilishi O‘zbekistonga boshqa mintaqalardan aholining ko‘p miqdorda ko‘chib kelishiga sabab bo‘ldi. Boshqa o‘lkalardan kelganlarning ko‘pchiligiga vaqtinchalik ish taklif qilinardi. Biroq, ularning aksariyati shartnoma muddatlari tugagandan keyin ham o‘z yurtlariga qaytib ketmasdan O‘zbekistonda doimiy qo‘nim topardilar. Natijada, respublikada bunyod etilgan ko‘pgina yangi shaharlar – Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Chirchiq, Olmaliq, Yangiyer, Bekobod, Angrenda mahalliy tub aholi vakillari kamchilikni tashkil qilardi. Aksincha, Ittifoqning boshqa hududidan ko‘chib kelganlar ushbu shaharlardagi aholining asosiy qismini tashkil qilardi. Migratsion siyosatning sun’iy ravishda tashkil qilinganligi millatlararo munosabatarga rahna solganini hamda ijtimoiy-iqtisodiy tangliklarni yuzaga keltirganini bir nechta tarixiy misollar ko‘rsatib berdi.
Respublikamizda malakali ishchi kadrlar mahalliy aholi ichidan tayyorlanmasdan, chetdan tayyor kadrlar keltirishni afzal deb bilgan mahalliy mutasaddi rahbarlar ular uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berdilar. Mahalliy aholi esa bunday huquq va imkoniyatlardan mahrun qilindi. Hatto Farg‘onadek azim shaharda siyosiy madaniyati g‘ovlab ketgan boshliqlar tazyiqida qishloqdan kelganlar, shahar atrofidagi mahalliy kishilarni ishga olmaslik haqida maxsus qaror qabul qilindi.[66]O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbeklar esa migratsion jarayonga juda kam jalb qilingan. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Masalan, birinchi navbatda migratsion jarayon O‘rta Osiyo xalqlarining an’anaviy xususiyatlariga mos tushmas edi. O‘zbek xalqi azal-azaldan o‘z kindik qoni to‘kilgan yurtga sodiqligi, qarindosh-urug‘chilik an’analari bilan ajralib turgan. Buni 1979-yilda o‘tkazilgan Butunittifoq aholi ro‘yxati natijalaridan ham ko‘rish mumkin.
Tug‘ilgan joyida muqim yashab kelayotgan aholi salmog‘i O‘zbekistonda 77,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, mamlakat bo‘yicha – 52,8, Rossiyada 46,1, Qozog‘istonda – 49,0, Litvada – 44,5, Latviyada – 39,6, Estoniyada 37,7 foizga teng bo‘lgan.[67] O‘zbekistonda qishloq aholisining migratsiya jarayonida sust harakat qilishiga ularning asosan dehqonchilik qilish uchun qulay bo‘lgan vohalarda yashayotganligi, azal-azaldan shug‘ullanib kelayotgan qishloq xo‘jalik mehnat turlarini afzal ko‘rishi, qarindosh-urug‘chilik aloqalari hamda oila qurishdagi qiyinchiliklar asosiy sabablar bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Buning natijasida qishloq aholisining migratsiyasi juda past miqdorda saqlanib qoldi. Buni quyidagi jadvaldan ham ko‘rishimiz mumkin (yakunga nisbatan foiz hisobida).[68]

| **Migratsion oqimlar** | **Yillar** | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **1974** | **1979** | **1982** | **1983** |
| Shahar-shahar | 40,8 | 37,5 | 36,6 | 34,1 |
| Qishloq-shahar | 31,0 | 31,4 | 31,5 | 33,1 |
| Shahar-qishloq | 19,3 | 18,6 | 19,3 | 20,0 |

[64] O'zbekiston tarixi. Ikkinchi kitob (1939-1991-yillar). – Toshkent – “O’zbekiston” – 2019. 292-bet.
[65] Bobojonova D. O’zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). T. Sharq. 1999. 125-bet
[66] Choriev A., Choriyev S. Millatlararo munosabatlar madaniyati. Qarshi. «Sovet O’zbekistoni». 1993-yil 13-iyun. 43-bet.
[67] Численность и состав населения СССР. По данным Всесоюзной переписи населения 1979 года. С.360-363
[68] Максамота Л. П. Миграция населения Узбекистана, С-36.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Qishloq-qishloq | 8,4 | 11,1 | 11,1 | 11,8 |
| Noma'lum | 0,5 | 1,4 | 0,6 | 1,0 |
| Jami | 100 | 100 | 100 | 100 |

Yuqoridagi jadvaldan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, shahalarlaro hamda shahar hududlaridan qishloqlarga qilinadigan migratsiya respublikamizda yildan yilga kamayib borgan. Qarama-qarshi oʻlaroq qishloq hududlaridan shaharlarga koʻchib borish doimiy ravishda oʻsib borgan. Mahalliy millat, ayniqsa qishloq yoshlarining migratsion harakatchiligini toʻsib turadigan eng asosiy omillardan biri bu ularning rus tilini yaxshi bilmasliklari edi. Endigina hunar-texnika bilim yurtini tamomlab, shaharga ish topish maqsadida kelgan, biror ishlab chiqarish korxonasiga ishga kirishga muvaffaq boʻlgan yoshlarning koʻpchiligi rus tilida muomala qilish, fikrini erkin bayon qilish, ish oʻrganishda qiynalganliklari uchun koʻp hollarda ishdan ketishga majbur boʻlardilar. Aynan, ularga, ya'ni mahalliy yoshlarga e'tibor qaratish oʻrniga koʻpgina zavod va fabrikalar, korxonalar, va hatto ayrim vazirliklar ham chetdan ish kuchini taklif qilishni afzal koʻrardilar. Respublika hududidagi viloyatlarda mehnat qilayotgan ishchilar orasida mahalliy yoshlar taqsimoti ham turlicha edi. Masalan, Fargʻona vodiysidagi sanoat korxonalarida oʻzbek ishchilari 40-60 fozini tashkil qilgan boʻlsa, Toshkent viloyatida esa bu 20-23 foizni egallagan. Andijon mehxanika zavodida oʻzbeklar 51 foiz boʻlsa, Toshkent qishloq xoʻjaligi mashinasozligi zavodida 19 foizni tashkil etardi.[69] Ayrim hududlardagi ishlab chiqarish korxonalarida mahalliy millat vakillari kundan kunga kamayib borardi. Jumladan, "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasida kadrlar maslasida ishga qabul qilinayotganlarning milliy tarkibiga umuman ahamiyat berilmas edi. Tadqiqot natijalaridan ma'lum boʻldiki, 1985-yilning yanvar holativa koʻra ishlab chiqarish birlashmasining umumiy ishchilar sonining 26,3 foizigina milliy kadrlar ekan. Muhandis-texnik xodimlar atigi 8,5 fozini, xizmatchilar esa 9,4 foizni, xizmat koʻrsatuvchi kichik xodimlar 64 foizni tashkil etar ekan.[70] Agar biz shaharlardagi umumiy ishchilar soniga nisbatan oʻzbek ishchilarining tutgan oʻrnini solishtirsak, ular oʻrtasidagi farqning anchagina katta ekanligini koʻramiz. Misol uchun, 1980-yillarning boshlarida Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasida oʻzbek ishchilari 21 foizni, Toshkent qishloq xoʻjaligi mashinasozligi zavodida – 19 foizni, Toshkent traktor zavodida – 18 foizni tashkil etgan boʻlsa, Andijon shahridagi Remont-mexanika zavodida – 30 foizni, Konserva zavodida – 57 foizni, Elektr apparati zavodida – 63 foizni egallar edi.[71] Respublikada aholining tabiiy oʻsish darajasi ittifoqdagi boshqa davlatlardan ancha yuqori edi. Shuni hisobga olgan holda, mehnatga layoqatli aholi orasidan kadrlar yetishtirishni koʻpaytirish, ularga yetarli darajada sharoit yaratib berish va bu ishga jiddiy yondashish talab etilar edi. Biroq yuqoridagi muammolar e'tiborsiz qoldirildi, qilingan ishlarning darajasi esa juda sust edi. Oʻz oʻrnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, Sobiq Ittifoq davrida oʻzbek ayollari ham zavod va korxonalar faoliyatiga faol jalb qilindi. Oʻzbek ayollarining ishchi va xizmatchilari orasidagi soni 80-yillar oʻrtalariga kelganda oldingi oʻn yillikka nisbatan 2 baravar ortdi. Buning asosiy sababi 1975-1985-yillarda 570 dan ziyod yirik ishlab chiqarish korxonalarning qishloq joylari va posyolkalarida sex va filiallarning ochilishi boʻldi.[72] Shu bilan bir qatorda Oʻzbekistonda ishlab chiqarishda band boʻlmagan, biroq mehnatga layoqatli fuqarolar soni ancha edi. Uning 80 foizdan koʻprogʻini xotin-qizlar, yarmiga yaqinini 15-29 yoshdagi yoshlar tashkil etardi. Ammo, bu raqamlarning anchagina qismini uy-roʻzgʻor bilan band boʻlgan ayollar tashkil etardi hamda ularning koʻpchiligi koʻp bolali edi. Ularni ham, qisman ijtimoiy band ayollar qatoriga kiritish mumkin. Biroq ularning erkaklar bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonalarida, zavod va

[69] Таксонов А. Развитие промышленного рабочего класса на селе. Коммунист Узбекистана», 1987, 7-son, 31-bet

[70] Каримов М. Х. Производственный коллектив в интернациональном воспитании трудящихся: сравнительный анализ (по социологическим исследованиям в РСФСР и Узбекской ССР). Национальные отношения и национальные процессы в СССР Вопросы истории. Сборник научных трудов М., 1990, 203- бет.

[71] Таксанов А. К. Перестройка и некоторые проблемы развития националных кадроы индустриального рабочего класса. 23-bet.

[72] Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). T. Sharq. 1999. 153-bet

fabrikalarida ishlashlari uchun yetarlicha sharoit yaratilmagan edi. 1975-yilda respublikada har 1000 ayolning 210 nafari xalq xo'jaligida band edi.[73]

Umuman olganda, XX asrning 60-80-yillarida yurtimizdagi demografik jarayonlar oldingi yillardagidan unchalik ham farq qilmadi. Faqatgina, yurtimizda qancha ko'p zavod va fabrikalar qurilgan bo'lsa, boshqa davlatlardan yuqoriroq toifali ishchilarning kelishi kuchaydi, mahalliy aholining yashash sharoiti bilan solishtirganda boshqa millatlar uchun yaxshiroq hayot va ish sharoitlari ta'minlab borildi.

## "O'ZGARMAS TOK QONUNLARI"NI PHET DASTURIDA O'QITISH METODIKASI

**Mamatkulov B., Fizika kafedrasi katta o'qituvchisi**
**Shermuxammedov A., Mamatkulova G.**
**Fizika kafedrasi assistentlari**
**Zayniddinova N. Talaba, Jizzax politexnika instituti**

**Annotatsiya.** Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullaridan biri "O'zgarmas tok qonunlari" mavzusini o'qitishda Simulyatsiya Fizika Ta'limi va Texnologiyasidan (PhET) foydalanishdir.. Ushbu maqolada fanni o'qitishda PhET elektron saytidan foydalanish metodikasiga oid mulohazalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** talim, pedagogika, o'zgarmas tok, PhET saytiga kirish manzili https://phet.colorado.edu/uz/simulations/filter?subjects=physics&type=html,prototype , elektr toki, elektr qarshilik, innovatsiya.

**Annotation**: One of the methods of using innovative technologies in education is the use of Simulation Physics Education and Technology (PhET) in the teaching of the topic "Laws of constant current". This article contains comments on the methodology of using the PhET website in teaching science.

**Key words**: education, pedagogy, constant current, PhET site access https://phet.colorado.edu/uz/simulations/filter?subjects=physics&type=html,prototype, electric current, electric resistance, innovation.

**Аннотация:** Одним из методов использования инновационных технологий в образовании является использование PheT в преподавании темы «Законы постоянного тока». В статье приведены комментарии по методике использования сайта PheT в. преподавание науки.

**Ключевые слова**: образование, педагогика, постоянный ток, доступ к сайту PheT https://phet.colorado.edu/uz/simulations/filter?subjects=physical&type=html,прототип, электрический ток, электрическое сопротивление, инновация.

Jahon miqyosida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga imkon beruvchi axborot-ta'lim muhitini shakllantirishning muhim omili sifatida ta'lim oluvchilarning izlanish faolligi, ijodkorligi, tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan fizik eksperimentlarni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish zamonaviy didaktik vositalar, shakl va metodlarni takomillashtirishni taqozo etadi. Bu borada fizika o'qitishda interfaol ta'lim metodlarini qo'llash, fizika o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullarini integratsiyalash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida mujassamlashtirish, talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini bosqichmabosqich rivojlantirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5032 son Qarorihamda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari rivojlantirish, ularning natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish masalasiga alohidauqtirilgan [1-2].

Fizika ta'limida axborot va kompyuter texnologiyasini qo'llanishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu fizikaviy jarayonlarni va tajribalarni kompyuterda modellashtirish hisoblanadi. Kompyuter modellari bu an'anaviy va noan'anaviy darsjarayonlarini faollashtiradi va o'qituvchining dars o'tishiga ko'pgina engilliklar tug'diradi, fizikaviy jarayonlarni oydinlashtiradi, effektlarni

[73] Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). T. Sharq. 1999. 154-bet

saqlashga, monitorda (ekranda) o‘quvchilarga namoyish etib va bir necha marta takrorlab ko‘rsatish uchun katta imkoniyatlar yaratadi[3]. Kompyuter yordamida o‘qitishda modellashtirish vaqt masshtabini, parametrlarni keng oraliqda tanlab va tajriba shartlarini o‘zgartirishga, tajribada mumkin bo‘lmagan hollarni nomoyish etish imkoniyatlarini yarata oladi. Ayrim hollarda tajribani xarakterlovchi kattaliklarning vaqtga bog‘liqlik grafigini ekranga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu grafiklar o‘tkazilayotgan tajriba bilan bir vaqtda ekranga chiqadi, unga maxsus ravshanlikni beradi va o‘rganiliayotgan jarayonning umumiy qonuniyatini tushunishni osonlashtiradi. Bu vaqtda kompyuter yordamida noan’anaviy o‘qitish natijalarini grafik usulda aks ettirishi (tasvirlanishi), olinayotgan ma’lumotning katta hajmini o‘zlashtirishni engillashtiradi (ixchamlashtiradi)[4].O‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llanishning maqsadga muvofiqligi, bugungi kunda o‘qitishning mazmuni, formasi va metodlari bilan bog‘liqligini
-quyidagi maqsadlar bilan ajratish mumkin:
-vaqtni tejash;
-pedagogik texnalogiyadan foydalanish;
-dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirish darajasi;
Shuning uchun, zamonaviy o‘qitish texnologiyasini amalga oshirish, noan’anaviy o‘quv manbalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.
Quyida noan’anaviy yangi o‘quv turlarini tashkillashtirishga yordam beradigan kompyuterda modellashtirilgan dasturlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rgatuvchi kompleks tizimlardan “PhET” dasturi yordamida yaratilayotgan virtual laboratoriyalar o‘quv laboratoriyalarimiz sharoitida bajarish imkoni bo‘lmagan jarayonlarni modellaridan foydalanib talabalar bilimini oshirish va murakkab fizikaviy jarayonlar haqida ma’lumot beramiz[5].
Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, bu o‘rgatuvchi kompleks dasturlar yordamida fizik hodisa va jarayonlarda kuzatiladigan fizik qonuniyatlarni bog‘lab tushuntirish qator afzalliklarga ega. Yaratilgan kompyuter taqdimotlari, animatsiyali dinamik modellar fizik qonuniyatlarni o‘rganish, zarur bo‘lganda qog‘ozga tushirish va fizik jarayonning borishini ovozli tarzda eshitish imkoniyatlari mavjudligi yanada samara beradi.Ushbu dastur yordamida fizik tajribalarni laboratoriya sharoitida bajargandek elektr zanjirlarini yig‘ish, ishdan chiqqan qismlarni (rezistor, batareya, lampochka va h.k.) almashtirish kabi amallarni bajara olish imkoniyatiga ega. Dastur yordamida o‘tkazilgan tajriba asosida ketma-ket ulangan uchta qarshilikdan iborat zanjirlarni (1a, b-rasm) o‘rganish uchun yaratilgan modelni ko‘rib chiqamiz:



1-a rasm




1-b rasm

Xulosa. Fizik xodisaning kompyuter modelini yaratish va dasturiy ta’minotini yaratish sohasidagi o‘quvchilarning ilmiy tadqiqot ishlarga yo‘naltirilishi katta amaliy ahamiyatga ega. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fizika ta’limida (aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha) foydalanishi mumkin bo‘lgan darsliklar, metodik qo‘llanmalar va bir qancha bajarilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, fizikani o‘qitishni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”giO‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 martdagi PQ-5032 son Qarori// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07/21/5032/0226-son

2. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr PF-5847 son Farmoni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2019 yil 14 oktabr, 41-son, 765-modda.

3. Irkabayev Dj.U. Information technologies in teaching physics in a technical higher education institution. Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 4, April 2021.

4. Губернаторова Л.И., Потехин К.А. Новые информационные технологии в процессе преподавания физики. Потехин, 2017.

5. Дьячук П.П., Лариков Е.В. Применение компьютерных технологий обучения в средней школе. – Красноярск: Изд-во КГПУ, 2016. 167 с.

6. Shermuhammedov, A. A., A. A. Mustafakulov, and B. H. Mamatkulov. "MULTIMEDIA IN THE TEACHING OF PHYSICS USE." *Conferencea* (2021): 105-108.

7. Shermuxammedov, A., B. Mamatkulov, and G. Mamatkulova. "FIZIKADAGI BA’ZI MAVZULARNI O ‘QITISHDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISH." *Engineering problems and innovations* (2023).

8. SHERMUXAMMEDOV, ABDULATIF ABDISHUKUR O‘G‘LI, et al. "ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING FIZIKANI O ‘QITISHDAGI O ‘RNI." (2023).

9. SHERMUXAMMEDOV, ABDULATIF ABDISHUKUR O‘G‘LI, et al. "ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING FIZIKANI O ‘QITISHDAGI O ‘RNI." (2023).

10. Mamatkulov, Bahodir Xasanovich, Gulnoza Narboyevna Mamatkulova, and Madinabonu Akmal qizi Akramova. "Molekulyar fizika bo‘limiga doir tushunchalarni talabalarga o‘rgatishda keys-stadi metodini qo‘llashning ahamiyati." (2023).

## AGRAR SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FAN, TA’LIM VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI

**Jizzax politexnika instituti**
**katta o‘qituvchi Ahmadjonova Umida Tojimurodovna**

**YSBKI vaT yo‘nalish talabasi, Boltaboyeva Surayyo Maqsad qizi**

**Annotatsiya.** Maqolada agrar sohada ilm-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollarini hisobga olgan holda, ilg‘or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo‘yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo‘lgan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasi yoritilgan.

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы обеспечения интеграции науки и производства в сельском хозяйстве, внедрения современных технологий в учебный процесс, совершенствования системы подготовки кадров, обладающих достаточными знаниями и навыками по передовому зарубежному опыту и агротехнологиям с учетом перспективы регионального развития.

**Annotation.** The article addresses the issues of ensuring the integration of science and industry in agriculture, the introduction of modern technologies in the educational process, improving the system of training personnel with sufficient knowledge and skills in advanced foreign experience and agro-technologies, taking into account the prospects of regional development.

**Kalit so‘zlar.** integratsiya, agrotexnologiya, qishloq xo‘jaligi, organik mahsulotlar, organik dehqonchilik

**Ключевые слова.** интеграция, агротехнологии, сельское хозяйство, органические продукты, органическое земледелие

**Keywords.** integration, agrotechnology, agriculture, organic products, organic farming

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlarini jadal rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotni qo‘llash ko‘lamini kengaytirish, meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash va qayta ishlash hamda iste’molchilarga ekologik xavfsiz mahsulot yetishtirishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ushbu islohotlar berayotgan samaralar esa jahon hamjamiyati tomonidan ham yuksak e’tirof qilinmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari rivojlanishiga, ta’lim sifatini yaxshilanishiga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishiga, dunyo bozoriga chiqishiga yo‘l ochib beradi. Modomiki, shunday ekan, bizning yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish foydadan xoli bo‘lmaydi:

- universitetlar kafedralarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- OTM ni moliyalashtirishning yangi usullarni topish;
- universitetilarda ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish va samaradorligini oshirishda xorijiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish[1].

Bundan tashqari, ilmiy maqolalar chop etishda, chop etilgan adabiyotlardan foydalanishda, Web of Science, Google Scholar, Scopus, ORCID, ResearchID, Researchgate va boshqalarda ro‘yxatdan o‘tishda, ma’lumotlar bazasini doimiy to‘ldirib borishda juda muhim sanaladi.

Universitetlar ilmiy salohiyatini, reytingini uni tayyorlagan kadrlari, sifatli va yuqori saviyada, xalqaro talablar darajasida tayyorlangan o‘quv va ilmiy adabiyotlari, xalqaro tan olingan ma’lumotlar bazasi ro‘yxatiga kirgan jurnallarda chop etilgan maqolalari va ularning iqtibosligi, moddiy texnik ta’minoti, ishlab chiqarish bilan integratsiyasi bilan baholash asosiy mezon hisoblanadi[2]. Asosiy maqsadimiz agrar sohani barqaror rivojlantirishda chuqur nazariy, hamda innovatsion tadqiqotlar olib borish bo‘yicha fikr almashish, tayyorlanayotgan kadrlarni agrar sohada erishilgan yutuqlar, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishtirish va ularni bu sohaga jalb qilish asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga qaratishimiz lozim. Shuningdek, yosh kadrlarga ta’lim berishda oliy o‘quv yurti va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish, “ustoz-shogird” an’analari asosida uzviy tadqiqotlar olib borish, bu sohani jadal rivojlantirishga xizmat qiladi[4,5]. Chunki, respublikamizda barcha imkoniyat va sharoitlar bo‘lishiga qaramasdan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifat va xavfsizligi bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiqligi ta’minlamas ekan, ularning eksport geografiyasini kengaytirib bo‘lmaydi.

Ilmiy texnikaning rivojlanish davriga qadar insoniyat faqat organik mahsulotlar iste’mol qilishgan. Ammo qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilmiy yondashuvlar qo‘llanila boshlangandan keyin, ularga eskicha usul sifatida qaralib, deyarli qo‘llanilmay qoldi. Chunki asosiy e’tibor

hosildorlik, texnologik va organoleptik koʻrsatkichlarning yuqori boʻlishiga asosiy eʼtibor qaratilmoqda. Natijada qishloq qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishda birmuncha yutuqlarga erishildi, jumladan, hosildorlik sezilarli darajada oshdi, seleksiya ishlarni natijasida istiqbolli nav va zotlar yaratildi, oʻsimliklarning vegetatsion davri qisqarishiga erishildi. Koʻp navlar introduksiya qilindi. Hozirda qishloq xoʻjaligi boʻyicha eng koʻp qoʻllanilayotgan xalqaro standartlar Organic va Global G.A.P. xalqaro standartlari hisoblanadi. Statistik maʼlumotlarga qaraganda bugungi kunda jahonda organik mahsulotlar bilan shugʻullanuvchi korxonalar soni 700 mingdan ortiqligi aniqlanib, organik qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchi mamlakatlar Avstraliya (12,3 mln.ga), Xitoy (2,3), Argentina (2,2), AQSh (1,9), Germaniya (0,83), Angliya (0,6) koʻrsatkichlar bilan yetakchilik qilib kelmoqda[3]. Oʻzbekiston olimlar yurti hisoblanib, azal-azaldan organik dehqonchilik mavjud boʻlagan, tuproqni ekin uchun tayyorlab olishdan tortib, qanday ekishgacha, uni parvarishlashning oʻziga xos jihatlari yuzasidan ilmiy asoslangan tadqiqotlar oʻtkazish boʻyicha jahonning boshqa davlatlaridan ilgarilab ketgan desak mubolagʻa boʻlmaydi. Oʻylaymizki, qishloq xoʻjaligi taraqqiyotiga alohida eʼtibor qaratib kelayotgan Oʻzbekiston olimlari agrar sohani barqaror rivojlantirishda fan, taʼlim va ishlab chiqarish integratsiyasini doimo uzviylikda olib boraveradilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagi “Agrar taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4795-son qarori

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.12.2020 yildagi “Agrar taʼlim tizimining 2030 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi 788-son qarori

3.Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 23.02.2021 yildagi “Organik qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 96-son qarori (hozirgi vaqtda mazkur hujjatga oʻzgartirish kiritilmoqda)

4. Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Agrosanoat majmuasi tarmoqlarini rivojlantirish. Development issues of innovative economy in the agricultural sector, 761-763.

5.Tojimurodovna, A. Y., & Tojimurodovna, A. U. (2021). Sustainable Development of Fishing, Increasing Production Volume, Strengthening Food Base. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 551-557.

## К ВОПРОСУ О ПРОИСХОЖДЕНИИ ТУРЕЦКОГО НАПИТКА *БОЗА*

**Жданов Артемий Юрьевич, Zhdanov Artemii Yurievich**
**Санкт-Петербургский государственный университет, Восточный факультет, направление обучения «Культура стран Азии и Африки»**
**St. Petersburg University, Faculty of Asian and African Studies, Programme «Cultures of Asian and African Countries»**

**Аннотация.** Напиток боза, являющийся неотъемлемой частью современной турецкой кулинарии, рядом производителей данного напитка считается привнесенным в турецкую городскую (в т.ч. придворную) культуру с Балканского полуострова в XIX в. Однако компаративный анализ письменных источников и лингвистических данных опровергает эту точку зрения — наиболее верным представляется предположение, что боза, чье название имеет тюркское происхождение, имеет тюркские корни, а сам напиток был принесен в результате волн миграции тюркоязычных народов в Анатолию в XIV веке.

**Absract.** The boza drink, which is an integral part of modern Turkish cooking traditions, is considered by a number of manufacturers of this drink to have been introduced into Turkish urban and court culture from the Balkan Peninsula in the 19th century. However, a comparative analysis of written sources and linguistic data refutes this point of view — the most correct assumption seems to be that boza, whose name is of Turkic origin, has Turkic roots, and the drink itself was brought with the migration waves of Turkic-speaking peoples to Anatolia in the 14th century.

**Ключевые слова:** боза, буза, османская кухня, слабоалкогольные напитки.
**Key words:** boza, buza, Ottoman cuisine, low-alcohol drinks.

Согласно турецкому «Положению об особых характеристиках пищевых продуктов, товаров и материалов, касающихся общественного здоровья» боза — это питьевая субстанция бело-кремового цвета, густой консистенции и сладкого или кисло-сладкого вкуса, приготовленная путем измельчения проса, кукурузы или риса, варки, процеживания и ферментации путем добавления сахара [17, 824]. Одна из самых известных турецких фирм-производителей бозы в наши дни является «Вефа». Основатель этого предприятия Хаджи Садык-бей эмигрировал из Косово в Стамбул в 1870 г. Его боза стала очень популярной в Стамбуле и окрестностях, в связи с чем вскоре к нему присоединился его брат Хаджи Ибрагим-бей, и братья приобрели магазин в стамбульском районе Вефа. В наши дни председателем совета директоров является Садык Вефа, внук Хаджи Садык-бея [12, 105].

Али Кока переехал в Стамбул из Косово и по поручению султана Абдулхамида II стал заниматься выращиванием винограда и плодовых деревьев. В 1935 г. его потомок Хасан Сак начал производство бозы под торговой маркой «Али Кока» в стамбульских районах Адапазары и Ениджами [8]. Другая компания также с балканскими корнями — это «Акман», работающая в Анкаре с 1920-х гг. Семья Акман эмигрировала из Скопье в Бурсу, а затем переехала в Анкару [12, 106]. Еще один производитель напитка – Исмаил-эфенди – эмигрировал в Люлебургаз из Болгарии в первые годы существования Турецкой Республики. В 1938 г. он разработал свой собственный рецепт [9]. Эмигрант из Болгарии Назиф Шушук переехал в Бурсу в 1950 г. Здесь он продолжил традицию своей семьи - производство бозы и кондитерских изделий. В наши дни напиток выходит под маркой «Омюр» (Lifetime Boza) [16]. Даже поверхностный анализ статей о происхождении основных предприятий по производству бозы дает нам возможность полагать, что большая часть «первопроходцев» являются выходцами с Балкан. И сами производители открыто сообщают, что боза — традиционный напиток балканских народов, о чем говорит полное его название — «*arnavut bozası*» (досл. «албанская боза») [12, 104]. Анализ рецептуры, которую предоставляют официальные сайты производителей [7; 8; 9; 16; 18], дают основания полагать, что любая современная турецкая боза представляет собой густой, сладкий, безалкогольный напиток.

Полученные данные ставят перед исследователем вопрос: каков путь проникновения бозы в Турцию? Действительно ли в османских городах никто не готовил этот напиток до мигрантов с Балкан? Напитки, получаемые на основе брожения из зерновых культур — одно из первых достижений оседлых народов, занятых земледелием. Можно было бы назвать все такие напитки пивом, т.к. содержание спирта в них приблизительно равно 4-5%, но часть из них традиционно готовится без использования хмеля, что отличает их от большей части пивных сортов, привычных нам. Понятие «нехмелевое пиво» подходит для описания этого напитка как нельзя кстати, т.к. рецептура варьируется в пределах следующей нормы:

- Для приготовления используется солод (угут), который представляет собой перемолотую пророщенную пшеницу;
- пшено и мука развариваются в казане до загустения;
- в загустевшее сусло добавляются угут и дрожжевая закваска;
- напиток становится готов к употреблению после брожения в течение минимум одних суток и процеживания.

На первой стадии брожения напиток пригоден для употребления детьми, т.к. содержание спирта в нем минимально. Максимальный процент крепости колеблется около 7- 8%, что может достигаться путем добавления сахара в некоторых вариациях напитка, что роднит его скорее с привычным нам пониманием браги. Более того, практически у всех народов, потребляющих вариации данного напитка, существует понятие перегонки получившегося сырья и изготовления дистиллята. Описанная выше рецептура совпадает, например, с рецептурой башкирского напитка буза и киргизского напитка бозо. Возможность незабродившего пива быть сладким и безалкогольным может натолкнуть на мысль о том, что известная в Турции «сладкая боза» - это один из этапов приготовления напитка, взятого у кыпчакских народов тюркской группы. Чтобы ответить на поставленный выше вопрос,

необходимо прежде всего прибегнуть к текстологическому анализу, т.к. вполне очевидно, что боза в том или ином виде фигурирует в различных документах с незапамятных времен.

Широко известен факт о том, что помимо рода крепкого пива – *секиры* [4, 95] – жители Древней Месопотамии знали также нехмелевое пиво. Первое упоминание об этом напитке как таковом встречается в месопотамских письменных источниках VIII-IX тыс. до н.э. Таким образом необходимо отметить, что нехмелевое пиво, древнейшее из известных и не имеющее четкой разницы с различными видами бозы, было изготовлено шумерами [2, 122], а о его наследниках на территории Армении мы знаем наверняка из рассказов греческого военачальника Ксенофонта, написанных еще в V в до н.э. [1, 112] Китайская энциклопедия Тайпин Хуаньюй Цзи описывает напиток енисейских киргизов следующим образом: «У них отсутствуют пять хлебов, имеются только ячмень, пшеница, темное просо, конопляное семя. В 3-ю луну постоянно пашут и сеют, в 8-ю и 9-ю луну собирают [урожай], варят кашицу, чтобы делать напиток, также чтобы перебродить [на] водку» [5]. Само слово боза впервые появляется одновременно в трех произведениях начала XIV в. в текстах на китайском, арабском и турецком языках, хотя сам напиток явно старше, и на Ближнем Востоке известен уже несколько веков — возможно, именно она зафиксирована Махмудом ал-Кашгари (выходцем из Средней Азии) в XI в. под названием *бухсум* [11, 485]. Китайское диетическое руководство, представленное потомку Хубилай-хана от своего врача в 1330 г. описывает напиток со схожим названием как «слегка сладкий и пикантный на вкус» [6, 529], что может намекать на подвид сладкой бозы, распространенный в Турции сейчас. В 1333 г. арабскому путешественнику Ибн Баттуте в Крыму, когда регион находился под властью Ильханидов, подали бозу из проса. Попробовав один раз, он отказался пить больше по религиозным соображениям [3, 284]. Третье упоминание бозы в этот период содержится в турецком тексте о полезных свойствах продуктов питания «Табиатнаме», переведенном с персидского на османский язык в 1330-х или 1340-х гг. [13, 353]. С XV в. боза известна на территории Турции. Османский придворный лекарь Ширвани приводит два рецепта приготовления бозы [10, 224]. Сладкий, вероятно, десертный вариант с добавлением меда готовили для султана Мехмета II (1451–1481) из проса или риса. Крупное производство бозы также находилось в собственности государства, а фабрика бозы в Эдирне в 1477 г. приносила казне доход аж в 200 000 акче. Из реестров кадия Бурсы известно, что в 1482 г. в городе было 6 *бозахане* (досл. «домов бозы») [15, 2]. Настоящим певцом восхвалителем бозы стал османский путешественник XVII в. Эвлия Челеби, в своем «Сейяхатнаме» он постоянно восхищается татарскими традициями бозоварения [14, 655-657]. Челеби выделяет несколько типов бозы, в частности, так называемую «кислую» или «татарскую» бозу, которая представляет собой алкогольный напиток, а также «сладкую» бозу, которую было «так же приятно глотать, как розовую воду; она была белой, как молоко, такой густой, что ни одна капля не просачивалась сквозь полотенце» [там же]. Переходя к выводам, стоит выделить несколько основных положений:

1. Несмотря на широкое распространение нехмелевого пива на всем Ближнем Востоке, лексема «боза» встречается только в привязке к тюркским языкам, что дает нам основания полагать, что это общетюркское название напитка, известного многим тюркским народам.
2. Есть все основания считать, что в первой половине XIV в. напиток под названием боза уже был известен в османском государстве. Вероятнее всего, он пришел не с Балкан, так как в этот период массовое завоевание региона еще не началось (турки-османы завоевали значительную часть Балкан только после 1360-х гг.). Татарское, то есть тюркское происхождение напитка подтверждает Эвлия Челеби.
3. «Сладкая» турецкая боза – это этап производства «кислой» бозы и всех прочих видов, распространенных под другими названиями среди тюркских народов.

Действительно, «переоткрытие» бозы в XIX в. (вероятнее, даже в XX в.) произошло благодаря представителям балканских народов (преимущественно албанцев и болгар). В результате многочисленных запретов, связанных с антиалкогольной политикой османского государства, начиная с XV в. и вплоть до конца XVIII в. производители «кислой» бозы

подвергались гонениям, а к началу XIX в. боза как напиток полностью дискредитировала себя. Напиток продолжал существовать в балканских провинциях империи в своем сладком виде, видимо, из-за неспособности «конкурировать» с другими алкогольными напитками, распространенными на Балканах, а на рубеже XIX-XX вв. именно балканские народы принесли на турецкий рынок сладкую «албанскую» бозу.

**Библиография**


1. Ксенофонт Анабасис. Перевод М.И. Максимовой, Под ред. академика И.И. Толстого. — М.: Издательство Академии наук СССР, 1951. — 303 с.
2. От начала начал. Антология шумерской поэзии. Вступ. ст., пер., коммент., словарь В.К. Афанасьевой. – СПб.: Центр «Петербургское востоковедение», 1997. – 496 с.
3. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Под ред. В. Тизенгаузена. Том I. Извлечение из сочинений арабских. – Санкт-Петербург, 1884 г. – 564 с.
4. Эпос о Гильгамеше: («О все видавшем») / Пер. с аккад. И.М. Дьяконова; Отв. ред. В.В. Струве; Ред. изд-ва Н.П. Рычкова. — М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1961. — 214 с.
5. Юэ Ши. Тайпин хуаньюй цзи. Глава 199. (Пер. с кит. Н.В. Кюнера) [Электронный документ]. URL: https://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/China/X/960-980/Jue_Si/text1.htm (Проверено: 20.03.2024)
6. Buell P., Anderson E., Perry Ch. A Soup for the Qan: Chinese Diet Era as seen in Hu Szu-Hui’s Yin-Shan Cheng-Yao. – London and New York: Kegan Paul, 2000. – 715 p.
7. Akman [Электронный документ]. URL: https://akmanboza.com/ (Проверено: 20.03.2024)
8. Ali Koka Boza Hakkında [Электронный документ]. URL: https://www.alikoka.com.tr/sayfa/hakkimizda (Проверено: 20.03.2024)
9. Balaban Bozacı. Hakkımızda [Электронный документ]. URL: https://www.balabanboza.com.tr/hakkimizda.php (Проверено: 20.03.2024)
10. Barkan L.Ö. «İstanbul Saraylarına ait Muhasebe Defterleri» // Belgeler. IX 13 Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1979. –ss. 3-380.
11. Divanü Lügat-it-Türk. I. Cilt. Tercümesi. Çev. Atalay B. – Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1985. –531 s.
12. İgüs E. «Balkanlar'dan Anadolu'ya Boza ve Türleri ile Türkiye’deki Balkan Kökenli Bozacılar» // Sosyal Bilimler Enstütüsü Dergisi, Cilt 6, Sayı 1, İstanbul, 2016. – ss. 101-111.
13. Güldemir O. “Orta Asya’dan Cumhuriyet Dönemine Türk Mutfağındaki Yemeklerin Değişimi: Yazılı Kaynaklar Üzerinden Bir Değerlendirme» // VII. Lisansüstü Turizm Öğrencileri Araştırma Kongresi, Kuşadası, Aydın, 2014. – ss. 346-358.
14. Günümüz Türkçesiyle Evliyâ Çelebi Seyahatnâmesi: İstanbul Evliyâ Çelebi.1. Cilt-2 Kitap. İstanbul, 2003. – 765 s.
15. Feyiz F. Osmanlı Şehir Mekânlarına bir Örnek: Bozahaneler // International Journal of Economics, Politics, Humanities & Social Sciences . Vol: 4 Issue: 1. İstanbul, 2021. – pp. 2-9.
16. Ömür Boza Hakkında[Электронный документ]. URL: https://omurboza.com/hakkimizda/ (Проверено: 20.03.2024)
17. Tüzük Gıda Maddelerinin ve Umumi Sağlığı İlgilendiren Eşya ve Levazimin Hususi Vasıflarını Gösteren Tüzük [Электронный документ]. URL: https://www.mevzuat.gov.tr/mevzuatmetin/2.3.315481.pdf (Проверено: 20.03.2024)
18. Vefa [Электронный документ]. URL: https://vefa.com.tr/index.php?dil=ru&sayfa=tarihce (Проверено: 20.03.2024)


## AQLIY RIVOJLANISH MUAMMOSI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNI SAVODGA O‘RGATISH


**Abdujabborova Mavjuda**
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**
**Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.**Ushbu maqola jahon ta’limining muhim vazifalaridan biri – funksional savodli o‘quvchi shaxsini shakllantirish bo‘lib aqliy rivojlanishda muammosi bo‘lgan o‘quvchilarni savodga o‘rgatishning ilmiy adabiyotlarda yoritilishiga qaratilgan.
**Kalit so‘zlar:**O‘qish, nuqson, bibliopsixologiya, qo‘zg‘alish, tafakkuri, idroki, xotira, diqqati, nutqi, tasavvur, bilish, san’at.
Bugungi kunda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatishning dastlabki bosqichlarida disleksiya kabi doimiy o‘ziga xos nuqsonlar paydo bo‘lishini oldini olish uchun o‘quvchilarning savodga o‘rgatish ko‘nikmasini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlash va oldini olish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu, bir tomondan, savodga o‘rgatish ko‘nikmasi o‘qish faoliyatini o‘zlashtirishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qilishi bilan bog‘liq. O‘qish texnikasini yuqori sifatli o‘zlashtirmay turib, ma’noni to‘liq mazmuniy o‘zlashtirish, xususan, tushunish amalga oshmaydi. Ikkinchi tomondan esa, oxirgi ma’lumotlarga ko‘ra, savodga o‘rgatish ko‘nikmasini egallashda muammolarga duch kelishi mumkin bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining soni doimiy ravishda ko‘payib bormoqda. Ye.L.Goncharovaning ilmiy tadqiqotida ta’lim muassasalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 13 % ida disleksiya xavfi mavjud va o‘quvchilarning atigi 29%i savodga o‘rgatish ko‘nikmasini samarali o‘zlashtirishi aniqlangan. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi aqli zaif o‘quvchilarning savodga o‘rgatish ko‘nikmasini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga oid korreksion-pedagogik ish yo‘nalishlari va mazmunini aniqlash nihoyatda muhim.Bizningcha, ushbu tadqiqotlar savodga o‘rgatish ko‘nikmasi mohiyatini tushunishga doir metodik yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘lib, unga ko‘ra savodga o‘rgatish ko‘nikmasi bu – eng avvalo, matn mazmunini tushunish, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish, tinish belgilariga va mazmunga e’tibor qaratgan holda, o‘qish tempini unutmagan holatda ifodali o‘qish kabilarni o‘z ichiga oluvchi ko‘nikma va malakalarning avtomatlashgan majmuasidir. Umuman olganda, savodga o‘rgatish ko‘nikmasi ikki jihat: o‘quvchi tomonidan anglanuvchi mazmuniy tomon hamda birinchisiga bo‘ysunuvchi va unga xizmat qiluvchi texnik tomondan iborat.Psixologlarning ta’kidlashicha (Zankov L.V., Pinskiy B.I, Petrova V.G., Belyakova I.A, Rubinshteyn S.Ya, Aytmetova S.Sh va boshqalar) aqli zaiflikning yengil darajasidagi bolalarning kuzatish, taqqoslash, idrok qilayotgan narsalarning, voqea – hodisalarning muhim tomonlarini ajratib kuzatish, bular o‘rtasidagi eng oddiy sabab – natija bo‘glanishlarini faxmlab olish qobiliyatlari rivojlanmay qoladi.[74] Aqli zaiflikning yengil darajasidagi bolalarning tafakkuri, diqqati, sezgi va idroklari, xotirasi, analiz va sintez qilish qobiliyatlari ham yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi. Savod o‘rgatishning dastlabki davridayoq bu bolalar tovush va harf o‘rtasidagi bog‘lanishlarning farqiga yaxshi bormay, harflarni eslab qolish, bo‘g‘inlab o‘qish, ongli, to‘g‘ri, tez o‘qish malakalarini o‘zlashtirishda qiynaladilar, juda ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning savodga o‘rgatish ko‘nikmasini egallashga va kelajakda o‘qish faoliyatiga tayyorgarligining neyrofiziologik, psixologik va lingvistik tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan profilaktika choralarining mazmunini aniqlash. V.V.Voronkova, G.A.Kashe, R.Ye.Levina, V.G.Petrova, T.B.Filicheva va boshqa olimlarning nomlari bilan bog‘liq an’anaviy yondashuv doirasida olib borilgan bir qator tadqiqotlarga ko‘ra, savodga o‘rgatish ko‘nikmasini shakllantirishdagi kamchiliklar og‘zaki nutqning rivojlanmaganligiga nisbatan ikkilamchi nuqson sifatida namoyon bo‘ladi. Bu Ye.L.Goncharovaning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘qish kompetensiyasining "yadrosi"ni shakllantirish muammosi, shuningdek, A.N.Kornevning savodga o‘rgatish ko‘nikmasini o‘zlashtirishning funksional asoslarini shakllantirishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. C.E.Snow o‘qish jarayonida faollashuvchi “kognitiv qobiliyatlar” deganda diqqat, tanqidiy baholash, xulosa chiqara olish, o‘qish maqsadi, mazmunga nisbatan qiziqish va “kitobxonning komilligi” kabilarni o‘z ichiga oluvchi motivasiyani, shuningdek, bilimning turli (predmetli, lingvistik) tiplarini tushunadi. Shunday qilib, nutqiy faoliyat turi sifatida mazmuniy o‘qish o‘zida ko‘plab interiorizasiyalangan interfaol jarayonlar va kognitiv qobiliyatlarni yashiradi. Kognitiv mexanizmlarning yetarli emasligi nafaqat matn qobiliyati, matn faoliyati, balki umumiy matn

[74] Rasulova M., Hikmatova Sh. O‘qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 5-sinf darsligi. T.: Cho‘lpon, 2023.

kompetensiyasining ham buzilishini yoki shakllanmaganligini yuzaga keltiradi, bu esa oʻqilgan matnni tushunishda qiyinchiliklar paydo boʻlishida kognitiv jarayonlar tanqisligining hal qiluvchi roliga ishora qiladi. Mazmuniy oʻqish jarayonini oʻrgangan qator tadqiqotchilar oʻqish jarayonida dolzarblashuvchi alohida kognitiv mexanizm va operasiyalarni ajratadilar. Pedagogik-psixologik nazariya va amaliyotda savodga oʻrgatish jarayoni koʻrinishining ikki turi maʼlum: ovoz chiqarib va "oʻzi uchun" – ovoz chiqarmasdan (ichda) oʻqish. Oʻquvchi taʼlimning boshlangʻich yillarida ovoz chiqarib savodga oʻrgatish koʻnikmasini faol oʻzlashtiradi. Oʻqishning ushbu turini tahlil qilish imkoniyati mavjud boʻlganligi sababli, oʻqish qobiliyatini rivojlantirish va uning buzilishiga (disleksiya) oid tadqiqotlar eksperimental maʼlumotlarning yuqori samaradorli ekanligi aniqlandi. Tadqiqotlarda muammoning turli aspektlari – ogʻzaki nutq buzilishlari va disleksiya oʻrtasidagi bogʻliqlik, savodga oʻrgatish koʻnikmasi shakllanishining kechikishi bilan bogʻliq genetik ehtimollar[75], savodga oʻrgatish koʻnikmasini egallashdagi buzilishlarning koʻrib qabul qilishdagi muammolar bilan shartlanganligi, disleksiyada kichik miya yetishmovchiligi gipotezasi. Ular orasiga muayyan funksiyalarni bajaruvchi seleksiya, inferensiya, konseptual integrasiya, konseptual kompozitsiyalilik kiradi. Seleksiya matndagi mazmuniy va lisoniy birliklarni tanlash va tartibga solishni taʼminlaydi; konseptual integrasiya qiyoslash, toʻldirish operasiyalari asosida umumiy mazmunni sintezlashga javobgardir; konseptual kompozitsiyalilik ajratilgan konseptlarni yangi konseptga birlashtirish imkonini beradi; inferensiya implitsit axborotni istisno qilish bilan bogʻliq. Qayd qilingan kognitiv mexanizmlar harakatining natijasi matnli axborotning ishlovi, uning transformasiyasidir. Tadqiqotchilar savodga oʻrgatish maqsadlarini hisobga olib, "oʻqish darajalari"ni ajratadilar[76]. Birinchi daraja boshlangʻich oʻqish boʻlib, ushbu qobiliyatni egallash davrini qamrab oladi va maqsadsiz amalga oshiriladi. Ikkinchi daraja – savodga oʻrgatish jarayonida oʻqilayotgan matnni kuzatish yoki "siljish", uning maqsadi matnni yuzaki oʻrganish, individual birlamchi faktlarni aniqlashdir. Bunda oʻqish vaqti cheklangan deb taxmin qilinadi. Biroq, matnni koʻrish, mualliflarning fikriga koʻra, tasodifiy emas, balki bir xil boʻlishi kerak. Uchinchi daraja – oʻqilayotgan narsalarni toʻliq va toʻgʻri tushunishga qaratilgan tahliliy yoki puxta oʻqish. Toʻrtinchi daraja – "qiyosiy" oʻqish, turli xil matnlarning mazmunini taqqoslashga asoslangan. Oʻqish darajalarining bu boʻlinishi yagona asosga ega emas: birinchi daraja oʻqishni oʻzlashtirish bosqichi sifatida ajralib turadi, ikkinchi va uchinchisi - maqsadga bogʻliq, toʻrtinchisi - maʼlum koʻnikmalar toʻplami sifatida namoyon boʻladi. Mualliflarning ishlarida "oʻqish darajasi" va "oʻqish turlari" tushunchalari ham farqlanadi. Jahon adabiyotida oʻqish taʼlimi jarayonida maqsadlarning ikki turi ajratiladi. Bular: birinchisi - maʼlum axborotni topish; ikkinchisi - butun matnni tushunish. Savodga oʻrgatishda lingvistik koʻnikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish, undagi buzilishlarning oldini olish va uni korreksiyalash masalalari hozirgi kungacha umumiy hamda maxsus pedagogikada, shuningdek, jahon taʼlimida dolzarb muammo boʻlib, tadqiqotchilarda katta qiziqish uygʻotmoqda. Ushbu muammoga qiziqish oʻqishning bilimlarni assimilyatsiya (oʻzlashtirilishi, tenglashtirilishi) qilish jarayonidagi muhim roli bilan bogʻliq. Zamonaviy axborot koʻpayishi, ilmiy-texnik maʼlumotlar hajmining oʻsishi, shuningdek taʼlim tizimining takomillashuvi sharoitida taʼlimning differensiasiyalanishi va individuallashtirishning rivojlanishi bilan maktab oʻquvchilarining oʻz-oʻzini tarbiyalashiga katta eʼtibor berilayotgan paytda uning ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Maktab taʼlimining dastlabki bosqichida kuchli oʻqish qobiliyatiga ega boʻlish oʻquvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini roʻyobga chiqarish uchun katta ahamiyatga ega[77]. Aqli zaif bolalar vaziyatni yetarli darajada anglay olmaydilar, xatti – harakatlarini vaziyatga qarab adekvat oʻzgartira olmaydilar. Ularda oʻz – oʻziga va atrofdagilarga nisbatan tanqidiy munosabat birmuncha sust boʻladi. Yuqorida koʻrsatilgan bilish faoliyatidagi bir qator kamchiliklariga qaramay, ixtisoslashtirilgan maktab oʻquvchilari bilan toʻgʻri tashkil etilgan maxsus taʼlim – tarbiya ishlari

[75] Nurkeldiyeva D.A. Pedagogik – psixologik diagnostika (rivojlanishida nuqsoni boʻlgan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi). Darslik. T.: Vneshinvestrom, 2023. 21-b.

[76] Abdullayeva Q., Hidoyatova SH., Rahmonbekova S. Oʻqish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab- internatlarning 2-sinf darsligi. T.: Yangiyoʻl poligraf servis, 2022

[77] Muzaffarova F., Nasriddinova D. Oʻqish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 3-sinf darsligi. T.: Niso poligraf servis, 2021

natijasida ularni savodga o‘rgatish, mustaqil hayotga tayyorlash, kasb – hunarga o‘rgatish borasida katta yutuqlarga erishish mumkin. Ixtisoslashtirilgan maktabni bitirib chiqqan aqlan zaif bolalar kasb – hunar kollejlarida ta’lim olib, hayotda o‘z o‘rnini topib, sanoat hamda qishloq xo‘jalik, ishlab chiqarishning turli sohalarida, maishiy xizmat sohasida faol mehnat qilib, hamma qatori yashash imkoniyatiga egadirlar. Aqlan zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda ta’lim – tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talablar yetarli darajada bajarilmoqda deb ayta olmaymiz, afsuski. Maktabni bitirib ketgan o‘quvchilarning ayrimlari o‘qish va yozishda qiynalmoqdalar, ularda o‘qish va yozish ko‘nikmalari malakaga aylantirilmagan. Demak, bu borada savod o‘rgatish ishlarini takomillashtirish masalalari hal etilishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Q., Hidoyatova SH., Rahmonbekova S. O‘qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab- internatlarning 2-sinf darsligi. T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2022.
2. Muzaffarova F., Nasriddinova D. O‘qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 3-sinf darsligi. T.: Niso poligraf servis, 2021.
3. Nurkeldiyeva D.A. Pedagogik – psixologik diagnostika (rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi). Darslik. T.: Vneshinvestrom, 2023. 21-b.
4. Rasulova M., Hikmatova Sh. O‘qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 5-sinf darsligi. T.: Cho‘lpon, 2023.

## AQLI ZAIF BOLALAR YAKKA MASHG‘ULOTDA MEHNAT KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA O‘YINDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

**JDPU Maxsus pedagogika kafedra dotsenti**
**AkramovaXafiza Samadovna, Maxsus pedagogika,**
**Defektologiya (Logopediya) mutaxassisligi 2- bosqich magistri**
**Abatbayeva Aynura Jangabayevna**

**Annotatsiya.**Ushbu bolalarni aqli zaif bolalar yakka mashg‘ulotda mehnat ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘yindan foydalanish xususiyatlari bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirishga ilmiy yondashuvlar asosida nutq faoliyati motivatsiyasini boyitish.

**Tayanch so`zlar va iboralar:**O‘yinning ko‘pgina konsepsiyalari mavjud bo‘lib, buyuk psixolog va pedagoglar, istak-hohishlarni ro‘yobga chiqarish vositasi, Syujetli-rolli o‘yinlardan tashqari aqli zaif bolalar didaktik va harakatli o‘yin, psixologik o‘rganish, ta’lim, hissiy aloqa.

**Аннотация**Обогащение мотивации речевой деятельности на основе научных подходов для повышения эффективности работы над особенностями использования игровой деятельности в индивидуальном обучении умственно отсталых детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** Существует множество концепций игры, великие психологи и педагоги, средства исполнения желаний, дидактические и подвижные игры для умственно отсталых детей, психологическое обучение, образование лим, эмоциональная связь.

*Psixosomatoz* (yunoncha psixika – ruh, soma – tana) – ichki a’zolar kasalliklar guruhi bo‘lib, nevrotik buzilishlar yoki stressga asoslangan. Psixosomatoz, shuning uchun tananing ichki ziddiyatga reaksiyasi sifatida o‘zini namoyon qiladi. Bundan tashqari, bunday mojaroning tabiati muhim emas: u uzaytirilishi yoki aksincha, alohida holatga aylanishi mumkin. Qaysi organga ta’sir qilish genetik moyillik bilan belgilanadi, ammo ba’zi tadqiqotchilar bemorning shaxsiy fazilatlari ham muhim rol o‘ynaydi, deb hisoblashadi. Shunday qilib, 1959-yilda amerikalik kardiologlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, ikki turdagi shaxs psixosomatozga eng ko‘p moyil. Birinchi turdagi shaxs ambitsiyali, o‘z maqsadlariga erishish uchun tajovuzkorlik ko‘rsatishga qodir, doimo faol. Shaxsning ikkinchi turi buning teskarisi – bular doimo tashabbus ko‘rsatishdan qo‘rqadigan, boshqalarga qaram va qat’iyatsiz odamlardir. Shuni ta’kidlash kerakki, psixosomatozlar guruhi heterojendir: tabiatda asab tizimi bilan aniq bog‘liqlik mavjud bo‘lgan kasalliklar (masalan, gipertenziya) va aqliy komponent bilan unchalik aniq bog‘liq bo‘lmagan kasalliklar (masalan, diabetes mellitus). Psixomatozni davolash, qoida tariqasida, psixoterapiya va muqobil tibbiyotning turli usullarini qo‘llash orqali amalga oshiriladi (ko‘pincha trankvilizatorlar yoki antidepressantlar). Davolash individualdir, shuning uchun uni faqat mutaxassis bilan maslahatlashgandan so‘ng va kasallikning rivojlanishiga sabab bo‘lgan sabablarni aniqlashdan keyin aniqlash mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Клинико- физиологические основы психосоматических взаимоотношений. Ю. М. Губачев, Е. М. Стамбровский. Москва. “Медицина”, 1981.
2. Психосоматические расстройства. В.Д. Тополянский, М.В. Струковская. Москва. “Медицина”, 1986.
3. Невротические расстройства внутренних органов. Б. Д. Карвасарский, В. Ф.Простомолотов. Кишинев. “Штиинца”, 1988.
4. Пограничные нервно- психические расстройства. Г.К. Ушаков. Москва. “Медицина”, 1987 г.
5. Психогенные расстройства кровообращения. Ю. М. Губачев, В. М. Дорничев, О.А. Ковалев. Санкт- Петербург. “Политехника”, 1993.
6. Семейная психотерапия. Р. Бендлер, Д. Гриндер, В. Сатир. Санкт- Петербург,1994.
7. Психосоматический больной на приеме у врача. Б. Любан- Плоцца, В. Пельдингер, Ф. Крегер. СПб 1994.
8. Международная классификация болезней. (10 –й пересмотр). Клинические описания и указания по диагностике. Россия. Санкт- Петербург. “Адис”,1994.
9. Отамуратов R. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розикулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.
10. Отамуратов, Р., & Тургунбаева, Г. (2023). Insonning emotsional psixologik xususiyatlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 520–527. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25638
11.Отамуратова, С., & Отамуратов, Р. (2023). Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 323–328. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25284


## DUNYO MIQYOSIDA MATRITSALARDAN GEOLOGIK, GEOMETRIK VA TRANSPORT TO‘RLARIDA FOYDALANISH VA ULARNI TATBIQ QILISH.


**O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi**

**Karimqulova Oygul Sunnatillo qizi**



**Anotatsiya.** Bugungi kunda hayotimizni matematikasiz tasavvur qilish juda qiyin sababi hozirgi sivilizatsiya jarayoni tog‘ridan tog‘ri aniq hisob kitoblar asosiga qurilgan. Shu maqsadda quyidagi keltirilgan maqolada matematikaning muhim, aniqroq qilib aytsak juda kerakli bo‘lgan

matritsalarning geometrik, geologik va transport to‘rlarida foydalanilishini ko‘rib chiqamiz. Yuqorida ta’kidlangandek, matematikada matritsalar va ularni qanday sohalarda tatbiq qilish mumkinligi haqida fikr yuritiladi.

**Katit so‘zlar**: Matritsa, soha, geologiya, geometriya, transport, shaklni o‘zgartirish, uglevod, foiz, geokimyo.

Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalaishlaridan biri sifatida belgilandi. O‘tgan davr ichida matematika ilm-fani va ta’limini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Bulardan biri – oliy ta’lim va ilmiy tadqiqotlarning o‘zaro integratsiyalashuvini ta’minlash maqsadida talabalar shaharchasida fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining yangi va zamonaviy binosi barpo etildi. Hozirgi kunda juda ko‘plab sohalarda matritsalardan foydalanishmoqda ammo ba’zi bir holatlarda insonlar matritsalardan qanday turdagi amallarni bajarishimiz zarur ekanligini anglay olmaydi. Shunday ekan bu maqolada insonlarda javobsiz qolayotgan savollarga javob beraman. Matritsaning geologik, geometrik va transport to‘rlarida ishlatilinishi. Matritsa murakkab tizimlarni samarali ifodalash va tahlil qilish qobiliyati tufayli turli sohalarda, jumladan geologiya, geomtriya va transport to‘rlarida ya’ni tarmoqlarida keng qo‘llaniladi va juda ko‘plab yengilliklarni keltirib chiqaradi. “Ushbu sohalarda matritsalardan qanday maqsadlarda foydalana olamiz?” – degan bir qancha savollar paydo bo‘ladi. Shunday ekan hozir har bir sohalarda matritsaning foydalanilish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz:

Matritsa gologiyada: Bu sohada matritsa eng birinchi navbatda seysmik ma’lumotlarni tahlil qilish uchun geologiyada keng qo‘llaniladi. Matritsalar yer qobig‘ining turli qatlamlari bo‘ylab seysmik to‘lqinlarning tarqalishini ifodalash uchun ham ishlatiladi, bu esa geologlarga juda ko‘plab qulayliklar yaratadi. Masalan, yer osti tuzilishini izohlash va tushunish imkonini beradi. Shu nazariyalar asosida yuzaga keltirilgan ma’lumotlar yer qatlamidagi o‘zgarishlardan doimiy ravishda habardor bo‘lish imkonini beradi. Matritsalar nafaqat geologiya sohasida, balki geokimyoviy tahlil yo‘nalishida ham insonlar tomonidan foydalaniladi. Barchamizga ma’lumki, geokimyoviy tahlil jarayonida yer osti qazilmalari, toshlar, tog‘ jinslari va shu kabi  birqancha elementlar kiradi. Matritsalar tosh namunalaridan turli xil kimyoviy elementlar konsentiratsiyasini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu esa yer bilan shug‘ullanuvchi olimlarga geokimyoviy ma’lumotlardagi naqsh va korrellyasiyalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Matritsa yordamida insonlar amallarini ancha oson va samarali bajarganliklari sababli, bunday geometrik yo‘nalishda ham keng ko‘lamda foydalinmoqda. Geografiya sohasida matritsiasi ikkiga ajratib ko‘rsatiladi. Bular: transformatsion matritsalar va kordinatalarni o‘zgartirish hisoblanadi. Transformatsion matritsalar – geometriyada matritsalar ko‘chirish, aylantirish, masshtablash va aks ettirish ksbi o‘zgarishlarni ifodalash va bajarish uchun ishlatiladi. Koordinatalarni o‘zgartirish yo‘nalishiga keladigan bo‘lsak, bunda ham bir qancha qulayliklarni ko‘rishimiz mumkin. Matritsalar turli koordinata tizimlari orasidagi koordinatalarni aniqlashtirish uchun ishlatiladi. Masalan, Dekart koordinatalaridan qutb koordinatalariga aylanish kabi maqsadlarda ishlatiladi. Shu bilan birga, matritsalar transport tarmoqlari va uning boshqa bir qancha yo‘nalishlarida ham foydalaniladi. Birinchi navbatda, trafik oqimini tahlil qilish: Matritsalar transport tarmog‘idagi turli joylar orasidagi trafik oqimini ifodalash uchun ishlatiladi, bu transport muhandislariga transport oqimini optimallashtirsh va infratuzilmani yaxshilashni rejalashtirish imkonini beradi. Transport yo‘nalishida matritsalardan tarmoq ulanishini tahlil qilish uchun ham ishlatiladi. Bunda matritsalar transport tarmog‘idagi turli tugunlar orasidagi ulushni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu esa muhandislarga tarmoqning chidamliligi va samaradorligini tahlil qilsh imkonini beradi. Umuman olganda, matritsalar geologik, geometrik va transport tarmoqlari ilovalarida murakkab tizimlarni tahlil qilish va taqdim etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ularning katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali tashkil etish va boshqarish qobiliyati ularni ushbu sohalardagi tadqiqotchilar va muhandislaruchun muhim vositaga aylantirdi. Geologik tadqiqotlarda matritsalar turli joylar orasidagi fazoviy munosabatlarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin. Masalan, masofa matritsasi turli shaharlar yoki diqqatga sazovor joylar orasidagi masofalarni hisoblash uchun ishlatilishi mumkin. Bu sayohat yo‘nalaishlarini rejalashtirish yoki harakat va migratsiya naqshlarini tahlil qilish uchun foydali bo‘lishi mumkin. Matritsalar transport

tarmo‘gi ichidagi transport yoki tovarlarning ulanishi va oqimini, biror o‘lchamdagi transport matritsasi uchta choraha orasidagi transport hajmini ifodalay oladi. Ba’zida transport matritsalari turli hodisalardagi transport tarmog‘iga bir muncha yordam beradi. Bundan tashqari matritsalardan hududning strukturaviy geologiyasini tahlil qilish uchun ham foydalanish mumkin. Turli geografik shakllar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi matritsalarni yaratish orqali geologlar mintaqaning tektonik tarixi va strukturaviy murakkabligi haqida tushunchaga ega bo‘lishlari mumkin. Bu tosh qatlamlarining deformatsiyasi va harakatini tushunishga yordam beradi. Shuningdek keying qidiruv yoki o‘rganish uchun potensial qiziqish jarayonini aniqlashga ham yordam beradi. Geologik tarmoqlarda matritssalarning yana bir qo‘llanilish yo‘li mavjud. Bu usuli huddi transport yoki boshqa turdagi matritsa kabi foydali hisoblanadi. Bunda yer osti inshoatlari va xossalarini osongina tahlil qilish imkoniyati mavjud. Turli jins qatlamlari yoki geologik shakllarining xususiyatlarini ifodalovchi matritsani yaratish orqali geologlar g‘ovaklar, o‘tkazuvchanlik va litelogiya kabi xususiyatlardagi o‘zgarishlarni tahlil qilishlari mumkin. Bu yer osti suv havzalarini tavsiflash, potensial uglevodlar yoki mineral resurslarni aniqlash, qidiruv va qazib olish faoliyatini rejalashtirishda yordam beradi. Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, matritsalar geologic tarmoqlarda turli geologic xususiyatlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalash, tahlil qilish va tushunish uchun qimmatli bir vosita hisoblanadi. Matritsalardan foydalangan holda, paydo bo‘ladigan juda ko‘p qulayliklar mavjud va olimlar yoki o‘z sohasi mutaxassislari bundan unumli foydalanishmoqda. Ammo bizda nafaqat bu sohalar balki geokimyo yo‘nalishi ham mavjud. Geokimyodagi matritsalar geologik namunalardagi elementlarning tarkibi va tuzilishini ifodalaydi. Keyinchalik matritsalardan toshdagi elementlarning tarqalishini tahlil qilish va har qanday anomaliyalarni aniqlash uchun foydanila boshladi. Bu yo‘nalishda matritsalardan turli geokimyoviy parametrlarni, masalan, elementlar nisbatini, mineral foizlar va geokimyoviy indekslarni hisoblash uchun ham foydlanish mumkin. Shuningdek potensial foydali qazilma konlarini yoki atrof-muhitni ifloslantiruvchi moddalarni aniqlashda yordam beradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki martitsalar va ular qo‘llanila oladigan har qanday sohani o‘rganish, uni rivojlantirish va bunga nisbatan insonlarda bilim va ko‘nikma hosil qilinishi muhim ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Oliy matematika nazariy kitobi. Matritsalar mavzusi.
2. Axmedova M. O‘rta osiyoning mashhur matematiklari. T.: “O‘qituvchi”, 1994
3. Amirkulovich, X. Y. (2021). Matritslardan foydalanish yo‘llari.
4. Xaydarov. C (2021) matematikani o‘qitishdagi ustuvor strategiyalar.
5. Nomozov. M. M & Haydarov. S. A ( 2021) o‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini rivojlantirish va islohotlar.
6. Matviyevskaya G. P. Matematikani rivojlantirish.


## MEHNATGA OID MUNOSABATLARDA INSON HUQUQLARINI TA’MINLASH MASALASI


**Begatov Jasurbek Numonjanovich**
**O‘zbekiston Respublikasi FA**
**Davlat va huquq institute tayanch doktoranti**



**Annotatsiya.** Tadqiqot maqsadi O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning mehnat qilish huquqining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda ularni himoya qilishning normativ-huquqiy asoslarini yoritib berishdan iborat. Mehnat qilish huquqi insonlarning eng muhim iqtisodiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatida insonlarni mehnat qilish huquqining kafolatlanganligi va ta’minlanganligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Maqolada so‘nggi islohatlarning o‘ziga xos jihatlari haqida ham ma’lumot berilgan.



**Kalit so‘zlar:** jismoniy shaxs, mehnat qilish, ijtimoiy himoya, ishsizlik, murojaat, davlat organi, qonun, ijtimoiy adolat, xalqaro tashkilotlar, norma



**Annotation.** The purpose of the research is to shed light on the organizational and legal foundations of the right to work of citizens in the Republic of Uzbekistan and the normative and legal

foundations of their protection. The right to work is one of the most important economic rights of people. Today, guaranteeing and ensuring the right to work of people in society has become a priority of state policy. The article also provides information about the specific aspects of the latest reforms.
**Key words:** individual, work, social protection, unemployment, appeal, state body, law, social justice, international organizations, norm.
**Аннотация.** Цель исследования - раскрыть организационно-правовые основы права на труд граждан в Республике Узбекистан и нормативно-правовые основы их защиты.Право на труд является одним из важнейших экономических прав человека.На сегодняшний день гарантирование и обеспечение права человека на труд в обществе стало приоритетом государственной политики.В статье также предоставлено информация о конкретных аспектах недавних реформ.
**Ключевые слова:** физическое лицо, работать, социальная защита, безработица, обращение, государственный орган, закон, социальная справедливость, международные организации нормы.
Mamlakatimizda sobitqadamlik bilan fuqarolarning huquq va erkinliklari, xususan ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini amalga oshirish, ularni himoya qilish borasida sezilarli ishlarni amalga oshirdi.
O‘zbekiston mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlarini ta’minlash, insonlarga mehnat qilish uchun teng sharoit yaratib bergan holda ularning bandligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida mustahkamlangan mehnat qilish huquqi o‘z ifodasini topgan bo‘lib quydagilarni o‘z ichiga oladi:
**birinchidan,** fuqarolarga o‘zlari xohlagan kasb-hunarni erkin tanlash;
**ikkinchidan,** o‘z qobiliyatiga yarasha ish bilan ta’minlanish;
**uchinchidan,** mehnatining hajmi va sifatiga qarab haq olish;
**to‘rtinchidan,** adolatli mehnat sharoitida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish;
**beshinchidan,** mehnatni muhofaza qilish uchun zarur vositalar bilan ta’minlanishini anglatadi.
Fikrimizcha, bu faqarolarga bozor iqtisodiyotiga mos bilimlari va malakalariga qarab ish bilan ta’minlash vazifasini yuklaydi.
Amaldagi mehnat qonunchiligiga ko‘ra, har bir shaxs o‘zining samarali va ijodiy mehnat qobiliyatini tasarruf etish hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan har qanday faoliyat bilan shug‘ullanish huquqqa ega.
Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning amalga oshirilishi, mulkning bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarilishi, iqtisodiyotning nodavlat sektori, ayniqsa xususiy va kichik tadbirkorlikning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yakka tadbirkorlikka keng yo‘l ochilishi, qishloq joylarida aholiga qo‘shimcha yer maydonlarining berilishi tufayli ortiqcha ish kuchi bilan bog‘liq muammoni yumshatish, odamlami samarali mehnatga jalb etish imkoni yaratildi[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi Farmoni bilan 78 ta aniq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilgan **“Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi**” qabul qilindi. Ular 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, O‘zbekistonning inson huquq va erkinliklari sohasida xalqaro reyting va indekslar bo‘yicha dunyoning yetakchi 50 ta davlatlari qatoriga kirishi bilan chambarchas bog‘liq. Shubhasiz, mehnat qilish huquqi insonlarni eng muhim huquqlaridan biri bo‘lganligi va uning mustahkam himoyalash asoslarini yaratishni taqozo etadi.
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 19-moddasida O‘zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi,

ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar[2]. O'zbekiston Respublikasida insonlarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalari hamda oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonunda e'trof etilishi mazkur huquq insoning eng muhim ajralmas hamda tabiiy huquqlaridan biri sifatida davlat tomondan ta'minlanuvchi qatiy norma hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy huquq tizmi faqat tabiiy huquqiy qoidalar bilan cheklanib qolmay, balki tenglik qoidalari ichida shakllangan ijobiy tenglik huquqiy elementlarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, tenglik huquq subyekti sifatida barcha fuqarolar uchun teng huquqiy maqomni nazarda tutadi hamda jamiyatning ayrim qatlamlariga ijtimoiy adolat qoidalariga mos kelmagan kasitishlarni taqiqlash talabi bilan ta'minlanadi. Diskriminatsiyani taqiqlash orqali insonlar o'rtasida tenglik tamoyilini ta'minlash, uni amalga oshirish usulidir, chunki diskriminatsiyadan himoya qilishning bir qator mexanizmlari ishlab chiqilgan va shuning uchun bu mexanizmlar tenglikni saqlashga qaratilgan. Diskriminatsiyani taqiqlash asosida jamiyatda tenglik qoidalarini o'rnatishga erishsih mumkin. Shaxslar o'rtasida tenglik tamoyili va kamsitishlarni taqiqlash asoslari hamda uning umumiy himoya vositalari bilan ham, ularning mazmunini talqin qilish bilan ham uzviy bog'liqdir. Diskriminatsiya tushunchasini o'rganish hamda uni taqiqlashda qaysi imtiyozlar tizmi tenglik tamoyilini buzilishiga olib keladi, qaysilari umimiy tenglik qoidalariga daxl qilmasligini chuqur tahlil qilish muammasini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'kidlangandek, inson huquqlarini kamsitish holatlarini yuzaga keltiruvchi asoslar: jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi kabi omillarga rioya etilmaganda yuzga keladi. Zamaonaviy dunyoda diskriminatsiya shakillari va turlari doimiy ravishda kengayib bormoqda. Yuqorida qayd etilgan asoslar bo'yicha kamsitish holatlari bilan bir qatorda bugungi kunda yuqoridagi ro'yxatni yoshi, nogironlik, oilaviy majburiyatlarning mavjudligi kabi xususiyatlar bo'yicha kamsitish holatlari bilan davom ettirish mumkin.

O'zbekistonda fuqarolarning mehnat huquqlarini kafolatlash maqsadida mehnat kodeksi yangi tahrirda qabul qilindi. Bozor iqtisodiyotiga mos zamonaviy davlatlar qonunchiligidan ijodiy foydalanilgan yangi tahrirdagi qonun 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan. Yangi kodeksda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning quyidagi asosiy prinsiplari belgilangan:

- mehnat huquqlarining tengligi, mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash;
- mehnat erkinligi va majburiy mehnatni taqiqlash;
- mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik;
- mehnat huquqlari ta'minlanishining va mehnat majburiyatlari bajarilishining kafolatlanganligi;
- xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo'l qo'yilmasligi[3].

Yangi tahrirdagi mehnat kodeksida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga quydagilar kiritildi:

- 14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz ota-ona, shuningdek ko'p bolali oilalardagi ota-onalar;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablari va kollejlari hamda texnikumlarini tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar;
- "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim tashkilotlarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari;
- Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar;
- nogironligi bo'lgan shaxslar;
- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar (qonunda belgilangan pensiya yoshiga qadar ikki yil oldin);
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar yoki sudning qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar;
- odam savdosidan jabrlanganlar.

Mamlakatimizda majburiy mehnatni oldini olishga qaratilgan amaliy harakatlar natijasida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, jumladan, paxtachilikda majburiy va bolalar mehnatidan foydalanishning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Bugungi kunda islohatlarning mantiqiy davomi sifatida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi

to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-37-son, 21.02.2024 y.) qabul qilindi. Mazkur farmonda mehnat munosabatlariga oid bir qator bandlarida kirtildi:

- Xotin-qizlar bandligini ta’minlashga ko‘maklashish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb- hunarga o‘qitish va o‘zini o‘zi band qilish.
- Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ishsiz aholini ishga joylashtirishga ko‘maklashish.
- Aholi bandligi dasturini shakllantirish va ijrosini elektron axborot tizimi orqali onlayn monitoring qilishni yo‘lga qo‘yish.
- Samarqand viloyati Samarqand tumani misolida ishsiz aholini aniqlashning yangi mexanizmini ishlab chiqish.
- Band bo‘lmagan shaxslar, kambag‘al oilalarning ishsiz a’zolari va yoshlarni amaliy monomarkaz, davlat va nodavlat ta’lim muassasalarida kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish orqali ularning bandligiga ko‘maklashish.
- Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish[4];

Yuqoridagi islohatlarni amalga oshirilishi mehnatga oid munosabatlarda inson huquqlarini kafolatini yangi bosqichga ko‘tarishiga olib keladi.

Milliy va xalqaro tajribaga asoslanib, mehnat munosabatlarida kamsitish uchun javobgarlik va ularning huquqiy asoslari bo‘yicha keng qamrovli huquqiy asoslarini yaratish lozim. Diskriminatsiya turli shakllarda bo‘lishi mumkin, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitish yoki bilvosita kamsitishdan iborat bo‘ladi. Qonun hujjatlarida ushbu taqiqlangan harakatlarni aniq belgilash hamda javobgarlik masalasini ko‘rsatish ish joyida kamsitishning oldini olishga ko‘maklashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**:

1. Й.Турсунов, М.А.Усманова. Меҳнат ҳуқуқи. Дарслик. -Т.: ТДЙ нашриёти. 2006. 58 бет
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 19-moddasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son, https://lex.uz/docs/-6445145(oxirgi murojaat: 28.02.2024)
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi., Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.10.2022-y., 02/22/798/0972-son; 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son; 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son, https://lex.uz/ru/docs/-6257288(Oxirgi murojaat:28.02.2024)
4. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-37-son, 21.02.2024 y.) https://lex.uz/docs/-6811936#-6813078 (oxirgi murojaat:28.02.2024)

## TERIOTOKSIKOZNI ERTA ANIQLASH YANGI ODDIY ZAMONAVIY USULLARI

**Aslanov G‘ulom Aslonovich**
**NavDPI tibbiyot fakulteti dekani tibbiyot fanlar nomzodi**
**Rustamov Jamol Istamovich**
**NavDPI Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi ichki kasalliklar fani o‘qituvchisi**
**Nasullayev Fayzi Otabek o‘g‘li**
**Pediatriya ishi yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi paytga kelib qalqonsimon bez kasalliklarini ko‘payganligi sababli aholi o‘rtasida qalqonsimon bez kasalliklarini erta aniqlashning va davolashning zamonaviy yechimlari. Undan tashqari teriotoksikoz haqida keng ma’lumotlar tavsiflanadi. Qalqonsimon bez kasaliklari va teriotoksikozni tadqiq qilishda va bu kasalliklarni oldini olishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanib kuzatish, taqqoslash va eksperimental metodlardan foydalangan holda kasalliklarni oson aniqlash mumkin.

В данной статье представлены современные решения по раннему выявлению и лечению заболеваний щитовидной железы среди населения в связи с ростом числа заболеваний щитовидной железы. Кроме того, описаны обширные сведения о териотоксикозе. При

изучении заболеваний щитовидной железы и тиреотоксикоза и профилактике этих заболеваний заболевания легко выявляются с помощью методов наблюдения, сравнения и эксперимента с использованием новых современных технологий.
In this article, modern solutions for early detection and treatment of thyroid diseases among the population due to the increasing number of thyroid diseases. In addition, extensive information about teriotoxicosis is described. In the study of thyroid diseases and thyrotoxicosis and prevention of these diseases, diseases can be easily identified using observation, comparison and experimental methods using new modern technologies.
**Kalit so‘zlar:** Qalqonsimon bez kasalliklari, teriotoksikoz, UTT, qon tahlili, punksiya, infra qizil nurli termometr, radioaktiv yod, difdiagnostika.
**Kirish.** Tireotoksikoz – bu qonda qalqonsimon gormonlari darajasining ortishi bilan yuzaga keladigan klinik sindrom. Ushbu gormonlarning ko‘pligi turli organlar va tizimlarning ishiga ta’sir qiladi. Bemorlar quruq teri, mo‘rt sochlar, yuzning shishishi haqida shikoyat qiladilar, ko‘z qovoqlari, barmoqlar va hatto butun tananing engil titrashi mumkin. Haroratning yengil o‘zgarishi, asabiy qo‘zg‘aluvchanlikning kuchayishi, terlash, issiqlik hissi va bezovtalik mavjud. Mushaklar kuchsizligining to‘satdan hujumlari mavjud. Bemor kishi janjalkash, shubhali va haddan tashqari faol bo‘ladi hamda uyqusi buziladi. Bemorda yuqori ko‘z qovoqlari terisining shishishi va qorayishi, lakrimatsiya, fotofobi, ko‘zlardagi bosim va “qum” hissi, ko‘zlarning shishishi (ekzoftalmos) kuzatiladi. Kasallik avj oliganda ko‘zning o‘rtacha yoki og‘ir shikastlanishi bilan ko‘rish keskinligining pasayishi kuzatilishi mumkin, bemorlar ko‘z qovoqlarini yopa olmaydilar, shuning uchun shox parda va skleraning shikastlanishi (yara, infektsiya) rivojlanadi.
Ba’zi bemorlarda terining va teri osti yog‘ to‘qimalarining shikastlanishi oyoqning old yuzasida rivojlanadi – binafsha-ko‘k rangning aniq belgilangan siqilishlari (eritema nodosum) kuzatiladi. Erkaklarda ba’zida to‘qimalarning shishishi tufayli barmoqlarning falangalarining qalinlashishi kuzatiladi. Qalqonsimon gormonlarning yurak-qon tomir tizimiga ta’siri tufayli bemorlar yurak ritmining buzillishi (taxikardiya, ekstrasistol, atriyal fibrilatsiya) beztaliklar tashvishlantirib Kardiolog ko‘rigiga borishga majbur qiladi. Oshqozon-ichak traktining buzilishi tez-tez uchraydi. Ishtahaning ortishi bilan ham tezlashtirilgan metabolizm tufayli tana vazni kamayadi. Qorin og‘rig‘i, qusish, najasning buzilishi va ba’zida ich qotishi hujumlari bo‘lishi mumkin. Og‘ir holatlarda jigar ta’sirlanadi – uning kattalashishi, va kamdan-kam hollarda sariqlik qayd etiladi. Qo‘zg‘atuvchi omillar ta’sirida (stressli vaziyatlar, jismoniy ortiqcha kuchlanish, yuqumli kasalliklar, jarrohlik) tirotoksik inqiroz paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu fanda Teriotoksik kriz deb qayd qilinadi. Qalqonsimon bez gormonlarining ko‘p miqdorda qonga to‘satdan tushishi natijasida bemorlar bezovtalanadi, tana harorati sezilarli darajada ko‘tariladi, taxikardiya keskin kuchayadi, nafas olish tez-tez bo‘lib, qon bosimi ko‘tariladi, yurak ritmi EKGda ko‘p hollarda taxikardiya tipida kuzatiladi.
**Tireotoksikozning turlari**:
I. Qalqonsimon bez gormonlarining ko‘payishi natijasida yuzaga keladigan tirotoksikoz:
1. Graves kasalligi (diffuz toksik guatr).
2. Ko‘p tugunli toksik guatr.
3. Qalqonsimon bezning toksik adenomasi.
4. Qalqonsimon bez saratoni.
5. TSH ishlab chiqaradigan gipofiz adenomasi.

II. Qalqonsimon bezdan tashqarida qalqonsimon gormonlar ishlab chiqarish natijasida kelib chiqadigan tirotoksikoz:
1. Chorionepithelioma.
2. Struma ovarii (tuxumdon o‘smasi).
3. Qalqonsimon bez saratonining ishlaydigan metastazlari.

III. Tiroid gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bog‘liq bo‘lmagan tirotoksikoz:
1. Tibbiy tirotoksikoz.
2. Destruktiv tiroiditning tirotoksik bosqichi (subakut, tug‘ruqdan keyingi).

Kasallik kechishining og‘irligiga qarab, tirotoksikozning yengil, o‘rtacha va og‘ir shakllari ajratiladi.

Tirotoksikozning yengil shaklida yurak urishi daqiqada 100 martadan oshmaydi, tana vaznining yo‘qolishi 5 kg dan oshmaydi, ko‘zning alomatlari yo‘q yoki engil. O‘rtacha shaklda – yurak urishi daqiqada 100-120 urish, vazn yo‘qotish – 8-10 kg, aniq tremor (chayqalish), sistolik qon bosimining oshishi va diastolik bosimning pasayishi, ekzoftalmos. Davolashsiz uzoq muddatli tirotoksikoz bilan og‘ir shakl rivojlanadi. Pulsning tezligi daqiqada 120-140 zarba, vazn yo‘qotish holsizlanish darajasiga etadi, yurak-qon tomir tizimi, jigar va buyrak usti bezlarining shikastlanishi kuzatiladi.

**Tireotoksikozning mumkin bo‘lgan sabablari**.

Qonda qalqonsimon bez gormonlarning ko‘payishi bir necha sabablarga ko‘ra kuzatilishi mumkin:

- qalqonsimon bezda gormonlar ishlab chiqarishning ko‘payishi natijasida;
- qalqonsimon bez to‘qimalarining vayron bo‘lishi va qonga ko‘p miqdorda qalqonsimon gormonlar chiqishi natijasida;
- qalqonsimon gormon preparatlarining haddan tashqari dozasi yoki amiodaron bilan dori terapiyasining yomon ta’siri natijasida.

Radioaktiv yod terapiyasi toksik guatr mavjud bo‘lganda samarali bo‘ladi. Radioaktiv yodning terapevtik ta’siri bezning epitelial hujayralarini yo‘q qilishga asoslangan va asosan og‘ir birga keladigan kasalliklari bo‘lgan keksa bemorlarda va jarrohlik davolashdan keyin toksik guatrning qaytalanishida qo‘llaniladi. Kasallikni tekshiruvida barmoqlar cho‘zilganida yengil titroq-tremor, haddan tashqari faol reflekslar, ko‘z o‘zgarishi va tana haroratining yuqoriligi, nam terini aniqlashga harakat qilishi mumkin. Yutinish paytida qalqonsimon bezni tekshirish, uning kattalashganligini aniqlash, puls tezligi va ritmi aniqlanadi.

Qon tahlilarida Tiroksin va qalqonsimon bezni ogohlantiruvchi gormon (TTG) ni o‘lchaydigan qon testlari tashxisni tasdiqlashga yordam beradi. Yuqori darajadagi tiroksin va kam yoki mavjud bo‘lmagan TTG miqdori qalqonsimon bezning haddan tashqari faolligini ko‘rsatadi. TTG miqdori juda muhim, chunki bu qalqonsimon bezinda ko‘proq tiroksin ishlab chiqarish uchun signal beruvchi gormon. Ushbu tahlillar ayniqsa, gipertiroidizmning klassik belgilari uchramaydigan kattalar uchun zarurdir. Agar tekshiriluvchi biotin qabul qilavchi shaxs bo‘lsa, qalqonsimon bezdagi qon tekshiruvi noto‘g‘ri natijalar berishi mumkin. Bu multivitaminlarda mavjud bo‘lgan B vitamili qo‘shimcha. Agar biotin yoki biotinli multivitamindan foydalanuvchi tekshiriluvchi bo‘lsa, bu haqda shifokorni ogohlantirishi va tekshiruvdan kamida 12 soat oldin biotin qabul qilmagan bo‘lishi lozim. Hozirgi kunda gipertiroidizmga chalingan bemor qon namunasidan tashqari quyidagi tekshiruvlar olib borilmoqda.

**Radioyodni qabul qilish testi.** Ushbu test bemor qalqonsimon bezi tomonidan radioaktiv yodning o‘zlashtirish darajasi baholashga qaratilgan bo‘lib, bunda bemorga radioaktiv yodning kam dozasi beriladi va istemoldan 4, 6 va yoki 24 soatdan keyin yodning qancha qismi o‘zlashtirilganligi tekshiriladi. Ayrim vaqtlarda mana shu uchta vaqt ichida jarayon o‘zgarishi uch bora tekshirilishi mumkin. Radioaktiv yodning yuqori o‘zlashtirilgan miqdori qalqonsimon bez juda ko‘p tiroksin ishlab chiqarayotganini ko‘rsatadi. Eng yaqin mumkin bo‘lgan sabab Grevis kasalligi yoki qalqonsimon bezning giperfunktsiyali tugunlari mavjudligi bo‘lishi mumkin. Agar gipertiroidizm aniqlansa va radioaktiv yodni qabul qilish darajasi past bo‘lsa, bu bezda saqlanadigan tiroksin gormoni qon oqimiga oqib chiqayotganini ko‘rsatadi, bu tiroyodit borligini anglatishi mumkin.

**Qalqonsimon bezni skanerlash.** Ushbu tekshiruv jarayonida bemorning yelka venasiga radioaktiv izotop yuboriladi. Keyin bemor stol ustida boshini orqaga cho‘zgan holda yotadi, bunda maxsus kamera qalqonsimon bezning tasvirini kompyuter ekranida yaratadi. Ushbu test yodning qalqonsimon bezda qanday to‘planishini ko‘rsatadi.

**Qalqonsimon bezning ultratovush tekshiruvi.** Ushbu test qalqonsimon bezning tasvirini yaratish uchun yuqori chastotali tovush to‘lqinlaridan foydalanadi. Ultratovush tekshiruvi qalqonsimon bez tugunlarini aniqlashda boshqa testlarga qaraganda yaxshiroq bo‘lishi mumkin va hech qanday nurlanish ta’siri yo‘q[5].

Tekshuruvlarimiz Karmana tuman tibbiyot birlashmasi Koʻp tarmoqli markaziy poliklinikasida ambulatorya sharoitda kardiolog vrachi qabuliga 2 oy davomida murojat qilgan bemorlar oʻrtasida, "Infraqizil nurli termometr" yordamida qalqonsimon bezkasalligidan biri boʻlgan Tireotaksikoz kasalligini erta aniqlash va kardiologik kasalliklardan difdiagnostika qilindi va ushbu tadqiqodimizni UTT va laborator tekshiruvlar yordamida hamda Endakrinolog varchi tasdiqlagani bois tadqiqotimizni amaliyotga keng jalb qilish ishlari oʻrganib chiqilmoqda.Tadqiqqot obyekti murojat etgan bemorlar umumiy **683** nafar bemordan **76** nafarida boʻqoq bezi infraqizil termometriya usulidagi tekshiruv ijobiy natija berdi.

Tekshiruvda bemor shikoyatlari obektiv koʻrik natijalari boʻqoq bezini infraqizil nurli termometr orqali 3-5 sm masofada ikkala boʻlakni oʻlchanib undagi harorat baholanib oʻrtacha qiymat chiqarildi(37.6-37.8 C). Qalqonsimon bez kasalligiga (Tireotaksikoz) chalinmagan bemorlarda oʻrtacha qiymat(36.6-36.8 C)ni tashkil etdi.Bu tahlillar boʻqoq bezi UTT si bilan qayta tekshirilib unda boʻlaklarda tugunlarning shakllanayotgani hamda toʻqima stromasining intinsiv yalligʻlanish tasvirlari kuzatildi. Laborator tahlillar esa TTG va Antiterioperioksidaza fermenti miqdori oshganligi kuzatildi. Yuqoridagilarga asoslanib bemorlarni aksariyatida kasallik bevosita kardiologik simptomlar ostida yashirin rivojlanishi qayd qilindi. Natijadan olingan tahlillarga asoslanib oddiy ambulatory sharoitda infraqizil nurli termometr orqali kasallikni aniqlab hamda kasalliklarni erta rivojlanishini oldini olish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Klinik endokrinologiya: qoʻllanma / Ed. N.T. Starkova. - M.: Tibbiyot, 1991 yil. - 512s.
2. E.A. Valdina. Qalqonsimon bez kasalliklari: qoʻllanma. 3-nashr. - Sankt-Peterburg: Peter, 2006. - 368 p.
3. Kalinin A.P., Lukyanchikov V.S., Vyet Nguyen Xan. Tirotoksikozning zamonaviy jihatlari (ma'ruza). Endokrinologiya muammolari, jurnal. T. 46. No 4, 2000. B. 23-26.
4. Lishova Ekaterina Aleksandrovna maqolasidan
5. KTTB KTMP Kardiolog vrachiga ambulatory murojat etgan bemorlar


## MUSTAQILLIK YILLARIDA QIZILTEPA TUMANI IQTISODIYOTI HOLATI VA UNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI


**NavDPI magistranti**

**Raxmonov Fazliddin**



**Annotasiya.** Maqolada mustaqillik yillarida Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida iqisodiy islohotlarning amalga oshirilishi jarayonlari oʻrganilgan. Iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlar, sohada faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari, eksport va import imkonitalari, xorijiy investisiyalarni jalb qilish dinamikasi tahlil etiladi.


Qiziltepa tumani bugungu kunda nafaqat Navoiy viloyatining, balki respublikamizning ilgʻor tumanlaridan biri sanaladi. Tuman rivojlangan sanoati, qishloq xoʻjaligi, ulkan sayyohlik salohiyati bilan mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida muhim oʻrin tutadi. Qiziltepa tumani 1970-yil 7-dekabrda tashkil topgan boʻlib, Navoiy viloyatining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi. Qiziltepa tumanida 123 ta aholi puntklari, 53 ta mahalla fuqarolar yigʻinlari, 43,4 mingta oilalar mavjud. 2023-yilning 1-yanvar holatiga Qiziltepa tumani aholisi soni viloyat doimiy aholisi (1 055,5 ming kishi) ning 15,1 foizini yoki 159,2 ming kishini tashkil etadi. Shundan, 49,8 ming kishi shahar joylarida va 109,4 ming kishi qishloq joylarida istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 kv. km. ga 73 kishi toʻgʻri keladi. Qiziltepa tumaniga boʻysunuvchi 1 ta shahar, 12 ta shaharchalar mavjud[78]. Qiziltepa tumani oʻzining iqtisodiy-ijtimoiy sohalardagi jadal taraqqiyoti, qishloq xoʻjaligi va sanoatining turli tarmoqlaridagi oʻzgarishlari bilan Yangi Oʻzbekistonni barpo etishda respublikamizning eng faol hududiga aylanib bormoqda. Oʻzbekiston mustaqil davlat maqomiga erishgach, bu omil mamlakat miqiyosida ham, mazkur hudud taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy sohalarda yetakchi oʻrinlardan birini egallash sari intilmoqda. Islohotlar

[78] Qiziltepa tumani statistika boshqarmasi ma'lumotlari

boshlangan dastlabki yillarda iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlar yasashga, uning bir yoqlama, xomashyoga yoʻnaltirilganini bartaraf etishga muvaffaq boʻlindi. Oʻzbekiston agrar mamlakatdan sanoat tarmoqlari rivoj topayotgan mamlakatga aylandi. Qayd etish lozimki, bugungi kunda Qiziltepa tumanida tadbirkorlik, ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlanib, hudud iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, “lokomativi”ga aylanib ulgurdi. Xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita oʻz ta’sirini oʻtkazadi. 2022-yil yakuni bilan tumanning tashqi savdo aylanmasi 77,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 52,3 mln. AQSh dollariga yoki 3,1 martaga oʻsdi. 2021-yilda tumanda yuridik korxonalar soni 2190 tadan ziyodni tashkil qiladi. Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha roʻyxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo, sanoat, qurilish hamda xizmat koʻrsatish sohalariga toʻgʻri keladi. Beznes subyektlarining 429 tasi xususiy korxonalar, 283 tasi olaviy korxonalar, 1187 tasi ma’suliyati cheklangan jamiyat, 2 tasi aksiyadorlik jamiyati va boshqalar tashkil etadi[79]. 2023-yil 1-iyul holatiga jami roʻyxatdan oʻtgan kichik biznes subyektlari soni 3 675 tani tashkil etib, bu koʻrsatkich 2022 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 355 taga, ya’ni 112.0 foizga oshgan. Tarmoqlar kesimida tahlil qiladigan boʻlsak, 1 623 tasi savdo, 442 tasi sanoat, 380 tasi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi, 272 tasi qurilish, 210 tasi yashash va ovqatlanish hamda 495 tasi boshqa tarmoqlar hissalariga toʻgri kelgan.
2022-yilda tumanda mahsulot eksport qiluvchi korxonalar soni 20 tani tashkil etib, ular tomonidan 49,6 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021-yilga nisbatan 3,6 martaga) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.
Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 foizni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (80,6 %), turli xil tayyor buyumlar (7,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,1 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari (4,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (0,1 %) va xizmatlar (0,4 %) hissasiga toʻgʻri kelmoqda[80].
2023-yilning 1-yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha roʻyxatdan oʻtgan korxonalar va tashkilotlarning soni, *birlikda (fermer va dehqon xoʻjaliklaridan tashqari)*




2023-yil 1-yanvar holatiga koʻra roʻyxatdan oʻtgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlarining asosiy qismi, ya’ni 1479 tasi savdo, 458 tasi sanoat, 367 tasi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi, 265 tasi qurilish sohalariga toʻgʻri keladi. Kamlari esa, axborot va aloqa 35 ta, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish 36 tani tashkil etadi.
Azaldan ishbilarmonlik muhiti bilan dong taratgan hududda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ham ulkan natijalarga erishilmoqda. Qiziltepa tumanning makroiqtisodiy koʻrsatkichlari yildan yilga oʻsib borganini koʻrish mumkin.
Ma’lumki, kichik biznesning ixchamligi, harakatchaligi, iqtisodiy manfaatlarni nisbatan toʻlaroq namoyon etib, bozor konyukturasi oʻzgarishlarga tez moslasha olishi kabi xususiyatlari uning iqyisodiyotni tubdan oʻzgartirishda eng samarali va qulay bositalaridan biriga aylandi. Qiziltepa tumanida 2023-yil 1-iyul holatiga jami roʻyxatdan oʻtgan kichik biznes subyektlari soni 3675 tani tashkil etib, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 355 taga, ya’ni

[79] Rajabov Q, Maqsudov R Qiziltepa tumani kecha va bugun. – Toshkent: SAHHOF, 2021. – B 273
[80] Qiziltepa tuman hokimining birinchi o'rinbosari, iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'i Nasriddin Hayitov bilan suhbat. 2023 yil 15 mart

112.0 foizga oshdi. Shundan tarmoqlar kesimida oladigan bo‘lsak, 1623 tasi savdo, 442 tasi sanoat, 380 tasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 272 tasi qurilish, 210 tasi yashash va ovqatlanish hamda 495 tasi boshqa tarmoqlar hissalariga to‘gri kelmoqda.

**2023- yilning 1- yanvar holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi,** ***foizda***




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligi darajasini oshirishdagi roli ham muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, tadbirkor o‘z mablaglarini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni damda daromadlarni oshirish bilan birga jamiyat a’zolarining ham ish hamda daromad bilan ta’minlanishi uchun moddiy poydevor yaratadi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatdi. Ma’lumki, har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil o‘sishi uning raqobatbardoshligi bilan bog‘liqdir. Faqat shu yo‘lgina mamlakat rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashini ta’minlay oladi. Bugun iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishish xorijiy sarmoyalarni, eng avvalo, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarni jalb qilish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday mamlakat uchun eng dolzarb va kechiktirib bo‘lmaydigan masaladir. Hech kimga sir emaski, investisiyalar iqtisodiyotning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish sur’ati va ko‘lamiga ta’sir etadi, ilmiy-texnik taraqqiyotni va aholining ko‘p qismini bandligini ta’minlaydi. 2022-yilda Qiziltepa tumani asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hajmi 911,1 mlrd. so‘mni, tashkil etib o‘sish sur’ati 2021-yilga nisbatan 167,5 foiz, Navoiy viloyatidagi ulushi 5,1 foizni tashkil etgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi**
**(** *foizda)*




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 333,0 mlrd. so‘mi davlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, jami investitsiya hajmidagi ulushi 36,5% foizni tashkil qildi. Mulkchilikning nodavlat shaklidagi tashkilotlari tomonidan 578,1 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirilib, ulushi 63,5% ni tashkil qildi. Bu borada iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish eng muhim ijtimoiy-iqtsodiy omil bo‘ldi. Umuman olganda bugun Qiziltepa tumanida iqtisodiyotning barcha sohalarida Navoiy viloyatining eng namunali tumanga aylantirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda va bu yo‘nalishdagi ishlar tizimli davom ettirilmoqda.

## LISONIY SINTAKTIK QOLIP VA NUTQIY HOSILA MUNOSABATI

**Hojiyeva Gulyuz Jamshid qizi,**
**NDPI, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: NavDPI f.f.d. professor M.S.Ernazarova**

**Annotatsiya.** Bugungi kunda tilshunoslikda paydo bo‘lgan yangidan yangi yo‘nalishlarning mavjudligi o‘zbek tilining serqirra imkoniyatlarini mashina orqali oson o‘rganish, qoliplashtirish, bevosita boshqa tillar bilan solishtirish kabi amallarni vujudga keltirdi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi lisoniy sintaktik qolip hamda uning nutqiy hosila bilan munosabati, o‘xshash va farqli jihatlari to‘g‘risida mulohazalar bayon etilgan.

**Аннотация.** Наличие новых тенденций в лингвистике сегодня привело к таким действиям, как легкое обучение, моделирование и прямое сравнение узбекского языка с другими языками. В данной статье описывается лингвосинтаксический образец в узбекском языке и его связь с речевым производным, а также его сходства и различия.

**Annotation.** The presence of new trends in linguistics today has led to actions such as easy learning, modeling, and direct comparison with other languages of the Uzbek language. This article describes the linguistic syntactic pattern in the Uzbek language and its relationship with the speech derivative, as well as its similarities and differences.

**Kalit so‘zlar:** lisoniy sintaktik qolip, so‘z birikmasi qolipi, sodda gap qolipi, hosilaning cheksizligi, moddiylikdan xolilik.

**Ключевые слова:** лингво-синтаксический образец, фразовый образец, образец простого предложения, словообразовательная бесконечность, свобода от материальности.

**Key words:** linguistic syntactic pattern, phrase pattern, simple sentence pattern, derivational infinitude, freedom from materiality.

O‘zbek tilida ma’lum sintaktik qoliplar yaratilgan. O‘zbek tilidagi ushbu sintaktik qoliplar cheklangan, ammo ular voqelikda chek-chegarasiz ko‘rinishga ega. U so‘z birikmasi qolipi bo‘ladimi yoki sodda yoxud qo‘shma gaplarning sintaktik qolipi bo‘ladimi, nutq vaziyatidan kelib chiqib voqelikka kirishadi, ma’lum bir qolip yuzlab, hatto minglab ma’nolarni yuzaga chiqaradi.

Quyida LSQ va nutqiy soʻz birikmasi hamda gapning bir-biriga oʻxshamaydigan, farqli xususiyatini bayon etamiz.

**1. LSQning moddiylikdan oliligi va nutqiy hosilaning moddiyligi.** LSQ jamiyat a'zolari ongida mavjud boʻlib, kishilarning erkin birikma hosil qilish koʻnikmasi sifatida uzoq davr mobaynida shakllanadi. Bu koʻnikma boʻlmasa, inson birikma hosil qila olmaydi. Bunga quyidagi dalil asosida amin boʻlishimiz mumkin. Deylik, biror tilni, masalan, ingliz tilini oʻrganmoqchi boʻlgan kishi ongida bu tilga xos birikma tuzish koʻnikmasi – LSQ shakllanmagan boʻlsa, masalan, oʻzbekcha *kitob* va *oʻqimoq* soʻzining ingliz tilidagi *a book* va *to read* muqobilini bilsa-da, birikma hosil qila olmaydi yoxud oʻzbek tiliga xos **[ot$^{\mathbf{tushum\ kelishigi}}$ + fe'l]** qolipi asosida *a book to read* deya oladi, xolos. Ingliz tilida esa *kitobni oʻqimoq* birikmasini hosil qiluvchi LSQ **[to V+ the N]** koʻrinishida boʻlib, undan *to read the book, to write the letter* kabi hosila paydo boʻladi.[81]

**2. LSQning ijtimoiyligi va nutqiy birikmaning individualligi.** LSQ bir kishi tomonidan emas, balki shu tilda soʻzlashuvchi jamiyatning barcha a'zolari tomonidan uzoq vaqt davomida shakllantirilgan. Shuningdek, ular bir kishi uchun emas, balki jamiyatning shu tilda soʻzlashuvchi barcha a'zosi uchun birday xizmat qiladi. Bu LSQning ijtimoiy tabiatga egaligini koʻrsatadi.

LSQ asosida vujudga keluvchi nutqiy hosila har bir kishi nutqida oʻziga xos. Masalan, *kitobni oʻqimoq* soʻz birikmasi har bir soʻzlovchi nutqida oʻzgacha. Bu nutqiy hosilaning har biri kimning nutqiga tegishliligi, aytilgan oʻrni va zamoni, aytilish maqsadi va sharoiti kabi qator belgisi bilan farqlanadi. Hatto bir kishi nutqida aytilgan ikkita *(kitobni oʻqimoq* va *kitobni oʻqimoq)* soʻz birikmasidan ikkinchisi birinchisining aynan takrori emas. Zero bu nutqiy hosilalar hech boʻlmaganda, soʻzlovchi shaxs, nutq vaziyati, zamoni bilan farqlanadi. Nutqiy hosilaning individualligi(alohidaligi)ni shunday tushunmoq lozim.

**3. LSQning takrorlanuvchanligi va nutqiy hosilaning betakrorligi.** Qolip har bir gʻishtda oʻz izini qoldiraverganligi kabi LSQ ham har bir soʻz birikmasi va gapda takrorlanaveradi. Lekin ikkinchi gʻisht birinchi gʻishtning takrori boʻlmaganligi kabi, nutqiy hosilaga ham betakrorlik xos. Aslida borliqda bevosita kuzatishda berilgan birorta hodisada takroriylik yoʻq. Kesilgan daraxtni qayta ekib boʻlmaganidek, qolipdan chiqqan soʻz birikmasini takror aytish, yozish mumkin emas. Ikkinchi bor aytilgan yoki yozilgandek tuyulgan soʻz birikmasi, aslida, boshqa hosila.

**4. LSQning cheklanganligi va nutqiy hosilaning cheksizligi.** Gʻisht qolipi bitta, undan chiqqan gʻisht hisobsiz. Shuningdek, deylik, **[ot$^{\mathbf{tushum\ kelishigi}}$+fe'l]**qolipi bitta boʻlib, undan *kitobni oʻqimoq, qalamni sotmoq* kabi ming-minglab soʻz birikmasini hosil qilish mumkin. Bugungi kunda oʻzbek tilida soʻz birikmasi hosil qilishning 18 ta ustuvor qolipi aniqlangan (ular haqida "Soʻz birikmasi" faslida bahs yuritiladi). Bu qoliplardan chiqqan, chiqayotgan va chiqadigan nutqiy soʻz birikmasi miqdorini tasavvur ham qilib boʻlmaydi. Gap qolipi va ularning hosilalari ham xuddi shunday.

**5. LSQning majburiyligi va nutqiy hosilaning ixtiyoriyligi.** Oʻzbek tilida soʻzlashuvchi kishi nutq jarayonida soʻz birikmasi tuzishga ehtiyoj sezar ekan, bunda LSQning yuqorida aytilgan 18 ta turidan foydalanishga majbur. Ularning LSQni oʻzgartirishiga, yangi-yangi LSQ tuzishiga til "qonunchiligi" tomonidan yoʻl qoʻyilmaydi. Biroq nutqiy soʻz birikmasi yaratishda soʻzlovchi erkin. Qolip va nutqiy hosila oʻzida dialektikaning bir-biriga nisbatlanuvchi kategoriyalari munosabatini aks ettiradi. Buni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

| **LSQ** | **Nutqiy hosila** |
|---|---|
| Umumiylik | Alohidalik |
| Mohiyat | Hodisa |
| Imkoniyat | Voqelik |
| Sabab | Oqibat |

Bu jihatdan ham LSQ va nutqiy hosila munosabatini sharhlashga harakat qilamiz.

**1. LSQ umumiylik va nutqiy hosila alohidalik sifatida.** LSQ umumiylik sifatida koʻplab nutqiy hosiladagi umumiy belgi-xususiyatni oʻzida jamlaydi. Masalan, *kitobni oʻqimoq, xatni yozmoq* va

[81] 1. R.Sayfullayeva, M.Qurbonova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Tosh:-2009

*qo'yni sotmoq* birikmasidagi *kitobni, xatni, qo'yni* tobe a'zosi quyidagi umumiy belgilarga ega:
1) ot turkumiga mansublik;
2) tushum kelishigi bilan shakllanganlik;
3) tobe a'zolik.[82]

Kollobolativ yondashuvning tarkibiy qismlaridan kelib chiqqan holda ,ushbu yondashuv asosida o‘rgatishning quyidagi afzalliklari mavjud:
**1. Muammoni yechish malakasini oshiradi**. Kollobolativ yondashuv loyihalari ko‘pincha guruhlardan vazifani bajarish yoki muammoni hal qilishni talab qiladi. Bu kabi tadbirlar uchun talabalar eng yaxshi yechimni topish uchun turli g‘oyalarni muhokama qilishlari va tahlil qilishlari kerak. Guruh sifatida muammo yoki topshiriq ustida ishlayotganlarida, bu talabalarga o‘zlarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va shu bilan birga faol ishtirokni rivojlantiradi.
**2. Muloqot, ishonchni yaxshilaydi, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va ishtirokni rag‘batlantiradi.** Kollobolativ yondashuv vazifani bajarish uchun samarali muloqotga bog‘liq bo‘lib, unda talabalar o‘zlarining og‘zaki muloqot qobiliyatlaridan g‘oyalarni almashish, tushunchalarni tushuntirish va aniq va qisqa fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun foydalanadilar. Bu talabalardan ko‘z bilan aloqa qilish (turli madaniyatlarni hisobga olgan holda), og‘zaki muloqot va ijtimoiy signallardan foydalangan holda jamoa sifatida o‘zaro ta’sir qilishlarini talab qiladi. Turli xil shaxsiyat a’zolari umumiy maqsad sari harakat qilish orqali baham ko‘rish va tinglashni o‘rganadilar.
**3. Turli xillikni targ‘ib qiladi.** Kollobolativ yondashuv turli xil kelib chiqishi, e'tiqodi, ta’lim darajasi va yoshidagi talabalarni birlashtiradi, bu bir xil darajada muhimdir. Yechimni aniqlash jarayonida o‘quvchilar o‘z tengdoshlaridan turli fikr va qarashlarga ega bo‘lgan turli tushuntirishlarni eshitadilar. Natijada, hamkorlikda o‘rganish o‘quv muhitida ochiq fikrlashni va qabul qilishni rag‘batlantirishi mumkin va bundan buyon turli nuqtai nazarlarga ta’sir qilish va tushunishni oshirish imkonini beradi.
**5. Ijodkorlikni ilhomlantiradi.** Turli qarashlar va g‘oyalarni birlashtirish natijasida hamkorlikdagi o‘quv topshiriqlarini ijodiy hal qilish mumkin. Biror kishining g‘oyasi yoki taklifi o‘z jamoasi

a'zolarida yangi va ijodiy g'oyani ilhomlantirishi mumkin. Kollobolativ yondashuv ushbu turdagi ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi, chunki ko'plab g'oyalar va qarashlar ko'pincha jamoa a'zolariga muammoning samarali yechimini topishga yordam beradi .

**6. Ishonch hosil qiladi.** Hamkorlikdagi o'quv guruhlari muvaffaqiyatga erishish uchun bir-biriga tayanib, maqsadlariga erishish uchun birgalikda ishlaydi. Shunday qilib, ular bir-biriga ishonishni o'rganishlari kerak.

**7. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi**. Ushbu turdagi o'rganish ishtirokchilarni yuqori darajada fikrlashga undashi mumkin. Hamkorlikdagi loyihalarda talabalar muammoni hal qilishlari yoki vazifani bajarishlari kerak bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qiladilar va muhokama qiladilar. Tanqidiy fikrlash mojarolarni hal qilish, aqliy hujum strategiyalari, kontent yaratish va g'oyalar va natijalarni baholash uchun muhimdir .

**8. O'zaro munosabatlarni o'rnatadi**.Guruh a'zolari birgalikda o'quv loyihasi ustida ishlashga vaqt sarflaganlarida, ular bir-birlarini yaxshiroq bilishadi. Bu ijobiy shaxsiy munosabatlarga va yuqori ruhiy holatga olib kelishi mumkin. Agar o'qituvchi hamkorlikda o'rganishda ishtirok etsa yoki unga rahbarlik qilsa, bu shaxsga o'z o'quvchilarini yaxshiroq tushunishga va murabbiy munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilib, aytadigan bo'lsak ushbu ta'lim usulidan ta'lim jarayonida unumli foydalansak, talim safati samarali bo'ladi. Qolaversa, talabalaning keyingi ijtimoy hayotiga ham ta'siri juda katta. Kollobolativ yondashuv nafaqat ta'lim tizimiga oid balki ish jarayonida ham qo'llanishi mumkin. Shunday ekan, talabalarning keyingi ish faoliyatida qiynalmasdan, ijtimoiy muhitga kirishishlari oson kechadi.

**Foydalanilgan adabitotlar:**


1. Alber, R. 2017. Chuqurroq o'rganish: hamkorlikdagi sinf asosiy hisoblanadi. Mavjud: https://www.edutopia.org/blog/deeper-learning-collaboration-key-rebecca-alber .
2. Hamkorlik: 21-asr o'quvchilari uchun muhim mahorat. 2019. Selvin *maktabida* . Mavjud: https://selwynschool.org/collaboration-an-essential-skill-for-21st-century-learners/ .
3. Hamkorlik. 2023. *Kvinslend hukumatida* . Erta bolalik davridagi ta'lim va g'amxo'rlik. Mavjud: https://earlychildhood.qld.gov.au/early-years/age-appropriate-pedagogies/characteristics/collaborative .
4. Herrity, J. 2023. Birgalikda o'rganishning 11 afzalliklari (Plyus undan foydalanish bo'yicha maslahatlar). Mavjud: https://www.indeed.com/career-advice/career-development/benefits-of-collaborative-learning .
5. Hilkemeijer,M. 2023. *ICT Solutions Australia. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning hamkorlikda o'rganishni osonlik bilan o'rnatishining 3 ta usuli.* Mavjud: https://www.ictesolutions.com.au/blog/3-ways-for-teachers-to-embed-collaborative-learning-with-ease-in-preschool-today/ .
6. Carlzon, B. Tarix ko'rsatilmagan. *Bolalarga hamkorlik qilish imkonini beradigan turli xil ta'lim tajribalarini yarating.* Mavjud: https://learningpowerkids.com/collaborative-learning/.
7. Kollobolativ yondashuv. 2023. Mavjud: https://teaching.cornell.edu/teaching-resources/active-collaborative-learning/collaborative-learning .


## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI BILIM VA TAFAKKURINI OSHIRISHDAGI O'RNI


**Kubayeva Nilufar Shuhrat qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 1-kurs magistranti**



**Annotatsiya.** Ma'lumki, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar asosida milliy o'quv dasturi joriy qilindi. Barcha fanlar bosqichma-bosqich ushbu dastur asosida tashkil etilmoqda. Xususan, Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi ham shu qatordan joy olgan bo'lib, ushbu maqolada darslikka qanday yangiliklar kiritilganligini DTSga asoslangan ona tili darsligi bilan taqqoslagan holda ko'rib chiqamiz.

**Аннотация.** Известно, что национальная учебная программа была введена на основе реформ в сфере образования. На основе этой программы постепенно организуются все предметы. В частности, в эту серию входит учебник «Родной язык и грамотность чтения», и в этой статье мы рассмотрим, какие новшества внесены в учебник, сравнивая его с учебником родного языка на основе ДТС.
**Annotation.** It is known that the national curriculum was introduced on the basis of reforms in the field of education. All subjects are gradually being organized on the basis of this program. In particular, the Mother Language and Reading Literacy textbook is included in this series, and in this article we will consider what innovations have been introduced into the textbook, comparing it with the mother tongue textbook based on DTS.
**Kalit so'zlar:** darslik, ona tili va o'qish savodxonligi, DTS, ona tili, milliy o'quv dasturi, mashq, boshlang'ich sinf.
**Ключевые слова:** учебник, родной язык и грамотность чтения, ДТС, родной язык, общенациональная учебная программа, упражнения, начальный класс.
**Key words:** textbook, mother tongue and reading literacy, DTS, mother tongue, national curriculum, exercise, primary grade.

Amalda o'qitilayotgan Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi o'zining tuzilishi, mavzularning tanlanganlik darajasi, mashqlar ketma-ketligi bilan avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi. Yangi darslikda mavzular bola hayotiga yanada yaqinroq qilib tanlangan. Yana bir narsani ta'kidlab o'tish joizki, DTSga asoslangan Ona tili darsliklarida audiomatnlar bilan ishlash jarayoni, o'quvchida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish kabilarga e'tibor qaratilmagan edi. Shu kabi qator kamchiliklar milliy o'quv dasturiga asoslangan darsliklarda bartaraf etilgan bo'lib, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlariga juda ko'p imkoniyat yaratilgan. Keling, hozirgi Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi bilan DTSga asoslangan ona tili darsligidagi mavzularni taqqoslagan holda ko'rib chiqsak: DTSga asoslangan ona tili darsligi 3 ta katta bo'limdan iborat bo'lgan: tovushlar va harflar, so'z, nutq va gap. 1-bo'lim "Tovushlar va harflar" deya nomlangan bo'lib, unda tovush, harf, unli va undosh, harflar birikmasi, tutuq belgisi, alifbo, bo'g'in, bo'g'inlab ko'chirish kabi dastlabki fonetik bilimlar o'quvchilarga yetkazilishi kerak bo'lgan. 2-bo'lim "So'z" bu bo'limda so'zning ma'nosi, shaxs va narsalarning nomini harakatini, xil xususiyatini, belgisini, miqdorini bildirgan so'zlar kabi mavzular o'rin olgan edi. Bu bo'lim bilan tanishish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga so'z va uning lug'aviy ma'nosi to'g'risidagi leksik bilimlarni yetkazishi kerak bo'lgan. Eng oxirgi 3-bo'lim "Nutq va gap" da esa og'zaki va yozma nutq hamda gap to'g'risidagi dastlabki sintaktik-nazariy bilimlar o'quvchilarga yetkazilishi kerak bo'lgan. Ona tili va o'qish savodxonligi esa o'zining ichida 2 ta fanni mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Shunning uchun ham u hajman ancha kattaroq bo'lib, 2 qismga bo'lingan. Dastlab ushbu darslikning 1 qismidagi mavzular bilan tanishib chiqsak. Bu darslik ham xuddi Ona tili darsligi kabi 3 ta katta bo'limdan tashkil topgan: "Men, sen, u va ular", "Tabiat ne'matlari", "Sog' tanda sog'lom aql". 1-bo'lim. "Men, sen u va ular" bo'limidan "Mening oilam", "Kun tartibi", "Bolalarning sevimli bayramlari" kabi mavzular bilan o'rin olgan bo'lib, bu mavzularning har biri 7-8 soatlik darsga mo'ljallangan. Har bir mavzu bilan deyarli 1 hafta davomida o'quvchilar tanishib borishadi. Bu bo'limni o'rganish jarayonida o'quvchilar yaqin qarindoshlar qanday atalishini, ularga atab qo'yilgan nomlar bosh harflar bilan yozilishini, kun tartibini qanday tuzish kerak ekanligi, vaqtni to'g'ri va oqilona sarflash to'g'risida, taqvim, undagi bayramlar, taqvimdan foydalanish to'g'risidagi hayot uchun kerakli bilimlarni yetkazish orqali grammatik bilimlarni berib borish kerak bo'ladi.

2-bo'lim. "Tabiat ne'matlari" bo'limidan "Yashil sayyora", "Mo'jizaviy hasharot", "Uy hayvonlari" mavzulari joy olgan. Bu mavzular orqali yer sayyorasi, suvning paydo bo'lishi, h va x tovushlarining farqi, tabiat hodisalari, tabiatni asrash, asalari va uning mehnati, asalarichilik, uy hayvonlari, ularni boqish va ko'paytirish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'quvchilar dars davomida egallab borishlari mumkin. 3-bo'lim – "Sog' tanda sog'lom aql". Bu bo'limda "Foydali sabzavotlar", "Xotiram kuchli bo'lsin desangiz", "Oq terakmi ko'k terak" kabi mavzular mavjud. Sabzavotlar va ularning foydali xususiyatlari, tomorqa va undan samarali foydalanish, tutuq belgisi va uning vazifasi, xotira va uning kuchli bo'lishi uchun mashqlar, milliy xalq o'yinlari, sport

o‘yinlari kabi ma’lumotlarni ushbu bo‘limdan olish mumkin. Bor yo‘g‘i mana shu kichik taqqoslashdan ko‘rishimiz mumkinki, ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning tushunchalarini, dunyoqarashlarini boyitish va bu orqali dastlabki grammatik ma’lumotlarni berib borishdir. DTSga asoslangan Ona tili darsligida esa asosiy e’tibor bolaning til qoidalari, uning grammatik jihatlarini egallashiga qaratilgan edi. Olimlarning fikricha, dastlabki grammatik tushunchalar kishida suhbat, muloqot, kommunikatsiya jarayonida shakllana boshlaydi. Xuddi shunday kichik yoshdagi maktabga qatnamaydigan bola ham hech qanday til to‘g‘risidagi grammatik qoidalar bilan tanish bo‘lmasa ham o‘z fikrini mustaqil ravishda bildira oladi va erkin muloqotga kirishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azimova I, Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun Ona tili va o‘qish savodxonligi 1-2-qism: 1-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta‘‘lim markazi”, 2021. – 104 b.

2. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursun, Ro‘zmetova Z Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-2-qism: 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Respublika ta‘‘lim markazi”, 2022. – 144 b. 4. G‘afforova T, Shodmonov E, G‘ulomova X Ona tili 1-sinf uchun darslik. –T.: “Sharq”, 2019. – 112 b.

3. Mavlonova K, Azimova I, Quronov S, Shokir Tursunva boshq. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1- 2-qism: 2-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta‘‘lim markazi”, 2021. – 120

## ISHLAB MAHALLIY XOMASHYOLARDAN FOYDALANIB SORBENTLARNING SAMARALI TARKIBINI CHIQISH

**Kurbanbayeva Shaxlo Almazovna**
**Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi**
**1-bosqich magistranti, Navoiy davlat pedagogika instituti,**
***Ilmiy rahbar:* To‘xtayev Feruz Sadulloyevich**
**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dots., Navoiy davlat pedagogika instituti,**

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada daraxt qipig‘i va mevali daraxt urug‘lari kabi mahalliy xomashyodan foydalangan holda faollashtirilgan ko‘mir sorbentlar ishlab chiqarishning turli usullari haqida ma’lumot berilgan.

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о различных методах получения активированного угля с использованием местного сырья, такого как кора деревьев и семена плодовых деревьев.

**Annotation.** This article provides information on various methods of producing activated carbon using local raw materials such as tree bark and fruit tree seeds.

**Kalit so‘zlar:** sorbent, faollashtirilgan ko‘mir, piroliz, karbonizatsiya, sorbsion sig‘im.

**Ключевые слова:** сорбент, активированный уголь, пиролиз, карбонизация, сорбционная емкость.

**Keywords:** sorbent, activated carbon, pyrolysis, carbonization, sorption capacity.

Bugungi kunda sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi bu sohada ishlatiladigan sorbentlarga bo‘lgan ehtiyojni ham oshirmoqda. Sorbentlarning juda ko‘p turi bo‘lishiga qaramasdan ular orasida faollashtirilgan ko‘mir o‘zining yuqori sorbsion qobiliyati va ishlatilish sohalarining ko‘pligi bilan ajralib turadi.

Faollashtirilgan ko‘mir sanoatning turli sohalarida, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda, texnologik jarayonlarda, atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonida, tibbiy preparatlar ishlab chiqarishda, ichimlik suvini tozalashda ishlatiladi. Shu tufayli butun dunyoda faollashtirilgan ko‘mirni ishlab chiqarish va undan foydalanish kundan-kunga oshib bormoqda. Faollashtirilgan ko‘mirning yillik iste’moli 1,1mln tonna bo‘lib, yiliga 9% ortishda davom etmoqda. Ammo, faollashtirilgan ko‘mirning asosiy qismi (80-85%) qayta tiklanmaydigan resurslardan olinadi.

Shuning uchun daraxt mahsulotlari qoldiqlari kabi qayta tiklanadigan manbalardan yuqori adsorbsion qobiliyatli faollashtigan ko‘mir olish tadqiqotchilar oldidagi dolzarb vazifalardan biridir. Mahalliy xomashyolar asosida sorbentlar ishlab chiqarish ko‘pgina davlatlarda rivojlangan bo‘lib, xususan, Rossiyaning Tyumen sanoat instituti tadqiqotchilari daraxt po‘stlog‘i chiqindilaridan

foydalanib, sorbentlar olish orqali neft mahsulotlari bilan zararlangan suvni tozalashdi bu esa viloyatda daraxt po‘stlog‘i chiqindilarining kamayishiga sabab bo‘ldi. Respublikamiz tadqiqotchilari ham ushbu sohada bir qancha samarali ishlarni amalga oshirishdi. Biz tadqiqotimizni mahalliy xomashyolardan foydalanib import o‘rnini bosuvchi sorbentlarning olinish usullarini o‘rganishga qaratdik. Neft-gaz kimyo sanoatida reagentlarni tozalash uchun mahalliy xomashyo asosida yuqori samarali faollashtirilgan ko‘mir olish usulini ishlab chiqish va jarayonning muqobil rejimini aniqlash maqsadida o‘rik va shaftoli danaklarini karbonizatsiya qilish va faollashtirish jarayonlarini turli haroratda olib bordilar va karbonizatsiya uchun 1 soat davomida $800^0$C da qizdirildi. Faollashtirish uchun suv bug‘i bilan 2soat davomida $850^0$ C da qizdirish optimal sharoit ekanligi adabiyotlar tahlili asosida aniqlandi. Bu sohada Respublikamiz hududida o‘sadigan aylant daraxti poyalari vas hox-shabalari asosida hosil bo‘ladigan chiqindi yog‘osh mahsulotlari asosida turli haroratda (400-$800^0$C) faollashtirilgan ko‘mir olib, ularning benzol bug‘iga nisbatan faolligini o‘rganilgan. Adsorbsiya izotermalari va BET nazariyasi asosida namunalarning adsorbsion xossalari (to‘yinish adsorbsiyasi, monoqavat sig‘imi, solishtirma sirt yuzasi) ko‘rsatkichlari hamda ularning o‘zgarishi batafsil tahlil qilingan. Natijalarga ko‘ra o‘rganilgan barcha adsorbentlarda faollanish harorati ortishi bilan ko‘mir adsorbentlarning solishtirma yuzasi va to‘yinish hajmi ortib borishi aniqlandi. Eng yuqori sorbsion-struktur ko‘rsatkichlar aynan aylant daraxti asosida olingan ko‘mir namunalarida namoyon bo‘ldi. Ishlov berish haroratining 400-800ºC aylant daraxti asosidagi namunalar sirt yuza qiymatlarini 3,2 marotaba, bu haroratda suv bug‘ini qo‘llash esa 6,1 marotaba oshirishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, qayta tiklanuvchi mahalliy xomashyolardan foydalanib faollashtirilgan ko‘mir olish nafaqat iqtisodiy samarador balki, daraxt mahsulotlari chiqindilarini kamaytirishga ham yordam beradi. Ushbu tadqiqotlar natijasida Respublikamiz sharoitida aylant daraxtlari chiqindi shox-shabasidan faollashtirilgan ko‘mirni ishlab chiqarish uchun arzon xomashyo ekanligi, shu bilan birga, faollashtirilgan ko‘mirni olish jarayoni oldin piroliz, keyin esa suv bug‘i bilan faollashtirishni ketma-ket qo‘llash eng samarali metod ekanligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Малышкина Е. С.,Вялкова Е. И., Осипова Ею Ю. Использование природных сорбентов в процессе очистки воды от нефтепродуктов // Вестник ТГАСУ Т.21, №1, 2019.
2. Rizayev Sh. A // Faollashtirilgan ko‘mir olish va neft-gaz maxsulotlarini tozalashda qo‘llash// Journal of integrated education and research. November 2022.
3. Tukhtayev F.S., Negmatov S.S., Negmatova K.S., Shonazarova N.U. Aylant daraxti qipiqlari asosida olingan sorbentni har xil harorat oralig‘ida sorbsiyalanishini tadqiq qilish//Toshkent Davlat Texnika Universiteti “Kimyo-texnologiya sohasida fan va ta’limni rivojlantirish tendensiyalari” Etakchi olimlar ishtirokida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami Toshkent-2022, 24-25-noyabr, 43-45-bet.
4. To‘xtayev F.S., Shonazarova N.U. Analiz poristosti sorbentov na osnove aylantovogo dereva. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Fan va texnika taraqqiyotida yoshlar Iqtidorli talabalar va magistrantlarning respublika ilmiy-amaliy anjumani. Navoiy-2022yil 8-noyabr, 85-88-bet.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING NATIJALARINI BAHOLASH

**Ismatova Ozoda Parda qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti**
**Ilmiy rahbar: p.f.n., dots. Suyunov M.S.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro tadqiqotga tayyorlash masalalari haqida ma’lumotlar va buning uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** PIRLS, PISA, TIMSS,TALIS xalqaro baholash dasturlari, xorijiy tajribalar, ta’lim sifatini baholash, o‘qituvchi, o‘quvchi, tahlil qilish, badiiy-amaliy matnlar, fanlararo ko‘nikmalar, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari orasidagi tahlil .

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida katta iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi hamma sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasiga va ayniqsa, ularning bilimini kuchaytirishga har tomonlama e'tiborni kuchaytiradi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan paytda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud bo'lgan tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018- yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish vazifalari belgilandi:

PIRLS – (inglizcha – Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot ) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarni boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Ushbu dastur boshlang'ich sinflarning 4-sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish darajasini baholash dasturi hisoblanadi. Tadqiqotda 50 dan ortiq mamlakat ishtirok etib kelmoqda. Bu tadqiqot barcha sohalarda o'z o'rniga ega bo'lib takomillashmoqda.

PISA – (inglizcha – Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Aytib o'tilgan xalqaro baholash dasturlaridan PIRLS va PISA dasturini ona tili va o'qish savodxonligi darslarida foydalanish mumkin. Bu orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga erishish mumkin. Aslida, har bir dars mashg'ulotini o'tkazishdan asosiy maqsad ham o'quvchilarga darsga tegishli bo'lgan mavzuni kengaytirilgan holda ularning ongiga singdirishdan iborat.

PIRLS – (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi, o'quvchilarning o'qishni tushunish darajasini o'rganishga yordam beradi. Bu dastur o'quvchilarning matn tahlili va ma'noni tushunish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarini o'rganishga imkon beradi.

PIRLS baholash orqali sinov o'tkazishda o'quvchilar uchun badiiy va amaliy matnlar taqdim etiladi. Bu matnlar o'quvchilarning o'qishni tushunish, ma'noni tushunish va matn tahlili qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilar o'qishni tushunish va ma'noni tushunish uchun yordam beradigan strategiyalarni ham o'rganishlari lozim. Sinov natijalar orqali biz o'quvchilarning qanday darajada o'qishni tushunish imkoniyatiga ega bo'lganini bilib olamiz. Natijalar o'quvchilarning o'qishni tushunish darajasini bilishga va o'qishni tushunish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu natijalar o'qitish tizimlarining o'qish darslarini yaxshilash uchun to'g'ridan-to'g'ri tavsiyalar beradi.

PIRLS natijalari aynan shu sabablarga ko'ra o'quvchilarning matn tahlili va ma'noni tushunish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bu natijalar o'quvchilarning hayotida o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, shuningdek, yaxshi o'qish materiallarini topishga yordam beradi. Bunaqa qobiliyatlar o'quvchilarning o'qishni tushunish darajasini yuqoriga ko'tarishiga va o'qitishning sifatini yuqori bo'lishiga yordam beradi. Badiiy matnlar, o'quvchilarning o'qish va ma'noni tushunish uchun zarur bo'lgan matnlardir. Bu matnlar, o'quvchilarning o'qishni tushunish darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy matnlar tarixiy, adabiyot, ilmiy va hunarmandchilik asoslari bo'yicha yozilgan bo'lishi mumkin. Amaliy matnlar esa o'quvchilarning o'qishni tushunish va matn tahlili qobiliyatlarini oshirish uchun zarur bo'lgan matnlardir. Bu matnlar, o'quvchilarning qanday bir mavzuni tahlil qilish, matnning

ma’nosini tushunish va izohlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy matnlar, kichik qissalar, sarguzashtlar, maqolalar va o‘quvchilarning kundalik hayotida ko‘rgan yoki ko‘rganini tasvirlaydigan matnlardan iborat bo‘lishi mumkin. PIRLS orqali sinov olib borganimizda badiiy va amaliy matnlar, o‘quvchilarning o‘qishni tushunish va ma’noni tushunish uchun zarur bo‘lgan tushunchalarni oshirishga yordam beradi. Bu matnlar o‘quvchilarning o‘qishning kelajakdagi o‘ziga mahsul qilishiga, o‘qitishning sifatini oshirishga va o‘quvchilarning hayotida o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, PIRLS sinovida badiiy va amaliy matnlar, o‘quvchilarning o‘qishni tushunish darajasini o‘rganishga yordam beradi va sinov natijalari orqali o‘quvchilarning matn tahlili va ma’noni tushunish qobiliyatlarini baholash uchun ishlatiladi. Badiiy va amaliy matnlar natijalarini baholashda izohlash muhim ahamiyatga ega, chunki izohlash o‘quvchilarning matn tahlil qobiliyatlarini oshirish uchun zarur bo‘lgan qadimiy va samarali usullardan biridir. Izohlash orqali o‘quvchilar matnlardagi muhim ma’lumotlarni tushunish, matnning ma’nosi va maqsadini tushunishga yordam beruvchi qobiliyatlarini oshirishadi. Bu qobiliyatlar o‘quvchilarning o‘qishni tushunish darajasini oshirishga va o‘qishning kelajakdagi o‘ziga mahsul qilishiga yordam beradi. Shuningdek, izohlash o‘quvchilarning dunyoqarashini ham o‘stirishda katta ahamiyatga egadir. Quyida “Organayzer” metodi asosida matn ustida ishlash jarayonlarini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz. Grafikli organayzerlar – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasidir. “Organayzer” metodining qo‘llash tartiblari:

1. Xayolingizga nima kelsa, barchasini yozing. G‘oyalar sifatini muhokama qilmang, faqat siz ularni yozing.
2. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.

“Organayzer” metodi tarmoqlashning shunday turidirki, unda faqat birlamchi yoki faqat ikkilamchi ma’lumotlar emas, balki, ham birlamchi, ham ikkilamchi ma’lumotlar ochiq qoldirib beriladi. O‘quvchilar qaysi tarmoq ochiq bo‘lsa, shu joyning ma’lumotini topishi kerak. Bunda ularga o‘qituvchi tomonidan yozilgan ma’lumotlar yordam beradi. Bu usulni o‘quvchilarning o‘ziga alohida qog‘ozga ham yoki guruh uchun vatman qog‘oziga ham berish mumkin. Topshiriqning bajarilishini ko‘rgazmali vositalar va prezentatsiyalar orqali tekshirish ham mumkin.

“Organayzer” usuli shunisi bilan qulayki, u boshlang‘ich ta’limdagi har qanday fanda ham ishlatilishi mumkin. 1-sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslari jarayonida o‘quvchilarning psixofiziologik qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda rasmli, qisqa yozuvli tarqatmalar asosida “Organayzer” ‖ metodini qo‘llash mumkin.

2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi “Mening qahramonim” mavzusi asosida guruhlarga rasmlar tarqatiladi va berilgan topshiriq asosida rasmlarni tahlil qilishlari so‘raladi. O‘quvchi rasmga undagi jarayonga o‘z munosabatini bildiradi. Rasmda uchragan yangi so‘zlar o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinadi. O‘quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga tayyorlashda o‘qish darsi jarayonida darslikda berilgan har bir matn yuzasidan o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda ushbu matndan kelib chiqib savollar tuzish vazifasi qo‘yilsa, har bir bolaning berilgan matnni qay darajada o‘zlashtirganligini uning tuzgan savollari orqali bilib olish mumkin. Bunda o‘quvchining dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va obrazli tafakkuri har bir dars davomida rivojlantirilib boriladi. Dars jarayonida bola to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri fikrini tinglab, to‘g‘ri xulosani hayotiy faktlar orqali chiqarishga o‘rganib boradi. 3-4-sinflarda “Organayzer” metodini qo‘llash imkoniyatlari kengayadi, chunki o‘quvchilarda mavzular asosidagi bilim, ko‘nikma va malakalari kengayib boradi.

Xulosa qilib aytganda, “Organayzer” metodi asosida o‘quvchilarning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini tizimga solish imkoniyati yuzaga keladi. PIRLS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonida matn ustida ishlash o‘ziga xos xulosalar chiqarishda mavzuning o‘ziga xos jihatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi

997-sonli qarori.
2.Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo‘llari. – T.: “Fan”, 2015. – 85-86-b.
3.Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: “Fan”, 2018. – 160 b.
4.Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish" – T.:"Fan texnologiya" 2008.

## BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHLARINI SHAKLLANTIRISH

**Sharipova Mehriniso Hoshim qizi**
**Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar: Abduhalimova Yulduz Normurod qizi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish uni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish xususida, mantiqiy tafakkurni shakllantirish o‘quvchilarga qanday imkoniyatlar berishi haqida so‘z boradi .
**Annotation:** in elementary school mathematics lessons , this article will talk about how the formation of logical and critical thinking in a student is about teaching him to think critically, what opportunities the formation of logical thinking gives students.
**Аннотация.** Формирование логического и критического мышления у ученика на уроках математики в начальной школе в этой статье рассказывается о том , какие возможности дает учащимся формирование логического мышления, в частности, обучение его критическому мышлению .
**Kalit so‘zlar:** matematika, boshlang‘ich sinf, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, sodda masalalar, sodda hamda murakkab masalalar, talabchanlik, mehnatsevarlik.
**Keywords:** mathematics, elementary school, logical and critical thinking, simple tasks, simple and complex tasks, exactingness, hard work .
**Ключевые слова:** математика, начальная школа, логическое и критическое мышление, простые задачи, простые и сложные задачи, требовательность, трудолюбие.

Matematika butun borliqni bilishning asosi bo‘lib tevarak atrofimizda kechayotgan voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda hamda ularni ishlab chiqishda, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, matematika inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, har bir ko‘zlagan maqsadi yo‘lida qat'iyatli va irodali bo‘lishni, har bir ishni algoritmik tarzda tartib-intizom bilan bajarishni, eng muhimi, mulohaza yuritishga mantiqiy hamda tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta’kidlaydilar: “Matematika fani hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”. Hozirgi kunda mamlakatimizda matematika ta’lim tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta’limini har tomonlama tashkillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan Mazkur dasturlardan o‘rin olgan “Matematika ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi” matematika ta’limini har tomonlama takomillashtirish va yangi sifat bosqichiga olib chiqish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan matematika darsliklarida ham o‘quvchilarni ko‘proq mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydigan

misol va masalalar bilan boyitilgan. Matematik masalalar yechish matematika o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. Matematikani matematik masalalar yechmasdan o‘zlashtirishni tasavvur etib bo‘lmaydi. Matematikani amaliyotga tatbiq qilishning eng muhim yo‘li bu matematik masalalar yechishdir. O‘quvchilarda masalalarni yechish davomida predmetga bo‘lgan qiziqish, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilish rivojlanadi. Hayotiy masalalar o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni va fikr doirasini kengaytirishga yordam beradi.
Darsliklarda mantiqiy masalalar asosan o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos qilib berilgan. O‘quvchi mantiqiy topshiriqlarni bajarar ekan, topshiriq yuzasidan mushohada yuritib, ma’lum hukm va xulosalarni chiqaradi. Mulohazaning real (chin)yoki yolg‘on ekanligini aniqlaydi, u ham mantiqiy ham tanqidiy fikr yuritadi. O‘quvchilarda dars davomida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan birga tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish mezonlari quyidagilar:
– o‘quvchida tafakkurning mustaqilligi;
– o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning tezligi va mustahkamligi;
– standart bo‘lmagan topshiriqlarni fikrlashda tezkorlik;
– fikrlashda tanqidiylik.

O‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish uchun ko‘proq mantiqiy fikrlashga undaydigan masalalar bilan ishlash lozim. Quyida shunga oid masalalardan namunalar keltiramiz:
1. Beshta yigit bir etikda qolishi uchun nima qilish kerak ? (Ularning har biri bittadan etigini yechishni kerak)
2. Xo‘roz tarozida ikki oyog‘ida turgan holda 3kg chiqadi. Xo‘roz bir oyoqda turgan holda o‘lchanganda necha kg chiqadi ? (3kg)
3. Qaysi oyda odamlar eng kam gapirishadi? ( Fevral oyida, chunki fevral oyi boshqa oylarga qaraganda qisqaroq)
4. Bir kilo tosh og‘irmi yoki bir kilo paxta? (Ikkalasi ham teng)
5. Men bir son o‘yladim, uning yarmiga choragini qo‘shsak, 18 hosil bo‘ladi. Savol men qanday







son o‘yladim?(24 sonini o‘ylaganman)

Bunga o‘xshash mantiqiy topshiriqlarni darslikda ham ko‘p uchratamiz. Bu kabi masalalar o‘quvchilarning diqqatini darsga qaratishga va ularning ijodiy faoliyatini oshirishda katta yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda turli xil didaktik o‘yinlardan, muammoli savol topshiriqlardan, turli xil boshqotirmalardan dars davomida bolalarning yosh va individual xususiyatidan kelib chiqib foydalanish maqsadga muvofiq.

Mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchiga bir qancha imkoniyatlarni beradi. Bularga :
– o‘quvchilarda fikrlash jarayoni tezlashadi;
– o‘quvchilarning bilim olishga, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishga qiziqishlari ortadi;
– o‘z fikrlarini dalillar orqali bayon qiladi;
– amaliy faoliyatida olgan bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay oladilar va shu kabi imkoniyatlarni beradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashlarini shakllantirishda matematika darslarining o‘rni katta ahamiyatga ega. Matematika darslarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni bilishi va ularning ta’sir darajasini baholay olish o‘qituvchidan maxsus pedagogik mahoratni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**
1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
2. 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4387-sonli Qarori.
3.Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.
4. Safarova . R. G . va boshqalar. O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyihalash. – T: Fan va texnologiya nashriyoti. – 2013.

## BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH

**O‘razaliyeva Odina Maxmud qizi,**
**Jizzax davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi**
**3-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatish og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri va ko‘proq foydalana olishlarini o‘rgatish, shundan kelib chiqqan holda o‘quvchilar kengroq fikrlashga va ravon nutq egasiga aylanishi uchun xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarning ona tili darslarida ot so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi ham ushbu maqola orqali bayon qilinib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z turkumi, boshlang‘ich sinf, ona tili, ot so‘z turkumi, metodika, sinflar, fikrlash, dunyoqarash, yozma nutq va og‘zaki nutq.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ona tili darslarida nutq o‘stirish, fikrlash va dunyoqarashni kengaytirib beradigan fanlardan biri ekanligini yaxshi bilib olishlari kerak bo‘ladi. Darsda o‘quvchilarnning nutqini o‘stirish, olib borilayotgan darsning mazmuni va unda qo‘llaniladigan vazifalar unga xizmat qiladi. Ona tili darsi o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish uchun ishlash maqsadiga yo‘naltirilganligiga qarab baholanadi, o‘quvchilarga ona tili darslarida so‘z turkumlarini o‘rgatish uchun aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlar o‘tkazish maqsadga muofiqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so‘ng har bir leksik-grammatik guruhlar alohida o‘rganildi. Bu so‘z turkumlarini o‘rgatishning boshlang‘ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang‘ich sinfdagi o‘quvchilar so‘z turkumi bilan tanishishni ot so‘z turkumi bilan boshlaydilar. O‘quvchilarda ot mavzusini o‘rganish aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, unda keladigan ma’lumot va qoidalar bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog‘liqlikda o‘rganiladi. Shuningdek, ot so‘z turkumidan nutq jarayonida to‘g‘ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir sinf uchun material hajmi ularning murakkab qilinadigan xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga ot mavzusini o‘rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo‘lgan bir vazifani hal qilishga ko‘proq ahamiyat beriladi. O‘quvchilarning nutqi va tafakkurini o‘stirish vazifasi esa berilgan mavzuni o‘rgatishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Ot so‘z turkumini o‘rgatish savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda o‘quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomini bilgan so‘zlarni farqlashga o‘rganadilar, so‘zning leksik ma’nosiga e'tibor ko‘proq qaratiladi, o‘quvchilar ot so‘z turkumini o‘rganish jarayonida “kim?” so‘rog‘iga javob bo‘lgan otlarni “nima?” so‘rog‘iga javob bo‘lgan otlardan farqlashni, ularni so‘roq berish bilan ajratishni o‘rganadilar.Biroq mavzu yoki ma’lumotni o‘quvchilarga qanday usulda yetkazib berish bu o‘qituvchining pedagogik mahoratidir. O‘z ona tilida ravon gapiradigan, nutq madaniyatiga amal qiladigan, o‘z nutqining sofligini saqlay oladigan yoshlarni tarbiyalash – har bir pedagogning bosh maqsadi bo‘lishi kerak. Ona tili – millatning ruhidir. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. Til – millatning ma’naviy boyligi. Ot so‘z

turkumi mustaqil so‘z turkumidan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

-dosh: otdagi birgalik sheriklik, umumiylik kabi ma’noga ega bo‘lgan ot yasaydi: vatandosh, zamondosh, safdosh, sirdosh.

Bu affiks ba’zan tojikcha ham- old yasovchi qo‘shimchasi bilan ma’noda shaklga ega bo‘ladi: kasbdosh – hamkasb, suhbatdosh – hamsuhbat.

-kash: otdan kasb-hunar xususiyat otlarini yasaydi: aravakash, mehnatkash, qalamkash.

Bu affiks otdan sifat yasovchi -kash qo‘shimchasi bilan shakldoshdir. Qiyoslang: pastkash, dil-kash, dardkash.

-bon: ot asosdan anglashilgan narsani saqlovchi, parvarishlovchi shaxs otini yasaydi: bog‘bon, qo‘ychibon, qo‘ychivon, darvozabon.

- boz: ot asosdan yasaydi: dorboz, kaptarboz, nayrangboz, qilichboz.

-paz: ot anglatgan narsani pishiruvchi shaxs otini yasaydi: oshpaz, somsapaz, kabobpaz.

-dor: ot anglatgan narsaga ega bo‘lgan shaxs otini yasaydi: chorvador, mansabdor, puldor, amaldor.

Bu affiks sifat yasovchi -dor bilan shakldoshdir: aybdor, rangdor.

-shunos: biror soha bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasaydi: tilshunos, tabiatshunos.

-xon: asosdan anglashilgan narsaning doimiy qo‘shuvchi ma’nosidagi ot yasaydi: kitobxon, duoxon, gazetxon.

-soz: ot anglatgan narsaning tuzatuvchisi, yaratuvchisi ma’nosidagi ot yasaydi: soatsoz, mashinasoz, asbobsoz.

-do‘z: ot anglatgan narsani tayyorlovchi shaxs otini yasaydi: etikdo‘z, mahsido‘z, do‘ppido‘z.

-gar: asosdan anglashilgan narsaga bog‘liq kasb bilan shug‘ullanuvchi shaxs otini yasaydi: zargar, savdogar, miskar, kimyogar.

Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo‘ladi. Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo‘llari bilan yasaladi. Affiksatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo‘lib, uning yordamida shaxs otlari (bo‘yoqchi, ishchi, maktabdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo‘z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon); narsa-qurol otlari (ochqich, o‘sma, to‘plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon); o‘rin-joy otlari (bodomzor, O‘zbekiston, qarorgoh, ishxona, o‘tloq, Paxtaobod); mavhum ma’noli otlar (yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yig‘ilish, radiolashtirish, odamgarchilik). Kompozitsiya usuli bilan ot yasashda qo‘shma otlar vujudga keladi: bilaguzuk, achchiqtosh, uchburchak, kungaboqar, olibsotar, ishlab chiqarish. Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalganda, qisqartma otlar hosil qilinadi: BMT, SamDU, O‘zME kabi.

Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo‘ladi.Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo‘llari bilan yasaladi. Affikatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo‘lib, uning yordamida shaxs otlari: bo‘yoqchi, ishchi, maktabdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo‘z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon. Narsa qurol otlari: ochqich, o‘sma, to‘plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon. O‘rin-joy otlari: bodomzor, O‘zbekiston, qarorgoh, ishxona, o‘tloq, Paxtaobod. Mavhum ma’noli otlar: yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yig‘ilish, radiolashtirish, odamgarchilik. Kompozitsiya usuli bilan ot yasashda qo‘shma otlar vujudga keladi: bilaguzuk, achchiqtosh, uchburchak, kungaboqar, olibsotar, ishlab chiqarish. Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalganda, qisqartma otlar hosil qilinadi: BMT, SamDU, O‘zME kabilar.

Xulosa qilib aytganda, mavzudan kelib chiqqan holda barcha sohada puxta rejalar asosida ish ko‘rilsa, aynan ona tilida ham rejalashtirilgan mavzular bo‘yicha ish olib boriladi. Bu jarayon har tomonlama puxta o‘ylab chiqilgan bo‘lib, bolaning yoshi va ma’lumot qabul qilish doirasi ham ko‘zda tutilgan bo‘ladi. Aynan so‘z turkumlaridan eng birinchi navbatda ot so‘z turkumini o‘rganish bu birinchi zina desak ham bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili o‘qitish metodikasi(Boshlang’ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik) K.Qosimov. S.Matchonov. X.. G‘ulomova. Sh. Yo‘ldoshova. Sh.Sariyev – T: “Noshir” – 2009.
2. A.G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – T: “O‘qituvchi” – 1992.
3. Fuzailov S. Xudoyberganova M. Yo‘ldosheva Sh. Ona tili. – T. “O‘qituvchi” – 2012.

# MAKTAB O‘QUVCHILARIDA LEKSIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH HAMDA SO‘ZDAN FOYDALANA OLISHNING MAVJUD HOLATINI RIVOJLANTIRISH

**Odiljonova Kamola Abduvosit qizi**
**Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi**

**Annotatsiya.** Jahon pedagogikasida o‘quvchilarda til sathlariga doir lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish hamda ta’lim tizimiga joriy etish til ta’limining bosh ustuvor vazifasiga aylandi. Ushbu maqolada ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilarning leksik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi, nazariy asoslangan yondashuvlarini umumiy tahlili bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogika, kompetensiya, til sathlari, texnologiya, nazariya, metodika.

**Abstract.** In world pedagogy, the creation of modern pedagogical technologies for the formation, development and improvement of students' linguistic competences at language levels and their introduction into the educational system have become the main priority of language educationThis article describes the general analysis of the main goal and theoretically based approaches to the development of lexical competence of students in the subject of the mother tongue.

**Keywords:** pedagogy, competence, language levels, technology, theory, methodology.

**Аннотация.** В мировой педагогике создание современных педагогических технологий формирования, развития и совершенствования языковых компетенций учащихся на языковых уровнях и внедрение их в образовательную систему стали основным приоритетом языкового образования. В данной статье представлен общий анализ основной цели и теоретически обоснованных подходов к развитию лексической компетентности учащихся по предмету родной язык.

**Ключевые слова:** педагогика, компетентность, языковые уровни, технология, теория, методология.

Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standartida kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: kompetensiya – mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatidir, ya’ni kompetensiya bu aniq faoliyatni amalga oshirish uchun bilim va tajribalarga ega bo‘lgan shaxs tavsifi bo‘lib, u ta’lim oluvchi tomonidan alohida bilim va ko‘nikmalarni emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrallashgan bilimlar va sifatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi. Bilim, ko‘nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan Davlat ta’lim standartida har bir fan bo‘yicha belgilangan ta’lim mazmuni asosida o‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalar qayd etilgan. Bu kompetensiyalar o‘quv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat bo‘lib, ta’limning barcha turlarida o‘quv materiallarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlashni talab etadi.[1] Masalan, ona tili fani mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ushbu lingvistik bilimlar vositasida o‘quvchilarning kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot, mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yurita olishlari nazarda tutilgan. Mazkur kompetensiyalar boshlang‘ich ta’limdan boshlab, bosqichma-bosqich uzluksizlikda rivojlantirib boriladi. Davlat ta’lim standartida nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko‘nikma va malakalar belgilangan. Bunda o‘rganilayotgan o‘zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo‘yicha nutqning og‘zaki va yozma shakllaridan keng va o‘rinli foydalanish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma’lumotlar berish, o‘zbek tilida to‘g‘ri talaffuz, imlo va punktuatsiyaning asosiy qoidalarini o‘zlashtirish, muayyan bir xabarni yoki ma’lumotni turli shakllarda bera olish, kundalik hayot uchun zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarni yuritish, badiiy, ilmiy, siyosiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr-mulohazalarini bayon eta olish imkoniyatlaridan samarali foydalanish talab etiladi, zero, ona tili bo‘yicha kompetentli shaxs deganda, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot

madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs tushuniladi. Taniqli tilshunos, professor A.Nurmonovning fikricha, kompetensiyaviy ta’lim konsepsiyasi til ta’limi oldiga yoshlarda muayyan kompetensiyalarni, xususan, lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrlash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirish vazifasini qo‘yadi. O‘quvchining nutqiy kompetensiyasi muayyan til imkoniyatlaridan amalda foydalanish malakasidir[2]. So‘zlovchi til haqidagi bilim asosida nutqiy faoliyatga kirishsa-yu, lekin nutqiy tajriba asosida hosil bo‘ladigan bilimga yetarli ega bo‘lmasa, uning lingvistik kompetensiyaga to‘liq ega emasligi sezilib qoladi. Tilning nazariy jihatlari, qonun-qoidalari ta’lim jarayonida o‘rgatiladi va natijada o‘quvchilarda til haqidagi bilimlar majmuasi yaratiladi. Til sathlari, tilning qurilishi va funksiyalari haqidagi bilim, ko‘nikmalar va ulardan turli vaziyatlarda o‘rinli foydalanish mahoratiga lingvistik kompetensiya deb qaraladi, ya’ni til vaziyatlarida bilim va ko‘nikmalarini mustaqil qo‘llay olish tajribasiga ega bo‘lgan xislatlar tushuniladi. Buni yanada soddaroq qilib til bilimining yetukligi desa ham bo‘ladi.

Lingvistik kompetensiya o‘quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo‘limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish ko‘nikmasi va malakasi bo‘lib, muayyan izchillikda qo‘llash natijasida takomillashib boradi.

Tilshunos olim, filologiya fanlari doktori N.Uluqov fikricha, lingvistik kompetentlik quyidagilardan tarkib topadi:

1) o‘z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo‘nda ifodalay olish;
2) adabiy tilda so‘zlash;
3) imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olish;
4) davlat tilida ish hujjatlarini yurita olish;
5) xorijiy tillarni bilish va hokazo.[3]

Demak, lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi, eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o‘zbek tilining funksiyasi, ona tili fanining bo‘limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma’no va vazifalari, so‘z turkumlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, gap bo‘laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko‘ra turlari, ularning uslubiy belgilari, imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Atrof-muhitni anglash, bo‘layotgan voqea-hodisalarni sergaklik bilan kuzatib, ulardan kerakli xulosalarni chiqarish, har bir hodisaga ijodiy yondashgan holda, o‘zining mustaqil fikrini emin-erkin ayta olish lingvistik kompetensiyaning mazmun-mundarijasini belgilaydi.[4]

Lingvistik kompetentlikni shakllantirish kommunikativ kompetentlik bilan birga yetakchi maqsadlardan biri bo‘lib, maktab o‘quvchilarining til (lingvistik) va nutq rivojlanishining birligini ta’minlaydi, u til kompetensiyasi rivojlanishining muvaffaqiyatini belgilaydi, chunki uning rivojlanish darajasi o‘quvchilarning nutqini rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq.[5] Nutq esa kishining tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, nutqning rivojlanishi o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida ham muhim ahamiyatga ega. S.I.Galperinning fikriga ko‘ra, o‘quvchi nutqi tafakkur qilish jarayonida shakllanadi.[6] Tafakkur esa uning atrofidagi odamlar bilan nutq orqali muloqot qilganda rivojlanadi. D.Xudoyberganova ham nutq yaratilishi haqidagi nazariyada til va tafakkur munosabati o‘ta dolzarb muammolardan biri hisoblanishi, nutq yaratilishi jarayonining tafakkur bilan aloqasi psixolingvistikada “nutq yaratilishi modeli” deb nomlanuvchi sxemalarda aks ettirilishni ta’kidlaydi. Bu modellarning deyarli barchasida L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan “Fikrdan ma’noga, ma’nodan so‘zga” degan konsepsiya o‘z aksini topganligini aytib o‘tadi. S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin ham ta’lim jarayonining muhim shartlaridan biri sifatida ta’lim oluvchilarda tafakkurning rivojlanishi ekanligini ta’kidlaydilar. Shu sababdan ham nutqqa qo‘yilayotgan talab azaldan ta’lim-tarbiya tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘quvchining nutqi va tafakkurini o‘stirish barcha fanlarga daxldor bo‘lsa ham, uning mas’uliyati, asosan, ona tili fani zimmasidadir. Shuning uchun jamiyat ona tili ta’limi oldiga o‘quvchi shaxsida fikrlash, o‘zgalar fikrini anglash va fikr mahsulini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya’ni mustaqil va ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.[7] Bugungi tilshunoslik oldiga

qo‘yiladigan talab ham tilni uni tashkil etuvchilari va ular o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish asosida emas, balki til egalari xotirasidagi lisoniy bilimlarning muloqot jarayonida aktuallashish xususiyatlarini, ya’ni lisoniy kompetensiya va uning nutqiy ifodasi munosabatini o‘rganish asosida tadqiq etishdir. Hozirgi o‘zbek tilshunosligining bugungi muammosi ham til egalari xotirasida jamlangan til faktlarining muloqot jarayonidagi tatbiqining (til kompetentligi), kommunikatsiya jarayonida tilning rolini, til va til egasi munosabatini o‘rganishdir. Odatda, har bir xalqning madaniyatlilik darajasi uning savodxonlik darajasi bilan belgilanadi. Savodxonlik darajasi esa, o‘qish-yozishni bilish bilangina emas, balki so‘zlarni qanchalik to‘g‘ri yoza olish va o‘z o‘rnida qo‘llay olish qobiliyatiga ega bo‘lishida ko‘rinadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, har qanday tilni o‘rgatish va o‘rganishda leksik kompetensiyani shakllantirish jarayoni katta qiziqish hamda ahamiyat kasb etib qo‘shimcha izlanishlarni talab qiladi. Leksik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlaridan bo‘lib, muloqot qilish uchun mavzular, nutq harakatlarida suhbatdoshlarning ijtimoiy va kommunikativ roli, mavzu turlari va ularni tuzish uchun zarur lingvistik elementlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Muxiddinova X. DTS: Salohiyatli kadr tayyorlash sari...//Til va adabiyot ta’limi, 2017, 7-son, – B. 8.

2. Nurmonov A., Ziyodullayeva G. O‘quvchilarning til kompetentligi shakllantirish va rivojlantirish muammolari. “Ma’rifat” gazetasi, 2014 yil 18 iyul.

3. Uluqov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari // Til va adabiyot ta’limi, 2018, № 6. – B. 16.

4. Sayaxova L.G. Metodologiya i metodicheskaya sistema formirovaniya lingvokulturologicheskoy kompetensii tyurkoyazыchnыx uchaщixsya na urokax russkogo yazыka. – Ufa: RITS BashGU, 2010. – 294 s

5. Elkonin D. B.Izbranniye psixologicheskiye trudi. – M.: Pedagogika, 1989. – 560 s.

6. Turdiyev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent.: 2015. – B. 31

7. Nabiyeva D. Xolmatova G. Zamonaviy tilshunoslikning muammolari // Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2016, – B. 46.

## BUYUK O‘ZBEKISTONIMIZNI YOSHLARIMIZ BILAN BIRGA QURAMIZ

**Sulaymonova Nodirabegim Sulton qizi,**
**San’atshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: Safarova M.A – Fakultetlararo chet tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi**

Hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan bebaho ma’naviy e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati qanday amalga oshirilyapti, bu sohada qanday muammolar bor, ularni qanday hal qilishimiz kerak, degan savollar doimiy e'tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Yoshlar ishtirokida huquqbuzarlik, jinoyat sodir etilayotgani, yosh oilalar o‘rtasida ajralish holatlarining qayd etilayotgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak. Yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlarga qo‘shilib qolish holatlari uchramoqda. Albatta, bu borada hamma aybni u yoki bu idoraga, tashkilotga yuklab qo‘yish adolatdan emas. Bu masalada hammamiz javobgarmiz. Hech kimning bu jarayonlardan chetda turishga haqqi yo‘q.

Biz yoshlarga bepisand, loqayd munosabatda bo‘lsak, oqibati nima bo‘lishi aniq – ular ham bizdan begonalashadi. O‘qishdan, ishdan, jamiyatdan, davlatdan, boringki, hayotdan ko‘ngli sovib, qo‘lini yuvib, qo‘ltig‘iga uradi. Shuning uchun dabdabali, balandparvoz tadbirlar o‘tkazish emas, balki

yoshlar bilan bevosita ishlash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o‘ylantirayotgan hayotiy muammolarni hal etishga e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, keyingi paytda turli mamlakatlarda sodir etilayotgan terrorchilik harakatlarining ijrochilari qatorida millatimizga mansub kimsalar ham borligi xalqimizda afsus va nadomat uyg‘otmoqda. Tinchlik va osoyishtalikni, insoniylikni hamma narsadan ustun qo‘yadigan xalqimiz bunday kimsalarning qilmishlarini keskin qoralaydi. Ularni o‘zbek degan nomga nomunosib hisoblaydi. Hozirgi vaqtda yoshlar, ayniqsa, chet elda ishlab, halol mehnat bilan daromad topaman deb yurgan fuqarolarimiz terrorizm va ekstremizm changaliga tushib qolmasligi uchun davlatimiz barcha choralarni ko‘ryapti. Bu yo‘lda, avvalambor, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog‘ida mehnat migratsiyasi bo‘yicha muhim kelishuvga erishildi. Mamlakatimizning bu boradagi pozitsiyasi aniq: odam qayerda bo‘lsa ham ishlashi, oilasi, bola-chaqasini boqishi kerak. Lekin u halol mehnat qilishi, qonuniy yo‘l bilan daromad topishi lozim. Buning uchun davlatimiz barcha sharoitlarni yaratib berayotgani e'tiborga molik. Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun asosiy masala bo‘lib turibdi. Respublikamizda jaholatga qarshi ma’rifat tashabbusi bilan amaliy ishlar olib borilyapti. Shuning uchun yo‘ldan adashgan o‘smirni darrov dushmanga chiqarmasdan, uni o‘zimizning farzandimiz deb bilishimiz kerak. Unga butun qalbimiz, yuragimiz bilan achinayotganimizni shu bola bilsin. Zora, shunda uning ham qalb ko‘zi ochilsa, to‘g‘ri yo‘lga qadam qo‘ysa... Bir bolaning yo‘ldan adashishi – bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat boshiga tushgan kulfat. Bundan, avvalo, uning ota-onasi, aka-ukalari, yaqinlari jabr ko‘radi. Bunday paytda ularga yordam berish kerak, zararli diniy oqimga kirgan bolani “Bu – qo‘shnining bolasi, boshqa qishloq yoki tumanning bolasi” deb loqayd bo‘layotganlar ham oramizda yo‘q emas. Axir kechagina shu yoshlar, o‘zimizning qorako‘zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o‘g‘limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto‘g‘ri yo‘lga kirib ketdi? Biz nega g‘aflatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo‘l qo‘ydik? Farzandlarimiz qachon begonalarning qo‘liga o‘tib ketdi? Nima jin urdi-yu, ular o‘z ota-onasi, o‘z yurtining dushmaniga aylanib qoldi? Bugun bu mudhish balo-qazoning oldini olmasak, bor kuchimizni shunga safarbar etmasak, ertaga kech bo‘ladi.

Biz ko‘pincha bolam maktabda, o‘qishda yoki chet elda ishlayapti deb xotirjam yuramiz. Lekin bizning bunday soddaligimiz, beparvoligimizdan dushmanlar makkorlik bilan foydalanmoqda. Jon-u jahonimiz bo‘lgan farzandimiz ular qo‘lida qurolga aylanib qolsa, buning o‘zimiz emasmi? Shuning uchun maktab, litsey va kollejlardagi, oliy o‘quv yurtlaridagi ta’lim-tarbiya, birinchi navbatda, davomat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berishimiz shart. Bironta o‘quvchi yoki talaba uzrsiz o‘qishga kelmay qo‘ysa, ta’lim maskani ham, oila ham, mahalla, hokimiyat idoralari ham bu borada sergak tortishi, buni favqulodda holat deb baholashi kerak. Ana shunday nazorat tizimi samarali va o‘zaro bog‘liqlikda ishlaydigan bo‘lsa, albatta, biz vaziyatni qo‘lga olib, uni ijobiy tomonga o‘zgartira olamiz. Yurtboshimiz alohida ta’kidlaganidek, joylarda maxsus hisobga olingan fuqarolarning turmush sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, muammolarini o‘rganish, ushbu toifa shaxslar nega radikallashib ketganining sabablarini har tomonlama chuqur tahlil etish lozim. Ana shu ishlarning natijalari bo‘yicha davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida qo‘llash uchun aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqishni bugun hayotning o‘zi talab etmoqda. Agar biz shu yo‘nalishdagi ishlarni avvalgidek davom ettiradigan bo‘lsak, ya’ni umumiy profilaktika ishlarini yoshlar radikal diniy oqim a’zosiga aylanganidan so‘ng o‘tkazadigan bo‘lsak, bunday xavf-xatarga qarshi samarali kurasha olmaymiz.

Ba’zi yoshlarimiz uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat. Yoki turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-elpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajralishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo‘lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda. Yana bir noxush holatni afsus bilan tilga olib o‘tish joiz: oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin,

er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi kishini qattiq iztirobga soladi. Shu nuqtayi nazardan biz beparvolik, loqaydlik, o‘zibo‘larchilik illatlaridan xalos bo‘lishimiz, shaxsiy manfaatlarimizdan ko‘ra Vatan manfaatini ustun qo‘yishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.
2. O‘zbekiston Respublikasining “`Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz “ davlat dasturi.


## YANGI O‘ZBEKISTONDA BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI


**F.O. Xodjiyeva,**
**NDPI, Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n.**
**O‘. Faxriddinova,**
**Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-kurs magistranti**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari hamda yosh avlodni barkamol etib shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning hamda kitobsevarlikning o‘rni va ahamiyati haqida bayon etilgan.



**Kalit so‘zlar**: barkamol avlod, tarbiya, ta’lim, komil inson, Yangi O‘zbekiston, kitobsevarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, pedagogik yondashuv.



**Annotation**. This article describes the pedagogical features of the further development of education and science in the new educational period of Uzbekistan, the education of young people as a complete person in every possible way, and the role and importance of national and universal values and book-loving in the harmonious formation of the younger generation.



**Keywords:** harmonious generation, upbringing, education, perfectperson, New Uzbekistan, national ascension, spiritual perfection, book-loving, national and universal values.



**Аннотация.** В этой статье рассказывается о дальнейшем развитии образовательно-воспитательной и научной сфер Узбекистана в период нового расцвета, о педагогических особенностях всестороннего воспитания молодежи, а также о роли и значении национальных и общечеловеческих ценностей и книголюбия в гармоничном формировании молодого поколения.



**Ключевые слова:** гармоничное поколение, воспитание, образование, совершенный человек, новый Узбекистан, национальный подъем, духовное совершенство, книголюбие национальные и общечеловеческие ценности.


Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, inson kamoloti ham aqliy va jismoniy, ham g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy-madaniy rivojlanishining uzviy birligidan tashkil topadi. Barkamol inson g‘oyasi azal-azaldan xalqimizning, millat ma’naviyatining uzviy qismi bo‘lib kelgan. Barkamol inson haqidagi fikr-mulohazalar, g‘oyalar va ijtimoiy-siyosiy fikrlar kuni kecha paydo bo‘lmagan. U o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, Zardo‘shtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da halol mehnat va fidoyilik komillikning asosiy mezoni sifatida talqin etilgan. Inson taqdiriga biror bir faylasuf, huquqshunos yoki olim-u ulamolar befarq bo‘lmaganlar. Insonni ulug‘lash, yovuz va qabih ishlardan saqlanib turish va shu tariqa komil insonga xos axloq qoidalarini aks ettiruvchi bebaho asarlar yozib qoldirganlar. Jumladan, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” kabi asarlari shular jumlasidandir. Buyuk allomalarimizning ilmiy-falsafiy va diniy-axloqiy meroslarida ma’naviy barkamol insonlarning umumiy xislatlari va fazilatlari haqidagi axloqiy talablar mujassamligini ko‘ramiz. Buyuk

mutafakkir Abu Nasr Forobiy tasavvuridagi jamiyatning har bir a’zosi tutgan mansabi, tutgan o‘rnidan qat’iy nazar fozil, ma’naviyatli, ma’rifatli insondir. Fozil inson o‘z davlatining qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, lozim bo‘lganda, Vatan uchun jon fido qiladi. Unda sharqona nazokat, mehr-oqibat mujassamdir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” asarida ma’naviyatga yuksak baho berib, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz, havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz borligini, xudo xohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo‘lishini, ana shunday yorug‘ kelajakni, avvalambor, azm-u shijoatli, jo‘shqin orzu-intilishlar bilan hayotga kirib kelayotgan, hech kimdan kam bo‘lmaydigan navqiron avlodimiz, butun O‘zbekiston yoshlari barpo etishi zarur” ligini ta’kidlab o‘tganlar.[1]

Mamlakatimizda yuksak taraqqiy etgan, jahon hamjamiyatida munosib o‘rni va nufuziga ega Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida jadal islohotlar davom etmoqda. Ushbu ko‘zlangan maqsadlarga erishishda unib-o‘sib, ulg‘ayib, hayotga dadil qadamlar bilan kirib kelayotgan barkamol avlodning salohiyati muhim o‘rin tutadi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.Yangi O‘zbekistonning yosh avlodini barkamol va komil inson etib tarbiyalash muammosi mamlakatimiz taraqqiyot yo‘lidagi dolzarb masalalardan biridir”. [2] Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi’’ asarida shunday deyilgandi: “Men avval ham aytganman: bugun biz intilayotgan Yangi O‘zbekistonni Uchinchi renessans poydevorini bunyod etish bu – shunchaki orzu emas. Bu – aniq strategik maqsad va umumxalq harakatiga aylanib borayotgan beqiyos amaliy jarayondir. Ishonamanki, bunday ulkan jarayonning natijasi ham ulkan bo‘ladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonni barpo qilishda, poydevorini yaratishda o‘sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, komillikka yetaklashning o‘rni beqiyosdir. Barkamol avlod ma’naviyatini shakllantiruvchi yagona manba bu tarbiyadir. Ma’rifat va bilimni shakllantiruvchi manba esa ta’lim va saboqdir. Binobarin, “ta’lim va tarbiya” emas, aksincha, “tarbiya va ta’lim” deb aytish maqsadga muvofiqdir”.[3]

Bugungi kun yoshlarini barkamol qilib tarbiyalashning pedagogik mexanizmlari mavjud bo‘lib, shulardan biri kitobxonlikka o‘rgatishdir. Shuning uchun ham Prezidentimiz ta’kidlaganidek, axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, yoshlarning kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko‘tardi.[4]

Shu bilan bir qatorda, kelajagimizning munosib vorislari – yoshlarimizni barkamol inson qilib tarbiyalashda ajdodlar merosiga tayanish, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash nihoyatda muhimdir. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz" deb nomlangan kitobida: “Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur” deb ta’kidlaydi. Zero, milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o‘tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda qadim tarixdan bizga meros bo‘lib kelayotgan bu betakror an'ana, qadriyat va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o‘rganish hamma davrlarda ham olimlar oldida muhim vazifalarni bajarish zaruratini qo‘ygan barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va

urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik mexanizmlaridan yana biri bu tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan "Vatanparvarlik va insonparvarlik – inson ma'naviy qiyofasining asosiy mezoni", "Islom dinida ota-onani hurmatlashning talqin qilinishi", "Qo'shnilar munosabati, mahalla odobnomasi", "Yigitlik sha'ni, qizlik iffati" va shu kabi mavzularda davra suhbatlarini uyushtirish ham o'z samarasini beradi.

Prezidentimizning "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi" asarida keltirib o'tilganidek, yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda, ilmiy texnologik talablarni hisobga olib isloh qilish, takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy va ma'naviy asosda shakllantirishni taqozo etmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish uchun yana ko'plab tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan:

– ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indiktorlarini ishlab chiqish;

– tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda, avvalo, bo'lajak va yosh onalarga e'tiborni kuchaytirish;

– bolalarni go'dakligidan boshlab yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo'yicha eng muhim yo'nalishlarni belgilash;

– yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, mustahkam iroda, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas'uliyat, bag'rikenglik, innovatsion fikrlash kabi muhim yo'nalishlarni belgilash kabi jarayonlar atroflicha ko'rsatib o'tilgan.[3] Ta'lim sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va pedagoglarning kelgusi mehnat faoliyatlarida o'zlashtirgan kompetensiyalari qay darajada amaliyotga tatbiq qilinayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish natijasida ta'limda sifat va samaradorlik ta'minlanib, pedagogik innovatsion jarayon vujudga keladi. Yoshlarni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy va maxsus bilimlarga ega, tafakkuri, madaniyati va ma'naviyati yuksak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lgan insonlargina jamiyatimizni yanada mustahkamlash va takomillashtirishga qodir bo'ladi. Yoshlar – har qanday jamiyatning ertasi. Zero, barkamol avlod va yuksak axloqli vatanparvar yoshlar Yangi O'zbekiston bunyodkori, Uchinchi Renessansning haqiqiy davomchilaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – T:. «O`zbekiston», 2017. 26-bet.
2. Sh.M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. 2017.
3. Sh.M.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston -taraqqiyot strategiyasi, – T., "O'zbekiston" 2022, 261-bet.
4. Sh.M Mirziyoyev "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, – 2017.

## PRET-A-PORTER LIBOSLARINING PAYDO BO'LISHI HAMDA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**San'atshunoslik fakulteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi o'qituvchisi To'xtaqulovna Vosiyeva Aziza,**
**Dizayn ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi**
**Sayfiyeva Ozoda Madamin qizi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada pret-a-porter liboslarining paydo bo'lishi va zamonaviy moda sanoatida qo'llanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** pret-a-porter, dizayn, moda, Haute Couture, yuqori moda, sanoat.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о появлении одежды preta-porter и ее использовании в современной индустрии моды.
**Ключевые слова:** Pret-a-porter, дизайн, мода, высокая мода, высокая мода, индустрия.
**Abstract.** This article provides information about the emergence of pret-a-porter clothing and its use in the modern fashion industry.
**Keywords:** Pret-a-porter, design, fashion, Haute Couture, haute couture, industry.

Pret-a-porter 1930-yillardagi Parijning kichik moda uylarida paydo bo‘lgan, u yerda dastlab dizaynerlar cheklangan miqdordagi tayyor kiyimlarni taklif qila boshlaganlar, biroq fransuz kutyurelari bu rivojlanishni rad etadi va bu uslubning rivojlanishida uzulishlar paydo bo‘ladi. Pret-a-porter (fransuzcha: pret-a-porter, so‘zma-so‘z “kiyishga tayyor”) — yirik moda dizaynerlari tomonidan ommaviy ishlab chiqarish uchun yetkazib beriladigan tayyor kiyim modellari. Kiyimlar kichik butik do‘konlarida ham, yirik do‘konlarda ham sotiladi. Ushbu modellar moda salonlaridan tashqarida, ommaviy ishlab chiqarish uchun, balki yetakchi moda dizaynerlarining dizaynlariga ko‘ra ko‘proq eksklyuziv tarzda yaratilishi mumkin.1950-yilga kelib, pret a porter tushunchasi modani yanada qulayroq qilish maqsadida Per Kardin tomonidan qo‘llanila boshlandi. 1950-yildan boshlab yoshlar harakati bilan pret-a-porter modasi kengroq e’tiborga sazovor bo‘ldi. Yosh dizaynerlar bu borada ko‘plab yangiliklar yarata boshlagan.

Pret-a-porter liboslarini birinchi bo‘lib, taniqli fransuz dizayneri Yves Saint Laurent taqdim etgan.

Ushbu liboslar kolleksiyasi namoyishidan so‘ng fransuz moda sahnasi hayratda qolgan, chunki moda namoyishlari, yuqori moda ya’ni haute couture liboslari uchun edi. Shunga qaramay pret-a-porter uslubi tez orada jahon moda sanoatida katta obro‘ga ega bo‘ldi va hali ham katta obro‘ga ega. 1965-yilda “Salon du Pret-a-porter” moda yarmarkasi bo‘lib o‘tgan, unda fransuz dizaynerlarining eng mashhur tayyor kiyimlari namoyish etilgan. Italiya moda sahnasi ham tayyor kiyimlar ishlab chiqarishda muhim rol o‘ynadi. Versace va Ferragamo kabi dizaynerlar 1970-yilda Milanda “Alta Moda Pronta” ko‘rgazmasida pret-a-porter uslubidagi o‘z ishlarini namoyish qila boshladilar. Pret-a-porter liboslari yaratiladigan sanoatda dizaynerlar noyob bo‘lmaydi, ya’ni ulardan katta mahorat talab etilmaydi. Bir necha kiyim-kechaklar ommaviy ishlab chiqariladi va bir xil madellar turli o‘lchamlarda taklif etiladi. Bu xususiyatlar kiyim tikuvchiga, borolmaydiganlar uchun yanada qulayroq bo‘ladi. Bugungi kunda mashhur moda shaharlari ko‘chalarida kiyiladigan kiyimlar asosan, pret-a-porter uslubida ekanligi ham bu uslubning yoshlar va kattalar orasida ommalashganidan dalolat beradi. Tayyor kiyim sanoati uzoq tarixga ega va yuqori moda tarixidan ham uzoqroq an’anaga ega deb hisoblanadi. Kostyum tarixchilarining ta’kidlashicha, Buyuk Fransiya inqilobi davrida ham ustaxonalarga cheklovlar bekor qilingandan so‘ng tayyor kiyimlarni sotadigan qandolat do‘konlari keng tarqaldi. 1812-1815-yillardagi Angliya-Amerika urushi davrida AQSHda tayyor harbiy formalar ommaviy ishlab chiqarila boshlandi. 1820-1830-yillarda dastlab Fransiyada, keyin esa Yevropaning boshqa mamlakatlarida qandolat kiyimlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlagan. Bunday hollarda, birinchi navbatda, deyarli faqat erkaklar liboslarini seriyali ishlab chiqarish haqida gapiramiz, chunki ayollar kiyimlari ko‘proq individual xususiyatlarni talab qiladi. Tayyor liboslar ishlab chiqarishning tarqalishiga qog‘oz naqshlarining paydo bo‘lishi va birinchi do‘konlar, ayniqsa, tikuv mashinalarining paydo bo‘lishi yordam berdi. XVIII asrning 50-yillaridan boshlab tikuvchilik studiyalarida takomillashtirilgan tikuv mashinalari keng qo‘llanila boshlandi. Tayyor kiyim-kechak sanoatining tarqalishiga Birinchi jahon urushi va natijada ayollar mehnatining sanoatda ommaviy ravishda qo‘llanilishi ko‘maklashdi, bu esa ommaviy ishlab chiqariladigan, amaliy va arzon kiyimlarga ehtiyoj tug‘dirdi. Shuningdek, kiyim-kechaklarni sotish bo‘yicha litsenziyalash tizimining yo‘lga qo‘yilgani ham tayyor kiyim liniyalarining rivojlanishiga xizmat qildi. Haute couture industriyasidagi inqirozga Ikkinchi jahon urushi sabab bo‘ldi, o‘shanda ko‘plab moda uylari faqat boy mijozlarning didiga e'tibor qaratishni to‘xtatishga majbur bo‘lishgan. Asta-sekin ular yanada demokratik jamoatchilikka e'tibor qarata boshladilar, bu esa o‘z brendi ostida tayyor ko‘ylaklar, turli aksessuarlar, galanteriya va boshqalarni ishlab chiqarishga olib keldi. Shunga qaramay, Fransiyada AQShdan farqli o‘laroq, individual tikuvchilik saqlanib qoldi. Tayyor kiyim ishlab chiqarish ommaviy xususiyatga ega bo‘ldi. 1950-yillarda kelib chiqishi dizayner Albert Lamperer bilan bog‘liq bo‘lgan “tayyor kiyim” tushunchasi past sifat bilan bog‘liq bo‘lgan

“qandolat” atamasini almashtirdi. Zamonaviy tayyor kiyim sanoatining rivojlanishining boshlanishi 1940-yillarning ikkinchi yarmi bilan bog‘liq bo‘lib, dastlab AQShda, keyin esa Yevropada tayyor kiyim ishlab chiqaruvchilari va liniyalari paydo bo‘la boshladi. Past sifatli mahsulotlarni almashtirish uchun mo‘ljallangan edi. O‘z dizaynlaridan nusxa ko‘chirishni ijtimoiy tan olish belgisi deb hisoblagan Gabrielle Chanel “modani ko‘chaga olib chiqish” g‘oyasiga qarshilik qilmadi va 1955-yilda uni butun dunyo bo‘ylab takrorlash uchun mualliflik huquqini sanoat korporatsiyasiga topshirdi. Shu munosabat bilan u Yuqori moda palatasi bilan ziddiyatga chiqdi va 1958-yilda hatto unga a’zo bo‘lishdan bosh tortish to‘g‘risida ariza yozdi. Tayyor kiyim modellarini yaratgan birinchi kutyure 1957-yilda Per Kardin bo‘lib, u uchun u Oliy modalar sindikatidan chiqarib yuborilgan (1973-yilgacha u Oliy moda kasaba uyushmasi deb nomlangan), ammo 1960-yillarda deyarli barcha moda uylari o‘z faoliyatini boshlagan. Shunga o‘xshash to‘plamlarni yaratish va tayyor kiyimlar butun kiyim bozori tomonidan hisobga olingan holda mustaqil modaga aylandi. 1966-yilda Yves Saint Laurent o‘zining Saint Laurent Rive Gauche (fransuz tilidan – "Chap qirg‘oq") tayyor kiyim liniyasini ishga tushirib, nihoyat tayyor kiyim mavqeini mustahkamladi. Bu nom ramziy ma’noga ega, chunki an'anaviy bohem yoshlari yashagan Parijning chap qirg‘og‘i shaharning unchalik ahamiyatsiz qismi hisoblangan. Qoida tariqasida, tayyor kiyim modellari kutyure yoki moda uyi nomi bilan belgilanadi. Yangi butiklar, mustaqil moda dizaynerlari, moda tayyor kiyimlarning keng zanjirlari paydo bo‘lishi bilan moda tizimi sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. 1960-1970-yillardagi moda tizimidagi eng katta o‘zgarishlar sanoat kompaniyalari va kiyim dizaynerlarining ittifoqi bo‘lgan "Createurs et Industriels" tashkilotining paydo bo‘lishini o‘z ichiga oladi. Ushbu ittifoq o‘sha paytda Saint Laurent Rive Gauche, Givenchy, Valentino, Chanel uchun mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan kompaniyaning top-menejeri bo‘lgan Dide Grumbach tomonidan yaratilgan. U yosh dizaynerlar kutyurelar kabi imtiyozlarga ega bo‘lishlari va o‘z nomlarini modellarga va o‘zlarining kiyimlariga qo‘yishlari kerak deb hisoblardi. Grumbach tashabbusi bilan amalga oshirilgan ushbu o‘zgarishlarning maqsadi dizaynerlar uchun tayyor kiyimlarni yangi usulda o‘zgartirish, shuningdek, Parij modasiga katta sarmoya jalb qilish edi. "Yaratuvchi" ("yaratuvchi") atamasi paydo bo‘lib, u yuqori darajadagi moda kiyimlarini ishlab chiqadigan dizaynerlarga murojaat qiladi. 1971-1973-yillarda yaratilgan kiyimlarning an'anaviy yuqori moda dizaynerlarining konservativ guruhidan yakuniy ajralishi kuzatildi. 1973-yilda Parijda birinchi tayyor kiyim haftaligi bo‘lib o‘tdi. Kardin 1977-yilda Demi Couture kiyim-kechak liniyasini ishga tushirib, yuqori moda va ko‘proq ommaviy mijozlarga mo‘ljallangan kiyimlarni uyg‘unlashtirishga harakat qildi, shundan so‘ng boshqa moda dizaynerlari bu g‘oyani qabul qilib, uni davom ettirishdi. 1980-yillarda Haute Couture guruhining mavqei tayyor kiyimdagi yangi dizaynerlarning butun guruhining kelishi tufayli yanada silkinib ketdi: Kalvin Klein, Donna Karan, Ralf Lauren, Janni Versache, Giorgio Armani, Guccio Gucci, Issey Miyake, Kenzo Takado, Hanae Mori.1994-yilda Robert Altman moda olamiga bag‘ishlangan fransuzcha "Prêt-à-Porter" nomli kinoyali komediyasini chiqardi. AQSHda film “Ready to Wear” (asl nusxaning ingliz tiliga tarjimasi) nomi ostida namoyish etilgan, Rossiyada esa “Yuqori moda” deb nomlangan, bu esa tayyor kiyim tushunchasiga ziddir. XXI asrning boshlarida, shuningdek, iqtisodiy inqirozlar davrida yuqori modaning elita guruhi katta moliyaviy yo‘qotishlarga duch keldi. Iqtisodiy voqeliklar va xaridorlarning talablarini qondirish uchun moda uylari hashamatli segmentni yanada demokratlashtirishga qaratilgan "gibrid" mahsulotlarni ishlab chiqarishni boshladilar, bu esa bozorning "masstige" (“ommaviy” va “so‘zlardan olingan”) kabi segmentini shakllantirishga olib keldi). O‘z sinfida yuqori moda, tayyor kiyim va ommaviy bozor elementlarini birlashtirgan. Yuqori moda uylarining nufuzli brendlari endi keng assortimentdagi (futbolkalar, paypoqlar, paxta ichki kiyimlari va boshqalar) asosiy kiyimlarda paydo bo‘la boshlaydi.

Moda haftaliklarida namoyish etiladigan liboslar lyuks to‘plamning asosiga aylanadi, ya’ni ular bir nechta nusxada ishlab chiqarilgan parcha-parcha mahsulotlardir. Pastki toifadagi kiyimlar 100-200 nusxada ishlab chiqariladi. Kundalik kiyim liniyalari (sviterlar, jinsilar, sport kiyimlari), qoida tariqasida, ishlab chiqarish chegarasi yo‘q. Hozirda tayyor liboslar kolleksiyalari yiliga ikki marta Parijda, yiliga to‘rt marta Dyusseldorf, Kyoln, Milan, Nyu-York, Tokio va Londonda taqdim

etiladi. Ba'zi dizayn kompaniyalari faqat yirik do'konlarda sotiladigan ommaviy kiyim liniyalarini ishlab chiqaradi, lyuks liniyalar esa kompaniya do'konlari va butiklarida tarqatiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Dizayn loyihalash. O'quv qo'llanma.– "Universitet", 2020. Muallif: Ataxanova F
2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o'ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
3. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическоеобразованиеинаука, (2), 109-110.
4. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
5. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
6. Soli Tolibovich Sadiyev O'RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).
7. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS'aRTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.
8. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C3. – С. 64-66.
9. Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO'LAJAK TASVIRIY VA AMALIY San'at O O'QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 908-910.
10. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-197.
11. Tolibovich S. S., Mardonovna M. G. EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 16-19.
12. Amonova, Z. U., & Vosiyeva, A. T. X. (2022). MODELYER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA--BOSQICH BERILISHI USULLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 269-274.
13. Usmonovna, A. Z. (2023). AMALIY BEZAK San'atI ORQALI OT–KUTYURYARATISH VA ESTITIK DUNYOQARASHNI SHAKILLANTIRISH. *Journal of Integrated Education and Research*, *2*(10), 49-51.
14. Khamidovna, K. G., & Usmonovna, A. Z. (2022). The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts. *Eurasian Scientific Herald*, *7*, 275-278.
15. Aziza To'xtaqulovna Vosiyeva, & Zarifa Usmonovna Amonova (2023). TASVIRIY San'at DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASB – HUNARGA YO'NALTIRISH. Oriental Art and Culture, 4 (1), 340-343.
16. Amonova Z.U., & Quziboyeva R.A. (2022). BADIIY HUNARMANDCHILIK SOHASIDA KASHTACHILIK TARIXI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI ETNO O'ZARO TA'SIRI. Экономика и социум, (5-2 (92)), 39-42.
17. To'xtaqulovna A. Самарқанд давлат университети (Самарқанд, Ўзбекистан) //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 14-17.
18. A. Vosiyeva USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE // SAI. 2023. №A4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-transformation-in-the-direction-of-design-and-its-importance (дата обращения: 22.12.2023).
19. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San'at DARSLARIDA O 'QUV TEXNIK VOSITALAR, ELEKTRON DARSLIK VA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 125-131.

# AGRESSIYANING YUZAGA KELISH VA UNI BARTARAF ETISH

**G.Madumarova-**
**University of Economics and pedagogy NOTM,**
**pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi**

Biz agressiyaning instinktiv nazariyasini, frustratsiya – agressiya nazariyasini va ijtimoiy o‘rganish nazariyalarini ko‘rib chiqdik, shuningdek, agressiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan omillarni o‘rgandik. Shu holatda qanday qilib agressiya darajasini eng past ko‘rsatkichga tushirish mumkin? Nazariyalar va tadqiqotchilar agressiyani nazorat qilishning biron bir usulini aniqlab beradimi? Katarsis “Yoshlarni o‘z asablarini tashqariga chiqarib yuborishga o‘rgatish kerak”, – deb tavsiya qilgan edi Eni Lenders. “Agar odam asabdan yorilib ketay deyayotgan bo‘lsa, biz klapanni qidirib topishimiz kerak. Biz unga buni chiqarib yuborish imkoniyatini berishimiz kerak”, – deydi mashhur psixiatr Fris Perlz. Har ikkala tasdiq ham “gidravlik modelga” tayanadi: to‘plangan agressiv energiya to‘g‘ondagi suvga o‘xshab beto‘xtov tashqariga intiladi. Katarsis konsepsiyasi, odatda, Aristotelga taalluqli deyishadi. Aslida Aristotel agressiya haqida hech narsa demagan bo‘lsa ham, biz o‘zimizni ezayotgan emotsiyalardan ularni ichdan, boshdan kechirib tozalanishimiz mumkin va klassik tragediyalarni mushohada qilish bizga rahmdillik va qo‘rquv katarsisi (tozalanish) ni sinab ko‘rish imkonini beradi deb yozgan edi. Aristotel emotsional qo‘zg‘alish emotsional bo‘shashishga sabab bo‘ladi deb hisoblagan. Keyinchalik katarsis farazi kengaytirilib o‘z tarkibiga faqat dramalar yordamida emas, shuningdek, o‘tmish hodisalarini eslash va yana boshdan kechirish, emotsiyalarni tashqi namoyon qilish va ularni almashtiruvchi harakatlar yordamida erishiladigan emotsional keskinlikni yumshatishni ham oldi. Shu yo‘l bilan “ortiqcha buni chiqarib tashlaymiz”, – deb hisoblanadi. “Agressiv harakatlar va fantaziya organizmdan siqilgan agressiyani chiqarib tashlaydi” deb hisoblovchi ayrim terapevtlar va guruh liderlari o‘z qo‘l ostidagilarni siqilgan agressiyani tashlab yuborish yo‘li bilan ventilyatsiya qilishlarini rag‘batlantiradilar, shuning uchun ham, masalan, hammomda bir-birini mochalka bilan do‘pposlash va krovatga tennis raketkasi bilan urish va ayni paytda baqir-chaqir qilish ayb sanalmaydi. Ayrim psixologlar ota-onalarga bolalarning emotsional keskinlikni yumshatishga yordam beradigan agressiv o‘yinlarini rag‘batlantirishni tavsiya qilishadi. Ko‘pchilikni bu go‘ya o‘ziga tortadi. Lekin ayni paytda “jinsiy mazmundagi materiallar siqilgan impulpslarni xavfsiz yo‘l bilan chiqarib tashlashga sharoit yaratadi”, – degan tasdiqqa nisbatan “jinsiy mazmundagi materiallar jinsiy zo‘ravonlik sodir qilishga olib boradi”, – degan tasdiqni ko‘pchilik ma’qullaydi. Shu munosabat bilan katarsis pozitsiyasining validliligi haqida o‘ylab ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Agar erotik materiallarni tomosha qilish seksual impulpslarni tashlab yuborishni ta’minlaganda edi, unda shundan so‘ng jinsiy maylning kamayishi kuzatilishi lozim edi, agar gap erkaklar haqida borayotgan bo‘lsa, unda ular shunga o‘xshash vaziyatlarda ayollarni seksual obyekt sifatida kamroq idrok qilishlari va unga shunga mos ravishda munosabatda bo‘lishlari lozim edi. Lekin tadqiqotlar buning teskarisini ko‘rsatadi. Sotsial psixologlarning ta’kidlashlaricha, ayni shu holatda katarsis amalga oshmaydi. Masalan, Robert Arms va uning hamkasblarining xabar qilishicha, kanadalik va amerikalik futbol, kurash va xokkey ishqibozlari musobaqalardan ketishda o‘zlarini musobaqa paytidagiga nisbatan agressivroq tutishadi. Hatto urush ham agressiv hislardan tozalanish imkonini bermaydi. Hisob kitoblarning ko‘rsatishicha, urushdan so‘ng umummilliy darajada qotilliklar soni keskin o‘sadi. Shunga o‘xshash agressiv harakatlar keyinchalik agressivlikni pasaytirishi mumkinmi? Ayrim tadqiqotlarda agressiv harakatlar agressivlikning kuchayishiga sabab bo‘lgan. Ebbe Ebbesen va uning xodimlari 100 ta injener va texniklarni ularni ishdan bo‘shatish ehtimolli bor ekanligi haqida ogohlantirish olganlaridan keyin ko‘p o‘tmay intervyu qilishgan. Ularning ayrimlariga xo‘jayinlar haqida nimani o‘ylashsa, shuni aytish imkonini beradigan savollar berilgan. Masalan: kompaniya sizga adolatsiz munosabatda bo‘lgan voqealarni eslang. Intervyudan so‘ng ular anketa to‘ldirishgan, anketada ularning kompaniyalari va xo‘jayinlariga nisbatan qo‘llash mumkin bo‘lgan jarima choralarini belgilash kerak bo‘lgan. Shundan oldin “buni chiqarib yuborish” agressiyaning pasayishiga olib kelmagan, aksincha, ularning agressivliligi yanada kuchaygan. Agressivlikni namoyon qilish dushmanlikning kuchayishiga olib keladi. Shafqatsizlik akti har doim shafqatsizlikka ustanovka beradi. Agressiv harakatning kuchsiz namoyon bo‘lishi shunga olib

keladiki, odam o‘z xatti-harakatida biron-bir jazoga loyiq narsani ko‘rishdan voz kechadi. Odamlar o‘zlarining bo‘lg‘usi agressiyalari irratsional, beaqllik bo‘lib ko‘rinmasligi uchun qurbonlarining fazilatlarini kamsitishga harakat qilishadi. Agar g‘azabni birinchi martadayoq tiyilsa, keskinlik chiqishi ham pasayadi, bo‘lmasa, aksincha, tormozlanish pasayadi. Umuman olganda, biz o‘z agressiyamizni tiyishimiz kerakmi? Indamasdan qovoq-tumshuqni osiltirish, atrofdagilarga o‘z g‘azabimizni sochganimizdan ko‘ra samaraliroq bo‘lmasa kerak, chunki biz bari-bir xayolan o‘zimizni xafa qilgan odam bilan tortishamiz. Baxtimizga o‘z hissiyotlarimizni namoyon qilish va boshqalarga ularning xulqi bizga qanday ta’sir qilganligini bildirishning noagressiv usullari ham mavjud. Har qanday milliy madaniyatda o‘z fosh qiluvchi “sening mulohazang” ni “mening mulohazam” ga aylantiradigan odamlar (m: “Men xafaman”, “Sen shu ohangda gapirsang, mening g‘ashim keladi”) o‘z hissiyotlarini shunday taqdim qilishadiki, boshqa odamga bu hissiyotga nisbatan ijobiy reaksiya bildirish oson bo‘ladi. Agressiyasiz ham shiddatli bo‘lish mumkin. “Kimki o‘zining butun tarovati bilan g‘azabdan quturib ketayotganligini ko‘rsatsa, o‘z qahrini chuqurlashtirgan bo‘ladi”, – deydi Charlz Darvin. Odamlar va hayvonlarda emotsiyalarning namoyon bo‘lishi, ijtimoiy o‘rganish pozitsiyasidan yondashish. Agar agressiv xulq o‘rganish jarayonida orttirilsa, uni nazorat qilishga umid bor. Agressiyaning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan omillarni ko‘rib chiqib, unga qanday qilib qarshi turish mumkinligini o‘ylab ko‘ramiz. Dushmanlik agressiyasiga aversiv tajribaning turli tiplari; frustratsiya va shaxsiy haqoratlash undaydi. Shunday ekan, eng aqlli yo‘l odamlarning amalga oshmaydigan orzular va behuda umidlar bilan boshlarini og‘ritmasliklari. Instrumental agressiya oldindan taqdirlanish lazzati va ehtimoll tug‘ilgan sarf-xarajatlar tufayli kelib chiqadi. Demak, biz bolalarda hamkorlik va noagressiv xulqni rag‘batlantirishimiz kerak. Tajribalarda bolalarning agressiv xulqi pisand qilinmasdan, noagressiv xulqi mustahkamlanganda ular kamroq agressiv bo‘la borganlar. Agressorni jazolash har doim vaqtni behuda ketkazish demakdir: jazolash agressiyani faqat ideal sharoitlardagina to‘xtatib qolishi mumkin, ya’ni agar o‘sha zahoti va qattiq jazolansa, agar jazolash ijobiy xulqni rag‘batlantirish bilan birga qo‘shilsa va bunda jazo olayotganning jahli chiqmasa. Bu sharoitlarga amal qilmaganda agressiya tashqariga otilib chiqadi. Xuddi shu holat 1969-yil Monreal politsiyasi 16 soatlik ish tashlash e’lon qilganda va 1992-yilda Los-Anjeles politsiyasi ommaviy tartibsizliklar bo‘layotgan hududga kirishdan bosh tortganda kuzatilgan. Har ikkala voqeada ham vandalizm va talon-tarojlar politsiya otryadlari kiritilgandan so‘nggina to‘xtagan. Biroq jazolashning samarasi nihoyatda cheklangan. Ko‘p hollarda “hayot uchun emas, o‘lim uchun agressiya” impulpsiv, qaynoq agressiya – janjal, haqorat yoki shafqatsiz hujum oqibati bo‘ladi. Shunday qilib, biz agressiya paydo bo‘lmasdan oldin uning oldini olishimiz kerak. Agar “hayot uchun emas, o‘lim uchun agressiya” sovuq va intrumental bo‘lganda, biz jinoyatchiga o‘zining agressiv niyatlarini amalga oshirishga imkon berib, keyin uni boshqalarga namuna uchun jazolab, shunday jinoyat qilish istagini boshqalarda yo‘qotgan bo‘lardik. Agar shunday bo‘lganda o‘lim jazosi jinoyatlar sonini kamaytirgan bo‘lardi. Lekin afsuski bunday bo‘lmayapti. Jismoniy jazolash qo‘shimcha salbiy samara berishi mumkin. Jazolash bu aversiv stimulyatsiyaning yana bir ko‘rinishidir; jazo aynan jazo yordamida oldi olinmoqchi bo‘lgan xulqni shakllantiradi. Yana buning ustiga jazolash bu majburlashdir (har qanday majburiy faoliyat tashqi tomondan majburiyligi qanchalik kuchli oqlanmasin, baribir kamdan-kam ichki hamdardlik uyg‘otishini eslash kifoya). Xuddi shuning uchun ota-onalarning haqoratlari bilan o‘sgan bebosh o‘smirlar, oiladagi intizom shafqatsiz jismoniy jazo ko‘rinishini olganda uydan qochib ketadilar. Agar biz tinchlikni xohlasak, ilk bolalikdanoq bolalarda hamkorlik va rahmdillikni rag‘batlantirishimiz va shakllantirishimiz zarur; bunga hech bo‘lmaganda ota-onalarni bolalardan intizomni kuch ishlatmasdan talab qilishga o‘qitish yo‘li bilan erishish mumkin. Tutaqib ketgan ota-onalar ko‘proq shapaloq va tarsakidan foydalanishadi. Ta’lim dasturlari ota-onalarga ma’qul xulqni mustahkamlash va aniq ijobiy ta’riflardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Masalan, “agar xonangni yig‘ishtirmasang, men seni nima qilishimni bilmayman” degan salbiy ta’rif o‘rniga “xonangni yig‘ishtirib bo‘lib, o‘ynagani boraver” deganga o‘xshash ijobiy ta’riflardan foydalaning. Bitta shunday “agressiya o‘rnini almashtirish dasturini” amalga oshirish yosh qonun buzuvchilar va o‘smirlar bandasi a’zolarining qayta qo‘lga olinishini keskin kamaytirgan. Dasturda o‘smirlar va ularning ota-onalarini muloqat

malakalariga o‘qitishdi, emotsional nazoratni amalga oshirishga o‘rgatishdi, ularning axloqiy refleksiyasi darajasini oshirishga intilishdi. Agar xulqning agressiv shakllarini kuzatish tormozlanishni susaytirsa va taqlid qilishga sabab bo‘lsa, demak, biz kino va televideniyeda shafqatsiz va g‘ayriinsoniy syujetlar sonini kamaytirishimiz lozim, ya’ni xuddi irqchilik va seksual syujetlarni kamaytirish yo‘nalishidagi choralarni ko‘rishimiz lozim. Biz, shuningdek, o‘z farzandlarimizni ommaviy axborot vositalarida namoyish qilinayotgan zo‘ravonlikka qarshi “emlashimiz” mumkin. “Televideniyening shu vaqtgacha ko‘zi ochilmagani va o‘z dasturlarini tuzish yo‘nalishini o‘zgartirmaganligidan” tashvishlangan Iron va Xyusmannlar Ilinoysdagi ouk-Parkdagi 170 ta bolaga televideniye atrof-olamni buzib namoyish qilayotganligi, agressiya televizorda ko‘rsatilayotganligidek hamma yerda hozir-u nozir emasligi va unchalik kor qilmasligi va agressiv xulqning ma’qul shakli emasligi haqida so‘zlab berishdi (ustanovkalarni o‘rganish tajribasiga asoslanib Iron va Xyusmann bolalarga o‘zlari mustaqil xulosa chiqarish va o‘z tanqidiy fikrlarini bayon qilishni taklif qilishdi). Shu bolalarni qayta o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, televideniyeda namoyish qilinayotgan zo‘ravonliklar ularga mashq qilmagan bolalarga nisbatan kamroq ta’sir qila boshlagan. Agressiyani, shuningdek, agressiv stimullar ham harakatga keltiradi. Bu fakt o‘q otar qurollaridan foydalanish huquqini cheklash haqidagi fikrga olib keladi.

Yamaykada 1974-yilda o‘qotar qurollar ustidan qat’iy nazorat va televideniye hamda kinoda qurollardan foydalanish sahnalariga senzurani o‘z ichiga olgan jinoyatchilikka qarshi kurash dasturi amalga oshirildi. Keyingi yilda o‘g‘irliklar soni 25% ga, halok bo‘lish natijasiga olib bormagan o‘q uzishlar soni 37% ga kamaygan. Shvetsiyada harbiy o‘yinchoqlar ishlab chiqarish butunlay to‘xtatilgan. Shvetsiya axborot xizmati bu yo‘nalishlardagi milliy yondashuvni shunday izohlagan: “Urush o‘yini tortishuvlarni zo‘ravonlik yo‘li bilan hal qilishga o‘rgatadi”. Shunga o‘xshash maslahatlar bizga agressiyani minimallashtirishga yordam berishga qodir. Biroq agressiya sabablarining ko‘pchiligi va ular ustidan nazorat qilishning murakkabligini hisobga olsak, Endryu Karnegining XX asrda “odam o‘ldirish, hozir odam g‘amxo‘rlik qanday jirkanch bo‘lsa, shunday jirkanch hodisaga aylanadi”, – degan optimizga qo‘shilish qiyin. Karnegi bu so‘zlarni aytgan 1900-yildan beri 200 million odam o‘ldirildi. Hozir bizning inson agressiyasini har qachongidan ko‘ra yaxshiroq tushunishimizda qayg‘uli bir kinoya bor, chunki bu bilan insonning g‘ayriinsoniyligi kamayib qolgani yo‘q.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Levantuev P.I., Asqarxo‘jaev A., Chudnovskiy V.E., Vohidov M.V. Bolalar psixologiyasi ocherklari. – T., “O‘qituvchi”, 1964.
2.Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. – T., 2004.
3.Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. – T., 1998.
4. Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. – T., 1991.
5. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. – T., “O‘qituvchi”, 1970.
6. G‘oziyev E. Psixologiya. – T., “O‘qituvchi”, 1994.
7. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. – T., “O‘qituvchi”, 1976.
8. Karimova V. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. – T., “Sharq”, 2000.
9.Axloq-odobga doir Hadis namunalari. – T., 1990.
10.Ibroximov A. va boshqalar. Vatan tuyg‘usi. – T., “O‘zbekiston”, 1997.


## THE COMPARATIVE ANALYSIS OF PROVERBS AND SAYINGS WITH A HUMAN COMPONENT IN ENGLISH RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES


**Marufova Yulduzkhon**
**MA student at Uzbekistan state world languages university**
**Scientific advisor: Israilova Mukaddas Irgashevna**
**PhD, professor, Department of Linguistic Support of Intercultural Communication, UZSWLU**

**Annotation.** This article compares proverbs and sayings with human elements in English, Russian, and Uzbek, categorizing their similarities into four levels: similar to very different. It highlights how these expressions reflect cultural and linguistic nuances, serving as bridges between cultures and showcasing universal and unique human experiences. The study enhances understanding of cultural richness and complexity in phraseological units, underlining their significance in linguistic and cultural insights.

**Аннотация.** В этой статье пословицы и поговорки сравниваются с человеческими элементами в английском, русском и узбекском языках, распределяя их сходство по четырем уровням: похожие и очень разные. В нем подчеркивается, как эти выражения отражают культурные и языковые нюансы, служат мостами между культурами и демонстрируют универсальный и уникальный человеческий опыт. Исследование улучшает понимание культурного богатства и сложности фразеологических единиц, подчеркивая их значение для лингвистических и культурных знаний.

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada ingliz, rus va oʻzbek tillaridagi inson komponentli maqol va matallar taqqoslanib, ularning oʻxshashliklari toʻrt darajaga ajrailtadi: oʻxshash va turlicha. Bu iboralar madaniyatlar oʻrtasida koʻprik boʻlib xizmat qiladigan va umuminsoniy va noyob insoniy tajribalarni namoyish etuvchi madaniy va lingvistik nuanslarni qanday aks ettirishini ta’kidlaydi. Tadqiqot frazeologik birliklarning madaniy boyligi va murakkabligini tushunishni kuchaytiradi, ularning til va madaniy tushunchalardagi ahamiyatini ta’kidlaydi.

**Keywords**: proverbs, sayings, comparative analysis, english, russian, uzbek, human component, linguistic expression, cultural identity, societal norms.

**Introduction.** Proverbs and sayings are not just linguistic expressions but the embodiment of a culture's wisdom and worldview. They encapsulate the collective experiences and philosophies of a people, offering insights into their values, fears, aspirations, and perceptions. This article aims to bridge linguistic and cultural divides, presenting a comparative analysis that highlights not only the common human essence found across cultures but also the unique cultural fingerprints that differentiate these expressions of wisdom. By exploring proverbs with a human component from English, Russian, and Uzbek cultures, we uncover the layers of meaning that reflect the universal and distinctive aspects of human life and society.

**Literature review.** The comparative analysis of proverbs and sayings, especially those with a human component across different languages and cultures, has been a subject of interest among linguists, anthropologists, and cultural theorists for many years. This literature review synthesizes the key findings from a selection of studies, highlighting the methodologies employed, themes explored, and conclusions drawn about the universality and cultural specificity of proverbs in English, Russian, and Uzbek contexts.

Mieder (1985) offers one of the seminal works in the field of proverb studies, arguing that proverbs serve as a cultural mirror reflecting the values, norms, and philosophies of a society. Mieder’s comprehensive analysis of English proverbs establishes a framework for understanding how proverbs function not just as linguistic artifacts but as carriers of deep cultural meaning.

In the context of Uzbek proverbs, Lomakina (2021) provides an insightful exploration into how these sayings encapsulate the nomadic traditions, Islamic influences, and the importance of community and hospitality that characterize Uzbek culture. Lomakina’s study underscores the significance of proverbs in preserving linguistic and cultural heritage, especially in oral traditions where they serve as an essential vehicle for transmitting wisdom across generations.

Comparative studies, such as those by Alisherovna (2020) and Zarieva, Iliev (2016), delve into cross-cultural analyses of proverbs, highlighting both the universality of certain themes and the cultural specificity of their expressions. These studies reveal that while proverbs from different cultures often address common human experiences—such as wisdom, morality, love, and adversity—their formulations and emphases reflect the unique cultural, environmental, and historical contexts from which they arise. Specifically, Pischulina (2014) examines the functional types of phraseological units encapsulated in proverbs and sayings, emphasizing their reflection of social experiences, traditions, customs and behaviours native to the English and russian

languages.The analysis categorizes these units into three distinct types based on their level of equivalence between the two languages: full equivalents, partial equivalents, and non-corresponding variants. Utebaev and Sarsenbaeva's article (2021) offers a comprehensive examination of proverbs through a linguoculturological lens, emphasizing the essential role of proverbs in reflecting and preserving the cultural identity and linguistic heritage of a community. Their analysis spans English and Karakalpak proverbs, showcasing how these succinct expressions encapsulate collective experiences, moral values, and cultural norms. By employing comparative and descriptive methodologies, the authors underscore the proverbs' significance in enhancing linguistic competence and cultural understanding among students. Their work contributes valuable insights into paremiology, highlighting the dynamic interplay between language, culture, and education.

The literature on proverbs and sayings demonstrates their value as a window into the human condition, offering insights into the universal challenges, joys, and wisdoms that bind humanity, as well as the diverse cultural narratives that give each society its unique voice. As the world becomes increasingly interconnected, the study of proverbs from a comparative perspective offers valuable lessons on the importance of cultural sensitivity, the richness of linguistic diversity, and the shared human capacity for resilience and wisdom.

**Methodology.** Our methodology involves a meticulous selection and categorization process. We scoured literary sources, folklore collections, and cultural studies to compile a list of proverbs that vividly illustrate human traits, behaviors, and societal norms. Each selected proverb underwent a rigorous analysis to ensure it adequately represents the cultural ethos and linguistic nuances of its origin. We then categorized these proverbs based on their thematic similarities and differences, allowing for a structured comparison that highlights both universal themes and cultural specificities. This approach enabled us to construct a comprehensive table that serves as a visual and analytical tool for understanding the comparative dynamics of these proverbs.

| No | English | Russian | Uzbek | Category |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Don't count your chickens before they hatch | Не говори гоп, пока не перепрыгнешь | Jo‘jani kuzda sanaydilar | Similar |
| 2. | Every cloud has a silver lining | Нет худа без добра | Oyning o‘n beshi qorong‘u, o‘n beshi yorug‘ | Very different |
| 3. | Familiarity breeds contempt | Близость порождает пренебрежение | Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga | Similar |
| 4. | Fortune favors the bold | Храбрым судьба помогает | Jasurlarga doim omad kulib boqadi. | Very similar |
| 5. | It takes two to tango | Один в поле не воин | Qars ikki qo‘ldan chiqadi | Similar |
| 6. | No pain, no gain | Без труда не вытащишь и рыбку из пруда | Jon kuydirmasang jonona qayda, toqqa chiqmasang do‘lana qayda | Similar |
| 7. | Actions speak louder than words | Судят не по словам, а по делу | Gap desa qop-qop, ish desa Samarqanddan top | Very similar |
| 8. | United we stand, divided we fall. | В единстве наша сила | Kuch-birlikda | Very similar |
| 9. | Out of sight, out of mind | С глаз долой - из сердца вон | Ko‘zdan nari ko‘ngildan nari | Very similar |
| 10. | A friend in need is a friend indeed | Друг познается в беде | Do‘st kulfatda bilinadi | Very similar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 11. | All's well that ends well | Конец - делу венец | Yaxshilik bilan tugagan hamma narsa yaxshi | Very similar |
| 12. | Not found | Смех без причины — признак дурачины | Sababsiz kulgi aqlsizlik belgisi | Different |
| 13. | All glitters is not gold | Не всё то золото, что блестит | Yaltiragan hamma narsa ham oltin boʻlavermaydi | Very similar |
| 14. | You live, you learn | Век живи — век учись | Hayot – eng yaxshi muallim | Similar |
| 15. | Words once spoken can't be taken back | Слово не воробей, вылетит — не поймаешь | Aytilgan gap – otilgan oʻq | Similar |
| 16. | Tastes differ | На вкус и цвет товарищей нет | Hammaniki oʻziga oy koʻrinar koʻziga | Similar |
| 17. | A smart person learns from his own mistakes, but a wise person learns from the mistakes of others | Умный учится на чужих ошибках, дурак — на своих | Aqlli inson oʻzining xatolaridan dono inson esa boshqalarning xatolaridan saboq oladi. | Similar |
| 18. | Still waters run deep | В тихом омуте черти водятся | Not found | Similar |
| 19. | Better late than never | Лучше поздно, чем никогда | Hechdan koʻra kech | Very similar |
| 20. | Measure twice cut once | Семь раз отмерь, один отрежь | Yetti oʻlchab bir kes | Similar |

**Discussion.** The comparative analysis of proverbs and sayings across English, Russian, and Uzbek languages reveals a fascinating landscape of human wisdom, underscored by both universality and distinct cultural nuances. While there are themes that transcend cultural boundaries, indicating a shared human experience, the analysis also highlights the unique ways in which each language and culture expresses these common truths. The slight or very different analogues found among the proverbs serve as a testament to the diverse cultural perspectives and societal values that shape human expression.

For instance, while the principle that actions carry more weight than words is universally acknowledged, as seen in the English "Actions speak louder than words," the Russian and Uzbek analogues offer nuanced reflections rooted in their respective cultural contexts. Similarly, the universal concept of familial resemblance is expressed across all three cultures, yet each language presents this idea through its own unique lens, enriching the proverb's meaning within its cultural setting.

**Conclusion.** These nuances underscore the richness of cultural expression and the depth of human wisdom across societies. They reflect how cultural, historical, and environmental factors influence the articulation of shared human experiences, demonstrating that while the essence of many proverbs may be universal, the flavors they take on are as varied as the cultures themselves. This diversity in expression enriches our understanding of human wisdom, highlighting the beauty and complexity of our shared and individual experiences.

**References:**

1.Wolfgang M. Zitat S.: Tradierte Formelsprache in der Moderne. (No Title) (1985).

2. Lomakina O. V. Concepts of god and faith in Uzbek and Tajik proverbs in terms of culture and language transfer theory. // European Journal of Science and Theology 17.2 (2021): 125-135.
3. Mukhtorova B. Ф. Comparative analysis of the English and Russian proverbs and sayings representating the concept" money". // Проблемы современной науки и образования 4-2 (149) (2020): 43-45.
4. Zarieva N. P., Iliev K. Comparative Linguistic Analysis of Russian and English Proverbs and Sayings. // Palimpsest / Палимпсест 1.2 (2016): 25-32.
5. Utebaev T., Sarsenbaeva Z. Linguoculturological analysis of proverbs. // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 1.1.5 Pedagogical sciences (2021).
6. Pishchulina T. A. The comparative analysis of Russian and English proverbs and sayings. (2014).

## HOZIRGI O‘ZBEKISTONDA MATEMATIKA SOHASIGA E’TIBOR

**Asrayev Shavkat, Valijonova Zebo, Ataqulov Husan**
**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston**
**Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada hozirgi O‘zbekistonda matematika sohasini rivojlantirish tendensiyalari va anjumanlari tahlil qilingan. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda qabul qilinayotgan farmonlar, qonunlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar muhokama etilgan. Shu bilan birga mamlakatimiz yoshlarini matematika sohasiga qiziqishini oshirish uchun qanday yo‘nalishda harakat qilish haqida mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** qarorlar, ta’lim, ijodiy salohiyat, dolzarb muammolar, ixtisoslashtirilgan maktablar, matematik olimlar, tadqiqotchilar.

Bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan bir zamonda har bir davlatning o‘z metodi, o‘zining rivojlangan sohasi, texnologiyasi, o‘zining rivojlanish konsepsiyasi, rivojlanish yo‘li mavjud. Dunyo davlatlari o‘rtasida texnologiyalar tobora rivojlanayotgan bir zamonda O‘zbekiston ham bundan mustasno emas. Texnologiyalarni yaratish va ularni yanada rivojlantirish uchun ma’lum bir bilim va ko‘nikma egasi bo‘lish lozim. Ya’ni matematika va fizika fanlaridan. Bugungi kunda yurtimizda matematika sohasini rivojlantirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, matematikaga oid ko‘plab ilmiy ishlar va turli tajribali o‘qituvchilar jalb etildi. O‘zbekistonda matematika sohasidagi rivojlanish yo‘nalishlari sodda matematika, amaliy matematika, axborot texnologiyalari va matematik modeliyashning kengaytirilishi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, O‘zbekistonning matematikani rivojlantirish yo‘nalishlarida barcha darajada o‘quv-ta’lim tizimini rivojlantirish, matematika fanlarini kasb etishga aloqador dasturlar tuzish va akademik tadqiqotlarni olib borish kabi chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz 2020-yil 7-may kuni “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi tarixiy qarorga imzo chekdi.

Ushbu hujjatni bugungi kunning muhim qarorlaridan biri deb bilamiz. Sababi hozirgi davrda har bir sohani, har bir fanni matematikasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Iqtisodiyotni olasizmi, qishloq xo‘jaligimi, og‘ir va yengil sanoatmi, albatta, matematika bilan bog‘liqdir. Qarorning muhim jihatlaridan biri shundaki, bolaga maktabgacha bo‘lgan davrdan boshlab matematikani o‘rgatish, matematik tasavvurlarni paydo qilish kerak. Shunda u maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limdan keyingi davrgacha bo‘lgan jarayonni bosqichma-bosqich oson bosib o‘tadi. Xususan, maktabgacha yoshda ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish bo‘yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, dastlabki sanoq, qo‘shish, ayirish o‘rgatilib, fanga qiziqtirilib borilsa, kelajakda yuksak marralarni ko‘zlash mumkin bo‘ladi.

Qarorga ko‘ra, matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro mukofoti e’lon qilindi va g‘olibga 50 ming AQSH dollari taqdim qilinishi belgilandi. Bunday moddiy rag‘batlantirish jahonning nufuzli ilmiy markazlarida ham yo‘q. Dunyoda bu darajadagi eng ko‘p mukofot 10ming AQSH dollari etib belgilangan. Bu esa yoshlarni matematikaga qiziqishini yanada oshiradi.

Davlatimiz rahbari bejiz bu mukofotni qaror asosida belgilab qo‘ymadi. Endilikda har bir izlanuvchi, olim, professor, akademiklarimizning mehnat mahsuldorligini yanada oshirish hamda yurtimizga, ilm-fanga yangi g‘oyalarni tatbiq qilish va ularning mehnatini munosib moddiy rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Qarorda hududlarda matematika faniga ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirish hamda yangi maktablarni tashkil etish ustuvor yo‘nalishlardan biri qilib belgilandi. Ushbu ixtisoslashgan maktablarning tashkil qilinishi ko‘pchilikning azaliy orzusi desa ham bo‘ladi. Chunki matematikani bilgan har bir o‘quvchi boshqa fanlarni o‘zlashtirishi yaxshi bo‘ladi. Bizga ma’lumki, yurtimizda matematika faniga ixtisoslashgan maktablar ko‘p. Lekin hammasining ham natijasi yuqori darajada emas. Endilikda ushbu yangi maktablarda zamonaviy pedtexnologiyalar qo‘llaniladi. Bu esa ta’lim sifatini oshiradi, malakali kadrlar bilan ta’minlash imkonini beradi.

Qarorga ko‘ra, ixtisoslashtirilgan maktablarga o‘quvchilar belgilangan tartibda tanlov asosida saralab olinadi. Bu juda to‘g‘ri qarordir. Sababi tanlov halol, to‘g‘ri bo‘lsa, albatta, tanlab olingan o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘ladi. O‘qituvchi tomonidan berilgan har bir mavzuni chuqur o‘zlashtira oladi. O‘zi izlanib, keyinchalik fanga yangi g‘oyalarni qo‘llaydi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda maktab direktori tegishli tuman (shahar) hokimining iqtisodiy va boshqaruv jarayonlariga matematik usullar va modellarni joriy qilish masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘lishi Prezidentimizning ta’limga bo‘lgan yuksak e’tiboridan biridir. Qarorga muvofiq, matematika fani chuqurlashtirilib o‘qitiladigan maktab bitiruvchilari tegishli OTMlarning matematika ta’lim yo‘nalishlariga ular uchun belgilangan maqsadli parametrlar bo‘yicha o‘qishga qabul qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Albatta, ixtisoslashgan maktab bitiruvchi o‘quvchilari matematikaning o‘rta ta’limda beriladigan har bir mavzusini chuqur o‘zlashtirgan bo‘ladi. Milliy sertifikatlarning joriy qilinishi ham uzoq vaqtdan buyon intiq kutilayotgan edi. Xalqaro matematika maktabi bitiruvchi sinf o‘quvchilarining barchasi chet tili fani bo‘yicha sertifikatga ega. Endilikda ushbu o‘quvchilarimiz kelajakda yuz foizlik natija bilan matematika fanidan milliy sertifikat ham olishiga ishonamiz. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu qarorning qabul qilinishi yurtimiz kelajagini ko‘zlab qilingan ishlarning eng saralaridan biridir.

Samarqandda aynan 2020-yilda Mirzo Ulug‘bek nomidagi matematika va fizika fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati tashkil etildi. Samarqand viloyati hokimining bu haqdagi qarori 30-oktyabr kuni qabul qilindi.

Viloyatda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni ilm-fanga keng jalb qilish va intellektual salohiyatini oshirish, matematika va fizika fanlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan qarorga ko‘ra, Samarqand shahar Sartepa maskanida joylashgan sobiq 10-son Mehribonlik uyi bino va inshootlari yangi maktab-internet uchun ajratildi.

Quyidagilar ixtisoslashtirilgan maktab-internatning asosiy vazifalari etib belgilandi:

– umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalangan holda matematika, fizika, informatika va ingliz tilini chuqur o‘qitilishini tashkil etish;

– matematika va fizika fanlari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilarni tanlash, ularga ushbu fanlardan zamon talablari darajasida chuqurlashtirilgan bilim berish, oliy ta’lim tizimi uchun yuqori intellektual salohiyatli yoshlarni tayyorlash;

– o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon qilish va faollashtirish;

– har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil tadqiqotchilik faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

– yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan mahalliy va xorijiy mammlakatlardan tajribali o‘qituvchilarni jalb qilish;

– iqtidor va iste’dodni aniqlash hamda kamol toptirish bo‘yicha o‘quvchilarni respublika va xalqaro fan olimpiadalari, tanlovlar va boshqa tadbirlarda qatnashishga tayyorlash.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-avgustdagi “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori talablari asosida yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi (PIIMA) direktori Sarvar Boboxo‘jayev Buxoro viloyati Qorako‘l tumanidagi xalqaro matematika maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Aytish joizki, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-avgustdagi qarori bilan mazkur ta’lim muassasasiga “Xalqaro matematika maktabi” maqomi berildi. Maktab bitiruvchilarining 95 foizi oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirmoqda. Turli olimpiadalar, ya’ni viloyat, respublika va xalqaro olimpiadalarda munosib ishtirok etib, yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

S.Boboxo‘jayev xalqaro matematika maktabiga tashrifi davomida mazkur o‘quv muassasasi faoliyati bilan tanishdi va agentlik tizimiga kiruvchi maktablar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish bo‘yicha fikr bildirdi.

Mazkur hamkorlik agentlik tizimiga kiruvchi maktablarda matematika fanini o‘qitishni yanada takomillashtirish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, 2020-2021 o‘quv yilidan Toshkent shahridagi Prezident maktabi va xalqaro matematika maktabi bir necha yo‘nalishda hamkorlik qilishni boshlaydi.

Jumladan, 2020-yil oktyabrning so‘nggi haftasida Qorako‘l maktabi ma’muriyatining Prezident maktabiga tashrifi kutilmoqda. Shuningdek, 2020-2021 o‘quv yilining ikkinchi choragidan Qorako‘l maktabining oliy toifali matematika fani o‘qituvchilari va Prezident maktabining xorijiy o‘qituvchilari o‘zaro tajriba almashishlari uchun sharoit yaratib berish maqsadida onlayn dars va treninglar tashkillashtirish, xalqaro olimpiadalarda sovrinli o‘rinlarni egallab kelayotgan o‘quvchilar o‘rtasida ham muloqotni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.

Kelajakda bunday hamkorlik aloqalari Agentlik tizimiga kiruvchi boshqa maktab muassasalari bilan ham o‘rnatilishi rejalashtirilgan.

Qorako‘l maktabi matematika fanini o‘qitish va mazkur fan bo‘yicha xalqaro olimpiadalarga o‘quvchilarni tayyorlash bo‘yicha katta tajribaga ega. “Bizning tizimda maktablar faoliyatini boshlaganiga hali ko‘p vaqt bo‘lmadi va xalqaro matematika maktabining tajribasi ularga faoliyatlarini yanada takomillashtirishga imkoniyat yaratadi”, – dedi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktori Sarvar Boboxo‘jayev.

Qarshi davlat universitetida 2020-yilning 23-24-oktyabr kunlari Amaliy matematika kafedrasi tashabbusi bilan “Matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va dasturiy ta’minot injeneriyasining dolzarb muammolari” mavzusida xorijiy olimlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan respublika ilmiy konferensiyasi ana shu maqsadni ko‘zlab tashkil etildi.

Anjuman Zoom platformasi orqali online shaklda o‘tkazildi. Konferensiya kun tartibidagi yalpi majlisda xorijiy olimlardan Rossiya fanlar akademiyasi Sibir bo‘limi hisoblash matematikasi va matematik geofizika instituti laboratoriyasi mudiri, professor X.X.Imomnazarov, Belarus davlat universiteti professori V.B.Taranchuk kabi xorijiy va mamlakatimizdagi o‘nlab oliy ta’lim muassasalarining matematiklari o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Ilmiy anjumanning birinchi seksiyasida matematik modellashtirishning dolzarb muammolari, hisoblash matematikasining zamonaviy usullari, ikkinchi seksiyasida dasturiy injiniring rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, matematik usullarning tabiatshunoslikda qo‘llanishi, uchinchi seksiyasida matematika va informatika o‘qitish nazariyasi va metodikasi, raqamlashtirishning dolzarb muammolari o‘rin oldi. Seksiya ishlarida 100dan ortiq ma’ruzalar konferensiya ishtirokchilari tomonidan tinglandi va muhokama qilindi.

Mazkur ilmiy konferensiya kun tartibidagi ilmiy yo‘nalishlarni yanada rivojlantirishga, fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirishga, fan va ta’lim sohalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti hamkorligida “Matematikaning zamonaviy muammolari” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi o‘tkazildi.

Anjumanni universitet rektori, professor A.Reymov ochdi. Konferensiyada mashhur matematik olimlardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, senator, akademik Sh.Ayupov, akademik A.Sadullayev, professor M.Aripovlar o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillari davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimizning ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi va 2020-yil 7-may kungi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari sohani yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, davlatimiz rahbarining 7-may kungi qarorida Qoraqalpog‘iston Respublikasida, Buxoro, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining hududiy bo‘linmalari tashkil etilishi tasdiqlandi. Albatta, bu qarorlar butun ilm ahli uchun katta imkoniyatlar yo‘lini ochib beradi. Shuningdek, yosh matematiklarning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir barcha ishtirokchilarning kelgusi ilmiy faoliyati uchun juda foydali bo‘ldi. Xususan, yosh izlanuvchilar jahon miqyosida ilmiy izlanishlar olib borayotgan ustoz-matematiklarning ma’ruzalaridan bahramand bo‘ldi.

Onlayn formatda tashkil etilgan mazkur respublika anjumanida mamlakatimizning barcha hududlaridan 100 dan ziyod matematik olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi. ”Matematikani o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari”. Jizzax davlat pedagogika institutida bo‘lib o‘tgan ilmiy anjuman ana shunday nomlandi.

“Matematikani o‘qitishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy onlayn anjumanni Jizzax davlat pedagogika instituti rektori Sh.Sharipov ochib berdi. “Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining asosiy vazifasi ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, talabalarga xalqaro andozalar asosida sifatli ta’lim berish, doimiy monitoring va uslubiy yordam ko‘rsatish, talabalarni doimiy ravishda zamonaviy matematik tadqiqotlar bilan tanishtirib borish, sohadagi erishilayotgan yutuqlar va ularning fan va texnika rivojidagi ahamiyati, yangiliklarning ishlab chiqarishga joriy etish asosida barcha sohalarda taraqqiyotga erishishda matematika muhim o‘rin tutadi. Konferensiya kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarbdir. Konferensiya dasturi matematikani o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari, matematika fanining istiqbollari hamda respublikamizning yetuk matematik olimlarining maktabini keng ommaga tanishtirish, pedagogika oliy ta’lim muassasalari ta’lim yo‘nalishlarida matematika fanining boshqa fanlar bilan integrativ yondashuv masalalari, hisoblash matematikasi, mantiq, fizika va informatika, matematik tahlil va matematik fizika, algebra va sonlar nazariyasi, geometriya kabi fanlani o‘qitish nazariyasi va metodikasi bo‘limlardan iborat”, – deydi institut rektori Sh.Sharipov.

Onlayn tarzda bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanda sohaga ixtisoslashtirilgan yurtimizdagi xorijiy oliygohlarning nufuzli filiallari professor-o‘qituvchilar o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi. Qizg‘in bahs-munozaralar asosida bo‘lib o‘tgan ilmiy anjumanda matematika fani o‘qituvchilarining ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirish, tinglovchilarda matematikani o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovasiyalardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, matematika darslarida zamonaviy ta’lim vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, matematika fani nazariyasi va uni o‘qitish metodikasi yutuqlari, fanning texnika va ishlab chiqarishga qo‘llanishi bo‘yicha tadqiqotlar bilan tanishtirish borasida so‘z bordi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan matematika fanini chuqurlashtirilgan holda o‘rganish, ushbu sohada ta’lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada dasturilamal bo‘lib xizmat qilayotir. Unda ushbu yo‘nalishda ta’lim olayotgan va ilmiy-tadqiqotlar

bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, chet eldagi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilangan. Yillar o'tgani sari bizning matematika bo'yicha Xalqaro olimpiadalardagi natijalarimiz yaxshilanib bormoqda. Bu esa islohotlar samarasi va o'z navbatida yangi Beruniy-u, yangi Xorazmiylarning kashf etilishi demakdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2020 "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati» DUK
2. F.Rajabov, S.Masharipova, R.Madraximov. "Oliy matematika". (O'quv qo'llanma), -T.: "Turon-iqbol", 2007 y.
3. *https://pressa.beeline.uz/search/news?search=matematika*
4. 2024 | JDPU — Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi, jdpu.uz.
5. А.Н.Колмогоров, А.М.Абрамов ва бошкалар. "Алгебра ва анализ асослари". 9-10 синфлар учун укув кулланма. –Т.: Укитувчи, 1987 й, 352-б.
6. https://uza.uz/posts/219523.
7. Saitov.Y.O. "Matematika va matematiklar " kitobidan.

## THE IMPORTANCE OF ORGANIZING OPTIONAL LESSONS IN PRIMARY CLASS MATHEMATICS LESSONS

**daughter of Abdisamatova Mohinur Abdijalil,**
**3rd grade student of Termiz State Pedagogical Institute,**
**Faculty of Primary Education**

**Abstract.** This article talks about the importance of optional activities in mathematics lessons in primary grades and how to organize these activities.

**Аннотация:** В данной статье говорится о значении факультативной деятельности на уроках математики в начальных классах и о том, как организовать эту деятельность.

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida fakultativ mashg'ulotlarning qanday ahamiyatli tomoni borligi va bu mashg'ulotlarni qay tarzda tashkil qilish yo'llari haqida boradi.

**Keywords**: Optional, training, didactic games, Olympiads, parties, quizzes.
**Ключевые слова:** Факультатив, обучение, дидактические игры, олимпиады, вечеринки, викторины.
**Kalit so'zlar**: Fakultativ, mashg'ulot, didaktik o'yinlar, olimpiadalar, kechalar, viktorinalar.

Facultative classes study learning materials that do not repeat the learning material in the textbook, but serve to strengthen it. Facultative training is an activity that helps to educate elementary school students in various ways. It motivates especially gifted students to increase their interest in science and to study more intensively. In addition, such activities greatly help the development of students with a lower level of knowledge. In elementary grades, optional activities related to mathematics are held, such as didactic games, Olympiads, parties, quizzes. These will further enhance students' mathematical potential. Optional classes are held for 34 hours in 1 year. During the course of optional training, it is necessary to take into account the scientific potential of children, as well as knowing their interests. Such classes have their own characteristics:

1. It should be suitable for students' knowledge;
2. It should not be the same as the topics in the textbook;
3. Lessons should be scheduled for 45 minutes;
4. Facultative classes are characterized by a variety of content depending on their form and types (interesting math classes, clubs). In order to stimulate interest and support in the tasks in mathematics minutes, these tasks should be more interesting. Various interesting questions and problems, arithmetic operations and rebuses can be used for training. Math clubs are the most common type of structured optional activity in mathematics. Its main task is in-depth work with students who have shown a special interest in mathematics. The selection of students for the mathematics club should take into account their special interests, aptitudes and abilities in

mathematics. The plan of the mathematics club is prepared in advance: For example, we can plan the 1st lesson of the mathematics club in this way. In the case of 4th grades;

1. Inventing rebuses
2. Interesting questions about nature
3. Examples and assignments involving numerical expression

4 Examples that the assignment requires

In optional activities, students are not evaluated in the same way as in class. Cards are used as an incentive for them. The use of innovative technologies in elementary mathematics classes increases students' interest in the lesson and motivates the improvement of lesson efficiency.

To sum up, the role of such auxiliary forms is extremely important in increasing students' potential for mathematics. A teacher will achieve great results if he teaches such lessons in a good manner.

**References:**


1. A. Asatova “Forms of auxiliary education in an educational institution”, – 2022.
2. E.E. Jummayev “Elementary mathematics theory and methods”, – 2011.
3. M.E. Jummayev “Mathematics transition methodology”, – 2011.


## MILLIYLIGIMIZ SARI BOSILGAN QADAM


**Nematova Tursuntosh Alisher qizi,**

**Navoiy davlat pedagogika instituti San’atshunoslik fakulteti**

**Professional ta’lim: (libos va gazlamalar) yo‘nalishi**

**2-bosqich talabasi.**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada amaliy bezak san’ati bo‘lgan Nurota kashtalaridan klassik uslubidagi zamonaviy kostyumlarda qo‘l mehnati asosida milliy naqshlarning yaratilishi haqida yoritib berilgan. Nafaqat naqshlar yaratilishi, balki bu naqshlarni tikilish jarayonini ham mukammal tarzda o‘rganish kerakligi ko‘zda tutilgan.



**Kalit so‘zlar:** Kostyum, ayol, klassik uslub, libos, mato, bezak, naqsh, kashtachilik, bigiz, milliy qadriyat, kashtado‘z, san’at, ot-kutyur.



**Annotation.** This article describes the creation of national patterns based on manual labor in classical style modern costumes from Nurota embroidery, which is a practical decorative art. It is intended not only to create patterns, but also to study the process of sewing these patterns perfectly.



**Key words:** Costume, woman, classic style, dress, fabric, decoration, pattern, embroidery, braid, national value, embroiderer, art, horse-couture



**Аннотация.** В данной статье описано создание национальных узоров на основе ручного труда в современном костюме классического стиля из нуротинской вышивки, которое является практическим декоративным искусством. Он предназначен не только для создания выкроек, но и для отличного изучения процесса шитья этих выкроек.


---


**Ключевые слова:** Костюм, женщина, классический стиль, платье, ткань, украшение, узор, вышивка, тесьма, национальная ценность, вышивальщица, искусство, конная мода.


Nurota kashtachilik maktabi shu paytgacha bu zamin ayollarining qo‘l mehnati mahsuli bo‘lgan: so‘zana, nimso‘zana, takiyapo‘sh, yastiqpo‘sh, joypo‘sh, belbog‘, qo‘lro‘mol, peshonabant, zardevor, joynamoz, dastorpech, oynaxalta, choyxalta, choyshab kabi kashtachilik namunalarini yaratayotgan bo‘lsa, endilikda men buni aksini, ya’ni zamonaviy kostyumlarda milliy Nurota kashtalaridan foydalanib klassik uslubda liboslar yaratib kelmoqdaman. Har bir davlatning o‘ziga xos milliy liboslari mavjud bo‘lib, jumladan, o‘zbek xalqining ham milliy liboslari bir necha asrlar davomida butun dunyo xalqlarini hayratga solib kelmoqda. Men bunga afsonaviy Nurota kashtalarini, Marg‘ilon atlas va adras matolarini misol tariqasida aytishim mumkin. Bugungi mavzumizni aynan Nurota kashtalari to‘g‘risida olib borar ekanmiz, uning tarixini bilmasdan turib libos yaratolmaymiz. Kashtachilik asosan 6 ta hududiy guruhlarga, ya’ni maktablarga bo‘linadi. Jumladan, Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent hamda Farg‘ona kashtachiligi maktablaridir. Kashtachilikning yirik markazlaridan biri sanalgan Nurota asrlar mobaynida kashtalarning mukammalligi, aniq ifodaliligi, tasvir aniqligi, o‘simlik naqshlarining

serjilvaligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. XIX asrda Nurota kashtalari gulli guldastalar bilan bezatilib matoning oq foniga tig‘iz to‘ldirilmagan. Nurota kashtachiligi o‘z gullarining serjiloligi bilan ajralib turadi. Kompozitsiyaning bunday turi Nurotada “Chor shohu yak moh” – “4 ta shohu bitta oy” degan ma’noni anglatadi. Shu turdagi so‘zanalarga XIX asrning o‘rtalarida Nurota kashtachiligi tomonidan yaratilgan, hozirgi kunda esa O‘zbekiston Davlat San’at muzeyida saqlanib kelinayotgan ajoyib so‘zana o‘zgacha yengiligi va gulli naqshlarning serjilvaligi bilan ajralib turadi. So‘zana naqishlarining ayrim joylarida guldastali guldonlar hamda guldastaning o‘rtasida anor shaklini ko‘rishimiz mumkin.

Kashtachilik O‘zbekiston amaliy bezak san’ati turlari orasida o‘zining qadimiy an’analariga ega san’at turi hisoblanadi. Kashtachilikning paydo bo‘lishi teridan qilingan kiyimlarda bog‘lam va choklarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Davrlar davomida hunarmandlar toshdan, suyakli bigizlarga, undan metall bigizlarga o‘tish bilan, shuningdek, mato to‘qish, bo‘yash va boshqa ishlar bilan shug‘ullanib kelgan. Nurota kashtachiligining asosiy mohiyatini ochib berish turfa gullar yordamida amalga oshirilgan. Asosan, “Kosagul”, “Tobadoni”, “Guli savsar”, “Guli lola”, “Guli xafrang”, “Panjigul”, “Chinigul”, “Anor”, “Bodom”, “Qalampirnusxa” va “Tovus” singari ramziy va estetik ma’noga ega naqshlar kostyum yaratishda asosiy bezak turi bo‘lib xizmat qiladi. Kashtado‘zlikda keng tarqalgan chok turlariga: bosma, kandaxayol, chinnixayol, xomdo‘zi, yurma, iroqi popur, baxliya va boshqa choklar kirsa, bu choklarni tikish uchun chevarlarimizga igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz, angishvona va chanbarak kerak bo‘ladi.

Nurota kashtalari asosan yorqin rang: oltin, qum, och ko‘k, sariq, qizil, yashil, pushti, olovrang, ya’ni bir so‘z bilan aytganda, issiq rangli iplar yordamida yaratiladi. Kashta tikish uchun nurotalik chevarlarimiz bo‘z, chit, satin, ipak, shoyi, baxmal movut matolaridan keng ko‘lamda foydalanib kelmoqdalar. Men o‘qib o‘rganganlarim va ustozlarim bergan bilimlarga tayangan holda kostyum yaratar ekanman, avvalo, kashta uchun mos mato tanlab, uni kerakli o‘lchamda bichib oldim. So‘ngra bu matoga chiroyli naqshlar chizib, unga mos tushadigan iplar bilan har bir qatim naqshiga jon baxsh etgan holda tikdim. Bu esa mendan oylar mobaynida anchagina mehnatni talab qildi, ammo bu yaratgan klassik uslubdagi milliyligimizni aks etgan zamonaviy kostyum ko‘pchilik hamyurtlarimizni hamda ustozlarimizni nazaridan chetda qolmadi.

Xulosa o‘rnida shularni aytib o‘tmoqchimanki, bizning dunyo tan olgan milliy “Etno” uslubimiz mavjud va u asrlar davomida dunyo xalqlarini hayratga solib kelmoqda, shu boisdan, men ham hech qachon urfdan qolmaydigan zamonaviy klassik uslubida milliyligimizni aks etar ekanman, bugungi kun yoshlarimiz ko‘nglida o‘zimizning milliy urf-odatlarimizni shakllantirish va amaliy bezak san’ati orqali “ot-kutyur” darajasidagi liboslarni yaratish bilan yurtimiz rivojiga hissa qo‘shmoqchiman.








**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Amaliy etika va estetika. O‘quv qo‘llanma.– “Universitet”, 2020. Muallif: La’lixon Muhammadjonova
2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
3. Шавдиров, С. А. (2017). Подготовка будущих учителей к исследовательской деятельности. Педагогическоеобразованиеинаука, (2), 109-110.
4. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
5. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.
6. Soli Tolibovich Sadiyev. O‘RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTABLARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).
7. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS’aRTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.

8. Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C3. – С. 64-66.
9. Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BOʻLAJAK TASVIRIY VA AMALIY San’at O OʻQITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 908-910.
10. Guljamol M. SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 191-197.
11. Tolibovich S. S., Mardonovna M. G. EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 16-19.
12. Amonova, Z. U., & Vosiyeva, A. T. X. (2022). MODELYER DIZAYNERLAR CHIZADIGAN INSON QOMATIDA LIBOSLARGA RANGNING BOSQICHMA--BOSQICH BERILISHI USULLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 269-274.
13. Usmonovna, A. Z. (2023). AMALIY BEZAK San’atI ORQALI OT–KUTYUR YARATISH VA ESTITIK DUNYOQARASHNI SHAKILLANTIRISH. *Journal of Integrated Education and Research*, *2*(10), 49-51.
14. Khamidovna, K. G., & Usmonovna, A. Z. (2022). The Role of Embroidery and Ethno Interaction in Traditional Art Crafts. *Eurasian Scientific Herald*, *7*, 275-278.
15. Aziza Toʻxtaqulovna Vosiyeva, & Zarifa Usmonovna Amonova (2023). TASVIRIY San’at DARSLARIDA OʻQUVCHILARNI KASB – HUNARGA YOʻNALTIRISH. Oriental Art and Culture, 4 (1), 340-343.
16. Amonova Z.U., & Quziboyeva R.A. (2022). BADIIY HUNARMANDCHILIK SOHASIDA KASHTACHILIK TARIXI VA ZAMONAVIY TA’LIMDAGI ETNO OʻZARO TA’SIRI. Экономика и социум, (5-2 (92)), 39-42.
17. Toʻxtaqulovna A. Самарқанд давлат университети (Самарқанд, Ўзбекистан) //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 14-17.
18. A. Vosiyeva USE OF TRANSFORMATION IN THE DIRECTION OF DESIGN AND ITS IMPORTANCE // SAI. 2023. №A4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-transformation-in-the-direction-of-design-and-its-importance (дата обращения: 22.12.2023).
19. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San’at DARSLARIDA O ‘QUV TEXNIK VOSITALAR, ELEKTRON DARSLIK VA MULTIMEDIALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 125-131.
20. Kulmurotovna E. L. TASVIRIY San’atDAGI OQIM VA YO ‘NALISHLARDA KO ‘RGAZMALILIK, ILLUSTRATSIYA VA REPRODUKSIYALARNI TASHKIL ETISH //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 1. – С. 132-138.
21. Эсанова Л. К. Использование нетрадиционных техник в изотворчестве дошкольников //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 632-638.

# BOSHLANGʻICH SINF OʻQISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA OʻQUVCHILARNING IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USUL VA VOSITALARI

**Mirzoyeva Maftuna Husnitdinovna**
**Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti**
**Ilmiy rahbar: f.f.f.d.(PhD) Ravshanova R.X.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatini oʻqish darslarida rivojlantirishning asoslari haqida soʻz yuritilgan. Ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi bir nechta metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** ijodiy fikrlash, tasavvur, innovatsiya, usul, kompetensiya, texnologiya

**Аннотация.** Артикл обсуждает основы методики для развития творческого мышления учеников на уроках в начальном классе. Несколько методолические советы для творческого улучшения учеников привиден в артикле.

**Ключевые слова:** творческий мышление, инновация, метод, компетенция, технология.
**Abstract.** This article discusses the ways to improve creative thinking skills of primary school students during the classes. The several methods to enhance creativive thinking are given in the article.
**Key words:** creative thinking, innovation, method, skills, technology.

Bugungi kunda butun dunyoda o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida ijodkorlik qobiliyati insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa, san’at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo‘ldi. Ijodiy fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Ijodiy fikrlash qobiliyatlari odamlarga innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish, muammolarga noyob yechimlarni topish va muammolarga yangi nuqtayi nazar bilan yondashish imkonini beradigan aqliy qobiliyat va usullar hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, ijodiy fikrlash qobiliyatlari ijodkorlik uchun vosita to‘plami bo‘lib, o‘ziga xoslik va qobiliyat bilan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Ijodiy fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo‘lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi[1]. Ta’limning vazifasi o‘quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Shuning uchun ular globallashuv jarayonida tez o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan va hozirgi zamon talablariga ega moslashuvchan ishchilarni dunyoga moslashishiga yordam beradi. Ijodiy fikrlashni o‘quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan sektorlarda ishlash, shu qatorda mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechish qobiliyatlari rivojlanadi. Maktablarda ham o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga bo‘lgan ehtiyoji maktab bozori talabidan kelib chiqqan holda ortmoqda. Bu ehtiyojni qondirish maqsadida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yaratilgan yangi darsliklarda ijodkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Xususan, 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligida har bir o‘tilgan mavzuga doir mantiqiy topshiriqlar berilgan. Masalan, darslikning II qismida Quddus Muhammadiyning “Do‘st do‘stga oyna” she’ridan so‘ng bir nechta rasmlar orasidan she’r muallifini topish so‘ralgan yoki do‘stlikka oid maqolning ko‘zgudagi aksi berilgan bo‘lib maqolning o‘zini topish topshirig‘i berilgan[2]. Bundan asosiy maqsad o‘quvchiga yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishishdan iborat. Ijodkorlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘p qirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi[3]. O‘tgan asrning 60-yillaridan buyon ijodkorlik, ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalarini o‘rganish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning yana bir qancha usullari mavjud. Masalan, ularda kundalik muammolarga noan’anaviy yechimlarni o‘ylab topishni mashq qildirish yoki muammoga turlicha yondashishni o‘rgatish mumkin. Har bir mavzu o‘tilgandan so‘ng o‘sha mavzuga doir ijodiy matn, she’r yoki hikoya yozishlarini topshiriq sifatida berish mumkin. Eng muhimi, ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun doimiylikka e’tibor qaratish lozim. Zero, ijodkorlik ham uzoq vaqt davomidagi amaliyotlar natijasida rivojlanadi. Bizning tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan dunyomizda moslashish juda muhimdir. Ijodiy fikrlash qobiliyatlari yosh avlodga ko‘proq moslashishi uchun yordam beradi, chunki ular o‘zgarishlarga duch kelganda yangi g‘oyalar va strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin. Ular ilm-fan, texnologiya, san’at yoki biznes sohalarida innovatsiyalarni boshqaradi. Bu yangi ixtirolar va yangi g‘oyalar ortida turgan vosita hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarshiyeva D. K. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o‘rni – Молодой ученый. 2023. № 2 (449). – 500-505-b. URL: https://moluch.ru/archive/449/98832/
2. Aydarova A.B, Azizova N.K, Toirova M.E “O‘qish savodxonligi”. 4-sinf Darslik. Toshkent: Novda, 2023. – 79 b.

3. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya”. O`quv qo‘llanma Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 270 b.

## SAMARQAND JADIDCHILIGI TARIXIDA HOJI MUIN FAOLIYATI

**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Tarix fakulteti “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi**
**Muftillayeva Umida Tohirovna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadidchilik faoliyati tarixida Samarqand jadidchiligida va Behbudiy harzatlari Shakuriy domlo hamda o‘z o‘rniga ega taraqqiyparvar Hoji Muin hayoti va faoliyati va uning amalga oshirgan ishlari matbuot sohasida faolyati dramaturg sifatida yozilgan asarlar va ushbu asarlarda o‘sha davr muammolarining yoritilishi xususida ma’lumotlar keltirilgan**.**

**Abstract.** In this article, in the history of Jadidism, the works written in the Samarkand Jadidism and Behbudi harzat Shakuriy Domlo and the prominent progressive Haji Muin, as well as his work as a playwright, and the problems of that time are covered in these works. information is provided

**Абстрактный.** В данной статье по истории джадидизма освещаются произведения, написанные в Самаркандском джадидизме и Бехбуди харзате Шакурий Домло и выдающимся прогрессивистом Хаджи Муином, а также его творчество как драматурга, а также проблемы того времени, освещенные в этих произведениях. информация предоставлена.

**Kalit so‘zlar:** Jadidchilik, Samarqand jadidchiligi, Behbudiy, Shakuriy, Hoji Muin, eski maktab, yangi maktab, jadid dramaturgiyasi, jadid matbuoti, “Taraqqiy” gazetasi, “Mehnatkashlar tovushi”, “Tayoq”gazetasi, “Oyna” jurnali

**Key words**: Jadidism, Samarkand Jadidism, Behbudi, Shakuri, Haji Muin, old school, new school, modern dramaturgy, modern press, "Taraqqi" newspaper, "Mehnatkashlar sukki", "Tayoq" newspaper, "Oyna" magazine.

**Ключевые слова**: джадидизм, самаркандский джадидизм, Бехбуди, Шакури, Хаджи Муин, старая школа, новая школа, современная драматургия, современная пресса, газета «Таракки», «Мехнаткашлар сукки», газета «Тайок», журнал «Ойна».

Jadidchilik harakati bugungi kunimizda kun tartibidagi dolzarb o‘rganilishi zarur bo‘lgan masalalardan biri, chunki buni zamonning o‘zi talab qilmoqda va bizdan bunga munosib javob kutmoqda. Prezidentimiz 2020-yil 30-sentyabrda imzolagan “Ma’rifatparvar jadidlik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Farmonda jadidlar faoliyati yuksak darajada baholandi. “Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tataristonda yuzaga keldi. Qator ma’rifatli shaxslarning yangi siyosiy va ijtimoiy g‘oyalarni ilgari surishi jadidlik harakatiga asos soldi. “Jadid” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “yangi” degan ma’noni anglatadi. Bu davrda boshlangan yangi siyosiy, ma’rifiy va ijtimoiy jarayonlar jadidlik yoki taraqqiyparvarlar harakati deb nomlandi. Harakat asoschisi qrimlik Ismoilbek Gaspirinskiy edi”.[84] Jadidchilik harakati keyinchalik mintaqaning boshqa hududlarida ham keng yoyila boshladi. Xususan, XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston mintaqasidagi jarayonlarda jadidlik harakati muhim ahamiyat kasb etdi va qator ilg‘or g‘oyalar ilgari surildi. O‘sha vaqtda Turkiston aholisining moddiy ahvoli og‘ir bo‘lib, xalq orasida savodsizlik, diniy mutaassiblik keng tarqalgan edi. Jadidlarning fikriga ko‘ra, xalqni g‘aflat uyqusidan uyg‘otishning yagona yo‘li ularni ma’rifatli qilish edi. Bu yo‘lda yangicha tuzum va tartiblarni joriy etish, yangi usul maktablarini ochish va insonlarni ilg‘or jahon tajribasidan voqif qilish lozim edi. Shu bois jadidlik harakatining mohiyati millat va jamiyatning tafakkurini yangi bosqichga olib chiqishdan iborat bo‘lgan. Ularning fikricha, milliy ozodlik kurashida qurol emas, balki xalqqa ma’rifiy bilim berish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ular 1906-yildan boshlab “Taraqqiyot” nomli gazeta chop eta boshladilar. Asosiy g‘oya xalqni milliy istiqbolga tushib qolmaslikni oldini olish bo‘lgan. Jadidlar turkistonning turli shaharlarida jadid maktablarini ochib diniy ilm bilan birga dunyoviy bilimlarni, jumladan, tabiiy bilimlarni targ‘ib qila boshlashdi. Ular uchun asos qurol ilm va ma’rifat bo‘lib, ular maktab, maorif

[84] https://www.bukhari.uz/?p=22483&lang=oz

va ta’lim tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi, uni rivojlantirish bilan amalga oshirish kerakligini e’tirof etdilar. ”Men o‘zum ham o‘zumg‘a qarashlik o‘nta-o‘n beshta bolalarni eski maktabda hech bahra topmay, behuda yurduqlarina jonim achib, Qozon tarafinda bir muallim jalb edub, maktab qilib verdim. Maktabning kushodig‘a uch oy bo‘lgani yo‘q. Yigirmadan ziyoda kichik bolalar «alif nima?» degan savolina «kaltak» deb javob beruvchilar tamom savodi chiqib, har narsani yozadurg‘on bo‘ldilar. To‘rt-besh va yetti-sakkiz sanalar Qo‘qong‘a yurub, hech narsa bilmagan mullabachalar bitamomihi arabiy mukolamag‘a qodir bo‘lib, har bir kitoblarni mutolaa etadurgon bo‘ldilar. Shul sababdin biz ko‘zumiz ila tajriba qilib, bul o‘qutishga tamom ixlos qildik. Agar Rusiya ilmlarini bilmak darkor bo‘lgan holda, o‘shal maktablarda Rusiya muallimlaridin saqlab, biror dars Rusiya ilm va zabonidan ta’lim berilgan holda ancha naf' olur edilar”.[85]Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi. “Jadidlar o‘z hisoblaridan maktablar ochib yosh avlodni istiqlolga tayyorladilar, she’r va maqolalar sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirish milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirishga urinadilar”.[86]

Xususan, Samarqand jadidchilik maktabi haqida gapiradigan bo‘lsak, albatta, bu o‘rinda, avvalo, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Shakuriy, Ajiziy va albatta, Behbudiyga haqiqiy izdosh do‘st, shogird uning ishlarini davom ettirgan Hoji Muin Shukrullo o‘g‘lini ham alohida ta’kidlashimiz joizdir. Samarqand jadidchiligi rahnamosi Mahmudxo‘ja Behbudiydir. Xalq orasida uni “Jadidchilar otasi” deyishgani bejiz emas, albatta. “Behbudiy afandi 1901-yildan boshlab qo‘liga qalam olib xalqni uyg‘otishga kirishgan va umrining oxirigacha Turkistonning yangilik va yuksalishiga xormay-tinmay, talashib-tortishib xizmat qilgan birdan-bir fidokorimiz yo‘lboshchimiz edi”[87]. Samarqand jadidchilik tamal toshini qo‘ygan buyuk ma’rifatparvarimiz Vatan mustaqilligi xalqini savodxonlik qilish yo‘lida jonini fido etdi. Uning faoliyati to‘xtab qolmadi, aksincha, juda reaksiv darajada shogirdlari tomonidan davom ettirdi, xususan, Hoji Muin tomonidan amalga oshirildi. Behbudiy haqida so‘zlaganimizda, albatta, uning ishlarining davomchisi bo‘lgan Hoji Muin faoliyati ham Samarqand jadidchiligida juda yorqin iz qoldirgan. Achinarli taqdir egasi milliy uyg‘onish davrida Samarqand adabiy muhitining sermahsul ijod qilgan vakillaridan edi. Asli ismi Hoji Muin ibn Shukrullo bo‘lib, Samarqandning Ruhobod mavzesida 1883-yil 19-martda dunyoga kelgan. 1890-yil otasidan, 1895-yil onasidan erta yetim qolgan Hoji Muin 12 yoshidan boshlab bobosi qo‘lida qoldi. Eski maktabda ta’lim olgan. Ustozi Vasliydan arab nahvini o‘rgangan. “1901-yil o‘qituvchilik faoliyatini boshlagan. Behbudiy, Ajiziy, Shakuriy domlolar ta’sirida 1903-yil o‘z uyida maktab ochadi”[88]. Rus tilini, Yevropa madaniyatini mustaqil o‘zlashtirgan. 1903-yili o‘z mahallasida usuli jadid maktabi ochgan. Ilg‘or jadid muallimi sifatida tanilgan. “Rahnamoi savod” alifbe darsligini yozgan.U “Nahif” (Ojiz), “Mehriy” taxalluslari ostida ijod qilgan. 1913-yildan Behbudiyning “Samarqand” gazetasida va “Oyna” jurnalida ishlay boshlagan. 1914-yili “Tarbiyat” nomi bilan o‘z uyida yana bir bor xususiy usuli jadid maktabi ochgan. Hoji Muin 1910- yillardan boshlab o‘zbek va tojik tilidagi she’r va maqolalari bilan matbuotda ko‘rina boshlaydi. 1914-yili “Guldastai adabiyot” she’riy to‘plami bosilib chiqadi. 1917-yildan Abdurauf Fitrat bilan birga “Hurriyat” gazetasida faoliyat ko‘rsatadi. 1918-yil 11-iyunida “Mehnatkashlar tovushi” gazetasini yo‘lga qo‘ydi. Unda mas’ul muharrir bo‘lib ishlaydi. 1922-yildan “Zarafshon” gazetasining tahrir hay’atida, 1924-yilning 1-iyunida “Mashrab” kulgili jurnaliga asos soladi va faoliyat yuritadi. 1926-yili “Ovozi tojik” gazetasiga adabiy xodim va musahhih bo‘lib o‘tadi. “Hoji Muin 1890-yil

[85] https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/ishoqxon-ibrat-eski-maktablar-xususida-1907

[86]M.Behbudiy.” Tanlangan asalar”.T.Ma’naviyat.2006y.b-6

[87] Hoji Muin.” Mahmudxo’ja Behbudiy”. “Zarafshon” gazetasi. 1923 yi. 25-mart.

[88] Begali Qosimov. “Hoji Muin qismati”. O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 202-yil 19-iyul.b-4

Samarqand jadidchilarining yorqin vakili, Turkiston jadidchiligining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan tanishadi shu tarida buyuk allomani o‘ziga ustoz deb biladi”[89]. Hoji Muin Behbudiyga bag‘ishlangan har bir maqolasi uni o‘zgartirgan fikrini teranlashtirgan shaxs ustozi Behbudiy hazratlari ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ustozi o‘limidan qattiq qayg‘uga tushgan Hoji Muin har yili ustoz tavalludida maqolalar chiqardi. Hoji Muindek fidokor vatanparvar shogirdlar Behbudiyning matbuot sohasida jadid maktablari faoliyatlarini yuritish va albatta, dramaturgiya yo‘nalishidagi haqiqiy izdoshi bo‘lib uni davom ettirdi. Buni, albatta, Hoji Muinning Behbudiyga bag‘ishlangan maqolalarida ham ko‘rish mumkin. Aynan Hoji Muin yozgan maqolalari hozirgi kunda ham Behbudiy hazratlari bo‘yicha qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.Hoji Muinning o‘z davrida Matbuotda o‘z davrida yetuk jurnalist faoliyatini olib bordi. “Oyna” jurnali, “Hurriyat” gazetasida, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida hamda “Tayoq”, “Mashrab” kabi jurnallarning birinchi muharriri va tashkilotchisi sifatida ham tarixda qoldi. Hoji Muinning, albatta, tarjimonlik faoliyati ham alohida uni e’tirof etadigan faoliyatlaridan biridir. “Ma’rifat uchun faqat ta’lim kifoya qilmasdi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo‘lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda qaboxatni ham malohatini ham ko‘rsin. Mana shunday hayotiy ehtiyoj va zaruriyat tufayli bu harakat tarafdorlari teatr san’ati tomon yuz burdilar”.[90] Jadid taraqqiyparvarlarining birinchi dastagi bu jadid maktablari bo‘lsa, keyingisi matbuot bo‘ldi, ular to‘g‘ri deb bilgan xalqqa tushuntirishning yana bir yo‘li bu teatr edi. ”Xalqimiz hozirgi davrda san’atni, ayniqsa, Ovropa san’atini xohlamaydir. Xalqimizda, faqat tomosha va ko‘ngil ochib rohatlanmoq zavqi bor dedik. Haqiqatan, xalqimiz teatrudan faqat “tomoshanigina” kutadur”.[91]

Jadid teatrchilik harakati “Padarkush” dan boshlandi, uni yozgan Behbudiyni esa jadid teatrining tashkilotchisi va asoschisi deb hisoblash kerak. Behbudiyning bu sa’y-harakati bilan Sharq teatridan yangi bosqich jadidchilik teatrini boshlab berdi. “Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hoji Muin Shukrullo o‘g‘li, Abdulla Badriy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Xurshid, G‘ulom Zafariy, G‘ozi Yunus … o‘z davrining yetakchi bilimli ziyolilari bo‘lmish bu allomalarning o‘z asarlari orqali zamonning eng ilg‘or g‘oyalarini tarannum etganlar, ibodatxona orqali ularni xalqqa tezroq yetqazishgan”.[92] Hoji Muinning dramaturg sifatida biladigan bo‘lsak, bu yo‘nalishda ham, albatta, Behbudiyning “Padarkush” dramasidan ilhomlangan yozuvchi o‘zining dramalarida sahna asarlarida, albatta, xalqning achchiq dardini og‘ir qismatini yoritib ochib berishga harakat qilgan. Hoji Muin faoliyatining o‘ta muhim va salmoqli qismini uning dramaturgiyasi tashkil etadi. XX asr boshlarida tatar va ozarbayjon teatri ta’sirida Markaziy Osiyoda ham sahna asarlari yozishga qiziqish kuchayib ketdi. M.Behbudiy 1911-yili “Padarkush” dramasini yozib, uni ko‘p qiyinchiliklardan keyin 1913-yili chop ettirdi va o‘zbek dramaturgiyasi poydevorini qo‘ydi. Hoji Muin o‘z davrida “Mazluma xotun”, “Juvonbozlik qurboni”, “Boy ila xizmatkor”, “Qozi ila muallim”, “Eski maktab yangi maktab”, “Ko‘knori” kabi sahna asarlarini yozdi. Dramaturgiya sohasida ham Behbudiy hazratlarini ustoz deb bilgan Hoji Muin ilk bor ustozi siymosini “ Maorif qurbonlari” nomli asari orqali olib chiqdi. Muinning har bir dramatik asarida xalq ulkan bir dardi muammosi xalq ommasiga asar qahramonlari orqali olib chiqildi. Sharq teatrida jadidchilik yo‘nalishini Behbudiy boshlab bergan bo‘lsa, bu yo‘lni Hoji Muindek xalq qahramonlari davom ettirib, o‘zbek teatrining ma’rifatparvarlik davrini bunyod etdilar desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Hoji Muin har bir maqolasida o‘sha davrning achchiq muammolarini yoritib berishga harakat qilgan. Barcha jadidchilar singari Hoji Muinning ham eng muhim maqsadi va orzusi Turkiston mustaqilligi va xalqimizning azaliy orzusi hurlik adolat va tenglik edi. Mustaqillik yo‘lida eng asosiy qadam bu bizning milliy ta’lim tizimizdagi islohotlar edi. Maktablarni eskicha fikrlaydigan mutaassiblardan tozalab, zamonaviy ham dunyoviy ham diniy bilimlarni beradigan yangi usuldagi maktablarni ochish asosiy islohot ekanligini, ayniqsa, “Eski maktab yangi maktab” dramasida ochib berishga harakat qilgan.

[89] Jamolova.D. “ Millat kuyunchagi”. Xalq so’zi . 2022-yil 19-mart.b-8
[90] Rahmatullayeva.D. “ Tarix va teatr”. “ G’afur G’ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi“. Toshkent. 2022y.b-18
[91] O’zbek teatrusi// “Turkiston”,1922,22sentabr
[92] Rahmatullayeva.D. “ Tarix va teatr”. “ G’afur G’ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi“. Toshkent. 2022y.b-27-28

Hoji Muin tarjimon sifatida ham o‘z faoliyatini olib bordi. Ayniqsa, Abdurauf Fitratning “Munozara” asarini fors tilidan turkiy tilga tarjima qildi. Hoji Muin asarning kirish qismida shunday fikrlarni keltiradi: ”Bundan ikki yil ilgaru buxorolik Fitrat afandining “Munozara” nomli risolasi matbuotda qo‘limga tushdi. Mundarijasi nihoyatda ibratli bo‘lgani uchun turkistonlik turli qorindoshlarim masfiyat bo‘lsinlar deb Turkiston shevasi turkiychasiga tarjima qildim”.[93]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Hoji Muin nafaqat Samarqand jadidchiligi faoliyatida, balki butun Turkiston jadidchilik tarixida o‘z o‘rniga ega millati oldida mehnati beqiyos bo‘lgan taraqqiyparvarlardan hisoblanadi. Hayotning achchiq qismati tufayli 3-marotaba surgunga mahkum bo‘lgan yurt fidoyisi 1938-yilgi surgunda 10 yilga mahkum etilib surgunning 4-yili surgunda Vatandan yiroqda vafot etadi. 1963-yil Hoji Muin oqlanadi. Mustaqillik, ayniqsa, hozirgi kun jadidchilarimiz faoliyatiga yuqori darajada e’tibor berilayotgan bu davrda Hoji Muin faoliyati ham chuqur o‘rganilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. A.Fitrat. “Munozara”. Toshkent.Tipo-Litografiya-Ilina. 1913.
2. Begali Qosimov. “Hoji Muin qismati”. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 202-yil 19-iyul.
3. Hoji Muin.”Mahmudxo‘ja Behbudiy”. “Zarafshon” gazetasi. 1923 yi. 25-mart.
4. Jamolova.D. “Millat kuyunchagi”. Xalq so‘zi . 2022-yil 19-mart.
5. M.Behbudiy.”Tanlangan asalar”.T.Ma’naviyat. 2006.
6. Otajon Hoshim. “25 yillik pedagog”. Maorif va o‘qituvchi. 1926-yil aprel.
7. Rahmatullayeva.D. “Tarix va teatr”. “G‘afur G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi“. Toshkent. 2022.
8. O‘zbek teatrusi// “Turkiston”,1922,22sentabr
9. https://www.bukhari.uz/?p=22483&lang=oz
10. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/ishoqxon-ibrat-eski-maktablar-xususida-1907


## ZAMONAVIY ELEKTRON TIJORAT BOZORINI YARATISHDA TA’LIMNING O‘RNI


**Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqosimjanovna**
**Andijon mashinasozlik instituti,**
**“Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi**
**Muhammadqosimjonova Saodatxon Mansurjon qizi**
**Andijon mashinasozlik instituti,**
**Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi yo‘nalishi**
**1-kurs k-22.23-guruh talabasi**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy tijorat bozorining xususiyatlari haqida ma’lumotlar ko‘rsatilgan. Elektron bozor tushunchasi va uning axborot telekommunikatsiyalari orqali to‘g‘ri bog‘lanishi, xaridorlarni jalb qilish va yana bir qancha ma’lumotlar keltirilgan.



**Kalit so‘zlar:** elektron bozor, elektron bozor maydonlari, elektron magazin,elektron do‘kon, elektron birja, elektron auksion, elektron xizmat turlari,elektron bozorda bank xizmati,elektron to‘lovlar: debet va kredit, naqd pul to‘lovlari, elektron pul.



**Аннотация.** В данной статье представлена информация об особенностях современного коммерческого рынка. Даны понятие электронного рынка и его собственно коммуникация посредством информации и телекоммуникаций, привлечение покупателей и некоторая другая информация.



**Ключевые слова**: электронный рынок, электронные рынки, электронный магазин, электронный магазин, электронная биржа, электронный аукцион, электронные услуги, банковские услуги на электронном рынке, электронные платежи: дебет и кредит, наличные расчеты, электронные деньги.


[93] A.Fitrat. “Munozara”. Toshkent.Tipo-Litografiya-Ilina. 1913. B-2

**Abstract:** This article provides information about the features of the modern commercial market. The concept of the electronic market and its actual communication through information and telecommunications, attracting buyers and some other information are given.
**Key words**: electronic market, electronic market areas, electronic store, electronic store, electronic exchange, electronic auction, electronic services, banking services in the electronic market, electronic payments: debit and credit, cash payments, electronic money.
Elektron bozor deb uning ishtirokchilari va axborot strukturalari hamda telekommunikastiya texnologiyalari tizimlari sharoitida ma'lum qonuniyatlar bilan xarakterlanadigan ishtirokchilar, ularning o'zaro ta'sir jarayonlari majmuasi tushuniladi. Elektron bozor an'anaviy jismoniy bozorga nisbatan ancha mukammal raqobat bilan xarakterlanadi. Elektron bozorda xaridor va sotuvchilarning katta soni ishlaydi, yangi ishtirokchilarning bozorga chiqishiga hech qanday to'siqlar yo'q, barcha ishtirokchilar axborotdan erkin foydalanadi.
Zamonaviy bozorda faoliyat yurituvchi hamma korxonalarni ularning elektron bozorga bo'lgan munosabatiga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin:
1. An'anaviy (brick-and-mortar) kompaniyalar – ular real, jismoniy bozorda faoliyat ko'rsatib, ma'lum vaziyatlar majbur qilmasa, elektron bozorga murojaat qilmaydilar.
2. Aralash (slick-and-brick) korxonalar – ular o'z faoliyatlarining bir qismini internet orqali amalga oshiradilar. Bunday korxonaar faoliyatni ko'rib chiqayotganda elektron biznesning qo'llanishi ularga nima berishini aniqlash juda muhim.
3. To'liq elektron (click-only) korxonalar – ular faqat internetda mavjud. Bunda ularning paydo bo'lishi sabablarini va ularning foydani qanday olishlarini tushunish juda muhim.



**1-rasm. Elektron bozor tuzilishi**

Bugungi kunda B2C sektoridagi virtual savdo maydonchalarining quyidagi turlari mavjud:
• WEB - vitrinalar;
• Elektron do'konlar;
• Elektron savdo qatorlari;
• Savdo – Internet – tizimlari;
• Aukstionlar (kim oshdi savdolari).



**2-rasm. Bugungi kundagi B2C sektoridagi virtual savdo maydonchalarining turlari.**




**3-rasm. B2C elektron tijorat tranzaksiyalari**

WEB - vitrinalar – bu aytarli katta bo‘lmagan WEB bo‘limlaridir. Odatda ular kichik biznes kompaniyalariga tegishlidir. Bu saytlardagi savdo hajmi odatda uncha katta bo‘lmaydi va bir kunda bir nechtadan to o‘ntagacha bo‘lgan savdo ishlarini amalga oshiradi.

WEB - vitrinalarning asosiy komponenti tovarlar va xizmat turlari qayd etilgan kataloglar (prays-list) hamda xaridorlardan buyurtma to‘plash tizimidir. Saytda to‘planadigan barcha buyurtmalar sotuvchilar kompaniyasining elektron pochta manziliga yuboriladi. So‘ngra sotuvchi ularni odatiy biznes tadbirlarida ko‘rib chiqadi. “WEB-vitrinalar shunisi bilan ajralib turadiki, ular Internet savdoda rivojlangan boshqaruv tizimiga ega emas. Biroq vitrinalarni tashkil etish yuzasidan mavjud qarorlar WEB-katalogga EXSEL – jadvallar va elektron pochtalardangina foydalangan holda osonlikcha o‘zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Natijada, bu ish maxsus tayyorgarlik talab qilmaydi va buni menejer WEB-dizayner va programmist yordamisiz ham bajarish mumkin, Shu tufayli bu kabi tizimlar ishlab chiqarish va ekspluatastiyada arzon tushadi. WEB-vitrina tashkil etishning hozirgi narxi 99-200 $, uni kuzatib borish esa oyiga 50 $ dan to‘g‘ri keladi.

Elektron do‘kon, elektron birja, elektron auksion, elektron xizmat turlari, elektron bozorda bank xizmati haqida batafsil tushunchalar. Elektron do‘konlar – bu kichik va o‘rta biznes kompaniyalarining savdo saytlaridir. Ular WEB-vitrinalarga nisbatan kattaroq hajmdagi savdoga mo‘ljallangan va shunga yarasha nisbatan murakkabroq tizimga ega.




**4-rasm. To‘g‘ri elektron do‘kon ochish va uni yurgazish uchun eng ommabop internet saytlar**

Internet-do‘kon 3 qismdan iborat:

1. Virtual savdo zali: u o‘zida vitrina, katalog, tovarlar ro‘yxati, buyurtmani hujjatlashtirish tizimi, do‘kon va savdo kompaniyasi haqidagi ma’lumotlar va boshqalarni mujassamlashtiradi.

2. Virtual bloki-Internet do‘konning menejerlar ishlaydigan qismi. Shu blok orqali Internet-do‘konni boshqarish amalga oshiriladi, ya’ni ma’lumotlar bazasidan eski tovarlarni o‘chirib tashlash yoki bazaga yangi tovarlar haqidagi ma’lumotni kiritish, tovarlar katalogini konfigurastiyalash, narxini belgilash, tovar narxini chegirish, dilerlar yoki doimiy xaridorlar uchun turli diskant sxemalar, shuningdek Internet-do‘kon ombori holati nazorat qilib turiladi. Undan tashqari, menejer interfeys boshqaruvi orqali Internet-do‘kon omborini to‘ldirish uchun yangi

tovarlar olishga buyruq berish, tovarlar va xaridorlar haqidagi turli statistik ma’lumotlar olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

3. Ma’lumotlar bazasi – tovarlar, buyurtmalar, xaridorlar haqidagi barcha ma’lumotlar to‘planadigan omboridir. Shuningdek, unda Internet-do‘konning hamma yo‘nalishlari, buyurtmalarini olish va sotishni tashkil qiluvchi biznes qoidalarning barcha turlari mavjud.Internet-do‘konlar barcha savdo-sxemalaridan foydalanishi mumkin:

• to‘g‘ridan-to‘g‘ri ombordan savdo qilish, buyurtmalar qabul qilish; tashkilotlar va alohida shaxslar bilan savdo qilish; xizmat turlari, ma’lumotlar bilan savdo qilish va h.k.
• elektron do‘konlarning narxi uning xususiyatlari, tashkil etilishi va kuzatib borilishiga qarab, WEB-vitrina bahosidan bir-ikki pog‘ona yuqori bo‘lishi mumkin;
• elektron savdo qatorlari - WEB tarmoqlar, ya’ni ularda birdaniga bir nechta WEB-vitrinalar, Internet do‘konlar joylashgan, xaridorlarga qulay bo‘lishi uchun do‘kon va vitrinalar integrastiyalashgan kataloglar va interfeyslarga ega bo‘lishi mumkin.

Savdo Internet tizimlari (SIT) – elektron tijoratning maxsus tizimlari bo‘lib, yirik savdo kompaniyalari, korporastiyalar, xoldinglar, ishlab chiqarish korxonalarining ta’minot va mahsulotni sotish bo‘limlari mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bu tizim Internet-do‘kondan o‘zining avtomatlashtirilgan savdo tizimi bilan bevosita aloqasi, korxona resurslarini boshqara olishi va shu bilan kompaniyalarning tashkil topib bo‘lgan biznes jarayoni qatoriga o‘tgani bilan ajralib turadi.

Ishlab chiqaruvchi SIT tarkibidagi tizimlarni o‘zining distribyutor va reseller tarmog‘i orqali, distribyutor esa, o‘zining dillerlik tarmog‘i orqali boshqarishi mumkin.




**5-rasm. Elektron biznes texnologiyalari (ta’minot)**

Elektron biznes texnologiyalarining asosiy tushunchalaridan biri bu – Aukstion – WEB-sayt, bunda istagan talablar xohlagan tovarni o‘zi belgilangan boshlang‘ich narx orqali sotuvga qo‘yishi mumkin. Belgilangan muddat tugagach, sotuvchi shu tovar uchun eng yuqori narx taklif etgan xaridor bilan bog‘lanishi va an’anaviy tarzdagi savdo-sotiq ishini amalga oshirishi mumkin.

Elektron to‘lovlar: debet va kredit, naqd pul to‘lovlari, elektron pul tushunchalari haqida batafsil ma’lumot. Elektron to‘lov tizimi yoki elektron to‘lov tizimi bu moliya tashkilotlari, biznes tashkilotlari va Internet foydalanuvchilari o‘rtasida Internet orqali tovarlar sotib olish va sotish paytida to‘lovlarni amalga oshirish tizimidir. Bunday tizimlar an'anaviy to‘lov tizimlarining elektron variantidir va quyidagilarga bo‘linadi:

1. Debet (elektron cheklar va raqamli naqd pul bilan ishlash);
2. Kredit (kredit kartalari bilan ishlash).

Elektron biznes va korxona strategiyasi.

Elektron biznes, internet, axborot texnologiyalari korxonaning barcha muammolarini yechishga qodir panastiya (omil, vosita) hisoblanmaydi. Lekin shunchaki marketing vositalaridan biri emas. Internetga chiqish va u yoki bu elektron biznes modelini qo‘llash borasida korxona yoki tashkilot tomonidan mavjud strategiya asosida qaror qabul qilinadi. Aynan ana shu strategiya navbatdagi texnika yangiligini qo‘llash bo‘yicha korxonaning tadbirlari tartibini belgilashi kerak. Bunda korxona yuqori boshqaruvining o‘rni juda katta.

Korxonaning internet strategiyasi umumiy marketing strategiyasining bir qismi hisoblanadi. U o‘z strategik maqsadlariga erishish uchun shu korxona tomonidan internet vositalari va imkoniyatlarini qo‘llashni asoslaydi. Internetga chiqish moda yoki barcha korxonalar elektron biznesni ishlatayotgani bilan tushuntirilishi mumkin emas. Korxonaning bunday qaror qabul qilishi uchun keskin sabablari bo‘lishi lozim. Bunday sabablarga quyidagilarni kiritish mumkin:
– Jismoniy bozorda raqobat o‘sishi;
– Raqobatchilar, iste’molchilar, hamkorlar tomonidan yangi texnologiyalarning qo‘llanishi;
– Elektron biznesni qo‘llaydigan yangi iste’molchilar segmentiga chiqish istagi.
– Yangi kanalni qo‘llab, mavjud mijozlar xaridlarini kengaytirish intilishi;
–Kutishlarni, operastiya bajarish vaqtini kamaytirishga intilish v.h.
O‘z faoliyatida internetni ishlatayotgan korxonalarni (brick-and-click) elektron biznesni qo‘llash maqsadi va sabablariga bog‘liq holda, bir nechta kategoriyalarga bo‘lish mumkin:
– Jismoniy yoki elektron tovar yoki xizmatlar sotish orqali qo‘shimcha daromad olishga intiluvchi korxonalar. Bu kataloglar bo‘yicha va chakana savdo bilan shug‘ullanadigan jismoniy tovar sotuvchilari bo‘lishi mumkin. Ular kataloglarni internet orqali tarqatish, o‘z tovarlari haqida axborot havola etish, buyurtmalar olish v.h.larga qaror qiladilar. Xuddi shu kategoriyaga bozor strategiyasini ta’minlovchi dallollar (ma’lum bir biznes sohasidagi dallollar, aukstionerlar v.b.) ni kiritish mumkin.
– Biznesning turli sohalarida bitimni amalga oshirish muddatini qisqartirish va kutilmalarni pasaytirishga intiluvchi korxonalar: tovarlarni taqsimlash, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda, yangi tovarlarni yaratish, axborotni tarqatish, fondlar aylanishi sohalarida.
– O‘z savdo markalarini yaratish va mustaxkamlashga intiluvchi korxonalar;
– reklama yurgizish;
– mijozlar bilan doimiy aloqani amalga oshirish;
– yangi tovarlar haqida axborot tarqatilishi;
– tashkilot siyosatining o‘zgartirilishi;
– mijozlar v.b. maqsadli auditoriyalar o‘rtasida muhokamani amalga oshirish;
– korxona mijozlari bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatish tizimi doirasida iste’molchilar bilan doimiy suhbatni amalga oshirish uchun Internetni qo‘llaydilar.

An’anaviy bozorda bo‘lganidek, elektron bozorning asosiy ishtirokchilari tashkilot, ta’minotchilar va tovar, xizmatlarni iste’mol qiluvchilardir. Elektron bozorda korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun u rivojlangan korporativ axborot tizimiga ega bo‘lishi kerak. Bu tizim asosiy biznes jarayonlarni qo‘llab-quvvatlanadi va internetga chiqish uchun kichik tizimga ega. U orqali elektron biznes sohasida tashkilot o‘z vazifalarini amalga oshiriladi.

Web-vakolatxona odatda korxona haqida axborotga ega bo‘ladi: uning rivojlanish tarixi, yangiliklar va press-relizlar, korxona tomonidan taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning asosiy ko‘rinishlari haqida ma’lumot, vohadagi faoliyati haqida axborot, distribyutor va diler tarmoqlari v.h.

Tashkilot to‘liqligicha elektron biznes vazifalarini amalga oshirish uchun korporativ portallar (EIP – Enterprise Information Portal – dasturiy apparat kompleksi) yaratadilar. Ular ishchilar, mijozlar, hamkorlarga tashkilotning turli axborot resurslaridan erkin foydalanishga imkon yaratadi. Bu axborot resurslari: dasturlar, korporativ va boshqa ma’lumotlar, tashkilot va korxonalar vazifalari va maqsadlari bilan mos keluvchi, taklif qilinuvchi xizmatlar.

Masalan, xaridlar yoki ta’minot tizimlari texnik-material resurslarga ehtiyojlari haqida axborot joylashtirishga, ta’minotchilar qidirish va ulardan tijorat takliflarini olish, tenderlar takiloti va boshqalar uchun imkon yaratadi. (rasm 2) Barcha ma’lumot tizimda standartlashtirilgan katalogga mos ravishda sinflashtiriladi va saqlanadi. Elektron biznes tizimlarida o‘ziga xos rolni elektron savdo maydonchalari (e-marketplaces) o‘ynaydi. Biznesning B2B modelida savdo maydonchalari ishtirokchilarga bir nechta asosiy vazifalarni ta’minlaydilar. Birinchi vazifa – bu umumiy apparat va dasturiy asos (platforma)da ta’minotchi va iste’molchilarga ma’lumotlar etkazish. Bu orqali savdo kompaniyalari zaruriy axborotlarni ta’minlaydiva tranzakstiyalarni bajaradi. Boshqa bir vazifa – onlayn to‘lov, logistika va dinamik savdo imkoniyati kabi xizmatlar taklifi. Savdo

maydonchalarining yana bir vazifasi – limitlash, byudjetlash, kreditlash va yig‘ma chegirmalar mexanizmlarini taqdim etish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Акаев А.А., КенжабаевА.Т., Илхамова Ё.С., Жуманиёзова М.Ю. Иқтисодиётда ахборот комплекслари ва технологиялари. Дарслик.Т.– “Фан ва технология”. 2019.– 510 бет.

2. Хакимов З.А., Шарифхо’жаев У.У. Интерактив ва рақамли маркетинг. Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисодиёт”, 2019 – 270 б.

3. Цифровая трансформация бизнеса: Изменение бизнес-модели для организации нового поколения / Питер Вайл, Стефани Ворнер ; Пер. с англ. – М. : Альпина Паблишер, 2019. – 257 с.

## AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati**
**1-kurs magistranti**
**Muzaffarova Sanobar**

**Annotatsiya.** Tasviriy san’atning istalgan turida ijod qiladigan har bir ijodkor uchun akademik qalam tasvirning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Akademik qalamtasvir barcha tasviriy san’at turlarining asosiy negizidir. Akademik qalamtasvirni puxta egallash barcha san’at turlarida muhim o‘rinni egallaydi. Insonning to‘liq qiyofasini anatomik jihatdan to‘g‘ri topish va haqqoniy tasvirlash o‘quv jarayonidagi eng murakkab mavzulardan biridir.

**Kalit so‘zlar:**akademik qalamtasvirda ishlash, chizishning qonun-qoidalari, insonning anatomik gavdasini chizish, qog‘oz yuzasiga ob’ektni to‘g‘ri joylashtirish, inson qo‘llarini tasvirlash.

**Kirish**

Tasviriy san’at darslarini Oliy ta’lim talabalariga yuqori darajada o‘qitib o‘rgatishda, xususan, nazariy bilim va amaliy didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, tasavvur doirasini o‘stirishda aynan mutaxassislik fanlaridan yaratilgan adabiyotlarning mazmun va mohiyati muhimlik kasb etadi. Shuningdek, akademik qalamtasvir barcha tasviriy san’at turlarining ya’ni, grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik turlarining asosi hisoblanadi.

**Mazuning dolzarbligi:**

Insonning anatomik gavdasini chizish akademik qalamtasvir mashg‘ulotlaridagi eng murakkab mavzulardan biridir. Sababi, insonning anatomik qiyofasini chizish uchun talaba bir necha yillik bilimlari, mashg‘ulotlardan olgan tajribalarini jamlab, qog‘oz yuzasiga tushirishi kerak. Inson gavdasining har bir qismi, sohasi, uning plastikasini haqqoniydek tasvirlash akademik qalamtasvir mashg‘ulotlarida bo‘lib, bo‘lib o‘rgatiladi. Ushbu mashg‘ulotlardan olingan ko‘nikma tajribalar asosida talaba yaxlit bir shaklni ya’ni inson qiyofasini tasvirlaydi.

**Ilmiy izlanishlar va uslublar**:

Insonning qiyofasini qo‘l va oyoqlari bilan to‘laligicha tasvirlash uchun eng avvalo, tasvirlanayotgan ob’ektni sinchkovlik bilan kuzatish va tahlil qilishdan boshlanadi. So‘ngra, insonning gavdasiga nisbatan, bosh, qo‘l va oyoq hajmi o‘lchanib taqqoslanadi. Ularning bir- biriga mosligi aniqlanib, qog‘oz yuzasiga qoralama sifatida yengil chiziqlar yordamida chizib olinadi.

Har qanday naturani chizishda, eng avvalo, kampanovka, ya’ni qog‘oz yuzasiga ob’ektni to‘g‘ri joylashtirishdan boshlanadi. Natura qog‘oz o‘lchamiga nisbatan na katta va na kichik ham bo‘lib qolmasligi shart. Gavda o‘lchamlari aniqlangandan so‘ng, egilgan va bukilgan qismlari odam tanasining tik turgan yoki o‘tirganligi, yoki harakatda turganligi hisobga olingan holda chiziladi.

Bosh qismi inson gavdasiga nisbatan katta-kichikligini aniqlab, uni o‘lcham uchun mezon qilib olinadi. So‘ngra gavda va boshga nisbatan qo‘l va oyoqlarning o‘lchamlari aniqlanadi.

Quyida ko‘rsatilgan inson gavdasini tasvirlashda ham xuddi shu qoidalarga rioya qilgan holda ish boshlanadi. Qog‘oz yuzasiga to‘g‘ri joylashtirishda eng muhim jihatlardan biri bu  yorug‘lik tushib turgan tomondan va naturaning qarab turgan tomonidan ko‘proq, soya tomonidan esa kamroq masofalarni qoldirishdir.



Naturani sinchiklab kuzatamiz. Naturaning yelka qismi o‘rindiqqa erkin suyangan holda, ko‘zlar bir nuqtaga qarab turibdi. O‘ng oyoq tagiga qo‘yilgan buyum sababli chap oyoqdan bir muncha yuqorida joylashtiriladi. Natura kuzatuvchi talabaga yon tomondan ko‘rinib turganini hisobga olgan holda o‘ng oyoq va o‘ng qo‘lni orqadaligini bildirish uchun yengilroq ishlanadi. Aynan ushbu holatni shtrixlar orqali ham mahoratli ko‘rsata olish talab etiladi. Bizga yaqin turgan sohalarni esa aksincha bo‘rttiribroq, tugallab, aniq chizgilar orqali tasvirlashimiz zarur. Xuddi shu qoidalar naturachining o‘tirgan o‘rindig‘iga ham tegishlidir. Ya’ni o‘rindiqning bizga yaqin bo‘lgan oyoqlari aniqroq, uzoq tomoni esa yengilroq ishlanadi.Qo‘llarni tasvirlash murakkab jarayon bo‘lib, hatto portretdan ham ko‘ra ko‘proq mehnat va tajriba talab qiladi. Shu sababli qo‘llarni tasvirlashdan oldin uni e’tibor bilan kuzatib har bir barmoq harakatini mahorat bilan tasvirlaymiz. Qo‘lning kaft qismi o‘lchami esa aynan yuzning o‘lchamiga qarab olinadi. Ya’ni har bir insonning kafti, yuzining peshonadan iyakkacha bo‘lgan qismi uzunligiga tengligini hisobga olgan holda tasvirlanishi lozim. Aynan shu o‘lcham to‘g‘ri olinganda naturachining qo‘llari gavdasiga, boshiga nisbatan katta ham, kichik ham bo‘lib qolmaydi.

Natura to‘liq joylashtirib bo‘linganidan so‘ng shoshmasdan keyingi bosqichlarga, shtrixlar orqali tasvirlashga o‘tishimiz mumkin. Akademik qalamtasvirda nafaqat qora qalamlarda balki sous, sangina, pastel, ugol kabi turli xil tasvirlash vositalaridan ham foydalanishimiz mumkin. Bu vositalar orqali ishimiz yanayam professional ko‘rinishga ega bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi:**

Akademik qalamtasvir mashg‘ulotlaridagi eng murakkab topshiriqlardan biri bu insonning anatomik qomatini tasvirlashdir. To‘liq tana tuzilishidagi portretda, qo‘llarni tasvirlash, yuz qismini tasvirlash bn bir qatorda muhim ahamiyatga egadir. Naturachining kompozitsion holatida qo‘llarning holatini to‘g‘ri tanlay olish ham ishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Bugungi kunda Oliy ta’limdagi tasviriy san’at yo‘nalishlari bo‘yicha Respublikamizda yaratilayotgangan o‘quv rejalarida “Mustaqil ta’lim”ga alohida ahamiyat berilgan. Talabalarning o‘z sohalarini mukammal o‘rganishlari, o‘z ustida ishlashlarida, dunyoqarashlarini kengaytirishda mustaqil ta’limning ahamiyati katta.

## Adabiyotlar


1. S.T.Sa’diyev. O‘quv qo‘llanma “Qalam tasvir” “Aziz kitobxon” nashriyoti. Navoiy 2022 y

2. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 114-118.

3. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.

4. Shovdirov, S. BB Boymetov Methods of Organizing Practical and Theoretical Classes for Students in The Process of Teaching Fine Arts International Journal on Integrated Education.

5. Soli Tolibovich Sadiyev O‘RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTAB-LARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).

6. Sadiev S. DEVELOPING STUDENTS’ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B9. – С. 106-108.

7. Niyazovish G. I. WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNO-LOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL

INDEPENDENCE TO STUDENTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 9. – №. 12. – С. 234-237.
8. Jalolov S. METHODOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF ARTS TEACHERS //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B5. – С. 37-39.
9. Kulmuratov N. R. et al. VARIOUS ISSUES IN THE FIELD OF SETTING NONSTATIONARY DYNAMIC PROBLEMS AND ANALYZING THE WAVE STRESS STATE OF DEFORMABLE MEDIA //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 9. – С. 365-369.
10. Абдуллаев Акбар Хикматович НРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧЕНИКОВ ЧЕРЕЗ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО // Academy. 2021. №4 (67). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchenikov-cherez-izobrazitelnoe-iskusstvo (дата обращения: 02.11.2023).
11. Sadiev, S. (2023). DEVELOPING STUDENTS’ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES. *Science and innovation*, *2*(B9), 106-108.

## ALLITERATSIYA LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDA

**Ilmiy rahbar: O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi**
**f.f.f.d.(PhD) Yuldashev Jo‘rabek Uralovich**
**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi**
**Xo‘jayeva Nargiza Azamat qizi**

Takrorning bir ko‘rinishi bo‘lgan alliteratsiya she’riy matnda muhim vosita hisoblanadi.Alliteratsiya fonopoetik usul sifatida badiiy nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytiradi. M.Yo‘ldoshev alliteratsiya haqidagi mulohazalarini bayon qilar ekan, “badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning ta’sir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning favqulodda o‘rni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganini ham alohida qayd etish lozim” ekanligini ta’kidlaydi.[1.165] O‘zbek tilshunosligida alliteratsiyaning she’riyatdagi o‘rni haqidagi fikrlar ayrim ishlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, A.Shofqorovning “Mirtemir she’riyatida takrorning ma’noviy-uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasining “Mirtemir she’riyatida fonetik takrorlar” nomli I bobida hamda S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining “Poetik matnda takror usulini qo‘llashning prosodik va kompozitsion tamoyillari” nomli II bobida fikr bildirilgan. Shoirlar til birliklarining nafaqat mazmunan, balki tovush mosligini ta’minlash uchun ham intilishadi va bu yo‘lda bir yoki bir-biriga o‘xshash tovushlar, bo‘g‘inlarida ohangdosh tovushlar uchraydigan so‘zlarni maxsus qo‘llashadi. Otashin shoir Usmon Nosir ijodida ham alliteratsiyaning go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Shoir “Qon” she’rida shunday yozadi:

Bizni yorug‘ yo‘llardan
*Q*aytarolmaysan.
*Q*on to‘kuv-la
*Q*o‘rqitolmaysan,
*Q*on to‘kuv-la
Kurashni
To‘xtatolmaysan...

Vertikal alliteratsiyaning ajoyib namunasi bo‘lgan ushbu parchada shoir o‘quvchining nafaqat diqqatini jalb qilishni, balki asar mazmunini tovushlar uyg‘unligi orqali ham ta’kidlamoqchi bo‘lganini ko‘ramiz. Ya’ni Usmon Nosirning ushbu asari asrimizning boshlaridagi fuqarolar urushi davom etayotgan davrni aks ettirib, begunoh birodarining qoni to‘kilgan dehqon tilidan aytilayotgan nafratni “*q*” tovushining takrori orqali beradi va o‘quvchida kuchli emotsionallikni qo‘zg‘atadi. Ijodkor voqea-hodisalarning nazarda tutilgan muhim tomoniga o‘quvchi diqqatini tortish uchun yoki ma’lum narsalarni sanab ko‘rsatish, uni bo‘rttirib tasvirlash niyatida ham she’riy asarlarda ayrim tovushlarni takrorlaydi. Masalan:

*Q*o‘yarmidik, jindak
Bosib o‘tsin u,

*Q*o‘yarmidik vayron
*Q*ilsin Moskvani.
*Q*o‘yarmidik, bizning
*Q*onni to‘ksin u,
*Q*o‘yarmidik omon
*Q*ora – mast yovni! (“Men ham boraman”)

Bu she’r parchasida Vatan uchun yovga qarshi turgan lirik qahramon so‘zlarida qat’iyat, mardlik bor. Talaffuzda havo oqimining portlab chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan “*q*” tovushining ma’nosida keskinlik va qat’iyat ifodasi ham aks etganday bo‘ladi. Shoir she’rlarida “*q”* tovushini nafaqat vertikal, balki gorizontal alliteratsiya holatida ham keltirib, talaffuzdagi uyg‘unlik va jozibani ta’minlovchi fonetik vosita sifatida foydalanadi:

Bunda tar*q*o*q*, *q*o‘r*q*o*q* *q*ishlo*q*lar,
Bir kollektiv *q*ilib bemalol,
Batrak, kambag‘al va o‘rta hol,
Ro‘zg‘orlarni yana bosh*q*atdan
Yangi usul bilan *q*uradir. (“Quyosh bilan suhbat”)

V.Mayakovskiy “She’r qanday yoziladi” maqolasida “Men o‘zim uchun muhim bo‘lgan so‘zning yanada ajralib turishi, uning bir ramkada saqlanishi uchun alliteratsiyaga murojaat qilaman”.[2.48] deb yozgan edi. Usmon Nosir mazkur she’rida ham “*k*” undoshining alliterativ qo‘llanilishi o‘ziga xos jo‘shqinlik, she’r mazmuniga mos ko‘tarinkilik, kuchli hayajonni ifodalamoqda:

Liri*k*a!
Liri*k*am,
O‘yna *k*o‘l*k*alan,
*K*o‘l*k*alan yura*k*ning
Po*k*iza nayi!
Sen uchun,
Sen uchun,
Buyu*k* o‘l*k*adan
Safarbar etilib
*K*eldim atayi. (“Lirika”)

Matn ma’nosini kuchaytirishga xizmat qilish alliteratsiyaning asosiy vazifasi bo‘lsa, ifodaning ta’sirchanligini oshirish navbatdagi vazifasidir.[2.49] Shoirning “Salom, kunduz” she’ridan olingan quyida keltirilgan she’riy parchada “*s*” undoshi boshqa undoshlarga qaraganda ko‘p takrorlangan va, asosan, “*a*”, qisman “*e*” unlilari bilan *sa-sa-sa-se* shaklida qaytarilgan:

Oq tanli parining
Momiq qo‘llari
Anor **s**uvin to‘kdi
*S*amo bo‘yidan:
*S*alom kunduz, **s**alom,
*S*alom parig‘um,
*S*ening toza nuring
Ko‘zimga *s*inggan,

Tovushlarning takrorlanishi, umuman, takror yordamida lirik qahramon ichki dunyosi ochib berilishiga, obrazlarning poetik talqiniga yo‘l ochiladi. Usmon Nosirning “Norbo‘ta” dostonidan olingan quyidagi parchada sonor tovushlar uyg‘unligi vositasida doston qahramonining el-yurt, vatan oldidagi burchi, ichgan qasamiga sadoqati ajoyib ifodalangan va o‘quvchi ongida tez muhrlanadi:

Unutsa*m* *m*en,
Ota*m*-ona*m*ni,
Unutsa*m* *m*en,
Hatto u*m*ri*m*ni,
Unut*m*as *m*en

Shonli posti*m*ni!
M.Hakimov va V.Jabborovlarning “Poetik nutqda tovushlarning xoslanishiga doir” nomli maqolasida *r, n, l, m* undoshlari va *o* unlisini haqli ravishda poetik tovushlar deb hisoblash mumkin”.[3.77] Darhaqiqat, o‘zbek tilidagi matnlarda sonor tovushdagi ovoz yon undosh tovushga ham ma’lum miqdorda ta’sir qiladi va shu so‘zning poetiklashishi, uning jozibadorligi,musiqiyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Quyidagi parchada aynan sonorlar alliteratsiyasini ko‘rishimiz mumkin:
Bag‘*ring* cha*man* ochga*n*:
Qada*mlar* yetga*n*
Yo*n*ga*n* yu*l*duz*l*ari*ng*,
Ochi*l*ga*n* chehra*ng*,
Bitga*n* a*l*am*laring*,
G‘a*mlaring* ketga*n*
So‘lga*n* yuz*laring*ga
K*irgan* qizi*lrang*. (“Senikimi shu bo‘y”)Alliteratsiya ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan so‘zlarga kishi diqqatini tortadi, uni o‘ziga xos shaklda talaffuz qilishga undaydi. Bu usulda yaratilgan she’rlarning so‘z shakli ularni esda tez va uzoq saqlanib qolish imkonini beradi.[4.16] Hosil bilan dunyo Rekordin berdi. (“Men ham boraman”)
1) *k* undoshining takrori:
*K*asofati ruhimni quvay
*K*o‘z yoshim-la peshonamdagi
*K*o‘k otashin izlarin yuvay.
Qo‘y, bu dunyo tinch va voqifsiz (“Demon”)
2) *h* undoshi takrorlanadi:
Kun o‘tkazish – qanday og‘ir ish!
*H*am achinish, ham achinmaslik
*H*ar narsani anglash va sezish,
*H*ech narsani ko‘zga ilmaslik,
*H*ammasidan tahqir-la bezish! (“Demon”)
Umuman, Usmon Nosir o‘z she’riyatida alliteratsiyadan unumli foydalanib, turli shakllarni yuzaga keltirgan va ularning har biriga poetik vazifa yuklay olgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Юлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент:O‘zbekiston, 2019. – Б. 165
2. Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик:Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри(PhD)….дисс. – Самарқанд, 2019..
3. Ҳакимов М., Жабборов В. Поэтик нутқда товушларнинг хосланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №4. – Б.77-84.
4. Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар:Филол.фан.номз ... дисс.автореф. – Тошкент, 1997


## FLOTATSIYA JARAYONIDA TIZIMLI TAHLIL METODINING SAMARADORLIGI


**Nasirova Shaira Narmuradovna –**
**NDPI, “Informatika” kafedrasi professori**
**Xoliqov Muhriddin Mardiqulovich–**
**NDPI, “Informatika” kafedrasi tayanch doktoranti**
**Isaqov Abror Faxriddinovich –**
**Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi axborot texnologiyalari kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari**



**Annotasiya.** Ushbu maqolada flotatsiya jarayonida tizimli tahlil metodining samaradorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoritilgan. Flotatsiya jarayonini matematik modellashtirish, optimallashtirish va avtomatlashtirish uchun tizimli tahlil ob’ekti sifatida flotatsiya tizimi olindi.

**Kalit so‘zlar:** flotatsiya, tizim, ruda, usul, boyitish, modellashtirish, tahlil, jarayon, zarra, element.
**Аннотация.** В данной статье представлена информация об эффективности метода систематического анализа в процессе флотации. Флотационная система была выбрана в качестве объекта системного анализа для математического моделирования, оптимизации и автоматизации процесса флотации.
**Ключевые слова:** флотация, система, руда, метод, обогащение, моделирование, анализ, процесс, частица, элемент.
**Abstract.** This article provides information on the effectiveness of the systematic analysis method in the flotation process. The flotation system was taken as the object of systematic analysis for mathematical modeling, optimization and automation of the flotation process.
**Key words:** flotation, system, ore, method, beneficiation, modeling, analysis, process, particle, element.

Bugungi kunda jahonda texnologik jarayonlarni samarali boshqarishda avtomatlashtirilgan kompyuter tizimini takomillashtirishni tizimli tahlil qilish ilmiy asosi yaratilgan. Shu bilan birga, tizimli tahlil asosida rangli metallar rudalarini boyitishda hosil bo‘luvchi chiqindilarda qimmatli tarkibiy qismlarni kamaytirish, texnologik flotatsion tizimning samarali faoliyatini oshirish, jarayon va apparatlarning unumdorligini yaxshilash, energiya manbai xarajatlarini qisqartirish, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi zararli moddalarning ulushini kamaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda energiya sarfini kamaytirish va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarish hamda boshqarish tizimlarini yaratishda texnologik jihoz va qurilmalarning unumdorligi va yuqori ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Rudalarni flotatsiya usuli bilan boyitish moddalar sirtlarining xossalarini har xilligiga asoslangan. Zarrachalarning o‘lchamlari qancha kichik bo‘lsa, ularning solishtirma sirt yuzasi ($sm^2/g$) shuncha katta bo‘ladi va sirt xossalarining farqi oshib boradi. Flotatsiya jarayonida qatnashayotgan moddalar majmuasiga flotatsiya tizimi sifatida qaralsa, bu tizim ko‘p jinsli, ko‘p fazali tizimdir.

Ushbu maqolada tizimli tahlil, ko‘p pog‘onali tizimli tahlil, flotatsiya tizimining ko‘p pog‘onali tizimli tahlili masalalari o‘rganilgan.

Flotatsiya – mineral zarrachalar yuzasining fizik-kimyoviy xossalaridagi farqqa qarab boyitish usuli bo‘lib, mineral zarrachalar yuzasining suv bilan har xil ho‘llanish qobiliyatiga asoslanadi.

Suvli muhitda mayin tuyulgan holda mavjud bo‘lgan ayrim minerallarning zarrachalari suv bilan ho‘llanadi, bir xillari esa suv bilan ho‘llanmaydi, balki suvdagi havo pufakchalariga ilashib, yuzaga qalqib chiqadi. Shu bilan bir vaqtda boshqa minerallarning zarrachalari suv bilan ho‘llanib, unda cho‘kadi yoki muallaq holda joylashadi.Flotatsiya turli xildagi foydali qazilmalarni boyitishda keng ko‘lamli ishlatiladi. Qazib olingan rangli metallar rudalarining 90 % dan ko‘prog‘i kamyob, qora, nodir metallar rudalari va nometall rudalar shu usulda boyitiladi. Flotatsiya usulini qo‘llash kambag‘al rudalarini hamda boshqa usullar bilan boyitilishi qiyin bo‘lgan rudalarini qayta ishlash imkoniyatini yaratadi. Masalan, flotatsiya usulini qo‘llab, polimetall rudalardan qo‘rg‘oshinli, ruxli va misli boyitmalarni olish mumkin. Flotatsiya jarayoni, suv va zarrachalarni kuchli aralashtirish va unga har xil usullar bilan havo pufakchalarini yuborish bilan olib boriladi. Bunda suvda namlanmaydigan zarrachalar havo pufakchalariga yopishib yuqoriga suzib chiqadi va ko‘pik hosil qiladi. Rangli metallarning flotatsiya jarayoni murakkab jarayon bo‘lganligi sababli, jarayonni tahlil qilish va modellash ko‘p bosqichli tizim metodologiyasiga asoslanadi.

Flotatsiya jarayonining qurilma masshtabidagi to‘liq matematik modeli flotatsiya qurilmasining funksional elementlardagi jarayonlarning matematik modellarini o‘z ichiga oladi. Flotatsiya jarayonini matematik modellashtirish, optimallashtirish va avtomatlashtirish uchun tizimli tahlil ob’ekti sifatida flotatsiya tizimi olindi [1].Tizimli tahlil nima? Avvalo, tizim deganda, ob’ektning tizimli ifodasi va o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro ichki va tashqi bog‘liqlik darajalari tushunilishi lozim. Chunki nafaqat ichki, balki tashqi ta’sirlar ham ob’ektni tahlil qilish uchun ahamiyatga ega. Tahlil esa, tizim va undagi jarayon haqida kerakli axborotni yig‘ib, predmetni yaxlit ob’ekt sifatida o‘rganishga yo‘naltirilgan metodikadir. Metodika daliliy materiallarni yig‘ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsa-da, ularga asoslanadi.

Tizimli tahlil bu tizimni va undagi jarayonni o‘rganish, ularning birgalikdagi kirish va chiqish parametrlarini topish, parametrlarning o‘zaro bog‘lanishini aniqlashga qaratilgan jarayondir.
Tizimli tahlil asosida to‘g‘ri yechim topish imkoni paydo bo‘ladi. Demak, tizimli tahlil kirish va chiqish parametrlariga ega bo‘lib, botiniy va zohiriy bog‘langan, ichki ierarxik pog‘onalardagi tizimchalar va jarayonlar asosida bir-biriga ta’sir qiluvchi hodisalarning ketma-ketligida o‘z ifodasini topadi.Flotatsiya tizimini tizimli tahlil qilish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab, tanlangan element – tizim o‘rganilib, unga bo‘lgan talablar shakllantiriladi. Har bir tizimda ma’lum bir jarayonlar mavjud bo‘lib, jarayonlar to‘plamidan qo‘yilgan masala yechimini topish uchun zarur bo‘lgan jarayonlar tanlanadi. So‘ngra, tizim hamda o‘rganilayotgan jarayonning kirish va chiqish parametrlari o‘rganiladi. Keyingi bosqichda kirish va chiqish parametrlarining o‘zaro bog‘lanishi aniqlanadi. Ko‘rilayotgan tizim (element) tashkil etuvchi elementlarga ajratilib olinadi va har bir tanlangan element uchun jarayon va uning elementlari aniqlanadi.Tahlil mobaynida har bir qurilma alohida o‘rganiladi va izlanishni chuqur olib borish uchun kvaziapparatlarga bo‘lib o‘rganiladi [2]. Flotatsiya tizimini ko‘p pog‘onali tizimli tahlil qilish orqali matematik modellashtirish va optimal yechim topish imkonini beradi. Ko‘p pog‘onali tizimli tahlil qilish orqali tanlangan ob’ektning boshqaruvida tizimning optimal rostlanishini yaratish mumkin.

**Adabiyotlar**

1. Nasirova Sh.N., Isakov A.F., Artiqov A.A., Mirzaqulov X.Ch. Reasoning System in Analysis of Bubbling Zone of Flotation, On the Example Of Potash Ore Enrichment. Jour of adv research in dynamical & control systems, vol. 12, special issue-06, 2020, DOI:10.5373/JARDCS/V12SP6/SP20201063,558-565p.
2. Nasirova Sh.N., Artikov A., Isakov A.F. Systems thinking in the analysis of a flotation apparatus and modeling of ore processing processes. Monograph. - Tashkent, “Fan”, 2022. 159 p.

## QALAMTASVIR TARIXI, UNI O‘QITISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**NDPI, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi**
**2-kurs talabasi Nasullayeva Sarvinoz**

**Annotatsiya.** Qalamtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san’at turining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o‘zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi, shu va boshqa bir qancha asosli fikrlardan iborat.

***Kalit so‘zlar:*** san’at asarlari, kartina, qalamtasvirsiz, dastgohli san’at asari, tush, sangina, pastel, sous, qalam, borliqni idrok etish, qo‘l, ong va sezgi organlari, amaliy mashg‘ulot, nazariy bilim, borliqni realistik tasvirlash, muhabbat va kuzatuvchanlik.

Qalamtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san’at turining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o‘zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San’at asarlarini yaratishda esa, ushbu bajarilgan chizgilar rassomga yordamchi manba bo‘lib xizmat qiladi.
Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamdan boshlaydi. Shundan keyingina ushbu san’at asari ranglar jilosi orqali tomoshabinga estetik huzurbaxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o‘z asarini yetuk holga keltira olmaydi. Qalamtasvir boshqa san’at turlari orasida mustaqil ravishda tugallangan dastgohli san’at asari ham bo‘lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalam bilan bajarilgan ko‘plab kartinalar jahonning turli san’at muzeyi va ko‘rgazmalaridan joy olgan.
Qalamtasvir mashg‘ulotlari ko‘rib-kuzatib, to‘g‘ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo‘l, ong va sezgi orgonlarini shakllantirishda nafaqat bo‘lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga zarurdir. Uyg‘onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchining «Rangtasvir qonunlari» nomli asarida, jumladan, shunday degan edi: «Yoshlar o‘zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo‘lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozimdir».
Qalamtasvir mashg‘ulotlari boshqa mutaxassislik fanlari qatorida bo‘lajak o‘qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanadi. Qalamtasvir darslari talablarga I-IV kurslarda nazariy va

amaliy mashg‘ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy mashg‘ulotlar qatorida nazariy bilimlar bo‘lajak mutaxassislarga ularning keyingi pedagogik, ijodiy va ilmiy faoliyatlarida muhimdir. Borliqni realistik tasvirlash talabalarga nafaqat amaliy bilimlarni beribgina qolmay, balki ularning umumiy dunyoqarashlarini o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Realistik tasvirlash san’ati, shuningdek, yoshlarda borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratlarini rivojlantiradi.

Rasm chizishni o‘rganish talabalarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning estetik didlarini ham o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Rasm chizish asoslarini o‘rganish, narsaning o‘ziga qarab bosqichma-bosqich tarzda tasvirlash prinsipida qurilgandir. Tabiatga muhabbat va kuzatuvchanlik, buyumlarni to‘g‘ri tasvirlash kabi fazilatlar har bir tasviriy san’at bilan shug‘ullanadigan talabalarga xos bo‘lmog‘i kerak. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisining yetuk malakaga ega bo‘lishda nafaqat amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishi, balki tasvirlash san’ati sohasida nazariy tayyorgarligining puxtaligiga ham bog‘liq. Bo‘lg‘usi pedagog-rassomlarni buyuk rassom va tasviriy san’at sohasida ko‘plab nazariy, amaliy bilimlarni meros qilib qoldirgan shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ularning asarlarini chuqur o‘rganish ham katta ahamiyatga ega. Qalamtasvir mashg‘ulotlari badiiy-grafika fakultetidagi mutaxassis o‘quv fanlarining asosi sifatida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilariga quyidagi asosiy qonunlarni o‘rgatishni maqsad qilib qo‘yadi:

1. Tasviriy san’atda kompozitsiya asoslari;
2. Shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi;
3. Buyumlarning o‘zaro nisbatlari;
4. Tasviriy san’atda perspektiv qonunlari;
5. Shakllarda yorug‘ va soya qonuniyatlari;
6. Tasvirni metodik ketma-ketlikda «analiz» va «sintez» qilib to‘g‘ri bajarish.

Bu ko‘nikma va malakalar talabaning oliy o‘quv yurtining barcha bosqichlari davomida bilim olish vaqtida o‘quv mashqlarini bajarish orqali rivojlanadi va takomillashib boradi. Shuningdek, ushbu bilimlar bo‘lajak o‘qituvchi-rassomning oliygohni tugatgandan so‘ng, pedagogik va ijodiy ish jarayonida ham muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**


1. Б.Бойметов “ҚАЛАМТАСВИР” Тошкент 2006
2. S.T.Sa’diyev. O‘quv qo‘llanma “Qalam tasvir” “Aziz kitobxon” nashriyoti. Navoiy 2022 y
3. Bobonazarov S. U. Tasvirlarni grizayl texnikasida ishlashning o‘ziga xosligi //Innovative Development in Educational Activities. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 114-118.
4. Ibragimovich I. X., Shovdirov S. A. THEORETICAL PRINCIPLES OF THE FORMATION OF STUDY COMPETENCIES REGARDING ART LITERACY IN STUDENTS //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 192-198.
5. Soli Tolibovich Sadiyev O‘RTA ASRLAR SHARQ MINIATYURA MAKTAB-LARINING METODLARI // SAI. 2022. №C2. URL: https://cyberleninka.ru/ article/n/o-rta-asrlar-sharq-miniatyura-maktablarining-metodlari (дата обращения: 26.10.2023).
6. Sadiev, S. (2023). DEVELOPING STUDENTS’ARTISTIC LITERACY SKILLS IN EXTRA-CURRICULUM ACTIVITIES. *Science and innovation*, *2* (B9), 106-108.


**Internet saytlari**


1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3.www.Ziyonet.uz


## KASALLIKLARDA TERAPEVTIK OVQATLANISHNING XUSUSIYATLARI.


**Nishanov Ergashali Jo‘raxon o‘g‘li, Raximberganov Sanjarbek Rustam o‘g‘li**
**Tibbiy profilaktika ishi, sog‘liqni saqlashni boshqarish va xorijiy talabalar fakulteti, Davolash fakulteti Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali.**



**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada turli kasalliklar bilan og‘riganda to‘g‘ri ratsional ovqatlanishning roli, tibbiy ahamiyati, kasal odamning tanasida ozuqa moddalarining yetishmasligi, shulardan kelib chiqqan holda bemorlar ovqat ratsioniga qo‘yiladigan talablar haqida ma’lumot

berilgan. Shuningdek, ushbu ilmiy maqolada terapevtik ovqatlanishni tayinlashda ko‘plab omillarni hisobga olish, ratsionni tashkil etish tamoyillari, dieta menyusi bilan bog‘liq ba’zi tavsiyalar haqida batafsil ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** dieta, surunkali atrofik gastrit, ratsional ovqatlanish, qabziyat, vitamin.

**Аннотация.** В данной научной статье представлена информация о роли правильного рационального питания при страдающих различными заболеваниями, его медицинском значении, недостатке питательных веществ в организме больного человека, в том числе о требованиях к диетическому рациону больных. Также в этой научной статье мы подробно расскажем о многих факторах назначения лечебного питания, принципах организации рациона, некоторых рекомендациях, связанных с диетическим меню.

**Ключевые слова:** диета, хронический атрофический гастрит, рациональное питание, желудочно-кишечный тракт, витамин.

**Annotation.** This scientific article provides information on the role of proper rational nutrition when suffering from various diseases, its medical significance, the lack of nutrients in the body of a sick person, including the requirements for patients' dietary ration. Also in this scientific article we will detail the many factors in the appointment of therapeutic nutrition, the principles of organizing the diet, some of the recommendations associated with the diet menu.

**Keywords:** diet, chronic atrophy gastritis, rational nutrition, gastrointestinal tract, vitamin.

**Kirish qism.** Har qanday kasallik uchun terapevtik ovqatlanish, birinchi navbatda, bemorning ozuqaviy moddalarga bo‘lgan fiziologik ehtiyojlarini ta’minlaydigan ovqatlanishi va shu bilan birga kasallikning rivojlanish mexanizmlariga ta’sir qiluvchi maxsus tanlangan va tayyorlangan mahsulotlardan ovqatlanish bilan davolash usuli hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pchilik dietalar, ayniqsa, uzoq vaqt davomida ishlatiladigan dietalar, barcha oziq moddalarining fiziologik normasini o‘z ichiga oladi, ya’ni ratsional ovqatlanishning asosiy prinsiplariga rioya qilinadi. Bundan tashqari, bir qator kasalliklar, ayniqsa, ovqat hazm qilish organlari bilan ba’zi oziq moddalariga (oqsillar, vitaminlar, kalsiy, kaliy, fosfor, temir) ehtiyoj ortadi. [1.1]

**Asosiy qism.** Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bilan ko‘plab ovqat hazm qilish fermentlarining shakllanishi yomonlashishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini to‘liq assimilyatsiya qilish bu holatlarda oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash va ularni pishirish usullari yordamida amalga oshiriladi. Ratsionga oson hazm bo‘ladigan oqsillar, yog‘lar va uglevodlar manbalari kiritiladi, maydalangan va pyure ovqatlardan idishlar ishlatiladi.Oshqozon-ichak trakti va tanadagi ozuqaviy moddalarning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda. Masalan, kalsiyning ichakdan so‘rilishi oziq-ovqat tarkibidagi yog‘lar, fosfor, magniy va oksalatning ko‘pligi bilan yomonlashadi. Shunday qilib, jigar kasalliklarida parhez jigarda yog‘ almashinuvini normallashtiradigan va uning faoliyatini yaxshilaydigan oziq-ovqat moddalari bilan boyitiladi (ko‘p miqdordagi metionin, B6, B12 vitaminlari, xolin o‘z ichiga olgan tvorog). Bemorning tanasi tomonidan yo‘qolgan ozuqaviy moddalarni qoplash. Masalan, anemiya bilan, xususan qon yo‘qotishidan so‘ng, dietada gematopoetik minerallar (temir, mis va boshqalar), bir qator vitaminlar va hayvonlarning to‘liq oqsillari ko‘payishi kerak.

Tanadagi biokimyoviy va fiziologik jarayonlarni o‘ziga xos tarzda o‘rgatish uchun dietani yo‘naltirilgan o‘zgartirish. Masalan, o‘t pufagi va o‘t yo‘llari kasalliklarida safro sekretsiyasini yaxshilash uchun tez-tez, funksional ovqatlanish (kuniga 5-6 marta).

Ba’zi kasalliklarda vitamin va minerallarning yetishmasligi

| Kasallik | Oziq moddalar yetishmasligi |
|---|---|
| Surunkali atrofik gastrit | B1, B6, B12 vitaminlari, temir, PP |
| Oshqozon rezeksiyasidan keyin | Vitamin B12, foliy kislotasi, temir |
| Surunkali enterokolit | Vitamin B12, foliy kislotasi, temir, kalsiy |

| | |
|---|---|
| Tez-tez qusish, diareya | Vitamin PP, kaliy, natriy |
| Surunkali gepatit, jigar sirrozi | B2, B6, PP, a, D, E, K vitaminlari, xolin |
| Safro yoʻllari kasalliklari | A, K vitaminlari, kalsiy, magniy |
| Surunkali pankreatit | A, K vitaminlari, kalsiy |
| Gelmintik invaziya (keng tasma) | B12 Vitamini |
| Oʻtkir va surunkali qon yoʻqotish | Temir |
| Qabziyat | Magniy |

Oziq-ovqatning organizmga mahalliy va umumiy ta’sirini hisobga olish.

Mahalliy ta’sir bilan oziq-ovqat sezgi organlariga (koʻrish, hid, ta’m) va toʻgʻridan-toʻgʻri oshqozon-ichak traktiga ta’sir qiladi. Parhezli idishlarning jozibali koʻrinishi, ularning ta’mi va xushboʻyligini ruxsat etilgan ziravorlar va ziravorlar (dolchin, oʻtlar, limon kislotasi va boshqalar) yordamida yaxshilash ishtahani yaxshilaydi, oziq-ovqat toʻplami, osh tuzi va qaynatilgan idishlarning ustunligi cheklangan qat’iy dietalarda alohida ahamiyatga ega boʻladi. Oziq-ovqatning mexanik, kimyoviy va harorat xususiyatlarining oʻzgarishi ovqat hazm qilish organlarining sekretor va motor funksiyalarida sezilarli oʻzgarishlarga olib keladi.

Oziq-ovqatning mexanik ta’siri, uning hajmi, maydalash darajasi, issiqlik bilan ishlov berish tabiati (pishirish, qovurish va boshqalar) bilan belgilanadi. Oziq-ovqatning sifatli tarkibi, ayniqsa, uning tarkibidagi moddalar miqdori katta ahamiyatga ega, ularning hazm boʻlishi ingichka va yoʻgʻon ichakda (tolalar, hujayra membranalari va biriktiruvchi toʻqima) sodir boʻladi. Suyuq va shilimshiq idishlar qattiqroq va ixcham idishlarga qaraganda kamroq mexanik ta’sirga ega va oshqozondan tezroq evakuatsiya qilinadi.

Ba’zi oziq-ovqat va idishlar bir vaqtning oʻzida kuchli mexanik va kimyoviy ta’sirga ega (qovurilgan goʻsht, dudlangan va shoʻr ovqatlar) yoki zaif (maydalangan goʻsht yoki maydalangan sabzavotlardan tayyorlangan bugʻ yoki qaynatilgan). Ovqatning haroratini, ulardagi kimyoviy va mexanik ta’sirlash xususiyatini beruvchi moddalar miqdorini oʻzgartirib, ovqat hazm qilish fermentlarining sekretsiyasiga, oshqozon va ichakning motor funksiyasiga sezilarli ta’sir koʻrsatishi mumkin.

Kasallikning ogʻirligiga qarab, bu kimyoviy, mexanik yoki harorat stimullarining ovqatlanishida turli darajadagi cheklovlarni anglatadi. Ushbu turdagi tejamkorlik bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Shunday qilib, sekretor yetishmovchiligi boʻlgan surunkali gastrit bilan, oshqozon sekretsiyasining ba’zi kimyoviy stimulyatorlarini oʻz ichiga olgan mexanik yumshoq dietadan foydalanish mumkin. Agar biron-bir yomonlashuv yuzaga kelsa, bemorga avvalgi parhez vaqtincha buyuriladi. Asosiy parhezlar fonida ba’zan ulardan farq qiladigan qarama-qarshi kunlar qoʻllaniladi, masalan, ilgari chiqarib tashlangan oziq moddalar (tolalar va boshqalar) dietaga kiritilishi bilan. Bunday kunlariga qoʻshimcha ravishda, qarama-qarshi yoʻnaltirilgan tushirish kunlari qoʻllaniladi.

Dieta menyusi bilan bogʻliq ba’zi tavsiyalar.

Hayvon oqsiliga boy ovqatlar barcha ovqatlarga taqsimlanishi kerak, bu muvozanatli ovqatlanish va oqsillarni yaxshiroq singishiga yordam beradi. Terapevtik parhezlar tarkibiga quruq oqsil kompozit aralashmalarini kiritish tavsiya etiladi.Tushlik uchun goʻsht va baliq idishlari tavsiya etiladi. Kasal odamlarda tuyadi, tez-tez kamayadi, bu parhez bilan kuchayishi mumkin, ayniqsa, qat’iy. Bu yerda menyularning xilma-xilligi katta ahamiyatga ega, chunki monoton oziq-ovqat tezda zerikarli boʻlib, ishtahani kamaytiradi. Ishtahani ragʻbatlantiradigan va ovqat hazm qilishga yordam beradigan xom sabzavot va mevalarni dietaga kiritish kerak.

**Xulosa.** Oziq-ovqat mahsulotlari kimyoviy tarkibi, hazm boʻlishi, inson tanasiga ta’sirining tabiati bilan farq qiladi, bu terapevtik parhezlarni tuzishda va mahsulotlarni qayta ishlashning maqbul usullarini tanlashda e‘tiborga olinishi kerak. Turli xil ovqatlar ozuqaviy qiymati bilan farq qiladi,

ammo ular orasida zararli yoki juda foydali emas. Oziq-ovqatlar orasida insonning barcha oziq moddalarga boʻlgan ehtiyojini qondiradigan oziq-ovqat yoʻq. Faqat keng oziq-ovqat toʻplami tanani barcha kerakli oziq-ovqat moddalari bilan taʼminlaydi. Shuni esda tutish kerakki, tananing ovqatlanish buzilishi koʻpincha baʼzi oziq-ovqatlarning yetishmasligi yoki boshqalarga zarar yetkazishi bilan bogʻliq. Buni hisobga olish, terapevtik ovqatlanish menyusini tuzishda, ayniqsa, muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Общий уход за больными в терапевтической клинике: учебное пособие / В.Н. Ослопов, О.В. Богоявленская - 3-е изд., - 2009. - 464 с.
http://vmede.org/sait/?page=6&id=Obwij_uhod_terr_klin_oslopov_2009&menu=Obwij_uhod_terr_klin_oslopov_2009
2. Лечебные столы (диеты) по Певзнеру
https://cmd74.ru/lechebnye-stoly-diety/
3. Диеты при различных заболеваниях
https://medongroup-spb.ru/company/articles/diety-pri-razlichnykh-zabolevaniyakh/
https://praktik-dietolog.ru/article/123.html

## "SIRLI MUALLIM" QISSASIDA OʻQITUVCHI XARAKTERINING BADIIY TALQINI

**Nizomov Farxod Muso oʻgʻli,**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**katta oʻqituvchisi, tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Maqolada istiqlol davri oʻzbek qissalaridagi obrazlar olami, mualliflarning xarakter yaratishdagi mahorati, mazmunning oʻziga xosligi, oʻzbek va jahon adabiyotidagi nasriy asarning ayrim xususiyatlarini izohlashga, qissada oʻqituvchi siymosining aks etishiga oid atroflicha fikrlar bayon qilingan. Isteʼdodli yozuvchi Luqmon Boʻrixonning "Sirli muallim" qissasi misolida mulohazalar bildirilgan.

**Аннотация.** В статье описывается мир образов в узбекских рассказах периода независимости, мастерство авторов в создании персонажей, своеобразие содержания, интерпретация некоторых особенностей прозаического произведения в узбекской и мировой литературе, отражение Фигура учителя в рассказе. Комментарии даются на примере рассказа «Таинственный учитель» талантливого писателя Лукмана Борихана.

**Annotation.** The article describes the world of images in the Uzbek stories of the independence period, the skill of the authors in creating characters, the uniqueness of the content, the interpretation of some features of the prose work in Uzbek and world literature, and the reflection of the teacher's figure in the story. Comments are made on the example of the story "Mysterious Teacher" by the talented writer Luqman Borikhan.

**Kalit soʻzlar:** hayot haqiqati, obraz, xarakter, ramziylik, badiiyat, sadoqat, maʼrifat, talqin, usul, qadriyat, tamoyil.

**Ключевые слова:** правда жизни, образ, характер, символика, артистизм, преданность, просветление, интерпретация, метод, ценность, принцип.

**Key words:** truth of life, image, character, symbolism, artistry, devotion, enlightenment, interpretation, method, value, principle.

Luqmon Boʻrixonning "Sirli muallim" qissasi maktab hayoti tasviriga bagʻishlangan. Qissaga Abdulla Oripovning "Muallim haqida soʻzim ushbudir, Muallim kamolot ichra koʻzgudir" misralari epigraf sifatida keltirilgan[94]. Qissa tahririyat xodimning maktab haqida maqola yozish uchun maktabga tashrifi voqeasi bilan boshlanadi. Asarning bosh qahramoni Najot Gʻaybulla ismli geografiya muallimi. Qissada maktab direktori Qalqonov, direktor oʻrinbosari B.B.Boymurod, Ulash agronom, maktab ilmiy mudirasi Norxol Xushboqova kabi obrazlar tasvirlangan. Najot Gʻaybulla oʻz kasbini, bolalarni jonidan ham yaxshi koʻradi. U qishloq maktabi hayotiga yorugʻlik

[94] Boʻrixon L. "Sirli muallim" qissa va hikoyalar. Toshkent: "Read book" nashriyoti, 2024. 65-bet.

olib kirishga harakat qiladi. Qilgan ishlari tillarda doston bo‘ladi. “Baland bo‘yli, kelishgan, yap-yangi, qimmatbaho kostyum-shim, oppoq ko‘ylak kiygan yigit”, “Yuz-ko‘zlaridan allanechuk nur yog‘iladi” deya ta’riflangan muallim o‘zining tashqi ko‘rinishi, madaniyati, muomalasi bilan maktab jamoasini, o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi.

Barcha unga havas bilan qaray boshlaydi, o‘quvchilarga yaxshi dars beradi, hatto o‘quvchilar fan olimpiadalariga qatnashib o‘rin olishga ham erishadilar. O‘quvchilarni darslik, o‘quv qurollari bilan ta’minlaydi. Darslarni noan’anaviy usullarda o‘tib, o‘quvchilarni fanga qiziqtiradi. Binobarin, professor Damin To‘rayev ta’kidlagani kabi, “Badiiy asarda olg‘a surilgan g‘oya ijtimoiy hayotdagi mavjud milliy g‘oyaning mahsuli sifatida ijodkorning borliqqa, faol munosabatidan, jamiyatning yetakchi tamoyillarini idrok etishdan, uning istiqboli to‘g‘risidagi qarashlaridan tug‘iladi” [95] . Bu jihat mazkur qissada badiiy jihatdan barkamollik kasb etgan. Qissada Najot G‘aybulla ismli muallimning faoliyatini o‘rganish uchun olib borilgan tergov hujjatlarini keltirish orqali o‘sha mustabid tuzumdagi maktablarning, o‘qituvchilarning, o‘quvchilarning, jamiyatning haqiqiy ahvoli aks ettiriladi. Maktab jamoasining tushuntirish xatlari orqali o‘sha tuzumda, ya’ni sho‘ro davrida o‘qituvchilar mehnatining qadrsizligi, o‘quvchilarning ongi haminqadarligi, qishloq hayoti, maktab jamoasi haqidagi haqiqatlar ochila boradi. Masalan, maktab direktori Qalqonovning tushuntirish xatida o‘quvchilarning suhbatlari keltirilishi orqali o‘quvchilar nimalarni orzu qilishlari, kelajak haqida qanday tasavvurlarga ega ekanliklari ochib beriladi: “Qay bir kun oltinchi sinfda o‘qiydigan uch-to‘rt bolaning gurungi tasodifan qulog‘imga chalinib qoldi. “Kelajakda prokuror bo‘laman, -derdi ulardan biri viqor bilan, -hamma mendan qo‘rqadi, hurmat qiladi. Boylikka ko‘milib yashayman”[96]. “Prokuror ko‘p oylik oladimi? -deb so‘radi bir soddarog‘i. Do‘sti avval miriqib kuldi, so‘ng ishonch bilan dedi: “Yo‘-o‘q, gap oylikdamas. Jinoyatchilar qamalib ketmasligi uchun cho‘ntagingga jaraqlatib solib qo‘yadi”. Ma’naviy inqirozga yuz tutgan avlod vakillarining suhbatidan ma’lum bo‘ladiki, har bitta o‘quvchi kelajakda halol yo‘l bilan pul topishdan ko‘ra, oson yo‘l bilan harom pul topishni istashlari ma’lum bo‘ladi. O‘quvchilar prokuror, mafiya bo‘lishni orzu qiladilar. Zokir ismli o‘quvchining onasi maktabga kelib direktor bilan urushib qoladi. Bu urushning boisi, direktor uning bolasiga “Muallim bo‘lasan” degan gapi: “O‘v, o‘rtoq Qalqonip, nega mening bolamga muallim bo‘lasan dedingiz? O‘g‘lim bechora necha kundan beri qaqshab yig‘lab yuribdi”. Shunday deb Zokir ismli bolaning onasi janjal qiladi. U “Bolam kimdan kam?”[97] der ekan, jamiyatda muallimning , muallimlik kasbining qaysi darajada turganligini bilish mumkin. Bu nima degani? Mustabid sho‘ro tuzumi davrida muallimlik kasbi yerga urilgan, muallimlarning jamiyatdagi o‘rni, obro‘si yo‘q ekanligi, prokuror, mafiyalarning obro‘si yuqori ekanligi ochib berilgan. Butun boshli jamiyat inqirozini ko‘rsatadigan bu kabi fikrlar jamiyatga nisbatan aybnomadek yangraydi.

Darhaqiqat, mustabid sho‘rolar davrida muallimlik kasbi eng xo‘rlangan, kamsitilgan kasblardan hisoblandi. Muallimlar o‘quvchilarga bilim berishlari lozim bo‘lgan holda, ular kech kuzgacha paxta dalalarida sarson-sargardon yurdilar, bo‘lar-bo‘lmas “shanbaliklar”, “hasharlar”ga safarbar etildilar. Oylik maoshlari yashash uchun yetmaydigan darajada oz edi. Luqmon Bo‘rixon qissasida sirli Muallim Najot G‘aybulloning oliy maqsadi o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish, ularni fanga qiziqtirish, dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, qishloq maktabiga nurli hayotni olib kirish edi. Yozuvchining maqsadi o‘sha davr muhitini ochiq-oydin tasvirlash, ko‘rsatish edi. Maktablardagi haqiqiy ahvol, o‘quvchilarning dunyoqarashining torligi, bilim darajasining pastligi jamiyatning nosozligidan dalolatdir. Bunday avlod bilan yorqin kelajakni sira qurib bo‘lmasligi ayon haqiqatdir. Luqmon Bo‘rixonning “Sirli muallim” qissasi ana shunday g‘oyalar to‘laqonli ifoda etilganligi bilan e’tiborga loyiq.Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Oq kema” qissasidagi Mo‘min bobo obrazi adabiyotda o‘ziga xos kashfiyot sifatida ajralib turadi. Uning dastlab keskin munozaralarga sabab bo‘lganligi ham bejiz emas. Asosan, kurashchan va dadil, kashfiyotchi va ishbilarmon kishilar obrazini ulug‘lash an’ana tusini olgan sobiq sho‘ro adabiyotida Mo‘min bobo kabi butun borlig‘i bilan mute, ojiz va notavon ko‘rinishli kishining asar markaziga

---

[95] Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. Адабий-танқидий мақолалар. Т.: “Янги аср авлоди”, 2004, 5-бет (414 бет).

[96] Bo‘rixon L. “Sirli muallim” qissa va hikoyalar. Toshkent: “Read book” nashriyoti, 2024. 69-bet.

[97] Bo‘rixon L. “Sirli muallim” qissa va hikoyalar. Toshkent: “Read book” nashriyoti, 2024. 70-bet.

olib chiqilishi hamon vulgar sotsiologizm g‘oyasi ta’siridagi ayrimlarga sotsialistik realizm prinsiplaridan chekinishi bo‘lib ham tuyulganligi rost. Umuman, “qaltis” taqdirli kishilar obrazining talqini Aytmatov ijodining alohida qirrasi tashkil etadi. Bu ham “Sarvqomat dilbarim” qissasidagi Ilyos timsolidayoq namoyon bo‘lgan edi. Adib “Muqaddima o‘rnida” qissani dastlab o‘qish uchun o‘rtoqlariga berar ekan, “Birdaniga ustimga do‘lday ta’na-tanbehlar yog‘ila boshladi”[98], - deya qayd qiladi. Buning boisi - Ilyosning risoladagidek kam-ko‘stsiz tasvirlanmaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, muallif go‘yo bularning hammasi mening xohishim bilan ro‘y bergandek edi”[99], - deb izoh beradi. Albatta, 50-yillarda shakllangan, 60-yillar boshida ham kuchini yo‘qotmagan, adabiyotdagi shaxsga sig‘inish ta’sirida paydo bo‘lgan konfliktsizlik nazariyasiga amal qilganda, o‘sha mavjud andozalarga kirganda, Aytmatov ham Ilyosni qariyb ideal tarzda tasvirlagan bo‘lardi.
Adib hayoti haqiqati, ijodkorning shaxsiy mayliga, uning xohish-irodasiga bog‘liq emasligini juda o‘rinli ta’kidlaydi. “Oq kema”ga kelib esa, mavjud adabiy andozalarga sig‘maslik xususiyati yanada yorqin ko‘rinadi. Ch.Aytmatov barcha fazilatlar sohibi bo‘lolgan ulug‘vor qahramon timsolida emas, balki passiv, barchaga mute, o‘z qadr-qimmatini bilmaydigan bechorahol kishilar timsolida davr haqqoniyatini ko‘rsatadi. Shu jihati bilan Mo‘min bobo obrazi mustabid turg‘unlik davrlarida oddiy inson hayoti qanday edi, degan savolga haqqoniy javob bera oladigan darajadagi g‘oyaviy-estetik kuchga ega. Ilhom G‘aniyev “Oq kema” qissasida ko‘tarilgan qullik-qaramlik, ma’naviyatsizlik yoki yovuzlik illatlari keng ma’nodagi, butun dunyo miqyosidagi og‘riqli dard, katta fojia ekanligini ta’kidlaydi: “Oq kema”ni faqatgina sovet jamiyatiga protest sifatida baholash uning san’at asari sifatidagi rolini toraytirish bilan barobar bo‘lur edi. “Oq kema”da ko‘tarilgan muammo adabiy: O‘rozqul-u Mo‘min chollar fojiasi barcha zamon-u makonlarning ulug‘ bir dardidir. Bu dard butun yer kurrasining unda yashab o‘tgan va yashayotgan buyuk shaxslar, yuksak qalb egalarining yelkalarini bosib turgan og‘ir yuk”[100]. Bu kabi muammolar tahlildagi qissada uning bosh qahramoni timsoli va maktabdagi voqealar timsolida badiiy jihatdan mukammal talqin etilgan.
Darhaqiqat, insonning qadri, jumladan, himoyasiz, bechora odamlar mavqei har qanday siyosiy jamiyatlar mustabid tuzumlardan ham baland turadi. Insonshunoslik mohiyatini o‘zida mujassam etgan badiiy adabiyot doimo, barcha zamonda eng avvalo shu insonni ulug‘lash, uning qadr-qimmatini ado etib kelmoqda. Luqmon Bo‘rixonning yuqorida tahlilga tortilgan “Sirli muallim” qissasi qahramonlari maktab direktori Qalqonov, direktor o‘rinbosari B.B.Boymurod, Ulash agronom, maktab ilmiy mudirasi Norxol Xushboqova kabilarning hayotini tasvirlash orqali oddiy qishloq odamlarining sodda qalbi, qiyinchiliklar qarshisida ojizligi obrazli tarzda aks ettirilgan.
Umuman olganda, qissadagi voqea va hodisalar hech kimda shubha uyg‘otmaydi, ularning shundayligi, boshqacha bo‘lishi mumkin emasligini isbotlashga zarurat yo‘q. Muallif badiiy voqelikni oddiy hayot haqiqatiga aylantira oladi. Najot G‘aybulla siymosida chinakam o‘qituvchi xarakteri yaratilgan.

## IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQ TENGLAMALARINI KLASAFIKITSIYA QILISH VA ULARNI KANONIK KO‘RINISHGA KELTIRISH

**Mamanov Siroj Kaxramon o‘g‘li**
**O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali Assistenti**
**Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna**
**O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali stajyor o‘qituvchi**
**Nizomov Javlon To‘lqin o‘g‘li**
**O‘zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali talabasi**
**Kalit so‘zlar:** ellips, aylana, giperbola, parabola, fokus, orbita, akustika, kanonik yoyilma.

[98] Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. // Айтматов Ч. Танланган асарлар. Икки томлик. Биринчи том. Ғ.Ғулом номидаги АСН, Т.-1978, 123-бет (408 бет).
[99] Айтматов Ч. Сарвқомат дилбарим. // Айтматов Ч. Танланган асарлар. Икки томлик. Биринчи том. Ғ.Ғулом номидаги АСН, Т.-1978, 123-бет (408 бет).

[100] Ғаниев И., Ибрагимов Р. Чингиз Айтматов ва XXI аср. Т., “Академнашр”, 2010, 19-бет (288 бет).

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikkinchi tartibli chiziq tenglamalarini kanonik ko‘rinishga keltirish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi. Ikkinchi tartibli chiziqlarning xossalari va ular ustida amallarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Tekislikning berilgan nuqtalarini F1 va F2 orqali belgilab ularni ellipsning fokuslari deb ataymiz. Fokuslar orasidagi masofani 2c va ellipsning har bir nuqtasidan uning fokuslarigacha bo‘lgan masofalarning yig‘indisini 2a orqali belgilaymiz. 0xy dekart koordinatalar sistemasini 0x o‘qni ellipsning fokuslari F1 va F2 orqali o‘tkazib F1 dan F2 tomonga yo‘naltiramiz, koordinatalar boshini esa F1F2 kesmaning o‘rtasiga joylashtiramiz. U holda fokuslar F1(-c;0), F2(c,0) koordinatalarga ega bo‘ladi. Har bir nuqtasidan tekislikning berilgan ikkita nuqtasigacha masofalarning yig‘indisi o‘zgarmas bo‘lgan shu tekislik nuqtalarining geometrik o‘rniga ellips deb ataladi. Ikkinchi tartibli chiziqlarning xossalarini o‘rganish atrofimizdagi olam sirlarini o‘rganishda alohida o‘ringa ega. Kepler va Nyutonning ilmiy izlanishlaridan ma`lumki sayyoralar va osmondagi boshqa jismlar orbitalari ellipsdan iborat. Aylana shakldagi stakanda suv ichmoqchi bo‘lsak, ko‘z oldimizda suv sathida ellips paydo bo‘ladi. Odamlarning eshitishlari qulay, tiniq bo‘lishi uchun saroylar, masjidlar va unga o‘xshash imoratlarni qurishda ellips va parabolaning shaklidan foydalaniladi. Chunki bu shakldagi qurilgan gumbazlarda akustika yaxshi bo‘ladi ya`ni tovush tarqalishi va qabul qilishi ancha yaxshi bo‘ladi. Ushbu geometrik masalalarning hayotdagi o‘rni va fandagi ahamiyati shundan iboratki, bugungi kun qurilishi va arxetekturasi bino va inshootlarning loyihalarini yaratishda muntazam ravishda geometrik shakl va qoidalardan foydalanishga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, hozirgi kunda yer yuzidagi davlatlarning ko‘pchiligi tomonidan iste`molga kiritilgan global joylashuv tizimi GPS ning ishlash mexanizmi ham aynan geometriya va trigonometriya qonunlariga asoslanadi. Shu bilan birga insoniyatning maishiy hayotida muhim o‘rin egallaydigan telefoniya,televideniya,aloqa tarmoqlarida hamda qishloq xo‘jaligi,neft va gaz mahsulotlarini qidirishda suv,yer va havo transportlarida geometrik qonunlarning ahamiyati beqiyosdir. Ikkinchi tartibli chiziqlar xossalarining o‘rni fizika fanida ham muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, ularning optika xossalari fizika va texnikada keng qo‘llaniladi. Qog‘ozga ikki uchini uni tayanchiga mahkam bog‘laymiz. Agar ipni qog‘ozga vertikal qo‘yilgan qalam yordamida o‘tkir tig‘I, ya`ni M nuqta egri chiziqni chizadi. Bu egri chiziq ellips deyiladi. Klassifikatsiya – ilm yoki inson faoliyatining biror sohasiga oid o‘zaro bir xil tushunchalar sistemasiga aytiladi. Kanonik yoyilma – sonni tub sonlar ko‘paytmasi ko‘rinishiga keltishiga aytiladi. Analitik geometriyada ikkinchi tartibli chiziqlarga parabola,giperbola,aylana hamda ellips kiradi. Ikkinchi tartibli ixtiyoriy chiziq umumiy holda ikkita o‘zgaruvchili ikkinchi darajali tenglamalar yordamida yasaladi. Ikkinchi tartibli egri chiziqlar x va y o‘zgaruvchilarga nisbatan ikkinchi darajali tenglamalarning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

$Ax^2 + Bxy + Cy^2 + Dx + Ey + F = 0$

**Aylana.** Ma`lumki tekislikda berilgan M(a;b) nuqtadan bir xil r masofada joylashgan nuqtalarning geometrik o‘rni aylana deyiladi. Aylana ta’rifidan foydalanib markazi M(a;b) nuqtada va radiusi r bo‘lgan aylananing kanonik ko‘rinishini keltirib chiqarish mumkin va quyidagicha:

$(x – a)^2 + (y – b)^2 = r^2$

Bu yerda (a;b) aylana markazi hisoblanib, x va y aylanadagi nuqta hamda aynan shu (a;b) aylananing markazi qayerdaligini aniqlab beradi. Aylana tenglamasi x va y larga nisbatan ikkinchi darajali tenglama bo‘lib unda $x^2$ va $y^2$ lar bir xil koeffitsientlar bilan qatnashadi. Bundan tashqari tenglamada x va y lar ko‘paytmasi bo‘lmaydi. Demak, aylanani kanonik ko‘rinishdan umumiy ko‘rinishga o‘tganimizda u quyidagicha bo‘ladi:

$Ax^2 + Ay^2 + Bx + Cy + D = 0$

Aylananing umumiy tenglamasi bilan kanonik tenglamasini solishtiradigan bo‘lsak unda:

$A = -B/2A$ ; $b = -C/2A$

teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**Ellips.** Berilgan ikkita $f_1$ va $f_2$ nuqtalargacha masofalarning yig‘indisi o‘zgarmas songa teng bo‘lgan tekislikdagi nuqtalarning o‘rni ellips deyiladi. Ellips ikkinchi tartibli yassi yopiq egri chiziq. Aylanma konus bilan uning uchidan o‘tmaydigan kesuvchi tekislik kesishishidan hosil bo‘ladigan yassi figuro hisoblanadi. Endi ularning xossalari bilan tanishsak:

1.Ellipsning ixtiyoriy nuqtasidan uning fokuslarigacha bo‘lgan masofalar yig‘indisi o‘zgarmas va 2a ga tengdir.
2.Ellipsning ixtiyoriy nuqtasidan uning fokuslarigacha bo‘lgan masofalarning mos derektissalargacha bo‘lgan masofalargacha nisbati o‘zgarmas va u ellipsning eksentrititi deb ataluvchi e soniga tengdir.Ellipsni fokuslari orasidagi masofani uning katta o‘qi uzunligiga nisbati ellipsning eksentrititititi deyiladi va u E(epsilon) bilan belgilanadi. $E = a/c$ $r_1 = a + ex$ va $r_2 = a - ex$ ellipsning fokal radiuslari deyiladi va shuningdek $x = a/e$ va $x = - a/e$ tenglamalar bilan berilgan to‘g‘ri chiziqlarga ellipsning direktrisalari deyiladi. Yuqorida aytilganidek tekislikda berilgan ikkita nuqtalargacha bo‘lgan masofalarning yig‘indisi o‘zgarmas bo‘ladigan nuqtalarning geometrik o‘rni ellips deyiladi. Bunda $f_1(-c;0)$ va $f_2(c;0)$ nuqtalar ellipsning fokuslari deyiladi. Ellipsning kanonik ko‘rinishi yoki tenglamasi:
$x^2/y^2 + y^2/b^2 = 1$ bu yerda $b^2 = a^2 - c^2$ teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.
Giperbola va uning kanonik tenglamasi. Tekislikda ikkita $f_1$ va $f_2$ nuqtalargacha bo‘lgan masofalar ayirmasining absolyut qiymati o‘zgarmas 2a teng bo‘lgan tekislikdagi nuqtalarning geometrik o‘rniga giperbola deyiladi. Bu yerda $f_1$ va $f_2$ giperbolaning fokuslari deyiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, giperbolaning kanonik tenglamasi quyidagicha :
$x^2/a^2 - y^2/b^2 = 1$ bu yerda $b^2 = c^2 - a^2$ teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.
Parabola va uning kanonik tenglamasi. Har bir nuqtadan fokus deb ataluvchi berilgan nuqtalargacha va deriktrissa deb ataluvchi berilgan to‘g‘ri chiziqgacha bo‘lgan masofa o‘zaro teng bo‘lgan tekislikdagi barcha nuqtalar to‘plamiga parabola deyiladi. Parabolaning kanonik tenglamasi quyidagicha :
$y^2 = 2px$ bu yerda p $(p>0)$ uning giperbolaning parametri deyiladi. Uning fokal radiusi r bilan belgilanadi va u $r = d = x + p/2$ ga teng ekanligini ko‘rishimiz mumkin va parabola uchun $e = r/d = 1$ ayniyatdir.Shuningdek $d = (-p/2;o)$ , $r = (p/2;0)$ ga teng.
Xulosa qilib aytganda yuqorida aytib o‘tganimizdek ikkinchi tartibli chiziq tenglamalarini qurilish arxitekturasi va shunga o‘xshash ko‘pgina sohalarda duch kelishimiz mumkin va bilimlardan foydalangan holda real hayotdagi iqtisodiy masalalarni yechimini topishni o‘rgatish maqolaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Ikkinchi tartib chiziq tenglamani kelib chiqish tarixi va ularni tarkibiga nimalar kirishini atroflicha o‘rganish orqali ikkinchi tartib chiziq tenglamalarini chuqurroq o‘rgatishdan iborat.

**Adabiyotlar ro‘yxati**


1. A.Y.Narmanov. “Analitik Geometriya” , “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. Toshkent 2008
2. I.Isroilov,Z.Pashayev. “Geometriya”, “O‘qituvchi” , T. 2010
3. Nazarov R.N, Toshpo‘latov B.T, Do‘sumbetov A.D. Algebra va sonlar nazariyasi. T., O‘qituvchi. 1 qism, 1993 y. 2 qism, 1995 y.
4. T.Jo‘raev va boshqalar. “Oliy matematika asoslari”. 1-qism, “O‘zbekiston”, T.1995
5. T.Shodiev. “Analitik geometriyadan qo‘llanma”, “O‘qituvchi”,T.1973
6. V.E.Shneydeer va boshqalar. “Oliy matematika qisqa kursi” 1-qism,


## НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИНИ ХЎЖАЛИК ИХТИСОСЛАШУВИГА КЎРА РАЙОНЛАШТИРИШ


**Эгамбердиев Фаррух Закир ўғли**
**NDPI, География ва иктисодий билим асослари йуналиши 3-курс талабаси**
**Илмий раҳбар:Норқуватова Гулмира Изатуллаевна**
**NDPI, География ва иктисодий билим асослари кафедраси в.б. дотценти, (PhD).**



**Аннотатсия.** Ушбу макола Навоий вилояти ҳудудини хўжалик ихтисослашувига кўра районлаштишнинг хозирги кундаги ахамияти, ривожланиши ва узига хос хусусияти, кулайликларига каратилган. Навоий вилояти худудидаги барча ихтисослашувларни очиб беришга кумаклашади ва ривожлантиришга ахамият берилган.



**Калит сузлар:** саноат, тахлил, казилма бойликлари, демографик салохият.

**Аннотация.** В данной статъе рассматриваются значение, развитие и особенности районирования Навоийской области по экономической специализации. Это помогает раскрытъ и развитъ все специалъности на территории Навоийкой области.
**Ключевые слова:** Промышленностъ, анализ, минералъные ресурсы, демографическая мощъ.
**Annotation**. This article focuses on the importance, development and specific features of Navoi region regionalization according to economic specialization. It helps to reveal and develop all specializations in the territory of Navoi region.
**Key words**: Promyshlennost', analyz, mineral'nye resursy, demograficheskaya moshch'.

Навоий вилоятида саноат шаклланиши ва ривожланиши узоқ тарихга бориб тақалмасада, вилоят саноати ўзига хос тарихий ривожланиш босқичига эга. Бизнинг тадқиқотимиз объекти бўлган енгил саноатнинг (Навоий вилояти мисолида) ривожланиши таҳлилига ўтишдан аввал албатта, вилоятнинг ўзига хос хусусиятлари устида тўхталиш мақсадга мувофиқ бўлади деб ҳисоблаймиз. Ўзбекистоннинг марказий ва шимолий қисмида жойлашган Навоий вилояти 1982 йилда Бухоро вилояти ва қисман Самарқанд вилояти ерларидан ташкил топган. Вилоят 1988 йилда маъмурий бирлик сифатида тугатилиб, 1992 йил бошида яна қайта тикланган. Таркибий жиҳатдан 8 та қишлоқ туманлари, жумладан: Навбаҳор, Конимех, Кармана, Томди, Учқудуқ, Хатирчи, Қизилтепа ва 7 та шаҳар: Навоий, Зарафшон, Кармана, Нурота, Учқудуқ, Қизилтепа, Ғазғон ва 577 та қишлоқ аҳоли пунктларидан иборат. Навоий вилояти ҳудудий жиҳатдан Республика ҳудудининг ¼ қисмини ташкил этиб, 111,1 минг.кв.км. майдонга эга ва Республика ҳудудининг 24,8 фоизига тенг. Вилоятда Учқудуқ (46.63 минг кв.км) ва Томди (42,49 минг кв.км) туманларининг майдони жуда катта. Бундай жойлашув ҳудуднинг қишлоқ хўжалиги ва аҳоли жойлашуви учун қулай шароитга эга эмаслигини кўрсатади. Умумий ер майдонининг 91,5 фоизи яйловлар ва пичанзорлар, 1 фоизи экин ерлари, 0,4 фоизи кўп йиллик дарахтлар ва 7,1 фоизи қишлоқ хўжалигида ишлатилмайдиган ерлар ташкил этади. Маълумотлар англатиб турибдики, Навоий вилояти ўзининг орографик хусусиятлари билан республиканинг бошқа минтақаларидан кескин фарқ қилади. Минтақада мавжуд кичик - кичик қолдиқ тоғликлари турли хил қазилма захираларига бой. Мана шу минерал хомашё ресурслари вилоят иқтисодиётини шакллантириш, унинг ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятини ривожлантиришда асосий роль ўйнайди. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, вилоят иқлими қишлоқ хўжалигини, айниқса, деҳқончилик тармоғини ривожлантиришга қулай шароит яратмайди. Аммо, Навоий вилояти асосан чўл-яйлов чорвачилиги, қоракўлчиликка асосланган. Вилоятнинг демографик салоҳияти унча катта эмас. Аҳоли сони 2022 йил 1 январь ҳолатига Республика аҳолисининг 3,0 фоизини ташкил этиб, 1013,8 минг кишини ташкил этди.[101] Демократик салоҳияти жиҳатидан Сирдарё вилоятидан олдинда туради. Аҳолиси табиий ўсиш ҳисобига 2000-2020 йилларда 23,5 фоизга ортди.

Навоий вилояти аҳолиси ички ҳудудларда жуда нотекис жойлашган. Навоий шаҳрида 14,5 фоизи, Хатирчи туманида 20,0 фоизи, Қизилтепада 15.2 фоизи, Карманада, 12,6 фоизи, Навбаҳорда 11.3 фоизи, Нурота туманида 9,3 фоиздан кўпроғи яшайди. Мамлакат бўйича иқтисодиётда банд бўлганлар таркибида вилоятнинг улуши 3,0 фоизни ташкил этади ва сони бўйича мамлакатда охирги ўринда туради. Иш билан банд аҳолининг тармоқ таркиби бўйича асосий қисми, яъни 27,4 фоизи саноатда, 20,6 фоизи қишлоқ хўжалигида фаолият юритади.

Вилоятда республикадаги мавжуд хўжалик юритувчи субъектларнинг 4,2 фоизи жойлашган бўлиб, 2021 йилнинг 1 январь ҳолатига 21321 тани ташкил этади. Бу кўрсаткич ҳар 1000 та киши ҳисобига 17.6 тани ташкил этади. Минтақадаги барча корхона ва ташкилотларнинг 96,1 фоизи иқтисодиётнинг нодавлат секторига тегишли.[102] Корхоналарнинг 24.0 фоизи Навоий шаҳрида жойлашган бўлиб, Кармана, Қизилтепа ва Хатирчи туманида ҳам асосий қисми жойлашган. Тадқиқот жараёнида таҳлилга тортилган вилоятнинг макроиқтисодий кўрсаткичлари, жумладан, ялпи ҳудудий маҳсулот (ЯҲМ), саноат, қишлоқ хўжалиги ва инвестиция кўрсаткичларини аҳоли жон бошига қиймати, ўтган даврга нисбатан ўзгариши ва

[101] Навоий вилояти статистика бошқармаси маълумотлари
[102] , File:///C:/Users/Uzer/Downloads/3.8%208 Volume_GRP_per_ capita_uzb+pdf

республика кўрсаткичларидан юқорилиги Навоий вилоятининг иқтисодий салоҳияти анча юқорилигини англатади. Ҳудудлар кесимида саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ва ўсиш динамикасида (саноат маҳсулотини ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръати 2020 йилда 2015 йилга нисбатан 517,9 фоизни ташкил этган) Навоий вилоятининг салмоқли ҳиссаси борлигини кузатиш мумкин. Вилоят иқтисодиётини ва унда енгил саноатни ривожлантириш имкониятларини тўлиқ аниқлаштириш мақсадида саноат ва қишлоқ хўжалик тармоқлари ихтисослашувини чуқур таҳлил этиш ва янада такомиллаштириш зарурлиги кузатилади. Шу боис, минтақа ҳудудини кичик иккита иқтисодий районларга бўлиб ўрганиш, улардаги статистик маълумотлар ва олиб борилган тадқиқотлар асосида имкониятларни таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.Кичик иқтисодий районларга ажратишда вилоят ҳудудининг яхлитлиги, унинг жойлашган ўрни, хўжалигининг ихтисослашуви, район ҳосил қилувчи марказларнинг мавжудлиги, табиий иқлими, шароити, табиий ресурслари, демографик вазияти, меҳнат ресурсларининг ҳолати ва жойнинг тарихий ривожланишини инобатга олдик. Иқтисодий районларнинг илмий - амалий аҳамияти, энг аввало, уларнинг маъмурий-ҳудудий бўлинишни ташкил этишда, минтақавий сиёсатни амалга оширишда ўз аксини топади.[103] Демак таҳлилларимизга асосланиб, минтақани:

жанубий кичик иқтисодий район ва унинг таркибига Навоий шаҳри, Кармана, Қизилтепа, Навбаҳор, Нурота ва Хатирчи туманларини;

шимолий кичик иқтисодий район таркибига чўл ҳудудларини эгаллаган уч йирик Конимех, Томди ва Учқудуқ туманларини киритиш мақсадга мувофиқдир.

Жанубий кичик иқтисодий район майдони унча катта бўлмасада, ишлаб чиқаришнинг ҳудудий мужассамлашуви юқори ҳисобланади. Вилоят бўйича етиштирилаётган деҳқончилик маҳсулотларининг аксарият қисми, яъни 89,6 фоизи шу район улушига тўғри келади. Шимолий кичик иқтисодий район аксинча, катта майдонга, яъни 88,6 минг кв.км. эга бўлсада, аҳоли сони сийрак ва чорвачилик тармоғи бирмунча ривожланганлиги билан ўзига хос ихтисослашувига эга .

Таҳлиллардан кўриш мумкинки, Навоий вилоятида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳудудий таркиби бир-биридан кескин фарқ қилади. Жами саноат маҳсулотининг 84,5 фоизи Навоий шаҳрида, 10,7 фоизи Кармана туманида ва 1,7 фоизи Қизилтепа туманларида ишлаб чиқарилган.

Бундан хулоса қилиш мумкинки, Конимех, Нурота, Учқудуқ ва Томди туманларида чорвачиликни, Кармана, Навбаҳор, Нурота ва Хатирчи туманларида деҳқончилик маҳсулотларини етиштириш ва қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишлаш имконияти юқорилигини таъкидлаш мумкин.

## SAID AHMAD ROMANLARIDA O‘XSHATISHLAR LINGVOPOETIKASI

**Ilmiy rahbar: NDPI, O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi**
**f.f.f.d.(PhD) Yuldashev Jo‘rabek Uralovich**
**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi**
**Nurmanova Ismigul Abdivali qizi**

Betakror ijod sohibi Said Ahmad o‘zbek so‘z san’atida o‘chmas iz qoldirgan, turkiy so‘zning bor kuch-qudratini, jilosini tarannum etgan buyuk yozuvchidir. U qoldirgan badiiy asarlarni so‘zga oshno har qanday qalb sohibi hadsiz hayajon hamda zo‘r entikish bilan mutolaa qiladi, adibning so‘z tanlash va qo‘llash mahoratiga qoyil qoladi. Uning o‘tkir hikoyalarini, yirik nasriy asarlarini huzur bilan o‘qir ekanmiz, mahoratli adibning o‘zbek xalq tili xazinasini nechog‘lik tugal egallaganligiga, betakror so‘z ijodkori sifatida bu xazinadagi unsurlarni o‘z badiiy niyatiga nechog‘lik muvofiq tarzda saylay bilganiga, tildagi lisoniy vositalarga naqadar sayqal-u jilo bera olganiga, bu birliklardagi ma’no injaliklaridan juda katta ustalik bilan foydalana olganiga amin bo‘lamiz.

[103] Солиев А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси.Дарслик.-Т.:Университет,2014.-387 б.

Adib asarlarida badiiy uslubda eng faol qo‘llaniladigan tasviriy vositalar qatori xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida yuzaga kelgan, so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli bo‘lgan tasvir vositasi – o‘xshatishlardan ham unumli foydalangan.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatishning lingvistik tabiati, uning badiiy matnlardagi vazifasi va lingvopoetik salmog‘i boshqa tasviriy vositalarga nisbatan birmuncha mukammal va atroflicha o‘rganilgan. Ilmiy manbalarda o‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni:1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi. [1. 27.] Har qanday ijodkor bu muhim va keng qo‘llanuvchi vositaning har ikkalasidan unumli foydalanadi, chunki o‘xshatishlarda xalqning ming yillik madaniyati, madaniy-tarixiy tajribalari, badiiy tasavvurlari, tashqi olamni baholash mezonlari go‘yoki konservatsiyalangan holatda saqlangan bo‘ladi. Ma’lumki, nutqimizda *ayiqday baquvvat, arvohday ozg‘in, musichaday beozor, bilakday yo‘g‘on, toshday qattiq* kabi bir qancha o‘xshatishlar bor. Bu o‘xshatishlar og‘izdan og‘izga, asardan asarga o‘tib kelayotganligi uchun ham ularning o‘xshatish etalonlari o‘z originalliklarini allaqachon yo‘qotib, qoliplashgan nutq parchalari bo‘lib qolgan, an’anaviy tus olgan. Shuni hisobga olib ular an’anaviy o‘xshatishlar deb qaraladi. An’anaviy o‘xshatishlarning mohiyati shundan iborat bo‘ladiki, ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. [2. 6] Mahoratli yozuvchi Said Ahmad o‘xshatishlarning har ikkalasidan ham foydalanadi. Masalan, yozuvchining “Ufq” trilogiyasi va “Jimjitlik” romanida an’anaviy o‘xshatishlardan *zulukdek qora, kafandek sovuq, bulbul qafasidek tor, do‘ppidek kichkina* kabi ko‘plab o‘xshatish konstruktsiyalarini uchratamiz. Asarda ular quyidagicha ishlatilgan: *Hali ustara tegmagan iyaklarida yigitlik nishonalari belgi berib qolgan, tush surtilgandek quyuq kipriklari yumuq ko‘zlarini qoplab turardi.* ***Zulukdek qora qoshlari****, qirra burni, bejirim iyaklari bolaga alohida bir husn bag‘ishlardi.* [3.11] *Lutfinisa onasi olamdan o‘tgandan buyon endi ohorli kiyim kiyishi edi. To‘g‘ri, to‘yda unga yangi liboslar kiydirishgandi. Ammo u kiyimlar* ***kafandek sovuq*** *tuyulgan edi.* [3.146] *Nurmat tog‘a tinchgina bankda bulbulning* ***qafasidek tor kassada*** *pul olib, pul berib kunini o‘tkazib yurardi.* [4.45] *Yetimqishloq* ***do‘ppidek kichkinagina*** *edi.* [4. 105]

Xususiy-muallif o‘xshatishlar yozuvchining teran nigohi, kuzatuvchanligi, olamning kamalak ranglarini zakiylik bilan ko‘ra olishi, mukammal his qilishi hamda badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o‘xshatishlaridir. [5. 136] Bunday o‘xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo‘ladi. Xususiy-muallif o‘xshatishlarini badiiy matnni shunchaki bezovchi, go‘zallashtiruvchi vosita sifatidagina qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Mahoratli yozuvchi bunday o‘xshatishlarga badiiy-estetik ehtiyoj zaruriyati bilan murojaat qiladi. Tasavvur qilish qiyin bo‘lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirish, tasvirni quruq emas, balki quyuq bo‘yoqlar bilan amalga oshirishda ana shunday o‘xshatishlar favqulodda muhim vositadir. “Jimjitlik” romani hamda “Ufq” trilogiyasida Said Ahmad tomonidan yaratilgan betakror, chinakam badiiy o‘xshatishlar tahlil etilganda bunga to‘la amin bo‘lish mumkin.

Odatda bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko‘ra emas, balki butunicha, to‘lasincha, aynan o‘xshatilmoqchi bo‘lsa, o‘xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. [5.137] Bunday holatlarda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi sifatida ham ko‘pincha *o‘xshamoq* fe’lidan foydalaniladi. Masalan, yozuvchining “Jimjitlik” romanidan olingan quyidagi parchada buning guvohi bo‘lamiz: *Bugun Luqmonov bilan Mirvali o‘rtasida o‘lik savdosi bo‘ldi. U shu gapni aytdi-yu, xuddi soniga olovda toblangan tamg‘a bosilayotgan otga* ***o‘xshab*** *pishqirib yubordi. [4.25]* Misolda *soniga olovda toblangan tamg‘a bosilayotgan otga o‘xshab* birikmasi o‘xshatish etalonini ifodalagan. Ma’lumki, o‘zbek xalqi azal-azaldan ot bilan o‘z taqdirini bog‘lab kelgan. Uni o‘z izmiga bo‘ysundirish, parvarish qilish, boqish, uloq chopish kabi ish va yumushlarni san’at darajasiga chiqargan va ot haqida to‘qimagan rivoyati, yozilmagan kitobi, eshitmagan afsonasi qolmagan. Shunday ekan, otni o‘zbekning kattasidir, kichigidir yaxshi biladi, anglaydi. Mana shu

hodisani yaxshi anglagan yozuvchi aynan asar qahramonining holatini *otning pishqirishiga* o‘xshatadi. Bu o‘xshatishda aynan otning quvvati ham hisobga olinadi, ya’ni “Jimjitlik” romani qahramoni Mirvali ham otday quvvati bor erkak. Uning baquvvatligi, shiddatkorligi, dushmaniga omonlik bermasligi romanda to‘lasicha yoritilgan, ammo uning “pishqirishi” *otning pishqirishiga* mengzalishi ushbu asar qahramonini kitobxon ko‘z o‘ngida yanada yorqin gavdalantiradi. Bu o‘xshatishsiz ayni holat tasvirlanmoqchi bo‘lsa, bir-ikki sahifa qoralanishi mumkin edi, ammo bunday yorqin va aniq ifodaga erishish mahol bo‘lardi. Yozuvchi tomonidan favqulodda topqirlik bilan saylangan o‘xshatish etalonining bu o‘rindagi estetik qimmatini alohida ta’kidlash lozim. Yozuvchi o‘xshatishning bu turidan juda ko‘p o‘rinlarda foydalanadi. Masalan, *Tolibjon kabinadan chiqdi. Qoyadan to‘kilgan toshlardan* ***echkiga o‘xshab sakrab-sakrab yurgan*** *mashinada silkinaverib, beli og‘rib ketgan edi.* [4.150] Keltirilgan namunada o‘xshatish etaloni *echkiga o‘xshab sakrab-sakrab yurgan mashina.* Barchamizga ma’lumki, mashinalar tekis yo‘lda yurishga mo‘ljallangan texnikadir, ammo u tog‘ yo‘lida yurishga qiynaladi. Bu holatni tasvirlash esa yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. O‘quvchiga esa uni aniq-tiniq yetkazishning eng to‘g‘ri yo‘li uni *echkiga* o‘xshatish. Echkining sakrashi esa hammaga ma’lum holat.

Yorqin va komil badiiy iste’dod sohibi Said Ahmad o‘xshatishlar orqali tabiat tasvirini shunday mahorat bilan chizadiki, natijada turfa olamdagi kamalak ranglarning tirikligiga, tabiiyligiga putur yetmaydi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misolga e’tibor bering:*So‘qmoqlar huvillab qolgan. Cho‘qqilarda* ***haykaldek*** *qotgan burgutlar* ***xuddi*** *sovuqdan qunishib qolganga* ***o‘xshaydi.*** Yoki *Kitob tomonlarda allaqachon kun yoyilgan, dala-toshda oftob dehqonning yag‘rinini qizdirgan mahal, bu joylarda — Omonqo‘ton o‘ngirlarida hali* ***ko‘r oydinga o‘xshash nimqorong‘ulik*** *hukm surardi. Faqat osmon oppoq. Tundan uzilib qolgan qorong‘ulik asta-sekin eriyotganga* ***o‘xshaydi.*** Ko‘rib o‘tilgan misollarda o‘xshatish asosi bitta yoki ikki-uchta emas, balki yaxlit, umumiydir. Shuning uchun ham o‘xshatish asosi alohida bir so‘z bilan ifodalanmagan, ayni paytda o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi qo‘shimchalar emas, balki *o‘xshamoq* fe’lidan iborat leksik-semantik birlikdir. Bu birlik o‘xshatishning yaxlitligi, umumiyligini ta’kidlab turadi.

Said Ahmad ayrim o‘xshatish etalonlarini shunday tanlaydiki, birinchidan, u kutilmagan bo‘ladi, ikkinchidan, qahramon xarakteri va ruhiyati bilan juda ham uyg‘un bo‘ladi. Masalan adibning “Jimjitlik” romanida nopok va birovning haqini yeyishdan qo‘rqmaydigan Hojimurodning tushgan ahvolini kishi qaraganda eti jo‘njikadigan hasharotga, *beshiktebratarga* qiyoslaydi. Zero hasharotlar ichidagi eng sovuq va ko‘rimsizlaridan biri beshiktebratar. Hojimurodday nomard odamlarga jamiyatning bahosi ham shu: *Hoji* ***xuddi*** *tashlagan po‘stiga tikilgan* ***beshiktebratardek*** *yonayotgan kiyimlariga ma’yus qarab turardi.* Bu o‘rinda o‘xshatish vositalarining ikki o‘rinda kelishi holat tasvirini yanada tiniqlashtirgan Salbiy obrazlarni beshiktebratarga o‘xshatish Said Ahmadga xos. Chunki “Ufq” trilogiyasida ham A’zamjonni bir o‘rinda beshiktebratarga o‘xshatadi: *Endi u g‘irt mast bo‘lib yo‘l chetida* ***beshiktervatarga o‘xshab*** *o‘tirgan joyida tebranib o‘tiribdi.* [3.620]

Ijodkor asarlarida erka qahramonlari – Dildor, Lutfinisa, Zebi kabi tabiat ishvalarini tasvirlar ekan, albatta, ularning o‘ziga uyg‘un go‘zal, nozik o‘xshatish etalonlarini tanlaydi. Masalan, go‘zal qiz Dildorning sepkilli tomoqlarini oq o‘rik po‘stiga o‘xshatishi kishining hech xayoliga kelmaydigan Said Ahmadgagina xos o‘xshatish. Masalan: *Shamol yoqasini har silkiganda ochilib yopilayotgan yelkalar, hamon titrab turgan ko‘kraklar, hozirgina yig‘idan bo‘shagandek nam tortib turgan kipriklar-u chimchilab qo‘ygandek bejirim burun, ayniqsa,* ***oq o‘rik po‘stidek bilinar-bilinmas sepkili bor tomoqlari*** *A’zamjonning yigitlik qonini ko‘pirtirib yubordi.*[3.506] Yoki Nizomjonning qalbini o‘g‘irlagan Dildor cho‘miliyatganda suvga tushgan sochini soyabonga o‘xshatishi uning husniga husn qo‘shib, o‘quvchi ko‘z o‘ngida yorqin gavdalantiradiki, bundan zavq olmaslikning, adib mahoratiga tan bermaslikning iloji yo‘q. *Dildor suvdan boshini chiqarib g‘azab bilan unga qaradi.* ***Qizning sochlari suv betida xuddi qora soyabondek*** *doira hosil qilgan edi.[3.250].* Yozuvchi “Ufq” trilogiyasida Katta Farg‘ona kanali qazilishida ishtirok etgan yigitlarning baquvvat va chayir tanalarini ba’zan *saksovulga* o‘xshatsa, ba’zan mehnatdan terlab ketgan tanalarining yaltirashini *samavorga* qiyoslaydi. Buning natijasida kutilmagan, ohorli o‘xshatish o‘quvchini rom etadi, yigitlarning jismoniy holati o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanadi. Asardan olingan parchaga e’tibor bering: *Butun Farg‘ona vodiysiga yog‘och polvon deb nom chiqargan,*

***saksovuldek tanlari*** *bujmayib ketgan novcha polvon bir qo'li bilan yerga tiralib, yo pirim, deb o'rnidan turdi.* Yoki: *Notanish bola hamon ketmon uryapti. Yalang'och badani terlab ketganidan* ***yangi yuvilgan samovardek yaltiraydi.***[3.372] Said Ahmad tanlagan o'xshatishlar ba'zan o'quvchida yengil kulgi qo'zg'aydi. Masalan, *Ora-sira shu ko'm-ko'k cho'lning har yer-har yerida* ***kal boshdek sap-sariq tepachalar*** *uchraydi.* [3.40] Yoki "Ufq" trilogiyasining qahramoni Asrora xarakteri yigitlarga xos qiz. Shunga mos ravishda yozuvchi uni bir o'rinda xo'rozga o'xshatadi: *Asrora nima qilishini bilmay uning tepasida ikki qo'lini beliga tirab urishishga chog'langan* ***xo'rozdek*** *turardi.*[3. 250] kabi.

Umuman, Said Ahmadning o'xshatishlarini kuzatganda, uning etalon tanlashdagi betakrorligi, tasvirlash benihoya mushkul bo'lgan holat-harakatlarning eng nozik jihatlarini ham aniq gavdalantirish uchun kutilmagan o'xshatish etalonlarini tabiatdan, turmushning o'zidan topa bilishini har qadamda ko'rish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. М.Мукаррамов. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: "Фан" нашриёти, 1976.
2. Н. Маҳмудов., Д.Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: "Маънавият" нашриёти, 2013.
3. Саид Аҳмад. Уфқ трилогияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976.
4. Саид Аҳмад. Жимжитлик. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2006.
5. М. Йўлдошев. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент, 2001.


## APPLİCATİON OF CLIL METHOD İN TEACHİNG CHEMİSTRY


**Южно-Казахстанский педагогический университет имени Өзбекәлі Жәнібеков, Шымкент, Казахстан.**

**Сатыбалды А.Ш. магистрант 2 курса специальности «7М01504 – Подготовка учителей химии». Шертаева Н.Т. кандидат химических наук, доцент. Керимбаева К.З. кандидат технических наук, доцент.**



**Izoh:** CLIL yondashuvining ahamiyati til va fanlarni o'rgatish va o'rganishga asoslanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yangidagi asosiy atamalarni aniqlashdir. Eksperimental yondashuvdan foydalanib, mavzu va tilni yaxshiroq o'rganish uchun qaysi o'qitish usullari samaraliroq ekanini tahlil qilish hamda o'rganish motivatsiyasini oshirish va turli ko'nikmalarni rivojlantirish uchun kimyo o'qitishda CLIL texnikasini qo'llash yo'llarini o'rganish. Asosiy tadqiqot savoli CLIL sinfida kimyoni o'qitishning samarali usulini joriy qilishdir.



***Kalit so'zlar:*** CLIL, kimyo, o'qitish usullari, muvaffaqiyatli rejalashtirish, strategiyalar, harakatlar, samaradorlik.



**Аннотация:** Значение подхода CLIL основано на преподавании и изучении как языка, так и предметов. Основная цель исследования - определить ключевые термины в новом подходе, основанном на опыте, проанализировать, какие методы обучения более эффективны для лучшего усвоения темы и языка, а также изучить, как применять технику CLIL в обучении химии с целью повышения мотивации к учебе и развития различных навыков. Основной вопрос исследования заключается во внедрении эффективного метода изучения химии в классе CLIL.



***Ключевые слова:*** *CLIL, химия, методы обучения, успешное планирование,стратегии, действия, эффективность.*



**Abstract:** CLIL is based on the teaching and learning of both language and subjects. The main purpose of the study is to define key terms in a new approach, based on experience, to analyze which training methods are more effective for better learning of the subject and language, and also to study how to apply CLIL techniques and chemical training with the aim of increasing motivation for teaching and developing various skills. The main research question is to implement an effective method for teaching chemistry in the CLIL classroom.



***Keywords:*** CLIL, chemistry, teaching methods, successful planning,strategies, actions, effectiveness.

The main goal of the study is to identify key terms in the new using an experiential approach, analyze which teaching methods are more effective for better learning of the topic and language, and explore how to apply CLIL techniques in teaching chemistry to increase motivation to learn and develop various skills. The main research question is to implement an effective method for teaching chemistry in the CLIL classroom.The modern economy requires the introduction of different approaches, especially integrated ones, so that future specialists can have critical thinking and different skills for complex problem solving. According to recent studies [1], CLIL has been widely distributed both in Asian countries as well as in European countries and proved that it positively affects learning a new language (L2). Developing countries such as Kazakhstan are concerned about CLIL in order to develop their knowledge. But, there is a lack of materials and guidance to plan their subjects. The 4Cs-Framework provides beneficial methodological basics for planning CLIL lessons and preparing materials with the help of the following principles [5]:➔ Content-where teachers should not just supply materials also students must understand the content in their own way and develop their abilities. ➔ Cognition (thinking process)-materials which students get must be analyzed for creating their own explanation. It is located so that students learn and at the same time they develop thinking, that is, the development of critical thinking. ➔ Communication-language of content needs to be clear and acceptable for every student. It is one of the fundamentals of successful CLIL. It is definitely a language. A complete barrier is established in the language. ➔ Culture-is the underlying principle for the other three parts. It is like the core itself, that is, the base, intercultural awareness. There are two main concepts of CLIL [4]: 1) scaffolding: to make language easier for learners;(by giving them specific vocabularies) 2) taxonomy: to involve students to different works;(giving them many multi-levelled activities). As everyone knows Chemistry can be seen as a hard and complicated subject and some people still think it is. Before giving lectures we need to use scaffolding techniques in order to make the lesson understandable. For example: if the name of the topic is “Speed of Chemical reaction”, the teacher should deliver unknown or new scientific words (related words with speed of chemical reaction are: kinetics, equilibrium, catalyst, inhibitor, forward and reverse reactions and so on) before starting the lesson. These activities help students to understand lessons in an easy way. After understanding the meaning of specific words, accepting further knowledge will be easier. Also, teachers can use learning tools during classes, they let students memorize some important information faster. For instance: graphics organizers, multimedia and different websites. Successful planning is required for teachers to engage students for effective learning in CLIL. CLIL approach is based on both language and subject teaching and learning.[3] The starting point of any planning process is content. When it comes to the content, teachers should take into consideration aims/objectives, learning outcomes. Teaching aims and objectives focus on skills that are intended to be developed, knowledge that learners gain from the lesson. Learning outcomes direct on what students should be able to learn by the end of the lesson. For example:

*Aim:* The aim of the lesson is two-folded: firstly, to study the composition of oil, its properties and areas of processing; secondly to practice listening and speaking skills by answering questions, describing, defending.

*Learning outcomes:* By the end of the lesson students should form knowledge of oil as the most important source of hydrocarbons, of its properties, fractional distillation and also should substantiate the existing problem of eliminating oil pollution.

The next step is to include 4Cs framework into the CLIL lesson:

● Content is the topic of the subject. Determine it.

❑ What will you teach?

❑ What will students learn?

❑ What are your aims/objectives?

❑ What are your learning outcomes?

● Then link content with communication.

❑ BICS (Basic Interpersonal Communicative Skills) activity?
❑ CALP (Cognitive Academic Language Proficiency) activity?
● Explore cognition.
❑ What kind of tasks do you develop to stimulate higher order thinking skills?
❑ What kind of skills, abilities do students acquire?
● Culture.
❑ Are there any cultural implications connected with the topic?

Learning the context with CLIL technology implies two directions, such as teaching a subject in a foreign language and introducing some problems to the subject.[2] As the technology itself is not ordinary, which suits everyone, here you can identify such factors that would interfere with the modeling of this technology, such as: not knowing the language and poor learning of the lesson. Difficulties are then based on both students and teachers, but the peculiarity of CLIL modeling is that this technology can be used for children with different learning levels. This means that if the student does not know the language, you can first use glossaries, and if the student is at a loss in the content itself, then you can use communication technologies in order to increase visual memory.

**References:**

1. Bonnet, A., & Breidbach, S. (2017). CLIL teachers’ professionalization. *Applied linguistics perspectives on CLIL*, 269-286.
2. Gorelova, A. V. (2019). IMPLEMENTATION OF CLIL APPROACH TO CHEMISTRY TEACHING IN TECHNICAL UNIVERSITIES.
3. Schietroma, E. (2019). Innovative STEM lessons, CLIL and ICT in multicultural classes. *Journal of e-Learning and Knowledge Society*, *15*(1).
4. Kofou, I., Philippides, K., & Gavriilidou, V. Experimental teaching of Sciences in the English language (CLIL).
5. Valverde Caravaca, R. (2019). Effective questioning in CLIL classrooms: empowering thinking. *ELT Journal*, *73*(4), 367-376.

## НАВЫКИ И КОМПЕТЕНЦИИ, СФОРМИРОВАННЫЕ В РАМКАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ И АКАДЕМИЧЕСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ

**Мәтір Аружан Ұлығбекқызы студент группы 1507-21 факультета Естествознание**
**Научный руководитель: Баймаханова Гульжан Мусабековна к.х.н, доцент**
**Южный Казахстанский государственный педагогический имени Өзбекәлі Жәнібекова, г. Шымкент, Казахстан**

**Аңдатпа.** Бұл мақалада студенттің педагогикалық тәжірибе барысында қалыптасқан білім, білік және дағдылары көрсетілген. Мақаланың негізгі мақсаты студенттердің практикалық оқыту дағдыларының әртүрлі көріністеріне бағытталды. Педагогикалық - психологиялық тәжірибе барысында бұл студенттердің болашақ маман ретінде педагогикалық шеберлігін арттыруға деген ұмтылысының қалыптасу деңгейін анықтайды. Мақалада студенттің практикалық дағдыларды меңгеруініңнақты мысалдары келтірілген. Мақаланы ұсына отырып,студенттердің педагогикалық құзіреттіліктерінің арқасында болашақ білікті әрі білімді маман даярлауға көзделіп жазылған. Берілген мақалада практика кезіндегі студенттің педагогикалық дағдыларының нағыз мұғалім ретінде қалыптастыра алуымен дәлелденіп жазылған. Өзінің үш жылдық педагогикалық тәжірибесі арқылы студент қандай құзіреттіліктер мен дағдыларды игергендігі баяндалады. Көзделген мақсат саналы педагог мамандарын даярлауда практикалық базаның дәлме-дәлдігін қолдана отырып, оның студенттерге берер барлық мүмкін дағды мен құзіреттіліктерін шынайы мысалдар арқылы

жан-жақты сипаттау. Сонымен қатар, студент өз тәжірибесі арқылы қаншалықты педагог маман екендігін сезіне алғандығы жіне қандай жетістіктерге жеткендігін көрсетеді.
**Кілт сөздер:** құзіреттілік, дағдылар, теориялық біліктілік, модельдеу, үдеріс, дидактика.
**Резюме.** В данной статье отражены знания, умения и навыки, приобретенные студентом в ходе педагогической практики. Основная цель статьи была сосредоточена на различных проявлениях практических навыков обучения студентов. В ходе психолого - педагогической практики это определяет уровень сформированности стремления студентов к повышению педагогического мастерства как будущего специалиста. В статье приводятся конкретные примеры приобретения студентом практических навыков. Представляя статью, предполагается подготовить будущего квалифицированного и образованного специалиста благодаря педагогическим компетенциям студентов. В данной статье подтверждено, что педагогические навыки студента во время практики могут быть сформированы как истинный учитель. Через свой трехлетний педагогический опыт будет рассказано, какие компетенции и навыки приобрел студент. Предполагаемая цель состоит в том, чтобы всесторонне описать на реальных примерах все возможные навыки и компетенции, которые он передает студентам, используя точность практической базы в подготовке сознательных педагогических специалистов. Кроме того, на собственном опыте студент смог почувствовать, насколько он является педагогическим специалистом, и показывает, чего он добился.
**Ключевые слова**: компетентность, навыки, теоретическая квалификация, моделирование, процесс, дидактика.
**Summary.** This article reflects the knowledge, skills and abilities acquired by the student during the pedagogical practice. The main purpose of the article was to focus on various manifestations of students' practical learning skills. In the course of psychological and pedagogical practice, this determines the level of formation of students' desire to improve their pedagogical skills as a future specialist. The article provides specific examples of a student acquiring practical skills. Presenting the article, it is supposed to prepare a future qualified and educated specialist thanks to the pedagogical competencies of students. This article confirms that the pedagogical skills of a student during practice can be formed as a true teacher. Through his three years of teaching experience, it will be told what competencies and skills the student has acquired. The intended goal is to comprehensively describe, using real-world examples, all possible skills and competencies that he transfers to students, using the accuracy of the practical base in the training of conscious pedagogical specialists. In addition, from his own experience, the student was able to feel how much he is a pedagogical specialist, and shows what he has achieved.
**Keywords:** competence, skills, theoretical qualification, modeling, process, didactics.

В ходе педагогической практики студенты могут почувствовать себя настоящими специалистами. Углубляясь в тонкости педагогики, обучаются выстраиванию коллективных отношений между учащимися и коллегами. Для студента педагогическая практика - незаменимая возможность отточить свои профессиональные компетенции. Тем не менее, следует отметить, что некоторые студенты - практиканты не делают упор на педагогическую практику. Студенты должны искренне принять свою профессию и проявить мотивацию стать настоящим педагогом и квалифицированным учителем [1.С. 304]. Прежде чем рассматривать достижения студента в педагогической практике, остановимся на содержании и значении, целях педагогической практики. В целом студент - впервые применяет в школьной практике общие теоретические знания, умения, навыки, полученные в рамках высшего учебного заведения в ходе педагогической практики, применяет их на практике в ходе практики.

*Процесс введения студентов в ходе педагогической психологической практики:*

1. В целом педагогическая практика студентов вузов является основной частью их учебного процесса. Навыки, которые студенты приобретают при прохождении какой - либо педагогической практики, определяются целями повышения опыта самостоятельной работы студентов на какой-либо штатной работе или без оплаты, в качестве внештатного помощника, а также повышения научно-педагогической, исследовательской деятельности,

решения конкретных образовательных проблем, углубления и закрепления теоретических знаний. Прохождение студентами педагогической практики считается наряду с изучением обязательных и факультативных дисциплин, закрепленных учебным планом вуза, в котором они обучались [2].

Сегодня очень актуальной проблемой считается повышение уровня профессиональной компетентности будущего учителя, который мыслит свободно и активно, моделирует учебно-воспитательный процесс, умеет самостоятельно придумывать и реализовывать новые идеи и технологии обучения и воспитания [3.с. 208].

Достижения студента в ходе педагогической практики отражаются в его практической базе. Я хочу доказать, почему мы так говорим, на следующих примерах. Приведем пример из доказанной практики: 3 курса направления подготовки учителей химии - биологии:

1.В школу, где изначально было заключено определенное соглашение, направляется в качестве студента - практиканта.

2. Конечно, запланировано специальное время, и это время включают короткие интервалы. Проходитпрактика в объеме 2-3 недели.

3. Каждому студенту прикрепляется отдельный класс.

4. Студент выполняет функции практиканта и контролера прикрепленного класса.

5. Проводить контроль, исследование, ознакомление с ходом обучения, успеваемостью, общей обстановкой в классе.

6. Структура урока данного класса и классный руководитель тесно сотрудничают и делают первые шаги в формировании своей педагогической компетенции.

Конечно, на первокурсников изначально не возлагается особо большая ответственность, они только знакомятся с учебным заведением, коллективом школы, условиями жизни учащихся класса. Первая педагогическая практика первого года обучения проводится с целью ознакомления и изучения.

*А на этой практике студент приобретает следующие компетенции и навыки:*

1. Организация системы общеобразовательных учреждений, знакомство с коллективами школ;

2. изучение коллективных связей, жизнедеятельности школы, понимание партнерских отношений;

3. чувство ответственности, учет ответственности каждого ребенка за закрепленный за каждым классным руководителем класс имеет свои задачи и знакомство;

4. знание, что в ходе педагогической практики необходимо быть не только педагогом, но и специалистом - психологом;

5. умение отслеживать действия и поведение каждого ученика;

6.усвоение на уроке информации, знаний и воспитания, необходимых учащимся, то есть, как студент - практикант, уже на 1-м курсе сможет развить столько навыков. Конечно, для того, чтобы стать настоящим педагогом, еще предстоит пройти много практики.

Теперь уже второй год обучения, студент прошел педагогико -психологическую практику в общеобразовательной средней школе №58 Каратауского района города Шымкент. И могу честно сказать, что даже пройдя эту практику, студент смог ощутить педагогические компетенции и навыки, ответственность и нагрузку. Это связано с тем, что на этот раз он показал большую сложность и особенности, чем первая практика. На этот раз - практика имела приоритет в психологическом плане. Да, педагогика шла рука об руку, однако для студентов 2 курса психологическая направленность показывает приоритет. Таким образом, поиски и действия на практике еще больше оттачивали студента. На этот раз все началось как первая практика на 1 курсе. Но самое сложное и интересное началось именно здесь.

*Навыки и компетенции, сформированные студентом в ходе прохождения психолого - педагогической практики 2 курса:*

1. Знакомство с коллективами школы, изучение правил, организованных с учетом внутреннего распорядка школы;

2. ознакомление всех педагогических специалистов и классных учителей вуза и выявление коллективных связей;
3. ознакомление с классом, возложенным на него руководством школы (учащиеся класса, классный руководитель, внутреннее и внешнее состояние класса, знакомство учащихся с полноценными образовательными и семейными условиями; основная цель - студент - практикант осознает свою ответственность, начинает видеть себя классным руководителем, формирует все его компетенции. Класс усваивает все навыки, которые есть у руководителя;
4. знакомство со школьным психологом, непосредственно работая с ним, студент рассматривает класс (психологическое состояние, влияние социального положения учащихся на обучение, какие-либо психологические отклонения в семейном положении, поведение и возможности развития).
5. понимание студентом, что здесь он выступает не только как педагог, но и психолог, педагог и родитель;
6. формирование всех компетенций образовательного направления;
7. наблюдение за действиями и поведением каждого ученика;
8. изучение связей между учителями с учащимися;
9. овладение навыками, как вести себя как педагог и как правильно вести себя, как правильно одеваться, как правильно говорить и т. д;
10. помимо всех вышеперечисленных компетенций, психолог - студент привыкает проводить индивидуальный анализ каждого ученика.

Таким образом, будучи студентом, он смог дифференцировать столько информации уже на 2 курсе. Одним из самых больших достижений, достигнутых в ходе практики, стало то, что учащиеся 9-х классов и непосредственно классные руководители смогли установить психологическую коммуникацию. Кроме того, при составлении психологической характеристики с учеником 9 класса: выявить связь поведения ученика в классе с семейным положением, способствовать поиску решения самой большой проблемы и повышению мотивации к обучению у этого ученика!

И 3-я практика - есть педагогическая практика. При этом студент действительно будет оттачивать себя в педагогическом плане. В этот раз студент снова был на практике в общей средней школе №58. Ему закрепляется 8» А " класс. Несколько нагрузок на него отражаются в дневнике - плане. Здесь он усваивает знания, умения, навыки. Осваивает основную предметную область своей специальности, выполняя педагогические задания. Он проходит все этапы химии и биологии, необходимые для обучения учащихся. Знакомится с платформами НМР, ОМС, СМР, УО, Kundelik.kz, BilimLend, полностью осваивает образовательную базу учреждения, квалификацию и педагогические компетенции.

В качестве классного руководителя и психолога в закрепленном 8 классе проводились открытые воспитательные часы, ежедневные занятия по химии и биологии, плановые открытые контрольные часы. Ознакомился со всем социальным и семейным положением каждого учащегося, провел исследование в полном объеме со всех сторон. На этот раз студент получил от педагогической практики - ответственность, педагогическое мастерство, навыки речи и мышления, компетенции саморазвития.

Химия - биология специфика двух профильных направлений, двух предметов. Особую роль в профессиональной подготовке будущих учителей химии и биологии играет педагогическая практика. Это связующее звено между подготовкой будущих специалистов как в теоретическом, так и в практическом плане, важное условие повышения качества их обучения, так как практика осуществляется в условиях, максимально приближенных к будущей профессиональной деятельности, в ходе которой процесс формирования профессиональных компетенций находится на очень высоком уровне. [3. С. 196-141]

Таким образом, цель, предусмотренная в данной статье - показать возможности, кульминацию компетенций студентов в педагогической практике. Достигнутый результат в данной статье показал систему всех возможных сформированных компетенций и навыков студентов в процессе практики. Доказано, что студент обладает вышеуказанными

педагогическими компетенциями в процессе непосредственного общения с учеником и его способностью в полной мере овладеть базой практик! [4.]

**Список литературы**


1. Виктор Пекелис. Источник человеческих способностей. Алматы, 1976. -196 с.
2. О.А. Абдуллина Общепедагогическая подготовка учителей в системе высшего педагогического образования. М.: Просвещение, 1990. 141 с. 1. Станкин М.И. Психология общения: курс лекций. М. - 2000. - 304 с.
3. Сейчас студенты 1-4 курсов университета проходят педагогическую практику А,:2006г.8с
4. Знакомство с учебной деятельностью. А. С. Роботова, Т. В. Леонтьева и др. - М., 2000. - 208.
5. 5.Жексенбаева У.Б., Ниязова Г.Б. Проектная деятельность в образовательном процессе 12-летнего образования-№7.07, 2006 г.


## ЭКОЛОГИЯ ВА ИҚЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ МУАММОСИНИНГ ДОЛЗАРБЛАШУВИ ШАРОИТИДА “ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ”НИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ


**Илмий етакчи Уркинбаева Мақпал**

**Нуруллаева Жазира Илҳомовна**

**Навоий Давлат Педагогика Институти**

**Рус ва қозоқ филологияси факултети, Қозоқ тили ва адабиёти йўналиши**



**Аннотация:**Бугунги кунда мамлакатимиз боғ ва истироҳат боғларида етиштирилаётган ноёб манзарали ўсимликлар ва дарахтларда шаклланиш жараёнларини амалга ошириш бўйича техник талаблар ишлаб чиқилмаган, бунинг натижасида дарахт ва ўсимликларга шакл бериш талаблари бузилмоқда. Натижада, талаб даражасида шакл берилмаган дарахтлар ёшга нисбатан нотўғри ўсишда давом этади, турли касалликларга учрайди ва кўчатлар экиш технологиясидаги хатоликлар туфайли ўсимликлар ва дарахтларнинг ривожланишида катта муаммолар пайдо бўлади.



**Калит сўзлар**: дарахт, бута, тупроқ, истироҳат боғи, кўчатлар, ўсимликлар



**Аннотация**. В настоящее время не разработаны технические требования по проведению формообразующих процессов на уникальных декоративных растениях и деревьях, выращиваемых в садах и парках нашей страны, в результате нарушения требований по формообразованию происходит повреждение деревьев и растений. В результате деревья, которым придана неправильная форма, отстают в росте по сравнению с возрастом, подвергаются различным заболеваниям и создают большие проблемы в развитии растений и деревьев из-за допущенных ошибок в технологии посадки саженцев.



**Ключевые слова:** дерево, куст, почва, парк, саженцы, растения.



**Annotation**. Currently, the technical requirements for carrying out shaping processes on unique ornamental plants and trees grown in gardens and parks of our country are not developed, as a result of violation of the requirements for shaping, damage to trees and plants occurs. As a result, trees that are given the wrong shape lag behind in growth compared to age, are exposed to various diseases and create great problems in the development of plants and trees due to mistakes in the technology of planting seedlings.



**Key words**: tree, bush, soil, park, seedling plants


Экологик муаммолар бутун дунё мамлакатларининг ечимини кутаётган муаммоларидан биридир.Шунинг учун ҳам бу муаммо билан жаҳон ҳамжамияти шуғуллонмоқда. Экология муаммоси юқори даражада атроф-муҳит муҳофазаси мавзуси илк маротаба 1972 йили Стокгольмда мазкур мавзуга бағишланган БМТ Конференциясида кўтарилган. Бўлиб ўтган ушбу анжуманда «инсон фаровон ва юқори қадр-қимматга эга ҳаётни тақоза этадиган муҳитда яшамоғи лозим» дейилган. Бутун жаҳонга ҳавф солаётган муаммолардан бўлган экология масаласига давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев томонидан «Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак» асарида [1]жуда муҳимлиги эътироф этилди.

Ўзбекистон миллий энциклопедиясида экологик омиллар моҳияти атроф-муҳитнинг организмлар фаолиятига ўзига хос таъсир этувчи маълум шароитлари ва элементлари мажмуи [2] деб тариф берилган.

Жаҳонда хавф солаётган таҳдидлардан экологик муаммоларни бартараф этиш бўйича, бутун жаҳон ҳамжамияти биргаликда бир ёқадан бош чиқарган ҳолда ҳал этилиши лозимлигини алоҳида таъкидлаш зарур. Кейинги йилларда мамлакатимиз ва халқаро миқёсларда экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида амалга оширилаётган самарали тадбирлар туфайли табиатга етказилаётган таъсир даражасини камайишига эришилди.

Ривожланган мамлакатлар амалиётидан келиб чиққан ҳолда атроф-муҳитнинг ифлосланиши, экологиянинг ёмонлашувини олдини олиш орқали, яъни келажак авлод учун табиатни сақлаш, инсон ва табиат уйғунлашувини таъминлаш имконини беради.

Ўзбекистон «2019-2030 йиллар даврида мамлакатнинг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси»ни қабул қилди, Ўзбекистон ташаббуси билан БМТ Бош Ассамблеясининг Оролбўйи минтақасини экологик инновация ва технологиялар ҳудуди, деб эълон қилиш бўйича махсус резолюция қабул қилинди.2023 йилнинг 14 июль куни Ўзбекситон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисида Шавкат Мирзиёев қасамёд қабул қилди ва Ўзбекистон Президенти лавозимига киришди. Янги сайланган Президент мазкур тадбирдаги ўз нутқида экология ва атроф-муҳитни асраш, сув тақчиллигининг олдини олиш бундан буён ҳам долзарб вазифа бўлиб қолишини қайд этди. Хусусан, давлат раҳбари ўз нутқида «…биз дунёдаги энг катта экологик офат – Орол фожиасини бевосита ўз бошидан кечираётган халқмиз. Шунинг учун хозирги вақтда республикамизда бебаҳо экологик тизимни сақлаш ва мустаҳкамлашга қаратилган кенг кўламли дастурлар, жумладан «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси амалга оширилмоқда…»,[3]дея қайд этди.Шундай экан, мазкур дастурларни амалга ошириш орқали, жумладан экологик муаммо ва иқлим ўзгариши шароитида бўлган Орол денгизининг қуриган тубида қўшимча 500 минг гектар яшил майдонларни барпо этиш орқали 2026 йил якунига қадар уларнинг умумий ҳажми 2,5 миллион гектарга ёки ҳудуднинг 78 фоизига етказиш билан нафақат Ўзбекистонда, балки минтақада экологик барқарорлик тикланишига эришиш таъминланади. Ҳудудда Оролбўйида «Яшил иқлим» ва Глобал экологик жамғармаларнинг биохилма-хиллик, иқлим ўзгариши ва тупроқ емирилишининг олдини олишга қаратилган дастурлари асосида лойиҳаларни амалга ошириш ҳам экологик муаммолар бугунги куннинг долзарб масаласи эканини тасдиқлаб турибди. Таъкидлаш жоизки, бугун иқлим ўзариши натижасида вужудга келаётган экологик муаммолар аллақачон миллий даражадан трасмиллий таҳдидга айланиб улгурди. Шу боис ушбу муаммоларни ҳал қилиш бўйича алоҳида битта давлат томонидан қилинаётган ҳаракатлар ўз самарасини бермаслиги яққол намоён бўлмоқда. Бу муаммонинг ягона ечими қўшни давлатлар ўртасида ҳамкорликни барча даражаларда кенгайтириш, жамоатчиликни кенг жалб қилиш ва иқлим ўзгариши билан боғлиқ масалаларда биргаликда қарор қабул қилиш лозим.

Мамлакатимизда иқлим ўзгаришига қарши курашиш, унинг салбий оқибатларини юмшатиш мақсадида атмосфера ҳавосини муҳофаза қилиш, ҳудудларда яшил майдонларни кенгайтириш масалалари иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш стратегиялари, шунингдек, Барқарор ривожланишнинг миллий мақсадлари ва вазифаларига киритилган.

Париж битими доирасида 2030 йилга бориб ялпи ички маҳсулот бирлигига тўғри келадиган иссиқхона газлари ташламаларини 35 фоизга камайтириш чоралари кўрилмоқда.Иқлим ўзгаришини олдини олишга қаратилган дастурлар доирасида атмосфера ҳавосига таъсир хавфи юқори бўлган 44 та саноат корхонасининг ифлослантириш манбаларидан намуна олиш ва таҳлил қилиш бўйича 69 та автомат станцияси ҳамда уларга туташ ҳудудларда 27 та кўчмас кузатиш пуктлари ўрнатилган.Жорий йилда 147 та ишлаб чиқариш ва саноат корхоналаридаги 716 та чанг-газларни тутиб қолиш ускуналарини таъмирлаш ва янгилаш натижасида атмосфера ҳавосига 10 минг тоннадан ортиқ зарарли ташламалар чиқаралиши олди олинган.

Сенатнинг қирқ саккизинчи ялпи мажлисида Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан республикамизнинг барча ҳудудларида атмосфера ҳавоси ифлосланиши даражасини рухсат этилган меъёрларгача тушириш, халқаро келишувлар ва мажбуриятлар доирасида 2030 йилга бориб ялпи ички маҳсулот бирлигига нисбатан иссиқхона газлари ташламаларини 35 фоизга камайтириш ҳамда атмосферага метан газини ташлашни 30 фоизга қисқартириш чораларини кўриш, шаҳарлар ва саноати ривожланган шаҳарларда майда дисперсли PM10 – PM2,5 зарраларни автоматик ўлчовли асбоб-ускуналар ўрнатиш зарурлиги таъкидланди. Қурилиш материаллари ишлаб чиқарувчи ва саноат корхоналарнинг чанг-газ тозалаш ускунулари самарадорлигини 99,5 фоизга етказиш чораларини кўриш лозимлиги қайд этилди.Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш учун барча соҳаларда «яшил» иқтисодиёт технологияларини фаол жорий этиш 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси вазифалари доирасидаги мақсадлардан бири. Ушбу мақсадга эришиш бир вақтнинг ўзида «яшил» иқтисодиёт учун кадрлар тайёрлаш заруратини ҳам кўндаланг қўяди. OECD (2011), Седефоп (2009) каби халқаро ташкилотларнинг тадқиқотларида инсон ресурсларини ривожлантириш иқтисодиётни «яшиллантириш» учун асос эканлиги таъкидланади. Юқори дараждаги IT кўникмаларига эга бўлган аҳоли улушининг ошиши «яшил» бандликнинг ўсишига бошқа омилларга нисбатан кўпроқ таъсир кўрсатади. 2022-2023 ўқув йилида тайёрланган кадрларнинг 30 фоиздан ортиғи «яшил» иқтисодиётга мос келади. Таққослаш учун, 2019-2020 ўқув йилида бу кўрсаткич 5 фоизни ташкил этган.

Тараққиёт стратегиясида саноат тармоқларида «яшил» иқтисодиётга ўтиш ва энергия тежамкорлигини таъминлаш бўйича концепция белгиланади. Шу асосда 25 та стратегик аҳамиятга эга корхонада ёқилғи-энергетика ресурсларини тежашнинг мақсадли кўрсаткичлари тасдиқланади. Бу орқали 202-2026 йилларда саноат тармоқларида 3,9 миллиард куб метр табиий газни, 4 миллиард киловатт соат электр энергиясини ва 21 минг тонна нефть маҳсулотларини тежаш режалаштирилмоқда. Бунинг натижасида ҳар бир маҳсулот таннархида энергия улушини 20 фоизга камайтириш мақсад қилинган.2023 йил 1 июндан бошлаб маҳсулотларнинг экологик тоза энергия ва техноогиялар ёрдамида ишлаб чиқарилганини тасдиқловчи «яшил сертификатлар»тизими жорий этилди. Шаҳарларни кўкаламзорлаштириш ва ободонлаштиришда ҳудудларнинг тупроқ-иқлим шароитларига мос дарахт ва буталарни экиш муҳим аҳамиятга эга. Истироҳат боғлари, хиёбонлар ва сайилгоҳларнинг кўкаламзорлаштириш композицион турларини яратишда яшил ўсимлик дунёси — япроқ ва нинабаргли дарахтлар, буталар ва кўп йиллик гул ўсимликларидан фойдаланилади. «Яшил» иқтисодиёт бўйича илмий тадқиқотларни кўпайтириш, инновацион лойиҳаларни татбиқ этиш масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда.«Яшил иқтисодиёт» - бу эртанги кун иқтисодиёти ва айнан XXI аср иқтисодий тараққиётининг ҳаракатга келтирувчи кучи бўлиши керак. Жараёндаги дахлдорлик, масъулият ва жавобгарлик туйғуси ҳар биримизнинг қалбимизда, кундалик ҳаётимизда намоён бўлиши зарур.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1.Мирзиёев Ш.М, Танқидий таълил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик –ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Т. Ўзбекистон, 2017.19 б

2.Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Т. Давлат илмий 2005. 164 б

3.Ўзбекситон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлиси, 2023 йил14 июль

## OLIY TA’LIM TIZIMI TARAQQIYOT YO‘LIDA

**NDPI “Tarix” mutaxassisligi 1-bosqich magistri**
**Mahmaniyozov O‘g‘abek G‘ayrat o‘g‘li**
**Ilmiy rahbar: t.f.n. dots. R.N. Tolibov**

**Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilish va rivojlantirish, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, uchinchi renessansni shakllanish jarayoni masalalari yoritishga harakat qilingan.
**Kalit so‘zlar:** oliy ta`lim, modernizatsiya, kredit-modul, renessans, bakalavriat, magistratura, nodavlat ta`lim muassasasi, xorijiy ta`lim muassasalari filiallari.
**Аннотация:** в статье планомерное реформирование и развитие высшего образование в республики Узбекистан,поднятие процесса подготовки высококвалифицированных кадров,обладающих современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами,на новый качественный уровень,модернизация высшего образование, третьего возрождение было предпринята попытка осветить вопросы процесса формирование.
**Ключевые слова**: высшего образование,модернизация кредитный модуль, ренессанс, бакалавриат ,магистратура,негосударственное образовательное учреждение,филиалы зарубежных образовательных учреждений
**Annotation:** in the article, the systematic reform and development of higher education in respublic of Uzbekistan , raising the process of training highly qualifield personnel with modern knowledge ,spiritual and moral qualities to a new level in terms of quality, modernization of higher education, the third renaissance an attempt was made to elucidate the issues of the formation process.
**Key words:** high education,modernization, credit module, renaissance, bachelors degree,non-state educational institution, branches of foreign educational institutions.

Har qanday davlat o‘zining yuksak madaniyati, ma’naviyati va intellektual salohiyati bilan qudratli sanaladi. Shu sababli, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va yangi “Davlat ta’lim standartlari”ning qabul qilinishi zamonaviy ta`lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishni boshlab berdi. Bugunda, yurtimizning istiqlol yo‘lidagi ilk qadamlaridanoq, asriy qadriyatlarimizni, ma’naviyatimizni tiklash va yuksaltirish yo‘lida milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini yanada mustahkamlash va zamon talablari bilan uyg‘unlashtirilgan holda jahon andozalari darajasiga chiqarish asosiy maqsad qilib olingan. Zero, ilm-fan madaniyat va ma’rifat har qanday mamlakatning taraqqiyotini ta’minlaydi. Kelajagini oldindan ko‘rsatib beradi. Eng muhimi ilm–ma’rifat insonni komillik sari yuksaltiradi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning ta`kidlashicha, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”[1]

Istiqlolimiz tufayli o‘zligimizni angladik. Ozod va hur davlatni barpo etishda bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarini keng ko‘lamda boshlab yubordik. Jumladan, milliy qadriyatlarimizni tiklash, millatni uyg‘otish, yosh avlod ongiga milliy g‘oyalarni singdirish borasida tariximizni teran o‘rganish uning saboqlaridan ogoh bo‘lishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Bugunda bu ozod va obod O‘zbekistonimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va xalqchil siyosatda amalda yaqqol namoyon bo‘lib bormoqda.Hozirda O‘zbekistonda ta’lim tizimi islohot jumladan, Oliy ta`lim tizimining rivojlanishi, sifat samaradorligiga erishish, jahon andozalari asosida faoliyat ko‘rsatishga doir ijobiy siljishlar tobora namoyon bo‘lmoqda.Ta’limga e’tibor darajasini birgina xalq ta’limi misolida ko‘rsak,2018-yil hisobiga davlat tomonidan xalq ta’limi sohasi uchun davlat byudjetidan 11,8 trln. so‘m ajratilgan bo‘lsa, 2019-yilda ajratilgan byudjet 16,4 trln. so‘mni tashkil etdi. 2024-yilda esa 20 trln.so‘mni tashkil etilishi nazarda tutilmoqda.[2] Taraqqiyot Harakatlar strategiyasi davrida oliy ta’lim tizimini isloh qilishga oid qator samarali ishlar amalga oshirildi. 2019-yilga kelib 14 yangi oliy ta’lim muassasalari o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lsa, 6 ta mahalliy va 8 ta xorijiy universitetlarning joylarda filiallari ochildi. Shu asosda 40 ta yangi yo‘nalish, 41 ta yangi mutaxassislik ta’limi joriy etildi.[3] Xorijiy mamlakatlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 2022-2023 o‘quv yiliga kelib Respublika bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari jami 199 tani ,ulardan Universitetlar 36 ta, Institutlar 47 ta, Akademiyalar 3 ta, Filiallar 27 ta, Konservatoriya 1 ta, Xorijiy OTM filiallari 30 ta,

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari 55 tani tashkil qildi. O‘zbekistonda oliy ta’limni rivojlantirishni 2030 yilgacha ishlab chiqilgan konsepsiyasi asosida mamlakat oliy o‘quv yurtlarini dunyoda nufuzini ko‘tarishga va tayyorlanayotgan mutaxassislarni sifatini yaxshilashga qaratilgan ishlar o‘z samarasini bera boshladi. Ayni paytda Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalar soni 2016/2017-o‘quv yilidagi **268,3** ming nafardan 2021/2022-o‘quv yilida **808,4** ming nafarga yetdi. Hozirda oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotasi **3,5** barobar, oliy ta’lim qamrovi esa **9** foizdan **38** foizgacha oshganini qayd etish lozim.[4] Shuningdek, Oliy ta’lim tizimida kechki va sirtqi ta’lim shakli tiklandi. 2022/2023-o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlariga ko‘ra sirtqi ta’lim shakliga 26 095 nafar va kechki ta’lim shakliga 3 725 nafar talaba qabul qilindi. 2017-yil 27-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ – 4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim - tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmon”i ta`lim sohasi taraqqiyotini yanada rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bugunda mazkur soha va uning istiqbolli faoliyati tarixi ham o‘rganilmoqda, to‘plangan tajribalar ommalashtirilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, keyingi yillarda o‘qitishda sifat samaradorligin oshirish zamirida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari va unga muvofiq ishlab chiqilganlidi va Oliy ta`lim tizimida kadrlar tayyorlashda tizimli professional yondoshish maqsadida Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasining qonun va farmonlari chiqdi. Bu fikrimizni yurtimizda faoliyat olib borayotgan institutlarning ayrimlari universitet darajasini olganligi, Nodavlat Oliygohlarining vujudga kelishi, Jahon davlatlari j Oliygohlarining yurtimizda filiallarining ochilishi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. O‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda ilg‘or xorijiy tajribani joriy qilish va ta’limda integratsiya jarayonlarini yanada kengaytirishga katta e’tibor berildi. O‘zbekistonda 2021-2022 o‘quv yilida 30 ta nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari faoliyat ko‘rsatdi. Oxirgi besh yilda O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida Nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yildan yilga kengayib 20-sentyabr 2022-yil holatiga ko‘ra ularni soni 53 taga yetdi.[5]. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga izchil ravishda bosqichma bosqich kredit-modul tizimini joriy etish boshlandi. Mamlakatni innovatsion rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni yo‘lga qo‘yish maqsadida oliy ta’lim yo‘nalishlariga va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta’lim yo‘nalishlari va 582 ta magistratura mutaxassisliklari kiritildi. [6]

Nodavlat ta’lim muassasalari va yetakchi xorijiy oliy o‘quv yurtlarini filiallarini ko‘payib borishi O‘zbekiston ta’lim makonida raqobatni yuzaga keltirdi. Hozirgi kunda ilg‘or davlatlar universitetlari bilan birgalikda mahalliy oliy o‘quv yurtlarida qo‘shma dasturlar joriy qilindi va *“doubl-degree”* ya’ni bitiruvchilarga qo‘shma diplomlar olish imkoniyati yaratildi.

Mazkur sohadagi islohotlarning asosiy maqsadi – uzluksiz ta’lim mazmunini yangilash, uni jahon ta’lim standarti darajasiga ko‘tarish, ta’lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishdan iborat. Ayni payta ta’lim tizimini rivojlantirish,uni zamonaviy jahon ta’lim maskanlari bilan raqobat qila oladigan bilimli, salohiyatli va yetuk yoshlarni tarbiyalab yetishtirish bosh vazifa bo‘lib qolmoqda. Bu vazifalarni bajarish jamiyatimizning ertasi ozod va obod bo‘lishini ishtirokchisi, yurtimiz kelajagi farovonligini ta’min etuvchi barkamol avlod bilan bog‘liqdir.

Dastlabki islohotlarni amalga oshirishda zamon talablari va respublika ehtiyojlaridan kelib chiqib asosiy e’tibor, birinchidan, universitet ta’limining ustuvorligiga, ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarini bo‘lish va ixtisoslashtirishga, uchinchidan, oliy ta’limni hududiylashtirish va joylashtirishga qaratildi [7]. Bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev rahbarligida 2017-yilda ta’lim tizimidagi ahvol chuqur va har tomonlama tahlil qilinganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonini e’lon qilinishi sohani rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga

oshirishda asosiy e’tibor oliy ta’limda ilg‘or davlatlar kredit-modul tizimini keng joriy qilish va yanada takomillashtirish, ta’lim sifatini baholashni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratildi. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida mehnat bozori kon’yunkturasi talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion ilm-fan yutuqlarini oliy ta’lim va amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ularni yuqori malakaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlash, hamda xorijdan malakali mutaxassislarni jalb qilish, ta’lim muassasalarini xalqaro indeks va reytinglarga kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar ustuvor yo‘nalish qilib belgilandi. Keyingi yillarda davlatimiz tomonidan yoshlar o‘rtasida kambag‘allikni kamaytirish, yoshlar qatlamini ish bilan band qilish maqsadida bir qator dasturlar qabul qilindi. Jumladan, “Yoshlar daftari”,“Temir daftar” shulardan bo‘ldi. 2021-yilning 8 oyi mobaynida mazkur daftarga kiritilgan 430 ming nafar yoshlarning muammolarini hal etish uchun davlatdan 300 milliard so‘mlik mablag‘ yo‘naltirildi, shundan “Temir daftar”ga kiritilgan 2 mingdan ziyod o‘qishga qabul qilingan talabalarning kontrakt pullari to‘lab berildi. 2021-2022-o‘quv yilida esa Davlat byudjeti hisobidan 4 mingdan ziyod oilalar farzandlarining kontrakt pullari qoplab berilib, bu vazifani bajarish uchun ajratilgan summa 29,2 milliard so‘mni tashkil etdi [8]. Oliy ta’limdagi eng katta islohotlardan biri, yoshlarga bir vaqtning o‘zida bir nechta oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatining berilishi bo‘ldi, bu islohot, o‘z navbatida, yoshlarning ta’lim olish huquqlarini mustahkamlash yo‘lidagi muhim qarorlardan bo‘ldi. Xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining tavsiyanomasini olgan, oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan xotin-qizlar uchun 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab bakalavriatning kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo‘shimcha 2000 ta davlat granti ajratilishi bo‘ldi. Bu, xotin-qizlarning oliy ta’lim bilan qamrovini oshirish, ularning davlat va jamiyatdagi faolligini kuchaytirish, gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Bunda oliy ta’lim muassasalari, texnikum va kollejlar, sirtqi va kechki ta’limda o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullarini to‘lash uchun 7 yilga foizsiz kredit berish, davlat oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari to‘liq davlat byudjetidan qoplab berilishi tartibi joriy qilindi.[9] Ta’kidlash joizki, xorijiy oliy ta’lim muassasalariga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizga har o‘quv yilida «El-yurt umidi» jamg‘armasi orqali qo‘shimcha grantlar ajratiladi. Endi har yili ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talaba xotin-qizlarning ta’lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to‘lab beriladi, doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi F-60-son farmoyishiga muvofiq 2022/2023-o‘quv yili uchun davlat OTMga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari umumiy kvotasi 121 395 ta etib belgilandi. Jumladan, bakalavriatga 110 707 *(shundan kunduzgi ta’lim shakliga – 77 477, sirtqi ta’lim shakliga – 26 095, kechki ta’lim shakliga – 3 725, masofaviy ta’lim shakliga – 3 410 nafar)* va magistraga 10 688 nafar o‘rin ajratildi. Shu bilan birga, moliyaviy mustaqillik berilgan 36 ta davlat OTMning to‘lov-kontrakt bo‘yicha 50 mingdan ortiq abituriyent olish bo‘yicha qabul parametrik kuzatuv kengashlari qarori bilan tasdiqlandi. Natijada joriy o‘quv yilida qabul parametri o‘tgan yilga nisbatan keskin oshdi. Moliyaviy mustaqillik berilgan oliygohlar tomonidan magistraturaga 2 904 nafar talaba qabul qilindi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Global innovatsion indeksda 2015-yilda jahonning 141 davlati orasida 122-o‘rinni egallagan edi. Undan keyingi yillarda esa ushbu reytingga respublikamiz kiritilmagan. 2020-yil O‘zbekiston Global innovatsion indeksiga qaytdi. Mana shu qaytishning o‘zi yangi O‘zbekistonda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijasi bo‘ldi. Yosh olimlar va yangi sohalar bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlashga e’tiborni oshirish maqsadida xorijiy davlatlar oily ta’lim muassasalari bilan 55 ta ta’lim dasturlari doirasida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari birlashdi.

Xulosa qilib ta`kidlaganda, oliy ta`lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi va natijadorligini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish, ertangi kun talablariga javob beradigan

kadrlarni tayyorlash davr talabidir. Binobarin, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etishni yanada jadallashtirish, kredit – modul tizimining samarali tizimini amalda qo‘llash, ta`lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 26 yanvar. (Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi)
2.https://www.google.com/search?client=opera&q=академическая+свобода+вузов+это&sourceid=opera&ie=UTF-8&oe=UTF-8
3.https://www.google.com/search?client=opera&q=академическая+свобода+вузов+это&sourceid=opera&ie=UTF-8&oe=UTF-8[1]
4. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlarmamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021. B. 55.
[5] https://lex.uz/docs/4545884
6. https://daryo.uz/k/2022/02/13/ozbekistondagi-oliy-talim-muassasalari-soni-ma`lum-qilindi/. https://lex.uz/docs/5701176
7. Ўзбекистонда таълимнинг ривожланиши тарихи ва тарихшунослиги. Очерклар II / Масъул муҳаррир:т.ф.д.,проф. Д.А. Алимова.Тошкент.Адабиёт учқунлари,2017.–b.301.
8. Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida.– T.:Zamin nashr,2021.B.144.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. (elektron manba) http://uza.uz/oz/politics/ o‘zbekiston-prezidenti shavkat mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-201


## MAHKUM PSIXOLOGIYASI VA RESOTSIALLASHTIRISH VAZIFALARI


**Rustam Uskanovich Otamuratov**
**O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Psixologiya” fakulteti “Oila psixologiyasi” kafedrasi o‘qituvchisi**
**Shoqulova Oltinoy A’lam qizi**
**O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali**
**Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mahkumlarning psixologiyasi, ularning resotsiallashtirish ya’ni qayta tarbiyalash ishlarini olib borish, mahkumlarning mehnat faoliyatiga jalb qilish, bu bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan masalalar hamda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar haqida ma’lumot berilgan.



**Kalit so‘zlar:** jinoyat-ijroiya kodeksi, itoatkor xulq-atvor, mehnat tarbiyasi, JIEM, tarbiyaviy ish, stimulyasiya qiluvchi vazifa, balog‘at yoshiga yetmagan huquqbuzar, jinoyat-ijroiya qonuni, jinoiy jazo, huquqiy ta’sir, axloqan tuzatish vositalari, jamoat orqali ta’sir etish, rag‘batlantirish, yorliq, qimmatli sovg‘a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash, yo‘nalganlik, psixopatiya holati.



**Аннотация:** В данной статье представлена информация о психологии осужденных, их ресоциализации, т.е. перевоспитании, вовлечении осужденных в трудовую деятельность, вопросах, предусмотренных законодательством и работе, которую необходимо провести.



**Ключевые слова:** Уголовно-исполнительный кодекс, покорное поведение, трудовое воспитание, СИЕМ, воспитательная работа, стимулирующая задача, несовершеннолетний правонарушитель, уголовно-исполнительный закон, уголовное наказание, правовое воздействие, средства морального исправления, влияние через общественное достижение, поощрение, ярлык, вознаграждение ценный подарок или денежное вознаграждение, ориентация, состояние психопатии.



**Abstract:** This article provides information on the psychology of convicts, their resocialization, i.e. re-education, involvement of convicts in labor activities, the issues stipulated in the legislation and the work that needs to be done.

**Key words:** Criminal-executive code, submissive behavior, labor education, JIEM, educational work, stimulating task, juvenile delinquent, criminal-executive law, criminal punishment, legal effect, means of moral correction, influence through the community achievement, encouragement, label, reward with a valuable gift or monetary reward, orientation, state of psychopathy.

Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining yangidan qabul qilinishi mahkumlarni axloqan tuzatish borasidagi bir qancha toʻgʻri yoʻnalishlarni belgilab berdi. Ushbu kodeksning 7-moddasida mahkumlarni axloqan tuzatish va uning asosiy vositalari batafsil koʻrsatib oʻtilgan. Mahkumni axloqan tuzatish – unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, turmush qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat.

Ta’kidlab oʻtish joizki, JPKning ijobiy tomonlaridan biri kodeksda «axloqan tuzatish» tushunchasiga normativ ta’rif berilibgina qolmay, uni siyosiylikdan holi qildi va amalga oshirishni yanada oydinlashtirdi.

Yaqin oʻtmishda ozodlikdan mahrum etish joylaridagi tarbiyaviy ishlar mafkuraviy prinsiplar asosida olib borilar edi. Endilikda axloq tuzatish muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar va muassasa faoliyatini mafkuradan, siyosatdan xoli qilishga kirishildi. Hozirgi kunda ozodlikdan mahrum etish muassasalarida shaxslarga, avvalambor, inson, mulk, jamiyat, davlat va qonunlarga hurmat ruhini singdirish birinchi oʻringa qoʻyilmoqda. Masalan, mehnat tarbiyasi mahkumlarda mehnatga nisbatan vijdonan, ongli munosabatda boʻlishni, huquqiy tarbiya esa mahkumlarning qonunlarga ongli ravishda rioya qilishini shakllantirishga qaratilgan. Mahkumlarning tarbiyasida estetik va iqtisodiy tarbiya kabilardan ham foydalaniladi.

Tarbiyaviy ish mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri boʻlib, mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishga, shuningdek bilim va madaniy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga qaratiladi.

JIEMlarda ma’naviy, huquqiy, jismoniy va boshqa tarbiya olib boriladi. Mahkumlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar kun tartibida belgilangan vaqtda yakka tartibda, guruh bilan va ommaviy shaklda olib boriladi. Mahkumlarni tarbiyaviy ishlarga oid tadbirlardagi faol ishtiroki JIEM ma’muriyati tomonidan ragʻbatlantirib borilishi va ularning axloqan tuzalish darajasini aniqlashda e'tiborga olinishi shart. Tarbiyaviy ish differensiatsiya asosida, JIEM toʻrini, jazo muddatini va saqlash sharoitini, shuningdek mahkum shaxsining xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Mahkumlar bilan tarbiyaviy ish olib borishda matbuot, radio, televidenie, kinofilmlardan, kutubxona va boshqa vositalardan foydalaniladi.

Mahkumlarning foydali tashabbusini kuchaytirish, ularning mehnati, maishiy hayoti va boʻsh vaqtini tashkil etish masalalarini hal etishda qatnashish, intizomni va ichki tartibni saqlab turishda JIEM ma’muriyatiga koʻmaklashish maqsadida mahkumlarning turli tashkilotlari tuzilishi mumkin. Ushbu tashkilotlar JIEM ma’muriyati rahbarligi ostida faoliyat olib boradi. Mahkumlarning bunday tashkilotlarga a’zo boʻlishi ularni mehnatga jalb etishdan ozod etmaydi.

JIEMlarda JIEM boshligʻining qarori bilan mahkumlarning jamoa kengashlari tuzilishi mumkin. Ushbu kengashlar qoshida huquqbuzarliklar profilaktikasi va ichki tartib, ishlab chiqarish, ommaviy madaniy, umumiy ta’lim va kasb-hunar ta’limi, maishiy sanitariya, jismoniy va boshqa tarbiyaviy seksiyalar faoliyat koʻrsatadi.Tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar mahkumlarni tarbiyalashda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda ishtirok etadilar.

Mahkumlarni axloqan tuzatish jarayonining mohiyatini tahlil qilsak, I.Kochetov undagi toʻrtta vazifani ajratib koʻrsatadi. Bular tiklovchi, kompensatsiyalovchi, stimul beruvchi va toʻgʻri yoʻlga soluvchi funksiyalardir. Mahkumlarni tarbiyalash jarayonida tiklash vazifasi ularga oʻzlarini yaxshi tomondan namoyon qilish, ya’ni ijobiy xususiyatlarini qayta tiklash uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun xodim mahkumning shaxsini sinchiklab oʻrganishi va uning ilgari mavjud boʻlgan yoxud keyinchalik yoʻqolgan ijobiy xislatlarini yuzaga chiqarishi lozim. Mahkumlarning bunday ijobiy xususiyatlarini chuqur bilish pedagoglarga ularni tiklash va mustahkamlash uchun kerakli sharoitlarni yaratish imkonini yaratadi

Tarbiyalashning kompensatsiyalovchi vazifasi mahkumlarga oʻz kamchiliklarini ijobiy faoliyatining erishgan yutuqlari bilan oʻrnini qoplash hamda sharoit yaratishlarni koʻzda tutadi. Shu maqsadda ularning ijobiy sifatlari aniqlanadi, eng yaqqol koʻringanlarini yuzaga chiqarib, boshqalar oldida

namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi. Mahkumlar axloqini tuzatishning stimulyatsiya qiluvchi vazifasi mahkumning ijobiy sifatlari koʻrinadigan faoliyatlarini yanada faollashtirishga yordam beradi, salbiy xatti-harakatlarini qoralaydi. Masalan, oʻzining yaxshi jihatlarini koʻrsatgan faol mahkumlarni moddiy hamda maʼnaviy ragʻbatlantirish usullari yordamida amalga oshiriladi. Mahkumni toʻgʻri yoʻlga solish vazifasi salbiy sifatlarning bartaraf boʻlishiga yordam beradi. Bu jarayonda balogʻat yoshiga yetmagan huquqbuzarlarning jinoyat sodir qilishga undovchi salbiy xususiyatlari kamayib boradi. A.I.Kochetov mahkumlar axloqini tuzatish imkoniyatini aniqlab, uning bosh yoʻnalishini quyidagicha talqin etadi: «Jamoatchilik shaxsning oʻzi tomonidan mavjud salbiy xususiyatlarni bartaraf qilish va ijobiy sifatlar fondini jadal rivojlantirishda muhim oʻrin tutadi». Demak, ijobiy tomonlarning rivojlanishi shaxsning toʻgʻri yoʻlga kirishdagi ishonchini mustahkamlaydi. Mahkum bilan tarbiyaviy ish olib borish jarayonida uning kamol topishi uchun maʼnaviy-psixologik oʻzgarish imkoniyatlari toʻgʻrisidagi masala ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Jinoyatchilik tarixiga nazar tashlaganda bunga koʻproq e'tibor qaratilganligiga guvoh boʻlish mumkin va uni hal etishning ikki yoʻnalishi yuzaga kelgan. Birinchi yoʻnalish tarafdorlari jinoyatchining shaxsida ijobiy oʻzgarishlar boʻlishini tan olmaydilar va jinoyatga aloqadorlik uning qismatiga yozilgan, deb oʻylaydilar.

Mahkumlarning ijtimoiy foydali mehnatiga ularni axloqan tuzatishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Biroq avvallari amaliyot va nazariyada uning oʻrni koʻpincha oshirib yuborilardi: mehnatga mahkumlarni toʻgʻri yoʻlga solish jarayonining asosi sifatida qaralar, axloq tuzatish mehnat muassasalari esa (ilgari shunday atalgan) davlat rejasini bajarishi va foyda keltirishi shart boʻlgan ishlab chiqarish korxonalari hisoblanardi.Hozirgi kunda ham mehnat jazoni ijro etish siyosati va qonunchiligida jinoiy jazolarning koʻplab turlarini oʻtashda muhim oʻrin egallab kelmoqda. Bu, ayniqsa, ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtayotgan mahkumlarga tegishli. Chunki ish bilan band boʻlmagan mahkumlar sonining oshishi jazoni ijro etish joylaridagi jinoiy holatni keskinlashtiradi. Mahkumlarda mehnat qilishga boʻlgan koʻnikmalarni yuzaga keltirish uchun quyidagi prinsiplarga amal qilish kerak:

1) jazoni ijro etish tartib-qoidalari (rejim)ga ongli ravishda boʻysunish;
2) jamoatchilik ishlarida faol qatnashish va maʼmuriyat tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish;
3) mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

Jazoni ijro etish muassasalarida ijobiy xulq-atvorga ega mahkumlarni ragʻbatlantirish – ushbu tizimni rivojlantirish hamda mahkumlarni tarbiyalashning asosiy usullaridan biri. Shuning uchun jazoni ijro etish muassasalarida ragʻbatlantirishning ijobiy natija beruvchi usullari, turli faoliyat va mahkumlarning munosabatlaridagi oʻziga xoslikni hisobga olgan holda ommalashtirish ishlarini muntazam olib borish lozim. Jazoni ijro etish muassasalarida oʻtkazilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, tarbiyaviy ish jarayonida maʼnaviy ragʻbatlantirishlarni turli toifadagi mahkumlarning demografik, Ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tizimlashtirib, amalda qoʻllash yaxshi samara beradi. Shuni taʼkidlash kerakki, mahkumlar orasida murakkab, umumiy va xususiy qobiliyatlari yuqori darajada rivojlangan odamlar ham uchraydi. Ular musiqa, yozuvchilik, aktyorlik, konstruktorlik, tashkilotchilik faoliyati, oʻqish, texnika kabilarga nisbatan gʻta qobiliyatli boʻlishadi. Ularning ayrimlari oʻz qobiliyatlarini muassasa hayotiga bagʻishlaydilar, jamoa qiziqishlari bilan birga boʻladilar. Baʼzilari esa, afsuski, oʻz qobiliyatlarini jinoiy maqsadga yoʻnaltiradilar. Shu sababdan mahkumlarni qayta tarbiyalash vaqtida ularning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda mehnatga yoʻnaltirish yanada yuqoriroq samara beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**


1.Глаточкин А.В., Пирожков В.Ф. Психология состояния человека лешенного свободы М.,2009

2. Рухиева Х.А. Юридик психология. ЎзМУ.2012 й.

3. Кони А.Ф. Суд фаолияти ва этикаси М.1909 й

4. Юридик психология. Ўқув қўлланма – Самарқанд: СамДУ 2020 йил

5.Alimov S.B., Antonov-Romanovskaya G.Z.Jinoyatchi psixologiyasi. Oʻzb.R.IIV Akademiyasi. Toshkent. 2012

7. Отамуратов R. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розикулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.
8.Отамуратова, С., & Отамуратов, Р. (2023). Nizoli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalarining psixologik tahlili . Информатика и инженерные технологии, 1(2), 323–328. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/computer-engineering/article/view/25284
9. Отамуратов, Р. У. Психологические особенности эмоционального интеллекта человека в интернет-среде (на примере молодёжь) / Р. У. Отамуратов, П. Н. Устин // Мир науки. Педагогика и психология. — 2023. — Т. 11. — No 5. — URL: https://mir-nauki.com/PDF/15PSMN523.pdf
10. Отамуратов R. Уникальность концепции эмоционального интеллекта в семейных отношениях / Р. Отамуратов, С. Отамуратова, Д. Розикулова. – Информатика и инженерные технологии. – 2023. – № 1. – С. 423-8.

## BILINGVIZM ( ikki tillilik)DA INTERFERENSIYA HODISASI

**Qayumova Munavvar Sanaqulovna**
**Navoiy Davlat Pedagogika instituti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.**
**Ostonova Marjona To'lqin qizi**
**Navoiy Davlat Pedagogika instituti magistranti**

**Annotatsiya.** Til bugungi jadal sur'atlarda rivojlanayotgan zamonaviy dunyoda asosiy aloqa vositasi sanalib, har qanday vaziyatlarda insonlarni muammoli vaziyatlardan olib chiqishga ko'maklashadi. Ayniqsa, ikki tillilik aloqalarni yanada mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, ikkinchi tilni egallash jarayoni har doim ham oson kechavermaydi. Ushbu maqolada ikkinchi tilni egallash va bu davrda yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchilik to'g'risida so'z boradi.

***Kalit sòzlar:*** *interferensiya, sheva, bilingvizm ( ikki tillilik), ko'p tillilik, interferensiya, tillar aralashuvi.*

**Аннотация.** Язык считается основным средством общения в современном стремительно развивающемся мире, и он помогает людям выйти из проблемных ситуаций в любой ситуации. Тем более, большую роль в дальнейшем укреплении отношений играет двуязычие. Кроме того, процесс изучения второго языка не всегда прост. В данной статье рассказывается об освоении второго языка и трудностях, которые могут возникнуть в этот период.

***Ключевые слова:*** интерференция, диалект, двуязычие (двуязычие), многоязычие, интерференция, смешение языков.

**Annotation.** Language is considered the main means of communication in today's rapidly developing world, and it helps people get out of problematic situations in any situation. Moreover, bilingualism plays a big role in further strengthening relations. Moreover, the process of learning a second language is not always easy. This article talks about learning a second language and the difficulties that may arise during this period.

***Key words*:** interference, dialect, bilingualism (bilingualism), multilingualism, interference, mixing of languages.

*Kirish***.** Tillararo aloqalarni ifodalovchi atamalardan yana biri – ikki tillilik (bilingvizm) hodisasidir. Bilingvizm hodisasi ijtimoiy talab yoki biror boshqa sabablar tufayli namoyon bo'ladi. Bilingvizm hodisasining tabiiy ravishda yuzaga kelishining asosiy sababi bir davlat hududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining birgalikda jips yashashi hisoblanadi. Ikki tillilik hodisasi ma'lum bir ehtiyojlar sababli yuzaga kelishi mumkinligi bilingvist odam miyasi bir qancha sezilarli afzalliklarga ega bo'lishini ko'rsatadi. Ko'p tillilik masalasi bilan bog'liq g'oyalar XX asr boshlarida yetuk tilshunoslar tomonidan ilgari surilib, bu boradagi qarashlar nazariy bayon qilingan. XX asrning 50-yillaridan keyin qayd etilgan jihatlarni o'rganish lingvistikaning asosiy masalalari sifatida e'tirof etilib, yirik tadqiqotlarning vujudga kelishiga zamin bo'ldi. XXI asrga kelib, til siyosati muammolarini ilmiy-nazariy va amaliy o'rganish dunyo tilshunosligida keng tus oldi. Ikki tillilik hodisasi o'zlashtirilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: tabiiy va sun'iy. Tabiiy ikki tillilik biror til

muhitida uzoq muddat qolib ketib ikkala tilni baravar egallash asnosida o‘zlashtirilgan qobiliyat. Yangi tilni shu holatda o‘rganishning klassik misoli, shaxsning boshqa chet davlatga ko‘chib o‘tib yashashi bilan belgilanadi va u yerdagi vaziyatdan kelib chiqib chet tilini o‘rganishi kerak. Tabiiy bilingvizm ko‘pincha ko‘p millat vakillari yashaydigan davlatlarda deyarli doim kuzatiladi va bu hodisada tillardan biri davlat tili yoki millatlararo muloqot tili hisoblanadi. Tabiiy bilingvizm sun’iy bilingvizmdan farqli ravishda o‘rganilmaydi, balki egallanadi.Tabiiy ikki tillilik, ko‘pincha ikki tilli oilalarda, shuningdek, ikki tilli kichik ijtimoiy guruhlarda, masalan, umumiy bolalar guruhlarida sodir bo‘ladi, bu yerda bolalar tengdoshlari bilan bevosita muloqotda ikkinchi tilni egallaydilar. Tilni egallash bir vaqtning o‘zida uni o‘rganish bilan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin. Tabiiy bilingvizmda bir tildan ikkinchi tilga o‘tish avtomatik tarzda kuzatiladi.Dinara Sanatova ta’kidlaganidek, ikki tillilik – bu alohida ma’ruzachilar tomonidan ikki tildan foydalanish va tushunish hodisasidir. Sun’iy bilingvizm o‘z nomidan ma’lumki, tilni notabiiy usulda, ya’ni, o‘rganilayotgan til muloqot egalari yoki o‘qituvchi yordamida o‘zlashtirish va har doim ham nutqda foydalanilmaydi. Lingvistikadagi boshqa ba’zi ta’riflarga ko‘ra ikki tillilik bu nafaqat ikki tilni, balki yana ko‘plab xorijiy tillarni ham o‘zlashtirish demakdir va bu hodisa fanda diglossiya deb ataladi. Diglossiya bu – ikki tillilikning bir variant bo‘lib, bir xil tilning ikkita shakli yoki ikki til bir hududda birgalikda qo‘llanilish hodisasidir.

Ikki tillilik va ko‘p tillilik interferensiya hodisasining asosiysi sababchisi bo‘lib, tillar o‘zaro aloqaga kirishganda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar orqali yuzaga keladi. Bu hodisa o‘rganilish jarayonida ikki tillilik ibtidoiy davrlarda paydo bo‘lganligi haqida ma’lumotlar aniqlandi. Har xil tillarda muloqot qiluvchi urug‘ qabilalar o‘rtasidagi urushlar ko‘plab ayollar va asirlarni boshqa yerlarga olib ketilishiga sabab bo‘lgan, natijada ular begona qabila va hudud aholisi bilan aloqa qilish maqsadida yangi tilni o‘rganishga majbur bo‘lishgan. Binobarin, ular yangi tilni o‘zlashtirish jarayonida o‘z ona tillarini ham unutishmagan va kelajak avlodga yetkazishga harakat qilishgan. Demak, ikki tillilik o‘sha davrlarda vaziyat taqozosi va vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi va uning natijasida tarjimonlarga talab paydo bo‘lgan. Shunday qilib ikki tillilar jamiyati yuzaga kelgan. Tillarning o‘zaro aloqasini kuzatib, Fransiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa ko‘pgina davlatlar tillarini o‘rganish natijasida tilshunoslar va olimlar tillar bir-biriga o‘zaro ta’sir o‘tkazadi va ular o‘rtasida aralashuv vujudga keladi deb fikr bildirishgan.

U.Vaynrayx o‘zining “Tillar aralashuvi ” monografiyasida ta’kidlashicha, birinchilardan bo‘lib lingvistik interferensiyani yaratdi hamda to‘plangan ma’lumotlarni izchil o‘rgandi. Olim tomonidan interferensiya muammosi “ ikki tillilar so‘zlashuv nutqida ikkita yoki bir nechta tilning aloqaga kirishi natijasida me’yorlardan chetga chiqish hollari” deb izohlaydi. Yuqoridagi izohga qaraganda, bu hodisa ikki xil qoidani yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bir tomondan, bu interferensiyaning chet tillarini o‘rganishda to‘siq bo‘ladigan til me’yorlaridan chetga chiqishdek salbiy muammoni keltirib chiqarsa, boshqa tomondan bu fenomen sodir bo‘lganda uning kelib chiqish manbasi va sababini ko‘rsatish zarurligini bildiradi. Vaynrayx interferensiya ikki tillilar o‘rtasidagi hodisa ekanligini ta’kidlab, bilingual shaxs nutq jarayonida tillararo muloqotning yadro hisoblanadi, shunga asosan nutq jarayonida interferensiya sodir bo‘ladi. Shuning uchun ikki tillilik doirasida hosil bo‘luvchi interferensiyani nutq va tilga ajratish haligacha muammo bo‘lib kelmoqda. Ko‘pgina olimlar, shu jumladan, U.Vaynrayx ham bunday ajratish mezonlari ishlab chiqilishi zarurligini aytadi. “Nutqdagi interferensiya holatlarini tahlil qilish uchun ikki tillilarning erkin nutqidan olingan muloqot namunasi kerakdir, til fondida oldindan saqlangan ma’lumotlar, nutq jarayoni keltirib chiqargan ma’lumotlarning o‘rnini bosa olmaydi”, deydi U.Vaynrayx o‘zining izlanishlaridan kelib chiqib.

Bilingvizmda yuzaga keladigan asosiy muammolar:

Fonetik va leksik tuzilmalar aralashuvi;

So‘zlarni osonlashtirish;

Murakkab tuzilmalardan qochish;

Har qanday tilda so‘z boyligining yetishmasligi;

Urg‘uni noto‘g‘ri ishlatish;

Muloqotda tillarni chalkashtirish.

*Xulosa***.** Alohida ta'kidlash zarur bo'lgan jihat bu – interferensiya ikki tillilik va ko'p tillilik asosida yuzaga kelishi muqarrar bo'lgan hodisaki, uning bir qancha ko'rinishlari ikki til o'rtasidagi muloqot natijasida namoyon bo'ladi. Bilingvizm o'rganishda duch keladigan to'siqlarning asosiy sababchisi interferensiya hodisasi bo'lib, beixtiyor ona tili birliklaridan foydalanish va qoidalarni oldingi o'rganilganlari bilan soddalashtirish tufayli yuz beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jalolov Jamol. Chet til oqitish metodikasi . "O'QITUVCHI" nashriyoti. 2012. –152-153-p
2.Jumaqulova Zeboxon. Maqola : Bilingvizm. Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya, - 02.2022.
3. Алимов В.В. Интерференция в переводе ( на материале профю ориентир.межкултур.коммуникатции и пер.в сфере проф. коммуникатциию) – 2004.
4.Абдыгалиев, С.А. Пути преодоления лексичечкой интерференции при обучении немецкому языку : автореф. … дис. конд. филол. наук. / С.А.Абдыгалиев. – Москва, 1975. – 17 с.
5.Вишневская, Г.М.Интерференция и акцент: (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка): дис. …д-ра филол.наук : 10.02.19/Г.М.Вишневская. –Санкт-Петербург, 1993. – 373 с)

## OLIY TA'LIMDA BOTANIKA FANINI O'QITISHDA KIMYO VA FIZIKA FANLARI BILAN INTEGRATSION DARSLARNING AHAMIYATI

**Qayumova Mohinur Karim qizi**
**NavDPI doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada integratsiyaning fanlarni o'qitishdagi ahamiyati, oliy ta'lim muassasalarida botanika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion metodlar, tabiiy fanlarda integratsion darslarning o'rni, botanika fanining kimyo va fizika fanlari bilan integratsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiya, integratsion dars, fanlararo integratsiya, tashqi integratsiya, ichki integratsiya, fotosintez, kondensatsiya.

**Аннотация:** В статье представлена информация о значении интеграции в преподавании науки, инновационных методах, используемых при преподавании ботаники в высших учебных заведениях, роли интегрированных занятий по естественным наукам, интеграции ботаники с химией и физикой.

**Ключевые слова:** Интеграция, интегрированный урок, межпредметная интеграция, внешняя интеграция, внутренняя интеграция, фотосинтез, конденсация.

**Abstract:** The article provides information on the importance of integration in teaching science, innovative methods used in teaching botany in higher education institutions, the role of integrated classes in the natural sciences, and the integration of botany with chemistry and physics.

**Key words**: Integration, integrated lesson, interdisciplinary integration, external integration, internal integration, photosynthesis, condensation.

**Kirish.** Integratsiya –lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, "integr" to'liq yaxlit, bir butun degan ma'nolar anglatadi. Integratsiya – o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Integratsiyalashgan dars bir tushuncha, mavzu yoki hodisani o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta fanlar bo'yicha o'qitishni birlashtirgan maxsus dars turi. Boshqacha aytganda, integratsiyalashgan darsda bir nechta o'quv fanlari materiali o'rganiladi. Har bir fanning ushbu fanlarni bir-biriga bog'laydigan o'z maqsad va vazifalari mavjud.

Tabiiy fanlarni integratsiyalashni 2 ko'rinishda olib borish mumkin:

1. Tashqi integratsiya (fanlararo bog'lanish) – Biologiya, Kimyo, Fizika kabi.
2. Ichki integratsiya (mavzulararo bog'lanish) – Mavzularni bir-biriga bog'lash.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Integratsiyalashgan darslar turli shakllarda bo'ladi. Bilim almashish darsida o'quvchilar guruhlarga bo'linadi va har biri boshqalarga berilgan mavzu bo'yicha o'z tadqiqotlari haqida ma'lumot beradi. Ushbu shakl o'quv fanlari mavzulari bir-biriga mos kelganda eng samarali hisoblanadi. Integratsiyalashgan darslarning tashkil etilishiga ko'ra eng umumiy tasnifi quyidagicha:

• turli fanlardan ikki yoki undan ortiq o‘qituvchilar tomonidan darsni loyihalash va o‘tkazish;
• tegishli fanlar bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlikka ega bo‘lgan bitta o‘qituvchi tomonidan integrallashtirilgan darsni loyihalash va o‘tkazish;
• shu asosda birlashtirilgan mavzular, bo‘limlar va, nihoyat, kurslar yaratish.

Eng keng tarqalganlari integratsiyaning ikkinchi va uchinchi darajalaridagi darslardir. Ikkinchi daraja o‘quv fanlarining kontseptual va axborot sohasini birlashtirish sifatida tushuniladi. Bu har qanday fakt va ma’lumotlarni yaxshiroq eslab qolish, takrorlash, darsga qo‘shimcha materiallarni kiritish va boshqalar uchun amalga oshirilishi mumkin. Uchinchi daraja materialni qiyosiy-umumlashtiruvchi o‘rganish vazifalari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarning hodisalar va ob’ektlarni taqqoslash qobiliyatida ifodalanadi. Eng chuqur integratsiyaning to‘rtinchi darajasi o‘quvchilar faoliyatida namoyon bo‘ladi, bunda o‘quvchilarning o‘zlari bir xil hodisalar, hodisalar to‘g‘risida faktlar, mulohazalarni solishtirish, ular o‘rtasida aloqalar va qonuniyatlarni o‘rnatish, birgalikda ishlab chiqilgan ta’lim ko‘nikmalarini qo‘llashni boshlaydilar. O‘qituvchilarning roli darsning maqsadlariga qarab har xil bo‘lishi mumkin: talabalar bilan bir guruhda ishlaydi, turli kichik guruhlar bilan yoki seminarda, munozarada, muammoni birgalikda muhokama qiladi, ma’ruzada ma’ruzachi bo‘lib chiqadi, dars yoki mavzu bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazadi.

**Tahlil va natijalar:** Oliy ta’lim tizimida integratsion darslar muhim o‘rin tutadi. Tabiiy fanlar o‘zaro bir-biriga chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlikni botanika fanidagi ayrim mavzularda ko‘rib chiqamiz.  Ma’lumki, tirik tabiatda uchraydigan hodisalar ichida fotosintez o‘zining ko‘lami va mohiyati bilan katta o‘rinni egallaydi.Boshqacha qilib aytganda, yerdagi hayotning manbai bo‘lib yashil o‘simliklar xizmat qiladi. Fotosintez bu yorug‘lik energiyasining uglevod shaklida kimyoviy energiyaga aylanishi jarayonidir. Yorug‘lik energiyasi orqali amalga oshadigan ushbu jarayonda glyukoza molekulalari (yoki boshqa molekulalar) suv va karbonat angidriddan hosil bo‘ladi va qo‘shimcha mahsulot sifatida kislorod ajraladi. Glyukoza (uglevod) molekulalari organizmni ikki muhim manba: energiya va organik uglerod bilan ta’minlaydi.




Fotosintez ekotizimni organik uglerod va energiya bilan ta’minlashdan tashqari, Yer atmosferasining shakllanishida ham katta o‘rin tutadi. Fotosintez qiluvchi organizmlarning aksariyati ikkilamchi mahsulot sifatida kislorod gazini hosil qiladi. Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan sianobakteriyalarga o‘xshash bakteriyalarda fotosintezning paydo bo‘lishi milliard yil oldin Yerdagi hayotni butunlay o‘zgartirib yuborgan. Ushbu bakteriyalar o‘zlari ishlab chiqargan kislorodni asta-sekin Yerning kislorod kam bo‘lgan atmosferasiga ajratib turgan va kislorod konsentratsiyasi ko‘payishiga sabab bo‘lgan. Ushbu jarayon natijasida aerob hayot shaklida yashovchi organizmlar – hujayraning nafas olishi uchun kisloroddan foydalanuvchi organizmlarning evolyutsiyasiga ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu farazga ko‘ra, agar o‘sha fotosintezlovchi organizmlar bo‘lmaganda, hozir Yer yuzidagi ko‘plab boshqa jonzotlar kabi biz ham mavjud bo‘lmas edik.

Fotosintezlovchi organizmlar atmosferadan juda ko‘p miqdordagi karbonat angidridni o‘zlashtiradi va karbonat angidrid tarkibidagi uglerod atomlaridan organik molekulalarni sintezlashda foydalanadi. Agar yer yuzidagi o‘simlik va suv o‘tlari miqdori ko‘paymasa, atmosferada ko‘p miqdorda gaz yig‘ila boshlaydi. Bu esa issiqlikning to‘planishi va iqlim o‘zgarishiga olib keladi. Ko‘p olimlar o‘rmonlar va boshqa o‘simliklar dunyosini saqlab qolish orqali karbonat angidrid miqdori ortib ketishining oldini olish mumkinligiga ishonadi.

Yuqorida keltirilgan biologik jarayonni anglab yetish uchun, kimyoviy tushunchalar va kimyoviy reaksiyalarni bilish talabalardan talab etiladi. Shuning uchun ushbu dars mashg‘ulotini kimyo

o‘qituvchisi bilan hamkorlikda integratsiya usulida o‘tish darsning samaradorligiga o‘zining ijobiy ta`sirini ko‘rsatadi.
O‘simliklarda sodir bo‘ladigan yana bir jarayon urug‘ning unib chiqishi fizik hodisalar bilan bog‘liq. Quruq urug‘ tuproqdan suvni shimib olib bo‘rtadi, hajmi kattalashadi.Urug‘ mag‘zida zaxira oziq moddalar oqsil, yog‘ va uglevodlarning mavjudligi .
Shuningdek, botanika fanini o‘qitishda fizika fani bilan integratsiya qilib o‘tiladigan bir qancha mavzular bor. Bulardan biri o‘simliklarning bargi orqali suv bug‘latish jarayoni-transpiratsiya jarayonini o‘qitish mavzusi hisoblanadi. Xususan, transpiratsiya intensevligiga tashqi muhit omillarining ta’sirini o‘rganishda bir nechta fizik atamalar ishlatiladi.
Transpiratsiya intensivligi ko‘p jihatdan og‘izchalar (ustitsalar) ishiga bog‘liq. Barglarda $C0_2$ning kontsentratsiyasi ortib ketsa, og‘izchalar yopiladi, kontsentratsiya pasaygandan keyin ochiladi. Lekin og‘izchalarning qanchalik ochiq bo‘lishiga boshqa omillar yorug‘lik, temperatura, havoning namliga va o‘simliklarning suv bilan ta’minlanish sharoiti, barglarning yoshi, ontogenez bosqichlari va boshqalar ham ta’sir etadi. Suv bilan yaxshi ta’minlangan sharoitda yorug‘lik qancha kuchli bo‘lsa, og‘izchalar shuncha keng ochiq bo‘ladi. Temperatura og‘izchalarning ochilish tezligiga ta’sir ko‘rsatadi, chunonchi, temperatura qancha yuqori bo‘lsa, og‘izchalar shuncha tez ochiladi. Temperatura past bo‘lsa, og‘izchalar juda sekin va chala ochiladi, havo salqin bo‘lganda esa umuman ochilmaydi. Yana shunisi qiziqki, optimal darajadan yuqori bo‘lgan temperaturada og‘izchalar yaxshi yopilmaganicha qoladi, lekin juda isib ketganda esa ular juda keng ochiladi va o‘simlikni kuchli suv bug‘latishdan himoya qila olmaydi. Qurg‘oqchilik og‘izchalarning yopilishiga, ya’ni o‘simlikda turgor holatining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Suv tanqisligi sezila boshlashi bilanoq, og‘izchalar yopiladi.
Demak, o‘simliklar normal yashashi uchun suv bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lishi, ya’ni suv rejimi normada bo‘lishi kerak. Aks holda turli salbiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.
**Xulosa.** Ta’lim jarayonida integratsiyaning o‘rni katta. Bu fikrni tabiiy fanlarni o‘qitishda ayrim mavzularda bemalol ko‘rishimiz mumkin. Botanika fanidan birgina mavzuni puxta o‘rganish uchun talabalardan fizika, kimyo, matematika, geografiya fanidan tayanch bilimlarni bilish talab etilishi yuqorida bir qancha misollar orqali ko‘rib chiqildi. Ammo ayrim o‘rganuvchilarda tayanch bilimlarning unchalik yaxshi o‘zlashtirilmaganligi va yana ayrim kamchiliklarni hisobga olib, mavzularni integratsiya orqali o‘tish o‘zining yaxshi samarasini beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1.Beknazarov O.B._o‘simliklar fiziologiyasi.Darslik.Toshkent 2009. 536 bet.
2.Ortiqova N.B., Ibragimova K.Z.- Biologiya fanlarida fanlararo integratsiyani kirib kelishi va natijalari-maqola. Innovation in the modern education system.107-113-betlar.
3.Oxnorova I. B.,Yo‘ldashaliyeva N. Sh., Ro‘ziqulova Z. Q.- Integratsiyaning dolzarbligi, maqsadlari va funksiyalari-maqola. “Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences”10-18-betlar.
4.Qilichova Marxabo Xudayqulovna-Ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsion yondashuvning mazmuni. Maqola. Academic Research in Educational Sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021.917-920-betlar.
5.Qodirova M.R.- Biologiya fanini o‘qitishda integratsiyalashgan yondashuv-maqola. International scientific-practical conference on "modern education: problems and solutions" Vol. 2No.8.2023.148-153-betlar.
6.Sattarova N.O‘.- Ta’lim mazmuniga integratsion yondashuvning o‘quv jarayonidagi amaliy ahamiyati, afzallik va kamchiliklari tasnifi-Maqola. Science And Innovation volume 1 issue 6 uif-2022 544-550-betlar.
7.Shagalova I.V.- Integrirovannoe obuchenie na urokax biologii v sisteme sovremennogo obrazovaniya- Otkritiy urok 1-sentyabrya.31.05.2021.
8.Xo‘jayev J.X.-O‘simliklar fiziologiyasi-darslik. Toshkent 2004. 224-bet.
9.Xusanova D.N., Komilova A.K., Odashboyeva O.N.- Integratsiya darslarining psixologik asoslari-maqola. Молодые ученые- Том 1 № 20 (2023).115-118-betlar.

10.Yuanli Zhou- Integrate STEM Education into Biology Teaching.Article. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 670.

## O‘ZBEKISTONDA SHAHARLASHISH DARAJASINING O‘ZIGA XOS XUSUSISYATLARI

**Ilmiy rahbar: Muxammedova Nazokat Jurayevna**
**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti**
**Magistr: Qo‘ziyeva Maftuna Shavkat qizi.**
**NDPI, Geografiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti**

**Annotatsiya.** Maqolada shaharlashish jarayonining takomillashib borishi bayon etilgan. Shu bilan birga ba’zi bir hududlarda urbanizatsiya darajasining oshishi natijasida shahar maqomiga bergan ta’rifning o‘zgarishlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** shahar, urbanizatsiya darajasi, infrastruktura, ijtimoy-demografik, ixtisoslashuv, soxta urbanizatsiya

**Annotation.** The article describes the improvement of the process of urbanization. At the same time, as a result of the increase in the level of urbanization in some regions, the changes in the definition of the status of the city are highlighted.

**Key words:** city, level of urbanization, infrastructure, socio-demographic, specialization, false urbanization

**Аннотация.** В статье описано совершенствование процесса урбанизации. При этом в результате повышения уровня урбанизации в некоторых регионах отмечаются изменения в определении статуса города.

**Ключевые слова:** город, уровень урбанизации, инфраструктура, социально-демографический, специализация, ложная урбанизация.

Jamiyat hayotida shaharlar sonining ortib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoy-demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o‘zgarishlar bilan urbanizatsiya jarayoni yuz beradi. U tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo‘lgan ko‘p qirrali ijtimoiy, iqtisodiy, demografik va geografik jarayondir. Bugungi kunga kelib, shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi ya’ni urbanizatsiya jarayoni kuzatilmoqda. Buning natijasida soxta urbanizatsiya tushunchasi ham yuzaga keldi. Ba’zi hududlarda soxta urbanizatsiyaning qamrovi kengaymoqda. Shu bilan birga, u bilan bog‘liq murakkabliklar asta-sekin namoyon bo‘lmoqda. Jumladan, bunga misol tariqasida sayyoramizda hudud aholisining taqsimlanishidagi nomutanosibligi kabi muammolardan birini keltirishimiz mumkin.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida moddiy va ma’naviy rivojlanish natijasida urbanizatsiya jarayonini boshdan kechirdi. Natijada urbanizatsiyaning boshqa turlari ham namoyon bo‘la boshladi. O‘zbekistonda 2009-yil 13-martdagi Vazirlar Mahkamasining 68-sonli qaroriga binoan 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Bu nafaqat, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida, balki aholining demografik rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi.[104] Bundan ko‘rinib turibdiki, 2009-yilgacha bo‘lgan davrda 37% urbanizatsiya darajasi bo‘lib, ushbu qarordan so‘ng esa 50 foizdan oshganligi kuzatilgan. Bu esa shahar aholisining nisbatan oshishi bilan bog‘liq bo‘lsa, qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomining berilishi bilan asoslanadi.

Urbanizatsiyaning ushbu turi ba’zi bir manbalarda soxta urbanizatsiya deb yuritiladi. Bu esa shaharcha maqomini olgan qishloq aholi punktining infratuzilmasiga bog‘liq holatda shakllangan. Soxta urbanizatsiyani quyidagicha ta’riflash o‘rinli deb hisoblaymiz. U hududning infratuzilmasiga bog‘liq bo‘lib, aholining bandlik ko‘rsatkichlarini tarmoqlanishi bilan kuzatilsa, shu bilan birga uy va dehqon xo‘jaligiga ixtisoslashishi ham aniqlanadi.

O‘zbekistonda 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berilgan bo‘lsa, viloyatlarda turli-tuman ko‘rsatkichga ega.

[104] Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik. T.:-2019 B-282




**Rasm. O‘zbekistonda 2009-yil 13-martdagi VM 68-sonli qaroriga ko‘ra 966 ta shaharchaning hududiy tafovutlari**

Ushbu rasmdan ko‘rinadiki, hududlar kesimida shaharchalar tarkibi aholisininig soni va zichligiga ko‘ra turlicha joylashgan. Jumladan, Farg‘ona, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida shaharchalar soni 100 tadan oshgan bo‘lsa, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida eng past ko‘rsatkichga ega ekanligi bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Ammo shuni ta’kidlash joizki, urbanizatsiyaning yuqoridagi ko‘rsatkichi hamma vaqt va hamma joylarda ham real hududiy – iqtisodiy vaziyatni aks ettirmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki, shaharlashish uchun infratuzilma muhim bo‘lib, transport turi ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa qishloq aholi punktlarini shahar maqomi olishini taqozo etadi.

## FIZIKADAN EKSPERIMENTAL MASALALARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

**Ernazarova Navbaxor To‘lqin qizi,**
**“Fizika va astronomiya” ta’lim yo‘nalishi**
**Ilmiy rahbar: E.A.Qudratov,**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fizikadan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar integratsiyasini ta’minlashda eksprimental masalalarning o‘rni va tashkil etish metodikasi bayon etilgan.

**Аннотация.** В этой статье описано роль и методология организации экспериментальных задач в обеспечении интеграции лабораторных и практических занятий по физике.

**Abstract:** This article describes the role and methodology of the organization of experimental tasks in ensuring the integration of laboratory and practical classes in physics.

**Kalit so‘zlar:** fizikadan masalalar yechish, bilimlarini mustahkamlash, eksperimental masalalar, richag, massa, hajm, aylanayotgan jism, markazdan qochma kuch, fizikaviy kattaliklar, matematik modellar.

**Ключевые слова:** решение задач по физике, закрепление знаний, экспериментальные задачи, расчет, масса, объем, вращающееся тело, центробежная сила, физические величины, математические модели.

**Keywords:** solving problems from physics, strengthening knowledge, experimental issues, richag, mass, volume, rotating body, centrifugal force, physical magnitudes, mathematical models.

Ma’lumki, fizika o‘qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning o‘ziga xos jihatlari mavjud. Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birgalikda o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsiy kompetentligini oshirish, bilimlarini mustahkamlash kabi bir necha metodik muhim masalalar hal qilinadi. Fizikadan masalalar yechish jarayonida fizik hodisalarning mazmuni va mohiyati kengroq tushuntiriladi, fizikadagi qonunlarning amalda qo‘llanilish sohalari o‘rganiladi. Ko‘pgina metodika adabiyotlarning tahliliga ko‘ra, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va

fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda eksperimentlar yordamida yechiladigan muammolar odatda fizik masala deyiladi.

Bugungi kunda fizikadan amaliy mashg‘ulotlarni olib borishda laboratoriya va masalalar yechish darslari o‘rtasida uzviylikni va o‘zaro bog‘liqlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish o‘quv jarayonining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonni hal etishda eksperimental masalalar o‘ziga xos jihatlari va imkoniyatlari mavjud [1].Tajribalar va eksperimentlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan masalalar *eksperimental masalalar* deyiladi. Masalan:

1. Suyuqlik va qattiq jism, molekulalar orasida tortish kuchi bormi? Javobni tajribada tushuntiring.

2.Massalari bir xil bo‘lgan ikkita har materialdan tayyorlangan silindr teng yelkali richakka osilgan. Agar silindrlar bir vaqtda suvga botirilsa muvozanat buziladimi? Javobini tekshiring.

3.Ip, tosh shtativ, soat (sekundamer) yordamida stol yuzini o‘lchash mumkinmi?

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, bunday xil masalalarning xarakterli xususiyati ularni yechishda laboratoriya yoki demonstratsion eksperimentdan foydalanishdir.

Demonstratsion eksperimental masalalarni yechishda o‘quv jarayonini tashkil etishda tajribalar demonstratsion eksperimentning barcha shartlariga amal qilgan holda qo‘yilishi kerak. Bunda asboblar, hodisalarning yaxshi ko‘rinayotganligiga alohida e‘tibor berish kerak. Asboblarni ishlatishga ko‘pincha, demonstratsiya stoli oldiga chaqirilgan o‘quvchilar jalb qilinadi, bunda ular demonstratsiyaning bu tomoniga e‘tibor bermaydilar, shuning uchun o‘qituvchi bu narsaga albatta ahamiyat berib borishi kerak.

*Masala*. Yelkalari teng bo‘lagan richagning ikki uchiga massalari teng, lekin hajmlari turlicha bo‘lgan jismlar osilgan. Agar jismlarni suvga tushirilsa, muvozanat saqlanadimi? (1-rasm)



Suhbat vaqtida jismlarni suvga botirilganda ularga itarib chiqaruvchi kuch ta‘sir qilishi aniqlab olinadi. Bu kuchning kattaligi jismning hajmiga va suyuqlikning zichligiga proporsional bo‘ladi. Hajmi kichikroq jismga kamroq itarib chiqaruvchi kuch ta‘sir qiladi. Shuning uchun suvda kichikroq hajmdagi jism richag uchini ko‘proq tortadi. Javob tajribada tekshirilib ko‘riladi.

Bu masalada eksperimentning yordamchi rol o‘ynayotgani ko‘rinib turibdi. Masalani eksperimentsiz yechish ham mumkin, biroq bunda ko‘proq narsa yutqaziladi.

Endi Mexanika fanidan “Aylanayotgan jismga ta’sir qiluvchi markazdan qochma kuch” mavzusidagi laboratoriya ishiga e’tibor beraylik (2-rasm), bu ishda qiymati aniqlanadigan fizik kattalik bu faqat markazdan qochma kuch ($F_{mq}$) hisoblanadi [2].




2-rasm.

Lekin laboratoriya ishida aylanma harakat kinematikasi va dinamikasiga oid bo‘lgan boshqa fizikaviy kattaliklarni ham aniqlash mumkin.

Masalan: *aylanishlar davri – T, chiziqli tezlik – v, burchak tezlik – φ, tezlik o‘zgarishi* – Δ*v, burchak tezlanish – ω, normal –* $a_n$ *va tangensial tezlanish –* $a_t$ kabi fizikaviy kattaliklarninig qiymatlarini matematik modellaridan foydalanib aniqlash mumkin.

Laboratoriya ishining kerakli asbob va jihozlardan foydalanib mavzuga oid bunday kattaliklarni aniqlash o‘quv jarayonida talabalarning eksperimenl ko‘nikmalarini va kichik tadqiqotlar olib borishga davat etadi.




Eksperimenl masalalar yechish o‘quvchilarga kasbiy ta‘lim berishda katta ahamiyatga ega. Ularda texnika, sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga, transport, aloqa zamonaviy texnikaga oid ma‘lumotlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Ularning e‘tiborini fan va texnikaning yutuqlariga doir masalalarga jalb qilish mumkin. Bu jihatdan jahonda birinchi kosmik kemalarning parvoziga, ulkan elektrostansiyalarga, yangi texnika yutuqlariga tegishli ma‘lumotlari bo‘lgan masalalarga e’tiborini qaratish va tanlash juda qiziqarli bo‘ladi. Demak, fizika darslaridagi laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlaridagi integratsiyani ta’minlashda eksperimenl masalalar yechish yangi tushuncha va formulalarni kiritishni, o‘rganilayotgan qonuniyatlarni aniqlashga, yangi materialni o‘rganishga yondashish imkonini beradi. Eksperimenl masalalarning mazmuni o‘quvchilarning tabiat va texnika hodisalari haqidagi bilimlarining doirasini kengaytiradi.

**Adabiyotlar**


1. A.A.Axmedov, E.A.Qudratov. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirishning innovatsion usullari. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 5-son. 2020 y.
2. A.K.Qutbedinov, Sh.O.Toshpulatova, N.B.Azzamova. Fizika o‘qitish metodikasi fanidan laboratoriya ishlari. - T.:2020 y.
3. B.F.Izbosarov, I.R.Kamolov. “Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari”. Toshkent. “Voris” nashriyoti. 2007 y.
4. E.A.Qudratov, N.T.Ernazarova. Talabalarning eksperimental kompetentligini “Mantiqiy sxema tuzish” orqali shakllantirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Navoiy. 2023 y.


## O‘QITISH JARAYONIDA NOAN’ANAVIY DARS TURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI


**Nasirova Shaira Narmuradovna**
**NDPI, professori**
**Raximov Nodirbek Sharif o`gli**
**NDPI, Matematika-informatika fakulteti**
**Matematika va informatika yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**



**Annotasiya.**Ushbu maqolada o‘qitish jarayonida noan’anaviy dars turlaridan foydalanish samaradorligi to‘grisdagi ma’lumotlar yoritilgan.



**Kalit so‘zlar:**axborot, resurs, ta’lim, jarayon, dars, o‘qitish, texnologiya, mustaqil, metod, model, tadqiqot.



**Аннотация.**В данной статье представлена информация об эффективности использования нетрадиционных видов уроков в учебном процессе.



**Ключевые слова:**информация, ресурс, образование, процесс, урок, обучение, технология, самостоятельный, метод, модель, исследование.



**Annotation.** This article provides information on the effectiveness of using non-traditional types of lessons in the teaching process.



**Key words:**information, resource, education, process, lesson, teaching, technology, independent, method, model, research.


Axborot jamiyatiga o‘tish zaruriyati jahon iqtisodiyotida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga o‘tishi,

jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida maorif, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, «global axborot afzalliklarini» teng huquq asosida ishlatish bilan shartlanadi. Oxirgi yillarda elektron ta’limning an’anaviy ta’limga qaraganda afzallik jihatlari ko‘proq aniqlanmoqda. So‘nggi vaqtlarda ta’lim oluvchilar va o‘qituvchilar an’anaviy ta’limning ba’zi turlariga qaraganda onlayn ta’limning afzalliklari ko‘proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o‘qitish platformalari ko‘paymoqda, bunda an’anaviy va onlayn ta’limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta’lim tizimi shakllantirilmoqda. Aralash ta’lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta’lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo‘llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo‘ladi. Bu tendensiyaga bo‘lgan qiziqish ta’lim jarayonida talabalarga ta’sir etadi va ta’lim sifatini oshiradi. Ko‘pgina tadqiqotlar onlayn ta’lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo‘lishini ko‘rsatgan, ya’ni talabalarning mustaqil ta’lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga moslashtirish qobiliyatini shakllantirishga asos bo‘ladi. Elektron ta’limda rivojlanishini talabalarning raqamli dunyoda o‘zini erkin tutishi, ya’ni kerakli ma’lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko‘rishimiz mumkin. Vaqt o‘tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo‘llash asosida an’anaviy ta’limning hohlagan turi, metodi, ta’lim berish usulini kiritishimiz mumkin.

Har bir fanda o‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va ko‘nikmalarni talabaga yetkazishdan iborat. Berilgan bilim talaba tomonidan qabul qilinsa va tushunib yetilsa, hamda egallangan malaka va ko‘nikmalarini amalda namoyish etib bera olsa o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi, deb hisoblasa bo‘ladi.

An’anaviy dars – muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir. Ma’lumki, ta’lim olish jarayoni – bu ma’naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta’lim oluvchi tomonidan mustaqil yoki ta’lim beruvchining ko‘magida amalga oshirilishi mumkin. O‘quv materiali yangi va ancha murakkab bo‘lganda, an’anaviy dars ko‘p hollarda ta’lim jarayonining birdan-bir modeli bo‘lib qoladi. Ma’lumki, an’anaviy darsda ta’lim jarayoni markazida o‘qituvchi turadi. Shuning uchun ba’zida an’anaviy darsni “Markazda o‘qituvchi bo‘lgan ta’lim modeli” deb nomlangan. An’anaviy darsning asosiy maqsadi dars mavzusining asosiy mazmuni, tushuncha va faktlarni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uyga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

An’anaviy dars o‘tish modelida ko‘proq ma’ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an’anaviy dars samaradorligi ancha past bo‘lib, talabalar ta’lim jarayoning passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga o‘quvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli–tuman metodlar bilan boyitish o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib kelar ekan.

Ta’lim olishning noan’anaviy yani modellashtirilgan dars, hamkorlikda o‘rganish va tadqiqot-izlanish turlari majud bo‘lib, bu modellarni talaba markazda turgan ta’lim modellari deb ham ataladi. Modellashtirilgan dars real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan modelini auditoriyada yaratish va ularda talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyati evaziga ta’lim olinishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmuidir. Hamkorlikda o‘rganish o‘quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metodlar majmuidir. O‘rganishning tadqiqot-izlanish modeli o‘quvchilarni muayyan muammoni yechishga yo‘naltiradigan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko‘zda tutuvchi metodlar majmui hisoblanadi. Hamkorlikda guruhlarda ishlash orqali o‘rganish guruh a’zolari va guruhlar o‘rtasida ta’lim oluvchilarning faoliyatini, ularning mustaqilligini, bir-birlari bilan muloqotda

bo‘lish, hamkorlikda ishlash, o‘zaro bog‘liq munosabatlarda mas’uliyatini sezish kabi ko‘nikmalarni egallashni ta’minlaydi.

Modellashlashtirilgan dars–ta’lim oluvchining real hayotdagi hodisalarni tasavvur qilish asosida, unda ishtirok etishi hisobiga malaka, ko‘nikma va tajribalarni o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi. O‘yinni real hayot bilan solishtirib, ular o‘rtasida bog‘lanish o‘rnatish ham darsnin samaradorlogini oshiradi. O‘yin ijtimoiy tajribani to‘plash va uzatishdan iborat bo‘lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq–atvor normalari va qoidalari orqali amaliy faoliyat ko‘nikmalarini o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarning faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtirokini ta’minlash orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi initatsion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi. Ta’lim olishning tadqiqot–izlanish shakli talabalarni izlanishga, yangiliklarga undovchi jarayonlarni hosil bo‘lishga yordam beradi. Tadqiqot o‘quvchilarga inson xatti–harakatiga nisbatan savollar qo‘yishni o‘rganish va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko‘maklashadi. Tadqiqot o‘quvchilarda savol qo‘yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg‘otishni nazarda tutadi. Muammolarni aniqlashdi va berilgan ma’lumotlarni tahlil qilish davomida o‘quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va ob’ektiv yondashuvga o‘rganadilar. Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini yangi ma’lumotlar paydo bo‘lishi bilan o‘zgarishini mohiyatan tushunib yetadilar. O‘quvchilar o‘zlarining taxminlarini tekshirish va boshqalarni tasdiqlash, turli xil axborotlar va mantiqlarni qo‘llashni o‘rganadilar. Ta’lim olishning tadqiqot-izlanish turi oliy darajada fikrlashga imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot modeli bo‘yicha tashkil etilgan dars bosqichlari darsda o‘quvchiga qiziqish uyg‘otadigan muammo yoki savol qo‘yiladi. O‘quvchilarga shu masalini yechish haqida gipoteza taklif qilinishi mumkin yoki o‘quvchilarning o‘zlari gipotezalarni ilgari surishadi. O‘quvchilar o‘zlari shu muammo haqida turli kitoblarni o‘qib, jadval, grafik, xaritalarni o‘rganib, o‘z tadqiqotlarini amalga oshirashidi. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, o‘quvchilar qo‘yilgan muammoni yechish haqida xulosa qilishadi, yangi gipotezani shakllantiradilar. O‘qituvchi dars jarayonida ta’lim olishning modellashtirilgan dars, hamkorlikda o‘rganish va tadqiqot-izlanish turlarini multimedia elementlari, kompyuter texnologiyalari bilan birgalikda tashkil etsa, dars samaradorligini oshirish bilan birga, talabani mustaqil izlanishga undaydi, uni oddiy tinglovchidan faol, ijodkor shaxsga aylantiradi.

Noan’anaviy darsda vaqt talabi dars vaqtining ko‘p qismi o‘quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o‘z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an’anaviyda dars vaqtining ko‘p qismi o‘qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o‘zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi. Noan`anaviy dars turlari dars samaradorligini oshiradi va akademik ishlarga barqaror qiziqish uyg‘otish va dasturiy ta’minot materiallarining eng yaxshi yutug‘ini saqlashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nasirova Sh.N., Tillaev M. M. The importance of creating multimedial electronic learning resources. Academicia Globe: Inderscience Research is a scholarly peer reviewed international multidisciplinary Journal, ISSN: 2776-1010, SJIF: 5.653, 557-559 p

2. Nasirova Sh.N., Jo‘rayeva D.E. Raqamli ta’lim tizimida multimediali texnologiyalardan foydalanish. “Ilm, fan va sifatli ta’lim: dolzarb muammolar, yutuqlar va innovatsion texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiiy-amaliiy konferensiya, 2023 ĭil 9-10 iyun, Nukus, 323-324 bet

3. Nasirova Sh. N., Xoliqov M.M., Jurayeva D.E. Computer animation is a tool for development of creative skills. “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari” mavzusidagi respublika konferensiyasi, 2023-yil 30-may, Toshkent, 88-89 bet

## MAKTAB O‘QUVCHILARI SOG‘LIG‘INI SAQLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING IMKONIYATLARI

**Raxmonova Dilovar Astanakulovna**
**NDPI, Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi**
**Nurmuratova Malika Tolibekovna, Tabiiy fanlar fakulteti**
**4-kurs talabasi**

Zamonaviy jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlari sharoitida insonning jismoniy va ma’naviy salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari, jismoniy madaniyatni rivojlantirish va sport davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘z navbatida, o‘quvchilarning sog‘lig‘ini saqlash jismoniy madaniyat sohasidagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Ta’lim muassasalarida bolalikdan boshlab jismoniy va ruhiy salomatlik asoslarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.Jismoniy madaniyat jamiyat tomonidan jismoniy va intellektual rivojlanish maqsadida yaratilgan va foydalaniladigan qadriyatlar, me’yorlar va bilimlar yig‘indisi bo‘lgan madaniyatning bir qismidir. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari, muntazam tibbiy-ilmiy nazoratni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi, sport murabbiylari tomonidan o‘quvchilarning harakat qobiliyatlari, jismoniy rivojlanish va funksional holatlarini baholash o‘lchovlarini bilishni taqozo etadi. Mutaxassislar tayyorlash tizimidagi innovatsion usullar ta’limning barcha bosqichlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabda o‘qish davri-sharoit va omillarga sezgir bo‘lgan bola tanasining jadal shakllanishi va rivojlanishi davri uning sog‘lig‘iga ta’sir qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvlar talab etiladi. O‘qituvchida bolalarning jismoniy rivojlanishini tez va to‘g‘ri baholash qobiliyati bo‘lishi kerak. Bu nafaqat gigienik nuqtai nazardan muhimdir, balki o‘quv ishlarini to‘g‘ri tashkil etish uchun ham zarur, chunki ko‘rish o‘tkirligi ko‘rsatkichlari past bo‘lgan bolalar ko‘proq e’tibor talab qiladi. Afsuski, ko‘p ota-onalar jismoniy madaniyatning salomatlik qiymatini tushunmasliklari va bolalarning sport va jismoniy tarbiyasiga yetarlicha e’tibor bermaydilar. Shuning uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchi va murabbiylarining vazifasi, bolalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tarbiyaning salomatlikka ijobiy ta’sirini tushuntirishi kerak. Qo‘llaniladigan o‘quv ta’sirlarining to‘g‘riligi va yetarliligini baholash, shuningdek o‘quv yukini moslashtirish uchun ularning morfologik xususiyatlari dinamikasini tizimli kuzatish zarur. Jismoniy tarbiya-pedagogik jarayon bo‘lib, inson organizmini anatomik, morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlarni shakllantirish va o‘quvchining shaxsiyati, sog‘lom sinf jamoasini yaratishga qaratilgan. Inson tanasining tuzilishini, jarayonlarning xususiyatlarini bilmasdan uning alohida organlari va organ tizimlarining hayotiy funksiyalarini o‘rgatib bo‘lmaydi, insonni tarbiyalash va davolash, uning jismoniy holatini ta’minlash ham mumkin emas. Shuningdek, o‘g‘il va qiz bolalar anatomiyasi va fiziologiyasini tushunish, gigiena va birinchi yordam asoslarini, o‘quv jarayonini tashkil etish uchun sanitariya talablarini bilish kerak. Foydalanish maqsadlariga ko‘ra, tibbiy va biologik tadqiqot usullari quyidagilarga bo‘linadi:1. Diagnostika-tananing holatini o‘rganish usullari;2. Prognostik-jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining mumkin bo‘lgan natijalari va oqibatlarini o‘rganish usullari;3. Reabilitatsiya-ekstremal jismoniy va ruhiy stressdan keyin tana tizimlarini funksional tiklash usullari. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi nafaqat o‘quvchilarning jismoniy sog‘lom bo‘lishi, balki ruhiy salomatligi haqida ham qayg‘uradi. Har bir o‘quvchi va sinf yoki bolalar guruhi bilan o‘zaro munosabatlarning usullarini tanlash, qulay psixologik muhitni yaratish, nizolarni hal qila olish, bolalarga yo‘qotish va muvaffaqiyatsizliklarni yengishga yordam berish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi maktab o‘quvchilarining salomatligi uchun shifokordan ko‘ra ko‘proq narsani qila oladi. Umuman olganda, o‘qituvchilar e’tiborini bolalarning sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarga jalb qilishni ijobiy hodisa sifatida baholash mumkin. Jismoniy tarbiya inson tanasini o‘zgartiradi va o‘zgarishlar ba’zan tananing tuzilishiga ham, uning funktsiyalariga ham juda chuqur ta’sir qiladi. Tanadagi funksional o‘zgarishlarning mexanizmlarini to‘g‘ri tushunish juda muhimdir. Inson tanasining hayotiy funksiyalarini o‘rganishda biologiya fanlari - anatomiya, fiziologiya, gigiena asosiy rol o‘ynaydi. Organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlarini, gigienik omillarni bilish jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlar jarayonida faol harakatlarni o‘rgatishning samarali usullarini aniqlash, harakat ko‘nikmalarini shakllantirish usullarini ishlab chiqish, jismoniy faoliyatni rivojlantirish uchun zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Миржамолов М.Х, Валиева Н.Ю. Дифференцированная программа занятий физической культуры для учащихся с ограниченными физическими возможностями. Физическая культура и спорт / Медико-биологические основы физической культуры и спорта. 2020
2. Mamatqulov D.A Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi asoslari. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent - 2017
3. Mirjamolov M.X., Odilov R.F., Zokirov D.R. Salomatligi nogiron imkoniyatlari bo‘lgan o‘quvchilarning maxsus jismoniy tarbiyasini takomillashtirish jismoniy tarbiya va sportning dolzarb muammolari. 2020.
4. Raxmonova D.O. O‘smir qizlarning tibbiy madaniyatini yuksaltirish. Янгиланаётган Ўзбекистон олимаси: муаммолар, тадқиқотлар, ечимлар” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари.Тошкент-2021 “Tafakkur nashriyoti”
5. Raxmonova D.O. Biologiyada ishlatiladigan amaliy innovatsion dasturlar haqida asosiy tushunchalar va ularning imkoniyatlari. Journal of universal science research
27.12.2023

## XORAZM DUTOR MAQOMI TARIXI

**Farmonova Bahora Zayniddin qizi**
**NavDPI, Musiqa ta’limi kafedrasi**
**Professional ta’lim Dutor ijrochiligi 1- bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: s.f.n., professor S.B.Saidiy**

Xorazm tarixi II asrdan boshlab mustaqil buyuk davlat va imperiyasiga erishgan. Eramizdan oldin esa Turkmanlarning yirik davlatchiligidan siqib chiqarilgan bir qabilagina bo‘lgan xolos. Sosoniylar ta’siroti davridan so‘ng, Xalifatchilik davrida yana o‘z mavqe’iga erishadi. XIII asrda yirik olimlari Al Xorazmiy boshchilik “Xorazm Baytul Akademiyasi” barpo etilgan. IX-X asrlarda buyuk siymolar markaziga aylanga va sharq maktablari shakllangan edi. XII asr Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkardaning vataniga bo‘lgan sadoqati va harbiy xizmatlari zarvaraqlarda bitilganligi haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. San’atshunos olim S.Saidiyning tadqiqotlarida; “Buyuk sarkarda Amir Temur davrida Xorazmshox Aloyddin Muhammad saroyida 27 davlatning hukmdorlari (podshoxlari) saf tortib NOG‘ORALARDA “Nubai z-ul- qarnayn usuli”-ni shomdan tong otgunga qadar bir marromda ijro etib turishgan”-deyilgan. IX-XX asr boshlarida Xorazmshox Feruz buyrug‘iga binoan “Buxoro SHashmaqomi” Xorazmlik sozandalardan bir nafar doyrachi va bir nafar g‘ijjakchi tomonidan Buxoroyi sharifda o‘rganiladi va Xorazm uslubiga ag‘darib so‘zlari o‘zgartiriladi. Ushbu ajdodiy tizimni Komil Xorazmiy notalashtirishga kirishadi va u tomonidan “Tanbur chizig‘i”, “Dutor maqomi” kabi to‘plamlar jamuljam xolatga keltirilib maktabini yaratilishiga asos bo‘ladi. So‘ng esa A.Belyaev tomonidan Moskva markaziy bosmaxonasidan nashr etilib 7 maqom “Peshravi Feruzshox” deb nomlangan yarim qismli tizim qo‘shilishiga keltirilgan holda Xorazmga etkaziladi. Ammo u 6- maqom nomini olishiga sabab, Buxoro shashmaqomining o‘zi ekanligi va o‘zlashtirib olinganligidandir. Totalitar ta’siroti davridan so‘ng 1991 yildan boshlab O‘zbekiston Mustaqillikga erishadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 2002 yil 23 mayda Hofiz Ollanazarovga maktub yo‘llab, o‘tmishda Xorazm musiqashunoslari tomonidan yaratilgan qo‘lyozma maqom kitobini avaylab saqlab kelganligi uchun minnatdorchilik bildirgan edi. So‘ngra bu nodir manba O‘zbekiston Prezidentining topshirig‘iga binoan O‘zbekiston davlat konsearvatoriyasiga tantanali ravishda topshirildi. Endilikda ushbu noyob manba mazkur dargohning muzeyida saqlanmoqda. Davlat rahbarining musiqiy merosimizga bo‘lgan 49 g‘amxo‘rligi san’at ahlining qalbida saqlanib kelayotgan ezgu, orzu-umidlarini alanga oldirib, muazzam maqom mulkini obod qilish, undan milliy qadriyat sifatida xalqimizning ma’naviy manfaatlari yo‘lida foydalanish borasida tariximizda yangi davr paydo bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ajdodlarimiz merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish, mumtoz musiqa an’analarini hozirgi davr amaliyotiga tatbiq etish, eng asosiy masala jahon ma’naviyatida musiqa merosimiz tutgan o‘rnini aniq, ravshan belgilab berishdan iborat. Xorazmda musiqa va ijrochilik san’atlarining saroydan tashqarida kengroq doyrada, to‘yhashamlar, bazmu ziyofatlarda el sozandalari ijrosidagi keng tarqalgan turlari orasida “Dutor maqomlari” alohida o‘rin tutadi.

Ta'kidlash lozimki, Dutor maqomlarining nazariy va tarixiy muammolari musiqashunoslik sohasida deyarli oʻrganilgan edi. Vaholangki, Xorazm maqomlari hozirgi davrgacha mahalliy musiqa madaniyati, shuningdek, Oʻzbekiston san'atida nihoyatda baland mavqega ega. Xorazm maqomlarini oʻzbek xalqining ma'naviyati, madaniyatida oʻrni beqiyos. Shoʻro davrida (XX asr) Xorazm maqomlari ma'lum oʻzgarishlarga duchor boʻlgan. SHu sababdan Xorazm maqomlari, ayniqsa, Dutor maqomlarining mumtoz shakllarini tiklash, ularga xos mavjud ijodiy qonun-qoidalarini oʻrganish musiqashunoslikda amalga oshirish kerak boʻlgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xorazm maqomlarining Tanbur va Dutor maqomlariga boʻlinishi XIX asrdayoq shakllangan edi. Ajdodlarimizdan bizga yodgor boʻlib qolgan Dutor maqomlarini ilmiy nazariy oʻrganish XX asrning birinchi choragiga toʻgʻri keladi. Mulla Bekjon Rahmon oʻgʻli (vafoti 1938.) hamda Muhammad Yusuf Devonzoda (1889-1952) oʻzlarining 1925 yili Moskvada eski oʻzbek yozuvida chop qilingan "Xorazm musiqiy tarixchasi" asaridagi Xorazm Dutor maqomlari haqida ilk ilmiy ma'lumotlar berib, ulardan 11 ta maqom nomini sanagan. Ayni paytda, ushbu kitobda Dutor maqomlarining tuzilishi, barcha usullari, shu davrda mashhur ijrochilar tazkirasi, shuningdek, "Dutor maqomlari "Xorazm maqomlarining qadimiy qatlami ekanligi xaqidagi ma'lumotlarni keltirganlar. Abdurauf Fitratning "Oʻzbek klassik muzikasi va uning tarixi" asari Xorazm Dutor maqomlariga taalluqli dastlabki yangiliklarni yetkazilishi bilan qimmatlidir. mazkur risolalarda XX asrning 30-yillariga qadar boʻlgan davrdagi qadimiy an'analar, Xorazm maqomlari tarixiga oid ma'lumotlar, ijro uslublari, usul tuzillishlari, shu davrlardagi mashhur ijrochilar haqida ma'lumotlar berilgan. Fitrat asaridagi Dutor maqomlariga oid fikrlarda koʻproq oʻzga manbalarning ta'siri boʻlsa ham, ular Xorazm Dutor maqomlarining tuzilishi va nomlanishlarining qisqacha bayoni berilganligi bilan xarakterlidir. N.Mironovning 1931 yili Samarqandda nashr qilingan "обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока" kitobida Xorazm Dutor maqomlaridan "Saraxbor Zihi nazzora" ashula notasi keltirilgan. Oʻzbek musiqiy fol'klorshunosligida koʻp xizmat qilgan Ye.E. Ro-manovskaya oʻzining "Жанри узбекской музыки" maqolasida Dutor maqomlarining boshqa mahalliy an'analarda mavjudligini alohida zikr qilib, 4 ta maqomning nomini tilga olib oʻtadi. SHuni alohida ta'kidlash joizki, Ye.E.Romanovskaya mazkur maqolasida "Dugohi Husayniy", "CHorgox", "Nasrulloyi", "Adjam" va "Navo" kabi maqom yoʻllarini "Ташкентские дутарные макомы" deb keltirgan. Demak, XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Toshkent maqom an'analarida ham Dutor maqomlari atamasi ishlatilgan. Xorazm ashulalarini toʻplab, notaga olgan M.Yusupov 1958-1962 yillarda nashr etilgan "Oʻzbek xalq musiqasi" (Xorazm ashulalari)ning IX tomida "Qaddim hamliqi", "Orazibon", "CHoki giribon" kabi bir qancha Dutor maqomlaridan boʻlmish kuylar notasini keltirgan. Biroq ularda kuylar qisqartirilgan, barcha namunalar yangi she'riy matnlar bilan berilgan. Ba'zi kuylarning nomlari ham oʻzgartirilgan. Jumladan, "Zihiy Nazzora" kuyi faqat "Nazzora" deb berilgan. mazkur kuyning nomini qisqartirib berilishi davr mafkurasiga boʻysunishi bilan. izohlash mumkin. Lekin toʻplamdagi Dutor maqom kuylariga "qadimgi xalq kuylaridan", deb izoh berilgan. Ya'ni, ular Xorazm Dutor maqomlari sifatida koʻrsatilgan emas. Faqat "Mugʻulcha uforisi" kuyini Dutor maqomlaridan deb qayd qilgan. Keyinchalik, M.Yusupov Xorazm maqomlarini toʻplab, 3 jildda chiqargan. Ammo (Dutor maqomlari haqida ma'lumotlar yoʻq) ulardagi kuylar Xorazm Tanbur chizigʻiga asoslanmagan, balki maqomlar toʻplanayotgan paytda ogʻzaki an'anada joriy boʻlgan kuy variantlari asos qilib olingan. Oʻsha paytga kelib, 50 ogʻzaki an'anadagi kuylar asl Xorazm maqomlari kuylaridan ancha farqlanar, jumladan, xona va bozgoʻylarning tushib qolgani yoki orttirilgani, taktlar soni usulga mos emasligi koʻpchilikka ravshan edi. SHuning natijasida, "Xorazm maqomlari" kitobidagi kuylarning notalarida ham gʻalizliklar, bahstalab oʻrinlar juda koʻp. Xulosa qilish mumkinki, M.Yusupov toʻplagan katta hajmdagi musiqa materiali oʻsha davr uchun qimmatli manba va yangilik boʻlsa-da, hozirgi paytda, bundan musiqa amaliyotida foydalanishi ma'lum darajada cheklangan. Bugungi kunda milliy musiqamiz va chetga chiqqan an'anaviy cholgʻu yoʻlarimizni tiklash hamda tarixini yoritish, ilmiy muammolarini yechish masalasida san'atshunos olimlarning xizmati nihoyatda kattadir. tadqiqotchi S.Saidiy ilk marotaba cholgʻular Morfologiyasi va ergologiyasi, oʻrta asr nazariyasi, hamda Sohibqiron harbiy Musiqiy cholgʻulari "Konsepsiyasi"ni, Buxoro Amirligi davrining toʻqqizta musiqiy ijrochilik tartibini tiklagan va yuzaga keltirgan. Shuningdek

F.Karomatli, J.Rasultoyev,O.Ibrohimov, S.Xudoyberdiyev kabi olimlarning xizmatlari diqqatga sazovordir. Xullas; yosh barkamol avlod tarbiyasida, ularning san’at sohasidagi egallagan bilimini, vatanga bo‘lgan muhabbatini, olimlar tadqiqotlaridan kelib chiqqan va qalamlariga mansub tariximizda qo‘l kelgan an’analarimizni tiklab, saboq berish yo‘llarida yangi talqindagi maqomlar yaratgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1.Акбаров И. Хоразм «Танбур чизиғи». 1986. // Ўзбекистон давлат консерваторияси кутубхонаси, инв. № 2086.

2.Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди, инв. №9320.

3.Ўзбекистон Марказий давлат архиви. Фонд 2705. Оп.1, Д. 17-18.

4.С.Саидий. Марказий Осиёда Урма зарбли чолғулар.(ўзбек ва тожик мусиқа анъаналари мисолида). “Мусиқа нашриёти” Тошкент-2005.


## REFERENDUM: NATIJA VA TAHLILLAR.(2002-YIL 27-YANVAR KUNI BO‘LIB O‘TGAN REFERENDUM MISOLIDA)


**Salimov Sayyodjon Said o‘g‘li**

**NavDPI tayanch doktoranti**



**Annotatsiya.** O‘zbekistonda Oliy Majlisning ikki palatali holda tashkil etilishi bo‘yicha referendum 2002-yil 27-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan.Ushbu maqolada referendum bo‘yicha qonunchilik hujjatlari, unga tayyorgarlik, ovoz berish jarayonlari va natijalar tahlil qilingan.

**Аннотации.** Референдум о создании Олий Мажлиса в Узбекистане состоялся 27 января 2002 года. В статье анализируются законодательные документы референдума, его подготовка, процессы голосования и результаты.

**Annotation.** The referendum on the establishment of the Oliy Majlis in Uzbekistan was held on January 27, 2002. This article analyzes the legislative documents of the referendum, its preparation, voting processes and results.



**Kalit so‘zlar:**parlament, referendum, Oliy Majlis, Senat, demokratiya, okrug, uchastka, kuzatuvchi, fuqaro, erkinlik

**Ключевые слова:** Парламент, референдум, Олий Мажлис, Сенат, демократия, округ, избирательный участок, наблюдатель, гражданин, свобода.

**Keywords:** Parliament, referendum, Oliy Majlis, Senate, democracy, district, precinct, observer, citizen, freedom


O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha sohalarda tub islohotlarni amalga oshirdi.Xususan, 2002-yil 27-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan referendum davlatchiligimiz taraqqiyoti uchun muhim qadam bo‘ldi. Sababi aynan mana shu referendum yakuni bo‘yicha xalqning xohishiga ko‘ra qabul qilingan konstitutsiyaviy qonun natijasida mamlakatimiz parlamenti ikki palatali parlament sifatida tashkil etildi. Albatta bunda xalqimiz huquqiy ongi va madaniyatining yuqoriligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Zero ikki palatali parlament bu professional parlament sifatida qonunchilik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqdi va sifat o‘zgarishlarga olib keldi. “Yangi yilning ilk kunlarida biz Referendum- umumxalq ovoz berishi, Vatanimiz tarixidagi buyuk voqealardan birining guvohi bo‘lamiz. O‘ylaymanki, bu tarixiy jarayonda o‘z xalqi va vataning manfaati yo‘lida hormay-tolmay mehnat qilayotgan har bir O‘zbekiston fuqarosi o‘zining xolis munosabatini bildiradi”[1]. Referendum to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasida Referendum tushunchasiga ta’rif berilgan.“O‘zbekiston Respublikasining referendumi O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir.Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi. Agar referendumda qabul qilingan qarorlarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, referendumda qabul qilingan qarorlar faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin”[2]. Ushbu moddani tahlil qiladigan bo‘lsak aynan normaning o‘zida belgilab o‘tilganidek referendum yo‘li bilan qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi va qonunda boshqa hollar

nazarda tutilmagan bo‘lsa faqatgina referendum yo‘li bilangina bekor qilinishi mumkin. Bu bevosita kelajakda ushbu normaga qat’iy ravishda og‘ishmay amal qilinishini ta’minlaydi. Mamlakatimiz fuqarolarining o‘z xohish istagini referendum yo‘li bilan bildirishi bevosita davlat Konstitutsiyasida ham belgilab qo‘yilgan. “Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumxalq ovoziga-referendumga qo‘yiladi” [3]. Ushbu muhim siyosiy tadbirga tayyorgarlik belgilangan huquq normalaridan kelib chiqqan holda olib borildi. Xususan referendumga tayyorgarlik “O‘zbekiston Respublikasining referendum to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to‘g‘risida”gi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida o‘tkazilishi ta’minlandi. “Markaziy saylov komissiyasi matbuot xizmati ma’lum qilishicha avvalo Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha 14 ta referendum okrugi tuzilgan. Joylarda referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarimizga mumkin qadar qulaylik yaratish maqsadida 7810 ta referendum uchastkasi tuzilgan, shundan 37 tasi mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida tashkil etilgan”[4]. Referendumga tayyorgarlik jarayonida tegishincha referendum o‘tkazuvchi okrug va uchastka komissiyalari tasdiqlanib shu asosda ishlar olib borilgan. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan referendum o‘tkazuvchi uchastka komissiyalari faoliyatiga doir tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda referendum uchastkalarining moddiy texnik bazasiga alohida e’tibor berildi. Xususan referendumni o‘tkazish uchun kerak bo‘ladigan ish qog‘ozlari va hujjatlar uchastka komissiyalariga yuborildi. “Referendum o‘tkazuvchi okrug va uchastkalar bilan doimiy aloqani ta’minlash maqsadida 14 ta okrug komissyalari shahar, shaharlararo telefon aloqasi hamda fakslar va kompyuterlar bilan ta’minlandi, 7809 ta uchastkalardan 7064 tasi telefon aloqasi, 463 tasi ratsiya bilan, qolgan 282 ta uchastka avtotransport vositalari orqali okruglar bilan bog‘landilar” [5]. Shuningdek Referendumga tayyorgarlik doirasida parlament raisi Erkin Xalilovning “O‘zbekiston Respublikasi Referendumi-milliy davlatchilik taraqqiyotining muhim bosqichi” nomli risolasi o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etildi. Unda referendumga qo‘yilgan masalalar batafsil sharhlab berilgan edi. Bularning barchasi albatta referendumni qonuniy, oshkora belgilangan talab doirasida bo‘lib o‘tishiga zamin hozirladi. Albatta referendumning tashkiliy masalalari xarajatlari smeta asosida bevosita davlat mablag‘lari hisobidan amalga oshirildi. Referendumni a’lo darajada tashkil etish maqsadida davlat mablag‘laridan barcha xarajatlar qonunda belgilangan tartibda qoplandi. “Referendum o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun Markaziy saylov komissiyasining taklifiga muvofiq Vazirlar Mahkamasi 2002-yil 4-yanvarida 4-f sonli farmoyish qabul qildi. Hukumat ushbu farmoyish bilan referendumga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar uchun qariyb 767 mln so‘m mablag‘ ajratib berdi. Referendum o‘tkazuvchi har bir okrug uchun 214 ming 440 so‘m, har bir uchastka uchun 74 ming 440 so‘m mablag‘ ajratilib o‘z vaqtida ularga yetkzib berildi”[6]. Shu o‘rinda referendumga qo‘yilayotgan birinchi masala ya’ni parlamentni ikki palatali etib tuzish g‘oyasi mamlakatimiz Birinchi prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilganligini alohida ta’kidlab o‘tishimiz lozim. Ushbu tashabbus ayni vaqtida juda o‘rinli ravishda berilganligi o‘tgan vaqt mobaynida o‘z isbotini topib bormoqda. Zero ikki palatali parlament bu professional parlament hisoblanadi va bu qonunlarni qabul qilishda sifat o‘zgarishlarga olib kelishi jahon amaliyotida o‘z isbotini topgan jarayon edi. “Shu o‘rinda jahon tajribalaridan kelib chiqib ko‘p uchraydigan uch holat haqida to‘xtalishimiz mumkin. Birinchisi, har ikki palataning teng huquqli va teng vakolatli bo‘lish holatidir. Bu ko‘rinishdagi parlament “ratsionallashtirilgan parlament” deb ataladi. Buning yorqin misoli Italiya Respublikasidir. Ikkinchi ko‘rinish “teng ta’sir palatalar” shaklida bo‘lib, Fransiya parlamenti misolida uchraydi, uchinchi ko‘rinishdagi esa “ustuvor palata” shakli Buyuk Britaniya, Yaponiya va aksariyat federal tuzilishdagi davlatlarda uchraydi”[7]. Ma’lumki mamlakatimizda bo‘lib o‘tadigan har qanday siyosiy jarayonlar xoh u referendum bo‘ladimi xoh u saylov bo‘ladimi albatta O‘zbekistonning xorijiy davlatlarda istiqomat qiladigan fuqarolari uchun ham o‘sha yerning o‘zida qonunda belgilangan tartibda referendum yoki saylov uchastkalari tashkil etiladi va aynan mana shu uchastkalar orqali o‘zlarining siyosiy huquqlarini amalga oshirishadi 2002-yil 27-yanvarda bo‘lib o‘tgan referendum ham bundan mustasno bo‘lmadi. “Referendum to‘g‘risidagi” Qonunning 16-moddasiga asosan referendum uchastkalari O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi

vakolatxonalari huzurida ham tuzilishi mumkin. Bu uchastkalar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tegishli okrugga biriktiriladi. Masaslan bunday uchastkalar hozir Turkiyaning Anqara, Istanbul shaharlarida, Germaniyaning Berlin, Frankfurt shaharlarida, Amerika Qo'shma Shtatlarining Nyu-York, Vashington shaharlarida, Buyuk Britaniyaning London shahrida hamda boshqa davlatlarning ko'pgina shaharlarida tashkil etilgan. Xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarimiz va konsullik idoralarimiz huzurida tashkil qilingan 37 ta referendum uchastkalarida 27-yanvar kuni 11 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarolari ovoz berishi kutilmoqda"[8]. Ko'rib turganimizdek xorijda yashayotgan fuqarolarimizning o'z siyosiy huquqlarini ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Ular dunyoning qaysi qismida bo'lsa ham vatan taqdiriga befarq bo'lmagan holda referendumda qatnashishi mumkin. Ushbu referendumning e'tiborga molik jihati jahon jamoatchiligining faol ravishda jarayonlarni kuzatib va yoritib borganligi bo'ldi. Bu esa referendumga qo'yilgan masalalarning nechog'lik muhim ekanligini anglatadi. Zero har bir davlatning qonun chiqaruvchi hokimiyati bilan bog'liq masalalar doim e'tibor markazida bo'ladi. Referendumga qo'yilgan masalalarni yoritish maqsadida xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet el ommaviy axborot vositalari xodimlaridan iborat bo'lgan delegatsiyalar yurtimizga kelgan edi. "Referendum to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga binoan kuzatuvchilar, chunonchi xalqaro kuzatuvchilarga referendum o'tkazuvchi okrug va uchastka komissiyalarning majlislarida hozir bo'lish, tayyorgarlik ishlarining borishi, ovoz berish qutilarining joylashtirilishi va muxrlanishi va boshqa jarayonlarda qatnashish huquqini beradi"[9]. Ko'rib turganimizdek kuzatuvchilarning huquq va majburiyatlari qonunchilikda aniq qilib belgilab berilgan. Bu esa referendumning oshkora demokratik o'tishi bilan birgalikda uning qonuniy me'yorda bo'lishiga xizmat qiladi. "Yakshanba kuni o'tkaziladigan referendumda dunyoning 35 davlatidan 134 kuzatuvchi va OAV xodimlari ishtirok etishi kutilmoqda. Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, MDH va boshqa mamlakatlardan keladigan kuzatuvchilar uchun Markaziy saylov komissiyasi barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirmoqda."[10].Kuzatuvchilarga bunday imkoniyatning yaratib berilishidan asosiy maqsad mamlakatimizda referendum demokratik huquq qoidalari asosida bo'lib o'tayotganini namoyon etishdir. "Referendumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir tadbirlarda siyosiy partiyalardan, fuqarolar tashabbuskor guruhlaridan, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan 2350 ta kuzatuvchilar, shu jumladan 32 ta davlatdan 130 nafar xorijiy kuzatuvchilar qatnashdi."[11]. 2002-yil 27-yanvar kuni O'zbekiston tarixidagi navbatdagi katta siyosiy voqelik-Referendum bo'lib o'tdi.Referendum yurtimiz fuqarolar o'zining faolligi bilan ajralib turdi. Referendumga qo'yilgan masalalar bevosita vatan taqdiriga daxldor ekanligini anglagan har biri kishi belgilangan uchastkasi tomon shoshdi va referendumga o'z munosabatini bildirdi. "Markaziy saylov komissiyasi 1-fevral kuni o'zining majlisida referendum yakunlarini ko'rib chiqdi. Barcha okrug komissiyalarining ovoz berish natijalari to'g'risidagi bayonlariga ko'ra 27-yanvar kuni referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan hamda ovoz beruvchi fuqarolar ro'yxatiga kiritilgan 13 million 226 ming 602 nafar fuqarolardan 12.113.070 kishi, ya'ni 91,58 % ovoz berishda qatnashdi"[12]. Ko'rib turganimizdek ushbu referendumga qo'yilgan masalalar davlat ahamiyatiga molik ekanligi referendumda qatnashgan fuqarolarning sonidan ham bilish mumkin edi. Zero, mamlakatimiz fuqarolarning huquqiy dunyoqarashi yildan-yilga o'sib borayotganligining yana bir isbotini aynan referendum orqali namoyon etilgan edi. Fuqarolarning ishtirokini bevosita referendumga qo'yilgan masala bo'yicha ko'radigan bo'lsak ham yuqori foizlarni ko'rishimiz mumkin. "Referendumga qo'yilgan "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamenti ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?" degan masalani fuqarolarning 93,65 % yoqlab, 6,35 % esa masalaga qarshi ovoz berdi."[13]. Referendum yakunlari bo'yicha yurtimizga tashrif buyurgan bir qancha kuzatuvchilar referendum, uni tashkil etish va yuqori saviyada o'tkazish, fuqarolarimizning referendumga qo'yilgan masalalarga munosabatini o'rganib o'zlarining xulosalarini berishdi. Xususan,Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Britaniya-O'zbekiston komissiyasi hamraisi Xartli But shunday deydi "diqqatga sazovor jihati shundaki hech narsa yashirin tutilgani yo'q. Tabiatning ham, odamlar kayfiyatining ham ochiqligi, kuzatuvchilarga nisbatan samimiy munosabati meni hayratlantirdi"[14].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 2002-yil 27-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan ushbu referendum mamlakatimiz parlamentarizmi shakllanishi uchun yana bir qadam bo‘ldi. O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan bosqichma-bosqich, izchillik bilan bormoqda. Ushbu referendum natijasi bilan tashkil topgan ikki palatali parlament xalqimiz farovonligi uchun muhim qonunlarni ishlab chiqishda ishtirok etib kelmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Murod Sharifxo‘jayev. Tarixdan munosib sahifa // Xalq so‘zi, 2002-y 1-yanvar №1 (2829) B.2
2. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risidagi qonuni” https://lex.uz/acts/-81253
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/-6445145
4. Referendum-xalq irodasi ifodasi // O‘zbekiston ovozi, 2002-y 17 yanvar №8 (26.867) B.1
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro‘yxat,216-yig‘ma jild,16-varoq;
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro‘yxat,216-yig‘ma jild,15-varoq;
7.Haydarali Yunusov. Ikki palatali parlament: jahon andozalari va tajribasi// O‘zbekiston ovozi, 2002-y 17 yanvar №8 (26.867) B.2
8. Sultonmurod Olimov. Yangilikka intilib yashash-taraqqiyot garovi // O‘zbekiston ovozi, 2002-y 19 yanvar №9 (26.868) B.1
9. Akbar Jonuzoqov. Referendum: Jahon nigohi // O‘zbekiston ovozi, 2002-y 22 yanvar №10 (26.8689) B.1
10. Akbar Jonuzoqov. Referendum: Jahon nigohi // O‘zbekiston ovozi, 2002-y 22 yanvar №10 (26.8689) B.1
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro‘yxat,216-yig‘ma jild,19-varoq;
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro‘yxat,216-yig‘ma jild,20-varoq;
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi joriy arxivi I-fond,1-ro‘yxat,216-yig‘ma jild,20-varoq;
14. Xalqaro kuzatuvchilar Referendum haqida // Xalq so‘zi, 2002-y 31 yanvar №23 (2851) B.2

## O`ZBEK MILLIY MATOLARI TARIXI

**Muzropova Guljamol Mardonovna**
**NDPI, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi**
**Rustamova Charos Norbo‘ta qizi**
**NDPI, Dizayn:libos va gazlamalar yo‘nalishi 2-kurs talabasi**

***Annotatsiya.*** O‘zbek milliy matolari o‘zbek xalqining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan va uzoq tarix bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir mintaqa uchun o‘ziga xos farq va xususiyatlar mavjud.O‘zbek milliy matolari deganda ko‘z oldimizda atlas, adras, beqasam kabi turli tuman-tuman nafis va go‘zal matolardan ijod etilgan kiyimlar gavdalanadi. Asrlar davomida shakllanib kelgan va san’at darajasiga ko‘tarilgan hunarmandchilikning bu turi hozirgi kunga kelib haqiqiy ommaboplik va mashhurlik kasb etdi. Mazkur maqolada milliy matolarimiz tarixi haqida ma’lumotlarni o‘rganish, bilish hamda tadbiq qilish haqida yoritib o‘tilgan.

***Kalit so‘zlar:q***alami, olacha, banoras, beqasam, shoyi, nimshoyi, tamq, mushku-za’far, pari-pashsha, ikat, abr, abri-bahor, bandan, kanaus shoyi, bargi karam, adras, atlar, yakro‘ya va h.k.

***Annotation***: Uzbek national fabrics, which reflect the national characteristics of the Uzbek people, were created in ancient times and are used today and are closely related to a long history. Each region has its own differences and characteristics. When we think of Uzbek national fabrics, we can imagine the clothes created from various regions of elegant and beautiful fabrics, such as satin, adras, bekasam. This type of handicraft, which has been formed for centuries and has risen to the level of art, has gained real popularity and popularity. This article describes the study, knowledge and application of information about the history of our national fabrics.

***Key words:*** Kalami, olacha, banoras, beqasam, shoyi, nimshoyi, tamq, mushku-zafar, pari-pashsha, ikat, abr, abri-bahor, bandan, kanaus shoyi, bargi karam, adras, atlar, yakro etc.

***Аннотация:*** Узбекские национальные ткани, отражающие национальные особенности узбекского народа, были созданы в древности и используются сегодня и тесно связаны с многовековой историей. Каждый регион имеет свои особенности и особенности.Когда мы думаем об узбекских национальных тканях, мы можем представить себе одежду, созданную из различных регионов из элегантных и красивых тканей, таких как сатин, адрас, бекасам. Этот вид рукоделия, формировавшийся веками и поднявшийся до уровня искусства, приобрел настоящую популярность и популярность. В данной статье описано изучение, познание и применение сведений об истории наших национальных тканей.
***Ключевые слова:*** калами, олача, банорас, бегасам, шойи, нимшойи, тамк, мушку-зафар, пари-пашша, икат, абр, абри-бахор, бандан, канаус шойи, барги карам, адрас, атлар, якро и др.

Tarixchilarning ilk ma’lumotlariga ko‘ra, O‘rta Osiyoda asosan sidirg‘a gazmollar ishlangan. XIX- XX asrlarda sidirg‘a gazlamalar kam ishlangan, naqshli matolar esa keng tarqalgan. O‘zbekistonda XIX asrda ip gazlama ishlab chiqarish keng tarqalgan. O‘rta Osiyo xalqlari qadimdan shoyi gazlamalar ishlab chiqarilgan, ammo XVII asrda ko‘p joylarda bu narsa esdan chiqarilgandi. Faqat Farg‘ona vodiysida (asosan Marg‘ilonda) va Buxoroda bu soha rivojlangan. Samarqandda bu san’at bilan faqat XVIII asrning oxirida Marvdan ko‘chirilgan turk tilli eroniylar shug‘ullangan. XIX asrda o‘zbek milliy kiyimlarini tikishda ishlatiladigan asosiy matolar sirasiga ip gazlama, ipak, nimshoyi va jun gazlamalar kiradi. Ip gazlama matolaming turlari va navlari juda xilma-xil bo‘lgan. Ayniqrog‘i, oq, jigarrang, sariq tusli bo‘zlar keng tarqalgan bo‘lib, ulardan barcha yoshdagi kishilar uchun choponlar, shuningdek ichki kiyimlar, tikilgan. Ayollarning ro‘mollari, dakana va lachaklarini tikish uchun doka ishlatilgan. Erkaklarning ko‘ylaklari xomsurp, sidirg‘a chit, ip gazlamali qalamidan tikilgan. Yo‘l-yo‘l ip gazlama mato olachalar ko‘proq qishloq to‘quvchilari tomonidan to‘qilib, chopon tikishda qo‘llanilgan

Toshkent kosiblari bo‘z yoki karbos (oddiy buyalmagan ip gazlama), bosma (ko‘proq qizil tusdagi gulli bo‘z), olacha (buyalgan ipdan to`qilgan yo‘l-yo‘l ip gazlama), chopon tikishda qo‘llaniladigan yo‘l-yo‘l nimshoyi matolar to‘qishga mohir bo‘lganlar. Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an’anaviy o‘zbek ipak (kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalar to‘qilib, ulardan tikilgan turfa kiyimlar o‘ziga to‘qroq, boy-badavlat kishilar orasida rasm bo‘lgan.

Matolarning XX asr boshida “qalami”, ”olacha” turlari yo‘l-yo‘l gazlamalarning asosiy turlari bo‘lgan. Qalami odatda xonaki dag‘al xom ipdan ishlanib, asosan, erkak choponlarida qo‘llanilgan. Uning yo‘l-yo‘l naqshini oq foni bo‘yalmagan xom ip berardi, arqoq ipi ham oq bo‘lgan, yo‘l-yo‘llari ko‘k yoki qora rang qizil rang bilan birikmalari bo‘lgan. Ip gazlamalami ikkinchi turi “olacha” bo‘lgan. Bu gazlama to‘q yoki yorqin yo‘l-yo‘l bilan naqshlangan, arqoq ipi odatda to‘q yoki ko‘k bo‘lgan. Qishloq joylarida an’anaviy yo‘l-yo‘l ip gazlamalar to‘qilardi.

Ularda mahalliy qadimiy an’analar o‘z aksini topgandi. Masalan, Nurotada olacha, Vobkentda qalami to‘qilardi Qizil va ko‘k rangli yo‘l-yo‘llaming xilma-xil birikmalari qo‘llanilib, oq ip ta’sirida naqsh pushti yoki to‘q moviy rangli bo‘lib ko‘rinardi. Farg‘onada (Beshariq va Namangan) ishlangan qalamini naqshiga to‘q yashil va qora keng emas yo‘l-yo‘llarni orasiga juda ingichka oq yo‘l kiritilardi. Xorazmda bu mintaqaga oid asosan qizil tusdagi yashil, ba’zan, binafsha rangli tor yo‘l-yo‘lli olacha ishlanardi. Xorazm olachasi maxsus usul yordamida yaratilgan. Banoras to‘qilish usuli va qalin yupqaligi jihatidan beqasamga o‘xshab ketadi. Banoras aslida Hindistonning Banoras shtatining nomidan kelib chiqqan. Bu gazlama Hindistondan O‘rta Osiyoga o‘tib, bu yerlik usta hunarmandlar qo‘lida yangicha ko‘rinishga ega bo‘lib, yangicha tus oldi. Banoras sidirg‘a rangli (kumush rang-oqish, sarg‘ish, pushti, zangori) bilinar bilinmas chiviqlari bo‘lgan. Bunday chiviqlar paripashshada ham bo‘lgan, lekin yupqa va zich to‘qilgan gazlama “banoras”ni naqshi juda mayda oq va moviy yoki yo‘l-yo‘lli bo‘lgan.Banoras rang turlari bilan farqlanib,undan ayollarning ustki kiyimi bo‘lmish paranji tikilgan.

Beqasam yo‘l-yo‘l gazmol bo‘lib, undan erkak, ayol va bolalar uchun kundalik kiyiladigan to‘nlar, ko‘rpa-ko‘rpachalar tikishda foydalanilgan. Ip gazlamalar jumlasida nimshoyi gazlamalari ham to‘qilardi. Naqsh san’ati bo‘yicha yuqori yutuqqa erishggan gazlama «beqasam» edi. Beqasam ipak tanda va qalin paxta arqoq ipidan to‘qilgan zich yo‘l-yo‘l gazlama. Buxoro va Qashqadaryoda bu gazlamani ip yo‘l-yo‘l gazlama kabi «olacha» deyishadi. Maxsus olachani tanda ipi paxta va ipak ipdan, arqoq ipi - paxtadan bo‘lgan. Bu olacha “nimshoyi” deb atalardi. Bir yoki ikki rangli ipak ipi ajralib turardi. Paxta iplarining orasidan o‘tkazilgan sariq shoyi ipi metallni eslatardi. Beqasam keng tarqalgan matolardan biri bo‘lib, undan ayol va erkaklar va bolalar ustki bashang kiyimi tikilgan. Har bir mintaqa gazlamani mahalliy rangga bo‘yashgan.
Farg‘ona vodiysi gazlamalarining sovuq koloritiga binafsha rangni sovuq yorqin, yashil va oq ranglar birikmalari yordamida erishilgan. Oz miqdorda ingichka to‘q qizil rangli yo‘l-yo‘lva ba’zan beshinchi rang kiritilardi. Marg‘ilonda bu naqsh ranglar soni bo‘yicha nomlangan: «uch qashoq» (uch rangli), «besh qashoq» (besh rangli) yoki «bayroq» bo‘lgan. Farg‘ona vodiysi shaharlarida to‘q qizil va pushti ranglar faqat ayollar va bolalar kiyimlari uchun ishlangan beqasamga kiritilardi. Erkaklar kiyimida qizil rang kiritish man etilgan. Erkaklar kiyimi uchun yo‘li bir xil to‘q yashil, binafsha va ko‘k rangli beqasamlar qo‘llanilgan. Bu naqsh «olti-bog‘» deb atalardi. Farg‘ona vodiyida shu naqshli beqasamlar yashil-ko‘k tusi bilan farqlanadi. Ular yaltiratuvchi bolg‘a bilan urilganidan so‘ng muar effekti hosil bo‘lardi. Bu beqasamni umumiy koloriti uning nomini berdi «mosh rang». Bunday gazlamalardan Qo‘qon, Namangan va Toshkentda mo‘ysafid erkak uchun to‘nlar tikilgan. Shular jumlasida Samarqandda bu shaharga oid to‘q qizil, yashil-feruza yoki sarg‘ish tusdagi mayda yo‘l-yo‘lli beqasamlar ishlab chiqilgan. Kitob va Qarshida fabrika xom ipidan zich to‘qilgan ip gazlamalar va beqasamlar ishlatilgan. Pushti rangli yo‘llar yashil, oq va binafsha yo‘l-yo‘llar bilan almashgan. Oq rangli yo‘llar keng bo‘lgani uchun asosiy rangga o‘xshardi va shu xususiyati bo‘yicha boshqa yo‘l-yo‘l gazlamalardan farqlangan.
Buxoroda asosiy rang doimo pushti bo‘lgan va naqshda bu yo‘lning eni oq, binafsha va yashil rangli yo‘llardan kengroq bo‘lgan. Samarqand va Urgut beqasamlarida maxsus texnikada ishlangan kulrang keng yo‘llar qilinardi. Ba’zan shunday naqsh boshqa mintaqalarda ishlangan beqasamlarda ham uchrardi. Samarqand va Urgutda “tamq” nomli beqasam to‘qilgan. Unda o‘ziga xos yashil va binafsha yo‘llar yonma-yon joylashtirilib, tobora toraygan yo‘llarga bo‘linadi va taroqni tishiga o‘xshash bo‘lib, ikki rang bir-biriga kirardi. Samarqand, Urgut va Kitobda qadimiy rangli (to‘q qizil va ko‘k yoki yashil va moviy rangli yo‘l-yo‘llarga oq va sariq ranglar kiritiladi) mayda naqshli beqasam va “mushku-za’far” (sariq-zulijaron va to‘q ko‘k-mushk ranglar birikmasi) to‘qilardi. Sariq ranglar zarga o‘xshardi. Bu beqasamdan, ko‘pincha, kuyov to‘y to‘ni qilinardi. Pari pashsha-beqasamdan qalinroq mato bo‘lib, u paranji, shuningdek chopon tikishda ishlatilgan. Qadimgi an’analar bo‘yicha “pari-pashsha” (pashsha qanoti) gazlamasi to‘qilgan tanda oq shoyi va to‘q rangli paxta ipidan va arqoq to‘q ko‘k rangli iplari birikmalar yordamida ko‘kimtir kul rangli ingichka yo‘lli gazlama hosil bo‘lgan.
“Ikat” usulining markazi taxminan Hindiston yoki Janubiy Xitoyda bo‘lgan. Ushbu gazlama bo‘yash usuli bu joylardan Old va Markaziy Osiyo, G‘arbiy Turkistonga tarqalgan. Qadimiy gazmollar o‘simlik bo‘yoqlari bilan bo‘yalardi: ro‘yan, isparak, anor pusti, tuxumak, gulxayri, nil (indigo), qirmizi. Bu bo‘yoqlar ofitobda va suvda aynimaydi. Tabiiy bo‘yoqlar yordamida barcha rangli gammani hosil qilish mumkin edi. Ular o‘zaro uyg‘unlikni baxsh etardi, aynimasdi va rangi uchmasdi. Shoyi va nimshoyi - beqasam, adras, yakruyo, katak shoyi, tovlanma shoyi, abr shoyi va hokazolarga turli-tuman gullar solingan.Shoyi gazlamalarni ishlash keskin cheklangandi, chunki XIX asrning oxirigacha shoyi liboslarini faqat aslzodalar kiyishi mumkin edi. Bejiz emaski, shoyi “kanaus” hozir ham “shoyi” (shohlar uchun), “adras” “podshohi” (podshoh uchun) deyiladi.
Adras- abr iplar bilan gul solingan nimshoyi gazmol. Shuningdek, kanovuz, shoyi, xonatlas, guldor kimxob, duxoba kabilar ham keng qo‘llanilgan. Buxoro, Dushanba va boshqa shaharlarda “adras”lar to‘qilardi. Adrasda tanda ipi shoyi, arqoq ipi esa qalin paxta xom ipidan bo‘lgani uchun beqasam kabi ko‘ndalang chiviqni hosil qilgan.
Atlas- o‘rilish guruhiga sof ipakdan to‘qilgan gazlamalar kiradi: “to‘rt-tepkilik” adraslar, “sakkiz tepkilik” va “ikki tepkilik”dan xonatlaslar, nimshoyi “yakro‘ya. Tepkilik qanchalik ko‘p bo‘lsa, abr

gazlama shunchalik bashang bo‘ladi. Ma’lumotiga ko‘ra xonatlas Qo‘qon xoni Xudoyorxonning buyrug‘iga binoan ixtiro etilgan va uning sharafiga xonatlas deb nomlangan. Dastavval bu qimmatbaho gazlamadan libosni faqat xon oila a’zolari kiyishi mumkin edi.

O‘zbek milliy badiiy gazlamalarida rang muhim rol o‘ynagan O‘zbekistonning barcha mintaqalariga an’anaviy kolorit va ranglar birikmalari mansub. Xo‘jand gazlamalarida qizil ranglar ko‘p, Farg‘onada qizil ranglar kamroq bo‘lib, zafaron-sariq ranglar, Qo‘qonda moviy-ko‘k ranglar ustunlik qilardi.Gazlamaning zichligi va rangiga ko‘ra u qayerda ishlanganini bilish mumkin edi.Undan tashqari, har bir rang ma’lum yoshga mo‘ljallangan. Buxoro gazmollarida, asosan, to‘q qizil, sariq va pushti ranglar qo‘llanilgan. Farg‘ona gazmollarida, asosan, etti rang bo‘lgan: sariq, to‘q qizil, yashil, ko‘k, pushti, binafsha va qora. Bir rangni ichiga ikkinchi rangni kirgani va fon ta’siri ranglar uyg‘unligini yaratadi Sariq, qora, to‘q qizil va yashil ranglar uyg‘unligiga erishish uchun sariq rangga bo‘yalgan tanda ipi to‘q qizil va yashil ranglarga, qora rangli tanda esa qizil rangga bo‘yaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,o‘zbek milliy matolari har bir vohada o‘ziga xos ishlab chiqarilgan.Har birining o‘ziga xos tarixi va kelib chiqishi mavjuddir.Matolarining qanday xom-ashyo,narsalardan foydalanib to‘qilish uslubi,rang berish jarayonlari,matoga tushurilgan guligacha bir-birini takrorlamaydi. Bu ham har joyning geografik joylashuvi,iqlimi,hamda insonlarning madaniyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgandir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Tolibovich, S. S., va Mardonovna, M. G. (2023). EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART. *Science and Innovation*, *2*(2), 16-19.

2.Mardonovna, M. G. (2023). ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING ORNI. *Journal of Integrated Education and Research, 2*(11), 18-22.

3.Guljamol, M. (2023). SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *2*(3), 191-197.

4.Mardonovna, M. G. (2023). The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara. *Intent Research Scientific Journal*, *2*(2), 22-26.

5. Mardonovna, M. G. (2021). Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century" On the example of Bukhara art ceramics". *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*,*2*(2), 61-62.

6. Mardonovna, M. G. (2021). Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century" On the example of Bukhara art ceramics". *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, *2*(2), 61-62.

7.Abdullaev A., Bobomurodova S., Juraeva O. THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. B1. – C. 335-339.

8.Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C3. – C. 64-66.

9.Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO‘LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 908-910.


## O‘ZBEK KASHTALARI KOMPOZITSIYASINING HUDUDLARDAGI XARAKTERI VA TAHLILI


**Muzropova Guljamol Mardonovna**
**NDPI, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi o‘qituvchisi**
**NDPI, Professional ta’lim: Dizayn (libos va gazlamalar) yo‘nalishi**
**2-bosqich talabasi: O‘ralova Muxlisa Erkin qizi**

***Annotatsiya.*** Mamlakatimizning ta'lim maskani madaniy, tarixiy qadriyatlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Ko'pgina etnik guruhlar o'z xususiyatlariga ega. Shuning uchun ta'lim bunday xususiyatlarni hisobga oladi. Barcha guruhlardagi urf-odatlar bir xil emas. Lekin har bir madaniyatning qalbida bir xil asosiy tushunchalar va maqsadlar yotadi. O'qituvchilarning vazifasi - bolalarni tarixiy tajribaning o'ziga xos yo'nalishini emas, balki ko'plab tarixiy, madaniy an'analar, an'anaviy liboslar va buyumlarga ega bo'lgan mohiyatni o'rgatishdir. Bu bizga umumiy qadriyatlar, fikr va tushuncha tamoyillari asosida jamiyat bilan o'zaro munosabatlarga kiradigan insonni tarbiyalashga imkon beradi.
***Kalit so'zlar:***kashtachilik, tarbiya, hunar, amaliy bezak san'ati, tikish pedagogik faoliyat, naqsh, kompozitsiya, gazlama, chok.
***Annotation:*** The educational center of our country is distinguished by the variety of cultural and historical values. Many ethnic groups have their own characteristics. Therefore, education takes such features into account. The customs of all groups are not the same. But at the heart of every culture lie the same basic concepts and goals. The task of teachers is not to teach children about the specific direction of historical experience, but about the essence of many historical and cultural traditions, traditional costumes and objects. This allows us to educate a person who interacts with society on the basis of common values, principles of thought and understanding.
***Key words:*** embroidery, education, craft, practical decorative art, sewing, pedagogical activity, pattern, composition, gauze, stitch.
***Аннотация:*** Образовательный центр нашей страны отличается многообразием культурных и исторических ценностей. Многие этнические группы имеют свои особенности. Поэтому образование учитывает такие особенности. Обычаи всех групп не одинаковы. Но в основе каждой культуры лежат одни и те же основные концепции и цели. Задача педагогов – рассказать детям не о конкретном направлении исторического опыта, а о сути многих историко-культурных традиций, традиционных костюмов и предметов. Это позволяет воспитать человека, взаимодействующего с обществом на основе общих ценностей, принципов мышления и понимания.
***Ключевые слова:*** вышивка, образование, ремесло, практическое декоративно-прикладное искусство, шитье, педагогическая деятельность, узор, композиция, марля, стежок.

O'rta Osiyo hududida qadimdan juda ko'plab mahhalliy aholi kashtachilk bilan shug'ullanib kelishgan. Ular yaratgan kompozitsiyalar hayotiy voqealardan olingan. Masalan chorva bilan shug'ullangan hududlarning kashtalar kompozitsiyalarida hayvonlar shoxlarining qayrilgan holatini kuzatishimiz mumkin. Kashtachilk asarlarida ko'pincha badiiy asar uchun tanlangan ashyoning qiymati va tanlangan shaklning mazmunga mosligi muhim o'rinni egallaydi.

XIX asr oxirida o'zbek kashtachiligida qushlarga juda kam e'tibor berilgan va ular so'zananing bir chetiga kichik hajmda tasvirlangan. Hozirgi kunda ham kashtachilikda qushlar juda kam uchraydi. Shunisi diqqatga sazovorki, kashtachilikda hayvonlar, qushlar tasviri bezak sifatida berilsada, kashtado'z boqiylikni obrazlar orqali berishga, atrof – muhitni to'g'ri, real tushunishga harakat qilgan. Kashtachilkda biror buyumni tikishdan oldin uning badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning undagi ayrim bo'laklarining mato yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarning nisbatlarini, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga-naqshdagi alohida elementlarga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo'lishiga aniq idrok etilishiga yordam beradi.

Naqsh- arabcha tasviri gul degan man'oni anglatadi.[105] Qush, hayvon,o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishdan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtachilkda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik va hokazolarda har xil yo'llar bilan ishlanadi. Kompozitsiya (mujassamot) lotincha "Kompositio" so'zidan olingan bo'lib, *to'qish, to'zish, bir-biriga solishtirish, naqshni g'oyasi, xarakteri va vazifasiga, muvofiq uyg'un hamda mutanosib joylashtirish* degan ma'noni anglatadi.

---

[105] S.S.Bulatov, M.O.Ashurova Amaliy san'at qisqacha lug'ati. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1992. 64 bet.

***Ritm*** - naqsh kompozitsiyasining ma'lum bir qismi, ma'lum bir masofada doimiy ravishda bir tekisda takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatning o'zluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi**.**
***Simmetriya***-grekcha so'zdan olingan bo'lib, ulchovlarning bir-biriga munosibligi tushuniladi.
***Assimetriya***- kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalarining muvozanatini buzilishidir.
***Stilizastiya***-tabiatdagi o'simlik va boshqalarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir. Bizgacha etib kelgan kashtachilik namunalarini sinchiklab o'rganib chiqilsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, kashta naqshlari qadim – qadim zamonlardan, eramizdan oldingi davrlardan shakllanib, uyg'unlashib boyitib kelingan va shu bilan birga asosiy yo'nalish va naqshning turli xillari saqlanadi. Shu qatori kashtachilikda ishlatiladigan naqshlar ham o'ziga xos xarakterga ega. Kashtachilikni o'rganishga kirishayotgan har bir kishi naqsh elementlarini chiza olishni o'rganishi kerak. Bu elementlar naqsh ishlarining alifbosi hisoblanadi. Biz o'simliksimon naqsh elementlari barg, gul, marg'ula va tanob, shkufta, bog'lam va sirtmoqlarning turlari, nomlari va ularni chizishni urganamiz (34rasm). Kashtado'z ustalar tabiatdagi gul, barg, novda, g'uncha, qush va boshqalarning tuzilishini, o'sish qonun-qoidalarini, ko'rinishini sinchiklab o'rganib, ulardan turli naqsh kompozitsiyalar ishlash uchun har xil elementlarni stillashtirib olganlar. Masalan gulni stillashtirib olar ekan, uning go'zalligini qaysi holatdagi ko'rinishini tasvirlashni izlab topadi. O'simliksimon naqshlar "Islimiy gullar" deb ataladi. Islimiy gullar o'z navbatida, ikki tomonga ulanadigan ko'rinishda bo'ladi.

Kashta naqshlarini badiiy vositalar, uning dekorativ talqini, ranglari, buyumlarning tanlanishi va tikish texnikasi bir-biriga uzviy bog'liqdir. Chunki kashtachilikda yuqorida ko'rsatilgan har bir talqin bir-birini to'ldiradi, boyitadi va natijada qismlari o'zaro bog'liq bo'lgan dekorativ badiiy asar yaratilishiga olib keladi. Kashtachilikda bezatish alohida va muhim rol o'ynaydi. Kashtachi san'atkorning badiiy didi, bezaklarini o'z o'rniga, joyiga topib, biri ikkinchisiga shaklan bir bo'lsada, bezaklari ranglari boshqacha bo'lgan tasvirlarni yaratishi, kashtaning ta'sirchanligini oshiradi. Kashtachi bezaklarini matoga joylashtirar ekan, gazlamani haddan ziyod bezab ham tashlamaydi, bekorchi, bo'sh o'rinni ham qoldirmaydi. Fon albatta, naqsh va bezakka kashta ta'sir qiladi. Shu sababli kashta fonining oq malla va boshqa rangda bo'lishiga e'tibor bermog'i, fonining o'zi ham qo'shimcha bezak ekanligini diqqat markazida bo'lishini talab qiladi. So'zanada gullar qat'iy o'lchamli, geometrik simmetrik emas, ular erkin o'lchamsiz, taxminiy ochiladi. Shu sababli bunday dekorativ kashtalar yaqinda uyg'unlashib, butun bir yaxshilikni vujudga keltiradi. Bunda har bir gul, o'simliksimon chiziqlarning erkin bir-biriga bog'lanishi umumiylikni hosil qiladi.
O'zbek kashtalarining kompozistiyasi turli hududlarda turlicha bo'lsada, ularning bir-biriga yaqinligini gullarining xarakteri va rang berishida umumiy prinstiplarni aniqlashga imkon tug'iladi. Buxoro kashtachiligida kompozistiyani muhim va asosiy qismini tashkil qiladi. Umuman kompozistiyani bir necha guruhga bo'lib o'rgansa bo'ladi:
I guruh – Markaziy gul sathi kompozistiyasi
II guruh – Chekka hoshiya kompozistiyasi
IIIguruh – O'simliksimon kompozistiya
IV guruh – Makraziy gul va unga yondosh to'rtburchakni bitiruvchi kompozistiya
IV guruh Markaziy gul davrasi kvadratsimon rombsimon va ko'p burchakli to'rsimon kompozistiyadir. Yuqorida ko'rsatilgan kompozistiyalar tikiladigan kashtaning qanday maqsadga foydalanishga, ishlatishga bog'liq. Kashtachini gulni tasvirlashda ipak bilan gulning kashtaligini berish emas, eng muhimi, dekorativ san'ati asariga rang berish, ularga jilo berish ko'proq qiziqtiradi. Naqshli shaffof qog'ozni yumshoq gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog'ozi ustiga quyib, naqsh chiziqlari ustidan 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib chiqiladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bulingandan keyin, shaffof qog'oz yopib yuboriladi, natijada axta hosil buladi.
Tayyor bo'lgan axtani ish yo'zasiga quyib, ustidan xoka urib va bosib yurgazib chiqiladi. Geometrik shakldagi bezakni teshma kuchirishda uning kataklari vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi. Kashta gul chizilgan shaffof qog'ozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga qaratib quyiladi-da, bir necha joyidan tog'naladi. Movutning

(ochroq bo‘lgani yaxshi) yoki paxtaning ustiga doka urab tampon qilinadi. To‘q rangdagi gazlamaga bezakni kuchirish uchun xokani bur yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda hullab olinadi. Shu maqsadda hech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin. Teshib kuchirishda kashta gulning gazlamasidagi tasviri aniqroq, bo‘zilmay chiqadi, bu ayniqsa kashta gulning bitta bulagini bir necha marta tikish kerak bo‘lganda, mehnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Andozalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu axtalar (andoza) alohida paketda saqlangani to‘zik. Naqsh chizilgan gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumaloq chambarakka tortish qiyin bulsa, bu gazlama parchasining chetlariga ish tugagandan keyin sukib tashlanadigan, hohlagan boshqa gazlama parchasini ulab quyish mumkin. Matoda gullarning urni-urnini topib quyish, xususan buyumlardagi gullarni joylashtirib chizish g‘oyatda murakkab va mas’uliyat talab ishdir. Kashtado‘zlik san’atida chizmakash hunari ustalarining urni beqiyosdir. Chevar har qancha mohir bulmasin, naqshlarni chizmakashlar asosan atroflicha uylab kurib, o‘z kasbhunarlarining an’analari va spestifik xususiyatlari asosida chizib beradilar. Ba’zan kashta tikish uchun tanlangan bezak mo‘ljallangan buyum kattaligiga to‘g‘ri kelmay, uni kattalashtirish yoki kichiklashtirish kerak bo‘ladi. Buning uchun bezak ustiga ixtiyoriy kattalikdagi o‘zaro teng kvadratlardan chiziladi. Bunda kvadratlar qancha mayda bo‘lsa, bezakning nuqtalari shunchalik aniq ko‘chiriladi va nusxasi ham oson chiziladi. Millimetrli qog‘oz yoki toza qog‘ozga buyum kattaligidagi to‘g‘ri turtburchak chizib, bezakdagi kvadratlar soni qancha bulsa, shuncha kvadratlarga bulinadi. Agar bezak gulni kattalashtirayotgan bulsa, bu kataklar originaldagi kataklardan katta bulib, rasm guli kichiklashayotgan bulsa, bu kataklar originaldagidan kichik bulib chiqadi. Shundan keyin kataklar buyicha originaldagi kashta gulning asosiy nuqtalari toza turga kuchiriladi. Bu nuqtalarni ravon chiziq bilan ehtiyotlab birlashtirib bezakning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi hosil buladi. Rasm nuqtalarini oson topish uchun chizilgan turning ikki tomoniga raqamlar quyiladi.

Xulosa qilib aytganda kashtachilik sirlarini o‘rgatishdan avval to‘garak a’zolari kashtachilik tarixi, kashtachilikda avval qaysi matolarga tikilganligi hozirgi kunda qanday gazlamalarga tikilayotganligi haqida ma’lumot beriladi. Talabalarga o‘quvchilarga hozirgi zamonaviy moda yo‘nalishida ham aynan kashtachilik usulining keng qo‘llanilayotganligi haqida ma’lumot beriladi. Bu ma’lumotni berishda kashtachilik usulida tikilgan buyumlar, kiyimlar, uy-jihozlarining oldingi ko‘rinishi va hozirgi moda jurnallaridagi zamonaviy liboslarning eskizlarini ko‘rsatish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Tolibovich, S. S., va Mardonovna, M. G. (2023). EXPRESSION OF REALITY IN MODERN UZBEK FINE ART. *Science and Innovation*, *2*(2), 16-19.

2.Mardonovna, M. G. (2023). ZAMONAVIY MODADA USLUBLARNING ORNI. *Journal of Integrated Education and Research*, *2*(11), 18-22.

3.Guljamol, M. (2023). SEMANTICS OF PATTERNS IN CARVINGS IN TRADITIONAL APPLIED ART AND THEIR SYMBOLIC AND EXPRESSIVE FEATURES. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, *2*(3), 191-197.

4.Mardonovna, M. G. (2023). The importance of the traditions of the teacher and disciple in the study of the traditional applied art of Bukhara. *Intent Research Scientific Journal*,*2*(2), 22-26.

5. Mardonovna, M. G. (2021). Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century On the example of Bukhara art ceramics.*Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*,*2*(2), 61-62.

6. Mardonovna, M. G. (2021). Artistic aspects of Bukhara applied art of the XIX century On the example of Bukhara art ceramics.*Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*,*2*(2), 61-62.

7.Abdullaev A., Bobomurodova S., Juraeva O. THE ADVANTAGES OF AN INNOVATIVE APPROACH TO TEACHING AND DEVELOPMENT METHODS OF THE ARTISTIC AND TECHNICAL SKILLS OF STUDENTS IN VISUAL ARTS CLASSES //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. B1. – С. 335-339.

8.Abdullaev A., Bobomurodova S. THE MAIN FACTORS AFFECTING OF UZBEKISTAN AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES TO THE DEVELOPMENT OF ART //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C3. – С. 64-66.

9.Abdullayev A. H., Bobomurodova S. A. BO‘LAJAK TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINING KASBIY VA MALAKAVIY TAYYORGARLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 908-910.

## JAMIYATDA TARBIYACHINING INNOVATSION QARASHLARINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

**Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi**
**University of economics and pedagogy NOTM**
**Pedagogika kafedrasi assistenti**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning har tamonla shakllanishida jamiyatda eng avvalo tarbiyachi modelini o‘rganib uning pedagogik faoliyatini chuqur o‘rganilib chiqili. Shuningdek, jamiyatda tarbiyachi modelining ijtimoiy pedagogik faoliyati kuzatildi, tahlil qilindi va jamiyatdagi o‘rni ahamiyati chuqur o‘rganildi hamda uni yanada rivojlantirsh yo‘llari ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:**tarbiyachi, innovatsion madaniyat, shakllantiruvchi ko‘lam, ma’naviy-axloqiy tarbiya

**Аннотация**: В данной статье, прежде всего, изучается модель педагога в обществе при всестороннем образовании детей в дошкольной образовательной организации и глубоко изучается его педагогическая деятельность. Также была рассмотрена и проанализирована социально-педагогическая деятельность модели педагога в обществе, глубоко изучена значимость ее роли в обществе и разработаны пути ее дальнейшего развития.

**Ключевые слова:** педагог, инновационная культура, формирующая сфера, духовно-нравственное воспитание.

**Annotation**: In this article, first of all, the model of the educator in the society in the formation of children in the pre-school education organization is studied in depth, and his pedagogical activity is deeply studied. Also, the social pedagogical activity of the educator model in the society was observed and analyzed, and the importance of its role in the society was deeply studied and ways of its further development were developed.

**Key words:** educator, innovative culture, formative scope, spiritual and moral education

MTT tarbiyachisining innovatsion madaniyati darajasi qator mezonlar: innovatsion motivlar, innavatsion bilimlar, malakalarning yig‘indisi bilan belgilanadi [106]. Innovatsion motivlar pedagogning bilimlar tizimini boyitish, kaspiy faoliyatida pedagogik innavatsiayarni tizimli amalga oshirish orqali o‘z faoliyatini takomillashtirishda namayon bo‘ladi. Innavatsion malakalarga gnostic malakalar, pedagog loyihalash malakalari, axborot malakalari kiradi. Innovatsion bilimlarga quyidagilar kiradi: pedagogik innovatika soxasida tushunchalani izoxlovchi atamalarni egallash; zamonaviy pedagogika fani va ilg‘or pedagogik tajriba yutuqlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; ta’limda pedagogik innovatsiya moxiyati va innovatsion jarayonlari, ularning kechishi qonuniyatlarini tushunish, bu jarayonlarni boshqarish zaruriyatini anglash; pedagog innovatsion faoliyati metodologik asoslari va tuzilmasi haqida; psixologik-pedagogik tadqiqot metodlari va mazmuni va maktabgacha ta’lim muassasa shart-sharoitida tajriba- eksperimental tashkili haqida; pedagogik faoliyatda axborotni olish va ishlatish usullari haqida; innovatsion malakalaga gnostik malakalar, pedagogik loyixalashtirish malakalari, axborot malakalari kiradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi innovatsion madaniyatining barcha tuzilmaviy tarkibiy qismlari ko‘pgina tarbiyachilarda yetarli darajada berilmaganligi quyidagilarda asoslanadi:

O‘z kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga yetarli bo‘lmagan motivatsiya;

O‘z tushunchalarni izohlovchi atamalarning egallanishi quyi darajasi; pedagogik innovatsiyalar moxiyati, innovatsion faoliyat tuzilmasi va psixologik-pedagogik tadqiqotning nazariy asoslarining yaxlit tushunchasining mavjud emasligi;

O‘z gnostik va komunikativ malakalar, pedagogic loyihalashtirish malakalari shakllanganligining yetarli bo‘lmagan darajasi. Tarbiyachilarda innovatsion madaniyatni shakllantirishga nisbatan bir

[106]“Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida” 2017 yil 9 sentyabr

qator asoslar shunda ifodalanadiki, innovatsiyalarning qo‘llanilishi kasbiy amaliyotning asosiy qismi hisoblanadi. Pedagoglarda innovatsion faoliyatni amalga oshirishga kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va qo‘llash tajribasiga ega bo‘lishlari zarur.

Innovatsion madaniyatning tuzilmaviy tarkibiy qismlari mazmuni va ularning shakllanganligi yetarli bo‘lmagan darajasini xisobga olish orqali tarbiyachilarda ish mazmuni:

-tarbiyachilarda kasbiy faoliyatda pedagogik innovatsiyalardan foydalanishga qiziqishni oshirish; pedagogik innovatika soxasida tushunchalarni izoxlovchi atamalarning tarbiya chilar tomonidan egallanishi darajasini oshirish; MTT pedagogi zamonaviy pedagogik g‘oyalar va innovatsion faoliyati extimol yo‘nalishlari haqida bilishi darajasini oshirish; Psixologik-pedagogik tadqiqotning nazariy asoslari bilan tanishtirish; Maktabgacha ta’lim muassasasi shart-sharoitida tajriba-eksperimentalishni tashkil qilish va o‘tkazish bilan tanishtirish; Tarbiyachilarda kasbiy faoliyatni muammoli- yo‘naltirilgan tashkil qilish, rejalashtirish, oldindan ayta olish, loyixalashtirish va refleksiya malakalari; tarbiyachilaming axborot savodxonligini oshirish, pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zaruriy bo‘lgan turli manbalardan axborotni olish usullari bilan tanishtirish; axborot- kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish; tarbiyachilarda boshqa tarbiyachilar (pedagoglar guruxlari va b.) ishida foydalanish uchun mos bo‘lgan algoritm shaklida o‘z ijobiy pedagogik aniqlash va umumlashtirish malakasini shakllantirish lozim.

Innovatsion madaniyatni shakllantirish jarayonini ta’minlash uchun shakllantiruvchi ko‘lam modeli ishlab chiqilgan. Ko‘pgina tadqiqotlarda shakllantiruvchi ko‘lam deganda ko‘pgina ob’ektlar tushuniladi, ularning o‘rtasida maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarida barcha innovatsion madaniyat tarkibiy qismlarini shakllantirish maqsadida munosabatlar o‘rnatilgan. Shakllantiruvchi ko‘lam to‘rtta darajasidan xar biri (maktabgacha ta’lim muassasasi innovatsion muhiti, nazariy- metodologik tayyorgarlik, nazariy- amaliy tayyorgarlik, innovatsion amaliy shakllantiruvchi ko‘lam to‘rtta darajasidan xar bin (maktabgacha ta’lim muassasasi innovatsion muuiti, nazariy-metodologik tayyorgarlik, nazariy- amaliy tayyorgarlik,innovatsion amaliy tayyorgarlik) boshqa darajalar bilan mazmuniy va operatsional o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan.

Darajalardan har birida pedagoglarda barcha innovatsion madaniyatning bosqichma-bosqich shakllanishini ta’minlovchi tadbirlar yig‘indisini qo‘llash orqali bir qator o‘ziga xos masalalar hal etildi. Shakllantiruvchi ko‘lam doirasida o‘tkazilgan o‘qitish innovatsion motivlar, bilimlar va malakalarni shakllantirish va faollashtirish orqali pedagoglarning kasbiy amaliyoti motivatsion, intellektual va faoliyatli sohalarini rivojlantirishga qaratilgan edi. Faol o‘qitish metodlaridan foydalanish orqali pedagoglarning fikrlash va xulq-atvor faolligini ta’minlovchi innovatsion madaniyatni shakllantirish ishlab chiqilgan texnologiyalari orqali o‘qitish amalga oshirildi. (ma’ruzalar, muzokaralar, ish o‘yinlari, taqdimotlar, ijodiy pedagogik vazifalarni hal etish va b).

Ishlab chiqilgan texnologiyalar tarbiyachini o‘qitish jarayonini to‘rtta izchil bosqichlar ko‘rinishida berishga imkon beradi. Birinchi bosqich -yangi bilimlarni olish orqali innova tsiyalarni qabul qilish yoki yaratish,o‘zlashtirish va qo‘llashga tarbiyachilar motivatsiyasini oshirish; pedagoglar tomonidan uning aksiologik funktsiyasi tushunish, pedagogik hodisalarga tanqidiy munosabatda bu. Yo‘nalganliklariga ko‘ra o‘quv-tarbiyaviy jarayonni qayta xosil qilishga ko‘rsatmada namoyon bo‘ladigan kasbiy faoliyat strategiyasini anglangan holda tanlanishining shakllanishini ta’minlaydi.

Ikkinchi bosqich - pedagogika metodologiyasi va pedagogik innovatika soxasida bilimlarni aniqlashtirish, to‘ldirish va faollashtirish, pedagogik faoliyat jarayonida axborotni yig‘ish, baxolash, saqlash, qayta xosil qilish va uzatish usullari bilan tanishish orqali tarbiyachilarning nazariy-metodologik tayyorgarligini amalga oshiradi. Uchinchi bosqich - pedagoglarda ijodiy xususiyatdagi amaliy yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajarish orqali gnostik malakalar va pedagogik loyihalashtirish malakalari; kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot- kommunikatsion texnologiyalaridan muntazam va oqilona foydalanish orqali axborotni topish va idrok qilish, ko‘rish uchun vosita sifatida kasbiy faoliyatda personal kompyuterdan foydalanish malakasini shakllantirish va faollashtirishni ta’minlaydi. To‘rtinchi bosqich - umumlashtiruvchi xisoblanadi va ilgari olingan innovatsion bilimlar va malakalarni (2 va 3 o‘qitish bosqichi) kasbiy faoliyat jarayonida qo‘llashga imkon beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi pedagoglari kasbiy faoliyati bilan o‘qitish mazmuni va jarayonining chambarchas o‘zaro bog‘liqligini

shakllantiruvchi koʻlam doirasida nazariy va amaliy birikma orqali taʼminlash innovatsiyalar qoʻllanilishi va tarbiyasi kasbiy faoliyati samaradorligi oʻrtasida bevosita oʻzaro bogʻliqlikni koʻrgazmali tasavvur qilishga imkon berdi. Tarbiyachining innovatsion faoliyati asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirish.

Maktabgshacha taʼlim muassasalari tarbiyachilarida namoyon boʻlgan metodologik madaniyat va innovatsion faoliyatning koʻrinishlariga quyidagilar kiradi:

– kasbiy amaliyotda yangiliklarni oʻzlashtirish va qoʻllashga motivatsiyaning kuchayishi, innovatsion faoliyatni tashkil qilish boʻyicha qoʻshimcha materialni oʻrganishga intilish;

–pedagogik innovatsiyalarni oʻzlashtirish va qoʻllash zaruriyati haqida baholanuvchi fikrlarning yuzaga kelishi;

–innovatsion faoliyatni nafaqat taʼlim sifatini oshirish vositasi, balki uning kasbiy rivojlanishini tashkil qiluvchi pedagogning oʻz-oʻzini qoʻllash vositasi sifatida innovatsion faoliyatning namoyon qilinishi.

Eksperimental guruh tarbiyachilarida innovatsion madaniyatning shakllanishi haqida turli manbalardan axborotni olish, uni tahlil qilish, yangi bilimlarni pedagogik faoliyatda faol qoʻllashga intilish dalolat beradi, koʻpgina pedagoglarda personal kompyuterda ishlash malakasi etarli darajada shakllangan.Yuqorida bayon etilganlarning barchasi shuni isbotlaydiki, maktabgacha taʼlim muassasasi pedagogi innovatsion madaniyati shakllanishi etarli darajada shakllangan shartlari ishlab chiqilgan. Eksperiment tahlilida aniqlangan dalillar maktabgacha taʼlim muassasasi pedagoglari innovatsion madaniyati shakllanishi quyidagi shartlarni bajarishda koʻp darajali shakllantiruvchi koʻlam doirasida amalga oshiriladi degan taxminni tasdiqlashga imkon berdi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarga maʼnaviy-axloqiy tarbiya berish, xususan, maʼnaviy tarbiya berishda tarbiyachining roli benihoyat katta hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarni maʼnaviy yetuk va intellektual barkamol shaxs qilib tarbiyalashda hozirgi zamon talablariga javob beradigan taʼlim-tarbiya jarayonlarini olib borishi kerak. MTT zamonaviy axborot-texnalogiyalardan foydalangan holda mashgʻulotlar jarayonida turli metod va usullarni qoʻllasa maqsadga muofiq boʻladi. Bu orqali bolalardagi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga erishiladi va uzluksiz taʼlim tizimining keyingi turlarida ham amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda bolalar maʼnaviy sifatlami shakllantirish, ulardagi har xil illatlarga nafrat uygʻotishda mustaham asos boʻla oladi.

**Foydalanilgam adabiyotlar:**

1.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “Oʻzbekiston”, 2017.

2. Mirziyoyevning SH.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. T.:-2016y. 29-dekabr
3Maktabgacha taʼlimga qoʻyiladigan davlat talablari. Toshkent-2017 yil
4 “Ilm yoʻli variativ dasturi”

## JOʻYBOR XOʻJALARINING BUXORO XONLIGI OBODONCHILIGIGA OID FAOLIYATIDAN LAVHALAR

**Sattorova Sh.Oʻ. - NavDPI “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish metodikasi (Tarix)” yoʻnalishi 1-kurs magistranti**
**Ilmiy rahbar: dots.Toshturov Sh.E.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy hayotida taʼsirli kuchga ega boʻlgan Joʻybor xoʻjalarining mamlakat obodonchiligi borasidagi faoliyati manbalar asosida yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:**Buxoro xonligi, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Naqshbandiya tariqati, Joʻybor xoʻjalari, Xoʻja Islom, Xoʻja Sa`d, Chorjoʻy kanali, Vaxsh arigʻi.

**Abstract**. In this article, the activity of Joybour Khojas, who had an influential influence in the political, socio-economic and spiritual life of the Bukhara Khanate in the 16th and 17th centuries, in terms of the development of the country, is covered on the basis of sources.

**Keywords**. Bukhara Khanate, Muhammad Shaybani Khan, Ashtarkhanis, Naqshbandi sect, Dzhoybor Khojas, Khoja Islam, Khoja Sa'd, Chorjoi canal, Vakhsh stream.
**Абстрактный**. В данной статье на основе развития страны освещается деятельность Ходжабора ходжаса, имевшего влиятельное влияние в политической, социально-экономической и духовной жизни Бухарского ханства в XVI-XVII веках. источников.
**Ключевые слова.** Бухарское ханство, Шайбаниты, Аштарханы, секта Накшбанди, Джойбор Ходжас, Ходжа Ислам, Ходжа Саад, канал Чорджой, ручей Вахш.
Buxoro xonligining XVI-XVII asrlardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida Jo'ybor xo'jalarining o'rni katta bo'lgan. Temuriylar sulolasidan keyin Movarounnahrda hukmronlik qilgan ikki sulola – Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida bu xonadon vakillari mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mazkur ziddiyatlarga to'la davrda Jo'ybor xo'jalari o'zining siyosatda hamda ijtimoiy hayotdagi faolligi bilan jamiyatdagi boshqa xo'jalardan tubdan farq qilib, o'z davrining yetakchi siyosiy arboblari sifatida shuhrat qozongan.
Jo'ybor xo'jalari nomlari bu davrga oid bir qator tarixiy manbalarda, ko'plab tarixiy solnoma va arxiv hujjatlarida uchraydi. Bu ushbu manbalarni shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, Jo'ybor xo'jalarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan maxsus manbalar bo'lib, ularga Badriddin Kashmiriyning "Ravzat ar-rizvon" (Jannat bog'i), Husayn as-Saraxsiyning "Manoqibi sa'diya" (Saodatli Xo'ja Islom manoqibi), Abu Abbos Muhammad Tolibning "Matlab at-tolibin" (Haq izlovchilar maqsadi) kabi asarlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruhga esa Jo'ybor xo'jalari to'g'risidagi ayrim yoki umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan manbalar hisoblanib, unga Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy", "Abdullanoma"; Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy"; Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma"; Abdurahmon Davlat Tolening "Tarixi Abulfayzxon"; Muhammad Tohir Eshonning "Silsilai Xo'jagon-naqshbandiya"; Muhammad Yaqubning "Gulshan ul-muluk" (Podshohlar gulshani); Mulla Abdulatif Xo'janing "Majmua" (Ma'lumotlar to'plami); Sayyid Muhammad Nosiriddining "Tuhfat az-zoirin" (Ziyoratchilarga tuhfa) kabi asarlarni kiritish mumkin.
Endi bevosita yuqorida nomlari keltirilagan tarixiy manbalar bilan tanishgan holda Jo'ybor xo'jalarining shaxsiga to'xtaladigan bo'lsak, Jo'ybor xo'jalardan Xo'ja Islom va uning o'g'li Xo'ja Sa'dlar o'z davrining yetakchilari bo'lishgan. Jo'ybor xo'jalari vakillari orasida Xo'ja Islomning ijtimoiy-siyosiy mavqei boshqalarga nisbatan har jihatdan yuqori bo'lgan. XVI asrning 30-yillaridan boshlab Xo'ja Islom Naqshbandiya tariqatida tanila boshladi. Shayboniy hukmdorlari ham uning ma'naviy-diniy mavqei bilan hisoblashishga, unga yaqin bo'lishga harakat qilgan. Xususan, Shayboniylar sulolasidan bo'lgan Iskandarxon bin Jonibek sulton o'z davrida Xo'ja Islom bilan juda yaqin aloqada bo'lgan[1].
XVI asr 40-yillariga kelib Xo'ja Islom siyosiy faoliyatida burilish davri boshlandi. U Naqshbandiya tariqati piri sifatida e'tirof etilgach Buxoro taxtiga da'vogar Shayboniy sultonlari uning ma'naviy qo'llab-quvvatlashiga umid bog'lab, unga tez-tez murojaat qilgan bo'lsada, ularning aksariyati Xo'ja Islomning marhamatiga sazovor bo'lisholmaydi. Birgina Abdullaxon ibn Iskandar Sulton bundan mustasno bo'ladi va Xo'ja Islom faqat shu shayboniyzodani Buxoro taxtiga munosib ko'rdi, ya'ni uni qo'llab-quvvatladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Jo'ybor xo'jalari XVI asrga kelganda jamiyatdagi siyosiy obro'lari nihoyatda yuqori bo'lgan hamda xo'jalar mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda asosiy fikrni aytadigan din peshvolarga aylangan edi.
XVI asrning o'rtalarida boshlab Jo'ybor xo'jalari Buxoro xonligining siyosiy hayotidagi mavqelaridan foydalanib, tasarruflaridagi mulklarini kengaytirishga intilgan. Shuning sababli ular mehnatkash xalq ommasining kuchi bilan suv inshootlari qurish, qo'riq yerlar va dashtlarga suv chiqarib, yangi yerlarni o'zlashtirishdan manfaatdor bo'lgan. Jo'ybor xo'jalari tasarrufidagi ekin yerlaridan yuqori hosil olish maqsadida kanal va ariq qazish, suv inshootlarini tozalash bilan doimiy ravishda e'tibor qaratishgan. Bu xalq orasida "begor" deya nomlangan majburiyat shaklida amalga oshirilib kelingan.
Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda Jo'ybor xo'jalari vakillarining nufuzining tobora ortib borishiga ularning mamlakatdagi markaziy hududlari bo'lgan Buxoro, Samarqand,

Nasaf, Marv va boshqa viloyatlarda yirik yer-suvdan iborat mulklari mavjudligi ham sabab edi. Masalan, Jo‘ybor xo‘jalaridan Xo‘ja Muhammad Islomning 300 jufti gov (2500 gektar), Xo‘ja Sa`dda 2000 jufti gov (17 ming gektar), Tojiddin Xasan 1000 qit`a, Xo‘ja Abdurahimda esa 800 qit`a miqdordagi yer-suvga egalik qilgan[2]. Jo‘ybor xo‘jalari yangi yerlarni o‘zlashtirish maqsadida 1557-1579-yillar oralig`ida Somonchuq, Afshona, Sevinchi kalon kabi Buxoro qishloqlari hamda Chorjuy, Marv, Vaxshdagi yerlardan kanallar qazilgan. Bu kanallarning barpo etilishi natijasida Jo‘yboriy xo‘jalarning qo‘lida bo‘lgan yerlardagi suv inshootlari tizimi bir muncha yaxshilangan[3].

Badriddin Kashmiriyning “Ravzatur rizvon va hadikatul g‘ilmon” nomli asarining to‘rtinchi qismi Jo‘ybor xo‘jalari tomonidan olib borilgan suv inshootlari barpo etish orqali yangi qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish faoliyati bayon qilingan[4]. Shuningdek, asarda XVI asrning ikkinchi yarmida Shayboniy sulolasi hukumdorlari va nufuzli beklar tomonidan Buxoro xonligining turli viloyatlarida Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Vaxsh va Murg‘ob daryolaridan chiqarilgan yirik sug‘orish tarmoqlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Asarda keltirilishicha 1579-yilda shayboniy hukmdor Abdullaxon II Vaxshdan suv chiqarish uchun ariq qazishga farmon bergan. Vaxshdan ariq qazish 1579-1580-yillardagi mamlakatda yer-suvga oid katta tadbirlardan biri bo‘lgan va unga o‘z davrining yirik din peshvosi, Jo‘yboriy xo‘jalardan bo‘lgan Xo‘ja Kalonxo‘jani boshliq qilib tayinlagan. Badriddin Kashmiriy ta`kidlashicha, Vaxshdan ariq qazish uchun Hisor, Denov, Qubodiyon, Aymoqot va Shahri Safo viloyatlariga o‘n ming mardikor yetkazib berish majburiyati yuklatilgan. Abdullaxon topshirig‘iga binoan ariq qazilishiga Xo‘ja Kalonxo‘jaga yordamchi sifatida otaliq Ahmadali Nayman va mulla Muhammadbiylar tayinlangan. Vaxsh arig‘ini qazish ishlari 1579-1585 yillar oralig‘ida davom etgan[5] va natijada Vaxshda sug‘orma dehqonchilik qilinadigan yerlar miqdori oshgan. Xullas, mazkur suv inshooti Jo‘ybor xo‘jalari boshchiligida qazilgan eng yirik ariqlardan biri bo‘lgan.

Badriddin Kashmiriyning ma’lumotlariga ko‘ra, 1556-1557-yillarda Xo‘ja Islom tashabbusi bilan Buxoroning Shahrud sug‘orish tizimidan alohida kanal chiqartiradi. Natijada Mirzo Ulug‘bek Kuragon zamonidan (1409-1449 y.) to Abdullaxon II davrigacha suvsizlikdan qahrab yotgan Somonjuq dashtini o‘zlashtirish mkoni paydo bo‘ladi va u joylar obod makonga aylanadi. Keyinchalik bu kanal Xo‘ja Ka’b nomi bilan yuritila boshlanadi va u Shahrud sug‘orish tizimidagi eng yirik shohoblaridan biri hisoblangan. 1559-1560-yillarda Xo‘ja Islomning buyrug‘i bilan uning o‘g‘li Xo‘ja Qosim boshchiligida Ko‘hak (hozirda Zarafshon) daryosidan Afshona qishlog‘igacha kanal qazdiriladi. Xo‘ja Islomning yana bir o‘g‘li Xo‘ja Sa’d ham suv inshootlari barpo etishga faol qatnashgan bo‘lib, u 1568-1569-yillarda Amudaryodan Chorjo‘yga kanal qazdirishga bosh-qosh bo‘lgan. Natijada, Malikshoh Saljuqiy zamonidan beri suvsiz qolgan va mo‘g‘ullar tomonidan vayronaga aylantirilgan Chorjo‘y atrofidagi yerlar sug‘orib obod etilgan[6]. Bundan tashqari Xo‘ja Sa`dning tashabbusi bilan Badaxshon viloyatining Imom mavzei atroflariga suv chiqarilgan. Badaxshonda amalga oshirilgan mazkur bunyodkorlik ishlari Abdullaxon II tomonidan munosib taqdirlanadi. Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, Abdullaxon II Xo‘ja Sa’dga Badaxshondagi yangi o‘zlashtirigan yerlardan 6 ming tanobni hadya etgan.

Xulosa qilib aytganda, Jo‘ybor xo‘jalari Buxoro xonligidagi yirik diniy peshvolar bo‘lib, mamlakatdagi siyosiy ta’siridan foydalanib ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator tadbirlarda bevosita ishtirok etgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.To‘rayev H. «Matlab at-tolibin» asari Jo‘ybor xo‘jalari xonadoni haqida.–T.: O‘zbekiston tarixi, 2000. –B.64-70.

2. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.–T.: O‘qituvchi, 1994. –B.25-26.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.–T.: O‘qituvchi, 1994. –B.27.
4. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar.–T.: O‘qituvchi, 1994. –B.24-26.
5. Juvonmardiyeva B. XVI-XIX asrlarda Farg‘onada yer-suv masalalariga doir. –T.: Fan, 1965. –B.44.
6. Muxammadjonov A. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orish tarixi. –T.: Fan, 1972. –B.125.

# QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONASINING ATROF MUHITGA TA’SIRINI BAHOLASH
## (“AGROMIR” qo‘shma korxonasi ma’suliyati cheklangan jamiyati misolida)

**Hoshimova Shaxlo Ulug‘bek qizi, Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti (PhD)**
**Nematov Nurullo Abduraxim o‘g‘li, Toshkent davlat agrar universiteti dotsenti**

**Annotatsiya.** Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonasida Atrof muhitni ifloslantiruvchi moddalarni tashlash me’yoriy hisobi shu moddalar uchun ruxsat etilgan chegaraviy miqdorlarini (RChM) hisoblash orqali aniqlanadi. RChM – bu oqova suv tarkibidagi modda massasi bo‘lib, uning ruxsat etilgan maksimal miqdorini tashlaganda suv havzasidagi sifat me’yorlari nazorat punktida to‘la ta’minlanadi. RChM suvdan foydlanuvchilar uchun tasdiqlangan ruxsat etilgan chegaraviy ulush (RChU) orqali aniqlanadi.
**Kalit so‘zlar:** qayta ishlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (qovun, olma, anor va boshqa), oqova, ruxsat etilgan miqdor, sharbat, shisha idish, texnologiya.
**Аннотация.** Нормативный расчет сбросов загрязняющих веществ в окружающую среду на предприятии по переработке сельскохозяйственной продукции определяется путем расчета предельно допустимых значений (ПДК) для этих веществ. РЧМ – масса вещества в сточных водах, предельно допустимое количество которого при сбросе будет полностью соответствовать нормам качества в водном объекте в контрольной точке. РЧМ определяется установленной предельной долей (РЧУ), утвержденной для водопользователей.
**Ключевые слова.** переработка, сельскохозяйственная продукции (дыня, яблоко, гранат и т. д.), сточные воды, разрешенное количество, сок, бутылка, технология.
**Abstract.** The normative calculation of environmental pollutant discharge at the enterprise for processing agricultural products is determined by calculating the permissible limit amounts (RChM) for these substances. RChM is the mass of the substance in the wastewater, the maximum permissible amount of which, when discharged, will fully meet the quality standards in the water body at the control point. RChM is determined by the authorized marginal share (RChU) approved for water users.
**Keywords.** processing, agricultural products (melon, apple, pomegranate, etc.), effluent, permitted amount, juice, bottle, technology.

“AGROMIR” qo‘shma korxonasi ma’suliyati cheklangan jamiyati hududida hosil bo‘ladigan oqova suvlarning ochiq suv havzasiga tashlashning ifloslantiruvchi moddalarning chegaralangan miqdorda oqizish me’yorlashtirish O‘zbekiston Respublikasi atrof muhitni muhofaza qilish borasidagi qonunlar asosida olib boriladi. “AGROMIR” QK MChJ xo‘jalik-ichimlik va ishlab chiqarish suv ta’minoti hududidagi 7 dona artezian qudug‘idan olinadi. Korxonaning asosiy faoliyati konserva, sok, pyuri, tomat ishlab chiqarishdan iborat. Suv jamiyatda asosan ishlab chiqarish, xo‘jalik-ichimlik va yong‘inga qarshi hovuzlarni to‘ldirishga, ishlab chiqarish sexlari ehtiyoji uchun ishlatiladi. Jamiyatda oqova suvlar konserva sexidan, qozonxonadan, oshxonadan, dushxonadan, ma’muriy binodan, tomat sexidan, sok ishlab chiqarish sexidan va quyish sexidan hosil bo‘ladi. Oqova suvlar ishlab chiqarish jarayonida, mavsumda meva-sabzavotlarni qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan oqova suvlar ichki kanalizatsiya tarmog‘i orqali biologik tozalash inshootiga yuboriladi. Korxona oqova suvlarni me’yorlashtirish jarayonida biologik tozalash inshootiga yillik tashlangan oqova suvlar miqdori 643 $m^3$/sut yoki 138,39 ming $m^3$/yilni tashkil etdi. Oqova suvlar tarkibida kislorod bo‘lgan me’yor (KBM) – 250 mg/l dan, muallaq zarrachalar 300 mg/l dan oshmaganligi sababli, oqovalar biologik ifloslanishdan tozalanishi zarur va maxsus fizik-kimyoviy usulda tozalash zaruriyati yo‘q. Korxonaning asosiy faoliyati “BLISS” va “MEVA JUICE” savdo markalari ostida meva-sabzavot sharbatlari va nektarlarni butilkalashdir. Konsentrlangan meva sharbatlari, shuningdek meva-sabzavotli pasta va pyuresi ishlab chiqarish, meva-sabzavot konservalari (mevali kompotlar va sabzavotli konservalar) ishlab chiqarishdan iborat. “AGROMIR” MChJ eksport hajmini oshirishga va O‘zbekiston

Respublikasi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning sifatli mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, buning uchun korxona tomonidan juda qisqa vaqt ichida muhim xomashyo, mehnat va texnik salohiyat yaratilgan. Bu korxonani puxta ishlab chiqilgan rivojlanish strategiyasidan dalolat beradi. Korxonada ishlab chiqarish jarayoni sharbat va ichimliklar quyish sexida, sharbat sexida, meva-sabzavot pyuresi va pasta ishlab chiqarish sexida amalga oshiriladi. Sharbat va ichimliklarni to‘ldirish sexi “BLISS” va “MEVA JUICE” savdo markalari ostida meva va sabzavot sharbatlari va nektarlari qadoqlaydigan Tetra Pak tarmog‘i quyidagi texnologik uskunalar bilan jihozlangan:

• sharbatlar va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish bo‘yicha kompleks texnologik tarmoq;
• TP A3/Flex TBA1000Sq; sharbatlari va alkogolsiz ichimliklar quyish uchun kompleks tarmoq;
• TP A3/Compact Flex TBA200S sharbatlari va alkogolsiz ichimliklar uchun to‘liq to‘ldirish tarmog‘i.
• A3/Flex1000Sq avtomatik to‘ldirish va qadoqlashning to‘liq tarmog‘i.

Ishlab chiqarish tarmog‘ining uskunalari eng yuqori sifat va oziq-ovqat xavfsizligi talablariga javob beradi. Ishlab chiqarish jarayoni to‘liq avtomatlashtirilgan.

*Sharbat sexi.* Konsentrlangan sharbatlar (olcha, anor, olma, uzum) ishlab chiqarish sexi quyidagi ishlab chiqarish tarmoqlari bilan jihozlangan:

• Shveysariyaning “Bucher Beuer AG”, kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan “Buher-Guyer HP 5005 Power Hydraulic” universal pressi;
• Anor tarmog‘i, ishlab chiqaruvchi «Bertuzzi S.p.a.», Italiya;
• Konsentrlangan olma va uzum sharbatlarini ishlab chiqarish uchun aroma ushlagichli vakuumli bug‘lash moslamasi;
• Vakuumli bug‘lash moslamasi, konsentrlangan olma va uzum sharbatlarini ishlab chiqarish uchun polimer membranali ultra filtrlash uskunalari Shveysariyaning “BucherUnipektin” ishlab chiqarish firmasidan keltirilgan;
• 8 ming tonna idishlarda konsentrlangan sharbatlarni saqlash uchun 4 ta sovutish kamerasi. Ishlab chiqaruvchi “Edinstvo” Yugoslaviya i “Geerlofs” Gollandiya;
• uzumni qayta ishlash uskunalari. “Della Toffola SpA”. Ishlab chiqaruvchi “Della Toffola SpA”. Italiya;
• Fermentlar sharbatini filtrlash uchun keramik membranalarga asoslangan ultrafiltratsiya tarmog‘i. “Membraflow Filtersystem” ishlab chiqaruvchisi, Germaniya;
• sexning yillik ishlab chiqarish quvvati 5500 tonna tayyor mahsulotni tashkil etadi.

Meva-sabzavot pyuresi va pastalarini ishlab chiqarish sexi quyidagi ishlab chiqarish tarmoqlari bilan jihozlangan bo‘lib, u yerda meva pyuresi va pasta (o‘rik, shaftoli, behi), shuningdek sabzavotli pyuresi va pastalari (pomidor, oshqovoq, baqlajon) ishlab chiqarish amalga oshiriladi:

• Pomidorni dastlabki ishlov berish uchun uchta yo‘nalish;
• Artish tozalash stansiyasi;
• Sabzavot va mevali pastalar ishlab chiqarish uchun A-200 vakuumli bug‘lash moslamasining ikkita to‘plami. “Yedinstvo” ishlab chiqaruvchisi, Yugoslaviya;
• STTH 3500 sterilizatori va to‘ldirish moslamasi bo‘lgan aseptik bo‘linma. Ishlab chiqaruvchi “Bertuzzi S.p.a”, Italiya.
• 10 tonna/soat quvvatga ega bo‘lgan meva va sabzavotlarni dastlabki qayta ishlash texnologik tarmog‘i. “Bigtem” ishlab chiqaruvchisi, Turkiya;
• sutkalik quvvati 300 tonna bo‘lgan sabzavot va mevali pastalarni ishlab chiqarish bo‘yicha kompleks tarmoq. “Bertuzzi” ishlab chiqaruvchisi, Italiya.
• sexning tayyor mahsulot ishlab chiqarish yillik quvvati - 12000 tonna.

Konserva sexi quyidagi ishlab chiqarish tarmoqlari bilan jihozlangan:

- meva va sabzavot xom ashyosini fraksiyalarga ajratish uchun mashina (o‘lchov mashinasi);
- qutilarni yuvish uchun mashina;
- Salatlar uchun karusel toldiruvchisi. Turi: 2006 yil ishlab chiqarilgan VOSK–40, ishlab chiqaruvchi: Unimatik KFT, Vengriya. Mashinaning unumdorligi: 750 ml lik idishda - 5 500 dona/soat.

- Avtomatik dozalash va akkumulator 54-KDN-16;
- Shisha idishlarni yopish uchun bug‘ vakuum mashinasi, ishlab chiqarilgan yili 2006 yil, ishlab chiqaruvchi: Pahapak KFT, Vengriya. Jismoniy ishlash kostryulkalar va qovoqlarning turiga, sifatiga va o‘lchamlariga bog‘liq. Xizmat ko‘rsatuvchi xodim - 1 kishi.
- 56-KA-2V-2 vertikal tipdagi avtoklavlar (meva-sabzavotli konservalarni sterilizatsiya qilish uchun). O‘rnatilgan yili-2005 yil.
- SAUST-9K tizimi vertikal avtoklavlarda konservalarni bug‘, bug‘ - havo yoki suv bilan sterilizatsiya qilish jarayonining barcha bosqichlarini avtomatlashtirilgan boshqarishni ta’minlaydi. Boshqarish avtoklavlari soni 9 ta.
- Konservalangan sabzavotlarni pasterizatsiya qilish uchun kamar pasterizatori, turi: ishlab chiqarilgan yili 2007. Ishlab chiqaruvchi: Unimatik KFT, Vengriya.
- Shirin makkajo‘xori va yashil no‘xotni birlamchi qayta ishlash uskunalari. Turi - FS-073.5. 2002 yil ishlab chiqarilgan.
- OB-KET-S2 yorliqlash mashinasi mahsulot bilan to‘ldirilgan silindrsimon metall qutilarga yon yorliqlarni yopishtirish uchun mo‘ljallangan.
- VEN markalash mashinasi diametri 45 dan 155 mm gacha bo‘lgan shisha, plastmassa va metall idishlarning silindrsimon yuzasiga dumaloq yorliqlarni yopishtirish uchun mo‘ljallangan.
- Termal qisqaradigan qadoqlash mashinasi. Ishlab chiqarilgan yili 2006. Ishlab chiqaruvchi: Vengriya.
- konserva ishlab chiqarish uchun kompleks texnologik uskunalar. Ishlab chiqaruvchi: Vengriya. 2015 yil chiqarilgan:
Uskunaning yillik ishlab chiqarish quvvati - 4000 ta (mingta shartli banka). Mahsulot turlari:
- Tabiiy sabzavotli konservalar (pomidor sharbatidagi pomidor, makkajo‘xori konservasi).
- Sabzavotli marinadlar (tuzlangan pomidor va bodring, turli xil sabzavotlar, tuzlangan qalampir).
- Konservalangan sabzavotlar (konservalangan pomidor, bodring, baqlajon).
- Kompotlar (gilos, o‘rik, shaftoli, olxo‘ri, nok, qovun).
Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish bo‘limi.
Korxonada sertifikatlangan ishlab chiqarish va texnologik laboratoriyasi mavjud bo‘lib, unda barcha kerakli sinov uskunalari va tekshirish va kalibrlash maqomiga ega bo‘lgan o‘lchov vositalari mavjud. Sifatni nazorat qilish tizimi. Tizim Shveysariya SGS kompaniyasi FSSC 22000 oziq-ovqat xavfsizligi va sifat tizimiga muvofiq sertifikatlangan.
Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun texnologik normalar va qoidalar mavjud.
Ichki sifat nazorati protseduralari quyidagilarni ta’minlaydi:
• mahsulotning ishonchliligi, organoleptik xususiyatlarining o‘ziga xosligi;
• keyinchalik iste’molchilar oldida sifati uchun javobgar bo‘lish uchun mahsulotlarning har bir partiyasini identifikatsiyalash;
• barcha sanitariya-gigiena me’yorlari va shartlariga rioya qilish;
• texnologik tarmoqlarda mahsulotlar ishlab chiqarilishini nazorat qilish;
• tayyor mahsulotlarni ro‘yxatdan o‘tkazilishini nazorat qilish;
• saqlashni boshqarish.
• ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini nazorat qilish
Korxonada tegishli tekshirish va kalibrlash holatiga ega bo‘lgan barcha kerakli sinov uskunalari va o‘lchov vositalariga ega bo‘lgan ishlab chiqarish va texnologik laboratoriya mavjud.
Laboratoriya ishlab chiqarishning texnologik nazorati, organoleptik, fizik-kimyoviy va mikrobiologik nazoratni, kiruvchi xom ashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni sertifikatlashtirish sohasida belgilangan me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini nazorat qiladi.
**Xulosa.** Korxonaning biologik tozalash inshootlari loyihaviy quvvati 800 $m^3$/bir kecha kunduz bo‘lganligi sababli va oqovalarning haqiqiy kelib tushish 643 $m^3$/bir kecha kunduzni tashkil qilganligi sababli tozalash inshootining quvvatini kengaytirishga hojat yo‘q.
Lekin shunday bo‘lishiga qaramay tozalash inshootlarini ishlash samarasini orttirish maqsadida ayrim inshootlarni chiqindilardan o‘z vaqtida tozalab turish lozimdir. Chunki inshootlardan oqib

o‘tadigan oqova suvlar ikkilamchi ifloslanish ehtimoli bor. Shuning uchun quyidagi tadbirlarni bajarish zarur.
Oqova suvlar takroran ifloslanmasligi uchun qum tutgich va ikki yarusli tindirgichlar texnik reglament asosida o‘z vaqtida tozalab turilishi va chiqindilar yig‘ilib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak va bu tadbir bir yilda ikki-uch marotaba olib borilishi kerak. Xuddi shu tarzda biologik hovuzlarni ham tozalab turish zarur. Bu tadbirlar yiliga bir marta bajarilishi kerak. Xlorator va xlor o‘tkazish tarmoqlari muntazam ishlashini ta’minlash doimiy ravishda amalga oshirib borilsa chegaralangan me’yorlar talabi bajarilishi ta’minlanadi.

**Adabiyotlar:**

1. M. N. Musayev. Sanoat chiqindillarini tozalash texnologiyasi asoslari. Toshkent 2011 y. 498 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 3 yanvarda 1533-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxonalarda atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaradigan manbalarni hisbga olish va ifloslantiruvchi moddalarni me’yorlashtirish yo‘riqnomasi’’.
3. Korxonalarda hosil bo‘ladigan ifloslantiruvchi moddalarning atmosfera havosidagi sig‘imini aniqlash qo‘llanmasi. OND -86, Goskomgidromet L., Gidrometeoizdat 1987 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 21 yanvardagi 14-sonli “Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 22 noyabrdagi 949-sonli “Davlat ekologik ekspertizasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.

## O‘QITUVCHINING MAQOMI VA UNING JAMIYATDAGI O`RNI

**Sharifjanova Gulchehra**
**Iqtisod fanlari nomzodi, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti**
**Yusupova Dilfuza**
**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi talabasi**

**Annotatsiya.** Maqolada o‘qituvchining kasbiy maqomi muammolari tahlil qilinadi, global axborot texnologiyalari sharoitida o‘qituvchining ishi beqiyos darajada yuqori ahamiyat kasb etadi, chunki yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash dunyo xalqlarining taqdirini belgilaydi. O‘qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirish xalqning ijtimoiy-madaniy an’analari va milliy xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, natijada ta’lim tizimining sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchi bo‘lish bizning davrimiz o‘quvchi yoshlar orasida eng ilg‘or o‘qitish usullarini, ta’lim ko‘nikmalarini, o‘quvchilar/talabalarning kayfiyati va ta’lim yo‘nalishlarini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bo‘yicha ijodiy intellektual mehnat bilan shug‘ullanishdir. Muallif barcha ta’lim siyosati kontekstida o‘qituvchining maqomini pedagogik tahlil qilishda hukumatlar oliy ta’lim tizimida kadrlar siyosatini takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydilar.

**Kalit so‘zlar**:o‘qituvchi, o‘qituvchi-o‘qituvchi, o‘qituvchining holati va funktsiyasi, o‘qituvchining bandligi, ta’lim sifati, ta’lim xizmatlari.

**Abstract.** The article analyzes the problems of the teacher’s professional status, in the conditions of global information technologies, the teacher’s work is of incomparably higher importance, because the education and upbringing of the young generation determines the fate of the peoples of the world. The formation and development of professional skills of teachers is interconnected with the socio-cultural traditions and national characteristics of the people, and as a result, it helps to improve the quality and efficiency of the education system. Being a teacher is our time to introduce the most advanced teaching methods, educational skills, and innovative approaches in regulating student/student moods and educational orientations among the students. is to engage in creative intellectual work. In the pedagogical analysis of the status of the teacher in the context of all educational policies, the author emphasizes the need for governments to improve personnel policies in the higher education system.

Key words: teacher, teacher-teacher, teacher status and function, teacher employment, quality of education, educational services.
**Аннотация.** В статье анализируются проблемы профессионального статуса учителя, в условиях глобальных информационных технологий труд учителя приобретает несравненно большее значение, ведь образование и воспитание молодого поколения определяют судьбы народов мира. Формирование и развитие профессиональных навыков учителей взаимосвязано с социокультурными традициями и национальными особенностями народа и, как следствие, способствует повышению качества и эффективности системы образования. Быть учителем – это наше время внедрять самые передовые методы обучения, учебные навыки, инновационные подходы в регулировании студенческих настроений и учебных ориентаций среди учащихся, заниматься творческой интеллектуальной работой. В педагогическом анализе статуса педагога в контексте всей образовательной политики автор подчеркивает необходимость совершенствования государством кадровой политики в системе высшего образования.
**Ключевые слова:** учитель, учитель-учитель, статус и функции учителя, занятость учителя, качество образования, образовательные услуги.
O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog lom, barkamol avlodni shakllantirish va tarbiyalash, xalqning ma’ naviy va madaniy salohiyatini saqlash va ko‘paytirish uchun asos deb e’tirof etiladi.
Hatto buyuk yunon faylasufi Aristotel ham ta’kidlagan:”Vatan taqdirini yoshlarni tarbiyalash hal qiladi”.
Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligini, kasbiy o‘sishini himoya qilish bilan shug‘ullanadi.
Ozbekiston Prezidenti 1-fevral kuni “pedagog maqomi to‘g‘risida”gi qonunni imzolagani diqqatga sazovordir. Bu erda “o‘qituvchining huquqlari, sharafi, qadr-qimmati va ishbilarmonlik obro‘si davlat himoyasida”deb ta’kidlangan.
Haqiqat shundaki, ushbu qonunning qabul qilinishi o‘qituvchi, o‘qituvchi mamlakatimiz va umuman dunyoning butun ta’lim tizimining asosiy figurasi ekanligini anglash va to‘liq anglashning qiyin va uzoq bosqichining haqiqiy yakuniga aylandi.
O‘qituvchi insoniyat sivilizatsiyasida o‘ziga xos rol o‘ynagan va o‘ynagan. U, aslida, to‘rtinchi o‘lchovda sivilizatsiyani sementlash uchun bog‘lovchi vazifasini bajaradi – vaqt.
Bu o‘qituvchi o‘z-o‘zidan to‘planib, odamlar tomonidan to‘plangan bilim va ko‘nikmalarni har bir keyingi avlodga etkazadi. Va nafaqat bilim, balki ko‘p jihatdan dunyoqarash va dunyoqarash, fikrlash usullari, millat ruhi, insoniy qadriyatlar, madaniyat va boshqalar.
O‘qituvchilar-bu har bir yangi avlodga ajdodlar avlodlarining yutuqlari va tashvishlarini etkazadiganlar va har kimga kelajakka eshik ochadiganlar. Mening uzoq yillik e’tiqodim shundan iboratki, o‘qituvchi maqomini ko‘tarmasdan, unga hurmat ko‘rsatmasdan va uning qiyin va olijanob mehnatini to‘g‘ri balandlikka ko‘tarmasdan, biz jiddiy maqsadlarga erisha olmaymiz. Va bu hech qanday yangi texnologiyalar, texnikalar, yondashuvlar yoki modellar bilan almashtirilmaydi.
O‘qituvchi raqamisiz insoniyat hayotining asosiy dinamik jarayoni samarasiz bo‘ladi-uning doimiy yangilanishi va o‘tmish va hozirgi yutuqlar asosida oldinga intilish. Va vaqtning bu jonli aloqasi asosan o‘qituvchilar, o‘qituvchilar tomonidan insoniyatga ta’minlanadi, menimcha, ularning asosiy va juda yuqori maqsadi.
Qadim zamonlardan beri Sharqda o‘qituvchiga bo‘lgan munosabat eng hurmatli edi, u eng hurmatli odamlardan biri edi. Bizning asosiy boyligimiz insondir va buyuk Abay aytganidek:"insonning eng yaxshi tomoni o‘qituvchidan".
Sharq dunyosining buyuk o‘qituvchilari eng keng tanilgan. Ilmiy dunyo Abu Nasr Al-Farobiyning dastlabki asrlardagi iste’dodlarini yuqori baholadi va uni qadimgi mashhur mutafakkir Aristoteldan keyin ikkinchi o‘qituvchi deb atadi.
Ushbu olijanob mehnatni qo‘llab-quvvatlash va uning maksimal samaradorligini ta’minlash uchun biz o‘qituvchilarga katta hurmatni qaytarishimiz, o‘qituvchilik kasbini eng yuqori obro‘ va maqom

bilan ta’minlashimiz mumkin va kerak. Bu bizning jamiyatimiz va davlatimizning eng chuqur ishonchi bo‘lishi kerak, kelajak uchun o‘zgarmas.
Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘qituvchilar va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda ta’kidlaganidek: “ko‘p yillar davomida o‘qituvchining ishiga etarlicha e’tibor berilmaganligini yashirmaslik kerak. Natijada soha xodimlari jamiyatning eng himoyalanmagan qatlamiga aylandi. O‘qituvchilarning asosiy vazifalari chetda qoldi, ularni kasbiy faoliyatdan uzoq bo‘lgan ishlarga jalb qilish amaliyoti keng tarqaldi”
Shubhasiz, mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ta’lim hukumat va davlat rahbarining alohida e’tiborida bo‘lgan.
Bu uning mamlakatni rivojlantirish strategiyasining asosiy nuqtalaridan biri edi. Masalan, 2020-yilda Mirziyoyev o‘qituvchilar faoliyatiga aralashish uchun javobgarlikni belgilovchi qonunni imzoladi
Hujjat bir qator qonun va kodekslarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritdi. Xususan, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks 197-5-moddalar bilan to‘ldirilgan.
Ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashish yoki uning xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo‘lishi aniqlandi.
Bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari ko‘zda tutilgan:
–fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 7 baravarigacha miqdorda jarima solish (BRV) (1 mln 115 ming so‘mdan 1 mln 561 ming so‘mgacha);
–mansabdor shaxslarga-7 dan 10 BRVGACHA (1 mln 561 ming so‘mdan 2 mln 230 ming so‘mgacha).
Agar ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin bir yil ichida yana sodir etilgan bir xil huquqbuzarliklar jarima solishga sabab bo‘lsa:
–fuqarolar uchun-7 dan 10 BRVGACHA (1 mln 561 ming so‘mdan 2 mln 230 ming so‘mgacha);
–mansabdor shaxslarga-10 dan 15 BRVGACHA (2 mln 230 ming so‘mdan 3 mln 345 ming so‘mgacha).
Ushbu huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, ta’lim muassasasining pedagog xodimi arizada huquqbuzarning shaxsi, sodir etilgan joyi, vaqti va ma’muriy huquqbuzarlik mohiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek ishni hal qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlar ko‘rsatilgan holda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomani tuzmasdan sudga murojaat qilish huquqiga ega.
Va bugungi kunda davlat jahon standartlariga javob beradigan ta’lim sifatining ilg‘or pozitsiyalariga o‘tish uchun qo‘lidan kelganini qilmoqda.
Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ushbu taraqqiyot ta’limning barcha darajalari va parametrlari bo‘yicha bir xil emas. Ehtimol, bu ob’ektivdir, chunki har qanday o‘rnatilgan xorijiy namunalarni “avtomatik ravishda nusxalash” oqilona emas.
Aksincha, biz hatto global amaliyotning eng ilg‘or yutuqlarini ham haqiqatimizga “sinab ko‘rishimiz”, mahalliy maqsad va ehtiyojlarga moslashishimiz kerak. Har doim ham hamma narsani aniq hisoblash mumkin emas, ba’zida siz “sinov va xato”usuli bilan harakat qilishingiz kerak. Ammo biz o‘qituvchining maqomiga nisbatan xuddi shunday yo‘lni bosib o‘tamiz. Ushbu savollar paydo bo‘ladi va bir necha yillar davomida u yoki bu darajada hal qilinadi.
Shuning uchun pedagog maqomi O‘zbekiston uchun yangi huquqiy mavzu emas. O‘qituvchining huquqiy maqomi to‘rtinchi yildan beri muhokama qilinmoqda. Shunday qilib, “o‘qituvchining maqomi to‘g‘risida” gi qonun 2019-yil yanvar oyida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portalida muhokama qilindi (qonun loyihasi xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan), keyinchalik 2020-yil noyabr-dekabr oylarida qayta ko‘rib chiqilgandan so‘ng, “o‘qituvchining maqomi to‘g‘risida” gi qonun muhokama qilindi (qonun loyihasi Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan). Ushbu loyihalar eng ko‘p muhokama qilingan 10 ta loyihalardan biri bo‘lib, ular bo‘yicha aholidan jami 817 ta taklif kelib tushdi, bu haqiqiy islohotlarning qiyin yo‘li. Bunday g‘oyalar rivojlangan Osiyo mamlakatlari nuqtai nazaridan asosiy qonun darajasida mustahkamlangan. Masalan, Janubiy Koreya Konstitutsiyasida o‘qituvchilarning maqomi qonunlarda aks ettirilishi kerak bo‘lgan asosiy masala sifatida belgilangan. Malayziya

Konstitutsiyasida o‘qituvchilarning maqomi va tayyorgarligi masalalari umumdavlat (Federativ) miqyosidagi masalalar sifatida ko‘rsatilgan. BAA va Qatar Konstitutsiyalarida ta’lim ijtimoiy taraqqiyotning asosi, jamiyat asoslari sifatida ko‘rsatilgan, shuning uchun davlat o‘qituvchilar maqomini oshirishni talab qiladigan sifatli ta’lim uchun sharoit yaratishga intilishi kerak.

Umuman olganda, so‘nggi besh yil ichida xalq ta’limi tizimini takomillashtirish uchun huquqiy asoslar yaratildi. Masalan, “ta’lim to‘g‘risida” gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Maktab ta’limini rivojlantirish sohasida bevosita 17 ta hujjat, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4 ta akti qabul qilindi.

O‘qituvchiga e’tiborning kuchayishi va ushbu kasbning maqom darajasining ko‘tarilishi hozirgi kunda bir qator sabablarga bog‘liq, ular orasida uning jamiyatdagi mavqeining noaniqligi, boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy mavqei va jamiyatning ushbu noaniqlikdan noroziligi.

Aholiga ma’lum bir kasbning jozibadorligini sub’ektiv baholash, unga hurmat va hurmat darajasini ifodalovchi turli xil obro ‘-e’tibor berish odatiy holdir.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, 2019-yil oxirida ilg‘or ta’lim texnologiyalari asosida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni qabul qilindi, unda ushbu yo‘nalishdagi asosiy vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi:

–xalqaro tan olingan tashkilotlar reytingida oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatining birinchi ming pozitsiyasiga respublikaning kamida o‘n oliy ta’lim muassasalarini kiritish; oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonini kredit-modulli tizimga bosqichma-bosqich o‘tkazish; oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda amaliy ko‘-nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’ lim tizimiga o‘tish; oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga munosib hissa qo‘sha oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish; - oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotni mustahkamlash; korrupsiyaga qarshi kurashish, samarali mexanizmlarni joriy etish; oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, uning raqobatbardoshligini ta’minlash [9]. O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag‘lari yuqoridagi tadbirlarni moliyalashtirishning asosiy manbai etib belgilandi.

Ammo o‘qituvchining maqomi to‘g‘risidagi qonundagi eng muhim narsa: bu
taqiqlangan:

• o‘qituvchining kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz tekshirish, o‘qituvchining talabalar bilimini to‘g‘ri va ob’ektiv baholashiga ta’siri, shuningdek uning xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilish;

* o‘qituvchini kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan obodonlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish;

* o‘qituvchidan uning kasbiy vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan hisobotlarni va boshqa ma’lumotlarni, shu jumladan soliqlar, kommunal to‘lovlar, kreditlar va aholining boshqa qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, bitiruvchilarning bandligini ta’minlash to‘g‘risidagi hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish talabi;

* o‘qituvchini ish bilan ta’minlanmagan, ta’lim bilan qamrab olinmagan va voyaga etmaganlarni profilaktik ro‘yxatga olish va ularning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha ishlarga jalb qilish;

* o‘qituvchini tovar va xizmatlarni sotib olishga majburlash, shu jumladan tovar va xizmatlar uchun mablag‘larni o‘qituvchining ish haqidan uning yozma roziligisiz ushlab qolish.

* Ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga haftasiga 36 soatdan ko‘p bo‘lmagan qisqartirilgan ish vaqti belgilanadi va yillik uzaytirilgan mehnat ta’tili beriladi. Pedagog xodimlarning ish

vaqtining aniq davomiyligi va yillik uzaytirilgan mehnat ta'tilining davomiyligi o ʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ijtimoiy-mehnat masalalari boʻ yicha Respublika uch tomonlama komissiyasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ta'lim tashkilotlari mavjud ish haqi mablagʻlari doirasida rasmiy ish haqiga tabaqalashtirilgan nafaqalarni mustaqil ravishda belgilash va mehnatga haq toʻlash va ragʻbatlantirishning turli shakllarini qoʻllash huquqiga ega.

Oʻqituvchilar fuqarolik ishlari boʻyicha sudlarda kasbiy faoliyatini amalga oshirishda ularning sha'ni, qadr-qimmati va ishbilarmonlik obroʻsini himoya qilish bilan bogʻliq da'volar boʻyicha davlat bojini toʻlashdan ozod qilinadi.

Shuningdek, pedagog xodimlar ma'muriy sudlarda davlat organlarining noqonuniy qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining kasbiy faoliyatini amalga oshirishda pedagog xodimlarning huquqlarini buzadigan harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilishda davlat bojini toʻlashdan ozod etiladi.

**Adabiyot va manbalar:**


1. Данные Министерства финансов Республики Узбекистан https://www.mf.uz/
2. Данные Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике https://stat.uz/
3. Закон Республики Узбекистан №ЗРУ-576 от 29.10.2019 «О науке и научной деятельности» https://www.lex.uz/docs/4571492
4. Абдурахмонов И. Цифровая экономика: новый этап развития нового Узбекистана через новые технологии, платформы и бизнес-модели http://tsue.uz/?p=12561&lang=ru
5. Данные информационно-аналитического сайта https://issek.hse.ru/news/221864403.html
6. Кобилов Б. Дефицитное высшее образование// https://www.gazeta.uz/ru/2018/05/28/education/
7. Данные информационно-аналитического сайта https://www.gazeta.uz/ru/
8. Нарбаева Т. Коррупция существует на всех ступенях высшего образования// https://www.gazeta.uz/ru/2020/08/07/corruption-edu/
9. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 08.10.2019 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» https://lex.uz/ru/docs/4545887
10. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-279 от 15.06.2022 «Об организации приема на учебу в государственные высшие образовательные учреждения» https://lex.uz/uz/docs/6070837


## OʻZBEKISTONDA LANDSHAFTSHUNOSLIK ASOSLARI FANINING RIVOJLANISHI.


**NDPI, Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari**
**kafedrasi oʻqituvchisi Shirinova Muqaddas Shavkatovna**
**Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari**
**soha talabasi Narzullayeva Maftuna Sunnatillo qizi**



**Annotatsiya**. Ushbu maqolada landshaftshunoslik asoslari fanining dastlabki shakllanish tarixi, Oʻzbekiston hududida landshaftshunoslik asoslari fanining ilk kurtak ochish davridan to hozirgacha boʻlgan vaqtda qay darajada rivojlanganligi va oʻzgarish holatlari aks ettirilgan.



**Kalit soʻzlar:**landshaftshunoslik, yer, tabiiy resurslar,tabiiy geografiya, V.V.Dokuchayev, tabiat zonaligi, landshaft, L.S.Berg,L.N. Babushkin, N.A.Kogay.


XX asrning ikkinchi yarmi Yer tarixida, insoniyat tarixida oʻziga xos alohida davrni tashkil qiladi. Bu davrda yer yuzasi aholi sonining tez sur'atlar bilan oʻsishi, ya'ni XX asrning 50-60-yillarida sodir boʻlgan "demografik portlash" jarayonining sodir boʻlganligi, sanoat va qishloq xoʻjaligining rivojlanishi, insonning kuchli texnika vositalarida mehnat quroli sifatida foydalanishi va fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishi insonning tabiiy resurslarga boʻlgan ehtiyojini va ulardan foydalanish hajmini ortishiga sababchi boʻldi. U tabiiy resurslardan faol foydalana boshladi va yerga, tuproqqa, suvga, havoga, oʻsimlikka va hayvonot dunyosiga kuchli ta'sir koʻrsatdi. Natijada tabiat va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarnning yomonlashuvi , tabiiy

muvozanatning buzulishi butun geografik qobiqda tabiiy va ekologik muammolarni vujudga keltirdi. Ushbu muammolarga taalluqli ayrim masalalarni oʻrganish, ularning yechimini ilmiy asoslab berishda geobotanika, biogeostenologiya, tuproqshunoslik, ekologiya kabi fanlar muhim ahamiyat kasb etilishi mumkin. Bu borada ayniqsa, tabiiy geografiyaning landshaftshunoslik fanining ahamiyati va oʻrni beqiyosdir.chunki landshaftshunoslik inson yashaydigan va oʻz xoʻjaligidagi faoliyatini olib boradigan hududlarning tabiiy sharoitini, tabiiy komponentlari orasidagi oʻzaro aloqadorliklarni, oʻzaro ta'sirlarni, shu jumladan, inson faoliyatining ta'sirini ham oʻrganadigan fandir. Landshaftshunoslik fani kishilik jamiyatining amaliy talablariga bogʻliq holda shakllandi va rivojlanib kelmoqda. Hozirgi vaqtda bu fan inson bilan tabiat orasidagi oʻzaro aloqalar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini yaratish va rosmana madaniy landshaftlarni barpo qilishning muhim qoida va usullarini ishlab chiqish bilan shugʻullanmoqda. Landshaftshunoslikka oid eng dastlabki fikrlarning manbai V.V.Dokuchaev va uning ilmiy maktabiga mansub boʻlib, tabiatshunoslik va geograf olimlarning izlanishlariga borib taqaladi. Tuproqshunos geograf olim, geografik zonallik qonuniyatini birinchi bor ilmiy asoslab bergan V.V.Dokuchaevning ta'kidlashicha tabiatda bir jism, kuch yoki hodisa ikkinchisi bilan doimo oʻzaro murakkab aloqada boʻladi va bu aloqadorlik vaqt oʻtishi bilan oʻzgarib turishi mumkin. V.V.Dokuchayev tabiiy komponentlar, hodisalar alohida-alohida holda emas, balki bir butun hududiy majmua sifatida oʻrganilishi kerak deb ta'kidlab oʻtadi. Tabiat zonasi iqlim, tuproq, oʻsimlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy mujassamalardir. Bu tabiiy mujassamalar haqidagi gʻoyaning yuzaga kelishi edi. V.V.Dokuchaevning tabiatning barcha jonli va jonsiz komponentlar orasidagi oʻzaro nisbatlar va aloqadorliklarni hamda ularni birgalikda rivojlantirish qonunlarini tabiatshunoslik fanlari ichida oʻziga xos, yangi bir fan oʻrganishi kerak degan xulosaga kelgan. Ammo V.V.Dokuchaev "landshaft", "landshaftshunoslik" soʻzlarini ishlatmagan boʻlsada, oʻz fikrlari bilan tabiiy komponentlar haqidagi "Yangi geografiya"ni yuzaga kelishiga sababchi boʻldi. V.V.Dokuchaev gʻoyalarini keyinchalik uning koʻpgina shogirdlari va hamfikrlari fanning turli yoʻnalishlarida targʻib qilib, rivojlantirib bordilar. Landshaft haqidagi tasavvurni ifodalab berishga birinchilar qatorida L.S.Berg (1913) ham harakat qilgan. U oʻzining "Geografiyaning predmeti va vazifalari" nomli maqolasida landshaft haqidagi oʻz fikrini bayon qilar ekan shunday yozadi: "Geografik izlanishlarning natijasi ham tabiiy, ham madaniy landshaftlarni oʻrganish va ta'riflab berishdan iboratdir", shu bilan birga landshaftlarni tashkil etuvchi omillar bir-biriga qanday ta'sir koʻrsatishi va qanday aloqada boʻlishi ham oʻrganilishi kerakligini aytib oʻtadi. L.S.Bergning fikricha landshaft shunday bir joyki, unda relef, iqlim, oʻsimlik va tuproq qatlami garmonik (uygʻunlashib ketgan) bir- butunlikni tashkil qilib, Yerning ma'lum bir tabiat zonasi boʻylab tipik qaytalanib turadi. Bu geografik landshaft haqidagi eng dastlabki ilmiy ta'riflardan biri boʻlib, unda landshaft tabiat zonasining bir qismi ekanligiga va u tabiiy geografiyaning predmeti ekanligiga ishora qilinadi. Ilmiy geografiyaning asosiy vazifasi tabiiy havzalarni, oʻsimliklar, tuproq va hayvonot dunyosini oʻzining ma'lum tarkibi va xususiyatlarini shunday rejada saqlab qoladiki, ular orasidagi oʻzaro ta'sir jarayonlarida bir butunligi saqlanishi mumkin boʻladi. B.B.Polinov fikricha "landshaft" atamasi umumiy tushuncha boʻlib, uning katta-kichik darajasi izlanishlarning miqyosiga bogʻliqdir. Shuning uchun turli taksonomik qiymatga ega boʻlgan landshaftlarning aniqlash, xaritada koʻrsatish mumkin boʻladi. Geografiyada esa ilmiy termin boʻlib, geotizimlarning bir taksonomik pogʻonasini nomlash va tavsiflash uchun ishlatiladi. Landshaft-bir xil geologic tuzilishi, bitta relyef turi, bir xil iqlim hamda faqat shu landshaftga xos boʻlgan,oʻzaro bogʻliq kichik geotizimlar yigʻindisidan iborat genetic jihatdan bir butun geotizimdir. Landshaftlar joylardan, joylar urochishelardan, urochishelar esa fatsiyalar tizimidan iboratdir. Landshaftshunoslik yoki tabiiy geografiyaning rivojlanish tarixi bilan shugʻullangan tadqiqotchilarning koʻpchiligi fanning taraqqiyot tarixini ma'lum bosqichlarga yoki davrlarga boʻlib oʻrganishga harakat qilganlar. Jumladan, rus geografiyasida tabiiy hududiy komplekslar haqidagi tushunchalarning rivojlanishi mavzuida maxsus izlanishlar olib borgan N.G.Suxova 1981-yilda landshaftshunoslik fanining rivojlanishida toʻrtta davrni ajratadi, ya'ni; 1. XIX asrning 80-yillaridan XX asrning 10-yillarigacha boʻlgan davr. Bu tabiiy geografik kompleks gʻoyasining tugʻilishi davridir. 2. XX asrning 20-30 yillar davri. Bu davr landshaft tabiiy geografik kompleks ekanligi haqidagi tushunchaning

ommalashuv davridir. 3. XX asrning 40-yillardan XX asrning 60-yillarning boshigacha bo‘lgan davr. Bu landshaft haqidagi ta’limotning nazariy asoslari ishlab chiqilgan davr hisoblanadi. 4.XX asrning 60-yillar boshidan XX asrning 80-yillargacha bo‘lgan davr, ya’ni tabiiy geografik komplekslar geotizimlar ekanligi haqidagi tushunchaning ishlab chiqilishi va tarqalish davri. Landshaftshunoslikning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi asosan rus olimlarining tadqiqotlari bilan bog‘lagan I.I.Mamay (2008) bu fan tarixida to‘rt bosqichni ajratar ekan, bu bosqichlar orasidagi chegaralarni anchagina shartli ekanligini ta’kidlaydi. O‘zbekistonda landshaftshunoslik fanining rivojlanishi 1950 yillarning oxirida Toshket Davlat Universiteti tabiiy geografiya kafedrasining olimlari L.N. Babushkin va N.A. Kogay tomonidan respublika hududini qishloq xo_jaligi maqsadlarida tabiiy geografik rayonlashtirish mavzuida ilmiy tadqiqot ishlarining olib borilishi bilan boshlandi. Chunki, shu mavzuda o‘tkazilgan bir qator ilmiy anjumanlarda tabiiy geografik rayonlashtirishning asosiy metodi landshaft tipologik birliklar xaritasini tahlil qilish natijasida tabiiy geografik rayonlarni aniqlash ekanligi ta’kidlab o‘tilgan edi. Natijada, tarixda birinchi marotaba O‘zbekistonning landshaft xaritasi yaratildi va 1964 yilda nashrdan chiqdi. Xuddi shu yili L.N.Babushkin va N.A.Kogaylar mualliflігidagi “O‘zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish” degan monografiyasi ham bosilib chiqib, unda landshaftlarning qisqacha tavsiflari ham berilgan edi. Shu yerda yana bir narsani ta’kidlab o‘tmog‘imiz lozimki, L.N. Babushkin bilan N.A. Kogayning ilmiy hamkorligi 15 yildan ortiq vaqt davom etib, nihoyatda samarali bo‘ldi. Ular hammualliflikda juda ko‘p ilmiy maqolalar, monografiyalar va o‘quv qo‘llanmalari yaratdilar. O‘zbekistonlik geograflar orasida landshaftshunoslik masalalariga bo‘lgan qiziqish 1960-1970 yillarda yanada avj oldi. Bu vaqtda bir qator yosh hamyurtlarimiz Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, Voronej, Lvov, Qozon kabi shaharlarga borib aspiranturada tahsil oldilar, dissertatsiya yozib, himoya qilib qaytdilar. P.G‘ulomov, M.Umarov, Yu.Sultonov, A.Saidov, S.Nishonov, A.Abdulqosimov, L.Alibekov, T.Allaberganov, T.Jumaboev, A.Rafiqov, M.Quziboev, Sh.Yergeshovlar shular jumlasidandir. Ularning ilmiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston landshaftshunosligiga qo‘shgan hissalari haqida Yu.Sultonovning (1974) kitobidan umumiy tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Ushbu tadqiqotchilarning ko‘pchiligi hududiy landshaftshunoslik yo‘nalishida ish olib borganliklarini O‘zbekistondagi geografiya hamda ekologiya tarixi bilan shug‘ullangan R.U. Raximbekov (1995) ham ta’kidlab o‘tgan. Qo‘shimcha tarzda shuni eslatib o‘tish kerakki, yuqorida nomlari sanab o‘tilgan tabiiy geograflarimiz landshaft tushunchasini izohlashda yakdil emaslar. Buning sababi ularning turli ilmiy maktablar namoyondalari rahbarligida tahsil olganliklaridandir.

**Adabiyotlar:**

1. I.A.Xasanov, P.N.G‘ulomov, A.A.Qayumov. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” 2-qism. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2010-y.
2. SH.S. Zokirov Landshaftshunoslik asoslari-Universiteti,1994.
3. SH.S.Zokirov,X.R.Toshov Landshaftshunoslik o‘quv qo‘llanma.2016-y
4. SH.M.Sharipov, V.N.Fedorko, N.I.Safarova, V.A.Rafiqov Amaliy geografiya Davlat ilmiy nashriyoti-Toshkent-2017.

## DORIVOR O‘SIMLIKLARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI. BOLALAR KASALLIKLARNI DAVOLASHDA FITOTERAPIYADAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI VA DOZALASH TARTIBLARI.

**Shomurotova Sevara Bekberganovna, Raximberganov Sanjarbek Rustam o‘g‘li,**
**Urganch davlat universiteti akademik litseyi**
**Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fitoterapiyaning mohiyati, inson hayotida va klinik amaliyotda tutgan o‘rni, dorivor o‘simliklar xom ashyolari va ularni ishlatilishi haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek fitoterapiyada dorivor o‘simliklardan dori tayyorlash, ularni kattalarda bolalarda qo‘llanilishining o‘ziga xos tomonlari, bolalar kasalliklarini davolashda dozalash tartiblari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:**fitoterapiya, Davlat Farmakopeyasi, “sovuq” va “issiq” usullar, damlama, qaynatma, allergologik anamnez.
**Аннотация**. В данной статье представлена информация о сущности фитотерапии, ее роли в жизни человека и клинической практике, сырье лекарственных растений и его использовании. Также освещены приготовление лекарств из лекарственных растений в фитотерапии, особенности их применения у взрослых и детей, дозированные методики при лечении детских заболеваний.
**Ключевые слова:**фитотерапия, ГФ, «холодный» и «горячий» методы, настой, отвар, аллергологический анамнез.
**Annotation**. This article provides information on the essence of phytotherapy, its role in human life and clinical practice, raw materials of medicinal plants and their use. Also, preparation of medicines from medicinal plants in phytotherapy, specific aspects of their use in adults and children, dosage procedures in the treatment of children’s diseases are covered.
**Key words:**phytotherapy, State Pharmacopoeia, "cold" and "hot" methods, infusion, decoction, allergy history.

*Kirish*. Fitoterapiya — shifobaxsh o‘simliklar bilan davolash usuli (grekcha “fiton”-o‘simlik), “terapiya” — davolash so‘zlaridan olingan bo‘lib, o‘simliklarni davolash maqsadida ishlatish demakdir. Insoniyat o‘simliklar olami bilan uzviy bog‘langan. O‘simliklarning serxosiyat tomonlarini sanab intihosiga yetish qiyin. O‘simliklarning eng ajoyib xossalaridan biri — shifobaxshligidir. [4.1]Insoniyat qadim qadim zamonlardan buyon o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo‘lib kelgan. Ibtidoiy jamoa davrlarida odamlar o‘z dardlariga davo izlab, avvalo o‘simliklar olamiga hamda hayvonot mahsulotlariga intilar edilar.[3.1] Dastlab inson uchun o‘simlik mevalari, ildiz, ildiz mevalari, shuningdek hayvon mahsulotlari oziq-ovqat vazifasini o‘tagan. Ilgari o‘simliklarning shifobaxshligi tasodifan topilgan bo‘lsa, keyinchalik ular hayotiy sinov va kuzatishlardan o‘tgach, xalq tabobatida qo‘llanila boshlagan. Dorivor xom ashyo sifatida o‘simliklarning barglari, gullari, yer ustki qismi (ko‘kati), kurtagi, po‘stlogi, meva, urug‘lari va ildizlari ishlatiladi. O‘simliklarning guli, bargi, yer ustki qismi va kurtaklari soyada, shamol yurib turadigan ochiq joylarda kuritiladi; mevasi, urug‘i, po‘stlog‘i, ildizpoyasi va ildizi, tuganagi, piyozi ochiq joyda, oftobda quritiladi.

*Asosiy qism*. Uy sharoitida dori tayyorlash usullari esa quyidagicha bo‘ladi: O‘simlik xom ashyosidan uy sharoitida ko‘proq damlama va qaynatmalar tayyorlanadi. Bular Davlat Farmakopeyasida keltirilgan maxsus ko‘rsatmalar asosida tayyorlanadi (DF XI, 1987): Odatda o‘simliklarning bargi, yer ustki qismi, guli barglaridan va ba’zi meva hamda urug‘laridan qaynatma 1:10 nisbatda, ya’ni 10 qism maydalangan xom ashyo 100 qism suv bilan damlanadi; ildizidan, meva va urug‘laridan, po‘stlog‘idan qaynatma ham yuqoridagi nisbatlarda sovuq va issiq usullarda tayyorlanadi.[1.23] Sovuq usulda tayyorlanganda maydalangan xom ashyo emallangan yoki farfor, shishadan yasalgan idishlarda sovuq suv quyish yo‘li bilan 6—8 soat davomida saqlangach dokadan o‘tkaziladi.Issiq usulda esa xom ashyo qaynagan suvda 15—20 daqiqa davomida saqlangach dokadan o‘tkaziladi. Damlamalar zaharsiz o‘simliklardan 1:10 yoki 1:20 nisbatda, kuchli ta’sir qiluvchi o‘simliklardan esa 1:40 nisbatda tayyorlanadi. Damlamalar tayyorlash uchun xom ashyo 1—*2* soatga sovuq suvga qo‘yib qo‘yilgach 20—30 daqiqa davomida past olovda qaynatiladi, vaqti-vaqti bilan aralashtirilib turiladi. Damlamalar ko‘proq 1:10 nisbatda, zaharli o‘simliklardan 1:400 yoki 1:500 nisbatda tayyorlanadi. Damlamalar va qaynatmalar tez buzilganligi sababli iloji bo‘lsa, kuniga yoki 3 kunga yetadigan miqdorda tayyorlanadi.[2.24] Damlama va qaynatmalar o‘simliklar yig‘malari (choylar)dan tayyorlanadi, ba’zan ularga mineral moddalar ham qo‘shish mumkin. Davolash vannalari uchun 30—50 g xom ashyoni 1-2 litr suvda tayyorlanib, dokadan o‘tkazilgach 37-38°C vannaga qo‘shib, 10-15 daqiqa davomida yopiladi, davolash kursi 5 dan 10 tagacha. Bolalar uchun oq qayin, qoraqiz (ittikanak), eman po‘stlog‘idan tayyorlangan davolovchi vannalar ishlatiladi. Tindirmalar o‘simliklardan 1:5, kuchli ta’sir qiluvchi o‘simliklardan esa 1:10 nisbatda 70% etil spirtida qorong‘i joyda saqlash yo‘li bilan tayyorlanadi. Keyingi paytlarda o‘simliklar sharbatidan keng foydalanilmoqda, chunki sharbatlarda ta’sir qiluvchi modda kompleks ko‘rinishida bo‘ladi va mineral tuzlar, mikroelementlar bo‘ladi, shuning uchun sharbatlar ta’siri

kimyo yo‘li bilan olingan dorilarga nisbatan faol hisoblanadi. Sharbatlar bolalarga 1 choy qoshiq dan 2 osh qoshiqqacha miqdorda beriladi. Sharbatlar aralashmasi ham keng qo‘llaniladi. Bolalar amaliyotida dorivor o‘simlik malhamlar ko‘rinishida ham ishlatilishi mumkin. Malham tayyorlash uchun maydalangan o‘simlik xom ashyosi 1:4 lanolin, vazelin yoki cho‘chqaning ichki yog‘i, eritilgan mol yog‘ida tayyorlanadi. Bolalar kasalliklarida fitopreparatlarni ishlatishning asosiy qoidalari:

1.Shifobaxsh o‘simliklarni bolalarga o‘simlikning shifobaxshligini hisobga olib individual tavsiya etiladi.

2.Shifobaxsh o‘simliklarni tavsiya etishda asosiy kasallikdan tashqari, yo‘ldosh kasallikni ham hisobga olish kerak.

3.Davolashni bitta yoki 2-3 ta o‘simlikdan tashkil topgan choylardan boshlab, keyinroq esa (ayniqsa surunkali kasalliklarda) yanada murakkabroq choylar tavsiya etish mumkin.

4.Choylarni yig‘ishda o‘simliklarning terapevtik ta’siriga asoslaniladi. Murakkab klinik holatlarda bitta o‘simlik emas, balki ularning o‘zaro ta’siri ta’minlanadi, chunki bir o‘simlik ta’sir qiluvchi moddasi boshqa o‘simlik ta’sir qiluvchi moddasining ajralib chiqishini kuchaytirishi mumkin.

5.O‘simliklar bilan davolash davomiylikni talab qiladi, ya’ni uzoq vaqt kerak bo‘ladi.

6.Surunkali kasalliklarni davolashda kasallik avj olishining oldini olish maqsadida ham berib turish kerak (ayniqsa o‘tkir respirator va yuqumli kasalliklarda).

7.Fitoterapiya o‘tkazishda (allergik kasalliklar) allergologik anamnezga e’tibor berish lozim. Fitoterapiya samaradorligini va xavfsizligini nazorat qilish kerak.

8.Dorini ko‘tara olmaslik belgilari (ko‘ngil aynishi, qayt qilish, teri qichishi belgilari, ich ketish) paydo bo‘lganda o‘simliklar berishni to‘xtatish kerak.

9.Kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli o‘simliklar tavsiya qilinmaydi.

Fitopreparatlarni (pediatriyada) dozalash. Bolalarga 1%, 3%, 5% li damlama va qaynatmalar ishlatiladi. Fitopreparatlarni dozalash bola yoshiga, o‘simliklarning farmakologik faolligiga, kasallikning rivojlanish davriga va tabiatiga bog‘liq. Ko‘proq 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga 1-3% li, katta yoshdagi bolalarga 3-5% li damlama va qaynatmalar tavsiya etiladi. Kasallikning o‘tkir davrida ko‘proq miqdorda, kasallikning oldini olish maqsadida esa kamroq miqdorlarda tavsiya qilinadi. Dorining sutkalik miqdori 3-4 marta qabulga bo‘lib beriladi.Damlama va qaynatma ko‘rinishida ko‘proq suyuqlik kiritish bolalar o‘tkir respirator, yoki siydik va oshqozon- ichak trakti yuqumli kasalliklarida tavsiya qilinadi. Yurak -qon tomirlari kasalliklarida va glomerulonefritda suyuqlik miqdori chegaralanadi. Dorilarni bolalarga miqdorlashda quyidagi sxemadan foydalanish mumkin. Kattalarga to‘liq miqdor, 7-14 yoshdagi bolalarga kattalar miqdorining 1/2 qismi, 4-7 yoshli bolalarga—1/3 qism, 3-4 yoshli bolalarga — 1/6-1/4 qism, 2 yoshli bolalarga — ¼-1/10 qism, 1 yoshli bolalarga esa kattalar miqdorining 1/18 qismi tavsiya qilinadi.

*Xulosa.* Demak, qaynatmalar uchun xom ashyoning sutkalik miqdori ko‘proq 6-10 g ni tashkil qiladi.Magistral yo‘l bilan tayyorlangan damlama va qaynatmalarning xom ashyo sutkalik miqdori bolalar uchun quyidagilarni tashkil qiladi: 1 yoshgacha — 1/2-1 choy qoshiq; 1-3 yoshli bolalarga— 1 choy qoshiqdan, 3-6 yoshli bolalarga 1 desert qoshiqdan, 6-10 yoshli bolalarga 1 osh qoshiqdan, 10 yoshdan oshgan bolalarga va kattalarga 1-2 osh qoshiqdan xomashyo olinadi. Qurigan xom ashyoni gullar, barglar, ko‘katlar uchun 1 osh qoshiq og‘irligi 4-5 g ga, ildiz, po‘stloq, mevalarniki esa 6-8 g ga to‘g‘ri keladi. O‘simlik tindirmalari bolalarning yoshi qancha bo‘lsa, o‘shancha tomchidan, 10 yoshdan katta bo‘lgan bolalarga 10-20 tomchi tavsiya etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar va internet resurslar:

1. H.X. Xolmatov, O‘.A.Ahmedov “Farmakognoziya” I-qism. Toshkent. O‘zbekiston Fanlar akademiya. “Fan” nashriyoti-2007
2. H.X. Xolmatov, O‘.A.Ahmedov “Farmakognoziya” II-qism. Toshkent. O‘bekiston Fanlar akademiya. “Fan” nashriyoti-2007
3. https://uz.confection-rideaux.info/phytotherapie-1049
4. https://gorzdrav.org/blog/chto-takoe-fitoterapija-i-iz-kakikh-rastenij-delajut-lekarstva/

**Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li,**
**Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Kompyuter tizimlari kafedrasi o‘qituvchisi**
**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi iqtidorli yoshlar bilan ishlash to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Ta’lim sohasida iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularning imkoniyat va qobiliyatlarini aniqlash va yanada rivojlantirish, o‘rni kelganda iqtidorlarini munosib baholash hamda rag‘batlantirish haqida ma’lumot keltirilgan.
**Kalit so‘zlar:**iqtidor, iqtidorli yoshlar, psixika, qat’iyatlilik, mehnatsevarlik, pedagogik faoliyat, intellektual salohiyat, o‘yin, ish, ta’lim, individual iste’dod.
**Аннотация**: В данной статье говорится о работе с талантливой молодежью на всех уровнях системы образования. Дается информация о поиске талантливой молодежи в сфере образования, выявлении и дальнейшем развитии их возможностей и способностей, правильной оценке и поощрении их талантов при необходимости.
**Ключевые слова:** талант, талантливая молодежь, психика, настойчивость, трудолюбие, педагогическая деятельность, интеллектуальный потенциал, игра, труд, образование, индивидуальный талант.
**Annotation:** This article talks about working with talented young people at all levels of the educational system. Information is given on finding talented young people in the field of education, identifying and further developing their opportunities and abilities, properly evaluating and encouraging their talents when appropriate.
**Keywords:** talent, talented youth, psyche, perseverance, hard work, pedagogical activity, intellectual potential, play, work, education, individual talent.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi. “Iqtidor” arabcha “qodir bo‘lmoq”, “qila olmoq”, shaxsning ijodiy xususiyati va aqliy faoliyatini anglatadigan tushuncha shuningdek, iqtidorli yoshlar maqsadga intilish, qat’iyatlilik va mehnatsevarlik kabi fazilatlari hamda ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish istagining kuchliligi bilan ajralib turadilar. Iqtidorli o‘quvchilarni izlash, aniqlash va tarbiyalashning asosiy maqsadi respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi intellektual salohiyati bor yoshlarni tayyorlashdan iboratdir.

Psixologik lug‘atlarda “iqtidor” tushunchasi quyidagicha ta’riflanadi:

1) iqtidor bu faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydigan qobiliyatlarning o‘ziga xos uyg‘unlashuvidir;

2) iqtidor bu – insonning imkoniyatlari doirasi, faoliyatlari darajasi va o‘ziga xosligini belgilaydigan umumiy qobiliyatlar;

3) iqtidor bu – aqliy potentsial, ta’lim olish qobiliyati va bilish imkoniyatlarining bir butun individual tavsifi;

4) iqtidor bu – tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, ularning tabiiy asoslarini o‘ziga xosligi va namoyon bo‘lishi darajalari;

5) iqtidor bu – iste’dodlilik, faoliyatda yuqori natijalarga erishish uchun ichki imkoniyat va sharoitlarning mavjudligi [4].

O‘zbekistonda ta’lim sohasi, ta’lim tizimi juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ta’lim tizimida maktabdagi o‘rta ta’limdan tortib universitetdagi oliy ta’lim tizimigacha o‘quvchilar va talabalar ichidan harakatchan, bilimli, eng asosiysi iqtidorli talabalarni topish va ularni kerakli darajada qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshirilmoqda. Ularning tanlovlarda ishtirokini ta’minlab, qo‘lga kiritgan yutuqlarini munosib taqdirlab, rag‘batlantirilmoqda.

Pedagogik faoliyatning ustuvor yo‘nalishi sifatida iqtidorli o‘quvchilarni tanlash va ularning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish, iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori misol bo‘la oladi.

Jumladan, “Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun qo‘shimcha

shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud”.

Bugungi kunda ko‘plab pedagog -psixologlar iqtidorni rivojlantirish darajasi, sifatli o‘ziga xosligi va tabiati har doim irsiyat (tabiiy mayllar) va bolaning faoliyati vositasida bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muhitning (o‘yin, ta’lim, ish) murakkab o‘zaro ta’siri natijasidir - deb fikr bildiradilar. Bunday holda, bolaning o‘ziga xos faoliyati, shuningdek, individual iste’dodni shakllantirish va amalga oshirish asosida shaxsning o‘zini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yaratish alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, nafaqat maktablarda, balki kollejlarda, litseylarda, texnikumlarda va oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar ko‘plab uchraydi. Ularni topish iqtidorlarini aniqlab munosib baholash va rag‘batlantirish kerak. Bu esa ularni o‘zlarining ustida yanada ko‘proq ishlashini va yuqori natijalarga erishishini kafolatlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Asror o‘g‘li, A. O., & Rahmon o‘g‘li, S. E. (2024). TA’LIMGA VEB PLATFORMALARNI JORIY ETISHNI TAHLIL QILISH. GOLDEN BRAIN, 2(8), 92-97.
2. Isomiddinovna, N. M. (2024). Principles of Organization and Development of Continuing Education. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(3), 285-288.
3. Khayriddinov , S., & Nodirova , F. (2024). ADVANCED PEDAGOGICAL IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THE SIGNIFICANCE OF EXPERIENCES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (28).
4. Karimova M.O. Todjimamatova M.E. To‘ychiyeva R.N. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va tarbiyalashning pedagogik asoslari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.
5. Murodullo o‘g‘li, J. U. APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TECHNICAL SYSTEMS IN ENGINEERING FIELDS.
6. Suvonov, B., & Jamilova, S. (2024). SUN’IY INTELLEKTUAL TIZIMLARDA NOANIQ MANTIQNING AHAMIYATLILIGI VA UNING ANIQ MANTIQDAN FARQI.*Interpretation and researches*, (4 (26)).


## АВТОМОБИЛЛАРНИ ГАЗ ТЎЛДИРИШ ШАХОБЧАЛАРИДА (АГТШ) ТЕХНОЛОГИК ЙЎҚОТИШЛАРНИ АНИҚЛАШ


**Тайлаков А.А., Кирйигитов Х. Б Изтлеуов Г.М, талаба Каломов С.С**
**Жиззах политехника институти кафедраси доценти**
**Жиззах политехника институти кафедра мудири**
**М.Ауезов номидаги Жанубий қозоғистон университети профессори**



**Аннотация:** Автомобилларни суюлтирилган газ билан тўлдиришда рўй берадиган йўқотишлар сутка давомида ҳар доим учрагани учун уларни Автомобилга газ тўлдириш шаҳобчаси лойиҳавий иш унумдорлигига тақсимланиши лозим.



**Калит сўзлар:** Автомобил, темир йўл, Суюлтирилган газлар, углеводородлар.



**Аннатация:** поскольку потери, связанные с заправкой вагонов сжиженным газом, всегда возникают в течение дня, газозаправочное оборудование для них в вагоне должно быть распределено в соответствии с производительностью работ по проекту.



**Ключевые слова:** автомобиль, железная дорога, сжиженные газы, углеводороды.



**Anatation:** since losses that occur when refueling cars with liquefied gas always occur during the day, they should be distributed according to the performance of the design work of the gas station.



Colitis words: automobile, railway, liquefied gases, hydrocarbons.


Автомобилларни газ билан тўлдириш шахобчалари (АГТШ)ни эксплуатация қилиш технологик жараёнида суюлтирилган газлар қуйидаги ҳолларда йўқотилади:

1. Суюлтирилган газларни резервуарга қуйиш (қабул қилиш) ва уни бўшатиш (тарқатиш)да:

- Темир йўл цистерналарини бўшатишда;
- Автомобил цистерналарини бўшатишда;
- Газ баллонли автомобилларни тўлдиришда;
- Хўжалик газбаллонларини тўлдиришда;

2. Газ қуйиш жиҳозларини таъмирлаш жараёнида:

- Таъмирлаш муносабати билан идишларни бўшатиш пайтида;
- Суюлтирилган газларни тўлиқ реализация қилишда.

3. АГТШга эксплуатациявий хизмат кўрсатиши жараёнида, яъни сақловчи клапанлар ва арматураларни текширишда:

4. Суюлтирилган газни сақлаш давомида табиий йўқотишлар туфайли.

Темир йўл ёки автомобил цистерналари суюлтирилган газдан бўшатилганда рўй берадиган йўқотишлар аҳён-аҳёнда учрагани учун улар цистернадан қабул қилиб олинадиган умумий газ массасига тақсимланиши лозим.

Резервуарларни шамоллатиш газ қувурлари ва арматураларни таъмирлаш 4-8 йилда бир маротаба ўтказилгани учун уларни ҳар бир йилга текис тақсимлаш лозим ва АГТШ нинг йиллик лойиҳавий иш унумдорлигига нисбатан олиниши керак.

Газларнинг табиий йўқолиши ҳар доим рўй берса ҳам, уларни йилга нисбатан ҳисоблаш ва йиллик иш унумдорлигига тақсимлаш қабул қилинган. Шунинг учун ҳам бир тонна суюлтирилган газ массасига нисбатан йўқотишлар миқдори *кг* ёки *фоиз*да ўлчаш қабул қилинади.

***Суюлтирилган углеводород газларнинг зичлигини аниқлаш***

Суюлтирилган газларнинг суюқ ҳолдаги зичлиги критик ҳарорат учун ўзгармасдир. Масалан, пропан гази учун критик ҳарорат -42,1$^0$С бўлиб, унинг суюқ ҳолдаги зичлиги 585 *кг/м*$^3$ ни ташкил этади; бутан гази учун критик ҳарорат 0,5 $^0$С бўлгани ҳолда, унинг зичлиги 600 *кг/м*$^3$ га тенгдир.

Суюқ углеводородлар зичлигининг ҳароратга боғлиқлиги қуйидаги тенглама билан ифодаланади:

$$Р_т = Р_{то} + a(Т_0 – Т), \qquad (1.1)$$

Бу ерда $Р_т$ – ихтирёрий ҳаракатдаги суюқ углеводородларнинг зичлиги, *кг/м*$^3$ ;

$Р_{то}$ – критик ҳароратдаги зичлик, *кг/м*$^3$ ;

- пропан учун $Р_{то}$ = 585 *кг/м*$^3$*;*
- бутан учун $Р_{то}$ = 585 *кг/м*$^3$*;*

*а* – эмпирек коэффициент, *кг.град/м*$^3$*;*

- пропан учун *а* = 1,354*;*
- бутан учун *а* = 1,068*;*

$Т_0$ – критик ҳарорат: К;

- пропан учун $Т_0$ = 230,9 К*;*
- бутан учун $Т_0$ = 272,5 К.

***АГТШ учун суюлтирилган газларнинг технологик йўқотиш меъёрини ҳисоблаш***

Битта темир йўл цистернасини бўшатишда йўқотилган газ миқдори қуйидагига тенг:

$$П_1^* = П_ж^ж + П_ж^г + П_ж^{вз}, \ кг \qquad (2.1)$$

Бу ерда $П_ж^ж$ бита цистернани бўшатишда суюқ ҳолдаги суюлтирилган газнинг йўқотишлар миқдори, *кг*:

$$П_ж^ж = 2 \ Р_ж \ V_ш , \qquad (2.2)$$

Бу ерда $Р_ж$ – суюқ ҳолдаги газнинг зичлиги, $Р_ж$ = 590 *кг/м*$^3$ ; 2-тўкиш ва қуйиш тармоқлари сони; $V_ш$ – тўкиш ва қуйиш шлангининг ҳажми. м$^3$

$$V_ш = \frac{п}{4} Д_ш^2 L_ш , \qquad (2.3)$$

Бу ерда $Д_ш$ – шлангнинг ички диаметри; $L_ш$ – шлангнинг узунлиги, м.

Қуйиш ва тўкиш шланги МРТУ-38-5-6089-66 стандарт асосида тайёрланган бўлиб, юқори босимли ва портлаш хавфсизлиги таъминланган:

$Д_ш = 0{,}076$ *м*; $L_ш = 10$ *м*.

$$П_ж^ж = 2 \times 590 \frac{3{,}14}{4} (0{,}076)^2 \times 10 = 53{,}503 \text{ кг}$$

$П_ж^г$ – битта цистернани бўшатишда газ ҳолатдаги суюлтирилган газнинг йўқотишлар миқдори, *кг*.

$$П_ж^г = Р_г V_ш , \qquad (2.4)$$

Бу ерда $Р_г$ –газ ҳолатдаги суюлтирилган газнинг зичлиги, $Р_г = 60$ м$^3$ ; $V_ш$ – газ ҳолати учун шлангнинг ҳажми, м$^3$; $Д_ш = 0{,}038$ м; $L_ш = 10$ *м*.

$$П_ж^г = 14{,}035 \frac{3{,}14}{4} (0{,}038)^2 \times 10 = 0{,}16 \text{ кг}$$

$П_ж^{вз}$ – цистерна бўшатилгандан кейин унинг ҳажмини эгаллай оладиган газ ҳолатига қайтувчи суюлтирилган газнинг йўқолиши:

$$П_ж^{вз} = Р_г V_ц , \qquad (2.5)$$

Бу ерда $V_ц$ – битта цистерна ҳажми $V_ц = 60$ м$^3$;

$$П_ж^{вз} = 14{,}035 \times 60 = 842{,}1 \text{ кг}$$

Битта темир йўл цистернасини бўшатиш давомида йўқотилган газнинг ялпи миқдори (1.1) биноан:

$$П_1^ж = 53{,}503 + 0{,}16 + 842{,}1 = 895{,}763 \text{ кг}$$

Битта темир йўл цистернасидан автоцистернага тўлдиришда йўқотиладиган газ миқдори:

$$П_1 = п_a Р_ж V_ш , \qquad (2.6)$$

Бу ерда $п_a$ – битта темир йўл цистернасидан тўлдириладиган автоцистерналар сони:

$$п_a = \frac{V_ж}{V_a} \qquad (2.7)$$

Бу ерда $V_ж$ – темир йўл цистернасининг ҳажми, $V_ж = 60$ м$^3$ ; $V_a$ – автоцистернанинг ҳажми $V_a = 7{,}25$ м$^3$

$$п_a = \frac{60}{7{,}25} = 8{,}27 = 9 \text{ автоцистерна}$$

$Р_ж$ – газнинг суюқлик ҳолатдаги зичлиги, $Р_ж = 590$ *кг/м*$^3$

$V_ш$ – автоцистерна қуйиш шлангининг ҳажми, м$^3$

$$V_ш = \frac{п}{4} Д_ш^2 L_ш ,$$

Бу ерда $Д_ш$ – автоцистерна шланигнинг ички диаметри. $Д_ш = 0{,}038$ м; $L_ш$ – автоцистерна шлангининг узунлиги, $L_ш = 3{,}0$ м.

$$V_ш = \frac{3{,}14}{4} (0{,}038)^2 \times 3 = 0{,}0034 \text{ м}^3$$

$$П_1 = 9 \times 590 \times 0{,}0034 = 18{,}057 \text{ кг}$$

Шундай қилиб, битта темир йўл цистернасининг суюлтирилган газ билан тўлдиришда ва автоцистерналарга қуйишда газларни ялпи йўқолиши 891,763 + 18,057 = 913,820 *кг* ни ташкил этади.

Агар темир йўл цистернаси 60 м$^3$ ҳажмининг 85 % тўлдирилиши эътиборга олинса, у ҳолда 0,59 *т/м*$^3$ зичликка эга бўлган суюлтирилган газ массаси:

$$G = V_ц \, 0{,}85 \, Р_ж = 60 \times 0{,}85 \times 0{,}59 = 30{,}09 \text{ т.}$$

Суюлтирилган газларнинг меъёрий йўқотилиши *фоиз*ларда ёки *кг* қуйидагича аниқланади:

$$П_{i\,(от)} = 913{,}82 \times 30090 \times 100 = 3{,}037 \% = 30{,}37 \text{ кг/т}$$

***Автоцистернадан истеъмол идишларга қуйишдаги йўқотиладиган газ миқдорини ҳисоблаш.***

1. Битта автоцистернадан суюқлик ҳолатидаги газни истеъмол идишларга қуйишдаги йўқотишлар қуйидагича ҳисобланади:

$$П_2^ж = P_ж V_ш = P_ж \frac{п}{4} Д_ш^2 L_ш , \qquad (2.8)$$

Бу ерда $P_ж = 590$ *кг/м³;*

$$П_2^ж = 590 \frac{3{,}14}{4} (0{,}038)^2 3 = 2{,}006 \text{ кг}$$

2. Буғ ҳолатидаги газнинг шлангда йўқотилиши қуйидагича аниқланади:

$$П_2^п = P_п V_ш \qquad (2.9)$$

Бу ерда $P_п = 14{,}035$ *кг/м³* – тўйинган газ буғларининг зичлиги;

$$П_2^п = 14{,}035 \times 0{,}0034 = 0{,}0477 \text{ кг}$$

3. Автоцистернанинг бутун ҳажми бўйича қолдиқ буғ ҳолатдаги газнинг йўқотилиши миқдори қуйидагича аниқланади:

$$П_2^ц = P_п V_{п\text{-}ц} \qquad (2.10)$$

Бу ерда $V_{п\text{-}ц}$ – автоцистернанинг фойдали сиғими унинг бутун ҳажмининг 85,5 фоизини ташкил этади. $V_ц = 7{,}25$ *м³*

$$П_2^ц = 14{,}035 \times 0{,}855 \times 7{,}25 = 87{,}017 \text{ кг}$$

**Адабиётлар**

1. Абдуазизов Т. Автомобил транспорти экологияи. ЖизПИ – Жиззах 2011. – 128 б.
2. Автомобильные дороги: безопастность, экологические проблемы, экономика. Под редакции В.Н. Луканина и К.Х. Ленца, - М.: Логос, 2002.
3. Автотранспортные потоки и окружающая среда. Луканин В.Н., Буслаев А.П., Трофименко Ю.В., Яшина М.В.: М.
4. Сборник методик по расчету выбросов в атмосферу загрязняющих веществ различными производствами. М.: Гидрометеоиздат, 1986 – 184 ст.
5. Базаров Б.И. Научные основы энерго экологической эффективности использования альтернативных моторных топлива: Дисс … док техн. Наук. – Ташкент: ТАДИ, 2006

## BUYUK MUTAFAKKIRLARNI KIMYO FANIGA QO‘SHGAN HISSASI

**Navoiy Davlat Pedagogika insituti**
**Tabiiy fanlar fakutleti Kimyo yo‘nalishi**
**1-kurs talabasi: To‘rayeva Zarifa**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘rta Osiyoning buyuk qomusiy olimlari, Abu Ali ibn Sino , Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Al Forobiy Abu Nasr ibn Muhammad,metallar va distillash nazariyasini o‘rgangani haqida fikr yurtilgan.

**Kalit so‘zi:** minirologiya, kumush ,tabiiy ,Alkimyo,distillash zamonaviy kimyo

Ma’lumki, O‘rta Osiyoning qomusiy olimlari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Al Forobiy hisoblanadi .Ularning hayotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak , misol uchun Abu Ali ibn Sino u ko‘p fanlarga o‘z hissasini qo‘shgan .Masalan: kimyo, biologiya, algebra , astronomiya shular qatori tabobatga ham o‘z hissasini qo‘shgan . Abu Ali ibn Sino 980-yil 18-iyunda Buxoro yaqinida Afshona qishlog’ida tug’ilgan . Uni 5 yoshidan oshgandan keyin o‘qishga berishadi .Ibn Sinoning ustozi Abu Abdulloh Notiliy bo‘ladi.U astronomiya, algebra, arab tili, musiqa, optika, kimyo, fiqh fanlarini yaxshi o‘zlashtiradi. Ibn Sino boshqa fanlar qatorida kimyo bilan ham shug’ullanadi va unga oid asarlar yozgan . Bu asarlarni u turli davrda yozgan bo‘lgani uchun ularda Ibn Sinoning kimyoga bo‘lgan munosabatining evolyutsion o‘zgarib borishi yaqqol aks etgan. Uning kimyo sohasida aytgan fikrlari o‘sha davrdagi alkimyo uchun nihoyatda ilg’or edi. Ibn Sino 21 yoshida , ya’ni ilmiy faoliyatining bo‘sag’asida metallar transmutatsiyasiga ya’ni oddiy metallarni oltin va kumushga kimyoviy yo‘l bilan aylantirish mumkinligiga ishongan va kimyogarlarning kitoblari ta’siri ostida “Ri-sola as-san’ailal baraqiy (alkimyo)ga doir risola” nomli kichik asar yozgan. Ilmiy tajribasi ortgan yosh olim bu sohadagi urinishlarining zoye ketishiga

amalda ishonch hosil qiladi va “Risola aliksir” asarida kimyoviy yo‘l bilan sof oltin va kumush olish mumkinligiga shubha qiladi chunki oltin alohida element ekanini bilmagan .Kumush inson sog’ligi uchun foydali. Kumushdan uzuklar va ziraklar yasaladi. Insonni asablarini tinchlantiradi ,sanoatda foydalaniladi. Dori vositalarida ishlatiladi, qadimgi zamonda tabobatda ishlatilgan va bu hozirgacha davom etmoqda. Bizga ma’lumki kimyo faniga Abu Rayhon Beruniy ham o‘z hissasini qo‘shgan .Islomning oltin asrida yashagan buyuk olim va bilimdonlardan biri bo‘lgan . Abu Rayhon Beruniy hamma tabiiy fanlar qatori kimyoga ham o‘z hissasini qo‘shgan .U turli xil kimyoviy jarayonlar va materiallarni o‘rganish va hujjatlashtirish bilan faol shug’ullangan, kimyo taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan tajriba va tahlilar o‘tkazgan. Uning e’tiborga molik hissalaridan biri kimyoning muhim usuli bo‘lgan distillash jarayonini takomillashtirgan .Abu Rayhon Beruniyning distillash bo‘yicha ishi nafaqat jarayonning o‘zini takomillashtirish , balki turli moddalarning xossalari va ularning turli sharoitlarida sodir bo‘ladigan reaksiyalari haqidagi tushunchalarni kengaytirdi. Uning sinchkov kuzatuvlari natijalarini qayd etishi moddalar va ularni tashkil etuvchi elementlarning tabiati haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi .Abu Rayhon Beruniy minerallarni va farmakologiyani tushunishga hissa qo‘shdi,turli moddalarning xususiyatlari va ularning tibbiyot va kimyoda qo‘llanilishi bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib bordi. Uning kimyoviy jarayonlari va moddalari haqidagi asarlari ta’sirchan bo‘lib , keyingi olimlar tomonidan keng yoritilgan bo‘lib ,kimyoviy jarayonlar materallar va ularning qo‘llanilishi haqidagi bilimlarni sezilarli darajada boyitadigan keng ko‘lamli eksperimental tadqiqotlar va ilmiy yozuvlarni o‘z ichiga olgan.Abu Rayhon Beruniy o‘z asarida distillash jarayoni va uning qo‘llanilishini tasvirlab berdi. Distirllash –bu bug’ hosil qilish uchun bu bug’ni sovutishni o‘z ichiga olgan jarayoni.Hozirgi kunda distillash jarayonlari dori vositalarida parfyumeriyada va yana boshqa sohalarda ishlatiladi. Alkagol mahsulotlarida, suvni tozalashda ishlatiladi. Distirlangan suv asosan labaratoriya jarayonida ko‘proq qo‘llaniladi. Insonlar uchun distillangan suv ko‘p iste’mol qilishi mumkin emas, inson hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Abu Rayhon Beruniy 973-yil 4-sentabrda qadimgi (hozirgi Beruniy shahrida) tug’ilgan. U astronomiya, geografiya, ma’danshunoshlik, etnografiya, tarixchilik, shoirlikni mujassamlashtirgan o‘zida. Beruniy matematika, astronomiya, ruhiyat, ximiya, mantiq, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, ta’lim, tarbiya, adabiyot, musiqa, geografiya fanlariga o‘z hissasini qo‘shgan. Beruniy bu fanlarga doir asarlar yozgan. Beruniy 152 tadan ortiq asarlar yozgan va bizgacha 30 taga yaqini yetib kelgan. “Minirologiya” asarida 300 dan ortiq qimmatbaho toshlar va minerallarning nomlari, ularning kimyoviy va fizik xossalarini aniqlash, eritib sinash, konlardagi mavjud deyarli hamma qimmatbaho toshlar va modular, ularning qotishmalari haqida ilmiy ma’lumotlari bayon etilgan. Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya” nomi bilan mashhur “Kitob al-javohir haqida bilimlar kitobi” tarixda ilk bora o‘zbek tilida nashr etildi. Kitob O‘zbekiston Qahramoni professor Quvondiq Sanaqulov tashabbusi hamda mas’ul muharrirligi ostida chop etildi va professor M.M.Is’hoqov, A.S.Hasanov tarix fanlar nomzodi O.S.Haitova hamda R.T Urazova tomonidan nashrga tayyorlandi. Shuningdek, kitobxonga yanada tushunarli bo‘lishi uchun asarda tilga olingan toshlar ,minerallar va metallar haqida kitob so‘ngida zamonaviy sharh berilgan .Mazkur asar 2017-yilga qadar marhum akamdemik Azizxon Qayumov tomonidan tarjima qilingan. Abu Rayhon Beruniy mana shunday kitoblarni bizga meros qilib qoldirgan. U aynan bir sohada emas har sohaga o‘z hissasini qo‘shgan. Biz yoshlarga esa hozirgi kunda bu kitoblardan foydalanayapmiz. Beruniy hayoti haqida, qilgan ishlari to‘g’risida ilmiy ishlar olib borilgan. Masalan: A.H.Salmon “Al-Beruniy xotira jildi” tahririda. Ushbu ilmiy maqola va ilmiy maqolalar to‘plamida Al-Beruniyning gegografiya, tarix, tabiiy fanlar va falsafaga qo‘shgan hissasi kabi mavzularni o‘z ichiga olgan hayoti va ijodini ko‘p tarmoqli tahlil qilish taklif etiladi. Bu uning intellektual merosini batafsil o‘rganishni ta’minlaydi.

Hokim Zillur Rahmonning “Al-Beruniyning farmatsiya va moddiy tibbiyot haqida kitobi”. Bu kitob Al-Beruniyning farmakologiya va moddiy tibbiyotga qo‘shgan hissasiga bag’ishlangan bo‘lib, uning dorivor moddalar va ularni qo‘llash haqidagi tadqiqotlariga oydinlik kiritadi.Unda uning ushbu sohadagi ta’sirli asarlari va ularning tibbiyot va kimyo tarixiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Bu manbalar Al-Beruniy hayoti va ijodi ilmiy faoliyati va hissalari haqida qimmatli fikrlarini taqdim etib, uning ko‘p qirrali faoliyati va uning turli ilmiy va ilmiy fanlarga ta’siri haqida aytib o‘tilgan

.Bulardan tashqari Muso al-Xorazmiy ham kimyo faniga o‘z hissasini qo‘shgan. Jumladan, astronmiya, matematika va falsafa kabi sohalarga boy tarixga ega, uning kimyoga qo‘shgan o‘ziga xos hissasi ko‘pchilikka ma’lum emas. Biroq Xorazmning bir qismi bo‘lgan oltin asrida mintaqa olimlari turli fan sohalarida, jumaladan, kimyoda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Ular qadimgi sivilizatsiyalar haqidagi bilimlarga asoslanib, alkimyo va ilk kimyonning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan Islom olamidagi, jumladan, Xorazm viloyatidan kelgan kimyogarlarni distillash turli moddalarni sintez qilish labaratoriya jihozlarini yaratish kabi sohalarda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Ularning ishi zamonaviy kimyo va farmakologiyaga asos solgan. Xorazmning kimyo faniga qo‘shgan bevosita hissasi haqida aniq ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa-da,o‘rta asrlar davrida kimyoviy bilimlarning umumiy rivojlanishida mintaqa olimlari muhim rol o‘ynagandi. Al-Forobiy ham distillash usullarni o‘rgangan. Al-Forobiy islom oltin davrining mashhur musulmon polimanti edi U falsafa, matematika va musiqaga qo‘shgan hissasi bilan mashhur bo‘lsada-da, uning kimyoga ta’siri ham sezilarli edi. Al-Forobiyning kimyo faniga qo‘shgan asosiy xizmatlaridan biri uning kimyo sohasidagi faoliyatidir. Islom olmidagi alkimyo nafaqat oddiy metallarni oltinga aylantirishga urinish, balki kimyoviy jarayonlarni, distirlash usullarini o‘rganish va shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘lgan va o‘lmaslikni ta’minlovchi faylasuf toshini qidirishni ham o‘z ichiga olgan. Al-Forobiy manbalaridan olingan alkimyoviy nazariyasi va kimyoda tajriba va kuzatishning muhimligini ta’kidlab keyinchalik zamonaviy kimyoga xos bo‘lgan empirik yondashuv uchun zamin yaratdi. Al-Forobiyning kimyoga qo‘shgan o‘ziga xos hissasi uning falsafiy faoliyatli kabi ko‘zga ko‘rinmas bo‘lsada-da, uning alkimyo bilan shug‘ullangani va kimyo fanining dastlabki asoslarini shakllantirishida muhim rol o‘ynaydi. Al-Forobiyning alkimyo nazariyasi haqidagi tushunchasi o‘z davrining falsafiy va tasavvufiy an’analarida chuqur ildiz otgan. Oltin asrda islom olamida qo‘llanilgan alkimyo nafaqat proto-ilmiy izlanish, balki ma’naviy va metafizik harakat ham edi.Al-Forobiy alkimyo voqelik mohiyatini anglash materiyaning o‘zgarishi ma’naviy poklanish va ma’rifatga intilish vositasi sifatida qaragan. Al-Forobiy o‘z asarlarida o‘zgartiruvchi xususiyatga ega va o‘lmaslikni baxsh etuvchi afsonaviy substansiy bo‘lgan faylasuf toshi tushunchasini muhokama qilgan. Bu g‘oya nafaqat oddiy metallarni oltinga aylantirish,balki qalbni tozalash va donolikka erishish orqali alkimyogarning ichki o‘zgarishi haqida ham edi.Al-Forobiy alkimyoviy matnlarda timsoli va allegotiya muhimligini ta’kidlab ularni borliq va koinot haqidagi chuqur haqiqatlarni yetkazish vositasi sifatida qaragan. U metofizika, kosmologiya va etika hamda falsafiy ta’limotlari bilan alkimyoviy g’oyalarni birlashtirib moddiy va ma’naviy sohalarni qamrab oluvchi yaxlit dunyoqarashni yaratdi. Umuman olganda, Al-Forobiyning alkimyo nazariyasi haqidagi tushunchasi uning falsafiy tasavvuri tushunchasi va voqelik tabiatiga nisbatan kengroq intellektual qiziqishlarini aks ettirdi. Alkimyoviy amaliyotning fizik va metafizik jihatlari o‘rtasidagi bog’liqlikni o‘rganib u bugungi kungacha olimlar va bilim izlovchilarni ilhomlantirib kelayotgan boy va ko‘p qirrali an’anaga hissa qo‘shgan. Al-Forobiyning asosiy e’tibori alkimyoviy izlanishlarga emas, balki falsafa, mantiq va ilmlarga qaratildi. Zamonaviy kimyoning kashfiyoti bo‘lgan kimyo mistik spekulyativ amaliyot bo‘lib, asosiy metallarni oltin va kumush kabi qimatbaho metallarga aylantirishini maqsad qildi.

Xulosa qilib aytganda, dunyoning ko‘plab joylari tarixidagi taniqli shaxlar, jumaldan, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muso al-Xorazmiy, Al-Forobiy kabi mashhur olimlar nomi bilan atalgan. Bu olimlar asosan tabiiy fanlarga va matematika, astronomiya ,tibbiyot va falsafa kabi turli sohalarga katta hissa qo‘shgan. Ushbu olimlarning nomi saqlanib qolishi maqsadida shahar maktab ko‘chalarga nomlari qo‘yilgan. Masalan O‘zbekistonda Beruniy shahri astronomiya, matematika, geografiya, kimyo fanlariga katta hissa qo‘shgan taniqli olim Abu Rayhon Beruniy nomi bilan atalgan. Al-Xorazmiy nomi bilan Eronda Xorazmiy universiteti ochilgan. Tojikistonda Ibn Sino cho‘qqisi Pomir tog’larining eng baland cho‘qqisi bo‘lib, tibbiyot va falsafadagi asarlari bilan mashhur bo‘lgan mashhur fors Polimati Ibn Sino (Avitsenna)sharafiga nomlangan. Qozog’istonning Olamota shahridagi Al-Forobiy shoh ko‘chasi o‘rta asrlar islom falsafasining muhim namoyondasi bo‘lgan faylasuf Al-Forobiy nomi bilan atalgan. Butun dunyoning turli mintaqalariga ushbu nufuzli olimlar nomi berilgan

**Foydalanilgan Adabiyotlar:**

1.Daryo uz
2.Beruniy "Minotologiya"yangi tahiriri 2018yil
3.Abu Rayhon Beruniy biografiyasi
4.Abu Reyhkan Biruni.Izbronnyye proizvedeniya 1.Toshkent .An UzbSSSR.1957s 87-89.
5.Petrov V.D."Ibn Sino velikiy sredneaziatskiy uvheniy ensiklopedist"Abu Ali Ibn Sino. Konon Vrochebnoy nauki.Toshkent.1981
6.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi .Tosheknt.,2003.9bet.

## POLIMER MAHSULOTLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Umarova Amina Norqul qizi**
**“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.Kamalova**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada polimer mahsulotlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunga kelib hayotimizda polimerlardan juda keng foydalanilmoqda, polimer mahsulotlari yengil, chirishga o‘ta chidamli, qayta ishlanuvchan hamda hamyonbopliligi bilan hamma sohani keng qamrab olganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.
**Kalit so‘zlar:** polimer, material, tarkib, asos, matritsa, qolip, bog’lovchi, mahsulot, texnologiya.
Polimer kompozit materiallar tayyorlash texnologiyasi ularning tarkibi, bog’lovchining turi va ishlatish sohasi bilan belgilanadi. Polimer materiallar va buyumlar olish texnologiyasi nozik hisoblanib, jarayonlarning borishi o‘ta aniqlikda bo‘lishi talab etiladi. Polimer kompozit materiallar olishda presslash, shtamplash, quyish, surkash, shimdirish, sepish, payvandlash, yelimlash va boshqa usullardan keng foydalaniladi. Jumladan, presslash usulida plastmassa ishchi organi qizdiriladigan presslarda tayyorlanadi. Press-qoliplarda press kukunlar issiq holatda presslanib yoki ko‘p qatlamli press qoliplarda listlar, plitalar va panellar bir nechtasi presslanib olinishi mumkin. Ko‘p qavatli presslarda yog’och tolali va yog’och payrahali plitalar, qog’oz qatlamli plastiklar, uch qatlamli yelimlangan panellar va boshqa kompozit polimer qatlamli buyumlar tayyorlanadi.
Press-qoliplarda sanitariya-texnika buyumlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, rom va eshik qismlari, qurilish materiallari, mashina va mexanizmlar qismlari va boshqalar ham qoliplanib olinadi.




a) kimyoviy polimerlar
b) stomotologiyada qo‘llaniladigan asosiy polimerlar

Polimer materiallardan istalgan shakldagi buyumlar: ip, plyonka, list trubalar tayyorlanadi. Polimerlarni buyumlarga aylantirishning asosiy usullari quyidagilardan iborat: ekstruziyalash, bosim ostida quyish, odatdagi presslash, ya’ni quyma presslash, ko‘pirtirish, payvandlash, qizdirib puxtalash, randalash va shu bilan birga stanoklarda qirindi kesib olish yo‘li bilan ishlash usullaridan iborat. Polimer loyi hunarmandchilikda keng ishlatiladi. Polimer loyi plastik mahsulot bo‘lib, ko‘rinishi plastilinga o‘xshash bo‘lgan hidli massadan iborat. Barcha polimer loylari polivinilxlorid va suyuq plastik massani o‘z ichiga oladi. Polimer loyi turli ranglar bilan bo‘yalgan shaffof, yorqin toshga o‘xshaydi. Polimer loyini germaniyalik olima Fifi Rexbinder ixtiro qilgan. Loydan turli xil ko‘rinishdagi buyumlarni tayyorlash mumkin. Hozirgi kunga kelib hayotimizda polimerlardan juda keng foydalanmoqdamiz. Polimer mahsulotlari yengil, chirishga o‘ta chidamli, qayta ishlanuvchan hamda hamyonbopliligi bilan hamma sohani keng qamrab oldi. Ko‘p qavatli uylarning isitish tizimlarida, oshxonalarimiz faoliyati uchun, suv quvurlari sifatida, eshik-deraza romlarda, boshqaruv pultlari, televizor va kompyuter qoplamalari va h.k.lar hamma hammasi uchun polimerlardan biri–polietilenlardan foydalanilmoqda. Shu o‘rinda plastik idishlarning zararlari ham

katta. Dunyoda eng ko‘p ishlatiladigan plastmassa turi. Bu turdagi plastik og‘ir metallar va gormonal balansga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi moddalarni ajratib chiqaradi. Bu turdagi plastik idishlar faqat bir marta foydalanishga mo‘ljallangan. Plastikning bu turi juda egiluvchan bo‘lib, bir nechta zararli kimyoviy moddalar ajratib chiqarishi bilan ajralib turadi. Odatda, o‘simlik yog’i, bolalar o‘yinchoqlarini saqlashda, mahsulotlarning blisterli upakovkasi, kompyuter kabellari qoplamasi, sug’orish shlanglari va deraza romlarini tayyorlashda ishlatiladi.
Polistirol–kundalik turmushimizda eng ko‘p uchraydigan plastik turi. Undan tez ovqatlanish konteynerlari va qahva stakanlari tayyorlanadi. Sovuq ichimliklar uchun xavfsiz, ammo qizdirilganda xavfli kimyoviy moddalarni ajratib chiqaradi. Polikarbonat–suv uchun butilka va oziq-ovqat konteynerlarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan plastik. Polikarbonat–mavjud plastiklarning eng xavfli turi hisoblanadi. Undan tayyorlangan idish yoki konteynerda ovqatni saqlashga mutlaqo yo‘l qo‘yilmaydi. Plastikning aynan shu turi odamdagi endokrin tizimini buzadigan va estrogen ishlab chiqarilishiga to‘sqinlik qiluvchi o‘ta zararli modda–bisfenol A moddasini ajratib chiqaradi.

Yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda, har bir sohada o‘zining muqobil mahsulotlaridan foydalangan ma’qul. Qanday sohada ishlatilishidan qattiy nazar, ayniqsa oshxona buyumlari sifatida ishlatilayotgan idishlarimizdan ham ehtiyotkorona foydalansak nur ustiga a’lo nur bo‘lardi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kamalova D.I. va b. “Elektronikada kompozitsion materiallar” elektron qo‘llanmasi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi. №DGU 34251. 29.02.2024.
2. Kamalova D.I. Kompozit materiallar. Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining 4-sonli yig’ilishi qarori. Monografiya. 28-noyabr. 2023.
3. Tohirov O‘.O., Mirahmedova D.S., Shamsiyeva Z.S. Texnologiya. 5-sinf. Toshkent. 2020.
4. Sharipov Sh., Qo‘ysinov O., Abdullayeva Q. Texnologiya. 6-sinf. Toshkent. 2017.
5. www.xabar.uz

## KOMPOZIT MATERIALLARINING SANOATDA QO‘LLANILISHI, ULARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

**Umarova Amina Norqul qizi**
**“Texnologik ta’lim” yo‘nalishi 2-kurs talabasi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof. D.Kamalova**

**Annotatsiya:** Bu maqolada kompozit materiallarning sifatini nazorat qilish usullari, xususiyatlari, sanoatda qo‘llanilishi, ularning afzallik va kamchiliklari to‘g‘risida batafsil ma’lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompozit materialar, komponent, aralashma, hajm, korroziya, sifat, usul, tola.

Kompozitsion materiallar–o‘zaro uncha ta’sirlashmaydigan, kimyoviy jihatdan har xil component (aralashma)larning hajmiy birikishidan hosil bo‘ladigan va komponentlar bir-biridan aniq chegara bilan ajralib turadigan materiallardir.
Biz bilamizki, bugungi kunga kelib, bizning hayotimizda barcha sohalarda kompozit materiallardan keng va samarali foydalanilib kelinmoqda. Chunki, minimal og’irlik bilan kompozit material tuzilmalari va mahsulotlari yuqori kuchga ega, korroziyaga uchramaydi va bardoshlidir. Kompozit mahsulotlarining yuqori sifati va ishonchliligini ta’minlash samarali zamonaviy nazorat usullaridan foydalanmaslik mumkin emas. Maqolada polimer kompozit materiallardan tayyorlangan sanoat maqsadlaridagi mahsulotlar sifatini nazorat qilishning asosiy usullari ko‘rib chiqiladi. Sifatni nazorat qilish usullarining afzalliklari va kamchiliklari, mahsulotlarning qayd etilgan parametrlari va ularni qo‘llash sohalari ko‘rib chiqiladi. Kompozit materiallar polimer, metall, uglerod, keramika yoki boshqa asosdan (matritsadan) tashkil topgan, tolalar, mayda zarrachalar va boshqalar bilan mustahkamlangan ko‘p komponentli materiallardir. To‘ldiruvchining tuzilishiga ko‘ra, kompozit materiallar tolali (tolalar bilan mustahkamlangan), qatlamli (plyonkalar, plastinkalar, qatlamli plomba moddalar bilan mustahkamlangan) bo‘ladi. Kompozit materiallardagi matritsa materialining mustahkamligini, plomba moddasida kuchlanishning uzatilishini va taqsimlanishini ta’minlaydi,

issiqlik, namlik, yong'in va kimyoviy qarshilikni aniqlaydi. Matritsa materialining tabiatiga ko'ra polimer, metall, uglerod, keramika va boshqa kompozitlar ajralib turadi.

Kompozit materiallarni ishlab chiqarishdan maqsad nima? Asosiy maqsad–ishlab chiqarishda keng foydalanilayotgan metall va metallmas materiallardan chiqindi sifatida ajralib qolayotgan turli qismlardan (kukun, tola, qirindi, payraha va boshqa) kam chiqindi chiqadigan hamda chiqindi chiqmaydigan zamonaviy mahsulotlar yaratishdir.

Kompozitsion mahsulotlar yaxshi yoki nuqsonli bo'lgan taqdirda, nazorat muqobil asosda amalga oshiriladi, bu sifat nazoratining alohida holatidir. Kompozitlardan tayyorlangan mahsulot sifatini nazorat qilishning u yoki bu usulini tanlash quyidagi omillar bilan belgilanadi:Nazorat qilinadigan mahsulotning jismoniy holati (dielektrik, yarimo'tkazgich, magnit, paramagnit va boshqalar);Nazorat qilinadigan mahsulot strukturasining turi (bir kristalli, polikristalli, qo'pol donali bir jinsli, izotropik, anizotrop va boshqalar); Uzatilgan nurlanish bilan o'zaro ta'sir qilish qobiliyati (zaif yoki kuchli yutilish, zaif yoki kuchli tarqalish va boshqalar); Nazorat qilish metodologiyasi (nazorat operatsiyalarini o'tkazish shartlari);Sinov obyektining o'lchami, konfiguratsiyasi va konstruktiv xususiyatlari (kichik, o'rta, katta, oddiy yoki murakkab shakl, bir yoki ko'p qatlamli va boshqalar);Hal qilinayotgan muammoning turi (defektoskopiya, qalinlikni o'lchash, kuch diagnostikasi, kuchlanish-deformatsiya holatini nazorat qilish, komponent tarkibini nazorat qilish va boshqalar).

Boshqa nazorat usullari bilan solishtirganda, organoleptik va o'lchov nazorati (OIK) oson qo'llanilishi mumkin va nisbatan arzon, chunki u eng oddiy o'lchash asboblari yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, OIK bir qismning ishchi dizayn va texnologik hujjatlar talablariga muvofiqligi (yoki nomuvofiqligi) to'g'risida eng aniq ma'lumotlarning ishonchli manbai hisoblanadi. Kichik ishlab chiqarish korxonalari uchun bu turdagi nazorat ko'pincha umumiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda mumkin bo'lgan yagona nazorat hisoblanadi. Kompozit materiallardan tayyorlangan mahsulotlar sifatini baholashning statistik usullari har bir aniq mahsulot uchun emas, balki butun texnologik jarayonning turli bosqichlarida mahsulot xususiyatlarini baholashga asoslangan nisbatan yangi nazorat vositasidir.

Agar ishlab chiqarish jarayoni barqaror bo'lsa, lekin mahsulot sifati talablarga javob bermasa, unda quyidagilar zarur: Ishlab chiqarish jarayonining o'zini takomillashtirish;Jarayonni yanada barqaror qilish uchun o'zgartirish;Mahsulotga qo'yiladigan talablarni sozlash.

Agar ishlab chiqarish jarayoni nazoratdan chiqib ketgan bo'lsa, bu sodir bo'lgan sabablar va sharoitlarni o'rganish, jarayonni barqarorlashtirish va kerakli sifatli mahsulotni olish choralarini ko'rish kerak. Ularning sifatini nazorat qilish usuli shuni ko'rsatadiki, ma'lum sifatli mahsulotni olish texnologiyasida biror narsa qilish kerak yoki hamma narsa tartibda va hech narsa qilish kerak emas. Mahsulot sifatini statistik baholashning ikkita yondashuvi ishlab chiqilgan: birinchi variantga ko'ra, texnologik jarayonning bosqichlarini aks ettiruvchi va mahsulotlarning barcha boshqariladigan joriy va yakuniy xususiyatlarini qayd etadigan "o'zgaruvchan parametrlarni nazorat qilish jadvallari" tuziladi. Ikkinchi variantga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulotning ma'lum o'ziga xos xususiyatlari uning keyingi foydalanishga mos keladimi yoki yo'qligini aniqlash uchun baholanadi.

Shu bilan birga, har bir bosqichning o'ziga xos nazorat usullari mavjud va barcha sifat nazorati usullari ham afzalliklarga, ham kamchiliklarga ega. Mahsulotlarni ishlab chiqarish (qayta ishlash, tadqiq qilish) va ekspluatatsiya qilish bosqichida buzilmaydigan jismoniy nazorat usullari qo'llaniladi va sifat ko'rsatkichlarining miqdoriy xususiyatlarini (kuch, egiluvchanlik, qattiqlik) aniqlash uchun vayron qiluvchi nazorat usullari qo'llaniladi. Keng miqyosdagi ishlab chiqarishda statistik tanlab olish usullari samarali va foydaliroq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Kamalova D.I. va b. "Elektronikada kompozitsion materiallar" elektron qo'llanmasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi. №DGU 34251. 29.02.2024.

2.Kamalova D.I. Kompozit materiallar. Navoiy davlat pedagogika instituti Kengashining 4-sonli yig'ilishi qarori. Monografiya**.** 28-noyabr. 2023.

3.Aripova M.X., Babaxanova Z.A., Mukhamedbayeva Z.A. “Kompozitsion mareriallar” o‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2019.
4.Троицкий В.А., Карманов М.Н., Троицкая Н.В. “Неразрушающий контроль качества композиционных материалов”. Техническая диагностика и неразрушающий контроль. 2014. С.29-33.
5.www.kompy.info.uz

## USMON NOSIR SHE’RIYATIDA TABIAT VA LIRIK QAHRAMON QALBI TAJASSUMI

**Qodirov Umidjon Lapas o‘g’li**
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**
**Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 4-bosqich talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakili, shoir Usmon Nosir she’riyatidagi tabiat chizgilari, badiiy bo‘yoq va intim tuyg’ular tahlil qilinadi. Ya’ni she’rlari misolida Usmon Nosir his-tuyg‘u kechinmalari tasvirida tabiat lirikasi bilan bog’liqlik jihatlari xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** lirik janrlar, badiiy bo‘yoq, badiiy obraz, ramziy timsol, poeziya, lirika, tabiat lirikasi.

Adabiyot har bir millatning yuragida unutilmas iz qoldiradigan kuchdir. Biror bir millatning adabiyotini uning buyuk shoirlari, yozuvchi va fozil insonlarisiz tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, adabiyotning vazifasi insonlar qalbini va tafakkurini tarbiyalashdan iborat. Har bir davrning o‘z iste’dodlari bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida ham serqirra ijodkorlar talaygina. Jumladan, XX asrda Hamid Olimjon, Usmon Nosir, Zulfiya, G‘afur G‘ulom kabi bir qator taniqli shoirlar yetishib chiqdi. Ular orasida Usmon Nosir ham o‘zining betakror ijodi bilan xalqimiz qalbidan munosib joy oldi. O‘zbek she’riyatiga chaqmoqdek kirib kelgan shoir – Usmon Nosirning o‘ziga xos ijodi, lirikasi xususida fikr yuritamiz. Usmon Nosir she’riyatida lirika ustun turadi. Lirik janrlarga xos bo‘lgan uslub, yangi ovozni darhol payqaysiz. Buni ko‘pgina she’rlarida ko‘rsak bo‘ladi (“Bolaligimga”, “Nil va Rim”, “Bog‘im”) Bu she’rlarning sof ko‘ngildan zo‘r ilhom bilan yozilganligini, ushbu she’rlarni o‘qigachgina his qilishingiz mumkin. “Yana she’rimga” she’rida “Bir men emas, hayot shaxsisan”–deb she’riga murojaat qiladi. Demak, she’r faqat birgina shoirning mulki emas, u butun dunyoga, butun bashariyatga tegishlidir. She’rning davomini o‘qir ekanmiz, quyidagi satr beixtiyor o‘ziga chorlaydi va o‘ylantiradi: “O‘t bo‘lurmi ishqi yo‘q tanda?”–deya o‘ziga bergan savoli ichida aslida javobi ham borki, “muhabbatsiz qalb haroratsiz tana kabidir”–, degan poetik idrokini namoyon qiladi.

Usmon Nosir she’rlarida davr voqeligi oshkor tarzda tilga olinadi:

Otam o‘ldi–men sarson bo‘ldim,
“Shum yetim” deb so‘kdilar meni.
Ajab kunga mubtalo bo‘ldim,
Ko‘chalarga quvdilar meni.

“Qora satrlar” she’rining lirik qahramoni o‘ksik qalb sohibi yanglig’ nido qiladi. Iztirob va achchiq qismatga alamzadalikni ifoda etadi. Garchand ushbu satrlarda tashbehlar qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, biroq hayot voqeligining aniq tafsiliga shohid qiladi, lirik subyektning dardini, qalbini his qildiradi. Chunki “Qora satrlar” yozilgan bolalik chog’lari yosh Usmonning onasi Xolambibi Rohatxonga homilador bo‘lgan va Usmonjon ham o‘gay ota qo‘lida tarbiya ko‘rgan kezlari edi. O‘gay otasi ham onasiga, ham Usmonjonga zug‘um o‘tkazadi. Bu esa ezilgan oila ustidan g‘am-anduhning ortishiga sabab bo‘ladi. Taqdir mushtlarini yosh ko‘zlari bilan ko‘rgan va yosh yuragida og‘riq qoldirayotgan Usmon Nosir qalbi adabiyotning maftunkor badiiy olami yaqin do‘st kabi o‘ziga tortgan desak, o‘rinli bo‘lar.

Shoir she’riyati kitobxon ruhiyatiga badiiy zavq-u joziba ulashibgina qolmasdan, nafis tuyg‘ularni yog‘du ziyosidek qalbimiz uzra taralib ketadi. Ayniqsa, tabiat lirikasi timsollari vositasida ichki olamining qiyofasi ruhimizda gavdalanadi:

Bargdek uzilib ketsam,

Unutmas meni bog‘im.
Ishimni hurmat qilur,
Gullardan haykal qurur,
Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog‘im.

“Bog‘im” she’ridagi tilga olingan bog‘ qanday bog‘ni anglatmoqda? She’r muallifi bog‘ tasvirida ramziylikka amal qilmoqdami? Albatta, bu bog‘ Vatan timsoli. Vatan dardida yonib kuylagan shoir unutilmaydi. Soxta vajlar bilan uzoq Sibirga surgun qilingan shoir o‘z Vatanining suyukli farzandi, demakki, shoir shu muhabbati izhori ila farzandlik burchini ado etdi.

Shoir ijodini lirik manzumalar bilan birga epik dostonlar ham tashkil qiladi. “Naxshon” dostoni sujet va kompozitsiyasi jihatidan pishiq, janr tabiatiga mos, mazmunan lirizmga monand yozilgan. Dostonda tasvir etilgan obraz–yor timsolining badiiy portretini chizganini o‘qib maftun bo‘lib qolasiz:

O, dilbar,Siymbarim, yuzlari qirmiz,
Kiprigi ko‘ksiga Soya solgan qiz,
Ko‘z tutdim,Yuragim to‘la qon bo‘ldi.

Kipriklari shu qadar uzun dilbarki, ko‘ksiga soya solgan qizning husni shoirning ko‘zlarini uning yo‘liga bog‘lab qo‘yadi. Balki bu malak shaklidagi ayoldir? Nima bo‘lganda ham shoir chizgan chizgilarning, badiiy bo‘yoqning rangdorligiga tan beramiz. Yurakning qon bo‘lishi nedan deb o‘ylaysiz? Bu qonga to‘lgan yurakda birgina yor visoliga yetolmay yurgan oshiq hasrati emas, balki butun bir millatning hasrati, o‘y-orzulari ham tajassumdir. Dostonni o‘qigan kitobxon intim tuyg‘ular, muhabbatga oshufta qalblar taqdiriga guvoh bo‘ladi. Shuningdek, tabiat chizgilari bilan ajib manzara yaratadi.*“Tog‘ boshida kunning qonli etagi, yig‘lar o‘ngirlarda mungli shalola*”–, degan misralari ulug‘vor tog‘lar tomon botayotgan quyoshdan nur olgan ufqning qizg‘ish tusini rassomona tasvirlaydi. Ayni shu damda shalolaning shildiragan kuyi eshilishi, kitobxon quloqlarida jonlanadi. She’rdagi “o‘ngir” so‘zi adabiy tilimizda o‘yilgan, chuqur joyni bildiradi. Shoir aytmoqchiki, tepadan quyilib kelayotgan shalolaning o‘yiq joyga yetganida ovozi ham o‘zgarishi *mungli va g‘amgin kuyi* tasavvurimizga keladi.

She’riyat insonni doim ezgulikka, yaxshilikka chorlaydi, biror bir ta’sirchan she’rni eshitsak, yohud o‘qisak, bahr-u dilimiz ochiladi. Usmon Nosir she’rlari ham insonga ana shunday zavq-u shavq beradi. Goh g‘amgin chizgilar orqali yig‘latadi. Yoki quvnoq she’rlari orqali (“Yur tog‘larga chiqaylik…”) yoshlik paytlarga yetaklaydi.

Xulosa o‘rnida aytmoqchimizki, Usmon Nosir ijodi o‘lmas g‘oyalar kurashiga chorlasa, boshqa jihatdan yurak torlarimizga turlicha his-tuyg‘ularni jo‘nbishga keltiradi. Shoir yozgan she’rlari nafaqat bashariyatga, balki uning taqdiriga ham ta’sir etgani, kelajakni ko‘rish qobiliyati orqali insoniyat oldida turgan voqea-hodisalarni anglatmoqchi bo‘lganini ko‘ramiz. She’rlarida yoniq ruh, fikr va tuyg‘u tabiatga bo‘lgan mehr she’riyatining betakror o‘ziga xosligidan dalolat beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Usmon Nosir jadid adabiyoti namoyondalari turkumidan. -Toshkent: Zabarjad media, 2022.- B. 61.
2. Karimov N. “Usmon Nosir”. – T.: “Sharq”., 1993. –B. 23.
3. Usmon Nosir. “Yur, tog’larga chiqaylik”.–T.: “Yosh gvardiya”,1984.– B. 22.
4. Begmatov E., Madvaliyev A., Maxkamov N. “O‘zbek tilining izohli lug’ati”. O‘zFA- Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institute, – B. 156.
5. Uz.m.wikipedia.org // https://uz.m.wikipedia.org. wiki
6. Ziyouz.com kutubxonasi (barcha kitoblar) // https://www.ziyouz.com. Kutubxona


# ZAMONAVIY TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA XALQARO PEDAGOGIK INTEGRATSION HAMKORLIKNING AHAMIYATI


**2-kurs talabasi: Otaqulova Gulzoda Faxriddin qizi**
**Assistant: Jahongirbek Ung’arov Yo‘ldosh o‘g’li, Jizzax Politexnika instituti**

**Annotatsiya.** Maqolada bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik integratsion hamkorikning ahamiyati Yevropada tashkil qilingan “Boloniya kelishuvi” asosida misolida aniq ko‘rsatib o‘tilgan va Respublikamizda bu yo‘nalishda qilinayotgan ishlar ham keltirilgan.
**Kalit so‘zlar:** fanlararo integratsiya, xalqaro hamkorlik, ta’lim sifati, Boloniya kelishuvi, kredit tizimi, baholash mezoni, Binar dars, Vebinar, kredit modul, masofaviy ta’lim, online ta’lim, bilim, ko‘nikma, didaktika, yondashuv, dialektika.
**Аннотация.** В настоящей статье четко отображается значимость международного педагогического интеграционного сотрудничества в повышении качества образования на сегодняшний день на основе «Болонского соглашения» организованного в Европе, а также приведены работы, выполняемые в нашей республике по данному направлению.
**Ключевые слова:** междисциплинарная интеграция, международное сотрудничество, качество образования, Болонское соглашение, кредитная система, критерий оценки, бинарный урок, вебинар, кредитный модуль, дистанционное образование, онлайн образование, знание, навыки, дидактика, подход, диалектика.
**Abstract.** In this article it’s clearly reflected importance of international pedagogical integration cooperation in improving the quality of education for nowadays on the basis of the “Bologna Agreement” organized in Europe, as well as the work performed in our republic in this direction.
**Keywords:** interdisciplinary integration, international cooperation, quality of education, Bologna Agreement, credit system, assessment criteria, binary lesson, webinar, credit module, distance education, online education, knowledge, skills, didactics, approach, dialectics.
Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikka erishgandan so‘ng jahonda o‘z obro‘yini oshirish uchun jahon andozalari talabiga javob beradigan mahsulotlar va milliy kadrlar tayyorlash masalasiga katta e’tibor berishmoqda. Shuning uchun xalq xo‘jaligining barcha sohalarida, jumladan ta’lim sohasida ham islohotlar o‘tkazildi va o‘tkazilmoqda. Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan va rahbarligida ta’lim sifatini oshirishga bag‘ishlangan ko‘plab qonunlar, qarorlar, farmoyishlar va buyruqlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda. Misol sifatida, yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni yoki 2019-yil 17-iyundagi Prezidentimizning “2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini olishimiz mumkin. Ushbu qarorda 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab universitet miqyosida kredit modul tizimi joriy qilish nazarda tutilgan. Xuddi shuningdek Davlatimiz rahbari farmoni asosida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham kredit modul tizimi joriy etilgan OTMlar sonini bosqichma bosqich oshirib borish belgilangan.
Bugungi kunda dunyodagi barcha mamalakatlarning ta’lim tizimi o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda va ana shu maqsadda har xil davlat va nodavlat ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shunday ta’lim tizimlaridan biri Yevropada 48 ta mamlakat ishtirok etadigan “Boloniya kelishuvi” yoki “Boloniya jarayoni” ta’lim tizimidir.
Ushbu maqolada biz ta’lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik tadqiqotlarning ahamiyatini oliy ta’limda xalqaro integratsiyalashuv misolida ko‘rib o‘tamiz. Ma’lumki, Bolonya kelishuvi yagona oliy ta’lim maqomini yaratishga qaratilgan bo‘lib, Yevropa mamlakatlari o‘quv yurtlarini bir-biriga uyg‘unlashtirish, umumyevropa mehnat bozori uchun yetuk mutaxassislar tayyorlash, talabaga esa xalqaro ta’limga to‘siqlarsiz kirish imkonini yaratadi. Bolonya deklaratsiyasi 1999-yilda 29 ta mamlakat vakili tomonidan imzolangan bo‘lsa, hozirgi vaqtda 48 ta davlat ushbu jarayon ishtirokchisi hisoblanadi. Qayd etish o‘rinliki, Bolonya jarayoniga qo‘shilish umumiy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning xalqaro miqyosda tan olinishi yo‘lidagi muhim qadamdir. Chunki oliy o‘quv yurtlarida kadrlar tayyorlanishini ilg‘or xalqaro standartlar asosida yo‘lga qo‘yishi maqsadida o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich kredit–modul tizimini joriy etish davr talabi bo‘lib kelmoqda. Bolonya jarayoniga kirish milliy oliy ta’lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki bunda oliy ta’lim to‘g‘risidagi umumyevropa diplom ilovasi joriy qilinadi. Kreditlarni o‘tkazish va jamg‘arishning Yevropa tizimi (ECTS–European Credit Transfer and Accumlation System), ya’ni talabalar o‘zlashtirgan bilim va malakalarni hisobga olishning

umumyevropa tizimiga oʻtiladi. Talabalar bilimini nazorat qilish uchun yagona umumyevropa baholash mezonlari qoʻllaniladi va oʻqitish sifati yaxshilanadi, ekvivalent taʼlim dasturlari, akademik darajalar joriy qilinadi. Fan, taʼlim va ishlab chiqarish integratsiyasi kuchayadi.

Modulli oʻqitish texnologiyasini qoʻllashning yana bir xususiyati shundan iboratki, talaba bir modulni oʻzlashtirmasdan ikkinchisiga oʻta olmaydi. Bu esa taʼlim dasturining kafolatli oʻzlashtirilishini taʼminlaydi. Oʻquv modullarini tuzishda koʻp hollarda ish beruvchilar ham jalb qilinadilar. Ular modulli taʼlim dasturlariga tanlov fanlarini kiritish boʻyicha oʻz takliflarini beradi .

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, kredit-modul tizimi modul koʻrinishida shakllantirgan fan bloklarini toʻliq oʻzlashtirish orqali kreditlar yigʻib borishga asoslangan tizim.

Kredit-modul tizimida oʻqituvchining yagona bilim manbasi sifatidagi roli kamayadi, talaba oʻquv jarayoni markaziga koʻchadi. Taʼlim sifatini oshirish, oʻqituvchilarda yangi koʻnikmalarini shakllantirishga eʼtibor qaratiladi. Taʼlim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talabalarning mustaqil ravishda bilim olish madaniyatini shakllantirish masalalari dolzarb boʻladi. Darslar sifatini oshirish talabi zamonaviy uslublardan foydalanishga ehtiyojni oshiradi. Bolonya kelishuvi taʼlim tizimining ijobiy xususiyatlaridan biri undagi binar va Vebinar darslarning mavjudligidir.

**Binar** dars deganda, muayyan mavzuning ikki oʻqituvchi yoki oʻqituvchi va bir amaliy soha vakili tomonidan hamkorlikda oʻtilishi tushuniladi. Bunda dars beruvchilar nafaqat oʻzaro, balki auditoriya bilan ham muloqatda boʻlib, mavzuning har tomonlama koʻrib chiqilishiga imkon yaratiladi. Binar darslar muqobil fikrlarning bayon etilishi, bahs-munozara yuritishning odobi shakllanishi, maʼlumotni faolroq qabul qilishga yoʻl ochishi nuqtai nazaridan samarali pedagogik uslubdir.

**Vebinar** esa dars, maslahat, suhbat, taqdimot jarayonlarining internet orqali onlayn ravishda oʻtkazilishidir. Uning asosiy xususiyati interfaollik boʻlib, real vaqt rejimida oʻzaro maʼlumot almashish, uni tahlil qilish va qayta ishlash mumkin.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Oʻzbekistonda ham Bolonya jarayonining ayrim shartlari bajarilgan. Misol uchun, bakalavriat va magistraturadan iborat ikki bosqichli oliy taʼlim tizimiga oʻtilgan. Navbatdagi bosqichda kreditlar toʻplash va koʻchirishning Yevropa tizimini qoʻllash qoidalari, talabalar, pedagog va maʼmuriy xodimlar harakatchanligini amalga oshirish mexanizmlari, milliy hamda tarmoq malaka tizimlari (kvalifikatsiya raqamlari) ishlab chiqilmoqda.

Taʼlim sohasining ekspertlari Oʻzbekistonning Bolonya jarayoniga qoʻshilishini ijobiy baholab, u milliy oliy taʼlim tizimining jahon amaliyoti bilan uygʻun rivojlanishi hamda kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qilishini taʼkidlashmoqda. Shuningdek, bu yurtimizda bir qator masalalarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin .

Jumladan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablariga mos kadrlar tayyorlash, yoshlarning Yevropa taʼlimiga kirib borishlarini yengillashtirish va milliy taʼlim tizimlarini oʻzaro yaqinlashtirish, xalqaro taʼlim maqomida mutaxassislar tayyorlash darajasini tenglashtirish, kredit tizimini joriy qilish va talabalar diplomiga umumyevropa namunasidagi ilovalarni berish, oliy taʼlim sohasidagi faoliyatini davlatlararo muvofiqlashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, taʼlimning yangi sifat darajasiga oʻtish, uning samaradorligini oshirish va taʼlim olishni osonlashtirish, shuningdek, akademik birdamlik va oʻzaro yordam asosida ilmiy maktablar hamda taʼlim tizimlari oʻrtasidagi raqobatni ragʻbatlantirish shular sirasidan.Eʼtirof qilish kerakki, mamlakatimizda taʼlim-tarbiya tizimini yangi bosqichga koʻtarish, oliy malakali kadrlar tayyorlash sifatini ilgʻor xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy taʼlim bilan qamrov darajasini oshirish borasida hayotga tatbiq etilayotgan izchil islohotlar Oʻzbekistonni Bolonya kelishuviga qadamma-qadam yaqinlashtirmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan oliy taʼlim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlarda oʻqitishning kredit-modul texnologiyasini joriy qilishga alohida eʼtibor qaratilayotgani soʻzimiz isbotidir. Ushbu davrda til oʻrganish dasturlari, virtual rahbarlik, video konferensiya ishlanmalariga talab keskin oshdi. Maʼlumotlarga koʻra, 2019-yilning oʻzida taʼlimning texnik taʼminotiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar jahon boʻyicha 18,7 milliard AQSH dollarini tashkil etgan boʻlsa, onlayn taʼlim bozorining 2025-yilga borib 350 milliard AQSH dollariga yetishi taxmin qilinmoqda. Tadqiqotlar,

talabalar onlayn ta'lim olganlarida auditoriyadagi ta'limga nisbatan 25-60 % ko'proq materialni o'zlashtira olganliklarini, buning uchun 40-60 % kamroq vaqt sarflaganlarini ko'rsatmoqda. Chunki ta'limning ushbu turida talaba o'z ta'lim tartibini o'zi shakllantirishi, ma'lumotlarni o'ziga ma'qul sharoitda o'zlashtirishi mumkin bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar izchil hayotga tadbiq etib kelinayotgan mamlakatimizning oliygohlarida yurtga tayanch va suyanch bo'ladigan, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida mehnat qiladigan salohiyatli yoshlarni tayyorlashda xalqaro integratsion ta'limning roli kundan-kunga oshib bormoqda. Demak, ta'lim sifatini oshirishda xalqaro pedagogik hamkorlikning ahamiyati juda katta, chunki bu hamkorlikning hammasini natijalari integratsiyalanib ta'lim sohasiga qo'llanilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori.
2. Abdullayeva B. S. " Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari". Ped. fan. dok. dis.–Toshkent., Uz PFITI. 2006.-164 b.
3. A. Xasanov, Sh. O'roqova. Ta'lim tizimida fanlararo integratsiya. Kasb hunar ta'limi. 2019. №2; 39-42 betlar
4. D. Baxritdinova. Texnologiya fanlari samaradorligini oshirishda integratsiyaning ahamiyati. Kasb hunar ta'limi. 2019. №2; 36-38 betlar.
5. Otabayeva F. T. Ta'limda integratsiya muammosi//Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2008. №2. – B. 25.


## KONIMEX TUMANIDAGI URAZJON QISHLOG'I QOZOQ SHEVASI


**Juldiz Nazarova,**
**NavDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi**
**Ilmiy rahbar:dots. Navro'z Raxmonov**


Ma'lumki, keyingi yillarda hududiy fanlar qatorida jahon ilm-fanida areal tilshunoslik fani vujudga keldi va shakllanib bormoqda. Dunyo tilshunosligida areal lingvistika atamasi italyan tilshunoslarining neolingvistik ta'limotlari, lingvistik geografiya hamda til ittifoqlari ta'limotlari bilan bog'lab o'rganilgan[107]. O'zbekistonda ham areal lingvistikaning tadbiqiy yo'nalishlarida N.Murodova, I.Darvishov, N.Raxmonovlarning tadqiqotlari mavjud [108]. N.Murodova, N.Raxmonovlar Navoiy viloyati o'zbek shevalarining, I.Darvishov esa Namangan fokus nuqtasiga kirgan dialektal zonaning xaritalarini tuzib, lisoniy hodisalarning hududiy talqini xususida ilmiy xulosalar chiqarishdi. Navoiy viloyati ko'p tilli hududlardan sanalib, viloyatda qozoqcha-o'zbekcha, qoraqalpoqcha-o'zbekcha, tojikcha-o'zbekcha ikki tillilik mavjud. Tabiiyki, bu jarayon hududiy qo'shni bo'lgan tillarning o'zaro assimilatsiyasiga, aralashuviga sabab bo'ladi. Natijada dominanta tilning ta'sirida dominion tilning lug'at tarkibida o'zgarishlar yuz beradi: dominanta tildan so'zlar o'zlashib, mavjud so'zlar o'rnini sekin-asta egallaydi. Shu jihatdan Konimex tumani Urazjon qishlog'ida yashovchi qozoqlar shevalarini areal jihatdan o'rganish zarurati yuzaga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, qozoq millati faqat Qozog'istondagina yashamasdan dunyoning turli davlatlarida istiqomat qiladi. Shu o'rinda O'zbekistonda ham juda ko'p qozoq millati yashaydi. O'zbekistonda va Qozog'istonda yashaydigan qozoqlarning tillarida mavjud so'zlarni qiyoslash asosida tushunchalarning nomlanishida tamoman farqli jihatlarni uchratish mumkin. Jumladan, qozoq adabiy tilidagi *уй, жануя, тандыр, кесе, леген, кепсер, токаш, жуа, картоп, кызанак, конак, оттык, колшатыр, теледидар, арба, орамжапырак,айыр, мысык, кап, мойын шалгы, жумыртка, бал, агаш, шуак* singari so'zlar Konimex tumani Urazjon qishlog'ida yashovchi qozoqlar shevasida umuman boshqacha nomlanadi: *уй-там, жануя-семья, тандыр-тунер, кесе-пиала, леген-табак, кепсер-кекпір, токаш-бауырсак, жуа-пияз, картоп-карточка, кызанак-*

[107] Bu haqda qarang: N.Murodova, N.Yarasheva. Areal lingvistika. –Toshkent, 2023. –B.28.
[108] S.Ashirboyev. Areal lingvistika. –Toshkent, 2023. –B.132

*помидор конак-мейман, оттык-кукірт, колшатыр-зонтик, теледидар-телевизор, ушак-самолёт, арба галтек, орамжапырак-капуста, айыр-шака, мысык-пішек, кап-калта, жумыртка-тукым, мойын шалгы-шарф, бал-асал, ага-дарак, шуак-аптап* kabi. Hudud qozoq shevalarida boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar faol. Qozoq shevamizda ishlatiladigan: *tuner, piala, kekpir, piyaz, meyman, kukirt, g'altek, shaqa, pishek, qalta, sharf, tuxum, asal, daraq, aptap* kabi so'zlari aslida tojik tiliga mansub bo'lib, o'zbek tili orqali hudud qozoq shevalariga kirib kelgan. Shu bilan birga, hudud qozoq shevalarida singarmonizm kuchli saqlangan. Masalan: *vaqt-уакыт, o'ttiz-отыз, qush-кус, yigirma-жиырма, olim-галым, yetmish-жетпіс, sigir-сиыр, ilm-гылым, idish-ыдыс, yaproq-жапырак, yostiq-жастык, yulduz-жулдыз, uzuk-жузік, ip-жіп, yuz-жуз, ko'cha-коше, ukki-укі, o'g'il-ул, burchak-бурыш* kabi. O'zbek adabiy tilidagi *"supurgi"* so'zi qozoq adabiy tilida *sipirgish (сыпыргыш),* biroq tadqiq etilayotgan shevada esa "jorap", "sipirgi", "shipirg'i" shakllarida qo'llanadi. Hudud qozoq shevalarida "семья", "зонтик", "капуста", "самолёт", "телевизор", "карточка", "помидор" kabi rus tilidan kirib kelgan so'zlar ham faol uchraydi. Urazjon qishlog'i masofa jihatdan Nurota tumani G'azg'on shahriga yaqin hududda joylashgan. Ma'lumki, G'azg'on aholisi tojik tilida so'zlashadi. Qishloq aholisi G'azg'onga turli maqsadlarda borib-kelishadi. Hududlararo o'zaro savdo, madaniy, ijtimoiy aloqalar natijasida hudud qozoq shevalariga tojik tilining bevosita ta'siri katta. Hudud shevalarini tizimli va hududi jihatdan tillarning o'zaro aloqasi fonida talqin etish va ilmiy xulosalar chiqarish kelgusidagi tadqiqot ishlarimizga turtki beradi.

## TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISHDA "MASNAVIYI MA'NAVIY" HIKOYALARIDAN FOYDALANISH

**Usmonova Oydin Sherali qizi**
**Buxoro davlat pedagogika instituti I-bosqich tayanch doktoranti**
**Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna**
**Pedagogika fanlari doktori, professor**

**Annotatsiya.** Talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda, ularning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida shaxsiy va akademik qobiliyatlarini ayniqsa tanqidiy fikrlashini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida bo'lib qolmoqda. Quyidagi maqolada jahonga mashhur "Masnaviyi ma'naviy" hikoyalaridan unumli foydalangan holda talabalarning tanqidiy fikrlashini takomillashtirishning usullari yoritib o'tilgan.
**Kalit so'zlar**: tanqidiy fikrlash, gumanistik g'oyalar, progress, kreativlik, mafkuraviy immunitet.
**Аннотация:** Совершенствование личностных и академических навыков студентов в развитии их знаний, умений и навыков, развитие их как зрелых специалистов в будущем, особенно критического мышления, остается педагогической проблемой. В следующей статье описаны способы улучшения критического мышления учащихся с помощью всемирно известных рассказов «Маснави Маьнави».
**Ключевые слова:** критическое мышление, гуманистические идеи, прогресс, творчество, идеологический иммунитет.
**Annotation**: Improvement of students' personal and academic skills in developing their knowledge, skills and abilities, and their development as mature specialists in the future, especially critical thinking, remains a pedagogical problem. The following article describes ways to improve students' critical thinking by using the world-famous "Masnaviyi Manavi" stories.
**Keywords**: critical thinking, humanistic ideas, progress, creativity, ideological immunity

Bugungi kunda har bir sohaga e'tibor va talab kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasida bu shiddat bilan rivojlanmoqda desam xato bo'lmaydi. Zamonamiz pedagog-olimlari ta'lim jarayonini rivojlantirishning ustuvor vazifasi etib ta'lim oluvchilarni har taraflama takomillashtirish etib belgilashmoqda. Ularni shaxsiy qobiliyatlari, individual xususiyatlari, qiziqish va mayllarini inobatga olgan holda bilim berish, yutuqlarini rag'batlantirib kamchiliklarini korreksiyalash, ta'lim olishlari uchun stimul berish biz pedagoglarning oldimizda turgan asosiy vazifamiz hisoblanadi. Jahon pedagogikasida so'nggi yillarda ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlashini takomillashtirish ustida bir qancha nazariy ish va amaliy tajribalar olib borilmoqda.

Talabalarning tanqidiy fikrlashini takomillashtirishda buyuk mutasavvuf, faylasuf Mavlono Jaloliddin Rumiyning shoh asari-“Masnaviyi ma’navi” hikoyalaridan foydalanish bu mavzuning yangicha va innovatsion yechimi bo‘ladi. Ushbu asar Sharq didaktik asarlari ichida juda mashhur hisoblanib o‘ziga xos pozitsiyaga egadir. Asar o‘z davrida xalqchil ruhda va tushunarli tarzda, chuqur falsafiy mushohadaga boy hikoyalarini masnaviy janrida bitilganligi tahsinga sazovor bo‘lib 7-asrdan oshibdiki hali hanuz o‘zining mohiyatini yo‘qotmagan nodir asar hisoblanadi. Rumiyning “Masnaviy”si 6-tomdan iborat bo‘lib, hayotning barcha sohalarini qamrab olgan kitob. *Birinchi kitobda* “G‘ilay shogird”, “Mehmon”, “To‘tiqush”, “Keksa cholg‘uchi”, “Ko‘ngil oynasi”, “Darvesh va muttaham xizmatchi”, “Xalifa va Layli”, “Bir ko‘za suv”, “Men-u biz” kabi ko‘plab hikoyatlar keltirilib, unda insonning ma’naviy-axloqiy qarashlari va iymon-e’tiqodining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

*Uyqu- bedorlik bilimlar birla hoy,*
*Kechsa nodon birla, bedorlikka voy.*

Asarning *Ikkinchi kitobida* “Podshoning lochini”, “Xalvo”, “So‘qir ko‘zlar”, “Hayoldagi hilol”, “Iysoning hamrohi”, “Mardum malomati”, “Bir muflis kishi” kabi bir qator hikoyatlar keltirilib unda Sharq didaktikasining nafasi ufurib turadi. Hikoyatlarda ustoz va shogird, ota-ona, do‘stlik, ota va farzand munosabatlarida insonparvarlik, saxovatpeshalik, javonmardlik, rostgo‘ylik kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

*Masnaviy nazmida yuz berdi sukut,*
*Vaqt lozim qondin ayrilguncha sut.*

“Masnaviy”ning *uchinchi kitobida* esa “Lofchining jazosi” “Nafsga band abo‘lgan kishi”, “Vahimaga tushgan ustoz”, “Filning shaklu shamoyili”, “Xachir va tuya” kabi hikoyatlar keltiriladi. Asarning ushbu qismida shaxs kamolotidagi to‘siq bo‘luvchi illatlar ya’ni takabburlik, havoyi nafs, badjahllik, yolg‘onchilik, manmanlik, riyo, xasad kabilar qattiq qoralanib, har bir hikoyatdan so‘ng falsafiy sharhlar beriladi.

*Siz meni afsona vayo ertak bildingiz,*
*Muncha kufru muncha ig‘vo etdingiz.*
*Har nafas yodimdadir pandi Hakim,*
*Ta’nalarga also parvo etmagum.*

*To‘rtinchi kitobda* “Voiz”, “Xushbo‘y hidlar”, “Benomus ayol”, “Qaltis harakat”, “Musoning tushi” kabi hikoyatlarda insonning ruhiy-ma’naviy yetukligiga sabab bo‘luvchi omillar sanab o‘tiladi, kelajak avlod va farzandlar uchun chin meros bu-bizning ulkan ma’naviy salohiyatimiz va chin insoniy xislatlarimiz deya e’tirof etiladi.

“Masnaviy”ning *beshinchi kitobi* inson inson ma’naviy-axloqiy shakllanishining beshinchi oliy qadami bo‘lib, o‘zidagi yomon xususiyatlardan qutulib, kamolot yo‘lini tanlashi haqida so‘z boradi. Kitobda “Fe’ldagi farqlar”, “Tush”, “Nafs”, “Payg‘ambarlikni da’vo qilgan kimsa’’, “Ma’shuqning imtihoni”, “majnun voqeasi” hikoyalari o‘rin olgan bo‘lib, ulardagi bosh g‘oya biz yashab turgan olam ya’ni xayotning o‘zi aslida haqiqiy ustoz, undagi darslar inson hayoti mobaynida davom etadi,imtihon esa bu darslarni to‘liq o‘zlashtirib,xato va kamchiliklarni vaqtida tuzatish demakdir.

“Masnaviy”ning *oltinchi kitobi* insonning o‘z-o‘zini anglashi, tarbiyat etishi, qalbini xastaliklardan tamoman tozalab, poklashi qisqa qilib aytganda komillikka erishishi haqida fikr yuritiladi. Asarning bu qismida “Darveshning duosi”, “Shum kampir”, “Sham”, “Daraxtdagi qush”, “Sarmast shox va cholg‘uchi” hikoyatlarida yuqoridagi fikrimiz o‘zining isbotini topadi.

*Boqma sen suratgakim, ul masnaviy*
*Boq o‘shal siyratga, ulkim ma’naviy.*

Deya asarni tamomlaydi. Yuqoridagi baytda suratga qarab masnaviy dema sen siyratga boq chin ma’naviyatni ko‘rasan deya kitobxonga murojaat qiladi. Asarda hayotdagi voqealar,kishining xarakter-xususiyati ba’zan hayvonlarga qiyoslansa, ba’zan to‘qima obrazlar uchraydi lekin,bo‘rtma tasvirga duch kelmaymiz. Ushbu asarni o‘qigan har bir kitobxonning qalb ko‘zi ochiladi, dunyoga qarashi o‘zgaradi, o‘zining kamchiliklarini ko‘ra boshlaydi, taftish qiladi, shaxsiy qobiliyatlarini aniqlab uni rivojlantiradi, qolaversa har bir hikoyatdagi berilgan vaziyatlarga o‘zining mustaqil munosabatini beradi, qahramonlarni voqea va hodisalarni tahlil qila oladi. Mushohada qilsak, chin

tanqidiy fikrlash ham aslida shudir. Mavlononing ushbu asari ko'plab ilmiy tadqiqotlarga debocha vazifasini o'taydi va shuning bilan birgalikda bugungi juda ko'plab dolzarb pedagogik muammolarning yechimida dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. SH. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 2021 yil.
2. Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadur. Falsafiy-ma'rifiy nashr /Ulug'bek Hamdam tarj. – T.: Yangi asr avlodi, 2003. – 200 b.
3. Fish Radiy. Jaloliddin Rumiy. Tarixiy biografik roman /Ruschadan Ж.Камол tarj. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – 272b.
4. Izbullayeva G.V. Jaloliddin Rumiy asarlarida yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasi / Mas'ul muharir S.S.Bulatov. – Toshkent: Fan, 2015. – 208 b.
5. Rumiy Jaloliddin. Ma'naviy masnaviy. Kulliyot J.1. K.2. /(Tarjima sharhi bilan. Tarjimon Asqar Mahkam. Mas'ul muharrir H. Ҳомидий.) – T.: "Yangi asr avlodi", 2007. – 274 b.
6. Rumiy,Jaloliddin. Masnaviy hikoyatlariga sharhlar.Naynoma. Masnaviy hikmatlari/Jaloliddin Rumiy; A.Tilavov.- T.:"Muharrir" nashriyoti, 2011.-404b


## TRANSPORT SOHASIDA XIZMATLAR TASNIFI VA ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI


**Utepbergenov Allambergen Omirbayevich,**
**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti**
**Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi**



**Annotatsiya:** Temir yo'l transporti zamonaviy iqtisodiyotning asosidir. Va uning ma'nosi shundaki, u bozor munosabatlarining ob'ekti bo'lib, uning samarali ishlashi barcha xizmatlar va boshqa iqtisodiy, xo'jalik, korporativ va murakkab sub'ektlarning ishlashi va rivojlanishiga bog'liqdir.



**Kalit so'zlari:** temir yo'llar, temir yo'l transporti, transport kompaniyasi, transport jarayonlari, infratuzilma.



**Резюме:** Железнодорожный транспорт является фундаментом современной экономики. В этом значении он выступает как объект рыночных отношений, от эффективной деятельности которого зависит функционирование и развитие всех обслуживаемых им отраслей экономики, предприятий, их объединений и комплексов.



**Ключевые слова:** железные дороги, железнодорожный транспорт, транспортная компания, перевозочные процессы, инфраструктура



**Summary:** Railway transport is the foundation of modern economy. In this sense, it acts as an object of market relations, the efficient operation of which determines the functioning and development of all the economic sectors, enterprises, their associations and complexes served by it.



**Key words:** railways, railway, railway transport, transport company, transport processes, infrastructure


Globallashuv jarayonida transport infratuzilmasining ahamiyati ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda integratsiyalashgan transport tizimini samarali tashkil etish barcha tarmoqlar, jumladan, real sektor va ijtimoiy sektorning rivojlanishiga tarkibiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois xalqaro yuk tashishni takomillashtirish, transport infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqarish uchun zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega [1.3]. Transport ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda hal qiluvchi moment uning kirish va chiqish ma'lumotlari uchun zarur bo'lgan xususiyatlarning aniq ifodasidir. Transport ishlab chiqarish natijalarining ko'rsatkichlari transportning hajmli ko'rsatkichlari va transport mahsulotining sifat ko'rsatkichlarining bajarilishi, iste'molchilarning qoniqish darajasi yoki qondirilmagan talab darajasi va pirovardida, ishlab chiqarish natijasida olingan iqtisodiy samaraning hajmini o'z ichiga oladi. transport ishlab chiqarish jarayoni[2.7]. SWOT tahlili ushbu muammoni o'rganish uchun ekspert usuli, ya'ni stsenariy usuli yordamida amalga oshirildi. Stsenariy usuli, qaror qabul qilishda vaziyatli yondashuvni amalga oshirishning mumkin bo'lgan usullaridan biri sifatida, korxonaning ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qabul

qilingan qarorlarning mazmuni bilan belgilanadigan maqsadlarni prognozlashga qat’iy yo‘naltirilgan[3.6]. SWOT jadvalidagi xarakteristikalar A.A. tomonidan taklif qilingan xususiyatlar to‘plamiga asoslanadi. Tompson va A.J. Striklend [5.109], ammo o‘rganilayotgan ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlarini, tahlil predmetini va atrof-muhit sharoitlarini hisobga olgan holda yanada kengaytirilgan va to‘ldirilgan. Bundan tashqari, SWOT jadvali qo‘shimcha ravishda ekspert reytinglari bilan ta’minlangan. Ushbu tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq holda ishlab chiqilgan SWOT jadvali 1-jadvalda keltirilgan. Ekspert baholash ushbu tahlil usulini amalga oshirish tartibini ko‘rsatish uchun ushbu ish muallifi tomonidan mutaxassislarni jalb qilmasdan amalga oshirildi.

**1-jadval.**

| Zaif tomonlar | Kuchli tomonlar | Tahdidlar |
|---|---|---|
| 1. Aniq strategik yo‘q yo‘nalishlari<br>2.Raqobat pozitsiyasining yomonlashishi<br>3.Boshqaruvning etishmasligi iste’dod va mahorat chuqurligi muammolar<br>4. Kamchilik ba’zi turdagi kalitlar ma’lumot va malaka | 1.Kompaniyaning o‘rnatilgan munosib imiji va mijozlar orasida yaxshi obro‘<br>2. Ajoyib kompetensiya<br>3.Kompaniyaning funktsional yo‘nalishlari bo‘yicha ixtirochi strateg<br>4. Muvofiq marketing siyosat<br>5.Yuqori malakali ishchilar | 1.Yangi texnologiyalar bilan jihozlangan yangi raqobatchilarning paydo bo‘lishi<br>2. Bozor o‘sishining sekinlashishi<br>3. O‘rnini bosuvchi sotuvlarning o‘sishi mahsulot<br>4.Mijozlar o‘rtasida savdolashish qobiliyatini oshirish<br>5.Raqobat bosimini oshirish |

Tashqi va ichki muhitni tahlil qilish natijasi SWOT tahlilini tayyorlash, ya’ni. ichki zaif va kuchli tomonlarni, shuningdek, tashqi muhitdan tahdid va imkoniyatlarni aniqlash va baholash. Ba’zi zaif tomonlar tashkilotga halokatli ta’sir ko‘rsatishi mumkin, boshqalari esa kompaniyaga jiddiy ta’sir qilmaydi yoki osongina yo‘q qilinishi mumkin. Tashkilotning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishda kompaniya muvaffaqiyatining asosiy omillarini aniqlash kerak[4.372].

Yuk tashish hajmini oshirishning asosiy cheklovlari quyidagilardan iborat:

- rivojlanmagan transport-logistika tizimi;
- yo‘l tarmog‘ining sezilarli rivojlanish sur’ati jamiyatni avtomatlashtirish tezligidan past;
- rivojlanmagan transport infratuzilmasi (chegara o‘tish joylari);
- temir yo‘l kompaniyalarining cheklangan imkoniyatlari;

Strategiyani amalga oshirish usullari:

- yangi mijozlarni jalb qilish.
- iste’mol hajmining oshishi
- bozorlarni egallash (raqobatchini sotib olish yoki u bilan qo‘shma korxona yaratish).

Ishlab chiqarish quvvatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish chora tadbirlari temir yo‘l transportidagi jarayonlar *

**2 jadval.**

| **Tadbirlar** | **Kutilayotgan (ijobiy) natija** |
|---|---|
| 1 | 2 |
| Mehnat va dam olish rejimlarini yaxshilash, kasbiy rivojlanish ishchilar, ilmiy tashkilotni qo‘llash mehnat, sifat guruhlari ishini tashkil etish, xodimlarning motivatsiyasi darajasini oshirish mehnat natijalari | Inson ta’sirini kamaytirish kurs natijalariga ta’sir qiluvchi omil ishlab chiqarish jarayonlari; mehnat unumdorligini oshirish |
| Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash yangi mahsulotlar, o‘z vaqtida diagnostika texnik vositalarning hozirgi holati; zamonaviy diagnostika tizimlaridan foydalanish; progressiv ilmiy ishlanmalar, nazorat etkazib beriladigan komponentlarning sifati va yetkazib beruvchilardan ehtiyot qismlar, takomillashtirish texnik (loyihaviy) hujjatlar, joriy va uchun muddatlarga rioya qilish mashina va uskunalarni kapital ta’mirlash sifat parametrlariga muvofiq, uskunalarning oqilona ishlashi | Muvaffaqiyatsizliklar sonini kamaytirish texnologik nosozliklarga olib keladigan texnik vositalar |

| | |
|---|---|
| Progressivlarni ishlab chiqish va joriy etish texnologiyalar, texnologik darajasini oshirish uskunalar, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonlari | Operatsion xarajatlarni kamaytirish tashkilotlar; ko'proq hajmni o'zlashtirish qobiliyati ishlaydi |
| Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning texnik-iqtisodiy xususiyatlarini yanada takomillashtirish, umumiy ishlab chiqarish hajmida yuqori sifatli mahsulot ulushini oshirish, nuqsonlarni kamaytirish | Raqobatbardoshlikni oshirish kompaniyalar; samarasiz yo'qotishlarni kamaytirish nikoh oqibatlarini bartaraf etish |
| Innovatsiyalarni, fan yutuqlarini qo'llash texnik taraqqiyot | Raqobatbardoshlikni oshirish kompaniyalar, yangi maqsadni ishlab chiqish segmentlar |

*materiallar muallif tomonidan tuzilgan Ishlab chiqarishni tashkil etish va korxona boshqaruvi: Darslik / Turovets O.G., Bukhalkov M.I., Rodinov V.B. va boshq.; Ed. O.G. Turovets. 2-nashr. – M.:INFRA-M, 2009. – 544 b.

Tashish sifatini oshirish transport ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muammosining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiyotda, shu jumladan transport sohasida sifat muammosini o'rganishning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari ilmiy tadqiqotning yaxlit sohasini tashkil etadi. Ushbu yo'nalishning transport tarmog'ining rivojlanishi unda nazariy jihatdan umumiy sifatni ham, faqat transportga xos bo'lgan alohida sifatni aks ettirishni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida transport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-iyundagi PF-94-son Farmoni

1. Omirbayevich, Utepbergenov Allambergen. "PERSPECTIVE DIRECTIONS OF INCREASING EFFICIENCY IN THE TRANSPORT SECTOR." *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI* 7.1 (2024): 107-110. https://bestpublication.org/index.php/sit/article/view/9178
2. Temir yo'l transporti kengashi. MDH temir yo'l transporti kengashining rasmiy sayti, / http://www.sovetgt.org.
3. UTEPBERGENOV A. O. (2023). CREATION OF A MODEL OF DEVELOPMENT OF TALENTED YOUTH MANAGEMENT SYSTEM, New Uzbekistan Economy, Scientific and Practical Journal No. 7 (9) 2023, November 24, 2023.
4. UTEPBERGENOV A. O. (2023). Prospects for the rapid development of regional entrepreneurship, innovative technologies and industrial infrastructure in the context of digitalization of the economy: problems and solutions. Collection of the Republican scientific-practical conference, October 10, 2023, 372-375b.

## EDAFIK, BIOTIK VA ANTROPOGEN OMILLAR" MAVZUSIDA TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA INNAVOTSION METODLAR AHAMIYATI

**Xakimov Abdurasul talaba. Jizzax politexnika instituti,**
**Xalquziyeva Moxira Asatullayevna. b.f.f.d.(PhD) dotsenti,**
**Jizzax politexnika instituti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Edafik, biotik va antropogen omillar" mavzusida to'garak mashg'ulotlarida innavotsion metodlardan foydalanish ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so`zlar**: biotik, sifat, metod, malaka, interfaol, o'simlik, ta'lim, tabiatshunos.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о важности использования инновационных методов в классной деятельности по теме «Эдафические, биотические и антропогенные факторы».

**Ключевые слова:** Биотика, качество, метод, умение, интерактивность, растение, образование, натуралист.

**Annotation.** This article provides information on the importance of using innovative methods in class activities on the topic "Edaphic, biotic and anthropogenic factors".

**Keywords:** Biotic, quality, method, skill, interactive, plant, education, naturalist.

Innovatsion ta’lim (ingl. “innovatsion” – yangilik kiritish, ixtiro) – ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdir. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi. [7] Dars mashg‘ulotlarida innovatsion metodlar o‘qish motivatsiyasini shakllantirishga katta yordam beradigan texnologiyalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflarda tabiatga qiziqishlarini uyg‘otish, tabiatga mehrni uyg‘otish maqsadida “yosh tabiatshunoslar” to‘garagida qo‘llanadigan innovatsion usullar yoritlib berilgan:

1. “Tezkor savol-javob” metodi. Ushbu metodni bu o‘tilgan to‘garak mashg‘ulotida “O‘tilgan mavzuni takrorlash va berilgan vazifa so‘rash” qismida qo‘llashni lozim ko‘rdik. O‘quvchilar o‘tilgan mavzulardan berilgan savollarga tezkorlik bilan javob berishlari zarur.
2. «Rasmli rebus» metodida bunda o‘tilgan yangi mavzuga oid rasmlarga qarab aniqlaydilar.
3. “Qiziqarli krossvord” metodi. Ushbu metod orqali to‘garak mashg‘ulotida o‘quvchilar darsning “Yangi mavzu bayoni” qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo‘l kelishi mumkin. Ya’ni, bunda sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda ishlasalar samaraliroq bo‘ladi.

Maktablarda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lishi bilan birgalikda, ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo’llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantiradi.

Biologiyani o’qitishda, boshqa didaktik o’yinlar bilan bir qatorda o’yin mashqlardan o’z o’rinda va samarali foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi.

“Edafik, biotik va antropogen omillar” mavzusini o‘qitishda qo‘llaniladigan metodlar batafsil yoritib o‘tilgan. Shuningdek, ularning samaradorligi va ularni qo‘llash jarayonida olingan sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda, tabiiy fanlarning o‘qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalar to‘garak mashg‘ulotlarini tashkillashtirishda bajarilishida “Edafik, biotik va antropogen omillar” mavzusida to‘garak mashg‘ulotlarida innavotsion metodlarni, qo‘llanilishi ahamiyati, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida ijobiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Abduqodirov A., Ishmuhammedov R., “Ta’limda innovatsiya” T;. Istedod2010.
2. Khalkuzieva MA, Rahmonqulov U. Protection of plants for years in the plantations of *Ferula tadshikorum*Pimenov //Bulletin of Gulistan State University. 2020;4:19-25. https://uzjournals.edu.uz/gulduvestnik/vol2020/iss4/21
3. Halkuzieva M. The role of agrotechnological measures during the early development of Ferula tadshikorum Pimenov and Ferula foetida (Bunge) Regel. Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 2021; 3191- 98. https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume02Issue07-05.
4. Halkuzieva M. Ferula tadshikorum Pimenov growth and development in different soils. Eurasian Scientific Herald. 2022; 4:29- 34.https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/418
5. Halkuzieva MA, Khamraeva DT, Bussmann RW. Bio-morphological properties of Ferula tadshikorum Pimenov and Ferula foetida (Bunge) Regel under plantation conditions. Plant Sci. Today. 2023 Apr. 9 [cited 2023 May 2];9(sp3):79-84. Available from: https://horizonepublishing.com/journals/index.php/PST/article/view/1863
6. Halkuzieva M A, & Rahmonkulov U. (2020). Smola Storage Ferula Tadshikorum M. Pimen Plantations Storage For Years. The American Journal of Agriculture and 7 E3S Web of Conferences 421, 04006 (2023) SERBEMA-2023 https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342104006 Biomedical Engineering, 2(07), 30–34. https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume02Issue07-05
7. Muhammadova M.S., Abbasova G.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari, nazariy asoslari va ulardan geografiya o‘quv mashg’ulotida foydalanish masalalari.// Journal of universal science research. ISSN ( E) 2181-4570.
8. .Mavlonova R., Raxmonqulova N.. Boshlang’ich ta’limning integrastiyalashgan pedagogika. TDPU, 2007.

9. Yusupova A, Qurbonniyozov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muammolari.// “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2000, 3-son. –18-b.

## TRANSPORT MASALASI UCHUN MATEMATIK VA KOMPYUTERLI MODEL YARATISH

**Pardayeva Sabina Jumaboy qizi,**
**NavDPI, 2-bosqich magistranti, Navoiy shahri**
**Xolmurodova Zuhra Nishonovna,**
**NavDPI “Informatika” kafedrasi tayanch doktoranti, Navoiy shahri**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada transport masalasi, uning matematik modelini qurish, yechimini aniqlash, matematik model asosida kompyuterli modelini yaratish haqida fikrlar keltirilgan. Masalaning algoritmi va natijasi Maple matematik tizimida keltirilgan.

**Kalit so‘zlar**. chiziqli dasturlash, matematik dasturlash, algoritm, matematik model, kompyuterli model, iqtisodiy masala, transport masalalasi.

**Аннотация.** В данной статье представлены представления о проблеме транспорта, построении ее математической модели, определении ее решения, создании компьютерной модели на основе математической модели. Алгоритм и результат задачи представлены в математической системе Maple.

**Ключевые слова**. Линейное программирование, математическое программирование, алгоритм, математическая модель, компьютерная модель, экономическая задача, транспортная задача.

**Annotation**. This article presents ideas about the issue of transport, building its mathematical model, determining its solution, creating a computer model based on the mathematical model. The algorithm and result of the problem are presented in the Maple mathematical system.

**Keywords**. Linear programming, mathematical programming, algorithm, mathematical model, computer model, economic problem, transportation problem.

**Masala.**Quyidagilar berilgan: $M_1$ , $M_2$ , $M_3$ ko‘mir konlarida har oyda mos ravishda $a_1, a_2, a_3$ tonnadan ko‘mir qazib chiqariladi: ko‘mir $P_1, P_2, P_3$ tarmoqqa yetkazib berilishi kerak; bu tarmoqlarning ko‘mirga har oydagi talabi mos ravishda $b_1, b_2, b_3$ tonnani tashkil etadi. Ko‘mirning qazib olingan miqdori bilan sotilgan miqdorlar o‘zaro teng, ya’ni

$$a_1 + a_2 + a_3 = b_1 + b_2 + b_3$$

deb olaylik.

$M_i$ kondan $P_j$ tarmoqqa keltirilgan ko‘mirning 1 tonnasiga $c_{ij}$ so‘m sarflansin. Agar $M_i$ kondan $P_j$ tarmoqqa keltirilgan ko‘mirni $x_{ij}$ tonna desak, ko‘mir tashish rejasi quyidagicha bo‘ladi:

1-jadval

| ga / dan | $P_1$ | $P_2$ | $P_3$ | Hamma jo‘natilgan ko‘mir |
|---|---|---|---|---|
| $M_1$ | $X_{11}$ | $X_{12}$ | $X_{13}$ | $a_1$ |
| $M_2$ | $X_{21}$ | $X_{22}$ | $X_{23}$ | $a_2$ |
| $M_3$ | $X_{31}$ | $X_{32}$ | $X_{33}$ | $a_3$ |
| Hamma keltirilgan ko‘mir | $b_1$ | $b_2$ | $b_3$ | |

Tashish rejasining noma’lumlari quyidagi shart-sharoitlarni qanoatlantirishi kerak:

1.Qabul tarmoqlariga zarur bo‘lgan miqdordagi ko‘mirlarni yetkazib berish:

$$\left.\begin{aligned} x_{11} + x_{21} + x_{31} = b_1, \\ x_{12} + x_{22} + x_{32} = b_2, \\ x_{13} + x_{23} + x_{33} = b_3 \end{aligned}\right\} \qquad (1)$$

2. Har qaysi jo‘natish tarmoqlaridan barcha ko‘mirlarni tashib ketish :

$$\left.\begin{aligned} x_{11} + x_{12} + x_{13} = a_1, \\ x_{21} + x_{22} + x_{23} = a_2, \\ x_{31} + x_{32} + x_{33} = a_3 \end{aligned}\right\} \qquad (2)$$

2.Manfiy bo‘lmasliklari zarur:

$$x_{ij} \geq 0,$$

chunki manfiy ishorali o‘zgaruvchilar yuklarni teskari yo‘nalishda tashishni anglatadi, bu esa bo‘lishi mumkin emas. $x_{ij}$ tonna ko‘mirni tashish xarajati $c_{ij}, x_{ij}$ so‘m bo‘lganidan hamma ko‘mirni tashish xarajati

$$Z = c_{11}x_{11} + c_{12}x_{12} + ... + c_{33}x_{33} = \sum_{i=1}^{3}\sum_{j}^{3} c_{ij}x_{ij}$$

so‘mni tashkil etadi.

Demak,(1) va (2) ni birgalikda olish bilan tuzilgan 6 ta chiziqli tenglamalar sistemasining manfiy bo‘lmagan yechimlari $x_{ij}$ orasidan shundayini tanlashimiz kerakki, Z forma eng kichik qiymatga (minimumga) ega bo‘lsin.

Masalada $M_i$ konlarning soni bilan $P_j$ tarmoqlarning soni ixtiyoriydir. Umuman bu yerda $M_i(i = \overline{1,m})$ konlar va $P_i(j = \overline{1,n})$ tarmoqlar uchun $m < n$, $m = n$, $m > n$, hollar bo‘lishi mumkin.

Masala. $M_1$ $M_2$ $M_3$ ko‘mir konlarida har oyda mos ravishda $a_1 = 100$, $a_2 = 200$, $a_3 = 120$ tonnadan ko‘mir qazib chiqariladi: ko‘mir $P_1, P_2, P_3$ tarmoqqa yetkazib berilishi kerak; bu tarmoqlarning ko‘mirga har oydagi talabi mos ravishda $b_1 = 190$, $b_2 = 120$, $b_3 = 60$ tonnani tashkil etadi. Ko‘mirni *i*- kondan *j*-tarmoqqa yetkazish uchun yo‘l xarajati :

$$C = \begin{pmatrix} 4 & 2 & 6 \\ 7 & 5 & 3 \\ 1 & 7 & 6 \end{pmatrix}$$

kabi bo‘lsa, umumiy sarf qilinadigan mablag‘ minimal bo‘ladigan tashish rejasini tuzing.

Yechish: masalada keltirilgan ma’lumotlar yordamida eng kam narx usulini qo‘llab, boshlang‘ich tashish rejasini tuzamiz.(2-jadval)

2-jadval.

| dan \ ga | $b_1 = 190$ | $b_2 = 120$ | $b_3 = 60$ |
|---|---|---|---|
| $a_1 = 100$ | 4 | 2 | 6 |
| $a_2 = 200$ | 7 | 5 | 3 |
| $a_3 = 120$ | 1 | 7 | 6 |

Transport masalasini yechish uchun shu transport masalasining matematik modeli yopiq model bo‘lishi kerak.Yopiq model bo‘lishi uchun:

a) $\sum_{j=1}^{n} x_{ij} = A_i$ (i=1,2,3,..,n) resurslardan to‘la foydalanish kerak;

b) $\sum_{i=1}^{n} x_{ij} = Bj$ (j=1,2,3,…,n) iste’mol qiluvchining talabi to‘la qondirilishi kerak;

v) $\sum_{i=1}^{n} Bj = \sum_{j=1}^{n} A_i$ -iste'molchilarning talabi qondirilishi uchun resurslardan to‘la foydalanish kerak;

g) $x_{ij} \geq 0$ - noma’lumlar manfiy bo‘lmasliklari kerak.

Yuqoridagi shartlardan (v) shart bajarilsa, model yopiq model deyiladi.

Agar $\sum_{i=1}^{n} Bj > \sum_{j=1}^{n} A_i$ yoki $\sum_{i=1}^{n} Bj < \sum_{j=1}^{n} A_i$ bo‘lsa, masala ochiq modelli deyiladi. Ko‘rayotgan masalamizda transport masalasining ochiq modeli berilgan. Agar tashiladigan yuk zaxira iste’mol qiluvchilarga nisbatan ko‘p bo‘lsa, u holda iste’mol tarmog‘i (n+1) qo‘shiladi, ya’ni,

$b_{n+1} = \sum_{i=1}^{m} a_i - \sum_{j=1}^{n} b_i$ bo‘ladi.

Mo‘ljallangan tarmoqqa tashiladigan yukning bahosi 0 (nol) ga teng deb hisoblanadi.Hosil bo‘ladigan yangi masala transport masalasida yopiq model ko‘rinishiga keladi:

$$\sum_{i=1}^{m} a_i = \sum_{j=1}^{n+1} b_j$$

Ko‘mirning qazib olingan miqdori bilan sotilgan miqdorlar o‘zaro teng, ya’ni $a_1 + a_2 + a_3 = b_1 + b_2 + b_3$ bo‘lishi kerak, lekin bu yerda 100+200+120 ≠ 190+120+60; Shuning uchun yopiq model hosil qilish uchun quyidagi jadvalni tuzamiz:

3-jadval

| dan \ ga | $b_1 = 190$ | $b_2 = 120$ | $b_3 = 60$ | $b_4 = 190$ |
|---|---|---|---|---|
| $a_1 = 100$ | 4 | 2 | 6 | 0 |
| $a_2 = 200$ | 7 | 5 | 3 | 0 |
| $a_3 = 120$ | 1 | 7 | 6 | 0 |

Endi masalaning tashish matritsasini, tashishdagi xarajatlar matritsasini va maqsad funksiyasini Maple matematik tizimida beramiz:

```
> x:=matrix(3,4);
```

$x := \text{array}(1..3, 1..4, [\ ])$

```
> C:=matrix([[4,2,6,0],[7,5,3,0],[1,7,6,0]]);
```

$$C := \begin{bmatrix} 4 & 2 & 6 & 0 \\ 7 & 5 & 3 & 0 \\ 1 & 7 & 6 & 0 \end{bmatrix}$$

```
> z:=sum(sum(C[i,j]*x[i,j],i=1..3),j=1..4);
```

$z := 4\,x_{1,1} + 7\,x_{2,1} + x_{3,1} + 2\,x_{1,2} + 5\,x_{2,2} + 7\,x_{3,2} + 6\,x_{1,3} + 3\,x_{2,3} + 6\,x_{3,3}$

Chiziqli dasturlash asosida masalani yechamiz:

```
> with(simplex);
```

Warning, the protected names maximize and minimize have been redefined and unprotected

```
minimize(z,{sum(x[1,j],j=1..4)=100,sum(x[2,j],j=1..4)=200,sum(x[3,j],j=1..4)=120,sum(x[i,1],i=1..3)=190,sum(x[i,2],i=1..3)=120,sum(x[i,3],i=1..3)=60,sum(x[i,4],i=1..3)=50},NONNEGATIVE)
;
```

$\{x_{1,3} = 0, x_{1,4} = 0, x_{2,1} = 0, x_{3,2} = 0, x_{3,3} = 0, x_{3,4} = 0, x_{3,1} = 120, x_{1,2} = 30, x_{2,2} = 90,$
$x_{2,3} = 60, x_{1,1} = 70, x_{2,4} = 50\}$

yechimning matritsaviy ko‘rinishini tasvirlab olamiz:

```
➢ v:=matrix([[70,30,0,0],[0,90,60,50],[120,0,0,0]]);
```

$$v := \begin{bmatrix} 70 & 30 & 0 & 0 \\ 0 & 90 & 60 & 50 \\ 120 & 0 & 0 & 0 \end{bmatrix}$$

Tashishning minimal( eng kichik) narxi quyidagi algoritm yordamida topiladi:

> **sum(sum(C[i,j]*v[i,j],i=1..3),j=1..4);**

$$1090$$

Demak, transport masalasida eng kam xarajat bilan ya’ni 1090 so‘m bilan maqsadga erishish mumkin.

Javob: 1090

Ushbu maqolada biz chiziqli dasturlash masalalaridan transport masalasi va uning matematik yechimini aniqlash, kompyuterli modelini Maple tizimida tuzish ishlari haqida fkrlar keltirdik. Bu ishdan matematik dasturlashga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

## DEKORATIV AMALIY SAN’AT VA FIZIKA QO‘LLANMASI UNING FIZIKANI O‘QITISHDAGI ROLI VA AHAMIYATI

**Xujayarova Aziza Ibodullayevna Navoiy davlat pedagogika instituti**
**Fizika va astronomiya yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi**

Inson har doim o‘z hayotini bezashga, unga estetika va ijodkorlik elementlarini kiritishga harakat qilgan. Hunarmandlar uy-ro‘zg‘or buyumlari, idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, mebellar yaratib, ularni bezaklar, naqshlar, o‘ymakorliklar bilan bezatilgan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan va ularni haqiqiy san’at asarlariga aylantirgan. Dekarativ san’at aslida, g‘or odami o‘z uyini qoyatosh rasmlari bilan bezatgan tarixdan oldingi davrlarda mavjud bo‘lgan, ammo akademik adabiyotda u faqat XIX-asrning 50-yillarida alohida ta’kidlangan. Lotincha decorare so‘zi “bezamoq” deb tarjima qilinadi. “Dekorativ”, ya’ni “bezatilgan” tushunchasining ildizi ekanligi. Shuning uchun “dekorativ san’at” atamasi tom ma’noda “bezatish qobiliyati” degan ma’noni anglatadi. Loyiham dekarativ amaliy san’at yo‘nalishini fizikada qo‘llash va bu usul yordamida bolalarga yangicha dars o‘tish metodini qo‘llash. Hozirgi kunda fizikaga bo‘lgan qiziqish bolalar o‘rtasida oldingi statistikaga qaraganda sustlashgan. Agarda shu tariqa sustlashish ortib borsa kelajakda yangi texnikalar yasash kamayib ketadi. Sabab fizika bizni hayotimizdagi ko‘plab muammolarni yengillashtirishga qaratilgan mexanik texnik qurilmalarni loyihalashtirishga asosiy poydevorni beradi. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo‘lganini ko‘ramiz. Haqiqatan ham, fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT , suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo‘lmaydi. Buyuk mutafakkir shoirimiz Mir Alisher Navoiy o‘z davrida yoshlarga murojaat qilib, “Quyoshliq istasang, kasbi kamol et”, deb yozganlar. Chindan ham, odamlarga quyoshdek beminnat nur tarqatishni, yaxshilik qilishni istaydigan inson kamolotga intilib, turli ilm va kasb-hunarlarni o‘zlashtirishi lozim. Demak, biz yosh avlodni fizikaga qiziqishini yanada uyg‘otishimiz lozim

Loyihamizning asosiy vazifasi dekorativ amaliy san’atdan foydalangan holda bolalarga fizikani qiziqarli va chuqur yondashuv asosida darslar o‘tishdan iborat Ushbu o‘quv qo‘llanma dekorativ amaliy san’at yo‘nalishidan keng qo‘llanib ishlab chiqarilgan bo‘lib unda biz: laboratoriya ishlarini, harakat qonunlarini, harakatli o‘yinlarni, ajoyib bosh qotirmalarni, jismlarning issiqlikdan kengayishiga doir tajriba ishlarini, linza haqida tushunchalarni o‘z qo‘li yordamida tasvirini yaratish, yorug‘likning sinishiga doir tajribani ham o‘quvchilar o‘z qo‘llari bilan harakatlantirib yanada aniqroq tasavvurga ega bo‘lishadi.




Bu qo‘llanmada keltirilgan mavzular haqidagi ma’lumotlar har bir bet uchun alohida Qr-kod orqali o‘rnatilgan. Inson eshitganidan ko‘ra ko‘rgan narsalarini undan ham ko‘ra o‘z qo‘li bilan bajarganini yana ham ko‘proq xotirasida saqlab qoladi. Bu loyihaning asosiy afzalligi shundan iboratki hozirgi innovatsion g‘oyalar kompyuter internet asrida yashayotgan bolalarga zerikarli kitoblar bilan emas rangli rasmlarga ega harakatlanadigan kitoblar orqali bolalarni fizikaning yangi olamiga kiritishdan iborat.




Qo‘llanmaning afzalligi 1-tajriba anjomlari chekka uzoq qishloqlargacha yetkazib berish muammolik bo‘lsada bu kitobchani yetkazishda muammolar bo‘lmaydi 2-tajriba qurollari to‘plami moliyaviy jihatdan qo‘llanmaga nisbatan qimmatroq 3-Jihozlar o‘quv binolariga transport vositalarida jo‘natilayotganda ba’zi qo‘polliklar sababli shakliga ziyon yetishi mumkin, qo‘llanmaga ziyon yetkazish qiyin, ziyon yetgan taqdirda ham jihozga nizbatan arzon va uni qayta tiklash mumkin. 4-Jihozlar har bir o‘quvchi uchun alohida yetkazish qiyin bu qo‘llanma esa har bir o‘quvchi uchun shaxsiy alohida ishlatish imkonini beradi. 5-To‘g‘ri tajribalarni internet orqali ham ko‘rib bajarish mumkin. Ammo bu usulda ish olib borilsa bolaning ko‘z nuriga anchagina ziyon

yetkazib qo‘yamiz yana bir muhim narsa shuki, telefon yoki internet tarmog‘idan foydalanganda reklama yokida boshqa ilova saytlardan kelgan xabarlarga chalg‘ish oqibatida diqqatni e’tiborini yo‘qatadi. Shunday qilib bu yo‘nalishdagi fizikaviy loyihaning yosh avlod xattoki, kelajagimizga ham kichik bo‘lsada ijobiy ta’siri bor

## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OPTIKA FANINI O‘QITISH

**Xushvaqtov Bekmurod Normurodovich**
**NDPI, Fizika va astronomiya kafedrasi dotsenti,**
**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD**
**NDPI, Fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi 3-4-kurs talabalari**
**M.N. Kubayev, H.Sh.Toshmatov, R.N. Soyipov, Sh.I. Xudoynazarov**

**Annotasiya:** Pedagogik texnologiyalar asosida optika fanini o‘qitish haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:**To‘lqin, korpuskulyar,energiya, quvvat, ravshanlik, yorqinlik, yoritilganlik.

Ta’limning dinamik manzarasida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyatini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Optika sohasiga kelsak, talabalarga amaliy tajriba va ko‘nikmalar berish ularning murakkab tushunchalarni tushunishi va o‘zlashtirishi uchun juda muhimdir. O‘quv muhitini boyitish uchun bir nechta muassasalar hamkorlik qiladigan ta’lim klasteri kontekstida optika bilan bog‘liq amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun tuzilgan metodologiya muhim ahamiyatga ega.Ta’lim jarayoni, xususan texnik ta’lim yo‘nalishlarida innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish bir nechta maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Jumladan:

- o‘quvchi, talabalarni dars davomida befarq bo‘lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etish;
- o‘quv jarayonida bilimga bo‘lgan qiziqishlar doimiyligini ta’minlash;
- ularning bilimga bo‘lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o‘quvchi, talabalarning doimo hamkorlikdagi faoliyati tashkillashtirilishi. Ushbu ijobiy natijalar asosida pedagog va ilm oluvchi o‘rtasidagi interaktivlik, ijodiy kreativlikning rag‘batlantirilishi, qiziqishning oshishi va sog‘lom raqobat muhitining shakllanishi yotadi. Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo‘lib, u asosan o‘quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Fikrning ravonligi, uni maqsadga muvofiq yo‘llay olish, o‘ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati kabilar kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlardir.Har bir o‘tiladigan darsda ta’limning aniq maqsadining belgilanishi o‘qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo‘yicha o‘qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Fizika fan sifatida o‘tilgan vaqtdan boshlab fanning ma’lumotlar bazasi ko‘payib katta hajmni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti. Shu sababdan fizikani o‘tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab olish va o‘quvchining o‘zlashtirish qobiliyatlariga mos holda ma’lumotlar hajmini miqdoriy o‘lchamga keltirish zarur. Fizika fanlarini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarning bajarilishi nazarda tutilganligi bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Tajribalarning kompyuterli variantlaridan ko‘ra, laboratoriya sharoitida tajribalarni bajarish ma’qulroq. Biroq, ekologik muammolar nuqtai nazardan, salomatlikka ta’sir etadigan moddalar bilan ishlash, masalan, galogenlar, oson alanganlanuvchi moddalar bilan tajribalar o‘tkazishdan ko‘ra virtual tajribalar orqali xavfsiz mashg‘ulotlarni amalga oshirish ancha qulayliklar yaratadi. Tajriba jihozlarining yetishmaslik holatlarida kompyuter bu kamchiliklarni osonlik bilan to‘ldiradi. Bundan tashqari barcha virtual tajribalarni osonlik bilan ko‘p marotaba takrorlash imkoniyatlari kompyuterli o‘qitish usulining afzalliklaridan biri ekanligi yaqqol ko‘rinadi. Quyida fizika fanining optika bo‘limini o‘qitishga doir bir nechta innovatsion metodlarni keltirib o‘tamiz. Optika bo‘limini o‘qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan “Keys”, “Insert”, “Klaster”, “Venn diagrammasi”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Atamalar zanjiri”, “Atamalar varag‘i”,

tezkor va o‘yin mashqlarning turli shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi. Optika bo‘limining muammoli masalalarni o‘qitishda “Keys”dan foydalanish yuqori samara beradi. “Keys’ “case studies” ingliz tilidan olingan bo‘lib, “jarayon yoki vaziyat” degan ma’noni beradi. Dastlab bu texnologiyadan biznesmen va tadbirkorlarni o‘qitishda foydalanilgan bo‘lib, hozirgi paytda o‘qitiladigan fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, tirik organizmlarda boradigan jarayonlarning tashqi va ichki, obyektiv va subyektiv omillari yuzasidan muammoli vaziyatlar yaratilib ularni hal etish uchun o‘quv munozaralari tashkil etiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida keysdan foydalanish uchun o‘qituvchi darslikdagi muammoli mavzularni aniqlashi, shu mavzularni o‘qitish uchun muammoli savol-topshiriqlar tuzishi, dars davomida muammoli savol-topshiriqlarning qiyinchilik darajasiga ko‘ra yakka tartibda yoki o‘quvchilarning kichik guruhlarida mustaqil ishlarni tashkil etilishini aniqlashi, o‘quvchilarning bilish faoliyatini mazkur muammolarni hal etish, o‘quv munozaralari orqali bahsda qatnashtirish yo‘llarini rejalashtirishi,muammoli savol-topshiriqlar asosida tashkil etilgan o‘quv munozaralarida yakuniy fikrni vujudga keltirishi lozim. Natija darslikdagi faqat faktik materiallarni o‘rganish nazarda tutilgan mavzularda Insertdan foydalanish tavsiya etiladi.

Insert – lokal darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va taktik materiallarni aniqlashiga zamin yaratish maqsadida qo‘llaniladi. O‘quvchilarni Insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi.

O‘quvchilar har bir jumlani o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi.




Agar jumlada berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, “Bilaman” (V),




Agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda “Ma’qullayman” (+),

Agar ma’lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, u holda “O‘rganish lozim” (—),




O‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u “Tushunmadim” (?) belgisini qo‘yadi.




Xulosa qilib aytmoqchimanki, o‘qituvchi o‘quv materiali asosida tuzilgan savol topshiriqlari va kichik guruh a’zolarining jadvaldagi belgilari asosida o‘quv bahsini tashkil etishi lozim. Insert bilan ishlashning afzallik tomoni avval kichik guruh a’zolari o‘rtasida, so‘ng kichik guruhlar bilan o‘zaro o‘quv bahsi o‘tkazilishi, bahsda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish, bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan axborot ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


6. Integrative model of improving the content of classes in optics
BN Xushvaqtov European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7 (12)

7. B Khushvaktov Using fresnel bipprisms to explain the theme of light interference science and innovation 2023 46-48b

8. B.N Khushvaqtov Didactic factors affecting improvement academicia: an international multidisciplinary research journal 2021й 1823-1826б

9. B.N Khushvaqtov Innovative fundamentals of non-traditional teaching (on the example of the optics department) journal of ethics and diversity in international communication e-issn: 2792-4017 | www.openaccessjournals.eu | volume: 1 issue: 3 2021й

10. Khushvaktov Bekmurod Normurodovich TEACHING PHYSICS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES Uzbek Scholar Journal
Volume- 24, January, 2024 www.uzbekscholar.com


## BADIIY DISKURSDA BOLALAR NUTQINING PRAGMASTILISTIK XUSUSIYATLARI

**NDPI, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi magistranti**
**Utayeva Malika Akmal qizi**
**Annotatsiya**. Ushbu maqolada badiiy diskursda bolalar nutqining pragmastilistik xususiyatlari tahlil qilinadi va bolalar nutqida uchrab turadigan muammolar, bunga sabab bo'luvchi omillar o'rganiladi hamda yechimlar taklif etiladi .

**Abstract**. This article discusses the pragmastylistic features of children`s speech in the discource of literature as well as finds out problems in children's speech and offers several solutions.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются прагмастилистические особенности детской речи в дискурсе литературы, а также выявляются проблемы детской речи и предлагаются некоторые пути их решения.
**Kalit so'zlar:** pragmatika, pragmastilistika, diskurs, bolalar nutqi, nutq akti nazariyasi

Har qanday jamiyatda kreativ fikrlovchi, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega avlodni tarbiyalash masalasi dolzarbdir. Bu jarayonda esa shaxsning nutqini to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish masalasi asosiy jihat hisoblanadi. Chunki inson nutq orqali jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradi, o'zining munosib o'rnini topishga harakat qiladi. Xususan, bu jarayonni shaxs ilk bolalik davridanoq bosib o'tadi va bir qancha kompetensiyalar bolaning nutqini to'g'ri shakllantirish uchun yordamchi vositalar hisoblanadi. Ayniqsa, nutqiy faoliyatni yetarlicha yo'lga qo'yish uchun badiiy diskurs eng kerakli vositalardan biri sanaladi. Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga ishora qiladi. Diskurs so'zi lotincha dis-"uzoqda" ma'nosidagi prefiksdan va "yugurish" ma'nosini bildiruvchi "currere" o'zagidan olingan. Shuning uchun nutq "qochish" deb tarjima qilinadi va suhbat qanday o'tishini anglatadi. Nutqni o'rganish – bu ijtimoiy kontekstda og'zaki yoki yozma tildan foydalanishni tahlil qilishdir. Bugungi kunda bolalarda nutqning to'g'ri shakllanmaganligi hamda nutqiy faoliyatning yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi masalasi dolzarb va bu jarayonda badiiy diskurs samarali yechim bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Badiiy diskurs – bu ekstralingvistik-pragmatik , sotsial-madaniy , psixologik omillar bilan birgalikdagi izchil matn hisoblanib, maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning o'zaro ta'siri va ularning ongli mexanizmlari ishtirok etadigan komponent sifatida qaraladi. Badiiy matnning nutqiga keladigan bo'lsak, u boshqa nutq turlaridan sezilarli farq qiladi, bu muallif va oluvchi o'rtasidagi munosabatlar, dunyo haqidagi madaniy, estetik va individual bilimlardan foydalanishni anglatadi hamda badiiy diskursda nafaqat kattalar, balki bolalar nutqi ham asosiy o'rin egallaydi.Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli. Nutq deganda uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi.

Nutq jarayon va natija bo'lish bilan birgalikda, nutq matnlari, og'zaki va yozma, kitoblar, hikoyalar, qo'shiqlar kabi turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Nutq moddiy bo'lib, uni hislar idrok etadi, bu faqat nutqda o'zini namoyon qiladigan tilni qo'llash jarayonida amalga oshadi.Ijtimoiy aloqa vositasi sifatida keng o'rganilgan va o'rganilayotgan nutqning paydo bo'lishi va rivojlanishini tadqiq etishda kichik yoshdagi endigina tilga kirayotgan bola nutqi alohida ahamiyatga molik. Ushbu masala MDH davlat olimlarining ham nazaridan chetda qolmagan. Xususan, Y. Beloglazova, O.L. Strogonovalarning tadqiqotlarida badiiy matn misolida bolalar nutqining diskursiv-pragmatik hamda lisoniy reprezentativ xususiyatlari o'rganilgan. Bolalar nutqiga xos reprezentativ xususiyatlarning personaj obrazi, yozuvchi tomonidan belgilangan badiiy vazifalarga bog'liq holda namoyon bo'lishi Moiseenkoning ishlarida ham ilmiy asoslangan. Rus olimlari V.I.Loginova ,Y.S.Lyaxovskaya,V.V.Gerbova, Ye.Strunina va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos bir qancha xususiyatlari yoritilgan. Bolalar nutqi kattalarnikidan ko'pgina xususiyatlari bilan farq qiladi. Hali butun gapira olmaydigan bola so'zlarda tovush o'zgarishini hosil qilishi, soddalashtirishi va uni boshqacha atashi ham mumkin. Bola so'zlar talaffuzini bosqichma-bosqich o'zlashtirib, o'z nutqini rivojlantiradi. Bu rivojlanish ijtimoiy muhitga, hududga, jumladan, shevaga ham bog'liqdir. Shuningdek, bola nutq ijodkorligi orqali yoshiga mos so'z yaratishi ham mumkin. Bola hali nutq bog'lanishini uddalay olmasdan oldin so'zlar vositasida harakatlarni,vositalarni predmetlarni turli xil tarzda atab keladi va

bu orqali o‘z nutqini ifodalaydi. Hozirda bolalar nutqi turli fanlar tomonidan o‘rganilmoqda. Ko‘pincha bolalar nutqi psixologiya, psixolingvistika va tilshunoslik hamda uning ichki sohalari bo‘lgan pragmalingvistika va pragmastilistika tomonidan o‘ziga xos usullardan foydalangan holda, ushbu murakkab hodisaning biron bir jihatiga e’tibor qaratgan holda o‘rganish obyekti sifatida qaraladi. Shu jumladan, bolalar nutqi tilshunoslikning pragmastilistik jihatidan ham keng tahlil qilinadi va o‘rganiladi. Pragmastilistika – bu tegishli tadqiqotlar va metodologiyalarni qo‘llashga qaratilgan yondashuv bo‘lib, pragmatikaga va tildagi uslub tushunchasiga, ya’ni yozma va og’zaki tilda qo‘llanishning turli shakllarini, jumladan, til, yozuvchilar, janrlar va davrlar o‘rtasidagi adabiy matnlar tilini tahlil qilishdir. Pragmastilistikaning asoiy maqsadi o‘z davrida sodir bo‘lgan adabiy matnlarning yozilishi va o‘qilishini bir biriga bevosita bog‘lashdan iborat. Qisqacha qilib aytganda, “u bir tomondan adabiy, ikkinchi tomondan lingvistik kontekstuallashtirishga katta e’tibor qaratgan” Pragmastilistika o‘z diqqat e’tiborini qanday qilib bir xil mazmundagi gaplarni, iboralarni har xil yo‘llar orqali uning gapda qo‘llanilishiga va uslubiga qarab ifodalashga qaratadi. Intuitiv tahlillar bu yondashuv tayanadigan eng birinchi omil ekanligini alohida ta’kidlash joiz.

Bola tildan foydalanayotgan jarayonda bevosita va bilvosita til nazariyasidagi qoidalar bilan so‘zlasha boshlaydi. Jumladan, bola o‘z fikrini bayon etayotgan paytda, o‘z tinglovchilariga savol bilan murojaat qiladi, buyruq beradi, bayonot beradi, va’da beradi va o‘z his-hayajonini ifodalovchi iboralardan foydalanadi. Shunday qilib, u o‘zi bilmagan xolda til nazariyalaridan foydalanadi, savol berayotganda so‘roq so‘zlar va gaplardan, biror fikrni bayon etayotganda darak gaplardan va buyruq berayotganda buyruq gaplardan foydalanadi. Bu holat lingvistikada pragmastilistikaning nutq akti nazariyasiga asoslanadi.Nutqiy akt nazariyasi bolalar nutqiy faoliyatining to‘g‘ri shakllanishida birlamchi omil bo‘lib xizmat qiladi va ayrim murakkabliklarga yechim bo‘la oladi.

Hozirgi kunda bolalarning ITga qaramligi va ota-onalarning oilada muomala madaniyati, nutqi, so‘zlashuv uslubi bevosita farzandining nutqiga ta’sir qilmasdan qo‘ymaydi. Chunki bola tabiatidan ma’lumki, ular taqlidchan va kuzatuvchan bo‘ladilar. Farzandlarning qanday muhitda tarbiyalanishiga qarab, bu holat ularning nutqida, xatti-harakatida va tengdoshlari, o‘zidan kattalar bilan muloqot jarayonida seziladi. Bola og‘zaki nutqida uning odobi, bilimi, xulq-atvori aks etadi. O‘zbek oilalarning, asosan, ota-onalarning vazifasi farzandlariga bolaligining juda erta yoshdan boshlab aqliy ravonlikda barkamol rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Ota-onalar bolaga nutqini aniq, mazmunli, fikrini chiroyli ifoda etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishda asosiy shaxs hisoblanadilar, ular farzandlarining kelajakda xalq oldida gapirishdan cho‘chimaydigan va o‘z fikrlarini tinglovchilar ongiga ta’sir eta oladigan darajada notiq bo‘lib yetishishlarida muhim qadamni qo‘yuvchilardir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, badiiy diskursda bolalar nutqining tavsifi ko‘pincha uning rivojlanish tomonlarini, jumladan lingvistik xatolar, soddalashtirishlar va ijodiy ifodalarni ta’kidlaydi. Bu bolalarning tilni o‘zlashtirish jarayonlarini tushunish muhimligini va ularning lingvistik ijodiyotining boyligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, u bolalar nutqini shakllantirishda kontekst, ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy ta’sirlarning rolini yoritadi. Umuman olganda, badiiy diskursda bolalar nutqining tasviri til rivojlanishi va muloqot dinamikasi haqida tushuncha beradi. Pragmastilistik jihatdan bolalar nutqini tahlil etish jarayonida esa, bolalar o‘z nutqlarini bayon etayotgan paytda tinglovchini ko‘ndirish, unga buyruq berish, gapini tasdiqlatish, axborot berish hamda savol berish uchun pragmastilistika va nutq akti nazariyalaridan atroflicha foydalanadilar. Shu o‘rinda buni takidlash joizki, bolalar nutqini to‘g‘ri rivojlantirish, nutqiy akt nazariyalaridan to‘laqonli foydalana olish uchun ota-onalarning o‘rni beqiyos va tarbiya jarayonida bu masalalar jiddiy yondashuv talab qiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdunazarova N. Diskursni izohlashga bo‘lgan turlicha yondashuvlar. Academic research in educational sciences. 2021, №43.
2. Arutyunova N. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – М. : 1990
3. Mey, J. (2001). Pragmatics: an Introduction (2nd ed.). New York: Blackwell Publishing.
4. Niazi, N., & Gautam, R. (2010). How to Study Literature: Stylistic and Pragmatic Approches. New Delhi: PHI Learning Private Limited.

5. Safarov Sh. Pragmalingvistika – T.: 2008
6. Yuldasheva D. Bolalar nutqidagi lingvistik xususiyatlar nazariyasi.: T-2023

## TEXNOLOGIYA FANIDA TADBIRKORLIKGA TAYYORLASH USULLARI.

**Kurmanov Aybek Puxarbaevich**
**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti**
**Texnologik ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi**

**Annotatsiya**: Maqolada texnologiya fanida tadbirkorlikka tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari va uslublari haqida so‘z etilgan.
**Kalit so‘zlar**: tadbirkorlikka o‘qitish uslublari, turlari, ko‘nikma va malakalar.
**Annotation:** The article talks about the specific features and methods of preparing for entrepreneurship in technology.
**Key words:** Methods, types, skills and competencies of teaching entrepreneurship

Xorijiy amaliyotda ko‘pincha “Entrepreneurship education” “Ta’lim tadbirkorligi” atamasi qo‘llaniladi. Daniya tadbirkorlik jamg‘armasi o‘z talqinida ta’limning tashkiliy va pedagogik shartlariga e’tibor qaratadi, talabalar rag‘batlantiriladi, buning natijasida ular tadbirkor bo‘lib, o‘z bizneslarini yaratishda ishtirok eta oladilar [1]. Ta’lim tadbirkorligi sohasidagi aksariyat xorijiy mutaxassislar o‘z amaliyotlarida “Entrepreneurship education” tushunchasidan foydalanadilar va u bilan tadbirkorlik tafakkuri, malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashishga qaratilgan, shuningdek, startap, biznesni rivojlantirish va innovatsiyalar, g‘oya kabi keng ko‘lamli jihatlarni qamrab oladigan barcha faoliyatni tushunadilar [2]. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda ta’lim tadbirkorligining asosiy vazifasi o‘quvchilarda tashabbuskorlik va o‘z tadbirkorlik qobiliyatiga ishonch kabi fazilatlarni shakllantirish uchun ta’lim jarayonining xususiyatlaridan foydalanish hisoblanadi. Ta’lim tadbirkorligining ushbu ta’rifi kontekstidagi o‘quv dasturlari amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalangan holda o‘z biznesini tashkil etishga qaratilgan. O‘qitish 2 turdagi faoliyatdan iborat jarayon: o‘rganish – o‘quvchining faoliyati, o‘qitish – o‘qituvchining faoliyati. O‘qitish va o‘rganish doimo maqsadga muvofiq bo‘lib, har bir dars oldidan aniq maqsadlar qo‘yiladi, mashg’ulotlarni o‘tkazish shakllari va usullari maqsadlarga qarab tanlanadi. Usullar deganda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikda ishlash usullari tushuniladi, ular yordamida bilimlarni o‘zlashtirish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, dunyoqarashni tarbiyalash, mustaqillikni rivojlantirishga erishiladi. Usullar 3 guruhga bo‘linadi:

1.Og‘zaki – bunda bilim manbai o‘qituvchining so‘zi yoki darslikning yozma parchasi;
2.Vizual – bu erda bilim manbai texnik obyekt, jarayon yoki hodisaning tasviri bo‘lsa, bu ko‘rsatish usullari;
3.Amaliy – bilim, ko‘nikma va malakalarning manbai amaliy harakatlar, o‘quvchining mehnati hisoblanadi.

***Birinchi guruhda*** og‘zaki bayon qilish usullari (hikoya, tushuntirish, darslik yoki texnik adabiyotlar bilan ishlash) keng qo‘llaniladi. Jonli so‘z o‘quvchiga emotsional ta’sir ko‘rsatadi, amaliy faoliyatni faollashtiradi, fikr va tasavvurni uyg‘otadi, lekin ularga qo‘yiladigan talablar ham bor: o‘qituvchining nutqi savodli, tushunarli bo‘lishi, tanlangan fakt va misollar muammoni ishonchli ochib berishi kerak. Talabalar muhim narsani yozib olishlari uchun diqqatni idrok qilishga qaratish kerak. Hikoya – bu o‘tmish haqidagi hikoya, u o‘qitishda alohida texnik hodisalar yoki jarayonlarning mohiyatini ochib berishni talab qilmaydigan ma’lumotlarni yetkazishda qo‘llaniladi; u nisbatan kamdan-kam qo‘llaniladi, chunki deyarli har qanday texnik hodisa yoki dizaynni o‘rganish asoslashni talab qiladi. Tushuntirish – bu yangi tushunchalar va naqshlarning mohiyati ochib beriladigan, talqin qilinadigan, ko‘rgazmali, ta’riflarni yozib olish uchun diktant va boshqalar bilan ta’minlangan materialning taqdimoti. Bu yerda tushunish mumkin bo‘lgan faktlarni tanlash juda muhimdir. Suhbat – bu o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqot bo‘lib, u orqali o‘quvchilar bilimlarni tushunish va qayta ishlab chiqarishga undaydi. Bu usul turli xil ta’lim vazifalarini hal qiladi: chuqurlashtirish, mustahkamlash, tekshirish, umumlashtirish va boshqalar. O‘ziga xosligi shundaki, undan foydalanishda o‘quvchilar material bilan tanish bo‘lishi kerak, suhbatning samaradorligi talabalarga savollar qanday tuzilganligi bilan belgilanadi va talabalar ularga ma’lum

bo‘lgan faktlarni tahlil qilib, javoblarni aytadilar. Shu tariqa bilimlar mustahkamlanadi, chuqurlashtiriladi va tizimlashtiriladi.
Darslik bilan ishlash – faoliyat bosma so‘z va boshqa tasvirlarni idrok etish va tushunishga qaratilgan. Bu idrok eshitish analizatori emas, balki, ushbu usulni tanlashdan oldin, avvalo, talabalarga kitob bilan ishlash, maqsadlar qo‘yish, matnning alohida qismlari o‘rtasidagi mantiqiy aloqalarni topish va alohida qoidalar bo‘yicha eslatma olishni o‘rgatish kerak.

***Ikkinchi guruh.*** Namoyish usuli juda keng qo‘llaniladi, deyarli barcha qurilmalar, mashinalar va asboblar tabiiy namunalar yoki maketlarni namoyish qilish orqali o‘rganiladi. Namoyishlar dinamik (ish texnikasini ko‘rsatish) va statik (tabiiy obyektlar va jadvallarni ko‘rsatish) bo‘lishi mumkin. Ish usullarini ko‘rsatish texnologiyada katta ahamiyatga ega, chunki talaba operatsiyalarni bajarish uchun, ishlash texnikasini o‘zlashtirishi uchun u ushbu texnikaning tasvirini aniq tasavvur qilishi kerak, bunga og‘zaki usullar yordamida erishish qiyin. Namoyishlar, shuningdek, tabiiy ob’ektlar va jarayonlarni ko‘rsatish, bu tasvirlarni ko‘rsatish, kino va videolarni ko‘rsatishga bo‘linadi.
Shartli tasvirlarni (chizmalar, eskizlar, kinematik diagrammalar) ko‘rsatish obyektlarning ko‘rinmaydigan tomonlarini tasavvur qilish imkonini beradi.
Talablar:
1.Obyektning yaxshi ko‘rinishi;
2.Obyekt yoki hodisa muhimroq tomonlarni aks ettirishi kerak;
3.Ko‘rsatish va tushuntirishning kombinatsiyasi zarur.
TQM – bu jarayonni o‘zlashtirishni yaxshilash uchun texnik qurilmalar majmuasi (televizorlar, ovoz uskunalari, o‘qitish va nazorat qilish asboblari, kalkulyatorlar, protsessorlar, kompyuterlar) – aniqlik va ma’lumotlarning boyligini eng yaxshi amalga oshirish, shuningdek, ko‘rish va eshitish idrokiga ta’sir etish.

***Uchinchi guruh.*** Amaliy ish usullari ustun rol o‘ynaydi. Texnologik malakalarni amaliy usullardan foydalanmasdan turib (mashqlar, laboratoriya ishi, texnik masalalarni yechish, amaliy ishlar) ishlab chiqilmaydi. O‘qitishning ta’sir mexanizmi tashqi kuzatuvdan yashirin bo‘lib, bilimlarni qo‘llashning amaliy harakatlari orqali amalga oshiriladi. Muammoni hal qilish uchun talaba kerakli bilimlarni yangilaydi va shu bilan bilimlarni takrorlaydi va mustahkamlaydi. Amaliy harakatlarni bajarish jarayonida o‘quvchi o‘qituvchi, do‘stlari, darsliklar orqali bilimini kengaytiradi. Amaliy usullar yordamidagina o‘quvchilarda ko‘nikma va malaka hosil bo‘ladi.
Malaka – bilim va asosiy shaxsiy tajriba asosida olingan, berilgan harakatni ongli ravishda bajarish qobiliyati.
Ko‘nikma – mashqlar bilan mustahkamlangan, muayyan harakatlarni bajarish uchun avtomatlashtirilgan qobiliyat.
Mashqlar – to‘g’ri ish usullaridan foydalangan holda harakatlarni maqsadli takrorlash (mashqlar tizimi ishtirok etish imkoniyatlariga muvofiq mashqlar murakkabligini bosqichma-bosqich oshirishni ta’minlashi kerak).
Laboratoriya ishlari materiallarning xossalarini va asboblar dizaynini o‘rganish uchun ishlatiladi. Laboratoriya ishiga tayyorgarlik ko‘rayotganda asbob-uskunalar, materiallar, ko‘rsatmalar, hisobot shakli va test savollarini diqqat bilan tayyorlashingiz kerak.
Amaliy ish – bu mahsulot ishlab chiqarishning haqiqiy faoliyati bo‘lib, uning davomida bilimlar mustahkamlanadi, ko‘nikma va malakalar o‘zlashtiriladi. Asosiy shart – yetarli moddiy-texnik ta’minot, texnologik xaritalar.
Usullarni tanlashga o‘quv materialining mazmuni katta ta’sir ko‘rsatadi. Oddiy material hikoya yordamida taqdim etilishi mumkin, texnik hodisalar ko‘rgazmali qurollarni talab qiladi va amaliy usullarni tanlashga moddiy-texnika bazasi va oldingi tayyorgarlik darajasi ta’sir qiladi.
Xulosa qilib aytganda, interfaol tadbirlardan (interfaol o‘qitish usullari va texnologiyalaridan) foydalanish motivatsiyani oshirish, o‘quvchilarning o‘rganishga qiziqishini jonlantirish va zarur tadbirkorlik kompetensiyalarini egallash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, tushunish, o‘zlashtirish jarayonlarini faollashtirishga imkon beradi. bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llash, yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish salohiyatini to‘liq ochib berish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**
1. Antoni M. A. Interaktivnыe metodы obucheniya kak potensial lichnostnogo razvitiya studentov // Psixologiya obucheniya. 2010. № 12. S. 53–63.
2. Kapranova Ye. A. Interaktivnoe obuchenie: konseptualnыe podxodы // Vestnik Poloskogo gosudarstvennogo universiteta. 2012. № 7. S. 11–14.
3. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov O.A.Quysinov Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, Kasb tanlashga yo'llash. Darslik T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014, 449 b.;
4. N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov va boshqalar. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: 2009,427 b.;
5. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Toshkent: «Fan» , 2004;

## "SOG'LOM YURAK" PARHEZI

**NDPI "Tibbiyot" fakulteti Pediatriya ishi 2-bosqich talabasi Hamdamova A**
**Ilmiy rahbar: Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi**
**katta o'qituvchisi Jumayeva H.Sh**

Yurak, qon-tomir tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi ekanligicha qolmoqda. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra barcha o'lim holatlarining 56%i yurak, qon-tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida Yurak, qon-tomir tizimi kasalliklaridan o'lim holatlari 2021-yilda 9 oylik ko'rsatkich 53%, 2022-yilda 56.2% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda esa 61% ni tashkil qilgan.[109] Bu ko'rsatkichlar 50%dan ortiq bo'lganligi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 26-yanvar 2022-yilda "Yurak qon-tomir kasalliklarini oldini olish va davolash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 103-sonli qarorini imzoladi.Qarorga ko'ra aholi orasida Yurak qon-tomir kasalliklarini oldinini olish uchun, avvalo, Sog'lom turmush tarziga amal qilish, ommaviy yurish, yugurish, minifutbol,velosport va sportning boshqa turlarini ommalashtirish va asosan sog'lom ovqatlanishni aholi orasida targ'ib qilish kabi vazifalar ko'rsatib o'tilgan. Yurak kasalliklarini erta aniqlash,ularni davolash profilaktikasi hamda bu xastalik bilan og'rigan bemorlar sonini kamaytirish maqsadida Respublikamizda ham ko'plab tadqiqotlar o'tkazilib, samarali kurashib kelinmoqda. Xususan, bu tadqiqotlar negizida, albatta, sog'lom ovqatlanish mujassamlashgan desak adashmagan bo'lamiz. Sog'lom ovqatlanish organizmning o'sishi, me'yoriy rivojlanishi va hayot kechirishi, salomatligini mustahkamlovchi hamda kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiruvchi sog'lom turmush tarzining eng asosiy omillaridan biri. Yurak salomatligi uchun sog'lom ovqatlanish, jumladan, hayvonlar va trans yog'larini, oson hazm bo'ladigan uglevodlarni, yurak, qon-tomir kasalliklarining asoratlari va o'lim uchun xavf omili bo'lishi mumkin bo'lgan osh tuzini cheklash darkor. Osh tuzni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish yurak xastaligi uchun xavf omili bo'lgan yuqori qon bosimiga olib kelishi mumkin.Osh tuzni cheklash-yurak uchun sog'lom ovqatlanishning muhim qismi hisoblanadi. Tadqiqotchilar 80 ta mamlakatdan 145 ming kishini kuzatishdi. Aniqlanishicha, ratsioni mavsumiy meva-sabzavotlar, o'rik, shaftoli, apelsin, olma, uzum, anor, dukkaklilar, yong'oqlar, baliq va qaymoqli sutdan iborat bo'lgan odamlarda yurak, qon-tomir kasalliklari va o'lim xavfi bunday mahsulotlarni yetarlicha iste'mol qilmaydigan odamlarga qaraganda ancha past bo'ladi. Bemorlarga parranda go'shtini iste'mol qilish, zaytun, soya, pista, makkajo'xori, kanakunjut, paxta yog'laridan foydalanish, asosan yog'li dengiz balig'ini iste'mol qilishni ko'paytirish tavfsiya qilinadi. Qayd qilinishicha, to'g'ri ovqatlangan odamlarda o'lim xavfi 30%ga, yurak, qon-tomir kasalliklari xavfi 19%ga, miokard infarkti 14%ga, insult xavfi 19%ga kamaygan. Bundan ko'rinib turibdiki parhez – yurak xastaliklarining rivojlanish xavfi bilan bog'liq "xatarli raqamlar"ni samarali kamaytirishga benihoyat hissa qo'shmoqda.

Bemorlarga yog'li go'sht, tarkibida yog' va margarin miqdori yuqori bo'lgan sutli mahsulotlarni iste'mol qilishni cheklash(ikki osh qoshiqdan kam), ratsionidan mol yog'ini chiqarib tashlash,

[109] https://islife.uz/soglomlik/maslahatlar/1/parhez-ovqatlanish-qoidalari

palma va kakos yog‘ini iste’mol qilmaslik, yuqori navli un mahsulotlaridan tayyorlangan taomlar, tayyor va yarim tayyor oziq ovqat mahsulotlari (kalbasa, qurt, suzma, pishloq, dudlangan mahsulotlar, chipslar, sosiska, qazi va boshqalar)ni iste’mol qilish cheklanadi.

Shu bilan bir qatorda, muntazam jismoniy mashqlar, doimiy sport mashg‘ulotlari ortiqcha vazndan samarali xalos etib, yurak va qon-tomir kasalliklari bilan bog‘liq patologik holatlarning oldinini olishda kuchli omil bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo miqiyosida 300 milliondan ortiq odam ortiqcha vazn va u bilan bog‘liq xastaliklardan aziyat chekishadi. Bu muammo global miqyosda yurak, qon-tomir kasalliklari rivojlanishining sabablari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Tana vaznining ortishi bilan erkin yog‘ kislotalari ishlab chiqarilishi ortadi, qon bosimi va xolesterin miqdori ko‘tariladi. Bu asosan yurak va qon-tomirlar ishining yomonlashishiga olib keladi. Yurak, qon-tomir tizimi kasalliklllari uchun parhezning 2 ta variant mavjud:

Birinchi variant – ortiqcha tana vazniga ega bo‘lgan bemorlar uchun: oqsillar-90 gr, yog‘lar-70 gr, uglevodlar-300 gr(shakar miqdori 50 grdan oshmaydi), quvvati-2100-2200kkal, ratsionning massasi-2kg, erkin suyuqlik-1-1.2l,osh tuzi-3-5gr. Ikkinchi variant-me’yoriy yoki kam vaznga ega bo‘lgan bemorlar uchun: oqsil-100 gr, yog‘lar-80 gr uglevod-350(shakar miqdori 50 grdan oshmaydi), quvvati-2400-2500 kkal, ratsionning massasi-2,5kg, erkin suyuqlik-1-1.2,osh tuzi-3-5gr. Gipertoniya kasalligining dioterapiya tamoyillari shundan iboratki, bunda-qon tomir, nerv tizimini qo‘zg‘atuvchi mahsulotlar-alkogol, kofe, kakao, tez hazm bo‘lmaydigan (xamirli, dudlangan, qovurilgan) taomlar, xolesteringa boy mahsulotlar (buyrak, jigar, tuxum sarig‘i), shuningdek, metiorizmni keltirib chiqaruvchi mahsulotlar (sut, no‘xat turp, piyoz, sarimsoqpiyoz) taqiqlanadi. Bemorlarga osh tuzini cheklash tavsiya etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib joizki, yurak, qon-tomir kasalliklarini oldinini olishda, avvalo, sog‘lom yurak parheziga amal qilish yo‘li bilan kasalliklarni oldini olish va o‘lim ko‘rsatgichlarini kamaytirishga erishish mumkin.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TA’LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

**University of Economics and Pedagogy NOTM**
**Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi Z.Komilova,**
**Boshlang‘ich ta’lim 1 kurs talabasi Yusupova Mohinur**

XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta’lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an’anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda. Mamlakatning ertangi kuni esa, dunyoqarashi keng maktab bolalari va zamonaviy, salohiyatli o‘qituvchi-murabbiylarga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. O‘quv-tarbiya ishlari jarayonida o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, o‘zgaruvchan vaziyatlarga o‘rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, elektron darsliklar, versiyalar va multimedialardan foydalana olishi muhimdir. Bu esa o‘quvchilarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash, o‘quv faoliyatini tahlil qilish, istiqbolda kasbiy mahorat va kompyuter savodxonligini orttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi-yu, pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uni pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. Shuning uchun ham bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishga tayyorlash bugungi

ta’limning oldiga qo‘yilgan talablardan biridir. Chunki pedagogik texnologiyalar, birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalar ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim va tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Ta’limning barcha bo‘g‘inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o‘rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga erishishdir. Ta’limda berilayotgan bilimlarni o‘quvchilarning ko‘pchilik qismi puxta o‘zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umuminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi. Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma’lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e’tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o‘z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog‘liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo‘lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o‘ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an’anaviy o‘quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta’sir ko‘rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo‘llangan har qanday pedagogik texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya avtoritar texnologiyaga qarama-qarshi bo‘lib, pedagogik jarayonda hamkorlik, g‘amxo‘rlik, ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilish va e’zozlash orqali shaxsning tahsil olishi, ijod bilan shug‘ullanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishiga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratadi. Mazkur jarayonda talaba o‘z o‘quv faoliyatining subyekti sanaladi va pedagog bilan hamkorlikda yagona ta’lim jarayonining subyekti – ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etadi.

O‘qituvchi kasbiy faoliyatida mana shunday pedagogik texnologiyalardan foydalanishi uchun albatta talabalik davridagi amaliyotlarda olgan bilim, tajriba va ko‘nikmalariga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori ijrosini ta’minlash hamda talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasi va sifatini oshirish, shuningdek, amaliyot o‘tash davrini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Bu esa o‘z navbatida talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish, pedagogik mahorat haqida asosiy tushunchalarga amaliy tarzda ega bo‘lish va o‘z ustida mustaqil ishlashiga zamin yaratmoqda. Har qanday faoliyatni egallash uni tashkil etuvchi harakatlar va operatsiyalarni o‘zlashtirishdan boshlanadi. Bu harakatlar bilish va bajarish jarayonining tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Bularning barchasi bilish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgandir. Jamiyatimizda pedagog nufuzining ortib borishi, kuchli targ‘ibot va rag‘batlantirish siyosati natijasida pedagoglik kasbiga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash

hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Albatta, bu jarayon pedagoglardan ko'p mehnat va yangicha yondashuvni talab qiladi. Xususan, pedagogik ta'lim sohasining yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o'quv me'yoriy va ta'lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Oliy pedagogik ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash bugungi axborot va global rivojlanayotgan jahon hamjamiyatining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.Inson faoliyati bunyodkorlik xarakteriga ega. Bu shuni anglatadiki, faoliyat subyektlari tashqi harakatlarni faoliyat jarayoniga olib kiradilar. Bu aqliy harakatlar jarayonida amalga oshiriladigan muloqot faoliyatining ichki rejasiga muvofiq tarzda ta'minlanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo'nalishni o'ziga qamrab oladi: a) didaktik yondashuvlar, u asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyati,o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o'rnini o'rganishga qaratilgan; b) psixologik yondashuv, bu jarayonda o'quvchilarning o'zlari ularning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan bilish faoliyatidan foydalanadilar. Bugungi kunda mavjud bo'lgan pedagogik-psixologik nazariyalar didaktikaning asosiy negizi sifatida o'quvchilar harakatlarini qanday tashkil etish kerak, degan savolga javob izlashi lozim. Chunki o'quvchilarning bilish faoliyatlari muayyan o'quv muammolarini yechishga yo'naltirilishi kerak. Buning uchun faoliyat usullari va metodlari yig'indisidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar va usullar o'quvchilarning muayyan maqsadga erishishlariga ko'maklashishi lozim. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish deganda o'quvchi hamda o'qituvchilarning izchil harakatlarini ifodalovchi tizim tushuniladi. Mazkur tizim didaktik shart-sharoitlarni vujudga keltirishni ta'minlashi, o'quv topshiriqlarini bajarish va ushbu jarayonni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkonini beruvchi tizim bo'lishi lozim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida bilish jarayonini faollashtirish imkoniyatlari modernizatsiyalashgan ta'lim mazmuni va vositalarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali ta'minlanadi. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish muammosi bilan bir qator pedagoglar muttasil shug'ullanib kelmoqdalar. O'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Mazkur tizimda boshlang'ich ta'lim alohida o'rin egallaydi. Chunki bu bosqichda faoliyatning yangi turlari o'zlashtiriladi hamda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun zamin hosil qilinadi. Bu o'rinda bilish faoliyatining vazifaviy jihatlarini rivojlantirish haqidagina emas, balki o'quvchilar faoliyatining barcha turlari, jumladan, ularning nutq faoliyati, fikrlash faoliyati kabilar ham rivojlantiriladi. Chunki bunday faoliyat turlari o'quvchilarning intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishiga imkon beradi. O'quvchining nutqi muloqot hamda verbal fikriy faoliyati vositasi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish, ularga tilvositalarini o'rgatish natijasida o'quvchilar nafaqat so'zlashish, balki fikrlashni ham o'rganadilar. Pedagogika hamda psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli vaziyatlar o'quvchilarning qiyinchiliklarni aniq va noaniq tarzda tasavvur qilishlariga imkon beradi. Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish esa, yangi bilimlar, harakatning yangi usullarini o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Muammoli vaziyatlar o'quv-biluv faoliyatini harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyatlarda o'quvchi ziddiyatlarga qarama-qarshi qo'yilib, bilish qiyinchiliklarini yechishga undaladi va mazkur vaziyatdan chiqish uchun mustaqil harakatlanish yo'lini izlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta yoshdagi o'quvchilarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy quvvatlarini rivojlantirish birmuncha qulay hisoblanadi. Ular ongini mavjud qoliplardan xalos qilish oson kechadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish ularni rivojlantirishda samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, uzluksiz ta'limning barcha bo'g'ini uchun pedagog kadrlar tayyorlash borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy

ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalqfarovonligining garovi. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017.-48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2016.-488 b.
5. Abdullayeva B.S., Safarova R.G., A.Bahromov Boshlang’ich ta’lim konsepsiyasi.. –T.: 2015.
6. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya / Pod red. V.V.Davidova. -M.: Pedagogika 1991


## SHIFOXONADAN TASHQARI IKKI TOMONLAMA INTERSTITSIAL PNEVMONIYA KASALLIGIDAN KEYIN RIVOJLANUVCHI ASORATLAR VA ULARNING PATOGENEZIGA ENDOGEN FAKTORLARNING TA’SIRI


**Yusupova Sevinchoy Arkaboy qizi,**
**Raximberganov Sanjarbek Rustam o‘g‘li**
**TTA Urganch filiali Davolash fakuleti 5-bosqich talabalari**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalligining yuqish yo‘llari, etiologik faktorlari va ularning bir-biriga nisbati, kasallik patogenezi va klinikasi haqida ma’lumot keltirilgan. Ushbu kasallikdan keyin rivojlanuvchi asoratlarning shakllanishida endogen faktorlar; yosh, yondosh kasalliklar, organizmning reaktivligining roli haqida ma’lumot berilgan.



**Kalit so‘zlar:** Koronavirus, interstitsial kasalliklar, nafas yetishmovchiligi, krepitatsiya indux, krepitatsiya redux, endogen faktorlar, yondosh kasallik, organizm reaktivligi.



**Аннотация.** В статье представлены сведения о путях передачи, этиологических факторах и их взаимосвязи, патогенезе и клинике двусторонней интерстициальной пневмонии вне стационара. Приведены сведения о роли эндогенных факторов, возраста, сопутствующих заболеваний, реактивности организма в формировании осложнений, развивающихся после этого заболевания.



**Ключевые слова:** короновирус, интерстициальные заболевания, дыхательная недостаточность, крепитационная индуцированная, редукционная крепитация, эндогенные факторы, сопутствующее заболевание, реактивность организма.



**Annotation.** This article provides information about the ways of transmission, etiological factors and their interrelationships, pathogenesis and clinic of bilateral interstitial pneumonia outside the hospital. Information about the role of endogenous factors, age, concomitant diseases, and the reactivity of the organism in the formation of complications that develop after this disease is given.



**Key words:** Corona virus, interstitial diseases, respiratory failure, crepitation induced, crepitation redux, endogenous factors, concomitant disease, body reactivity.


**Muammoning dolzarbligi:** Hozirgi davrda laborator tekshiruvlarda koronavirus infeksiyasiga nisbatan manfiy javob olinib, kasallik patogenezi, klinikasi, asorat qoldirishi jihatidan aynan bir xil kasallik – bu shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniyadir. Ushbu kasallik aholi orasida tez tarqalishi, klinik belgilarning tez va kuchli namoyon bo‘lishi va asoratlanish nisbatan yuqori darajada ekanligi bilan xarakterlidir.

**Tadqiqot maqsadi:** Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalligidan keyin rivojlanuvchi asoratlarni va ular patogeneziga ta’sir ko‘rsatuvchi endogen faktorlarni rolini o‘rganish.

**Material va tadqiqot usullari:** Belgilangan maqsad va vazifani hal etish maqsadida Urganch shahar shifoxonasi Terapiya bo‘limida davolanayotgan 60 nafar bemor tadqiqotga jalb qilindi. Ulardagi yondosh, fon kasalliklar aniqlandi.

**Natijalar:** Tadqiqotga jalb qilingan 60 nafar bemorning 60%(36 nafari) hech qanday asoratsiz tuzaldi, 40% bemorda esa (24 nafarida) asorat shakllangani kuzatildi. Asorat sifatida nafas yetishmovchiligi I,II, darajalari va qorinchalar ekstrasistoliyasi paydo bo‘lganligi aniqlandi. Asorat shakllangan bemorlarda quyidagicha yondosh kasalliklarni aniqladik:

| № | Yondosh kasallik | Kasallik asorati |
|---|---|---|
| 1. | Surunkali xolesistit (K81) | Nafas yetishmovchiligi I daraja |
| 2. | Surunkali piyelonefrit(N11) | Nafas yetishmovchiligi II daraja |
| 3. | Yurak ishemik kasalligi. Zo‘riqish stenokardiyasi. Funksinal sinf III (I20)va Gipertoniya kasalligi (I10) | Qorinchalar ekstrasistoliyasi(I.49.4) |

1-jadval. Yondosh kasalliklarning kasallik asoratlarida uchrashi.




**Natijalar muhokamasi.**

O‘pkaning interstitsial kasalliklari – turli etiologiyali kasalliklar hisoblanib, ayrim morfologik, patogenetik hamda klinik xususiyatlariga ko‘ra shartli ravishda bir guruhga birlashtirilgan:

- ✓ O`pkaning interstitsial to‘qimasida patologik jarayonning kuzatilishi (alveolotsit, kapillyar endoteliysi shikastlanishi);
- ✓ O`pka restriksiyasi va alveolyar-kapillyar membrana orqali gazlar diffuziyasining pasayishi;
- ✓ Asosan restriktiv tipdagi zo‘rayib boruvchi nafas yetishmovchiligi;
- ✓ Rentgenda o‘pka diffuz disseminatsiyasi;
- ✓ Aksariyat hollarda, kasallik patogenezida immunopatologik mexanizmlarning yetakchi o‘rin egallashi.

Hozirgi davrda ularning klassifikatsiyasi quyidagicha hisoblanadi:

1.Fibrozlanuvchi alveolit.
2.Granulematozlar.
3.O‘pka vaskulitlari
4.To‘planish kasalliklari.

Shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalliging etilogiyasi bo‘lib,
Pnevmokoklar( Streptococcus pneumoniae)-30-50%;
Gemofil tayoqcha (Haemophilus influenzae)-5-10%;
Mikoplazmalar(Mycoplasma spp.)-20-30%;
Xlamidiya(Chlamydia pneumonia)-2-8%;
Legionella (Legionella spp.)-2-10%;
Moraksella( Moraxella catarralis)-1-2%;
Viruslar esa 2-15%ni tashkil etadi.

Pnevmokoklar havo-tomchi yo‘li bilan tarqaladi, ko‘p hollarda pnevmokokli pnevmoniya kuzatilib, unda o‘pkaning polisegmentar zararlanishi yotadi.
Klinikasi esa quyidagicha: Kasallik o‘tkir boshlanib, tana harorati 39-40°Cgacha ko‘tarilishi xos. Et junjikishi takrorlanadi, kuchli bosh og‘rishi, yo‘tal, shilliq, yiringli balg‘am, ko‘krak qafasida og‘riq va uning nafas olganda kuchayishi, zararlangan tomonning sog‘lom tarafdan orqada qolishi, hansirash, havo yetishmaslik, umumiy intoksikatsiya belgilari: holsizlik, ishtaha yo‘qolishi, bosh og‘rishi, mialgiya, artralgiya, taxikardiya, aritmiya, burun-lab uchburchagida gerpetik toshmalar kuzatiladi. Bemor yuzi rangpar, burun qanotlari nafas olganda kengayadi, lablarida sianoz, nafas olishi yuzaki, bir daqiqada 40 tagacha, puls tezlashadi daqiqasiga 120 tagacha yetishi mumkin. Kasallikning boshlang‘ich davrida yo‘tal avval quruq, keyin esa shilliq balg‘amli bo‘ladi. Alveolalar asta-sekin nekrobiozga uchragan hujayra parchalanish mahsulotlari, ekssudat bilan to‘lib boradi. Zararlangan sohada perkurator tovush to‘mtoqlashadi.[1.756] Auskultatsiyada susaygan vezikulyar nafas va krepitatsiya indux rivojlanadi. Kasallikning avj olish davrida zangsimon balg‘am ajralishi mumkin, tovush dirillashi kuchayadi. Tuzalish davrida esa tana harorati pasayib, shilliq balg‘am ko‘p ajrala boshlaydi. Tovush dirillashi pasayadi,perkussiyada biroz bo‘g‘iq tovush, auskultatsiyada bronxial nafas yo‘qolib, krepitatsiya redux paydo bo‘ladi, yirik pufakli nam va quruq xirillashlar eshitiladi.[4.1] Nafas yetishmovchiligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, arterial qonning gazlar tarkibi bilan ta’minlanmasligi natijasida tashqi nafas faoliyatining buzilishidir.[2.3] Uning uchta bosqichi mavjud bo‘lib, ular quyidagilar: NY kompensatsiya davri, NYning dekompensatsiya davri, yashirin nafas yetishmovchiligi. Bizning tadqiqotimizda shu ma’lum bo‘ldiki, nafas yetishmovchiligi o‘pkada, kichik qon aylanish doirasida qonning reologik xususiyatlarining qon tomirlar zararlanishi tufayli buzilishi bilan bog‘liq. Gipertoniya kasalligi va piyelonefrit kasalligi mavjud bemorlarda qon bosimining normadan o‘zgarishi ham tomirlar holatida ta’sir o‘tkazadi, kapilyarlar to‘rining kengayishi, tomir devorining xususiyatlarini o‘zgartishi natijasida o‘pka alveolalarida diffuziya normal o‘tmaydi.[3.2] Ayniqsa organizmning kompensator mexanizmi bo‘lgan puls tezlashuvi jarayonni yanada rivojlantiradi.
Xulosa qilib aytganda, shifoxonadan tashqari ikki tomonlama interstitsial pnevmoniya kasalligida asorat sifatida ekssudativ plevrit, o‘pka absessi va gangrenasi, plevra empiyemasi, bronxoobstruktiv sindrom, o‘tkir nafas yetishmovchiligi kabi o‘pka bilan bog‘liq patologiyalar, shuningdek, o‘pkadan tashqari o‘tkir-o‘pkali yurak, infeksion-toksik shok, perikardit, o‘tkir bakterial endokardit, miokardit, artrit, meningit, meningoensefalit, ichakning paralitik buzilishi, o‘tkir psixoz, anemiya kabilar shakllanishi mumkin. Kasallikning asorat qoldirishi organizmning yoshiga, reaktivligiga, yondosh kasallik mavjudligiga, bog‘liq. Organizm qancha yosh bo‘lsa, asorat qoldirish xavfi yuqori, chunki o‘pka kapilyarlar membranasi faoliyatiga qon bosimi, organizmdagi biologik faol moddalar, interleykinlar ta’sir o‘tkazadi. Organizm qancha yosh bo‘lsa interleykin sintezi jadalligi shuncha ortadi, shu bois ularda asoratlanish yuqori. Bundan tashqari organlarda avvaldan mavjud bo‘lgan yondosh kasalliklar muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan Yurak ishemik kasalligi. Zo‘riqish stenokardiyasi. Funksional sinf III bilan og‘rigan bemorlarda qorinchalar ekstrasistoliyasi shakllanganini aniqladik.

**Foydalanilgan adabiyotlar va internet-resurslar:**


1.ICHKI KASALLIKLAR. Abdig`affor Gadayev-Toshkent . “Muharrir” nashriyoti, 2020.
2.PATOLOGIK FIZIOLOGIYADAN AMALIYOT DARSLARI UCHUN QO`LLANMA. A.A.XUSINOV-Toshkent “Yangi asr avlodi” nashriyoti-2008-yil.
3. Яллиғланиш патофизиологияси. XusinovA.A. Qalandarova U.A. O`quv-uslubiy qo`llanma. Urganch-2021-yil.
4.СИСТЕМА ЦИТОКИНОВ. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И КЛИНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ.Под редакцией академика РАМН В.А.Козлова и д.м.н.С.В.Сенникова


## KUZATISH NATIJALARINI QAYTA ISHLASHGA DOIR MASALALAR UCHUN MATEMATIK VA KOMPYUTERLI MODEL YARATISH

**Xolmurodova Zuhra Nishonovna, NavDPI “Informatika” kafedrasi**

**tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada matematik statistika elementlari hamda kuzatish natijalarini qayta ishlashga doir masalalar koʻrilgan boʻlib, ularning matematik yechimlari, tahlili va Python dasturlash muhitida matematik modellari keltirilgan.

**Kalit soʻzlar.** Matematik statistika, kuzatish natijalari, sifat belgilar, miqdoriy belgilar, mutloq miqdorlar, nisbiy miqdorlar, dinamik nisbiy miqdorlar, dastur kodi.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены элементы математической статистики и вопросы, связанные с обработкой результатов наблюдений, представлены их математические решения, анализ и математические модели в среде программирования Python.

**Ключевые слова.** Математическая статистика, результаты наблюдений, качественные признаки, количественные признаки, абсолютные величины, относительные величины, динамические относительные величины, программный код.

**Annotation.** In this article, the elements of mathematical statistics and issues related to the processing of observation results are considered, their mathematical solutions, analysis and mathematical models in the Python programming environment are presented.

**Keywords.** Mathematical statistics, observation results, qualitative signs, quantitative signs, absolute quantities, relative quantities, dynamic relative quantities, program code.

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni ifodalashda statistika juda koʻp ishlatiladi. Iqtisodchi mutaxassislar esa korxonalar, tashkilotlar faoliyatida statistik koʻrsatkichlardan muntazam foydalanishadi.

Statistik kuzatishning har birligining xususiyatlari (xarakterli tomonlari yoki boshqa xususiyatlari)ni ifodalovchi aniqlanishi, oʻrganishi lozim boʻlgan miqdoriy tasvirini koʻrsatuvchi tushuncha toʻplam belgisi deb aytiladi. Belgilar oʻz navbatida sifat (atributiv) belgilar va miqdoriy belgilarga boʻlinadi. Sifat (atributiv) belgilar boʻlib, hodisa va jarayonlarning mohiyatini ifodalovchi koʻplab tushunchalardan tashkil topgan belgilar tushuniladi, masalan turli kasblar.

Miqdoriy belgilar esa, ularning mohiyati son jihatdan ifodalanishi mumkin boʻlgan belgilardir. Masalan, ish haqining miqdori va hokazo, shu singarilar. Hodisa va jarayonlar dastlab mutloq miqdorlarda qayd qilinadi, soʻngra esa ular asosida nisbiy va oʻrtacha miqdorlar hisoblab topiladi. Demak mutloq miqdorlar har qanday statistik koʻrsatkichlarning dastlabki (boshlangʻich) shaklidir. Miqdorlar qoʻshish, ayirish, oʻlchash kabi amallarni bajarish bilan aniqlanadi.

Oʻrganilayotgan hodisa va jarayonlarning umumiy yigʻindisini tavsiflovchi mutloq miqdorlar umumiy mutloq miqdorlar deyiladi. Ular dastlabki kuzatish maʼlumotlarini qoʻshish va jamlashtirish natijasida olinadi. Demak, mohiyati bir xil yakka mutloq miqdorlar yigʻindisi umumiy mutloq miqdorlardir. Shuning uchun ham umumiy mutloq miqdorlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A_{um} = a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n = \sum_{i=1}^{n} a_i$$

Bu yerda

$A_{um}$ -umumiy mutloq miqdor;

$a_1 + a_2 + a_3 + ... + a_n$ -kuzatilayotgan obyektdagi yakka mutloq miqdorlar;

$\sum_{i=1}^{n} a_i$ -toʻplam birliklarining yigʻindisi.

Masalan, xoʻjalik brigadasida 15 ta terimchi tergan paxtasining yigʻindisi (60+70+65+80+11+90+75+120+92+108+84+96+115+125+64)=1354kg;

Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning bir necha davridagi oʻzgarishlarini oʻrganish uchun mutloq miqdorlarni taqqoslash lozim. Ushbu davrdagi reja koʻrsatkichlarining, tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilishini ham haqiqiy va reja (shartnoma) koʻrsatkichlar bilan taqqoslab aniqlanadi. Bunday mutloq miqdorlarning bir-biriga nisbatan olinib taqqoslanishi nisbiy miqdorlar deyiladi. Demak nisbiy miqdorlarda ikki va undan koʻproq mutloq miqdorlar bir-biriga taqqoslanadi. Bunda koʻpincha suratda taqqoslanuvchi miqdor, mahrajda-sa taqqoslovchi mutloq miqdor boʻladi.

Nisbiy miqdorlar-ikkita va undan ko‘proq miqdorlarni taqqoslab, bo‘lish natijasida olingan hosilaviy miqdorlardir. Nisbiy miqdorlar foizda (%), koeffitsiyentda (karra-martada) 1000 nisbatan promilli va 10000 ga nisbatan prodetsimillelarda ifodalanadi.

**1-misol:** Korxona ushbu yilda 12000 tonna mahsulot ishlab chiqargan. Lekin bu yilda 11500 tonna mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Demak, korxonaning reja ko‘rsatkichining bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdor (Rbnm) 104 %.

$\left(\frac{12000 \times 100}{11500}\right)$ bo‘ladi.

Reja o‘sishning (kamayishini) ifodalovchi nisbiy miqdorlar (Runm), kelgusi davr uchun ko‘rsatkichlarning rejasini (prognoz) belgilashda qo‘llanadi va quyidagicha topiladi:

$$Runm = \left(\frac{Kelgusi_davr_reja_miqdori \times 100}{Bazis_davr_haqiqiy_miqdori}\right)$$

Python dasturlash muhitidagi dastur kodi:

```
a=int(input("Kelgusi davr reja miqdori="))
b=int(input("Bazis davr haqiqiy miqdori="))
Runm=(a*100)/b
print("Reja o`sishning (kamayishini) ifodalovchi nisbiy miqdorlar  =",Runm)
```




**2-misol:** Korxona bu yil 12000 tonna mahsulot ishlab chiqargan. Kelasi yil mahsulot ishlab chiqarishni 12400 tonnaga yetkazish rejalashtirilgan. Demak korxona mahsulot ishlab chiqarishni $103\%\left(\frac{12400 \times 100}{12000}\right)$ qilib rejalashtirilmoqda, erishilgan natijaga nisbatan 3% oshirish rejalashtirilgan. Reja o‘sishi va reja bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdorlar ko‘pincha foizlarda aniqlanadi. Chunki bazis nisbiy miqdor (maxraj) 100 % deb qabul qilinadi va shunga nisbatan rejaning o‘sishi yoki rejaning bajarilishi hisoblanadi. Shartnoma (buyurtma) bajarilishini ifodalovchi nisbiy miqdorlar (*Shbnm*) o‘zaro kelishilgan shartnomalarning qay darajada bajarilganini bildiradi. Bu ko‘rsatkichni muayyan davrdagi haqiqiy bajarilgan miqdorni shartnomada (buyurtmada) ko‘rsatilgan miqdor bilan taqqoslab ko‘riladi. Shbnm ko‘pincha foizlarda aniqlanganligi uchun, uni quyidagicha hisoblanadi.

$$Shbnm = \left(\frac{Haqiqiy_bajarilgan_miqdori \times 100}{Shartnomada(buyurtma)_ko'rsatilgan_miqdor}\right)$$

Python dasturlash muhitidagi dastur kodi va natijasi:




Bu ko‘rsatkich ham xalq xo‘jaligi tarmoqlarida juda ko‘p qo‘llanadi. Chunki tarmoq korxonalari o‘zaro mahsulot yetkazib berish uchun har yili shartnoma tuzadilar.

Yil davomida bu shartnomada ko‘rsatilgan shartlar qanday bajarilayotganligini nazorat qilib borish zarur. Qishloq xo‘jalik korxonalari davlatdan paxta va boshqa mahsulotlarni sotish bo‘yicha davlat buyurtmasini oladi. Bunda ham belgilangan davlat buyurtmasining haqiqiy bajarilishini ma’lum muddatlarga taqqoslab borish zarur.

**3-misol:** Qishloq xo‘jaligi shirkati ushbu yilda davlatga 8500 tonna paxta sotish bo‘yicha buyurtmaga kelishgan. Xo‘jalik shu yil 26 oktyabrga 8200 tonna paxta sotgan. Demak, buyurtmani

$$\left(\frac{82000 \times 100}{8500}\right) = 96.5\%$$

bajargan.

Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘zgarishining tendensiyasini bilish uchun

ularni bir necha davr davomida kuzatish lozim. Bunday kuzatish dinamika nisbiy miqdor natijasida aniqlanadi.

Dinamika nisbiy miqdorda (Dnm) ko‘rsatkichning hisobot davridagi miqdori (mutloq yoki o‘rtacha) shu ko‘rsatkichning o‘tgan davrdagi miqdorlariga nisbati bilan topiladi.

$$Dnm = \left(\frac{Hisobot_davr_haqiqiy_miqdori \times 100}{O`tgan_davr_haqiqiy_miqdori}\right)$$

Dinamika nisbiy miqdorda miqdorlarning taqqoslama bo‘lishiga katta ahamiyat berish kerak. Agarda ushbu taqqoslanuvchi davrda taqqoslanuvchi miqdorlarni hisoblash uslubida, hududlarda, miqdorlarning tarkibida yoki boshqa jihatlarida o‘zgarish bo‘lgan bo‘lsa, ularni taqqoslama miqdorga keltirish yoki ushbu o‘zgarishlarni hisobga olish lozim. Shahar aholisining tabiiy ko‘payishini, uning xududiy o‘zgarishini e’tiborga olmasdan hisoblab bo‘lmaydi.

Dinamika nisbiy miqdorlar bazisli yoki zanjirsimon bo‘lishi mumkin. Bazisli dinamika nisbiy miqdorlar ko‘rsatkichning joriy davrdagi miqdorini o‘tgan davr miqdoriga bo‘lish bilan aniqlanadi. Umuman dinamika nisbiy miqdorlar foizlarda, koeffitsiyentlarda (martalarda) ifodalanishi mumkin.

**4-misol:** Korxona ushbu yilda 12000 tonna mahsulot ishlab chiqargan. O‘tgan yil esa korxona 11000 tonna mahsulot ishlab chiqargan edi.

Dinamika nisbiy miqdor koeffitsiyentda aniqlanganda:12000:11000=1,09

Dinamika nisbiy miqdor foizlarda aniqlanganda: $\frac{12000 \times 100}{11000} = 109{,}1\%$

Python dasturlash muhitidagi dastur kodi va natijasi:




Ushbu maqolada matematik statistika elementlari va kuzatish natijalarini qayta ishlashga doir ayrim masalalarning matematik yechimlari topilib, ular uchun Python muhitida kompyuterli model yaratish ketma-ketliklari keltirib o‘tildi.

## 2-SHO‘BA

# NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA O‘XSHATISHLAR

## (“Ochilmagan eshik” va “Tobut” hikoyalari misolida)

**Fayzullayeva E’zoza Abdulla qizi,**
**NDPI, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi**

**Annotatsiya**. O‘xshatishlar badiiy asarlarda uslubiy vazifa bajaribgina qolmay, yozuvchining badiiy mahorati naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Ochilmagan eshik” va “Tobut” hikoyalarida qo‘llanilgan o‘xshatishlarning lingvopoetik jihatlari haqida fikr yuritilagan.

**Kalit so‘zlar:** o‘xshatishlar, uslubiy vazifa, o‘xshatish subyekti; o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi; o‘xshatishning shakli o‘xshatish etaloni.

O‘xshatishlar nutqimizda katta badiiy-uslubiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan, nutqning ifodaliligini, jozibadorligini ta’minlaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda o‘xshatishlar uslubiy vazifa bajaribgina qolmay, yozuvchining tasavvur olami naqadar keng ekanligini ko‘rsatib. beradi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr)qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o‘xshatishlar poetik figura sifatida o‘rganilgan va o‘xshatishning muntazam 4 unsurdan tarkib topishi ta’kidlangan, ya’ni: 1)o‘xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2)unga o‘xshash bo‘luvchi narsa yoki obyekt; 3)o‘xshatish belgisi; 4)o‘xshatishning formal ko‘rsatkichi. O‘zbek tilida ham, boshqa barcha tillarda bo‘lgani kabi, o‘xshatishlar 4 unsurdan tarkib topadi va biz ularni o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlaymiz. Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning 2 turi, ya’ni: 1)individual-muallif o‘xshatishlar yoki erkin o‘xshatishlar; 2)umumxalq yoki turg‘un o‘xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmon nuqtayi nazaridan erkin o‘xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalaridan biri sifatida badiiy nutqda alohida o‘rin tutadi. Turg‘un o‘xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularga o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqtlar o‘tishi bilan til jamoasida urgan kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikasidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Nazar Eshonqul asarlarida nutqning badiiy-estetik tomonlarni ochib beradigan, uning ta’sirchanliligini ta’minlaydigan vositalardan hisoblangan o‘xshatishlardan juda samarali foydalanilgan. Ayniqsa, individual-muallif o‘xshatishlaridan. Quyida biz muallifning “Ochilmagan eshik” va “Tobut” hikoyalarida qo‘llanilgan ana shunday o‘xshatishlarga misollar keltiramiz:

Kelinchak har kecha o‘zi o‘tirgan daraxtga bir muddat qo‘nib o‘tgandan so‘ng yana uzoq safarga otlangan qirg‘iydek o‘zidan kundan-kun uzoqlashib, noma’lum manzil sari ketib borayotgan erini, uning so‘nggi paytlarda paydo bo‘lgan ters, qo‘pol, jizzaki fe’l-atvorini, bir vaqtlar eri bilan juft qanot bo‘lib uchib o‘tgan, hozir esa tashlab ketilgan baxt manzilidek ko‘rinayotgan kelinchaklik paytlarini eslab to tonggacha yig‘lab chiqardi. [2. 164-bet] Kelinchak – “daraxt”. Kelinchakning kundan-kun uzoqlashib keltayotgan eri o‘zi o‘tirgan daraxtga bir muddat qo‘nib o‘tgandan so‘ng yana uzoq safarga otlangan qirg‘iyga qiyoslangan. U qaytib bu “daraxt”ga kelmaydi. O‘tib ketgan kelinchaklik payti bor. Manzilida tashlab ketilgan baxtga qiyoslangan. Bu obrazli o‘xshatishlar qahramonning ichki kechinmalari, iztiroblarining ta’sirchan ifodasidir.

Ba’zan u o‘ziga hech aloqasini bo‘lmagan, gohida iztirob, faromushlik, gohida shiddat, jo‘shqinlik, xushbaxtlik chulg‘ab oladigan erining tund yuzidan quyuq tuman ichida sekin o‘chayotgan gulxan yanglig‘ o‘ziga atalgan va asta-sekin izsiz so‘nayotgan zaifgina ehtiromni ko‘rib qolardi. [2. 165-bet] Kelinchak eridagi unga nisbatan yo‘qolib borayotgan (aslida o‘zi bormidi?) qadr, ehtiromning yo‘qolib borayotganligini *sekin o‘chayotgan gulxan*ga qiyoslangan.

Shaharga yaqinlashganda *ulkan maxluqning katta qanotiga o‘xshaydigan* darvoza boshliq maqtaganchalik ekanini ko‘rdik. [2. 181-bet] Darvoza – o‘xshatish obyekti;qanot o‘xshatish etaloni; katta – o‘xshatish asosi. Bunday o‘xshatish o‘quvchi ongida xunuk va salbiy hodisalarning boshlanish jarayonini gavdalantiradi.

Uylar ataylab ichkariga salqin saqlash uchun ufqqa teskari qurilgan, derazalardan tushayotgan xira shula hujralarni yoritishga qurbi yetmay, *O'lmas Dev bilan olishaverib holdan toygan botir misoli* bir burchakda holsiz to'shalib yotardi. [2. 184-bet] Shahardagi xunuk, sovuq manzaraning jonlantirish va o'xshatish vositasidagi omuxtalashgan badiiy ifodasidir bu.

Hozir o'lat chiqqandan beri shahrimiz fayzsiz bo'lib qoldi, u paytlar esa shaharni naq xayolning jilvalari deb o'ylardingiz: *nafis gumbazlar, serjilo bo'yoqlar, nozik va ehtirosli qalbning parchalari kabi* marmarlar, abadiyatni suyab tura oladigan ustunlar, *qiz bolaning ko'z yoshiday* favvoralar-hammasi go'zal bir tarzda uyg'unlashib ketgandi. Muallif shahrning chiroyi – *nafis gumbazlar, serjilo bo'yoqlarni,* marmarlar, abadiyatni suyab tura oladigan ustunlarni *nozik va ehtirosli qalbning parchalariga mengzaydi;* favvoralarning pokligini *qiz bolaning ko'z yoshi*ga qiyoslaydi. Nazorat boshlig'ining mushti g'azabdan siqilib ketganini ko'rib qoldim, hozir qo'yib bersa quturgan ayiqday butun shaharni vayron qilib tashlaydigan vajohati bor edi yuzida. Nazorat boshlig'ining kuchli darajadagi g'azablangan holati quturgan ayiqqa qiyoslangan.

Xususiy-muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy taxayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlaridir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishdan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni konkretlashtirish, mavhum tushunchalarni aniqlashtirish, narsa-hodisa, harakat-holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirganini ko'rish mumkin. Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Nazar Eshonqulning "Ochilmagan eshik" va "Tobut" hikoyalaridagi o'xshatishlar asosan so'z qo'llsh mahorati natijasidagi ijodkor tomonidan qo'llngan individual-muallif o'xshatishlaridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nizomiddin Mahmudov. O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi.-Til va adabiyot ta'limi jurnali. 2019-yil 2-son.
2. Nazar Eshonqul. Saylanma I. «Akademnashr», Toshkent 2022.

## INTERFAOL METODLAR VOSITASIDA O'QUV MATERIALLARINI O'ZLASHTIRISHNI INDIVIDUAL SHAKLDA TASHKIL ETISH

**Xolniyozova Sabina Furqat qizi**
**NDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi**

**Annotatsiya.** Bugungi kognitiv tilshunoslikka asoslangan hamda fanlar integratsiyasi asosida tuzilgan yangi tahrirdagi "Ona tili" darsliklari mavzularini o'quvchilarga tushuntirishda, ayniqsa, kichik guruhlar bilan ishlashda interfaol metodlar bilan samarali natijalarga erishiladi.

Interfaol usulidagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga,olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi

**Kalit so'zlar:** Interfaol metodlar, "Montessori usuli", "G'ildirak –terapiya", kichik guruhlarda ishlash.

**Annotation.** In explaining to students the topics of the new edition "native language" textbooks, which are based on today's cognitive linguistics and are based on the integration of Sciences, effective results are achieved with interactive methods, especially when working with small groups. Classes in the interactive method encourage the reader to think creatively,to actively solve the information received, to freely state the idea, to take initiative, to find solutions to issues in groups, to work in cooperation, to express the idea in writing.

**Keywords:** interactive methods, "Montessori method" "wheel-therapy", work in small group.

**Аннотация.** Эффективные результаты достигаются интерактивными методами при разъяснении учащимся тем учебников "родной язык" в новой редакции, основанной на современной когнитивной лингвистике и построенной на интеграции дисциплин, особенно при работе с небольшими группами.Занятия по интерактивному методу побуждают учащегося мыслить творчески,решать полученную информацию в деятельности, свободно

высказывать мысль, проявлять инициативу, находить решения проблем в группах, вести совместную работу, излагать мысль в письменной форме.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, "метод Монтессори" , "колесо-терапия", работа в малых группах.

**Kirish.** Davlat buyurtmasida fan va ta'limning rivojlanish hamda integratsion holati, boshqaruv, taminot tizimining darajasi, jamiyat va shaxs orzu-umidlarining mushtarakligi kabilar diqqat markazda bo'lib, muayyan hujjat bilan rasmiylashtiriladi. Bu hozirgi kunda Respublikamizda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "2017-2021-yillardaO'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" [1] kabilardir.Mazkur rasmiy hujjatlarda ta'lim tizimiga muayyan talablar qo'yiladi. Bu talablar ta'limning maqsad, vazifa, tur va bosqichlarini belgilab berdi, umuman va har bir fan bo„yicha buyurtma mazmuni Davlat ta'lim standartlari (malaka talablari) ko'rinishida qonunlashtirildi. Ta'lim O'zbekiston Respublikasi siyosatining ustuvor yo'nalishi, davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy-pedagogik masala bo'lganligi bois uning bosh maqsadi ham hukumat tomonidan belgilab berildi: "Mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berishimiz kerak." [2] Zero, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari'' tamoyiliga asoslangan holda maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur." [3] Ta'lim usuli, mazmuni, ta'lim vositalari ana shu ulkan va ulug„ vazifalarning aniq va puxta bajarilishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim maqsadida shaxsning ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi milliy mafkura va milliy g'oyaga muvofiq bo'lishi aksiomatik xarakterga ega. Chunki tarbiyalanuvchi shaxsning ma'naviymafkuraviy qiyofasi jamiyatning yagona va umumiy ma'naviymafkuraviy siyosatiga mos kelishi jamiyat taraqqiyotining garovidir.Shuningdek, ona tili ta'limi maqsadining asosiy uzviy bo'lgan ijodi tafakkurli va mustaqil fikrli shaxsni tarbiyalash masalasi davlatimizning ichki siyosati va iqtisodiy tizimning, uning haraklantiruvchi kuchlarining tafakkur tarziga bo'lgan talabi bilan belgilanadi.Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy tafakkuri yuksak, har qanday qiyin vaziyatdan o'z aql-idroki, mustaqil ijodiy tafakkuri bilan omon chiqa oladigan, shuurida milliy ruhi mustahkam bo'lgan shaxsni tarbiyalashni taqozo qiladi. Davlatimiz siyosati negizida shaxs farovonligi va baxt-saodatini ta'minlash yotar ekan, unda shaxs tarbiyasi yuqorida ko'rsatilgan maqsaddan boshqa mo'ljalda tashkil etilishi mumkin emas. Bu jarayonda: "Maktab bu –hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi burchiga aylanishi kerak." [5] Demak, bosh maqsadimiz "«ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat" ekan, buning asosiy vositalaridan bo'lgan ona tili ta'limi masalasiga an'anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko'z bilan qarashimiz lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)**. Interfaollik — o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quvbiluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida, dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi-o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi.Interfaollik — o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlikdir. U o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaousulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi hamda o'quv sifati va samaradorligini oshiradi, ta'min etadi.Interfaollik asosida o'tgan darsni tashkil etish jarayonida birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilar hamkorlikda ishlash orqali mavzu mazmunini o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylikni ta'minlaydi, yangibilimlarni olish, o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlariniqo'llab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. "Hammasini bolaning o'ziga qo'yib berish kerak."- Ushbu jumlalar muallif shifokor va o'qituvchi Mariya Montessori bolalarni mustaqil va kichik guruhlarda faol hamda

hamjihat bo‘lib ishlashga o‘rgatuvchi o‘zining "Montessori mashg‘ulotlari" ni birinchilardan bo‘lib ishlab chiqadi. Bu usulning asosiy prinsipi barcha materiallar bolaga mos bo‘lishi va bolaning barcha sezgilarini jalb qilishi kerak degan qoidaga asoslanadi. .O‘qituvchilar rahbarlik qilishadi, biroq hech qanday nazorat va majburlovlarsiz bolani qo‘llab-quvvatlaydilar. Bunda Montessori interfaol metodlardan samarali foydalanadi Bunda har bir bolaga mustaqil harakatlanish huquqi berilishi, ular o‘zining ijodkorlik hamda muammoni erkin hal qilish.“Hammasini bolaning o‘ziga qo‘yib berish kerak”. Ushbu jumlalar muallif shifokor va o‘qituvchi Mariya Montessori bolalarni mustaqil va kichik guruhlarda faol hamda hamjihat bo‘lib ishlashga o‘rgatuvchi o‘zining "Montessori mashg‘ulotlari" ni birinchilardan bo‘lib ishlab chiqadi.Bu usulning asosiy prinsipi barcha materiallar bolaga mos bo‘lishi va bolaning barcha sezgilarini jalb qilishi kerak degan qoidaga asoslanadi. Bunda har bir bolaga mustaqil harakatlanish huquqi berilishi, ular o‘zining ijodkorlik hamda muammoni erkin hal qilish qobiliyatidan foydalana olishlari kerak.
O‘qituvchilar rahbarlik qilishadi, biroq hech qanday nazorat va majburlovlarsiz bolani qo‘llab-quvvatlaydilar. Bunda Montessori interfaol metodlardan samarali foydalanadi.Ona tili mashg’ulotlarida foydalaniladigan interfaol metodlarning hozirda ikki yuzdan ortiq turi mavjud. Xullas, zamonaviy pedagogik texnologiyaning afzalligi ham, ahamiyati ham shu bilan belgilanadiki, bu ommaviy o’qitish sharoitida o’quvchilarning to’la o’zlashtirishini ta’minlovchi samarali yo’ldir. Zero, o’quvchilar uchun ona tili darslarida tilshunoslik asoslarini emas, tilimizning rang-barang imkoniyatlaridan foydalanishni o’rganishlari muhim.
**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, interfaol metodlaridan foydalanildi.
**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Interfaol darslarni tashkil etishda o‘quv jarayonida yakka tartibda, juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, hujjatlar bilan ishlash, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko‘zda tutib, muammoni keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma’lum malakalarga ega bo‘lgan holatlarda qo‘llanilsa, kutilgan natijalarni olish mumkin.Interfaol o‘qitishda o‘qitish muhiti tashkil etiladi, qulay muhit yaratiladi, yaxshi tashkil etilgan o‘qitish muhiti:

— o‘qish va tadqiqotlarga ko‘maklashadi;
— turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega bo‘ladi;
— ijodkorlik qobiliyatiga rag‘bat beradi;
— fikrlar va axborotlar almashinuviga imkon yaratadi;
— nutqiy rivojlantirishni rag‘batlantiradi;
— ma’lumotlarni mustaqil olish ko‘nikmalarini shakllantiradi;
— uzluksiz ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
— turli usullar bilan ma’lumot olish uchun resurslarni o‘z ichiga oladi;
— ma’lumotnomalar, lug‘atlar, ensiklopediyalar, geografik xaritalar, tajriba o‘tkazish uchun turli asboblar, materiallar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.O‘quv materiali mazmuni, nimaga o‘rgatilishi, tahlili motivatsiyasi, o‘qituvchi, o‘quvchini ketma-ketlikdagi harakatlari ko‘zda tutiladi

Men o‘zimning fanlar integratsiyasi hamda kognitiv tilshunoslikdan foydalanib, tuzilgan interfaol metodlar jamlanmasini " G‘ildirak-terapiya" terapiya deb nomladim. Ushbu metodlar quyidagilar bo‘lib, asosan ushbu metodlar yangi tahrirdagi " Ona tili" darsligidagi mavzularni o‘quvchilarga tushuntirishda qulay va samaralidir. Masalan: "Orfografiya" va " Orfoepiya" bo‘limlarini o‘qitishda radiodan foydalanish juda samaralidir. Bunda o‘quvchilar eng ko‘p xatoga yo‘l qo‘yadigan " H va X" , " Qator undoshli so‘zlar" , " " Qator unli" , " Qo‘sh undosh" va " Qo‘sh unli" li so‘zlar imlosini o‘rgatish maqsadida, bunday so‘zlarni ovozli yozib olgan holda, radiodan o‘quvchilarga eshittirish usuli foydali va qiziqarlidir.
"Oltin charxpalak" metodi " Leksikografiya" bo‘limi haqida tushuncha berishda hamda " Lug‘atlar ustida ishlash" mavzularida samarali natija beradi. Bunda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi va mavzuga oid atamaning harflar o‘rni chalkashtirilgan holatda joylashtiriladi. O‘quchilar charxpalak ichiga joylashtirilgan atamani topishlari uchun (masalan yuqoridagi surat) suratda berilgan hayvon yoki buyum nomini topishi va

surat ostida berilgan raqam ostidagi harfni charxpalakka tartib bilan joylashtirishi kerak. Masalan, yuqoridagi surat asosida metodni bajarsak:birinchi hayvon tovuq, surat ostida esa qavs ichida " 3" raqami berilgan."Tovuq" atamasida uchinchi harf bu " V" undoshi demak, charxpalak ichiga yashiringan atamaning bosh harfi " V" undoshidan boshlanadi.

Frazeologiya bo'limini o'quvchilarga tushuntirishda " Jumanji"li frazeologiya" metodidan foydalanish mumkin. Bunda "Jumanji" va 150 dan ortiq iboralar ro'yxati kerak bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilar ketma-ketlikda Jumanji toshini tashlashadi va o'zlariga tushgan raqam ortidagi iboraning ma'nosini aytishga harakat qilishadi.Masalan, o'quvchiga "9" raqami tushdi, uning ostida "Etagida namoz o'qiydi" iborasi berilgan. O'quvchi iboraning ma'nosini aytishga harakat qiladi. Agar qiynalasan, matn orqali tushuntirishga harakat qiladi.Bu metod barcha o'quvchilarning darsda qatnashishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar nutqida tez-tez uchraydigan iboralarning ma'nosini bilishlariga yordam beradi.

Tasviriy ifodalar nutqni rang-baranglashtiradi. O'quvchilar nutqlarining ko'pchiligi tasviriy ifoda tashkil etishini bilishmaydi yoki foydalanishda qiynalishadi. Bundan tashqari, o'qituvchilar ham " Tasviriy ifoda" mavzusini o'tishda qiyinchiliklarga qiynalishlari mumkin. Bunda " Sukutdagi parmialogiya" metodi orqali o'quvchilarga oson va qiziqarli tushuntirishimiz mumkin. Bunda o'quvchilarga tasviriy ifoda rasmlar ko'rinishi tushuntiriladi. Metodda turli suratlar beriladi, o'quvchilar bu suratlarni moslashtirish orqali tasviriy ifoda nomini topadi

Yangicha uslubdagi interfaol metodlardan foydalanib o'tilgan darslar natijasi quyidagilarni tashkil etadi:

Sinf: 6-"V"

O'quv yili: 2022-2023

O'quvchilar soni: 24 nafar

| Chorak | A'lo | Yaxshi | Qoniqarli |
|---|---|---|---|
| I | 7 | 8 | 9 |
| II | 11 | 8 | 5 |
| III | 12 | 9 | 2 |
| IV | 13 | 10 | 1 |

Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim:

— O'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

— O'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi.

— O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruhlar).

— O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi.

— O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi.

— O'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish,fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi.

— O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi,tanqidiy qarashi rivojlanadi.

— O'quvchi uchun dars qiziqarli o'tilayotgan predmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi.

— Har bir o'quvchi o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

— Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

**Xulosa (Conclusion).** Hozirgi kunda ilg'or pedagogik texnologiya elementi bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Interfaol tushunchasi berilgan mavzuni o'qituvchi va o'quvchilar orasida o'zaro hamkorlik asosida dars samaradorligini oshirish, mustaqil fikr berish ko'nikmasini shakllantirish, fikr-mulohaza, bahs orqali o'rganish bilan xarakterlanadi.Bunda har bir o'quvchi qo'yilgan maqsadga mustaqil o'zi faol ishtirok etgan holda yakka, juftlikda, guruhlarda javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, yozadi, so'zga chiqadi, dalil va asoslar orqali masalani yoritib berishga harakat qiladi. Interfaol metodlar natijasi o'laroq hattoki o'quvchilarning o'zlari ham metod yaratish imkoniga ega bo'ladilar. Eng asosiysi, interfaol bolani maktabga emas, maktabni bolaga moslashtirish.Natijada, o'quvchi qo'rqqani yoxud majburligi uchun emas, qiziqqanligi va

fan kerakligini, fan mas'uliyatini his qilgan holatda o'qiydi. O'qituvchi ham tayyor metodlar orqali yangi tahrirdagi darslik mavzularini qiynalmasdan o'quvchilarga tushuntiradi. Chunonchi, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi ta'minlanadi, mustahkamlanadi.Bir qaraganda, yangicha interfaol metodlar kompyuter va monitorsiz foydalanib bo'lmaydigandek tuyuladi. Aslida ularni har qanday sharoitga moslashtirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni//Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:Sharq,1997. – 64 b. 20-29-b.
2.O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"//Barkamol avlod—O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.:Sharq,1997. – 64 b. 30-31-b.
3.G'ulomov A., Ne'matov H., Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent:O'qituvchi,1995. – 128 b.
4.G'ulomov A. , Qosimova N. Ona tili metodikasi. – Buxoro: Universitet, 2004.
5.G'ulomov A.Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi.– Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
6.www.uzxabardor.uz O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi. farmoni bilan tasdiqlangan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".

## "SADOQAT" LEKSEMASINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

**Ibrohimova Saida**
**NDPI, O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar: dotsent F.H.Yuldashev**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada "sadoqat" leksemasining O'TIL hamda "Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati" dagi sharhlari o'rganildi, integral va differensial semalari o'zaro qiyoslandi, bu orqali "sadoqat" leksemasining turli semantik qirralarini aks ettiruvchi semalar aniqlandi.

**Kalit so'zlar**: sadoqat, maxsus lug'at, integral sema, differensial sema.

Bugungi kunda ma'naviyatning tilshunoslikda o'rganilishi orqali yangi bir soha – lingvoma'naviyatshunoslik vujudga kelmoqda. Ma'naviyat konsepti, ayniqsa, bugungi globallashuv davridagi muhim masalalardan biridir. Mazkur kategoriyaning semantik tarkibi keng va serqirradir. Xususan, "sadoqat" leksemasi ushbu kategoriyaning uzvlaridan, sohaga oid tushunchalardan hisoblanadi. Mazkur leksemani "ma'naviyat" umumiy ma'noli atov birliklarga qanday aloqasi borligi, uning semantik tarkibi, umumiy va xususiy semali, o'quvchilarga ushbu leksemaning semantik xususiyatlari tushuntirib berish muhim vazifalardandir. Avvalo, bu leksemaning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi sharhi bilan tanishib chiqamiz. **SADOQAT**(a. do'stlik, birdamlik; samimiylik) 1.Chin qalbdan berilganlik; sodiqlik, vafodorlik. *O'g'lon, oqil ham mard bo'lgin, Mardlik- elga sadoqat.* E. Vohidov, Nido. *Gulnor chuqur sadoqat ifoda etgan ko'zlari bilan yigitga qaradi.*Oybek, Tanlangan asarlar.
2. Sadoqat (xotin- qizlar ismi).[110]

Ushbu ta'rifga asoslanadigan bo'lsak, "sadoqat" leksemasining tarkibida "vafodorlik", "sodiqlik", "sadoqat", "vafo", "ishonch" semalari yotadi. Yuqorida berilgan misollar orqali sadoqatning bir qancha ko'rinishlari borligining guvohi bo'lamiz. Xususan, E. Vohidovning "Nido" dostonidan olingan parchada yurtga, vatanga bo'lgan sadoqatni ko'rsak, Oybek asarlaridan olingan jumlada esa, yorga bo'lgan sadoqatni tushunamiz. Shuningdek, "sadoqat"ni *ota- onaga bo'lgan sadoqat, yorga bo'lgan sadoqat, do'stga bo'lgan sadoqat, dinga* hamda *vijdonga nisbatan sadoqat* va shu kabi guruhlarga ajratishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida A.Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi "Ikki vafoli yor" hikoyatini keltirishimiz mumkin. Unda ikki do'stning bir-biriga bo'lgan sadoqati haqida hikoya qilinadi. Yuqoridagi misollarda sadoqat ijobiy ma'noni ifodalagan bo'lsa, ayrim o'rinlarda bu leksemaning salbiy ma'no ifodalagligini ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: " *Piri Bukriy, munchoqday ko'zlari sadoqat va umid bilan javdirab, poygakda qo'l qovushtirib turar, u xuddi xo'jasidan suyak kutayotgan kuchukka o'xshar, biroq xo'jasi, o'z g'ami,*

[110] O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-B.418.

*o'z o'ylari bilan band, vafodor kuchugiga qaramas edi*"[111]. Quyida "sadoqat" leksemasining ichki sistemasini aniqlash uchun maxsus lug'atlardagi izohiga to'xtalsak. Xususan, "Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati"da bu leksema shunday keltiriladi:

**Sadoqat** (arab. do'stlik, birdamlik; samimiylik) - insonga xos eng ezgu ma'naviy-axloqiy xislatni ifodalovchi tushuncha. Sadoqat "samimiylik", "vafodorlik", "do'stlik" so'zlariga ma'nodosh hisoblanadi. Ma'lumki, mustaqillik yillarida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni milliy qadriyat va an'analarga muhabbatini, o'z yaqinlariga mehribonlik, tanlagan kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi.[112]

So'zlashuv nutqimizda bu leksemaning quyidagicha ma'nosi ham anglashiladi: **Sadoqat.** Qalban, sidqidildan qilingan sodiqlik. *Xalqiga sadoqati cheksiz, muhabbati baland inson bo'lib yetishmoq.*[113] Bundan tashqari, "sadoqat" leksemasi fidokorlik ma'nosini ham ifodalab keladi. Masalan: jonini ham ayamay, sadoqat bilan; *Fidokorona xizmat qilmoq*[114] kabi. Yuqorida "sadoqat" leksemasining turli lug'atlardagi izohlari bilan tanishib o'tdik. Bu lug'atlardagi izohlar o'zaro qiyoslanganda ulardagi semantik farqlarga duch kelamiz. Farqli va o'xshash ma'nolarni integral-differensial semalarga ajratamiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da keltirilgan semalar: *do'stlik, birdamlik, samimiylik, chin qalbdan berilganlik, sodiqlik, vafodorlik, yurtga sodiqlik, yorga sodiqlik*. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati" da keltirigan semalar: *birdamlik, samimiylik, do'stlik, axloqiy hislat, ezgu hislat, vafodorlik, yaqinlarga mehribonlik, vatanga sadoqat, kasbga sadoqat, e'tiqodga sodiqlik.* Tahlilga to'xtaladigan bo'lsak, bu ikkala lug'atdagi "do'stlik", "birdamlik", "samimiylik", "vatanga sadoqat", "vafodorlik" semalari umumiy ya'ni integral sema bo'lib kelmoqda. Izohli lug'atda keltirilgan "chin qalbdan berilganlik" hamda "yorga sodiqlik" semalari ma'naviyat izohli lug'atiga nisbatan differensial sema, ma'naviyat izohli lug'atidagi "axloqiy hislat", "ezgu hislat", "yaqinlarga mehribonlik", "kasbga, e'tiqodga sadoqat" semalari izohli lug'atga nisbatan differensial ya'ni farqlovchi sema vazifasini bajarmoqda. "Sadoqat" leksemasining so'zlashuvimizda ifodalaydigan "fidokorlik" semasi esa har ikkala lug'atdagi semalarga nisbatan differensial sema bo'lib keladi.

Shu ta'riflarga asoslansak, "sadoqat" leksemasining ma'noviy munosabatini ikki turga ajratish mumkin: ma'naviy va moddiy tushunchalarga oid sadoqat.

| Sadoqat leksemasining semantik tarkibi | |
|---|---|
| **Ma'naviy** | **Moddiy** |
| Vatanga sadoqat | Kasbga sadoqat |
| Ota-onaga sadoqat | Hayvonlarning egasiga nisbatan sadoqati |
| E'tiqodga sadoqat | |
| Yorga sadoqat | |
| Do'stga sadoqat | |
| Vijdonga nisbatan sadoqat | |
| Ustozga sadoqat | |
| Ilmga sadoqat | |

"Sadoqat" leksemasini lug'atlar doirasida o'rganishdan maqsad o'quvchilarda tushunarlilikni oshirishdir. Ma'naviyatga oid leksemalar semalarini bir- biri bilan qiyoslash orqali o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish ko'zda tutildi. Shunday ekan, ularga ma'naviyatga oid matnlarning anglashilishi ham oson bo'ladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov va bosh. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.-B.63-217.


[111] Odil Yoqubov.Ko'hna dunyo.Toshkent: "Yangi asr avlodi",2015.-B.420

[112] Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati.Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi", 2013.-B.500

[113] A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov va bosh.Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.-B.217

[114] A.Hojiyev, A.Nurmonov, S.Zaynobiddinov va bosh.Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2001.B-63

2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati.Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2013.-B.500.
3. Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo.Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2015.-B.420
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.-B.418.

## PAXTACHI TUMANI AYRIM TOPONIMLARINING LISONIY TAHLILI

**Durdona Qurbonova Adxamovna**
**NDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar: Nuritdinova R. S.**
**NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada Paxtachi tumanida joylashgan qishloq va ayrim mahalla nomlarning nomlanish tarixi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** toponim, gidrotoponim, antrotoponim, Xumor qishlog‘i, Qarnob mahallasi, Dabusiya qishlog‘i.

Dunyodagi har bir xalq, millatning tili, urf-odatlari, madaniyati bir-biridan farq qilgani kabi ular tomonidan qo‘yilgan toponimik nomlar ham turlichadir. Ayni bir xil, takrorlangan joy nomlarini dunyo tillarida uchratish amrimahol. Xaritalarga e'tibor berib qarasak, unda, asosan, toponimik – joy nomlarini ko‘rishimiz mumkin. Bunda joy nomlarining asosini qabila va xalqlar nomlari va etnonimlar tashkil etadi. Buning sababi, kishilik jamiyatining ilk bosqichidan boshlab aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Etnik belgi bilan hisoblashda ijtimoiy voqelik bosh me'yor, mezon vazifasini o‘tagan. Barcha etnik birlikning nomi etnonim deb ataladi. Juda ko‘p joy nomlari etnonimlar bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Shu o‘rinda etnonim atamasiga izoh keltirib o‘tsak. Etnonim yunoncha etnos - “xalq” va onim - “nom ” so‘zlaridan tarkib topgan. Etnonimlar mazmuni etnonimiya, etnonimlarni o‘rganadigan fan etnonimika deyiladi.[115] Etnotoponimlarning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, turli tuman ijtimoiy, tarixiy lingvistik omillar bilan bog‘liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug‘, qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi.

Adabiyotlardan foydalanish jarayonida joy nomlariga oid bir qancha ilmiy atamalarga duch kelamiz. Masalan, toponim, etnotoponim, gidronim, urbonim va hk. kabi. Birinchi navbatda toponim atamasining izohini keltirib o‘tamiz.Toponimika atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, “topos” - joy, “ onom ” yoki “onima” - nom. Umuman, joy nomini o‘rganadigan fan degan ma’noni bildiradi.[116]

Toponim joy nomlarining qo‘yilishida unga biror kishi ismi, urug‘ nomi yokida o‘sha yerda mavjud bo‘lgan biror shahar va suv havzasi nomi kabilar asos qilib olinadi. Bu singari joy nomlarini Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi ayrim qishloq va mahallalar nomi misolida ko‘rib o‘tamiz. Mahallalarda yashovchi aholi bilan suhbat qilish natijasida shunga amin bo‘ldikki, qishloq va mahalla nomlari haqida bir qancha afsonalar mavjud va ularning bir qismi kishi nomlari bilan bog‘liq. Misol tariqasida bir qancha joy nomlarini tarixi bilan tanishib chiqamiz.

**“Xumor” qishlog‘i** nomi qadimda Xumor ismli momo bo‘lgan ekan, shuni nomidan qolgan joy, avlodlari shu yerda qolib Xumor degan nom tarqalgan ekan. Xumor degani “baxtli, quyoshli o‘lka” degan ma’noni anglatar ekan. Bu ta’rifdan ko‘rishimiz mumkinki, Xumor nomi kishi ismi bilan bog‘liq va bu joy nomi ilmiy tilda antrotoponim deb ataladi.

Bundan tashqari, Paxtachi tumanida gidrotoponim, ya’ni suv havzalari bilan bog‘liq joy nomlari ham bor bo‘lib, unga oid ta’riflarni shu yerlik aholi tilidan yozib oldik.

**Qarnob mahallasi**. Qarnob so‘zi arabcha “qarn” va tojikcha “ob” so‘zlarining birikuvidan tashkil topgan. “Qarn” so‘zi “shoh”, “tog‘ cho‘qqisi”, “boshlanish” ma’nolarini anglatadi. “Ob” so‘zi suv demakdir. “Qarnob” so‘zi cho‘l bag‘ridagi suvlik joy ma’nosini ifodalaydi.

---

[115] Z. Madrahimov. Tarixiy toponimika. "Navro‘z" nashriyoti. -T.,2017.B.62.
[116] Z. Madrahimov. Tarixiy toponimika. "Navro‘z" nashriyoti. -T.,2017.B.5

**Dabusiya qishlog‘i.** Bu nom shu yerda joylashgan shahar nomidan kelib chiqqan. Bundan tashqari, shaharda mustahkam qal’a ham bor bo‘lgan bo‘lib, u yer Dabus qal’a deb nomlanadi. Bu joy tarixiga to‘xtalsak, u haqida manbalarda bir qancha ma’lumotlar mavjud.

**Dabus qal’a.** Zarafshon sohilida muqaddas joy bor. Bilganlar uni e’zozlab, “Avliyo Ota” deb ulug‘laydi. Uni Dabusiy, Dabusiya qal’asi, Dabus, Dabus qal’a, Dahbus qal’a deb ham atashadi. Aytishlaricha, qadimda bu yerda ulkan shahar bo‘lgan. Ammo bugungi kunda bu yerda na shahar bor, na odamlar yashaydi. Keng hududdan iborat maydonda son-sanoqsiz qabrlar mavjud. Vayronaga aylangan shahar tuproq ostida qolgan. Dabus qal’a deb nomlangan ulug‘ shaharning bisotida yolg‘iz yodgorligi Imom Bahra Ota maqbarasi bor. Vayronalar bag‘rida yana bir yodgorlik Ziyovuddin Qo‘rg‘oni o‘rnidan nishona buzilgan masjid devorining (eni 1,20 sm) qoldig‘i bor.[117]

Dabusiya qishlog‘i nomini ilmiy nom bilan urbonim deb aytishimiz mumkin. Sababi bu joy nomi qadimda shu yerda mavjud bo‘lgan shahar va undagi qal’a nomidan kelib chiqqan.

Samarqand viloyatidagi bu joy arxeologlar tomonidan ham o‘rganilgan bo‘lib, ular bu nomning tarixiyligini isbotlashgan. 1971-yilda tarix fanlari doktori Yu.F.Buryakov rahbarligidagi arxeologlar Samarqand viloyatidagi qadimiy yodgorliklarni o‘rganishgan. Arxeologlar Dabusiy qal’asida ham bo‘lib, muhim ma’lumotlar to‘plashga muvaffaq bo‘lishgan. Yu.F.Buryakovning yozishicha, Shahriston maydoni atrofi janubiy va g‘arbiy tomondan xandaqlar bilan o‘rab olingan. Xandaqlar bo‘ylab ichki tomondan o‘tkazilgan devorlar izlari aniqlangan.[118]

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, etnotoponimlar etnonimlar asosida yuzaga kelgan. Toponimikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri etnoponimika orqali qadimgi xalqlarning yashagan hududlarini aniqlash mumkin. Etnonimlarni yaxshilab o‘rganmay turib, etnoponimikani o‘rgana olmaymiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. I.Sanayev. Ziyovuddin tarixi. “Sharq” nashriyot-matbaa konserining bosh tahririyati.-T.,1995.B.232- 235.
2. Z. Madrahimov. Tarixiy toponimika. “Navro‘z” nashriyoti. -T.,2017.B.5-62.

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT- SO‘Z TURKUMINI O‘RGATISH METODIKASI

**Abdujabborova Durdona Qamariddin qizi -**
**Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar: Ernazarova M.S.f.f.d. (DSc), professor**

**Annotatsiya.**Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumlari haqida o‘rgatish, yozma va og‘zaki nutqda so‘z turkumlaridan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish o‘quvchilarning nutq qobilyatini rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Ushbu maqolada so‘z turkumlarini o‘rgatish yo‘llari tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** ot so‘z turkumi, boshlang‘ich sinfda so‘z turkumlarini o‘rgatish, so‘z turkumlarini o‘rganish bosqichlari, maktab,boshlang‘ich sinf o‘quvchilari

**Аннотация.** Обучение учащихся начальной школы словарному запасу, обучение их правильному использованию словарного запаса в письменной и устной речи будет мотивировать учащихся развивать разговорные навыки. В данной статье анализируются способы обучения словарному запасу.

**Ключевые слова:** Именная лексика, преподавание лексики в начальной школе, этапы изучения лексики, учащиеся начальной школы

**Annotation.** Teaching elementary school students about vocabulary, teaching them the correct use of vocabulary in written and oral speech will motivate students to develop speaking skills. This article analyzes ways to teach vocabulary.

**Keywords:** Noun vocabulary, teaching vocabulary in elementary school, stages of learning vocabulary, elementary school students

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumlarini o‘rgatish o‘quvchilardan ko‘proq e’tibor talab qiladigan jarayon hisoblanadi. So‘z turkumlarini o‘rganishdagi asosiy jarayon o‘quvchilarning

---

[117] I. Sanayev. Ziyovuddin tarixi. " Sharq" nashriyot-matbaa konserining bosh tahririyati.-T.,1995.B.232.
[118] I. Sanayev. Ziyovuddin tarixi. " Sharq" nashriyot-matbaa konserining bosh tahririyati.-T.,1995.B.235.

og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning hozirgi vaqtgacha og‘zaki nutqida qo‘llab kelgan so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri va aniq tushunishga erishish hisoblanadi. So‘z turkumlarini o‘rgatishda o‘quvchilarning bevosita ko‘rganlari, radio va televideniya orqali eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarda ko‘rish, kuzatish va muhim narsalarni sezish ko‘nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish va ularning nutq boyligini o‘stirish vazifasi ham amalga oshadi.[119] Boshlan’ich sinf o‘quvchilariga so‘z turkumlarini o‘rgatish bilish ko‘nikmasi ularning belgilari yig‘indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, gulladi so‘zlarining qaysi so‘z turkumiga kirishini bilish uchun 2-sinf o‘quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima ? – gul, bu so‘z narsani bildiryapti, ko‘plikda qo‘llay olamiz – gullar, bu ot; guldor so‘zi qanday ? so‘rog‘iga javob bo‘lyapti, narsaning belgisini bildiryapti, bu – sifat; gulladi so‘zi nima qildi ? so‘rog‘iga javob bo‘lyapti, narsaning holatini bildiryapti, bo‘lishsiz shaklda qo‘llanadi – gullamadi, bu fe’l. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z turkumlari (ot, sifat, son, fe’l) umumiy ma’lumot berilgandan so‘ng har bir grammatik guruh alohida o‘rganiladi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z turkumlarini bir-biridan farqlashga, ularni taqqoslashga yordam beradi va shakllantirilgan grammatik tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq o‘rganishga imkon yaratadi. O‘quvchilar mashqlar bajarganda va dars mashg‘ulotlarida savol berilganda so‘z turkumlaridan bemalol to‘g‘ri foydalana olishadi.

**Ot – so‘z turkumini o‘rgatish metodikasi**

Ot – so‘z turkumi mavzusini o‘rgatish tizimi maqsadga yo‘naltirilgan asosiy jarayon bo‘lib, unda bu so‘z turkumining umumlashgan ma’nosi va grammatik belgilari aniq, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog‘liqlikda o‘rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to‘g‘ri foydalanish va to‘g‘ri yozish malakasini rivojlantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta- sekin murakkablashtirib boriladi. Til hodisasi sifatida ot so‘z turkumining xususiyatlari, uni o‘rganish vazifalari, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o‘rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang‘ich sinflarda otni organishning vazifalari mavjud. Ular quyidagilar:

1) “ ot’’ haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;

2) kim? So‘rog‘iga javob bo‘lgan ( shaxs nomini bildirgan) otlarda nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko‘nikmasini hosil qilish;

3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo‘yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko‘nikmasini shakllantirish;

4) otlarda son ( otning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi ) bilan tanishtirish;

5) otlarni egalik qo‘shimchalari bilan to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish;

6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;

7) o‘quvchilar lug‘atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish;

8) so‘zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.[120]

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki ular o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. So‘z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma’nolari va grammatik belgilari bilan boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy ma’nosi shaxs va narsalarni ifodalashdir.

Otni o‘rganishga tayyorlov bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda o‘quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo‘lgan so‘zlarni farqlashga o‘rganadilar, so‘zning leksik ma’nosiga e’tibor ko‘proq qaratiladi, ma’nolarni hisobga olgan so‘zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar) ni guruhlash ko‘nikmasi shakllantiriladi.[121] Keyingi bosqichda otning leksik ma’nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi.

---

[119] Internet resurs( kitob.uz)

[120] Qosimova K., Matchonov S. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009. – B.249.

[121] Internet resurs ( Ziyonet.uz)

2-sinfda otlarning leksik ma’nosi, atoqli va turdosh otlar ( atamasiz) haqidagi bilim chuqurlashtiriladi. 3-sinfda “ Otlar, ya’ni otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanilishi” ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarda: 1) birlik va ko‘plikda qo‘llangan otalarning ma’nosi va qo‘shimcha orqali farqlash, 2) birlikdagi otdan ko‘plik shaklidagi va aksincha, ko‘plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish, 3) gapda so‘zlarning bog‘lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. 4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish hisoblanadi. Otlar ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra atoqli va turdosh otlarga bo‘linadi. Bir xildagi predmetlardan biriga atab qo‘yilgan otlar atoqli otlar deyiladi: atoqli otlarga inson ismlari, uy hayvonlari nomlari va boshqa atab qo‘yilgan nomlar kiradi:Fotima, Olapar, Toshken Bir turdagi narsalarning umumiy nomini bildirgan otlar turdosh otlardir: maktab, odam, daraxt.Turdosh otlar aniq va mavhum otlarga bo‘linadi. Aniq narsani anglatadigan otlar aniq otlar deyiladi: tosh, daftar, uy. Mavhum tushunchani bildiradigan otlar mavhum otlardir: baxt, qayg‘u, g‘am,dev,ajina kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, so‘z turkumlarini to‘g‘ri va aniq tushuntirish juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘qib tushunishi, yozish savodxonligini, og‘zaki va yozma shaklda fikrlarini to‘g‘ri va ravon yetkazib berishga bog‘liqligi so‘z boyligini boyitishga, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga nutq madaniyatini rivojlantirishda albatta so‘z turkumlarining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham, biz, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z mutaxassisligimizni chuqur o‘rganib, yosh avlodga chuqur bilim berib, yurtimizga foydali mutaxassis bo‘lib yetishishiga o‘z hissamizni qo‘shmog‘imiz lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi maktab ta’limini rivojlantirish masalalari yuzasidan vedeoselektordagi nutqi.
2. Qosimova K., Matchonov S. va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T . 2009.
3. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – T.. “ O‘qituvchi”, 1992.
4. Internet resurslari (Ziyonet.uz, kitob.uz)


## G‘OZG‘ON SHAHRI TOSHTAROSHLIGI (SANGTAROSHLIGI) TARIXIDAN


**Oripov O‘ralboy Axmedovich,**
**NDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti**


Ma’lumki, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida, “Nur katta joy. Unda jome’ bor. Ko‘pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko‘p mubolag‘a qiladilar; Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan kishining fazilatiga ega bo‘ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tobeinlardan ko‘p kishilar u yerga dafn etilganlar, Xudo ularning hammalaridan to qiyomatgacha rozi bo‘lsin” kabi satrlar keltirilgan. Narshaxiy IX-X asrlarda yashab o‘tganligini nazarda tutadigan bo‘lsak va uning bu hudud haqida o‘sha davrda ma’lumotlar yozib qoldirilganligini hisobga olsak, u holda Nurota qadimdan islom dini tarqalgan va islom madaniyatining o‘choqlaridan bo‘lganligiga shak-shubha qolmaydi. O‘sha davrda ham bu maskan ziyoratchilar tashrif buyuradigan qadamjo bo‘lgan. Toshtaroshik (sangtaroshlik) – hunarmandlik turi bo‘lib, toshni kesish, yo‘nish bilan uni ma’lum shaklga keltirish kasbi. Inson juda qadim zamonlardan beri o‘z ehtiyojlari uchun turli-tuman tabiiy toshlardan foydalanadi. Tabiiy toshlar keng tarqalgan o‘lkalarda tosh asosiy qurilish materialidir. Uning turli navlari uy-ro‘zg‘or buyumlari, qurol va asboblar, bezak ashyolari tayyorlashda keng qo‘llanilgan. Qimmatbaho toshlar jahondagi deyarli hamma xalqlarda bezak buyumlari tayyorlashda ishlatiladi. O‘rta Osiyo, jumladan, O‘zbekiston tabiati turli-tuman toshlarga boy, shuningdek, toshga nisbatan foydalanishga birmuncha qulay va oson bo‘lgan yog‘och, ganchga hamboy, ammo bular orasida tosh alohida ahamiyatga ega. Qurilish materiali sifatida ham toshdan keng foydalaniladi. Neolit davriga mansub Lavlakon makoni (Qizilqum)da zargarlik ustaxonasining qoldiqlaridan feruza taqinchoqlar tayyorlashda foydalanilgan. Shuningdek, Farg‘ona viloyatidagi So‘x qishlog‘idan topilgan qora toshdan ishlangan tumor diqqatga sazovor. Azaldan

O‘zbekistonda binolarning poydevorini qurishda, ustunlarida, bino qismlarini bezashda marmar va xarsang toshlardan foydalanilgan. Ayritom, Fayoztepa, Qoratepa va boshqa binolarning qoldiqlari binolarni bezashda toshdan foydalanilganligini ko‘rsatadi.

Nurotaning toshtaroshlik san’ati aks etgan me’morchiliklari qatoriga shahardagi “Chashma” tabiiy me’moriy majmuasi, “Chilustun”, “Panjvaqta” katta gumbaz masjidlari, yuqorida aytib o‘tilgan shayx Abul Hasan Nuriy, Nurgulatoqudug‘i va madrasa hujrasi kiradi. Toshga ishlov berish san’ati bundan 2 mln yil ilgari paydo bo‘lgan bo‘lib, toshni o‘yishning san’at darajasiga ko‘tarilishi esa eramizdan oldingi 4-ming yillikda Mesopotamiya yerlari bilan bog‘liq. Toshtaroshlik san’ati esa III-IV asrlarda keng tarqalgan. Mesopotamiya, Misrda , ayniqsa, toshga o‘yib yozish san’ati keng tarqalgan bo‘lib, buyruq va farmonlar, asosan, toshga yozilgan. O‘rta Osiyoda esa azaldan arxitektura ishlarida toshdan foydalanilgan. Keyinchalik haykaltaroshlik ishlarida ham toshdan foydalanilgan. O‘rta Osiyodagi tosh buyumlar Xorazm hududidan, Kushon podsholigi arxitekturalaridan, Tuproqqal’adan (marmardan ishlangan haykalchalar) topilgan.

O‘zbekiston hududida azaldan Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya, Tuproqqal’a, Varaxsha, Afrosiyob, Xolchayon, Dalvarzintepa qadamjolaridan tosh, tog‘toshi, ohaktoshdan foydalanilgan. Xorazmdagi Tuproqqal’a va Qoraqalpog‘istondagi Qoratog‘ esa marmar toshlar olib foydaniladigan makon bo‘lgan. Aleksandr Fyodor (1784-1854) 1820-1821-yillarda Buxoro xonligi davrida hududni o‘rganib, sayohatlaridagi voqealar haqida asar yozdi. Uning aytishicha, Samarqand, Buxoro xonlari taxtga chiqishdan oldin, Samarqanddagi “Ko‘ksaroy“ saroyida joylashgan “Temur taxti”ga (A.Temur buyrug‘i bilan G‘ozg‘onning ko‘k marmar toshidan tayyorlangan ) o‘tirishgan. 1388-1400-yillarda Amir Temur Erondan ustalar olib kelib Samarqandda “Bibixonim” maqbarasini G‘ozg‘on marmaridan foydalanib qurdirgani tarixdan ma’lum.

Ushbu ma’lumotlar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ham mavjud.

Toshtaroshlikning keying rivojlangan davri XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Usta Muhammad Xeraviy, Mahmudi Nuriylar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu davrda Jo‘sh qishlog‘idagi masjid hamda “Ko‘ktosh ota” qabrtoshi (1509) barpo etilgan. “Temurnoma” da yozilishicha, Hazrat Bobo Shoh Ali Amir Temurning piri bo‘lib, bu kishining qabri G‘ozg‘onda joylashgan. U kishini xalqimiz “piri sangtarosh” deb ulug‘laydi. Bu “toshtaroshlar ustozi” demakdir va u kishi tosh qazib olgan tog‘ni “Ko‘hi boboyi Shoh Ali” deydilar. toshtaslik ularning avlodlari tomonidan davom ettirilgan.

Hozirgi kunda toshtaroshlik bilan shug‘ullanuvchi kishilar sulolasi aynan u kishiga borib taqaladi. Bu sulolani esa “shayxi go‘rganjiy” deydilar. Bu sulolaning davomchilari XVII-XVIII asrlarda yashagan. Usto Shamsiddin Buxoriy (G‘azg‘oniy)(1750-1800), Usto Abduhomid(1800-1850), Usto Abduolim, Usto Abdumo‘min G‘azg‘oniy(1830-1890) va XIX-XX asrlarda faoliyat ko‘rsatgan mashhur usta 1-o‘zbek sangtaroshi, muhandis Abdurahim Turdiyev (1880-1938), Usto Abdurasul Turdiyev(1877-1962), shogirdlari usto Baqo Komilov(1893-1980), bular bilan bir davrda ishlaganlardan kuyovi usto Safar Eshmurodov(1893-1935), usto Iso Burhonov(1863-1916), usto Rahmat Tag‘oyev(1882-1946), Bobonazar Jabborov(1896-1972), usto Umur Bozorov(1891-1961), Hayitmurod Yo‘ldoshev(1866-1923) toshtaroshlik bo‘yicha keng faoliyat ko‘rsatish bilan birga, shu toshtaroshlar sulolasining tamal toshlarini ham qo‘yishgan. O‘rta Osiyoda esa azaldan arxitektura ishlarida toshdan foydalanilgan. Keyinchalik haykaltaroshlik ishlarida ham toshdan foydalanilgan. O‘rta Osiyodagi tosh buyumlar Xorazm hududidan, Kushon podsholigi arxitekturalaridan, Tuproqqal’adan (marmardan ishlangan haykalchalar) topilgan.

O‘zbekiston hududida azaldan Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya, Tuproqqal’a, Varaxsha, Afrosiyob, Xolchayon, Dalvarzintepa, qadamjolaridan tosh, tog‘toshi, ohaktoshdan foydalanilgan. Xorazmdagi Tuproqqal’a va Qoraqalpog‘istondagi Qoratog‘ esa marmar toshlar olib foydaniladigan makon bo‘lgan. Aleksandr Fyodor (1784-1854) 1820-1821-yillarda Buxoro xonligi davrida hududni o‘rganib, sayohatlaridagi voqealar haqida asar yozdi. Uning aytishicha, Samarqand, Buxoro xonlari taxtga chiqishdan oldin, Samarqanddagi “Ko‘ksaroy” saroyida joylashgan “Temur taxti”ga (A. Temur buyrug‘i bilan G‘ozg‘onning ko‘k marmar toshidan tayyorlangan ) o‘tirishgan. 1388-1400-yillarda Amir Temur Erondan ustalar olib kelib Samarqandda “Bibixonim” maqbarasini G‘ozg‘on marmaridan foydalanib qurdirgani tarixdan ma’lum. Ushbu ma’lumotlar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida ham mavjud.

G‘ozg‘on shahri hududidagi qazib olinayotgan marmar toshlarga turli naqshlar ishlov berilsa, u chinakam mo‘jizaga aylanishi qadim tarixdan e’tirof etilgan.
Toshtaroshlikning keyingi rivojlangan davri XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Usta Muhammad Xeraviy, Mahmudi Nuriylar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu davrda Jo‘sh qishlog‘idagi masjid hamda “Ko‘ktosh ota” qabrtoshi (1509) barpo etilgan.
“Temurnoma” da yozilishicha, Hazrat Bobo Shoh Ali Amir Temurning piri bo‘lib, bu kishining qabri G‘ozg‘onda joylashgan. U kishini xalqimiz “piri sangtarosh” deb ulug‘laydi. Bu “toshtaroshlar ustozi” demakdir va u kishi tosh qazib olgan tog‘ni “Ko‘hi boboyi Shoh Ali” deydilar. Toshtaroshlik ularning avlodlari tomonidan davom ettirilgan.
Hozirgi kunda toshtaroshlik bilan shug‘ullanuvchi kishilar sulolasi aynan u kishiga borib taqaladi. Bu sulolani esa “shayxi go‘rganjiy” deydilar. Bu sulolaning davomchilari XVII-XVIII asrlarda yashagan. Usto Shamsiddin Buxoriy (G‘azg‘oniy)(1750-1800), Usto Abduhomid (1800-1850), Usto Abduolim, Usto Abdumo‘min G‘azg‘oniy (1830-1890) va XIX-XX asrlarda faoliyat ko‘rsatgan mashhur usta 1- o‘zbek sangtaroshi, muhandis Abdurahim Turdiyev (1880-1938), Usto Abdurasul Turdiyev (1877-1962), shogirdlari usto Baqo Komilov (1893-1980), bular bilan bir davrda ishlaganlardan kuyovi usto Safar Eshmurodov (1893-1935), usto Iso Burhonov (1863-1916), usto Rahmat Tag‘oyev (1882-1946), Bobonazar Jabborov (1896-1972), usto Umur Bozorov (1891-1961), Hayitmurod Yo‘ldoshev (1866-1923) toshtaroshlik bo‘yicha keng faoliyat ko‘rsatish bilan birga, sulolalar tamal toshlarini ham qo‘yishgan hisoblanishadi.
G‘ozg‘on shahrida ushbu sulolalar davomchilari bugungi kunga qadar sulola ishlarini davom ettirib kelmoqda. Misol uchun, shayxi go‘rganjiy sulolasi 1400-yildan buyon toshtaroshlik bilan shug‘ullanib kelmoqda. Bu avlod vakillari quyidagilar:
**Usta Abdurahim Turdiyev (1880-1938) sulolasi:**
1. O‘g‘li Raxmatillo Raximov (1927-1989)
2. Jiyani usta Yashin Saidov (1945)
3. Nevarasi usta Tohir Raximov (1961)
4. Nevarasi usta Muxtor Raximov (1970)
5. Chevarasi usta Shavkat Ahmedov (1976)
6. Usta Muxlis Raximov (1986)
7. Usta Rafiq Raximov (1988)
8. Usta Bruslan Raxmatilloyev (1991)



Usto Safar Eshmurodov Abdurahim Turdiyevning kuyovi hisoblanadi. U kishining nevaralari mashhur haykaltarosh Esanov Turkman (1953) va ularning avlodlari usta Esanov Ortiqboy va usta Zavqiddin Esanov. Keyingi sulola usto Bobonazar Jabborov sulolasidir. Farzandlari: usto Istam Bobonazarov, Munis Bobonazarov. Yana bir sulola: Usto Hayit Yo‘ldoshev, Abdulla Hayitov va Erkin Abdullayev. Sulolalar orasida keng ishlar olib borgan, munosib davochilarni tarbiyalab kelayotgan sulola asoschisi Abdurahim Turdiyev Misrdagi Al-Az’har madrasasida ta’lim olgan bo‘lib, arxitektor sifatida qator faoliyat yuritgan. Ilk ishlari Rossiya Federatsiyasida Peterburgda 1906-yili Jome masjidi bo‘lsa, 1912-yili Qrimdagi Yaltada “Dilkusho” saroyining, Yeleznavodskda “Amir” saroyining, Karmanadagi “Mirzachorbog” ning, shuningdek, Buxorodagi “Sitorai Mohixosa” ning, undagi 2 ta sher haykali, Nurotadagi “Chilustun”, O‘rta Osiyoda yagona marmardan qurilgan toshhammomning, G‘ozg‘ondagi “Shohimardon” (1915) va 1918-1919-yillar Qirg‘izistondagi “Issiqota” sanatoriyasining qurilishiga boshchilik qilgan.
Ushbu sulolaning munosib davomchisi, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’riflaganidek, “zamonamiz farhodi”, muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan “Shuhrat”

medali, “El-yurt hurmati” ordenlari bilan taqdirlangan, bugungi kunda sulola rahbari usta Tohir Raximov ham qator ishlarni amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatib kelmoqda. Jumladan,
- “Qosim shayx” maqbarasi (1996),
- Afg‘onistondagi hazrat Lutfiy qabrtoshi (1998),
- Bahouddin Naqshband (2001),
- Bobo Samosiy (2002),
- Abduxoliq G‘ijduvoniy (2003),
- Hazrat Degaroniy (2006),
- Said Mirkulol (2007),
- Hazrat Muborak (2008),
- Hazrati Imom (2008),
- “Hakim at-Termiziy” maqbarasi (2010),
- “So‘fi Olloyor” maqbarasi (2010),
- Nurota “Chashma” (2010),
- Toshkent “Zangiota” (2013),
- Samarqand “Registon” (2014),
- Shahrisabz “Ko‘kgumbaz” (2015),
- Hirotdagi Alisher Navoiyning ramziy qabri (2016),
- “Iso at-Termiziy” maqbarasi (2016),
- Mir Said Baraka (2016) va shu kabi obidalar-u, shuningdek, respublikamizdagi mavjud tarixiy obidalar va maqbaralarini ta’mirlash, qayta qurish kabi ishlarning deyarli barchasida marmardan ishlov berish o‘rnida rahbarlik qilib kelmoqdalar.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarida tosh ustunlar va turli – tuman boshqa tosh buyumlarni eksport qilib kelmoqdalar.

Eng muhimi, sulola davomchilarini tarbiyalab, o‘lmas hunar bilan ularni qurollantirib kelmoqdalar. Biz ushbu maqolamizda Gozg‘on shahrida yetishtiriladigan toshtaroshlik tarixi va uning asoschilari haqida qisman fikr yuritdik. Keyingi ilmiy tadqiqotlarimizda toshtaroshlik terminlari hamda ularning ma’no xususiyatlari haqida fikr yuritish niyatidamiz.

## MAHMUD QOSHG’ARIYNING “DEVON-U LUG’OTIT TURK” ASARIDA KELTIRILGAN ZOONIMLAR TASNIFI

**Mustafoyeva Mohichehra Mansur qizi**
**NDPI, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi**
**Ilmiy rahbar: dots. O‘. A. Oripov**

**Asoslov:** Ushbu ishda “Devon-u lug‘atit turk” asarida keltirilgan hayvon nomlari tasnif qilindi.
**Kalit so‘zlar:** onomastika, zoonim, zoonimika, atoqli ot, “Devon-u lug‘atit turk”…
**Обоснование:** В данной работе были засекречены названия животных, приведенные в работе “Девон-у Лугатит Тюрк”
**Ключевые слова:** ономастика, зооним, зоонимика, существительное, «Девон-у лугатит тюрк»...
**Annotation:** In this work, the names of animals listed in the work “Devon-u Lugatit Turk” were classified.
**Key words:** onomastics, zoonym, zoonymics, noun, “Devon-u lugatit turk”...

Tilshunoslikda “nom berish san’ati” ma’nosini bildiruvchi grekcha onomastika termini “tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini o‘rganadigan sohasi” tushunchasini ifodalaydi. Ko‘rinadiki, onomastika haqidagi bilimlarni egallash atoqli otlar haqidagi ma’lumotlarni o‘rganishdan boshlanadi. Onomastika tarmog‘i sifatida Zoonim – hayvon va qush nomi. Zoonimika – fanning hayvon va qush nomlarini o‘rganuvchi bo‘limi.[1:129] Turkiy xalqlarda zoonimlarning tadqiq etilish tarixi XI asr filologi Mahmud ibn al-Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Bu asar butun turkiy xalqlarning nodir manbasidir. Asarda 200 ga yaqin zoonim, 100 ga yaqin qush nomlarini keltirib o‘tiladi.[2:5] XI asrda yashab ijod etgan etnograf, filolog, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud ibn

Husayn ibn Muhammad Koshg‘ariyning "Devon-u lug‘otit turk" asari – butun turkiy xalqlarning nodir manbasidir. S.Rustamova ta’kidlaganidek: "Devon-u lug‘otit turk"da turklarning hayot kechirishi uchun zarur ashyolarning nomlari, urug‘ va qabilalarning nomlari, faxriy unvonlari, turli lavozimlarning nomlari, oziq-ovqat, *yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar va yovvoyi qushlarning nomlari,* o‘simliklarning nomlari, astrologik atamalar, xalq taqvimi, oy, hafta, kunlarning nomlari, jo‘g‘rofiy atamalar, shaharlar, turli kasalliklar nomlari, anatomik atamalar, metallar va minerallarning nomlari, harbiy atamalar va ma’muriy vazifalarga oid atamalar bor.[3:124-125] Kitob o‘zida shu qadar ko‘plab rang-barang ma’lumotlarni mujassam etganki, ularni tahlil va tavsif qilish uchun ko‘p yillar kerak bo‘ladi.[4:53] Chunonchi, uy hayvonlari turkiy xalqlar turmushida alohida o‘rin egallaydi. Masalan: Qo‘y – go‘sht, jun, sut va teri olish uchun boqiladigan juft tuyoqli, kavsh qaytaruvchi uy hayvoni.[5:464] Qo‘ylar yovvoyi qo‘y –muflondan kelib chiqqan. Qo‘y bundan 8 ming yil avval xonakilashtirilgan.[6:208]
Zoonimlar, zoonim komponentli matnlarning lingvistik xususiyatlari D.X.Bazarova [7:222], H.A.Saidova [8:178], B.B.Abdushukurov [9:207], N.R.Nishonova [10:120], B.Zaripov [11:128], B.M.Jo‘rayeva [12:66], D.M.Yo‘ldosheva [13:124] kabi olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida turkiy yozma manbalardagi zoonimlar, zoologik atamalarning shakllanish bosqichlari, maqollarning til tizimidagi o‘rni, semantik-uslubiy xususiyatlari, zoonimlarning ma’no ko‘chimlari, badiiy san’at turlarini hosil qilishdagi, inson xarakterini ifodalashdagi ahamiyati, "hayvon" arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili, o‘zbek folklorida bo‘ri obrazining mifologik talqini, shaxsga ta’rif berishda hayvon nomlaridan foydalanish, badiiy matnlarning antroposentrik talqini, o‘zbek bolalar folklori tilida zoonimlar, zoonim komponentli [14] birliklarning leksik, semantik hamda strukturaviy xususiyatiga doir masalalar tahlil qilingan. B. P. Zaripov nomzodlik dissertatsiyasida Alisher Navoiy ijodida badiiy san’atlarni hosil qilishda 337 ta zoonim qo‘llangani haqida ma’lumot beradi. Ulardan 117 tasi chorva mollari, 97 tasi qush nomlari, 9 tasi sudralib yuruvchi hayvon nomlari, 48 tasi yovvoyi hayvon nomlari, 41 tasi hasharot va boshqa mayda jonivorlar, 6 tasi suv hayvonlari 12 tasi afsonaviy jonzotlar nomi ekanligi qayd etilgan. Ishda ot, o‘rdak, kiyik kabi jonivorlarning Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan tarixiy nomlari keltirilgan. Zoonimlarning jinsi, rang-tusi va yoshiga qarab nomlanishi asoslari keltirilgan.

Ushbu maqolada "Devon-u lug‘atit turk" asarida sanab o‘tilgan zoonimlarni qo‘ldan kelgancha tasnif qilishga harakat qildik. "Devon-u lug‘atit turk"da keltirilgan zoonimlarni shartli ravishda 7 guruhga bo‘ldik:

1. Qush nomlari;
2. Hasharot nomlari;
3. Baliq nomlari;
4. Uy hayvonlari nomlari yoki xonaki hayvonlar;
5. Yovvoyi hayvon nomlari;
6. Sudralib yuruvchi hayvonlar nomlari;
7. Kemiruvchi nomlari.

Devonda **qush nomlari** 100 ga yaqin keltirilgan bo‘lib, quyida ulardan ba’zilarining nomlarini sanab o‘tamiz:

1. Anit – flamingo, g‘ozga o‘xshash pushti rangli bir qush.
2. Budursin – bedana.
3. Jabaqulaq – boyqush. (yabaqu va yamak).
4. Ko‘kurchgun – kaptar.
5. Semurquq – bulbulga o‘xshash qush (bolasog‘un)
6. Us – karkas qushi, burgut.
7. Chanchurg‘a – chumchuq.
8. Chafli / Chag‘ri – lochin.
9. Qaz – g‘oz.
10. Qarg‘ilach – qaldirg‘och.

**Hasharot nomlari** 20 dan ortiq keltirilgan bo‘lib, asarda hasharotlar umumiy “shuti” deb nomlangan:

1. Bi – bir xil o‘rgimchak, qurt (O‘g‘uz).
2. Mug‘urg‘ak – bir xil pashsha (Arg‘u).
3. Öbkuk – sassiqpopishak (Chigil).
4. Qudg‘u – pashsha.
5. Sarichg‘a – chigirtka.

Koshg‘ariy **uy hayvonlari yoki xonaki hayvonlar**dan 80 ga yaqin hayvon nomlarini sanab o‘tadi:

1. Erkak taqag‘u – xo‘roz.
2. Erkach – taka, erkak echki.
3. Eshjak / Eshkak – eshak.
4. Dewa / Tewä / Tewäj – tuya.(O‘g‘uz). Tewi – tuya (turk).
5. Kechi – echki. (O‘g‘uz).
6. Mush – mushuk.
7. Ökuz – ho‘kiz.
8. Sïg‘ïr – sigir. Ud – chigillarda.
9. Taquq – tovuq (turkman).
10. Qoj – qo‘y. Qon – arg‘ularda.

30 ga yaqin **yovvoyi hayvonlar** sanab o‘tiladi:

1. Azig‘ / Ajig‘ – ayiq (o‘g‘uz, qipchoq, yag‘mo).
2. Arju – shoqol, chiya bo‘ri.
3. Burslan – qoplon.
4. Jahan / Jaga’an – fil.
5. Kejik – I. kiyik. II. tog‘ echkisi.
6. Kirpi / kirpitikon – tipratikon.
7. Suw sïg‘ïrï / Qotuz – qo‘tos.
8. Tawïshg‘an – quyon.

10 ga yaqin **baliq**, 10 ga yaqin **sudralib yuruvchi hayvon**, 10 ga yaqin **kemiruvchilar** nomlari sanab o‘tiladi: qamichaq – it baliq; bojnaq – bir xil kaltakesak; munuzbaqa – toshbaqa; nek – timsoh; arg‘un – uzunligi yarim gaz keladigan sichqon jinsiga kiruvchi jonivor; kuzin – chunchuq ovlashda ishlatiladigan bir turli kalamush; saqïrqan – bir xil kalamush.

Nomlar nimaning nomlari bo‘lishidan qat’iy nazar qadim tarixga ega bo‘lgan xalqning milliy urf-odati va qadriyatlarining bir ko‘rinishi. Kishilik jamiyati nomsiz hech bir ishni qila olmaydi. Shuning uchun xalqimizning nom va nomlashga oid qadimiy hamda odatiy an’analarini amalda qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davom ettirish bizning burchimizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston milliy insiklopediyasi. “Z” harfi. 4-tom. Toshkent: O‘zbekiston milliy insiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.
2. Tosheva D.A. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol.fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss… Toshkent: 2017.
3. Rustamova S. Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devon-u lug‘otit turk” asari // Adabiyot ko‘zgusi. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, No 2, 1996.
4. Abdulahatov N., Toshpo‘latov I., Nosirova U., Jo‘rabayeva U. Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1-jild. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 .
6. Zoologiya. 7-sinf: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / O. Mavlonov. – Tuzatilgan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashri. Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
7. Bazarova D.X. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. Tashkent: Fan, 1978.

8. Saidova H.A. O‘zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo‘llanilishi: Filol. fanlari nomzodi... diss. Buxoro, 1995.
9. Abdushukurov B.B. XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar. Filol. fanlari nomzodi.... diss. Toshkent: 1998.
10. Nishonova N.R. O‘zbek tilida “hayvon” arxisemali leksemalar maydonining mazmuniy tahlili: Filol. fanlari nomzodi.... diss. Toshkent: 2000.
11. Zaripov B. Zoonimlarning badiiy san’at turlarini hosil qilishdagi ishtiroki (A.Navoiy asarlari asosida): Filol. fanlari nomzodi... diss. Toshkent: 2002.
12. Jo‘rayeva B. Maqolning yondosh hodisalarga munosabati va ma’noviy xususiyatlari. Toshkent: Fan, 2007.
13. Yuldasheva D.M. O‘zbek bolalar folklori tilida zoonimlar. Filol. fanlari nomzodi... diss. Toshkent: 2007.
14. Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi... diss. Toshkent: 2017.

## “ODOB”, “XULQ”, “AXLOQ” LEKSEMALARINING KONSEPTUAL XUSUSIYATLARI

**Quyoshoy Iskandarova Yo‘lchi qizi**
**NDPI, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: f.f.d.(DSc), dotsent F.H Yuldashev**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “ma’naviyat” leksik kategoriyasiga oid *odob, xulq, axloq* leksemalarning konseptual xususiyatlari o‘rganildi, ulardagi integral va differensial semalar aniqlandi. Bu orqali o‘quvchilar uchun oson va tushunarli lug‘at bazasini yaratish ko‘zda tutildi.

**Kalit so‘zlar**: odob, axloq, xulq, odobli, odobsiz

Kognitiv tilshunoslikda konsept tabiatini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi, chunki konsept tabiatini o‘rganishga bo‘lgan har qanday urinish, bir qancha bir-biriga yaqin bo‘lgan tushuncha va terminlarni anglash, izoh berishga olib keladi. “Konseptda fikriy, o‘ziga xos milliy xususiyatlarning tashkil topishi, uning mazmunida obyekt haqidagi barcha bilimlar majmui mujassam bo‘lsa, ifoda vositasi planida esa til birliklarining majmui hosil bo‘ladi (leksik, frazeologik, paremiologik va boshqalar)”.

Konsept bu – hissiy, his-hayajonli, ta’sirchan baholash belgilari bilan o‘ralgan tushunchadir; bu tasavvur, tushuncha, bilim, assotsatsiya, kechinmalar “bog‘lami” bo‘lib, u so‘zlar va ular tomonidan ifodalanayotgan tushunchalar bilan birga keladi. Konsept sanalgan leksik birliklar miqdori chegaralangan, chunki har qanday voqelikni anglatgan nom konsept bo‘la olmaydi. Konseptni borliqdagi shunday voqealar tashkil qiladiki, bunda ular ma’lum bir madaniyat egalari uchun dolzarb, qimmatli sanaladi hamda uni ifodalovchi ko‘p miqdordagi til birliklari mavjud bo‘ladi, bular jamiyatdagi ijtimoiy voqeliklar, millatning o‘ziga xos qadriyatlari, milliy bayramlar, millatning o‘zigagina tegishli bo‘lgan odatlar, maqol va matallar, xalq dostonlari, eposlarida o‘z aksini topadi.[122] Shu jumladan, odob, axloq, xulq leksemalariga ham o‘zbek xalqining ma’naviy merosi sifatida qaraladi.

“Odob”, “axloq”, “xulq” leksemalari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da quyidagicha ta’riflangan:

**ODOB [**a. adab] *Irodaning uyatchanligi bo‘shanglik yoki noshudlik emas, ishva va odobga asoslangan edi. F. Musajonov.* Himmat. Odob asosli leksemalar: odobli, odobsiz, odobxona, odobnoma kabilar.[123]

**XULQ** [a. fe’l-atvor, tabiat; kayfiyat; g‘azab] 1. Kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmui; fe’l; xarakter] *Saodatxon bularning xulqi haqida o‘ylab, chuqur xayolga cho‘mgan edi. S. Zunnunova, Olov.*

---

[122] Mamatqulov. Yosh olimlaAkbarjonr ilmiy amaliy konferensiyasi.Zamonaviy tilshunoslikda “Konsept” tushunchasining asosiy masalalari. T: 128-130
[123] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.-Toshkent:O‘zME, 2006

**XULQ** 2. Kishidagi odat bo‘lib qolgan takrorlanib turadigan xatti-harakat; odat, qiliq. *Qodir ancha yumshagan edi. Nabigul yaramas xulqlari bor ekanini bo‘yniga olish bilan Qodirni yana ham yumshatdi. A. Qahhor, Qanotsiz chittak.*

**XULQ-ATVOR** [ xulq+atvor] Fe’l-atvor, xarakter. *Hamida xulq- atvori shamolga o‘xshagani bialan aqli yetardi. S. Anorboyev, Mehr.*[124]

**AXLOQ** [a.kishining tabiati] Muomala, xatti-harakat odobi. Kishilarning bir- birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti- harakatlari, xulq- atvorlari, odoblari majmuidir. *Rahbar axloqidagi asosiy narsa so‘z va ish birligini faoliyatining mazmuni deb bilishdir. “Fan va turmush”* “Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati”da esa odob, axloq, xulq leksemalari quyidagicha izohlanadi:

**ODOB (**arab. Adab so‘zining ko‘pligi) Jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi[125]. Shaxs ma’naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o‘zgalar bilan muloqot jarayonida namoyon bo‘ladi. Odob asosida axloqiy tamoyillar, me’yorlar, tarbiyalanganlik darajasi va turli xil estetik ideal talablarni tashkil etadi. Odob ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Shunga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘linadi: *kasb odobi, mehmondorchilik odobi, muomala odobi, nutq odobi va boshqalar*.

Odob ikki xildir: *hikmat odobi va xizmat odobi*. Hikmat odobi poklik va to‘g‘ri yo‘lga yetaklaydi, xizmat odobi esa badavlatlik va obro‘ga yetkazadi. (xalq so‘zi)

**XULQ** (arab. Fe’l-atvor, tabiat, kayfiyat ) kishining muomala va ruhiy xususiyatlari majmui; fe’l-xarakter; insonning ma’naviy qiyofasi va faoliyatga xos bo‘lgan axloqiy tushuncha.[126] Xulq ezgulik va razillikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Hadislarda shunday keltiriladi: “Bandaning savob tarozusida yaxshi xulqdan og‘irroq ish yo‘qdir. Uning darajasi hatto namoz va ro‘zaning darajasi bilan barobardir” yoki “Hech birorta o‘z farzandiga xulq odobidan buyukroq meros berolmaydi”. Mashhur rus adibi shunday ta’kidlagan: “Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lishi lozim: yuzi ham, qalbi ham, kiyinishi ham, xulqi va fikri hayoli ham. Men go‘zal yuzli chiroyli kiyimli kishilarni ko‘p ko‘raman, bunday go‘zallikdan boshing aylanadi, biroq axloqi va xayollari…”

Xulq odobga nisbatan keng, axloqqa nisbatan tor qamrovlidir. “Xulq” tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida “ezgulik, bag‘rikenglik, halollik, vijdonlilik” kabi tushunchalar bilan barqarorlashadi.

**AXLOQ** (arab. Xulqning ko‘pligi) – ma’naviy hayot hodisasi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro muntazam va jamiyatga bo‘lgan talablarni tartibga solib turadigan barqaror, me’yor va qoidalar yig‘indisi.[127] Axloq bu, avvalo, insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. (I. Karimov, Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch)

Axloqning yaxshi bo‘lishi taomning pokizaligi, rostgo‘ylik va omonatga xiyonat qilmaslik- mana shu to‘rt xislatni senga bergan bo‘lsin.( Buxoriy, Hadislar).

Axloq leksemasi keng qamrovli bo‘lib, *axloqiy madaniyat, axloqiy tarbiya, axloqiy fazilatlar, axloqiy qarash* kabi tushunchalarni qamrab oladi.

Ma’naviyat leksik-kategoriyasiga oid odob, axloq, xulq leksemalarini konseptual jihatdan o‘rganishimiz o‘quvchilar uchun tushunarlilikni oshiradi. O‘quvchilar nutqidagi bu so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish va nutqda to‘g‘ri tanlay olish, to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini oshiradi. O‘quvchilar fikrlash doirasini kengaytirib, ularning lug‘at boyligining oshishi uchun xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. –Toshkent: O‘zME, 2006
2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi: Toshkent,2010
3. Mamatqulov Akbarjon. Yosh olimlar ilmiy amaliy konferensiyasi. Zamonaviy tilshunoslikda “Konsept” tushunchasining asosiy masalalari. T.:128-130

[124] O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 8000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi.-Toshkent:O‘zME, 2006
[125] Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi:Toshkent,2010
[126] Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi:Toshkent,2010
[127] Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi:Toshkent,2010

4. V.A. Maslova. Kognetiv lingvistika – Akademnashr, 2004. – 228 b
5. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, 2015.

## TOPONIMLAR HOSIL QILISHDA ISHTIROK ETGAN AYRIM ETNONIMLAR XUSUSIDA

**Ilmiy rahbar: O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi: f.f.f.d (PhD) Yuldashev Jo‘rabek Uralovich**
**O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs talabasi: Jabborova Diyora Azim qizi**

Ma’lumki, joy nomlari hududning o‘tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o‘simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Bundan tashqari etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma’lum bir hududda qaysi qabila, urug‘ vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma’lumotga ega bo‘lish ham mumkin. Biz ushbu maqolamizda Samarqand viloyatining Nurobod tumani hududidagi ayrim etnooykonimlar xususida mulohaza yuritmoqchimiz.

Nurobod tumani Respublikamizdagi hududiy jihatdan eng katta tumanlardan biri bo‘lib, bitta shahar, o‘nlab mahalla, yuzga yaqin katta-kichik qishloqlardan tashkil topgan. Tuman uzoq o‘tmishga ega Jom, Tim, Saxoba, Sepki, Qo‘rg‘oncha kabi yirik; Ostonabobo, Langar, Kattasoy, Ag‘ron, Oltio‘g‘li, Changali, Qo‘chqorli, Ilonli(hozirgi kunda bu qishloqda aholi yashamaydi), Tortuvli kabi kichik qishloqlarni o‘z bag‘riga olgan. Bu maskanlarning nomlanish sabablari ham turlicha bo‘lib ba’zilari tarixiy-ijtimoiy, ba’zilari iqtisodiy-siyosiy va madaniy omillar asosida, boshqalari tabiiy-geografik belgi va xususiyatlarga qarab nomlangan. Yana ba’zilariga etnonimlar sabab bo‘lgan. Mazkur qishloqlarning tarixi, yuzaga kelish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti haqida ko‘p fikrlar aytilgan, televideniyeda chiqishlar, radioda eshittirishlar olib borilgan. Ammo hozirga qadar ayrim qishloqlarning nomlanish sabablari to‘g‘risida yanglish, g‘ayriilmiy qarashlar ham yo‘q emas. Masalan, Olto‘g‘li qishlog‘ining nomlanish sababini mahalliy aholi bir oiladan bo‘lgan olti o‘g‘ilning kelib, uy-joy tiklab yashab qolgan maskani sifatida, Tortuvli etnooykonimini to‘rt aka-ukaning bir hududga kelib joylashishini sabab qilib ko‘rsatishadi. Bundan tashqari aholi orasida Qarg‘ali qishlog‘ining nomlanishiga qarg‘alarni bahona qilib ko‘rsatish, Ilonli qishlog‘iga ilonlarning ko‘pligini vaj qilish holatlari ham bor. Yana bir qadimiy qishloqlardan bo‘lgan, yuqorida nomlari tilga olingan manzilgohlar bilan yonma-yon joylashgan Qo‘chqorli ota qishlog‘i haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Hatto tumanda yaqin kunlarda nashrdan chiqqan nohiya ziyolilarining “Nurga burkanayotgan Nurobod” kitobida mazkur qishloq haqida quyidagilarni o‘qiymiz: “Qo‘chqorli ota” qadamjosi tumanning Jarquduq qishlog‘iga yaqin joyda tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Bu hududning tabiati go‘zal, havosi sof, iqlimi ajoyibdir. Qadimda ushbu manzil dam olish maskani bo‘lgan. Shu bois bu yerga avliyo kishilar ham kelib turgan. Avliyolar Alloh taolloning sevimli bandasi bo‘lgani uchun ular bu maskanga kelganlarida Alloh taollo ularga har borganlarida bitta qo‘chqor yuborgan. Har juma qo‘chqor tushganida xalq orasida “qo‘chqor tushgan yer”, keyinchalik xalq tilida soddalashib “Qo‘chqorli ota” yoki “Qo‘chqorli bobo” shaklini olgan. Bu mo‘tabar dargoh Markaziy Osiyo xalqlari uchun muqqaddas ziyoratgoh sifatida yaxshi ma’lum. Rivoyatlarga ko‘ra XII-XIV asrlarda Naqshbandiya ta’limotining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan bo‘lgan avliyolardan birining nomi ham shu manzil nomi bilan bog‘liq[2, 222]. Ushbu kitobda Changali qishlog‘i haqida ham ma’lumot berilib, ushbu maskanning nomlanishiga go‘yoki changal (forscha o‘rmon, daraxtzor) qoplagan maydon sabab bo‘lganligi ta’kidlangan. Jumladan, kitobda quyidagicha argument keltiriladi. “Samarqand viloyati Nurobod tumanida yana bir qishloq borki, o‘zining boy tarixi bilan ko‘zni qamashtiradi. Undagi har bir tosh, buloq, quduq va hattoki g‘or ham uzoq yillik o‘tmishga ega. Bu qishloq Changali qishlog‘i bo‘lib, unda unchalik ko‘p aholi istiqomat qilmasligiga qaramay, azaldan madaniyat uchog‘i bo‘lib kelganligi uning aholisi tomonidan ta’kidlanadi. Qishloqning nomini ayrimlar “Changali” deb atasa, ayrimlar “Changalli” deb atashgan ekan. Aslida, qadimda Jingilisoy deb atalgan ekan. Changali qishlog‘i deb atalish sababi shundaki, bu yerlar nihoyatda sersuv, so‘lim go‘sha bo‘lgan. Ob-havoning bahavoligi, iqlim sharoitining yaxshiligi sabab jangal o‘sib chiqqan. Bu yerlarda shunchalar jangalzor ko‘p bo‘lganki, soylar, qirlar hattoki odamlarning hovlisida ham jangalzor

bo‘lgan. Qishloq jangalzor ko‘p bo‘lganligi uchun “Jangali” deb atalgan va yillar o‘tishi bilan “j” tovushi “ch” ga o‘zgarib “Changali” nomini olgan” [2, 224] Shu o‘rinda tilshunoslik ilmida mavjud bo‘lgan etnonim, etnooykonim terminlari xususida biroz mulohaza yuritsak. O‘zbek tilining besh tomli izohli lug‘atida etnonim terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Etnonim (yunoncha ethnos – qabila, xalq onyma – nom). Xalq, qabila, urug‘ va b. xil etnik uyushmalar nomi”. [1,48] Oykonim haqida esa toponimist olimlar E.Begmatov va N.Uluqovlarning “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘at”ida quyidagicha ta’rif beriladi: “Oykonim (yunoncha oykos – turar joy, maskan onoma – atoqli ot) – aholi yashaydigan joylari, maskanlarning atoqli oti, toponim turi.”[3,58] Oykonimlar joy nomlari orasida alohida guruhni tashkil qiladi. Oykonimlarga shaharlarning nomlari, qishloq, ovul, guzarlar, mahallalar, kichik turar joylar, qal’a nomlarini kiritish mumkin. “Oykonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida shuni aytish lozimki, hudud tarixiga oid ba’zi ma’lumotlar oykonimik nomlarda yaxshi saqlanib qolgan. Aholining o‘tmishdagi etnik tarkibi – qaysi urug‘, qabila, qavm, toifaga mansubligi, iqtisodiy turmush sharoiti – qanday kasb bilan shug‘ullanganligi, shuningdek, obyektning biror kishiga qarashliligini ifodalovchi oykonimlar fikrimizning dalilidir”[4,6]. Demak etnonim va oykonim terminlarining birikuvidan hosil bo‘lgan etnooykonim qabila, urug‘ nomining qishloq, ovul yoki biror maskan nomiga aylanishini anglatadi. Bizningcha, yuqorida keltirilgan qishloqlarning (Oltio‘g‘li, Qo‘chqorli, Tortuvli, Qarg‘ali, Ilonli, Changali kabi) barchasi etnooykonim hisoblanib, ushbu maskanlarning nomlanishiga o‘zbek millatining 92 urug‘i (ba’zi manbalarda 96) tarkibiga kiruvchi etnonimlar sabab bo‘lgan. Chunki ushbu nomdagi etnonimlar mamlakatimizning yirik toponimist olimlarining ilmiy ish va monografik tadqiqotlarida keltirilgan. Masalan, yirik toponimist olim S.Qorayev “Toponimika” qo‘llanmasida 0‘zbekiston xaritasida hozirgacha qishloqlarning nomlari shaklida uchraydigan etnooykonimlarning qisqacha ro‘yxatini keltirib, Jilonli (Ilonli), Kal, Kallar, Oltio‘g‘il, Torttuvli kabi joy nomlarni alohida keltirib o‘tadi. [5,83] Yana bir dalil sifatida, 2022-yil nashrdan chiqqan “O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”-ida Qarg‘ali etnooykonimi haqida ma’lumot beriladi. Maqolada quyidagilarni o‘qiymiz. “Qarg‘ali – qishloq. Samarqand viloyati Narpay tumani. Karga(qarg‘a – bu yerda etnonim) o‘zbek, boshqird, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlar tarkibidagi qadimgi urug‘lardan biri. [6,341] Ushbu lug‘atda Tortuvli etnooykonimi haqida ham qisqacha izoh keltiriladi. “Tortuvli – qishloq nomi. Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Oqdaryo tumanlarida uchraydi. Tortuvli o‘zbek urug‘laridan biri, ba’zi bir fikrlarga ko‘ra qanjig‘ali urug‘ining bir tarmog‘i”. Bunday dalillarni yana ko‘plab keltirishimiz mumkin. O‘zbek tilshunoslik ilmiga munosib hissa qo‘shgan atoqli olim B.O‘rinboyevning “Asrlardek barhayot nomlar” nomli toponimik izohli lug‘atining Qo‘chqorli toponimi haqidagi maqolasi ham ushbu qishloqning shunday nomlanishiga qo‘chqorli etnonimi sabab bo‘lganligini ko‘rsatib turibdii: “Qo‘chqorli – Nurobod tumanidagi qishloq. Qipchoq qabilasining bir urug‘i qo‘chqor deb atalgan. Qo‘chqorli – etnooykonimdir” [7, 259] Nurobod tumanining yana bir maskani Ag‘ron qishlog‘i bo‘lib, bu hudud haqida “Nurga burkanayotgan Nurobod” kitobida quyidagilarni o‘qiymiz: “Nurobod tumanining g‘arbiy qismidagi Beshtol tog‘ darasi yoqasida joylashgan, bugungi kunda o‘n mingga yaqin aholi istiqomat qilayotgan Tim qishlog‘i hamda undan unchalik uzoq bo‘lmagan yetti ming aholiga ega Ag‘ron qishlog‘i ham tarixiy manzillardan biridir”. Ammo bu manbada qishloqning nega shunday nomlangani haqida fikr bildirilmagan.. Bizningcha bu toponimning kelib chiqishi ham etnonim bilan bog‘liqqa o‘xshaydi. Chunki 2022-yil R. Xudoyberganov va boshqa toponimist olimlar tomonidan nashr qilingan “O‘zbek joy nomlarining izohli lug‘ati” kitobida Ag‘ron etnooykonimi haqida shunday deyiladi: Ag‘ron – Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumanidagi qishloq. Nayman qabilasining bir tarmog‘i ag‘ron deb yuritiladi. 1926-yilgi aholi ro‘yxatida Narpay tumani Qo‘rg‘on qishloq kengashida Ag‘ron qishlog‘i deb qayd etilgan.[6,42]

Xo‘sh, tabiiyki savol tug‘iladi? Bu etnonimlar qanday paydo bo‘ladi?. Bu savolga taniqli toponimist olim T.Nafasovning quyidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: “Chorvachilik bilan shug‘ullangan har bir etnik birlikning o‘z tamg‘asi bo‘lgan. Tamg‘a esa oddiy shakl, chiziq emas, ramziy nishon, belgi vazifasini bajargan. Shu maqsadda tamg‘alar mollarning kuragi, ko‘kragi, bo‘yni, soni, sag‘risi kabi ko‘rinarli joylariga qo‘yilgan”.[8,19] Bu kabi tamg‘alar chorva mollarining ma’lum etnik birlikning moli ekanligini belgilab turgan. Aholi shu tamg‘aga qarab mollarini, boshqa aholi

mollaridan ajratib olishgan. Keyinchalik bu tamg‘a etnik birlikning nomiga ko‘chgan. Etnik birlik o‘troq hayot kechira boshlagan qishloq shu nom bilan atala boshlangan. Demak qo‘chqorli, ilonli, qarg‘ali, changali kabi etnonimlar paydo bo‘lishiga bu urug‘larning chorvachilik bilan shug‘ullanganliklari sabab bo‘lmoqda. Bu xususda S. Qorayevning quyidagi fikr ham muhim. “Naymanlar, asosan, Zarafshon vodiysida, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand atroflarida, shuningdek, Buxoro va Karmana vohalarida o‘rnashib qolganlar; Xiva vohasi va Farg‘ona vodiysida ham bir oz miqdorda naymanlar bo‘lgan. XIX asr oxirlarida naymanlar 3 ta yirik urug‘dan iborat bo‘lgan. Bular — qo‘shtamg‘ali, sadirbek va uvox-tamg‘ali. Ulardan tashqari nayman qabilasi *ag‘ran*, ayronchi, badir, biya, bog‘onali, boltali, bo‘qalay, burunsov, jag‘albayli, jastavon, *jilonli (ilonli),* jumaloqbosh, *oltio‘g‘il,* oqto‘nli, po‘lotchi, segizuruv, sarinayman, *to‘rttuul (to‘rto‘g‘il),* to‘rttamg‘ali, urguch, ukrash, *changali,* cho‘michli, g‘ozoyoqli, qoranayman, qoragadoy, qorasirak*, qarg‘ali,* qiltamg‘ali, qo‘ltamg‘ali kabi tarmoqlarga ham bo‘lingan[8,77].

Demak, bugungi kunda Nurobod tumanidagi Ag‘ron, Changali, Qo‘chqorli, Qarg‘ali, Ilonli, Oltio‘g‘il, Tortuvli kabi qishloqlarning nomlanishida etnonimlar muhim rol bajargan va qishloqning uzoq o‘tmishidan xabar berib turuvchi argument sifatida tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelmoqda. Shu o‘rinda yana bir dolzarb masalani ham aytib o‘tishimiz kerakka o‘xshaydi. Yaqin yillar ichida ushbu tumandagi qadimiy nomga ega bo‘lgan Qo‘shasigir, Tortuvli kabi qishloq nomlari asossiz tarzda Istiqlol, Buloqboshi kabi nomlar bilan almashtirib qo‘yilgani kishining ta’bini xira qiladi. Zero bu kabi harakatlar joy nomlarini sun’iylashtirishdan boshqa narsa emas. Chunki joy nomlari o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Uning paydo bo‘lishida muayyan tarixiy asos bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 1-5 жилдлар. “Ўзбекистон миллий энсклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2006-2008
2. Сатторов А. Нурга бурканаётган Нуробод – Тошкент: Фан зиёси нашриёти, 2022.
3. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
4. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989.
5. S. Qorayev. Toponimika. – Toshkent: 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
6. R.Y Xudoyberganov va boshqalar.O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
7. Б.Ўринбоев. Асрлардек барҳаёт номлар. Самарқанд вилояти топонимик изоҳли луғати. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 2003.
8. Т. Нафасов. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Тошкент: Муҳаррир, 2009.

## IBRATNING “TARIXI FARG‘ONA’’ ASARIDA UCHRAYDIGAN TARIXIY SO‘ZLARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

**Yakupboyeva Guli**
**NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi**
**Ilmiy rahbar: F.Yuldashev**
**NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada Ibratning “Tarixi Farg‘ona” asaridagi tarixiy so‘zlarning semantik taraqqiyotga uchragani hamda singarmonizmning ta’siri bilan tanishamiz.

**Kalit so‘zlar**: leksik-semantik, ottenka, kombinator, pozitsion, singarmonizm, til garmoniyasi.

Tariximizda yetuk ma’rifatparvar, tilshunos, ilk o‘zbek matbuotchilaridan biri va tarixchi sifatida o‘rin olgan Is’hoqxon Ibrat Namanganda dunyoga kelgan. Ibratning “Tarixi Farg‘ona’’ (1916) asari tarixiy va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyatga ega asardir. Adib asarlarida o‘z davrining leksik qatlamidan unumli foydalangan. Shoir har bir leksik hodisani to‘g‘ri anglagan holda turli

maqsadlarda foydalangan. Xususan, asarning "Ho'qand shahri binosi'' bo'limida[128] tarixiy so'zlarning bugungi kunga kelib semantik taraqqiyotga uchraganligini va fonetik tuzilishida ham ba'zi o'zgarishlarga uchrashiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, mazkur asardagi so'zlar imlosidagi fonetik o'zgarishning adabiy me'yorga xos va me'yorga amal qilinmaydigan ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ushbu o'zgarishlar fonemaning nutq oqimida turli ottenkalarda namoyon bo'lishi, bunday ottenkalarning yuzaga kelishida kombinator, pozitsion yoki aralash usullarning ishtiroki[129] muhim sanaladi. Ushbu asardagi so'zlarning tuzilishi va talaffuzini quyida tasniflab o'tamiz.

Dastlab tovush tushishi hodisasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, uni quyidagi ta'rifga asoslanib izohlaymiz. "So'z o'zagidagi yoki unga qo'shilgan qo'shimchalar tarkibidagi ayrim tovushlarning ma'lum fonetik qurshov yoki pozitsiya ta'sirida talaffuz etilmasligi, o'zgarishlar"[130] shular jumlasidandir. Asarda shu shakldagi so'zlarning uchrashiga turli sabablarni keltirishimiz mumkin. Masalan, singarmonizm hodisasining ta'siri. Zero, "imlo qoidalarida ham, alifboda bo'lganidek, singarmonizmli shevalar xususiyatiga alohida o'rin berilgan davrda til garmoniyasidan kelib chiqib, o'zak va qo'shimchalarning ikki xil ko'rinishda yozilishi, ayrim unlilarning talaffuzda va yozuvda tushib qolishi kuzatilgan[131]. Ular turli so'z turkumlarida quyidagicha shaklda uchraydi:

| **Ot so'z turkumiga oid so'zlarning tarixiy va zamonaviy shakllari** | **Fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning tarixiy va zamonaviy shakllari** | **Olmosh so'z turkumiga oid so'zlarning tarixiy va zamonaviy shakllari** |
|---|---|---|
| oltun – oltin | bo'lub – o'lub | unga – anga |
| to'ng'uz – to'ng'iz | o'qugach-o'qig'och | ular – alar |
| qamush – qamish | ko'rgach- ko'rg'ach | Uning - aning |
| … | … | … |

"Imlo qoidalarida ham, alifboda bo'lganidek, singarmonizmli shevalar xususiyatiga alohida o'rin beriladi: til garmoniyasidan kelib chiqib, o'zak va ko'shimchalarning ikki xil ko'rinishda uchrashini"**[132]** mazkur asarda uchratishimiz mumkin:

**Grammatik qo'shimchalarning shakllari**

| **Bugungi kundagi varianti** | **Tarixiy varianti** |
|---|---|
| -dir | -dur |
| -ga | -g'a |
| -mak | -moq |
| -gan | -g'an |

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun kitobxonlar ushbu asarlarni mutolaa qilayotganda ularning leksik, fonetik va imloviy tomonlarining turli ko'rinishlariga duch kelganda, tabiiyki, savollar tug'iladi. Shu boisdan mazkur qoidalar, iqtiboslar va shaxsiy mulohazalarimiz yuqoridagi o'zgarishlarga izoh sifatida xizmat qiladi degan umiddamiz.

## РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ МЕЖДУ ТУРЦИЕЙ И УЗБЕКИСТАНОМ В КОНЦЕ XX И НАЧАЛЕ XXI ВЕКОВ

**Кураксина Татьяна Олеговна**
**Россия, Санкт-Петербург,**
**Санкт-Петербургский государственный университет, Восточный факультет,**
**1 курс магистратуры, направление «Политика и международные отношения стран Азии и Африки.**

[128] I.Ibrat . "Tarixi farg'ona''.
[129] Qarang. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 75
[130] H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 75
[131] Qarang. H.Jamolxonov.Imlo muammolari. – Toshkent, 2007. – B. 38-39
[132]. H.Jamolxonov.Imlo muammolari. – Toshkent, 2007. – B. 38-39

**Аннотация:** Развитие всестороннего сотрудничества между тюркскими государствами всегда являлось приоритетом и одним из ключевых векторов политики государства Республика Турция. Сотрудничество между Узбекистаном и Турцией, основанное на культурном родстве, стремительно развивается в сфере образования. В данной статье рассматриваются ключевые положения и особенности взаимодействия двух государств в данной сфере на протяжении последних десятилетий.
**Ключевые слова:** Узбекистан, Турция, сотрудничество, образование, высшее образование.
**Abstract:** The development of comprehensive cooperation between the Turkic states has always been a priority and one of the key vectors of policy of the state of the Republic of Turkey. Cooperation between Uzbekistan and Turkey, based on cultural kinship, is rapidly developing in the field of education. This article examines the key provisions and features of interaction between the two states in this area over the past decades.
**Key words:** Uzbekistan, Türkiye, cooperation, education, higher education.
**Annotatsiya:** Turkiy davlatlar oʻrtasidagi har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish Turkiya Respublikasi davlat siyosatining doimo ustuvor yoʻnalishlaridan biri va asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlib kelgan. Oʻzbekiston va Turkiya oʻrtasidagi madaniy qarindoshlikka asoslangan hamkorlik ta’lim sohasida jadal rivojlanmoqda. Ushbu maqolada soʻnggi oʻn yilliklardagi ikki davlatning ushbu sohadagi oʻzaro hamkorligining asosiy qoidalari va xususiyatlari koʻrib chiqiladi.
**Kalit soʻzlar:** Oʻzbekiston, Turkiya, hamkorlik, ta’lim, oliy ta’lim.

Дипломатические отношения между Турцией и Узбекистаном всесторонне развивались на протяжении долгого времени. Турция стала первой страной, признавшей Узбекистан после распада СССР, уже 4 марта 1992 года между двумя странами были установлены первые официальные дипломатические отношения. Тургут Озал, президент Турции, который занимал этот пост в 1989 – 1993 годах, совершил свой первый визит в Узбекистан уже в 1993 году. Как отмечали востоковеды С.Утургаури и Н. Ульченко в работе, посвященной политическому становлению и политике Тургут Озала, президент отправился Узбекистан, Казахстан, Туркмению и Азербайджан, чтобы наладить торговые связи с данными государствами и выстроить первые дипломатические контакты [5]. Для укрепления отношений и развития сотрудничества с получившими независимость республиками в Анкаре в 1992 году были сформированы Агентство по тюркскому сотрудничеству и координации и Саммит тюркоязычных государств. Однако интерес к тюркским государствам был завязан не только на экономических интересах. Турция также предпринимала попытки по выстраиванию благоприятных культурно-социальных отношений. Например, студенты из Казахстана, Узбекистана и Азербайджана теперь могли участвовать в ряде стипендиальных программ на получение стипендий и грантов для обучения в турецких университетах [2].

Многие инициативы и начинания турецкого президента заложили основу для дальнейшего расширения сотрудничества в культурной и образовательной сферах и в XXI веке. Нпример, подобные инициативы стали предтечей для создания программы «Мевляна» (тур «Mevlana»), которая предоставляет ряд грантов для обучения в турецких учебных заведениях для граждан Казахстана и Узбекистана [1]. По состоянию на сегодняшний день лидеры Турции и Узбекистана также находятся в активном диалоге друг с другом. Так, например, в январе 2022 заместитель Премьер-министра министр инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан С.Умурзаков принял делегацию руководства Совета высшего образования Турецкой Республики во главе с Председателем Совета Э.Узваром. В ходе встречи были обсуждены вопросы двустороннего сотрудничества в сфере высшего образования. В частности, рассмотрены меры по ускорению создания в Узбекистане Узбекско-Турецкого университета при участии ведущих образовательных учреждений Турции. Соответствующая договоренность была достигнута в августе 2020 года в ходе визита правительственной делегации Узбекистана в Анкару. Участниками переговорного процесса были отмечены и другие успехи, достигнутые в сотрудничестве в сфере образования. Так, уже на протяжении долгого времени свою работу ведет Ташкентский филиал Университета экономики и технологий Турции и факультет Университета медицинских наук Турции, который был

основан в Бухарском государственном медицинском институте. Также были обсуждены перспективы углубления взаимодействия по обмену профессорско-преподавательским составом, научными работниками и студентами. Достигнута договоренность о повышении квалификации научных сотрудников и уровня знаний и навыков студентов, а также организации лекций, практических занятий, интерактивных семинаров и тренингов между ВУЗами двух стран [4]. Также в ноябре 2022 года дипломаты Генерального консульства Узбекистана совместно с представительством Всемирной ассоциации молодежи в Турции организовали встречу директора Президентской школы города Ташкента Севары Шакировой с руководителем стамбульского Управления по делам диаспоры и соотечественников за рубежом при турецком правительстве (YTB) Эмре Оручем. Как было отмечено: «В ходе переговоров обсуждены вопросы налаживания двустороннего сотрудничества между Президентскими школами Узбекистана и YTB Турции, в особенности в направлении обеспечения обучения узбекской молодежи в передовых турецких вузах. Помимо поддержки соотечественников, управление реализует стипендиальную программу для иностранных студентов, желающих получить образование в Турции. Во время учебы студенты обеспечиваются бесплатным жильем и питанием. Им возмещаются расходы на мобильную связь, а также на медицинскую страховку» - было замечено руководством YTB. Во многом организация также способствует поступлению абитуриентов из Узбекистана в ряд турецких университетов и стремится оказать им максимальное содействие в облегчении поступления в турецкие университеты. Так, с 1992 по 2022 годы в турецкие высшие учебные заведение было подано свыше 9000 заявлений (в 2022 году - 1670) из Узбекистана. Более 2500 заявлений были однобрены (в 2022 году - 109), и абитуриентам удалось поступить в университеты [3].

Таким образом, плодотворное сотрудничество Турции и Узбекистана во многом закладывает прочную основу для развития двусторонних контантов и сотрудничества в сфере образования. Особое внимание уделяется именно высшему образованию и сотрудничеству в академической сфере. Во многом основа для подобной кооперации была заложена еще в конце XX века, однако по состоянию на сегодняшний день сторонам удалось достичь еще более внушительных успехов в рамках сотрудничества в сфере образования.

**Список литературы:**

1. Аватков В.А. Турция: поворот на Восток // Контуры глобальных трансформаций: политика, экономика, право, 2017. Т. 10. № 2. С. 181-186.
2. Мусаева С.И., Азизова А.Н. Тургут Озал и его внешнеэкономическая политика // Современная научная мысль. №4. 2022. С. 224-228.
3. Узбекистан и Турция обсуждают перспективы активизации взаимодействия в сфере образования. URL: https://yuz.uz/ru/news/uzbekistan-i-turtsiya-obsujdayut-perspektiv-aktivizatsii-vzaimodeystviya-v-sfere-obrazovaniya [Дата обращения 05.04.24].
4. Узбекистан и Турция планируют расширить сотрудничество в сфере образования. URL: https://centralasia.media/news:1758332 [Дата обращения 05.04.24].
5. Утургаури С.Н., Ульченко Н.Ю. Тургут Озал — премьер и президент Турции. — М.: Институт востоковедения РАН, 2009. С. 53-67.

## FRANSIYA TA'LIM TIZIMI

**Jalilov Anvar Abdulloevich,**
**NDPI, Matematika kafedrasi dotsenti**
**Mardiyeva Saodat Shuhratboy qizi 4-kurs talabasi**
**Jumayev G'ayratjon Ismatullo o'g'li**
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tayanch doktorant**

**Annotatsiya.** Ma'lumki, davlatlarning sistematik-iyerarxik tuzulmasining bosh bo'g'inlaridan biri ta'lim tizimi hisoblanadi. Shunga ko'ra, har bir davlatning o'ziga yarasha sifatli ta'lim tizimi bo'ladi. Ushbu tizim mamlakatlarning rivojlanishi, boyishi, farovonlashuvi va gullab yashnashi asosi hamdir. Mana shunday kuchli ta'lim tizimiga ega bo'lgan davlatlardan biri Fransiyadir.

Fransiyada ta’lim juda ko‘p bo‘linmalarga ega bo‘lgan yuqori markazlashtirilgan tarzda tashkil etilgandir. Mazkur maqolada bugungi kunda ilg‘or hisoblangan Fransiya ta’lim tizimining uzviyligi va uzluksizligi, ta’lim bosqichlarining ketma-ketligi batafsil bayon qilingan. Unda, jumladan, maktabgacha ta’lim, o‘rta ta’lim va oliy ta’limning asosiy funksiyalari ochib berilgan, bundan tashqari darslar uchun ajratilgan soatlar hajmi va sifati haqida ma’lumotlar va xulosalar keltirilgan.
**Kalit so‘zlar:** Fransiya ta’lim tizimi, uzluksiz ta’lim, ta’lim mazmuni, bosqichlilik, uzviylik, maqsad, vazifalar, ta’lim turlari.
**Annotation.** It is well recognized that one of the key components of the states' hierarchical, methodical organization is their educational system. Every nation will thus have a top-notch educational system of its own. Additionally, the foundation of national progress, enrichment, and prosperity in this system. France is among the nations with such robust educational systems. France has several divisions and a highly organized system of education. This page provides a detailed explanation of the progression of educational levels as well as the continuity and integrity of the French educational system, which is still regarded as advanced today. The main objectives of elementary, middle, and higher education are revealed, together with information and conclusions on the number and quality of class hours allocated.
**Keywords:** french education system, continuous education, educational content, gradation, coherence, purpose, tasks, types of education.
**Аннотация.** Общепризнано, что одним из ключевых компонентов иерархической, методической организации государств является их образовательная система. Таким образом, каждая нация будет иметь собственную первоклассную систему образования. Кроме того, это основа национального прогресса, обогащения и процветания в этой системе. Франция входит в число стран с такой надежной системой образования. Франция имеет несколько подразделений и высокоорганизованную систему образования. На этой странице представлено подробное объяснение развития уровней образования, а также преемственности и целостности французской системы образования, которая и сегодня считается передовой. Раскрыты основные задачи начального, среднего и высшего образования, а также информация и выводы о количестве и качестве отведенных учебных часов.
**Ключевые слова:** Французская система образования, непрерывное образование, содержание образования, градация, последовательность, цель, задачи, виды образования.

**Аннотация.** В данной статье автор предоставляет информацию о развитии и факторах влияния образовательного туризма в результате интеграционных процессов рынка образовательных услуг и особенностях международных образовательных программ.

**Annotation.** In this article, the author provides information about the development of educational tourism, influencing factors and features of international educational programs as a result of the integration processes of the educational services market.

Globallashuv va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidagi integratsion jarayonlar ta’lim xizmatlari bozorining shakllanishiga, ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, ayirboshlash va almashinuvi masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorlik faoliyatlarining intensiv rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Mos ravishda, ta’lim turizmi bozorining xalqaro ko‘lamda dinamik o‘sishini kuzatish mumkin.

Ta’lim turizmi bozorining 30%i oliy ta’lim muassasalari bituvchilari hamda kasbiy ish faoliyati bilan band bo‘lganlar, 26-45yoshdagilar segmentiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu yoshdagi iste’molchilar xorijda istiqbolli faoliyat yuritishni, tajribalarini diversifikatsiya qilishni, yangi madaniyatni o‘rganishni va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni xohlashadi.

Fikrimizcha, dunyoda ro‘y berayotgan texnologik va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar ko‘proq insonlarni butun hayoti davomida ilm olishga, o‘rganishga da’vat etmoqda. Yuqoridagi yosh bo‘yicha guruhlashda keyingi segment

“56 yosh va undan yuqorilar” kiritishni lozim deb topdik. Jumladan, XXRning 56 yoshdan yuqori 5mln aholisi dunyo bo‘yicha madaniy hamda ta’lim turizmini amalga oshirmoqda.

Fikrimizcha, ta’lim olish maqsadida chiqish turizmini amalga oshirishda ta’sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat(1-rasm).

- *Qabul qiluvchi davlatning qulay immigrasiya siyosati* – bir nechta immigratsiya dasturlari tobora ko‘proq talabalarni doimiy yashash joyini tanlashga va mamlakat ishchi kuchining faol qismiga aylanishga jalb qilishga yo‘naltirilgan. Kanadaning Express Entry immigratsiya dasturi Kanada universitetlarini tamomlagan xalqaro talabalarni mamlakatda vaqtinchalik yashash yoki doimiy yashash joyini tanlashga tegishli qulaylik yaratgan.

- *Qabul qiluvchi davlatlardagi ta’lim muassasalari yuqori akademik standartlarga egaligi* hamda sifatni saqlab qolish uchun qat’iy talablarga amal qiladi, shuningdek, o‘z talabalariga yuqori darajadagi ta’limni taklif qilish uchun yaxshi qo‘llab-quvvatlanadi. QS World Ranking 2023 ma’lumotlariga ko‘ra, eng yaxshi 50 ta universitetning 27 tasi AQShda, 17tasi Buyuk Britaniyada joylashgan.[133]




**1-chizma. Xalqaro ta’lim turizmini amalga oshirishda ta’sir etuvchi omillar**

–*Talabalarga qabul qiluvchi davlat yoki OTM tomonidan turli stipendiya, imtiyozli kredit kabi iqtisofiy- ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi siyosati*: o‘qish xarajatlarini ma’lum qismini yoki to‘liq qoplashi, transport xarajatlari va tadqiqot o‘tkazish, tehsil olish jarayonidagi ma’lum xarajatlarni qoplashi kabilar shular jumlasidandir.

– Ta’lim uchun sayohat, shuningdek, talabalarni turli *madaniyatlar va ma’naviy dunyoqarashini oshirishga*, *xilma-xillikka yo‘naltirilgan faoliyatlar* taklifi mavjud bo‘lishi.

–*Qulay transport infrastukturasining mavjudligi*- tegishli davlatga yetib olishda mavjud transport xizmatlarining qulayligi, vaqti va narxi bo‘yicha iste’molchiga, jumladan talaba uchun tariflar taklifi mos talabni shakllantiradi.

[133]https://www.qs.com/rankings-released-qs-international-trade-rankings-2023

–*Qabul qiluvchi mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy barqarorlik va diniy bag'rikenglik* mavjudligi birlamchi ta'sir etuvchi omildir. Siyosiy beqaror bo'lgan davlatda ta'lim xizmatlarini eksport yoki import munosabatlarini amalga oshirib bo'lmaydi.
*Iqtisodiy barqarorlik* esa ta'lim turizmiga bevosita ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.
Chunki shu omil aholi o'rtacha daromadi sayohat qilish singari ikkilamchi ehtiyojini qoplash qurbiga egaligini xarakterlaydi;
–Turli global to'siqlar : Covid-19 pandemiyasi, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush, iqlim o'zgarishi, neft narxi hamda logistika xizmatlaridagi beqarorlik xalqaro turizm bozoriga sezilarli ta'sir etmoqda(2-chizma).
Quyida BTT global pandemiyadan so'ng uning ta'sirini o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazib, natijani quyidagicha ifodalagan:




**2-chizma. Pandemiyaning turizmga ta'siri**[134]

Butunjahon turizm tashkiloti(BTT) o'tkazgan xalqaro so'rovnomada global turizmni tiklanishida ta'sir etuvchi omillar sifatida 82% respondent iqtisodiy muhit(valyuta kurslari barqarorligi, bank-moliya xizmatlari…) birlamchi ta'sirga egaligini qayd etgan. Transport va joylashtirish xizmatlari uchun qilinadigan xarajatlar ham bevosita ta'sir etuvchi omil sanaladi., deb 60% respondent fikr bildirgan. Keyingi o'rinlarda sayohat qilish uchun cheklovlar(33%), Rossiya-Ukraina mojarosi(31%) kabi omillar qayd etilgan.
Ayni vaqtda turizm bozorining xalqaro ko'lamida mavjud to'siq, kamchiliklarni bartaraf etishga, turizmni tiklashga e'tibor qaratilgan.
Global turizm sektori bozor hajmi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan qariyb 41 foizga o'sdi. Keskin o'sishga qaramay, jahon turizm bozori hajmi pandemiyadan oldingi darajadan past bo'lib qoldi va 2022 yilda jami ikki trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2023 yilda qariyb 2,29 trillion AQSH dollariga ko'tarilib, 2019-yilda qayd etilgan cho'qqidan(2,20trln $) oshib ketishi kutilmoqda.
– *OTMlarning turli xalqaro loyihalarda ishtiroki (ERASMUS+, Kamenius…), turli grant va stipendiyalarni taklif etadigan dasturlari* bilan xorijiy talabalar auditoriyasini kengaytirish imkoniyati kafolatlanadi. Xalqaro loyihalar g'olibi bo'lgan talaba turli qulay imtiyozlarga ega bo'ladi.
Aksariyat Yevropa davlatlarida ta'lim turizmining ijtimoiy shakli sezilarli ahamiyatga ega, ya'ni ular turli grant va stipendiya dasturlari orqali amalga oshiriladi. Shu o'rinda Erasmus hamda Komenius ta'lim dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi.
*Erasmus* – European Region Action Scheme for the Mobility of University Students, ya'ni Universitetlar talabalari mobilligi bo'yicha Yevropa hududiy chora-tadbirlar sxemasiga asoslangan ta'lim dasturi bo'lib, 1987 yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun mo'ljallangan talabalar

[134]UNWTO Panel of Experts Survey (September 2022)

almashish notijorat dasturi sanaladi. U talabalar va o‘qituvchilarning Yevropa Ittifoqiga kiradigan davlatlar hamda Islandiya, Norvegiya, Makedoniya, Turkiya vaqtincha o‘qishlari, tajriba almashishlari uchun shakllantirilgan. Erasmus ta’lim grantining nomi 16-asrda yashagan, insoniyat tarixidagi birinchi globalist, Niderlandiya gumanisti Erazm Rotterdamskiy sharafiga qo‘yilgan.

Butun Yevropa mintaqasini qamrab olgan bu dasturning moddiy ta’minotini Yevropa Ittifoqi va mahalliy universitetlar amalga oshiradi. Xorijiy talabalar ularning chet elda yashash bilan bog‘liq xarajatlarini qoplaydigan stipendiya olish imkoniyatiga ega .

Dastur o‘qituvchilarga keng imkoniyatlar ochib berdi, endi ular chet el oliy o‘quv yurtlarida pedagogik faoliyat yuritishlari mumkin bo‘ldi, abituriyentlarga chet el oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishlarida yordam berdi, amaliyotchilar uchun Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarga safar tashkil etdi. Erasmus ta’lim dasturi 2007-2013 yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, uning faoliyati Erasmus+(Erasmus plyus) 2014-2020 yillarga mo‘ljallangan hamda kengroq ko‘lamni qamragan dastur bilan davom etdi[135]. Unda deyarli barcha davlatlardan talabalar, o‘qituvchilar, yoshlar, volontyorlar va sport sohasi vakillari ta’lim olish, malaka oshirish, qayta tayyorlash kurslarida ishtirok etishi mumkin. Umuman olganda, Erasmus+ dasturi ungacha bo‘lgan deyarli barcha ta’lim dasturlari (Erasmus, Erasmus Mundus, Tempus, Alfa) oldingi dasturlarning tajribasi va barcha muvaffaqiyatli yechimlarini jamlangan integrasiyalashgan shakli hisoblanadi. 2021-2027 yil dasturi ijtimoiy qamrov, yashil va raqamli transformatsiya shuningdek demografik hayotda yoshlarning ishtirokini ta’minlashga kuchli e'tibor qaratadi

2021-2027 yillarga mo‘ljallangan dasturda inklyuziv ta’lim asosida ijtimoiy qamrov, yashil va raqamli transformasiya va yoshlarning demokratik hayotdagi ishtirokini rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilgan. U Yevropa ta’lim hududi, Raqamli ta’lim bo‘yicha harakatlar rejasi va Yevropa ko‘nikmalari rejasi asosida belgilangan faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.[136]

*Komenius* – o‘rta ta’limga o‘quvchi va o‘qituvchilar tarkibiga Yevropa madaniyati, tillari va qadriyatlarini o‘rganish[137]ga yo‘naltirilgan ta’lim dasturidir.

Ushbu ta’lim dasturi nomi 17asrda yashagan chex pedagogi Ionn Amos Komenskiy sharafiga qo‘yilgan. Komenskiy dasturining asosiy maqsadi tillar, madaniy meros va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha “Yevropa ta’lim loyihalari” doirasida turli mamlakatlardagi ta’lim muassasalari o‘rtasida ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirishdan iborat. Shuningdek, milliy ta’lim tizimini takomillashtirish uchun axborot va tajriba almashishga ko‘maklashish ham nazarda tutilgan.

Umuman olganda, yuqorida sanab o‘tilgan barcha ta’lim dasturlari auditoriyasi o‘suvchi xarakterga ega bo‘lib, hozirga qadar 4,5 mln ishtirokchiga yetgan. Bu esa Yevropa Ittifoqi hamda boshqa davlatlarda o‘quvchi, talaba va o‘qituvchilar mobilligini oshirish orqali ta’lim turizmi xizmatlari takomillashishi va oshishiga xizmat qiladi.

*Boloniya ta’lim tizimi* ham ta’lim turizmi auditoriyasini kengaytirishda ahamiyat ega. Uning mohiyati – davlatlararo yagona ta’lim standartlarini yaratishdan iborat. Bu talabalar, bitiruvchilar va xodimlarning mamlakatlar va universitetlararo “harakatlanish”iga yordam beradi.[138] Shunday qilib, ular bilimlarni kengaytirish, yangi tajriba orttirish, o‘qitish va tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bolonya jarayoni 1999 yilda Italiyaning Bolonya shahrida imzolangan deklaratsiyani amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarning umumiy nomidir. Shu yili Yevropaning 29 ta davlati Bolonya deklaratsiyasini imzolash orqali ushbu jarayonni boshlab berishgan. Bugungi kunda ushbu deklaratsiyani Yevropaning 49 ta mamlakat imzolagan. Markaziy Osiyodan faqat Qozog‘iston 2010 yildan beri Bolonya jarayonlarning a’zosi hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi 2022 yilda jarayondan chiqishini e’lon qildi (48 ta mamlakat qoldi).

A’zo mamlakatlardan tashqari Yevropa Komissiyasi ham jarayonga a’zo. YUNESKO, Yevropa universitetlar assotsiatsiyasi (EUA), Yevropa oliy ta’lim hududi ta’lim sifatini ta’minlash

[135] tsautb.uz

[136] https://erasmus-plus.ec.europa.eu
[137] https://wiki5.ru
[138] https://www.econ.msu.ru

agentliklari assotsiatsiyasi (ENQA) va boshqa ko‘plab tashkilotlar maslahatchi a’zo sifatida ishtirok etishadi. Bolonya jarayonining asosiy maqsadlari sifatida quyidagilar belgilangan:

– Yevropa oliy ta’lim hududini shakllantirish (European Higher Education Area). Bu hudud bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlari hamda talabalarning mobilligini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlarni yaratadi deb hisoblanadi. Yevropa oliy ta’lim hududi 2010 yildan boshlab shakllangan deb hisoblanadi.

– Ta’lim sifatini oshirish. Jarayonga a’zo mamlakatlar ushbu yo‘nalishda Yevropa oliy ta’lim hududida ta’lim sifatini ta’minlash standartlari va yo‘riqnomasini (Standards and Guidelines for Quality Assurance in the European Higher Education Area (ESG) ishlab chiqib, muomalaga kiritishgan.

– Global ta’lim bozorida talabalar uchun kurashish va ta’lim faoliyatini turli resurlar bilan boyitish maqsadida Yevropa oliy ta’lim muassasalarining boshqa mamlakatlar ta’lim tizimlariga nisbatan raqobatbardoshligini ta’minlash;

– Milliy oliy ta’lim tizimlarining bir-biriga muvofiqligi va taqqoslana bilinishiga erishish;

– Yevropa mamlakatlarining intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy-texnik salohiyatini mustahkamlash;

– Yevropa oliy ta’lim tizimi nufuzini oshirish;

– Yevropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning rolini oshirish.

Bolonya jarayoniga qo‘shilish davlatlar uchun ixtiyoriydir. Jarayonga qo‘shilish uchun tegishli deklaratsiyani imzolash zarur bo‘ladi. Imzolash bilan birga, davlatlar bir qator majburiyatlarni ham o‘z zimmalariga olishadi.

Demak, bugungi kunda ta’lim turizmi global turizm bozorida quyidagi rivojlanish tendensiyalarda ifodalash mumkin( 3-chizma):




**3- chizma. Global turizm bozorining rivojlanish tendensiyalari**[139]

Fikrimizcha, zamonaviy jahon ta’lim turizmi bozoriga xalqaro ta’limga talabning oshish fenomeni alohida ta’sirga ega. Ya’ni, talabalarning xalqaro mobillikka talabning o‘sishi ta’lim turizmi bozoriga to‘g‘ri proporsoinal ta’sir etadi, mos iqtisodiy tushumlarni oshiradi. Ta’lim, turizm

[139] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

hamda zarur infrastrukturalar integrasiyasi global ta’lim turizmi bozorining rivojiga va mos ravishda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda sezilarli ijobiy hissaga ega bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Н.Махмудова. Таълим туризмининг моҳияти, назарий ва концептуал асослари.Economics and Innovative Technologies 10 (3), 414-421, 2022
2. N.Makhmudova. (2023). International educational tourism services: global trends and the impact of regional development. РЫСКУЛОВСКИЕ ЧТЕНИЯ – 2023.«The 1st International Conference on Sustainable Regional Development in Central Asia», www.narxoz.edu.kz, 168
3. Maxmudova Nodira Uktamovna. Stages of formation and development of educational tourism services in the world. Journal of Management Value & Ethics, *April special issue. 23 Vol. 13 No.02,* 28-33p, 2023
4. https://www.qs.com/rankings-released-qs-international-trade-rankings-2023
5. . https://www.econ.msu.ru
6. tsautb.uz
7. https://erasmus-plus.ec.europa.eu
8. https://wiki5.ru


## OLIY TA’LIM TIZIMIDA XALQARO VA MINTAQAVIY AKADEMIK MOBILLIK ISTIQBOLLARI


**Aripova Nasiba Atxamovna**
**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti dotsenti,**
**Tolibjonova Sarvinoz Tokir qizi**
**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, 3-bosqich talabasi**



**Annotatsiya.** Ushbu maqola Oliy ta’lim tizimida bo‘layotgan islohotlar, talabalarning akademik mobilligi haqida bayon etilgan. Akademik mobillikning xorijiy davlatlarda tutgan o‘rni va uni rivojlantirish vositalari haqida.

**Аннотация.** В данной статье описаны реформы в системе высшего образования и академической мобильности студентов. О роли академической мобильности в зарубежных странах и средствах ее развития.

**Abstract.** This article describes the reforms in the higher education system and the academic mobility of students. About the role of academic mobility in foreign countries and means of its development.



**Kalit so‘zlar:** ilm-fan, ta’lim, akademik mobillik, xorijiy davlatlar, xalqaro mobillik, Yevropa ta’lim tizimi, diplom, hamkor universitetlar, Bolonya jarayoni, qo‘shimcha ta’lim dasturi.

**Ключевые слова:** наука, образование, академическая мобильность, зарубежные страны, международная мобильность, европейская система образования, диплом, вузы-партнеры, Болонский процесс, программа дополнительного образования.

**Key words:** science, education, academic mobility, foreign countries, international mobility, European education system, diploma, partner universities, Bologna process, additional education program.


Hozirgi hayotimizni ilm-fan, ma’rifat, madaniyat va ta’limsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Kundan-kunga ta’lim sohasi jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ta’lim tizimi turli xil chet davlatlarida turlicha. Ilm-fan va ta’limning rivojlanib borishi, taraqqiyoti aholi turmush darajasi, saviyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Yurtimizda oliy ta’lim tizimini isloh qilish, sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash borasidagi bugungi islohotlar zamirida ham malakali kadrlar tayyorlash orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish maqsad qilingan. Ochig‘ini aytish kerak, oliy ta’limdagi o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarish oson kechayotgani yo‘q. Oliy ta’limning mobillik dasturini ko‘rib chiqamiz.

Xorijiy davlatlardan talabalar o‘qishini ko‘chirishda sinovning Davlat test markazi tomonidan o‘tkazilishi tufayli adolatli va shaffof tizim yaratilgani erishilgan ijobiy natijalardandir. Ichki o‘qishni ko‘chirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni o‘zgartirish – hal etilishi zarur bo‘lgan navbatdagi dolzarb masalalardan. Nazarimizda, ichki akademik mobillikni kuchaytirish orqaligina

muammoga ijobiy yechim topish mumkin. Boisi, butun dunyoda mazkur tajriba rivojlanib, amaliyotda uning xalqaro va ichki akademik mobillik shakllaridan keng foydalanilmoqda.

Ichki akademik mobillik, bu – muayyan mamlakat ichidagi oliygohlarning shartnoma, memorandum va boshqa kelishuvlar asosida talabalarini kelishilgan muddat davomida oʻqitib berish tizimidir. Deylik, bilim sohasi oʻzaro mos keladigan 2 ta oliy taʼlim muassasasi muayyan muddatda talabalarini almashgan holda oʻquv jarayonini tashkil qiladi.

Akademik mobillik oliy taʼlim tizimida yuqori koʻrsatkichlarga erishishning muhim omillaridandir. Bu taʼlim muassasalarini bir-biri bilan solishtirish imkoniyati, muhim jihatlarini oʻzlashtirish, joriy etish orqali oliy taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mobillik oliy taʼlim muassasalari tuzilmalarini, davlat taʼlim standartlari, oʻquv rejalarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Uning ishtirokchilari talabalar, oliy taʼlim muassasalarining akademik va maʼmuriy personallari boʻlishi mumkin. Aslida xalqaro mobillik global mehnat bozori sharoitida kasbiy moslashish hamda taʼlimni davom ettirish imkoniyatini beradi. Ichki akademik mobillik talaba va ularning ota-onalariga qulaylik yaratadi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, rivojlangan davlatlarning oliy taʼlim muassasalarida ham oʻqishni koʻchirish, ichki akademik mobillik oliy taʼlimning bir qismi hisoblanadi. Ayrim davlatlarda barcha vakolat oliy taʼlim muassasalari ixtiyorida boʻlsa, baʼzilarida qatʼiy cheklovlar, muayyan talablar joriy etilgan.

Hatto ichki akademik mobillik dasturlari universitetlararo oʻzaro kelishuv shartnomalari asosida tashkil qilinadigan mamlakatlar ham bor. Mazkur tizimning amaliyotga joriy etilishi talabalarning muayyan oliy taʼlim muassasasidan oʻqishni boshqa nomdorroq oliy taʼlim muassasasiga koʻchirishi uchun emas, balki tanlagan mutaxassisligi boʻyicha malakali kadr boʻlib yetishishiga xizmat qiladi.

Jumladan, AQSHda bakalavriat bosqichidagi oʻqishini koʻchirmoqchi boʻlgan talaba ushbu mamlakatda akkreditatsiyadan oʻtgan oliy taʼlim muassasasi bakalavriatida kamida bir yillik oʻqishni tamomlagan boʻlishi shart. Universitetlar oʻqishni koʻchirish istagini bildirgan talabalar uchun oʻrtacha oʻtish balini turlicha belgilagan.

Buyuk Britaniya hukumati ushbu yoʻnalishda faol siyosat olib bormoqda. Bugungi kunda ikkita asosiy moliyalashtirish manbalari mavjud:

– Global Global Challenges Research Fund;

– Newton Fund.

Akademik mobillikni rivojlantirish vositalari quyidagilardir:

– Yevropa kredit oʻtkazish tizimi - oʻrganilayotgan materialning shaffofligini, taqqoslanuvchanligini va shunga muvofiq ravishda malakalarni akademik tan olish imkoniyatini taʼminlaydi. Tizim Yevropaning ERASMUS dasturi doirasida 1988 yilda paydo boʻlgan. Oʻquv dasturlarining taqqoslanuvchanligi talabalarga oʻz malakalariga mos keladigan dasturlarni tanlashga imkon beradi, bu dasturlar muvaffaqiyatli bajarilishi sharti bilan oʻz universitetlarida oʻtgan materiallar sifatida hisoblanadi;

– Diplomga qoʻshimcha – olingan taʼlim mavzusi, darajasi, mazmuni haqida toʻliq maʼlumot beradi. Ilova talabalarning akademik mobillik darajasini va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi mobilligini oshiradi;

– Ikki tomonlama diplomlar – bu oʻquvchilarga bir akademik oʻqish davrida (3-5 yil) ishlab chiqilgan qoʻshma akademik dasturga muvofiq ikkita oliy oʻquv yurtini (ikkita oliy maʼlumot diplomini olish) tugatish imkoniyatini beradi.

Hamkor universitetlar oʻrtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq, talaba 1-2 yil davomida partner universitetda oʻqishi va ikki marotaba yakuniy davlat attestatsiyasidan oʻtishi kerak (tayanch universitetida va partner universitetida) yoki komissiya tomonidan bir marotaba davlat imtihonlarini topshirishi kerak, uning tarkibiga bazaviy universitet va partner universitet vakillari kiradi. Yuboruvchi va qabul qiluvchi universitetlarning Yevropaning mobillik amaliyotida oʻzaro taʼsirini muvofiqlashtirish uchun Taʼlim toʻgʻrisida Shartnoma rasmiy hujjat sifatida kiritilgan. Shartnoma yuboruvchi universitetning harakat koordinatori va talabaning oʻzi tomonidan

to‘ldirilishi va imzolanishini o‘z ichiga oladi. Ushbu hujjat tavsiya etilgan o‘quv dasturi ikkala universitet tomonidan kelishilganligini tasdiqlaydi.

Qo‘shma ta’lim dasturlari Bolonya jarayonining asosiy maqsadlarini to‘liq amalga oshiradi:

• sifatni birgalikda nazorat qilish;
• darajalarni tan olish;
• ta’lim tizimlarining yaqinlashuvi va shaffofligi;
• akademik mobillik.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Agishev R.R. Akademik mobillik dasturlari: xususiyatlar va imkoniyatlar. - Qozon: KSTU im. A.N.Tupolev, 2018 yil. — B. 103-110.
2. Jabborova O. I., Kenjaeva X. P. O‘zbekistonda gender huquq tengligi asoslari // Xalqaro gumanitar va tabiiy fanlar jurnali. – 2018.
3. Xajieva I. va boshqalar. Axborot va ta’lim muhitida bo‘lajak kasb-hunar ta’limi o‘qituvchisining chet tili kompetentsiyasini shakllantirish // Evropa molekulyar va klinik tibbiyot jurnali. - 2020.
4. Xayriddin Murod. Ichki akademik mobillik. // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – 2020.
5. LEX.UZ, www.ziyonet.uz

## AKDEMIK MOBILLIKNING AFZALLIK HAMDA KAMCHILIKLARI.

**Saitqulova O`g`iloy Zokir qizi**
**Yuridik fakulteti Yurisprudensiya yo‘nalishi**
**Temiz davlat universiteti**

**Annotatsiya:** akademik mobillikning talabalar uchun foydali tomonlari, fikr almashish, dunyoqarashni kengaytirish, ma’lumotlar almashish bilan birga yangi bilimlarga ega bo‘lish.**Аннотация**: преимущества академической мобильности для студентов, обмен идеями, расширение кругозора, обмен информацией и приобретение новых знаний.

**Annotation**. Benefits of academic mobility for students, exchange of ideas, expansion of worldview, exchange of information and acquisition of new knowledge.

**Kalit so‘zlari:** iqtidorli yoshlar, integratsiya, xorijiy til, intellektal imkoniyat, akademik mobillik.

**Ключевые слова:** талантливая молодежь, интеграция, иностранный язык, интеллектуальный потенциал, академическая мобильность.

**Keywords:** talented youth, integration, foreign language, intellectual capacity, academic mobility.

**Akademik mobillik –** bu talaba yoki o‘qituvchilarning mamlakatidagi yoki xorijdagi oliy ta’lim muassasalarda kelishuv asosida ma’lum muddat o‘qish yoki dars berishini anglatadi.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son 08.10.2019 yildagi Farmoni*ga* muvofiq Oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida respublika oliy ta’lim muassasalariaro ichki akademik mobillik dasturlarini, o‘zaro tajriba almashish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish rejalashtirilgan. Shuningdek, “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-son qaroriga ko‘ra, talabaning akademik mobillik davrida o‘zlashtirilishi belgilangan ta’lim elementlarini jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o‘zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta’lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta’lim dasturlarida belgilangan ta’lim olish natijalari jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturi bo‘yicha ta’lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to‘ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi va “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

Akademik mobillikni ta’minlash va talabaning kreditlari oliy ta’lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi; belgilangan shakldagi ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv, ma’lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta’lim olish natijalarini aks ettiradi va oliy ta’lim muassasasiga kreditlarni tan olish va ko‘chirib o‘tkazish uchun asos hisoblanadi.

Talaba tomonidan oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi bo‘yicha to‘plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta’lim muassasasida belgilangan ta’lim olish natijalariga muvofiq o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

Talaba jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasi tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta’lim muassasasiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasi tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

Qabul qiluvchi oliy ta’lim muassasasida talaba tomonidan o‘zlashtiriladigan o‘quv elementlarining to‘plami va ular oliy ta’lim muassasasining ta’lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvda aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Qabul qiluvchi oliy ta’lim muassasasida o‘zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o‘qish davriga (3-6 oy yoki 1-3 yil) mutanosib bo‘lishi kerak. Jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasi tomonidan mobillik davrida talabaning o‘zlashtirgan (to‘liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. Talaba jo‘natuvchi oliy ta’lim muassasasiga qaytib kelgach, mobillik davrida to‘plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o‘tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

Oliy ta’lim muassasasi akademik mobillik dasturi bo‘yicha rejalashtirilgan ta’lim elementlarini o‘zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro‘yxatdan o‘tkazadi va mobillik davrida ushbu elementlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari ta’minlanishi majburiyatini oladi.

Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvlarni tuzish zarur hisoblanmaydi.

Ta’lim to‘g‘risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlovchi ko‘rsatkichlar oliy ta’lim muassasalarining baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

Stajirovkani o‘tash bo‘yicha kelishuv talaba, oliy ta’lim muassasasi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi.

Stajirovka davomida talaba tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta’minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o‘taganlik to‘g‘risida sertifikat beriladi.

| № | Dasturning foydali tomonlari | Dasturning kamchiliklari |
|---|---|---|
| 1. | til bilish darajasini yaxshilashi | til bilmaslik |
| 2. | dunyoqarashni kengayadi | o‘quv soatlarida to‘la muvofiqlik bo‘lmasligi |
| 3. | dastur orqali talabalar o‘zga davlatlar madaniyati, turmush tarzi bilan tanishadi | moliyaviy muammolar |
| 4. | Yangi atmosferaga tez moslashishni o`rganadi | almashinuv dasturlari darsdan tashqari ishlaydigan va o‘zini moddiy jihatdan o‘zi ta’minlaydigan talabalarga ham qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. |
| 5. | talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘z-o‘zini mustaqil boshqarish qobiliyatlari oshadi | |

Akadmikmobil talabalar, asosan, 2 guruhga bo‘linadi:

**erkin harakatlanuvchilar** – bunday turdagi talabalar o‘z xohish va tashabbuslari bilan ta’lim olish uchun boshqa hududlarga borishadi;

**dastur doirasidagi talabalar** – bunda oliy ta`lim muassasalarining o‘zi yoki uning biror fakulteti boshqa oliy ta`lim muassasa bilan kelishgan holda talabalar uchun o‘zaro almashinuv dasturlarini amalga oshiradi. Dasturlar milliy va xalqaro darajada ham bo‘lishi mumkin.

O‘qishni ko‘chirishga asosiy sabablardan talabgorlarning aksari yo o‘zi o‘qiyotgan OTMdagi ta’limdan qoniqmasdan sifatliroq joyga borishni xohlaydi, yoki avvalboshdan shunday reja bilan o‘qishga kirgan. Shunday vaziyatda akademik mobillik – yaxshiroq joyda o‘zaro almashib ta’lim

olish imkonini beradigan yangi tizimga hisoblanadi. Bu talabalar uchun qulay sharoitlarni yaratib beradi.
Hozirda o‘qishni ko‘chirish uchun ruxsat beriladigan toifalar faqatgina 2 ta holatda: turmush qurganda va davlat xizmatchilarining xizmat joyi o‘zgarganda mumkin. Shuning uchun *talabalarga qulaylik maqsadida jahon tajribasidagi akademik mobillikni qo‘llash oson. Masalan, rektorlar o‘zaro kelishib, Surxondaryodagi va Toshkentdagi talabalar almashib, 1-2 semestr o‘qiydi. Lekin diplom bir joydan olinishi mumkin.* Bunga ko‘ra, viloyat OTMida o‘qiyotgan talaba o‘qishini ko‘chirmasa ham, kelishuv asosida poytaxtdagi universitetda ma’lum muddat o‘qib qaytishi mumkin.
**Mobillik dasturi** ta’lim olish uchun bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chib o‘tish juda uzoq tarixga ega jarayon hisoblanadi. Odamlar qishloqdan shaharga, shahardan poytaxtga, poytaxtdan ta’limi va iqtisodi rivojlangan davlatlarga ilm olish uchun migratsiya qilishadi. Bu dastur bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi talabalarining 30% foydalanishga o‘tdi. Qisqacha xulosa shuki, talabalar ta’lim yaxshi bo‘lgan davlatlarga o‘qish uchun borishga harakat qilishadi. Aslida, o‘qishni ko‘chirish ham xuddi shunday mazmundagi narsa ya’ni talaba o‘zi o‘qishga kirgan OTM berayotgan ta’limdan qoniqmasdan yaxshiroq universitetda o‘qish uchun (asosan, hududlardagi OTMdan poytaxtga) harakat qiladi.
Mahalliy akademik mobillikda: talabalar ma’lum muddat boshqa bir OTMda o‘qishi uchun O‘zbekiston hududidagi yo‘nalishiga mos keladigan boshqa OTMga talaba almashinuv dasturlari bilan o‘qish imkoniyatiga ega. Bunda talaba o‘zi o‘qiyotgan OTM bilan hamkor bo‘lgan respublikadagi OTMlaridan birida ma’lum muddat o‘qib qaytishi mumkin. Bunday OTM o‘z davlatida bo‘lsa ham talabaga yangi muhitda o‘qish imkonini beradi. Bunda almashinuv dasturlari qisqa – 1 haftadan 3 oygacha, uzoq – 6 oydan bir yilgacha bo‘lishi mumkin. Aytish joizki, mahalliy akademik mobillikda talabalar ichki migratsiya amalga oshiradi, hududlarda ham xizmat ko‘rsatish qamrovi oshadi. Albatta, buning uchun faqat hududlardan poytaxtga emas, balki poytaxtdan hududlarga, bir viloyatdan boshqa biriga borib o‘qishni xohlovchi talabalar soni ham oshishi lozim.
**Erasmus** – eng mashhur talabalar almashinuv dasturlaridan biri. Bu dasturga a’zo bo‘lgan Yevropa universitetlaridan birida 3 oydan bir yilgacha o‘qish imkonini qo‘lga kiritish mumkin. Bu dasturga bakalavr, magistratura va amaliyot uchun hujjat topshirish mumkin. Bunday dasturlarni ta’lim olayotgan sohaga qarab istalgancha topish mumkin. Dunyo talabalar almashinuvi dasturlaridan faol foydalanmoqda. Faqat talabalar dastur doirasida o‘qish uchun belgilangan talablarni bajara olishlari kerak.
Akademik mobillik tajribasi bor-yo‘qligi haqida respublikadagi barcha OTMlar o`z saytlarida keltirib o`tadi. Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent davlat yuridik universiteti, O‘zbekiston milliy universiteti saytlarida xalqaro hamkor tashkilotlar ro‘yxati keltirilgan. Lekin bu OTMlarning almashinuv dasturlari, asosan, xorijiy OTMlar bilan birgalikda. Mahalliy OTMlarning qanchasida o‘zaro talaba almashinuv dasturlari bor-yo‘qligi hali ko`rsatilmagan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori
2. Kun.uz sayti. Zilola G‘aybullayeva 12:02 / 11.06.2022dagi bayonoti.
3. lex.uz sayti

## MATEMATIKA FANINING TA’LIMDA O‘QITILISHI VA SAMARADORLIGI.

**Navoiy davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi**
**Kuzmanova Dilnoza**

**Annotasiya.** Ushbu maqola matematika fanining rivojlanib kelish tarixi. Bu fan uchun allomalarning qo‘shgan hissalari. Hozirgi kundagi ahamyati va samaradorligi, Kelajakka tatbiqi. Bolalarni õqishga qiziqishini orttirish. Chet et ta’limi tizimi va bizning ta’lim o‘rtasidagi farqli tomonlar. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli va foydali o‘tqizish haqida.
**Kalit so‘zlar:** Matematika, olimlar, ta’lim, yangiliklar, oliy ta’lim, o‘qitish, g‘oya

**Аннотация.** Данная статья представляет собой историю развития математики. Вклад ученых в эту науку. Его значение и эффективность сегодня Приложение к будущему. Заинтересовать детей чтением. Отличия зарубежной системы образования от нашего образования О осмысленном и полезном проведении свободного времени молодежи.
**Ключевые слова:** Математика, ученые, образование, новости, высшее образование, преподавание, идеи
**Abstract.** This article is a history of the development of mathematics. Contributions of scholars to this science. Its significance and effectiveness today Application to the future. Getting children interested in reading. Differences between foreign education system and our education. About meaningful and useful spending of free time of young people.
**Keywords:** Mathematics, scientists, education, news, higher education, teaching, ideas

Barcha fanlar singari matematikaning ham paydo bo‘lishi qadimgi Yunoniston bilan bog‘liqdir. Matematika eng qadimgi fanlardan biri bo‘lib,uzoq rivojlanish tarixiga egadir. Matematika (qadimgi yunoncha – “bilim”,”fan”) aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fandir. Matematika dastavval sanashda ishlatilganligi uchun hisob-kitob haqidagi fan ham deb yuritilgan. Yunonistonliklar matematika deganda geometriyani tushunishgan. Negaki ularda Nil daryosi toshqini paytida, uning qanchalik balandlikkacha kutarilganligini ya’ni o‘lchov ishlarida geometriya judayam qol kelgan edi. Shunday qilib matematika yillar davomida judayam chuqurlashib o‘rganila boshladi. 9-13-asrlarda matematika tushunchasini algebra va triganometriyaga kengaytirilgan. Bu fanni kõplab O‘rta Osiyo balki dunyo bo‘ylab ko‘pchilik allomalarimiz o‘rgangan. Matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan O‘rta Osiyolik olimlardan shu qatorda Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino bobolarimizni aytib o‘tishimiz mumkin. Bu allomalarimizning asarlari bizga ulkan bir ma’naviyat o‘chog‘i bo‘ldi.Insonlarni ilm, ma’rifatga chaqirgan. Amerikalik fan tarixchisi George Sarton Xorazmiyni “O‘z zamonasining buyuk matematigi, agar barcha holatlar e’tiborga olinsa barcha zamonlarning eng buyuk matematiklaridan biri” deb aytib o‘tgan. Yuqorida sanab tilgan buyuk ma’rifatparvar bobolarimizni matematika fanini asoschilari desak mubolag‘a bõlmaydi.Ular boshlab bergan bu bilimni biz yosh avlodlar mustahkamlab bormog‘imiz kerak. Hozirgi kunda ko‘pchilik yoshlar matematika fanini tasavvurida juda qiyin deb o‘ylashadi.Ammo matematikaning sir-sinoatini cheki yo‘qdir.Matematikaning tub mohiyatini tushungan inson boshqa fanlarni, tabiat hodisalari-yu, texnikani yaxshi o‘rganib oladi. Bu fan deyarli barcha fanlarning asosidir. Muso al-Xorazmiy bobomiz “Matematika-fanlar ichra shoh,uning sirlaridan bo‘lingiz ogoh” deb, aytib o‘tgan edi. Bundan ham bilishimiz mumkinki, matematika fanlarning shohi ekanligini. Bugungi kundagi yoshlarni matematika faniga qiziqtirish, ularni bu fan sir-asrorlarini o‘rgatish bu o‘qituvchi, murabbiylarimiz qo‘lidadir. Matematika fanini o‘qitish hozirda jadal rivojlanyapti desak bo‘ladi. Negaki hozirda zamonamiz texnika asri hisoblanadi. Texnikani esa biz matematikasiz tasavvur qila olmaymiz. Bizda matematika judayam zo‘r rivojlangan deyolmaymiz. Ko‘pchilik yoshlar yuqorida aytganimdek matematikani qiyin fan sifatida qabul qilishadi, mantiqiy fikrlashlari juda sust, aksaryat yoshlar o‘rganishni ham xohlashmaydi. Negaki, ularni bu fanga qiziqtirish, soda va lo‘nda tushuntirilmayotganida emas balki o‘zlari fikrlashni xohlashmaydi deb o‘yladim. Biz maktabda o‘qishni boshlar ekanmiz, boshlang‘ich ta’limdayoq matematika o‘rganishni boshlaymiz. Ammo matematikaga qiziqtirish faqatgina o‘qituvchilar emas, balki ota-onalar ham zimmasidadir. Bizning o‘zbek xalqimiz judayam mehnatkash xalq hisoblanadi. Farzandiga vaqt ajrata olmasa ham ularni o‘qishini, ilm o‘rganishini xohlashadi. Faqat ish deb ularga e’tiborsizlik qilish ham bolalarni kitobga emas, balki dunyoviy o‘yinlarga bog‘lab qo‘yayapdi.Chet el ta’limini oladigan bo‘lsak, Masalan Yaponiyada o‘quvchilarga ota onasini qanchalik qiynalib pul topib farzandini o‘qitayotganligi haqida vedioroliklar qo‘yib berishadi. Ular esa bulardan xulosa chiqarib,ota onasi uchun ham faqat o‘qishi kerak ekanligini anglab yetishadi. Va shu qatorda aytib o‘tishimiz kerakki, ularni maktablarida o‘quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan oshxonalari, yotoq joylari o‘quvchi uchun nimaiki kerak bo‘lsa hammasi maktab ichida. Ular dam olishga ham ulgurishadi darslaridan keyin esa qo‘shimcha fanlarga borishadi. Albatta, o‘quvchilar ta’lim olishi uchun ham qulay sharoitlar yaratib berilishi kerak. Bunday davlatlarning ko‘pginasini misol keltirishimiz

mumkin. Amerika, Koreya, Germaniya, Singapur va qator davlatlar. Rivojlangan davlatlarda iqtidorli bolalarga e'tibor tobora ortib bormoqda.Keyingi davrlarda tengdoshlariga nisbatan qobilyatda bir necha barobar ilgarilab ketgan bolalar kõplab topilmoqda.Ular shov-shuvlarga sabab buladigan darajada muvaffaqiyatlarga erishadilar. Shunday iqtidorlar maktabi G'arbda 60-yillarda paydo bo'lgan. Bunday maktablarni o'quv dasturlari ham bola iqtidoridan kelib chiqib, murakkab tuzilgan.Ular uchun stependiyalar, turli imtiyozlar, turli shart-sharoitga ega bulgan turar joylar, eng oliy darajadagi universitetlarga qabul kabilar amalga oshirilgan.Chet elda o'quvchilarni shunday rag'batlantirish ishlari olib boriladi. Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlari vatanimiz ta'lim tizimida qo'llash Respublikamizda ta'lim tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonlarini tezlashtiradi. Bizning vatanimizda ham iqtidorli yoshlar talaygina, biz ularni ajratib olib, ularning bilimini, qobiliyatlarini to'g'ri yõnaltirishimiz kerak. Ko'pgina bilimli o'quvchi yoshlar, chetda qolib ketyapdi ularni rag'batlashtirish ishlarini olib borishimiz kerak. Ularni qanchalik qo'llab-quvvatlaganimiz sari, ular shunchalik bilimga qiziqishlari ortib boradi.
Hozirgi kunda ham bu islohotlarni amalga oshirish ishlari boshlanib ketgan. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Hozirda maktablarda yoshlarimizni bilimini xalqaro talablarga yetkazish, unga mosligini o'rganib borish maqsadida 3 yilda bir marta o'tkaziladigan PISA, TIMSS kabi baholash dasturlari keng qõllanilmoqda. 2022-yil hisobida kõpgina viloyat maktablarida bu testlar o'tkazilib, qoniqarli natijaga erishildi. Shunday chora tadbirlar keng tarzda o'tkizilib, yoshlarning bo'sh vaqtini ham mazmunli o'tkazish, ularni ta'lim olishida o'z samarasini beradi degan umiddamiz. Vatanimizda ham ta'lim borasida ko'pgina olimpiadalar, tanlovlar o'tkazilmoqda. Masalan,ancha yillardan beri "Yosh Kitobxon" ko'rik tanlovida ko'pgina yoshlar president sovg'alarini yutib olishmoqda. Bu degani bizda ham kitobxonlikka qiziqadigan yoshlar ko'pgina ekanligini ko'rsak bo'ladi. Xuddi shunday tanlovlar matematika fanida ham ko'proq tashkillashtirilib o'tkizilsa judayam yaxshi bo'lardi. Keyin yoshlarni matematikaga qiziqishlari ortib, bilimlari mustahkamlanadi. Matematika fani doim mantiqqa asoslanadi. Biz maktabda yoki universitetda faqat formula yodlashimiz emas, biz fikr qilishimiz kerak. Shuning uchun ham matematika doim bizni hayotimizda muhim o'ringa ega. Bizni yashashimiz uchun matematika kerak. Insonni aqlini, ongini o'stirishga yordam beradi matematika. Shuning uchun yuqorida aytib o'tilgandek PISA baholash dasturi ishlab chiqildi, bunda bolalarning fikrlashini o'stirish asosiy maqsad.

Xulosa qilib aytganda, biz birinchi o'ringa ta'limni qo'yishimiz kerak. Jamiyatda o'qituvchi degan unvon doim birinchilikda turishi kerak. Prezidentimiz o'qituvchilar oylik maoshini 1000$ga ko'taramiz deb aytdi. Demak, bundan ham shuni bilishimiz mumkinki, bizda ta'limni bosh o'ringa ko'tarilayotganligini. Shuni amalda ko'rsak barcha iqtidorli yoshlar boshqa sohalarda emas balki pedagog bo'lishga intiladi. Bizga ta'lim berayotgan ustozlarimizni qadrlashimiz kerak. Chunki ular bizni yerdan kõklarga ko'taradigan insonlardir. Hattoki zamonasining eng zo'r podshohi bo'lgan Amir Temur bobomiz ham ustozlari kelganda ularga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Ustozini qadrlagan, hurmat qilgan joyda albatta bilim jo'sh uradi va bilimli yoshlarko'payadi.Aqlli,iqtidorli yoshlar kõpaygan jamiyat esa har tomonlama o'sadi, kelajak yoshlari ham ular ortidan ergashadi. Vatanimiz taraqqiyoti bilimli yoshlar qo'lidadir. Mamlakatimizda o'qish va o'qitishni yo'lga qo'yib, birinchi o'ringa matematika, mantiq fanini barcha yoshlarga o'rgata olsak, ularni ongiga bu fan kerak ekanligini singdira olsak, ular matematikani hamda boshqa fanlarni ham qiynalmasdan õrganib olishadi. vatanimiz iqtisodiyoti,ta'lim tizimi ham rivojlanib, boshqa rivojlangan davlatlar qatoriga kõtarilib olamiz.Bunda faqat chuqur yondashuv va yoshlarning bõsh vaqtini samarali o'tkizish va to'g'ri taqsimlab berish, ularni doim qo'llab-quvvatlashimiz lozimdir. Biz buyuk ajdodlar avlodlarimiz. Ulardek bo'lishga intilishimiz, ulardek hayotimizda o'chmas iz qoldirib ketishimiz zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Barakayev M, Shamshiyev A, G'oyibnazarova G, Õrinov H, Halimov Õ, "Matematika o'qitish metodikasi", "Õzbekiston faylasuflar milliy jamiyati" nashriyot TOSHKENT 2019

2.https://lex.uz/acts/-4807552 sayti
3.https://yuz.uz/uz/news/matematika-sohasidagi-ta'lim -sifatini-oshirish-va-ilmiy-tadqiqotlarni-rivojlantirish-chora-tadbirlari-tõg'risida.
4.https://zenodo.org/records/5878771 sayti
5.Karimov V.M.,Sunnatova P.,Tojiboyeva R.N.,Mustaqil fikrlash.- T:Sharq.2000-yil.-110-b

## O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

**Ro'ziqulova Sevara**
**NavDPI "Tarix" yo'nalishi 4-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD), dotsent D.Ro'ziyeva**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida xotin-qizlarning O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy tekshirish institutlari, oliy maktablar va boshqa tashkilotlarda ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** olima ayollar, fan doktori, ilmiy izlanish, xotin-qizlar, tibbiyot fanlar nomzodi, tadqiqotchi olimalar, ijodkor, hikoyanavis, shoira, veteran ayollar.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek xalqining haqqoniy tarixini tiklash hamda xalqni shu tarix haqiqati bilan qurollantirish dolzarb masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, "Biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantiishimiz zarur" [140]. Asosiy vazifamiz tarixni ilmiy asoslangan holda xolis o'rganishdan iborat ekan, bu borada sovetlarning millat ayollariga nisbatan munosabatini ilmiy asosda tahlil etish lozim. II-jahon urushi yillarida front orqasidagi mavjud hamma kuchlarning diqati dastlab mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlashga qaratilgan edi. Hattoki ilmiy ishlardagi mavzular ham xalq xo'jaligi va front ehtiyojlariga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 1941- yil kuzida Toshkentda SSSR Fanlar akademiyasining sharqshunoslik, tarix va jahon adabiyoti hamda boshqa ilmiy-tadqiqot institutlari ko'chirib keltirildi. 1943- yil 4- noyabrda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilib, uning Prezidenti matematik olim Qoriy Niyoziy edi. Ko'plab olima ayollar tomonidan olib borilgan ilmiy-izlanishlar mudofaa sanoati va xalq xo'jaligi rivojini ta'minlashga xizmat qildi. Jumladan, Marg'ilon o'qituvchilari institutining dekani, to'ng'ich matematik o'zbek ayoli Z.Zaripova, geologiya-mineralogiya fanlari doktori S.Yusupova, ximik olimalardan A.Abdurasulova va Z. Saidnosirovalar, nazariy mexanika muammolari ustida tekshirishlar olib brogan Po'latoy Shohhaydarova [141] kabilar shular jumlasidandir. Ipakchilik ilmiy-tekshirish institutining ilmiy xodimi N.V.Shurshikova har quti qurt urug'idan 88 kkgdan pilla hosili beradigan "Sovet I" navini ishlab chiqdi. Chorvachilik ilmiy-tekshirish institutining ilmiy xodimi Z.I.Savitskaya, T.F.Tavildorova, N.A.Koshina va boshqalar chorvalar parvarishi, ular nasldorligini oshirish masalalari ustida ishladilar. Tadqiqotchi olimalardan Ye.B.Odintsova, Ye. P. Panfilova, Yem.D. Yakimova, B.N.Ogolina, B.S.Romanova, B.V. Grechina[142] kabilar urushning qiyin sharoitlarida qorako'l chorvasini tanlash va ajratib olish usul hamda nazariyalari ustida iizlanish olib bordilar. Umuman olganda, ta'lim va ilm-fan sohasida O'zbekiston xotin-qizlari samarali mehnat qilib Respublika fani va madaniyati rivojini g'alaba qozonish maqsadlariga qaratdi.

Sovet hukumatining vrach va hamshiralarni urush sharoitiga moslab tayyorlash ishlari ham jadallashtirib yuborildi. 1941-yil oktabr oyida "Sanitariya mudofaasiga tayyorlan "nomli chaqirig'i ham xalq tomonidan munosib qabul qilinib,joylarda qon quyish operatsiyasi, harbiy-dala operatsiyasni, jumladan, hamshiralar xirurg vrachlar bajaradigan ishlarni mashq qilib frontga jo'nashga tayyorlandilar[143]. Jumladan, Toshkent va Samarqand meditsina institutlari 1941-yildan 1945- yilgacha 3257 vrach tayyorladi,shuningdek, 4864 medisina xodimlari yetishish chiqdi[144].

---

[140]Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. 7-jild, T.: O'zbekiston, 1999. B.149.
[141]Jo'rayeva N. O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat( XX asrning 20-80 yillari misolida) o'quv qo'llanma. T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013, B.173.
[142]O'sha yerda, B. 174.
[143]Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa .-T.:Fan.1975. –B.47
[144]Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa . –T.:Fan. 1975. –B.88

Vaholanki, 25 sanitar drujinasida 266 nafar tibbiyot hamshirasi tayyorlandi[145]. Bu kabi oʻquv yurtlarini tamomlab, keyin frontga borib ,yarador jangchi va askarlarga tibbiy xizmat koʻrsatildi.Mana shunday medisina xizmatining starshiy leytenant Sobira Majidova va Maryam Yusupova kabi najotbaxsh ayollarimiz oʻz hayotlarini xavf ostiga qoʻyib boʻlsada yaralangan jangchi va ofitserlarni urush olovidan olib chiqdilar. Shuning uchun ham Sohibboyev ham Zuev va Mamatov kabi oʻnlab jangchilar oʻz hayotlarini saqlab qolgan opalarini hech qachon unutmaydilar[146]. 1941-yil institutni davolash fakultetini tamomlagan Muqaddam Ashrapova bilan birga uning dugonalari Anvara Muharramova, Poʻlatoy Qodirova, Sobira Majidovalar ham urushga borib askarlarni saqlash uchun fidoyilik namoyon etdilar[147].
SSSR xalq artisti unvonini va SSSR Davlat mukofotini olgan Tamaraxonim rahbarligidagi oʻzbek filarmoniyasining chiqishi jangchilarga juda manzur boʻldi. Xususan, Tamaraxonim oʻz esdaliklarida,"pana joy yer toʻlalarda bekinib, nemis aviatsiyasi hujumini tugashini kutib turardik,keyin yana konsertni davom ettirardik.Konsert vaqtida jangchilar nomma-nom yoki butun boʻlinmasi bilan chaqirilmaguncha tarqalib ketishmasdi. Konsert tomoshabinlarga katta kuch va ruh baxsh etganligidan na qoʻrquv va na charchoqni bilardik"[148]. Sovet ittifoqi tarkibidagi askar-zobitlarga jangovar ruh bagʻishlab turgan qahramon ayollardan biri sifatida Rahima Alimova edi. Rahima Alimova, drama teatri artisti E'tibor Oripova kabilar urush yillarida Moskva, Stalingrad, Kursk va Minsk ostonalarida jang harakatlarida ishtirok etib, oʻzlarining ijod namunalarini namoyish etib,jangchilarni gʻalabaga ruhlantirdi[149].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ikkinchi jahon urushi frontlarida Oʻzbekistonlik ayollar ittifoq tarkibidagi askar va zobitlarning aziz jonlarini asrashda oʻzbek qiziga xos boʻlgan jasorat va qahramonliklarini namoyon eta oldilar. Ikkinchi jahon urushi ayollarda yuksak vatanparvarlik va insonparvarlik tuygʻulari kuchli boʻlgani sababli,Vatan himoyasini or-nomus masalasi sanab,ma'suliyatli vazifani oʻzlarining nozik zimmalariga olib,urush frontlariga joʻnaganligining oʻzi katta jasorat hisoblanadi. Sovet davlatining, xususan, oʻzbeklarning mard-u maydon ayollari fashist bosqinchilariga qarshi kurashda qahramonlik va jasoratlari bilan oʻz fidoyiligini namoyon eta oldi.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK TARBIYAGA OʻRGATISH

**NDPI, Maktabgacha ta'lim yoʻnalishi 1-"V"guruh talabasi**
**Saparova Nasiba Kenjayevna**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim jarayonida maktagacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasi, bolalarning ijtimoiy hayotga boʻlgan munosabati hamda ta'lim jarayoni haqida bayon etilgan.

**Аннотация.** В данной статье описывается эстетическое воспитание дошкольников в процессе непрерывного образования, отношение детей к общественной жизни, образовательному процессу.

**Abstract:** This article describes the aesthetic education of preschool children in the process of continuous education, children's attitude to social life, and the educational process.

**Kalit soʻzlar:** estetika, ta'lim, diqqat, tarbiya, idrok, ong, rivojlanish, ilk qadam, tovush, maqsad, imkoniyat.

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'limning birinchi qadami boʻlibgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pogʻona hamdir. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 30 -sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi farmoni hamda "Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi Qarori bunga dalildir.

[145]Surxondaryo tarixi.Tursunov S,Qobilov E,Murtazayev B,Pardayev T. –T.:Sharq, 2004. –B.345.
[146]Shamsutdinov R.Qizil armiya 1944-yil 7-mart. N-20 (125). To`plam: Ikkinchi jahon urushi va fronti gazetalari. III kitob. –T.:Akademnashr.2017. –B.41.
[147]Adham Rahmat. Shinelli qizlar . –T.: ,1970. –B.34
[148]Inoyatov H.G`alabaga qo`shilgan hissa. –T.:Fan.1975. –B.87.
[149]Sirojev O. Fashizm ustidan erishilgan g`alabada Buxoroliklarning roli. –T.: O`zbekiston.1996. –B.337-338

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT)larida ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori saviyada tashkil etish tarbiyalanuvchilarga ta'limning keyingi bosqichlarida qiynalmasdan davom ettirishga imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan biri – bolalarning ingliz tiliga ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli xildagi ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi.
Estetik tarbiya keng ma'noli tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi. Estetik tarbiya o'z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismi hisoblanadi. U, ayniqsa, axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liq. San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, hissini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Bolalarda go'zallikni idrok etishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish: xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.
**"Estetik tarbiya"** tushunchasi bilan bir qatorda **"badiiy tarbiya"** tushunchasi ham mavjud. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqalitarbiyalashdir. Estetik va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi shundaki,kishining go'zallikni idrok etishdan quvonishi uning boshqa kishilarga yaxshilik qilganidan xursand bo'lishiga o'xshab ketadi.Aksincha, go'zallikni ko'ra bilmaslik, undan zavqlana olmaslik yomonishlarni qilishga olib keladi. Tarbiyaning bu turi mehnat tarbiyasi bilanham bog'liq. Mehnat faoliyati bolalarni quvontiradi, ular biror-bir foydaliishni bajarayotib, o'zlarining imkoniyatlari o'sib borayotganligini sezadilar.
Estetik va jismoniy tarbiya o'rtasida o'zaro boglanish bor. Kishining mustahkam sog'lig'i, jismoniy kamolotisiz uning go'zalligini tasavvur etib bo'lmaydi. Uning chiroyli gavda tuzilishi, musiqa ostida chiroyli harakatlar qilishi shular jumlasiga kiradi. Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik hayoti bilan chambarchas bog'liq. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda ham ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida uning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bunda kattalarning ta'siri alohida o'rinni egallaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan so'zlashuvlari bolaga buyumlarning xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ularning yuzidagi xursandchilik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib berishlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bola hayotining **ikkinchi yilida** uning idroki sekin-asta takomillashib boradi. Bola endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini idrok eta boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amginligiga ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.
**O'rta guruh** bolalarida go'zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu, ayniqsa, qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, teatrlarni tomosha qilganlarida namoyon bo'ladi. Bu yoshdan boshlab bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar.
Bolalar ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan ajrata boshlaydilar. Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar. Ularda ijobiy qahramonlardan quvonib, salbiy qahramonlaming harakatlaridan xafa bo'lish holatlari yuz beradi.
Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqib, bolaning yosh imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilanadi:
1. Bolalarni hayotdagi go'zallikni tushunishga, sevishga, tabiatda, turmushda, yaratuvchanlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilaming xattiharakatlarida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklami ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash. Kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.
2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, raqs, rasm) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish;chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish;
ranglarni, shakl, tovushlarni bir-biridan farqlay olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.
3. Bolalarni san'atning turli sohalari: ashula, o'yin, o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyatlarda yanada faolroq harakat qilish, o'zini ko'rsata olishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy

qobiliyatni, xayolni o‘stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, ko‘rish xotirasi, qo‘llarni chaqqon harakatga keltira olish malakalarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya vositalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bolalarni o‘rab turgan muhit, turmush estetikasi;

-  tevarak-atrofdan olingan taassurotlar;
-  tabiat, san’at asarlari;
-  bolalarning tasviriy faoliyatlari;
-  bayramlar, ko‘ngilochar tadbirlar;
-  ma’lum maqsadli va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta ’lim;
-  ma’lum maqsadga qaratilgan va rejali ravishda amalga oshiriladigan ta’lim.

Bolalar bog‘chasini o‘rab turgan go‘zallik muhiti bolalarning har tomonlama kamol topishiga, estetik didlarining tarbiyalanishiga yordam beradi. Pedagogika sistemasiga xos bo‘lgan estetika va etikaning birligini oilada, bolalar bog‘chalarida kichkintoylarni tarbiyalashda bemalol qo‘llash mumkin. Lekin haqiqiy turmush estetikasini yaratish uchun tarbiyachi va ota-onalarning yuqori madaniyatli, yaxshi xulqli, xushmuomala, badiiy didli bo‘lishlari talab etiladi.

Bolalarni o‘rab turadigan chiroyli narsalarning o‘zi bolaga hech narsa bermaydi, shuning uchun bolalarni ularni ko‘rishga, qadrlashga, baholay bilishga o‘rgatish kerak. Tarbiyachi bolalarning diqqatini polning tozaligiga, chiroyli idishlarga, gullarga qaratadi.Har bir yangi narsa, yangi bezak bolalar bilan birga ko‘rib chiqiladi. Eng muhimi, hamma narsalami bolalarda estetik zavq uyg‘otadigan qilib ko‘rsatish kerak. Bolalarda estetik zavq uyg‘otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bolalarning hislariga ta’sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalaming namunasidir. Tarbiyachining o‘zi zavqlansa, ortiqcha so‘zlarsiz go‘zallikka qiziqish uyg‘ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan: “Nima uchun oltin kuz deyiladi?” deb so‘rashadi, tarbiyachi istirohat bog‘iga borib ko‘ramiz, deb javob beradi. Bog‘ga borishganda bolalarga taklif etadi: “Sayr qilib daraxtlarni, yo‘lkalarni kuzatamiz”. Bog‘ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to ‘xtab, atrofga nazar tashlashadi-da: “Nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillage o‘xshaydi. Ana qizil burglar”, deyishadi hayajon bilan. Shamol bo‘lishi bilan barglar yerga tushadi. Yo‘lkalar esa to‘shalgan gilamga o‘xshaydi. Ko‘chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: “Biz hozir sizlar bilan bog‘cha ko‘chasidan yurib o‘tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko‘rsa, sayrdan keyin so‘zlab beradi”. Shuni ta’kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko‘ra bilishga, undan hayratlana olishga o‘rgatish lozim. Tabiatning go‘zalligini va ajoyibligini inson hayot go‘zalligiga, san’at go‘zalligi va ajoyibotiga aylantiradi. Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go‘zalligi, hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg‘ular va xayollarda saqlangan go‘zalligi bolalikda, ayniqsa, yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi. Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini 4ta rang-barangligiga, uning o‘zgarishi va uyg‘unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg‘otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o‘rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko‘rib, atrofdagi go‘zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Tarbiyachi bolalarning g‘unchadagi bir tomchi shabnamda ham, o‘tlarning biri ikkinchisi bilan qo‘shilib ketishida ham, quyoshning nur taratishida ham, oqshom bo‘yoqlarida ham tabiat go‘zalligini ko‘ra bilishlariga yordam beradi. Bolalar tashkilotida tabiat burchagi tashkil etiladi. Undagi hayvonlar va o‘simliklarni kuzatish va parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, go‘zallik yaratish xohishini shakllantiradi va qizg‘in faoliyatga undaydi. Yilning yoz faslida polizda, gulzorda, bog‘cha maydonchasida mehnat qilishda ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o‘z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag‘ishlaydi. Dala va bog‘larga sayrga borganda tabiatning go‘zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Bolalar tashkilotida bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda san'atning har xil turlaridan (musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati, adabiyot va h. k.) foydalaniladi. San'at yuksak estetik zavqning, kishi xursandchiligining tuganmas manbayi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan bir vaqtda u har bir kishining rivojlanishi, ma'naviy boyishi uchun ham vositadir. Badiiy asar kishining his-tuyg'ulariga ta'sir etsa, hissiy kechinmalar kishida fikrlashni uyg'otadi. Badiiy asardan hayajonlanish fikrlashni faollashtiradi. Qiziqarli ertak yoki rasm bolada fikrlar o'yinini uyg'otadi. San'atdan bolalar bog'chasini bezashda, ta'lim berishda, bolalarning mustaqil faoliyatlarida foydalaniladi. Bolalar bog'chasida ganch, chinni, yog'och, loy, plastilindan xilma-xil buyumlar, o'yinchoqlar yasash mumkin. Bolalar o'yinchoqlarining yaxshi namunalaridan guruh xonasini bezatishda foydalansa bo'ladi. Gilamchilik, to'qimachilik, kulolchilik, zardo'zlik, kashtachilik, popopchilik, badiiy oyna, metall patnislar, to'qilgan hamda tikib gul solingan buyumlar va boshqalar tasviriy san'atning manzarali shakliga kiradi. Bundan tashqari, bog'chada har bir viloyat, o'lka, respublikaning milliy madaniyatidan foydalanish kerak.

Ta'lim-tarbiya ishlarida o'zbek xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Milliy naqshlar tushirilgan chiroyli guldor matolar qo'g'irchoqlar uchun ko'ylak, oyna pardalari, dasturxon kabilar uchun ishlatilishi mumkin. Musiqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badantarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynayi jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida kata yordam beradi. Ashula aytib o'yinga tushishda, asosan, xalq ijodi namunalaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish, yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatiladi.

Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bolaga o'rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim. Pedagog tarbiyaviy nuqtayi nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to'liq namoyon bo'lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo'lini to'g'ri belgilashi mumkin. Bolalar bog'chasida o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Estetik tarbiya vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishining sababi soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatik qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi. Qo'g'irchoq teatri, soya teatri ko'rsatish ham bolalarni estetik tomondan tarbiyalashda alohida o'rin egallaydi. Bu o'yinchoq, qo'g'irchoqlar bolalarga tanish bo'lsa-da, ularni tarbiyachi qo'li yordamida harakatga keltirib, badiiy so'zlar bilan qo'shib olib borishi natijasida ular bolaning ko'z o'ngida jonlanadi, boshqacha tus oladi va bolalar ertak mazmunini chuqur idrok eta boshlaydilar.

Badiiy didning shakllanishida kitoblar muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu va mazmuni bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir. Kichkintoylar, ayniqsa, 2—3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra, rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga "qib" berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini

tarbiyalaydi. Kattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo‘lgan muhabbat, do‘stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo‘lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir. Bolalarning sevimli yozuvchi va shoirlari Qudrat Hikmat, Mirmuhsin, Shukur Sa’dulla, Quddus Muhammadiyning bolalar uchun yozgan she’rlari ularda ijobiy his-tuyg‘ulami tarbiyalaydi, ularni yashashga o‘rgatadi, dunyoqarashini shakllantiradi, ona tilining boyligini, so‘zlarning ta’sirchanligini his qilishga yordam beradi. Kichkintoylar hammadan ham ertaklarni sevadilar. Eitakning yaxshi tomoni shuki, unda uzoq fikr yuritilmaydi. Ertak qahramonlari bolaga yaqin va tanish. Ertak tili hayotiy hamda jonli bo‘ladi. Eng muhimi, tarbiyachining o‘zi badiiy adabiyotni sevishi va tushunishi, nasriy asar va she’rlarni ifodali o‘qiy bilishi kerak. Bolalar bog‘chasida kattalar rahbarligida bolalar tomonidan konsertlar, bayramlar, kichkintoylarning tug‘ilgan kunlarini nishonlash bolalarda quvonchli hislarni uyg‘otadigan, mazmunli va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoladigan qilib tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, estetik tarbiya bolalarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashning muhim qismi bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”, 1992.
2. I.A. Karimov. Istiqlol va ma’naviyat. T., “O‘zbekiston”, 1995.
3. I.A.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. T., “O‘zbekiston”, 1995.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. O‘., “Sharq”, 1997.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘. “O‘zbekiston”, 1997.
6. U.Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., “Fan”, 2005.
7. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., “Fan va texnologiyalar”, 2005.
.8. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. T., “O‘zbekiston”, 2010.
10. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. (O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., “Fan va texnologiyalar”, 2010.

## ПРЕИМУЩЕСТВА ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В ОБРАЗОВАНИИ

**Хусанова Рушана, студентка НГПИ**
**Шарапова Диана Риннатовна**
**Преподаватель кафедры русского языка и литературы НГПИ**

**Аннотация.** В статье рассматривается вопрос преимущества инновационных процессов в образовательном процессе. Настоящая статья посвящена инновационным процессам в образовании способствующие улучшению качества образования и развитию студентов.

**Ключевые понятия:** образовательная среда, эффективные способы обучения, информационные технологии, образовательные ресурсы.

**Annotatsiya.** Maqolada ta’lim jarayonida innovatsion jarayonlarning afzalliklari masalasi ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqola ta’lim sifatini yaxshilashga va talabalarning rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ta’lim sohasidagi innovatsion jarayonlarga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim muhiti, o‘qitishning samarali usullari, axborot texnologiyalari, ta’lim resurslari.

**Abstract.** The article discusses the advantages of innovative processes in the educational process. This article is devoted to innovative processes in education that contribute to improving the quality of education and the development of students.

**Key concepts:** educational environment, effective ways of learning, information technology, educational resources.

Инновации играют важную роль в современном образовании, так как они способствуют постоянному развитию и совершенствованию образовательного процесса. Они помогают адаптироваться к быстро меняющимся требованиям современного общества и рынка труда, а также обеспечивают более эффективное и качественное обучение студентов. Одной из основных ролей инноваций в образовании является создание новых учебных программ и методик. Современные технологии и научные исследования позволяют разработать более интересные и эффективные способы обучения, которые учитывают индивидуальные

особенности студентов и их потребности. Новые программы и методики помогают студентам лучше усваивать знания, развивать навыки и умения, а также применять их на практике. Еще одной важной ролью инноваций в образовании является внедрение активных и интерактивных форм обучения. Традиционные лекции и учебники все чаще заменяются на интерактивные уроки, проектные работы, дискуссии и другие формы, которые позволяют студентам активно участвовать в образовательном процессе. Это способствует развитию их критического мышления, коммуникативных навыков и творческого потенциала.

Также инновации в образовании включают создание новых образовательных ресурсов. Современные технологии позволяют разработать онлайн-курсы, видеолекции, электронные учебники и другие ресурсы, которые доступны студентам в любое время и место. Это позволяет расширить доступность образования и обеспечить его качество независимо от географического положения и социального статуса студентов.

Однако, внедрение инноваций в образование также сопровождается определенными проблемами и вызовами. Некоторые преподаватели и студенты могут испытывать сопротивление к изменениям, а также возникают технические и организационные сложности. Поэтому важно разрабатывать стратегии развития инновационных процессов, которые учитывают потребности и возможности всех участников образовательного процесса. Инновационные процессы в образовании имеют ряд значительных преимуществ, которые способствуют улучшению качества образования и развитию студентов.

Инновации в образовании позволяют внедрять новые методы и подходы к обучению, которые могут быть более эффективными и интересными для студентов. Например, использование интерактивных технологий и онлайн-ресурсов позволяет создать более интерактивную и гибкую образовательную среду.

Инновации в образовании помогают студентам развивать навыки и компетенции, которые востребованы на современном рынке труда. Например, внедрение информационных технологий и цифровых навыков в учебный процесс позволяет студентам освоить новые инструменты и технологии, которые могут быть полезными в их будущей профессиональной деятельности. Инновационные процессы в образовании способствуют развитию самостоятельности и ответственности студентов. Новые методы обучения, такие как обратная связь и самооценка, позволяют студентам активно участвовать в своем образовании, принимать решения и отвечать за свой учебный прогресс.

Таким образом, инновационные процессы в образовании имеют множество преимуществ, которые способствуют улучшению качества образования и развитию студентов. Они помогают создать более эффективную и интересную образовательную среду, развивают критическое мышление и творческий потенциал, подготавливают студентов к современному рынку труда и развивают самостоятельность и ответственность.

**Список использованной литературы**

1.Бим-Бад Б.М. Вовлечение преподавателей в инновационные процессы // Профессиональное образование. Столица. 2008. № 2.

2. Загвязинский В.И. Теория обучения: современная интерпретация: Учебное пособие для студентов вузов. М., 2006.

3. Педагогическое мастерство и педагогические технологии: учеб. пособие / под ред. Л.К. Гребенкиной, Л.А. Байковой. – 3-изд., испр. и доп..- М.: Пед. об-во России. – 2000. – 256 с.

## OLIY TA’LIM TIZIMIDA XALQARO VA MINTAQAVIY AKADEMIK MOBILLIK ISTIQBOLLARI

**Mahkamova Gulhayo Kamoliddin qizi**
**Navoiy davlat pedgogika instituti**
**“Milliy g‘oya,ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi**
**2-“E” guruh talabasi**

**Annotatsiya**. Akademik mobillik zamonaviy ta’lim tizimining ahamiyatli jihatlaridan bo‘lib, talaba va o‘qituvchilarga o‘zlari xohlagan sharoitlarda tahsil olish yoxud o‘qitish imkoniyatlarini

beradi.Nafaqat ichki mobillik,balki xalqaro mobillik ham bugungi kunda kuchaymoqda. Xorijiy OTMda o‘qish istagini bildirayotgan talabalarimiz ham talaygina. Bunday qadamlar ham ta’lim tizmini ham davlatlararo hamdo‘stlik aloqalarini kuchaytiradi .

**Abstract.** Academic mobility is one of the important aspects of the modern education system, which gives students and teachers the opportunity to study or teach in the conditions they want. Not only internal mobility, but also international mobility is increasing today. Many of our students express their desire to study at foreign universities. Such steps will strengthen both the education system and inter-state relations of the commonwealth.

**Аннотация.** Академическая мобильность является одним из важных аспектов современной системы образования, который дает студентам и преподавателям возможность учиться или преподавать в тех условиях, которые они хотят.Сегодня возрастает не только внутренняя, но и международная мобильность. Многие наши студенты выражают желание учиться в зарубежных университетах. Подобные шаги позволят укрепить как систему образования, так и межгосударственные отношения Содружества.

**Kalit so‘zlar:** akademik mobillik, migratsiya , yetuk kadrlar , hamkorlik

**Key words:** academic mobility, migration, senior staff, cooperation

**Ключевые слова:** академическая мобильность, миграция, руководящий состав, сотрудничество.

Ta’lim olish, oliy ta’lim muassasasining talabasi bo‘lish har bir yoshning maqsadlaridan biri. Bu borada yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilgan. Bir vaqtning o‘zida 5 ta OTM ga hujjat topshirish hamda to‘plangan ballga qarab shu ta’lim muassasalaridan biriga qabul qilinish abituriyentlar uchun quvonarli hol ,albatta .

O‘qishga kirgandan keyin ham yurt ertalari bo‘lmish yoshlarga qulaylik hamda sharoitlar yaratish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Shu o‘rinda akademik mobillik tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim. Negaki, bu tizim ta’lim oluvchilar uchun ham o‘zlari xohlagan muassasada o‘qish imkonini beradi ham ularning dunyoqarash va fikrlash doirasini kengaytirib ijtimoiy munosabatlarga kirishishiga katta yordam beradi.Akademik mobillik – talaba yoki o‘qituvchilarning mamlakatidagi yoki xorijdagi OTMlarda kelishuv asosida ma’lum muddat o‘qish yoki dars berishini anglatadi.

Akademik harakatchanlik talabalar, tadqiqotchilar va o‘qituvchilarning akademik va kasbiy tajribalarini oshirish maqsadida turli xil ta’lim muassasalari va geografik joylar o‘rtasida harakatlanishini anglatadi. Akademik harakatchanlik tushunchasi ko‘pincha pedagogik innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi, chunki u institutlararo hamkorlik va bilim va ilg‘or tajriba almashish imkoniyatini beradi.Akademik harakatchanlikni pedagogik innovatsiyalarning Klaster tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta’minlash uchun hamkorlik uchun aniq maqsadlar va tuzilmalarni belgilash, mobillik tashabbuslarida ishtirok etayotganlarni yetarli resurslar va qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Bundan tashqari, ochiqlik va xilma-xillikka hurmat madaniyatini tarbiyalash muhimdir, chunki bu fikr almashish va yangi pedagogik yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi.[1]Aslida o‘qishni bir joyda boshlagandan keyin boshqa joyga butunlay ko‘chirish quvonarli holat emas. Sababi maqsadni aniq qilib o‘qishga kirildimi nega boshqa OTM ga o‘tish kerak. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri Abduqodir Toshqulov o‘z nutqida aytganidek: “Talaba birinchi kursdanoq maqsadini aniq belgilab olishi kerak. Bu yil jami 150 ming talaba o‘qishini ko‘chirishga ariza topshirishi prognoz qilingan edi.Buning o‘rniga akademik mobillikni qo‘llash mumkin. Masalan, rektorlar o‘zaro kelishib, Surxondaryodagi va Toshkentdagi talabalar almashib, 1-2 semestr o‘qiydi. Lekin diplomni bir joydan olishi kerak. 150 ming talabgor o‘qishini ko‘chirish uchun hujjat topshirishi nima degan gap? Bu – bir yillik kvota degani”[2]

Akademik mobillikning foydali jihatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, 1-o‘rinda yetuk malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ma’lum muddat davomida yangi muhit, yangi atmosferada ta’lim olish, qaysidir ma’noda o‘sha jamiyatning haqiqiy a’zo bo‘lish uchun kishidan aql-zakovat, bardosh hamda kirishuvchanlik xislatlari talab qilinadi.Agar xorijga ta’lim olish uchun borgan bo‘lsa, chet tilini mukammal bilish ham shart. Qiyinchiliksiz, mashaqqatsiz muvaffaqiyat

boʻlmaydi ,albatta. Ilm olish uchun ozgina jonini yoqqan insonga ilm yuqadi degan gap bor. Xuddi shunday , yangi muhitda tahsil olish davomida oʻz mutaxxasisligi boʻyicha puxta bilim egallash bilan bir qatorda yoshlarimizda brogan hududlarinining urf-odat , an'analari, odamlarining xarakter-tabiati ,qaysidir ma'noda dunyoqarashi hamda mentalitetini oʻrganishga ham imkoniyat tugʻiladi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, mamlakatni rivojlantiradigan sohalardan biri bu – ta'lim tizimi Soha vakillari qay darajada tajriba va koʻnikmaga boy boʻlsa tizim shunchalik ravnaq topib rivojlanadi, ularga boʻlgan ehtiyoj yanada ortadi . Buning uchun xalqaro va mintaqaviy akademik mobillikdan samarali foydalanishimiz lozim. Oʻzaro ichki va tashqi hamkorlik asosida ta'lim oluvchilarning saviyasini yanada oshirish shart. Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilgʻor texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktori, yuridik fanlar doktori, professor Shuhrat Yoqubovning "Ichki akademik mobillik" nomli maqolasida ta'kidlab oʻtganidek:

Zamonaviy hayotni ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Boisi, bu boradagi izlanishu tadqiqotlar, alaloqibat, insoniyat turmushi farovonligiga xizmat qiladi. Yurtimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilish, sifat koʻrsatkichlarini yaxshilash borasidagi bugungi islohotlar zamirida ham malakali kadrlar tayyorlash orqali jamiyat taraqqiyotiga erishish maqsad qilingan. Oʻzgarishlar shiddati va samarasi esa xalqaro jamoatchilikning ham e'tiboriga tushgan. Bozor munosabatlari sharoitida oliy ta'lim xizmatlari, albatta, mehnat bozori talablariga mos boʻlishi, dunyo standartlariga javob berishi kerak. Yoʻqsa, unda tayyorlangan kadrlar bandligini ta'minlash yechilishi lozim boʻlgan yana bir yangi masalani yuzaga keltiradi[3]

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. https://abt.uz/blog/endi-oqishni-kochirishga-faqat-2-toifadagi-talabalarga-ruxsat-beriladi-diplom-bir-joydan-olinishi-kerak-oliy-va-orta-maxsus-talim-vaziri

2. PEDAGOGIK INNOVATSION KLASTER TIZIMIDA AKADEMIK MOBILLIK. maqolasi Abdullayeva Oʻgʻiloy Rustamjon qizi

3.Yangi Oʻzbekiston № 116*(638),2022-yil 11-iyun "Yangi Oʻzbekiston" gazetasining onlayn nashri

## OLIY TA'LIM TIZIMIDA XALQARO VA MINTAQAVIY AKADEMIK MOBILLIK ISTIQBOLLARI

**Xalmamatova Lola Amankulovna**
**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Toshkent**
**Shatmanova Sabina Oybekovna**
**Professional ta'lim, 3-bosqich talabasi, Taqu, Toshkent**

**Annotatsiya.**Ushbu maqolada ta'lim sifatini ta'minlashning muhim ahamiyati, oliy ta'limda sifat kafolati evolyutsiyasining asosiy bosqichlari, tendentsiyalar va muammolari, oliy ta'lim sifatini ta'minlash nazariyalari, ta'lim modellari yoritilgan va koʻp qirrali muammolar koʻrib chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** sifat, sifatli ta'lim, ta'lim sifatini aniqlash, ta'lim sifatini baholash, akademik mukammallik, inklyuzivlik va xilma-xillik, akkreditatsiya, sifat kafolatining kengayishi, globallashuv va xalqarolashuv, sifatni ta'minlash agentliklari, global reyteng, talabalarga qaratilgan sifat kafolati.

**Аннотация**.В статье освещено значение обеспечения качества в образовании, основные этапы, тенденции и проблемы эволюции обеспечения качества ввысшем образовании, разработаны теории обеспечения качества ввысшем образовании, образовательные модели, а также многогранные проблемы.

**Ключевые слова**: качество, качественное образование, определение качества образования, оценка качеств аобразования, академическое превосходство, инклюзивностьи много образие, аккредитация, расширение обеспечения качества, глобализация иинтернационализация, агентства пообеспечениюкачества.

**Abstract.** This article highlights the importance of quality assurance education, the main stages, trends and problems of the evolution of quality assurance in higher education, theories of quality assurance in highe reducation, educational models,and multifaceted problems. developed.
**Keywords**:quality,quality education, defining the quality of education, assessment of the quality of education, academic excellence, inclusion anddiversity, accreditation, expansion of quality assurance, globalization and internationalization, quality assurance agencies, global rating.

**Kirish**. XXI asrning murakkabliklarini tahlil qilar ekanmiz, oliy ta’lim muassasalarining sifatibizning globalmuammolarnihalqilish, rivojlanayotgan texnologiyalar gamoslashish va inklyuziv va adolatli jamiyatlarni rivojlantirish qobiliyatimizga bevosita ta’sir qilayotganini kuzatamiz. Oliy ta’lim sifatini oshirish iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy taraqqiyot uchun zarurligini bir qancha tamoyillar namoyon etmoqda. Xususan, jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshlik uchun yaxshi ma’lumotli ishchi kuchi muhim ahamiyatga ega. Masalan, Qo‘shma Shtatlar, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi kuchli oliy ta’lim tizimiga ega bo‘lgan mamlakatlar malakali ishchi kuchi tufayl irivojlanib borayotga iqtisodiyotga ega. Sifatli oliy ta’lim innovatsiyalar va texnologik taraqqiyotga yordam berayotganini Stenford universitetining Silikon viloyatini rivojlanganligi va uning texnologiya sanoatiga ta’siri oliy ta’lim innovatsiyalarni qanday qo‘zg‘atayotganini ko‘rsatdi. Sifatli oliy ta’lim muassasalari madaniy va ilm-fan taraqqiyotiga katta ta’sirini Oksford universitetining adabiyotga qo‘shgan hissasi va Kembrij universitetining fandagi ulkan yutuqlari misoloda ko‘rish mumkin. Garvard tibbiyot maktabining tadqiqotlari insoniyatga foyda keltiradigan tibbiy yutuqlarga hissa qo‘shib kelmoqda. Yangi sohalar paydo bo‘lishi bilan oliy ta’lim kerakli ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga moslashib bordi. Ma’lumotlar fanining yuksalishi butun dunyo bo‘ylab universitetlarni sanoat talabini qondirish uchun tegishli dasturlarni ishlab chiqishga undadi. Oliy ta’lim ijtimoiy harakatchanlik uchun yo‘l beradi va tengsizlikni kamaytiradi. Masalan, “IvyLeaguePlus” maktablari kabi stipendiyalar va dasturlar kam ta’minlangan talabalar uchun yuqori darajadagi ta’lim olish imkoniyatini yaratishga qaratilgan. Shu bois, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari qashshoqlik va iqlim o‘zgarishi kabi muammolarni hal qilishda ta’lim, jumladan, oliy ta’limning rolini ta’kidlaydi. Sifatli ta’lim ko‘pincha turli asoslar va standartlarga asoslanadi, masalan, YUNESKOning “Ta’lim2030” Harakat Dasturi, unda hamma uchun inklyuziv, teng va sifatli ta’lim tamoyillari bayon etilgan[1].

**Tahlil va natijalari.** Oliy ta’limda “sifat” tushunchasi ko‘p qirrali va dinamik bo‘lib, ta’lim muassasalari va dasturlari samaradorligi va qiymatini birgalikda belgilovchi keng ko‘lamli o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi.“Sifatli ta’limning asosiy ko‘rsatkichi bu o‘rganuvchilarning qay darajada o‘zlashtirganliklari bilan o‘lchanadi. Bu esa o‘qituvchilarning belgilangan o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilarn ibaholash orqali, shunigdek, ish muhidatida o‘qituvchining o‘z ishidan mamnun bo‘lishida namoyon bo‘ladi”. Doimiy o‘zgaruvchan ta’lim muhitida bu o‘lchovlarni tushunish ta’lim muassasalari va manfaatdor tomonlar uchun juda muhimdir. Sifat o‘lchovlari:

1. Akademik mukammallik .U oliy ta’lim sifatining asosi bo‘lib o‘quv dasturlarining qat’iyligini, professor-o‘qituvchilarning tajribasini va talabalarning ilmiy yutuqlarini o‘z ichiga oladi. Asosiy ko‘rsatkichlar bitiruv darajasi, professor-o‘qituvchilarning malakasi, tadqiqot natijalari va muassasa obro‘sini o‘z ichiga oladi.
2. Ta’lim sifatini aniqlashda o‘quv dasturini ishlab chiqish va yetkazib berish, shuningdek, pedagogic yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Tanqidiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi tegishli, dolzarb o‘quv dasturi muhim ahamiyatga ega.Faol ta’lim va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi kabi samarali o‘qitish usullari ham sifatga hissa qo‘shadi.
3. O‘quv natijalarini baholash sifatning muhim o‘lchovidir. Bu talabalar o‘zlarining ta’lim tajribasidan nimani olganliklarini baholashni o‘z ichiga oladi. Bu o‘lchov o‘quvchilar o‘z dasturlari bo‘yicha kutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirganliklarini tekshiradi.
4. Tegishli jismoniy va texnologik resurslardan foydalanish asosiy hisoblanadi. Ta’lim muassasalari samarali o‘qitish va o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash uchun zamonaviy kutubxonalar,

laboratoriyalar va onlayn platformalar bilan ta'minlashi kerak. Kerakli mablag', yaxshi ta'mirlangan obyektlar va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma muhim ahamiyatga ega.
5. O'qituvchilarning tajribasi, tajribasi va majburiyatlari ta'lim sifatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Doimiy kasbiy rivojlanish, tadqiqot imkoniyatlariva xilma-xil va inklyuziv o'qituvchilar tarkibi har tomonlama ta'lim muhitiga hissa qo'shadi.
6. Sifatli muassasalar akademik maslahatlar, maslahatlar, martaba xizmatlari va darsdan tashqari tadbirlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli yordam xizmatlarini taklif qiladi. Ushbu xizmatlar talabalarga akademik, hissiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga yordam beradi.
7. Tashqi baholash va akkreditatsiya jarayonlari muassasa sifati haqida qimmatli tushunchalarni beradi. Taniqli organlarning akkreditatsiyasi muassasalarning belgilangan standartlarga javob berishini va doimiy ravishda takomillashishini ta'minlaydi.
8. Oliy ta'lim muassasalari tadqiqot va innovatsiyalar sohasida yetakchi bo'lishi kerak. Ularning bilim va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi sifat ko'rsatkichidir.
9. Inklyuzivlik va xilma-xillikni rag'batlantirish yuqori sifatli ta'lim uchun zarurdir. Institutlar teng huquqli foydalanishga, turli xil talabalar va professor-o'qituvchilar tarkibiga hamda inklyuziv siyosat va amaliyotlarga intilishi kerak.
10. Qarorlar qabul qilish, moliyaviy boshqaruv va boshqaruvda shaffoflik muhim ahamiyatga ega. Institutlar o'z manfaatdor tomonlari, jumladan, talabalar, professor-o'qituvchilar va keng jamoatchilik oldida javobgar bo'lishi kerak [2].
Global miqyosda oliy ta'lim sifatini ta'minlashning evolyutsiyasi yillar davomida globallashuv, texnologik taraqqiyot, hisobdorlik va oshkoralikka talabning ortishi kabi turli omillar ta'sirida sezilarli o'zgarishlar bilan ajralib turdi. Oliy ta'limda sifat kafolati evolyutsiyasining asosiy bosqichlari va tendentsiyalari tahlili, uning bir qancha jarayonlarni bosib o'tganini ko'rsatdi:
**Ta'lim natijalariga e'tibor qaratish (XXI-asr).** XXI asrda ta'lim natijalariga e'tibor qaratish oliy ta'limning asosiy mavzusiga aylandi. Ushbu yondashuv asosiy e'tiborni o'rgatilgan narsadan (kirishlardan) o'quvchilar haqiqatda o'rganadigan va ta'lim olish natijasida ko'rsata oladigan narsalarga o'tkazadi. O'quv natijalari-bu o'quvchilarning ta'lim tajribasi natijasida erishilishi kutilayotgan bilim, ko'nikma, malaka va munosabatlarni tavsiflovchi aniq bayonotlardir. Ular mo'ljallangan o'quv maqsadlari va talabalar kurs yoki dasturni tugatgandan so'ng nima qilishlari kerakligi haqida aniq ma'lumot beradi. Ta'lim natijalariga e'tibor qaratish pedagogik yondashuvlarning o'zgarishiga olib keldi. Ta'lim natijalarini ta'kidlash o'quvchilarni ta'lim jarayonining markaziga qo'yadi. Bu ularga o'z bilimlariga egalik qilish va ularning taraqqiyotini kuzatish imkonini beradi. Aniq belgilangan ta'lim natijalari o'quvchilarga ulardan nima kutilayotganini tushunishga yordam beradi. Ular maqsadlar qo'yishlari, muvaffaqiyatlarini kuzatishlari va ta'limning dolzarbligini ko'rishlari mumkin. O'quv natijalari bitiruvchilarning tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini ta'minlash orqali ularning ishga joylashishini ham oshiradi. O'qituvchilarga kerakli natijalarga mos keladigan kurslar va tadbirlarni loyihalashtirish tavsiya etiladi. Asosiy e'tibor faol o'rganish, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va bilimlarni qo'llashga qaratilgan. Ta'lim natijalari baholash bilan chambarchas bog'liq. Baholash usullari o'quvchilarning mo'ljallangan natijalarga erishganligini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu moslashtirish baholashning mazmunli bo'lishini ta'minlaydi va o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlaydi. Hukumat va akkreditatsiya qiluvchi organlar ko'pincha muassasalardan ta'lim sifati va javobgarligini ta'minlash vositasi sifatida ta'lim natijalarini aniqlash va baholashni talab qiladi. Ushbu yondashuv dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va dasturni takomillashtirish imkonini beradi. Ta'lim natijalari tushunchasi ma'lum bir mamlakat yoki mintaqa bilan chegaralanmaydi. U global miqyosda qabul qilingan bo'lib, talabalar va muassasalar uchun hamkorlik qilish va kreditlarni chegaralar orqali o'tkazishni osonlashtiradi. Evropa standartlari va yo'riqnomalari (ESG) va sozlash loyihasi kabi asoslar oliy ta'limda ta'lim natijalaridan foydalanishga yordam berdi.
**Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL)** – bu o'quvchilarning faolligi, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va bilimlarni real loyihalar orqali qo'llashga qaratilgan ta'lim yondashuvidir. PBL chuqur o'rganishni rivojlantirish va talabalarni XXI asr muammolariga tayyorlash uchun qimmatli usul bo'lib qolmoqda. Amerika faylasufi va o'qituvchisi Uilyam Kilpatrik(1871-1965) ko'pincha loyihaga

asoslangan ta'limning dastlabki rivojlanishiga hissa qo'shgan. U ta'limda "loyiha usuli" ni taklif qildi, bu o'quvchilarni real hayotga taalluqli bo'lgan va tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishni talab qiladigan loyihalar ustida ishlashga undadi. Matematik va kompyuter olimi Seymur Papert(1928-2016) loyihaga asoslangan ta'limga mos keladigan konstruktiv ta'lim sohasidagi faoliyati bilan mashhur. Uning fikricha, talabalar amaliy loyihalar va tajribalar orqali o'z bilimlarini faol ravishda qursalar yaxshiroq o'rganadilar.

**Loyihaga asoslangan ta'limning afzalliklari:**

- PBL talabalarning faolligini va motivatsiyasini rag'batlantiradi, chunki u talabalar murakkab muammolarni o'rganish va hal qilishda tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- PBL jamoaviy ishvahamkorliknirag'batlantiradi,talabalargashaxslararovamuloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;
- talabalar o'rganganlarini mazmunli tarzda qo'llaydilar, bu esa o'rganishni yanada dolzarb qiladi;
- PBL talabalarni ish kuchi va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan 21-asr ko'nikmalari bilan ta'minlaydi.

**Xalqaro bakalavriat (IB) dasturi** talabalariga yuqori sifatli va xalqaro yo'naltirilgan ta'lim berish uchun mo'ljallangan jahon miqyosida tanolingan ta'lim tizimidir. U akademik qat'iylik, tanqidiy fikrlash, global fikrlash va har tomonlama ta'limni rivojlantirishga qaratilgan. Shveytsariyalik o'qituvchi Mari-Terez Mauret (1890-1967) ko'pincha IB dasturining dastlabki asoschisi hisoblangan. U 1920-yillarda qat'iy va xalqaro miqyosda tan olingan ta'limni ta'minlaydigan dasturni nazarda tutib, xalqaro diplom g'oyasini taklif qildi. IB dasturini ishlab chiqish turli mamlakatla ro'qituvchilari ishtirokidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar edi. U 1960-yillarda Shveytsariyaning Jeneva shahrida Xalqaro bakalavr tashkiloti (IBO) tashkil etilganida rasman shakllandi. Britaniyalik o'qituvchi Alek Peterson (1924-2007) IBOning birinchi Bosh direktori bo'lib ishlagan va IB dasturini erta amalga oshirish va kengaytirishda hal qiluvchi rol o'ynagan. IB dasturi global istiqbollarni, madaniyatlararo tushunishni va xalqaro fikrlashni ta'kidlaydigan xalqaro ta'lim tizimidir [4].

Bu akademik, shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishga qaratilgan keng qamrovli va muvozanatli ta'limni ta'minlaydi. IB dasturi tanqidiy fikrlash, so'rovga asoslangan o'rganish va akademik mukammallikni rag'batlantiradigan qiyin va qat'iy o'quv dasturini taklif etadi hamda izlanish, ochiq fikrlilik va dunyoda ijobiy o'zgarishlar kiritish majburiyati kabi qadriyatlarga katta e'tibor beradi. Bu dastur talabalarga oliy ta'limda va undan tashqarida muvaffaqiyatga tayyorlaydigan yuqori sifatli ta'lim berish uchun mo'ljallangan. IB dasturi tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari va mustaqil so'rovlarga katta e'tibor beradi. Ushbu ko'nikmalar oliy ta'limda muvaffaqiyatga erishish uchun, ayniqsa, tadqiqotni talab qiladigan fanlarda juda muhimdir. IB dasturining nafaqat akademik mukammallikni, balki xarakterni rivojlantirish va ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z ichiga olgan yaxlit ta'limga qaratilganligi ko'plab oliy ta'lim muassasalarining maqsadlariga mos keladi. Universitetlar ko'pincha kengroq istiqbolga ega va jamiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatish majburiyatiga ega bo'lgan talabalarni qidiradi. Masalan, Garvard, Oksford va Sidney universiteti kabi universitetlar IB dasturining ahamiyatini tan oladilar va qabul jarayonlarida IB bitiruvchilarini faol ravishda qidiradilar.

Bularsifatli ta'lim modellarining bir necha misolidir. Ta'lim muassasalari ko'pincha ushbu modellarni o'zlarining aniq maqsadlari va kontekstlariga mos ravishda moslashtiradilar. Samarali sifatli ta'lim modellari talabalarni jalb qilish, tanqidiy fikrlash va muammolarni halqilishni rivojlantirish va o'quvchilarni doimiy rivojlanayotgan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlashga qaratilgan.

**Xulosa va takliflar.** Muhokama davomida biz sifatli ta'limning tarixiy rivojlanishidan tortib, aniq ta'lim nazariyalari va modellarigacha bo'lgan keng ko'lamli ta'lim mavzularini o'rgandik. Shuningdek, biz turli xil ta'lim tushunchalarining ahamiyatini va ularning o'qitish va o'rganishga ta'sirini ko'rib chiqdik va shular asosida quyidagi taklif va tavsiyalar yuzaga keldi:

**So'rovga asoslangan ta'limni (IBL) amalga oshirishda:**

1. talabalarni savollar berishga va haqiqiy muammolarni o'rganishga undash.

2. talabalar o‘z-o‘zidan so‘rov o‘tkazishda ularga yo‘l-yo‘riq va yordam bering.
3. guruh loyihalari orqali hamkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. loyihaga asoslangan ta’limda (PBL):
4. o‘quv maqsadlariga mos keladigan haqiqiy loyihalarni ishlab chiqish.
5. talabalar o‘rtasida hamkorlik va jamoaviy ishlashga yordam berish.
6. Ham mazmunli bilimlarni, ham tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni baholash.

**Kompetensiyaga asoslangan ta’limda (CBE):**

7. aniq va o‘lchanadigan kompetentsiyalarni yoki ta’lim natijalarini belgilash.
8. talabalarningturliehtiyojlariniqondirishuchunindividuallashtirilganta’lim yo‘llarini yarating.
9. qobiliyatni o‘zlashtirishni baholash uchun turli baholash usullaridan foydalanish. Xalqaro bakalavr (IB) dasturida:
10. talabalarni CAS (Creativity, Activity, Service) tajribalarida qatnashishga undash.
11. IB dasturida ishlab chiqilgan global istiqbol va so‘rovga asoslangan ko‘nikmalarni ta’kidlash.
12. IB, PBL va CBE bitiruvchilarining hissalarini tan olish.
13. universitetdasturlaridaglobalistiqbollarvaso‘rovgaasoslanganta’limning integratsiyalashuvini rag‘batlantirish.

**Adabiyotlar**

1. Sh.Mirziyoyev. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi" T: "O‘zbekiston", 2021.
2.O‘zbekistonRespublikasiPrezidentiShavkatMirziyoevning2022yil12dekabrdaOliy Majlis va
3.O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/5774).
4.IwuCG,EzeudujiIO,IwuIC,IkebuakuK,TengehRK.AchievingQualityEducationby UnderstandingTeacherJobSatisfactionDeterminants.SocialSciences.2018;7(2):25. https://doi.org/10.3390/socsci7020025.
5юhttps://www.researchgate.net/publication/45266859_Education_Quality_Process_Model_and_Its_Influence_on_Students’_Perceived_Service_Quality.

## ALOQALARNI MUSTAHKAMLASH: O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA O‘RTASIDA MENEJMENT HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH

**O‘roqova Shaxzoda**
**Maktab menejmenti yo‘nalishi, Navoiy Davlat Pedagogika instituti**

**Annotatsiya.** Mamlakat iqtisodiyotida erishilgan samarali natijalarning tashkil etishi boshqarish tizimining samaradorligidan dalolat beradi. Germaniyada menejmentning asosiy maqsadlari, maksimal foyda olish va aktsiyadorlarga dividendlar to‘lashni ta’minlashdan iborat. Xususuan davlatimizda Germaniya mamlakati bilan hamkorliklarning mustahkamlanishi, zamonaviy nemis boshqaruv tizimining xususiyatlarini o‘rganadi va menejment sohasiga ham katta o‘zgarishlar olib keladi.

**Kalit so‘zlar:** Germaniya, nemis menejmenti, iqtisod, ijtimoiy-siyosiy, “O‘zbekiston-Germaniya” do‘stlik jamiyati, klassik boshqaruv.

**Аннотация**. Достигнутые в экономике страны эффективные результаты свидетельствуют об эффективности системы управления. В Германии основными целями менеджмента являются максимизация прибыли и обеспечение выплаты дивидендов акционерам. В частности, укрепление сотрудничества со страной Германия в нашей стране позволит изучить особенности современной немецкой системы управления и внести большие изменения в сферу управления.

**Ключевые слова:** Германия, немецкий менеджмент, экономика, общественно-политическая, общество дружбы «Узбекистан-Германия», классический менеджмент.

**Annotation.** The organization of effective results achieved in the country's economy indicates the effectiveness of the management system. In Germany, the main goals of management are to maximize profits and ensure the payment of dividends to shareholders. In particular, the

strengthening of cooperation with the country of Germany in our country will study the features of the modern German management system and bring great changes to the field of management.

**Key words:** Germany, German management, economy, socio-political, "Uzbekistan-Germany" friendship society, classical management.

**Kirish.** Barcha sohalarni rivojlantirish tarixiy tajribadan foydalanishga asoslanadi. Bu bizning dunyomizning ajralmas qismidir. Tarixni oʻrganish uning rivojlanish tendentsiyalari va sur'atlarini aniqlash imkonini beradi, bu fanlar rivojlanishining dastlabki bosqichlarida yoʻl qoʻyilgan xatolarni aniqlashga katta yordam beradi. Oʻtmishni bilish bugungi kunni tushunish va kelajakka qarashni anglatadi. Tarixni oʻrganishda voqealar oʻrtasidagi bogʻliqliklar tahlil qilinadi va ularning takrorlanish imkoniyatlari baholanadi. Shuningdek, boshqa odamlarning yutuqlari va muvaffaqiyatlaridan oʻrganish, bu shunga oʻxshash vaziyatlarga yechim topishda katta tajriba boʻlib xizmat qiladi.

Richard L.Daftning “Menejment” kitobiga koʻra, tashkilotlarga ta’sir etuvchi uchta asosiy tarixiy kuchlar mavjud: • ijtimoiy • siyosiy • iqtisodiy[1]

**Tahlil va natijalar.** Hozirda menejment tizimini takomillashtirish yoʻllaridan biri xorijdagi menejment tajribasini tahlil qilish va uni korxonangizda qoʻllashdir. Mamlakatimiz menejmentini oʻrganish, boshqa mamlakatlar va kompaniyalarda qisman qoʻllanilishi mumkin boʻlgan noyob boshqaruv tajribasini ishlab chiqishdan iborat. Bunday tajribali menejment tizimiga ega Yevropadagi rivojlangan mamlakat bu albatta Germaniya. Nemis menejment tizimining ilgʻor tajribalarini tadqiq qilish va kelgusida qoʻllash boshqa koʻplab kompaniyalarning rivojlanishiga turtki berishi mumkin. Bundan tashqari, har qanday nemis kompaniyasida martaba qurmoqchi boʻlganlar uchun Germaniyaga xos boʻlgan boshqaruv xususiyatlari bilan oʻz uslublarini uygʻunlashtira olishlari kerak.

Germaniyada yetakchi iqtisodiy mamlakatlarning boshqaruv xususiyatlarini ularning rivojlanayotgan boshqaruv madaniyati va boy toʻplangan tajribasi bilan bogʻliq holda oʻrganish zarurati hisoblanadi. Germaniya katta boshqaruv va ishlab chiqarish tajribasiga ega, bu yerda mahsulotlari butun dunyoda xaridorgir boʻlgan yetakchi kompaniyalar rivojlanib, faoliyat yuritmoqda.

sotishni ko‘zda tutadi. Shu bilan birga, mahsulotning bir qismi tovarlar sifatida ishlab chiqariladi va sotiladi, bir qismi esa tovar sifatida ishlab chiqarilib, ijtimoiy ne’matlar sifatida realizatsiya qilinadi. Xizmatlar shaklida ijtimoiy ne’matlarni ishlab chiqarish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi, u xizmatlar nomoddiy asosda ishlab chiqarilishi bilan va ularning iste’molchisi ma’lum ob’ektiv qonuniyatlarga muvofiq, lekin, individual tarzda jismoniy va aqliy rivojlanayotgan inson ekanligi bilan bog‘liq bo‘ladi.Shunga yarasha, iste’mol qilinadigan ijtimoiy xizmatlarning miqdori va sifatiga bo‘lgan ehtiyojlar ham individual bo‘ladi. Shunday qilib, ijtimoiy soha tashkilotlarining soni va kattaligi xizmatlarning ma’lum guruhlari miqdori iste’molchilarining miqdori bilan, iste’molchiga hududiy yaqinligi talablarini hisobga olib, belgilanadi. Xizmatlarga bo‘lgan talabning mahalliyligi muammosini mahalliy ijtimoiy ne’matlar (local public goods) nazariyasini yaratgan Ch.Tibu tadqiq etgan edi. Tibu ularni har qanday alohida olingan geografik joylashuv uchun o‘ziga xos bo‘lgan ne’matlar kabi belgilagan, iste’molchilar esa o‘z yashash joyi yuzasidan qaror qabul qilganda taqdim etiladigan ijtimoiy ne’matlarning miqdori va turlari yuzasidan ham tanlab olishi mumkin. Ularning jami foydalari, yangi doimiy yashovchilar ulardan biror bir qo‘shimcha xarajatlarsiz foydalanishi mumkin bo‘lsada, shunga qaramay, bitta mahalliy jamoa bilan cheklanadi. Shuningdek, ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish jarayoni moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayonidan shunisi bilan farq qiladiki, xizmatlarni saqlash, tashish, boshqa iste’molchiga foydalanishga berish mumkin bo‘lmaydi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishning ushbu xususiyati iste’molchi tomonidan ularning xususiyatlarini baholash va tanlash imkoniyatini qiyinlashtiradi. Davlat institutsional majburlash mexanizmlarini nafaqat fuqarolardan davlatga, balki ayrim fuqarolardan boshqa fuqarolarga moliyaviy oqimlarning o‘tishi yo‘li bilan amalga oshiradi. Bunday vaziyat esa yuqoriroq daromad darajasi bo‘lgan fuqarolar davlatga ko‘proq hajmda soliq to‘laganda va bu soliqlar hisobiga davlat jamiyatning barcha tabaqalari foydalana oladigan ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqaradigan holda yuzaga keladi. Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining bozor institutidan asosiy farqi quyidagilar hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutiga xususiy soha korxonalari kiradigan bo‘lsa ham, ularning ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishi davlat moliyalashtiruvi hisobiga amalga oshiriladi, shuning uchun aholi xususiy sohada ishlab chiqarilgan ijtimoiy xizmatlarni nobozor asosida, iqtisodiy ahamiyatsiz narxlar bo‘yicha iste’mol qiladi, ayni paytda bozorda aholi xususiy sohada ishlab chiqarilgan ijtimoiy xizmatlarni bozor narxlari bo‘yicha sotib oladi. Quyida bozor instituti va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining qiyosiy xususiyatlari keltirilgan. Bozor instituti va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish institutining qiyosiy xususiyatlari: tizimning elementi, bozor instituti ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish; instituti maqsadi esa foyda olish, aholiga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish orqali “bozor cho‘kishlarini” kompensatsiyalash sub’ekti xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va aholi Iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga kiruvchi institutsional birliklar ob’ekti aholi mexanizmlari bozor raqobati pulkredit, moliyaviy, monopoliyaga qarshi, tabiatni muhofaza qilish siyosati fikrimizcha, jamiyat uchun zarur bo‘lgan hajmida ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning ijtimoiy sohasiga resurslarni kiritmagan holda mumkin bo‘lmaydi. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish iqtisodiyotning bozor sohasiga investitsiya kiritishga nisbatan kamroq investitsiyaviy jozibador bo‘lishi iqtisodiyotning ijtimoiy sohasining o‘ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarish investitsiyalarida investitsiyaviy jozibadorlikning deyarli barcha asosiy ko‘rsatkichlari pastroq bo‘ladi, jumladan – o‘zini oqlash muddatining uzoqligi. Ijtimoiy xizmatlarni nobozor asosida ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxona xususiy investitsiyalarni jalb qilishga erisha olmaydi va davlat ko‘magisiz faoliyat yurita olmaydi. Davlat mablag‘larini ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqarishga investitsiyalash zarurligi, fikrimizcha, inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish zarurligi shaklidagi institutsional sabab tufayli yuzaga keladi va iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etib mamlakat iqtisodiyotining yuksalishiga hissa qo‘shadi. Shuning uchun ham ta’lim tizimi va ilmfan taraqqiyoti O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo‘nalish sifatida isloh qilib boriladi. Ta’limning milliy iqtisodiyotga ta’sirini (Mt) ma’lum ko‘rsatkichlar asosida baholashning ilmiy uslubiy yondashuvida quyidagi ifoda yordamida hisoblash mumkin bo‘ladi: Tx Mt = * 100% YAIM Bunda: Tx- bir yilda ta’limga sarflangan xarajatlar miqdori. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi o‘rni, jumladan,

ta'lim tizimining milliy iqtisodiyotga ta'siri uni YAIM ni yaratishdagi hissasi bilan ham ahamiyatlidir. 2019-yilda ham davlat byudjetidan ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'ning 37 foizidan ortig'ini ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilishi o'z samarasini berdi.[7]Bu o'z o'rnida jamiyat tomonidan ta'lim tizimiga yo'naltirilgan mablag'larning samarasi sifatida iqtisodiyot rivojlanishiga natija berdi. Buning uzviyligi shundaki, insonning bilimi, malakaviy ko'nikmalari qanchalik yuqori bo'lsa, daromadi ham shunchalik ortadi va iste'molchi sifatida real sektorga ko'proq hissa qo'shadi, jumladan: Birinchidan, ta'lim tizimi resurslar bozoriga ta'sir ko'rsatadi, chunki ishchi kuchi sifati, malakasi uning bilim darajasiga bog'liq; ikkinchidan, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari yuqori texnologiyalar yordamida birlashadi, bu esa ishchining axborottexnologik madaniyatini o'zlashtirishi o'quv jarayonida olgan bilim va ko'nikmasiga bog'liq; uchinchidan, ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko'rsatishi uni boshqarishga, ya'ni ilmiy asoslangan menejment sohasidagi bilim va malakasiga bog'liq bo'ladi. Umuman olganda, ta'lim va ilm fan bog'likligidagi iqtisodiy munosabatlar natijasida ishlab chiqarish samaradorligining oshishi tufayli innovatsiyalar, sifatli kadrlar, samarali boshqaruv, ya'ni inson kapitali orqali YAIM hajmi ortib aholining turmush farovonligi yaxshilanadi. Insonni "..tabiat bergan qobiliyatlar hamda ta'limtarbiya tizimi singdirgan va o'z-o'zini yaratish bo'yicha o'z faoliyati natijasida ega bo'lgan qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalarining ma'lum miqdori birikmasi, tabiiy qobiliyatlari ro'yobga chiqishi uchun ham individning o'zi, ham, birinchi navbatda, umuman jamiyat tomonidan ma'lum sharoit yaratilishi lozim bo'ladi (masalan, ta'lim rivojlanishi va olinishi mumkinligi, ta'lim samaradorligi va hokazo)". Iqtisodiy nazariyada jamiyat tomonidan inson kapitalini shakllantirish sharoitlari deganda inson kapitaliga investitsiyalar tushuniladi. Inson kapitali investitsiyalar natijasi bo'lib chiqadi. Tadqiqotchilar investitsiyalarnig uchta asosiy turini ajratib ko'rsatadi: ta'lim xarajatlari, sog'liqni saqlash xarajatlari, mobillik xarajatlari. O'z navbatida, inson kapitali jamlanib borgan sari uning daromadliligi ortib boradi. Kapitalning o'zi inson kapitalini qayta ishlab chiqarishning asosi bo'ladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish kerakki, davlat aholisiga taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlar inson kapitaliga investitsiyalar bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida, jamlangan inson kapitali ijtimoiy xizmatlarni keyingi qayta ishlab chiqarish uchun aqliy, ijodiy baza bo'lib hisoblanadi. Inson kapitaliga investitsiya kiritish muddatiga ko'ra uzoq va xususiyatiga ko'ra integral bo'lgan ma'lum iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi lozim, u keng ko'lamli inson ehtiyojlarini qondirish, hayot sifatini oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash shaklida ifodalanadi.[8] Inson kapitalidan foydalanish samarali bo'lishi lozim. Mos holda, biz inson kapitaliga investitsiyalar deb ta'riflagan ijtimoiy xizmatlarni ham ularning sifat xususiyatlari – samaradorligi, yakuniy natijaga qaratilganligi nuqtai nazaridan qarash lozim. Shunday qilib, fikrimizcha, ijtimoiy rivojlanish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning iqtisodiy munosabatlar tizimidagi roli o'zgara boshlaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishning inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan, innovatsion, sifat jihatlari birinchi o'ringa chiqadi. Shu bois, biz magistrlik ishida "xizmat" "xizmat ko'rsatish" va "ijtimoiy xizmat" hamda "davlat sohasi" va "ijtimoiy soha" tushunchalarining ilmiy nazariy asoslarini va amaldagi xususiyatini qiyosiy tahlil etish asosida "ijtimoiy xizmat"larga o'z mualliflik talqinimiz berish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda va aholi turmush darajasini oshirishdagi ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini baholashni, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishning hozirgi holatini takomillashtirishga qaratilgan takliflarni tavsiya etish vazifasini belgilab olganmiz.

## Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y.
2. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz." O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / SH.M.Mirziyoev. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2016. 56 6. 3.Toshboyev A."Aholi turmush farovonligini oshirishda ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish yo'llari". Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. TerDU – 2014 y. 78 b. B.:18.

6.Ro‘ziyev.Z. Harakatlar strategiyasi: Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Manba: “postda.uz” rasmiyvebsayti.
7.Гринэуэй Д. Панорама экономической мысли конца XX столетия. В 2т. СПб.: Экономика, 2002.Т.1 С.416424 17
8.Цыренова Е.Д, Сактоев В.Е., Баженова В.С. Формирование и динамика человеческого капитала транзитивной экономики. – УланУдэ Издво ВСГТУ, 1999. С. 37. 20

## MATEMATIKA SOHASINING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

**Qosimov Otabek Yobek o‘g‘li,**
**O‘zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi**
**Ilmiy rahbar: Bo‘ltakov Sardor**

**Kalit so‘z:** statistika, algebra, geometriya, integral, trigonometriya, analitik geometriya, turkumlar nazariyasi.

Matematika fani qadimgi davrdan mavjud bo‘lgan fan hisoblanib bugungi kunga qadar o‘zining ahamiyatini saqlab kelmoqda. Uzoq tarixda matematika asosan yer maydonlarini o‘lchash va davlatning iqtisodiy salohiyatini namoyish etishda foydalanilgan bo‘lsa, hozirgi davrda matematika hayotimizning barcha sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Misol uchun statistik ma’lumotlarni yaratish, birja, davlatlarning valyuta qadrini ya’ni inflatsiya va shunga o‘xshash boshqa turdagi barcha sohalarni qamrab oldi. Prezidentimiz 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashuvda: “Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda. Zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridandir”, deb ta’kidlagan edi. Matematika (qadimgi yunoncha:-„bilim“, „fan“)-aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan. Dastlabki obyekti sanoq bo‘lgani uchun ko‘pincha unga „hisob-kitob haqidagi fan” deb qaralgan (bugungi matematikada hisoblashlar, hatto formulalar ustidagi amallar juda kichik o‘rin egallaydi). Matematika eng qadimiy fanlardan biri bo‘lib, uzoq rivojlanish tarixini bosib o‘tgan va buning barobarida „matematika nima?” degan savolga javob ham o‘zgarib, chuqurlashib borgan. Yunonistonda matematika deganda geometriya tushunilgan. IX-XIII asrlarda matematika tushunchasini algebra va trigonometriya kengaytirgan. XVII-XVIII-asrlarda matematikada analitik geometriya, differensial va integral hisob asosiy o‘rinni egallaganidan so‘ng, to XX asr boshlarigacha u „miqdoriy munosabatlar va fazoviy shakllar haqidagi fan“ mazmunida ta’riflangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turli geometriyalar (Lobachevskiy geometriyasi, proyektiv geometriya, Riman geometriyasi kabi), algebralar (Bul algebrasi, kvaternionlar algebrasi, Keli algebrasi kabi), cheksiz o‘lchovli fazolar kabi mazmunan juda xilma-xil, ko‘pincha sun’iy tabiatli obyektlar o‘rganila boshlanishi bilan matematikaning yuqoridagi ta’rifi o‘ta tor bo‘lib qolgan. Bu davrda matematik mantiq va to‘plamlar nazariyasi asosida o‘ziga xos mushohada uslubi hamda tili shakllanishi natijasida matematikada eng asosiy xususiyat – qat’iy mantiqiy mushohada, degan g‘oya vujudga keldi [J. Peano, G. Frege, B. Rassel, D. Xilbert]. XX asr o‘rtalarida Burbaki taxallusi ostida matematika ta’rifini qayta ko‘rib chiqqan bir guruh fransuz matematiklari bu g‘oyani rivojlantirib, „Matematika - matematik strukturalar haqidagi fan“ degan ta’rif kiritdi. Haqiqatan ham matematikaning turli bo‘limlari real dunyoning fazoviy formalarini va miqdoriy munosabatlarini o‘rganishda o‘zining metodlarining turli tumanligi bilan ajralib tursada, yagonaligi va umumiyligi bilan yaxlit birlashtirib turadi.

Matematika fanining mazmuni quyidagicha:

1) uning rivojlanish jarayonida yig‘iladigan - faktlar;
2) faktlar asosida ilmiy tasavvurning shakllanishi - gipoteza. O‘z o‘rnida bu tajriba orqali tekshiriladi; hamda ularni nazariya va qonunlar ko‘rinishiga keltirish;
3) nazariya va qonunlarni o‘rganish, matematikani o‘rganishni xarakterlaydigan umumiy yo‘nalishlarni ifodalovchi metodolog;
4) faktlar va tajribalar natijalarini umumlashtirish.

Bu elementlar doimo o‘zaro aloqadorlikda va rivojlanishdadir.Ana shu aloqadorlikni va rivojlanishni o‘rganish bizlarni qanday tarixiy davrga olib borishini tushunish, ro‘yobga kelish

sabablarini aniqlash aynan mana shu matematika tarixining predmetini ifodalaydi. Shuning uchun matematika tarixi matematikaning rivojlanishining qonunlarini o‘rganuvchi fandir.Yuqoridagi aytilganlarga asosan matematika tarixi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak.

Birinchidan - matematikani fan sifatida rivojlanishining haqiqiy mazmuni yoritilishini. Bularda matematikaning metodlari, tushunchalari va fikrlari qanday paydo bo‘lganligi, ayrim matematik nazariyalar tarixan qanday dunyoga kelgani yoritilishini. Xalqlarda ma’lum tarixiy davrlarda matematikani rivojlanishini xarakteri va xususiyatlarini aniqlashni barcha zamondagi ulug‘ olimlarning qo‘shgan hissalarini yoritishni hal qilish.

Ikkinchidan - matematika tarixi matematikani turli-tuman aloqalarini ochishi, jumladan, matematikani odamlarning amaliy ehtiyojlari va faoliyatlari bilan aloqasini, boshqa fanlar rivojlanishi bilan aloqasini ochish, jamiyatning sotsial va iqtisodiy strukturasiga va sinfiy kurashlarga ta’sirini ochish, xalqlarning olim individining, olimlar kollektivining rolini ochishdan iborat. Uchinchidan - matematika tarixini o‘rganish hozirgi zamon matematikasini mantiqiy mazmunini, rivojlanish dialektikasini va kelajagini to‘g‘ri tushunishga yordam berishi kerak.Matematika juda qadimgi fanlardan biri bo‘lib dastlabki bosqichlarda o‘zaro muomala va mehnat faoliyatlari asosida shakllana boshladi. U asta-sekin rivojlana boshladi, ya’ni faktlar yig‘a boshladi. Matematika mustaqil fan sifatida vujudga kela boshlaganda uning bundan keyingi rivojlanishiga matematik bilimlarning o‘zi ham ta’sir eta boshladi. Matematika juda qadimgi fanlardan biri bo‘lib dastlabki bosqichlarda o‘zaro muomala va mehnat faoliyatlari asosida shakllana boshladi. U asta-sekin rivojlana boshladi, ya’ni faktlar yig‘a boshladi. Matematika mustaqil fan sifatida vujudga kela boshlaganda uning bundan keyingi rivojlanishiga matematik bilimlarning o‘zi ham ta’sir eta boshladi Shulardan ba’zilarini qayd etib o‘taylik.

I. Matematikaning ro‘yobga kelishi. Bu davr eramizdan oldingi VI-V asrlargacha davom etib, bu paytga kelib matematika mustaqil fan sifatida shakllanadi. Bu davrning boshlanishi esa, o‘tmish ibtidoiy davrga qarab boradi. Bu davrda matematika hali fan sifatida shakllanmagan bo‘lib, qilingan ishlarning xarakteri asosan kuzatish va tekshirish natijalari asosida materiallar to‘plashdan iborat bo‘lgan.

II. Elementar matematika davri. Bu davr eramizdan oldingi V-lV asrlardan boshlanib, to hozirgi XVI asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda asosan o‘zgarmas miqdorlarga oid masalalar atroflicha o‘rganilgan bo‘lib, bularning ba‘zilari o‘rta maktab kursiga kiritilgan , matematikaning bundan keyingi rivoji o‘zgaruvchi miqdorlarning kiritilishi bilan bog‘liq.

III. O‘zgaruvchi miqdorlar matematikasi. Bu davrning boshlanishi o‘zgaruvchi miqdorlarning kiritilishi, Dekart analitik geometriyasi vujudga kelishi, Nyuton va Leybnits asarlarida differentsial va integral xisobi tushunchalari paydo bo‘lishi bilan xarakterlidir. XVI asrdan to XIX asrgacha davom etgan bu davrda matematika jadal su’ratlar bilan rivojlandi, yangi bo‘limlar vujudga keldi. Barcha ilmiy yo‘nalishlarning bunday rivoji matematikani hozirgi zamon ko‘rinishiga olib kelinishiga sabab bo‘ldi. Hozirda biz buni matematikaning klassik asoslari deb yuritamiz.

IV. Hozirgi zamon matematikasi davri. Bu davrda yangi matematik nazariyalar, matematikaning yangidan-yangi tatbiqlari vujudga keldiki, u matematika predmetini mazmunini judayam boyitib yubordi. Bu esa o‘z navbatida matematika asosini (aksiomalar sistemasini, isbotlashning mantiqiy usullarini va boshqalar) hozirgi zamon matematikasining yutuqlari asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Ayni paytda Prezidentimizning 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llabquvvatlash, shuningdek, O‘zbekis ton Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivoj lantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar orqali matematika fani va ta’limini rivojlantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish uchun mavjud muammolarni bartaraf etish tizimi yaratib berildi. Masalan, matematika bo‘yicha xalqaro konferensiyalarda, talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan xalqaro olimpiadalarda, seminar treninglarda ishtirok etish imkoniyati yaratildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Matematika fani va ta’limini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘arma

mablag‘lari hisobidan matematika sohasidagi olimlar va yosh tadqiqotchilarning xorijdagi xalqaro ilmiy amaliy tadbirlarda ishtiroki ta’minlanmoqda. Talabalarning matematika fani bo‘yicha xalqaro olimpiadalardagi ishtiroki qo‘llab-quvvatlanmoqda, matematika ta’limi uchun zarur ilmiy va hisoblash asbob uskunalarini xarid qilish dasturlari amalga oshirilmoqda. Shiddat bilan o‘zgarayotgan bugungi zamonda kelajakni matematik asoslab qurish zarur. Chunki bugungi kunda atom bombadan ham xavfli, chegara bilmas muammolar bor. Masalan, kibertahdid, axborot xavfsizligi, optimizatsiya, virus tarqalishi xavfi [jumladan, bugungi kundagi koronovirus pandemiyasi] kabilar shular jumlasidandir.Bu zamonaviy muammolarni yechishda axborot texnologiyalari, dasturlash, matematik modellashtirish va kimyobiologiya kabi sohalarni rivojlantirish juda muhim. Bu sohalarning asosi esa, albatta, matematika!Matematika fanining biologiya, fizika, kimyo, kompyuter texnologiyasi, kriptografiya, musiqa, muhandislik, tibbiyot, adabiyot, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda qo‘llanish doirasi juda keng. Masalan, bugungi kunda kompyuter dasturchisi bo‘lishga qiziqish kuchaymoqda. Dasturlashning negizini esa matematika tashkil qiladi. Dastur matematik algoritmdir! Shunday ekan, matematik bilimlarni puxta egallamay turib, dasturlash sohasida yetuk mutaxassis bo‘lish aslo mumkin emasMatematikaning ba’zi nazariyalari insoniyatga misli ko‘rilmagan foyda olib keldi. Ba’zi ommabop misollarni keltiraman. Lobachevskiy geometriyasiga asoslangan GPS navigator tizimi transportning optimal harakatini aniq ta’minlab bermoqda. Markov zanjirlariga asoslanib qurilgan Google qidiruv dasturi insoniyat uchun katta imkoniyatlar yaratish bilan birga, dastur ijodkorlariga har daqiqada 37000 dollar daromad keltirmoqda. Matematika qonunlariga asoslanuvchi kriptografiya axborotni kodlab, begonalardan sir saqlash uchun ishlatiladi.Tibbiyotda lazer bilan davolash rivojlanib bormoqda. Masalan, buyrakdagi toshni lazer orqali maydalaydigan tibbiy asbob ellipsning geometrik xossalariga asoslangan.Bugun ko‘pgina fanlar qatori matematika ham global hamkorlik asosida rivojlanmoqda. Biz ham bu jarayondan chetda emasmiz. Institutimiz olimlari Bonn, Boxum, Kembrij, Lids, Parij, Seul, Santyago de Kompostela universitetlari va boshqa ilmiy markazlardagi hamkasblari bilan birgalikda qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshirmoqda.

Bugungi kunda yuqorida ta’kidlangani kabi mamlakatimizda juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, prezidentimiz tomonidan maktablarda matematika fanini tadbiq qilishda rivojlangam mamlakatlar uslubidan foydalanish va chet ellik tajribali mutahasislar tomonidan tuzilgan darsliklardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu asosida yuqori sinf o‘quvchilariga tanlov fani sifatida matematika fani alohida qo‘yilishi va ushbu fanni tanlagan o‘quvchilar bilan maktabning yuqori ko‘nikmaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning darsdan tashqari alohida shug‘ullanishi matematika sohasida iqtidori bor yoshlarni yuzaga chiqaradi. O‘ylaymanki, bugungi kunda ilmfanga, xususan, matematikaga berilayotgan bunday e’tibor yaqin kelajakda o‘z mevasini berishni boshlaydi. O‘zbekiston iqtisodiyotini, ta’lim tizimini, ijtimoiy hayotini, odamlarning yashash sharoitini dunyo miqyosida yuqori nuqtalarga olib chiqadigan kadrlar yaqin yillarda yetishib chiqishiga ishonchim komil.

**Adabiyotlar**


1. Alixonov.S “Matematika o‘qitish metodikasi”.[darslik] T.;”Cho‘lpon” , 2011, 6,7,53-betlar.
2. Ikromov J.”Maktab-matematika tili”.T.,”O‘qituvchi” ,1977, 304,305-betlar.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Matematika#
4. https://yuz.uz/uz/news/mamlakatimizda-matematika-fanining-yangi-tarixi


## ULUG‘BEK OBSERVATORIYASINING BOSH ASTRONOMIK QURILMASI-SEKSTANT


**Sattorov A.R – dotsent, NavDPI**

**Aliqulova F.J, Norbekova M.T. – NavDPI 3-kurs talabalari,**



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ulug‘bek astronomiya maktabining bosh astronomik qurilmasi sekstantning tuzilishi uning astronomiya fani bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘rganish fanning tarixi va rivojlanishidagi o‘rni haqida, unda olingan ma’lumotlardan keng foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** faxri sekstanti, sekstant radiusi, Quyosh, Oy, Ulug‘bek observatoriyasi, qo‘sh yoyli sekstant.

Astronomik kuzatishlar astronomiya o‘qitishda muhim o‘rin egallaydi, ular o‘quvchilarda osmon yoritkichlarini va ularni ko‘rinishi to‘g‘risida ma’lum ko‘nikmalarning shakllanishiga olib keladi. X asrda yaqin sharqda Quyoshni tasvirini dioptr yordamida olishga asos solindi. XV asr Samarqand astronomlari bu usulni Quyoshning balandligini o‘lchashga qo‘llaydilar. Yevropada dioptrik usul XVIII-XIX asrlarda suratga tushirishda, suratni chizishda keng qo‘llanilgan.X-XIV asrlarda musulmon davlatlarida ekliptikaning osmon ekvatoriga og‘maligini aniqlashda Faxri sekstantidan foydalanganliklari haqida ko‘p sonli ko‘rsatmalar mavjud. Faxri sekstanti Reyda (Eron) Sulton Faxr Ad-Davla saroyida ishlagan Xo‘jandlik Mahmud Hamid Al-Xo‘jandiy tomonidan ishga tushirilgan va shu sulton sharafiga Faxri sekstanti deb nomlangan. Faxri sekstanti radiusi 20 metr bo‘lgan va bu asbob yaqin sharq astronomik observatoriyalarida keng qo‘llanilgan. Nasriddin At-Tusiy (Marog‘a observatoriyasi), Ibn Yunus (Iroq) lar ham shunday asboblar yasashadi. Ulug‘bek 1427-yilda bunday asbob qurishga kirishadi. Bu asbobda Quyoshning aniq tasvirini olish uchun asbobning kirish teshigi 1sm atrofida bo‘lishi kerak. Tasvirni olish uchun tuynug kengligi (d) va undan sekstant yoyi tekisligigacha bo‘lgan masofa (u R- sekstant radiusiga teng), difraksiya tasvirni buzmaydigan sharoit bo‘lishi uchun bo‘lishi kerak.

$$R\lambda = \frac{d^2}{4}$$

Ana shu shart bajarilganda difraksiya tasvirning aniqligini buzmaydi. Ulug‘bek observatoriyasining bosh instrumentining kirish teshigi 1sm atrofida bo‘lgan. Quyosh tasviri birinchi g‘arbiy yoyda keyin esa sharqiy yoyda hosil bo‘lgan. Kuzatuvchi ikkala yoyda hosil bo‘lgan tasvirlarning o‘rtacha qiymatini oladi. Bunday usulda olingan Quyosh tasvirining o‘lchami 38 santimetrli gardishdan iborat bo‘ladi. Observatoriyaning faoliyatini aks ettirgan ko‘plab tarixiy manbalar bu asbob, asosan, Quyosh, Oy va planetalarni kuzatishga mo‘ljallangan asbob bo‘lganligini tasdiqlaydi. Samarqand sharoitida osmon ekvatorining gorizontga og‘maligi $50^0$ atrofida (chunki Samarqandning kengligi taxminan $40^0$ , ($90^0$- $40^0$ = $50^0$ ) bo‘lib, Quyoshning yillik ko‘rinma yo‘li tekisligining osmon ekvatoriga og‘maligi $23^0$ $26^{'}$ bo‘lganligi sababli u yerda Quyoshning balandligi yil davomida $26^0$ ,5 dan $73^0$ ,5 gacha o‘zgaradi. Oy orbitasi tekisligining ekliptika tekisligiga og‘maligi $5^0$ $9^{'}$ ligini e’tiborga olsak, Samarqandda Oyning balandligi $21^0$ ,5 dan $78^0$ ,5 gacha o‘zgarishi ma’lum bo‘ladi [2]. Garchi observatoriyaning bosh “teleskopi” aslida qanaqa bo‘lganligi ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lib kelayotgan bo‘lsada, uning ichki qismi sekstant bo‘lganiga hech shubha yo‘q. Samarqand shahri kenglamasida Quyosh, Oy va oddiy ko‘z bilan ko‘rinadigan sayyoralarning “izi” bu asbobda “aks qilinganda” ularning balandligi, asbob yoyining $20^0$ darajasidan $80^0$ darajasigacha bo‘lgan qismida aks qilib, taxminan 60 $^0$ darajali ($80^0$- $20^0$ = $60^0$ ) yoyni tashkil qiladi. Bu degani observatoriya bosh teleskopining yoyi aylana yoyining (oltidan bir)qismini, ya’ni sekstantni tashkil qiladi. Binobarin, astronom G‘.Jalolovning 1947-yilda Sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining “Astronomicheskiy jurnal” ida bosolgan “Sekstan kak glavniy instrument Samarkandskoy Observarorii” maqolasida aytilganidek Ulug‘bek observatoriyasi bosh “teleskop”i sekstantligiga keltirilgan dalillari, ayrim kishilarning haligacha maskur asbobni asossiz ravishda kvadrant deb ishlatishlariga hech o‘rin qoldirmaydi [1].

Ulug‘bek observatoriyasining bosh qurilmasi, Faxriy sekstantiga o‘xshash, lekin boshqa jihatlari bilan undan keskin farq qiluvchi mukammallashtirilgan astronomik jihoz-bino – qo‘sh yoyli sekstantdan tashkil topgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Azizov S. Markaziy Osiyoda astronomiya va Ulug‘bek maktabi. T.: O‘zbekiston, 2009.
2. Mamadazimov M. Astronomiya. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. -T.: O‘qituvchi, 2007.

# POWER POINT DASTURIDAN YANGICHA YONDASHUV VA IJODKORLIKNI OSHIRISH

**M.A.Sayitova, O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti**
**Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi**

**Annotatsiya.** Maqolada Power point dasturi asosida ijodkorlikni oshirish hamda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishini, ta’limning dunyo ta’limi tizimiga integratsiyalashuvini, taraqqiy ettirish jarayonlarining rivojlanishini ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qitish texnologiyalariga yangicha yondashuv zarurligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Power point, animatsiya, elektron darsliklar, demokratsiya, integratsiyalash, tasviriy san’at, elektron plyonka, grafik obyekt ,zamonaviy texnologiya

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish darajalarini yana bir bora ko‘rib chiqishni talab etadi. Respublikamizda bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlar ta’lim sohasida ham ma’lum yangiliklar, tubdan o‘zgarishlar bo‘lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma’suliyat yuklaydi. Jahon ta’limi amaliyotida qo‘llanilayotgan asosiy o‘qitish texnologiyalari quyida keltirilgan:

1. O‘yinli texnologiyalar.
2. Muammoli o‘qitish texnologiyasi.
3. Tabaqalashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
4. Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
5. Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi.
6. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi.

Taqdimot muharrirlarining maqsadi turli jarayonlar uchun taqdimotlar yaratishdan iborat. Bu maqsadda MicroSoft firmasi foydalanuvchilarga Power Point dasturini yaratgan. Slaydlar yaratishning usullarini Power Point 2016 varianti orqali tanishamiz. Power so‘zining ma’nosi “biror bir narsaga jon bag‘ishlash” yoki “qurilmalarni yoqish” kabi ma’nolarni anglatadi. Point so‘zining ma’nosi esa “nuqta” degani. Demak, Power Point so‘zining ma’nosi “nuqtani ishlatish”, “nuqtaga jon kiritish” ma’nolari bilan mos keladi. Power Point taqdimot yaratish dasturlari ichida eng yaxshisi va qulay dastur hisoblanadi. Sababi WORD, Excel dasturlari bilan ishlashni o‘rgangan foydalanuvchilar uni tez o‘zlashtiradilar. Ma’ruzachi biror axborotni tinglovchiga yetkazishda namoyish materiallaridan foydalanadi. Namoyish materiallari qog‘oz, elektron, plyonka, va prospektlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Power Point ushbu ko‘rinishdagi namoyish materiallarini tayyorlashda qo‘llaniladigan asosiy dastur hisoblanadi. Power Point dasturida inson faoliyatidagi (biror sohada) namoyish uchun to‘plangan materiallarni slaydlarga joylashtirish, ularni multimedia (matn, audio, video, animatsiya va grafik ob’yekt)lardan foydalanib shakllantirish, masalan: matn mazmunini rasm ko‘rinishida tasvirlash, maxsus effektlar yordamida bezash orqali tezkor taqdimotlar yaratishni ta’minlaydi. Power Point dasturi va uning ish oynasi Power Point dasturida ikkita asosiy tushuncha mavjud, slayd - multimedia tizimlarini ko‘rsatuvchi sahifa va taqdimot - slaydlar va maxsus effektlar to‘plami bo‘lib, u bitta faylda saqlanadi. Power Point boshqa dasturlar bilan chambarchas bog‘langan. Power Point taqdimotlarini yaratishda Word matnlarini, Excel elektron jadvallarini va grafikani bog‘lash mumkin. MS Power Point dasturi yordamida turli mazmundagi ma’ruzalar, hisobotlar, dasturlar va shu kabi hujjatlarni slaydlar tarzida tayyorlash mumkin. POWER POINT dasturining imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

• Taqdimot (prezentatsiya) va slaydlar tashkil qilish;
• Rasm va grafiklarni slaydlarga joylashtirish;
• WEB uchun taqdimot (prezentatsiya) tashkil qilish;
• Internetda hamkorlikda ishlash;
• MS OFFICE dasturlari bilan hamkorlikda ishlash.[1]

Power Point 2016 dasturini ishga tushirish Power Point 2016 dasturini yuklashdan oldin Windows 10 amaliyot tizimi dasturini yuklash lozim. Bu esa sodda, ya'ni hozirgi paytda kompyuter yuklanishi bilan amalgaoshadi. Power Point dasturini yuklash jarayoni quyidagicha: "Sichqoncha" ko'rsatkichi ekranning quyi qismida joylashgan Пуск (Start) tugmachasiga keltirilib chap tugmasi bosiladi. So'ngra ekranda hosil bo'luvchi dasturlar ro'yxatidan PowerPoint 2016 tanlanadi va "sichqoncha" chap tugmasi bosiladi:

Natijada kompyuter ekranidagi quyidagi boshlang'ich oynadan dastur taklif qilayotgan slaydlarning ko'rinishlardan biri, masalan, [Пустаяпрезентация] tanlanadi. Natijada ekranga Power Point 2016 dasturining ish oynasi hosil bo`ladi. Tez foydalanish paneli– foydalanuvchiga qulaylik yaratish uchun tez-tez foydalanib turiladigan buyruqlarning belgisini joylashtirish va zarur bo'lganda foydalanish imkonini beradi. Unga yangi buyruqlarni qo'shish uchun panelning oxiridagi tugmaga kelib "sichqoncha" chap tugmasini bosish kerak. So'ng ro'yxatdan kerakli buyruqlarni tanlash lozim. Sarlavha satrida ayni vaqtda tayyorlanayotgan hujjatning (faylning) nomi va muharrirning nomi aks etadi. Excelda tayyorlanayotgan taqdimot (презентация) deb nomlanadi. Вид. 1. Dasturning Файл lentasi fayllar ustida turli amallarni bajarishga imkon beruvchi buyruqlardan tashkil topgan: Сведения - fayl haqida turli ma'lumotlarni olish; Создать – yangi fayl hosil qilish; Открыть – mavjud faylni ochish; Сохранить – faylni saqlash; Сохранитькак – faylni boshqa nomda saqlash; Печать – faylni chop etish; Закрыть – dasturni yopish. 2. Dasturning Главная - bosh lentasi Windows buferi bilan ishlash (Буферобмена), slaydalar yaratish (Слайды), slaydlardagi shrift turlari, o'lchami, ko'rinishlarini o'zgartirish (Шрифт), abzatslar bilan ustida turli amallar bajarish (Абзац), slaydlarga turli shakl va rasmlar qo'yish (Рисование) hamda slaydlarni tahrirlashga (Редактирование) imkon beradi: 3. Dasturning Вставка – qo'yish, o'rnatish lentasi slaydlar hosil qilish, jadvallar, shakllar, diagrammalar, havolalar, turli obyektli matnlar, izohlar va belgilarni hamda multimedia amallarini (videoyozuv, ovozlarni) slaydlarga qo'yish uchun zarur bo'lgan buyruqlardan tashkil topgan: 4. Dasturning Дизайн – dizayn lentasi yordamida taqdimot mavzusiga mos ko'rgazmali ko'rinishlarni tanlash, turli variantlardan foydalanish, slayd o'lchamini va fonini o'zgartirish kabi amallarni bajarish mumkin: 5. Dasturning Переходы - slaydlarga o'tish lentasi slaydlarni ekranga turli effektlarda chiqishini ta'minlab, slaydlarni ovoz bilan chiqishi va slaydlarni almashish vaqtini belgilashga imkon beradi: 6. Dasturning Анимация - obyektlarga animatsiya (harakat) berish lentasi buyruqlari animatsiya elementlarini qo'yish, animatsiya effektlarini o'rnatish, animatsiya sohasini belgilash, animatsiya tartibini o'zgartirishga mo'ljallangan: 7. Power Pointning Слайд-шоу lentasi yordamida slaydlarni ko'rishni boshlash, ko'rish vaqtini belgilash va slayd-shouni sozlash kabi amallarni bajarish mumkin: 8. Dasturning navbatdagi Рецензирование – taqrizlash lentasi buyruqlari slaydlarda imloni tekshirish, yozuv tilini o'zgartirish, slaydlarga izohlar qo'yish, yozuvlarni qo'lyozma ko'rinishda yozish kabi amallarni bajarishga imkon beradi: 9. Power Point dasturining Вид – ko'rinish lentasi slaydlarni ko'rish rejimi xususiyatlarini o'zgartirish, masshtablar, oynalar va makroslar bilan ishlashga xizmat qiladi:¬Рецензирование; ¬Слайд-шоу; ¬Анимация; ¬Переходы; ¬Дизайн; ¬Вставка; ¬Главная; ¬Файл; ¬ Agar yangi hujjatga nom berilmagan bo'lsa, u holda doimiy qabul qilingan birinchi hujjat uchun Презентация ikkinchisi uchun Презентация va hokazo nomlar beriladi. POWER POINT dasturi lentalari Power Point 2016 dasturida quyidagi lentalardan foydalaniladi. Power Pointda dasturining asosiy elementlari, animatsion effektlar. Faraz qiling, Siz odamlar bilan to'la majlislar zalidasiz. Shu yerdan turib o'zingizning yangi fikrlaringizni bo'lg'usi mijozlaringizga etkazish uchun imkoniyat paydo bo'ldi. Ushbu imkoniyatni amalga oshirishda Power Point yordamga keladi. Bu dastur har xil video-klip va animatsiyalardan foydalanib taqdimot yaratish orqali, o'z fikringizni tushunarli qilib yetkazib berish imkoniyatini beradi.Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda reklamalarga juda keng e'tibor berilmoqda. Reklamalarning har xil ko'rinishlari: sahifalar, e'lonlar, tele va radio reklamalar sizga ma'lum. Bugungi kunda kompyuter - reklamalarini yaratish va tarqatish bo'yicha eng kuchli vositaga aylandi. Reklama namoyishini yaratish bu ko'p vaqtni talab qiladigan, juda muhim va ma'suliyatli jarayondir. Bu o'rinda sizdan talab qilinadigani rasmlar, animatsiya (harakat), qisqa matnlardan iborat ssenariyni o'ylab topishdir. Namoyish(prezentatsiya)lar va slayd-filmlar tayyorlashda eng

effektiv va universal vositalardan biri - bu Microsoft Office ilovasidagi - MS Power Point dasturidir. U grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib, sizga sifatli namoyishlar yaratish imkonini beradi. Zamonaviy kompyuter va proyektorlardan foydalangan holda seminarlar, konferensiyalar, bitiruv ishlari himoyalari hamda o‘quv jarayonida namoyishlardan foydalanish oddiy holga aylandi.

- Namoyish - bu MS Power Point yordamida yaratilgan, bitta faylda saqlanuvchi va ularni ko‘rsatish ekranda amalga oshiriladigan slaydlar va maxsus effektlar to‘plamdan iborat bo‘lib, tarqatma material, ma’ruza rejasi yoki konspekt shaklida bo‘lishi ham mumkin.
- Slayd esa namoyishning alohida sahifasi (kadri) bo‘lib, unda sarlavha, matn, grafik, diagramma va boshqa ma’lumotlar joylashgan bo ‘lishi mumkin.
- MS Power Point yordamida yaratilgan slaydlarni printer yordamida chop etish yoki maxsus agentliklarda 35-millimetrli fotoplyonkalarga o‘tkazib olish mumkin.
- Animatsiya - bu slaydlarni namoyish qilish va ko‘rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar va ularni yig‘indisidan iborat.
- Tarqatma material deb namoyish slaydlarini bitta sahifaga ikki, to‘rt yoki oltitadan qilib chop etib anjuman qatnashchilarga tarqatish uchun tayyorlangan materialga aytiladi.[151]

Reklama prezentastiyasini yaratish bu ko‘p vaqtni talab qiladigan, juda muhim va mas’uliyatli jarayondir. Bu o‘rinda sizdan talab qilinadigani bu rasmlar, animatsiya (harakat), qisqa matnlardan iborat ssenariyni o‘ylab topish. Prezentastiyalar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri-bu Microsoft Office ilovasidagi-Power Point dasturidir. U grafik axborotlar, taqdimotlar, ovoz, video kliplar, animastiyalardan foydalanib, sifatli taqdimotlar yaratish imkonini beradi. Prezentastiyalarni tayyorlash natijasida:

- qatnashuvchilarga tarkatish uchun chop qilingan hujjat;
- kadoskopda foydalanish uchun kalkalar;
- slaydoskoplarda foydalanish uchun 35-millimetrli slaydlar;
- cho‘ntak daftarchasi;
- elektron prezentastiyalarni olish mumkin.

Microsoft Power Point dasturi 1987-yildan boshlab paydo bo‘lgan bo‘lsa ham, ammo prezentatsion grafik ishlarida yetakchi o‘rin tutadi. Bu dasturning keyingi versiyalarida esa shu dasturga yangi qo‘shimcha fikrlar va prezentastiyalarni qo‘llashning yangi usullari ishlab chiqildi. Microsoft Power Pointdan foydalanayotgan har bir foydalanuvchi xoh u yangi ish boshlovchi bo‘lsa, xoh tajribali bolishidan qat’iy nazar, ushbu dasturga kiritilgan yangi usullarni yuqori darajada baholaydi. Microsoft PowerPoint – taqdimotlarni tayyorlash va taqdimotlarni hosil qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda yaratilgan taqdimotlarda oddiy animatsiyalar hosil qilish mumkin. Taqdimot – ma’ruza, biznes reja va hokazolar bo‘lishi mumkin. Har bir taqdimot bir necha slayddan tashkil topgan bo‘lishi mumkin. Microsoft Power Point – universal, imkoniyatlari keng bo‘lgan, ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi. Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi asosan elektron ta’lim resurslari orqali amalga oshiriladi.
Kompyuterli o‘qitish texnologiyasining xususiyati shundaki:
- ta’lim oluvchining mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan;
- o‘qituvchi ta'lim jarayonida maslahatchi sifatida qatnashadi;
- o‘qitish jarayonidagi axborot vositalari va resurslari faol integratsiyasi ta’minlanadi;
- o‘qitish motivatsiyasi oshiriladi;
- ta’limning intensivligi va natijaviyligini oshiradi;
- ta’lim oluvchining mustaqil ishlash va izlash malakalarini shakllantiradi .

Kompyuterli o‘qitish jarayonini samarali tashkil etilishi o‘quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta’minlaydi. Agar o‘qitish jarayoni yaxshi tashkil etilmasa, ilg‘or o‘qitish texnologiyalari ham samara bermaydi .

---

151 Axmedov N. Toyloqov “Informatika” darsligi Toshkent 2001-yil

Bu texnologiya o‘quv axborotlarining verbal va tasavvurli shakllarini birgalikda namoyon etish, o‘qitish jarayonini maqsadlarga moslashtirish imkonini beradi. Kuzatishlarning ko‘rsatishicha, o‘qituvchi, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida qatnashadi va talabalarning kompyuter bilan ishlagandagi rasmiy ko‘nikmalariga faqat tuzatishlar kiritish va nazorat qilish bilan cheklanadi. Shu boisdan ham Power Point dasturining o‘quvchi yoshlarga o‘rgatishda zamonaviy texnologiyalaridan foylanib yaxshi natijaga erishimiz mumkin.[3]

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘ulomov S.S., va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik Akademik S.S. G‘ulomovning umumiy tahriri ostida -T.: «Sharq», 2000-yil. 529 b.
2. Axmedov N. Toyloqov “Informatika”, T.2001-yil.
3. A.Aripov A Xaydarov “Informatika asoslari”2022-yil
4. A.Abduqodirov A Xayitov Axborot texnologiyasi”2020-yil
5. G.Yormatov , Y.Isamuhamedov “Mehnatni muhofaza qilish”2021-yil
6. D.E.Omonov International Journal of Innovations in engineering research and technology 2021-yil 199 bet

## UMUMTA’LIM MAKTABI O‘QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUXUSIYATLARI.

**Sharipov Abdumalik Axmadovich**
**NDPI, “Texnologik ta’lim kafedrasi” o‘qituvchisi,**
**Ismoyilov Diyorbek Bektemir o‘g‘li**
**NDPI, “Texnologik ta’lim kafedrasi” o‘qituvchisi,**
**Allayorova Tumaris Nuriddin qizi**
**Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta’lim maktabi o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning muhim jihatlari va o‘ziga xos psixologik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Fanlararo integratsiya jarayonida o‘quvchilarning inellektual qobiliyatlarini shakllantirishdagi dolzrab masalalar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Integratsiya, intellekt, intellektual, kompetentsiya, texnokratik, intellektual iqtidor, intellekt darajasi.

Mamlakat ta’lim tizimini barqaror rivojlanish hamda modernizatsiyalash jarayonlariga moslashtirish, o‘quv jarayoniga innovatsion g‘oyalar, integratsiyalashgan texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo‘llash orqali o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish muammosi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Intellekt (lotincha:intellects – bilish, tushunish, idrok qilish) - insonning aqliy qobiliyati, hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish-o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so‘zlash kabi psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug‘ma iste’dod, miya imkoniyatlari, jo‘shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog‘liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.

“Integratsiya” so‘zi lotincha "integratio" so‘zidan ("integr" - to‘liq, butun, yaxlit) olingan bo‘lib, “qayta qurish, tiklash, to‘ldirish”, "integratsiya" -“o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish”, "integratsiyalash"'- “bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq” degan ma’nolarni anglatadi. O‘quv fanlariaro aloqadorlikni ta’minlashga oid pedagogik tadqiqotlarda uni mustaqil tadqiqot yo‘nalishi sifatida mujassam rivojlanayotgan shaxsga nisbatan pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyati sifatida qarash lozim. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda o‘quv fanlariaro aloqadorlikning tarbiyaviy ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

Psixologik turkum fanlarida barcha insonlarga xos bo‘lgan fikrlash operatsiyalari bilish faoliyatining yaxlit qismi sifatida fikrlash strategiyalarining ko‘p miqdordagi qismini tashkil qiladi hamda sintez orqali turli darajadagi va tavsifdagi tizimlarni birlashtiradi. Integratsiya bilish mexanizmi asosida yotadigan qismlarni yaxlit sintezlash nuqtai nazaridan bilish strategiyalari kabi farqlanadi va natijada ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Bugungi kunda olib borilayotgan intellektual imkoniyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi yetarli darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, o‘quvchilarning umumta’lim maktablaridagi tahsili davomida intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi. Har bir o‘quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual imkoniyatini rivojlantirish maqsadidda ta’lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo‘llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir. O‘quvchilarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish jarayonini shakllantirishda quyidagi holatlar e’tiborga olinishi kerak:

1) Intellektual imkoniyatni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni maksimal darajada texnokratik bo‘lishi kerak. Buning uchun esa psixologik hamda pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kerak;

2) Intellektual imkoniyatni shakllantirishni ta’lim-tarbiya jarayoniga singdirilishi ko‘zda tutilayotgan tegishli texnologiyalarni ilmiy asoslash va ishlab chiqish lozim;

3) Intellektual imkoniyatni shakllantiruvchi tarbiya jarayonining dastlabki holatda ijtimoiy-psixologik muhitni aniq tahlil qilish hamda taktik jarayonni mukammal ishlab chiqish kerak. O‘quvchi shaxsining shakllanish jarayoniga – jamiyatda qabul qilingan axloq normalari, xulq normalari, ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlarni singdirish texnologiyalarini yaratish ko‘pgina jihatdan yakuniy natijani ta’minlashga xizmat qiladi.

Mutaxassislar va ota-onalar o‘rtasida davom etib kelayotgan o‘tkir munozaralarga qaramay, fan (genetika, fiziologiya, psixologiya va sotsiologiya) hamda amaliyot bolalar va o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlari va bilimlarni o‘zlashtirishida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Zero, bolalar turli yosh bosqichlarida turlicha imkoniyatlarni namoyon qiladilar.

Intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan bolalarga muayyan irsiy imkoniyatlar tabiatan berilgan. Psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, 12-13% bolalarda intellektual iqtidor ko‘rsatkichi o‘rtachadan yuqori bo‘ladi. Bu umumiy ko‘rsatkich hisoblanib, texnik, musiqiy, jismoniy, adabiy va boshqa ko‘rsatkichlar qo‘shib hisoblaganda 30-32 foiz bolalarda intellekt ko‘rsatkichi o‘rtachadan yuqori bo‘ladi. Bolada intellekt darajasini aniqlash, uni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish masalasi insoniyat uchun mutlaqo yangi masala emas,bu fikr bundan qariyb ikki ming yil avval Konfutsiy tomonidan ilk bor aytilgan edi. Qadimgi Xitoyda esa bolalarda intellekt darajalarini aniqlash uchun mantiqiy tafakkur darajalari, ijodiy fantaziyasi, husnixatdagi iqtidori, she’riy va nasriy asarlar yozishi kuzatuv va maxsus testlar yordamida aniqlangan, qadimgi grek faylasufi Aflotun (Platon) layoqati kuchli bolalarni to‘plab, davlat uchun foydali bilimlarni o‘rgatishga majbur qilish kerakligini aytgan edi.Demak, intellekt darajasini aniqlash va rag‘batlantirish, uni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish g‘oyasi uzoq tarixga ega. Integratsiyalashgan texnologik yondashuvlar barcha ijtimoiy jarayonlarni umumiy tavsifini yoritish hamda ularning istiqbollarini belgilashga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish jarayoni o‘quvchilarning fan asoslarini o‘rganishida uzviylik printsipiga amal qilish, ta’lim jarayonini tashkil qilish va o‘tkazishda pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiyalash, shuningdek, mazkur fan asoslarining tarbiyaviy, ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlarga bog‘liq ekanini har tomonlama tahlil qilish zarurati tug‘ildi. Ta’limdagi integrativ texnologik jarayonlarning asosiy mazmunini yaratilgan ilmiy manbalarga tayanib, quyidagicha izohlash mumkin:

- birinchidan, an’anaviy o‘qitish yozma va og‘zaki usullarga tayanib ish ko‘radi, an’anaviy o‘qitishni zamonaviy talablar asosida tashkil etish hamda ta’lim jarayonida axborot-ta’lim muhitini shakllantirish zarur; umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompyuterli ta’limni joriy etilmasligi yoshlarimiz kelajagi uchun xavfli holatdir.

- ikkinchidan, axborotlar hajmining ko‘payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi yangicha mediata’lim printsiplari asosida yondashuvni taqozo qiladi.
Shuni aytib o‘tish kerakki, istiqlol yillarida intellektual salohiyati yuqori bolalar va yoshlarga bo‘lgan diqqat bir necha marta ortdi, intellekti yuqori yoshlarni qo‘llab-quvvatlaydigan jamg‘armalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, aytish joizki, respublikada intellekti yuqori bolalar va yoshlarning ilmiy asoslangan, tizimli tanlovi, ta’limi va tarbiyasi yo‘lga qo‘yilganligini ham ko‘rish mumkin. Intellektual salohiyatning o‘ziga xos psixologik, tibbiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlari, metodik ta’minoti, tanlovi, ta’limi va tarbiyasini ilmiy asosda, jahon standartlari doirasida bajarilishini ta’minlaydigan va boshqaradigan ilmiy-metodik tashkilotlar yetarli darajada emas.
Texnologiya fanini o‘qitish jarayoniga integrativ yondashuv o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirishning metodik ta’minotini takomillashtirish, uning lelektron darslik va axborot-kommunikatsion texnologiyalariga asoslangan resurs manbalar bilan ta’minlash zaruratini keltirib chiqardi. O‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirish maqsadida olib borilgan izlanishlarimiz natijasida ta’lim texnologiyalari va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini uyg‘unlashtirish prinsipi asosida “Texnologiya” nomli elektron ta’lim resursi ishlab chiqildi. Mazkur elektron resurs yuqorida biz tavsiflayotgan va ta’limiy texnologik jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan texnologiya fanining metodik tizimidagi innovatsion jarayon hisoblanadi va u bugungi kun yoshlarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va qo‘llab – quvvatlashga qaratilgan qadamlardan biridir.
Xulosa: Demak, ta’lim jarayoniga integrativ yondashuv masalasi qandaydir umumiylik xususiyatiga ega. Chunki ta’lim jarayonida foydalanilayotgan integrativ yondashuv texnologiyalarini pedagogik – psixologik va axborot-kommunitatsiya texnologiyalarga bo‘lishni taqozo qiladi. Bu integratsiyalashgan texnologiyalarning yo‘nalishlari har xil bo‘lgani bilan, ularning uzviylashadigan umumiy tomonlari ham bor. Maktabda texnologiya fanini o‘rganish, integrativ yondashuv asosida axborot-kommunikyatsiya texnologiyalarni qo‘llashning optimal(samarali) yo‘llarini belgilashda uzviylik prinsplarini tadqiq qilish hamda ularning aniq mezonlarini belgilash muhim vazifa sifatida sanaladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1.Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. (1-jild). –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –592 b.
2.ГильфордДж.П.Структурнаямодельинтеллекта. Психологиямышления. –М.:Прогресс, 2003. –75с
3.OlimovSh.Sh., HasanovaZ.D. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv–tarbiya jarayoniga qo‘llash. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. -184bet.
4. Abdufatayev Sh.A. Integrativ yondashuv o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni rivojlantirishning asosi sifatida (texnologiya fanini o‘qitish misolida). INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE SDUCATION. SJIF 2023: 5.305. VOLUME 2 ISSUE 9


## TA’LIM JARAYONIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI


**Maxamatova Sharofat Qudratilla qizi**
**NDPI Pedagogika nazariyasi**
**tarixi yo‘nalishi 1-kurs magistrant**



**Annotsatsiya.** Ushbu maqolada Ta’lim jarayonini zamon talabi darajasiga ko‘tarish , o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida eng so‘ngi innavatsiyon va interaktiv metodlar orqali hamkorlik pedagogikasining mexanizmlarini tashkil etish haqida bayon etib, milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko‘rsatib berilgan hamda oliy o‘quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.Hamkorlikda o‘qitish mashg‘ulotlarning asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy

vazifalarni bajarish, masalalar yechishni o‘z ichiga oladi. Maqolada aynan hamkorlik pedagogikasining rivojlanish tarixi, uning o‘qitish jarayonidagi o‘rni haqida va o‘tkazilgan tajriba asosidagi fikrlar bayon etilgan.
**Tayanch tushunchalar:** hamkorlikda o‘qitish, hamkorlik pedagogikasi, o‘qituvchi va o‘quvchi, interfaol metodlar, innavatsion metodlar, pedagogik innovatsiya, milliy va xorijiy tajriba
**Annotation.** In this article, the raising of the educational process to the level of modern needs, the establishment of mechanisms of cooperation pedagogy between the teacher and the student through the latest innovative methods, and the national and foreign experience are widely covered. Also, the article shows the main features that determine the quality of the educational process in the training of highly qualified personnel and the rules that represent the basis of the concept of the quality system in the higher educational institution. Collaborative learning includes the main processes of training: collaborative exchange of ideas, conversation, analysis, discussion, negotiation, performance of practical tasks, problem solving. The article describes the history of the development of cooperative pedagogy, its place in the teaching process, and opinions based on the experience.
**Basic concepts.** Cooperative teaching, cooperative pedagogy, teacher and student, interactive methods, innovative methods, pedagogical innovation, national and foreign experience
**Аннотация**. В данной статье широко освещены поднятие образовательного процесса до уровня современных потребностей, налаживание механизмов педагогического сотрудничества между учителем и учеником посредством новейших инновационных методов, отечественный и зарубежный опыт. Также в статье показаны основные особенности, определяющие качество образовательного процесса при подготовке высококвалифицированных кадров и правила, составляющие основу понятия системы качества в высшем учебном заведении. Совместное обучение включает в себя основные процессы обучения: совместный обмен идеями, беседу, анализ, обсуждение, переговоры, выполнение практических заданий, решение проблем. В статье описана история развития кооперативной педагогики, ее место в учебном процессе, а также мнения, основанные на опыте.
**Базовые концепты**. Кооперативное обучение, кооперативная педагогика, учитель и ученик, интерактивные методы, инновационные методы, педагогическая инновация, отечественный и зарубежный опыт

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni bunyod etish uchun hamda Ta’lim jarayonini sifatini yuqori darajaga ko‘tarish uchun ham korlik pedagogikasining o‘rni muhim hisoblanadi. Hamkorlik pedagogikasida o‘quvchi o‘z o‘quv faoliyatining sub'yekti sifatida qaraladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchi pedagogik jarayonning sub'yektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo‘ladi. Ular o‘zaro hamkor, hamdo‘st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo‘ladilar. Hamkorlik munosabatlari o‘qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o‘quvchilar va o‘qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o‘rnatiladi.O‘tgan asming 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o‘qitishda natijalari oldindan ko‘ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surdi. Ta'lim jarayonida kichik guruhlarda o‘qitishdan Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Yaponiyada foydalanilgan. Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, Y.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) o‘rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishini ta'kidlab o‘tadilar.[1] Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, G‘.G‘ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Ya.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan.Pedagogik hamkoriik g‘oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va «XXI asr ta'limi konsepsiyasi» asosini tashkil etadi.Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo‘lib, u an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanadi: An’anaviy ta’limda o‘qituvchi pedagogik jarayonning subyekti, o‘quvchi esa obyekti deb qaraladi. Hamkorlikda o‘qitish o‘quvchining ta’lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orqali hamda

o‘quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish tamoyillarini amalga tatbiq qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi.Hamkorlikda o‘qitish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:
- o‘quvchining o‘rganish jarayonini boyitadi;
- o‘quvchilarga ular o‘rtasida taqsim qilinib, o‘zlashtirilgan kognitiv-axborotlar to‘plamini beradi;
- o‘quvchilarda materialni o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otadi;
- o‘quvchilarning o‘z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- axborotlarni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o‘quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlarni beradi.

Hamkorlikda o‘qitish turli xil innovatsiyon va interaktiv faollashtiruvchi metodlar orqali noananaviy dars shakllarini tashkil etish mumkun.

Matbuot konferensiyasi darsi- dars mavzusini savol javoblar orqali o‘zlashtirish mashqi.

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi – qiziqarli savol va ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o‘rgatish mashqi.

Guruhlarda ishlash darsi - o‘quvchilarning bir nechta guruhlarga bo‘linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

O‘zaro o‘qitish darsi - o‘quvchilarning dars mazmuni bo‘yicha matnning ayrim abzaslari yoki shunga o‘xshash kichik bo‘laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o‘zlashtirish darsi.

O‘quvchilar olib boradigan dars - dars mavzusini o‘quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o‘quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Dialog darsi - o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va o‘z fikrlarini bayon etish ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o‘quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Aylana mashq darsi-o‘quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o‘zlashtirish yoki o‘tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Innovatsiyalar darsi – o‘quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo‘llash bo‘yicha taklif va loyihalar bilan tanishtirish darsi bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi: o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish o‘rganishdir.

Tanlov darsi – sinfdagi o‘quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo‘yicha oldindan tayyorgarlik ko‘rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g‘oliblarni aniqlash darsi.

Juftlikda ishlash (binar) dars – o‘quvchilarning juft bo‘lib, dars mavzusini birgalikda o‘zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlash darsi. Bunda zarur bo‘lganda juftliklar dars davomida turlicha o‘zgartirilishi mumkin.

N.Kuzmina, E Rodjers va D.Forilar o‘z asarlarida innavatsiya va ta’limga innavatsion yondashuvga nisbatan o‘z fikr mulohazalarini keng doirada mulohaza qilib o‘tganlar. Innavatsion ta’limdan foydalangan holda o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoalarini qulay ta’lim berish va qabul qilish muhitini yarata olishga alohida urg‘u berib o‘tishgan. N.V.Kuzminaning fikricha “O‘qituvchi o‘quvchilarga innovatsyon usullardan foydalanib, talabalarning shaxsiy rivojlanishi uchun metod va vositalardan foydalanishda o‘quvchilar bilan hamkorlikni o‘rnatsa va o‘rnata olsa har ikki tomonda ham o‘zaro yordam, tushunish, o‘zaro hurmat va o‘zaro qo‘llab -quvvatlash muhiti yuzaga keladi.’’ Hamkorlikni tashkil etish zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning muhim jihatlari ta’lim samarodorligiga erishishga yetarlicha hissa qo‘shish bilan ahamiyatlidir. Masalan:

Aqliy hujum. Breynshtormin;
Oyinli oqitish texnologiyasi;
Jamoaviy oqitish usuli;
Kichik guruhlarda ishlash metodi;
Tarmoqlar metodi;
Blits o‘yini;

FSMU;
BBB metodi;
Intervyu metodi;
Iearxiya metodi;
Bumerang;
“O‘quvchi” metodi;
Boshqaruv metodi;
Klaster;
SINKVEYN metodi;
SWOT tahlil.

Bularning barchasi faollashtiruvchi va interaktiv metodlar hisoblanib, hamkorlik pedagogikasida qo‘llanilishi o‘quvchilarning faollashishiga darsning markazida faqat o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi bo‘lishini ta’lab etadi.Interfaol usullardan oqilona foydalanish ta'lim jarayoniga jo‘shqinlik, izlanuvchanlik kayfiyatini baxsh etadi, o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlariga ishonch va o‘z mehnati natijasidan mamnunlik hissini vujudga keltiradi, bilishga oid qiziqishlarini yanada orttiradi. Bular esa, ta'lim jarayonida o‘quvchilar shaxsi barkamollashuvining muhim omillari bo‘lib hisoblanishi tabiiydir. Barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etdi. Bu tizimda ishtirok etish xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o‘rtoqlashishga to‘g‘ri keladi. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg‘or jihatlarini o‘zashtirish, yangi-yangi o‘quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg‘or pedagogikalarinig biriga aylantirish uchun olib borilayotgan ko‘pdan ko‘p sa'y-harakatlar guvohi bo‘lmoqdamiz. Bundan tashqari mamlakatimiz prizdenti SH.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham ta’lim tizimida xorijiy tajribalar haqida alohida to‘xtalib o‘tgan, “Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta'limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish’’kabi ilg‘or g‘oyalarni ilgari suradi.Hamkorlik pedagogikasi turli mamlakatlarda ilg‘or pedagoglar ishtirokida rivojlandi. Ma’lumki, ta’lim sifatini boshqarish ta’lim jarayoni sifatini loyihalashtirish, unga erishish va qo‘llab-quvvatlash hamda uni amalga oshirishni, natijalarini ta’minlashdan iboratdir. Bunda ta’lim sifatini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi – turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishda o‘z ifodasini topadi.

Ma’lumki, hozirgi davrda yoshlarning kasbiga oid bilimlarini hayotda qullay olishlari uchun keng imkoniyat yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifa ta’lim sifatini yuksak darajada ko‘tarishni, puxta va bilimli raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashni, boshqacha qilib aytganda, ta’lim va tarbiya tizimida tub sifat o‘zgarishlarini sodir etishni talab qiladi. Shunday ekan, hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil qilingan ta’lim va tarbiya o‘quvchi shaxsining “Men”ini yorqinroq namoyish etishga, qobiliyat va iqtidorini anglashga, uni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijodkorlikka intilish, yangilik yaratish- hamkorlik pedagogikasining kreativlik belgisi bilan chambarchasdir. O‘ylaymanki, O‘zbekiston yaqin yillar oralig‘ida kuchli ta'lim tizimiga ega xorijiy davlatlar qatoridan joy oladi. Ushbu yo‘lda esa bugungi kunda bo‘layotgan xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati katta bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Dilova F.H (2017) 1-сон.O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda hamkorlik pedagogikasining o‘rni. Zamonaviy ta’lim 1-son.
2. KuzminaN.T.N.T Ilg‘or pedagogik texnologiyalar T.1999y.
3.Sh.Mirziyoyev.’’Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ‘’https\\m.kun.uz\news\\2019\10\09\
4.Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M.Pedagogika. (2016). Darslik. - T.: «Navro‘z».
5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. (2008). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotgajoriy qilish. - T.: «Fan va texnologiyalar».

6. Safin D.V., Musina R.G. (2017). Ta'lim berish va oʻqishning interaktiv usullari. Oʻquv qoʻllanma. 5-modul, - T., -43-b.
7.Usarov S. "Oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga oʻrgatishda matematik masalalarning oʻrni" Tafakkur ziyosi 1/2022 ilmiy uslubiy jurnal 147 bet.

## TA'LIMDA BAHOLASH VA QAYTA ALOQA JARAYONINI YAXSHILASH UCHUN SMART TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI, "Informatika" kafedrasi professori**
**Tillayev Ma'ruf Maxmudjonovich – NDPI,"Informatika" kafedrasi mustaqil izlanuvchisi**

**Annotation:** This article explores the potential of SMART technologies to enhance the process of assessment and feedback in education. Traditional methods of assessment and feedback in education often have limitations that hinder maximizing the potential of each student. SMART technologies offer innovative solutions, including personalized learning experiences, interactive assessments, and automated feedback mechanisms. By leveraging SMART technologies, educators can create adaptive and personalized educational environments that cater to individual student needs. The article discusses the advantages of SMART technologies in assessment and feedback, provides examples of their application, and emphasizes their role in creating more engaging, efficient, and effective educational experiences.
**Keywords:** SMART technologies, education, assessment, feedback, personalized learning, interactive assessment, automated feedback, adaptive learning environments.
**Аннотация:** В данной статье рассматривается потенциал SMART-технологий для улучшения процесса оценки и обратной связи в образовании. Традиционные методы оценки и обратной связи в образовании часто имеют ограничения, которые могут препятствовать максимальному раскрытию потенциала каждого студента. SMART-технологии предлагают инновационные решения, включая персонализированные учебные опыты, интерактивные формы оценки и автоматизированные механизмы обратной связи. С помощью SMART-технологий преподаватели могут создавать адаптивные и персонализированные образовательные среды, отвечающие индивидуальным потребностям каждого студента. В статье обсуждаются преимущества SMART-технологий в оценке и обратной связи, приводятся примеры их применения, а также подчеркивается их роль в создании более привлекательных, эффективных и эффективных образовательных опытов.
**Ключевые слова:** SMART-технологии, образование, оценка, обратная связь, персонализированное обучение, интерактивная оценка, автоматизированная обратная связь, адаптивные образовательные среды.
**Annotasiya:** Ushbu maqola ta'limda baholash va qayta aloqani yaxshilash uchun SMART texnologiyalarining imkoniyatlarini oʻrganadi. Ta'limdagi an'anaviy baholash va qayta aloqa usullari koʻpincha har bir talaba oʻz salohiyatini maksimal darajada oshirishga toʻsqinlik qiladigan cheklovlarga ega. SMART texnologiyalari innovatsion yechimlarni taklif etadi, jumladan shaxsiylashtirilgan oʻrganish tajribasi, interaktiv baholash shakllari va avtomatlashtirilgan qayta aloqa mexanizmlari. SMART texnologiyalari yordamida oʻqituvchilar har bir talabaning individual ehtiyojlarini qondiradigan moslashtirilgan va moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratishi mumkin. Maqolada baholash va qayta aloqada SMART texnologiyalarining afzalliklari muhokama qilinadi, ularni qoʻllash misollari keltirilgan va ularning yanada qiziqarli, samarali va samarali ta'lim tajribasini yaratishdagi roli ta'kidlangan.
**Kalit soʻzlar:** SMART texnologiyalari, ta'lim, baholash, qayta aloqa, shaxsiylashtirilgan ta'lim, interaktiv baholash, avtomatlashtirilgan qayta aloqa, moslashtirilgan ta'lim muhitlari.

Zamonaviy ta'limda baholash va qayta aloqani yuritish jarayoni ta'lim samaradorligini oshirish va oʻquvchilarning rivojlanishida asosiy rol oʻynaydi. Biroq, baholash va qayta aloqaning an'anaviy usullari koʻpincha oʻz imkoniyatlari bilan cheklangan va har doim ham har bir oʻquvchining salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga imkon bermaydi. Ushbu maqola ta'limda baholash

va qayta aloqani yaxshilash uchun SMART texnologiyalarining imkoniyatlarini hamda ularning oʻquv muhitini yaxshilashdagi rolini oʻrganadi.

SMART texnologiyalari zamonaviy raqamli vositalar va resurslardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yechimlardir. Bu texnologiyalar turli intellektual tizimlar, onlayn platformalar, interfaol ilovalar va qurilmalarni oʻz ichiga oladi, ular oʻquvchilarning oʻquv tajribasini sezilarli darajada boyitadi va oʻqituvchilar ishini optimallashtiradi. K.Uluchning ta'kidlashicha, axborot texnologiyalarining ta'siri “hayotimizning barcha jabhalariga, jumladan, ta'lim boʻgʻinlari" ni qamrab olgan [3]. Zamonaviy maktablarda axborot texnologiyalari ta'lim va motivatsiya uchun yanada kuchliroq vosita hisoblanadi. Xorijiy mualliflarning asarlarida ham pedagogik eksperimentlar doirasida oʻquv jarayonida SMART texnologiyalar samaradorligini oʻrganish tasvirlangan [1; 2; 4].

Ta'limda baholash va teskari aloqa jarayonida SMART texnologiyalaridan foydalanish bir qator muhim afzalliklarni beradi:

- Ta'lim tajribasini shaxsiylashtirish: SMART texnologiyalari har bir talabaning bilim darajasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda individual topshiriqlar va testlarni yaratish, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalarni taqdim etish imkonini beradi.
- Interfaollik va faollik: Interfaol SMART vositalaridan foydalanish baholash jarayonini talabalar uchun yanada jozibador va qiziqarli qiladi, bu esa ularning faol ishtiroki va motivatsiyasini ragʻbatlantiradi.
- Avtomatlashtirish va samaradorlik: SMART texnologiyalari baholash va qayta aloqa jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi, bu esa oʻqituvchilarning vaqtini qisqartiradi va oʻquv jarayoni samaradorligini oshiradi.
- Tahlil va taraqqiyotni kuzatish: SMART texnologiyalaridan foydalanib, siz oʻquvchilarning muvaffaqiyati, ularning ishlashi va ehtiyojlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishingiz mumkin, bu esa individual qiyinchiliklarni aniqlashga va keyingi ta'lim haqida koʻproq asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Interfaol onlayn testlar va soʻrovlar: Onlayn platformalar yordamida interaktiv testlar va soʻrovnomalar yaratish talabalarga oʻzlariga mos vaqt va joyda baho berish va natijalari boʻyicha tezkor qayta aloqani olish imkonini beradi.

Virtual yordamchilar va chatbotlardan foydalanish: Virtual yordamchilar talabalarga joriy topshiriqlar, tez-tez beriladigan savollarga javoblar va topshiriqlarni bajarish boʻyicha koʻrsatmalar haqida ma'lumot berishi va shu bilan tezroq va shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin.

Matnni tahlil qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari: SMART texnologiyalaridan foydalangan holda siz asosiy jihatlar va xatolarni aniqlash uchun talabalarning insholari, hisobotlari va boshqa matn materiallarini tahlil qilishingiz mumkin, bu esa baholash va qayta aloqa jarayonini osonlashtiradi.

Ta'limda baholash va qayta aloqani yaxshilash uchun SMART texnologiyalaridan foydalanish yanada moslashuvchan, interaktiv va shaxsiylashtirilgan oʻquv muhitini yaratishga yordam beradigan samarali va istiqbolli yondashuvdir. Ushbu texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini, talabalar motivatsiyasini va umuman ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Jackson J. Game based teaching: What educators can learn from videogames. Teaching Education, 2009, no. 20 (3).

2. Olsen A.K. The effects of technology on academic motivation and achievement in a middle school mathematics classroom, 2016.

3. Uluc K. The Positive Effects of Integrating ICT in Foreign Language Teaching. International conference «ICT for language learning» 5th edition, 2012. URL: http://conference.pixel-online.net/ICT4LL2012/.../235-IBT107-FP-Isisag-ICT2

4. Shapley K. [et al.]. Effects of Technology Immersion on Middle School Students' Learning Opportunities and Achievement. The Journal of Educational Research, 2011, vol. 104, iss. 5.

# TA’LIM SIFATINI TA’MINLASHDA SMART-TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Nasirova Shaira Narmuradovna – NDPI,“Informatika” kafedrasi professori**
**Tillayev Ma’ruf Maxmudjonovich– NDPI, “Informatika” kafedrasi mustaqil izlanuvchisi**

**Annotation**: This article provides information on the use of smart technologies to ensure the quality of education. Smart education is seen as the flexibility of learning in an interactive learning environment, personalization and customization of learning, and free access to content from around the world. Smart education is achieved through technological innovation and the use of the Internet, which gives students the opportunity to acquire professional competencies based on a systematic and multifaceted view of the topics studied in terms of their complexity and constant updating.
**Keywords:** Smart technologies, information technologies, Internet, continuous education, technological innovations.
**Аннотация:** В данной статье содержится информация об использовании умных технологий для обеспечения качества образования. Умное образование рассматривается как гибкость обучения в интерактивной учебной среде, персонализация и настройка обучения, а также свободный доступ к контенту со всего мира. Умное образование достигается за счет технологических инноваций и использования сети Интернет, что дает студентам возможность приобретения профессиональных компетенций на основе системного и многогранного взгляда на изучаемые темы с точки зрения их сложности и постоянного обновления.
**Ключевые слова:** Умные технологии, информационные технологии, Интернет, непрерывное образование, технологические инновации.
**Annotasiya:** Ushbu maqolada ta’lim sifatini ta’minlashda smart-texnologiyalaridan foydalanishto‘g‘risidagi ma’lumotlar yo‘ritilgan. Smart ta’lim interfaol ta’lim muhitida ta’limning moslashuvchanligi, ta’limni shaxsiylashtirish va moslashtirish va butun dunyo bo‘ylab kontentga bepul kirish sifatida qaraladi. Smart ta’limga texnologik innovatsiyalar va Internetdan foydalanish orqali erishiladi, bu esa talabalarga o‘rganilayotgan mavzularni ularning murakkabligi va doimiy yangilanishi bo‘yicha tizimli va ko‘p qirrali ko‘rish asosida kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.
**Kalit so‘zlar:** Smart-texnologiyalar, axborot texnologiyalari, Internet, uzluksiz ta’lim, texnologik innovatsiyalar.

Hozirgi kunda mamlakatimizning oliy ta’lim muaassasalarida ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri – uning sifatini oshirish bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun keyingi yillarda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi „O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida xalqaro ilg‘or tajribalarga tayangan holda, oliy ta’lim standartlarini joriy etish, ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan ta’lim tizimiga o‘tish vazifalari belgilab berilgan [1]. Zamonaviy ta’limning asosiy g‘oyasi an’anaviy ta’lim bilan bir qatorda tabiiy bo‘lgan yangi bilim manbalarini tan olishdir: ma’ruza, amaliy, laboratoriya, seminar dars va boshqalar. O‘qituvchining roli o‘zgarib bormoqda, bu Smart texnologiyalardan foydalanganda yangi boshqaruv tizimini yaratishi kerak. Global dunyoda "kerakli" bilimlarni sifati, zamonaviyligini ilmiy tanlash zarur. Smart ta’lim o‘z maqomiga ko‘ra: hayot davomida o‘z-o‘zini o‘zi rejalashtirish, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, muvaffaqiyatli shaxsiy martaba, shuningdek, jamiyat va ishlab chiqarish manfaatlari yo‘lida kasbga ega bo‘lishdan iborat. Smart ta’lim ko‘p miqdordagi manbalar, multimediyaning (audio, video, grafik) maksimal xilma - xilligini, tinglovchilarning talab va ehtiyojlariga tez va oson moslashish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu mutlaqo yangi ta’lim muhiti bo‘lib, unda ta’lim faoliyati Internetda umumiy standartlar, texnologiyalar va ta’lim muassasalari tarmog‘i o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida olib boriladi va umumiy tarkibdan foydalaniladi. Bu turdagi ta’limning o‘ziga xos xususiyati - yashash joyidan va moliyaviy ahvolidan qat’i nazar, aholining barcha qatlamlari uchun qulaylik, ya’ni "hamma

joyda" ta’lim olish imkoniyatidir. Bugungi kunda ta’lim tizimi yetarli darajada ta’minlay oladigan texnologiyalar va o‘quv vositalarining katta tanlovini taklif etadi. Ta’lim tizimi sifatining mezonlaridan biri bilim va texnologiyalarni yangilash tezligidir. Shubhasiz, SMART texnologiyalari bu borada yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar juda yuqori shu sababli sifat ko‘rsatkichlarni yaxshilash uchun turli xil didaktik vositalardan foydalanish tafsiya etiladi. Ta’lim jarayonida SMART-texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatiga oshirishga amaliy ko‘mak beradi. Ta’lim tizimi o‘qitishning mazmuni va usullari, shuningdek, bilimlarni boshqarish vositalari, muhiti va usullari tufayli sifat jihatidan o‘zgarishlarga duch kelishi kerak. Bilimlarni yangilash hajmi va tezligi doimiy ravishda o‘sib borayotgan sharoitda talabalarning mustaqil izlanish va tadqiqot ishlarini tashkil etish va kasbiy muammolarni hal qilishda olgan bilimlarini yanada qo‘llash vazifasi ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladi.

Bugungi kunda kelib «SMART texnologiya» tushunchasiga turlicha ta’rif berilgan, shu jumladan SMART- texnologiyalarini ta’lim tizimida bir nechta talqinlari mavjud. N. V. Dneprovskaya, E. A. Yankovskaya, I. V. Shevcovalarning ilmiy tadqiqotlarida, SMARTning juda keng tushuncha berilgan bo‘lib, ya’ni «SMART - bu tizimning mulki yoki atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladigan jarayon va tizimlar yoki jarayonlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi: tashqimuhitdagi o‘zgarishlarga javob berish, transformasiyaga moslashish sharoitlar, mustaqil rivojlanish va o‘z-o‘zini nazorat qilish, samarali natijalarga erishish» deb ta’rif berilgan [2]. A. V. Nesterovning fikriga ko‘ra SMART-texnologiyalar ta’limda SMART ishlab chiqarish imkonini yaratadi (turli toifadagi foydalanuvchilarga imkon beradigan mahsulotlar tashabbuskor va interaktiv tarzda individual ta’lim oluvchilar uchun) [3]. Hozirgi kunda, axborot texnologiyalari o‘rnini SMART-texnologiyalari egallamoqda. SMART-texnologiyalari jamiyat rivojlanishining axborotdan keyingi bosqichini belgilashga qodir bo‘lgan ustuvor texnologiyalar toifasiga o‘tmoqda. Biroq, faqat «SMART» bilan yangi texnologiyalardan foydalanish yoki ularning «aqlli» qo‘llanilishini nazarda tutish yangi turdagi ta’limning mohiyatini aniqlay olmaydi. SMART ta’lim-bu barcha ta’lim jarayonlarini, shuningdek, ushbu jarayonlarda qo‘llaniladigan uslub va texnologiyalarni kompleks modernizasiya qilishni o‘z ichiga olgan tushunchadir. «SMART» tushunchasi ta’lim kontekstida aqlli doskalar, SMART-ekranlar, istalgan joydan internetga kirish kabi texnologiyalarning paydo bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu texnologiyalarning har biri kontentni ishlab chiqish, etkazib berish va yangilashning yangi jarayonini qurish imkonini beradi. O‘rganish nafaqat sinfda, balki boshqa har qanday joyda mumkin bo‘ladi: muzeylar yoki kafelar kabi jamoat joylari. Ta’lim jarayonini bog‘laydigan asosiy element bu faol ta’lim mazmuni bo‘lib, uning asosida vaqt va makon chegaralarini olib tashlash imkonini beruvchi yagona omborlar yaratiladi.

SMART ta’lim konsepsiyasi, o‘qitishni individuallashtirish g‘oyasiga asoslanadi, bu faqat o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir talabaga qaratilgan tarkibni yaratish orqali mumkin. Bunga har bir yangi bilim ob’ekti aniqlangan va tavsiflangandagina akademik bilimlarni boshqarish orqali erishish mumkin. O‘xshash obyektlar majmuasi ularni birlashtirishga imkon beradi va shu bilan har bir tinglovchining ehtiyojlariga javob beradigan noyob tarkibni yaratadi. Ushbu yondashuv nafaqat kontent yaratish nuqtai nazaridan, balki uni aktuallashtirish nuqtai nazaridan ham qulaydir.

Xulosa qilib ta’kidlash joizki, SMART ta’lim konsepsiyasini amalga oshirishmasdan SMART ta’limni amalga oshirib bo‘lmaydi. SMART ta’limning asosiy vazifasi talabalar va o‘qituvchilar uchun ta’lim jarayonida yangi samaradorlikka erishish uchun sharoit yaratishdir. SMART ta’limni qo‘llash kompleks yondashuvni talab qiladi. Talabalar erishgan yangi samaradorlik kasbiy hamjamiyatga integrasiyalashuv, innovatsion loyiha faoliyati kompetensiyalari, amaliyotga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin. SMART ta’lim konsepsiyasining rivojlanishi dunyoda yangi texnologik paradigmaning rivojlanishiga mos keladi. Hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlarda institutlarda va ta’lim organlarida mavjud ta’lim imkoniyatlariga e’tibor qaratilmoqda. SMART- ta’lim tushunchasi va uning imkoniyatlari endi o‘rganilmoqda. Bu borada mutaxassislar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bizning fikrimizcha, SMART texnologiyalaridan foydalanish mahorat darslari, treninglar, tanlangan o‘quv mavzulari bo‘yicha potensial ish beruvchilar bilan o‘zaro hamkorlik qilish, kasbiy hamjamiyatlarni yaratish orqali

amaliyotga yo'naltirilgan kurslarni ishlab chiqish asosida tinglovchilarning yetarli darajada yuqori malakasini ta'minlashi mumkin.

SMART texnologiyalari nafaqat onlayn konferensiyalarda qatnashish, balki tajriba almashish, boshqa institutlar va ilmiy-tadqiqot institutlari, talim muassasasi o'quv-uslubiy materiallari va virtual laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ularning o'quv faoliyatini uzluksiz ravishda amaliyot bilan birgalikda o'tash imkoniyatlarini ham beradi.

O'qitishning yangi – smart texnologiyalari zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib qoladi. U insoniyatga beqiyos imkoniyatlarni hadya etib, zamon va makon chegaralarini olib tashladi. Smart texnologiyalardan unumli foydalanish nafaqat maktab o'quvchilari, talabalar, katta yoshli o'rganuvchilar, balki kasbiy malaka oshiruvchilarni ham yangi bilimlarga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishi kerak, shunda ular jahon hamjamiyatida muvaffaqiyatli muloqot qila oladilar, barcha talabalarni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga faol jalb qiladilar.

**Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga // https:// lex.uz/docs/4545884.

2. Днепровская Н. В., Янковская Е. А., Шевцова И. В. Понятийные основы концепции смарт-образования //Открытое образование, 2015. -№6 – С. 43– 51.

3. Нестеров А. В. О соотношении СМАРТ общества и общества, построенного на знаниях // препринт, май 2014.

4. Махотин Д. А. SMART в образовании: новый подход или влияние технологий? // Интерактивное образование, 2018. - №5 – С.13-15.

6.Nasirova Sh.N., Tillayev M.M. The importance of creating multimedial electronic learning resources. Academicia Globe: Inderscience Research is a scholarly peer reviewedinternational multidisciplinary Journal, 557-559 p.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI OILA-DAVLAT VA JAMIYAT ARDOG'IDA

**Otaqulova Sitora Erkin qizi,**
**Termiz davlat pedagogika instituti talabasi**

**Annotatsiya:** maqolada shaxs shakllanishida oilaning roli, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o'zgarishlar, bolaga oilada yaxshi tarbiya berish, bolalarni kamtarlik va donolikka o'rgatishda buyuk o'zbek mutafakkiri fikrlari, maktabgacha ta'lim muassasasining ota-onalar bilan ishlashining jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini qo'shib olib borish, aholi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil etish, ota-onalar bilan yakkama- yakka ishlash, ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar o'tkazish, tarbiyachining oilani borib ko'rishi kabi jarayonlar keng ma'noda yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** oila, jamiyat,tarbiyachi, guruh, maslahatchi, majis, ota-onalar qo'mitasi, komil inson, hamkorlik, sog'lom avlodni shakllantirish.

Darhaqiqat, shaxs shakllanishida oilaning roli katta. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat farzandlar namunali oilalarda kamol topadilar. Shuning uchun ham oilada sog'lom muhitni vujudga keltirish va uni mustahkamlash umumdavlat ahamiyatiga bog'liq masaladir. Chunki ijtimoiy hayotda yuz beradigan barcha o'zgarishlar, ya'ni undagi yetuk va kamchiliklar, murakkabliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Shunga ko'ra oil ava oilaviy tarbiya masalalari har doim ham dolzarb muammo bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Resbublikamizda 1998- yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturini hayotga joriy etish natijasida oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari takomillashtirildi, "Oila kodekisi"ning yangi tahriri, bir qator qonunchilik va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Oilaning moddiy farovonligi ta'minlashga qaratilgan zarur shart-sharoyitlar yaratildi. Kam ta'minlangan, serfarzand oilalarni qo'llab-quvvatlash ishlarini davlat o'z zimmasiga oldi. 3 yoshgacha bolasi bo'lgan ayollar byudjet hisobidan moliyalashtirilgan muassasa va tashkilatlarida ishlayatgan bo'lsalar, ular uchun ish haqining to'liq miqdori saqlangan holda ish vaqtini haftasiga 35 soatdan oshmaydigan muddati belgilandi. Ayollar yili munosabati bilan qabul qilingan davlat

dasturi mamlakatimizda yashayotgan ayolning hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Resbublikamizda 2000- yil “Sog‘lom avlod” yili deb e’lon qilindi. 2000-yilda amalga oshiriladigan ishlar “Oila “, “Ayollar yili”dagi chora-tadbirlarining mantiqiy davomi bo‘lib, onalar va bolalar salomatliligini mustahkamlash, sog‘lom avlodni shakllantirish yuzasidan ko‘plab ijobiy natijlarga erishildi. -yoshlarni turmush qurishidan avval tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish amaliyoti hayotga joriy qilindi. -bolalar organizmida yod tanqisligi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Bolaga oilada yaxshi tarbiya berish bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlaboq, ota-ona oldida turgan asosiy maqsad va vazifalardir. Ya’ni ota-ona uchun ham qarz,  ham farzdir, oila bolaga ta’sir ko‘rsatadi, uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmasdan, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Ma’lumki shaxsning qadriyati uning jamiyatdagi tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jihatdan uning tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli ota-ona o‘z bolalarining tarbiyachisi hisoblanadi. Bolalarni kamtarlik va donolikka o‘rgatishda buyuk o‘zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirga durdona fikrlarni asos qilib olish foydalidir. U manmanlik, maqtanchoqlik va o‘zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi xususiyatlarni kishining axloqi past ekaligini ko‘rsatuvchi belgilar deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, oilada bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o‘rgatilishi kerak. Bu esa unda mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi. Ibn Sino yosh bolalarni yaxshi axloqli, jismoniy sog‘lom qilib yetishtirishda ko‘pgina foydali usullarni ko‘rsatib beradi. U tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo‘lish usuli g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligi qayta-qayta uqtirib o‘tgan. Ibn Sino oilaviy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarning chuqur mazmunini va amaliy ahamiyatini uning quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin. Bolaning xulqini mo‘tadillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak. Unga esa bolalarni qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish , xafalik, uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolani xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga hamda sevmagan narsasini ko‘zdan uzoqlashtirishga doim tayyor bo‘lib turish kerak. Bu ishning ikki xil foydasi bor. Bir tomondan bolaning ruhiga foyda qiladi, bola eng yosh chog‘idanoq xushxulq odam bo‘lib qoladi. Ikkinchi tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi. Chunki yomon xulq turli mijos buzilishlariga sabab bo‘ladi. Bola yashab turgan oilani o‘rganish ota-onalar bilan yaqin aloqa o‘rnatish va ularga yordam, maslahatlar berishning samarali yo‘llaridan biridir. Tarbiyachi oilaga tekshiruvchi sifatida emas maslahatchi, do‘st va bola tarbiyasiga yordam beruvchi shaxs sifatida boradi. Tarbiyachining oilaga borishidan asosiy maqsad bola yashayotgan sharoitni ko‘rish va zarur bo‘lsa, ota-onalarga yordam ko‘rsatishdir. Oilani borib ko‘rish va ota-onalar bilan suhbatlashish katta pedagogik odat bilan o‘tkazilishi kerak. Ota-onalar bilan suhbatda bolaning eng yaxshi tomonlari ochib berilsa, ota-onalarning  tarbiyachiga bo‘lgan hurmati va ishonchi ortadi. Tarbiyachi bolaning uyida ko‘rganlarini qayd qilish bilan bir qatorda ularni tahlil qiladi, ota-onalar majlislarida oilaviy tarbiyadagi ijobiy va salbiy tomonlar haqida gapiradi. Ularga o‘zining maslahtlarini beradi. Oila tarbiyasidagi ijobiy ishlarni ota-onalar uchun tashkil etilgan testlarda aks ettirish ham mumkin. Oilani borib ko‘rgandagi taassurotlarini tarbiyaviy ishlarni hisobga olish ustuniga yozib qo‘yish kerak. Oilaga kamida yilliga ikki marta borib ko‘riladi. Tarbiyachining oilaga borishi ota-onalarda pedagogik madaniyatni oshiradi.

Xulosa. Oila bilan shaxsan ishlashning  eng keng tarqalgan usuli sifatida qo‘llanadigan suhbat bolalarni ertalab qabul qilish va kechqurun kuzatish vaqtida o‘tkazilishi mumkin . Ular tariyachilar bilan ota-onalarni bir-bir bilan yaqinroq tanishishlariga yordam beradi.Tarbiyachining ota-onalar bilan ertalab o‘tkazadigan suhbatlari qisqa muddatli bo‘ladi, shuningdek uning yaqinlarida yaxshi kayfiyat, tarbiyachiga ishonch hissi paydo bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. F.U.Qodirova, SH.I. Toshpo‘latova, N.I. Kayumova, M.A. A’zamova. “Maktabgacha pedagogika” Toshkent-2019. “Tafakkur” nashriyoti.

2. Choriyeva.S. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, Новостиобразования: Исследованиев XXI веке .№ 5 (100) декабрь 2022 г. 380-383 betlar

3. Choriyeva.S Ilm-fan va ta’limning rivojlanish istiqbollari, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik jihatlari, 105-107 bet 27-konferensiya to‘plami 24 iyun 2022
4. Choriyeva.S, Berdiyeva.M, Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ», ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ,1135-1139,Выпуск №13 (том 3) (апрель, 2021)
5. Choriyeva .S.”Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System”. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 01 Issue: 05 | 2022 ISSN: 2751-756X http://innosci.org.50-54 bet
6. Choriyeva .S.Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, Новостиобразования: Исследованиев XXI веке .№ 5 (100) декабрь 2022 г. 380-383 betlar
7. Choriyeva .S.Maktabgacha yoshdagi bolalarga STEAM ta’lim texnologiyasi asosida ta’lim – tarbiya berish, “Maktabgacha talimda ilg‘or tajriba va zamonaviy yondashuvlar:muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy–amaliy anjuman materiallari 2022-yil 23-sentabr 99-102 betlar\
8. Choriyeva Surayyo Choriyevna, Shirinova Bahoroy. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI EKOLOGIK JIHATDAN TARBIYALASH ASOSIY MASALA SIFATIDA . Tadqiqotlar, 12(1), 39–43.
9. Choriyeva Surayyo Choriyevna, Xudoyberginova Oydin Qurbonboy qizi. (2023). MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI . Tadqiqotlar, 12(1), 44–49.
10. Choriyeva .S. Maktabgacha yoshdagi bolalarga STEAM ta’lim texnologiyasi asosida ta’lim-tarbiya berish, “Maktabgacha ta’limda ilg‘or tajriba va zamonaviy yondashuvlar: muammolar va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari 2022-yil 23-sentabr 99-102 betlar .
11. Choriyeva .S. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining boshqaruv faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish, Новостиобразования: Исследованиев XXI веке . № 5 (100) декабрь 2022 г. 380-383 betlar.
12. Choriyeva.S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik jihatdan tarbiyalash asosiy masala sifatida, Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 12-son_1-to‘plam_Aprel -23, 39-43 betlar
13. Choriyeva .S.Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim samaradorligini oshirishning ahamiyati. Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnali.12-son_1-to‘plam_Aprel -23. 50-54 betlar
14.Choriyeva. S.Talabalarni ta’limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish. МУҒАЛЛИМҲӘМУЗЛИКСИЗБИЛИМ. Илимий-методикалықжурнал № 3/2 2023. 80-86 betlar

## OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING ALGORITMLASHGA OID KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA CROCODILE ICT PLATFORMASIDAN FOYDALANISH USULI

**Xamroyev Utkir Namozovich**
**NDPI, Informatika kafedrasi o‘qituvchisi,**
**Husenov Diyorbek Zafarjon o‘g‘li**
**NDPI, Matematika va informatika yo‘nalishi talabasi**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarining algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirishda Crocodile ICT platformasidan foydalanish usuli keltirilgan.
**Kalit so‘zlar:**algoritm, kompetensiya, dasturlash, zamonaviy dasturlar, Crocodile ICT.
**Аннотация.** В данной статье представлены методы использования платформы Crocodile ICT в развитии алгоритмической компетентности студентов высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** Алгоритм, компетентность, программирование, современные программы, CrocodileICT.
**Abstract.** This article presents the method of using the Crocodile ICT platform in the development of algorithmic competence of students of higher educational institutions.
**Key words:** algorithm, competence, programming, modern programs, Crocodile ICT.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining zamonaviy dasturlash tillariga oid malakalarni shakllantirish va rivojlantirish uchun dastlab algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish lozim. Bu borada mamlakatimizda M.R.Fayziyeva, N.A.Otaxonov, U.M.Mirsanov, A.S.Lagoxa, T.N.Lebedeva, I.A.Babushkina, V.V.Popova, S.I.Mamaradjabov, A.E.Kazakova, D.G.Jemchujkikov, O.P.Yurkoves, F.B.Shkarban kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yuqorida qayd etilgan olimlarning tatqiqotlarining tahlilga ko‘ra talabalarning algoritmlashga oid kompetenligini rivojlantirish uchun kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanishi lozim degan xulosaga keldilar. Ushbu amaliy dasturlardan biri bu Yenka dasturi hisoblanadi. Yenka (Yagona ilmiy konstruktor) dasturidan ta’minotidan foydalanib, fan va texnikalarning turli sohalaridagi jarayonlar va hodisalarni modellashtirish uchun muhim pedagogik dasturiy vosita hisoblanadi. Ushbu dasturiy vositaning tarkibiga Crocodile Physics, Crocodile Technology, Crocodile Mathematics, Crocodile Chemistry va Crocodile ICTlar o‘quv jarayonining samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Crocodile Technology dasturi yordamida «Elektr», “Elektrotexnika”, “Sxemotexnika”, “Elektr zanjirlar nazariyasi”kabi fanlaridan qo‘shimcha pedagogik dasturiy vosita sifatida keng foydalanishlari mumkin. Dastur elektron konstruktor bo‘lib, u monitor ekranida elektr tuzilmalarini yig‘ish jarayonini xuddi haqiqiy tajribadagi singari imitatsiya qilish, elektr kattaliklarni multimetrda (uch o‘lchovli), imkoniyatini yaratadi. Dastur yuqori imkoniyatga ega bo‘lib, undan (ya’ni masalalar yechishda) virtual laboratoriya ishlarini bajarishda keng foydalanish mumkin [3].

Crocodile Mathematics dasturi – bu matematik modellarning 3D (uch o‘lchovli) shakllari bilan tajribalarda ishlab, statistika, ehtimollik, geometriya va koordinatalar haqida bilimlarni egallashga yordam beradi. Bu namoyishlarning egiluvchan uskunasi kabi qo‘llaniladi.

Crocodile ICT dasturi – bu nazorat qilish va dasturlashni o‘rgatishga mo‘ljallangan muhim pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Oddiy belgilar sxemani yoki ekrandagi animatsiyalarni boshqaradigan dasturlarni yozish uchun oddiy sxemasi interfeysidan iborat bo‘lib, barcha foydalanuvchi uchun samarali hisoblanadi.

Crocodile ICT dasturi – bu dasturning interfeysi yangi foydalanuvchilarga ekrandagi belgilar va animatsiyalarni boshqarishga imkon beradi. Oddiy sxemalar buyruqlar berish va boshqaruv tartiblarini aniqlash uchun ishlatiladi [5].

Crocodile ICT dasturmuhitidan foydalanish orqali algoritmlash jarayonini talabaga sodda usulda o‘rgatish imkoniyati mavjud. Crocodile ICT dasturi chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi va protsedurali algoritmlarni o‘rganishni kuzatish imkoniyatini beruvchi vosita hisoblanadi. Bu dastur algoritmning blok sxemalarni o‘rganishni kuzatish, tajribalar o‘tkazish va turli murakkablik darajasidagi jarayonlarni modellashtirish imkoniyatini beradi. Ushbu dastur Crocodile ClipsLtd tomonidan 1994-yildan beri takomillashtirilib kelinmoqda.

Obyektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘qitishda juda qo‘l keladigan Crocodile ICT ning oddiy interfeysi va blok-sxemalari yordamida yaratilayotgan dastur orqali har bir buyruqni animatsiya ko‘rinishda tasvirlash asosida turli masalalarni algoritmini vizual shaklda taqdim etish imkonini yaratadi.

Masalan, quyidagi misolning blok-sxemasini tuzamiz.

**Misol**: 1 dan n gacha bo‘lgan sonlarning yig‘indisini hisoblash algoritmining blok-sxemasi tuzish.




**1-rasm. Crocodile ICT dasturida tuzilgan misolning algoritmi.**

Crocodile ICT dasturida kiritilgan misolning algoritm blok-sxemasi natijasini olish uchun Start bosiladi.




**2-rasm. Algoritmdan foydalanish jarayoni.**

2-rasmda Crocodile ICT dasturida tuzilgan 1 dan n gacha bo‘lgan sonlarning yig‘indisini hisoblovchi algoritmning ishlash jarayoni.

Natija:




**3-rasm. Algoritm natijasi.**

Dasturning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: dasturlashning algoritm (blok-sxemalarni) namoyish etish; masalalarni algoritmlashni qadamma-qadam o‘rgatish; masalalarni mustaqil modellashtirishni o‘rgatish.

Bundan tashqari, blok-sxemalarda biror-bir shart bajarilganda odam personajlariga 30 dan ortiq harakat turlarini bajartirish mumkin. Dasturning ushbu imkoniyati talabaning mashg‘ulotlardan zerikishini va e’tibori pasayishining oldini oladi. Bu esa ma’lum ma’noda ta’lim samaradorligiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Yenka dasturi talabaga algoritmlashga oid kompetentligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu dastur orqali algoritmlashni virtual tasvirini talabalarga ko‘rsatish imkoniyatini beradi. Bu esa talabani algoritmlashga oid qiziqishini oshirishga, kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Radjabov B.Sh., Mamajabov R.Ya., Boynazarov I.M. Web-texnologiyalar asosida virtual o‘quv qo‘llanmalar yaratishning dasturiy interfeysi. TATU xabarlari jurnali. 2008 yil 4-son, 101-103 b.
2. Zakirova F.M., Muxamedxanov U., Sharipov Sh. Elektron o‘quv-metodik majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo‘llanma.– T.: OO‘MTV, 2010.-64 b.
3. Begbo‘tayev A. У. Malaka va kasbiy bilimlarni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq etishni takomillashtirish // “Murabbiy mahorati” ilmiy-metodik, ommaviy-ma‘rifiy jurnal, 2016-yil 3-son, T. 11-13 bet.
4. Mavlonov Sh.X., Abdullayev B.B. Ta’lim jarayonida Crocodile ICT dasturidan foydalanish. “Science and education” scientific journal. March 2021, Volume 2 ISSUE 3.
5. http://www.aertia.com/en/productos.asp?pid=333


## OLIY TA’LIM TIZIMIDAGI XALQARO VA MAHALLIY AKADEMIK MOBILLIK VA UNING SIFATLI TA’LIMDAGI MUHIM ISTIQBOLLARI


**Xomidov M.N. Toshkent tibbiyot akademiyasi**
**Toshkent, O‘zbekiston**



**Abstract.** International and regional academic mobility in higher education plays a vital role in promoting cross-cultural exchange, fostering collaboration between institutions, and enhancing the quality of education. This article explores the significance of academic mobility, its prospects in improving educational standards, and the potential benefits for students, faculty, and institutions. Key strategies for maximizing the impact of academic mobility are discussed, along with challenges and recommendations for effective implementation.



**Keywords:** Academic mobility, higher education, quality education, international exchange, regional cooperation, student mobility, faculty exchange.



**Аннотация:** Международная и региональная академическая мобильность в сфере высшего образования играет жизненно важную роль в содействии межкультурному обмену, укреплении сотрудничества между учебными заведениями и повышении качества образования. В данной статье исследуется значение академической мобильности, ее перспективы в совершенствовании образовательных стандартов, а также потенциальные выгоды для студентов, преподавателей и учреждений. Обсуждаются ключевые стратегии максимизации отдачи от академической мобильности, а также проблемы и рекомендации по эффективной реализации.



**Ключевые слова:** академическая мобильность, высшее образование, качественное образование, международный обмен, региональное сотрудничество, студенческая мобильность, профессорско-преподавательский состав.



**Annotatsiya.** Oliy ta’limdagi xalqaro va mintaqaviy akademik mobillik madaniyatlararo almashinuvni rivojlantirish, muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbumaqoladaakademikmobillikningahamiyati, uning ta’lim standartlarini takomillashtirish istiqbollari va talabalar, o‘qituvchilar va muassasalar uchun mumkin bo‘lgan imtiyozlar ko‘rib chiqiladi. Akademik mobillikning ta’sirini maksimal darajada oshirishning asosiy strategiyalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha muammolar va tavsiyalar muhokama qilinadi.



**Kalit so‘zlar:** akademik mobillik, oliy ta’lim, sifatli ta’lim, xalqaro almashinuv, mintaqaviy hamkorlik, talabalar mobilligi, fakultetlar almashinuvi.

**Kirish:** Oliy ta'limning globallashgan dunyosida akademik mobillik sifatli ta'lim, innovatsion yondashuv va madaniy jihatdan bir-birini tushunishning asosiy omili sifatida paydo bo'ldi [4,5,6]. Ushbu maqola oliy ta'lim tizimidagi xalqaro va mintaqaviy akademik mobillikning ahamiyatini o'rganib chiqadi, uning o'quv tajribalarini boyitish, akademik hamkorlikni rivojlantirish va institutsional obro'sini oshirish uchun salmoqli imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

**Materiallar va usullar**: Ushbu tadqiqot mavjud adabiyotlar, amaliy tadqiqotlar, siyosiy hujjatlar va YUNESKO, OECD (The Organization for Economic Cooperation and Development) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Yevropa komissiyasi kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarini har tomonlama ko'rib chiqishga asoslangan. Xalqaro va mintaqaviy mobillikning ta'lim sifatiga ta'sirini baholash uchun universitetlar, talabalar almashinuvi dasturlari va akademik mobillik tashabbuslari ma'lumotlari tahlil qilindi. Akademik mutaxassislar va siyosatchilar bilan suhbatlar akademik harakatchanlikni targ'ib qilishning eng yaxshi amaliyoti va muammolari to'g'risida qimmatli tushunchalarni taqdim etdi.

**Natijalar:** Topilmalar shuni ko'rsatdiki, xalqaro va mintaqaviy akademik harakatchanlik oliy ta'lim uchun juda ko'p foyda keltiradi, shu jumladan turli xil o'qitish usullari, dastur ishtirokchilarini madaniyati va tadqiqot muhitlariga ta'sir qilish singari [2]. Talabalar almashinuvi dasturlari global malakani, til ko'nikmalarini va madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi, fakultet almashinuvi esa bilim almashish va hamkorlikdagi tadqiqot loyihalarini osonlashtiradi [8,9]. Akademik mobillikni birinchi o'ringa qo'yadigan muassasalar ko'pincha institutsional ko'rinishning oshishi, akademik reytinglarning yaxshilanishi va akademik dasturlarning boyitilganligi haqida xabar berishadi [1,3].

**Muhokama:** Xalqaro va mintaqaviy akademik mobillikning oqibatlarini muhokama qilishda uni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan muammolarni hal qilish juda muhimdir. Ushbu muammolarga byurokratik to'siqlar, til cheklovlari, moliyaviy cheklovlar va beriladigan darajalarning yetarli darajada tan olinmasligi kiradi [8]. Bundan tashqari, ta'lim tizimlari va institutsional qoidalardagi tafovutlar uzluksiz akademik mobillikka to'sqinlik qilishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va akademik mobillik uchun qulay muhit yaratish uchun manfaatdor tomonlar, shu jumladan oliy ta'lim muassasalari, hukumatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikdagi harakatlar juda muhimdir.

**Xulosa:** Oliy ta'limda xalqaro va mintaqaviy akademik mobillikning o'zgaruvchan salohiyatini oshirib bo'lmaydi. Hamkorlikni rivojlantirish, xilma-xillikni targ'ib qilish va ta'lim sifatini oshirish orqali akademik mobillik talabalar va o'qituvchilarning yaxlit rivojlanishiga hissa qo'shadi [7,9]. Akademik mobillikning afzalliklaridan to'liq foydalanish uchun muassasalar xalqarolashtirishni birinchi o'ringa qo'yishi, kiruvchi va chiquvchi talabalar va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini taklif qilishi va chet el universitetlari bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatishi kerak [6,8]. Oliy ta'lim globallashgan sharoitda rivojlanishda davom etar ekan, akademik mobillikni qamrab olish sifatli ta'limni ta'minlash va talabalarni raqobatbardosh va o'zaro bog'liq dunyoga tayyorlashning kalitidir.

## References:


1. Knight, J. (2017). Internationalization of Higher Education: A Research Agenda. Cheltenham, UK: Edward Elgar Publishing.
2. European Commission. (2020). Erasmus+ Programme Guide 2020.
3. UNESCO. (2019). Global Education Digest 2019: Comparing Education Statistics across the World. Paris, France: UNESCO Publishing.
4. OECD. (2018). The Future of Education and Skills: Education 2030. Paris, France: OECD Publishing.
5. Altbach, P. G., & De Wit, H. (Eds.). (2017). Internationalization of Higher Education: Global Trends, Regional Perspectives. New York, NY: Routledge.
6. British Council. (2021). Making a success of Strategy for International Education. 7. Marginson, S., & van der Wende, M. (Eds.). (2017). Globalisation and Higher Education. London, UK: Routledge.
8. Varghese, N. V., & Rajasekharan, N. (Eds.). (2019). Higher Education and Globalization: Challenges, Threats, and Opportunities. New Delhi, India: Springer.

9. European Higher Education Area. (2022). Bologna Process Implementation Report.

## RAQAMLI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARI DAVRIDA TA’LIM VA TA’LIM BOSHQARUVI JARAYONLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

**Mohinur Ziyodova Kamol qizi**

**Annotatsiya.** Innovatsion texnologiyalar davrida yashar ekanmiz kundalik hayotimizga jadal ravishda kirib kelayotgan sun’iy intellekt atamasini tez-tez uchratyapmiz. Ijtimoiy sohalarda samaradorlikni oshirish maqsadida faoliyatning ko‘plab tarkibiy qismlari avtomatlashtirilmoqda. Albatta ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish maqsadida aniq maqsadlar belgilab olinganligi va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi buning yaqqol dalilidir. Bugungi kunda strategiyani amalga oshirish doirasida ta’limning har bir qatlamida axborot texnologiyalari ommalashtirilmoqda, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirilmoqda. Ta’lim boshqaruvi jarayonlarida ham samarali samarali va raqamlashtirilgan faoliyat olib borish maqsadida masofaviy, onlayn va virtual o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish, bundan tashqari yagona ta’lim platformasini yaratish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Ushbu islohotlarning zamirida axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari, sun’iy intellekt texnologiyalari haqidagi bilimlar yotadi.

**Kalit so‘zlar:** Sun’iy intellekt, raqamli O‘zbekiston, avtomatlashgan jarayon, raqamli texnologiya, strategiya.

**Абстракт.** Живя в эпоху инновационных технологий, мы часто сталкиваемся с термином искусственный интеллект, который стремительно входит в нашу повседневную жизнь. В целях повышения эффективности в социальной сфере автоматизируются многие составляющие деятельности. Конечно, сфера образования не является исключением. Это является наглядным доказательством того, что в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» Президента Республики Узбекистан № УП-6079 от 05.10.2020 года поставлены конкретные цели, которые поэтапно реализуются. улучшить цифровые навыки в сфере образования. Сегодня в рамках реализации стратегии популяризируются информационные технологии на всех уровнях образования, развиваются навыки использования цифровых технологий. Приоритетом остается развитие технологий дистанционного, онлайн и виртуального обучения с целью проведения эффективной и цифровой деятельности в процессах управления образованием, а также создание единой образовательной платформы. В основе этих реформ лежат навыки использования информационных технологий, знания о технологиях искусственного интеллекта.

**Ключевые слова:** Искусственный интеллект, цифровой Узбекистан, автоматизированный процесс, цифровые технологии, стратегия.

**Abstract.** Living in the era of innovative technologies, we often encounter the term artificial intelligence, which is rapidly entering our daily lives. In order to increase efficiency in the social sphere, many components of activity are being automated. Of course, the sphere of education is no exception. This is a clear proof of the fact that within the framework of the strategy "Digital Uzbekistan - 2030" of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-6079 from 05.10.2020, specific goals have been set and are being realized step-by-step. Today, within the framework of the strategy implementation, information technologies are popularized at all levels of education and skills in the use of digital technologies are developed. The priority remains the development of distance, online and virtual learning technologies in order to carry out effective and digital activities in education management processes, as well as the creation of a unified educational platform. These reforms are based on skills in the use of information technology, knowledge of artificial intelligence technologies.

**Keywords:** Artificial intelligence, digital Uzbekistan, automated process, digital technologies, strategy.

**Kirish.** So‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aniq maqsad va ko‘rsatkichlar belgilab berilgan uzoq muddatli strategiyalar qabul qilinib, izchillik bilan hayotga tatbiq etib kelinmoqda. Shu jumladan, ta’lim sohasining raqamlashtirilishi ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda nafaqat ta’lim – tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar keng qo‘llanilyapti, balki ta’lim boshqaruv jarayoni ham avtomatlashtirilayotgani ta’limdagi bir qancha ko‘zbo‘yamachiliklarni oldini oladi, bundan tashqari o‘qituvchi xodimlarning, o‘quvchi, talabalarning o‘z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashuvini ta’minlaydi. Xorijda eng tez rivojlanayotgan sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim sohasiga joriy qilinishining istiqbollari, yutuqlari o‘rganilib tajriba almashinilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta'lim muassasalarida o‘qitish, boshqaruv va qaror qabul qilishning turli jihatlarini yaxshilash uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda bir qator vazifalar belgilangan. Bular:

- ta’lim pog‘onasining boshlang‘ich bosqichida o‘quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo‘ladigan keng ko‘lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko‘nikmalar berish;
- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o‘qishni tashkil etish;
- qog‘oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish;
- xalqaro yirik korxonalarning markazlari bilan hamkorlikda raqamlashtirish yo‘nalishidagi milliy kadrlar malakasini oshirish mexanizmini tatbiq etish;
- odamlarni hukumat va biznes tomonidan taqdim etiladigan raqamli xizmatlardan foydalanishga chorlash.

Agar sun’iy intellekt texnologiyalari haqida xorijiy professorlarning tadqiqotlariga qaraydigan bo‘lsak, sun’iy intellekt ilmining otasi hisoblangan Toronto universiteti professori Jeffri Hinton sun’iy intellekt haqidagi ma’ruzasida sun’iy zako yaqin kelajakda biologik intellektning o‘rnini to‘laligicha bosa oladi degan pessimistik qarashlariga tayanadigan bo‘lsak, yurtimizda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar davrida barcha yosh qatlamlariga innovatsion texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish, agar zarurat bo‘lganda qat’iy cheklovlar o‘rnatish ham yuzaga keladigan muammolarning oldini oladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim boshqaruvi jarayonlariga tatbiq etish ta’limdagi kamchiliklarni qisqa fursatlarda aniqlash va mahsuldorlikni oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Masalan, pedagoglar faoliyatida sun’iy intellektni o‘quv dasturlarini moslashtirishda foydalanish vaqtni tejash va foydali ish koeffitsientini oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bunda, avvalo pedagogning o‘zi raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. SI algoritmlari kiritilgan o‘quv dasturini tahlil qiladi va maqsadlari, o‘rganish uslublariga mos keladigan resurslar, faoliyat va o‘rganish yo‘llarini tavsiya qiladi, bu yerda pedagogning vazifasi esa o‘quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan resursni tanlab har bir o‘quvchi bilan yagona ta’lim platformasida individual tarzda ishlashdan iborat.

Bundan tashqari ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish uchun ham samarador vosita hisoblanadi. Masalan, kiritilgan aniq algoritmlarga ko‘ra talabalar, o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor shaxslarning fikr, mulohazalarini to‘plash, inson omilisiz tahlil qilish orqali o‘qitish usullarini, o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim siyosatini doimiy baholash, takomillashtirish imkonini beradi.

**Xulosa.** 2022-yil 27-avgustda “Ta'lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro anjumanda ham yuqoridagi ma’lumotlar doirasida fikr almashilgan. SI ta’limda chuqur sifat o‘zgarishini yaratishi mumkin bo‘lgan bir paytda uni amalga oshirish axloqiy, shaffof va tenglik, xilma-xillik va inklyuzivlik qadriyatlariga mos kelishini ta'minlash muhimdir. Buning uchun foydalanuvchilardan eng avvalo strategik rejalashtirish, uzluksiz o‘rganish va proaktiv boshqaruv kombinatsiyasini talab qiladi. Shu bilan birga raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir paytda so‘ngi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish va uning amaliyotlaridan xabardor bo‘lish davr talabidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**
1. https://lex.uz/ru/docs/-5030957#-5032118
2. https://mininnovation.uz/ru/news/post-808
3. Prof. Geoffrey Hinton - "Will digital intelligence replace biological intelligence?" Romanes Lecture, Universuty of Toronto.

## YANGI O‘ZBEKISTON-YANGI IMKONIYATLAR MAMLAKATI

**Yo‘ldosheva Madinabonu,**
**NDPI, Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi**
**Ilmiy rahbar: t.f.f.d.(PhD)D.Ro‘ziyeva**

**Annotasiya**: Ushbu maqolada yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, oliy ta’lim tizimi: bakalavriat va magistratura yo‘nalishi bo‘yicha qabul kvotalarining oshirilishi, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotgan va hayotga tadbiq qilinayotgan islohotlar to‘g‘risida ma'lumot berilgan.
**Kalit so‘zlar:** insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili, 2030-yilga mo‘ljallangan Konsepsiya, kvotalar, Davlat granti, „avval test,so‘ng tanlov“, sertifikat
**Аннотация:** В данной статье представлена информация о широких возможностях, созданных для молодежи, системой высшего образования: повышением квот приема в бакалавриат и магистратуру, реформами, принятыми и реализуемыми Президентом Шавкатом Мирзиёевым.
**Ключевые слова:** внимание к людям и год качественного образования, Концепция до 2030 года, квоты, Государственный грант, «сначала тестирование, потом отбор», сертификат
**Abstract:** This article provides information about the wide opportunities created for young people, the higher education system: the increase of admission quotas for undergraduate and graduate courses, the reforms adopted and implemented by President Shavkat Mirziyoyev.
**Key words:** attention to people and the year of quality education, Concept for 2030, quotas, State grant, «first test, then selection», certificate

**Dolzarbligi:** Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma’rifat va ta’limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Insoniyat fan o‘qi atrofida aylanayotganday go‘yo. Xususan bugungi kunda rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yayotgan davlatlarning asosiy maqsadi ham yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash orqali ta’lim tizimini izchil rivojlantirishdir. Bugun sharqdan ko‘tarilayotgan quyosh yog‘dusidek bong urilayotgan Yangi O‘zbekistonda ham aynan ta’lim sohasida ezgu yangilanishlar,qabul qilinayotgan qarorlar,amaliy va jadal islohotlar dunyo hamjamiyatining e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Yangicha rivojlanish-yangi o‘zgarishlarning boshlanishi, Eskilikni takomillashtirish esa yangilash debochasidir”. Shu maqsadda Shavkat Mirziyoyev Prezidentligining dastlablki yilidayoq ta’lim-tarbiya sohasiga juda katta e’tibor qaratdi. Ta’lim sohasining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oliy ta’lim sohasida dastlablki va keng ko‘lamli islohotlar: oliy ta’limga qabul kvotalarini oshirish, fakultetlar sonini, ta’lim shaklini kengaytirish, professor-o‘qituvchilarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga qaratildi.

O‘zbekiston eng go‘zal va betakror yurt sifatida barchamiz uchun aziz ona Vatanimizdir. O‘zbekistondagi amaliy va jadal islohotlar dunyo hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Ezgu yangilanishlar mamlakati bo‘lgan O‘zbekiston barcha yoshlar uchun faxr va iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi. Bugun Yangi O‘zbekiston hayotning barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar kun sayin ortib bormoqda. Muhtaram Prezedentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”[1]. Jahonning yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi aynan ta’lim sohasiga qaratilgani mamlakatimizni rivojlanishining yangi bosqichiga olib chiqish, yuqori salohiyatli kadrlar avlodini shakllantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy etishga xizmat qiladi. Aynan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida ham 2023-yilni „Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili“ deb e’lon qilinishi taklif sifatida berilib, shu nom bilan yil e’tirof etildi. Bu e’tibor esa ta'lim sohasining yana bir karra rivojlanishiga olib keldi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda [2].O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan xususiy maktablar tizimini yanada takomillashtirish, bitiruvchilarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilda 60-70% yetkazish asosiy vazifa etib belgilandi [3;226].Bu borada, Prezidentimizning 2021-yil 16-iyun oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ham Oliy ta’lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, qamrovni oshirish, institut va universitetlarning moliyaviy holatini yaxshilash, professor-o‘qituvchilarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilib, jumladan, oxirgi 3 yilda oliy ta’lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetganligi, qabul o‘rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshganligi, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanganligi va xorijiy mamlakatlar bilan qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida 64 ta yangi kasb bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilganligi alohida e’tirof sifatida sanab o‘tildi [4].Jumladan, so‘nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta’lim muassasi,17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta’lim muassasining filiali tashkil etildi [5]. So‘nggi 6 yil ichida oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 199 taga yetdi [6].Maktab bitiruvchilarining oliy ta’limga qamrab olish darajasi 2016-yil 9%dan 2020-yil 25%, 2022-yilga kelib esa 38% gacha oshirildi [7]. Natijada Oliy ta’limga bo‘lgan ehtiyoj asosida muassasalari soni, qo‘shimcha mutaxasasislik va ta’lim yo‘nalishlari ko‘paytirildi. So‘nggi 3 yil ichida oliy ta’limda tahsil olish istagi paydo bo‘lgan abituryentlar soni keskin oshdi. 2022-yilga kelib, oliy ta’lim muassasalariga hujjat topshirgan abituryentlar soni 1 mlndan oshdi. Shuningdek, ularning sonidan kelib chiqqan holda qabul kvotalari soni 2,5 barobarga ko‘paytirildi. Xususan, bakalavriat bosqichi uchun kvotalar 58000 tadan 223000 taga, magistratura bosqichi uchun kvotalar 5000 tadan 16000 taga oshirildi[8]. Abituryentlar sonining ko‘payganligi va aholi fikrining inobatga olgan holda 2019-2020 o‘quv yilida 59 ta oliy ta’lim muassasalarida kechki ta’lim shakli joriy qo‘yildi[9]. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha»2018-yil 5-iyun PQ-3775-sonli farmoniga ko‘ra oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun to‘lov-kontrakt miqdorini o‘quv yili davomida teng ulushlarda to‘rtga bo‘lib to‘lash huquqi berildi[10].Jumladan, “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–200-son, 03.07.2023-y.) qabul qilinishi o‘z oldiga ulkan maqsadlarni qo‘ygan har bir talaba-yoshlar shu bilan bir qatordan nufuzli oliygohlarga kirish istagida bo‘lgan abituryentlarni ham xursand qildi. Qonunga ko‘ra, 2023/2024-o‘quv yilidan:

1)Abituriyentlarga “davlat granti” yoki “ta’lim yo‘nalishi” ustuvorliklaridan birini tanlash va tanlagan ustuvorligi bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari ketma-ketligida tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi;

2)Talabaning ta’lim yo‘nalishiga mos startap loyihasi hamda ratsionalizatorlik g‘oyasini bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilish amaliyoti joriy etiladi;

3)Akademik litseylarga o‘quvchilarni qabul qilishda yozma imtihon asosida dastlabki saralash bosqichi bekor qilinadi;

4)Kollej va texnikumlarning ta'lim dasturlariga davlat granti asosidagi qabul koʻrsatkichlari 2 baravarga oshiriladi;
5)Oliy ta'lim muassasalari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq toʻlanadigan qisqa muddatli maqsadli ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil etiladi;
2024/2025-oʻquv yilidan:
1)OTMga kirish imtihonlarini topshirish "avval test, soʻng tanlov" tamoyili asosida tashkil etiladi hamda abituriyentlarga test sinovi natijasida toʻplagan balidan kelib chiqib, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim yoʻnalishi va shaklini tanlash imkoniyati yaratiladi;
2)Umumta'lim fanlaridan xalqaro imtihon natijalari boʻyicha sertifikatlar davlat OTMga qabul qilishda inobatga olinadi;[11]. Bir soʻz bilan aytganda,Yangi Oʻzbekiston-demokratik oʻzgarishlar,keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda.Yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar-mamlakat, jamiyat va butun millat yutugʻidir.

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsam, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizning bugungi kundagi ezgu maqsadimiz: Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimdadir"[12]. Albatta, qaysiki davlat eng avallo yoshlarni qoʻllab quvvatlasa,bilim va yangiliklariga investitsiya kiritsa, texnologiyalar rivojlansa, davlatga yetuk kadrlar tayyorlash malakasi oshirilsa, dars jarayonlari zamonaviy darslikalar asosida yevropa andozasida tashkil etilsa oʻsha davlat bilim sohasida eng yuqori marralarni egallagaydi. Biz yoshlar bu imkoniyat va islohotlardan unumli foydalangan holda davlat rivoji uchun mahkam bel bogʻlamogʻimiz lozim. Oʻz ona tilimizni mukammal bilgan holda, chet tillarini oʻrganishimiz va xorijiy davlatlarda malaka va bilimimizni oshirishimiz bugungi kundagi asosiy va ezgu maqsadimizdir. Chunki bilim va ilmni oʻziga qurol qilib olgan, kelajagi buyuk boʻlgan Oʻzbekiston yoshlarini hech kim va hech qachon yenga olmagan. Zero, Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1.https://xs.uz/uz/post/ta'lim-tizimi-islohotlari-oʻzbekistonda-yangi-uygʻonish-davri-poydevorini-yaratadi.Xalq soʻzi gazetasi
2.ShavkatMirziyoyev.2019.08.10.PF-5847-sonli farmoni. https: //lex.uz/ docs/ 4545884
3.Yangi Oʻzbekiston strategiyasi.Shavkat Mirziyoyev.Toshkent, 2021.
4.https://yuz.uz/uz/news/oliy-talim-tizimidagi-ustuvor-vazifalar-belgilandi.2021-yil16-iyun videoselektr yigʻilishidan.
5.Shavkat Mirziyoyev.2019.08.10.PF-5847-sonli farmoni. https:// lex.uz/ docs/ 4545884
6.Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi yangiliklari.https://t.me/edu.uz
7.Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi.2022.
8.Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligi yangiliklari.https://t.me/edu.uz
9.Shavkat Mirziyoyev.2019.08.10.PF-5847-sonli farmoni. https: //lex.uz/ docs/ 4545884
10.Shavkat Mirziyoyev.2018-yil 5-iyun PQ-3775-sonli farmoni.https: //lex.uz/ ru/docs/- 3765586
11. Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Prezident qarori (PQ–200-son, 03.07.2023-y.)https://lex.uz/uz/docs/-6518515
12. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi.2022.

## ZAMONAVIY DUNYODAGI IJTIMOIY JARAYONLAR VA INTELLEKTUAL YOSHLAR ELITASINI SHAKLLANTIRISHDAGI UYG'UNLIK

Danabekov Azimbek Sametovich
Navoiy Davlat Pedagogika Instituti,
Tarix fakulteti tarix qoʻshimcha davlat huquqi yoʻnalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent Toshturov.Sh.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy dunyodagi ijtimoiy jarayonlar va intellektual yoshlar elitasining shakllanishi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganib, ushbu transformatsion jarayonda uyg'unlik imperativiga e'tibor qaratadi.

**Kalit soʻzlar:** zamonaviy dunyo, uygʻ"unlik, ta'lim, mentorlik, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblik, globallashuv, texnologik taraqqiyot, jamiyat.

**Abstract:** This article explores the complex relationship between social processes in the modern world and the formation of an intellectual youth elite, focusing on the imperative of harmony in this transformational process.

**Key words:** modern world, harmony, education, mentoring, socio-economic disparity, globalization, technological development, society.

